

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**NO`MON RAHIMJONOV
DILRABO QUVVATOVA
NAFOSAT O`ROQOVA**

**ZAMONAVIY DOSTON
XRESTOMATIYASI**

Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun
o`quv qo`llanma



BUXORO – 2021

UDK:

KBK

O'-.....

Oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari, o`rta va o`rta maxsus ta'limning adabiyot darslarida zamonaviy o`zbek adiblari ijodi o`rganiladi. Ular yaratgan asarlar orasida doston janri namunalari alohida o`rin egallaydi. Ushbu o`quv qo`llanma oliy ta'lim fan dasturlariga tayangan holda tuzildi. Unda hozirgi o`quvchi-yoshlar va talabalarga milliy adabiyot, xususan, doston namunalari o`rgatish ko`zda tutilgan.

O`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari hamda o`qituvchilarga mo`ljallangan.

I. Rahimjonov, No`mon

Zamonaviy doston xrestomatiyasi: oliy, umumiy o`rta ta'lim maktabi, akademik litsey o`quvchilari, filolog talabalar hamda o`qituvchilar uchun o`quv qo`llanma. / Rahimjonov N., Quvvatova D., O`roqova N.– T.: ... 2021. – 562 b.

II. Quvvatova, Dilrabo

III. O`roqova, Nafosat

Muharrir

Darmonoy O`rayeva
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Shavkat Hasanov, SamDU professori, filologiya fanlari doktori
Hilola Safarova, BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashi qarori (04.03.2021., №12) bilan nashrga tavsiya etilgan.

ZAMONAVIY O`ZBEK DOSTONCHILIGINING TARAQQIYOT XUSUSIYATLARI (Birinchi maqola)

O`zbek adabiyoti tarixi, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida yuz yildan ortiq vaqt davomida yangi tipdagi poema (doston) mustahkam o`rin tutib kelmoqda. Shu orada mingga yaqin turli xil g`oyaviy-badiiy saviyadagi asarlar e`lon qilindi. Agar, rus va qardosh xalqlar, chet el shoirlarining o`zbek tiliga o`girilgan poemalarini ham qo`shib hisoblaydigan bo`lsak, ushbu ko`rsatkich, balki mingdan oshib ketadi. Ularning orasida xalqimiz hayotining taraqqiyot bosqichlarini ma`lum darajada aks ettirishga erishgan go`zal polotnolar ham, matbuotda e`lon qilingach, o`qib yoki o`qishga ulgurmayoq unutilib ketgan poemalar ham ko`p bo`ladi.

Biroq umumpoemachiligimiz janr tarixida Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni”, G.G`ulomning “Ko`kan”, H.Olimjonning “Zaynab va Omon”, Oybekning “O`ch”, “Baxtigul va Sog`indiq”, “Temirchi Jo`ra”, M.Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, “Toshkentnoma”, Uyg`unning “Jontemir”, S. Jo`raning “Bruno”, U.Nosirning “Naxshon”, “Norbo`ta”, G`ayratiyning “Onamga xat”, “Jinasta”, Mirtemirning “Surat”, Zulfiyaning “Uni Farhod der edilar”, M.Boboyevning “Ona”, A.Muxtorning “Mangulikka daxldor”, Shukrulloning “Chollar”, “Rossiya”, “Ikkinchi qoya”, Mirmuhsinning “Usta G`iyos”, A.Oripovning “Hakim va ajal”, “Jannatga yo`l”, E.Vohidovning “Nido”, “Istanbul fojeasi”, “Ruhlar isyoni”, O.Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, “Beruniy”, “Pahlavon Mahmud”, J.Kamolning “Armon”, A.Eshonovning “Yarador oqqushlar” singari sanoqli asarlari xotiramizda tiklanadi. Bu – mo`ysafid tarix uchun ko`pmi yoki ozlik qiladimi?!

B.G.Belinskiy sa`natning spesifikasini, o`ziga xos taraqqiyot qonunlarini hisobga olgan holda “Poeziyaning xil va turlarga bo`linishi” maqolasida yozadi: “...epik dostonning asosiy shartlaridan biri uning xalqchilligidir: shoirning o`zi ham voqeaga o`z xalqining ko`zlari bilan qaraydi, voqeadan o`z shaxsini ayirmaydi”¹. Shu bilan barobar, u yuksak milliy va badiiy xususiyatlar kasb etishi uchun umumbashariy ahamiyatga molik mazmunga ham ega bo`lishi kerak, deya ta`kidlaydi.

B.G.Belinskiy u yoki bu janr tarixini xalq hayoti hamda voqelik tarixi bilan yaxlitlikda oladi va o`rganadi. Ana shu prinsip asosida poemachiligimiz tarixini ko`zdan kechirsak, shu orada kechgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar (Ikkinchi jahon urushi, kosmosning o`zlashtirilishi, tinchlik uchun kurash, qayta qurish, oshkoralik va demokratiya va h. k.) jamiyat taraqqiyotida, xalqimiz hayotida burilish nuqtalari bo`lganidan voqif topamiz.

Ko`rinadiki, xalqning kechmishi jahon ahamiyatiga molik ijtimoiy zilzilalarga g`oyat boy. Hamma gap sa`natkorlarning badiiy mahoratiga bog`liqmi? Yoxud

¹Белинский Б.Г. Танланган асарлар. Тошкент, 1995. – Б.172.

Gomer “Iliada”, “Odisseyaya” asarlarini Troya urushidan keyin oradan bir necha yuz yillar o'tgach yaratganidek, xalqimiz hayotidagi tengi yo'q voqea-hodisalar mohiyatni, ahamiyatini badiiy idrok etish uchun uzoq fursat o'tishi kerakmi?! Har qalay, yillar oqar suv misoli o'tib boryapti. Liro-epik poemaning rang-barang janr ko'rinishlari (tarixiy poema, dramatik poema, romantik poema, falsafiy poema, poema-xronika, ocherk-poema, masal-poema, poema-reportaj, ertak poema va h.k.) vujudga kelyapti. She'riyat tarixchilari oldida bir qator vazifalar ko'ndalang bo'lyapti. Xususan, poema turlari (lirik, liro-epik, epik) tabiatida vujudga kelgan xilma-xil janr ko'rinishlarning tipologik belgilarini, spesifik xususiyatlarini, badiiy izlanishlarni o'rganish va umumlashtirish, shu asosda, o'zbek poemachiligining tarixi va nazariyasini yaratishdir. Bu esa, o'z navbatida, yangi tipdagi poema spesifikasini egallash yo'lidagi izlanishlarni, uning shahkllanishi va taraqqiyot bosqichlaridagi yetakchi xususiyatlarini, obrazlari sistemasidagi yangi qahramon muammosini, hozirgi jarayondagi janr va uslubiy izlanishlarni, poetik mahorat, janr poetikasi, poemaga xos va mos badiiy tafakkurning tarixiylik prinsipini, klassik dostonchiligimiz an'analarini, vorisiylik va novatorlikning xarakterini va h.k qator masalalarni oydinlashtirish taqozo etiladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” dostonlaridan boshlab Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l” asarigacha o'zbek poemasi ming yillik taraqqiyot tarixiga ega. Sidqiy Xondayliqiyning “Rusiya inqilobi” (1917 y.) asari bilan Erkin Vohidovning “Istanbul fojeasi” (1977 y.) poemasi orasida ham yetmish yillik davr bor; tinimsiz izlash-izlanishlar, yutuq va kamchiliklar, bir so'z bilan aytganda, o'zbek sovet poemachilik maktabi bor, badiiy tajribalar bor. Ming yillik klassik dostonchiligimiz tarixida, salkam yuz yillik sovet davri poemachiligimiz taraqqiyotida, poema ham shakl, ham mazmun jihatidan keskin sifat o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Poemaning janr xususiyatlari, sujet va kompozitsion tuzilishi, konflikti, qahramon xarakterini yaratishdagi estetik prinsiplari qanchalik o'zgarishlarga uchramasin, asl mohiyatini saqlab qoladi. Poemadagi hayot prozasi “... jonli, qanotli, nurli, nazmga yedirilgan...” (B.G. Belinskiy) bo'ladi. Bu – shaxsning tabiat va jamiyat bilan bog'liq aloqalarini obrazli, ko'tarinki va keng ko'lamda badiiy idrok etish demakdir; u – shoirning g'oyaviy-badiiy maqsadiga ko'ra olam va odam taqdirining mazmunli shaklda zuhur topishi demakdir; bunda qahramonlarning o'ziga xos fe'l-atvori, nutqi-fikrlash tarzi keng tarmoqli voqelikning keskin ziddiyatli jarayonlarida kechadi; bularning bari shaxs hayoti bilan voqelikning yorqin kolliziyali damlarini yoritishga xizmat qiladi.

Xo'sh, poemaning kelajagi tog'risida nima deyish mumkin? U qaysi yo'nalishda rivojlanyapti? Poemaning janr ko'rinishlari bir-biridan keskin ajralib ketayaptimi yoki adabiy tur va janrlarning muhim badiiy alomatlarini o'z tabiatiga singdirishi, diffuziyalanish hodisasi hal qiluvchi ahamiyatga egami? XX asrning birinchi yarmi poemachiligi tabiatida kechayotgan sintez hodisasi yangi janr sistemasi vujudga kelganidan dalolat beradimi? Yoxud ko'plab janr ko'rinishlarining paydo bo'layotganligi poemaning “parchalanib” ketayotganligini

ko'rsatadimi? Shu singari qator masalalar poemashunoslardan qat'iy javob kutmoqda.

She'riy janrlar tasnifidagi terminologik chalkashliklarni ham bartaraf etish, poema tarixidagi taraqqiyot yo'nalishlari, janr ko'rinishlarini o'rganish, shu asosda janr sistemasini yaratish vaqti yetdi, albatta. Zero, epopeya xarakteridagi Gomerning "Iliada", "Odissey", Firdavsiyning "Shohnoma", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", she'riy roman tipidagi Lukresiyning "Ashyolar tabiati haqida", Dantening "Ilohiy komediya", Bayronning "Don Juan", N.Hikmatning "Insoniyat manzaralari", Pushkinning "Yevgeniy Onegin"², Nekrasovning "Rusiyada kim yaxshi yashaydi?", A.Tvardovskiyning "Vasiliy Tyorkin" va h.k laridan tortib monolog tipidagi P.Antokolskiyning "O'g'il", H.Sharipovning "Quyoshga oshiqman", E.Vohidovning "Nido", A.Eshonovning "Yarador oqqushlar" asarlarigacha "poema" deb yuritib kelinadi.

Hamma gap, "yostiqdek" katta hajmli, bulbulning qulog'idek mitti asarlar ham umumiy bir nom bilan atalishida emas, bu yerda boshqa masala bor. Xususan, xalq hayoti va turli xil ijtimoiy voqeliklar taqozosi bilan yuzaga kelgan epik polotnolarning yo'nalishini, poema turlari hamda janr ko'rinishlarining tipologik belgilarini ko'rsatish, umumlashtirish zarurati tug'ilyapti. Bu nafaqat o'zbek, balki butunittifoq adabiyoti ilmida janrlar terminologiyasi va tipologiyasi masalalariga e'tiborsizlik oqibatidir; she'riy janrlar ta'rifidagi nazariy mezonlardan konkretlikka o'tmaslik, tiniqlikka, umumiy bir estetik yaxlitlikka erisha olmaganlik natijasidir. Bular, o'z navbatida, janr tarixi va nazariyasini yaratishda g'oyat muhim.

Biz, ushbu masalalarni hal etib berishdek katta vazifaga da'vo qilayotganimiz yo'q. Bu bir necha avlod adabiyotshunoslarining ilmiy-nazariy tayyorgarligini, intilishi va ishtiyoqini mujassamlashtirishni talab qiladi. Mazkur izlanish esa dolzarb masalalarni oydinlashtirish yo'llarini topishga intilishdir. Chunonchi, yangi tipdagi liro-epik poemaning shakllanish jarayonidagi муаммолари va mavzulariga, xarakteriga, voqelik taqozosiga ko'ra kasb etgan xususiyatlarni, janr tabiatidagi sifat o'zgarishlarini, evolyutsiyasini kuzatishga harakat qildik; yuzaga kelgan yangi janr-ko'rinishlarining tipologik belgilarini, rivojlanish bosqichlarida kasb etgan alomatlarini xalq hayoti, she'riyat kamoloti bilan uyg'unlikda kuzatishga alohida e'tibor berildi.

“POEMA” TERMINI VA JANR TA'RIFI XUSUSIDA

Ma'lumki, har bir tadqiqot "masala tarixi"ni o'rganishdan, salaflarining ushbu yo'nalishda aytgan so'zlariga munosabat bildirishdan boshlanadi. Avvalo, "poema" termini va uning lug'aviy ma'nosiga qisqacha to'xtalib olsak. "Doston" so'zi asli forschaga; u "1) makr, firib, tazzir, hiyla, nayrang; 2) nag'ma, lahn, navo, maqom; 3) afsona, qissa, doston; 4) Rustamning otasi Zolning laqabi"³ ma'no

²Pushkinning "Yevgeniy Onegin"i ham lirik dostonlar qatoriga kirishi kerak" – deb yozgan edi B.G.Belinskiy.

³Фарҳанги забони тоҷики (йборат аз ду ҷилд) Ҷ. И., М. 1969. – С. 350; Гафаров М.А. Персидско-русский словарь. В 2 томах. Т. II. М., 1976. – С. 337 (М.А.Гафаров tuzgan lug'atida "doston" so'zining "Farhang..." da

qirralariga ega. Shuningdek bir qator lug'atlarda u ta'rif, shuhrat, sarguzasht, yangilik, voqea-hodisa, sehrarning ismi, Samarqanddagi shaharning nomini ham anglatadi, deya izohlanadi⁴. Ko'rinadiki, ushbu so'z g'oyat serqirra va ko'p ma'noli. Yana bir ko'p lug'atlarni ko'zdan kechirsak, u adabiy termin sifatida ham ifodalanishi ravshan bo'ladi. Xususan, o'zbek klassikasida yozma adabiyotga hamda xalq og'zaki ijodiga mansub epik asarlar doston termini bilan yuritilgan. "Epik poeziya o'zbek va qardosh xalqlar adabiyoti tarixida turli terminlar bilan ifodalanib kelgan bo'lsa-da, ammo ulardan doston va masnaviyalar poema ma'nosida XI asrlardan so'ng keng qo'llanilgan"⁵.

Nazarimda, har qanday janrning xarakterli xususiyatlarini belgilashda hayot materialining taqozosi bilan yuzaga kelgan badiiy tafakkur tabiati, fikrlash madaniyati hal qiluvchi o'rin tutadi (Intellektual hamda tuyg'ular jamg'armasining mohiyati uning asosini tashkil etadi). Ana shu poemabop tafakkur ko'lami hayot materialini tanlashda, qay yo'sindan yondashish va badiiy tadqiq etishda, eng muhimi, ularda chiqariladigan ijtimoiy-falsafiy yoxud ma'naviy-axloqiy umumlashmalar miqyosida hal qiluvchi o'rin tutadi. N.Shukurov va Sh.Xolmatov poemani doston kichikroq she'riy asar, deya ta'riflar ekan, bunda hayot materialini qamrab olish doirasi bilan voqea-hodisalarni badiiy o'zlashtirish prinsiplarini chalkashtirib, chog'ishtirib yuborishgan. "Poemada voqealar ramkasi dostonga nisbatan tor bo'ladi"⁶, deyishlari ham ana shu cheklanish belgisi. Jahon poemachiligi tarixidagi Dantening "Ilohiy komediya", Bayronning "Don Juan", N.Hikmatning "Insoniyat manzaralari", Nekrasovning "Rossiyada kim yaxshi yashaydi?", A.Tvardovskiyning "Vasiliy Tyorkin", "Olis-olislarda", V.Lugovskoyning "Asr chorrahasida" singari asarlari Sharq dostonchilik maktabining qaysi mumtoz namunalari hajmidan kichikroq? Yoxud uzoqqa bormasdan, bugungi adabiy jarayon materialiga murojaat etadigan bo'lsak, E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", "Istanbul fojeasi" yoki A.Oripovning "Jannatga yo'l", O.Matjonning "Pahlavon Mahmud", "Beruniy" poemalarining qaysi birida voqealar torroq qamrab olingan, deb bo'ladi. Ko'rinadiki, asar hajmining katta-kichikligi janrning muhim xususiyatlaridan biri, asosiy belgisi bo'lolmas ekan.

Ba'zan shunday mulohazalar ham uchrab turadi, xususan, o'zbek klassikasidagi yozma adabiyotga hamda xalq og'zaki ijodiga mansub epik asarlar "doston", sovet davridagi epik janr namunalari esa "poema" deb yuritilsa, degan qarashlar bor. Lekin bu fikrlarga qo'shilish qiyin. Garchand, bugungi kunda lirik-epik janrdagi asarlar ham "doston", ham "poema" ifodalari bilan yuritilib kelayotgan, har ikki termin zimmasiga yuklangan badiiy-estetik vazifa bir xil ma'noda anglashilayotgan bo'lsa-da, ularning har biri klassik adabiyotimizdagi epik janrlar (masnaviy, noma, qissa, va h. k.) an'anasi bilan asoslanishini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Klassik she'riyatimiz hamda Yevropa poemachiligi poetikasining ta'sirini ham hisobga olishimiz zarur. Shu

ko'rsatilgan ma'nolarini ta'kidlagan holda adabiy termin sifatidagi "tarix, hikoya, afsona, rivoyat, ertak" singari belgilarini uqtirib o'tadi; keng ifoda ko'lamini ta'kidlaydi).

⁴Польный персидско-русский словарь. Ягелло. Ташкент, 1910. – С. 618. 643.

⁵Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Тошкент, 1974. –Б.27.

⁶Шукуров Н., Холматов Ш. Адабиётшуносликка кириш. Самарқанд, 1974. –Б.162.

ma'noda, birgina salkam yuz yillik poemachiligimiz tarixida "poema" terminining evolyutsiyasi, kasb etib kelgan ma'no qirralari va ko'lami, adabiyotshunosligimizda keng yoyilgan she'riyat terminologiyasidagi chalkashliklarning o'zi alohida masala.

To'g'ri, "doston" va "poema" terminlari ko'p ma'noli va serqirra. Lekin, bu demak, ularni istagancha ta'rif-tavsif qilaverish mumkin ekan-da, degan so'z emas. Adabiyotshunoslik ham qa'tiy yo'nalishga va konkret o'rganish obyektiga ega bo'lgan fan; u yoki bu terminning obyektiv ahamiyatini chetlab subyektiv talqin qilishini ko'tarmaydi. Zero, har qanday fan ham mohiyatan aniqlik va konkretlikka intiladi. Adabiyot rivojining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan, ana shu jarayondagi xarakterli belgilari, har bir adabiy termin kasb etib borgan yangi ma'no qirralari ham tarixan obyektiv talqin etilishi darkor.

"Adabiyot ensiklopediyasi"da esa "doston – nazm (masnaviy) yoki nasr bilan aytilgan katta hikoya, doston, ertak, sarguzasht, tarix"⁷ deya izohlanadi. Ko'rinadiki, doston ko'plab adabiy tur va janrlarning badiiy komponentlarini o'zida mujassamlashtirgan qorishiq janr. Uning tabiatini xarakterlashda she'riy qissa⁸, she'riy hikoya yoki rivoyat bilan kifoyalanish – ushbu terminning ma'no va ifoda qirralarini cheklashdan tashqari, janr xususiyatlarini ko'rsatishda bir yoqlamalikni ham vujudga keltiradi.

Xususan, shu o'rinda birgina Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" poemasini olib ko'raylik. Uning mundariyasi qalam sohibi Yigitning dunyodagi boshidan kechirgan voqealarni hikoya qilib berishdan iborat emas; afsonaviy jannat bilan bog'liq qiziqarli syujet tarmoqlari o'quvchini rom etadi, albatta. Yigitning jannatga tushish uchun Ota va Ona bilan suhbatlari, do'zax darvozasi oldidagi o'spirin va qariyaning yoqalashuvi, so'roq, qiyomat va h. k. lar asar syujetining qiziqarliligini ta'minlasa-da, shu hikoya orqali bugungi hayotimizdagi yuzsizlik, tubanlik, axloqsizlik, "Hayotning ancha keng va tugallangan manzarasi, kishilarning ancha murakkab munosabatlari va kechinmalari ma'lum darajada obyektivlik bilan tasvirlanadi"⁹. Asar syujeti bilan bog'liq hayot material alohida janr sistemasida taqdim etilayotir. Bunda lirik chekinishlar, qahramonning monologi va dialoglari, voqealarning obyektiv tasviridagi manzaralar, hikoya ichidagi kichik-kichik hikoyalar – barchasi birikib epik yaxlitlikni tashkil etadi. Ana shu estetik butunlikni ta'minlab turgan narsa esa, avvalo, shoirning falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan ko'lamdor tafakkur tabiatidir. Demak, birgina voqeani hikoya qilib berishning o'zigina poema janri spesifikasini belgilashda yetarli emas ekan, u janr tabiatini xarakterlovchi bir komponent sifatida xizmat qilmoqda.

"Poema – alohida bir muallifga mansub ko'p qismli katta she'riy asar"¹⁰, – deyilsa, boshqa bir manbada "Poema – epik yoki lirik xarakterdagi ko'p qismli she'riy asar"¹¹, – deya ta'riflanadi. Ko'rinadiki, poemaga berilayotgan ta'riflarda

⁷ Краткая литературная энциклопедия. Т. И. М. 1964, с. 530; Квятковский А. Поэтический словарь, М., 1966, – С. 96; Навоий асарлари луғати. –Б.199.

⁸ Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т., 1967. –Б.55.

⁹ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. –Тошкент, Ўқитувчи, 2005. –Б. 257.

¹⁰ Краткая литературная энциклопедия. –Т. 5, М., 1968. –С. 934.

¹¹ Квятковский А. Поэтический словарь. –М, 1966. –С. 221.

bir xillik ham, mohiyatan bir-biridan keskin ajralib turuvchi farqlar ham yo'q. Bu narsani ikki jihatdan izohlash mumkin. Birinchidan, poema qanchalik uzoq tarixga ega bo'lsa, asrlar osha uning shakli va mundarijasi ham shunchalik ko'p o'zgarishlarga uchrab keldi. Konkret misollarga murojaat etaylik. Birgina 20-yillar poemachiligi (Botuning "Sinflar kurashi", "Tog' qizi", "Birinchi xat", Shokir Sulaymonning "Ichkari kuladi", "Yangi saroy", "Davr hayqirig'i yoki paxta poemasi" va h.k) bilan keyingi yillar epik janr namunalariga ("Surat", "Toshkentnoma", "Hakim va ajal", "Istanbul fojeasi", "Dol qoya") qiyosan nazar tashlasak, ularning syujet-kompozision tuzilishida, qahramonlari tabiati va tasvir prinsiplarida, uslubida, til xususiyatlarida anchagina farqlar borligi yaqqol ko'rinadi. Lekin ajablanarlisi shundaki, nazariy adabiyotlardagi ta'riflarda janr tabiatidagi mazkur o'zgarishlar, xarakterli belgilar, negadir o'z ifodasini topmaydi. Buning o'rniga yirik nufuzli shaxslarning fikrlarini u yoki bu yo'sinda, xiyol o'zgartirgan holda kitobdan kitobga o'tkazib keldik. Bu ahvolda nazariy tafakkur qanday qilib ham rivojlansin. Poema ichki tuzilishining nechoqlik boyiganligini, avvalo xilma-xil janr ko'rinishlari tasdiqlaydi.

Shunday esa-da, u o'zining asl tabiatni – lirik, epik va dramatik tasvir uyg'unligidan vujudga kelishini – uch asosning mevasi ekanligini aslo yo'qotmaydi. Ikkinchidan, nafaqat o'zbek adabiyotshunosligida, balki Butunittifoq adabiyot ilmida ham poemaning janr tarixi va nazariyasi yaratilmaganligi boisidan yuqorida kuzatilgan turli xil nuqtai nazarlar yuzaga kelaveradi, shekilli. Ushbu masalaning boshqa tomoni ham bor. Ma'lumki, xalq hayotining ijtimoiy mohiyati poema janrining taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib keldi. Bu narsa, o'z navbatida, poema janrining rivojlanish bosqichlaridagi mavzu va муаммолар ko'lamini belgilab keldi. Ushbu jarayonda poema janri yangi alomatlar kasb etib, boyib bordi. Shu boisdan ham poemaga berilayotgan ta'riflarda, janr xususiyatlarini ko'rsatishda uning rivojlanish bosqichlaridagi qonuniyatlar bilan bog'liq kasb etgan yangi belgilar aks etishi lozim.

Poema janrining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida nazariyachilarning turfa ta'riflariga duch kelamiz. Lekin badiiy tasvir prinsiplaridan kelib chiqqan holda janrning spetsifik belgilarini ochib beruvchi eng mukammal va muxtasar ta'rif B.G.Belinskiyga mansub "Hozirgi she'riyatda eposning alohida bir turi bor – deb yozadi. U hayot prozasiga yo'l qo'ymaydi, faqat hayotning shoirona ideal holatlarini qamrab oladi; hozirgi insoniyatning teran dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy masalalari uning mundarijasini tashkil qiladi. Eposning yolg'iz ana shu turi o'zida "poema" nomini saqlab keladi¹²". B.G.Belinskiy ushbu nuqtai nazarini Bayron va Pushkin poemalariga bag'ishlagan tadqiqotida yanada chuqurlashtiradi va konkretlashtiradi. "Roman, povest va poema o'rtasida katta farq bor – deydi u. Poema ideal voqelikni suratlantiradi va hayotning oliy daqiqalarini tutib qoladi. Bayron poemalari va ular samarasida tug'ilgan Pushkin poemalari shunday. Roman va povest esa aksincha, nasr bilan yoki nazm bilan yozilishidan qati'y

¹²Белинский Б.Г. Полн. собр. соч. Т. 6. М, 1955. – С. 415.

nazar, hayotni barcha prozaik ko'rinishlarida tasvirlaydi¹³". Demak xalq hayoti va jamiyat taraqqiyotining eng muhim, "ideal holatlari"ni tanlash, tadqiq etishdek bosh alomati poemaning barcha davrlarda yaratilgan badiiy barkamol namunalari uchun xos xususiyatdir.

Demak, yuqoridagi mulohazalardan ravshan bo'lyaptiki, poemaning janr tabiatini, spetsifik belgilarini lirik, epik va dramatik tasvirning o'ziga xos badiiy sintezi tashkil etadi; ulardan qaysi birining asarda tashigan g'oyaviy-badiiy vazifasi salmoqli bo'lsa, poemaning lirik, liro-epik yoki dramatik janr ko'rinishlarini, xususiyatlarini belgilab berarkan. Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtab o'tish joiz. Rus va Yevropa badiiy tajribasidagi "poema" termini 20-yillardan e'tiboran adabiy jarayonda qo'llanila boshladi. Bugungi kunda ham liro-epik janrdagi asarlar "doston", "poema" terminlari bilan atalib kelyapti; shoirlarning har ikki termin zimmasiga yuklagan badiiy-estetik vazifasi bir xil ma'noda, deyish mumkin.

Keyingi yillarda nasriy, sahna, kino hamda tasviriy sa'nat asarlari ham "doston" termini bilan yuritila boshlandi. Bu kecha yoki bugungi adabiy hayotda yuzaga kelgan hodisa emas; ham klassiklar, ham bugungi adabiy tajribadan ko'plab misollar topish mumkin. Xususan, Gogol "O'lik jonlar" asarini poemaga nisbat beradi. A.Muxtor "Davr mening taqdirimda" romanini uch fasl dostoni, deb aytadi. H.Nazirning "Suv gadosi oqqadar – dengizni boshlab qaytdi" povesti ham "suv dostoni" deb, nomlanadi. Lekin bu nasriy roman va povestlar janr xususiyatlarini yo'qotdi, degan gap emas. Bu hol, nazarimizda, nasriy asarlar poetik unsurlarni o'z tabiatiga singdirgan holda, boyib borayotganligidan dalolat beradi.

Vaholanki, poema o'zbek adabiyotining eng qadimiy va qadrdon janri. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan Alisher Navoiyning "Xamsa"sigacha kirgan besh dostonigacha jahon badiiyatini boyitgan obidalarimiz poema janrida yozilganini eslasak, o'zbek poemachiligi nihoyatda boy va teran an'analarga ega ekanligi ravshan bo'ladi. Klassik hamda xalq og'zaki ijodi dostonchiligi badiiy-estetik tajribalarini, hayotbaxsh an'alarini (poema poetikasi – lirik qahramon, til, sujet va kompozitsiyasi, konflikt tabiati, qahramon xarakterini yaratish, hayot materialini tanlash, yondashish va yoritish mayllaridagi vorisiylik, klassiklarimiz estetik prinsiplarini) davom ettirayotganini o'rganish poemashunoslikning muhim vazifalaridan.

Keyingi yillar poemachiligimizda epik tasvir imkoniyatlarining kengayishi, kuchayishi alohida tendensiya sifatida zuhur topdi. Shu boisdan, poemachilikning kelgusi rivojlanish yo'llarini epik tasvirga qurilgan polotnlar belgilab beradi, degan fikrlar ham eshitila boshladi.

Ma'lumki, hayot materialini badiiy o'zlashtirish taqozosiga ko'ra, epik tasvir har bir asarda yangicha yo'sinda ko'zga tashlandi. Bu esa, o'z navbatida, poema janrining ichki tuzilishiga yangi sifat o'zgarishlari olib kiradi, demakdir. Xususan, epik tasvir unsurlari o'zining avvalgi, ya'ni voqelikni tavsifiy yo'sinda aks ettirish vazifasini yo'qotib boryapti; uning o'rniga epiklik lirizm bilan yo'g'rilgan holda

¹³ Белинский Б.Г. Полн. собр. соч. Т. 6. М., 1955. – С. 316

namoyon bo'layotir. Epiklik – badiiy tafakkur madaniyatida, g'oyaviy-badiiy umumlashma xulosalarning ko'lamdorligida aks etmoqda. Ijtimoiy voqelikdagi o'zgarishlar, hayot materialini badiiy idrok etish taqozosiga ko'ra, poemada goh lirik, goh epik, goh dramatik tasvir alomatlari yetakchilik qiladi. Ularning namoyon bo'lishidagi o'ziga xos belgilariga, ko'rinishlariga asoslanib mustaqil poetik hodisa sifatida kuzatilgani ma'qul.

20-yillarda Sidqiy Xodayliqiy, Fitrat, M.Royiq, Botu, Shokir Sulaymon, H.Olimjon va boshqa shoirlar yaratgan poemalar qahramon xarakterining yaratilish prinsiplari, sujet va kompozitsion qurulishi, til xususiyatlari, tafakkur madaniyatiga ko'ra klassik dostonchiligimizdan farq qilgan yangi tipdagi asarning dastlabki namunalari edi. 20-yillar tongi poemachiligimiz janr tarixidagi mazkur xususiyatlar – badiiy tasvir prinsiplari keyingi bosqichlarda yetakchilik qila boshladi. Uning samarasi o'laroq, 30-yillar poemachiligida xalq ommasining qiziqishlarini, voqelikka munosabati va intilishlarini, umuman, xalq psixologiyasini yaratishda muhim o'rin tutdi.

Dostonchilikning 50-yillar oxiri va 60-yillari, ayniqsa, monolog tipidagi poemalar fasli bo'ldi (M.Shayxzodaning “Toshkentnoma”, Mirtemirning “Surat”, Shukrulloning “26 Tongotar”, E.Vohidovning “Nido”, H.Sharipovning “Quyoshga oshiqman”, J.Jabborovning “Ona yer qo'shig'i”, A.Abdurazzoqning “Yo'llar” va h. k.). Eng muhimi, poema tarixini belgilovchi ajoyib namunalari maydonga keldi.

Demak, doston janri tabiatidagi yangiliklardan biri – inson bilan ijtimoiy voqelikni dialektik birlikda tadqiq etish, o'rganish va ko'rsatish tendensiyasi ilk bor ko'z ochdi. Agar e'tibor bersak, “Birinchi xat”, “Davr hayqirig'i”, “Komsomol keladi” singari poemalarda xitob, da'vat alomatlari ustunlik qilardi; keyinchalik esa, ya'ni 30-yillarga kelgach, bu narsa bevosita inqilobiy voqelik jarayonlari tahlilga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Ikkinchidan, 20-yillar poemachiligidagi izlanishlarda lirik, epik hamda dramatik tasvir uyg'unligiga erishishga intilish ko'zga tashlanadi. Lirik va dramatik tasvirning badiiy sintezida ko'rkam namunalar (“Shaytonning tangriga isyoni”) yaratildi. Rus va Yevropa poemachiligi badiiy tajribalarini o'rgangan, Sharq dostonchiligi hamda barmoq sistemasiga asoslangan xalq og'zaki ijodidagi epik janr an'analari o'zlashtirilgan holda yangi tipdagi poemalar yaratilishida 20-yillardagi badiiy izlanishlar alohida bosqich vazifasini o'tadi. Sidqiy Xodayliqiy, Fitrat, Botu, Shokir Sulaymon va boshqalarning poemalarida kuzatilganidek, klassik va xalq dostonlaridagi janr belgilari saqlangan holda liro-epik tasvir janr tadrijida bosh mavqe egalladi.

Uchinchidan, 20-yillar poemachiligi janr izlanishlaridagi yana bir muhim fazilatni aytib o'tish joiz. Shaxsning yangi voqelikka, jamiyatga, mehnatga munosabatini badiiy o'rganish jarayonida yangi inson shaxsiyatining shakllanishini ko'rsatish ham poemachiligimiz diqqat markazida bo'ldi. Bu narsa gumanizm prinsiplarining ildiz otishini badiiy tarzda ko'rish va ko'rsatishda muhim o'rin tutadi.

To'rtinchidan, ushbu davr poemachiligimiz (shu jumladan, lirikada ham) tilida, badiiy uslubda klassik dostonchilikdan o'tgan tantanavorlik, jimjimadorlik,

ta'rif-tavsiflash anchagina saqlangan holda asosan realistik ifoda bosh kuchga aylana bordi. Poemalar tilning лексик таркибига, stilistik qurilishiga konkret hayotiy mazmun, real tushunchalar ifodasi kirib keldi. Bu hol poemachiligimiz kelgusi taraqqiyot bosqichlaridagi realistik tasvir prinsiplarining chuqurlashuvida, imkoniyatlarining keng namoyon bo'lishida xizmati katta bo'ldi.

Yangi tipdagi liro-epik poemaning shakllanishi va taraqqiyot tendensiyalarini, estetik rang-barangligini, g'oyaviy-badiiy jihatdan boyish jarayonini o'rganish, yetakchi yo'nalishlarini muayyan masalalar atrofida umumlashtirishga intilish asosiy muddaomizdir. 30-yillarda Oybekning "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra", "O'ch", G'.G'ulomning "Ko'kan", H.Olimjonning "Zaynab va Omon", Uyg'unning "Jontemir", G'ayratiyning "Onamga xat", "Jinasta", U.Nosirning "Norbo'ta", "Naxshon", S.Jo'raning "Bruno", H.Po'latning "Qobil", "Mehribonlar", "Jangovor", M.Shayxzodaning "Tuproq va Haq", Mirtemirning "Nomus", "Ajdar" singari mavzuci va муаммоларига кўра g'oyat rang-barang asarlari maydonga keldi. Son va sifat jihatdan keskin ko'tarilish taraqqiyot su'rati, avvalo, xalqimizning ongidagi, ma'naviy-madaniy hayotidagi o'zgarishlar bilan, hayotda yuz berayotgan voqealar mazmuni bilan xarakterlanadi. Shuningdek, liro-epik poemaning shakllanishi va qaror topishida klassik adabiyotimiz tarixidagi hamda xalq og'zaki ijodidagi dostonchilik tajribalari, rus va Yevropa poemachiligining ta'siri hamda, eng muhimi, yangi voqelik, kishilarining yangicha fikrlash tarzi, she'riyatimizdagi yangicha badiiy tafakkur tabiati – ana shu besh omil liro-epik poemaning yangi shakl va mazmun kasb etgan holda maydonga kelishini ta'minladi.

Yevropa tipdagi liro-epik janrning shakllanishida rus va qardosh xalqlar, chet el adabiyoti poemachiligi badiiy tajribalarining ahamiyati katta bo'ldi (Pushkinning "Yevginiy Onegin", "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon", "Msiri", Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", Oybek tarjimasidagi "Sosunli Dovud" va "Iliada"dan parchalar va h. k., ayni shu davrda amalga oshirildi, e'lon qilindi). Xususan, rus va Yevropa poemachiligining janr-uslubiy xususiyatlari chuqur o'rganib va o'zlashtirib (tili, syujet va kompozitsiyasi, obrazlar sistemasi kabi) borildi. Bunda ayniqsa, o'zbek tiliga qilingan tarjimalar badiiy mahorat, tajriba maktabi rolini o'tadi.

30-yillar poemachiligida mamlakatimiz hayoti va taqdiridagi muhim ijtimoiy madaniy voqealarni aks ettirish, shaxs psixologiyasidagi o'zgarishlarni ifodalash va shu asosda xalq obrazini gavdalantirish тамоийли етакчилик қилди.

20-yillar poemalarining aksariyatida ("Shaytonning tangriga isyoni" bundan mustasno) didaktika elementi kuchli bo'lib, ular poemadan ko'ra ko'proq she'riy hikoyalarni eslatadi. Eng muhimi, ularda poemaga xos va mos tafakkur ko'lami, poemaga mutanosib badiiy-estetik umumlashmalar yetishmasdi.

Oybekning "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra", Uyg'unning "Jontemir", U.Nosirning "Naxshon", "Norbo'ta" singari poemalarida romantika faqat badiiy ifodadagina emas, qahramonlarining ichki tadrijida (konflikti, syujet va kompozitsiyasi) ham zuhur topdi; yangi romantik tasvir poetik idrok va ifodada yetakchi tendensiyadan biriga aylandi. Oybek дostonларидagi romantika

unsurlarini, avvalo, shoirning ijodiy qarashlaridan, ijtimoiy hayot fonidagi qahramonlar faoliyatidan izlash kerak (“Baxtigul va Sog’indiq”, “O’ch”, “Temirchi Jo’ra” kabi). Mazkur poemalarda voqelikni, qahramonlar faoliyatini realistik umumlashmalarda aks ettirish tuyg’ular va kechinmalarning romantik talqini ila chatishib ketadi.

Ko’rinadiki, adabiy asar janri ijodkorning hayot materialini tanlashi va tadqiq etishidagi badiiy tafakkur tarzi bilan chambarchas bog’liq ekan. Oybek ijodiy prinsiplari hamda falsafiy-estetik qarashlarining shakllanishida Sharq falsafasi (Alisher Navoiy, Bedil, Bobur va h.k) bilan rus va Yevropa romantizmining (Bayron, Pushkin, Blok singari) ta’siri kuchli bo’lganligi adabiyot ilmiga ma’lum. Ana shu omillar ta’siri shoir poemalarida balqib turadi.

Shu yillarda poemaning she’riy qissa singari ko’rinishi ham vujudga keldi. Elbekning “Tozagul”, Abdulhamid Majidiyning “Kuchala”, Ra’no Uzoqovanning “Sarviqad” poemalari). Lekin ular poema tarixida sezilarli iz qoldirgani yo’q. Mazkur asarlar esa bu yo’nalishda ham izlanishlar olib borilganidan, muayyan poetik tajribalardan dalolat beradi. Xususan, “Sarviqad” va “Kuchala” asarlarida hayot prozasiga keng o’rin berib yuborilganligi, she’r ruhiga mos kelmaydigan mayda tafsilotlar, hayot faktlari va hodisalarini shunchaki qayd etish, materialni saralamasdan badiiy tahlilga tortilishi ushbu poemalarni muvaffaqiyatsizlikka olib keldi. “Sarviqad” asari bosmachilarga qarshi kurashda xotin-qizlarning jasorati sahifalarini chizishga qaratilgan.

Umuman, yaxlit olib qaralsa, 30-yillar poemachiligida milliy dostonchilik an’alarining yangi voqelikdagi estetik mag’zi, mustahkam asosi qaror topdi. Hayotni badiiy o’zlashtirishda realistik ifoda ustivorlik kasb etdi.

Ayrim xulosalar: birinchidan, klassik dostonchiligimizning badiiy-estetik an’alari, boy tajribalari yangi tipdagi liro-epik poemaning shakllanishida katta rol o’ynaydi. Xususan, birgina klassik dostonchiligimizdan o’zlashtirilgan epik tafakkur madaniyatini ta’kidlash joiz. Unga qo’shimcha ravishda xalqimizning yuksak madaniyati, xalq og’zaki ijodidagi dostonchilik, rus va Yevropa poemachiligi, xalqimizning yangicha tafakkur tarzi – yangi tipdagi poemachiligimizning taraqqiyot yo’llarini belgilab berdi.

Yangi tipdagi poema tarixining ilk sahifasini bitgan (30-yillar), kelajak yo’nalishlarini tayinlagan shoirlarimiz (Fitrat, G’.G’ulom, Oybek, G’ayratiy, Uyg’un, H.Olimjon, Mirtemir, M.Shayxzoda, U.Nosir, Sh.Sulaymon, S.Jo’ra va h.k) asosan yosh avlod vakillari edi. Ular klassik dostonchiligimizdan o’zlashtirgan epik tafakkur madaniyatini, poemaga xos sermiqiyos fikrlash malakasini rus va Yevropa poemachilik maktabining realistik tasvir prinsiplari bilan uyg’unlashtirishga intilishdi. Yosh poemanavislar rus va Yevropa epik janri maktabidan realistik xarakterlar yaratish malakasini, hayot va voqelik jarayonlarini realistik tajassum etish shakllarini, badiiy vositalarini, usullarini, sujet va kompozitsion muxtasarlikka erishishni (Pushkin, Lermontov, Bayron, Shiller, Sh.Rustaveli tajribasi va h.k) o’rganishdi. Buning yorqin namunasi sifatida Pushkinning Sharq poemalari (“Bog’chasaroy fontani”, “Lo’lilar va h.k)

uslubidagi, Blok poemalari ruhidagi (“O’ch”, “Baxtigul va Sog’indiq”, “Temirchi Jo’ra”) Oybek poemalari maydonga keldi.

Ikkinchidan, yangi tipdagi liro-epik poemaning shakllanishi (20-yillar oxiri 30-yillar boshlari) yangi tipdagi realizm san’atining qaror topishi, bosh prinsiplarining mustahkam asoslanishi bilan uzviy bog’liqlikda zuhur topdi. Inqilobiy hayot saboqlari va samarali, shaxs taqdirini idrok va ifoda etish jarayonlari badiiy tafakkur shakllarining rang-barangligini taqozo etdi. Bu, o’z navbatida, poemaning xilma-xil janr ko’rinishlarini vujudga keltirdi (tarixiy poema – “Bruno” ertak-poema – “Semurg”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Zangori gilam”, “Jannat”, romantik poema – “O’ch”, “Baxtigul va Sog’indiq”, portret-poema – “Oqsoqol” va boshqalar).

Uchinchidan, liro-epik poemalar zamon ruhini, mehnatkash xalq ruhiyatini ifodalash asnosida davrning badiiy ko’zgasiga aylana bordi.

Qisqasi, ushbu davr dostonchiligida hayotning barcha qatlamlarida xalqimizning ijtimoiy faol qahramonlari xarakterini yaratish tamoyili kuchaydi; o’zligini tanigan qadr-qimmatini topgan mehnatkash xalq vakillari obrazini yaratish xos xususiyat bo’lib qoldi (“Tuproq va haq”, “Egalari egallaganda”, “Dilbar – davr qizi”, “Nomus”, “Farg’ona” va h. k.).

30-yillar poemachiligining novatorlik xususiyati shundaki, u ana shu davr odamlarining fikrlash saviyasini, psixologiyasini, qalb manzalarini realistik bo’yoqlarda aks ettirishga muvaffaq bo’ldi (“Ko’kan”, “Zaynab va Omon”, “Bruno”, “Onamga xat”, “Naxshon” va h. k.). Mazkur poemalarda zuhur topgan yangilikning mohiyati ham, avvalo, ana shu inqilobiy voqelikni inqilobiy davr farzandlari – yangi odamlarning (Ko’kan, Sarviqad, Zaynab, Omon, Norbo’ta, Naxshon va h. k.) ma’naviy hayotini aks ettirishga erishilganidir. Zero, ijtimoiy voqelik qanchalik murakkab va ziddiyatli bo’lsa, ana shu jarayondagi faol qahramonlar xarakterini ko’rsatish, shaxsiyatining shakllanishi va namoyon bo’lish shakllarini aks ettirish, kechinmalarini bor murakkabligi va ranginligi ila tajassum etish kuchaydi. Bu bosqich mahorat maktabi bo’lib xizmat qildi.

To’rtinchidan, doston rivojlanish bosqichining xarakterli xususiyatlaridan yana biri – turfa qahramonlar obrazining yaratilishida ko’zga tashlanadi (dehqonlar, ishchilar, kurashchan xotin-qizlar, tarixiy shaxslar, harbiy sarkardalar, inqilobchilar, ziyolilar va h.k.). Ular o’z hayotini va jamiyatni yoshartirish jarayonida o’z navbatidagi go’zal insoniy va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni ham namoyon etadilar. Eng muhimi, bu qahramonlar bevosita jo’shqin hayotning o’zidan olindi va qaynoq jarayonlar bag’rida tasvirlandi. Ularning xarakter qirralari o’tmish bugungi kunga, ayni zamonaviy voqelik yangi bunyodkorlik pafosiga muqoyasa jarayonida chiziladi (“Ikki qizning hikoyasi”, “Ota hayotidan” “Kamonchi”, “Tekstilkombinat va Misr ehromi”, “Oysanamning to’yida” va h. k.). Ushbu muqoyasa usuli yangi voqelikni, hayot jabhalarini badiiy o’zlashtirish vositalari sifatida ko’zga tashlanadi.

Poetikadagi mazkur yangilanish sujet va kompozitsion qurilmalarda, ziddiyatlarning xarakterida, she’riy ritmlarda ham zuhur topdi. Natijada (Oybek, G’.G’ulom, H.Olimjon, Uyg’un va boshqa shoirlar poemalarida kuzaatilganidek),

inqilobiy timsollar, ramziy usullar ko'plab qo'llanildi. Ular hayotning mazmunidan to'g'ridan-to'g'ri poemalarimiz sahifalariga ko'chib o'tganligi bilan e'tiborlidir. Birgina tabiat hodisalarini oladigan bo'lsak (tong, quyosh, nur, oftob va h. k.), ular tashib kelgan ma'no qirralari ijtimoiy, ma'naviy-madaniy hayot jabhalarini ifodalashga xizmat qildirildi.

Beshinchidan, poemachiligimizda xalqimiz o'tmishiga, ajdodlar hayotiga, yaqin inqilobiy voqelikka qiziqish tamoyili ortdi. Tarixiy-inqilobiy mavzu poemalarimizning bosh mundarijasiga aylandi ("O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Temirchi Jo'ra", "Naxshon", "Norbo'ta", "Jinasta", "Jangovar", "Navoiy", "Hamza", "Furqatga maktub" singari). Xorijiy xalqlar hayoti va taqdirini aks ettirish alohida bir sahifani tashkil qiladi ("Onamga xat", "Xitoy bolasi fin-fon", "Oq negr", "Xitoydan lavhalar" va h. k.).

Oltinchidan, qahramonlarning ma'naviy-intellektual jihatdan o'sish jarayonini ko'rsatishi she'ryatning hayotga yaqinlashish, voqea-hodisalarga faol aralashish hodisasini ham ifodalaydi. Bu – poemalarimizning janr va uslubiy rang-barangligini ta'minladi. Poemachilikda ijtimoiy tahlil ko'z ochdi; publitsistik jo'shqinlik, lirizm, falsafiy o'ylar, epik tasvirga moyillik kuchaydi.

Shunday qilib, poemaning lirik asosga qurilgan liro-epik turi janr tarixida yetakchi mavqeni egalladi. Kelgusi tendensiyalarini belgilab berdi. Shoirlarning lirik personaj sifatida voqelikka aralishishi, kechinmalari va o'y-mushohadalarini ifodalashi, sujet rivojida ishtirok etishi lirik bo'yoqlarni quyuglashtirdi. Bu narsa, detallar tarzida emas, sujet tadrijining tarkibiy bir zanjiri sifatida zuhur topdi. Liro-epik poemaning mazkur xususiyati kelgusi rivojlanish bosqichlarida rangin badiiy talqinlari, serjilo belgilari bilan namoyon bo'ldi. "Ko'kan", "Zaynab va Omon"da ushbu hodisa ko'rkam namoyishini topdi. Har ikki poemada shoirlarning sujet rivojida lirik personaj sifatidagi ishtiroki – janrning muhim xususiyatiga, ichki strukturasidagi ushbu an'ana janr tarixida (ayniqsa, 50-80-yillar) lirik tasvirning xalq hayoti va ijtimoiy voqelik bilan bog'liqlik aloqalarini yanada kengaytirgan va chuqurlashtirgan holda davom etdi.

Mazkur omillarni ikki jihatdan xarakterlash mumkin. Birinchidan, urush davri poemachiligi rivojida faollik ko'rsatgan shoirlarimizgina (G'.G'ulom, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Nazarmat va h.k.) emas, umuman, xalqimiz Sharq klassik poeziyasi va xalq og'zaki ijodi ruhida tarbiyalangan edi; nafaqat shaxsiyati, shu bilan barobar, badiiy-estetik dunyosining shakllanishida ham klassik she'riyatimiz hamda folklorning rolini nazardan soqit qilish mumkin emas. Ikkinchidan, fashizmning insoniyatga yot yovuzligini namoyon etishda folklor obrazlari va motivlari nihoyatda qo'l keldi. Bu narsa, badiiy so'zning xalq ruhiyatiga, tafakkuriga samarali ta'sirini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. Aytish mumkinki, shoirlar zimmasidagi g'oyaviy-badiiy vazifani ado etishda folklor unsurlari ham poema tabiatidagi (sujet rivoji, holat va vaziyatlar tasviri) badiiy komponentlardan biriga aylandi.

Uchinchidan, folklorizm poema janr imkoniyatlarini kengaytirdi; poetik ifoda rang-barangligini, til boyligini, uslublar xilma-xilligini ta'minlashda ham ahamiyati katta bo'ldi.

To'rtinchidan, eng muhim xususiyatlardan biri, bu – xalq og'zaki mazmuni, yangi voqelik mohiyatini aks ettirishga qaratildi. Xususan, an'anaviy folklor obrazlari yangi voqelikda yuzaga kelgan yovuzlik timsoli – fashizmning asl qiyofasini aks ettirish uchun xizmat qildi.

Lekin urush davri dostonlari g'oyaviy-badiiy bekami ko'st ekan-da, degan tasavvur tug'ilmasligi lozim. Ularda uch jihatdan xarakterli bo'lgan kamchilik ko'zga tashlanadi. Birinchidan, ayrim asarlarda voqelik jarayonlarini va odamlar taqdirini poetik tahlil qilish emas, balki tavsiflash kuchli bo'ldi ("Olimjon" singari). Ikkinchidan, lirik, epik va dramatik tasvir mutanosibligini saqlay bilmaslik, ayniqsa epik tasvir me'yoriga erisha olmaslik yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, Shuhratning "Orzu va Qasos", "Farzand" singari poemalarini aytib o'tish mumkin. Uchinchidan, poetik hikoyada publitsistika elementi yetakchi badiiy komponentlardan biriga aylandi. Bu – tabiiy bir hol edi, albatta. Zero, voqelik poetik idrok etishdagi hozirjavoblik, tezkorlik hayot talabi, davr taqozosi edi. Lekin ayrim shoirlar mahoratsizligi tufayli poetik publitsistikaning o'rnini oddiy xabar egallab qolgan asarlar ham ko'p bo'ldi. Chunonchi, Uyg'unning "Qasos", Shuhratning "Farzand" kabi poemalarining ko'pgina sahifalarida voqea-hodisaning poetik tadqiqini emas, u haqdagi xabarni o'qiymiz.

Urushdan keyingi yillar poemachiligining janr taraqqiyoti yangi ijodiy avlod faoliyati bilan bog'liq. 1946-60-yillar she'riy hayotida M.Boboyev, A.Muxtor, X.G'ulom, Shukrullo, R.Bobojon, Mirmuhsin, T.To'la, S.Akbariy, J.Jabborov va boshqa shoirlar faollik ko'rsatishdi. Ular Oybek, G'.G'ulom, Uyg'un, M.Shayxzoda, G'ayratiy, Mirtemir singari to'ng'ich avlod bilan hamnafaslikda poemachiligimiz imkoniyatlarini boyitgan, yangi qahramonlar olib kirgan, yangi rivojlanish yo'llarini belgilagan g'oyaviy-badiiy ko'rkam asarlar yaratishda ("Qizlar", "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar", "Hamza", "Navoiy" – Oybek, "Katta yo'lda", "Po'lat quyuvchi" – A.Muxtor, "Usta G'iyos", "Qadrdonlar" – Mirmuhsin, "O'lmas qo'shiq", "G'urbatda Furqat" – G'ayratiy, "Surat" – Mirtemir, "Nurmat otaning tushi", "Bog'iston", "Mirzo Ulug'bek", "Toshkentnoma" – M.Shayxzoda, "Chollar", "Ikki qoya", "Rossiya" – Shukrullo, "Ona qalbi" – Mamarasul Boboev, "Gulshan", "Tog'lar sadosi" – J. Jabborov, "Furqatga maktub" – Abduvahob Sayfiy, "Jamiyat" – T.To'la, "Girdob" – S.Akbariy, "Zamon farhodlari" – Habibiy, "Xotin qalbi" – Shuhrat, "Saodat", "Cho'pon hikoyasi", "Halovatning tushi" – Said Nazar va h.k.).

Urushdan keyingi yillar poemalarining yetakchi xususiyatlaridan biri – intellektuellikning kuchayishidir. Adabiyotshunos O.Sharafiddinovning ta'kidlashicha, poema qahramonlari voqea-hodisalarga nihoyatda sinchkov, xalq va Vatan manfaati uchun ongli fidoyilikka tayyor turgan, shaxs va jamiyat munosabatlari xususida jiddiy mushohada yuritadigan bo'lib qoldi.

Yarim asrlik o'zbek dostonining shakllanishi, taraqqiyoti, badiiy takomili shu xususiyatlar bilan belgilanadi.

No'mon Rahimjonov, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

(Ikkinchi maqola)

XX asr o'zbek adabiyotida o'zbek adabiyoti taraqqiyotini belgilashda nasrda roman qanchalik rol o'ynagan bo'lsa, nazmda doston shunchalik mavqe egalladi. Milliy poetik tafakkur, betakror an'ana va qarashlarni o'zida mujassam etgan o'zbek dostonchiligi tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'zbek folklori va mumtoz adabiyot an'analari ta'sirida shakllangan zamonaviy doston XX asrning 30-yillariga kelib mustaqil janr sifatida shakllandi. XX asrning 50-80 yillarida hukmron mafkura sharoitida ijodkorlar erk va ozodlik mavzusini, davr bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni muayyan timsollar orqali va ramzlar vositasida aks ettirishga harakat qildilar. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan hur fikrlilik, erkinlik xalq ongi va dunyoqarashi yangilanishiga olib keldi. Shu bois poetik konsepsiyalar – hayotga, ijtimoiy voqelikka, inson shaxsi va faoliyatiga bo'lgan munosabat o'zgardi. Badiiy ifodadagi sobiq tuzumga xos bo'lgan tantanavorlik o'rni estetik psixologizm – hayotiylik, haqqoniylik, real tasvirlar egallay boshladi.

O.Sharafiddinov, B.Valixojayev, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, N.Rahimjonov, G.Mominov, I.G'afurov, I.To'lakov, Sh.Hasanov, A.Sabirdinov, Sh.Murodov¹⁴ kabi olimlarning ishlarida poema janri dinamikasi, unda hayot materiali va badiiy idrok, qahramon va ijtimoiy voqelik ifodasi, sujet hamda kompozitsiya, tarix va zamon talqini singari masalalar o'rganilgan. Shuningdek, L.Qayumov, N.Jabborov, A.Akbarov, B.Rahmonov, A.Ulug'ov, S.Meli, U.Hamdani singari olimlarning ilmiy izlanish va maqolalarida dostonlarning g'oyaviy-badiiy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, bu sohada bajarilgan tadqiqotlar sirasida Sh.Hasanovning «XX asr ikkinchi yarmi o'zbek dostonlari poetikasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muhim o'rin tutadi.

¹⁴Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. –Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –462 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. –243 б.; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Т.: Фан, 1974.–148 б.; Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –238 б.; Мамажонов С. Ўзбек дostonчилиги ҳақида ўйлар // Совет Ўзбекистони, 1981, 28 июнь.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008. –532 б.; Норматов У. Дoston ва замон // Шарқ юлдузи, 1987, №10. –Б. 173-180.; Норматов У., Раҳмат Р. Назария ва адабий-бadiий жараён // Жаҳон адабиёти, 2000, № 3, –Б.151-161.; Норматов У. Қўнгилларга кўчган шеърият. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. –42 б.; Раҳимджанов Н. Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии 1961-1973 гг.) АҚД. –Т., 1975. –28 с.; Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. –Т.: Фан, 1986. –174 б.; Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни. Китобда: Адабий турлар ва жанрлар. Т.: Фан, 1992. –Б.171-292.; Раҳимджанов Н.К. Тенденции развития современной узбекской поэзии (70-80-е годы). АДД. –Т., 1989. –42 с.; Раҳимжонов Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятининг тараққиёт тенденциялари. Филол.фан.д-ри дисс.... –Т., 1989. –284 б.; Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Т.: Фан, 2007. –260 б.; Раҳимжонов Н. Бadiий асар биографияси. –Т.: Фан, 2008. –262 б.; Раҳимжонов Н. Истиклол ва бугунги адабиёт. –Т.: Ўқитувчи, 2012. –328 б.; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек дostonчилигида услубий изланишлар // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. –Тошкент: Фан, 1983. –204 б.; Ғафуров И. Дoston устуниси // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 1982.- № 8. –Б. 173-179.; Ғафуров И. Дostonда инсон тақдири // Ўзбекистон Адабиёти ва санъати, 1982, -19 фев.; Тулаков И. Поэтические традиции и характер героя в узбекской советской поэме. АҚД. Ташкент, 1981. – 22 с.; Ҳасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. –С., 2001. –142 б. Ҳасанов Ш. Давр ва дoston // Шарқ юлдузи, 2002, № 4. –Б. 148-150.; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс... –Т., 2004. –284 б.; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. Филол.фанлари номзоди... дисс.автореф. –Тошкент, 2004. –46 б.; Мurodov Ш. Жанровые особенности современной узбекской поэмы (на материале поэм 70-х годов). Автореферат на соиск. канд. фил. наук. –Т., 1984. –22 с.

Hozirgi dostonchilikda janrning rang-barang ko`rinishlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Dostonda voqelikni ifodalash usuliga ko`ra: lirik, liro-epik, dramatik dostonlar.
2. Qaysi davr voqeligiga bag`ishlanganligiga ko`ra: tarixiy va zamonaviy dostonlar.
3. Uslubiy izlanish yo`nalishiga ko`ra: a) folklordagi doston, ertak, afsona, rivoyat kabi epik janrlar shakli, sujeti va ifoda uslubi asosida yaratilgan stilizatsion dostonlar; b) mumtoz dostonchilikka xos aruz vaznida, masnaviy shaklida, qasida mazmunida, maktublar uslubida yozilgan masnaviy dostonlar, qasida dostonlar, maktub dostonlar, tasavvufiy ruhdagi dostonlar, ma`rifiy-didaktik dostonlar; v) jahon modernistik adabiyoti an`analari ta`sirida yaratilgan modern izlanishdagi dostonlar.

XX asrning 50-80 yillarida ijodkorlar millat qalbida yashirinib yotgan dardlarni folklorning afsona, rivoyat, ertak singari epik janrlaridan foydalanish orqali aks ettirdilar. Mustaqillik jamiyatda erkinlik muhitini qaror toptirish barobarida shaxs ongini tubdan o`zgartirdi. Hayot, ijtimoiy voqelik ta`sirida badiiy-estetik tamoyillar yangilandi. Natijada zamonaviy dostonchilikda mustabid tuzum davridagi mafkuraviy yondashuvlar barham topdi, g`oyaviy-badiiy andazalardan voz kechildi. Ijtimoiy voqelik, jamiyat psixologiyasi, olam va odam munosabatlari talqinida ma`rifiy-falsafiy va ma`naviy-axloqiy masalalar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Adolat, ezgulik, haqiqat singari umumbashariy qadriyatlar mezoni asosidagi yondashuv, badiiy tahlildagi xilma-xillik, o`z navbatida, janrning rang-barang ko`rinishlarini vujudga keltirdi. Bunda folklor, Sharq mumtoz dostonchiligi an`analari va jahon poemachiligining poetik tajribalari yetakchi omil vazifasini o`tadi.

Darhaqiqat, XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek dostonchiligida jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar, ayniqsa, xalqimizning mustaqillik haqidagi orzu-o`ylari aks ettirildi. XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek dostonlari ikki xil ijtimoiy tuzum (dastavval, sho`ro va keyinchalik mustaqillik davri)da, ikki xil mafkura (dastlab, kommunistik va asr so`ngida mustaqillik mafkurasi) sharoitida yaratildi. Har ikkala davrda ham o`sha zamon yukini ko`targan dostonlargagina e`tibor qaratildi.

O`zbek adabiyotida XX asr ikkinchi yarmida dostonlarning xilma-xil ichki turlari janrning shakl va mazmun jihatdan har tomonlama badiiy taraqqiy topib borganini ko`rsatadi. Ayni paytda davr dostonlari janr taraqqiyotining spetsifik xususiyatlaridan tashqari mazmunan qaysi tarixiy-ijtimoiy bosqich voqealari mantiqiga qaratilganligi, qahramonlar xarakteri nuqtai nazaridan ham o`zaro farqlanishi seziladi. Jumladan, davrning 60-80 yillarida yaratilgan poemalar («Ruh bilan suhbat», «Tanovar», «Istanbul fojiasi», «Jannatga yo`l», «Armon») oshkoralik davri – erk, hurriyat orzusi talqiniga bag`ishlangan dostonlar («Ranjkom», «Tavba», «Tanazzul yoxud bir begonaning iztiroblari») dan, shuningdek, mustaqillik davrining ilk yillari samaralari ta`sirida yuzaga kelgan («Xotiram siniqlari», «Naqshband») dostonlardan mazmunan ajralib turadi. Shu

jihattan XX asr ikkinchi yarmi dostonlarini yaratilgan davriga ko`ra uch bosqichga ajratib o`rganish mumkin. Chunki 60-70 yillarda yozilgan poemalar, asosan, shaxsga sig`inish oqibatlarini tugatish davriga to`g`ri kelganligi sababli biroz bo`lsa-da, lirik qahramonning erk va ozodlik haqidagi fikr yurita boshlaganini o`zida ifoda etadi. Ammo baribir uning bu fikrlari ochiq-oshkora holda emas, ramziy timsollar vositasida ifodalanganligi kuzatiladi. Bu bilan ijodkorlarning hali ham qatag`on davr xurujlaridan, sobiq tuzumga xos soxta demokratiya qurshovlaridan tashqarida erkin harakat qilolmaganligi ayonlashadi. Shu hadik va qo`rquv tufayli aksariyat shoirlar quruq madhiyabozlik yo`lidan bordilar. Shunday keskin zamonda ham erk va ozodlikka intilib, asarlari qatiga shu intilishlarini ramzlar vositasida jo etgan matonatli ijodkorlar ham bor edi. Ulardan biri Oybek bo`lib, o`zining “Davrim jarohati” poemasida xuddi shunday yo`l tutib, o`zbek xalqi qalbidagi davr bilan bog`liq jarohatlarni muayyan timsollar orqali ochib berishga intilgan.

Ma`lumki, 1945 yilda Yaponiyaning Xirosima shahrida insoniyat tarixida nihoyatda mudhish voqea yuz berdi. Amerika tomonidan bu shahar ustiga atom bombasi tashlanib, necha minglab insonlar o`limga mahkum etildi. Inson aql-zakovati, bilimi tufayli erishilgan ilm-fan yutuqlari uning baxtu saodati yo`lida emas, fojiasi uchun ishlatilganligi dunyo ahlini dahshatga soldi. Bundan ta`sirlangan ijodkorlar esa ushbu global mavzuga adabiyotda ham o`ziga xos munosabat bildirdilar. Jumladan, Oybek oradan yigirma yil o`tib, taniqli adabiyotshunos U.Normatov o`rinli ta`kidlaganiday: «XX asrning eng mudhish hodisalaridan biri – ikkinchi jahon urushi poyonida yapon zaminida sodir etilgan – bashariyat tamadduni tarixidagi mislsiz ofat – atom qurolini ishga solish tufayli sanoqli daqiqalarda 200 mingdan ortiq tinch aholi yostig`ini quritgan, yana necha minglab tirik qolganlar taniyu qalbini bir umrga jarohatlagan, butun bashariyat ahlini vahshatga solgan mudhish hodisa haqida qalam tebratadi»¹⁵. Shoir yuragining qat-qatlariga yashiringan ulug` dardni – «davr jarohatining qalbdagi asoratlari»¹⁶ni satrlarga tizib, “Qalbim jarohati” nomli dunyo adabiyoti mezonlaridagi lirik asarni bunyodga keltirdi.

Dostonning har bir satri chuqur insoniy dard, mung va iztirob bilan sug`orilgan. Shoir atom bombasini «osmonda bir qopchiq og`u», «yalmog`iz o`ti», «ofat-quyosh», «ajal-nur», «olov ajdari» kabi tashbehtar bilan ifodalab, shu qiyoslar asosida inson hayotini tahlikaga solgan bu qurolning dahshatlarini aks ettiradi:

Har kimda kundalik bir g`avg`o, bir ish
Kim bilur – osmonda bir qopchiq og`u¹⁷.

¹⁵ Normatov U. «T`ulkinlar `qirklar `azin marsiya». («Davrim jarohati» dostoni yaratilganining 50, mudhish jarohat sodir etilganining 70 yilligi munosabati bilan)// *Ja`hon adabi`ti.*–To`shkent, 2015.- № 8. –B.141.

¹⁶ Normatov U. «T`ulkinlar `qirklar `azin marsiya». («Davrim jarohati» dostoni yaratilganining 50, mudhish jarohat sodir etilganining 70 yilligi munosabati bilan)// *Ja`hon adabi`ti.*–To`shkent, 2015.- № 8. –B.141.

¹⁷ Oybek. Mu`kammal asarlar t`plami. `n t`kkiz tomlik. T`rtinchi tom. Dostonlar.–To`shkent: Fan, 1976. – 57.

Dostonda fojining yuz berishi quyidagicha hayotiy tasvir etilgan:

Ohista chayqalib tong shamolida
Parashyut tushmoqda ko`tarib ajal
Soat naq sakkizu o`n besh daqiqa
Yorildi ajalning qopi bemahal¹⁸.

Shu tariqa «davr balosi» – samolyotning «shum qanoti»dan «yalmog`iz o`ti» – bomba insonlar ustiga endirildi. Ko`z ochib-yumguncha «yuz mingcha odamlar kulga» aylandi. Shoir bu haqda yozar ekan, Amerikaning ajalni olib kelgan samolyotini «shum kalxat», uning o`zini «tengi yo`q jallod» metaforalari orqali ataydi. Atom bombasi nurida qovjiragan jasadlarni «ko`mir»ga, nobud bo`lgan insonlar orzu-istaklarini «kuygan tabassum»ga mengzaydi. Bu fojia tufayli yuz ming odam hayotni bevaqt tark etgan bo`lsa, yana shuncha jon majruh va xasta bo`lgani ma`lum:

Ufqda bulutlar qonlarda suzar
Dud burqir xastalar nola-ohida
Vahm changalida qovjirak qalblar
Bulutday chayqalur g`am nigohida¹⁹.

Shoir tashxis bilan ziynatlagan misralarida fojiadan keyingi holat va manzaralarni ham tasvir etadi. U o`lim butkul soya solgan shaharda hatto marsiya aytuvchi inson ham qolmaganidan bu ishni tilsiz, zabonsiz dengiz o`z zimmasiga olganligini achinish va buyuk dard bilan bayon etadi. Bu o`rinda Oybek xalq ishonchlariga tayanib, jon oluvchi farishta Azroil nomini talmeh sifatida qo`llab, hatto bunday yovuzlikka u ham qodir emasligini ta`kidlab:»Azroil, insondan, kel, ol saboqni», deya hayqiradi.

Ko`rinadiki, «Davrim jarohati» dostonida muallif, avvalo, asr fojiasi tufayli chekilgan dard-alamni, umuminsoniy jihatlarni hassoslik bilan satrlarga tizishni ko`zlagan. Ayni vaqtda unda o`zbek xalqining ham dard, hasratlari yashiringan. Chunki asar yaratilgan o`tgan asrning 60-yillarida – erkinlik bo`g`ilgan biqiq muhitda Oybek ozodlik, mustaqillik haqidagi fikrlarini oshkora aytolmasdi. Shuning uchun Xirosima fojiasini tasvirlash barobarida xalqimizning erk va ozodlikka intilishi g`oyalarini ham aks ettirdi. Buni esa uning quyidagi satrlari orqali his etish mumkin:

Qadamlarga g`ovdir – zulm toshlari²⁰

Yana:

Kurashur, qolsa-da ko`p kelinlar tul
Qo`llarni kishanlash, bil, endi mushkul
Qilsang-da bog`larni, kulbalarni kul
Vayronlik, qullikni bilmaydi ko`ngil²¹

¹⁸ Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Тўртинчи том. Достонлар.–Тошкент: Фан, 1976. – 58.

¹⁹ Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Тўртинчи том. Достонлар.–Тошкент: Фан, 1976. – 61.

²⁰ Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Тўртинчи том. Достонлар.–Тошкент: Фан, 1976. – 64.

Binobarin, «Qadamlarga g'ovdir – zulm toshlari», «Qo'llarni kishanlash, bil, mushkul», «Vayronlik, qullikni bilmaydi ko'ngil», – der ekan, shoir ramzlar, timsollar orqali o'z xalqining ming yillik orzularini ifoda etadi. Uning ko'nglida hamisha erkka, ozodlikka tashnalik hislari barq uradi. Shu ma'noda bu asar o'zbek «dostonchiligida o'ziga xos ijtimoiy pafos ifodasi an'anasini boshlab berdi»²².

Shuningdek, E.Vohidovning 70-yillarda yaratilgan “Ruhlar isyoni” dostonida ham xalqimizning erk va mustaqillikka intilishi bengal shoiri Nazrul Islom taqdiri misolida tasvirlab ko'rsatilgan. Adabiyotshunos U.Normatov falsafiy, qahramonlik, fojeiy doston deb atagan E.Vohidovning «Ruhlar isyoni» dostoni ham shakl, ham mazmun jihatidan o'ziga xos novatorona asar. U «xilma-xil she'riy shakl, ritm, hissiy ohang, ranglar, hayotiy lavhalar va rivoyatlar, shartli-simvolik ifodalar sintezidan tashkil topgan»²³. Haqiqatan, asarda Nazrul Islom qismatini ochib berish uchun shoir bir necha usullardan foydalangan. Shulardan biri asar matniga rivoyatlarning singdirilishidir. Adabiyotshunos S.Mamajonov bu haqda yozadi: «Falsafiylik shoirning teran mushohada va umumlashtirishlaridagina emas, balki voqelikni falsafiy idrok etishiga ko'maklashuvi, afsona-rivoyatlardan o'rinli foydalanishida ham ko'rinadi»²⁴. Yoxud Sh.Hasanov dostonning aynan shu jihatiga e'tibor qaratgan holda yozadi: «Lirik dostonlarda metaforik fikrlash tarzi kuchaygan bo'lsa, liro-epik va dramatik dostonlarda folklor ohangining ta'siri sezilarli bo'lmoqda. Birgina «Ruhlar isyoni»dagi rivoyatlarning o'zi ham fikrimizni tasdiqlab turibdi. Dostondan joy olgan rivoyatlarning bari Sharq folklori ning mumtoz durdonalaridir. Gap bu rivoyatlarning mumtozligida ham emas. Asosiysi – bu rivoyatlarning doston syujetiga singdirib yuborilganligida. Zamonaviy dostonchilikda realistik va romantik tasvir usullarining omuxta etilayotganligi janrning yangi istiqboldan dalolat beradi»²⁵. Binobarin, asar tarkibidan o'rin olgan: «Jaholat haqida rivoyat», «Abadiyat haqida rivoyat», «Fidoiylik haqida rivoyat», «Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»lar asar kompozitsiyasida psixologik tasvir vositasi bo'lib kelgan.

Keltirilgan rivoyatlarning tarixiyligini asoslash, undagi qahramonlarning elu yurtiga sadoqatini, fidoiyligini ta'kidlash vositasida doston qahramoni Nazrul Islomning fazilatlarini ko'rsatiladi. Qolaversa, uning o'z ajdodlariga munosib voris ekanligi o'rnak qilib ko'rsatiladi. Ya'ni rivoyatlardagi epik qahramon bilan doston qahramoni Nazrul Islom o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik aynan ana shu nuqtada namoyon bo'ladi. Ularning har biri qahramon xarakteriga xos qaysidir bir muhim jihatni oydinlashtirishda aosiyy vosita bo'lib xizmat qilgan.

²¹ Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Тўртинчи том. Достонлар.–Тошкент: Фан, 1976. – 64.

²²Норматов У. «Тўлқинлар ўқирлар ҳазин марсия». («Даврим жароҳати» дostonи яратилганининг 50, мудҳиш жароҳат содир этилганининг 70 йиллиги муносабати билан)// Жаҳон адабиёти.–Тошкент, 2015.- № 8. –Б.145.

²³Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.– Б. 28.

²⁴Мамажонов С. Ўзбек дostonчилиги ҳақида ўйлар // Совет Ўзбекистони. –1981. –28 июнь.

²⁵ Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 2004. – Б. 36.

O`li bir davrda dunyoga kelgan Nazrul Islom ingliz zulmi ostida ezilayotgan xalqiga najotkor bo`lishga intildi. To`g`ri, xronologik vaqt va voqealar tafsiloti asarda muhim o`rin tutmaydi. Biroq tarixiylik xususiyati sezilib turadi. Ana shu xususiyat zamonaviy she`riyatda tarixiy rivoyatlar mazmuniga murojaat qilish ehtiyojini vujudga keltirdi. Natijada E.Vohidov xalq tarixiy rivoyatlari syujetidan foydalanib, o`z asarining g`oyaviy mazmunini yanada kuchaytirish yo`lidan bordi.

Asarning hayot va abadiyat xususida mulohaza yuritilgan muqaddima qismida «Abadiyat haqida rivoyat» keltirilgan. Unda sahroda tashna qolgan yo`lovchiga obihayot suvini ichgani uchun ming yillardan buyon tirik yashayotgan, ammo yaqinlaridan ajralgani sabab yolg`izlikda azob chekayotgan chol uchraydi. Aslida dostonda rivoyat deb ko`rsatilgan bu voqelik afsonadir. Chunki undagi «obi hayot» timsoli – xayoliy uydirma hosilasi. Shoir undagi voqeliklar mazmunidan foydalanib, yo`lovchi va chol obrazlariga o`ziga xos ramziy ma`no yuklagan. Jumladan, yo`lovchi obrazi, avvalo, bu dunyo mumtoz shoirlar aytganidek, misoli karvonsaroy ekanligini, unga qo`nib o`tuvchi har bir inson esa yo`lovchi singari o`tkinchiligini, hech kimga hayot abadiy berilmasligini anglatishga, chol obrazi odamzotning umri qancha ko`p yashagani bilan emas, qanday mazmunda umrguzaronlik qilgani bilan bog`liqligini uqtirishga qaratilgan. Xullas, doston mazmunidan inson ezgu ishlari va amallari bilan abadiyatga daxldor bo`lishi mumkin degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi.

Ushbu rivoyatning shoir qahramoni bilan bog`liqligi shundaki, Nazrul Islom xalqining ozodligi uchun kurashga bel bog`ladi. Demak, u abadiyat sari yo`l ochdi. Zero, u juda kam yashagan esa-da, umrini eng ezgu ish – xalqining erk va ozodligi yo`liga bag`ishladi. Shu bilan uning nomi, hayoti mangulikka daxldor bo`ldi. Qahramon hayoti bilan bog`liq aynan shu jihat doston mazmuniga chuqur singdirildi.

Shoir bosh qahramon ruhiyatida kechayotgan turfa holatlarni yanada hayotiy ifodalash maqsadida ikkinchi – «Fidoiylik haqida rivoyat»ni ham keltiradi. Rivoyat qadim Hindistonda urf bo`lgan: eri o`lsa – xotinini, xotin o`lsa – erini qo`shib ko`mish odati va unga qarshi isyon ko`targan jangchi yigitning jasorati, fidoiyligi haqida so`zlaydi.

Hindistonni ozod ko`rish istagida yongan fidoiy inson Nazrul Islom jangchi o`g`lon singari birinchilardan bo`lib ona xalqi bo`ynidagi istibdod zanjirini uzishga bel bog`laydi. Demak, rivoyatdagi jangchi o`g`lon va dostondagi Nazrul Islom obrazlari orasidagi mushtaraklik shunda seziladi.

Dostonda 1926 yildagi Kalkutta g`alayoni va unda Nazrul Islomning ishtiroki voqealari bayon etiladi. Nazrul Islom xalqni to`xtatishga harakat qilgani uchun hibsga olinadi va zindonga tashlanadi. Mana shu tarixiy voqelik mazmuniga vobasta holda shoir asarga «Jaholat haqida rivoyat»ni olib kiradi. Unda xalqni giyohlar bilan davolab, el ichra mashhur bo`lgan tabibning qismati hikoya qilinadi. Dostonda johil olomon tomonidan tabibning olovda kuydirilishi, bu olovga ko`zi nashtar bilan ochilgan cholning o`tin keltirib tashlashi voqealarining berilishi nihoyatda ta`sirchan. Bu bilan shoir chol obraziga alohida mazmun yuklay olgan. Chunki uning nutqida bu dunyodagi norasoliklar, insonning xor etilishi aks etgan.

Chol ham o`zicha haq. Ammo hakim ko`p yillik izlanishlari sarobga aylanganidan qattiq o`kinadi va olomondan olovni balandroq yoqishlarini so`raydi. Lekin yillar o`tib elning aql ko`zi ochiladi, hakimga oltindan haykal o`rnatadilar. Hakimning achchiq qismatiga jaholat, ilmsizlik sababdir. Binobarin, Nazrul Islom va hakim qismati nihoyatda o`xshash. Chunki Nazrul Islom ham olomon tomonidan zindonband qilinadi. Rivoyat bosh qahramoni Nazrul Islomning qalbida kechayotgan tug`yonlarni, uning haqsizlikka qarshi isyonini yorqin ifodalashga vosita bo`lgan.

Dostonning «Tutqunlikda» deb nomlangan qismida shoirning zindondagi hayoti aks ettiriladi. U yerda ham ozodlik yo`lidagi mardona kurashni boshlab bergan shoirning ko`nglida o`kinch-armon emas, dilshodlik hukmron. E.Vohidov Nazrul Islomning aynan shu holatiga hamohang «Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat»ni keltiradi. Ma`lumki, Avrangzeb otasi Shoh Jahondan taxtni zo`rlik bilan tortib oladi. Shundan so`ng o`sha davr udumiga ko`ra, u uy qamog`iga mahkum etiladi. O`g`li tomonidan tahqirlangan Shoh Jahon uyining tor darchasidan keng olamni, sevimli «Tojmahal»ni ko`radi va shunga ham shukr qiladi. Olomon – jaholat eli tomonidan bandi qilingan Nazrul Islom ham zax zindonning kichkina tuynugidan keng olamga nazar soladi. Demak, Shoh Jahon va Nazrul Islom qismatlaridagi mushtaraklik rivoyat orqali yorqin ifodalangan.

Umuman, doston tarkibidagi har bir rivoyat bengal xalqi ozodligi uchun kurashgan isyonkor shoir Nazrul Islom ruhiyatida kechadigan iztirobli holatlarni, ozodlikka va erkka tashna qalbning manzaralarini yorqin ifoda etishda psixologik tasvir va tahlil vositasi vazifasini bajargan. Aslida bu obraz shoirga o`z xalqining mustaqillik haqidagi orzularini ramziy ifodalash vositasi bo`lib xizmat qilgan. Qolaversa, mazkur rivoyatlar asarda drammatizmning chuqurlashuvini ta`min etgan. Bu esa shoirning «voqelikni keskinligi, murakkabligi, fojiviy tomonlari bilan yoritishga»²⁶ undagan. Doston shu jihati bilan XX asrning ikkinchi yarmi o`zbek dostonchiligi ufqlarini yanada kengaytirdi.

Turg`unlik davrining bir qismi hisoblangan 80-yillarda paxta yakkahokimligi, qayta qurish va oshkoralik shabadalarining esishi shu vaqtda yaratilgan dostonlarning asosiy mavzu-mundarijasini tashkil etdi. Mustabid tuzum iskanjasidagi millat qalbida yashirinib yotgan dardlarni, tuyg`ularni oshkor etishda; erkka intilish, Vatanni ozod va mustaqil ko`rish kabi davrning dolzarb g`oyalarini ochib berishda folklorning afsona, rivoyat, ertak, doston singari epik janrlari syujeti, motiv va obrazlaridan foydalanish qulay ifoda vositasi sifatida xizmat qila boshladi. Jumladan, Asqad Muxtorning «Dol Qoya» dostoni xalq ijodidagi «Qaytar dunyo» afsonasini stilizatsiya qilish asosida yaratilgan. Adabiyotshunos Sh.Hasanovning yozishicha, «shoirning lirik kechinmalari afsona jo`rligida zamondoshlari psixologiyasini ochishga qaratiladi, natijada afsonaning ichki mohiyatidan teran, salmoqdor mazmun chiqariladi»²⁷. Darhaqiqat, ushbu dostonda ham insoniy qadriyatlar talqiniga bag`ishlangan afsona yordamida falsafiy mazmun

²⁶ Кирпель И. Лирический герой современной поэмы. – Киев: Радяньский письменник, 1977.–172 с.

²⁷ Хасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 2004. – Б. 35.

kuchaytirilgan. Unda insonning keksayishi – tugun. Boboning Dol Qoyaga nevara tomonidan olib borilishi – kulminatsion nuqta va nevaraning boboni Dol Qoyadan uloqtirmasdan yashirib qo'yishi yechim hisoblanadi.

Asarning bosh qahramonlari nevara va bobodir. Unda hikoya qilinishicha, nevara keksa bobosini ajdodlar udumiga ko'ra, Dol Qoyadan uloqtirib, o'zi yana qabilasiga qaytishi kerak bo'ladi. Shuning uchun u ming mashaqqat bilan bobosini orqalab, yuqoriga tomon intiladi. Lekin shu damda uning fikri o'zgaradi:

– Bobo, qarang, osmon, xuddi shiysha!

Nahot, qiynamasa bu ranglar sizni?

Nahotki shularni ko'zingiz qiysa?

Yashashni hech istamaysizmi?²⁸

Tajohuli orif san'ati orqali ifodalangan bu misralarda nevara bobosini yashashga, hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Bobo hayotda e'tiqodli inson bo'lganligi uchun ko'hna udumga qarshi borishni o'ziga isnod deb biladi, lekin nevara boboni odamlardan uzoqda asrashini, asrab-avaylashini aytib, uni ko'ndirishga erishadi.

Dostonda inson qadri yuksak ulug'lanadi va keksalar har doim ham millatning aql-zakovat chirog'i bo'lib kelganliklari bugungi kitobxonga axloqiy mazmunga ega bo'lgan afsona orqali tushuntiriladi. Ayni paytda unda afsonaga xos xayoliy uydirma kuzatiladi:

Derlarki, quyunlar unda sarsari,

Tunlari sharpalar yurarmish.

Mog'oraning zim-ziyo qa'ri

Odamay shivirlar, dam oh urarmish²⁹.

Dol Qoyadagi mog'oraning odamay shivirlashi, oh urishi odatiy hol emas. Shu orqali shoir uning xalq tushunchasida shunchaki oddiy qoya emas, balki g'ayrioddiylik kasb etgan makon ekanligiga urg'u beradi. Ayni choqda bu yerda inson o'z ajali bilan dunyodan o'tishi lozimligi, uni qoyadan tashlash xalqimizning islom tarbiyasini olgandan keyingi fe'liga zidligi ifoda etilgan.

Asarning yana bir muhim jihati shuki, shoir dastlab bosh qahramonga nom bermaydi. Eski udumni buzib, bobosining hayotini saqlab qolgan nevara yillar o'tib el-yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib yetishgandan so'ng unga Roston deb ism qo'yadi.

Shoir ezgulik va yovuzlik kurashini jonli aks ettirish maqsadida Rostonga qarshi bo'lgan tantiq shahzoda obrazini olib kirgan. Asardagi voqealar shu joyda o'z cho'qqisiga erishadi. Chunki Roston shahzodaning kim tong nurini menga ko'rsatsa, uning istagini amalga oshiraman, degan mantiqsiz shartini bajaradi. Shahzoda Rostonning chag'al urug'ini qiz solig'idan ozod qilish haqidagi istagini noiloj qabul qiladi. Sababi, xalqqa nisbatan uning qalbida yovuzlik hukmron edi. Shu bois shahzoda chag'al urug'iga tegishli don-dun, g'aram, omborlarni yoqib yuboradi. Yurtda boshlangan ochlikdan xalqni yana Roston qutqaradi. Natijada shahzodaning chag'al xalqini qulga aylantirishdan iborat xudbinona istagi amalga

²⁸ Мухтор А. Дол қоя // Шарқ юлдузи.- Тошкент, 1986.- №6. –Б. 16.

²⁹ Мухтор А. Дол қоя // Шарқ юлдузи.- Тошкент, 1986.- №6. –Б. 18.

o'shmaydi. Shoir erk hamma davrlarda xalqning azaliy orzusi bo'lib kelganligini, ezgulik kuchlari hamisha g'olib bo'lishini yuqoridagi lavhalar orqali kitobxonga yetkazadi. Bu voqeaning yana bir ibratli jihati shundaki, xalq Rostonga o'z xaloskori sifatida qaraydi va nogahon dunyodan o'tgan yurt oqsoqolining o'rnida yosh Rostonni boshliq etib saylamoqchi bo'ladi. Shundagina u bu martabaga munosib emasligini, azaliy udumga qarshi borib, bobosini Dol Qoyadan tashlab yubormaganini, amalga oshirgan ezgu amallari ortida donishmand bobosi turganligini aytadi. Demak, shoir donishmand bobo obraziga shu jihatdan alohida mazmun yuklaydi.

E'tibor berilsa, doston syujeti afsonaviy voqealarga yo'g'rilganligi bilan nihoyatda ta'sirchanlik kasb etmoqda. Unda garchi bobo qismati obrazlantirilayotgan esa-da, aslida tub mag'zida ko'p asrlik tarixga ega ulug' xalq taqdiri, ruhiy erkinligi masalasi yotadi. Buni baralla aytish mushkul bo'lgan o'tgan asrning 80-yillarida shoirga afsona vosita bo'lib xizmat qildi.

Doston mazmunidan Dol Qoya misolida ko'hna udumlar insonning zavoliga emas, kamoliga xizmat qilishi kerak, degan hayotiy xulosa kelib chiqadi. Umuman, Asqad Muxtorning «Dol Qoya» dostonida ko'hna afsona mazmuni davr voqealari bilan bog'lab qayta talqin qilingan. Unda afsona mazmuni deyarli o'zgarishsiz, ammo uning shakli batamom o'zgartirilib, stilizatsion folklori ham yuzaga keltirilgan. Doston chuqur falsafiy-ijtimoiy mazmunga yo'g'rilganligi bilan e'tiborni tortadi va 80-yillar o'zbek adabiyotida dostonning o'ziga xos ko'rinishi sifatida o'rin tutadi.

Mustaqillik millat tarixida ham, adabiyot tarixida ham muhim davr bo'ldi. Bu davrda so'z va fikr erkinligi sari keng yo'l ochildi. Tarixiy, diniy-axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek xalqining ongi, dunyoqarashida tub o'zgarishlar yuz berdi, qalbida esa istiqloлга shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari qaror topdi. Binobarin, davr dostonchiligida mana shunday yangilanishlarni ifodalash, millatning milliy mustaqillikka kirib kelish tarixini badiiy yoritish bosh xususiyatga aylandi. Ana shu xususiyatlar shoirlarimizning hayot materialini tanlashda, unga yondashishda, badiiy-estetik talqin qilishda, o'z individual mahoratlarini namoyon etishida yorqin kuzatiladi. Binobarin, istiqloл yillarida yaratilgan dostonlar quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Davr dostonlarida mustaqillikning ma'naviy-ijtimoiy asoslarini ochishga, milliy g'urur tuyg'ulari psixologiyasini yoritishga e'tibor qaratildi. Bu jihatdan Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» asari ahamiyatli. Istiqloлга shukronalik ruhi bilan sug'orilgan bu dostonda Zulfiya o'tgan hayotiga nazar tashlar ekan, o'zi yashagan tuzum manzaralarini qalbi tubidagi o'kinchlar, armonlar vositasida tasvirlaydi. U sobiq tuzumning qusurlarini, shu tuzum sharoitida yashab ijod etganda yo'l qo'yan xatoliklarini mardona turib tan oladi. Shoiraning ijodiy jasorati shu bilan belgilanadi.

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,
Betlab, benolish yashabmiz ko'p yil.
Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin

Labi kulib, nechun rang-ro`yi zahil³⁰ [129,216].

Bu fikrlar o`ziga xos iqronoma, xatolardan ozurlangan qalb sadolaridir. Yashab o`tgan hayot yo`liga nazar tashlab, undagi qusurlarini tan olish insonning e`tiqodi yuksakligini va kuchli iroda sohibi ekanligini namoyon etadi. Shoira «yurt hokimining labi kulib, rang-ro`yi zahil bo`lganligi, o`zini toji yo`q podshoday sezishi» misolida mamlakatimizning rasman ozod, lekin amalda qaram bo`lgan yetmish yillik hayotiga ishora qiladi. Chunki bunday fikrlarni sobiq tuzum yillarida baralla aytishning iloji yo`q edi. Shuning uchun Zulfiya hurriyatga, yurtning mustaqil kunlariga shukrona qilar ekan, ko`z o`ngida beixtiyor o`tmish manzaralari jonlanadi. Ayniqsa, u shu kunlarga intilgani uchun qatag`on qilingan akasini kuyinib yodga oladi:

Aka, jonim akam – jondoshim akam,
Oltmish yil izimga qaytib yig`layin,
Bo`g`zimda tosh bo`lgan yo`qlovlarimni
«Oh»larim eritar – aytib yig`layin³¹ [129,214].

Bu misralar orqali shoira akasiga o`xshagan millat farzandlariga qaynoq mehrini ifoda etayotir. Shuning uchun unda «aka» so`zi bir misraning o`zida uch marta takrorlantirilishi evaziga millat fidoyilari obrazi umumlashtirilgan. Asarda «yo`qlov» so`zi ham bekorga ishlatilmayapti. Chunki qatag`onga uchraganlarning qismati shu qadar ayanchli ediki, hatto ular uchun ovoz chiqarib yig`lash, aza ochish mumkin emas edi. Shuning uchun shoira oltmish yil ortga qaytib, bo`g`zida qotib qolgan «oh»larini eritib yig`laydi. Bu ohu nolalarda esa nafaqat bir lirik qahramon – shoiraning, balki butun boshli millatning ezg`in va qayg`uli tuyg`ulari yashiringandir.

Shoira o`sha davrdagi qamoqxonalarda haqida ham yozadi:

Onam qo`llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab.
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni «sizlab»³² [129,215].

Bu satrlarda shoiraning onasi timsolida davr onalarining holati aks etgan. Onaning tugunchak bilan shahardagi qamoqxonalarda sargardon bo`lishi, o`g`lining qaysi avaxtaga tashlanganligini bilish uchun soatlab navbatda turishi singari tasvirlarda bu xususiyat bo`rtib ko`rinadi. Sokin jussali, dili vayron, «mo`ldir-mo`ldir ko`zlarida qotgan yoshlar» kabi tasvirlar davr onalarining farzanddan ayro tushgan holatini o`zida yorqin aks ettira oladi.

Ota, bir ko`r madik ko`zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasi
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.
Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg`in doyasi xudosizlar-ku³³ [129,215].

³⁰Zulfiya.Tong bilan shom aro. Сайланма.– Тошкент: Шарк, 2005.–Б.216.

³¹Zulfiya.Tong bilan shom aro. Сайланма.– Тошкент: Шарк, 2005.–Б.214.

³²Zulfiya.Tong bilan shom aro. Сайланма.– Тошкент: Шарк, 2005.–Б.215.

³³Zulfiya.Tong bilan shom aro. Сайланма.– Тошкент: Шарк, 2005.–Б.215.

Bu satrlarda endi jigargo`shasi qatag`on qilinib xo`rlangan ota qiyofasi gavdalantirilmoqda. Shoir o`z otasiga xos mustahkam iroda, sabru qanoatni ifoda etar ekan, o`sha davr otalarining tipik qiyofasini chizadi va ular bu ijtimoiy ko`rgulik sabab chekkan ruhiy iztirobini erkaklik g`ururi tufayli onalar kabi oshkor etolmasdan, «Soldim xudoga» deyish bilan o`z hukmini bildirganligini ochib beradi. Bunday hayotiy tasvirlarda, albatta, millatning ijtimoiy dardi qalamga olingan.

Badiiy ijodda iztirobli kechinmalarni, insoniy dardlarni xotiralar tarzida ifoda etish usuli butunlay yangi emas. V.M.Jirmunskiyning yozishicha, bu usulni qo`llash J.Bayron dostonlari («Parizina»)dan boshlangan³⁴. U keyingi yillarda o`zbek dostonchiligida ham urfga aylanib bormoqda. Zulfiya ham qalbida kechgan tug`yonlarni monologda ifoda etar ekan, bu usuldan samarali foydalanadi. Shu jihatlarni inobatga olib, adabiyotshunos N.Rahimjonov «Xotiram siniqlari» dostonining XX asr oxiri – XXI asr boshlari o`zbek dostonchiligi takomilida ayriча аhamiyat kasb etganini ta`kidlab, yozadi: «Gap asar mavzui milliy istiqloqlga bag`ishlanganligida emas. Hamma gap hurriyat uyg`otgan milliy g`urur tuyg`ularini ta`kidlash asnosida inson ruhoniёti iqlimlariga teran kirib borganligida, kechinmalar silsilasi asosida erkka intilib yozg`irgan ruhning suratini chiza olganligida ko`rinadi»³⁵.

2. Mustaqillik dostonlarida diniy-axloqiy qadriyatlarining talqini, olib o`tmishimizda yorqin iz qoldirgan mashhur shaxslar hayoti, taqdiri haqida diniy-falsafiy, tasavvufiy mavzuda dostonlar yozish o`tgan asrning 90-yillarida o`ziga xos an`ana tusini oldi. Eshqobil Shukurning «Naqshband» dostoni bu jihatdan e`tiborni tortadi.

Adabiyotshunos Sh.Hasanov 90-yillarda yaratilgan dostonlarni tahlil etar ekan, yozadi: «Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumi, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning syujetidan qonuniy joy olmoqda. Ijodkor esa o`zining axloqiy, ma`rifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib ro`yobga chiqarmoqda»³⁶.

«Naqshband» dostonida Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Bahovuddin Naqshband singari avliyolar obraziga chizgilar berilgan. Shoir tarixiy shaxslar obrazlarini badiiy gavdalantirish orqali yosh avlodni uzoq o`tmishimizda yashab o`tgan, karomat va bashoratlari bilan insoniyat ahlini hamon hayratga solib kelayotgan siymolar hayotini yoritishni ko`zlaydi.

Eshqobil Shukur Bahovuddin hayotidagi eng xarakterli davrlarni qalamga oladi. Shulardan biri uning tavalludi bilan bog`liq. Hinduvon bo`ylab o`tib ketayotgan karvon bilan borarkan, ulug` mutasavvuf Boboyi Samosiy shu yurtda bir o`g`lon tug`ilishini bashorat qiladi. Buni birlamchi manba Alisher Navoiyning

³⁴ Жирмунский В.М. Байрон и Пушкин. –Ленинград: Наука, 1978. –Б. 214.

³⁵Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 26.

³⁶ Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 2004. –Б. 188.

«Nasoyimul-muhabbat» asaridagi quyidagi mulohazalar tasdiqlaydi. Xoja Ali Rometaniyning shogirdi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy «Qasri Hinduvondan o`tar da der emishlarki, bu tufrog`dan bir er (o`g`il bola) isi keladur. Qasri Hinduvon Qasri Orifon bo`lgay»³⁷. Ikkilamchi manba H.Homidiyning «Tasavvuf allomalari» kitobida ham shu haqda fikr yuritiladi³⁸. Eshqobil Shukur dostonida ana shu ma`lumotni badiiy qayta ishlagan.

Boboyi Samosiy otdan tushdilar.
Bir chayqalib ketdi Qasri Hinduvon,
Bir buloq ko`z ochdi bosgan izidan,
Xizr hassasidan yoqqanday imon³⁹.

Ma`lumki, Boboyi Samosiy tarixiy shaxs bo`lib, o`zining yuksak diniy e`tiqodi, ilmi, bashoratlari bilan tasavvuf olamida shuhrat qozongan. Asarda uning mana shu jihatlariga alohida urg`u berilgan. Shoir Boboyi Samosiy otdan tushgan paytlarida Qasri Hinduvonning «bir chayqalib ketishi», uning izidan «bir buloqning ko`z ochishi» kabilar avliyoning g`ayrioddiy xislatlariga, karomatlariga ishoradir. Ayni paytda Bahovuddinining tug`ilishi bashorat qilinadi. Eshqobil Shukur Boboyi Samosiyning Qasri Hinduvonda to`xtashining sababini ham ochishga intiladi:

Hinduvon tuprog`in hidladilar so`ng
Abad shamollarin bo`ylar edilar.
Ilhom tovush berdi pining tilida
Tuproq hikmatidan o`qib dedilar:
«Bu tuproqdan bir er isi keladir,
Ul er fayzi bilan Qasri Hinduvon
Kun yetib Qasri Orifon bo`ladir»⁴⁰.

Boboyi Samosiy tuproqni hidlab ko`rib, Hinduvonda bir avliyo tug`ilishini oldindan aytadi. Dostonida ham ana shu voqelik – Bahovuddinining tavalludi badiiy to`qima bilan uyg`unlashgan holda tasvirlangan. Mazkur jarayonni shoir Boboyi Samosiy safardan qaytayotgandagi holati orqali reallashtiradi:

Boboyi Samosiy, avliyo Bobo
Qasri Hinduvondan qayta o`tar choq,
Oq changlar to`zg`igan somon yo`lida
Qadim hayot bilan sirlashdi uzoq.
Bir zum tin oldi-da, so`ngra dedilar:
«Dimog`imiz sezgan o`shal er hidi bu gal
bu tuproqdan keldi ortuqroq»⁴¹.

Ma`lumki, Boboyi Samosiy Bahovuddinni yoshlikdan farzand qilib olgan va uni Amir Kulol tarbiyasiga topshirgan. Alisher Navoiy mulohazalari mazkur fikrga oydinlik kiritadi: «...Va ashob sari boqib, debdurlarki, «Bu ul er (o`g`il bola) durki,

³⁷ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2006. –B. 256-257.

³⁸ Хомидий Х. Тасаввувф алломалари. –Тошкент : Шарқ, 2004. –Б. 178.

³⁹ Шукур Эшқобил. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 231.

⁴⁰ Шукур Эшқобил. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 231.

⁴¹ Шукур Эшқобил. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 232-233.

bizg'a aning isi yetib erdi, ro'zg'orning muqtadosi bo'lg'ay. Va Amir Sayyid Kulolga buyurdilarki, «Farzandim Bahovuddin haqida tarbiyat va shafqatni darig' tutmag'aysan». Dostonda ham shoir ushbu haqiqatdan chekinmagan: «Uch kundan so'ng Boboyi Samosiyning osmonning o'ngiri etaklariga manglayiga oy porlagan go'dakni quyosh bolasiday obkeb soldilar. Etaklari nurga chulg'angan Bobo uni farzandlikka qabul qildilar»⁴². Shoir Bahovuddinni «manglayida oy porlagan go'dak» deya tanishtiradiki, bunda tasavvufiy ruh sezilib turadi. Shu tasvir orqali kitobxon shoir ifodalayotgan voqelikning, u yaratgan badiiy obrazning mohiyatini anglashga intiladi.

Dostonda Bahovuddinining kamolga yetishi jarayoni ham qalamga olingan. Unda yozilishicha, din dunyosini, qalandarlar hayotini kuzatgan Bahovuddin insonning yorug' dunyoga kelishi sabablarini izlashga urinadi. Nihoyat, alloma bu dunyoning orzu-havaslaridan voz kechmagan holda Olloh yo'lida ibodat qilib yashash mumkinligini tushunib yetadi. Shu bois u «Dil ba yoru, dast ba kor» – «Ko'ngling ollohda, qo'ling esa mehnatda bo'lsin» degan hayotiy xulosaga keladi. Dostonda mana shu jarayonlar nihoyatda ishonarli ifoda etilgan. Shunday qilib, shoir voqelikni realistik-romantik uslubda diniy, ilmiy manbalarga tayangan holda ishonarli tasvirlashga erishgan. Bu esa keyingi yillar dostonchiligiga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Tarixiy-tasavvufiy mavzudagi «Naqshband» dostoni Eshqobil Shukurning diniy sarchashmalarga chuqurroq kirib borayotganligidan darak beradi.

3. Davr dostonchiligida o'zbek xalqi tarixining muhim qatlamlari qalamga olinib, tarixiy shaxslar obrazini yaratishga, bu bilan milliy istiqlol ildizlarini ochishga e'tibor berildi («Tavajjuh», «So'z yo'li»). Binobarin, Asqar Mahkamning Boburga bag'ishlangan «Tavajjuh» dostoni ham tasavvufiy mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Shoir Bobur hayotining millat va Vatan taqdiridagi g'oyat muhim nuqtalarini, ruhiy holatlarini qalamga oladi. Xususan, asarning «Mirzo Bobur tazarrusi», «Mirzo Boburning muroqabasi», «Mirzo Boburning piri Shayx Hikmatulloh ibn Ziyodullohga maktubi» fasllarida ana shu ruh yorqin seziladi. Doston insonning yashashdan maqsadi, ruh va nafs munosabati masalalarini badiiy talqin etishga bag'ishlangan. Aslida ham shunday. Shoirning har to'rt dostoni ham betakror uslubda yaratilgan. Sababi, mazkur asarlarga mazmun jihatdan boshdan-oyoq mumtoz dostonlar ruhi singdirilgan. Ularda tasavvufiy terminlar (tavajjuh, tazarru, muroqiba, qalandar, tasbeh, aso, kachkul kabi) keng qo'llanilib, shoirning g'oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqaruvchi vosita vazifasini o'tagan.

Doston Boburga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi asarlardan farqlanib turadi. Chunki unda tarixiy voqealar tasviriga keng o'rin berilmagan. Balki ularga ba'zi ishoralar bor. Dostonning «Mirzo Boburning qazo va kadar haqida o'ylaganlari» qismida Ibrohim Lo'diy bilan Bobur munosabatiga ishora qilib o'tilgan.

Dostonning yana bir muhim jihati, boshidan oxirigacha g'azalning qofiyalanish shakli saqlanganligi bilan belgilanadi. Buni mumtoz adabiyotdagi an'ananing yangilanganligi sifatida ham baholash mumkin. Chunki butun boshli

⁴²Шукур Эшқобил. Ҳамал айвони. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 257.

dostonni bir xil shaklda – gʻazal qofiyasidan foydalangan holda yaratish shoir uslubining betakror xususiyati sifatida namoyon boʻladi.

Shoirning poetik fikrni falsafiyashtirishi, voqelikni, maʼnaviy-ruhiy jarayonlarni mumtoz dostonlarga xos uslub va shaklda ifodalashga intilganligi fazilatdir. «Tavajjuh» dostonidagi lirik tasvir oʻzgacha. Unda lirik asos badiiy chizgilarda oʻz ifodasini topadi. Dostonda shoh va shoir Boburning qalb dunyosi manzaralari berilgan. Unda, asosan, kechinmalar surati chizilgan. Natijada dostonda tarixiylikdan koʻra umuminsoniy jihatlar boʻrtib koʻrinadi. Kitobxon koʻz oʻngida tarixiy shaxs – Bobur, avvalo, iztiroblarda oʻrtangan, oʻkinch va armondagi inson sifatida gavdalanadi. Ana shu jihat tarixiy mavzu talqinidagi yangi usullardan biri sifatida koʻzga tashlanadi. Garchi shoir tarixiy shaxs hayotini asos qilib olgan boʻlsa-da, unda bugunning dardlari, umuminsoniy jihatlar yaraqlab turadi.

Doston boshidan oxirigacha Bobur monologlaridan iborat. Unda shoir monologning ikki xilini uygʻun holda qoʻllagan. Asarning sof monolog asosida qurilgan Bobur oʻylari shaklida berilgan qismlarida shoh va shoirning oʻz-oʻziga murojaati muhim oʻrin tutadi. «Mirzo Boburning qazo va kadar haqida oʻylaganlari» qismida Boburning oʻz qismati aks etgan satrlar mavjud:

Yo Bor Xudo, tuman jahongirdan soʻng,
Qurʻon, qalam, qilich tutgan foniyman.
Yo Bor Xudo, Temur naslidan soʻnggi
Bodiyalar kechgan Andijoniyman⁴³.

Satrlardan maʼlum boʻladiki, minglab jahongirlar orasida Bobur alohida ajralib turadi. Chunki u uch narsa: Qurʻon, qalam, qilichni tutgan shohdir. Yana mazkur misralarda biografizm ham mavjud. Yaʼni uning Temur avlodi va Andijondan ekanligi ifoda etilgan. Yoxud «Mirzo Boburning muroqabasi»da Bobur oʻzini «choʻqqi uzra oʻlgan burgut», «toshdek sukut»ga tenglashtiradi. Bunda ulugʻ shaxsning oʻzi anglagan fojialari aks etgan.

Boburning shoir qalbi hamisha adolatsizlik, vafosizlik, xiyonat kabilardan ozor chekadi. Shu bois oʻzini «yori zor», «xoru zor» deydi. Binobarin, bu ifodalarda Boburning Vatandan ayriliqdagi holati badiiy aks ettirilgan.

Biroq davr dostonchiligida monologning birxillashib lirik qahramon nutqidan iborat boʻlib qolishi ifoda imkoniyatlarini toraytirayotganligi ham kuzatilmoqda. Jumladan, S.Akbaryning «Sevgimdan yarataman» dostoni haqida shu fikrni aytish mumkin. Shoirning oʻzi uni lirik doston deb ataydi. Avvalo, mazkur asar lirik doston mezonlariga u qadar mos kelmaydi. Sababi, lirik qahramon shoir tilidan ifoda etilgan poetik fikrda yaxlitlik yetishmaydi. Bu esa badiiy ifodada sustlikni, fikrsizlikni vujudga keltirgan. Unda sobiq tuzum yillari nafasi ufurib turadi.

4. Davr dostonchiligida shaxs erki masalasi yetakchi oʻringa chiqdi. Istiqlol va shoʻro davri kishilari psixologiyasi, kechinmalar manzarasini ikki qutbda shoʻro va mustaqillik qiyosi nuqtai nazaridan oʻrganildi. («Ichkari...Tashqari», «Yobondagi yolgʻiz daraxt»). I.Otamurodning «Yobondagi yolgʻiz daraxt»

⁴³Маҳкам А. Ҳақ. Сайланма. – Душанбе: Адиб, 1998. –Б. 262.

dostonida yolg'iz daraxtning yashash uchun kurashgan holati nihoyatda tabiiy tasvir etilgan. Bu orada necha bor «labi quvrab javzo» – yoz, «libosini almashib ko`klam» – bahor, «xayr etgan tiyramoh» – kuz fasllari kelib ketadi. Shoir bunda «labi quvrab», «libos almashlab», «xayr aytgan» kabi insonga xos sifatlarni fasllarga ko`chirib, tashxis san'atini hamda metaforik sifatlashlarni vujudga keltirgan. Mazkur badiiy topilmalar falsafiy mohiyat kasb etishi bilan birga shoir badiiy-estetik tafakkurining yuksakligini o`zida namoyon etadi.

«Yobondagi yolg'iz daraxt» dostoni I.Otamurod asarlariga singdirilgan badiiy-falsafiy konsepsiyasining yangi qirrasini yoritishi bilan ahamiyatlidir. («Yobon cheksiz. Masofa – umid ... Masofa – xotira. Umid – xotira tuprog'i»). Yobon – hayot, masofa esa hayot yo`llari. Unda insonning umidi va xotiralari ekilgan. Shu bois u cheksizdir. Shoir ana shu hayotiy-falsafiy fikrlar asosida voqelikka nazar soladi.

Ko`rinadiki, XX asr ikkinchi yarmi 50-60-yillar, 70-80-yillar, mustaqillik davri dostonlari o`ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. O`tgan asrning 50-60-yillarida yaratilgan poemalarda davr xurujlaridan, sobiq tuzumga xos soxta demokratiya qurshovlaridan tashqarida erkin harakat qilolmagan ijodkorlarning mustaqillik, erkka intilish g'oyalarini turli ramziy timsollar vositasida ifodalagani, real hayot manzaralarini ko`proq lirik qahramon kechinmalari orqali tasvirlagani kuzatilsa, 70-80 yillarda turg'unlik davri fojialari, xalq qalbida yashiringan dardlar, erk, ozodlik g'oyalari ramzlar asosida aks ettirilgani ko`zga tashlanadi. Shunisi bilan ular o`rtasida muayyan uyg'unlik borligi seziladi. Biroq 70-80 yillar dostonchiligining o`ziga xos muhim xususiyati shundaki, bu davr dostonnavislari erk haqidagi orzu-intilishlarini folklorning ertak, afsona, rivoyat singari janrlarini badiiy sintez va stilizatsiya qilish asosida ramziy ifodalash yo`lidan borishgan. Istiqlol davri dostonlarida esa milliy mustaqillikning ma'naviy-ijtimoiy asoslarini, ildizlarini ochishga: diniy-axloqiy qadriyatlarning talqini, istiqlolga shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari, shaxs erki singari masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur o`quv qo`llanma zamonaviy o`zbek adabiyotida badiiy hodisa darajasiga ko`tarilgan dostonlarning sara namunalaridan tarkib topgan. O`ylaymizki, bu antologiya janr namunalarini o`rganishda o`quvchi va talabalarga yaqin ko`makchi bo`la oladi.

Aziz o`quvchi! Sizdan qo`llanma haqidagi qimmatli fikr va takliflaringizni kutib qolamiz.

Dilrabo Quvvatova,
Filologiya fanlari doktori
Nafosat O`roqova,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



G'ULOM ZAFARIY (1889-1938)

G'ulom Zafariy ko'pqirrali ijod sohibi bo'lib, u o'zbek milliy teatri, teatr tanqidchiligi, musiqa madaniyati, qolaversa, milliy adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallaydi. U 1889-yili Toshkentning Beshyog'och dahasiga qarashli Kattabog' mahallasida tavallud topdi.

Ijodi 1914-yildan boshlangan bo'lib, dastlab o'z she'rlari bilan taniladi. So'ngra esa «Baxtsiz shogird» (1914) nomli bir pardali pesa yozadi, keyin «Bahor», «Gunafsha», «To'sqinchilik», «Yorqinoy», «Rahimli o'qituvchi», «Mozorlikda», «Maqtangan kishi», «Tatimboy ota», «Cho'pon Temir» (1924) hamda «Yoshlar endi berilmas» (1926) kabi pesa va dostonlar yaratadi. Biroq Zafariy yozuvchi, dramaturg sifatida o'zining «Halima» (1920) pesasi bilan mashhur bo'lgan.

O'zbek musiqa madaniyati tarixida u musiqiy sahnaviy asarlar muallifi, milliy musiqa namunalari to'plovchisi hamda tadqiqotchisi sifatida tanilgan. «Sharq musiqalari va cholg'ulari», «Musiqa muammosi», «O'zbek musiqasi to'g'risida» kabi maqolalari shular jumlasidandir. G'ulom Zafariy 1937-yilda qatag'onga uchrab, 1938-yil 4-dekabrda qatl etilgan.

GULYOR

1
Shahlo ko'zlik qora qosh
Shirin so'zlik bir go'zal.
Satang sho'xlik aralash,
Yetilgan qiz ul tugal.
El so'zicha xollari:
Qizil yuzga dog' tushgan.
Bo'yi tengi chilvir soch,
Nozik bo'yga yarashgan.
Qizlar qizi – qizg'ina
Dongg'in emas bizg'ina:
Barcha ellar bilardi,
To'g'ri, emas so'zgina.
Har yerda el so'zlardi,
Borcha uni sevardi,
Ko'rgan kishi shoshardi,
Ham esidan ozardi.
Eshitganlar maqtovin,
Kunlar, tunlar, o'ylardi.

Sevinib “Gulyor”ning otin.
Kuyiga qo'shub kuyladi.

Sezib ota-onasi,
Tiydi qizin har ishdan,

Sevguchilar har kuni,
Mo'ralardi tush-tushdan.
Boshqa qishloqg'a o'tib
Ketmak bo'ldilar ko'chub.
Har narsani ortushub
Qochishdilar tun pusub.

2
Go'zal bahor choqlari
Oppoq oydin tunlari –
Erdi, yo'lga tushdilar,
Daryo bo'ylab yurdilar.
Eru-xotin so'zlashdi,
Borar joyin o'ylashdi.

Xotun dedi: yoqinda,
Ushbu daryo bo'yida;
Bir qishloq bor, ko'b
yaxshi,
Kishilari yoqimli.
Og'am shunda yer tutgan,

Qayg'ularin unutgan.
Biz ham unda tusharmiz,
Tinchlik bilan yosharmiz.
So'z tindirib bir yerga,

Qo'nmay yurib hech yerga.
Ko'b yurdilar tinmasdan,
Yetdilar tong otmasdan.
Qishloq ko'zga ko'rundi,
Yo'lchilar ko'b sevindi.
Xo'rozlarning tovushi,
Boshqa turlik tuyildi.
Qo'noq keldi “turing!”
deb,
El uyqusin o'churdi.
Bog'da bulbul gullarga
Qarab, sayrab o'tundi.
Gulyor kelur bizlarga:
Qarshi olinglar dedi.

3
Suvlar to'g'ondan oshib,
Sharqirab oq ko'purdi,
Go'zal Gulyor keldi deb
Suv parchalar o'ynashdi.
Tursun shirin uyquda –
Erdi, birov tushunda,
“Gulyor” keldi, tur dedi:
“Kutar eshik tubida”.
Sevgilingdur ul saning:
Istab kelmishdur sani,

Ko`rsang, oydek yuzini,
 Unutarsan, hammani.
 Tursun ko`z ochdi birdan,
 Sezdi eshik toqillar.
 Qo`rqub hoyqirdi: kimsan?
 –O`z kishingiz ochinglar,
 Tushum o`ng keldi,
 o`xshoy –
 Deb yugurdi eshikg`a.
 Kim dedi? Men oboqoy
 Sizga keldim, qo`noqg`a.
 Ochib eshik, yugurdi,
 Otasini uyg`otdi:
 Oboqoyim keldi deb.
 Onasini uyg`otdi.
 Qo`noqlarni qarshilab,
 Oldi butun uy ichi,
 Gulyor Tursun bir-biriga
 Yer ostidan boqishdi,
 Ham jilmayib qo`yishdi.
 Og`a-singil bir-birin
 So`rashdilar ahvolin.
 Ko`rganlarin singlisi
 So`zlab berdi hammasin.
 Ikki tuqg`on topishdi,
 Og`iz-burun o`pishdi.
 O`tgan-ketgan so`zlarni
 Ko`b o`ltirib so`zlashdi.
 Tursun chog`in qochirmay
 Tikilardi “Gulyor”ga.
 Oppoq yuzlik Gulyoroy
 Bo`rtib boqardi yerga.
 Gulyor ko`ngli jizillab,
 Boqdi o`zin to`g`rilab.
 Qora, quyuq kipriklik
 Ko`z boqardi yorqillab.

4

Choy tugandi, so`z bitdi,
 Ishga ketar choq yetdi.
 Qo`noqlardan so`roshib,
 Ota-bola turishdi.
 Ho`kuzlarni surishdi,
 Dolo tomon yurushdi.
 Tursun omoch bostirib,
 Ho`kuzlarni surardi.
 Gavdalanib “Gulyor”oy
 Ko`z oldida turardi.
 Qiyg`os boqib, jilmayib,
 Yurak bag`rin yoqardi.
 Tursun o`zin yo`qotib,
 Mola ustidan qotib,
 Soatlarcha o`ylanib,

Nima bo`ldi manga? – deb
 O`z-o`zidan so`zlanib,
 Esini zo`rg`a yig`ordi.
 Hech ish bitmay kech
 bo`ldi.
 Tezdan uyga yugurdi.

5

Qo`noqlarning uyqusi –
 Keldi. Gulyor onasi
 Yanga, – dedi: biz horidiq,
 Uch kun tinmay yo`l
 yurdiq.
 O`run bersang bizlarga,
 Chiqorayluk oz hordiq.
 Joy hozirlab uyiga,
 Berdi Gulyoroylarga.
 Og`nab yotdi Gulyoroy,
 Uyqu kelmadi ko`ziga,
 Yumsa ko`zi oldida
 Tikilardi o`tkur ko`z,
 Burut osti jilmayib
 Turar edi ko`rklik yuz,
 Yurak yonib, dukullab,
 Urar edi, gupullab.
 Der edi o`z-o`ziga:
 Bir boqishda yuziga,
 Oshiq bo`lib ko`ziga,
 To`yolmadim hech qarab.
 Uyqu bosdi, tushida
 Ko`rdi Tursun bir bog`da.
 To`sib yo`lin so`z qotar.
 Gulyorga gul irg`itar.
 Quvoloshdi, chopishdi,
 “Tutalakam”⁴⁴ o`ynashdi.
 Kim tutulsa o`push, deb
 Ikkisi shart boylashdi.
 Gulyor charchab tutuldi
 Tursunga ul yutuldi.
 Qipqizordi, uyoldi
 Quchoq ichra buroldi.
 Nozik bellari bukuldi
 Shahlo ko`zlari suzildi.
 Issiq lablar bir-biriga
 Qolishdilar yopishib.
 Birdan cho`chib uyg`ondi,
 Yumdi ko`zin bo`lmadi.
 Uyqu yana kelmadi,
 Kuydi, yondi, o`rtandi.

⁴⁴ “Tutalakam” – bolalarning quvlashmachoq o`yini

Chin ko`nglidan
 Tursunning
 Sevganligin tushundi.
 Kech bo`lmog`in to`zumsiz
 Kutub qonlar yutundi.

6

So`zlashdilar to`yishib,
 Dolo-tuzda o`ynashib.
 Bir-biriga so`z berib,
 Ahd iplarini boylashib.
 Tezdan dongg`i yoyildi,
 Har kimga ul tonildi,
 Har tomondan sovchilar,
 Kunda necha kelardi,
 “Yo`q!” javobin olardi.

7

To`y kunlari yetishdi,
 El-urug`i kelishdi.
 Gulyor-Tursun to`yini,
 Qishloq eli eshitdi.

8

Qurbon qattiq sevardi,
 Mani deb yurardi,
 To`y xabarin eshitgach,
 Kuydi, yondi, qobordi.
 O`ylab o`yin tindirdi
 Yigitlikni sindirdi
 Beliga xanjar qistirdi.

9

Hama qizlar, yigitlar,
 To`yxonada to`ldilar.
 So`zlashdilar laparlar
 Chechanlari qorshusin
 So`z irg`itib yiqardi.
 Qurbon kirdi to`daga,
 Ochchiq bilan o`rtaga.
 Gulyorga ul so`z qotdi,
 Javobin tez oldi.
 Yana og`ir so`z qotdi,
 Bu ham qattiq so`z otdi.

10

Birdan qiy-chuv to`palang,
 Har kim shoshqin
 yugurgan,
 Nomard yigitni qarang,
 Qizg`a xanjarin urgan.
 To`y azaga aylandi,
 Bellar ustidan boylandi.
 Barcha qiz-u xotunlar,
 Qayg`ulandi, achindi.
 Tursun ortuq to`zolmay,
 Butun esin yo`qotdi.

Hech kim uni emlolmay,
Ko`chalarga uloqdi.

11

El ham turub turolmay,
Qayg`uni sig`dirolmay,
Gulyor kuyin chiqardi,
So`zlar to`qub terardi,
Marsiyalar aytardi.
Singarlari bu erdi:

12

Gulyor
Bulbul bo`lib sayrayman –
go`zalim jonim,
Bog`ingda terakingda –
jonginam.
Muncha to`lub yig`laysan –
gulyor.
Yoring bo`lub yig`layman
– go`zalim jonim,

Boshingda, oyog`ingda
jonginam.
Boshing ko`tar qayg`udan
– gulyor
Gulyor aytsam ne bo`lg`ay
– go`zalim jonim,
Yuragim qong`a to`lg`ay –
jonginam,
Yig`lab ko`nglimni buzma
– gulyor.
Gulyor jonni jonini –
go`zalim jonim,
Qiyamasang ne bo`lg`ay –
jonginam,
Bo`zlab jonim qiynama –
gulyor.
Tomda qomish o`t oldi –
go`zalim jonim,
Esiz Gulyor yo`qoldi –
jonginam.

Boshing ko`tar qayg`udan
– gulyor,
Gulyorjonning onasi –
go`zalim jonim,
Bolamlab yig`lab qoldi –
jonginam.
Muncha to`lub yig`laysan –
Gulyor.
Gulni uzib so`ldirding –
go`zalim jonim.
Bulbul ko`zin to`ldurding
– jonginam.
Yig`lab ko`nglimni buzma
– gulyor.
Uying kuygur Qurbonjon –
go`zalim jonim,
Gulyorxonni o`ldirding –
jonginam,
Bo`zlab jonim qiynama –
gulyor.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. G`ulom Zafariyning o`zbek adabiyoti rivojiga qo`shgan ulushi nimalarda ko`rinadi?
2. O`zbek musiqa madaniyati tarixida shoirning qanday to`plamlari tilga olinadi?
3. Zamonaviy dostonlarning o`ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo`ladi?
4. “Gulyor” dostonining obrazlar tizimi haqida nima deya olasiz?
5. Gulyor obrazini yosh psixologiyasiga tayanib tavsiflang.
6. Asarning liriklik xususiyati qaysi jihatlarida yaqqol ko`rinadi?
7. Davr voqeligini yoritishda ijodkor uslubi qanday ahamiyatga ega?
8. Dostonda qanday arxaik so`zlar qo`llangan?



ELBEK (1898-1939)

Mudhish qatag'on davri qurboniga aylangan o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Elbek (Mashriq Yusupov)dir. U 1898-yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining Xumson qishlog'ida tavallud topgan.

Elbekning dastlabki she'rlari "El bayrog'i", "Turon", "Turk so'zi", "Ulug' Turkiston" kabi gazetalarda bosilib chiqqan. 1922-yilga kelib uning "Bir so'roq", "O'ksizning o'limi", "Qarg'a", "Bibixonim madrasasi", "Turkiston" kabi she'rlari "O'zbek yosh shoirlari" (1922) to'plamida Fitrat va Cho'lpon she'rlari bilan birga e'lon qilingan.

Shoirning ilk to'plami – "Armug'on" 1920-yil nashr etilgan bo'lib, u asosan, masallardan iborat edi. She'riy to'plamlari: "Mehnat kuylari" (1930), "G'unchalar" (1935), "Chirchiq bo'ylarida" (1935), "Ashulalar to'plami", "Bolalar qo'shig'i", "She'rlar to'plami" (1936) "Sezgilar". Dostonlari: "Go'zal qiz" (1927), "Bizniki", "Paxta", "O'tmishim", "Chirchiq" (1929), "Batrak kolxozi" (1930), "Tozagul", "O'zbekiston" (1934), "Bog'bon", "Mergan", "Etik" (1935). Hikoyalari: "Dadamat" (1936), "Chirchiq", "Men kim bo'laman", "Ana", "Anorgul", "Qahhorxo'ja".

Elbek "xalq dushmani" sifatida 1937-yilning 7-avgustida qamoqqa olinib, 12 yilga ozodlikdan mahrum qilindi, oxir-oqibat og'ir kasallik tufayli Magadanda vafot etdi.

TOZAGUL

She'riy romandan boblar

I. TOG'LAR ORALAB

TOG'LAR

Tog'lar xazinalar,
Xazina tog'lar.
Tog'lar dafinalar,
Dafina tog'lar.
Tog'larda yotalar
Zo'r-zo'r boyliqlar,
Tog'larda yotalar
Chuqur soyliqlar.
Soyliqlar, soyliqlar,
Chuqur soyliqlar,
Soyliqdan oqalar
Durlar-boyliqlar.
Bu durlar, bu durlar
Qimmatlidirlar,
Hayotning yuragi,

Manbaidirlar.
Hayotlar, hayotlar,
Totli hayotlar

Tillarda qoldirar

Lazzatli totlar.

Lazzatlar va totlar

Baxsh etar tog'lar.

Go'zaldir, go'zaldir,

Go'zaldir tog'lar.

Mustahkam va ulkan

Qurilishimiz

Singari dillarni

O'ziga bog'lar

Chindan-da, shirindir,

Go'zaldir tog'lar,

Undan-da shirindir

Bizning bu chog'lar.

CHIMYON TOG'I

Qo'shiniga buyruq berayotuvchi

Shonli komandirdek jiddiy Chimyon tog';

Tepa, adir, qir, dalalar ustidan

Ko'zin olmay doim qarab turadir.

Uning ko'ksi botirlarning ko'ksidir

Yuksak va keng, yurak-dili baquvvat,

Gavdasiga qon taratgan tomirlar
 Irg'ib-irg'ib no`rmal, sog'lom uradi.
 Boshi uzra uchkan qushlar-lochinlar,
 O'lkamizda parvoz urib aylangan
 Kuchli, mahkam dirijabllar singari,
 Uchib-uchib cho`qqilarga qo`nalar.
 Lola, gullar hidlaridan zavq olib
 Yayrab-yayrab sayraguvchi qushchalar,
 Qator-qator uchg'on ayruplanlar
 Kabi ko`kda gir aylanib uchalar...
 Tog' boshida o`skan sochlar – archalar
 Tolalarin sho`x va o`ynoq shamollar
 Yumshoq, mayin taroqlar-la tarashib,
 Jingalaklar yasab, farqlar ochalar.
 Ko`ksi uzra yongan lampa-chiroqlar –
 Botir ko`ksidagi o`rdenlar
 Yangliq porlab, yog'dularin sochalar,
 Yog'dulardan nur emalar kechalar.
 Ko`k betida paxta kabi ochilib
 Tolalarin tortuvchi yulduzlar –
 Uzoqlardan mo`ralovchi sho`x qizlar –
 Chimyon sari qarab ko`zlar suzilar.
 Saf tortishib turg'on turli ekinlar:
 Jonli, shonli, kuchli bizim qo`shinday,
 Qo`llariga qurollarin tutishib,
 Yovga qarshi tayyorlanib turalar.
 Chimyon ko`b chiroyli,
 Chimyon chiroyli,
 Ko`zlar qarash bilan suqlanib boqar.
 Chimyon shifo yeri, davolar yeri,
 Xasta-kasallarni davolar, boqar.
 Chimyon quvnoq yigit,
 Chimyon yoqimli,
 Chimyon har qandayin ko`ngilga yoqar.
 Chimyonni ko`rganda go`zal qiz-bahor
 Qarimas, kundan-kun to`lib yasharar.

I. TOZAGUL

Toza gullar bilan o`skan Tozagul,
 Husni gullar husnin to`skan Tozagul.
 Tozagul qishloqda tengi yo`q bir gul,
 Tozagulsiz qishloq go`zallikda tul.
 Tozagul Chimyonning qishlog'i qizi,
 Badani oq-paxta, yuzi qirmizi.
 Qadam qo`yganida yerlar betida
 Ko`rinmas, bilinmas oyog'i izi.
 Qishloqning bo`z yigit, navqironlari
 Tilida, dilida gul dostonlari.
 Hatto bu dostonni suyub tinglashar
 Qishloqning chol, kampir, qiz, juvonlari.
 Shamollar oshiqlar, oshiq shamollar,
 Sochlari parishon, majnun-telbalar
 Oyoq izlarini o`pib, quchalar,

Talashib, opqochib ko`kka uchalar.
 Tog'lar cho`qqisida yastangan raqib –
 Bulutlar ko`zlardan yoshlar sochalar,
 Qora dillarida hasadlar yig'ib,
 Shamollarga qarshi urush ochalar.
 Tozagul shu maftun oshiqlar sari
 Nazarin solmaydi, qiyo boqmaydi.
 Uning ishq kasaliga bu dori –
 Iltifotlar, xushomadlar yoqmaydi.
 Uning ishq ko`zi boshqa va sirli
 Narsaga band, doim unga qaraydi.
 U, shu ishqning talabini o`tashda
 Har qandayin og'ir ishga yaraydi.
 Tozagul yoshlikdan otadan yetim
 Qolib o`skan yolg'uz bir durri yatim.
 Otasi umrini qo`shchilik bilan
 O`tkazgan boyaqish kambag'al Tatim.

II. TATIM

Tatim aka tug'ilgani kundan
 Hasrat, alam, qayg'u va g'am unidan
 Alla tinglab, yig'lab, ingrab yashadi,
 Kundaligin zo`rg'a topib oshadi.
 Qarori yo`q, tebranuvchi yurakdek
 Oyoqlari yerda topmadi qaror.
 Kichikkina, mitti, murg'ak chog'idan
 Ko`b eshiklar ko`rdi, bo`ldi u qarol.
 Eshiklar-eshiklar – o`rgumchak to`rlar,
 Qo`shchi, qarolga yasalgan go`rlar,
 Baloxo`rlarning og'ziga o`xshar,
 Ilon, bo`rilar iniga o`xshar:
 Ko`b jonlar bunda qurbon bo`ldilar,
 Ko`b gul-g'unchalar kulmay so`ldilar.
 Mehnat va ishning timsoli – Tatim,
 Kuch, harakatning misoli – Tatim.
 Quyoshsiz qolgan gullardek bo`ldi,
 Qorong'ilikda bo`g'ilib so`ldi.
 Undan esdalik qoldi Tozagul,
 Chaqaloq, jajji qizcha - g'uncha-gul
 Hamda u gulni asrovchi ona,
 Yuragi yara, kimsasiz bir tul.

III. NORYIGIT

Qishloqning tuprog'idan ungan yigit,
 Mehnatga yoshligidan ko`ngan yigit.
 Yuragi-dili o`tday yonar yigit,
 Ko`zlari yog'du sochar – «fonar» yigit.
 Noryigit bir kambag'al dehqon bola,
 Qo`lida, biyligida bir oz dala,
 Kichkina hovli bilan uchta jon bor,
 Noryigit ekin ekib jonlar boqar.
 Yil bo`yi mehnat qilmoq uning ishi,
 Mehnatda o`tar uning yozu qishi.
 O`zgarmay kelg'on uning shu turmushi,

Shu xilda javlon urar baxti qushi.
Noryigit qo`shchilardan uzoq turmas,
Ularning kuchlariga tuzoq qurmas.
Doimo birga turar, birga yurar,
So`zlashar, chaqchaqlashar, kayflar surar.
Bularning tilaklari – chechaklari
Bir zamin, bir tuprokdan o`sib chiqqan,
Lek quyosh yuzin to`skan qora bulut
Bu chechak tuslarini ortiq siqqan.

IV. QISHLOQ

Tozagul, Norlarning yashagan yeri
Dehqonlar qishlog`i qadimdan beri.
Unda yashadilar necha bo`g`unlar,
Qoldirib dunyoda avlod, turunlar⁴⁵
O`tdilar o`zlari karvonlar kabi,
Qishlokda qoldirib tek – faqat izlar.
Zamon o`tdi, o`tdi ortiq ko`b zamon,
O`zgarmayin keldi hayotlar hamon.
Qishloq ichra tirikchilik umidi
Bilan unda jon chekishib yashagan
Har bir emgak(chi) botirning yuragi
Qonga to`lib, oshib-toshdi oh-fig`on.
«Tirikchilik toshdan qattiq» maqolin
Og`izlarda doston qilib insonlar,
Tuzuk rohat ko`rolmayin armonda
Ketishdilar jonlar berib, ko`b jonlar.
Hayot shumi, ular hayotni shu deb
Yashashdimi, shunga qondilarmi?
Shubhasiz, yo`q, chin hayotni kutdilar,
Shu hayot-chun xunobalar yutdilar.
Lekin o`zga kuchin bog`lab oluvchi,
Boshqalarni shu hollarg`a soluvchi,
Talovchilar, rohat yashashdi bular,
O`zgalar topganin oshashdi bular.

V. KAPTARXONA

Qishloq chetidagi qiya betida
Go`yo yerga qo`ngan qushcha – hovlicha
Tepalar bag`rida uzangan cho`pon
Singari yonboshlab mudrab yotadi.
Uning yonidagi chuqurlik-pastak
Yerda girdob ichra to`plangan xastak
Uyulgan uychalar qalqib turadi,
Kimlardir ularda g`imrab yuradi.
Yuqorigi hovliga bir xasta qizcha
Sochlari, shu qadar mayin bo`lsa ham,
Ezilgan, sirqiroq, qaqshoq taniga
Go`yoki ignalar yanglig` botadi.
U xuddi patlari yulingan qushcha,
Ucharga boyaqishda qo`sha qanot yo`q,
Uni harakatga keltirish uchun

Yordamchi, ko`makchi, rahimchi zot yo`q.
Xamushlar⁴⁶ o`lkasi – mozorlar kabi
Uning bag`ri bo`lgan qushu qurtga in.
G`am uning eshigin po`paklar kabi
Berkitib, bo`lmishdir shodlikka tiqin.
Kaptarlar u yerda bo`lib jonishin,
To`planib barchasi qilishar yig`in.
Go`yo uy egasin xotirlaganday
Bo`lishib boshlashar g`amli xonishin.
Hovlining ichida o`skan yakka tut
Qayg`uli boshini quyiga solg`on
Yetimlar singari xayol suradi,
Kim bilsin, nimalar o`ylab turadi.
Burchakda yotuvchi eski bir choriq
Issiqdan qovjirab ortiq qurigan.
Kim bilur, bu qachon, kimlardan qolgan,
Kimga, kimlar uchun xizmatlar qilgan.
Hovlining siri ko`b, sirlar kundayki,
Bulut bosgan bilan ochilmay qolmas.
Sir qushi qanoti kuchli, shundayki,
Qancha uchkan bilan charchamas, tolmas.

VI. BIR OILA

Chuqurliq ichidagi hovli ichra
Yashovchi oilaning soni uch jon.
Bu ro`zg`or beshigini tebratuvchi
Yoshgina bir kambag`al, kichik dehqon.
Bu yosh juda ishchan, kuchli, chaqqon,
Shunchalik oilani o`zi boqg`on,
Yovga qattiq, do`stga yumshoq yigit,
Ko`b tanti, qo`li chaqchaq yigit.
Qo`shnisi Tatim hali uning ko`zin
Kechalar yumdirmayin ochib qo`ydi.
Yuragi alam o`ti ichra qolib,
Shu holga chidolmayin yonib-kuydi.
O`ksik qiz – Tozagulni, tul onani,
Keltirdi o`z uyiga bir kun borib.
Uning bu yordamiga, hamdamiga
Suyunib quvonishdi ikki g`arib...

VII. QO`SH MAG`IZ

Yangi oy borgan sayin to`lishmoqda,
Husniga husn yo`ldosh bo`lishmoqda.
G`uncha-gul dahanlari ochilmoqda,
Islari dimoqlarga sochilmoqda.
Noryigit Tozagulning suyar yori,
Tozagulning borligi uning bori,
Tozagul bir qizilgul, u – yaprog`i,
Ayrilmas, ikkisining bir tuprog`i.
Bir xilda quvonchlari, shodliklari,
Bir tusda qayg`ulari, alamlari.
Go`yo Nor bir dutoru sevgan yori –

⁴⁵ Urug', qavm

⁴⁶ Mo`l-ko`lchilik, xomashyo – Elbek

Tozagul shu dutorning qo`sha tori.
 Noryigit dalalarda yotib qolib
 Ishlaydir yerlar haydab, ketmon chopib,
 Tozagul o`choq qalab, o`tlar yoqib,
 Eltadir osh tayyorlab, nonlar yopib.
 Ikkisi xuddi egiz – qo`sh mag`izday
 Qo`sha lab yoki xuddi bir og`izday,
 So`zlar bir, harakat bir, qarashlar bir,
 Joy topmas bu dillardan o`zga-yot sir.

VIII. TOG`LAR ORALAB

«Qor yog`adir, qor yog`adir, tog`lar oralab,
 Yorim ketdi, orqasidan qoldim mo`ralab».

Kunlar naq chopqir otday odim tashlab
 Yerlarda iz qoldirib o`tib turar.
 Tunlar naq kundan qo`rqan shabparraday
 Kun ketgach, qanot yozib uchib yurar.
 Noryigit erta turib, qirga qarab,
 Go`ng soldi omoch ortib, ho`kiz haydab.
 Tozagul eshikkacha birga chiqib
 Uzatdi, qoldi uzoq labin yalab
 Kimsasiz va qo`rqinchli soylaridan
 Parvosiz borar edi botir yigit,
 Tog`larni oralardi shotir yigit.
 Bug`doykor yeri uning ko`b olisda,
 Qishloqdan yarim kunlik yerda edi.
 Ertalab yurganicha tushda yetdi,
 Mo`ndisin qo`lg`a olib suvg`a ketdi.
 Ko`b yiroq emas edi buloq boshi,
 Biroq u suvg`a borib uzoq qoldi.
 To`kildi unda uning qonli yoshi,
 Belgisiz bir kuch unga tuzoq soldi.
 Bir-biri bilan bular tortishdilar,
 Ular Nor oyog`idan cholishdilar.
 Yotqizib oyoq, qo`lin bog`ladilar,
 O`ldirib tashlamoqqa chog`ladilar.
 To`satdan eshitilgach ot dukuri,
 Tashlashib qochishdilar bosqinchilar.
 Otlarin sug`ormoqqa kelishganlar
 Boyaqishning oyoq, qo`lin yechishdilar.
 Es-hushi ketgan mastdek gangidi Nor,
 Yeriga qaytib kelib yig`ladi zor.
 Sinay deb qolgan edi soz – dutori,
 Tinay deb qolgan edi mung kuylari.
 Ezilgan yuragini tutolmay Nor
 Bosh qo`yib yerga, yotib ko`b ingradi.
 Xayollar, vahimalar orasida
 Ko`zlar ham yumilishdi – Nor uxladi.
 Uyquda u bir baland yerda emish,
 Tozagul uning bilan birga emish.
 Yonidan Juma o`tib borar emish,
 Qovog`in solib unga qarar emish.
 Jumaning qo`rqinch afti-angoridan

Tozagul juda yomon qo`rqan emish.
 Nor sari unga qarab yalinarmish,
 «Bu yer dan ketayik» deb yolborarmish.
 Tozagul birdan shu choq yo`qolganmish,
 Qaygadir qarab ketib qolgan emish.
 Qo`qqisdan shu zamoni kalxat kelib,
 Noniga changal solib qochg`on emish.
 Nor kalxat orqasidan yugurarmish,
 Tovishini qo`yib qattiq qichqirarmish.
 Boyaqishning baxti uchun changaldan
 Uchqinib yerga tushib qolgan emish.
 Uyqudan turganida Noryigitning
 Sirqirab og`rir edi borliq tani.
 Yo`q edi qimirlashga hech majoli,
 Qurigan edi butun kuch-darmoni.
 Kun botar chog`i zo`rg`a qaddin rostlab,
 Ohista oyoq sudrab yo`lg`a tushdi.

IX. O`RGUMChAK

O`rgumchak qon so`ruvchi palid jonvor,
 O`rgumchak qonlar bilan oziqlanar.
 O`rgumchak yo`llar uzra tuzoq qurar,
 O`rgumchak yo`lchilarni yo`ldan urar.
 Tuzoqlar – o`rgumchaklar qurollari,
 Tuzoqlar – o`rgumchakka xizmat qilar.
 Tuzoqlar hiyla, nayrang iplaridan
 Nafsu hirs qo`llarida to`qilalar.
 Jumaboy bir o`rgumchak - tuzoq qurar,
 Jumaboy – quturg`on it – tinmay hurar.
 Jumaboy nafsi chuqur va keng,
 «Yuho» ning yeb to`ymagan og`ziga teng.
 Jumaboy qishloq ichra eng katta boy,
 Jumaboy biyligida ko`b yer, suv, joy.
 Qishloqda eng baland tom uning tomi,
 Tegrada eng baland nom uning nomi.
 Ot minib chiqsa agar ko`cha bo`ylab,
 Ko`rganlar orqasidan qolar so`ylab.
 U, shuncha yer, joyiga qoniqmasdan,
 Yana yer qo`shmoq uchun talpinadi,
 Hattoki butun qishloq yeri, suvin
 Qo`liga kiritishga urinadi.
 Noryigit chorboq-eri unga yoqib, –
 Nor ishlab qilgan uni oltin kabi, –
 Jumaboy ko`rganida uning yerin,
 G`azabdan burishadi tumshuq, labi.
 Ishlamak umidlari, pilonlari
 Yemirilib, to`zon kabi ko`kka uchdi.
 Yeriga qo`shib olmoq xayolida,
 Lekin Nor sotmoq istamaydi.
 Jumaboy sovuq qonga solib qortiq,
 «Davolab qo`ymoq» yo`lin oxtaradi,
 Nor bilan qo`shnilikni uzib ortiq
 Xotirjam bo`lish uchun urinadi.

Yer, suvda ochko`z emas faqat Juma,
 Xotinning umriga ham ofat Juma.
 Qaraydir unga «bori» to`rtta xotin,
 Bularning eng kattasi so`fi – «otin».
 Din uning qo`lida bir qurol, tuzoq,
 Din bilan ovlariga qurar tuzoq.
 Din bilan qilgan ishi sonsiz, cheksiz,
 Qizargan uning ko`zi qonga tashna,
 Har yomon baloxo`rlar unga oshna.
 Ko`b tug`ib ko`paymagan it singari,
 To`rtala xotinidan bir bola yo`q.
 O`zidan ko`rmay doim xotiniga:
 «Nega hech tug`maysan?» deb uradi do`q.
 Yana u uylanmaklik havasida,
 Belgisiz tiqilinch bor nafasida.
 Kim bilsin, kimning qizin zo`rlab olar,
 Yana kim o`z qizini o`tga solar?..

X. SOVCHILAR

Sovchilar – qorasovuq, esar ellar,
 Sovchilar – gullar bandin kesar yellar.
 Sovchilar – bevaqt yoqqan muzlar, do`llar,
 Sovchilar – ekin xarob etar sellar.
 Jumaboy Xoljon xola uyi sari
 Sovchilar yubortirib, qiz so`ratdi.
 Qizini berish uchun ko`nasa agar,
 Xoljonga ko`b pul va mol va`da etdi.
 Sovchilar – kutilmagan bu mehmonlar
 Xoljonning uyi sari jo`nashdilar.
 Borishib, Tozagulni Jumaboyga
 Qallicqa berishlarin so`rashdilar.
 Biroq gap kesimida so`z bo`ldi «yo`q».
 Otildi yov diliga birinchi o`q.
 So`rrayib sovchilar ham qaytishdilar.
 Bor so`zni borib unga aytishdilar.

XI. O`G`RI

Boy uyida shovqin-suron, g`ala-g`ish,
 Qiy-chuv, yig`i-big`i, qarg`ish-alaqish:
 O`g`irlamish uning sandig`i to`la
 «Eng qiymatli bisotin» bir g`alamis.
 Xotinlari atrofga zir yugurib,
 Faryod solib, hamma yoqin charx urib
 Chopishalar kuyik oyoq tovuqday,
 Boy to`lqinli suvda yuzgan qovuqday.
 Kim olibdir buning molin, o`g`ri kim?
 Ma`lum emas o`g`ri kim-u to`g`ri kim.
 Ko`blar yuraklari boy tuhmatidan
 Urmoqda gupillab hech to`xtamasdan.
 Kimlar bu to`satdan chiquvsi hodis
 Haqida o`ylashga fikrda ojiz,
 Kimlarga bu sirni bilish o`zi sir,
 Barchaning yuragi titraydir dir-dir.
 «Tekshirish, oxtarish» so`ngida bu ish

Ochildi, topildi o`g`irlangan mol.
 O`g`rining uyasi shu «Kaptarxona»,
 Bas, demak, o`g`ri ham tul Xoljon xola.
 Tatim o`lganiga ko`b yillar bo`ldi,
 Yosh qizi yetilib, oy kabi to`ldi.
 O`g`irlik qilmasa edi, har holda
 Yashay olarmidi bular bu holda?!
 O`g`irlik bularning kasbi-korlari,
 O`g`irlik bularning kirdikorlari
 O`g`ri bular, o`g`ri, ayniqsa Xoljon,
 «Qo`lidan qutulmas hech qanday mol, jon».

XII. TURDI OQSOQOL

Qishloqning oqsoqoli mulla Turdi
 G`azabli chehra bilan miyiq burdi.
 Tishlarin kavlab turib bir kekirdi,
 Xotinga qarab turib qattiq bir jekirdi:
 Endi ishing shu bo`ldimi, bachchataloq,
 Tekin kasbni topibsanda, ey ityaloq!
 Shariatdan va xudodan qo`rqmadingmi?
 Xalqdan sira uylayin, demadingmi?
 Mana, endi jazolanib sen o`lasan,
 Umr bo`yi turma ichra tiqilasani!..
 Oqsoqol uyi tamom xalqqa to`lgan,
 Kichkina mehmonxona liq-liq bo`lgan.
 Bular bu ajoyib hol tomoshasin
 Ko`rishib, eshitalar mashmashasin.
 Boyaqish ko`b qiynaldi, kayfi qochdi,
 «O`g`irlik qilmadim!» deb yoshlar sochdi.
 Xoljonni tinglab turgach domla-imom –
 Nosirjon din xaltasi og`zin ochdi:
 Halollik-la topilg`on mol hech yo`qolmas:
 Suvda oqmas, o`tda sira kuymas, yonmas.
 To`g`rilarga xudo o`zi yordam qilar,
 O`g`rilarga o`zi qattiq jazo berar.
 «Halol mol» to`g`risida o`ltirganlar
 Ko`z qisib bir-biriga qarashdilar.
 Xotinni «tergash» uchun saqlab qo`yib,
 Kattalar qo`zg`alishib tarqashdilar.

XIII. QIZARGAN UFQ...

Ufqqa qizil – alvon chodir tikib
 Yastanib yotdi unda yo`lchi quyosh.
 Noryigit ketar edi tog` oralab,
 Yuzlari – so`lg`in yaproq, yuragi g`ash.
 Eshikka kelganida u yaqinroq,
 Ko`rindi ko`z o`ngida yonar chiroq.
 Qarshilab oldi uni tonggi yulduz,
 Go`yoki uning tuni bo`ldi kunduz.
 Noryigit ohu afg`on chekkan bulbul,
 Tozagul qarshisida bir g`uncha-gul
 Singari kulib unga labin ochdi,
 Yo`q, atir qutisidan islar sochdi.
 Biroq ko`z dengizida bir fo`rtana

Qirg'oqqa suvlar sochib turar edi,
 To'lqinda qolgan kema kabi tana
 Har tomon o`zin erksiz urar edi.
 Noryigit bu to`lqinlar sur`atini,
 Ko`ngliga solgan qo`rqinch dahshatini
 Angladi, o`qib oldi ko`zlaridan,
 Tushundi, uqib oldi so`zlaridan.
 Botuvchi quyosh – ko`zlar ufqi uzra
 Qadalgan qizil alvon bayroq bordi,
 Og`zidan esayotgan yellar bilan
 Bu bayroq astagina yelpinardi.
 Otilib, qaynab yotgan buloq suvi
 Tovishiday, yuragidan chiqqan har so`z
 Qo`ymasdi asablarni qo`zg`atmasdan,
 Bo`lardi o`ldirgich toq dushmanga ko`z.

XIV. «SIR TO`LQINLARI»
 «Sirning to`lqinlari» qafaslar ichra
 Qamalgan qushlarning tovishlariday,
 Goh tushib, goh baland chiqib turadir,
 O`zlarini qirg`oqlarga uradir.
 Ba`zan bular ko`pirilar, toshalar,
 Qirg`oqlarni bosib, yanchib oshalar.
 Qirg`oqlarga in qo`yuvchi bo`rilar
 Bu to`lqinning dahshatidan shoshalar.
 Tinimsiz qo`shchi, qarol, xizmatkorlar,
 Har ishda bo`lib nochor parmonbarlar,
 Kunlarni tunga ulab ishlaydilar,
 Qish bo`yi molxonada qishlaydilar.
 Tunu kun ishlash bilan qorin to`ymas,
 Ozingina dam olishga boylar qo`ymas.
 Yasharlar mehnatlarin arzon sotib,
 Qolalar yildan-yilga qarzga botib.
 Bularning yer-suvlari boy qo`liga
 O`tadir, qarzga bergan «nos puli»ga.
 Qani, bir boyga «g`ing» deb ko`rsin biri,
 O`ldirar uni boyning ko`zi qiri.
 Dillarda sirlar yotar bo`lib qat-qat,
 Tarqalar bular avloq yerda faqat.
 Avloqda sir qushlari qanot yozar,
 Avloqda sir qushlari erkin uchar.
 Qishloqning qarollari, qo`shchilari
 Tog`larning orasida yer haydashib
 Yurarkan, tegra yoqqa qarab olar,
 Undan so`ng ko`ngli tinchib qo`shiq aytar:
 «Bu tog`lar – baland tog`lar,
 G`aribning yo`lin bog`lar,
 G`aribga g`arib yig`lar,
 Biz g`aribga kim yig`lar? «
 «Xudo olsin zolimni,
 Olib qo`ydi yorimni.
 Ming tillaga bermasdim
 Labidagi xolini...»

Shamollar yuguruk otday uchib o`tar,
 Bularning betlaridan quchib o`tar.
 Bir-birin kutgan oshiq qiz-yigitlar
 Yuraklar oshiqinib vaqt kutar.
 Ko`b qishlar, yozlar kelib yetishdilar,
 Suvlar ham toshib, loyib tinishdilar.
 Dalalar bag`ri necha donga to`lib,
 Nechalar qonga to`lib so`nishdilar.

XV. TUN BAG`RIDA
 Tepada mo`ralovchi oy-qiz sochi
 Parishon ko`ngillarday edi tarqoq,
 Raqqosa qizlar yanglig` o`ynay-o`ynay
 Charchashib uxlashgandi borliq yaproq.
 Hasadchi ko`ngli kabi o`ta qora,
 Raqiblar fikri yanglig` pora-pora
 Tun dilin qoplamishdi zo`r qaltiroq,
 Yuzlari edi uning tussiz – oppoq.
 Soy bo`ylab oqayotgan suvlar tovishi
 Uchqichning ovoziday tuyulardi.
 Tovishlar dengizlarga oqqan daryo
 Suviday tun bag`riga quyilardi.
 Qishloqning binolari qo`ylar yanglig`
 Yotishib uyqularga qonar edi.
 Faqat bir uydagina qo`sha chiroq
 Och bo`ri ko`zlaridek yonar edi.

XVI. QORA O`YLAR
 Qop-qora ko`ngillardan chiqqan o`ylar
 Shabparra kabi tunda uchar, o`ynar.
 Tunda ko`b reja – pilon bajarilar,
 Tunlarda jonlar tandan judo bo`lar.
 Ot minib chiranguvchi egasiday
 Tumshug`in solib turgan qo`shqat bino
 Lablari bu kun ortiq ochilmasdi,
 Zaharli, sovuq so`zlar sochilmasdi.
 Biroq kuz kabi o`zga suyunch nuri,
 Bulutlar yashirsa-da, ko`rinardi.
 Bu nurda, durbinlarda ko`ringandek,
 Qo`rqinch tus gavgaldanib ko`rinardi.
 Bunda bir necha yirtqich to`planishib,
 Qaygadir bormoq bo`lib turardilar.
 Ovlashib yeganidan mast bo`lishib,
 Suykalib bir-biriga burardilar.

XVII. O`NGMAGAN OV
 Uy ichi jim, go`yo u ham egasidek
 Rohatgina uyqularga botgan edi.
 Oy ham mudrab, ko`zin suzib, uyqusirab
 Yotog`iga allaqachon yotgan edi.
 Tom boshida paydo bo`lib bitta bo`ri
 Uyoq-buyoq yengil oyoq bilan yurdi.
 Tomdan yerga qanday tushuv yo`lin o`ylab
 Andak zamon bir nuqtada qotib turdi.
 So`ngra yurdi bir tomonga bir oyoqlab,

Har minutda tegrasig'a ming alanglab,
Bir narsani tortib olar edi yerdan,
Arqon uzilib ketdi, o'zi birga qulab.
Tovish sezib uyqusidan turgan yigit
Chiroq yoqib hamma yoqni qarar edi.
Ovi o'ngmay qolgan cho'loq bo'ri
Oqsab-oqsab yo'l ustida borar edi.

XVIII. TO`Y

Girdobdagi «xas» lar to'lqinlanalar,
Bilinmas: ularmi, suvlarmi jo'shqin.
Yoki siqadirmi daryolar ko'ksin.
Bahorning na'ravor arsloni to'lqin.
Har nechuk «xas» larda bir o'zgarish bor,
Ular chumolilar yanglig' qimirlar.
Suvlar yuzlarida suyunchlar uchar,
Ko'zlar qarab to'yimas, charchab jimirlar.
Noryigit, Tozagul bu kun o'zgacha,
O'zgalik yetmishdir yuzu ko'zgacha.
Bularning ko'zlari chaqmoq chaqalar,
Qayg'ular uyini o'rtab, yoqalar.
Qarilar ko'zinda ko'rinmas umur
Go'rkovi, qazilgan qo'rqinchli chuqur
Bo'lmishdir suyunchning to'lqinida g'arq,
Bularni yoshlardan qilib bo'lmas farq.
Yig'ilib hovliga ko'b xotin-qizlar,
Bahor gullaridek ochilib yayrar.
Qafaslar betida qoldirib izlar,
Bo'shalgan qushlarday tinmayin sayrar.
Hovli biqiniga yopishgan kichik
Uychada yigitlar xandon kulalar.
Raqiblar chidolmay, telbalar kabi,
O'zlarin uralar, sochlar yulalar.
Ozgina taomil, ichish-eyishdan
Bo'shalgach yigitlar irg'ib turdilar.
Hovlining o'rtalik yerini chog'lab,
O'tinlar qalashib gulxan qurdilar.

XIX. LAPAR

Gullarning tegrasida aylanuvchi
Kapalak, bulbul kabi bo'z yigitlar.
Gulxanning tevaragin qurshab olib
Qizlarga qarab lapar aytishalar:
«Lapar aytsang to'yda aytgin, suluv qizlar
qochar-o,
Ochilmagan gulg'unchani bulbul sayrab
ochar-o,
Ey bulbul, muncha sayraysan tog'u toshni
uydirib,
Issiq-sovuq suv ichasan: may-yuraging
kuydirib».

«Daryoga tosh otmanglar, botar ketar⁴⁷,
Uzoqqa qiz bermanglar, olar ketar.
Uzoqqa qiz berganni rangi sarig',
Ko'zidan yosh oqadi misli arig'».
«Daryoni o'rtasidan yo'l solamiz,
Qizilgul novdasidan uy solamiz.
Qizilgulli novdasi taram-taram,
Bizzi yorni qoshlari kuygan qalam».
«Qizlarjon, qaynoq buloqqa boshlamang,
Moli ko'b deb boy bolasin xushlamang.
Mol degan qo'lli kiri, yuvsalar ketar,
Tirik qulga mol bitar, o'lgan netar?»
«Daryoni naryog'ida bir to'p g'o'za,
U g'o'zani tagida oltin ko'za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
Bir kecha qo'shib qo'ying qorako'zga».
Qizlar javob qaytarishga tayyor-dilar,
Lapar ishida yigitlardan ayyor-dilar.
Yigitlar lapariga quloq solib,
Javobni shunday boshlab yubordilar:
«Laparni avval boshi – marmar toshi,
Chit ro'molni ho'l qilg'on ko'zzi yoshi.
Chit ro'molim xosa-ya, qo'limda chinni
kosa-ya,
Qizlar lapar aytganda yigitlar quloq sosa-
ya».
«Oq uyingga toqi terdim, sanamadim:
jupmi-toq,
Ro'paramda o'ltiribdi qoshi qora, yuzi oq.
Qoshi qora, yuzi oq, asti ololmaysan mani,
Sochbog'im saning bahong, sarson qilarman,
yor, sani».
«Lapar aytmoq boqiya, boshingga baxmal
toqiya,
Bo'yaringdan o'rgilayin arpa, bug'doy
toxiya.
Lapar-lapar deysan-o, lapar qursun benavo,
Bir ko'zidan yosh oqadir, bir ko'zidan
qahrabo».
«Oq uzum, qora uzumni uzdilar,
Shirasini tog'araga suzdilar.
Kimmi o'g'li, kimmi qizi deydilar,
Ikkalasi xolavachcha deydilar».
«Bizzi uylar qiyoda, bo'ylay-bo'ylay chiq,
san-o,
Qo'llaringga dastro'mol o'ynay-o'ynay
chiq, san-o».
«Qizil-qizil olma terdim teppa shoxidin
egib,

⁴⁷ Bunda tirnoq ichida olingan laparlar xalq adabiyotidan o'zicha olingan – Elbek.

Bir yigit o`tib borodir belbog`i yerga tegib.
 Salom bersam alik olmas tolxivichdek egilib,
 O`stirgan onangga rahmat, o`lmag`aysan ko`z tegib»
 Qizlarning qochiriq to`la laparlari
 Yigitlar yo`llarini bog`lab oldi.
 Yigitlar nima javob berish bilmay
 Ularning qarshisida gangrab qoldi.
 Bularning holini ko`rgach qizlar qizib,
 Laparni tashladilar yana tizib.
 Lekin bu laparlarga qarshi javob
 Yo`q edi, turar edi ko`z jovdirab.
 Qizlar yana avjga chiqib ketishdilar,
 Yigitlardan kulib tanqid etishdilar:
 «Tegirmonga bug`doy soldim, nam ekanin bilmadim,
 Shu yigitga lapar soldim gung ekanin bilmadim».
 «U tomdan bu tomg`a irg`iydi malla mushuk,
 Manga lapar topganni og`zi qiyshiq».
 Hovlini to`ldirishib, qiz-yigitlar
 Kulishib, lapar aytib bo`lishdilar.
 Qurishib qolgan yurak-hovuzchalar
 Xursandliq suvi bilan to`lishdilar.
 Tozagul -- go`zal g`uncha xandon urdi,
 Nor – bulbul gul betiga yuzin surdi.
 Mehnatning chamanida o`skan qo`sh yosh
 Turmushning yotog`iga qo`yishdi bosh.

XX. OCHIQ KURASH
 Yashiriqcha boruvchi kurashning beti
 Ochildi Jumaning manhus betidak.
 Tinchlikda yuzuvchi shodliq kemasi
 Silkindi Jumaning iflos etidak.
 Jumaboy – zanjirdan bo`shalgan ko`ppak,
 Ko`ringan qoraga hura boshladi.
 Yo`l uzra Noryigit ko`ringach, uni
 To`satdan qamchilab ura boshladi.
 Nor buning sababin bilmay gangradi,
 «Nega urasan?» deb undan so`radi.
 Javobning o`rnig`a bo`ynig`a arqon
 Solindi, burnidan oqdi qora qon
 Noryigit o`zini o`ngladi, turdi,
 Jumaning og`ziga ikki musht urdi.
 G`azabli yigitning mushti zarbidan
 Uning oyoqlari keyinga yurdi.
 Yo`l uzra ketarkan Nor sari qarab,
 Tishlarin gich qilib musht bilan yandi.
 Noryigit bu holga qarshi g`azabli
 Qichqirdi, g`azabdan ko`zlari yondi.
 G`am suvi shodlikning tuprog`i uzra
 To`kildi, yo`llari loy bo`lib qoldi.

Noryigit bu loydan o`tmaklik uchun
 Qo`liga bukulmas tayog`in oldi.

XXI. AMRI MA'RUF
 Ertalabki namoz – bomdod o`qilg`on so`ng
 Imom yuzin qavmlarga aylantirdi.
 Saxiylikning fazilatin so`ylab xo`p keng
 Qilib uni somiylarg`a tushuntirdi.
 Dedi imom tomog`ini qira-qira:
 – Xayr qilmoq balo yo`lin to`smaq turur.
 Saxiylarg`a balo yopishmaydir sira,
 Sadaqa qilg`on gunohidan tozalanur.
 «Xayr» esa faqirlarga beriladir,
 Benamozu ro`zaxo`rga bermak bo`lmas.
 Bundaylarga xayr qilmoq kafforatdir,
 Xudo o`zi Qur`onida yod qilibdir.
 Faqir-faqir ko`kragiga urib asta –
 Xudojo`ydir, tun-kun demay xudo deydir.
 Sadaqani unutmayin har nafasda
 Begonalarning haqlarig`a omin deydir.
 Birov haqin olib yemak dinda harom,
 Ammo qurbi kelganicha faqir uchun
 Yordam qilg`on kishi so`zsiz savob topar,
 Jumla qilg`on gunohining ustin yopar
 Namoz o`qib, ro`za tutib yurganlarning
 Rizqlarini xudo o`zi yetkazadir.
 Benamozu ro`zaxo`rni xor-zor qilib
 Molu jonin barakotin ketkazadir...
 O`z nafsining taronasin qavmlariga
 Jon kuydirib, eshittirib bo`lgach imom,
 Ko`z yugurtib tebrasig`a qarab chikdi,
 Bir kesakda go`yo ikki qarg`a yiqdi.
 Fotihani betg`a tortib qavmlar sekin
 Jilovxona tomoniga qo`zg`oldilar.
 Masjid eshigi yonlarida qator turib,
 Oldilariga imomlarin solvoldilar.
 Darvozadan chiqish bilan bir qanchalar
 Yo`talishib uylariga jo`naldilar.
 Ammo imom, so`fi, yana bir nechalar
 Birgalashib allaqayga yo`l soldilar...

XXII. MEHMONLAR
 Boy uyida imom, so`fi va oqsoqol,
 Yana ma`lum besh-oltita patak soqol
 O`ltirishib nimanidir o`ylandilar,
 Ba`zan qarab bir-biriga so`ylandilar.
 Dasturxonda turar edi turli ovqat,
 Shirinliklar yotar edi bo`lib qat-qat.
 Imom oshdan og`zin olmay bukulganicha
 Yeb turardi oshg`a bo`lib balo, ofat.
 Bir ozdan so`ng so`zga kirdi Turdi oqsoqol
 Ko`zlarini ko`zlar sari qilib yaqqol:
 – Xoljon ishin shundayicha to`xtataymi?
 Yoki uni turma sari haydataymi?

Kecha uni tong otguncha xo`b qiynadim,
 Ko`b do`q urdim, lekin uni unatolmadim
 Xotin tushkur o`z bo`ynig`a olmay sira,
 Tabiatimni ham qildi yomon xira.
 Eng so`ng dedim unga qarab: «Agarda sen
 Jumaboyni o`z qizingg`a kuyov qilsang,
 Molni olg`on men emasman, Noryigit deb
 O`g`rulikni ul bo`ynig`a sen to`nkasang,
 Seni turma solish tugul, hattoki, biz
 Har qandayin og`irlikdan qutqaramiz.
 Boyning menga bu to`g`rida va`dasi bor,
 Yordam qilish uchun senga Juma tayyor...»
 Eng so`ng undan shu to`g`rida va`da oldim,
 Ya`ni Xoljon hech kimsaga qilmay payom
 Tinch uyiga borish uchun va`da berdi,
 Tilxat yozib barmog`ini bostirvoldim.
 Agarda u sirni ochib qo`ya qolsa,
 Shu to`g`rida og`ziga so`z ola qolsa,
 U yog`ini to`g`rilash ham o`z qo`limda,
 Hech kim to`suq bo`la olmas bu yo`limda.
 Uni butun qishloq ichidan aylantirib,
 El ko`zida sharmandasin chiqartirib,
 So`ngra qamab qo`yishlik xam juda oson,
 A, mulla Tosh! Bu so`zinga nima deysan?
 Mulla Tosh ham kallasini liqillatib,
 Oqsoqolning so`zlarini tasdiqladi.
 Ammo o`zi bu to`g`rida uzul-kesil
 Og`iz ochib bir so`z bo`lsun so`ylamadi.
 Sirdoshlardan ikkinchi bir qari tulki:
 Yapoq soqol, cho`chqa tumshuq, ko`zi ukki
 –
 To`ychi polvon og`zidagi oshni chaynab,
 Gapga kirdi so`zni qilib dakki-dukki.
 – Shoshuvchiga labbay topilmaganday,
 Tursunboyni shoshib tortar chog`imda,
 Arqon qurg`ur cho`rt belidan uzildi:
 Men ham yiqilib, pilonimiz buzildi.
 Tushgan yerim yomon qirra tosh ekan,
 Bir oyog`im unga tegib yorildi
 Hatto shunday qon oqdiki oyoqdan,
 Turg`on yerim qora qonga qorildi.
 Chiroq yoqdi bilib qolib yigit shum,
 Biz ham qaytdik ketimizga asta-jim.
 Bo`lmasaydi jonin olg`on bo`lardik,
 Suyunchlarga, quvonchlarga to`lardik...
 Boy miyig`in silab so`zga kirishdi,
 Qoq teridek peshonasi tirishdi:
 – O`tkan ishni so`zlashdan hech foyda yo`q,
 Noryigitning qorni hali ochmas, to`q.
 Menga qolsa yangi pilon qurayik,
 Uning molin o`g`urlayik-urayik.
 O`g`urlansa agar uning ho`kizi,

To`rtta bo`lib boqib qolar qo`sh qo`zi.
 So`ngra qolmas yeyish uchun ovqati,
 Bitar ro`zg`or boqish kuchi, toqati.
 Hovli yerin sotish uchun ham ko`nar,
 Balki xotindan ham havasi so`nar.
 Ana undan so`ngra ishlar tuzalur,
 Hovli, joyi teppa-tekinga qolur.
 Endi ish shu, qani menga aytingiz,
 Kim bu ishni yengil eplay olur?
 Boy yuvindisin yalab umur o`gkazgan,
 Uning har bir qiyin ishin bitkazgan
 O`sar oldi buni o`ziga shu on,
 Bo`g`zigacha to`ldi eski hamyon.
XXSh. YIQILIB O`LGAN HO`KIZ
 Erta bahor, soylar to`lib suvlar oqar,
 Suvlar o`tlar gardaniga marjon toqar.
 Qorlar erib, yurak-bag`ri ezilganlar
 Kabi yig`lar, ko`zlaridan yoshlar oqar.
 Qishlar bo`yi og`illarda somon chaynab,
 G`amlar toshib, yuraklari suvday qaynab
 Yotgan jonlar – mollar bu choq yayrashalar,
 Dalalarni eslar – qo`msab ma`rashalar.
 Kishilar ham yozgi ishlar kuyin kuylab,
 Bir-biriga o`z ishini aytib-so`ylab,
 Yozgi ishga tayyorlanib turmoqdalar,
 Tinmay tun-kun qimirchilab yurmoqdalar.
 Turli tusda kiyinishib dala-tuzlar,
 Bayram qilib yasanishgan kelin-qizlar
 Kabi quvnab, xandon urib kulishalar –
 Qip-qizarib ko`rinadir lola yuzlar.
 Podachilar mollarini o`tloqlarga
 Eltib unda chalqan yotib dam olalar,
 Qamishlardan yasab olg`on qo`shnaylarin
 Tepalarda o`ltirishib cholishalar.
 Jonivorlar chayirlardan bosh ko`tarmay
 Quyruqlarin silkib-silkib o`tlaydilar.
 Tekin, mahkam-pishiq, jonli yelpig`ichlar
 Chivinlarni urib-surib haydaydilar.
 Quyosh botar chog`i kelgach podachilar
 Podalarni qishloq sari haydadilar.
 Yo`l ustida choqda faqat bular
 Qo`ng`ir ho`kiz yo`qligini payqadilar.
 Qirga qarab, hallos urib, zar yugurib
 Qo`ng`ir ho`kiz orqasidan chopishdilar.
 Izlab yurib, o`tloqzorning yonidagi
 Jar ichidan o`lugini topishdilar.
 Shunday kichik jarda ho`kiz o`lishini,
 Uning munga nechun qulab tushishini
 O`ylay-o`ylay podachilar qaytishdilar,
 Kelib Norga voqeani aytishdilar.
XXIV. SAXIYLIK
 Diniy bayram namoziga yig`ilg`onlar

Masjid ichra sig'ishmayin qolishdilar.
 Ko'plar masjid sahni uzra chopon solib,
 Hayit namozini unda o'qishdilar.
 Namoz bitgach joydan turib hamma birdan
 Qo'l berishib bir-birlarin qutlashdilar.
 So'ngra imom domlaning «amri ma'ruf»
 So'zlarini quloq solib tinglashdilar.
 Domla imom bu fursatni o'lja bilib,
 Uzungina hikoyasin boshlab ketdi.
 Eng so'ng so'zing nafsi bilan yo'ldosh qilib,
 Xayru ehson to'g'risida xitob etdi.
 Har kim unga kuchi-qurbi yetganicha
 O'z atagan sadaqasin berib o'tdi.
 Bu choq adras to'nin ko'zga yaltirab
 Juma xalqning qarshisida ko'ruk etdi.
 Cho'nchagini kavlab, elning ko'zin ovlab,
 Imom qo'liga bir necha so'm pul qistirdi.
 So'ngra o'zi maddoh kabi so'zlab-javrab,
 Xudo uchun ish qilishni eshitdirdi:
 – Xaloyiqlar, ko'rasizmi, masjidimiz
 Bu kun bizga juda torliq qilayotir.
 Xudojo'lar namoz uchun kelganida
 Ichkariga sig'may tashda qolayotir.
 Bu masjidni buzib, katta masjid solish
 Xudo uchun xizmat qilib savob olish
 Niyatida bo'lg'onlarning ishi erur,
 Qani, bunga kim o'zidan yordam berur?
 Boshlab o'zum ikki yuz so'm chiqaraman,
 Tenglashishga boshqalarni chaqiraman.
 Qani, Toshmat, Mulla Xolmat, nima deysiz,
 Shu ishimiz uchun yordam berarsizmu?
 Xalq ichidan unda-bunda chiqqan tovish
 Bitgach, qaynoq ko'ngillarni bosdi sovish.
 Ko'plar javob bermay yerga qarashdilar,
 Sekin-sekin uylariga tarqashdilar.
XXVII. O'LIM
 Kun charchag'an, uzoq yurgan yo'lichiday
 Ko'zi tinib, nafasleri siqildi.
 Zo'rg'a-zo'rg'a oyoq bosib, gangirab
 Betkay yerga borib sekin yiqildi.
 Dala-toshni qoplab oldi bir sukut,
 Vahimalar qanotlarin kerdilar.
 Qushlar yaproq-barglar uzra yastanib
 Tongni kutib tinch uyquga kirdilar.
 Chulg'ab oldi ko'kni qorong'i bulut,
 Oy o'rtuk yopingan qizlar singari
 Ba'zan bulutlardan mo'ralab qarar,
 So'ngra o'rtugiga burkanib olar.
 Hovli yonidagi ayvoncha uzra
 Lopillab yonuvchi qoramoy chiroq
 Tegra yoqqa qaltiroq nur sochardi,
 Go'yo nur tashiydi bor titrak yaproq.

Burchakda uzanib birov yotardi,
 Uning yuzlarida xazonlar o'ynar,
 Tili nimanidir takrorlab so'ylar,
 Ko'zlari chiroqdan nurlar emardi.
 Uning tegrasida kezardi xayol,
 Bir yigit, bir yosh qiz, bir necha ayol
 Ko'zlarin tikishib, nursiz ko'ziga
 Boqishib, ochardi istiqboldan fol.
 Sovib bormoqdagi samovar tovshi
 Singari boyaqishning tovshi sekinlar,
 Borg'oncha oshardi yurak tepuvi:
 Qafasdan chiqmoqchi qushday urunar.
 Ko'b yillar yashagan bechora bir qush
 Axiyri qutulib bo'shliqqa uchdi
 Qafas qushning qanotlari zarbidan
 Turg'on o'rnida bir tebranib tushdi.
 Uyda faryod-fig'on suv kabi toshdi,
 Shodliq chamanlarin toshqinlar bosdi.
 Ajalning yalmog'iz, jallod kampiri
 O'lim tumorini bo'ynig'a osdi.
 Chol boshi yostiqa, ko'zlari yumuq,
 Faryod nag'malarin tinglagan kabi,
 O'tmish hayotini o'ylagan kabi
 Yotoqda o'ylanib jimjit yotardi.
 Yosh yigit o'rnidan qo'zg'olmay unga
 Qarardi, ko'zidan yoshlar oqardi.
 Ko'ngli shu alamli yosh dengiziga
 Tashlangan tosh kabi cho'kar, botardi.
 Shu onda eshikdan birov sekinlab
 Keldi-da so'zladi asta shivirlab.
 Go'yo shamollarda to'kilg'on tutday
 To'kildi ko'z yoshlar qattiq duvurlab.
 G'amli tun bag'rida yigit ko'zlari
 Kechaga qo'shilib birlashib ketdi.
 Ishongan Tangrisi haqig'a achchiq,
 G'azabli so'zlar-la xitoblar etdi.
XXVIII. SOVUQ YEL
 O'luk ko'mib, g'amga to'lib Noryigit
 Go'yo qorda qolib muzlagan chigit
 Singari qorayib, g'ujunak bo'ldi,
 Yuzlari hasratli yel bilan so'ldi.
 Uychada o'ltirib qo'llari bilan
 Allanarsa o'ylab yerni chizardi.
 Tozagul erining holiga yig'lab
 Yoshlarni marjonlar kabi tizardi.
 Shu choqda eshikdan kirdi bir sovuq,
 Uychada kezdilar alam yellari.
 Yuzlari bularning bo'lib sap-sariq,
 Sovuq urgan guldek sindi bellari.
 Xirojchi kekkayib Nor sari qarab,
 O'z fikrin ma'qullab uzoq so'yladi.
 Eng oxir xiroj pul ishqi dostonin

Yoqimsiz tovish-la aytib kuyladi.
Uning da'vosiga ko`ra Noryigit
Xiroj pulin ko`pdan beri bermagan,
Shuning uchun «ishtaraf» ham berishi
Lozim ekan, xatda shunday yozilgan.
Birdaniga yerga tushgan bir sovuq
To`ngdiruvchi, muzlatuvchi bevaqt qor,
Keng dalaning bag`rin bular ko`ziga
Toraytirdi, dunyo yuzi bo`ldi tor.

XXIX. CHIGAL ISH

Qor gurillab tinmay yog`ib turadi,
Yuraklarda g`amlar qoldirar iz.
Hayot to`lg`onadir, umur suradi,
Jonlilar chorasiz qishga cho`kmish tiz.
Faqirona uyda Noryigit yashar,
Uning yuraklari sellardek toshar,
Lekin bahor emas, qorlar yog`adir,
Qorlar chigirtkadek haryon og`adir.
Noryigit, Tozagul ko`b qishlar ko`rgan,
Ammo bu qish og`ir, bunday sovuqki,
Ayyomi ajuzning hidini berar,
Baliqchi qushlarday qanotlar kerar.
Qiyinalib yotalar dardlilar uyda,
Ularning ko`nglida nima o`ylar bor
Ammo rohatlilar lazzatli kuy-da
Eshitib yotalar cholishib dutor.
Qish so`ngg`i damini kechirmakdadir,
Tezdan sochajakdir quyosh yerga nur.
Ko`k betin to`suvchi qora pardani
Erkin bahor qizi tezdan yirtadir.

Bahor qanday go`zal, sevimli bahor,
Suvlar shodlanishib to`lg`onib oqar.
Bahor cholg`uchisi qiz cholsa dutor,
Har qanday quloqqa singar va yoqar.
Bahor ko`b go`zaldir, bahor sevimli,
Bahor ko`zlaridan hayotlar oqar.
Bahor ko`b suluvdir, bahor ko`rimli,
Qimmatli durlardan marjonlar toqar.
Havolar ham bir oz esa boshladi,
Muzlar nafaslarin qisa boshladi.
Qorlar yerga tushmakdalar qaltirab,
Yuzlarida tomchilar ham yaltirab
Ko`rindilar, nima bahormi yaqin?
Havo yarim ochiq, kunlar ham iliq.
O`qtun-o`qtun boshlanadir izg`iriy,
Hali chiqmamishmi ayyomi ajuz?
Zarbidan badanlar qiladir jiz-jiz.
Nima, sovuq qorlar yog`armi, tag`in?
Na esa bu, qishning eng so`ngg`i oyi,
Bu oy o`tgach qolmas sig`inar joyi.
Oppoq chodirini yig`ib olib qochar,
Bahordan yengilar – unga yo`l ochar.
Yarmi bahor, yarmi qishga qaragan
Qora dilli, kular yuzli fevral oy:
O`tib ketar shu holicha qolaolmas,
Kelar tezda sevimli, chin bahor-oy.
Unda Norlar quvonishib yayrashar,
Tozagullar xandon kular, ochilar.
Quyosh nuri toza gullar qoniga
Jon kirgizar, unga mo`l-mo`l sochilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Elbek she`rlari qanday g`oyaviy-badiiy mazmun tashiydi?
2. Elbek ijodiga xos janrlar rang-barangligiga to`xtaling.
3. Shoir dostonlarida peyzajning o`rni qanday?
4. “Tozagul” dostonidagi Nor obrazi orqali shoir kitobxonga nimani uqtirmoqchi?
5. Tozagul obraziga yosh psixologiyasiga tayanib, tavsif bering.
6. Dostonda shakl va mazmun munosabati qanday?
7. Asarda davr voqeligi to`lalgicha o`z aksini topa olganmi?
8. Qanday arxaik yoki eskirgan so`zlarga duch keldingiz?



OYBEK (1905-1968)

Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek 1905-yilning 10-yanvarida Toshkent shahrida bo`zchi oilasida dunyoga keldi. U adabiyotga 1926-yili chop etilgan “Tuyg`ular” she`riy to`plami bilan kirib keladi. Shoirning “Dilbar – davr qizi” (1931), “O`ch” (1932), “Baxtigul va Sog`indiq”, “Temirchi Jo`ra” (1933) dostonlari o`z davrining she`riy yilnomalaridir. U tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratadi.

Oybek mohir shoir bo`lgani kabi yetuk romannavis ham edi. U yaratgan “Qutlug` qon”, “Navoiy”, “Ulug` yo`l”, “Oltin vodiya shabadalar”, “Quyosh qoraymas” kabi epik polotnlar o`zbek realistik nasri taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi.

Pushkinning “Evgeniy Onegin” she`riy romanini, Lermontovning “Maskarad”, Molyerning “Tartyuf” dramalarini tarjima qilgan.

Adibning 20 jildlik to`la asarlari majmuasi nashr etilgan. O`zbekiston xalq yozuvchisi Oybek 2000-yil o`zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo`shgan ulkan hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

GULI VA NAVOIY (Xalq afsonasidan)

Asrlarning so`kib chokini,
Ko`zlarimga surib xokini,
Tarixlarni bir-bir titurman,
Afsonalar topib biturman.
Afsonaning ko`pdir qurug`i,
Haqiqatning ba`zan urug`i
Uyum-uyum tosh ichra go`yo,
Bir gavharday beradi ziyo.
Mana, shundoq bitta afsona,
Afsonalar ichra durdona.
Xayollarim tinimsiz, quyun,
Tentirayman, orom yo`q butun.
Somon yo`li – Navoiydan iz,
Siymosidir yo`limda yulduz.
Shoir kamtar va insoniy, mard,
Yashaydirman birga chekib dard.
O`zi yosh-ku, dovrug`i baland,
Yorqin qalbi beg`ubor garchand
Ko`zlarida mehr jilvasi,
Jozibali, yoqimli sasi.
Yigit kezi – qomati nihol,
She`ri kabi ko`ngil ham zilol.
Xo`b yarashgan qopqora miyiq,
Belidadir shohidan qiyiq.
Saroy qizlar ichra dard zori,

Har ko`rgan qiz der: «Bo`lsam yori...»
- «Ko`zlarining ma`nosiga boq
- «Vazir hazrat emishlar bo`ydoq...»
Vazir shoir to`la g`ayratga,
Nafrati zo`r ayshu ishratga.
Zulmat ichra kutarib mash`al,
Inonurdi – enar baxt, amal.
Xaqsizlikdan eshitsa nola,
G`ariblarga mehri shalola.
Nafratiga duch kelsa yov gar,
Qahri o`tkur qilichday kesar.
Dilxastaga suhbat muloyim,
Chehrasida jilmayish doim.
G`ayrat jo`shar, naq yigit yoshi,
So`nmas bir dam dilda quyoshi.
O`ylar – qancha oltin tejalar,
Yangi orzu, yangi rejalar,
Yangi ariq va shifoxona,
Ilmu irfon uchun koshona.
Ish ko`p, dard ko`p, ko`ngilda ko`p shavq,
Ulus ishi keltiradi zavq.
Qancha yo`qsul, qadlari bukuk
G`ariblikda orzular o`ksuk.
Yurt g`amida shoir o`rtanur,
Qalbi yonur, go`yo bir tanur.

Har dam dilga quyulur anduh,
 Ko`chirolmas uni uzun uh.
 To`ldirsa-da qalbni g`azab, do`q,
 Xalqni aslo tashlagusi yo`q.
 Xurosonda bir odil shohni
 Ko`rsa ulus, yuvib g`am-ohni,
 Ko`tarilsa tez jabru jafu,
 Bulutsiz ko`k yanglig` musaffo.
 Yosh qalbida ko`p orzu, g`ayrat;
 Ojizlikka u qilur nafrat.
 Boyqoraning saroyida oy
 Oymas, quyosh bo`lib oldi joy.
 Tabassumi, chehrasi iliq.
 Fikri chaqmoq, mantiqi pishiq.
 Nutqi, aqli go`zal yosh vazir,
 Ojiz erur har nechuk tasvir.
 Shoirning har qadamin chindan,
 Xonzodalar kuzatur zimdan.
 – «Alisherbek muncha benazir,–
 Der begimlar. – Bu ofat vazir...»
 Keltiradi tunlari orom,
 She`r to`g`onin ochganda ilhom;
 Toshqinida shoir qolur mast,
 Yo`zar, yo`zar – ulug` she`rparast.
 G`azallarki, kirgan dillarga,
 Ko`char takror-takror tillarga,
 Qizlar kuylar, yonib loladek,
 G`azallardir naq shaloladek.
 Kampirlarning ajinlaridan
 Dumalaydi tomchilar durdan.
 Tildan tilga o`tgan g`azaldan
 Yorug`lanur dillar azaldan.
 Hazrat vazir – ko`ngillarda sham,
 G`ariblardan ko`charmikan g`am?!

** *

Keng xonada marmarlar uzra
 To`shalibdi gilamlar sidra.
 Gilamlarning mo`jiz naqshida
 Shu`larning raqsi avjida.
 Ko`zni olur tovlangan ranglar,
 Yuraklardan eriydi zanglar.
 Mayinligi bu gilamlarning,
 Oyoqlarin o`par kimlarning?!
 Kaysi dillar tuyg`usin solgan?
 Qanday qo`llar to`qigan, tolgan?!

Shamshod, marmar panjaralardan
 O`sha hovli, manzaralardan
 Qamashadi ko`zlar javhari,
 Enmish quyosh – osmon gavhari.
 Mevazorlar gulda-chechakda,
 Tol, chinorlar tugal kurtakda.
 Bahorning bu nafis lavhasi –

Shoirlarning jon sarlavhasi...

* * *

Mana taxtda Husayn Boyqora
 O`tirur jim, fikrida dolg`a.
 Panjaradan jaranglar shirin
 Qush qo`shig`i – bahorning sirin –
 Tinglar Husayn qushlar tilida,
 Shoir sirni yechar dilida.
 O`rta bo`yli yelkalari keng,
 Bilak kuchi sher kuchiga teng.
 Sovut kiyib qurganda maydon,
 Ot ustida, titratar jahon.
 Kichkinadan o`yini qilich,
 O`q uzishda merganu bilgich.
 Jang sabog`i mashqidan horsa,
 Orom olur g`azallar yozsa.
 Lekin yolg`iz orzu edi taxt,
 Mana go`yo Husayn topdi baxt.
 O`tkur qora qo`zlarida mehr
 Lozim bo`lsa yonadi qahr.
 Sallaning ming turlangan rangi
 Qo`ndirilmish gavharidanmi?
 Orzularning yangi quyuni
 Band eturdi sulton o`yini:
 Tutsa ulug` bobo qo`lidan,
 Ya`ni, borsa uning yo`lidan.
 Kuchaytirib davlat qudratin,
 Qaltiratsa yerning ko`kragin.
 Mana taxtda Husayn Boyqora,
 O`tirur jim, fikrida dolg`a.
 Uchrashurlar har kun shoh, vazir,
 Mana Husayn unga muntazir.
 – «Alisherbek, siz ko`p beshafqat,
 Shoirga bu yarashmas xislat!»
 Deb shoh turdi istiqboliga,
 Sher egildi hazrat oliyga.
 Saroylilar qoidaparast,
 Shoir ado etur beshikast.
 – «Alisherbek, saroy beklari
 Sohib aql bo`lsa siz kabi,
 Uyquni hech quvmas vahim, g`am,
 Ko`nglimiz tinch bo`lurdi har dam.
 Na qilayki, bo`rilar bisyor,
 Shu sababki orzularim xor...»
 – «Podishohim, fikringiz to`g`ri,
 Hushyor bo`ling, ko`p beklar bo`ri.
 Dehqonlardir mehnat egasi,
 Beklar, boylar uning kanasi.
 Podshohim bo`lsinlar odil,
 Soyangizda munavvar har dil,
 Hind yurti-la boshlang tijorat,
 Ulug` eldir. Bering ijozat,

Yuboraylik elchilar – dono,
 Karvonlarga yuklangiz sovg'ο.
 Ellar aro tijorat, do'stlik
 Qiling barpo, bu – ishdir yirik.
 Chin-mochin bor, nozik san'ati;
 Ayni bordi-keldi fursati.
 Arab oti – eng suluv otdur,
 Jahon aro xo'b a'lo zotdur.
 Qiling savdo, el topur ravnaq,
 Bundoq tadbir, shohim, haqdan-haq.
 Uqing kitob, kitob – xazina,
 Nurga to'lur kitobdan siyna,
 Uqing hikmat, jild-jild falsafa,
 Baxsh etur fan ko'ngilga nash'a».

Shoh yuziga yoyilur kulgu:
 –»Mantiqi zo'r, yaxshi kengash bu!
 Lekin, shoir, unutmang, qilich –
 Ko'p ishlarda hal qiluvchi kuch...
 Alisherbek, ne tadbir, ne o'y?
 Sotibsizmish historiy yuz qo'y
 Qarshi bozorida, nasiyaga,
 Faraz qilsam, o'xshar hadyaga?..
 Vafotimdan so'ng to'lashurmish
 Xaridorlar, yohu, nechuk ish?»
 – «Oliy hazrat, bu so'zlar rostdur.
 Qilmishimga bir sir boisdur.
 Xaridorlar yolvorur doim
 O'g'onidan tilab, podshohim,
 Sizga behad ko'p uzoq umur,
 Niyatim shu!» – Sher kulur maxmur.
 Husayn kulur qahhaha uzoq.
 Gar esiga tusharkan har choq
 Sevar edi shoh afsonani,
 Takrorlashni bu hangomani.
 Ko'rpachaning tagidan mag'urur
 Bir varaqni asta sug'urur:
 – «Hukmingizga bo'lsin havola,
 Nazmdan mashq – ko'ngildan nola...»
 Qulluq ila olur Navoiy,
 Shildiraydi qog'oz naq shoyi.
 Takror-takror o'qir g'azalni,
 Ta'riflamish imqni, go'zalni.
 Shoir xushhol, chehrasida nur,
 Ikki qo'llab shohga uzatur:
 – «She'r bobida o'zingiz – xoqon.
 Istardikki, mulki Xuroson
 Bo'ylab ulug' Temur singari
 Quloch yozsa Boyqora davri».

Yengillangan mamnun hukmdor,
 Yashirolmas sirin – xo'rsinar:
 «Do'stim, bu ham bir ishq ertagi,
 Men faqirning ko'ngul ermagi...»

Rangdor qog'oz taxlanur shu on,
 Bolishiga qistirur sulton.
 – «Davlat ishi shohimda bisyor,
 O'g'irlasa vaqtingiz ash'or
 Gunoh bo'lmas, hazrati oliy!»
 Dedi kulib mamnun Navoiy.
 Ikki shoir – podshohu vazir,
 Ikkovi ham birdek sevar she'r
 She'r bitishar, sirlashardilar,
 She'r ila tillashardilar;
 She'riyatning yig'ib muxlisin,
 Qurardilar ash'or majlisin.
 Sho'x bazmlar boshlanib qolsa,
 Rubob, tanbur sadolar solsa,
 Raqqosalar sehri, san'ati
 Bahor yoyar – ko'ngul ulfati.
 Yosh soqiylar tinmasdan chopar,
 Qadahlarki toshib, nur chaqnar.
 May ko'purgan qadahlar tutar
 Shoir kulib tomchilar yutar.
 – «Oh, beshafqat!– der yonib tojdor,–
 Siz ash'orda, biz mayda ilg'or!...»
 Jo'shqin bazm avjiga oshar,
 Sho'x qiyqiriq saroydan toshar;
 Tarqalurlar beklar mast maydan,
 Alisher mast rubobdan, naydan...

* * *

O'n sakkizga endi kirgan qiz,
 Ishq ko'kida tug'ilgan yulduz.
 Bo'y desangiz – bir guli nihol,
 Dilni o'rtar yonoqdagi xol.
 Tabassumga ochilgan dudoq,
 Bo'sa sirin o'qur har bo'ydoq...
 Tiniq oq yuz, yorqin peshona,
 Ko'rgan qolur, oh, yona-yona.
 Qoshlarida ikki nozik yoy,
 Ehson etmish aksin yangi oy.
 Yelkasiga to'kilgan ipak
 Soch mavjidan yonadi yurak.
 Ko'krak ko'rki – to'lqini, mavji,
 Kamolotda go'zallik avji...
 Oq bulutday yuvgan ro'molin
 Yoyar ekan, tengsiz jamolin –
 Qo'rgan kim deb, qiz yuz o'gurar,
 Sehr bandi yigitni ko'rar.
 Bir tabassum uchdi Gulidan –
 Sirli tuyg'u qizning dilidan.
 Gul uzolmas ko'zni shu palla,
 Peshonada chaqnagan salla...
 Dostonlarda doim o'qigan,
 Ro'yolarda xayol to'qigan
 Alisher o'z sevgilisini

Topdi Shirin va Laylisini.
 Tong nafasi qanotlarida
 Jo`sh urgan nur girdoblarida,
 Totli nash`a keltirgan ilhom
 Parisini izlardi mudom.
 Oq bulutday oqqan nur go`yo,
 Sof hislardan to`kilgan ro`yo,
 Ko`rar hozir o`sha ro`yosin,
 Tinglar shoir ko`ngil sadosin:
 – «Yorab, budir men izlagan yor!...»
 Jilov tortar u beixtiyor,
 Qalt to`xtaydi, otidir sergak:
 – «Oqtarmishim shu o`zi beshak!
 Ro`yolarda ko`rganim shu qiz,
 Osmonimda tug`ildi yulduz...»
 Bir tabassum, bir nigoh, yohu,
 Qalblarini bog`ladi mangu.
 Bir onda yo`q bo`ldi pari qiz,
 Tom, narvon bo`sh, qolmagandi iz.
 Totli ro`yo og`ushida Sher
 Borur, dilda quyulurdi she`r.
 Tuyg`ulari yarqiroq, jo`shqin,
 Shoir borur, xayolda to`lqin.
 Ko`chalarni kezdi u behush,
 Derdi: «Yorab, o`ngimmu, yo tush?!»
 Otash tushib yigit ishqiga,
 Qaytar darhol qiz eshigiga.
 Otdan tushdi, urdi halqaga,
 Sabr yo`qdi bir daqiqaga.
 Uy egasi Solih bog`bon chol,
 Ko`rib sulton vazirin u lol,
 Hayratidan tosh qotdi bir zum.
 Tavoze va salom, tabassum
 Ila shoir uzatgandi qo`l,
 Chol bukildi va boshladi yo`l.
 Jilov tutib, bog`-suv bo`yiga,
 Suv bo`yida qo`noq uyiga.
 Duoda qo`l yuzga surishkach,
 Undan-bundan dam so`z so`rashkach,
 Bir daqiqa shoir qoldi jim,
 Keyin dedi uyalib halim:
 – «Ko`nglingizga qilgaysiz qabul,
 Kuyovlikka ko`rgaysiz maqbul».
 – «Jonim bilan, hazrati vazir,
 Sizga qizim nahotki arzir!
 Ammo undan so`ray bir og`iz,
 Uyim, dilim guli u yolg`iz...»
 Ichkariga yugurdi bog`bon,
 Qizga bir-bir ayladi bayon.
 Dono Guli dedi: «Otajon,
 Hazrat vazir bilsinlar shu on:
 Qabul qilsa go`yoki kaniz,

Rozidurman qulluqqa har gez...»
 Solih bog`bon chiqdi mamnun, shod,
 Bormi cholda o`zga bir murod?
 – «Bag`ishladim sizga, ey g`ozi!
 Qizim rozi va men ham rozi!»
 Shoir qalqib, qildi tavoze:
 – «Ota rozi, ollo ham rozi!»
 Belbog`idan to`kdi ming oltun:
 – «Ostonangiz bosganim uchun...»
 Dedi shoir, mayin tabassum
 Chehrasini qopladi bir zum.
 Sevgidan va sevinchdan u mast –
 Bir umrga yetur sarguzasht,
 Topmish yori misilsiz, so`lim,
 Ishq nash`asi ko`ksida lim-lim...
 Borur shoir saman otida,
 Uchar guyo baxt qanotida.

Xona katta, ganj panjarador,
 Nafis zavqqa mos zap naqshi bor.
 To`shalgan cho`g` gilamlar yoniq,
 Ko`rpachalar, bolishlar momiq.
 Shoir didi – sipohi jihoz,
 Istar qaqur-ququr bo`lsa oz.
 Xontaxtada yonur qo`shchiroq.
 Xayollari kezurdi iroq.
 Misralarga kirurdi ravon
 Fikrlari, guyo bir kamon
 Pardasidan uchgan kuy hozir,
 Fusunkor bir nash`ada shoir.
 Talay varaq to`ldi g`azalga:
 – «Arzirmikan sendek go`zalga?!
 Umrin bo`yi izladim seni,
 Topdim, mash`al yoritdi meni.
 Xayolimdan ketmaysan nari,
 Ishq mavjlanur daqiqa sari.
 Majnun, Farhod kabi yonurmen,
 Ishq mayiga, zora, qonurmen.
 Guli jonim, tashlama meni,
 Jahon bo`shdir ko`rmasam seni...»
 Qorong`ilik eriy boshladi,
 Moviy ipak yerga tashlandi.
 Sevar shoir shunday pallani,
 Sukunatda quchur nash`ani.
 Hofiz qushlar – saharga oshiq,
 Kuylari tong sehriga loyiq.
 Daraxtlarni burkigan nafis
 Gul madhiga o`qirlar hadis.
 Go`zal edi bu tong ayyomi,
 Hamohangdi shoir ilhomi.
 Xiyobonda u asta yurur,
 Muhabbati bag`ishlar g`urur.

Gullar go`yo shabnamga qadah,
 Go`zallikdan tuyar u farah.
 Bir-bir bosdi shoir gularo,
 O`qir g`azal, yangrar dilnavo.
 Co`lim bog`da suzadir surur,
 Shoir mamnun xayolchan yurur.
 Ruhi yengil, limmo-lim sevinch,
 Totli nash`a, xushhol va dil tinch.
 Tong epkini kezib qir, ishkom,
 Keltiribdir fusunkor orom.
 – «Yorab, yorab, bu ne mo`jiz a?!
 Go`yo yutdim sharob bir ko`za...»
 Hayajonda shivirlar shoir,
 Xayollarmi bu qadar mohir?!
 Oh, bu nechuk ajab sehgoh,
 Qaydan paydo bo`ldi Gul nogoh?
 – «Lutf aylangiz, ulug` hazratim,
 Sizni ko`rdim, bitdi hasratim.
 Yo`lingizga intizordurmen,
 Kutadurmen, xoki zordurmen.
 Muhabbatdan tutdingiz sharob,
 Sipqirdimu oromim xarob...»
 Tuyg`ularki shirin, to`ldi dil,
 Ta`rifidan ojizdur bu til.
 Qizni quchur kulib Navoiy,
 Afsus bari – xayol, havoyi...
 Gulshan ichra erir qiz asta,
 Yashiribdi qaysi guldasta?!
 Ta`zim ila to`xtar qarshida
 Yosh yigitcha, qo`ltuqda beda.
 Salom berur hushfe`l mulozim,
 Alik olgach shoir der: «Inim,
 Balli, otdan ayamang shafqat,
 Totsin axir jonvor ham rohat».
 – Topilmaydi, hazrat, bu xili,
 Asl yo`rg`a, yolg`iz yo`q tili.
 Ko`rinadi menga duldulday,
 Sevadurmen naq jonu dilday.
 – «Uloqda ham yarar ehtimol»
 Dedi kulib Navoiy xushhol.
 Tag`in bog`ni kezar u sekin,
 Tokning nafis yiltiroq bargin
 Bir zum to`xtab qilur tomosha:
 Sirlarga boy dunyo hamisha!
 Tong salqinin emgan suvni jim,
 Tavoze-la tutar mulozim.
 Navkarlar-la o`qir u namoz,
 Nonushtaga o`tirurlar boz.
 Dasturxonda non, qaymoq, halvo,
 Qora mayiz – har dardga davo.
 Darvozada yo`rg`a kutadi,
 Shoir o`rda tomon ketadi.

* * *

Uyg`onardi Hirot erta tong,
 Uyg`onardi qumursqa – serong.
 Uyg`otardi shamol qo`shig`i,–
 Rizqin izlar har qush tumshug`i.
 Ko`tarmagan boshini quyosh,
 Uyg`onardi temirchi, naqqosh.
 Yana qaynar Hirot bozori,
 Rastalari, saroy, guzari.
 Birov otda, birov piyoda,
 Qatnovchilar haddan ziyoda.
 Qalandarlar qichqirar: «Yohu!»
 Qassoblar der: «Bu go`shti ohu!»
 Temirchilar bolg`alar taqa,
 Tilanchilar dardi – bir chaqa.
 Yigitchalar yugurar har yon,
 Boshlarida savat-savat non.
 Birov malla bo`zda, eshakda,
 Yelka chiqiq, yirtiq telpakda.
 Birov saman otda, u uzun
 Belbog`iga tugmish zil oltun.
 Mana bir chol tarashlar marmar,
 Hayot shunday serg`am, dardisar.
 Bor go`zallar, bor cho`loq, qiyshiq,
 Bozor shovqin, shunday qorishiq.
 Mana ipak to`la bir rasta,
 Shoyi xitoy, hind – dasta-dasta.
 Mana xanjar, qilich rastasi,
 Tig`i po`lat, oltin dastasi.
 Halvo bozor – tog`u tog` halvo,
 Ta`mi totli, narxida g`ovg`o.
 Hayot qaynar, oltin jarangi,
 Tinmas bir zum savdoning jangi.
 Tuyalarning zanjir karvoni,
 Qo`ng`iroqlar salmoqli bongi.
 Shunday shovqin Hirotida bozor,
 Birov sotar, birov xaridor.
 Har nav inson bunda qorishiq,
 Birov boyov, birovlar pishiq.
 Borur otda Alisher vazir,
 Qovushtirib qo`llar muntazir,
 Yoshu qari barida hurmat,
 Bari salom berurlar albat.
 Xayol uchar, xayol havoyi,
 Alik bilan borur Navoiy.
 Kilmog` istar bukun u xarid
 Guliga bir shoda marvarid.
 Bu bozorda zargarlik rasta
 Boshqasidan kmmas, orasta.
 Nodir gavhar yoxud jez cirg`a,
 Topilurdi izlangan covg`a.
 Shinam do`kon oldida vazir

To`xtar ekan, bir yigit faqir
 Ot jilovin olgandi darhol,
 Istiqbolga shoshdi zargar chol.
 Ko`rpachalar solindi qat-qat,
 Hol so`rashdan boshlanur suhbat.
 – «Xizmat, taqsir?» – bukildi zargar,
 Kasbi uning marvarid, gavhar.
 Shoir dedi:– «Eng nodir inju...»
 Ko`zlarida yashrin bir kulgu.
 – «Xo`b, taqsirim!» – shoshur ziyoda,
 Jovonlarda dur shoda-shoda,
 Olib tutar: – «Marhamat, taqsir,
 Tanlasinlar, muhiti Kabir
 Ijodi-da, mo`jiz akor-da,
 Misli yo`qdir biron bozorda».
 Shoir kulib, qilur tasavvur:
 – Bizning Gulga qaysi yarashur...?!
 Injularning tekshirur farqin:
 – «Ma`quli shu, aytsinlar narxin?
 O`rasinlar qog`ozga, janob,
 Go`yo tomchi-tomchi oftob...»
 – «Didlari ko`p a`lo,– kulur chol,–
 Yuz tilloni tilasam malol
 Kelmasmikan ko`ngillariga?...»
 Dedi zargar boqib vazirga.
 Mir Alisher yechib kamarni,
 Jaranglatib to`kadi zarni
 Tavoze`kor zargar qo`liga.
 Injularni solur qo`yniga.
 – «Qulluq, taqsir, baxtga buyursin,–
 Dedi zargar bukilib mamnun,–
 Mahbublarga yarashur durlar,
 Eltadursiz daryoi nurlar...»
 Yengil borur ot yuvvosh, yo`rg`a,
 Tuyg`ulardan uzilib zo`rg`a,
 Shoir boqar yo`l berganlarga,
 Qovushtirib qo`l turganlarga.
 Salomlarga tabassum, imo,
 Javob berur shoir doimo.
 Mana bog`cha – baxtning beshigi,
 Yor eshigi – ko`ngul eshigi...
 Ot yetaklab Alisher xushhol,
 Kirar ekan, sachradi darhol,
 Kitobini chetga qo`yib Gul,
 Salom berdi qizarib butkul.
 Shoir dedi:– «Sog`indim, yoro!»
 – «Marhamat», – der Guli bohayo.
 Mehmonini xonaga boshlab,
 Ko`rpacha va bolishlar tashlab,
 O`tqizadi qiz yona-yona,
 Shoir boqar sho`x, oshiqona.
 Sevinch toshar har ikki dilda,

Ishq ertagi ko`ngulda, tilda.
 So`zlardilar, kulardilar shod,
 Shoir o`qir g`azallarni yod.
 – «Ustoz Lutfiy devonlari-ku,–
 Der Navoiy,– zab kitob-da bu!»
 Sezur farah, varaqlar bir-bir,
 Jilva bermish ko`zlarga sehr.
 – «Go`yo quyosh bundagi ash`or,
 Ko`ngillardan yuvadi g`ubor»,
 Der qiz kulgi o`chmay yuzidan,
 Nur yog`ulur shoir ko`zidan,
 – «Qalbimizning,– Guli kulib der,–
 Yulduzidir – yolg`iz Alisher».
 – «Seni derman – dunyoda quyosh,
 Seni ko`rsam erur qalbdan tosh,
 Keltirmishdim bir kichik hadya,
 Tabiatning ijodi hufiya...»
 Guli qolur behushday bir zum,
 Ko`zlarida yonur tabassum.
 Injularni silaydi sekin:
 – «O, bu menga yarashurmikin?»
 – «Dur bo`lmishdur, yoro, sizni deb,
 Ko`ksingizda porlab, bersin zeb».
 Shoir to`ymas qizning ko`rkiga,
 So`zlariga, qiliqlariga.
 Sukunatda bu ikki oshiq,
 Yuzlarida toshqirdi shodlik.
 Tag`in kulgi, suhbat galma-gal,
 Yod o`qirlar ishqiy ne g`azal.
 – «Bu kungi baxt, – Navoiy deydi,–
 Bir umrga yetsa arziydi».
 – «Undoq demang, azizim, hayhot,
 Sizdan ayri bilmasman hayot...»
 Baxtli damlar derlar beo`lchov,
 Quvonishar, kulishar ikov.
 Gul o`ylyaydi – to`xtasa zamon,
 Go`yo yutgan qalbiga jahon.
 Guyo ishq baxsh etmish qanot,
 Der ko`nglida: «Na totli hayot...»
 Guli yonar go`yo bir mash`al,
 Tilar shoir: «O`qing bir g`azal».
 – «Yo`g`e...» – qiz der uyalib maxmur,
 – «Yo`qsa, shingil chalingiz tanbur.
 O, go`zaldur, azim tabiat,
 Bahor sohir, yuvilur g`urbat.
 Chaling, Guli, munisu ulfat,
 Tanbur tori qochirur kulfat...»
 Guli chalur, ohang sehrlar,
 Dilga totli quyulur sirlar.
 – «Hayhot, ulug` tabiat – jannat...»
 Dedi shoir – qonib muhabbat.
 Navoiy mast, zavqlari baland,

Muazzam bir toza ishqqa band.
 – «Jonim, saboq olmishsiz qaydan?»
 – «Hafif gullar tabassumidan...»
 Guli chertar, tanbur serohang,
 Yuraklarda qolmagandi zang.
 Qiz yalinar:– «She`r, o, bir she`r».
 – «Gung ilhomga beribsiz mehr,
 Yo`llaringa to`ldiribsiz nur,
 Quyosh ishqin topdim, tashakkur.
 Men kuylasam sevgidan ertak,
 Poyingizga to`shasam chechak.
 Eshiturmen, shivirlar ilhom,
 Atar sizni: guldagi bodom...»
 Guli yozur shinam dasturxon,
 Shoir qalqib olur shu zamon.
 Uzilmasdi suhbatlari orom,
 Ishq mayiga quyilur oqshom.
 Navoiy der: – «G`amim mamlakat,
 Gullarmikin, qilsak harakat.
 Vayronlikka cheksak raqamlar,
 Ko`rsak hammom, bog`i eramlar...»
 Kelib qoldi chol bog`bon shu dam,
 Hurmatiga qalqdi shoir ham.
 Elik yoshda, alif qomati,
 Bog`bonchilik – ishq, rohati.
 Qalami to`n, muloyim, kamtar,
 Falsafasin hayotning bilar.
 – «Bog`dormiz, ish bizda ko`p, taqdir».
 Uchqunlaib ko`zlari, vazir
 Nazokat va tavoze` ila
 Keksa qo`ldan olur piyola.
 Goho zimdan boqar Guliga,
 Javob qilur chol savoliga.
 Bog`bon so`zlar ahvol zamondan,
 Suhbat borur narx-navodan.
 Qo`zg`olurdi shoir o`rnidan,
 Ajralgusi kelmasdi qizdan,
 Nash`a toshgan baxt maskanidan,
 Qiz ham go`yo qo`zg`olur izdan,
 Dedi iliq tabassumda qiz:
 – «Hardam sizga intizordur biz...»
 * * *

Husayn otda, beklar paydarpay,
 Egariga qo`nmish haykalday.
 O`ng qo`lida Alisher vazir –
 Chehra nurda, kamtar, benazir.
 Boyqora-chi, mag`rur – shohona,
 Hashamatli salla peshona
 Uzra yal-yal yarqirar jig`a,
 Dabdabador oqar bir jilg`a.
 Bu – podshohning ovga chiqishi,
 Tomoshada edi ko`p kishi.

Bu yurishdan yer-ko`k zilzila.
 Kampirlar ham (ko`zlari xira)
 Ergashlarlar qiz-juvonlarga,
 Tirmashlarlar tom-devorlarga.
 Sipohilar dasta va dasta,
 To`p sarkarda sipoh, orasta.
 Tez-tez sulton chiqardi ovga,
 Tayyorlik naq yurushday yovga.
 Chodirlar-u, butun oshxona.
 Unutilmas ko`chma mayxona.
 Mana birdan Husayn Boyqora
 Navoiyni turtidi: «Mir, qapa...»
 Darichada ko`rdi Navoiy
 Gulni, shohi ro`mol havoiy
 Qoplamagan qizning husnini.
 Qotdi sulton, borliq jismini
 Yoqib o`tdi bir ofat chaqmoq,
 Guyo dilga qadaldi pichoq.
 – «Ko`rmaganman, – shoh der ichida,–
 Yulduzlarning jilmayishida
 Bunday nodir va tengsiz husn...»
 Sulton Husayn yuqotmish hushin.
 Yopilgandi shu on daricha,
 Yashringandi Gul ichkariga.
 Alisherga tegdi o`q go`yo,
 Ongladiki, qorong`i dunyo.
 Shivirlaydi Husayn Boyqora:
 – «Qalbga tushdi ko`zlari qora...
 Dilda yondi yana bir chiroq,
 Duch keldi, oh, yangi bir firol»
 Navoiy jim yutadi g`amni,
 Unga yo`ldosh, izdosh alamni.
 «On hazratim, hijron og`ir...» der.
 Husayn deydi:– «Mubtaloman, Sher...»
 Shoir sukug -qiladi bir zum,
 O, baxtiga bu nechuk hujum...
 Tong shamoli esardi sekin,
 Shahap uzoq, hamma yoq ekin.
 Ovchi itlar olda, uzoqda,
 Sulton yelar, dardi sodoqda.
 Irg`ib tushar otidan shoir,
 Arg`umoqlar maysada hozir.
 Amir, beklar to`xtaydi bari,
 Chodirlar mo`l – tayyor ilgari.
 Shoir beklar, mulozimlar-la
 So`zlashardi tag`in kimlar-la,
 Ichda bo`ron, kimsa bilmasdi,
 Qon tomgan dil – g`amga qafasdi.
 Shoh chodirda o`tirur mag`rur,
 O`ljalik ov kayfini surur.
 Kiyik kabob, ko`pirur chag`ir,
 Na qilg`ay oh, bechora shoir!...

Qo`lda qadah, labda nim xanda,
 Taqdirmi bu?
 Noiloj banda...
 * * *

Eshik qoqdi – bu qozi sovchi,
 Burun karnay, ter tomchi-tomchi.
 Gavda yirik, sallasi katta,
 Surgalgan to`n, kulohi pilta.
 Solih bog`bon titraydi zir-zir,
 Qo`l ko`ksida: – Buyuring, taqsir.
 Cho`kib qozi, yuz silar: «Omin».
 Hol-ahvoldan so`rashar qalin.
 So`ng deydi u: «Yubordi sulton,
 Sizga domod bo`lur shoh jahon...
 Ko`z tushibdi, yoqibdi ishq,
 Murakkab-da muhabbat siri...»
 Bir zum pix-pix kuladi qozi:
 – «Shohga qizning bo`lurmu nozi?»
 Bog`bon qotgan, jim o`tiradi,
 So`ngra qulluq qilib turadi:
 – «Yolg`iz qizim, so`ray ra`yini».
 O`ylar: «Bormi qizim tayini?»
 Qiz kuladi:– «Men tuyamidim,
 Bo`ladigan bir kallamidim?...»
 Bog`bon chiqib, egilur: «Taqsir,
 Peshonaga bitgandur taqdir.
 Qiz aytilgan, buyurgani bor,
 So`zni buzsak – nomusimiz xor».
 Qozi kalon yoqasin tutar:
 «Yo ollo!» deb tupugin yutar.
 Taxtga cho`kkan Boyqora xoqon,
 Ko`zlarida bulut va bo`ron.
 Qalbi cheksiz, go`yo bir ummon,
 Yangi yorning ishqidan tug`yon.
 Qozi kalon qilurdi izhor
 Qizning radin takror va takror.
 Sulton izlar tez Alisherni,
 Topmay imlar kichik vazirni.
 – «Umid sizda, azizim vazir,
 Bir ishqqa men muhtalo, asir...»
 Kichik vazir kashf etur qanot,
 Qamradi u go`yo koinot.
 Qulluq etib, yugurdi darrov,
 Vazir ko`rgan qizlarga ko`p ov...
 Bog`bonga der:– «Taqsir qulluqda
 Keldik, umid chiqmag`ay yo`qqa».
 Kirdi Guli oldiga bog`bon:
 – «Yo`q demagin, kechirgay yazdon...»
 Daf`atan qiz oqardi bo`zday,
 Qaltiradi, quydi ter muzday.
 – «Qayg`urma, Gul, banda noiloj,
 Kiygizibdi taqdir senga toj»

Guli ho`ngrar:– «Qani Alisher?
 Men bevafo, yutmaydimi yer?...»
 Yarqiroq to`n kiyib, xushxabar –
 Bilan uchar vazir, go`yo par.
 Boyqora shod: – «To`yni boshlang,– der,–
 Zir titrasin yetti osmon – yer».
 * * *

Oy to`libdi... nur selida tun.
 Ammo ikki ko`ngilda tutun...
 O`tirurlar Guli va shoir,
 Hasratlari hijronga doir...
 Ishq chamanin burkabdi bulut,
 O`tirurlar... xazin bir sukut...
 Samoda cho`g` go`yo yulduzlar,
 Somon yo`lda Gul najot izlar...
 – «...Izingdamen butun umr, Gul,
 Badbaxtlik bu – ko`ngil qo`rim kul.
 Senga tekkan o`q dilda har on,
 Tomizadur tomchi-tomchi qon...»
 Shoir oldi qo`ynidan devon:
 – «...Gulim, har gez sen – qalbidam jon.
 Shu g`azallar mendan yodigor,
 Rad etma, yor, yig`latma zinhor.
 Bu she`rlar kuylar sevgimni,
 Bu dostonlar so`ylar sevgimni...»
 – «Hazrat, menmi yo siz bevafo?...»
 – «Yo`q taqdirdan enmish bu jafol!»
 Ho`ngrab-ho`ngrab yig`lar edi Gul:
 – «Derdim, bo`lay shoirga men qul...»
 – «Yig`lama, Gul, yig`latma zinhor.
 Men bilmasman sendan o`zga yor.
 Qovushmasdan boshlandi hijron,
 Ishq chamanin sovurdi xazon...»
 Goh hazil-la shoir ovutur,
 Yasama bir latifa to`qur:
 – «Guli, ulug` Sulton Begim – siz,
 Ostonada qulingizdur – biz»
 Goh mantiq-la qilur nasihat,
 Ko`nglida der: «Bu nechuk dahshat!»
 Oslarlarda xo`roz qichqirar,
 Gul der: «Meni unutmang zinhor».
 Durlar yonur Gulning bo`ynida:
 – «Uzun-uzun hijron yo`lida
 Injularni ko`zga sururmen,
 Hazrat, har dam men his qilurmen
 Ko`ksingizga qo`ydim deb boshim,
 Bu injular – qaynoq ko`z yoshim...»
 Qiz ko`ksida yonardi durlar,
 Ko`z yoshlarda so`nardi nurlar...
 – «Yorab, nechuk inson men nomard,–
 Der ichida shoir yutib dard,–

Dostonlarda topilmas bu qiz,
 Yaratishga ilhomlar o'jiz...»
 Turdi shoir: – «Alvido, Gulim,
 Yolvoramen, yig'latma dilim...»
 Go`yo ko`ngli qovjiroq, chil-chil...
 Asta yurdi, qadamlari zil.
 Shoir va Gul ayrildilar jim,
 Qalblar mungli, g'arib va yetim...
 Ol shafaqda asta tug'di kun,
 Erib ketdi takror kelmas tun...

* **

Ostonada shoh qilur xitob:
 – «Guli begim misli oftob!»
 Gul egilur:– «Ulug' xoqonim!
 Assalom, e shohi jahonim!»
 Yonog'ida so`ngan ol shafaq,
 Husayn o`par: «Bo`ldim muvaffaq
 Ulug' baxtga – Gul menim yorim,
 Rahm ayladi parvardigorim».
 Quradi u to`rda chordona,
 O`tirur mast, terda peshona.
 Qiz qalbida chayqalur armon,
 Xumor ko`zlar endi parishon.
 Go`zallikda zarra yo`q nuqson,
 Cheksiz hasrat ko`nglida pinhon.
 Hislari va hirsleri qaynoq
 Sulton Husayn go`yo bir yaproq,
 Qaltirardi, o'jiz, bir xitob
 Qilolmasdi, qamragan girdob.
 Ko`p go`zallar bo`lgandur ulfat,
 Malikalar qilgandur suhbat...
 Gulning latif, nur qiyofasi,
 Ko`rki go`yo – bir tong nafasi,
 Shohni qilmish edi mast, behush,
 Kechinmalar shirin, go`yo tush...
 Nazokat-la Guli der:– «Hazrat,
 Sizdan qirq kun so`rayman muhlat...
 Lutf aylangiz, oliy hukmdor!
 Qulingizning shu tilagi bor...»
 Shoh sukutda chekar iztirob,
 Qani sabr, bu nechuk azob?!
 Guli kular:– «Podshohi olam,
 Yarashmaydi Sizga chekmak g'am...»
 Husayn deydi: «Borlig'im butun
 Oyog'ingiz ostida bukun.
 Guli, menga siz – yulduz, siz – oy,
 Sizgadur men faqir – xoki poy.
 Har na istang – zumda muhayyo,
 Siz – ko`zimda, ko`nglimda ziyo».
 Ta`zim ila Guli bukukur,
 Jo`sh urardi iroda, g'urur:
 – «Tashakkur, oh, Sizda ko`p shafqat,

Shohi odil, toping haqiqat...»
 Takror-takror Gul qilur qulluq,
 Ko`z yoshida kipriklar quyuq.
 Joydan asta turar hukmdor,
 Afsonada shunday naql bor...

Gul to`shakda, erir go`yo sham,
 Yara qalbda chayqalurdi g'am.
 Bugun qirq kun, Guli xud soya,
 Ichka armon cho`kkan zo`r qoya.
 Dard kemirmish siynani butun,
 Ko`zlariga tortilgan tutun.
 Qon bo`yalib turardi sahar,
 Tomirlarga tarqalur zahar.
 Kiz xo`rsindi, tugashda umri,
 Bugun so`nar ko`zdagi nuri.
 Shoh Boyqora bir so`z qotolmay,
 Chiqdi sirtga, yig'ladi talay.
 Ostona tiz cho`kkan shoir,
 Siynasida dard yuki og'ir.
 – «Alvido...» – der Gul Navoiyga,
 So`ng bor so`zlar bu shaydoyiga:
 – «Bahoringa yog'ildi qirov,
 Taqdirga, oh, nechuk qilay dov?
 Bu manzilga keldim ajalning
 Qanotida – u bemahalning.
 Sizga so`nggi, yolg'iz vasiyatim:
 Yelkangizda elting tobutim...
 Quchoqlagay ishqimni qabr,
 Sizga tilay tangrimdan sabr.
 Pora-pora dillarda chokim,
 Yelkangizda eltingiz xokim...
 Yolvorurmen, to`kmang ko`z yoshi,
 Olmos erur taqdirning toshi...»
 Gul yuziga qo`ndi tabassum,
 Yumdi ko`zin, quchmishdi o`lum.
 Navoiy qon yig'lar edi jim,
 Oqdi yoshlar, oqdi betinim...
 O`rtanur dil yarasi, dog'i,
 Asta chiqdi, og'ir dard tog'i.
 Quyulur yosh, siyna o`t hozir,
 Husaynga yig'lab der shoir:
 – «Soyangizda so`ldi Gul chaman...»
 – «Sarvdan tobut, gullardan kafan»
 Deb shoirning bo`yniga shu on
 Ho`ngrab otar o`zini xoqon.
 Yelkalarda chayqalur tobut,
 Ko`ngillarda motam, g'am – bulut.
 Kanizaklar yig'laydi bari,
 Qo`zg'oldilar qabriston sari.
 Shoir borur, g'amdan egik bosh,
 Qalbg'a tomur qatra-qatra yosh.

Yelkasida borurdi Guli,
Qovjirardi otashda dili.
Ishq dardidan erimasmi tosh?

Shoir eltur ko`mgali quyosh...
Og`ushiga olur siyoh choh,
Bu choh Gulga mangu oromgoh...

DAVRIM JAROHATI (Doston)

Qalbidam davrimning jarohati bor,
Shuning-chundir she`rim g`azabdor vulqon.
Jahonga bir kuni tinchlik bo`lur yor,
Bombani, zulmni unuttur inson!
Lekin, Xirosima, unutmamiz biz!
Bir kuning – qalblarga tashladi olov.
U kundir – tarixda motam kunimiz,
Avlodlar qilg`usi jahongirga dov!
Qalbingda, qoningda, jisingda yara.
Xastalik bandisan, tark etdi rohat.
Yigirma yildirki, bitmaydi sira,
Menim ham qalbidam qolgan jarohat.

* * *

Sindi yulduzlarning oltin ko`zgusi,
Ufqlar yuziga yugurganda qon.
Ilk shu`lalar bilan hayot orzusi
Har gulga yaproqqa berar edi jon
Qurt va qumursqalar izg`ir edi baland-past,
His etib mehnatdan totli bir surur.
Tong shabbodasining quchog`ida mast
Qushchalar yuksakdan pastlarga sho`ng`ur
Yoz! Mevalarga g`arq Yaponiya go`zal,
To`ladir, toshqindir yozning suprasi.
Yoz kabi bahormi – qay biri afzal?
Tabiatning asl har bir qatrasini...
O`rmonga, quyoshga boy bir o`lkada
“Otakva” daryosi yaslangan shahar,
Shu`la shalolasi quyulur shunda:
Quyosh bosh ko`tarur chaq nab har sahar
Daryolar dengizga qovushgan joyda
Xirosima topgan o`z qarorgohin:
Tug`ilgan, o`sganlar so`zda qo`shiqda –
Olxo`ri gul, derlar, har bir giyohin.
Keling, bir sayr eting bu latofatni –
Yorilgan bahslashib g`unchalar tunda.
Qaydan sezsin bular yaqin ofatni,
Ohista chayqalur kapalak gulda...
Sokin bir kanorda ikki yosh qalblar,
Shafaqday sof sevgi qilurlar izhor.
Bo`sa otashidan yoqildi qalblar –
Muqqaddas bir lavha – boqmangiz zinhor.
Guldagi olchaday, shirin suhbatini,

Qizga qovushganda qolurmi qayg`u?
To`lqining sohil-la sirli ulfati
Uzilmas, hech bitmas, dedilar mangu...
Sharqiroq suvlarda yozning lapari,
Kelinlar saharlab supurgan sufa.
Gavjum uyalar-chi – qushlar zafari.
Kim bilur, osmonda – balogar “tuhfa?!”
Osmondan keladi atomlar – buzg`un,
Janglar hech ko`rmagan bunday qurolni
Yubordi kulfatni jahongir – quzg`un.
Tekinxo`r bilurmi qalbni, uvolni?!

Tong otgan, har kishi oshiqar ishga,
Har kimda bir yuk bor – tirikchilik dardi:
Birov ishga zordir, birov o`qishga.
Parcha non – qo`llarning ko`ngilning gardi.

Shaharda har kimda kundalik tashvish,
Birovda sevinch bor, birovda qayg`u.
Har kimda kundalik bir g`avg`o, bir ish:
Kim bilur – osmonda bir qopchiq og`u!
Mana, keng, ozoda bir tug`ruqxona.
Ayollar keladi ko`tarib orzu.
Quvonib kutadi eshikda ota,
Quchoqlab gullarni xoh qish, xoh yoz u.
Ko`zlarda tabassum, shoshadi juvon,
To`lg`oqning dardini qilmaydi pisand.
To`qqiz oy umid-la berdi mehr, qon.
Intizor, suyunib kutadi farzand.
Muhabbat limmo-lim suzuk ko`zida,
Vahmni bilmas jon tursa-da qilda.
O, shuncha latofat, boqing yuzida
Farzandning chiroyi tasviri dilda...
Ko`z yoridi, ko`ngil undan-da yorug`,
Doya der: – “Bir qizcha – sendan-da suluv!
Tyrakki, raqqosa bo`ladi aniq
Tugmachangga ko`zim tegmasin tfu...”
Qizchaga bir asr tilaydi umr,
Xayol oynasida bir asr – bir on.
Orzular to`lqinday bir-bir ulanur,
Orzusiz, umidsiz bormikan inson?!
Qiyg`os ko`zlarini suzib ona der:
- “Ulg`ayar, o, qanday sevinch bir kuni

Qarabsizki, doktor yoki injener...”
Hayhotki, birsi ham bo`lmaydi buning!

* * *

Shaharning ustida moviydan tuman
Mavjlanur, go`yoki ipakdan chodir.
O`rtasi yirtilgan – bir tuynuk, shu on,
Ilon ko`z mo`ralar: “Naq payti hozir!..”
Ohista chayqalib tong shamolida
Parashyut tushmoqda ko`tarib ajal.
Soat naq sakkizu o`n besh daqiqa –
Yorildi ajalning qopi bemahal! –
Bilmadim, falakning qay qabag`idan
Keldi Amerikaning bu samolyoti.
Davrim balosining shum qanotidan
Qarsillab quyildi yalmog`iz o`ti!
Shu onda osmondan yog`ildi balo,
Na tug`ruqxona-yu, na qiz, na ona!
Bir do`zax, falokat ag`dardi samo,
Soniya kechmadi – mudhish xaroba.
Shu asno samoda bizning quyoshdan,
Yuz hissa ortiqroq tug`di bir “quyosh”
Lov etdi, shaharni qamrab qaytadan,
O`chdi ofat-quyosh – balolarga bosh!
Atomlar yorildi, qaltirar fazo.
–Qurbon! Qurbon qancha?
– So`rmang sanoqni!
– Xirosima qani?
–Yo`q Xirosima!
Azroil, insondan, kel, ol saboqni!
Boqing xaritaga, kichkina emas,
Xirosima – ikki yuz ming aholi.
Kim buni mislsiz yovuzlik demas?!
Bir onda ho`pladi atom quroli...
Chaqirimlarga quloch yoydi ajal – nur,
Minglarcha uylardan zumda bir kaft kul.
Zilzila samoda, zilzilada yer,
Yig`ilar, faryodlar qorishdi butkul.
Yuz mingcha odamlar – kul... Bu ne ofat?!
Odamlar yo`q bo`ldi, qoldi soyalar...
Million darajaga oshgan harorat!
Yig`ladi soyalar, yig`ladi toshlar...
O`rtandi odamlar. Aytilmagan so`z
Qovjiroq havoda qoldi muallaq.
Odamlar yo`q bo`ldi, yangrardi hanuz
Uzilgan xandalar – yarimta titroq...
Havoni to`latdi ohu faryodlar:
Minglab odamlarni yutgan jarohat.
Yig`ladi odamlar, yig`ladi toshlar...
Toshlar ham kuyibdi, bu ne harorat?!
Minglabki uylarni qamradi olov?!
Kullari falakda – to`zon ko`malar.

Hayotni, chechakni yutib ketdi yov...
O, qani bulbullar? Qani turnalar?!

Ko`ksida go`dagi, qochdi onalar,
Yurtini yutadi olov ajdari.
Toqqami, cho`lgami? – izma-iz quvar,
Chang solar ma`nosiz o`lim panjasi!

O`lkaning u totli oltin havosi
Bo`g`adi, chayqalur nurda – zaharda.
Ter bilan gullagan yapon bog`chasi
Qovjiroq skelet – qo`rqinchli sharpa!
Fig`on faryodlardan samoda quyun,
Tentiraydi behush dardli siynalar.
Toshlarning qalbida dardlari tugun,
Irmoqday oqibdi toshlar, shishalar.
Zilzila emas bu, suv toshqin emas!
Osmon, yer qorishdi, bu ne falokat?
So`ylang, tog`, dengizlar, bosiriq emas!
Yer kurrasi uzra million harorat!
Shum kalxat sho`ng`idi, bir halqa chizdi,
Sovrildi, yemrildi bu shahri obod.
Asrlar ko`pirgan hayotni uzdi,
Tarixda misli yo`q, tengi yo`q jallod.
Shu topda birinchi bo`sani totgan,
Mag`rur yigitlaru, ko`p suluv qizlar,
Hayot sehdidan mast, ishlari toshgan,
U chechak qalblardan qolmadi izlar...
Latofat, muhabbat, hayotdan bir iz
Qolmadi, bir onda barchasi barbod.
Qani yosh juvonlar? Qani yigit, qiz?
Qani x umor ko`zlar – izida faryod...
Dengiz g`azabidan titradi borliq,
Chayqalurdi bo`m-bo`sh qayiqdar – yetim.
Ajal yurgan yerda ne qilsin shodlik?..
Ko`mirdir jasadlar... Kuygan tabassum...
Har kimga yurtining tansiq havosi,
Har kim o`z yurtining sevar to`rt faslin.
Ezgudir har kimga qushlar navosi,
Har kim ardoqlaydi pok, sog`lom naslin.
Tuproqda, havoda, suvda ham zahar,
Ajalning urug`in saqlar baland-past.
Motam toshqinida so`ndi baxt, lapar.
Hattoki, kelgusi bo`g`inlar shikast...
Oftob tonglarda erkalab o`pgan,
Qop-qora ipak soch yapon qizlari,
Endi kal, sochlarin tolalab to`kkan,
Shafaqni yo`qotgan gulro` yuzlari...
Insonlarning bo`g`im-bo`g`imlariga
Suqulibdi ajal – jon qaroqchisi.
Har qadam vahima, har on vahima,
Qonlarda yashirindi nur aldoqchisi.

Shu bugun ilk daf'a quyoshni ko'rgan
 Go'daklar oz emas edi shaharda.
 Ilk daf'a onaning mehrini totgan
 Barchasin ofat – nur yutdi bir onda.
 Yiqiq Xirosima – ham kul, ham majruh,
 Amerikadagi yovuzlar ko'p shod.
 Arshi a'lodan u ag'dardi tamug',
 Qilur kim jon qayg'u, kim oltinni yod.
 Oqshom... Qora motam choyshabda shahar,
 Olovlar, tutunlar ko'kka chirmashur,
 Kuyadan zim-ziyo havoda zahar
 Og'riq ila firoq birga ingrashur...
 Ufqda bulutlar qonlarda suzar,
 Dud burqir xastalar nola-ohida.
 Vahm changalida qovjirak qalblar
 Bulutday chayqalur g'am nigohida...
 Vayronlik bag'rida alamli faryod,
 Firuza osmonga surkalgan siyoh.
 Daryolar qirg'oqqa yiqilib, der: "Dod!"
 Yulduzlar xo'rsinib, yashirdi nigoh...
 Sehr, mo'jizali dengizda har kun
 To'lqinlar kuylardi shod bir madhiya,
 Sohilda ketma-ket bosh yorib bugun
 To'lqinlar o'qirlar hazin marsiya...
 O, qani tongdagi surur va nash'a?
 Hayot qozonida ko'pirish, kurash?
 Qani maydonlarda gullardan kashta?
 Xaroba va yong'in... Kesilur nafas...
 Olchazorlar ko'rki, so'lim qirg'oqlar,
 Xayolimda qoldi yolg'iz naqshingiz...
 Sehrli sadolarga to'la yaproqlar,
 Ko'nglimga solganman totli she'ringiz...

* * *

Yangi tarix bugun yigirma asr,
 Insonlar unutgan qoidalarni.
 Obodlik dushmani buzarlari qasr –
 Asrlar saqlagan obidalarni...
 Musharraf olimlar, tortib ko'p jabr,
 Ilm marvaridin donalab terdi.
 Har biri qalbidan – kirmasdan qabr
 Ilm mash'aliga bir uchqun berdi.
 Olimlar asrlar atomning sirin –
 Qidirib, bosdilar qadam-baqadam,
 Aql olmosi-la atomining mag'zin
 Chaqishga urinib, yetdilar adam.
 Olimlar asrlar tosh, tikan, changal –
 Yo'llarin bosdilar... Ajoyib sabr!
 Fikr uchquni-la yoqdilar mash'al,
 Xayrli ishni deb quchdilar qabr.
 Atomning qa'ridan qudrat bulog'in
 Hayot sari bog'lash – na go'zal orzu!

Qudrat daryosining oching qulog'in
 Dastgohlarga bepul va betarozu!
 Tubsiz xazinaga topildi kalit,
 Hayhotki, bu kalit jahannam ochdi.
 Insonning iflosi – bir guruh palid
 Hayot chamaniga o't-olov sochdi.
 Atom ham vodorod – xilma-xil bomba
 Haqorat yog'dirdi inson sha'niga.
 Jahon vijdonining nafratin so'rma!
 Qin va g'azab to'ldi inson qalbiga.
 Hayot go'zalligini bilmaydi sotqin:
 Jonfurush, oltinga to'la hamyoni.
 Unda yo'q insoniy mehrdan yolqin,
 Begonadir unga vijdon isyoni.
 Bombaning ta'sirin kutar bemalol,
 Istaydi – kul bo'lsin olchagul shahri.
 Sen ham insonmisan? Bu ishmi halol?!
 Tarix unutmaydi, mangudir qahri!..
 Joni halqumida tirik o'liklar,
 Yillar shu tarz endi bu shahri mazlum.
 Yig'laydi qovjiroq o'lik og'ochlar
 Tasviri – parcha cho'g', o'rtaydi ko'nglim.
 Yirtqich manxuslarning topshirig'ini
 A'lo ado etgan, afsuski bir shaxs
 Sepdi u ajalning shum urug'ini,
 Asrlarga yetar bu vahm, bu bahs.
 Nahotki, seni ham bir ona tuqqan?
 Nahotki, senda bor bir sabiy farzand?
 Ey, iringanch "qahramon", to'yib ichding qon,
 Oltin qozig'ida sotqin bo'ying band.
 Insonlar tinglaydi kechayu kunduz
 Bag'rida ming yara shahardan nido.
 O'liklar, xastalar yurar izma-iz,
 Nega sen bo'lmayсан tinchlikdan judo!
 O'ngingda, tushingda, yurar izingda
 O'liklar, tiriklar, barchasi – cho'loq.
 Hamisha qonlardan – botqoq tizingda,
 Mazlumlar ko'z yoshi yo'lingda buloq...
 Tabarruk oqsoqol qarilar qoni,
 Muqaddas onalar qalbi gavhari,
 Qiyg'os qosh, xumor ko'z gulro'lar joni...
 Barchasin qamradi o'limning jari...
 Necha bahor o'tdi, ko'rmaydi bahor,
 Xastalar ko'zida – u kungi suron.
 Go'yoki kutadi ularni mozar,
 Hamisha quloqda portlaydi uran.
 Jahongir malayin tark etmas qaror,
 G'arq etmas mazlumlar g'ami, giriyoni.
 Yig'laydi yer-ko'k, u yig'lamaydi zor.
 Yo'qmi unda zarra vijdon isyoni?!
 Asrlar toymadi izdan Yer kurra –
 Hasratlar, jabrlar, janglar karvoni.

Fazoda uchadi – bag’ri ming yara,
 Yig’laydi: cheksizdir alam, armoni...
 Jarohatdan hatto toshlar-da cho’tir,
 Yig’laydi toshlar-da, yig’laydi soya.
 Olamga keltirur jahongir putur,
 Tug’ishgandir ajal bilan sarmoya.
 Kapital, yaqindir mangu sho`ng’ushing,
 Millionlar g’azabi to`lqinlanadi.
 Kechadek qop-qora chuqur tobuting
 Ishchi bilaklari tayyor qiladi.
 Yutding qit’alarni, xalqlarni yutding,
 Zavqlanib qizdirding qul bozorini.
 Talashdan o`zganing barin unutding.
 G’urur-la sayr etding kul diyorini.
 Iskading har yerda bir o`lja – ovni,
 Hukm etding dengizning to`lqinlarini.
 Tinch xalqlar tiziga urding bo`g’ovni.
 Urushding, chang solding qo`yinlariga
 Bombalar... bombalar – sening ijoding.
 Ko`nglingni, ko`zingni qoplamishdir zang.
 Jahon so`rar sendan: “Qani vijdoning?”
 Ostonangda ajal solur senga chang!
 Dushman! O, nahotki sen shuncha mal’un?
 Tarixning hech asri ko`rmagan misling.
 Vijdoning barboddur, yig’asan oltin,
 To`ymaysan, ochko`zsan, hayf inson
 isming!
 O, dahshat, yovuzlik – ta’rifdan ojiz
 Qalamim tebranmas, qotgan so`zlarim.
 O`ylasam har daf’a yuragim jiz-jiz –
 Qovrilur, hasratda yonur ko`zlarim.
 G’azabdandir ko`ksim qahrli bulut,
 So`zlarim do`l kabi yorur boshingni!
 Kechagi mazlumlar bugundir burgut,
 Niqlab bostirurlar qabr toshingni!
 Kurashur, qolsa-da, ko`p kelinlar tul
 Qo`llarni kishanlash, bil, endi mushkul.
 Qilsang-da bog’larni, kulbalarni kul,
 Vayronlik, qullikni bilmaydi ko`ngil!

Yaponning urushqoq generallari
 Ozmuncha ko`rsatdi xalqqa jabrni?!
 Qadamlarda g’ovdir – zulm toshlari,
 Cheki bor har qanday metin sabrni!
 Inqilob chaqmog’i qit’alar ufqin
 Qamchilab o`tdi-yu, yordi zulmatni.
 Zulmlardan soqov qalblarning qulfin
 Parchalab, to`g’onin buzdi qudratning.
 Bir kun siz sayr eting, do`stlarim,erni
 Kosmik kemalardan, yo qo`shni oydan.
 Yer kurra bo`stonlar to`la bag’rini
 Ko`tarib, shod uchar mangu yo`lidan.
 Qalbimda davrimning jarohati bor,
 Shuning-chundir she’rim g’azabdor vulqon.
 Jahonga baxt kelur – abadiy bahor!
 Zulmni, kishanni unutar inson!
 Yiqiq Xirosima ko`tardi qadni
 Yashar inson, albat mahv bo`lur jabr.
 Atom bombalarga chekamiz sadni!
 Tarixda dog’ qoldi... yuvmas ming asr...
 Quyoshning beshigi – yapon o`lkasi,
 Siz bilan birgadir bizning qalbimiz.
 Endi hech tushmasin ofat ko`lkasi!
 Quyoshday mangudir sizga mehrimiz.
 Xirosima! Aslo unutmamiz biz,
 Bu so`z yuraklarga solmishdir olov.
 U kundir tarixda motam kunimiz
 Xalqlar qilajaklar jahongirga dov!

* **

Xirosima, mendan minglarcha chaqirim
 Uzoqsan, yuragim senga yaqin, bil!
 Tuprog’ingga hali oyoq bosmadim,
 Dardingni tashirman naq yigirma yil.
 Xalqingning, havongning, olcha gulingning
 Tasviri qalbimda, ko`rganday aniq.
 Birga yondim, birga chekdim dardingni,
 Sevgimni, dilimni qilganman tortiq!

1965-yil.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oybek lirikasining o’ziga xosligi nimada?
2. Zamonaviy o’zbek adabiyoti nasrida Oybek asarlarining tutgan o’rni qanday?
3. “Guli va Navoiy” dostoni badiiyati haqida fikr yuriting.
4. Dostonda Navoiy umrining qaysi bosqichiga urg’u berilgan?
5. Navoiy shaxsiyatining ochilishida badiiy to’qimaning roli qanday?
6. Guli obrazida o’zbek qizlarining qaysi xususiyatlari aks etgan?
7. “Davrim jarohati” dostonida shoir kitobxon e’tiborini qanday ijtimoiy-ma’naviy mavzularga qaratishni maqsad qilgan deb o’ylaysiz?
8. Asar qaysi voqea munosabati bilan yozilgan?

9. Dostonda Vatan siymosini gavdalandirishda qaysi obrazlar ko'makka kelgan?



MAQSUD SHAYXZODA (1908-1967)

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908-yil 25-oktyabrda Ozarboyjonning Oqdosh shahrida tavallud topdi.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, adabiy faoliyatini 1929-yildan boshladi. Uning «O'n she'r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovoqli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Urush yillarida «Kurash nechun» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko'ngil deydiki...» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi.

Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi she'riy to'plamlarini nashr ettirdi. 1958-yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni, 1960-yilda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi yaratildi.

Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Jul'etta» tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga ag'dardi.

Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi.

TOSHKENTNOMA

BAG'ISHLOV

Shaharlar boqiydir, umr – o'tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar – ko'chkinchi.
Har kim o'z shahrida qo'yg'an esdalik:
Yo bino qurishda katta ustalik,
Yo shirin latifa, yoki ixtiro,
Yo daraxt, yo farzand, ko'prik, yo misra,
Yo qo'shiq, yo dori, maktab, soqchilik,
Xulosa, dunyoda biron yaxshilik...
Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab,
Qilarkan ta'rifin, sen bir oz to'xtab,
"Shunchalar bormikin?" deb gumon qilding,
"Ko'rganda aytamiz!" deb imo qilding,
Va aytding –
darvoqe ko'rgandan keyin:
"Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!"
Qomatga munosib bo'lsin deb libos,

Shahrimga dildagi muhabbat, ixlos.
Dostonga quyilsin degandim u choq
Kechikib yozganim kechirgin, o'rtoq!
Bu yerda turganlar yoki ko'rganlar,
Yoki ko'rayin deb istab turganlar,
Yoki Toshkentimning shaklin so'rganlar,
Naqshini dilida olib yurganlar...
Sizga bu taronam – kuyim armug'on,
Nasr – og'ir qadam, nazm – chorog'on.
Oh, bilsang, nimani demadim bugun?
U, yarim asrlik kurashlar yukin.
Yelkada tashigan toshkentlik bir chol,
Oqpodsho davrida bo'lganin nochor,
So'ylab bergan edi menga bir mahal.
Ozodlik yo'lida kurashib jadal,
Surgunda qon yutgan yillarni aytib,

Qochqinda duch kelgan ellarni aytib
Der edi:
–“Esimda: bir vaqtlar yiroq
Yurtda boshimizga tushgandi firoq.
Taygalar qurshovi ichida butun
Ajratib bo`lmasdi kunduzmi yo tun?!

Zamharir⁴⁸ qish edi, sovuqdi g`oyat
O`yda xavotirlik: to`ngarmi⁴⁹ shoyad!
Mashaqqat safardan bezib, toliqib,
Ne-ne zahmatlarga yo`lda yo`liqib,
Sudralib borardi odamlar xomush
Ayoq changaliga tushgan esu hush
Bitta qo`nalg`aga⁵⁰ o`tirdik horg`in,
Yuraklar muzlagan qo`llarday turg`un.
Na quyosh bor edi, na kundan asar,
Izg`irin... Nafasdan go`yo muz o`sar.

.....
Shu tob:

Nogoh eshitildi sog`inchli xitob:

–“Oh, Toshkent, Toshkent!”

Hammamiz qayrilib qaradik darhol,
Archaga suyalib turardi bir chol.

Bir mahal bu yerda u bo`lgan ekan...

–“Oh, Toshkent, Toshkent!”

Bu so`z quyosh yurtin keltirdi esga,
Xayolda ufqlar jonlandi o`zga.

Desamki bu nomdan tomirimizga

Biroz issiq singdi,

ishoning so`zga...

Oh, nega jizillab o`tdi u dildan,

Menku ayrilgandim ko`pdan u eldan!?

Eng sovuq kunlarda quyoshni eslash –

Bu – ya`ni tun boshin nur bilan silash!!!

Nega to`lqinlatdi ruhni u ovoz?

Ha, “Toshkent” deganda esga kelar yoz...”

II

Har qachon, har qayda deyilsa “Toshkent”

Degaysan yozlarga yozlar tutashgan.

Ha, “Toshkent” deyilsa esga kelar yoz...

Ha, “Toshkent” deyilsa quyosh esda shay.

Quyoshki, umrzoq avlodga damsoz,

Bu yerda hamma der: – Quyoshcha
yashay!!!

Do`stim, bo`lganmisan bunda yoz fasli?

Yo`q ersa, yozlarni ko`rmabsan asli!

Chirchiq uvasiga qo`ngan shaharda,

Quyosh xizmatini boshlab saharda,

Mehnatga bel bog`lar odamdan burun

Oltin jomakorin⁵¹ yechar kechqurun...

Shu ulug` ishchini olqishlay deyman,

Sha`niga qo`shig`im bag`ishlay deyman!

Umrda kim kelsa bir bor bu yerga,

Qalbiga ekadi Toshkentning mehrin.

Shu uchun Toshkent ham quyoshli muhrin,

Bosar pasportlarga, xotiralarga.

Deydilar: Toshkentda suv ichgan chumchuq

Qaytib kelar ekan Makkatullodan.

Yuzi ham, so`zi ham, ko`zi ham ochiq

Tabarruk tuprog`i zaru tillodan...

Quyoshga inson nom qo`ygan kundan

Kuychilar o`xshatdi nozanin qizga,

Ammo polvon ishchi deyman uni man:

Ishda hamkor bo`ldi u o`lkamizga.

Toshkent quyoshining ko`pdir ta`rifi:

Lola ham, kelin ham, gul ham, chirog` ham...

Ammo mehnat to`la uning tarixi

Shoirlar she`rida qolibdi mubham...

Bilaman bahorning erka shamolin,

Sevaman tuproqning uyg`onish chog`in,

Bo`salar faslini, yorning jamolin...

Hay-hay, shaydologim tutmasin tag`in!..

Bahorlar haqida kuylamoq oson,

Yozning she`riyatini topa bil shoir.

“Gul” ila “bulbul”ni juftlamoq arzon,

Iyulni maqtashda bo`lolgin mohir.

Men-chi: quyoshimiz ishin har vajdan

O`lchab, uni deyman: – Bizning grajdan,

U bizga rizq berar, bizning otaxon,

Degaysan: pishiq qo`l, usta nonpazdir.

Tongda – oppoq xamir zuvalasimon,

Tush vaqti qizarib – qizigan tandir.

Ammo botish oldi sarg`aygan payti

Uni shirmoyi non deging keladi.

Shalpayib ketganda saratonda yer,

Quyosh chaqqon bo`lib xizmatda turar,

Kurash maydoniga tushgan polvon – er

Bellashib olmoqqa harif chaqirar...

Asad⁵²da yetilgan g`o`za podasin

Boqib poylab yurar oftob – cho`pon.

Biror kun buzmasdan u o`z va`dasin,

Keladi egnida zarhalli chopon.

Men jondan sevaman yoz quyoshini,

Issig`i, shu`lasi, husni hayotbaxsh,

Tekshirsam Salorning har bir toshini –

Quyoshning xandasi unga tushgan naqsh.

Barakat, barakat quyoshdan kelar,

⁴⁸Zamharir – qattiq, shiddatli

⁴⁹To`ngmoq – sovuqmoq, sovuq yemoq

⁵⁰Qo`nalg`a – qo`nadigan joy

⁵¹Jomakorin yechmoq – mehnat to`ni, quyoshning botishi mehnatkashning faoliyatiga o`xshatiladi.

⁵²Asad- g`o`za avji, hosilga kiradigan davr

Shu qadar ochiq qo`l, shu qadar saxiy!
Ammo yolchimadi undan bobolar,
Hamisha u shunday bo`lganmas axir!..

III

Eh-hey, mening shahrimning ko`hna
qissasin,
Qissasinki, ming yillar qa`riga cho`mgan,
Yer qatlarida qotgan sir-hodisasin.
Hodisaki, vaqt uni tuproqqa ko`mgan, –
Kimlar ayta oladi? Bormi guvohlar?
Axir, ming yil yashamas qushlar, giyohlar!
Tushdi ne-ne zahmatlar bu yer, bu elga.
Balki toshlar aytardi, kirsaydi tilga!

.....
Sarg`aygan qo`lyozmalar, jimjima xatlar,
Mulla bobolarimiz chizgan sanadlar...⁵³
Varaqladim birma-bir o`tmishni eslab,
Asrlar qadamida bir ma`no izlab,
Bir avlodning umri-ku bag`oyat qisqa,
Ammo talay avlodlar mangu xalq demak.
Xalq kurashi o`lmaslik uchun vasiqa,
Dadillikka umidlar berardi ko`mak.
Uzilmasin zamonning rishtasi deya,
Asrlarning orasi qolmasin deb bo`sh,
Yemasin deb tarixning varag`in kuya,
Qullikka erk tilagi kerib turdi to`sh...
Ha, bilim qolar ekan, yozuv qolarkan,
Yozuvdagi azaliy orzu qolarkan,
Yomonlik o`lar ekan, pastlik o`larkan,
Istibdodning qal`asi bir kun qularkan!..
Oh, kitoblar, kitoblar mangu ishchilar,
Beg`araz xayrixohlar va kengashchilar!
Mehnatning ta`rifini yozgan kitoblar,
Mardlar nomin harfma-harf tizgan kitoblar,
Yillarim oqib ketdi sahifalarda.
Siz goho kuldirdingiz latifalarda,
Goho mudhish janglarni tasvir qildingiz,
Qirg`inlarni naql etib, ta`sir qildingiz.
Goh ustalar hunarin bayon etdingiz,
Olimlarning kashfini ayon etdingiz.
Lekin sizlar shohidi bo`lgan zamona
Ming yildan nari o`tmay turar hamona.
Nari yoqning kechalar va kunduzlarin
Xalq esida qidirib topdik izlarin.
Qolgan-qutgan naqlar, afsonalar bor,
Nom-nishonsiz kuychilar qo`ygan yodgor:
Ajodlarning devlar-la panjalashgani,
Kelganida g`anim⁵⁴ning qancha lashkari.
Pahlavonlar yovlarni qirib quvgani,

⁵³Sanad – yodgorlik

⁵⁴G`anim – dushman

Buloqlarda qon yuqi qilich yuvгани...
Ertaklarning tog` kabi eski mag`zida
O`tgan mojarolarning chuvuq iplari,
Dostonlarning suv kabi ravon so`zida
Go`zallikning, mardlikning so`nmas tiplari,
Naqlarga, qo`shiqqa, rivoyatlarga,
Maqollarga, ertakka, hikoyatlarga
Men umrimda juda ko`p quloq osibman,
Eshitibman bog`bondan, nonvoy, kosibdan,
Paxsazon⁵⁵lar – tuproqni pishitganlardan,
Ular o`zi eshitgan eshitganlardan.
Arxeolog kuragin tuproqqa qoqib,
Turtdi moziy belini bosgan yuklaarni,
Numizmat⁵⁶lar ko`ziga oynagin taqib,
O`qidilar tangada ming yilliklarni.
Isodan, Iskandardan, Kaykovuslardan
Ilgariroq bu yerda bozorlar bo`lgan.
Taqachilar suv ichgan ko`k hovuzlardan,
Ayvonlarni oynasoz oynaband qilgan.
“Shosh kamoni”⁵⁷ ta`rifi merganlararo.
Eron bilan Turonda bo`lgan ovoza.
Polizlarda uzoqdan ko`rinar qaro,
Chalinar di ko`zlarga baland havoza.

IV

Ajdodu bobolarning fahmiga balli:
Ilk devorni urganlar, kulba qurganlar,
(Pana ekan yomg`irdan, qordan aqalli!)
Bu yerni makon qilib bunda turganlar.
Tuproq – semiz, suv yaqin, havosi ochiq,
Quyosh esa yil bo`yi bu yerga oshiq.
Katta elga qo`nalg`a bo`ladigan joy,
Karvonlardan boj-xiroj oladigan joy.
Sharq G`arb o`rtasida katta bir manzil
Chin-Mochin⁵⁸dan toliqib kelgan karvonlar,
Toylangan ipaklari rango-rang, asil,
Rumga qarab jo`narkan qadim zamonlar –
Binkat ravotlariga qo`nib xotirjam,
Tanovul qilishardi non ham, kabob ham,
Barakalla bobolar farosatiga,
Razm solib topganlar shahar nuqtasin!
Ko`chib-ko`chib yetganda Chirchiq sathiga.
“Turr!” deb tortib qo`yganlar otning
no`xtasin.
Ammo ariqlar qazib, ko`prik solganlar,

⁵⁵Paxsazon – paxsa-devor quruvchi

⁵⁶Numizmat – qadimgi tangalarni tekshiruvchi mutaxassis

⁵⁷Shosh kamoni – qadimgi davrlarda Shosh (Toshkent) o`q-yoylari Eron, Turkiston va boshqa Sharq o`lkalarida juda muqaddas hisoblangan.

⁵⁸Chin-Mochin – Xitoy va uning sharqi-janubidagi yerlar

Dasturxonning boshida quruq qolganlar,
Yer ham, suv ham, quyosh ham, obu havu
ham

Kambag'al nonin butun qilmadi. Nega?
Zo`ravonlar hukmida qul edi odam,
Tole xonadonida mehnatkash o`gay...

V

Esimda Anhorning yog'och ko`prigi,
Bu yerni azaldan deyishgan O`rda.
Jismi yo`q, ismi bor. Beklarning arki,
Nom qolgan, ammo nom egasi murda.
Toshkentning hokimi, beklar begisi,
Shaharni so`ragan O`rdada turib,
Lekin g`ovak ekan qal'a negizi,
Devor ham, qal'a ham qulagan chirib.
Zamon po`k narsani tez unuttirar,
Ya'ni turg'unlikdan hayot o`ch olar.
Eski loy qal'a yo`q, qissasi turar,
Yerga cho`kib ketgan eski ko`chalar...
Hozirda bu holat... Ammo bu yerda –
Avvalgi asrning yarmiga dovur
Hukumat deyilsa mazmuni – “O`rda”.
U yillar o`tganday Sayhun⁵⁹day og'ir,
O`n ikki qopqadan, o`n ikki yo`ldan
Bojgirga pul to`lab kirgan karvonlar.
Har yurtning matoni quv bozorbonlar
Joylab qo`yar ekan, o`tkazib qo`ldan...
Goho yutqizishda, goho yutuqda
Bir-birin anglardi oliq-sotiqda.
Bir-birin tilmochsiz tushunar edi,
Ularga aniq til – molning sifati.
O`n ikki qopqadan, o`n ikki yo`lga,
Jo`nab ketar ekan yukli karvonlar,
Janubga, shimolga, o`ngga va so`lga,
Qatnab yurar ekan yukli karvonlar,
O`n ikki qopqadan goho bemahal,
Otlig bosqinchilar kirgani ham bor.
Xanjarlar damida sanchilib ajal,
Tinch xalqni to`nardi qilib toru mor.
Goho atrofdagi yo`lto`sar beklar
Dastidan sovrildi karvonlar – yuklar.
Goho olisdagi amirlar, xonlar,
Ishratga o`larmon nafsi yomonlar,
Xun deya, kul deya, pul deya bosdi,
Talon-toroj qildi, zo`rladi, osdi.
Goho yot yerlardan “men-men”chi shohlar
Lashkar tortib keldi dag`dag`a birla,
Yo`llarda yotardi ko`p begunohlar,
Fotihlar⁶⁰ izlari – beson qabrlar.

⁵⁹Sayhun – Sirdaryoning qadimgi nomi

⁶⁰Fotih – zabt etuvchi, bosib oluvchi

Tilingdan, elingdan kech, deb buyurdi.
Tiz cho`kmay “yo`q” dedi botirlar yurti,
El-elat qo`zg'alib zolimni quvdi.
Qaytadan tuproqdan axlatni yuvdi.
Ammo biri ketsa, battari keldi.
Yangi ochko`zlarning xatari keldi.
Goho Buxoroga, goh Samarqandga,
Goh qipchoq cho`liga, goho Xo`qandga.
Xiroj to`lar edi Shosh fuqarosi.
Cho`zildi uzilmay janglar arosi.
Erksevar shaharning yoshi, qarisi
Tosh ila, musht ila, o`q va tig` ila.
Erkinlik jazmida xalqning barisi
Bosqinchi lashkarga qilardi hamla.
Anqovroq ko`rinsa shahar hokimi,
El sha`nin saqlagan mardlar turkumi
Muhriini qo`lidan tortib haydashdi.
(Ko`pdir fuqaroyu bek sarguzashti!)
Shosh ahli bahodir bo`lsa-da asti
Birovlar shahriga bo`lmagan qasdi.
O`zaro talashlar, fitna-yu fasod –
Mehnatni, savdoni, qo`shiqni ezdi,
Ekin payhon bo`ldi, ko`priklar barbod.
Qonli jahannamdan el-ulus bezdi...

X

– Nimasi ko`p Toshkentning?
–Suvi, soyi, soyasi...
Toshkentga ixlosmandning
Tugamas hikoyasi!..
–Nimalar ko`p Toshkentda?
–Oshlar, ishlar, kishilar.
Sozandayu pazanda
Ishchilar, ishboshilar.
–Nima ko`rding Toshkentda?
Mevalarning aslini.
Doim quyosh faslini,
Quyosh bunda izzatda.
Orasta ayvonlarda
Yangi qizlar ko`raman.
Yashil xiyobonlarda,
Eski do`st-la yuraman.
Tong yorigan choqlarda
Yerga kulgi sochilar,
Shu uchun dudoqlarda
Sho`x g'unchalar ochilar.
Toshkentda yoz issig'i
Dilga berar yigitlik,
Kabobpazning har sixi
Kun tufayli xushhidlik.
Terakzorlar xushbichim,
Bog'larda hammayoq jim.

Yer ham, ko`k ham moviy rang,
 Havoning yuzi tiniq,
 Shuncha tiniqki, qarang:
 Gullarning atri aniq –
 Havoda bilinadi,
 Ko`zlarga chalinadi.
 Anu daroz⁶¹ chinorlar,
 O`tgan kuzni va qishni,
 Bahorda kelgan qushni
 Tinmay-sinmay sanarlar.
 Bulut osiq Chotqolga,
 Bulut o`xshar soqolga.
 –Bulutlar, hay bulutlar,
 Sizda bormi burgutlar?
 –Burgutlarni bilmaymiz,
 Ammo bor samolyotlar.
 Bizning shunqor botirlar,
 Uchqur, devkor botirlar,
 Shahrimizga har yoqdan
 Uchib kelayotirlar.
 Bir she`rimda bir mahal,
 Bundan yetti yil avval
 Chirchiqning yoqasini
 Toshkentning vohasini
 Men bog`iston degandim,
 Bog`u bo`ston degandim.
 Shu ta`rifni shu zamon
 Qaytaraman uch chandon.
 Yozning kelishi ila
 Tokning tomirida may,
 Yoyma savatlar to`la
 Marjon kabi qulupnay.
 “Jannat shunda ekan-da”
 Deyilsa kim ishonmas?!
 Shakar angur deganda
 Ayting-chi, kim tamshanmas?!
 Husayni uzumimiz
 Ittifoqda mo`tabar.
 U – sovg`a, u – xushxabar,
 O`zi shirin so`zimiz.
 Dongdor Rizamat ota,
 Tokchilikda sohibkor,
 “Sohibi”si har katta.
 Dasturxonda o`rni bor.
 Biz yuborgan har o`rik,
 Janubdan oltin tabrik!
 Daraxtlarda butoqlar
 Mevalardan bukilgan.
 Qars-qurs bilan yong`oqlar
 Do`lday yerga to`kilgan.

⁶¹Daroz – baland

Asl, qizil olmalar,
 Uni qizim tilmalar.
 Nega ariq labida
 Tutzorlarga xushtorman?
 Go`yo daraxt qalbida
 Bir hisdan xabardorman.
 Deyman kelgan sirasi:
 –Tut bog`lar shoirasi!..
 Qilgan ishi shirinlik,
 Yaxshilikka irimlik.
 Dastlab bahor chog`ida
 Hali meva yo`g`ida
 Og`zimni shirin qilar
 Asal kabi oq tutlar.
 Sabr qilsam, bargidan
 Harir pilla o`ralar,
 Tutimning ipagidan
 Yasanadi jo`ralar.
 Bu sir emas, ochiq gap.
 Har hisga bor bir sabab,
 Qizlar egnida ko`ylak
 Qaytaga bo`lsa ipak.
 Jilvalanar, tovlanar,
 Sevgi tez olovlanar.
 Nega ariq bo`yida
 O`sgan tutlar obro`yda?
 Chunki suvlar qirg`og`in,
 Qirg`oqlarning tuprog`in
 Asraydi tut daraxti
 Ayniqsa, sellar vaqti.
 Balki shu ishchiligi,
 Odamga yaxshiligi
 Vajidan tut ko`p yashar
 Balli, yuzlardan oshar.
 “Qora tut” mahallasin –
 Chol shohidi – qadim tut.
 To`rt asrning pallasin
 Oshgani bunga subut.
 Shoirona tafakkur!
 Mubolag`a, maqtashlar!
 Meningcha, oq sadafdir.
 Soy ichida oq toshlar.
 Kezar tut ko`lankasi
 Irmoqlar yoqasida
 To`qidim surunkasi
 Tut sha`niga qasida.
 She`rimdagi ko`nglimday!
 Yosh tut xuddi singlimday,
 Qachon tushsa unga ko`z,
 Qalbimda qaynar shu so`z:
 – Tutzorlarim, ko`proq o`s!
 Ipaklashsin har kolxoz!

Ipaklashsin har bir qiz!
 Ipaklashsin el-ulus!
 XI
 Toshkentda uch fasl, yoz,
 Bahor – shoshgan ichki yoz.
 Yoz – katta va asl yoz,
 Kuz – kechikkan kechki yoz,
 Go`yo yoz zo`rlik qilib,
 O`ngu chapni talabdi,
 Qo`shnilari siqilib,
 Unga bojlar to`labdi.
 Har boji bir necha oy
 Shu tufayli yoz ko`p boy.
 Yozning hukmi kuchaygan,
 Qishning zarbi kichraygan.
 Shuning uchun qish garang,
 Muhlatin o`tar arang.
 Toshkent xalqi kuylaydi,
 Yettidan to yetmishga,
 Naqarotni bog`laydi
 Oshga, ishqqa va ishga,
 Yallachilar sho`x, bashang.
 Ammo men o`zim shoir,
 O`z-o`zimga bastakor.
 Kuylayman baxtga doir,
 Bo`lmasam ham ustakor.
 Og`aynilar gapida
 Osh yesam – o`z qoshig`im,
 Qo`shiqchilar safida
 Kuylasam – o`z qo`shig`im:
 – “Osiyoning qo`ynida
 Yashil shahar bor”
 Men bu shahar ahliman,
 Erkin baxtiyor!
 Uzoq do`stim, yaqin kel,
 Quchoqlashaylik!
 Bir kelganding, tag`in kel
 Inoqlashaylik!
 Navoiy xiyoboni –
 Uzun xiyobon,
 Bunda seni kutaman
 O`zim, xiromon!
 Kechga qolsang, bo`lolmas
 Uzi, a, jonon!
 Bunda yigit uchratar
 Qizin nurafshon.
 Kunduz yashil, kechalar
 Qizil xiyobon.
 Uzoq do`stim, yaqin kel,
 Quchoqlashaylik!
 Bir kelganding, tag`in kel,
 Inoqlashaylik!

Sevgi bilan kulgi yor,
 Bu yer – gul diyor.
 Oshiqqa qo`shiq sherik
 To`yimiz yirik!
 Dasturxonlar tuzalgan,
 Uylar bezalgan,
 Hay, eshik taqilladi,
 Taq-taq qiladi,
 Qandillar yoqiladi,
 Mehmon keladi,
 Eshik ochiq, keladi
 O`zi biladi.
 Uyimiz g`oyat shinam.
 Hammaga joy bor,
 Mehmonlar yulduz bo`lsa,
 O`rtada oy bor.
 Oshlarimiz muhayyo,
 Yaxna ko`k choy bor.
 Uzoq do`stim, yaqin kel,
 Quchoqlashaylik,
 Bir kelganding, tag`in kel,
 Inoqlashaylik!
 XIII
 Tinchlik bizga qimmat tushdi,
 Erk yo`lida el urushdi.
 Xotirlardan chiqmas, evoh
 Og`ir sinov haftalari,
 Ko`rmaganlar uchun guvoh
 Voenkomat daftarlari.
 Xo`p eslayman uni endi,
 Yozning avval kuni edi.
 Kutubxona... Kun... yakshanba...
 O`zim tanho o`tirgandim.
 Yurar edi sekin-tanbal,
 Daqiqalar odim-odim
 Katta shahar ahli u kun
 Boqqa ketgan edi butun.
 Varaqlardim qo`lyozmani,
 O`qir edim Xondamirni,
 Jimjimador har so`z – ma`ni.
 Har so`z saqlar eski sirni
 Navoiyning zamonasin
 Sayr etardim ko`zim yumib.
 Javharlari namunasin
 Tizar edim esga, jimib...
 Yon eshikdan kirdi kimdir,
 (Boqsam bizning oshna-mudir)
 Rangi o`chgan, go`yo o`zga,
 Bu – o`zgami, o`shamidir?
 Zo`rg`a og`iz ochdi so`zga
 Titrab dedi: “Yomon xabar.
 Gitler bizga qildi hamla,

Sarhad bo`lgan zeru zabar!”⁶²
 Sirqiradi dil alam-la.
 Xondamirni yopib u dam
 Men ko`chaga chiqdim ildam,
 Xayr dedim naqllarga,
 Yangi jangnomani ochdim,
 Yuraklarga, aqllarga
 G`azab urug`larni sochdim.
 Tikkeydi soch, yurak va yer,
 Shahar go`yo harbiy lager`
 Har tomonda odam... odam...
 Shuncha odam chiqdi qaydan?
 Qovoq soliq... Chidam! Chidam!
 Bo`g`ilganday tovush nayda
 Ovozlarda bosiriq dam...
 Kuyov nogoh bo`lib xasta
 To`y buzilib qolganidek!
 Kechagina biz majlisda
 To`yga qaror qilgan edik:
 Lermontovning to`yi qoldi.
 Dushman ishga ishkal soldi...
 ... Men Lohutiy ko`chasida
 To`xtab turdim hayajonli;
 Xiyobonning chekkasida
 Ko`rdim Hamid Olimjonni;
 Har galgiday xotiri jam,
 Qiyofasi jips, ixcham,
 Lekin o`zin odatidan
 Ko`ra shoshqin tashlar qadam.
 Esonlashdik: “Urush”, dedi,
 “Fashist qildi xuruj” dedi.
 “Jang bo`ladi ko`p haybatli,
 Yov g`alamis, quv shiddatli,
 Bosib kirgan yerimizga,
 Qasos deya qo`zg`algan el,
 Kel, birodar, she`rimizga –
 Kiygizaylik biz ham shinel!
 Qurbon-ku ko`p bo`lur yo Shayx,
 Pirovardi biz yengamiz,
 Istaymanki, ko`p yil yashay,
 Erishamiz, bil, bunga biz!”
 Asl shoir edi Hamid,
 She`ri – kurash, baxt va umid!
 Shaharlar-la qator turib
 Bajaroldik biz ontimiz,
 Sevib, siylab, ishlab qurib
 Shuhrat topdi Toshkentimiz...
 Toshkentimiz qurol bilan,
 Aql, tadbir kamol bilan,
 Uning noni, dasturxonni,

⁶²Chegara ostin-ustun (xarob) bo`ldi.

Olmalari, qutlug` qoni,
 Sabri, jahli va asabi,
 Ulug` mehri va g`azabi,
 Ipaklari ham paxtasi,
 Qasamlari ham va`dasi,
 Ertaklari, ruboiysi,
 Go`ro`g`lisi, Navoiysi,
 Qo`shnaylari, taronasi,
 Ko`mirlari, korxonasi,
 Oq shakari, zangor chiti,
 Duolari va machiti –
 O`zimizga qildi xizmat,
 Zafar bo`ldi bizga qismat.
 G`alabani yaratmoqdan,
 U to`g`rida yozmoq oson.
 Jangga kirgan ko`p o`rtoqdan,
 Qaytolmadi ko`pi eson.
 Hozir ko`rib tomoshasin,
 Yayraganda gulbog`larda
 Bilamanki, bir chog`larda –
 Bu gulbog`ni ko`p yashasin,
 Sovrilmasin, so`lmasin deb
 Okoplarda o`q-yara yeb –
 Do`stlarimiz ko`zin yumgan:
 Baxtlarini qonga ko`mgan:
 Shu vajdan gul qizil ekan!

 Taxtapullik Sobirjonni
 Tanir edim men Bokudan,
 Zap chavandoz, miqti, jonli
 Xosiyatli ulfat juda.
 Harbiy maktab tabelida
 U Toshkentdan kelgan “kursant”,
 Ozariylar ta`birida
 –“O`z bay qardosh” desa xursand,
 Ikki gapning har birida,
 Aytgan so`zi: “Bizning Toshkan”
 “Bizning Toshkan”...
 “Bizning Toshkan”...
 “Bizning Toshkan oshini deng
 Qizning uchgan qoshini deng!
 Toshkan oshin eyman desang
 Qalam qoshin deyman desang! –
 Gaping chiroylik! Ha-hay boraylik!
 Ta`bin chiroylik! Tur, tez boraylik!”

 Hamshaharlar duch kelganda,
 Sobir bir oz yechilganda
 Aytadi o`z ashulasin,
 Deydi pivo ichilganda:
 “Kim ichmasa u to`lasin!”

Xayr dedik biz Kaspiyga,
 Har kim ketdi o`z kasbiga.
 Biz – muallim, u – komandir,
 Ayрилganda aytdi Sobir:
 –“Xayr do`stlar, biling agar,
 Bo`lmasaydim men bir askar,
 Buni hech kim bilmagandir,
 Bo`lur edim beshak shoir!”
 ... Uqdingmi do`st, u yigit kim?
 U – general Sobir Rahim.
 O`ttiz yildan so`ngra uni
 Men kuzatdim:
 ... tobutini?!

U toshkentlik Sobir – sardor
 Fashistlarni qildi xarob,
 Go`rsiz yotgan irqchi murdor
 Osiyodan oldi javob.
 Paymonimiz rostligini
 Qoni bilan birlashtirdi.
 O`zbek-polyak do`stligini
 Dili bilan ulashtirdi.
 Kindik qoni oqqan yerdan
 Bo`lmasin deb xoki judo –
 Biz Toshkentda yashil go`rda
 Ko`mib dedik: – Oh, alvido!
 Ilgarigi xayrlashuv
 Hech gap emas ekan-ku!
 Xayrlashuv – ana shu!
 Na va`da bor, na nido.
 Alvido!
 ... Biz Toshkentni ilgaridan
 Avaylagan tug`ma bo`g`in,
 Biroq urush yillaridan,
 So`ng mehrimiz ortdi tag`in.
 Chin grajdan edi Hamid,
 So`zi bilan fe`li yaxlit.
 Aytganidek jangda yengdik.
 G`olib chiqdik, xo`p sevindik,
 Ammo, hayhot, bajarmadi
 U ikkinchi o`z va`dasin,
 Halok bo`ldi va ko`rmadi
 Besh yilliklar tantanasin.
 Halok bo`ldi ... frontlardan
 Ko`p yiroqda, nogahoniy,
 Biroq ofat yer xatardan
 U ham bo`ldi... jang qurboni.
 Jarangli avj parsasida
 Sindi shoir qo`lida soz,
 Yangi avlod o`rtasida
 U nag`maga qo`yib ixlos
 Qo`shiqchilar qo`shar ovoz...

XIV

Ulansaydi Toshkentdagi hamma kuy-ko`cha
 Borib yetgan bo`lur edi Moskvagacha.
 Bog`chalardan xiyobonga, maydonga o`tib,
 Qancha kezsam ado bo`lmas bizning
 ko`chalar,
 Men Beruniy maydonidan ko`p o`tdim
 yolg`iz,
 O`tib bo`lmas u yerlardan o`ysiz-xayolsiz.
 (Muallimning vazifasi qatnamoq darsga),
 Yolg`iz yurib o`ylamoqning gashti bor
 o`zga.
 Bir qaraysan, bog`i-ko`lda qayiqlar suzar,
 Qayrag`ochlar soylarni suvlarga cho`zar...
 Men Muqimiy teatri qubbalarida
 Kaptarlarni kuzataman tepalarida
 Hatto ular ishqibozkan yoqimli kuyga,
 Odam nechuk maftun bo`lmas bu xushxon
 uyga!
 Nari yog`da tug`ruqxona... Serfarzandlikda
 Jahonaro o`zbek xalqi birinchilardan.
 O`ylaymanki, chaqaloqlar-ku endilikda
 “Inga-inga” hunari-la o`lanchilardan
 O`zolmasu, lekin payti kelganda bular
 Sahnalarda qoyil qilib kuylar va kular.
 Bola desa xotirlanar bolajonlilar,
 Bolalarga g`amxo`rlilar, mehribonlilar.
 Men toshkentlik temirchiga aytaman: –
 Rahmat!
 O`n to`rt bola asrab olgan Shoahmad aka...
 A, mehribon Bahri opa, sen chekib zahmat,
 O`z bolangday mehr qo`yding o`n to`rt
 o`ksizga,
 O`n to`rt bola, o`n to`rt millan, turli o`n to`rt
 ot,
 Shoahmadning farzandi deb tanilgan avlod.
 Bu gulzorlar, bu hovuzlar, bog`lar-
 bog`chalar,
 Allanelar eslatadi bu keng ko`chalar...
 Ha, bu yo`ldan borar edi ishiga har kun
 O`z sevimli “Hamza”siga vazmin, serviqor,
 Intizomi soat kabi, suhbatlari erkin,
 Artistlarning chin “Og`a”si, buyuk san`atkor,
 O`siq qoshlar ostidagi ko`zlarda xanda
 Yaxshilikdan so`z ochardi har ko`rishganda.
 Biz u bilan qo`shni edik va oshna edik,
 Unutilmas bir joziba bor edi unda.
 Didi nozik, axloqi pok, idroki yetuk,
 Ibrat mag`zin axtarardi har bir o`yinda.
 U Toshkentda tug`ilgandi – “Zanjirlik”
 yoqda,
 Hozir uxlari kindik qoni oqqan tuproqda.
 O`smirlikdan go`zallikka ochdi bag`irni,

San'atimiz mudom eslar Mannon Uyg'urni.
 Bu maydonlar, tutash ketgan asfal't
 ko'chalar,
 Dohiyilarning, shoirlarning, qahramonlarning
 Nomlarini saqlash bilan zo'r insonlarning
 O'zlari ham ulug'likdan go'yo kuch olar.
 O'sha kuni necha soat, necha daqiqa,
 Kezganimni eslayman papiros chekib,
 Dilxush mavzu o'ylar edim xayolga cho'kib,
 Yayov yursam nash'am butun! Bu gap
 haqiqat...
 Bu shaharning yarmi tanish, do'st va
 og'ayni,
 Omonlashib yurmoqdaman, xayolda mavzu,
 (Har mavzuni tinchitmoqning davosi
 yozuv),
 Mavzuimning zamirida bu Toshkent, ayni...
 Mashinada, tramvayda, yoki piyoda
 O'tayotgan do'st-oshnalar haddan ziyoda.
 Salomlashib bormoqdaman ko'krakda
 qo'lim,
 Bu el bilan sheriklikdir, hayotim, yo'lim.
 Mana artist, mana ishchi, talaba, shofyor,
 Mana doktor, bu – ministr, buchi – injener...
 Men bu xalqning shoiriman, shu uchun
 go'yo,
 Har salomda ehtiroim bor va bir oz da'vo...
 Ko'p xayollar, goho ravshan, goho
 pajmurda,
 Taxlanmagan varaqlarday turar fikrda...
 Qumrilarning "hu-hu"lari, gullarning isi,
 Shabnamlarda hali o'chmay qolgan oy nuri,
 Tunov kungi ziyofatda qizlar kulgusi.
 Lola rangi, nay ohangi, shiyponlik so'ri,
 Marhumlarning xotirasi, tirik vasiyat,
 O'tgan kunlar, bugungi ish, ertangi niyat...
 Lekin bildim va angladim o'ylarga tolib:
 Yomonliklar o'tkinchidir, yaxshilik g'olib.

XVI

Shaharlarning nomi abadiy
 Bu nomlarni qo'ygan el-ulus,
 Manglaylarin sekin o'padi,
 O'tib turgan asrlar xolis.
 Odamlarga qo'yganday laqab,
 Shaharlarning sharafin oqlab –
 Qo'yilganda unvonlar maxsus,
 Toshkentimiz olgan taxallus.
 "Salomobod" bo'lar edi rost,
 Bu taxallus shahrimizga mos!..
 Sharqdan, g'arbdan, janubdan mudom,
 "Salom" deya kelar mehmonlar,
 "Salom" desa, "alok assalom"

Va guldasta olar mehmonlar.
 Ular ko'ngil qo'noqlaridir,
 Chin do'stlikning inoqlaridir.
 Osoyishning, ravshan tinchlikning
 Ustimizda esar havosi,
 Shu uchun ham bosqinchilikning
 Cho'chitmaydi bizni ig'vosi.
 O'n ikkimas endi darvoza
 Balki biroz o'n uchdan oshiq,
 Olam aro iliq ovozi –
 Shuki – Toshkent qo'li ko'p ochiq!
 Qul yerlarda jabru zulmdan
 Jafo tortgan yo'lichilar kelar.
 Besh qit'adan, yetti iqlimdan
 Suzib, uchib elchilar kelar.
 Sharqning havo darvozasi biz,
 Yangilikning andozasi biz,
 Do'stlar uchun eshiklar ochiq.
 Salomlar-la nurlanar qo'shiq.
 Tinchlik bizning an'anamizdir,
 Mehmon kelsa tantanamizdir!
 Shaharimiz raisi har gal
 Tanti mehmon qo'lin siqqanda.
 Deymiz: Toshkent bilan shu mahal
 Tinch shaharlar jo'ra ekan-da!..
 ... Toshkentlikda bag'oyat qadim,
 Yashab kelar ezgu bir udum:
 Uchrashganda birinchi so'roq –
 "Tinchlikmi?" deb hol surishtirmoq...
 "Tinchlik" so'zi o'zbekning ayni
 Tuprog'idan tug'ilgan ma'ni
 Bu – yoqimli serohang bir so'z,
 Hayot – buloq, tinchlik – unga ko'z.
 Bog'bonlarning yeridir Toshkent,
 Bog'bonlarga tinchlik kerak-ku!
 Korxonalar shahridir Toshkent,
 Ishchi qilar tinchlikni orzu,
 Olimlarning markazi Toshkent
 Olimlarga lozim osoyish,
 Qo'shiqchilar o'lkasi Toshkent,
 Sulhni qilar qo'shiqchi xohish.
 Mehmonlar, siz – yurak qo'nog'i,
 Xush kelibsiz uyimizga siz,
 Ortsin do'stlar soni-sanog'i.
 Jang balosin hech ko'rmagaysiz!
 Sizga bergan guldastalarda
 Anqir mehmondo'stlikning atri,
 Qalbi-dili payvastalarda
 Kam bo'lmaydi mehrning qadri!..
 Dobrichadan kelgan bulg'orga
 Bag'ishladik urug'lik chigit,
 Oltin hosil yig'gach omborga,

Eslar bizdan rozi u yigit!
Yashasin gul, yashasin kulgi!
Yashnab tursin shunday bir gulki,
Uning nomi bo`lgay yaxshilik,
Kuyib ketgay yovlik – vahshiylik!
Kurashlarda saflar zichligi!
Shunda ellar, dillar tinchligi...

XVII

O`ychan oqshomlar!
Salqin oqshomlar...
Nash`aga eltar,
Qo`shiqni etar –
Talqin, oqshomlar...
Kechalar kayfi!
Oqshomlar fayzi!
Uni aytmagan,
Ta`rif etmagan
Shoirilar qaysi?
“Ertagacha xayr!”
Deb quyosh botar,
O`ylamang yotar,
Yiroqlarni sayr,
Etgali ketar.
Oqshom quyoshning
Kechki yoridir.
Soya otashning
O`z me`yoridir.
Irmoq bo`yida
Ko`m-ko`k maysalar,
Maysa bo`yida
Yel hidi kelar.
Bodringning isi
Bu o`tlarda bor,
Shuki boisi:
Hamisha bahor.
Oh, o`tgan yillar,
Havaslar, mayllar...
Intizorimga
Sirdosh sohillar!!!
Seni bu yerda
Kutgan chog`larim,
Ana bu jarda
Yotgan chog`larim –
Ketmaydi ko`zdan,
Chiqmaydi esdan.
Bormi xotirda
Beg`am kunlaring,
Ana bu yerda
Kutdirganlaring?!
Men-chi, qalbimda
O`z nomimsimon
U ilk bo`sani

Tashiyman hamon.
Qosh qoraymoqda.
Mayin irmoqda
Shu kechki choqda...
Kunduz issig`in,
Havo bosig`in
Tinimsiz yellar
Shimirib eltar
Cho`kar qorong`i,
Ne xush, qarang u!
Bog`larda jimlik,
Nil rang o`simlik,
Havo sharbatday
Xushbo`y ichimlik.
Uyqular kezar
Gullar arosi
Sukut tushlarning
Aksi sadosi.
Suvda yulduzlar
Barq urib turar,
Go`yoki qizlar
Saylda yurar.
Bog`larda garchi
Uyquchil jimlik,
Ammo parklar-chi:
Shovqin, gavjumlik.
Raqsga tushganlar,
Pivo ichganlar,
Xiyobon aro
Juft yurishganlar.
Bir yoqda suhbat
Palovdan, choydan,
Bir yoqda doklad
Mirrix⁶³dan , oydan.
Bu kecha yana
Yuz xonadonda
Albatta to`y bor,
Suron, hoy-ho`y bor.
Hofiz va mashshoq
“Lapar” va “Ushshoq” –
Uchun talashuv
Yalpi talab shu.
Goho mot qilar
Tirik kuychini
Eshitsak agar
Plastinkadan Mulla To`ychini...
Kuylar serqayg`u Fuzuliydan u...
“Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o`landan
so`r

⁶³ Mirrix – Mars planetasi

Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o`landan
so`r.
Labing sirrin kelib guftora mandan o`zgadan
so`rma,
Bu pinhon nuqtani bir voqifi asror o`landan
so`r”.

Bunisi ko`p soz.
U baxmal ovoz –
Saqlangan ekan
Ulug` hofizdan...
Musiqi o`sar
Asl ildizdan!
Ahli to`y shu choq
Ulfat, xushchaqchaq...
Oq musallasni
Yo may charosni
Ko`tarar do`stlar,
Aytishar tostlar
Kuyovni siylab,
Yelkasin silab,
Kelinga esa
O`n farzand tilab
Qo`yarlar talab.
Tonggacha o`yin...
O`yna va suyun!
Tramvay yurar
Odamni tashib,
Kinodan chiqqan.
Yosh-yalang shoshib
Uyma-uy jo`nar,
Qandillar yonar.
Xuddi shu paytda
Tungi navbatda
Sexida bu tun
Ko`z yummay butun
Ishchi ish qilar,
U yaxshi bilar:
Mahsuli faqat
El uchun ne`mat.
U bilan hamdam
Yotmas shoir ham,
O`z xalqin kuylar,
Shafaqni poylar.
Shoir biladi:
Tun homiladir.
Uning bo`lg`usi
Har ishi kitob.
Va tug`ilgusi
Farzandi oftob.

XVIII

Vatanning ma`nosi ulug`vor, ulkan,
Ha, Vatan so`zining cheki bepoyon,

Bu yerda tug`ilgan, yashagan, o`lgan,
Yaratgan, ishlagan, kurashgan insson
Vatan mehri bilan o`z qadrin bilgan,
Vatansiz kimsalar darvish deyilgan.
... Toshkentni sevmolik yurakning ishi,
Shu uchun shartmikan bunda tug`ilmoq!
Shartmi, bir romanga ishqiboz kishi
O`zi u romanga qahramon bo`lmoq!
Umrin bino bo`ldi Ozarbayjonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy Vatani, Ganja⁶⁴ o`lkasi
O`pkamga to`ldirdi she`r havosin,
Kur nahrim muloyim, tinch muzikasi
Ko`nglimda uyg`otdi kuylash havasin.
Lekin shoirlikning nozik tolei
Kuldi Sirdaryoning havzalarida,
O`zbek quyoshining chin otaligi
Aks etdi mastoba kosalarida.
Hazrat Navoiyning o`pib qo`lini
O`zbek vodiysida otimni surdim,
Ijod karvonining uzoq yo`lini –
Aziz yo`ldoshlar-la o`toldim, yurdim.
Yo`q, men taqdirimdan emasman xafa,
Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!
Ko`chat ko`chib kelib ekilgan tuproq
Uning vatanidir deyish to`g`riroq.
Bu shahar she`rimning tiniq chashmasi,
Yashadim o`ttiz yil bunda chamasi.
Bu yerda tug`ilgan G`afur va Oybek,
Umrining boshlang`ich mavsumlarida
Meni ardoqlashdi quchib og`adek.
Inilik ko`rsatdim ta`zimlarida...
Biri – she`rimizning o`tli yuragi,
Biri – nasr uyining baland tiragi,
Ochdilar uy bilan qalb eshiklarin,
Ayamay o`git va mezbonliklarin
Yigitcha edim men havaskor, sodda,
Bo`ldim oqibatda shoir Shayxzoda!..
Eh-hey, o`tgan kunlar yellar esdi,
Qalin sochimizni chimchilab kezdi.
Do`stlar-la bahslashdik, ichdik, kulishdik,
(Oftob mazmunli bir qadah sharob
Yurakka singdirar sho`xlik, issiqlik).
Og`ir zamonlarda nonni bo`lishdik,
Sherikli yozildi jangovar kitob...
Sharqi-janubdagi shavkatli poytaxt,
Toshkent, sen o`zingsan aziz poema,
Seni asrab keldi ona kabi vaqt,
Hech qachon, yo`limni tugatdim, dema!

⁶⁴Ganja – Ozarbayjondagi Kirovobod shahri,
tug`ilgan joy

Sen mangu shaharsan, kunday bezavol,
Seni ta'rif qilgan dostonchining ham
Baytlari tugashi, bu – amri mahol,
Har qancha tarannum etilsang bu kam!..
Safar chog'i seni tushda ko`raman,
Sharqdan uchib kelgan qushda ko`raman,
Naqshi gul ko`ylakda va sur papoqda,
Sharob shishasida, marmar ravoqda,
Achchiq murch solingan oshda ko`raman,
O`smalar qo`yilgan qoshda ko`raman.
Men o`zbek she`rining to`qqiz vaznida
Sening dostoningni ohangga soldim,
Qissaga keskinlik bermoq jazmida
Baxshi bisotidan o`lchovlar oldim.

Derlar, kam o`qilar uzun dostonlar.
Ayniqsa sarguzasht oz bo`lsa agar.
Ammo yaxshi ko`rgan narsa tufayli
Kishi sergap bo`lsa, bu uzr, mayli!
Oshiq o`z ishqidan so`ylasa nuqul,
O`ylarki, hammaga sevgisi ma`qul..
Uzrim shu tariqa, aziz kitobxon,
Sergap bo`lishligim suyganimdandir,
Toshkent taqdirida kelajak ayon,
Dilda kelajakni tuyganimdandir.
Kuyladim o`n sakkiz bobda – qo`shiqda.
Va “Toshkentnoma”ga qo`ydim so`ng
nuqta.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maqsud Shayxzodaning lirik merosi qanday janrlardan iborat?
2. Shoir uslubining o`ziga xosligi nimalarda ko`rinadi?
3. “Toshkentnoma” dostonining lirik xususiyatini belgilovchi omillar qaysilar?
4. Dostondagi obrazlar tizimi xususida so`yuring.
5. Toshkent obrazini berishda shoir nimalarga ahamiyat qaratgan?
6. Vatan timsolini gavdalantirishda shoir individualligiga xos jihatlar qaysilar?
7. “Toshkentnoma”da qaysi tarixiy shaxslar va ijodkorlar nomi tilga olingan?
8. Dostonda shoir qaysi badiiy san`atlardan unumli foydalangan?
9. Asar qaysi vaznda yozilgan?



HAMID OLIMJON (1909-1944)

Iste'dodli shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. «Ko`klam» nomli ilk she'riy to`plami 1929-yilda bosilib chiqdi. Shundan so`ng «Olov sochlar» (1931), «O`lim yovga» (1932), «Poyga» (1932) kabi she'riy to`plamlari nashr etildi. O`zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943). Hamid Olimjon A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, A.Serafimovich, T.Shevchenko, M.Lermontov, N.Ostrovskiy, A.Korneychuk asarlarini tarjima qildi. «Daryo kechasi» (1936), «O`lka» (1939), «Baxt» (1940) to`plamlari, «Ikki qizning hikoyasi» (1935–1937), «Oygul va Baxtiyor» (1937), «Semurg`» (1939) dostonlari, «Muqanna» nomli she'riy-tarixiy, «Jinoyat» nomli zamonaviy dramasi, «Jangchi Tursun», «Roksananing ko`z yoshlari» balladalari muallifi. Iste'dodli shoir 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokatiga uchrab, vafot etgan.

OYGUL BILAN BAXTIYOR

I
Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko`p ertak eshitgandim,
So`ylab berardi buvim.
Esimda o`sha damlar:
O`zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh,
O`t bog`lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar,
Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo`lib ochilgan gul,
So`ylaguvchi devorlar,

Bola bo`p qolgan chollar...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim
Uzun tunlar yotib jim,
Seza olardim kuchin,
Ko`pi yolg`on, ko`pi chin.
Ammo, Oygul-Baxtiyor
Ertagini u takror
Qilar edi har kechin:

II

Jambil degan tomonda,

Juda qadim zamonda,
Qullar isyon qildilar.
Jangga kirib qo`shinlar,
Urushib oyu kunlar,
Dunyoni qon qildilar.
Tinchlik tugab och elda,
Mamlakat qoldi selda.
Dahshat ichra yonib xon
Har tomon qildi farmon.
To`xtamay dovul qoqdi,
Maydonlarga o`t yoqdi.
O`z holiga qilib or,
Tikib qator-qator dor,
Ko`zlariga to`lib qon,
Zambaraklar bo`shatdi.
Tani zaharga botdi.
Jambil eli ko`p zamon
To`polon bo`lib yotdi.
Bir g`azab ichra joni,
Jambilning zolim xoni
Kechar elning qonida.
Qullarning isyonida
O`tardi oyu kunlar,
Qonga g`arq bo`lib tunlar
Chayqar og`riq boshini,
Ochlar to`kib yoshini
Olishardi kunu tun,
Yalang`ochlar ham butun
Berardi maydonda jon –
Talab qilib haq va non.

Aslo qo`rqmay o`limdan,
O`ch olardi zulmdan;
Sira qilmay andisha
Chopardi qo`lda tesha;
Biravi ushlab kasov,
Savalardi kelsa yov.
Oygul bilan Baxtiyor
Boltasi bor birining –
O`lim kelmas unga teng.
Agar duch kelsa shu choq
Ag`darardi bo`lsa tog`.
Cho`ri bo`lgan otinlar,
Qul atalgan xotinlar;
Kumushday oppoq soqol
Ko`kragini bosgan chol,
Yosh go`daklar, juvonlar,
Navqiron pahlavonlar
Jon olardi berib jon.
Va qancha-qancha qurbon
Yotar edi qoq yerda,
Tanlari burda-burda.
O`tib yuzlab-minglab yil,
Bunday tarixni Jambil
Ko`rmagandi umrda...

III

Isyonchi keksa Darxon
Qullarga boshliq edi.
Qizi Oygul yutar qon,
Ko`zlari yoshlik edi.
Ota-bola ikovlon

Qullar uchun berib jon,
Xonni o`ldirmoq uchun,
Ko`tarib elning kuchin
Kezardilar isyonda,
Ming alam, ming fig`onda.
Isyon, bostirilgan kun,
Darxonni qilib tutqun
Saroyga keltirdilar.
Yasov tortib qo`shinlar
Savlat bilan turdilar.
So`ng zolim xonga ular
Tanitdilar Darxonni:
«Shu boshlagan isyonni
Shudir Darxonning o`zi,
Mana bu Oygul qizi...
Tikilardi zolim xon.
Tikilar edi Darxon.
Yondirguday jahonni,
Qul qilguday har jonni
O`t bor edi ko`zida,
Zo`r talvasa yuzida
Va xon tashlab ko`z qirin
So`radi birin-birin:
«Qani so`ylagil Darxon,
Ne foyda berdi isyon?
Kimlar o`ldi, kim omon?»
Darxon so`z boshlab dedi:
«Men va qizimdan boshqa
O`lmagan qul qolmadi,
Kirib shunchalik yoshga
Ko`rmovdim shuncha
qonni,
Shuncha zoru fig`onni.
El xonumonin butkul
Sen o`t yoqib etding kul.
Jambil edi bir bo`ston
Qilding uni go`riston
Senday qonxo`r zolimdan
Qolmasin deb biror zot,
Bosh ko`tardik, zulmdan
Bo`lmoqchi edik ozod.
Lekin bu gal bo`lmadi,
Ammo tilak o`lmadi:
Bir kun sani yiqarmiz
Va qabrga tiqarmiz».
Xon qovog`ini uydi,
Bulutlar yomg`ir quydi,
Yalang`ochlab qilichni
Qulning bo`yniga soldi.
Boshi ketgan qush kabi
Darxon tipirlab qoldi,
Yerlar qonga bo`yaldi.

IV

Imo qildi zolim xon,
Saroy bo`sh qoldi shu on.
Qulning go`zal qiziga
Yaqin keldi. Yuziga
O`lgundayin tikildi.
Qizning oldida bu xirs
Ko`rsatib yovvoyi hirs
Yerga qadar bukuldi;
Ko`zida hiyla kuldi:
«Cho`ri qiz, endi menga
Xotin bo`lursan» dedi.
«Hashamatli saroyda
Otin bo`lursan» dedi.
Qiz jivirlab badani –
«Sevmayman,– dedi,–
sani.
Yo`q. Bo`lmasman,
o`ylama.
Bunday so`zni so`ylama.
Sen otamdan ayirding,
Qanotimni qayirding.
Qo`zg`olon qilib o`lgan
Shuncha qullar nomidan
Nafratim bordir sanga.
O`zing o`ylab ko`r tanga:
Sen odam emas-ku san,
Hayvondan ham past-ku
san,
Xotin bo`lmasman aslo.
Kelsa boshimga balo,
Uni sendan ko`rarman.
Doim qarg`ab yurarman.
Taqdirim yor bo`lsa-yu,
Fursat qulay kelsa-yu
Seni agar o`ldirsam,
Taningga xanjar ursam;
Dunyoda eng baxtiyor
Odam bo`lardim nomdor».
Zolim xon xo`p tutoqdi,
G`azab o`tida oqdi.
Quturib qahri keldi.
Ilonday zahri keldi,
Jahliga chidolmayin,
Hech so`z deya olmayin,
Jallodlarni chaqirib,
Yirtqichlarcha baqirib,
Undan o`chini oldi,
Qizni zindonga soldi,
Bir yomon o`yga toldi.

V

Zolim xon saroyida

Keksa bir qul bor edi.
Kuni o`tar qayg`uda,
Har narsadan xor edi.
Uni derdilar Tarlon.
O`ldirilganda Darxon
Toqati hech qolmadi,
Aslo chiday olmadi.
U qaynagan qonini,
Faryod chekkan jonini,
Qo`ymoqqa topmadi joy.
Xira bo`ldi ko`kda oy,
U go`yo bir buyuk tog` –
Yuzida ming yillik dog`.
Chunki zindon tagiga
Tashlangan bizning Oygul.
G`ash solar yuragiga,
Azoblar uni butkul.
Bu zolim xon Oygulni
O`ldirar, deb albatta,
Qayg`isi edi katta.
Axir u topdi yo`lni:
Uyquga ketganda xon,
Oygulni qutqarmoqqa
Qattiq qasd qilib Tarlon
Yo`l soldi zindon yoqqa.

VI

Bordiyu arqon soldi,
U zimziyo chuqurdan,
Qabrday qo`rqinch o`rdan
Oygulni tortib oldi.
Butun atrof qop-qora,
Shunday mudhish tun ora
Oygul bilan qul Tarlon
Bo`ldilar yo`lga ravon.
Ikkavi ham jim edi.
Axiri Tarlon dedi:
«Qizim, seni zolim xon
O`ldirajak beomon.
Men seni qutqarmoqqa
Olib keldim buyoqqa.
Faqat ne ham qilardim.
Nima qila bilardim?
Men ham qulman, qanotim
Senikiday qirqilgan,
Menga ham o`sha zolim
Qilar ishini qilgan.
Shuning uchun o`ch olib
Bu ishini buzaman,
Seni sandiqqa solib
Daryoga oqizaman.
Agar o`lmasang, birov
Suv bo`yida qilib ov

Senga duch kelib qolur
 Suvdan chiqarib olur.
 Bir kuningni ko`rarsan.
 O`ynab kulib yurarsan!»
 Azob ichra yonib jon,
 Qora kunda qul Tarlon
 Qizga qayg`udosh keldi;
 G`amiga yo`ldosh keldi.
 Qoni qochib yuzidan,
 Qizning qora ko`zidan
 Yomg`ir kabi yosh keldi.
 Sekin tushdi sandiqqa,
 Sandiq ham tiqqa-tiqqa
 Bo`lib Oygulni oldi –
 Xipcha beli buraldi.
 Tarlon yana non soldi,
 Non demaki, jon soldi.
 Atrofga ko`z tashladi,
 Sandiqni daryo tomon
 So`ngra sudray boshladi.
 Uyquda edi har yon,
 Suvga tashladi uni.
 Oygul ham oqib ketdi
 Va qulning yuragini
 O`t bo`lib yoqib ketdi.
 Bir chaqmoq chaqib ketdi.

VII

Uyqudan uyg`onib xon
 Oygulni so`ramadi.
 Zindonga tashlangan jon
 Ne bo`ldi ham demadi.
 Ichdan sevinib Tarlon
 Yurarkan uyon-buyon,
 Hech narsadan bexabar
 Ko`zi ko`r, qulog`i kar
 Bo`lib ko`rinar edi;
 Tinmay urinar edi.
 Tinchlik edi saroyda,
 Qiz bo`lsa katta soyda,
 Suv yuzida betinim
 Oqib borar edi jim.
 Oygul shu holda uch oy
 Muttasil oqib bordi.
 Qancha dara, qancha soy.
 Uni uzatib qoldi.
 Lekin hech kim tutmadi.
 Hech bir savdo o`tmadi
 Va faqat tugab noni
 Picha qiynaldi joni.
 O`rtanib alamidani,
 Shu holda ketib bordi.
 Axiri Jarjon degan

Bir yurtga yetib bordi.

VIII

Jarjonning dalasida,
 Daryoning yoqasida,
 Bir chol o`tin terardi,
 Doim shunda yurardi
 U bir kun juda hordi,
 Ozgina tin olgali,
 Bir oz erkin qolgali
 Daryo labiga bordi.
 Va shu choqda qari chol
 Bir narsa ko`rib qoldi.
 Hovliqib bo`ldi xushhol,
 Qaqqayib turib qoldi.
 U yo`q edi o`zida:
 Bir sandiq, suv yuzida
 Lopillab kelar edi,
 To`lqinda yelar edi.
 Olmayin ikki ko`zin,
 Yechina solib darhol
 Sandiq ketidan o`zin
 Daryoga tashladi chol.
 Birpasda tutib oldi.
 Qirg`oq sari chiqardi.
 Sandiqni ochmoq uchun
 Sarf etdi butun kuchin.
 Sira ochaolmadi,
 Toqati hech qolmadi.
 Eng so`ngra o`roq soldi,
 Teshdiyu hayron qoldi:
 Eski sandiq ichida
 Bir qiz ko`rinar edi.
 Unda qiynalib juda
 Ha deb urinar edi.
 Soddaning tili qotdi.
 U o`zini yo`qotdi.
 Og`ir bir o`yga botdi:
 «Ehtimolki, bu qiz bir
 Savdogarning qizidir.
 Ehtimolki, bir suqsur,
 Bir parining o`zidir.
 Cho`kib balki kemasi,
 Bu qiz ketgandir oqib,
 Daryo bo`ylab uloqib;
 Ehtimol, bir onasi
 Qolgandir bag`rin yoqib.
 So`ylasangchi, hoy odam.
 Nega hech urmaysan
 dam?»
 Deya chol qizga aytdi.
 Oyguldan javob qaytdi:
 «Agar sandiqni yorsang,

Omon-eson chiqarsang,
 Sening qizing bo`lurman,
 Juda ham boy qilurman*.
 Tashvishga solib bu hol
 Juda hayron qoldi chol,
 Lekin hech ishonmadi.
 Ko`ngli gapga qonmadi.
 «El oldida ochay,– deb,–
 Yomon bo`lsa qochay»,–
 deb
 Sandiqni ko`ngli sodda,
 Bozorga olib ketdi.
 Kun bo`yi tergan hama
 O`tini qolib ketdi.

IX

Bozorda qari cholni
 O`g`ri deya tutdilar.
 Ura-sura sho`rlikni
 Podsho sari eltdilar.
 Podsho ham g`azab bilan
 «Bu nima» deb so`radi,
 Soqchilar bir gap bilan
 Atrofini o`radi.
 Cholning tili tutildi,
 Qo`rqdi, o`pkasi to`ldi,
 Sekin: «bilmayman» dedi.
 Bo`zday oqargan edi.
 So`ng podsho qilichini
 Yalang`ochlab bir soldi.
 Bechora cholning tani
 Shu on bekalla qoldi.
 Qo`shinlar pitirlashib
 Sandiqni tez ochdilar,
 Jonli bir narsa ko`rib
 Tura-tura qochdilar.
 Sandiqdan bir jonivor
 Qomatini ko`tardi,
 Chinordayin bo`yi bor,
 Odamga o`xshar edi...

X

Oygul turishi bilan
 Saroy charaqlab ketdi,
 Hamma yoq bo`lib
 ravshan,
 Uylar yaraqlab ketdi.
 Oy deganda yuzi bor,
 Kun deganda ko`zi bor
 Bir go`zal qiz qarshida,
 Bebaho edi juda.
 Qaldirg`och qoshlaridan,
 To`nib qarashlaridan
 Hayot sochilar edi,

Gullar ochilar edi.
 Podshoning aqli shoshdi,
 O`t ichida tutashdi.
 Har tomonga yugurdi,
 Dam o`tirdi, dam turdi.
 Bunday go`zal yulduzni,
 Bunchalik barno qizni
 Aslo ko`rmagan edi,
 Ishrat surmagan edi.
 U chandon yaqin kelib,
 Yeb qo`yguday tikilib:
 «Sen menga tekkin» dedi.
 Qiz undan jirkanardi,
 Ichi o`tda yonardi.
 Podshodan qilardi or,
 O`zini sezardi xor.
 Ishlatib u bir hiyla,
 Topib qulay vasila,
 Qetmakka qildi qaror:
 «Mayli, tegayin senga,
 Buning uchun sen menga
 Qirq kun muhlat
 bergaysan;
 Ozgina tin bergaysan.
 Juda ham holdan ozdim,
 Sandiqda o`layozdim!»
 Podsho sira ko`nmadi,
 Qiz degani ore d.
 Axiri qiz uch kunga
 Qo`y deb yolvardi unga.
 Hamon bo`lmadi rozi:
 «Barcha toshu tarozi
 Bir kunga chiday olur,
 O`ynab g`aming tarqalur.
 So`ngra to`yni qilurmiz,
 Eru xotin bo`larmiz».
 Qiz go`yo ko`ngan kabi
 Podshoga indamadi.
 Podsho ham qizga endi
 Hech bir narsa demadi.
 Qo`shilib qirq qizlarga
 Oygul tashqari chiqdi,
 Ko`zi tinib bo`zlarga
 Sho`rlikni qayg`u yiqdi.
 Ichidan yona-yona
 Cho`milmoqni bahona
 Qilib, Oygul qizlarni
 Daryoga olib bordi.
 Qirq qizlar birin-birin
 Yechina boshlar ekan,
 Aytib bir-birin sirin
 Pichinglar tashlar ekan,

Yuzi gul, sochi sunbul –
 Bizning qayg`uli Oygul
 Biroz o`ylab turdi-da,
 Ko`zini chirt yumdi-da
 O`zini suvga otdi;
 Shu ondayoq u botdi.
 Oygulni Jayxun baliq
 Oldi-yu yutib ketdi.
 Tomog`idan qilchalik
 Op-oson o`tib ketdi.
 Qirq qizlar sarosima –
 Chuvillashib qoldilar:
 «Nima gap, nima, nima»
 Deya shovqin soldilar.
 Hammalari noiloj,
 Ba`zilari yalang`och
 Saroyga yugurdilar
 Va podshoga bildirib
 Dirillashib turdilar.
 Podsho ham chapak urib
 Daryoga chopib bordi,
 Zir yugurib axtardi.
 Lekin unda kimsa yo`q.
 Daryo ham silliq-silliq
 Har kungiday betinim
 Oqib borar edi jim.
 Podsho endi xo`p nolon,
 Nima uchun bir kunga
 Muhlat berdim deb unga,-
 O`lgudayin pushaymon.
 Ichini it tirnadi.
 Ziyoda bo`lib dardi,
 Yer va ko`kni u yanib,
 O`z o`tiga o`rtanib,
 Yurib qizni axtardi.

XI

Go`zal yurt Susambilda
 Bir podachi bor edi,
 U mashhur edi elda,
 Nomi Baxtiyor edi.
 Go`zal edi va chinor
 Qomatiga edi zor.
 Ko`kraklari butun bir
 Oftobni yashirardi.
 Tanlarida bir umr
 O`t lovillab turardi.
 Qilichday o`tkir edi,
 Rustam kabi zo`r edi.
 Ammo elda xor edi,
 Kambag`al nochor edi,
 U doim boqib poda
 Yurar edi sahroda.

Cho`llarda yashar edi,
 Qirlardan oshar edi.
 Qalbida ming turli dog`,
 Ko`z yoshi bulog`-bulog`
 Suv yoqalab borarkan,
 Har tomonga qararkan
 Baliq ovlab daryoda
 Yurganlarga yo`liqdi.
 Shu choqda uning sodda
 Ko`ngli biroz to`liqdi.
 «Jinday non bormi?» dedi.
 Baliqchi tanti edi:
 «Yo`qdir berar nonimiz,
 Lekin kuyar jonimiz.
 Mayli, shu safar to`rga
 Chiqqanin ol o`zingga.
 Uzun umring bor bo`lsin,
 Bola, baxting yor bo`lsin».
 Rozi bo`ldi Baxtiyor.
 Va toleiga shu bor
 Jayxun ilinib qoldi.
 Ulkan baliqni oldi,
 Ikki ho`kizga ortib,
 Oldindan o`zi tortib,
 Uyga tomon yo`l soldi.
 Hovliqib tolib keldi
 Uyiga olib keldi.

XII

Ota, dedi u, darhol
 Hozir bo`ldi qari chol.
 Va ota-bola ikkov
 Baliqqa soldilar dov.
 Otasi pichoq oldi,
 O`g`li oybolta soldi.
 Baliq qornin yorganda,
 Pichoq belga borganda
 Chol birdan cho`chib
 qochdi.
 Baxtiyor g`azab sochdi.
 Baliq qornida shu on
 Tebranib uyon-buyon
 Oygul ko`zini ochdi.
 Va Baxtiyorni ko`rdi,
 Boshiga qon yugurdi.
 Qora ko`zlari yonib,
 Bir muhabbat uyg`onib.
 Qalbi jizillab qoldi,
 Qizardi begap qoldi.
 Tanasini qurshab o`t,
 Qip-qizil, misli yoqut,
 Titraguchi lab qoldi.
 Hayronlikda ko`p zamon,

Jim qoldilar uchovlon.
 Oxirida qiz turib
 Ularga ta'zim qildi,
 Cholga qarab egildi.
 Ular yaqin keldilar,
 Kim ekanin bildilar.
 Oygul: «Non bormi?»
 dedi.
 Podachi tanti edi:
 «Nonimiz yo`qdir bilsang,
 Ozgina sabr qilsang
 Baliqni pishirmiz,
 Birgalashib yeyarmiz».
 Oygul unga, xo`p, dedi.
 Cholga gapi ko`p edi:
 «Ota, qabul qilsangiz
 O`g`lingizga tegayin.
 Siz har narsa desangiz
 Men bo`ynimni egayin».
 Chol dovdorab hangu-mang
 Javobiga qoldi tang:
 «Qizim, bizda hech pul
 yo`q.
 Molu dunyo butkul yo`q.
 Qandayin to`y qilamiz?
 Seni nima bilamiz?»
 «Men dunyo
 so`ramayman,
 Boy odamga bormayman.
 Siz xohlasangiz agar
 Boshingizga to`kay zar»...
 Chol rozi bo`lgan kabi
 Hech bir narsa demadi.
 Baxtiyorning yuragi
 Gupillab urar edi.
 Bu ajib uchrashuvdan
 Barcha xursand edilar.
 Jayxunni qaynoq suvdan
 Olib birga yedilar.

XIII

Kech ham kirdi. Dala,
 cho`l
 Tumanga botdi butkul,
 Chol darrov cho`kib yotdi.
 Baxtiyor bilan Oygul
 Suhbatida tong otdi.
 Qullarning isyonidan.
 O`lganlarning qonidan,
 Otasi slogan firoq
 Bag`rini yoqqanini,
 So`zlab chiqdi u uzoq
 Sandiqda oqqanini.

So`zladı zolim xondan,
 Ertak aytdi Jarjondan,
 Baliqqa yutilganin,
 To`rlarga tutilganin,
 Molu dunyoni demay,
 Podsholarni xohlamay,
 Podachini deganin.
 Uzoq eldan kelganin,
 So`zlab o`ltirdi Oygul
 Ochilib misoli gul,
 Shodligidan Baxtiyor,
 Qarardi takror-takror.

XIV

Oygul daryoda baliq
 Qornida yotganida,
 Ikki katta halqalik
 Gavhar topuvdi unda.
 Qadrini bilgan edi.
 Ehtiyot qilgan edi.
 Tongda u yo`qlab cholni
 Arz etdi ushbu holni.
 Chol o`zini unutdi
 Oygul gavharni tutdi:
 «Mana buning birini
 Bozorga sotib keling,
 Bilib uning sirini
 Oltinga botib keling».
 U, bozorga jo`nadi.
 Yursa yo`li unadi.
 Chol ushlagancha gavhar
 Bozorda yurar ekan,
 Xaridor so`rar ekan,
 Bitta katta savdogar
 Xabardor bo`lib qoldi,
 Cholga yopishib oldi.
 Gavharga changal soldi.
 Bir sandiq oltin berib
 Cholni jo`natib qoldi.
 U ham tezgina erib
 Susambilga yo`l oldi.
 Lekin usta savdogar
 Deyar edi har safar:
 «Baxtim yor bo`lib agar
 Yana bitta shundaqa
 Topolsa edim halqa,
 Yetti iqlimning boji,
 Boji bilan xiroji,
 Qimmatiga sotardim.
 Bir umr yeb yotardim».
 Shuning uchun ko`p xijil
 Kezar edi elma-el.

XV

Yana kunlardan bir kun
 Oygul cholni chaqirdi,
 Tag`in bir halqa berdi.
 Chol o`zida yo`q butun,
 Bozor tomon yugurdi.
 Duch kelib u savdogar
 Yana so`radi gavhar.
 Chol «bor» dedi, u bu bor
 Edi jazman xaridor.
 Cholni qo`ymay holiga,
 Olib chiqib xoliga.
 Ikki sandiq oltinni
 Naqt berib oldi uni.
 Oltinni otga ortib,
 O`zi kuchanib tortib,
 Susambilga boshladi,
 Devday qadam tashladi.

Oltinlarning barini
 To`plab, yoshu qarini
 Chaqirib, go`zal Oygul
 Yashnab misoli bir gul,
 Baxtiyori yonida
 Otash yonib qonida
 Kattakon kengash ochdi,
 Lablaridan dur sochdi.
 Susambil tarixidan,
 Ezilganlar holidan,
 Podsholarning zulmidan,
 Xo`jalarning molidan
 So`zladı juda uzoq.
 Oxiri dedi: «Biroq,
 Bu hol uzoqqa ketmas,
 Orzular beiz bitmas,
 Susambilda biz yangi,
 Bir dunyo qurmoqchimiz.
 Har kambag`al ko`makchi,
 Bo`lsin sodiq soqchimiz.
 Bunday bir yurtni faqat
 Ezilganlar qururlar.
 So`ng ular qavat-qavat
 Soz uylarda tururlar».
 Bu so`z yoshu qariga
 Mos bo`lib tushdi juda.
 Ertasi to`da-to`da,
 Guras-guras bo`lib el,
 Kelaberdi bog`lab bel.
 Xotinlar, yosh bolalar,
 Barcha amma-xolalar
 Kelaberdilar ishga.
 Oygul yangi turmushga
 Boshlab, oshu non berdi.

Jonsizlarga jon berdi.
Yetimlarga parvarish,
Yesirlarga haq va ish;
Bolalarga saroylar,—
Go`zal ozoda joylar.
Har qadamda bir bo`ston,
Har yerda bir guliston.
Ellar uchun chaman bog`,
Har yerga qaynar buloq
Bino qildi kunma-kun
Har kun bir go`zal yakun.
Jinday fursat ichida,
Kunning erta-kechida,
Har yondan yelaberib,
El chuvab kelaberib,
Million odam to`plandi.
Borgan sari ko`plandi.
Kambag`al va qullarning
Jonidan sevgan yori,
Susambil jannatga teng
O`lka bo`ldi oxiri.
Ozod edi bunda ish:
Bu o`lkada har yemish
Og`ochlarda pishardi.
Tanlarga yaqin quyosh,
Bolalarga usti-bosh
Gulzorda yetishardi.

XVI

Oy deganda yuzi bor,
Kun deganda ko`zi bor,
Go`zal, dono Oygulni,—
Bu barno bahor gulni
El sevar edi jondan.
Va butun xonumonda
Oygul himoyasida,
Baxtiyor soyasida
Susambilda erkin, shod,
Yashar edi xaloyiq.
Xayol qilishga loyiq.
Uni butun odamzod
Xayol qilishga loyiq.
Oygul o`z o`lkasini
Saqlardi tinch, saranjom,
Soqchilar sevib uni,
Kerak bo`lsa berar jon.

XVII

Susambil soqchilari
Chegarada bir qari
Cholni tutib oldilar
Va shubhada qoldilar.
Qalandarga o`xshardi,
Lekin yomon yurardi.

Xo`p qora edi ichi.
Qalandar kiyimida
Bo`lsa hamki, qilichi,
Ko`rinardi yonida.
Uni mahkam tutdilar,
Oygul sari eltdilar,
Oygul bilan Baxtiyor
Adolat aylab shior
Qildilar uni so`roq,
Podsholardan yaxshiroq.
Ul ham sekin Jarjonda
Zo`r podsho ekanini,
So`zlab berdi va qonda
Yetilib o`sganini.
So`ngra arzi holini,
Boshladi savolini.
Chol ko`p narsa o`yladi:
Qo`lga tushdim tayin deb,
Oygulni aldayin deb,
Faqat yolg`on so`yladi.
U dediki: «Bir kunga
Muhlat olgan yorimni
Qo`ldan berdim va unga
Qurbon qildim borimni.
Yerga otdim torimni,
Tutaqtirib zorimni,
Misoli bir qalandar
Izlab keldim darbadar.
Sen meni demasmisan?
Oygulim emasmisan?»
Ko`zida hiyla kuldi
Va yolg`ondan bukildi.
Xaloyiq shu asnoda
Yig`ilib to`da-to`da
To`planib qolgan edi.
Podsho ko`zi qon edi.
Shunda chiroyli Oygul,
Yashnab misoli bir gul
Undan bir so`roq qildi,
Tarashaday qoq qildi:
«Necha xotiningiz bor?
Rostini ayting, zinhor?»
«Qirq xotin bordir menda»
—
Dedi beor, sharmanda.
El qah-qahlab yubordi.
Zolim podsho shu damda
Fikrini qonga qordi.
Qilichini chiqardi,
Oygulga qarab bordi.
Ammo xaloyiq shu dam
Uni tutdilar bardam.

O`tmastan jindayin zum
Og`ziga tiqdilar qum.
Zolim podsho shu zamon
Qabrga bo`ldi mehmon.

XVIII

Oygul ko`ngli beg`ubor
Hurlikni aylab shior,
Ham yo`ldoshi, ham yori,
Yonida Baxtiyori,
Yasharkan Susambilda,
Qayg`u yo`q ekan dilda,
Jambilni o`ylar edi.
Qul cholni so`ylar edi.
Qullarning qasosini
Olurman, deb ahd qilgan.
Xonlikning asosini
Buzurman deb jahd qilgan
Isyon quchog`idagi
Chog`larini eslardi.
Gunohsiz qalbidagi
Dog`larini eslardi.
Ziyoda bo`lib dardi
Ko`z oldidan o`tardi:
Och qullarning isyoni,
Jambilning qonxo`r xoni.
Otasining qilichda
Tirqirab qolgan qoni.
Ko`kka chiqib fig`oni
O`tday tutashib ichda...
Eng so`ng Oygul, Baxtiyor
Qildilar shunday qaror:
«Jambilga o`t ochamiz
Xonning qonin sochamiz».

XIX

Oygul turib erta tong
Qo`shinlarga urdi bong.
Soqchilarni uyg`otdi,
Boshliqlarga so`z qotdi.
Qurollarni oldirdi,
Karnay-surnay chaldirdi.
Bir nafasda, qo`shinlar
Saf tortib yig`ildilar.
Qirq kunlikka osh va non,
Otlarga beda va don,
Qo`shinlarga kiyimlar,
Dori-darmonlar, yemlar
Oldirib go`zal Oygul,
Yashnab misoli bir gul,
Baxtiyorni Susambil
Yurtiga ko`tarib bosh,
Shu kun berdi yurtga osh.
Qo`shin boshida o`zi,

Charaqlab qora ko`zi,
Mardlar singari Jambil
Tomoniga boshlab yo`l,
To`p bo`shatib jo`nadi.
Yo`lma-yo`l va ko`lma-
ko`l
Manzillarda tunadi,
Yana turib jo`nadi.
Go`zal, chaman bog`lardan
Qush bo`lib uchib o`tdi,
Osmon bo`yi tog`lardan
Burgutday ko`chib o`tdi.
Qancha qurg`oq cho`llarni,
Daryolarni, ko`llarni
O`ta-o`ta oxiri
Jambilga yaqin bordi.

XX

Jambil xoni rohatda,
Ishratda, farog`atda
Yashar ekan Jambilda,
Ne bordir Susambilda
Sira ham bilmas edi.
Kecha-kunduz mast edi.
Oygulni bandu zindon
Qilgan chog`idan buyon
Xabar olmagan edi,
Esga solmagan edi.
Qul qizini zindonda
Chirib ketgan deb o`ylab,
Va lekin har zamonda
Husnidan ertak so`ylab,
Maqtab go`zal Oygulnn,
Qarg`adi Darxon qulni.
Tarlon bo`lsa Jambilda
Ming armon bilan dilda,
Hamon qul yurar edi,
Qattiq kun ko`rar edi.
Oygulning ahvolidan,
Susambilning holidan,
Xabardor edi o`sha.
Unga qayg`u bilan zor,
Yuz haqorat, ming ozor,
Hamdam edi hamisha.
Susambilga qochmoqni
Xonga urush ochmoqni
U xayol qilar edi,
El buni bilar edi,
Chorasiz yurar edi.
Shu choq minglab qo`shini
Bilan Oygul yo`l bosib,
Uxlamay kuni-tuni,
Har yerga yalov osib,

Kelar edi duvillab,
Bo`ron kabi guvillab.
Daryolarning ustidan,
Uchib o`tganda oti,
Qushday sirg`anib suvdan,
Yozilardi qanoti.
U to`xtamay yo`l bosdi,
Huv deganda cho`l bosdi.
Bir oqib ketib keldi,
Jambilga yetib keldi.

XXI

Yashnab misoli bir gul,
Yer ko`kni ovozasi
Tutib kelganda Oygul,
Jambilning darvozasi,
Ochilmadi. Shunda ul
Darg`azab qilich soldi,
Darhol qaytarib oldi:
Qulufklar sharaq-sharaq
O`ynab ochilib ketdi,
Zulfinlar xuddi tuproq
Bo`lib sochilib ketdi.
Otlarning tuyog`ida
Darvozalar bo`ldi kul,
Har to`p qo`ygan chog`ida
Saroylar qulab butkul,
Zo`r qo`shin kirib bordi.
Savalab urib bordi.
Jambilning xon, beklari
Quyvon bo`lib qochdilar.
Chuqurlar, g`orlar sari
Quchog`ini ochdilar.
Soqchilar zolim xonni,
Bu ajoyib hayvonni,
Og`ilda ushladilar,
O`lguday mushtladilar.
Rangi bo`lsa ham samon
Past kelmas edi hamon.
Butun el qah-qah soldi,
Xon sharmanda, uyaldi.
El turib shu choq: «Oygul!
Xonni o`ldir!» – dedilar
«Butun yurt va barcha el
Sendan ushbuni tilar «
Oygul el talabini
Qilib o`ldirdi xonni,
Bu ajoyib hayvonni.
Qilich solib bo`g`ziga,
Qo`yib to`pning og`ziga
O`qqa qo`shib ko`chirdi;
Osmonlarga uchirdi,
Va kul qilib tushurdi.

Endi eski qul Tarlon,
Oygulga to`g`ri keldi.
Sevinganidan shu on
Oyog`iga yiqildi,
Oygul ko`tarib oldi.
Tarlon ko`rishib qoldi.

XXII

Qul Tarlon shodligidan
To`xtalmadi yig`idan,
Barcha hayron edilar.
Ular kelib Oygulga:
«Bizlarni Susambilga
Olib ketkin,– dedilar.
Bu xonlardan kuydik ko`p,
Beklardan o`rtandik xo`p
Biz Jambilda turmaymiz,
Bu yerlarda yurmaymiz.
Bizni qo`sh o`z elingga,
El bo`lamiz biz senga...»
Oygulga alamini,
Barcha chekkan g`amini
El aytib yig`lar edi,
Sel qaytib yig`lar edi.
Oygul nazar tashladi,
Shunday bir so`z boshladi:
«Zolim xon quchdi o`lim,
Endi sizga yo`q zulm,
El, osoyish yasharsiz.
Va bekoyish yasharsiz.
Susambilni qo`yinglar
Va Jambilni suyinglar,
Siznikidir tuprog`i,
Sizniki toju tog`i,
Xon bo`lmasa Jambilda
Qayg`u ham bo`lmas dilda.
Mana bu ota Tarlon
Hammangizga bosh bo`lur,
Sizlar uchun berar jon
Har yerda yo`ldosh
bo`lur».
Oyguldan jahon-jahon
El barcha rozi bo`ldi.
Qalbi shodlikka to`ldi.
Qirq kechayu qirq kunduz,
Barcha erkak, xotin-qiz
O`ynab bayram etdilar.
Zolim xonni yo`qotib,
Qayg`ularini otib,
Murodiga yetdilar.
Shundan so`ng bizning
Oygul,
Yashnab misoli bir gul,

O`z Baxtiyori sari,
O`z sevgan yori sari

Susambilga yo`l oldi.
El karnay-surnay chalib,

Zambaraklar bo`shatib,
Uni uzatib qoldi.

SEMURG' YOKI PARIZOD VA BUNYOD (Doston)

I
Sarvi qomat parizod
O`sdi g`amlardan ozod,
Bahor yanglig` ochildi,
Gullar kabi sochildi.
Chiroyidan ovoza,
Elga tarqaldi toza.
Har yerga doston bo`ldi,
Dostonga bo`ston bo`ldi.
Ko`rmaganlar ko`rishni,
Ko`rganlar o`ltirishni
Qilar bo`ldilar orzu.
Barcha toshu tarozu
Shu gapni o`lchar bo`ldi;
So`zlar oltin-zar bo`ldi.
Shaydolar ko`p beqaror,
Yigitlar bo`ldilar zor.
Tun keldi-yu shom ketdi.
Uyqudan orom ketdi.
Hamma bo`lib xaridor
Qizidi katta bozor:
Elchilar yog`ildilar,
Katta g`avg`o qildilar.
Lekin u odam sevmas,
Doim o`zi bilan mast,
Navqiron pahlavonlar
Eldagi navqironlar
Unga aslo yoqmaydi.
Oshiq'larga boqmaydi.
Yuragida sevgi yo`q,
Qalbi marmardan sovuq,
U odamlik qarzini,
Sevguchining arzini
Olib orqaga tashlar.
Shuncha-shuncha otashlar
Eshigida so`nadi.
Otashdan kul unadi.
Bahri ochilmaydi hech,
Chehrasi kulmaydi hech.
Elchi bo`lib kelganlar,
Qizning sirin bilganlar,
Noumid qaytadilar,
Mardumga aytadilar,
Xalq ichida Parizod
Chiqaradi yomon ot.

O`z qizidan pushaymon
Bo`lib shuning uchun xon
Kecha-kunduz o`ylaydi,
Yoz bilan kuz o`ylaydi:
«El rasmini qilmagan,
Sevgi nima bilmagan,
Qari qizni netayin?
Chiqib qayga ketayin?
Qaylarga urayin bosh?
Buncha sovuq, bag`ri tosh
Qizni qaydan yaratdim?
O`zimni o`tga otdim.
Men nimaga yarayman.
Yurtga qanday qarayman.
Boshimga bu Parizod
Balolar keltirdi bot».
Qizini chaqirib xon,
Shunday boshladi fig`on:
«Eshit, qizim Parizod,
Chiqaribsan yomon ot.
Sening bag`ring tosh
emish,
Ko`zlaring beyosh emish;
Aslo sevmas emishsan,
Erga chiqmam, demishsan.
Men malomatga qoldim,
Zo`r qiyomatga qoldim.
Sening yomon dostoning
Meni tuproq bilan teng
Qilib uyatga qo`ydi.
Meni bepichoq so`ydi.
Qizim, men ham qaridim,
Go`rga tomon daridim.
Yoshim yetmishga bordi.
Soqol-sochim oqardi.
Yurak bag`rimni o`yding,
Meni nomusga quyding.
Otangga berma azob.
Azobga qolmagan tob.
Tosh yuraging yumshasin,
Eshitsin qalblar lasin.
Otang hurmati uchun
Ko`rsat mardlikning
kuchin:
Kel, birovga ko`ngil ber,

Bir yigitga deb gul ber.
Biroz andishaga bor,
Meni g`avgodan qutqor!»
II
Parizod o`ylab qoldi,
Ko`p uzoq begap qoldi.
«Mayli – dedi, u xonga,
Bir umid solib jonga –
Yolg`iz bir shart qo`yaman,
Bajarganni suyaman.
Hovlida bor zo`r chinor.
Chinor emas u bir dor;
Biladi juda ko`p sir,
Yashar yuz yil – bir asr.
Yoshi ko`pga ketadi,
Boshi ko`kka yetadi.
O`lkaga jar solaman,
Yerlarga zar solaman.
Shartim shuki, ot bilan,
Go`yoki qanot bilan,
Shu chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga,
So`zsiz xotin bo`laman.
Go`zal otin bo`laman.
Barcha qarshimdan o`tsin,
Mard o`zini tanitsin.
Agar shunda ham qalbim
Yumshamasdan qolsa jim
Uzib olib otarman.
Qassoblarga sotarman».
Shunday degach Parizod,
Xon bo`ldi poyonsiz shod.
Jarchilarni chorlatdi,
Har biriga so`z qotdi,
«Yurtga xabar beringiz,
Aytingiz har biringiz
Xon qiziga xaridor,
Parizod husniga zor
Bo`lganlarga baxt kuldi,
Birgalashib taxt kuldi.
Qo`rqmasdan kelabersin,
Baxtini bilabersin.
Sharti shulkim, ot bilan,
Go`yoki qanot bilan,
Zo`r chinorga chiqqanga,

Chiqib uni yiqqanga,
Parizod xotin bo`lur,
Bir go`zal otin bo`lur.
Ayting, har bir mard
kelsin,
Har bir mard bedard kelsin.
Sinasin o`z baxtini,
Baxti qo`llasin uni.
Qo`rganlar olsin darmon.
Ko`rmagan qilsin armon».

III

Har yoqqa xabarchilar –
Tili uzun jarchilar,
Chopa-chopa ketdilar
Bozorlarga yetdilar.
Karnay, surnay choldirib,
Suyunchilar oldirib,
Qildilar katta e`lon,
Xabarlar ketdi haryon.
Xonning xabarin olib,
Hamma birdan qo`zg`olib,
Zo`r shov-shuv bo`lib
qoldi,
Yurtga gap to`lib qoldi.

IV

Ertasiga barcha el.
Kela berdi bog`lab bel.
Chavandoz, pahlavonlar,
Barcha sohibqironlar,
Otlarni gijinglatib,
Qamchilarni o`ynatib,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.
Baxmal jabdiqlar urib,
Suluv qizlarday yurib,
Arg`imoqlar chopdilar,
Yer va ko`kni yopdilar.
So`liqlarni tishlashib,
Mast bo`lishib kishnashib,
Dunyo-dunyo chang-
to`zon
Ichida qolib osmon,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.
Chumoliday chuvashib,
Qir va tog`lardan oshib,
Suv bo`ylarida yotib,
Yurganda o`qlar otib,
Oshiqlar poda-poda
Bo`lib cho`lu sahroda,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.

Xon qizin olmoq uchun,
Elga sinalmoq uchun,
Baxtim bormi ekan, deb,
Menga yormi ekan, deb,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.

V

Yetti kecha, yetti kun,
Yetti kunduz, yetti tun,
Zo`r chinorga chiqmoqqa,
Chiqib uni yiqmoqqa
Hamma hezlab ko`rdilar,
O`zni o`qday urdilar.
Necha manman deganlar,
Ilon po`stin yeganlar,
Yiqila berdi bir-bir,
Makon bo`la berdi yer.
Chinor hech silkinmadi,
Bir shoxi ham sinmadi.
Qushday uchib kelganlar,
Shamol kabi yelganlar,
Yarim yo`lda tindilar,
Yana otga mindilar.
Yana hezlab ko`rdilar,
O`zni o`qday urdilar,
Murod hosil bo`lmadi.
Ko`ngillari to`lmadi.
Ilonday chirmashganlar,
Chirmashib tirmashganlar
Yana qaytdilar ketga,
Chiqa berdilar chetga.
Qancha suluv arg`umoq,
yiqilib bo`ldi cho`loq.
Qancha-qancha chavandoz
Bo`ldi tuproq bilan soz.
Ko`plarning beli sindi,
Ko`plarning umri tindi.
Kunlar o`tdi va ammo
Hal bo`lmadi muammo.
Zo`r chinorga chiqmoqqa,
Chiqib uii yiqmoqqa
Hechkim erisholmadi.
Jumboqni yesholmadi.
Kelganlar bo`lib hayron,
Ko`plar bo`lib pushaymon,
Bir-bir tarqab ketdilar,
Manzillarga yetdilar.

VI

Bu hollarni ko`rib xon,
Yutdi laxta-laxta qon.
Parizod xunob bo`ldi.
Xunobu betob bo`ldi.

Qiz berganni qarg`ishlab.
Peshonasiga mushtlab,
Yana axtarib chora,
Xon o`rtandi tobora.
Odamlarni chaqirdi,
O`t ichida baqirdi:
«Bu maydonga kirmagan,
Bizning shartni bilmagan
Ayting, yana kim qoldi?»
Hamma odam jim qoldi.
Og`ir o`yga botdilar,
Oxir shuni aytdilar,
«Yolg`iz bir Bunyod qoldi.
O`sha bir beot qoldi.
U bir cho`pon bechora,
Bu ishga topmas chora.
Parizodga teng bo`lmas,
Kiyimiga yeng bo`lmas.
Chinorga chikolmas ham,
Chiqolmas, yiqolmas ham.
Xon hech quloq solmadi.
Pisandiga olmadi:
«Bu gaplar bari bekor.
Bu bilan hech bitmas kor.
Qayda bo`lsa ham Bunyod,
Topib keltirilsin bot!
Men otimni beraman,
Qanotimni beraman.
Agar chinorga chiqsa,
Va chiqib uni yiqsa
Ahmoq, bees bo`lsa ham,
Maxov va pes bo`lsa ham.
Mening qizim Parizod,
Unga xotin bo`lur bot».
Bunyodni tog` tagidan,
Daryoning etagidan,
Topib keltirdilar bot;
Xon berdi noiloj ot.
Zo`r chinorga qalandi,
Tanini qurshab o`tlar.
Ichida bir g`ash yondi.
Chinor shoxi bulutlar
Orasida ko`rindi.
Bunyod fikr surindi.
Yonidagi uchqur ot,
Chiqarib bir zo`r qanot,
Ko`kka qarab kishnadi.
Butun atrof xaloyiq
Bilan to`lib ketdi liq.
Hayot umri qurib xon,
Tikilar edi hayron.
Ne bo`larkin, der edi,

Zahar-zaqqum yer edi.
 Talvasada Parizod,
 Chekar edi fig'on, dod.
 Bunyodga g'ayrat kirdi,
 Yuragiga dard kirdi:
 Yurib bahodirona,
 Otga mindi mardona,
 Qattiq bir qamchin soldi
 Yolg'on emas, chin soldi.
 Ot yashinday qo'z g'oldi.
 O't singari yo'l oldi.
 Bulutlar orasida,
 Osmonning qorasida,
 Yozib borib qulochin,
 Go'yo bir buyuk lochin
 U chinorga o'tirdi,
 Go'yoki o'qday urdi.
 Chinor tomiri bilan
 Ko'kargan yeri bilan,
 Qo'porildi guvullab,
 Shamol kabi uvillab.
 Zo'r shoxlar yerga ketdi,
 Tomir osmonga yetdi.
 Yer uzra tushib Bunyod,
 Bo'lib dunyo-dunyo shod,
 Go'zal duldul otida,
 Otining qanotida,
 Ko'zlarida zo'r yog'du,
 Kulib turar edi u.
 Ko'rsatguchiga zo'r ish
 El so'zlar edi olqish.
 Yurak yorilguday xon
 Xursand edi bepoyon.
 Parizod bo'lib behol
 Turib qolgan edi lol.

VII

To'y bo'ladi deya el,
 Bosa berdi go'yo sel.
 Barcha shoshiqar edi,
 To'y deb oshiqar edi.
 Qotib qolgan Parizod
 Oldiga keldi Bunyod.
 Sekin qo'lin uzotdi,
 Qalbiga zo'r tosh otdi.
 Parizod bir emrandi,
 Qosh-qovog'i chimrandi:
 «To'g'ri,– dedi,– sen
 yutding,
 Sovuq qo'limni tutding.
 Nima qilay, roziman,
 O'zimdanda noroziman.
 Baxtim ochilmadi hech,

Aytganim bo'lmadi hech.
 Faqat, agar unasang,
 Unab yo'lga jo'nasang,
 Yana bir shart qo'yardim.
 Yana sinab ko'rardim.
 Shundan so'ngra umrbod
 Senga bo'lar Parizod.
 Bunyod ham rozi bo'ldi.
 «Gapir,– deya bukuldi,–
 Gaping bo'lsa aytaber,
 Ko'ngling to'lsa aytaber.
 Har bir ishni bilarman,
 Har nimani qilarman.
 Ko'nglingni ololmasam,
 Bir orom sololmasam,
 yo'ldosh bo'lolmasman
 hech,
 Sen ham unday yordan
 kech».
 Tikka turib, Parizod
 Shartin eshitdi Bunyod.

VIII

«Kun botarda bir yovuz
 Dev bor emish, yalmog'iz.
 Odamga dushman emish,
 Qon emish unga yemish.
 Har musibat, har ofat,
 Har bir mudhish kasofat,
 Barcha jabru jafolar,
 Hamma dardu balolar
 O'shandan kelar emish.
 Odamlarni yemirish
 Bilan bo'lar emish shod,
 Ko'ngli g'amlardan ozod.
 O'zi balo tog'ining
 Va ofat bulog'ining
 Boshida o'ltirarmish
 Kunu tunu yoz ham qish.
 Uni ko'rgan har chaman,
 Qo'yarkan tuproqqa tan,
 U taqilgan har bir gul
 To'kilar ekan butkul.
 Uni ko'rgan har bir jon
 Tez bo'lar ekan xazon.
 Daryolar qurur ekan,
 Baliqlar churur ekan,
 Undan har kun tabiat
 Olar ekan qora xat.
 Ikki oy-u ikki yil,
 Yursang mahkam bog'lab
 bel
 Makoniga borarsan,

Andomiga qararsan.
 O'rtangizda jang bo'lur,
 Ikki olam tang bo'lur.
 Shuni jangda o'ldirsang,
 Hayotinn so'ldirsang,
 Qo'ling bilan odamzod
 Balodan bo'lsa ozod.
 Devni o'ldirib agar,
 Qaytib kelsang bezarar,
 Shu kuni to'y boshlarmiz,
 G'am-g'ussani tashlarmiz».

IX

Parizod yerga boqdi.
 Bunyodni o'tlar yoqdi.
 Bo'lib xonning holi tang,
 Qotib qoldi hangu-mang,
 Kalavasi chuvoldi,
 Bor umidi yo'qoldi.
 Taajjubda xaloyiq
 Ko'ziga yosh oldi jiq.
 Bunyod uzoqqa boqdi,
 Charvoqqa, toqqa boqdi.
 Nazari cho'lga tushdi,
 Huv deya yo'lga tushdi.
 Ko'zdan yo'qoldi shu on,
 Tarqaldi hamma hayron
 Baland tog'lardan oshdi,
 Daralarda adashdi.
 Vodilarga ko'z yoshi
 To'kib aylandi boshi.
 Daryolardan o'tdi ul.
 Yana uzoq ketdi ul.
 Yurti qoldi uzoqda,
 Tushunchasi tuzoqda.
 Zo'r bir ishga qo'shib
 bosh,
 O'ziga o'zi yo'ldosh,
 Uzoq cho'llarga yetdi.
 Qaynoq ko'llarga yetdi.
 Poyoni yo'q keng saho
 O't purkab soldi sado.
 Oyog'i ostida qum
 Yetadi uyum-uyum.
 Biror ko'kat ko'rinmas,
 Biror jonvor urinmas.
 Yoniga tushib quyosh
 Kuyar edi ichu tosh.
 Boshdan ter quyar edi,
 Oyog'i kuyar edi.
 Halqumlari bo'lib qoq.
 Toqatlari bo'lib toq,
 Qimirlar edi sekin,

Zo`rg`a olar edi tin.
 X
 Bir yildan so`ng banogoh
 Bir sirdan bo`ldn ogoh:
 Poyoni yo`q keng cho`lda,
 Qaynagan qumlik ko`lda,
 Bir zo`r daraxt ko`rindi,
 O`shanga ko`zi to`ndi.
 Ko`p toliqqan bu odam,
 Shu tomon qo`ydi qadam.
 Daraxt qurigan edi.
 Qurib churigan edi.
 Edi minglar yoshida,
 Uning baland boshida
 Qush uyasi bor edi,
 Ham zo`r hamda tor edi.
 Daraxtga bir zo`r ilon,
 Chirmashib, u oshiyon
 Sari zahar sochardi,
 Ham og`zini ochardi
 Chaqalar chirqirashib,
 Faryod qilib tutashib,
 Onani kutar edi,
 Qon, zardob yutar edi.
 Bag`rini o`rtab bu dod
 Yaqinroq bordi Bunyod.
 Yordamga fahmi keldi,
 Qushlarga rahmi keldi.
 Qilichini chiqarib,
 Daraxt yoniga borib,
 O`sha yovuz ilonni,
 Xunuk va mudhish jonni,
 To`g`rab tashladi shu on,
 Qumlar bo`ldi qizil qon
 Chaqalar omon qoldi,
 Ancha omon jon qoldi.
 Chaqalarni qutqarib,
 Ilonni qonga qorib,
 Daraxtning soyasida,
 Uya himoyasida,
 Uzoq uyquga ketdi,
 Joniga orom yetdi.
 Kun choshgohdan
 oqqanda,
 Quyosh tikka boqqanda.
 Qo`zg`olgan kabi bo`ron,
 Guvullab qoldi osmon.
 Yashin uchganday bo`ldi,
 Poda ko`chganday bo`ldi.
 Ko`kni tutib qanoti,
 Butun olamning oti,—
 Semurg` qush kelib qoldi,

Bunyodni bilib qoldi.
 Chagalida zo`r arslon,
 Tumshug`ida botmon don,
 Ko`zi ichidagi o`t
 Olamni qilib nobud,
 Uyasiga qo`nmasdan,
 Bir oz bo`lsin tinmasdan,
 Bunyodning boshi uzra,
 Chiza berdi doira.
 Jahon buzib o`kirdi.
 Qah-qah urib bo`kirdi.
 Yemak uchun odamni,
 Torta berdi u damni.
 Chaqalari chirqirab,
 Ko`z yoshlari tirqirab.
 Yalindilar, qizg`on deb,
 U bir gunohsiz jon deb:
 «Qizg`on ona, o`ksizni,
 O`sha qutqazdi bizni.
 Bo`lmasa o`lar edik,
 Ochilmay so`lar edik.
 Bizni yer edi ilon,
 Ayrilarding, onajon».

XI

Semurg` o`ylanib qoldi,
 Qalbini shafqat oldi.
 Qumning bag`riga botgan,
 Quyoshda kuyib yotgan,
 Bunyodga soya soldi,
 Qanot ostiga oldi.
 Qush nomli bu buyuk zot,
 Undagi kumush qanot,
 Butun borliqni tutdi.
 Bor osmonni berkitdi.
 Bunyod salqin soyada,
 Bunday zo`r himoyada,
 Yetti tunni uxladi,
 Yetti kunni uxladi.
 Uyg`ona bermagach u
 Bosib tobora uyqu,
 Semurg` daryoga ketdi,
 Xayal o`tmasdan yetdi.
 Suvni shimirdi cho`llab,
 Qanotlarini ho`llab,
 Shu zamon uchib keldi.
 Jaladay ko`chib keldi.
 To`xtab Bunyod qoshida,
 Bir silkindi boshida.
 Bunyod uyg`ondi darhol,
 Uni lol etdi bu hol.
 Birdan turib seskandi.
 Qushni ko`rib seskandi.

Odamlarga o`xshabroq,
 Semurg` boshladi so`roq:
 Ikki ming yildan beri,
 Shu keng sahroning yeri
 Bo`lmishdir menga makon.
 Mendan boshqa biror jon,
 Kelolmadi bunga hech.
 Qumlar ko`chib erta-kech,
 Vatanidan ajraldi,
 Sahro giyohsiz qoldi.
 Qurtlar sarson bo`ldilar
 Uchgan qushlar o`ldilar.
 Bunda faqat topdi jon,
 Sen halok qilgan ilon.
 Hech yog`madi yomg`ur
 ham,
 Yer ko`rmadi zarra nam.
 Qadam bosmadi inson,
 Dorimadi hech hayvon.
 Shuncha yil yolg`iz turdim,
 Yer va osmonni ko`rdim.
 So`yla menga, ey odam,
 Boshingga tushdi ne g`am?
 Zo`r bir mardlik qilibsana,
 Lekin bekor kelibsana,
 Tilagingni ayt menga,
 Ne ko`mak beray senga?»

XII

«Meni go`zal Parizod
 Jo`natdi,— dedi Bunyod,—
 Dunyoni g`amga ko`mgan,
 Jafo-alamga ko`mgan
 Devni bir ko`rmoqchiman,
 Ko`rib o`ldirmoqchiman.
 Odamlarga baxt bermoq,
 Baxtlilarga gul termoq.
 Eldan shiorim bo`ldi,
 Nomus va orim bo`ldi.
 Shuni qilsam Parizod,
 Yorim bo`lib, qilur shod.
 Qush dediki: «Ey inson,
 Bekor bo`libsana sarson,
 Parizod xo`p aldapti,
 Qo`rqinch yo`llarga sopti.
 Xonning qizi dev bilan,
 Oshno edi burundan.
 Yomon ko`rganlarini,
 Dushman bilganlarini,
 yo`llar edi o`shanga.
 Do`st emas ekan sanga.
 Sen bu yo`lda o`lursana,
 Aniq, qurbon bo`lursana.

Devga bormay qo`yaqol,
 Boshqa qizni deyaqol».
 Esga kelib Parizod:
 «Qaytmayman,— dedi
 Bunyod. —
 Sher izidan qaytmaydi,
 Er so`zidan qaytmaydi.
 Uni ko`mguncha uyot,
 O`lgani yaxshiroq bot.
 Shuning uchun boraman,
 Nima bo`lsa ko`raman».
 XIII
 Qushda mehr uyg`ondi,
 Qizg`onish bilan yondi,
 «Kel, esa ustimga chiq,
 Mening qanotimga chiq.
 Bir nafas o`ltirgin jim,
 Bir nafas ko`zingni yum.
 Men kuningga yarayin,
 Seni olib borayin.
 Dengizlardan o`tganda,
 Dunyoni suv tutganda
 Qo`zlaring ochilmasin,
 Xayoling sochilmasin.
 O`zingni yo`qotmagil,
 Yana suvga otmagil,
 Seni olib borarman,
 Kurashingga qararman,
 O`lsang gunoh o`zingda,
 Qo`rquv bilmas so`zingda.
 Agar devni o`ldirsang,
 Yerni nurga to`ldirsang,
 Yana olib qaytarman,
 Ofarinlar aytarman».
 Qanotga chiqdi Bunyod,
 Ko`zini chirt yumdi bot.
 Va Semurg` qildi parvoz,
 Dunyoni tutdi ovoz,
 Kun botar tomon ketdi.
 Tun yotar tomon ketdi.
 Semurg` ostida dunyo
 Aylangan bo`ldi go`yo,
 U o`qday uchib o`tdi,
 Yashinday ko`chib o`tdi,
 Yeru ko`kka soldi jar,
 Shovqiniga dunyo kar,
 Hezlaganda yurt oldi,
 O`lkalar ketda qoldi.
 Qolmay o`tmagan yeri,
 Ucha-ucha oxiri,
 O`rmonlikka yetishdi,
 Shivillab pastga tushdi:

Yalmog`izning qoshidan,
 Daraxtlarning boshidan
 Vabo o`tganday bo`ldi,
 Balo yetganday bo`ldi.
 Semurg` bir silkindi bot,
 Ko`zini ochdi Bunyod.
 Kun botardagi o`rmon,
 Unga bo`ldi namoyon.
 Daraxtlarga ko`z soldi,
 Og`ir hayratda qoldi.
 Tikildi suq kirgudek,
 Bunda o`sgan har terak,
 Boshi osmonga yetgan;
 Ko`kka chirmashib ketgan.
 Atrofga jilva qildi,
 Nafaslari tiqildi.
 Semurg` dedi; «Ey botir,
 Kel endi o`rningdan tur!
 Borib dushmaningni top,
 Qilich sol, bo`ynidan chop
 Jo`na, baxting bor bo`lsin,
 O`tkir qilich yor bo`lsin.
 Seni shunda kutarman,
 Kelmasang qon yutarman».
 Deya ko`zdan yo`qoldi,
 Bir kesak bo`lib qoldi.
 Bunyod o`rmonga kirdi,
 Suv kechib qonga kirdi.
 O`tkir qilich qo`lida,
 Borar ekan yo`lida
 Daraxtlar qular edi,
 Yirtqichlar o`lar edi.
 O`rmonda harnaki bor,
 Qurtu qushu jonivor,
 Qarshi olar edilar,
 Nazar solar edilar.
 Bu ham bo`lar deb qurbon,
 Edilar ko`p pushaymon.
 Chumchuqlar chirqirardi,
 Bulbul yig`lab turardi.
 Bunyod esa mardona,
 Mardu bahodirona,
 O`rmonda borar edi,
 Devni axtarar edi.
 Oshiqardi ko`ray deb,
 Qarshisida turay deb,
 Qilar edi ko`p armon,
 Topay deb dardga darmon.

XIV

Bunyod yetti kun kezdi,
 Yetti qora tun kezdi.
 Eng oxiri tun chog`i,

Bir hid sezdi dumog`i.
 Tani jimirlab ketdi,
 Qalbi qimirlab ketdi.
 Boraberdi u hamon,
 Guvullab qoldi haryon,
 O`rmon shatirlab qoldi,
 Barglar patirlab qoldi.
 U yana yurdi bir oz,
 Oxir dev chiqdi peshvoz.
 Sekin-sekin yurardi,
 Qah-qah urib turardi.
 Dumidan boshigacha,
 Boshdan oyog`igacha
 Xursandlik olgan edi,
 Shodlikda qolgan edi.
 Zahar tomar tishidan,
 O`lim yog`ar ishidan.
 Shoxi osmonda edi,
 Tirnog`i qonda edi,
 Bunyodga kulib boqib,
 Nafsigga yigit yoqib:
 «Salom, o`g`lim, kel —
 dedi,—
 Dushman emas el — dedi,—
 Omon-eson bormisan?
 Parizodga yormisan?
 Go`zal qizim omonmi?
 Sho`x yulduzim omonmi?
 Tilagingni ayt menga,
 Ne murod kerak senga?»
 yigit so`zga boshladi,
 Gapni tizib tashladi.
 «Bunyod senga el emas.
 El bo`lganni dev yemas.
 Sen bir ofat emishsan,
 Zo`r qabohat emishsan,
 Odamizodning yovi,
 O`g`lonlarning go`rkovi
 O`zing emishsan yolg`iz.
 Parizod deganing qiz,
 Qancha do`sting bo`lsa
 ham,
 Alam yutib o`lsa ham,
 Boshingga yetajakman,
 O`ldirib ketajakman».—
 Bunyod qilich chiqardi,
 O`rmon yaltirab qoldi.
 Bunyodning qahri keldi,
 Devning ham zahri keldi,
 Ko`zlaridan o`t sochdi:
 O`rmonlikdan tun qochdi.
 U har og`iz ochganda,

U har bir o`t sochganda,
 Zo`r bir yong`in ketardi,
 Qancha o`rmon bitardi.
 Nafasidan zo`r bo`ron
 Qo`zg`olar edi haryon:
 Tomirlar ko`char edi,
 Daraxtlar uchar edi,
 Osmonni qushlar tutib,
 Hammasi ham qon yutib,
 Chirquirashib turardi,
 Zo`r kurashni ko`rardi.
 To`kilar edi qonlar...
 Barcha yirtqich hayvonlar.
 Kezardi besaranjom
 Saqlab qolmoq uchun jon.
 Bunyodni yutmoq uchun,
 Bo`g`zidan tutmoq uchun,
 Dev hamla qilar edi,
 Ba`zida qular edi.
 Otashda edi ichi,
 Bahodirning qilichi
 Yaltirardi boshida,
 Kular edi qoshida.
 Bunyod qilich solganda,
 Har bir sirmab olganda,
 Devni uzib o`tardi.
 Uzib, buzib o`tardi.
 To`xtamadi qonli jang,
 Bo`ldi devning holi tang.
 Ikki kunu ikki tun
 Solishdi ular butun
 Tinimni bilmadilar,
 Yarashga kelmadilar.
 Bunyod qilichi bilan,
 Zaharlik uchi bilan
 Devni burdalay berdi,
 Qilich qon yalay berdi.
 Dev makon qurgan o`rmon
 Boshdan oyoq bo`ldi qon.
 Qilichni har solganda,
 Har bir sirmab olganda,
 Bir joyni olib o`tdi,
 Bir rahna solib o`tdi.
 Oxiri jon qolmadi,
 Jonu darmon qolmadi.
 Qilich bo`g`zidan tutgach,
 Tog` kabi yorib o`tgach
 Dev harsillab quladi,
 Bir qarsillab quladi.
 Dev qulab yiqilganda,
 Birdan yakson bo`lganda
 Yerlar qimirlab ketdi,

Zilzila gurlab ketdi.
 Cho`zala tushgan chog`i,
 Devning boshu oyog`i
 O`rmonni tutib ketdi,
 Sig`may chetga ham o`tdi.
 U tipirlab berdi jon,
 Va jim-jit qoldi o`rmon.
 Shundan so`ng botir
 Bunyod
 Bo`lib o`zida yo`q shod,
 Qilichni yuvib oldi,
 Bir o`pib, qinga soldi.
 Parrandalar barchasi,
 Go`zali, oy parchasi
 Botirni uzatdilar,
 Olqishlab kuzatdilar.
 Yigit Bunyod mardona,
 Mardu bahodirona,
 Yurib o`rmondan chiqdi,
 G`avg`o va qondan chiqdi.
 Botir g`oyat beqaror,
 Semurg`iga intizor
 Turar edi ko`z tutib,
 Har ko`zini yuz tutib.
 Kesak bo`lib yotgan qush,
 Go`yo ko`rgan kabi tush
 Qonlar to`kilganini,
 Bunyodning yengganini;
 Botirning g`ussadan pok,
 Dev bo`lganini halok,—
 Bilar edi hammasin.
 Kesak bo`lib ko`lmasin
 Yerga solib yotardi,
 Orom olib yotardi.
 Bunyod kelgan zamon ul,
 Shodlikka to`ldi butkul.
 Bir aylanib qush bo`ldi,
 Bunyod ko`ngli xush
 bo`ldi.
 Botir izidan o`pdi,
 Ikki ko`zidan o`pdi.
 Dedi: «Kel, ustimga chiq,
 Mening qanotimga chiq!
 Endi ketga qaytayik,
 Elga doston aytayik.
 Botir yigit ketdik, bo`l!
 Kelgan joyga yetdik,
 bo`l!»
 Botir qanotga chiqdi,
 Zo`r «duldul atga» chiqdi.
 Ko`zini yumgan zamon,
 Xayolga cho`mgan zamon,

Semurg` ko`kda yo`l oldi.
 O`rmonlar ketda qoldi.
 Bir yurt ko`chib
 borganday,
 Ko`chib uchib borganday,
 Shovqun-suron zo`r edi,
 Va beimkon zo`r edi.

XV

Go`zal qush qanotida,
 Ko`kning chopqir otida,
 Uchib borarkan Bunyod,—
 Xayolida Parizod.
 Qush keng sahroga yetdi,
 Iniga qarab ketdi:
 «Ey Bunyod, ko`zingni
 och.
 Jahonni ko`r, nazar soch!
 Endi yo`lni toparsan,
 Kerak bo`lsa choparsan.
 Bor, yaxshilar yor bo`lsin.
 Botir, baxting bor bo`lsin».
 Qaytadan qo`l ushlab,
 Semurg` bilan xushlashib,
 Bir-birini quchoqlab,
 Mehru muhabbat bog`lab,
 Ajraldilar ikovlon.
 Bunyod jahonni javlon
 Urub yana yo`l ketdi,
 Sahro bilan cho`l ketdi.

XVI

Tog`lar oshdi, qir oshdi
 Oylar bo`yi adashdi.
 So`nggi qirdan o`tganda,
 O`z yurtiga yetganda,
 Kunlarini sanadi,
 Tunlarini sanadi.
 Angladi rosa uch yil
 Kezganini muttasil.

XVII

Rosa uch yil o`tganda,
 Olamni gul tutganda,
 Yam-yashil erta bahor,
 Parizodga intizor,
 Bunyod bo`ldi namoyon —
 Ham xursandu ham
 hayron.
 Yuragi urib keldi,
 Olamni ko`rib keldi.
 Parizodni so`rog`lab,
 Bag`rini o`tda dog`lab,
 Xonning eshigin qoqdi.
 Erib suv bo`lib oqdi.

Parizodki ko`rgali,
 Ahvolini so`rgali,
 Jahonni urib javlon,
 Semurg` bilan ikovlon,
 Osmonda uchganini;
 Yovuz devning tanini,
 Qilichda to`g`raganin,
 Olganin uning jonin
 So`ylagali shoshardi,
 Daryo kabi toshardi.
 Qalbini bir og`ir g`ash
 O`rtardi misli otash.
 Bir shubhasi bor edi,
 Shubha unga yor edi.
 Ne kechdi pari holi,
 So`lmadimi niholi?
 Uzoq uch yil muttasil,
 Nelar qildi ekan ul?–
 Deya azob chekardi,
 Zo`r iztirob chekardi.
 Bunyod saroyga kirdi,
 Taxt turgan joyga kirdi.
 Uzini yo`qotdi xon,
 Botirni ko`rgan zamon.
 Xonning yuziga qarab
 Qalbi ichra oralab
 Bunyod bahodirona,
 So`z boshladi mardona:
 «Olamni ko`rib keldim,
 Devni o`ldirib keldim.
 Daryolarni qurutgan,
 Baliqlarni churutgan,
 Insonni dardu balo
 Bilan qilgan muhtalo
 Yovuzning oti o`chdi,
 Otu hayoti o`chdi.
 Kerakkim qilmay jafo,
 Va`daga aylab vafo
 Parizodni bergaysan,

Ul ozodni bergaysan.
 To`y boshlamoq lozimdir.
 Kuy boshlamoq lozimdir».
 Qovog`ini uyib xon,
 Uyatiga kuyib xon,
 So`zga kirishdi ojiz:
 «Senga vada qilgan qiz,
 So`zingga javob bersin.
 Kerak bo`lsa tob bersin.
 Ixtiyori o`zida.
 Turgan bo`lsa so`zida,
 To`y boshlarmiz shul
 zamon.
 Bo`lisharmiz shodmon.
 Qani Parizod kelsin,
 O`sha hur, ozod kelsin».
 Mulozimlar chopdilar,
 Parizodni topdilar.
 Paydo bo`lgach Parizod,
 Hayratda qoldi Bunyod.
 Ixtiyori yo`qoldi,
 Sovuq bir terda qoldi:
 Xonning qizi Parizod,
 G`amgin emas juda shod,
 O`g`lin oldiga solib,
 Qizini qo`lga olib,
 Kelar edi ul tomon,
 Boqar edi ko`p yomon.
 Bunyod hangu-mang qoldi,
 Holi-zori tang qoldi.
 Unga Parizod makkor
 Shularni qildi izhor:
 «Cho`ponni sevolmadim,
 Hech ko`ngil
 qo`yolmadim.
 G`urbatga qorganimning,
 Devga yuborganimning
 Sababi shunda edi,
 Ko`nglim tugunda edi.

O`lib ketar deb edim,
 Churib ketar deb edim.
 Qancha botir bo`lsang
 ham,
 Zo`r bahodir bo`lsang ham,
 To`shaging xas deb bildim,
 Aslingni past deb bildim.
 Sevolmadim seni men,
 Chunki men xon qizimen.
 Men saroyning eriga,
 Otamning vaziriga
 Allaqachon tekkanman.
 Shart qilib safarga san
 Chiqib ketgan kuningda,
 Yo`lda bo`lgan tuningda,
 To`y bo`lib o`tgan edi,
 Hamma ish bitgan edi».
 Yerga tikilgan xon,
 Jim qoldi uzoq zamon.
 Parizod yerga boqdi,
 Bunyod o`tda tutoqdi.
 Ne aytarin bilmasdan,
 Tili so`zga kelmasdan,
 G`azabda yonar edi,
 Yonar, qiynalar edi.
 Parizodni, xonni ham,
 Ikki nomard jonni ham,
 Qilichdan o`tkazmoqqa,
 O`linga yutqizmoqqa
 Hozir edi shul zamon,
 O`t ichida beomon.
 Shu g`azab, shu o`ch bilan,
 Shu qasos, shu kuch bilan
 Saroyni tashlab chiqdi,
 Ko`zini yoshlab chiqdi.
 Bevafo xon qizini,
 Nomard xonning o`zini,
 Unutmadi hech qachon,
 Qarg`ab o`tdi beomon.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Hamid Olimjon ijodining o`zbek adabiyoti tadrijidagi ahamiyati qanday?
2. Erta-doston janrining alohida xususiyatlarini ko`rsating.
3. Jahon adabiyotida ertak-dostonga munosabat masalasi qay darajada?
4. Hamid Olimjonning ertak-dostonlari qanday umummilliy tamoyillarga asoslangan?
5. Dostonlarda shoir novatorligini belgilovchi omillarni izohlang.
6. Ertak-dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati borasida bahs yuriting.
7. “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonining obrazlar tizimini ketma-ketlikda izohlang.
8. Dostonda syujetning qaysi turidan foydalanilgan?
9. “Semurg` yoki Parizod va Bunyod” ertak-dostonida qanday axloqiy mavzularda so`z boradi?

10. Bunyod obrazida o'zbek yigitlariga xos qanday umummilliy xususiyatlar mujassamlashgan?



MIRTEMIR (1910-1978)

O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir 1910-yil 30-mayda Qozog'iston respublikasiga qarashli Turkiston shahrining Iqon qishlog'ida tug'ildi. Uning birinchi she'ri 1926-yilda «Tanburim ovozi» nomi bilan bosilgan. Shoirning «Shu'lalar qo'ynida» nomli birinchi kitobi esa 1928-yilda chop etilgan.

U A.S.Pushkin she'rlarini, Sh.Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon», Abay, Maxtumquli va Berdaq asarlarini hamda qirg'iz xalq eposi «Manas»ni tarjima qilgan. Mirtemirning «Qoraqalpoq daftari» she'rlar turkumi o'zbek she'riyatining 60-yillardagi yutuqlaridandir. Shoirning «Surat» dostoni o'zbek dostonchiligining eng nodir namunalaridan biridir. Shoirning «Men seni...», «Chag'alay», «Qirg'iziston», «Maxtumquli to'yida», «Onaginam», «Qozog'im», «Qaydadir buloq» kabi she'rlari xalqlar do'stligini kuylovchi eng yaxshi asarlardandir.

1979-yilda unga «Tog'day tayanchim» she'riy to'plami uchun Hamza nomidagi Davlat mukofoti berilgan. Shuningdek u Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti (1977) laureati, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sohibi (2002).

Mirtemir 1978-yil 25-yanvarda Toshkentda vafot etgan.

SURAT
(Lirik qissa)

O`limlardan hatlab...
Na oltin, na javohir edim...
Armonli bir yosh shoir edim.
Zuhro bo`lmasang ham chiroyda,
Men ishqingda naq Tohir edim.
Toshlon o`ldi, degan kim axir?
Gulday so`ldi, degan kim axir?
Nahot poymol qutlug` ishq ahdi,
Bol bo`lurmi shunchalar taxir?
Barchinoyday kutganing qani?
Zardobu qon yutganiig qani?
Umr yo`lida to yumguncha ko`z,
Birga-birga ketganing qani?
Gunohim ne? – Jangda bo`lganim,
Qon kechganim, yuz bor o`lganim.
Diydoringni unutmayin,
O`limlardan hatlab kelganim...

Surat, surat!
Och nazarim tushar suratga...

Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Termulaman suratda xatga...
Janglarda yor eding-ku, o, qiz!
Surat, surat! Nega sen tilsiz?..
Ko`zlarimga boqasan qiyg`och,
Kulasanu, ko`zlarimga yosh.
Halqa-halqa, tarqoq sumbul soch,
Zap qiyilgan bir juft qalam qosh
Kulasanu, ko`zlarimga yosh...
Esingdami so`nggi bo`salar,
Senga toqat tilaganlarim,
Yuz ochganda ayoz bir sahar,
Xayr! – deb soching silaganlarim,
Senga toqat tilaganlarim?
Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Seni asrab to`rt yil qo`ynimda...
Topinardim, o`pardim... esiz!
Evoh, qanday zil yuk bo`ynimda,
Seni asrab to`rt yil qo`ynimda...

Ilk bag'ishlovlardan...

I

Oqshom tushar... o`ngu so`lda
Oppoq-oppoq xirmonlar;
Tinmay o`tar katta yo`lda
Xirmon yukli karvonlar.
To`lib ketar ko`kka yulduz...
Kelinlar soch tarashur;
Sen ham horg'in, sochi qunduz,
Senga hordiq yarashur...
Ko`z tashla oqshomning so`lim chog'iga,
Kel sen ham Oysuluv,
Kel sen ham Oysuluv –
Soy qirg'og'iga...
Tun sochidan tutib sho`x yel
Tortar olis tog'larga.
Asta-asta taralur el
Soya-salqin bog'larga...
Quyib o`tdi bemahal sel,
Ko`k charog'on kechqurun;
Qo`shiq yangrar: «Jononim, kel!–
Oydin, yorug' bo`lar tun».
Ko`z tashla oqshomning so`lim chog'iga,
Kel sen ham Oysuluv,
Kel sen ham Oysuluv –
Soy qirg'og'iga...

II

O`xshatma
Sen kelgin tong chog'ida,
Sen kelgin naq tong misol,
Tong balqib yonog'ingda,
Ko`zlarim o`ynata ol!..
Sen kel tush paytida ham,
Daryoda epkin misol;
Sochlarim to`zg'it bir dam,
Dilni ham qo`zg'ata ol!
Sen kelgin oqshom, mayli,
Oqshom qo`shig'i misol;
Go`yo sahnada Layli,
Zavqimni uyg'ota ol!
Sen kelgin oydin tunda,
Albatta kel oy misol;
Quchog'imga afsunday,
To`lin oyday to`la qol...

III

Dilim ranjitsa ham do`qu dag'dag'a,
Bog'imda bu oqshom jonon o`ynasin.
Gulday chiroyidan bo`lay sadag'a,
Ochilib-sochilib, chunon o`ynasin.
Jo`r bo`lsin bulbullar chalgan torimga,
Qo`shiqlar kuylayin vafodoringa,

Suqlanay Oysuluv otli yoringa,
Sho`x ohudan aylab javlon o`ynasin.
Xipcha belga bog'lab yashil rang kamar,
Gullar-chechaklardan taqsin gulchambar,
Tengi kam o`yinchi, tengi kam dilbar,
Tomoshaga kelib, osmon o`ynasin.

Tovusday tovlangin, ey qoshi kamon,
Visol chamanida bo`laylik omon;
Ayriliq g'ussasi o`limdan yomon...
Qolmayin zarracha armon o`ynasin.

IV

Qo`shiqlar to`qisam – no`noq bo`lmasa,
Sendan o`zga dilga qo`noq bo`lmasa!
Kuylasam tunu kun suluvlaringni,
Kuylash mumkinmi dil qaynoq bo`lmasa?
Ko`nglim o`ksinadi, ko`nglim sinadi
Ko`nglim bilan ko`ngling inoq bo`lmasa!
Ko`nglim o`ksinadi uchrashganimda
Oysuluvjon sho`xu quvnoq bo`lmasa!

Sening har maqoming...
Yana tolpinishing ko`rdim sahnada...
Sening har maqoming – nechog'liq tanish!
U kez uchratardim seni panada,
Dilda yonish bordi, yonish va yonish.

Keyin, toqatlar – toq, kutardik visol,
Keyin manguликka berishdik va`da.
Keyin, quchog'imga to`lding baxt misol –
Innaykin... innaykin... men bo`ldim dada.

Innaykin, ayriliq jafu toshini
Bizning peshonaga urdi ayovsiz.
Innaykin, yiroqda qalam qoshlimni –
Sog'indim, sog'indim, sog'indim... Esiz!

Esiz, ayoq tunlar, uyqusiz tunlar!..
Jang va burch... Yor hajri... Qatma-qat jafu.
Nahot, men seni deb bo`ldim tutunlar?
Nahot, shundoq dilbar beburd, bevafo?

Yana tolpinishing ko`rdim sahnada...
Sening har maqoming menga oshino.
Hozir men ko`rmasam seni panada,
Shukurlar qilaman ming marta, inon!

Ikki dard
Tushlarimda duch kelganda ham
Sho`xlingni aslo qo`ymaysan.

Dam qah-qahu, dam ko`zingda nam,
Bu kulfatdan nechun to`ymaysan!
Ham nafratim, ham ayanchim bor,
Yurak – ikki dardga muhtalo.
G'amzalar... oh bekor-ku, bekor...
Qayta og'ir bo`ldi bu balo!
(Ko`rmay desam, ko`zim ko`r emas,
Yurmay desam, oyog'im butun.
Ammo yurak ortiq jo`r emas,
Xayollarda bo`laman tutun.
Tug'ilmagan bo`lsaydim, koshki,
Bo`lur eding baxtli, ehtimol.
Ering bilan, mayli, yarashki,
Ering axir... Uvol-ku, uvol!

Xat...

Xating, jonon, obdan beta'sir,
Uzilgan ip nechuk bog'lanur?
O`zing axir, saqlayapsan sir,
O`z aybingdan qalbing dog'lanur.
Muncha uzun, muncha ohu voh,
Pushaymonga qoldimi o`rin
Agar senda bo`lmasa gunoh,
Bildirmading nega sal burun?
Bazmlarning guli bo`lganing –
Yolg'on bo`lsa, boq-chi ko`zimga.
Maqtovlarning quli bo`lganing –
Yolg'on bo`lsa ayt-chi o`zimga!
Qani ular? Soxta muhabbat?..
Nega fahming yetmaydi avval?
Sog'inishga qoldimmi faqat?
Dunyo ishi shundoq... Galma-gal...

Taqillatsam...

Kichik uyda o`chmagan chiroq,
Bilamanki, sen hali uyg'oq,
Parishonsan, xayollar tarqoq,
Tun yarimdan ancha o`tgan choq,
Bilamanki, sen hali uyg'oq.
Bilamanki, o`qiysan kitob,
She'rim seni etadi kabob.
Oh chekasan, bitar toqat-tob,
Bilamanki, yod bo`lgan bir bob,
She'rim seni etadi kabob.
Yuragingda uyg'onur u soz,
Taqillatsam berasan ovoz,
Xayolingda qishing bo`lur yoz,
Ammo, qaytib ketaman... Ayoz...
Taqillatsam, berasan ovoz.
Bilamanki, chiqmas ko`nglingdan,
Ne yomonlik ko`rding sen mendan?
Shu vajdanki har kun singlimdan –

So`roqlaysan ahvolimni san...
Ne yomonlik ko`rding sen mendan?..

Bugun yo`lda...

Bugun yo`lda duch kelganingda,
Nega birdan to`xtading, jonon?
Ering kelar edi yoningda,
Sal qoldiki chaqirsang: «Toshlon!»
Men panaga oldim o`zimni,
Sen yo`lingga tushding haytovur.
Ko`rmaganga soldim o`zimni,
Janjal bo`lur albatta bir qur.
Sho`rlik Toshlon, bechora Toshlon!
G'amdiyda, hey ko`zlarim, yoshlan!..

Amon!..

Xuddi shunday erta bahorda
Uchrashgandik ikkov kechqurun.
Ayrilgandik erta saharda,
Hali issiq ko`rinur o`rin...
Hamon o`sha chinor – yam-yashil,
Daryo bo`yi – zumrad soyabon...
Bezovta bo`ldi-ku andak dil,
Amon, xayol! Amon, al-amon!..

Bolajon

Ey... Ko`zlaring muncha ham qiyiq,
Muncha qiyiq, muncha betiyiq,
Kipriklaring muncha ham quyuuq,
O`g'limga o`xshaysan, bolajon!
Bilmas hatto yaqin hamxonang,
Ocharmidi yuragin onang?
Men-chi... Men-chi... Men-chi,
begonang...
O`g'limga o`xshaysan, bolajon!

Haftada, oyda...

Amaki de, xafa bo`lmayman,
Ota dema, yuz berur balo.
Haftada kel, mayli, o`lmayman.
Fahm etarsan axir bir yo`la.
Haftada kel, mayli, oyda kel,
Amaki de, aka de, mayli...
Ammo qolmay albat mayda kel,
Uzoqmas-ku, hozir Kegayli!..

Ertak...

... Qissamizni yoyma olamga,
Yuragimiz bo`lsin jim makon.
Ertak kabi so`yla bolamga,
Ma'lum bo`lsin unga bu doston...
Muhabbatning gavhar donasin –

O`g`irlatgan tentaklar, desin.
Har kun, har kun qistab onasin:
– Ertak, ertak, ertaklar!– desin!

Barini unut!
Yana bahor, shovillar anhor,
Boshlaringda nega yo`q chambar?
Yana bog`da kezasan tanho,
To`lib-to`lib yig`laysan magar.
Boshlaringda nega yo`q chambar?
Gul yuzingda g`am ko`lankasi,
So`zladingmi suvga tushingni?
Adashganlik bo`ldi hammasi,
Yaltiroq rang oldi hushingni?
So`zladingmi suvga tushingni?
Nega ko`zing bezovta, betinch,
Boqishlaring bu qadar mungli?
Barin unut, pushaymoning kech,
Og`rimasin yangi yor ko`ngli...
Boqishlaring bu qadar mungli?
Balki, esga tushdi may tuni,
Tabiatning to`lin oy tuni,
Muhabbatga joyli-joy tuni,
Vafolarga mo`l va boy tuni.
Tabiatning to`lin oy tuni...
Balki esda u ilk muhabbat,
Muhabbatga qanot bo`lgan xat?
Marmar toshga o`yilgan kabi,
Ko`z oldingdan ketmas u fursat
Muhabbatga qanot bo`lgan xat...

Yor deguncha...
Oylar, yillar qiynadi jafong,
Jon ayading, bo`lmadi vafong.
Yor deguncha, do`st ataguncha,
Desang yaxshi: «Aylansin onang...»
Opa deymen, yor atamayman;
Hayhot!.. Opa, ayaga boyman,
Murdor ekan yurak naqadar,
Ba`zan tanho achchiq yig`layman.

Dilda qoldi...
Qaydan chiqdi bu balo surat,
Balolarga muhtalo surat,
Xotirimga tushdi yigitlik,

Kayfim oldi ajdaho surat...
Dudoqlari yarqiroq la`li,
Pari desam yarashur, bali.
Shahlo ko`zlar, qasdi jon ko`zlar,
Yonarmisan shu xilda hali?
So`ldi butun ishqim bog`lari,
Yigitlikning bahor chog`lari.
Sen yonasan, men o`rtanaman,
Dilda qoldi hijron dog`lari...

Sen dildorsan unga noiloj,
Suyuk yorsan unga noiloj...
Ikki yillik shirin umrdan –
Qoldikmi shu kunga noiloj?

Faqat!
Nega ko`nglim, bo`lding betoqat?
Tinchlan, dedim senga necha qat.
So`narmidi g`ussa otashi –
Yozgan bilan menga ba`zan xat?
U – yoshlikni sog`inar faqat,
Esdaliklar jon qiynar faqat.
Yoshlikdagi muhabbat o`chmas,
Ajal kelsa, u tinar faqat...

Yana surat...
Siynang toza oq marmar kabi,
Marmar emas, yumshoq par kabi.
Marmar sovuq ammo bu siyna –
Do`zax kabi, yo`q, battar kabi...
Siynang shundoq... Yuraging-chi, tosh
Ko`zlaring-chi, beayov – bebosh.
Shahlo emish... Shahlo nimasi?
Oh, u ko`zlar bir parcha quyosh.
Tasviringga no`noqman, nochor...
Menga qoldi surat yodgor...
O`xshashingni topolmayman hech,
Bu malohat faqat senda bor.
Hammasidan – kulishing yaxshi.
Dilkash, munis turishing yaxshi.
Ko`kragimga boshingni qo`yib,
Taslim bo`lib turishing yaxshi.

1956-1957 yillar, Qoraqalpog`iston

SUV QIZI (Ertak-doston)

Yulduzlar-la charog`on kecha...
O`rmonlarga boqar o`roq oy,
Yo`llaringga boqdim, erkatoy,

Sen kechikding vaʼdaga picha.
Sen kechikding toqat toq bo`ldi,
Asta bordim buloq boshiga,

Quloq soldim qushlar tovshiga,
Sen kechikding, tonggi choq bo`ldi.
Oyoq qo`ydim qirg`oq toshiga,
Sen kelmading payt adoq bo`ldi,
Mashriq rangi sekin oq bo`ldi,
Salom berdim tong naqqoshiga.

Mana kelding yonimga bu kech,
So`ylab berding qayg`uli qissa;
Men qissangdan olayin hissa,
Lekin sirday saqlay olmam hech.

Men bu hazin kuyingni, dilbar,
Bitta-bitta olay qalamga,
Bitta-bitta yoyay olamga;
Nasllarga qolsin bu xabar.

Kuyula suluv! Sochlari qora....
Bu – o`tmishdan qonli bir yaproq,
Ne balolar ko`rdi bu tuproq,
Kuyula erkam, so`yla oshkora!

.....
Qadim choqda, dengiz bo`yida,
Qafasida – g`arib uyida
Ertadan kech unnab, ter to`kib,
Yuz enkayib, belini bukib,
Hayot ko`rgan ekan bitta chol,
Daraxt tikib taqir toshloqqa,
Chekar ekan zahmat yakka hol,
Uyi uzoq ekan qishloqqa.
Ammo uning parvarishidan
Kamoliga yetkargan daraxt.
Qiyog`ning qirra toshidan
Tortib olar ekan bu chol baxt.
Sharbat oqar ekan bog`idan,
Mo`l bo`larkan olmayu anor.
Ter to`karkan bahor chog`idan,
Kanda qilmay to yoqquncha qor.

Bo`lar ekan cholning bir qizi,
Shamshod uning bo`yiga xushtor.
Labi pista, yuzi qirmizi,
Dastor olma kabi zab naqshdor.
Sochlariga ilhaq majnuntol.
Qo`shig`iga bulbullar xumor.
Ko`zi shaxlo va tillari bol,
Tengsiz ekan oy kabi diydor.
Yuzidagi naqshini olma
Otgan ekan gul yonog`idan,
Qayrilma qosh, bellari tolma,-
Elga doston go`dak chog`idan.

Cholning yakka yupanchi ekan,
Nuridiyda ekan Orzi qiz.
Ko`rgan ko`zning quvonchi ekan,
Ko`rgan yigit qolmas sevgisiz.
Ovozasi taralgan ekan,
Hatto Ko`hi Qofning tog`idan –
Necha marta so`ralgan ekan,
Sovchi kelib devlar shohidan.
Bir ko`rgali kelishar ekan
Dengizning ham nargi yog`idan.
Bir ko`rmoqqa tirishar ekan
Bo`yin cho`zib har kim bog`idan.

Qiz har kuni subhidam chog`i
Suv olgali tog`dan tusharkan.
Qiyog` toshda – o`shna bulog`i
Ulfat ekan, sho`x uchrasharkan,
Uzoq qolib chashma boshida
Ko`z tashlarkan dengizga tomon.
Qushlar sayrar ekan boshida,
Dengiz usti quyuq bir tuman.
Tuman yorib kelarkan kema,
Kim biladi allaqaylardan,
Kim biladi, axtarar nima,
Sarson bo`lib uzoq joylarda....
Kim biladi, Orzi qiz nega
Buncha suyar dengiz bo`yini,
Balki buloq sirdosh dardida,
Nima ekan bo`lgan o`yini?
Nega tikar suvga ko`zini,
Kimni kutar buncha intizor,
Ko`rmoqchimi suvda yuzini.
Yuzi kundan chiroyli hazor.
Yo chashmaning barqut bo`ylari
Ilk sevgining uyg`ongan yeri,
Shunga o`la uzoq o`ylari,
Shumi uzoq qolmoqning siri!
Xuddi o`zi, ana dilrabo
Kulgi o`ynar qora xolida.
Sochlaridan o`pganda sabo
Yori o`tar gul xayolidan....

Tanti yigit, o`ktam chavandoz,
Axir unga shunda duch kelmish.
Va`da bergan, bo`sa olgan boz,
Ilk sevgisi dilga xush kelmish.
Avval bahor tong choqlarida,
Suv bo`yida shunga xayol band.
Tabiatning gul bog`larida
Yigit ishq tashlamish kamand.
Ko`zi tushar kelgan kemaga,

Ko`zi tushar dengizga harchand;
Ammo xayol band vahimaga,
Ko`ngli dildor ko`ngliga payvand.
Balki uning sevgan otasi
Bermoqchidir sevmas yigitga.
Vayron bo`lib yoshlik safosi.
Kelin bo`lib tushmoqchi chetga.
Yo`q, ota ham endi unagan,
Onasi ham rozi o`shanga.
Sovchilar ham kelib tunagan,
Qalin moli – o`n qo`y, yuz tanga.

.....
U otadan tushmoqchi yiroq,
Qo`shilmoqchi sevgan yoriga,
Yuragiga chang solur firoq,
Ko`z tashlaydi buloq jariga.
Bolaligi, sho`x o`yinlari,
O`tgan umr tushar yodiga.
Ona mehri, ota kuylari
Qolur... Borar kimning oldiga:
U, tag`in shu dengiz bo`yida
Yoshligining ulfati buloq.
Allanelar kezar o`yida,
Xayrlashar go`yo u shu choq:
Xayr, chashma! Men ketar bo`ldim,
Sevgan yorim bu yerdan yiroq.
Sevgan yorga bolu par bo`ldim,
O`rtamizga tushadi firoq.....
Xayr, dengiz! Xayr, to`qayzor!
Xayr, qushlar! Yaxshi qol, bog`im!
Firoq og`ir ekan va g`addor,
Bolaligim, sho`x qizlik chog`im.....

Qiz uyiga ketmoqchi bo`ldi,
Ammo, ortdan tashlandi changal.
Tipirchilab, so`ng qiz dod soldi,
Yot qo`l uni ko`tardi dangal,
Og`zin bog`lab soldi kemaga,
Kema suzdi dengiz yuzidan.
Kimlar ekan, qiynar nimaga,
Qo`rquvidan ketdi o`zidan.
Ko`z yoshi-la onasi qoldi,
Ko`z yoshi-la keksa chol qoldi.
G`arib, o`ksiz xonasi qoldi,
Bog`cha qoldi, suyuq tol qoldi.
Murodiga yeta olmayin,
Yigit qoldi, sevgan yor qoldi.
Dildagini ayta olmayin,
Chashma bo`yi zoruzor qoldi...

Shu dengizning narigi yog`ida

Bo`lar ekan berahm sulton.
Gulzorida, haram bog`ida
Kanizaklar, suluvlar chunon...
Ali bobo – berahm, g`addor,
Qanday ko`ngling bo`ldi, begunoh
Qizni sotding sultonga beor,
Darig`, suluv! Foydasiz oh-voh...
Mana, yaqin bir yil o`tdiki,
Qattol sulton asirasi u.
Zulmlarning bormikin cheki,
Qanday sovuq, zo`ravon suyuq?
U sog`inar o`z qishlog`ini,
U sog`inar buloq boshini!
U sog`inar gul toshlog`ini,
U sog`inar tog`u toshini.
U sog`inar dengiz bo`yini,
U sog`inar onajonini!
U sog`inar bulbul kuyini,
U sog`inar yegan nonini...
U sog`inar chol otasini,
U sog`inar sevgan yorini.
U sog`inar tollar ostini,
Kimga aytar o`ksik zorini?

Ko`p o`tmayin oy, kuni to`lib,
Bir qiz tug`di qrim suluvsi.
Ammo dili alamnok bo`lib,
Kuz bargiday bo`lmishdi tusi.
Oltin bergan bo`yi barobar
Orzi uchun sulton o`g`riga.
Kecha-kunduz yosh to`kar dilbar,
Bolasini bosib bag`riga.
Bahor bo`ldi, bog`lar gul ochib,
Uzoqlardan qanot qoqdi yel,
U, betoqat qizini quchib,
Yuragini olar dardli sel...
Yiroqlardan uchgan qaldirg`och,
Nima xabar keltirding menga?
Degan kabi boqar sumbul soch, –
Borib aytgin ona yurtimga,
Ko`zing tushsa, magar holimga,
Borib aytgin g`arib onamga,
Borib aytgin sevgilimga,
Uya solgin o`ksiz xonamga...
Borib aytgin yuragi pora,
Baxti qaro, badbaxtdan xabar.
O`zga yurtda sarson, ovora,
Tutqunligim ayt, borsang agar...

To`lib toshdi sabr kosasi,
Qizginani bosdi bag`riga.
Tun yarmidan o`tgan chamasi,

O`zin otdi dengiz qa`riga.
Bechora qiz o`zini otdi
Minoraning qoq tepasidan.
Jimjit ketdi, suvlarga botdi,
Qaytib chiqmay dengiz ostidan.

Kecha oydin, bahor ayyomi,
Qatra-qatra yosh to`kar buloq.
Marmar edi osmon jomi,
Bulutlarning rangi o`ta oq...
Qishloq uxlari, to`qayzor jimjit,
So`qmoq yolda oyoq sharpasi.
Chashma bo`ylab yurardi yigit,
Uzoqlarda oshna kapas...
Chashma bo`ylab yurar u xomush,
Qayg`usi tog`, qalbi sadpora,
Yurak o`ynar, aqli faromush,
Nima izlar ekan ovvora.
Xuddi shunday bahor kunida,
Oy qo`ynida chashma bo`yida,
Erkalatgan yorni qo`ynida,
O`sha xilvat – yigit o`yida...
Nahot, Orzi buni unutar,
Nahot, barbod bo`lar muhabbat.
Nahot, o`zga ishqini tutar,
Va`da bergan ediku qat-qat...
Va`da bergan to`lgunimcha
Seni deyman, senga yorman, deb.
Xuddi shunday oydinda kecha,
O`pgan edi vafodorman, deb,
Qishloq uxlari, to`qayzor jimjit,
Tingan edi qushlarning tovshi.
Chashma bo`ylab yuradi yigit,
Suvdan chiqdi allane boshi.
Tosh bo`ldi-yu, qotdi o`rnida,
Ko`z uzolmay boqdi naridan.
Qizaloq bor edi qo`ynida,
Xabar berar oshna paridan...
Asta qochdi yigit to`qayga,
O`z ko`ziga ishonolmay xit.

Pari chiqdi oshino joyga,
Titroq bosib termular yigit.
Bu – o`sha-ku, sevgili diydor,
Bu – o`sha-ku, yo`qolmish jonon.
Bu – o`sha-ku, nozanin dildor,
Bu – o`sha-ku, aziz Orzidon...

Nega uning qo`ynida bola,
Nega chiqdi dengiz ostidan,
Nega yig`lar nega bu nola,
Ranjishlari kimning dastidan!
Yo umasmi? Suv qizimikan,
Sochlarini yuvgali chiqqan?
Yo Orzimi, shu o`zimikan,
Ayriliqlar bag`rini siqqan?...

Ha bu o`sha, suluv Orzi qiz,
Suvdan chiqdi bahor ayyomi.
Makonidir dengiz, zo`r dengiz,
Tortib turar doimo komi.
Yerni ba`zan sog`inar o`ksiz,
Chiqar shunda chashma bo`yiga.
Yosh to`kadi bechora dilso`z,
Ota-ona tushib o`yiga...

Har yil bahor g`uncha ochganda,
Yangi yaproq yoyganda bog`lar;
Oy va yulduz yorug` sochganda,
Uxlaganda aylana tog`lar,
U chiqarmish, qizi yonida,
Qarshilarmish oshino qirg`oq.
Oydin tunning oppoq qo`ynida
Tikilarmish ko`zlari yiroq...
Jindak sharpa eshitgan zamon
Tashlanarmish qayta dengizga.
Ota-ona, sevgan yor hamon
Ko`z tashlarmish uzoqdan qizga...

1937, Yalta.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mirtemir ijodida yurt obrazi qanday shakllarda gavdalanadi?
2. Shoir she`riyatining asosiy xususiyatlari nimada?
3. Mirtemir dostonlarining umumiy mushtarak jihati nimalarda namoyon bo`ladi?
4. “Surat” lirik asarida qaysi davr voqealari aks etgan?
5. Sizningcha, dostonni yozishga undagan omillar nimalardan iborat?
6. Dostondagi obrazlar tizimi xususida batafsil so`z yuriting.
7. Asarning liriklik xususiyati nimalarda ko`rinadi?
8. “Suv qizi” ertak-dostonining sujet unsurlari borasida so`z yuriting.

9. Mirtemirning ushbu dostonlari qaysi vaznda yozilgan?
 10. Ertak-dostonlarda qaysi she'riy san'atlar ko'p qo'llangan?



USMON NOSIR (1912-1944)

Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. Uning ilk she'rlari maktabda o'qib yurgan vaqtlaridayoq matbuotda ko'rina boshlagan edi. Shoirning "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar" (1932), "Traktorobod" (1934), "Yurak" (1935), "Mehrim" (1936) kabi she'riy to'plamlari, "Norbo'ta" va "Naxshon" dostonlari birin-ketin nashr qilindi. "Norbo'ta" (1932) asarida O'zbekistondagi fuqarolar urushi mavzui, "Naxshon"da qardosh arman xalqi farzandlarining ozodlik uchun intilishlari kuylangan bo'lsa, antik dunyodagi qullar kurashi "Nil va Rim" kabi poetik asarlarida o'z aksini topdi. Uning tarjimasida A.Pushkinning "Boqchasaroy fontani", M.Lermontovning "Demon" ("Iblis") dostonlari o'zbek kitobxonlari qalbiga yetib borgan.

Usmon Nosir qatag'on davrining qurbonlaridan biri sifatida yosh umrini sho'ro lagerlarida azob-uqubatda o'tkazib, 1944-yili vafot etdi.

NAXSHON Bag'ishlov

Bog'larga namozgar Salqini tushdi, Gullar nam bargini Qayirdi asta. Oftob ham suv ichar Tog'lardan pastda, Loladek qip-qizil O't shafaq o'chdi.	Sevgilim, Naxshon, Suv qizi – suvsarim, Kipriklari o`q, Sen kelding, Ko`nglimga suv kabi oqding. Sen kelding, Ruhimda yashash boshlandi, Sevinchdan ko`zlarim Behol yoshlandi. Sen kelding, She`rimga chechaklar taqding.	Senga deb falak? Arzirdi Falakni etsam hadya, Afsus... Fazo hali menga qul emas, Mayli... borimni Aylay armug'on Garchi u, Ajoyib, asl gul emas, Naxshon, ey, yoshligim Sevgilim ma, ol! Ishqimning eng oliy Tuhfasi– she`rim. O`qi! Lablaringdan to`yib emgani, She`rimga berkindi Ataylab mehrim. * * * Shoti bo`lib Ko`kka chirmashgan nola. Shunday poyadorki, Ko`rinmas tagi...
Ko`z tutdim, Ko`zlarim nigoron bo`ldi, O, Dilbar, Simbarim, yuzlari qirmiz, Kiprigi ko`ksiga Soya solgan qiz, Ko`z tutdim, Yuragim to`la qon bo`ldi.	Sen kelding, Va`damga vafodor malak, Oppoq qo`lingnimi, Siypalab o`pay? Qora sochingnimi, Siypalab o`ray? Va`da etayinmi,	
Shabboda bolalarday Gulzor uzra sho`x, Oy fanorini Yoqdi – qiz oqshom, Yasha!.. Sen kelding		

Tog' boshida kunning
Qonli etagi,
Yig'lar o'ngirlarda
Mungli shalola.

Kech kirgan.
Changlarni ko'kka
ko'tarib,
Poda ketdi.
Tindi cho'ponning nayi.
(Bilmam, nechanchi yil,
Bilmam qaysi kun.
Faqat esda qolgan
Achchiq bir biyi!)

Yakka, salqini yo'q
Niholi tolcha
Yomg'ir tomchilarga
Jom qilib bargin,
Istamasdan shu ham
Umrning tarkin,
Yashash uchun urnab
Ovora edi;
Zangizo'r⁶⁵ga

Marjon yoshim to'kildi,
(Zor ekanmi daryo
Mening yoshimga?)
Yuragimni tutgan
Choki so'kildi.
Qora kunlar tushdi
Sag'ir boshimga:
Otam ketgan,
O'chgan hayotim shami,
Hali silqigan yo'q
Go'rnig kesagi,
Bu ham ketdi.
Ketdi dilim daldasi!
Mehribonim onam...
Jonginam onam...

* * *

Naylay,
Kiprigimning nozik uchida
Qayg'ularning nami –
Simob donalar?
Naylay,
Qalbim uzra
Qon emar Nishtar?
Naylay,

⁶⁵Yerevanda bir daryo

Yuragimda
Dard-ardonalalar?
Suv betida oqqan
Hay sap-sariq barg
To'xta, xayolimni
Olib qochmay tur.
Men ham ro'molimni
Tashlay azaga.
Men ham
Suvga shimg'iy,
So'ngra birga yur!

Oqsam, zora qalbim
Kuymasa deyman...
Dardim oshmasaydi
Men kelarmidim,
Alam halqumimdan
Tutmasa yig'lab,
Yuragimni hasrat
Nayzasi tig'lab,
Senga kelib,
Ey, barg,
Roz aytarmidim?
Suzilgisi kelar,
Ko'zlarimni-yu...
Naylay,
Ko'z yoshiga
Hamroh bo'ldi u?
Mehribonim onam...
Jonginam onam...

Muncha qattiq ekan
Qora yer sabil,
Kiray desam bo'lmas,
Osmon ham baland,
Uchay desam bo'lmas,
Qay yerda iloj?
* * *

«Xufton. Qora bulut
Yashirgan oyni,
Bulut soyasini
Oqizardi soy...
Tentib shamol kabi
Gadodek bejoy,
Sarsonlikning
Siyoh yo'lga kirdim.

Har ertaning
Yengil sabo yellari,
Har oftobning
To'ng'ich birinchi tig'i
Meni, bechoraki

Topdi bewatan.
Yoki qayg'u bo'yi,
Yoki zor yig'i...
Kunlar – hasrat makon.
Dard. Alam. Kadar.
O'zligimni o'zim bilmay
Tilda «Oh...»
Bosh urgani topmay
Rahmdil panoh,
Umr toychog'ini
Ko'rdim samandar!
Yig'lab tog'lar o'tdim,
Haybati yuksak.
Yig'lab bog'lar o'tdim,
Barglar sap-sariq.
Yig'lab kunlar o'tdim,
Tunlarni o'tdim,
Ilinmadi sira
Ko'zimga yorug'!

Haybatiga o'zi
Cho'milgan Masis⁶⁶
Mastlar kabi hushsiz,
Ohimni sezmay,
Demadi-ya xasis,
Ey, Masis – xasis,
«Kelgin, gadoyvachcha
Qo'ynimga olay!»

* * *

Bir kun.
Yomg'irli tun.
Qop-qora zulmat.
Chuchvaradek qaynar
Ko'chalarda suv.
Baxmal kabi qora,
Ko'rinmas osmon.
Butun yorug' jahon –
Dardli bir qayg'u.

Shahar chekkasida
Men bilan ochlik
Hamdam bo'lib yurdi,
Ko'zim qoraydi.
Go'yo avvallari
Shunchalar cheksiz...
Cheksiz bo'lgan olam
Endi toraydn.

O'ching bormi yana
Vafosiz falak?

⁶⁶Yerevanda

Jafolaring qursin,
Yuragim to`ldi.
Bir parcha dil bo`lsa,
Kuyib kul bo`ldi.
O`lar bo`lsam, o`ldim.
Etma ko`p halak!

Tun qorong`u! Zulmat?
Hol quridi. Uh...
Ochlik yengvordi.
Sovuqlik sezdim,
Etim «juv» etdi-yu,
Ko`zim berkildi.
Holsiz qo`lim bilan
Boshimni tutdim:
Peshonamdan ajab
Sovuq ter keldi,
Boshginamga qildim
Bir toshni bolish.
Sal o`tmassdan yurdi
Shabada g`ir-g`ir.
Qulog`imgaingan
Bir tomchi yomg`ir
Go`yo men faqirga
Aylardi nolish...
* * *

Shundan keyin,
Keyin, bilmayman sira,
Yoki azon edi,
Yoki yarim tun.
Tepamda bir qora
Soyani sezdim.
«Qizim, yotma,– dedi,–
Uyg`on, bolam, tur!»
Biron odam menga
Rahmi kelmagan,
Yumshoq gapni azal
Eshitmagandan,
Chidolmadim aslo,
Yig`lab yubordim,
Bu odamning '
Muncha g`amxo`rligidan...
Yelkasidean
Shartta kir tujurkani
Olib, boshim bilan
Birga o`radi.
«Qo`rqma, qizim,– dedi,–
Qo`rqma, oppog`im!»
Ketik.
Yo`l-yo`lakay
Hech na so`rmadi.

Biz yurdigu
Havo ochilib ketdi.
Yulduz marvaridlar
Sochilib ketdi...
* * *
Osmon shodligimday
Toza va baland,
Havo muzdek salqin.
Yengil yel turdi.
Barglar ko`nglim kabi
Qaltirar tinmay,
Xavfim xayolimni
Qo`rqitib so`rdi:

«Kim u o`zi?
Meni eltar qaerga?
Yana kulfatlarga
Oshna etarmi?
Sochlarimni
Yelday to`zdirib qo`yib,
Oylar kabi yoshlik
Tashlab ketarmi?»
Odam indamaydi,
Tunday jim borar.
Uzoqlarni quvlar
Sirli ko`zlarim.
Aytay desam, qo`rqdim,
Churq etolmadim.
Til tagida qoldi
Aytar so`zlarim.
* * *

Fonar yonar edi.
Jivillagan nur
Ko`cha betkayida
Jimib yotardi.
Tunning qora sochli
Lo`lisi sekin
Araratdan o`tib
Pastga botardi.
«Kirgin,– dedi,– qizim,
Qo`rqma, kiraver!»
Oyoqlarim sira tortmasalar
ham
Kirdim, «Ko`chalardan
Qoch endi qo`zim!»
Degan fikr bo`ldi
Menga zo`r hamdam.
* * *
Oddiy bir uy,
Xira jinchiroq porlar.
Tishda tunning daydi
Shamoli sarson.

«Qizim, tap tortmagin,
O`tir, o`z uying,
Qorning ochdir,– dedi,–
Mana jindek non!»

Ey, boshimni silab,
Qizim, degan, hey,
Ko`zlarimdan o`qi,
Dardim ko`p mening!
Qo`ygin qayg`ularni
O`zim chekayin,
Bundan bag`i
Jafo ulushim – mening
Degim keldi.
Ammo tilim bormadi,
Yurakkinam
Go`yo qo`rqib oqardi...
Mening xavfim bilan
O`chakishganday
Sirli ko`zlar menga
Oy!.. Tik boqardi.
* * *

Damlar soqov kabi
Mung`ayib o`tar...
Birdan:– «Qizim,– dedi,
Oppog`im, so`zla.
Nechun, nechun bo`ldi
Umring sargardon?
Nechun, nechun so`ndi
Qop-qora ko`zlar?»

Ko`zlarimdan tomgan
Tomchilar unga
Umrim ertaginn
Aytib berdilar.
.....

Yana jimib ketdi.
Uning qarashi...
Xayollarim yana
Qo`rqib derdilar:
«Kim bu o`zi?
Nega shunday kechasi
Bu uy mizg`imagan,
Rohati yo`q hech?»
.....

«Qizim, charchagansan,
Tolgansan, erkam.
Orom olgin... uxla,
O`zi ham ja kech!»
* * *
O`quvchi!

Sen mening
 Qadron do`stim,
 Sening ishqing borki!
 Zahmat chekaman.
 Shirin uyqularning
 Bahridan o`tib,
 Uzun kechalari
 She`rlar bitaman.
 Bu kun yana keldi
 Chiroyli qiz – tun,
 Hol-jonimga qo`ymay
 Kirdi uyimga,
 Ro`paramga asta
 O`tirdi yana.
 Teran ko`zi bilan
 Singdi o`yimga.
 Yana ilhom qalbni
 Ignalab tildi.
 Yuragimning
 Choki so`kildi yana,
 Yana ilhom qalbdan
 Qon emar so`rib,
 Qon tomchisi she`rim
 To`kildi yana.
 Yana «Naxshon» uchun
 Sevgili she`rim.
 Hikoyasi uning
 Avj olsin tezroq,
 Lekin shu yergaki,
 Yetdim bitiklab
 Uzurim bor sendan
 O`quvchim, jindak:
 Orzum bor bitmak
 Bir dasta doston.
 (O`lmasam men uni
 Roslab beraman!
 Hali bu bitiklar
 Bir havas, xolos.
 Hali havas bilan
 Gullar teraman.
 Balki bu guldasta
 Rang-barang bo`lmas,
 Balki raso bo`lmas
 boylami...
 Sal bo`sh.
 Balki bahosi dam
 Ko`p bo`lmas hali.
 Balki... Ammo sen ham
 Bilganingni qo`sh!..

 Xuddi shu yerida,
 Mening bilgimcha,

Naxshon, garchi bunday
 Muruvvat ko`rdi;
 Garchi, mehribonlik
 Qildi u odam,
 Garchi, ahvolini
 Achinib so`rdi,
 Yosh bola-ku, axir,
 Qo`rqishi kerak:
 «Ko`kragimda xuddi
 O`lim o`rmalar».
 «Xayolimda katta
 Bir dev xo`mrayar»,
 Deya, yana ortiq
 Qo`rqishi kerak.
 Chunki u sirli ko`z
 Ko`llarday sokin.
 Allanarsalarni
 O`ylaydi tinmay,
 Naxshon qiynaladi
 Ko`zi ilinmay...
 Qanday qilib, axir,
 Tinchiy oladi?
 Naxshon axir hali
 Bilmaydi uni,
 Qanday mizg`iy olar
 Ko`zlari suzgun,
 Shunday uyda...
 Shunday, ayniqsa tuni?..
 Buni men bu yerda
 Yozib turmayman,
 Chunki qahramonim:
 «Tezroq bo`l!»– deydi.
 «Tezroq bo`lgin, Usmon,
 Tezroq bitirgin,
 Yig`lab o`lib bo`ldim,
 Sevinay»,– deydi.

 Mayli! Men ham qo`ydim,
 Faraz qil sen ham.
 Dostonimda albat
 Bular but bo`lar,
 So`ngra sening ishqing,
 Toza, pok mehring,
 Suvdek suqing bilan
 Shuhratim to`lar!
 * * *
 Xayollarim chigal...
 Ko`zim yumulgan.
 Shirin uyqu andak
 Mizg`itgan ekan,
 Ko`kragimga jindak
 Shabada tegdi.

Cho`chib turdim,
 Uyga bir xotin kirdi:
 Sil bashara,
 Ko`zi olchadek qora.
 Ustida bor edi
 Bamaziy ko`ylak.
 Bir qaradi menga,
 Qalbm titradi.
 G`ijjak bilan chalgan
 Mungli bir kuydek
 Titroq ovoz bilan
 Shivirlab asta
 Darrov uy to`riga
 Borib, odamga
 Allanarsalarni
 So`zladi tez-tez...

 So`ngra nafas oldi,
 So`ngra tinchidi.
 Menga yana boqdi,
 Men yana qo`rqdim.
 Yaqin kelib menga
 Kulib birpasda:
 «Xush kelibsan, singlim,
 O`ksima, oposh!»–
 Dedi. Boshlarimni
 Siladi yovvosh.

 Ko`zlarimga tushdi
 Xasta nigohi.
 «O`ksik ekanimni
 Kim aytdi senga?
 Kimsan?
 Qanday bilding?
 Qanday bilasan?
 Nega mehribonlik
 Aylaysan menga?»
 Degan bo`lib men ham
 Ko`zni olmadim.
 Sirli ko`zga boqdi.
 U juvon ham tez,
 Va u odam dedi:
 «Xotanim Maro,
 Bu ham g`arib...
 Qizim, tortinma hargiz!»

 O`zimda yo`q kabi
 Ochoqlab ketdim.
 Namxush kipriklarim
 Yana ship-shilta...
 Yana tomchi tomdi.
 Yana ko`z yoshi.

Sevinch yoshi bilan
To`ldi dil shunda.
Endi sabo meni
Izlab topolmas,
Ehtimolki, oftob
Meni axtarar.
O`ngirlarga borar,
Tog`larni qarar,
Tepalarda tentib
Bog`larga borar...

Shodligimdan uyqu
Qochdi bir go`rga.
O`yim uzun...
Ko`zim yondi charaqlab.
Endi chiqmayman men,
Sabo yellari,
Yig`lab ko`chalarga,
Baxtim so`roqlab!
* * *

Sirli ko`zim uxlar,
Alla qil, otam!
Shirin tushlar ko`rgin,
Alla qil, Maro,
Meni ko`rgin, meni...
Sayr etgan bo`lay
Yuzlarimda shodlik,
Chamanlar aro.
Eh, uyqusiz tunning
Cho`ziq o`ylari,

Eh, o`ylarim –
Qanot yozgan kaptarlar,
Eh, kaptarlar – yumshoq,
Momiq oq parlar,
Eh, oq parlar,
Uching samo bo`ylari,
Uching o`ksik dilni
Birpas allalang!
Birpas o`ksik dilni
Somon yo`llarida
Qiyqirib uching.
Ovuntiring,
Ado bo`lgan ko`ngilni.
Uching! Uching! Uching!
Oq parlar, uching!
* * *

Shunday xayol bilan
Uxlab ketibman.
Tush aralash menga
Sezildi sharpa,
Boqsam: xom sut kabi

Ko`kimtir sahar.
Maro o`z-o`zidan
Munqlanar satta...
Sekin bosh ko`tardim
Maro iljaydi:
Ha, oppog`im, singlim,
O`rgilsin opang?
Hali erta, uxla,
Uxlaylik ikkov!
Zavodiga ishga
Jo`nadi otang» –
Dedi. Joni bilan
Rosa esnadi.
Peshonamni silab
Yonimga yotdi,
Men ham esnadim,
Ko`zlarimni yumdim,
Uyqu, kel beri!
* * *

Barglarda oqardi
Yoqut tomchilar,
Bulut chodir tikdi
Kahrabo erta.
Maro sochlariga
Qildek ingichka
Tig`i oftob indi
Jivillab erka...
Nafaslarim shuncha
Ichdan keladi.
Butun havolarni
Yutgudek bo`lib.
Oyna orqasidan
Osmon boqadi,
Zangor tozalikka
Ko`ksi zich bo`lib...

Maro jonim, turgin,
Turgin, aylanay!
Oftob yozdi
Oltin kokillarini,
Eh, qandayin dilbar
Bo`ldi bu erta,
Qara. Zangizo`rning
Sohillarini.
Qara, bulutlarniig
Xil-xilasini,
Yashil o`rmonlarning
Salqinini ko`r.
Turgin, Maro jonim,
Turgin, o`rgilay,
Yelni taroq qilib,
Sochlaringni o`r?!

Girgittoning bo`lay,
Tabiat pari,
Maysalaring gilam,
Ko`king soyabon.
Go`zalliging sening
Ajab bepoyon,–
Poy izimdan tortib
Ufqdan nari!..

Seni endi bildim,
Senga qaradim.
Nafaslarim – yel,
Ko`kragim – osmon.
Seni – yetimlikning
Ochiq vatani.
O`lim oldida ham
Hech unutmaman!
* * *

Kichik kulbachani
Aylab tark shartta,
Maro bilan
Qo`shni bog`larga chiqdik.
Satanglardek qaddi
Kekkaygan olma,
Maro bilan birga
Biz uni egdik.

Maro dedi:
«Singlim,
Qaysi yoqdansan?»
Dedim: «Osmon» degan
Kapa tagidan.
Dedi: «Sarkis menga
Aytdi «etim» deb».
Dedim: «Azob chekdim,
Yuragimni yeb».
Dedi: «Otang o`lgan,
Onang ham o`lgan?»
Dedim: «Qarindoshim
Yo`q o`zga mendan!»
Dedi: «Ko`zlaringdan
Aylanay qo`zim,
Men ham g`arib, singlim,
Ko`nglim yarimta».
(Umrin ertagini
So`yladi butun.)
Yana ko`nglim oqdi,
Ko`ksim ship-shilta.
* * *

Maro bilan rosa
To`lib dardlashdik.

Yuragimni endi
 Bo`shatdim men ham.
 «Umr shuncha qimmat,
 Shuncha ozgina,
 Shuncha qisqa damu,
 Nega dardu g'am?»
 Dedim: «Sahardagi
 Bulbul ohidek
 Umr qayoqlarga
 Borar noma'lum».
 Dedi: «Sarkis dedi:
 Jangga chiqamiz
 Yoki yorug' jahon,
 Va yoki o`lim!»
 «Rostdan, Naxshon uka,
 Tokay, bu xo`rlilik?
 Tokay, boshimizda
 Badnoma ko`lka?
 Qo`yki, ozod bo`lsin
 Ohudek yayrab.
 Osmon kabi toza
 Bo`lsin bu o`lka!
 Jangga chiqasanmi,
 Qo`lingdan tutsam?
 Naxshon, oppoq singlim,
 Choparmi ko`ngling?
 (O`z-o`zidan ortiq
 Qaltirab ketdi.)
 Ushla qo`llarimni,
 Ber, uka, qo`ling!»
 Yuragimga botdi.
 Maro so`zlari.
 * * *
 Hargiz ajab o`nlar
 Ko`z ochib ketdi,
 Bir nuqtada tindi
 Nigoh kun bo`yi...
 Endi chinakamdan
 O`y bosib ketdi...
 Benihoyat yurak
 Tepkisi oshar,
 Ichdan lavalardek
 Olov yonadi.
 Ararati buncha
 Kibor boqadi,
 Hayot buyukligi
 Undami yashar?
 * * *
 Bilmay qoldim,
 Kunning botganini ham,
 Kaptar qoni kabi
 Shafaq nim qizil...

Hamon yuragimda Maro
 so`zlari,
 Ko`ksim tosh bosganday,
 Rosa vazmin – zil...
 «Maro, Sarkis muncha
 Kech qoldi ekan?»
 «Kelib qolar, Naxshon,
 Shoshma, halzamon».
 Kuta-kuta uni
 Ko`zlar to`rt bo`ldi,
 Kuta-kuta uni
 Yurak bo`ldi qon.

 Oy ham chiqdi,
 Oyday Sarkis ham keldi.
 Ko`nglim tilsim edi,
 Bo`ldi charog'on.
 Peshonamni silab
 Bag'riga bosdi,
 «Mehr» degan shunday
 Kuchlimi rostdan?
 Dedi: «Yaxshimisan,
 G'aribim, qizim?»
 Dedim:
 «Rahmat ota».
 (Ichim shuv etdi.)
 Endi ko`kraginga
 Shabada tegdi,
 Ko`nglim o`ksib ketdi
 Yana beizim...
 Kiprigimdan bosdi
 Xayol vazmini,
 O`tgan kunlarimni
 Esimga oldim.
 O`ylarimni yana
 Azaga soldim,
 So`ramasdan sira,
 Erkim izmini.

 Maro dedi:
 «Naxshon, yana xayolim?»
 Yana orziqarmi
 Yurakchang sening?»
 Sarkis ichar ekan
 Obi yovg'onna
 Shunda ko`zlarimga
 Boqdi-da, mening,
 Avzoyimni buzmay,
 Sekin, salmoqli
 Ohang bilan dedi:
 «Qizginam, Naxshon,
 O`tkanlarga qayg'u

Chekma, oppog'im.
 Chaman-chaman bog'lar
 Olddadir, boqsang!»
 * * *
 (Shetda birpas to`xta,
 Og'ir bo`l, shoir,
 Senga ularni men
 Tanishtirayin.
 Oshna bo`lsin Sarkis
 Va dilbar Maro.
 So`ngra hikoyamni
 Davom etayin.)
 «Sarkis, o`sha meni
 Yomg'irli tunda,
 «Turgin, oppoq qizim,
 Yur» degan kishi
 Qirq beshlarga borgan.
 Manglayi tirish.
 Mehnat ko`chasida
 Duv tushgan tishi.
 Uzoq o`tmishda –
 Yakka podachi.
 Qayg'u naylariga
 Jo`r bo`lib o`sgan.
 Qochay desa
 Umr azobin tashlab,
 Yo`llarini zulm
 Tog'lari to`sgan.

 Gardanida ko`m-ko`k
 Momataloq iz,
 Yelkasida singan
 Ilg'ay qamchilar.
 Olib tarixida
 Xol bo`lib qolgan
 Balki... ko`zlaridan
 Tomgan tomchilar...
 «Bir parcha non» degan
 Umr savdosi
 Uni ko`chalarda
 Sarson aylagan.
 Qulluq – ibodatning
 Jazo kishani
 Aldab yaltiragan,
 Ko`zin boylagan.

 U o`z tili bilan,
 Shunday der edi:
 «Esdaliklarimning
 Salobati zo`r,
 Aytay desam
 Butun kechmishlarimni,

So`zga kelmas tilim sira.
Mana ko`r.

Adash gapiraman
Halitdan
Ey, hush!
Qanotlanma uzoq,
Qanotlanma tush!
Sening tiling achchiq,
So`zlaring achchiq,
Achchiq alamlarni
Qo`zg`ab qo`yasan.
Es larimga solib
Kuygan yoshlikni,
Ko`zlarimdan bir juft
Chashma o`yasan!»
Toshlar o`yar,
Tog`lar haybatin yorar?
Ko`z nurlarin to`kar
«Silliq bo`lsin» deb.
Uning umri shunday.
Uning umri – tog`.
Voyasiga yetgan
Sabri qayg`u yeb.

Maro uning joni.
Maro – xotini.
Ancha ziqroq.
Ammo dilkash va tirik.
(Axtarsangiz,
Uning bor bisotini,
Har kulfatda chiqar
Sarkisga sherik.)

* * *

Kunlar o`tdi bir-bir,
Oylar sanaldi
Maro bilan nuqul
Sen-senga o`tdik.
Dunyo gaplarini
Tinglab bilishga
O`y-u fikrim o`sdi
Alanga – o`tdek.

Kunlar o`tdi bir-bir
Suvday tutashib.
Kunduz – oqshom bilan,
Kecha – tong bilan.
Ey!.. U kunlar,
Kunlar,
Menga ong bergan.
Es lar ekan,
Ko`ngil ketar ushalib...

* * *

Bir kun.
Tanho edim
Men o`zim yolg`iz.
Sarkis ishga ketgan,
Maro yo`q edi.
Shamol tezligida
Kirdi bir yigit,
«Maro qani?»– dedi.
«Maro yo`q»,– dedim.

Ko`zlarimga tushdi
Nigohi qiyo.
Kim ekan bu?
Buncha chiroyli ekan?
Yuragimda paydo
Bo`ldi bir tikan,
Go`yo timdaladi...
Ayladi qiyma.

Ne bu?
Nega yurak hal-hal ezildi?
Nega shisha kabi
Chil-chil sindi dil?

Ne bu?

Nega, suri kiprikni suzdi?
Nega, o`z-o`zidan
So`z yo`qotdi til?
Suqim oqib ketdi
Go`yo poyida.
Lablarim ham ajib
Qaltirab turdi.
Ko`kragimda xuddi
Bir balo yurdi,
Achchig`-achchig` botib
Yumshoq joyida,
Dedim: «Maro yo`q-ku,
Ne ishingiz bor?»
Dedi: «Shunday bekor,
Tortma sen ozor».
Dedim: «Ozori yo`q
Qatracha ham hech».
Dedi: «Xayr bo`lmasa,

Kelarman sal kech».
Ko`zlarini olmay
Tikildi menga.
«Ketma!» degim keldi
Sansirab uni.
Birdan shartta chopib
Chiqdi eshikdan.
Orqasidan chopdim.

Yurak tutuni –
Ko`z oldimni etdi
Tunday qop-qora;
Qalbim uzra sezdim
Bir jaroh – yara...

Qanday sezgi ekan,
O`ychan ayladi?
Xayolimni butun
Olib qochdi u.
Borlig`imni chambarchas
Boyladi.
Bilsam... bilsam keyin
Sevgim ekan bu!

* * *

Maro keldi. Aytdim.
U dedi: «Ko`rdim».
«Kim u yigit?»– dedim,
Marodan so`rdim.
Sezdi shekilli-da,
Kuldi ohista.
Lablarini ochib
Xuddi oq pista.

Dedi: «Ashot degan
Ishchi bir yigit.
Gazet, kitoblarga
Harflar teradi.
Yaqinda u o`zi
Maskovdan kelgan.
Bir xil paytlar, shunda
Kelib turadi.

Nima balo, Naxshon,
Ne bo`ldi o`zi?»
Uyat og`ir keldi,
Boshimni bosdi.
Yana Maro dedi:
«Uyalma, qo`zim,
Aytkin nima bo`ldi?
Ne olib qochdi?»
Qalbim dedi:
«Aytkin, sevaman, degin»..
Tilim tarjimonlik
Qilolmay qoldi
...Shunday qilib, sevgi,
Birinchi sevgi –
Kishi bilmas qilib,
Ko`nglimni oldi.
Qani, Ashot bola,
Ko`zlari qora?
Qani, yuragimni

Ezguvchim mening?

Umrin bino bo`lib
Bilmagan edim,
«Sevgi nima?
Nega orziqar ko`ngil?»
Uni bir ko`rdimu,
Birgina ko`rdim,
Ko`z o`ngimda bosar
Misoli butkul...

Kim ekan u?
Nega daragi yo`q hech?
Yozgi suvlar kabi
Tashlab ketdimi?
Qayg`um tog`dan oshar,
Yana qayg`uli
Chorrahaga yo`lsiz
Tashlab ketdimi?

* * *

Bir kun
Otam Sarkis
Qayg`uli qaytdi.
Qovog`idan xuddi
Qor yog`ar edi.
Kungi odatini
Aylagan kanda:
Yuvinmagan
Afti kir, mog`or edi.
Hech biron gap uni
Ovintirmadi.
Surunkasi «uh» deb
Oldi og`ir dam.
«Nechun ?– dedi, Maro,–
Sarkis, munchalik,
Ortiq qayg`ulisan?
Tushdi qanday g`am?»

«So`ramagin» – dedi,
Entikib Sarkis.
Ancha vaqt sira
So`zlolmay qoldi.
Dedi: «Bu kun kunduz
Gorgen qamalgan».
O`pkasini qiynab
Bir nafas oldi.
Ki, qaytarib yana
Chiqarganda dam
Lampa pir-pir
Etdi-da, o`chdi.
Tanimayman kim u,
Ammo Sarkisning

Qayg`usiga sherik bo`ldi
Qalb ko`chdi.

* * *

Allanechuk o`ylar
O`ylab, oxiri
Endi ko`zim andak
Mizg`igan ekan,
Birdan eshik
Qattiq taqillab ketdi.
«Maro»,– dedim.
Sarkis: «Jim qizim»,– dedi
Birpas jimlik tushdi.
Pashsha g`ing etmas.
Borgan sari
Qo`rqib yurak o`ynaydi.
Yana taqilladi.
Yana va yana...
Sarkis turdi.
Yurdi. Uy o`rtasida
Qotib qoldi.
Bilmay qay vaziyatda.
Qorong`uda Maro
Ko`zga ko`rinmas.
Birdan Sarkis
«Kimdir?
Kim taqillatgan?»–
Dedi. Tashqaridan
Xirri bir ovoz
«Oching!»– dedi.
Sarkis eshikni ochdi,
Uy yoridi.
Lampa yoqildi. Uyga
Kirib keldi.
Uch nafar – politsiya.
Biri asta burab
Uzun mo`ylovini:
«Sarkis Abovyanmi?
Dengizdan dengiz–
Buyuk Armaniston
Hukumatiniig ismidan
Qamoq qildim».
Tintingiz!
Tintib ketdi.
Uyni ost-ustin qildi.
Chidolmadim sira
yig`lab yubordim.
Maro ho`ngilladi.
Bir azo turdi.
Sarkisga men
O`zni tashladim, mahkam
Quchoqladim siqib,
Boshimdan o`pdi.

Hech gap gapirmadi –
Tog`larday mag`rur,
Ko`llar kabi sokin
Tinch turib berdi.

Tintib bo`ldi,
Topmay hech biron narsa.
Gumon bilan qarab,
Sarkisga tikka,
U shop mo`ylov
Kulib: «Olingiz!»– dedi.
«Otajonim, otam,
Omon bo`l, omon!»
«Omon bo`lgin, Maro,
Naxshon, siqtama»,–
Dedi. Uni shartta
Olib chiqdilar,
Yig`lab xunibiyron,
Qoldik sargardon.
Qattiq tegdi dilga
Qo`nu qo`shning
Shivir-shiviri-yu,
Tek tomoshasi!..

«Uyqu uyqu bo`lmay
O`tdi kechasi.
Oy oy bo`lmadi-yu,
G`am bergan bo`ldi.
Yurak laxta-laxta
Qon bilan to`ldi
Muncha serqayg`u-kan
Umr ko`chasi?
Yana ko`ngil uzra
Qayg`u haromi,
Yana ko`zlarimdan
Sel ravon oqdi.
Nechun-nechun Masis
Xaroba boqdi?
Buncha o`gay bo`ldi
Hayot oromi?

Butun tuni bilan
Maroni biram
Hol-joniga qo`ymay
«Ayt»,– deb zo`rladim:
«Nega Sarkisimni
Qamoq qildilar?
Nedir axir uning
Gunohi?» – dedim.

Dedi: «Singlim, Naxshon,
Asti so`rama

Ko`pga kelgan balo,
Nedir chorasi?
Sen so`raysan, qo`zim,
Oh, bilsang edi,
Yuragimning qonar
Dardli yarasi...
Hali hokim ekan
Bu itvachchalar,
Yelkamizda tinmas
Hali ko`p gavron.
Kelar axir bizga
Umrning gali.
Kelar axir bizga
Yelkamizda tinmas
Bahori davron.

Maskov, Peterburgda
Oktyabr yashar.
Oktyabrki, buyuk
Inqilob nomi.
Bizga panoh berar
Faqat qo`zg`olon.
Qo`zg`olsakki, sinar
Bu zulm dami!

Hozir butun vatan
Bezgak qo`ynida...
Shimarilgan zahmat
Xalqning bilagi.
«To dengizdan dengiz
Buyuk davlatim»
Degan dashnoqlarga
O`lim tilagin!
Otang haddan ortiq
Sabri tugagan.
«Qo`zg`olsak-chi,
Vatan bog`boni bo`lsak,
«Umr degan mayga
Mast bo`lib to`ysak», –
Deyar edi hargiz.
Ko`rgilik ekan.
«Gorgen qamalgan» deb
Qayg`uli edi.
O`zi-chun dam
Yegan ekan qayg`uni.
Qo`zg`ol, singlim,
Qo`zg`ol, zahmat armoni!
Ag`dar falakni ham
Soya bermasa!»

Satta yig`lab so`zlab,
Ezdi yurakni,

Uxlamasdan arang
Tongni yoritdik.
Ko`zga ko`rinmadi
Tong tabiati.
Go`yo uni ham biz
Dardda horitdik.

Ota-onam o`lib,
Shunday kuymagan,
Shunday ezilmagan
Edi yuragim.
Eh, yuragim,
Sirdosh, hamrohim
mening,
Nahot, ochilmagay
Kulib tilagim?

* * *

«Tong oqardi,
Tongda turdi-yu, ketdi
Alamiga sira
Chidolmay Maro,
Bilmam qayga ketdi,
Kimga arz etdi?!
Yana ko`nglim, qaro,
Xayolim qaro.

Yana oftob botdi,
Yana kech tushdi.
Yana yurak qo`rqib
Bittalab tepar.
Qayerlarda sarson,
Tentib sargardon:
Maro nechuk bunday
Ketdi bexabar.

Qosh qoraygan vaqt,
Qon qora qaqshab
Maro keldi yig`lab:
«Kunim qursin», deb.
«Ketdi boshimizdan
U g`amxo`r sohib,
Jallodlarga, Naxshon,
Qiron kelsin», deb.
«Kecha Gorgen degan
Qamalgan uchun,
Zavod ishchilari
Yig`in qilishgan.
Shunda otang qattiq
Gapirgan ekan;
Uni qamaganlar
Faqat shuning-chun:
Bilmam, endi Naxshon,

Oxiri qanday?
Baxayr bo`lsa, go`rga.
Yomon bo`lmasin.
Bittagina panoh,
Qarindoshim shu.
Aytkin-aytkin, singlim,
Uh... ko`p ko`rmasin!»

* * *

«Shunday kunlar o`tar...
O`tardi kunlar;
Sevinch oshna bo`lmay
Umruga binom.
Maro menga ajab
So`zlar pishitdi:
Aytib berdi
Dunyo sirlarin tamom

Ko`zlarimga go`yo
Oftob berkindi.
Uzoqlarni ko`rdim,
Ko`rsatdi Maro.
Bildim. Bilib yetdim
Bildim men endi,
Bildim oqi qaysi,
Qaysisi qora».

* * *

Yana kecha. Azon.
Kunduz. Namozshom,
Yana kunlar yelday
Uchib o`tdilar.
Borgan sari
Isyon etar bo`ldi dil,
O`z -o`zidan
Og`ir bosib ko`p o`ylar.
Nechun buncha xo`rlik
Bunchalik jazo?
Yoki vabo keldi
Etmakda xarob?
Yoki qon qusmoqchi
Sarg`ayib sarob?
Nechun-nechun bizga
Bunchalik azob?

Jivilladi mening
A`zoyi badan.
Yaxshi bilolmayman,
Nega, nimadan,
Go`yo nigoh o`qi
Teshsa osmonni,
Go`yo parchalasang
Yiqib tog`-toshni.
«yo`qol, osmonimni

Qoraytma, bulut!
 Yo`qol, isyonimdan
 Qo`rqmaysanmi, a?
 Yo`qol, hayot bog`in
 Xarob etgan sel!
 Yo`qol, yo`qolmasang,
 Xarob etaman!»
 * * *
 «May kunlari edi,
 Yel yozar kurtak.
 Olam butun ko`m-ko`k
 Ko`kargan edi.
 Qora atlas kiyib
 Egniga kecha.
 Ko`chalarda sanqib
 Tinch yurgan edi.

 O`zim yakka, uyda
 Maro yo`q edi.
 Eshik taqilladi,
 «Kimdir? Kim?» – dedim.
 Hech kim javob bermas.
 Qaltiroq turdi:
 «Kimsan? Aytkin,
 kimsan?»
 Qo`rqdim. Jim bo`ldim.

 «Naxshon!»– dedi.
 Xuddi Sarkisga o`xshab.
 «Ota!» – dedim, ochdim
 Darrov eshikni.
 Kim bu? Yana o`sha!
 Yana u keldi.
 Sevgimnimi aylay
 Izhor, qayg`umni?
 Nigoh degan shuncha
 Qattiq bo`larmi?
 Yuragimga botdi
 Misli nashtarday.
 «Maro qani?» – dedi.
 «Kep qolar» – dedim.
 Yo`tal tutdi uni
 Biram paydar-pay...

 Sira, bechora-chi,
 Dam ololmadi;
 Darrov chakkasidan
 Tutdim. To`xtadi.
 Bosh ko`tarib menga
 Tikildi yana,
 Qotdim. Go`yo qonim
 Sovib to`xtadi.

Unutibman o`zni,
 Hushim qochibdi –
 Qo`llarimni uning
 Boshidan olmay,
 Ushlagancha ancha
 Turib qolibman...
 (Eh, esimga uni
 Qo`y shoir, solma;
 Uni eslaganda,
 Bag`rim yonadi.
 Yuragimda achchiq
 Dard yara ochar...
 Uning xayollari
 Ko`nglimda tursin,
 O`sha yerda chuchuk,
 Bamisli ochar.)
 * * *
 «Maro keldi,
 Ko`zi soqqadek o`ynab.
 Allanarsa uchun
 Shoshilgan kabi.
 Shodlik bilan qayg`u
 Qo`shilgan edi
 Uning yuzlarida...
 Titradi labi.
 Uyda kim boriga
 Bo`lmadi hayron,
 Ashot bilan
 Qo`lin berib so`rashdi.
 Keyin, ikkalasi
 Bir chetga borib,
 Bilmam, nimalarni
 Uzoq gaplashdi...

 Bilarmikan mening
 Pok sevgimni u?
 Sevarmikan menday
 U ham entikib?
 Bilmay qoldim.
 «Xayr»,– deb eshikdan
 chiqdi.
 Uch kunlik oy – ko`kda
 O`roqday egik...

 Maro chuqur xayol
 Surib o`tirdi.
 Gapirmadi. Men ham
 Churq etmay turdim.
 Bir qaradi menga,
 Men sekin kuldim.
 Qulmadi u,

Ko`zni ko`chaga burdi
 «Naxshon,– dedi,–
 Qara, oynadan bunday,
 Tunmi ko`chadagi,
 Qorong`umi, a?
 Singlim,– dedi,–
 Jonim, ko`r rosa, mana
 Butun jahon
 Shunday,
 Qop-qora tunday!»

 «Uch kunlik oy
 Ko`kda kamoncha,
 singlim,
 Afsus...
 Sarkis otang
 Biz bilan emas!
 Balki azob chekar...
 Balki...
 Naxshon, ey,
 Balki hushdan ketgan –
 O`zini bilmas!

 Aytkin, oyga,
 Salom aytsin bizlardan.
 O`rni yo`qolmasin deb
 Sening uchun
 Maro bilan Naxshon
 Chiqalar – desin,
 Ko`rsatmakka mehnat
 Sutining kuchin!
 Chiqasanmi? Naxshon!
 Otang o`rniga,
 Otang mehri senga
 Kamar bog`lasa
 Chiqasanmi, qo`zim,
 Jangga men bilan,
 Bu kun - erta senn
 Jangga chog`lasa?

 Tokay, umr degan
 Sabil bo`ladi?
 Tokay.
 Boshdan nari
 Qolar ordona!
 Singlim,– dedi,– rostlan,
 Qo`rqma, mardona –
 Bo`ldi, bizni endi
 Zo`r jang kutadi!
 Qaltirama, Naxshon!
 Qo`rqma, oppog`im,
 Ol qo`lingga buni,

Mauzer deytilar.
(Otish, o`q solishni
O`rgatdi menga.)
Buni! «Engsin» deya
Do`stlar berdilar».

«Qaltirama!»— dedi,
Qaltiroq qochdi.
Ko`zlarimni yongan
Bildim sher ko`ziday.
Marojonni rosa
Quchoqlab o`pdim.
O`zni sezdim kuchli
Afsona devday!..
Parcha-parcha singan
Sabr kosasi...
«To`xta, — dedim, —
qo`rquv,
Otib tashlayman!»
* * *

Bir kun o`tdi,
Yana ikki kun o`tdi,
Yozgi suvlar kabi
Oshiqar yurak.
O`rgilaman tilak
Pok yuzlaringdan,
Sevgim baxti senda
Aylanay. tilak!..
Ko`rsa edi, — deyman,
Sarkis Naxshonni,
Ehtimolki, birpas
Hayron qolardi.
Yomg`irli tun
Tushib esiga nogoh,
Balki uzoq... tolib
Xo`p o`ylanardi...
Ko`rsa edi,— deyman,
Meni shu choqda
Balki ko`kragiga
Bosardi mahkam...

Turma zaxin tortib
Yotgan dadamning
O`rniga men, mana!
Jang, qo`yningga ol!
* * *

Sel yurdimi?
Yoki turdi zo`r quyun
Yoki dengiz toshdi
Qirg`oqlaridan?
Yoki tog`lar sindi,
Yoqildi falak?

Olam to`ldi o`qning
Qirg`oqlaridan...
Daryo peshnoviga
Qo`shilgan suvdek
Men ham ko`chalarda
Sher bo`lib ketdim.
O`ng qo`limda
Maro bergan mauzercha,
Chap qo`lim ham o`zi
Mauzer bo`b ketdi.
Jangni senga
Tasvir etolmas tilim,
Trax-traxlatib
Bosdi pulemyot.
Shovqin-suron,
Qiy-chuv. To`polon,
Bos!
Ot!
Qaltiraydi, agar,
Eslasam dilim».

* * *

Jon halpida hamma
Chopar ilgari...
Maro nima bo`ldi?
Ne bo`ldi, qo`zim,
Birdan shartta tushdi...
Yumuldi ko`zi.

Jigarim!.. Jigarim!..
Voy, o`layin, to`xta,
To`xta, ketmay tur.
O`rgilayin sendan,
Aylanay, Maro.
Sen emasmi eding
Shirin tush ko`rib,
Sayri jahon etgan
Chamanlar aro?
Qanday chiday olar
Naxshoning o`lgur,
Ketdingmi sen?
Voydod, men o`lay...
Maro.
Voy men o`lay, singlim.
Jigarim! Jigarim!..
Eh, bechora.
Bag`rin siqimlab yotar
Ko`m-ko`k — momataloq
Bo`ldi yuzlari.
Muncha xunuk ekan,
Jonning talashi?!
Bir umrga yumdi

Qora ko`zlarin.
Yig`lab, hushim qochib
Boshim aylandi.
Men ham tappagina
Yerga tashlandim.
Qo`ltig`imdan birov
Tikka ko`tardi.
«Kimsan? Maro o`ldi,
Ashotim», — dedim.
«Yig`lama, qiz Naxshon,
yig`lama sira.
Yenguv bizning qo`lda.
Vatan bizniki!..
Maro, qurbon bo`lgan.
Qurbonlar aro
Yoki bir yuzinchi
Yoki minginchi.
Chop ilgari!
Yugur!
Oldda jang. Naxshon!»
Shu fursatda
Birdan mauzerim uchdi,
O`ng qo`limga xuddi
Tosh kelib tushdi
Juda qattiq...
Azob... Ketibman
hushdan».
* * *

Shundan keyin...
Mening hushim yo`qolgan
Bundan boshqasini
Eslay olmayman.
Hushga kelsam:
Qo`lim og`ir... bog`langan
Hal-hal kabi...
Yerdan ko`tarolmayman.

Boshim uzra otam
Sarkis va Ashot.
Bilmay qoldim
Kunduz yoki kechmidi?!
Go`yo endi ko`rgan
bo`ldim
Shu kezda
Dunyo ko`rib,
Ko`rgan bo`lsam
sevinchni!
«Ota,— dedim,— Maro...»
«Yig`lama,— dedi.—
yig`lamagip, qizim,
Yig`lama, Naxshon,
Yuragimni sen ham

Tig'lama!– dedi.–
 Omon bo'lgin, qizim,
 Omon bo'l, bolam!
 Mayib qo'lni ko'tar,
 «Urta»,– de erkam».
 «Enguv bizning,
 Vatan bizniki, Naxshon»,
 Dedi Ashot.
 Go'yo shu so'zlari ham
 Menga «sevaman» deb
 Eshitilgandi...

* * *

Shodligimni senga
 Qanday anglatay?
 Ko'm-ko'k o'rmon kabi
 Barg yozar o'yim.
 Araratdan yuksak
 Havaslarim bor.
 Qaddim raso endi,
 Sarvidek bo'yim.
 Dardli yuragimda
 Qayg'u o'rnini
 Universitetniig dongli
 Klubi oldi.
 Dardni quvdim
 Umrin darbozasidan,
 Endi sarson bo'lib
 Ko'chada qoldi!
 Ayta bersam,
 Tamom bo'lmas daftarim,
 Uning har betida
 Yoshim izi bor.
 Eslab qo'ldan uchar
 Xayol – kaptarim.
 Har qanoti diydam
 Nurini olar.
 «Otam, akam»,– deydi
 Sirli ko'z otam,
 Peshonamdan o'pgan
 Bilan to'ymaydi,
 U salomat hali...
 (Eh , qanday yaxshi

O'sha borki, ko'nglim
 Yarim bo'lmaydi!)
 Maro ketdi...
 Shamdek lipillab o'chib,
 Kuzgi yaproq kabi
 Pirillab ketdi.
 Bahorga to'yagan
 Kapalak kabi,
 O'lim nogahondan
 Chiyillab ketdi...

Sevging hali bormi,
 Hayotmi?– dersan.
 Sevgim hali yashar
 Ko'nglimda, o'lmas!
 Faqat, sevguvchim yo'q.
 Uni ham ko'mdim.
 Shundan beri dilim
 Xayolida mast...

Eslarimga tushsa
 yillarning ko'yi,
 Yuragimni xuddi
 Yegudek bo'lar.
 Borligimda ajab
 Qaltiroq turib,
 Kipriklarim jiqqa
 Yosh bilan to'lar...

Eslamayin deyman,
 Eslamay deyman,
 Mayib qo'lim yana
 Solar esimga.
 «Bir qo'lim-ku, mayli,
 Jonni beraman!–
 Deydi,– kurash bo'lsa,–
 Qalbim ichimdan».

Xotima
 Shabada bolalarday
 Gulzor uzra sho'x,

Oy fanorini
 Yoqdi qiz oqshom.
 Yasha!.. Sen kelding,
 Sevgilim Naxshon,
 Suv qizi, suvsarim,
 Kipriklari o'q.
 Umrining ertagin
 Ayladim tamom.
 Ammo o'zimni qam
 Ichim chiqmadi.
 O'qiganda, aziz o'quvchi,
 Undan
 Oz bo'lsa ham,
 Xursand bo'lsa bo'ladi.

Tunlardan men ancha
 Xafa ham bo'ldim.
 Bir bet to'lg'izmasdan
 Tong otib qolar.
 Ertagingdan hali
 Ko'pi xom qoldi.
 Vaqti bilan asl
 Yaralar ular.
 Mayli, umring sening
 Tuganmas doston,
 Yozgan bilan hali
 Tamom bo'lmas u.
 Kulma. «Shuginami?» –
 deb
 Mendan, Naxshon!
 Men o'ylagan she'rning
 Boshginasi bu.
 Faqat charchab qoldim,
 Men shuni aytay,
 «Shoir so'zi bu»,– deb
 Yod qilib olgin.
 Agar, Vatan senga
 Yana «Chiq!» desa,
 Kipriklaringni ham
 O'q qilib otgin!..

Yerevan – Samarqand, 1934.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. U.Nosir ijodining mavzu va g'oya doirasini yoriting.
2. Shoir she'rlarida asosan qaysi badiiy san'atlar uchraydi?
3. “Naxshon” dostonida milliylik, xalqchillik hamda umuminsoniylik tamoyillari qanday ifodalangan?
4. Asar kompozitsiyasining o'ziga xosligi nimada?

5. Dostonda mayin va musiqiy ohang ruhini qanday vositalar ta'minlagan?
6. Kirish gaplarga tez-tez murojaat qilishdan shoir qanday maqsadni ko'zlaydi?
7. Asar nega "Naxshon" deb nomlangan? Siz qanday nomlagan bo'lardingiz?
8. Shoir Vatan timsolini gavdalandirishda nimalarga tayangan?



ZULFIYA (1915-1996)

Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentning O'qchi mahallasida degrez oilasida tug'ilgan. "Hayot varaqlari" nomli ilk to'plami o'n yetti yoshida nashr etildi (1932).

"Dalada bir kun" (1948), "Tong qo'shig'i" (1953) kabi she'rlar turkumi, shuningdek, "Hulkar" (1947), "Men tongni kuylayman" (1950), "Dugonalar bilan suhbat" (1953), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958), "Gullarim" (1959), "Tanlangan asarlar" (1959), "Hayot jilosi" (1961), "Kuylarim sizga" (1963), "She'rlar" (1963), "Kuylarim sizga" (to'ldirilgan 2-nashri, 1965), "O'ylar" (lirika, 2-nashri, 1969), "Lolaqizg'aldoq" (1970), "Quyoshli qalam" (1971), "Visol" (1972), "Asarlar" (2 tomlik, 1-jild, 1974, 2-jild, 1975), "Yillar, yo'llar..." (1975) kabi to'plamlari mavjud.

Uning "So'roqlaydi shoirmi she'rim" (1960), "Oydin" (1953), "Quyoshli qalam" (1967) kabi ocherk va dostonlari Hamza, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralariga bag'ishlangan. Zulfiya Hamid Olimjonning "Semurg", "Zaynab va Omon" dostonlari asosida pyesa va opera liberettosini ham yaratgan. "O'ylar", "Shalola" kabi she'riy to'plamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1970).

U 1956-yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o'tkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur "Mushoira" (1958) asarini yaratdi.

1999-yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'xis etildi.

QUYOSHLI QALAM

XAYOL QANOTIDA

1

Yo'l uzoq, yo'l yaqin, boshsiz, so'ngsiz
yo'l,
Biri tor, biri keng, ravon va so'qmoq.
Tinglab ko'r, qarichi ming ertakka mo'l,
Tug'ilmoqday farzdir birini o'tmoq.

Yo'l... Tuproq chehrasin kesgan sonsiz yo'l,
Yo'l demak borlig'i izdir behisob.
Yo'llarsiz koinot – misoli bir cho'l,
Na kurash, na zafar, na haq, na sarob.

Yo'l demak, o'tilgan bir umr demak,
Hech biri muqimmas tuproq singari.
Lekin zamon o'ta borlig'i hikmat
Biz-la kelayotgan kimlar yo'llari?

Ha, shunday yo'llar bor to'liq izlarga,
Zamonlar to'foni ko'mishdan o'jiz.
U tirik! Jahonni ochar bizlarga,
Ezgulik mehrobi qarshisida tiz –

Cho'kkanday kiprik-la surtib har changin,
Daholar oldida bosh egamiz lol.
Tirik yuragiga kirganing sayin,
Go'zalroq, yaqinroq senga istiqbol.

Biz ham yo'lda... Quyosh, tuproq vaslidan
Qiziydi orqada, oldimizda yo'l.
Go'zal bo'lib ketmish tuproq aslidan
Urug' sochib o'tgach mehnat nomli qo'l.

Yo'l ravon, po'lat iz singari tekis,

Ikki yog' navbahor buyog'iga mo'l.
Ortda qancha yukli, yuksiz qolgan iz,
Oldda borlig'i sir, bosilajak yo'l.

Naqadar fusunkor ko`rilajak ko`rk!
Damlar ham odimlar qaynoq kunduzga.
Ochiq derazadan yel bilan ko`m-ko`k
Osmon otiladi mashinamizga.

2

Bizning mashinamiz ufq va quyosh,
Yelu yuraklarga kirishga shoshar,
Muazzam adibga safarda yo`ldosh
Baxtidan quvonchim arshidan oshar.

Safar! Oz kezdimi adib hayotda,
Qishloqlar, shaharlar, ellarga safar.
Mudom shay sayyohday – xayol-qanotda
Taqdirlarga safar, dillarga safar.

Yurib olov kaftda yongan tuproqda
Adib dil isitar nurni qidirdi.
Oltin vodiy kezib horgach, buloqda
Suv qolib, go`zallik, shodlik simirdi.

Har safardan ortib-tortib kelganin
Faqat qalamiga etdi hadya,
Hech kimsa bilmadi qalam bilganin,
Necha bor sevilib, yondi xufiya.

Bir damda necha bor chiqdi safarga,
Necha el-la birdan qildi u suhbat.
Ming toifa urdi o`zin asarga,
Goh urush, goh yarash, goh bo`lib g`urbat!

Faqat o`zi ezgu bu sirdan ogoh,
Yozishga o`ltirgach qilgani safar.
Goh aniq so`z izlab, rang, jon izlab goh,
Safar qila-qila yozdi u asar...

Ha, adib safarda! Uchar gilamday,
Mashina yeladi ravon izida.
Dalalar yashnaydi bog'i eramday,
Tabiatga shaydo adib ko`zida.

Bu yirik ko`zlarning teran nigohi
Tergan bo`yoqlarning jilvasi ne tus?
Uchqur xayollarning olov qanoti
Qay asr, qaysi davr damiga to`kis,
Uni faqat adib o`zi qilar his.

Hamisha osoyish, salobat siymo,
Bilamiz, jahonni qamrashga qodir.

Kim biladi, shu on – tez oqar daryo
Kabi ne xil va necha taqdir.

3

Zavqqa solib o`tar notinch fikridan,
Asabi savalar ne istak dardi?
Yo`l, faqat yo`l tutar qalam zikridan,
Yo`l bosilgan sari – nari ketadi.

O`ylar bilan dil ham otilajakday,
Adib o`ltiradi ko`ksini quchib.
Ufqda mo`jiz a ochilajakday,
Mashina yeladi qush kabi uchib.

Motori guvillar, guvillar shamol,
Kichik davramizda buyuk sukunat.
Balki yangi hislar qaynashidan lol
Adib bol aridek qiladi mehnat?

Faqat chust do`ppisi ostidan toshgan
Kumush halqalardan oqib tushar ter.
Va unga qo`shig`ni ko`tarib shoshgan
Kabi ikki yondan chopib kelar yer.

Yer adib singari tinimsiz ishda,
Bunda cheksiz g`o`za, u yerda bug`doy,
Unda bog`, bu yoqda jiyda kumushda,
Bedazor, polizda sabza bir chiroy.

Yer barin ko`ksida quyoshga tutib,
Bag`ishlab yotibdi o`zidan kamol.
Ishchi yer diliga qulog`in tutib,
Adib go`yo undan oladi misol.

– Oybek ishlayapti! – deydi, baxtiyor
Xotini adibga qiladi imo.
Taqdir adibiga hamdam etgan yor.
Qalamday vafodor, ilhomday zebo.

Vijdoniday toza, hayotday dono,
Sertashvish umrning munis hamdami.
Lochinday o`g`illar va qizga ona,
Horganda tili-yu ishchi qalami.

Eriday zahmatkash, eriday tanti,
Fan va she`r, go`zallik oshig`i olim.
Kimyo ilmining yulduzlaridan
Biri bizning aziz Zarifa xonim.

4

Adib so`zi yetgan har bir ovulda
Ajabmas, topilsa uning shogirdi.
Ikkisi go`zal bayt qo`sh misrasiday,
Ishqda, ishda, baxtda umr kechirdi.

Ha, adib yersimon betinim ishda,
Har bosilgan yo`ldan ilhom teradi.
Yana qay kuy, niyat kurtagi nishda,
Ko`zi bo`stonmi, yo o`tmish dardi?

O`tmish o`z yukidan qaddini bukib,
Hamon o`lja olar bizdan damlarni.
Bitmas g`aznasiga g`avvosday cho`kib
Adib tinmay terdi javohirlarni.

Bugun Buxorodan qalbini izlar,
Izlar ming yillarga kirgan xayolin,
Kim bilar, bu tuproq nelardan so`zlar,
Kimlar yechib berar chigil savolin.

Garchand darsligiday tanish Buxoro,
Titdi mudroq, uyg`oq kekxa, yosh bobin,
Zindonda titrab, minorlar aro
Kezdi va axtardi dilga xitobin.

Haqu haqsizlikning talashlaridan
Holdan ketgan norday cho`kkan qasrlar,
Ko`z yosh tepchib chiqqan go`rxak
toshlardan
Ajdod zakovati o`chmay asrlar –

O`ta mo`ltirashib boqar adibga,
Boqar nurab ketgan ark ko`hna davlat.
Adib qo`l mehnati, san`ati – zebga
Harblar suyagidan qurilgan savlat.

Shuhrat qoldig`iga boqadi takror:
Qor yonar, yoqut, dur qon jilvasida
Har g`ishtidan tirik boqadi me`mor,
Hokimlar-chi, zamon och tevasida –

O`tmish karvonining yo`lida unut.
Saroylar tuproq rang uyquda mudrar.
Adib yuragiga solib yangi o`t
Qamchi bukolmagan taqdirlar sudrar.

5

Arkka ko`tarilar... Qadamlar og`ir,
Oyoqqa yopishgan botmon tosh go`yo.
O`tgan ikki ming yil zamonda, axir
Qancha hoqon, kibor, qancha qul, gado.

Dong solib, dod solib, uchib, sudralib
O`tmadimi bu tim, bo`m-bo`sh yo`lakdan?
Siyqalangan g`ishtlar mash`um yiltirab
Harorating yutar tortib yurakdan...

Arkka ko`tarilar g`ussa kabi jim
Ko`hna devorlardan ufuradi muz.
Shodligimiz yutib qultum-baqlatum
Obxonalar boqar naq o`yilgan ko`z.

Obxona, obxona, ey mudhish kunjak,
Balki ezgulik-chun qurgan edilar?
Uzoqlardan kelgan musofir jindak
Bo`lsa ham tashnasin bosar, dedilar.

Bunda suv saqlamoq, hayot saqlamoq
Demak, boqiylikni qilganlar ardoq.
Lekin amirlikning tojdori olchoq
Butun ezgulikka solganday sirtmoq –

Seni asl burching – hayotdan tortib
Oldi-yu, aylanding qamoqxonaga.
Mangu tavqi la`nat yukini ortib
Kirib bo`larmidi hur zamonaga?

O`ylar adib yonib, ko`zi qovjirab,
Darra zarbin sezar o`z kiftlarida.
Go`yo Ayniy ko`zi boqar jovdirab
Qabih obxonaning zax shiftlaridan.

Vujudi og`rikda, joni qiynalib,
Junjikib qo`llarin suqar qo`ltiqqa.
Yirik, dono ko`zlar mungga aylanib
To`kilmagan yoshga to`ladi liqqa.

Shu kun qancha kezdi, ko`rmadi qancha,
Ko`zidan ketmadi Ayniy ko`zlari.
«Hech kim bu zindonda yonmadi uncha
Va o`qday teshmadi hech kim so`zlari.

Hayoti, qalami, komi – jasorat,
Qullar yuragining oshkor faryodi.
So`nggi isyon qoni, ilk erk, saodat
Shodlikka hamdam-di ulkan hayoti» –

O`ylaydi. So`ng so`ngsiz uchrashuv,
bahslar,
Chuqur xotiralar bari jonlanib,
Go`yo g`olib Ayniy yozib, shodlanib,
So`niq Ark ustida etardi parvoz.
Go`yo derdi: «Mavzu yotar taxlanib,
Yozing, Oybek, qancha yozsangiz ham oz!»

Oqshom horib qaytdi mehmonxonaga,
Ikki qiz va yigit kutardi uni,
Institut zalin tirband to`ldirgan,
Suyukli kuychiga ilhaq o`ltirgan

Sonsiz muxlislar-la she'rxonlikda
Jaranglab kechaga sho'ng'idi kuni.

YARATISH DARDI

Birdan ufqlardan bog'larga kirib,
Yo'lni kesib chiqdi osmon rang daryo.
Adib xayolidan dalani surib,
His to'lqini indi taniga go'yo.

Va u o'z ko'ksini quchdi mahkamroq,
Uchmoq istaganday qo'zg'aldi xiyol,
Yo'q! Borliq entikar unga yaqinroq!
Sevinch-la tamshandi. Kim bilsin, xayol –

Yangi qahramon-la uchrastirdimi,
Yo suv parisiga qildi ro'baro'?
Yo quyosh bilan qo'l ushlastirdimi,
Yo tog'lardan tushdi oldiga ohu?

Keng yag'rin, mosh-gurunch qo'ng'iroq
sochda
Sezdim yoyilganin yangi hayajon.
Adib rafiqasi bu yangi mavjda
Ko'rdi chog'i unga tanish bir jahon:

Oybek ishlayapti! – dedi baxtiyor
Va aziz siymoga qildi ishora.
Qarayman: chindan ham ilhom dardi yor
Vujudi o'z qalbi sochgan ziyoda.

Men har kalimani termoq bo'laman,
Salmoqli bo'yoqli, siyoqli bari.
Kamyob shohidlikdan baxtga to'laman,
Ongda tug'ilishin yangi asarning.

Vodiy kesib chiqqan osmon rang daryo
Somon yo'li kabi yastandi yo'lda.
Unda quyosh yonar naq go'zal ro'yo,
Parcha-parcha oltin har och to'lqinda.

Yaqinlashgan sayin qamashadi ko'z,
Yaqinlashgan sayin salqin olar tan.
Yaqinlashgan sayin har zarra – yulduz
To'zonin ko'tarar bu oyna sathdan.

– Zarafshon! – Onani, yo sevgisini
Noxos uchraganday adib behad shod.
Uchqur mashinaning tortmay tizginin
Boladay sakraydi tog'day ulkan zot...

Zarafshon! Ey ona tuproqqa ko'krak,
Shohu gadoga teng ko'ksini ochgan,

Tuproq tirikligi, inson to'qligi,
Vodiy go'zalligi bo'lib zar sochgan.

Men seni qo'shiqqa solmog'im mahol,
Umring, kuching, ko'rking, mehringni bu
on.
O'zingday abadiy, go'zal, barkamol
Kuylagan-ku seni Hamid Olimjon!

Oybek sohilingda turar chinorday
Barcha ulkanliging zavqli nigohda.
Bir so'ngsiz karvonga tizilgan norday,
Tollaring ta'zimda turar qirg'oqda.

Bu ikki qalamning san'atiga lol,
Yozganlarin qayta-qayta o'qirman.
Qalbimni qiynagan, erkalagan hol,
Aytmasam bo'lmasin men ham to'qirman!

Adib istagi-la to'xtaymiz. Birdan
Yer, quyosh, suv, havo bizni quchadi,
Daryo qo'shig'idan, yel shiviridan
Tandan yo'l hordig'i tunday ko'chadi.

Shoir sohilda tik.
Keng ko'ksin kerar,
Tabiatdan yayrab ichadi havo,
Xayolin zabt etar munis sehrigar
Suvdan kelayotgan fusunkor sado.

Shoir sohilda tik. Daryo nur ichra,
Bahor toshmoq bo'lar qirg'oqlaridan.
Oqindan to'ldirib qo'shoq hovuchda
To'yib suv shimirar barmoqlaridan –

Tog'likdan tushganday to'kiladi suv,
Ola chalpoq nurda gavharday yonib,
Keng peshana, yuzga yoyilar kulgu,
Go'yo ilhom ichdi hayotdan qonib.

Daryo o'z kuychisin to'lqin qo'yniga
Olib ketmoq bo'lib jo'shqin oqadi.
Kuychi maftun turar suv o'yniga,
Mag'rur aksi undan bizga boqadi.

«Iching! – deydi menga o'rmini berib, –
Har daryo suvining o'z bahrasi bor!»
Hozir ustoz turgan sohilda turib,
Go'yo imtihondan o'tmog'im darkor.

«Iching! – deydi. Men ham nam qirg'oq
uzra,

Mehrobg kirganday asta tushaman.
Sinchkov nigohidan qimtinib zo`rg'a
Qo`sh hovuchda shaffof bahra ichaman.

« – Yaxshi, yaxshi!» – deydi takror va
takror,
Go`yo suv ichmadim, go`zal she`r bitdim.
Go`yo o`zi kabi ezgulikka yor,
Go`yo shogirdlikning maktabin o`tdim.

Shodman: Adib bilan bir suv, bir tuproq,
Bir elga farzandlik ortdirar faxrim,
Shodman: kezib, sezib serob va chanqoq
Yaratishning dardi, baxtidir mahrim.

Yana yo`l! Orqada qoldi Buxoro...
Nahot adib bilan kelmoqda shahar?
Nahot fikri qal'a, qasrlar aro,
Nizolar, kurashlar ma`nisin chaqar?

Yo mag`lub amirning oltin qalqoni,
O`ta olchoq qalbin ko`rib turibdi?
Zanjir uzgan qo`llar, qurbonlar qoni,
Naq o`z tomirida urib turibdi?..

Ko`rdim, kurash, qirg'in va mushkul zafar,
Mardin, shohidlarin axtarib topti,
Qancha do`stlar uyda kutganda maxtal,
Uning ko`zlarida oppoq tong otdi.

Hikoya tingladi, muzeylar kezdi,
Kirdi ming-ming hayot, taqdir yo`liga.
Shahar qalbin ochib:
– O`qib ol, – dedi,
Berdi hech tushmagan qalamin qo`lga.

U tinmay ishladi. Qari-qartangdan
Tolmadi necha kun hikoya tinglab.
Hozir chiqqan kabi o`zi zo`r jangdan,
Yuzda yillar izi – terda bo`ldi g`arq.

Naq ko`zim oldida o`sha qiyofa:
O`kinch, iztirobli, zahmatkash ko`zlar
Xit edi so`zlolmay, Nigohi yona –
Yona menga achchiq haqiqat so`zlar:

– Bular so`zlab bergan har bir hikoya,
O`zi shundoqqina oltinday kitob.
Bunda har ne tubsiz va benihoya
Jafo ham, daho ham, orzu, iztirob.

Aqlu zakovati jahonni tutgan,

Abu Ali Sino, Mahmud Torobiy
Va qancha daholar shu yerda o`tgan!
Hali ochilmagan tarixning bobi –

Ozmi bunda? Axir, nega yozmaymiz,
Xalqiga ko`tarib chiqmaydi qalam?
O`tmish karvonida sochiq durimiz.
Terib, nahot, dildan bag`ishlab malham –

Qayta porlatuvchi iste`dodlar kam?
Juda ko`p, Zuhroday yorqin iste`dod,
Yurtim nasri, nazmi toza ko`kida.
O`tajak umrdan tilamay imdod
Yozish kerak yonib ijod o`tida!

Ko`rdim: fikrlashdan yorilguday bosh,
Unut papirosni ulab chekkanin.
Moviy tutun ichra munis, ko`makdosh
Xotini daftarga xatlar chekkanin.

Horib, charchab, sayrga chiqsa Buxoro
Oq nurlar to`shadi ming-ming chirog`dan,
Gumbazlar, minorlar, qal`alar go`yo
Afsonaviy yurtday boqdi yiroqdan.

Oldida navqiron kuchli yigitday
Shodlik tirsillagan bugungi hayot,
Oftobga mahliyo karvon bulutday
Oppoq yuksak uylar!
Misli oq qanot.

Yoyilgan oynaband ulkan binolar:
Yangi institut, yangi fabrika,
Yangi mehmonxona, yangi kinolar,
Yangi taqdirililar abadiylikka
Olib kirgan husn, yangi jilolar.

Yangi baxt, orzu-la yashnab, yasharib
Yana shuhrat sochar mag`rur Buxoro.
Yangi avlod o`tmish changini artib
Hamon yashirin yotgan qatlamlar aro.

Ajdod dahosini izlashdan tolmay,
Suyab, tiklab, sevib qiladi ardoq...
Adib boqar: ko`kda yulduz naq olmos,
Yerda – kunduzlar ham so`nmovchi chiroq.

Yerda... yana qancha tomir yoyilib
Inson uchun ishlab urib turibdi.
O`zbek yuragining otashin olib,
Kim hozir qaylarga kirib turibdi.

O'lkamizning yangi allomalari,
Buxoroda ochgan o'zbek gazimiz,
Bizga kelgan hurlik, tole yo'llari
Bilan borar do'stga naq dil so'zimiz...

Kecha va bugunni birdayin quchib,
Tongga yurar uyg'oq Buxoro tuni,
Mashinalar ko'cha-ko'ylaring yuvib
Kunduzga kelinday uzatar uni...

Yo'l davom etadi. Adib yuzida
Quyosh chehrasidan ajib ro'shnolik.
Ortida o'ltirib yirik ko'zida
Ilhom chaqmog'ini mumkin ko'rmoqlik.
Tarix jarohati, xalqning ofati
Yiqiq saltanatning g'ishtin irg'itib,
Shahid, qurbonlarning unut qomatin
Suyab olib, qutlug' qonlarin artib,
Bir roman yozmoqchi!
Ongda nish olib,
Biz-chun yangi asar topmoqda kamol.
Dilga shuncha dovul, kurashni olib
Filday tinch o'ltirish emasmi malol?

Butun umr shunday, yarim asr shu,
Yaratish dardidan oldimi hordiq?
Hakimlar qo'riqlab, unutdi uyqu,
Lekin u tiniq o'y, qalamga sodiq.

Shunday salobatda, shu saodatda.
Shunday kamolotda kechirdi umr
Ne yozdi: baxtdanmi yo jaholatdan,
Barini yoritdi qalbidagi nur.

NAVOIY YURAGI URIB TURIBDI
Cho'li Malik ko'ksin kesib tushgan yo'l,
Ro'yodan bir yangi dunyoga chorlar.
Bugungi fikr, ijod, Mehnat nomli qo'l
Bo'lib naq kaftida ko'tarmish shahar.

Navoiy shahri bu! Mudom yosh, nurli,
Bemisol, betaxlit she'r dahosiday
O'xshashi yo'q bu ko'rk erkalab ko'zni,
Adib asabini do'l sharrosiday.

Savaladi ming xil tuyg'ular, hislar,
Bosib o'tdi dunyo xotira birdan.
Go'yo Navoiy ham odimin tezlab
Huzuriga shoshdi mezbonlar bilan.

Navoiy baytma-bayt o'tib besh asr.
Yurar kazo-kazo ishchilar aro.

Har uy daftarida, har kuni ming bir
Tilda nomi takror oddiy fuqaro.

Bu nurli, bu yaxlit yangi qasrda
Xoqon ham, vazir ham, fuqaro ham el,
Xalqi ijod etgan yangi asrda
Inson taqdiriday gullab ketdi yer.

Shahar yoqib adib kezdi piyoda,
Ikki qo'l orqada, odimlar tetik.
Quyosh, shabbodaga mo'l har binoda,
Yoshlik va baxt o'zi uy xo'jasidek
Chorlaydi shoirning serzavq nigohin.
Deydi:
«Zamon yozmish azim, sha'n doston,
Qadim san'atimiz o'chmas bo'yog'i
Yangi kamol, jilva kasb etmish chunon.
Har binosi bir xalq kelinchagiday,
Betakror zeb bilan diding etar xush,
Anov ko'kning mo'`jaz belanchagiday
Sho'x bino bolalar bog'chasi emish!»

So'zlaydi, ko'radi shoir vaqti chog',
Keng yo'llarga uqa sonsiz yosh chinor.
Shahar etagida dala, dara, tog',
Oq o't bilan yonar cho'qqisida qor.

Adib atrofiga boqaru to'yimas:
O'ngda yashillanib o'sar nihol bog',
Choyxona, suvxona, gulxona – xullas,
Quyoshdan qochganga mazgil hamma yog'.

Ko'sak shaklidagi billur favvora,
Yomg'irida o'ynar bolalar g'ujg'on.
Qay gigant kombinat, qay fabrikada
Ne ne'mat yaralur xuddi bu zamon.

Borib ko'rolmadi. Lekin qudratin,
Savlatin, davlatin sezib turibdi.
Qaytarkanmiz deydi o'zicha sekin:
«Navoiy yuragi urib turibdi...

San'atli, mehrlri, kuchli odamlar
Cho'ldan yulib qurmish jannatday makon
Va yashar mehnatda va saodatda
Munosib o'z ulug' nomiga inson...»

DARYODAY UYG'OQ

Yo'l!

Bu tinim bilmas sayyoh Qarshini,
Tolimarjon GESin zarur ko'rmog'i.
Axir buyuk mardlik, mehnat-la dashtni

Hayotga olmoqda shonlik avlodi...
 Kezdirib, ko`rsatib, so`zlab berdilar,
 «Charchamasin» deya jonimiz halak.
 Kanallar o`tkazib, shahar qurganlar,
 Har biri unga bir jahon ochgandak.
 Hayrat, hayajonlar qalbini quchib
 Tinglaydi, ko`zida ilhom yonishi.
 Quchganday istiqbol rejadan ko`chib,
 Tezlashar qon, ongda adib yumushi.
 – Domla, edi bizda sizning ixtiyor! –
 Deydi mezbon. –
 Ish bas, olasiz orom.
 Bir yerga boramiz!
 «Yana hoynahoy
 Serhasham xonada ming turli taom...»
 Mezmon sohibimiz sezgir, alloma,
 Dashtni o`zlashtirish ishlariga bosh:
 – Har GESning tarixi o`zi jangnoma,
 Qurayotir qardosh xalqlar yelkadosh.
 Sizday mavlonolar qalamga olib,
 Bu kunning nafasini qoldirsa meros,
 Tengsiz bu mardlikni qonlarga solib
 Yoshlarda ajdodga oshirsa ixlos.
 Sergap bo`lib ketdim, uzr! Marhamat,
 Mashinaga chiqing, uzoqmas manzil...
 Yo rab,
 Kenglik bilan tillashish odat
 Bular «uzoqmas»i qacda axir?
 Obdan mo`l yo`l bosib qo`sh mashinamiz,
 Ikki qo`ng`iz kabi qo`ndi daraga.
 Qafasdan chiqqanday yayrab ketamiz,
 Go`zallik va orom singib tanaga.
 O`zbek tuprog`ining bir kaft yam-yashil
 Bepoyon kengligi ipak to`lqinda.
 Dengizda suzuvchi bir qayiq shakl
 Mazgil tayyorlashgan mezbonlar bunda.
 Oq kigiz, serqaviq gulli ko`rpacha,
 Yostiqa yonboshlab cho`zildi mehmon.
 Charchoq ajin bo`lib o`rgan ko`zda
 Bepoyon, beg`ubor, bezavol osmon.
 – Gaping, gaping! – dono hamrohga
 Yuzlanib hikoya kutadi mehmon.
 – Domla, men ham maftun bu oromgohga,
 Nutqni direktor o`rtoqqa berib.
 Siz sharofat men ham bo`laman voqif
 Mashhur sovxozlari sir-asroridan!
 Direktor o`rtoqqa bu hazil yoqib
 Tabassum-la bizga boqadi zimdan:
 – Nutq bo`lsa qochmas, taom muntazir,
 Ertalabdan buyon yo`lda ko`zimiz, –
 Sindirib oftobday issiq non, patir,
 Shopirib-shopirib quyadi qimiz.

Yo`l-yo`l dasturxonda yaxna go`sht, asal,
 Qurt, rovoch, xilma-xil uzum, bo`g`irsoq...
 Na yo`l hordig`idan, na darddan asar,
 Har ne`matdan totar shoir ko`ngli chog`.
 Tinglab, uzoqlarda qo`ylar ma`rashin,
 Nordon rovoch chaynar yuzi burishib.
 Tanlab naq qamchiday sersuv barrasin
 Xotini va meni qistaydi, «Eng» deb:
 – Oling, yeng, bunday zo`r davo yo`q tabda!
 – Qaysi dardga davo? – so`rayman kulib.
 Kutaman ne javob bo`lar adibdan.
 – Qolasiz o`n sakkiz yoshli qiz bo`lib.
 – Agar o`n sakkizga qaytsam, mabodo
 Shu Sakson darada qolib ketardim –
 Dedimu, qandaydir kelganday sado
 O`zim, naq o`zimda uyg`ondi raddim.
 Nima, kechirganim, ko`rganim, sevgim,
 Dardim va baxtimdan ketaman nari?
 G`o`r, dumbul fasldan boshlayman yo`lim,
 Yashayman butunlay boshqa singari?
 Yo`q, ustoz, qaytmayman o`n sakkiz
 yoshga,
 Garchand shafaq yaqin, shu yoshda qolay.
 Adib jimib to`nar uzoq quyoshga,
 Qimizdan olgan kayf zarracha qolmay.
 Noqulay jimlikni ko`tarar mezbon:
 – Olinglar, mana bu «qora janjal»dan.
 Shoir yana kayfga qaytganday shu on
 Deydi:
 – O`zbek xalqi shoir azaldan.
 Uzum – «qora janjal», yurak – kabutar.
 Sahro – Tollimarjon, qishlog`i – Vodil.
 Hayotni xayol-la bezab naq zargar
 Go`zallik yaratib kelar ming-ming yil.
 Siz bo`lsa shafaqdan...
 Qo`ying bu gapni!
 Ikki barmoq bilan olib kosani
 Birvarakayga oq sipqardi qimiz
 Men nozik qalbiga solganim dardni.
 Sug`urib olmoqqa qolgandan ojiz,
 Deyman:
 – Oq simob rang bulutday siljib,
 Biz tomonga kelar qo`ylar galasi.
 Soy oqar banoras kabi eshilib,
 Unda lov-lov yonar lola dalasi!
 Suruvni nigoh-la mehmon tasmollar:
 – Qancha qo`y sovxozda? – Mezbonga
 boqar.
 Direktor so`zlaydi.
 Raqamlar,
 Sonlar,
 Quadrat, to`kinlikning nahrada oqar:

– O`zbek qorako`li, bilasiz, tillo,
 Jahon bozorining bo`rki atalur.
 Shoir deydi:
 – Ha, shu tillo sohibi
 Bobo cho`pon Vatan ko`rki atalur.
 U cho`ponni chorlang, otamlashaylik:
 Kelbatiga qarang, qudratli burgut,
 Qancha fidoyilik va hotamtoylik,
 Viqor, ishonch va baxt – xuddi ona yurt.
 Cho`pon ikki qo`llab ko`rishib, shundoq
 Adib qarshisiga odob-la cho`kdi.
 Suhbat, qimixo`rlik, shirin xushchaqchaq
 Damlar hamma dilni yangilab o`tdi.
 Adib tinglar, so`rar, kulardi xushbaxt,
 Odam ham, tuproq ham o`xshab baxshiga,
 Unga shivirlardi qo`shiq, tabiat
 Bag`ishlardi tamom yangi nashida.
 Ilhom bo`ronida boqardi serzavq:
 Atrof o`tayotgan kun shu`lasida
 Butun o`zga ko`rkka kirgandi bu vaqt:
 Men ta`siridan ojiz latifalashgan rang.
 Ko`kat nafasida bokira jarang
 Bor edi dara-yu, yel nag`masida.
 – To`xtating, – der menga, – damlar sur`atin,
 Siz ayol, ayolga nelar tiz cho`kmas?
 Yorab, bu behishtday joylar suratini
 O`rol Tansiqboev chizmasa bo`lmas! –
 Ilhom savalagan tani salqin og`ushda,
 Ilohiy chiroydan borlig`ida kayf:
 – Ko`rmasam kirmasdi aqalli tushga,
 Uyqu g`afatida o`tgan umr xayf.
 – Domla, o`zingizga qildingiz tuhmat,
 Qachon uxladigiz?
 O`chirib chiroq.
 Bir dam mizg`ib olish nahotki g`afat?
 Deydi:
 – Yashash kerak daryoday uyg`oq.
 Sakson dara!
 Yana sakson yil sevib,
 Kezsam, bilsam ona yerni naq dehqon,
 Keksalik va dardni bir yoqqa qo`yib,
 To`yib-to`yib yozsam qolmasdi armon...
 Zavqdanmi, afsusdan lablari qurib
 Ichar ko`klam bo`yi anqigan qimiz,
 Mezbonlar siylashar ming taom qo`yib,
 Hikoya tinglaymiz, she`r o`qiymiz biz.
 Nazdimda hammaning tanida bahor,
 Faqat insonlarga musharraf huzur.
 Adib chehrasida mavj urib nahor
 Qo`zg`aladi birdan, so`raydi uzr:
 Ziyofat-chun rahmat!
 Bu bahri kabir,

Yashil to`lqinida suzib qolaylik.
 Unda eshak yo`rtib borar bir kampir,
 Bir nafas to`xtatib gapga solaylik.
 Bular bari bilgich! –
 Deydi-da ildam,
 Bosh yalang, to`sh yalang tushadi yo`lga,
 Suv kechayotganday tashlaydi qadam
 Shoir o`z qalbiga, qo`r berar dilga.
 Ortidan boramiz, qomati filday,
 Ko`rinar kenglikda yana ulg`ayib,
 Kampirning yoniga borib, o`g`ilday,
 Suhbat boshlagandi quyuq so`rashib.
 Kampir tetik, qotma, chayir jussasi
 Qizil mursagini ilib turganday.
 Yonida to`lmagan bahor g`unchasi
 Qizcha – Huriliqo sehrlanganday.
 Ko`zin uzmay turar shoir yuzidan,
 «Kim edi bu yaqin tanish, buzrukvor?»
 Fikrin qiynaganin uqib ko`zidan,
 – Bu Oybek domla-ku! – deyman serviqor.
 Ko`zi oftob cho`kkan chuqur chashmaday
 Tiniq uchqun bilan yonib ketadi.
 Do`lti labda kulgu sof karashmaday
 Entikib shodligin bayon etadi:
 «Qutlug` qon»,
 «Navoiy...
 «Qizlar» dostoni...
 Hammasini yozgan domlami chindan?
 Nigoh-la erkalab Huriliqoni,
 Adib o`y suradi yo yozar zimdan.
 Huriliqo yuzi, kulgichlarida
 Uchqun sochajakday qaynaydi sevinch,
 Tim qora, qirq kokil uch-uchlarida
 Acha taqib qo`ygan ko`zmunchoqlar zich.
 «Yomon ko`zdan asrab» bodrab turishar...
 Oybek domla zavqdan kuladi qotib.
 Qiz naq yozilajak qo`shiqqa o`xshar,
 Kelajakka kirar oy tongi otib.
 Ulg`ayib ufqqa oqadi oftob,
 Qaynoq peshonani yalar salqin yer,
 Nigoh yetganicha dara-ku atrof
 Yaqinga o`xshamas bular borar yer.
 Uzr, – dedi shoir – biz yo`ldan qo`ydik,
 Hechqisi yo`q, bolam.
 Hozir qirqim payt.
 Biz ham uy ichi-la qirqimda edik.
 Jo`nadik, qilay deb bir qoshiq ovqat.
 Yuringlar, bizga ham bo`linglar mehmon.
 Cho`poncha qurtova qilib beramiz. –
 Qizcha ham iltijo qiladi chunon.
 – Rahmat! Huriliqo, atay kelamiz.
 Rahmat!

Ona, endi siz ishni qo`yib,
Jujuqlarga so`zlab o`ltiring ertak!
Kampir kular tishsiz og`zini yumib,
Ko`zlari miltillar so`nuvchi cho`g`dak...
Mana, ketib borar qamti yonma-yon,
Kecha va ertaday acha, evara.
«Ko`rsam qanday ekan qiz yashar zamon,
Bizning kurash, mehnat berur samara...»

OYBEK ISHLAYAPTI

Afsus, Shahrisabzga yetolmadi u,
Pachkamar havzasi ko`rmoq edi farz.
Na iloj?
Erta may.
Azim poytaxtda
Tepchigan shodlikni ko`rmasa bo`lmas.
Bilar, katta qutli uyi to`rida
Bayram dasturxonini ochilmas usiz,
Oybek sulolasini uch bo`g`inida
Shodlik boshlanmaydi uni tavofsiz.
So`ng ishga... naq darhol to`xtovsiz ishga,
Qalbni ag`dar-to`ntar qildi shodlik, dard.
Miyani parmalar, sig`maydi ichga,
Aytmog`i,
bitmog`i,
o`ylamog`i shart.
Do`stlar-la xo`shlashdi, ko`ksida qo`li.
– Rahmat, rahmat! – deydi. –
Xayr, boringlar!..
Azim Toshkentiga chorlaydi yo`li.
Unga do`stlar tilar xayrli safar.
Ikki qo`l orqada, odimlar vazmin,
Xiyol bukchayganday ko`rindi qaddi.
Balki yozilajak nasrmi, nazm
Eng aziz yuk bo`lib bosib turgandi?
Adib uchdi juftin qanotga olib,
Quchdi og`ushiga sof osmon quyosh...
Men birdan junjikdim huvillab qolib,
Ko`z gamas, halqumga qalqib keldi yosh.
Yosh!
Nega qalqidi?
Neni sezdi dil?
Qay mash`umlik yalab o`tdi shodligim?
Nega bahor to`la qalbim ketdi zil.
Ko`rdimmi oldinda yo`lin ozligin?
Na charchashni bildi.
Na darddan zorni,
Shuncha yo`lni o`tdi zavqda, mehnatda
Bugun-erta uchun bag`ishlab jonni,
Yana solib dilga necha zamonni,
Yuk, ish ortdi, kirar har bir muddatga.
Yo`q, yo`q, umrin yarmi oldinda hali,

Arslon kelbatida qudrat va ilhom.
Dildiragan jonda qancha asari
Yetilmoqda – bizga qiladi in`om.
Dardu keksalikni bir yoqqa qo`yib,
To`yib-to`yib mehnat qilmoqchi hali,
Hamma kechinmani qaytadan tuyib.
Qalamga shivirlab bermoqchi hali.
Axir tinmay kezib, sevib ulgurdi...
Afsus!.. Ulgurmadi qog`ozga to`kib.
To`kilmoqqa tayyor yuragin duri
Nahot qolaverdi tubiga cho`kib?
Yiqildi yana bir cho`ng ulkan chinor,
Adab, ma`rifatning yorqin qasrida.
Hali G`afur G`ulom, Shayxzoda, Qahhor
Dog`ida dilimiz yig`lashda-ku zor.
Nahot yetim qoldik yana o`lim qasrida?
Ajal hasad kabi boltasin urdi,
Hayot, xayol qurgan yo`lini to`sib,
Noshud zaif bizlar termilib turdik,
Ko`zimizda mash`al borarkan so`nib,
Tibning kazo-kazo keksa-yu yoshi,
Joniga jonlarini qildilar payvand,
O`lim-o`lim ekan, berahm toshi
Eng ayyor jallodday unsiz berdi pand.
U hatto ajal-la qilmadi talash,
Arshidan quladi uchqur ilhomi,
Garchand haqqi edi yashash va yashash,
Garchand qalbda tig`iz umidi, komi.
Hech qachon, hech narsa talashmadi u.
Hayot ne`matidan behad baxtiyor,
Qalb undagan yo`ldan adashmadi u,
Bir dilni ranjitib bermadi ozor.
Beozor yiqildi, kirdi sukutga,
Miya, yurak, qonda abadiy uyqu.
Qanday sig`di ekan sovuq tobutga
Shuncha teran, qaynoq xayol va tuyg`u?
Yotibdi, yasharib, yana ulg`ayib,
Behad aziz necha soatli mehmon.
Evoh! Qalbdan uzib, kuyib, o`rtanib
Nechun topshirilar tuproqqa inson?
O`lim vujudiga solgan muzlardan
Kulganday hayotga demay alvido,
Katta mehnatdan so`ng bir dam mizg`igan
Singari bezavol tinch edi siymo.
Yozilajak roman, aytilajak so`z
Jaranglab boqardi dono manglaydan.
Fikr tig`izlikdan taranglashgan yuz
So`zlovchi sukutni oldi qaylarda?..
Go`yo davom etar, yo`lda serparvoz,
Yorqinroq porlaydi tasvirlarda rang.
Go`yo hamma yoqdan beradi ovoz
Har kitob, har misra, har so`z bir jarang.

Davom etar yo`lda adib hayoti.
Yo`l... yo`l mo`l, daryodan ketgan irmoqday
O`g`illarda, qizda po`lat qanoti,
«Bobojon»i dilin tutib mayoqday
Nevaralar boshlar shu yo`ldan yo`lni.

Buyuk bu uyquni etarkan ardoq,
«Oybek ishlayapti!» deydi nasllar...
O`z ko`rkini ko`rib tasvirlarida
«Oybek ishlayapti!» deydi asrlar...

XOTIRAM SINIQLARI

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,
Pinhona sog`indim, pinhona kutdim.
Yomg`irga bag`rini tutgan sahrodek –
Sening nasimingga qalbimni tutdim.
Mana, qalb – baxtu dard to`la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o`kinchim.
Qo`rquv kalxatlari tegib sindirgan –
Yodim siniqlari ostda – cho`kindi.
Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,
Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh.
Qaragin titroqda – hammasi jonli,
Qara, hammasining yuzi qontalash...
Bu onam – tangrining baxtli onida
Ayri ixlos bilan yaratgani chin.
Qarog`ida mehr sha`mlari yoniq –
Gullagan o`rikday orasta otin.
Kun toyib, shu`lalar ko`chgach ufqqa,
Sayroqi qushlarning tinganda bazmi,
Onam dilimizni chorlab qo`shiqqa,
Nim-nim sochar edi mumtozlar nazmin.
So`fi Olloyormi, devona Mashrab
Bayozlarin o`pib qo`lga olardi.
Yumushmi, o`yinmi – barini tashlab,
Sehrlil olamga kirib borardik.
Rangu ohanglarni jonga quyganda,
Shu`laga to`lardi butun koinot.
O`zimni seherga asir tuyganda,
Yurakda yozardi qo`shiq o`t qanot.
Yangamga esh bo`lib tikdim palagim,
Qog`ozdan sir tutgan satrimni tepchib,
Gullardi palakda shirin tilagim –
Ko`zimdan yoshlikning nurlarin ichib.
Hovlimiz ziynati jambil, rayhonday,
Otam ta`biricha edim boychechak.
Hali biz sezmagani qora qish aro
Nahot, jonlanmoqda ishq otlig` chechak...
Va hademay sezdik bu qahramonni,
Tig`day tillarida yalay boshladi.
Qadami yetganda har xonadonning –
Quvonchi bujmayib, so`liy boshladi...
... Aka, ko`zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,

Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorniki yanglig` bardosh bor edi.
Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo`lingizga kishan soldilarmikin,
Yukinish, yalinchmas – g`ururni ko`rib,
Vahshiy g`azablarda yondilarmikin?!
Aka, jonim akam – jondoshim akam,
Oltmish yil izimga qaytib yig`layin,
Bo`g`zimda tosh bo`lgan yo`qlovlarimni
«Oh»larim eritar – aytib yig`layin.
Singilni «mehrardan bino» deydilar,
Ko`z yoshga yetdimi mehrimning kuchi!
Gunohsiz, jonimning qotillariga
O`q qilib otdimmi nafratim, o`chim?
... Buncha chidam qaydan – po`lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmida otam...
Otash og`ushidan topib bizga non,
G`amga ham chidamli bo`larkan odam.
Onam qo`llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamonni «siz»lab.
Keksa ko`zlarida mo`ldir va mo`ldir
Qotgan ko`z yoshlarga boqardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,
Ne bois muttasil dillari vayron...
Kuni bo`yi kezib, bukchayib, tolib,
Keksa bag`rin yerga berib yotardi.
Biz nochor bir-biriga ezilib boqib,
Sukut dengiziga og`ir botardik.
Onam, «suv boshidan loyqa» derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zukur,
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yigitlarga qazilardi go`r.
Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko`r madik ko`zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdadasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.
Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg`in doyasi xudosizlar-ku.
... Sabr, qanoatdan yaralgan elim,
So`qir ham o`ziga so`qimoq izlar-ku!

Norg'ul o'g'illaring qirildi qushday
 Sibirning nur tushmas o'rmonlarida.
 Sen esa yasharding misoli tushda
 Turtinib g'ofilik tumanlarida.
 Menmi? Men shu qadar yosh edim hali.
 Yoshlik – g'am – begona biri-biriga.
 Qutulmoqqa anduh botqoqlaridan
 Osildim muhabbat shodliklariga.
 Menmi? Men ishq otlig' bir jahon aro
 She'r tinglab, she'r tizib – she'rlarda
 qoldim...
 Behishtiy jaranglar – jonimga oro –
 O'zimning baxtimda o'zim yo'qoldim.
 Baxt qasrimga kirib meni topdi dard,
 Urush, yozda yoqqan qor kabi o'lim.
 O'ttizga yetmayoq sochim qor yalab,
 Ko'z yoshim soyiga to'kildi gulim.
 Onam, donolikda yagona onam,
 Isyon ko'tarishdan bermabsiz saboq,
 Ustimga ketma-ket tog' qulagan dam
 Qoldim yashin urgan polopon siyoq.
 Bo'ldi, bas! Jangdan so'ng horg'in sarkarda
 Tirik askarlarin tizganday qator –
 Men tirik hislarim bir joyga yig'dim
 Va kuchli yashashga ayladim qaror.
 Yurtni bo'ron bo'lib kezdin bosh-oyoq,
 Qabristonlar aro quyunday yurdim,
 Eng kichik giyoh ham nazdimda uyg'oq,
 Faqat el-elatni sukutda ko'rdim.
 Tushlarimda topib akam jasadin,
 Otamning yoniga qazitdim qabr.
 O'zim yonganimda ruhlar yondi deb
 Xokiga suv sepib, tiladim sabr.
 Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,
 Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.
 Yoziqni devorga urdim-u biroq
 Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.
 Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
 Lekin so'qir dillik undan-da dahshat.
 Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
 Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.
 «Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,
 Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil.
 Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin
 Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil?!
 Toji yo'q podshoday sezdimi o'zin,
 Shu'la yoyilmadi bukik dilida?
 Qo'lida zarra yo'q ixtiyor, izn,
 Bildimi yitardi g'urur elida?!
 «Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni,
 Dengizlar quribdi, chiribdi baliq,
 «Insonsan, boshingni ko'tar», demabdi,

Ko'ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?
 O'zing berganding-ku, poklik, halollik,
 Iymonu ishonchlar – butun, beillat,
 Qilolmas edi-ku shayton dallollik,
 Ilmu hikmatlarga yor edi millat.
 ... Ey gumbazigardun, qoldimmi g'ofil,
 Ishonch, e'tiqodlar chiqdi puchlarga?!
 Suyanib najotlar kutgandik, nahot,
 Bizga choh qazigan qora kuchlarga?!
 Kim bilsin, savob deb urinishlar ham,
 Zamona soziga o'yinmi bari.
 Deydilar: yaratgan eng ulug' hakam,
 Hech qachon adashmas tarozulari.
 Qay biri vazminroq savobmi – gunoh,
 Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
 Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning
 –
 Nimasin yoqardi do'zax o'tlari...
 Bu dunyoda ko'rgan azob, ko'z yoshlar
 Savob posangisin xiyol bosarmi?
 Gumrohlik pallasin to'ldirsa toshlar,
 Eng baland doriga meni osarmi?
 Yoshim ketib-ketib, torday tarangman,
 Kapalak sharpasi tegsa, uzilur
 Chiday-chiday yupqa tortgan parangman,
 Cho'yan bo'lsa ham dil – qulfi buzilur.
 Lekin yashayapman, otam va onam
 Chayir arqoqlardan to'qishgan chog'i.
 Aytilmagan alam, yozilmagan she'r,
 Olinmagan qasos – yurak titrog'im.
 Boshim – portlovchi dud to'ldirilgan xum,
 Portlashin kutardim soniya sari.
 Sabrlar to'kildi naq kaftdagi qum –
 Yuzim ruhlarida qonli izlari...
 Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,
 Zinhor shakkoklikka yo'yman tilagim.
 Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,
 Obi rahmatlarda sovusin tanim...
 ... Yallig'lanib yotar kekxa xotiram
 Ichida shu dardlar, tig'li siniqlar...
 ... Holbuki, nur ichra dala-yu daram,
 Holbuki, bog'imda bulbul chah-chahlar...
 Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding!
 Kelar yo'llaringda pinhona toldim.
 Mening ota-onam, jon Vatanimda,
 Elim taqdirida abadiy qolding...
 Kelding-ey, Istiqbol, istiqbol bo'lib,
 Qalbimga nasiming bilan yo'l solding.
 Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,
 Men og'ir bulutdek bir yog'ib oldim...
 Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,
 Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar.

Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...

Ruhim u yoqlarga qush bo`lib uchar...

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Zulfiya lirikasiga xos asosiy tamoyillar nimalardan iborat?
2. Shoirani ijodining yetakchi motivlari nima?
3. “Quyoshli qalam” dostonida ulkan o‘zbek adibi Oybek hayotining qaysi lavhalari aks etgan?
4. O‘zbekiston bo‘ylab sayohatga chiqqan Oybekka kimlar hamroh va hammaslak edi?
5. Adibning ona-Vatan jamoliga maftun bo‘lib, Zarafshon bo‘yida kezganlari, qadim Buxoroda kechmish va kelajak xayollariga cho‘mgan paytlari shoirani hayajonga solgan o‘rinlarini topib, izohlang.
6. “Xotiram siniqlari” dostonida qaysi davr voqealari aks etgan?
7. Sizingcha, dostonida qanday mangu og‘riqlar “tilga kirgan”?
8. Shoiraning xotira siniqlari darz ketgan o‘rinlarni dostonidan topib izohlang.
9. Asarda ota va ona obrazlari qatiga singdirilgan yuk nimadan iborat edi?
10. Zulfiya dostonlarida qo‘llangan badiiy san‘atlarga to‘xtaling.



ASQAD MUXTOR (1920-1997)

Atoqli shoir, nosir va dramaturg Asqad Muxtor 1920-yil 23-dekabrda Farg'ona shahrida temir yo'l ishchisi oilasida tug'ilgan.

Ilk she'rlari: «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar». She'riy kitoblari: «Po'lat quyuvchi» (1947), «Hamshaharlarim» (1949), «Rahmat, mehribonim» (1954), «Chin yurakdan» (1956) «99 miniatyura», «Karvon qo'ng'irog'i». Pyesalari: «Mardlik cho'qqisi» (1948), «Yaxshilikka yaxshilik» (1949), «Samandar». Qissalari: «Daryolar tutashgan joyda» (1950), «Qoraqalpoq qissasi» (1958), «Buxoroning jin ko'chalari». Romanlari: «Opa-singillar» (1955), «Tug'ilish» (1963), «Davr mening taqdirimda» (1964), «Chinor» (1973), «Amu».

«Chin yurakdan» (1956) she'riy kitobi, «Hayotga chaqiriq» (1956), «Dunyo bolalari» (1962) hikoyalar to'plamlari o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitgan.

Sofokl, Tagor, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, M. Gorkiy, T. Shevchenko, Blok, Korneychuk asarlari Asqad Muxtor tarjimasida o'zbek kitobxonlarining ma'naviy mulkiga aylangan.

U O'zbekiston xalq yozuvchisi (1980), Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga (1972) sazovor bo'lgan. «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan (1995).

1997-yil 17-aprelda Toshkent shahrida vafot etgan.

DOL QOYA

Birinchi qism

Yigit-ku, nafasi siqardi jichcha.
Ko'ylagi taniga yopishgan.
Bukchayib, hansirab borar yigitcha,
Chuvakkina cholni opichgan.
Tog' yo'li – aylanma. So'qma yo'l. Tikka.
Chaqir tosh tiladi tovonni.
Ammo ChOL og'irmas yigitga,
O'zga yuk alamli, davomli.
Tepada bahaybat Dol Qoya,
Ajdod-avlodlarning mudhish manzili.
Yo tangri! Bu yo'lga bormi nihoya,
Qoyami, yukining ramzimi?
Qora tunda qora qoya tosh,
Shomlari shafaqdan qondek qizarar...
Og'ir yukdan lovullaydi bosh,
Qaltirar, qaltirar tizzalar.
Reza ter yiltillar sabza mo'yida,
Bo'ynida tomirlar bo'rtadi...

Men g'uluv uyg'otdim she'rxon o'yida.
Bu uzoq o'tmishning ertagi.
– Yana o'tmish? – deydi g'ashlanib

Shu kun tashvishi-la yashovchi o'rtoq.
Ha, ko'hna gap ketdi boshlanib,
O'tmishidan kechgan – nodon yo, qo'rtoq.
O'tmish xotiradir. Xotira – boylik.
Kecha, Bugun, Erta – bus-butun.
Shoshmang, do'stim, sabr qilaylik,
Qayga eltar ekan yigitcha yukin...

U o'rlaydi. Toshloq yo'l tikka.
Qoqinib, qoladi cho'kib, tizzalab.
Chol undaydi, go'yo ezgulikka,
Goh dalda berib, goh izzalab.
Izza qilsa haqli, begona emas,
Shu yigitchaning u – buvasi.

Pastda tuman, vodiy elas-elas,
 Vodiy to`la uva-juvasi.
 Lekin qarib, tamom qochdi qon
 Suyakka yopishgan etidan.
 Ekin-tikinda yo`q, bedarmon,
 Na yura oladi suruv ketidan...
 Shuning uchun nevaraga bu kun
 (Ungagina emas) yuk bo`lib qoldi.
 Shuning-chun umrida eng og`ir yukin
 Bola bugun kiftiga oldi.
 O`smirlarcha, yelkalari chiqqan,
 Usti-boshi yupun, suyagi buzuq.
 Bobo esa chanqab yutliqqan,
 Nafasi tez, gaplari yuluq.
 – Chaproqqa yur, bolam, o`ngda tayg`oqlar...
 Bu yo`llarni bobo biladi.
 Buvasin opichib kelgan bir vaqtlar.
 Endi bunga boqib, bag`rin tiladi.
 Nahotki, uni ham bir kun jigari
 Bu yo`llardan chiqsa ko`tarib?!.
 Nahot, o`shanda ham manov singari
 Quyida vodiylar yotsa ko`karib?!.
 Nahot, yillar o`tib bilanihoya
 Uzilmas bu la`nat zanjiri?
 Tunday soya solib turar Dol Qoya,
 Go`yoki bosh uzra qismat shamshiri?
 Ha, ikki bor o`tar shu mudhish yo`ldan
 Bu elatning mardi-mardumi.
 Shunday ajdodlardan unga meros bo`lgan
 Daxlsiz, shafqatsiz urf rusumi.

* * *

Afsonami? Yana afsona? –
 Deydi ishchan, omilkor do`stim.
 Ha-da. Afsonaning mag`zi – durdona.
 Archib ko`ring tumanli po`stin.
 Qalqib chiqar nurday yorishib
 Zamonlarning dono hamrohi.
 Borliq bilan hargiz qorishiq.
 Hayot saboqlarin asil qaymog`i.
 Bu afsona meni uzoq qiynadi.
 Ergashdi, chirmashdi o`y-hislarimga.
 Tushlarimga kirdi, qo`ymadi.
 Aralashdi bahslarimga.
 Men uni esladim, yetdim qadriga
 Soldat qasamini dildan tuyganda;
 Qizaloqlar gullar qo`yganda
 Veteran bobolar qabriga;
 Bir navqiron shakkok o`z bobosining
 Jangovar medalin kartga tikkanda;
 Yo kimningdir mushfiq momosini
 «Jiguli»si bilan turtib o`tganda.
 Men bu afsonani esladim har gal

Avlodlar to`qnashsa basharti;
 Oqsoqollar kengashgan mahal
 Yonma-yon o`tirib baqamti.
 Meni qiynadi u ...

Lekin shu topda
 Ming bor qiyin qahramonimga.
 Bobo tovonida og`riq sezmoqda:
 Toshlar bo`yalmoqda go`yo qoniga.
 – Tizzang toldi, bolam... – dedi ezilib. –
 Nafasingni rostlab ol jichcha...
 Bir buta yonida asta egilib,
 «Yukni» yerga qo`ydi yigitcha.
 Manglayida sho`rlab qotdi ter
 Dol Qoyaning zax sovug`idan.
 Chaqir toshlar yo`lda qizg`imtir
 Qondanmi, quyoshning so`nggi cho`g`idan...
 Pastda esa yashil pillapoyalar,
 Baxmalday tun yotar yaslanib.
 Tumanli uyquga botar soyalar
 Daralar ustiga tashlanib.
 Vohalar ustida tun ko`rpasi moviy.
 Ufqlar tandirday balqiydi.
 Talpintirar qarddon vodiy,
 Gul hidi, non hidi anqiydi.
 – Bobo, qarang, osmon, xuddi shiysha!
 Nahot, qiynamasa bu ranglar sizni?
 Nahotki, shularni ko`zingiz qiysa?
 Yashashni hech istamaysizmi?
 – Ha, husnu karomat to`la bu olam!
 Ammo endi men uchun emas.
 Odat-tariqatni buzish gunoh, bolam,
 Gumon oralatma imoningga, bas...
 Yigit cheksiz alam, dard bilan
 Yurdi bobosini yana yelkalab.
 Ammo kiftida issiq jon taftidan
 Darmon qochdi. Qoldi cho`kkalab.
 – Aytmadimmi, bolam, yomondir qutqu,
 Oyoqlaring yana tilindi...
 Ko`nglingga vasvasa oraladiyu
 Og`irligim darrov bilindi...
 – Yo`q, qilmayman bu ishni, bobo!
 Orqaga qaytaylik! – dedi.
 O`tirdi.
 Dol Qoyadan qaytdi xunuk aks sado.
 Yigit ich-ichidai titrab, o`kirdi.
 – Toylog`im, bu isnod emasmi?
 Elda bosh ko`tarib nechuk yururman?
 O`limdan qo`rqibdi, demasmi?
 Burchingni ado et, g`ururlan.
 – Yo`q! Yanchilsin bu mudhish rusum!

Isyonga chorlaydi sirli sadolar:
 Donishmandlik nurin sochsin, yayrasin,
 Yashasin dunyoda hamma bobolar!
 – Qonunlar mantiqli, qonunlar ziyrak.
 Yoshlar to`q-mo`l bo`lsin, kuchli,
 serbardosh.
 Tiriklik o`lmasin, olam bo`lsin yosh.
 Qarilar dunyodan ketishi kerak...
 – Badaviydan qolgan urfdir balki bu.
 G`amlari bo`lmagan qorindan bo`lak.
 Boshqa odam, boshqa olammiz-ku,
 Bizda ruhiyat bor, bizda bor yurak.
 Kuchli, to`q bo`linglar, dedingiz... Axir,
 Hayvon ham to`q, hayvon ham kuchli.
 Qani dard, xotira, mehr va qadr?
 Qani o`y-u havas, qalbimiz puchmi?
 – Darding chiqdi ko`zlarindan sirqib.
 Nahot, avlodlarga isnod etarsan...
 – Qanday avlod bo`ldik,
 Ildizimni qirqib,
 Ganjinamni jarga itarsam...
 Qoya yaqin, jarga dolday egik.
 Tog` ko`chkisi soladi g`ovur.
 So`nggi kuchin jamlab o`rlyaydi yigit,
 Ko`tarilar kiftidan hovur...
 «Imonimni susaytding lekin.
 Isyon ruhi bilan sarmastsan.
 Ha, ehtimol, ko`hna dunyo yukin
 Endi senlar ko`tarolmassan.
 Zamonlar o`zgarar ekan-da.
 Tiriltirding yashash hissimini.
 Mening og`irligim emas yelkangda,
 Ruhing ezar sening jisingni».
 – Qonun zanjir, bolam. Ha, temir qopqon.
 Temirni qirqishga lozimdir temir.
 – Qani o`sha temir, bobojon?
 Sizensiz topolmasman uni bir umr!
 Bobo bor umrini ko`rdi uning shu dam:
 Keksaligin ko`rdi naq shu so`qmoqda.
 Jigari opichib, ana, uni ham,
 Hansirab Dol Qoya sari chiqmoqda...
 Boshimi, Qoyami aylandi gir-gir.
 O`limidan og`ir bolaning dardi.
 Vujudini Qoya tagidagi
 Tubsiz o`pqn zaxi tortardi.
 His etdi devorday mangu zulmatni.
 Zaif ko`zlarida yashash mungi bor.
 Hozir bolasining issiqqina kafti
 Yelkasiga tegar so`nggi bor...
 Qaltirab ketyapti ko`zin qarog`i...
 Shunda bobo dedi:
 – To`xta-chi birpas...

Qaltis tavakkalga jazm etding chog`i...
 Men yoningda bo`lmasam bo`lmas.
 – Bobo! Bobojonim mening! Yopiray!
 Menda bu oqshomning butun gunohi!
 Yuring! Sizni shunday yashiray
 Ki, inson zotining tushmas nigohi!
 Ikki zaif vujud musht juftlab,
 Milsiz isyonga jur`at etdilar.
 O`limga, bu o`pqn zulmatiga tuflab,
 Dara yo`llaridan tushib ketdilar.
 Tog`lar yangrar sirli, g`aroyib,
 Bulardan taqdirin so`rgan taxlit.
 Tepada Dol Qoya qoldi qorayib,
 Asrlar nomidan solganday tahdid.
 Yiqildilar, darmon bitdi. Lekin
 Nimadir – dildami-ufqda – yorishdi.
 Tong bo`zargan paytda sudralib, sekin
 Chakra g`orlariga yetib borishdi.
 – Bunda, bobo, buloq suvi shirin,
 Non-namakka zoriqtirmasman.
 Vodiy havosidan chiqib shimiring
 Yulduzlarga to`lganda osmon.
 Yigit ketdi. Bobo qoldi, mayib,
 Begona ko`zlardan olisda.
 Po`panak gul o`sgan tirik tosh bolishda
 Tirik tushlar ko`rdi jilmayib.
 Chakra g`or og`zini chakalak to`sgan,
 Shomlari shabparak qo`nalg`a tanlar.
 Toshlarida irg`ay, qorachayir o`sgan,
 Tongda yastanadi pag`a tumanlar.
 Derlarki, quyunlar unda sarsari,
 Tunlari sharpalar yurarmish.
 Mog`oraning zimziyo qa`ri
 Odamday shivirlar, dam oh urarmish...

Ikkinchi qism

Pastda vodiy iliq nurga g`arq,
 O`ngirlarda poda salmoqlar.
 Yerni tirmab arpa sepadi xalq –
 O`sha urug`, o`sha aymoqlar...
 Shomda olov yoqar ezgu xudogo`y.
 Oy qalqadi kumush laganday.
 Hayot o`sha mangu hasratli kuy,
 Go`yo hech yangilik yuz bermaganday.
 Vaholanki, chag`al aymog`ida
 Tug`ilgandi bugun yangi zot.
 Ehtimol, tarixning narirog`ida
 Undan boshlanajak yangi bir avlod.
 Bu mening yigitcham. O`sha bola-paqir.
 Darvoqe... nega u hanuz ismsiz?
 Endi nom bermasak bo`lmas unga. Axir,
 Ish qildi mislsiz, iznsiz...

Yangi deb, butunlay yangimas Roston
 (Shunday bo`laqolsin otmi – laqabi.
 Endi uni qismat yorlaqadi –
 Balki bo`lib ketar Rostoni Doston.)
 Ust-bosh yupun, turqi o`sha-o`sha,
 Yelkalari chiqqan, qoq-quruq.
 Ammo yuragida uning yangi ruh,
 Jur`at o`t oldirgan umidlar jo`shar.
 Garchandkim, dunyoning ishlari mushkul,
 Goh musibat umrni og`ular,
 Dillardan dillarga topib yo`l,
 Orzular kezadi, sirlil orzular.
 Chaqilar vodiyning tog`-toshida
 O`chgan yulduzlarning o`tli izlari.
 Shomlar chaqchaqlashar buloq boshida
 Chag`al aymog`ining cho`g`dek qizlari...
 Go`zal shahzodasi bor edi yurtning,
 Yigitlari bilan bo`lardi paydo,
 Surma tortib, terib qoshu murtin.
 Bilardiki, el unga shaydo.
 Vodiy yo`llaridan, ko`yu dehotdan
 Ot solib o`tardi lahzada.
 Boshi chiqmay sayru sayohatdan,
 Yosh edi, sho`x edi shahzoda.
 Mag`rur, saxiy, bilimdon. Ammo
 Zerikardi shekil qay choqlar.
 Bir ermak qidirar, topar muammo,
 Chiltonlar aytardi, jumboqlar.
 Boshlar edi qaltis hazil-huzul,
 Bahslashardi sopqon otishdan.
 O`ziga mahliyo, topar edi huzur
 Omiy elatlarni laqillatishdan.
 Bir kalaka qilay, deya jo`rttaga,
 Bir kuni tashladi javobsiz jumboq:
 – Sahar turib hammang ertaga
 Tomdanmi, qirdanmi ufqlarga boq.
 Kim avval ilg`asa ilk tong nurini
 Menga ovoz bersin shu lahza.
 So`ng, mayli, nimaki tilak tilasa,
 Baxtiyor etaman umrini!
 ...Tunda yupun-yalang va yoshu keksa
 Qirga yopirildi go`yo mo`r-malax.
 Xotin-xalaj tomda, bola-baqra esa
 Daraxtlarga chiqdi o`rmalab.
 Chodirda shahzoda titrab kiflari
 Oldindan zavqlanib, kaftga kuladi:
 «Tongda birdan baqiradi bari,
 Tomosha: janjalu mushtlash bo`ladi!»
 Shumshayib o`ltirar qirda xaloyiq,
 Ko`zin sharqqa tikib, munkib gavdasi.
 Yo rab, nahot, uni shunga ko`rsang loyiq,
 Ne kunlarga rozi umid bandasi?!

Kechikib kelgan Roston zap qoldi gapga:
 – Ha, noumid shayton! Senga yo`q taraf...
 Joy ham tanlamadi bola, bir to`ngakka
 O`tirib oldi mag`ribga qarab.
 – Kun sharqdan chiqadi hoy, banda!
 – Bo`ldi kulgi! Olishdi gapni.
 – Omaddan, qismatdan bezor bo`lgan-da,
 Yelkamning chuquri ko`rsin, deyapti!..
 Rostov esa boshi quyi, so`zsiz,
 Asta o`rtanardi dil otashida.
 Rozi edi bo`lmoqqa ko`zsiz:
 Bugun yana ko`rdi buloq boshida...
 Soliqqa tushadi, bo`ladi kaniz
 Bo`y yetib qirmizi kiygan qizaloq.
 Bu joyning qizlari shunday so`lar tez,
 Qiz emas, misoli qizg`aldoq.
 Yigitlar, Rostoday, to`lg`anib,
 Orzulardangina qonadi.
 Qirmizi ko`ylakdan cho`g`lanib,
 Bir umr do`zaxda yonadi.
 ...Hazil-mazax tindi.
 Ufq qoldi faqat...
 Tong oldidan zimziyo, jimjit...
 Har kim o`z umidi bilan betoqat,
 Mijja qoqmay o`ltirar junjib.
 – Tong nuri! Tong nuri! –
 yangradi bir vaqt.
 Bu ovoz hammani qalqitdi.
 Shu zum shahzodani qilaroq karaxt,
 Mag`ribda Dol Qoya yarq etdi.
 Qirda toshdi go`yo shalola:
 – Yutdi! Bola yutdi! – degan sadolar.
 So`ndi shahzodada shavqu hafsala,
 Ijirg`andi: «Xap tur, gadolar!»
 Roston paydo bo`ldi.
 Olomon hadsiz.
 Oq chodirning ro`parasida.
 Shahzoda iljayar rag`batsiz:
 «Nima ham tilardi bu norasida!..»
 Nima tilar ekan, zarmi, xazina? –
 Bolaning og`ziga tikilardi xalq.
 Tong otdi. Tog`larda zinama-zina
 Shu`lalanib ko`tarildi Sharq.
 Roston mahkam tirab ikki oyog`ini:
 Shahzoda, mard bo`lsang, lafzingni rost qil,
 Tilagim shu, – dedi, – Chag`al aymog`ini
 Qizlar solig`idan xalos qil!
 Maydon jim... Birovlar qashiydi gardan.
 Birov shod, birovlar hayratda xijil...
 Aks-sado keldi faqat tog`lardan:
 – Xalos qil!
 – Xalos qil!!

– Xalos qil!!!
 Shahzoda lol, magʻrur boshin eggan,
 Boʻzargan ufqqa boʻzarib boqdi.
 Alam qamchisini otga bosar ekan,
 Noiloj: «Maʻqul!» deb bosh qoqdi.
 Vodiya taraldi bayram ovuldan,
 Shodlik ovozasini yetdi koʻklarga.
 Yosh-yalang qirlarga yoyilgan...
 Bamisli lolazor yashnar koʻklamda.
 Faqat Roston...
 Bobosi-la yolgʻiz
 Qabristonday jimjit, zax mogʻorada.
 Soʻz topolmas goho bir ogʻiz,
 Gap qochganday goʻyo orada.
 – Aytganimday qilibsani, bolam,
 Sen xijolat tortma, hammasi toʻgʻri.
 Tilaging oʻzingga, devdim, havola,
 Uni ham topibsani, balle, el oʻgʻli!
 Onalar koʻnglida noming boʻlmas unut,
 Duo qilar qizlar ikki dunyoda.
 Gʻaflatda qolmasin ammo endi yurt,
 Alamzada boʻpti shahzoda...
 Yurt osoyish. Dorilomon kezlar.
 Naʻmatak gullaydi togʻi-toshida.
 Yetiladi suxsurday qizlar,
 Sirli suhbatlari buloq boshida.
 Kelinlar tovlanar anvoyi xilda
 Surnay sadolari yangraydi.
 Arpa-bugʻdoy toʻlqinlanar qirda,
 Oʻngirda podalar maʻraydi.
 Roston bola emas, endi boʻz yigit.
 Eʻtibori baland, qaddi rost.
 Koʻzlari sal mungli, qoshlari egik,
 Negadir chehrasini ochmaydi, xolos.
 Dilida kezadi goʻyo qora bulut
 Bobo soʻzin eslar goh-gohda:
 «Gʻaflatda qolmasin endi yurt,
 Alamzada boʻpti shahzoda» ...
 Kutganiday boʻldi. Sokin bir kecha
 Doʻzax yalligʻlatib vodiyni tongin,
 Qoʻrgʻonidan tortib bogʻi-rogʻigacha
 Qovjiratib ketdi dahshatli yongʻin.
 Uzoqqa bormadi toʻyu alyorlar,
 Baxt erkalatmadi chagʻal xalqini.
 Don-dun, gʻaram yondi, yondi omborlar,
 Osmonlarga oʻrlab yolqini...
 Kulu kosov qoldi qaznoqlarda,
 Na-da urugʻlikni oldilar asrab.
 Damda gado boʻlgan qora qishloqlarda
 Achchigʻ tutun kabi kezardi hasrat.
 Qora kulfat keldi chagʻal aymogʻiga,
 Eksa yoʻqdir donu donasi.

Endi bosh egadi kimning oyogʻiga?
 Kimga yetar oʻksuk nolasi?
 Shahzodaga faryod xush yoqar,
 Oldindan sezadi zavq-shavq galini.
 Ochlik tahdid solgan elatlarga boqar:
 “Kelmaysan-a, yigʻlab, yalinib!”
 «Noilojmiz, – deydi Roston xirqirab,
 Oʻzi ham bukchayib qolgan boboday.
 Gʻor sovuq, sham yonar xira pirpirab, –
 – Ochlik kelayotir bosib vaboday...
 Tun seskanar inson nolasidan,
 Vayronalar uzra quzgʻun galalar.
 Onaday zor-zor dehqon bolasiga
 Huvillab yotibdi dalalar.
 – Don soʻrab boramiz qon evaziga
 Oʻsha tekinxoʻrga yana choʻkib tiz.
 Baxt, bobo, yotmi chagʻal shevasiga?
 Esiz gʻururimiz, qadrimiz esiz...
 Bobo choʻkib oʻtirar.
 Gʻorda mashʻum sukut.
 Shift bosib tushmoqda qismatday qora.
 Nafasini siqar, qaddini bukib...
 Ayt piri donishmand, ne chora?
 Tashqarida koʻklam bir soʻziga zorday,
 Mador ketgan payt ilikdan.
 Hozir don tikmasa dehqon, kuzga bormay
 El-yurt qiriladi qahatchilikdan.
 – Bunday... – dedi bobo yigʻib hushini,
 Roston koʻzi soqqa, yuzlari qotma. –
 Shahzoda kutadi bosh egishingni,
 Sen izzat-nafsingni toptatma
 Tekinxoʻrga borma, mehnatkashga bor,
 Mehnatkash kiradi joningga aro.
 – Bobo, mehnatkash-ku bitta donga zor,
 Xonavayron, axir, faqir-fuqaro.
 Tekinxoʻrdan ming bor tejamli, joʻmard
 Chumoli mehnatkash, mehnatkash yumron.
 Tongda yosh-yalangni toʻpla-da, joʻnat,
 Dala-tuzga chiqsin, kezsini qir, oʻrmon...
 ...Vodiya yoyilgan ertalab
 Yigit-qiz, bir-birin chorlar, imlardi.
 Don terardi ular bitta-bitalab
 Uyalarni ochib, titib inlarni.
 Birov qaytdi – bir doʻppi tarigʻ,
 Birov – hovuchida arpami, oqshoq.
 Birov – etagida sara bugʻdoy: sarigʻ,
 Birov – lippasida uch-toʻrtta boshoq...
 Yurt keldi yutoqib. Erkagu xotin,
 Bolalar darmonsiz, qoqsuyak.
 Och nafslarin tiyib, har don goʻyo oltin,
 Misqollab tashishdi bir-birin suyab.
 Darhaq, boʻlur toma-toma koʻl.

Hamal kirib qirlar ko`kardi.
 Qirilib ketmadi, bo`lmasa-da mo`l,
 Och yurt kuzga borib xirmon ko`tardi.
 ...Qurbonsiz bo`lmadi bu sabot, to`zim –
 Qazo qildi dardchil, zaiflar.
 Ado qildi fidoyilar o`zin –
 Jon berdi jonsarak mayiblar...
 Birovlarni ochlik olib ketdi,
 Birovlarni uning vos-vosi.
 Tashvishdan zo`riqib, to`sat vafot etdi
 Chag`al aymog`ining peshvosi.
 Dilgir odam edi, odil, kuyunchak,
 Yurtga bag`ishlagan edi umrini.
 Bir kesardi marhum yetti o`lchab,
 Endi kim bosadi uning o`rnini?
 Kimni saylash kerak endi peshvolikka?
 Yana tashvish bilan qaynar olomon.
 Sahardan maydonda yana xalq tikka.
 Hammaning ko`nglida jo edi bir nom.
 Chindan, kim, kelganda shahzoda, kazzob,
 Yerga qaratmadi yuzlarimizni?
 Qahatlik qahrinda kim topdi najot?
 Va kim xalos etdi qizlarimizni?
 – Roston!
 – Roston bo`lsin!
 – Roston munosib!
 U tadbirkor, oqil, donishmand!
 Yosh bo`lsa ham el g`ami bilan band! –
 Suron turar edi maydonni bosib.
 Yigit bosh ko`tardi: – Yo`q, oqil men emas.
 Yurt oldida gunohim katta... –
 Maydon suv sepganday jim bo`ldi birpas,
 Xaloyiq turardi lol va hayratda.
 – Xom sut emgan banda, Dol Qoyadan
 qaytdim,
 Men bobomga topdim uzlatdan go`sha.
 Men bir nodon, qo`rqoq, bor gapni aytdim.
 Jami donolikni o`rgatgan o`sha.
 Ming yillik udumni buzdim men badbaxt,
 Yurt oldida gunohim katta.
 Bari bir kufrimdan kechmaysiz hech vaqt...
 Xaloyiq turadi lol va hayratda.
 Xaloyiq turardi lol va hayratda
 Rostonning bobosi tirik! Vo darig`!
 O`ylar yonar edi bu sukunatda

Tog`larni, toshlarni go`yo ag`darib.
 Ufqlar noparmon, barglar dali nam;
 Tong dunyoni shabnamga chaygan.
 Tepada Dol Qoya g`arib, bukchaygan.
 G`orda bu jimlikdan pirpiraydi sham.
 Hayot qay tomonga oqadi endi?
 Xaloyiq turadi lol va hayratda.
 Shunda bir tovushdan sukut chil-chil sindi:
 – Kechamiz! – Yuz marta! – Ming marta!
 Mayli, Dono bobo bo`lsin qoshingda,
 Biz seni deganmiz, peshvomiz bo`l! –
 Qalqqan olomonni tinchitib shunda
 Roston maydon ora ko`taradi qo`l:
 – Ma`qul, saylang meni! Lekin shartim shu:
 Yo`qotamiz mudhish udumni.
 Ilk farmonim bo`lur Dol Qoyaga qarshi,
 Asrlarga qarshi tikdim o`zimni!
 Go`yoki tog`larda qanot qoqdi Humo,
 Birpas jimlikdan so`ng qalqdi sadolar.
 – Donishmandlik nurin sochib doimo
 Yashasin dunyoda hamma bobolar!
 Yashasin dunyoda hamma bobolar!

Men bilmayman chag`al aymog`ini.
 Bo`lganmi bunday el, bunday mamlakat.
 Ammo afsona der gapning qaymog`ini:
 Avlodlar ajdodlar bilan yalakat.
 Bilmayman yolg`onmi-rostmi bu qissa,
 Ildizi qaylarga borib yetadi.
 Bilaman: har bo`g`in, hatto har kimsa
 Dunyoning bir qismin olib ketadi.
 Inson cheksiz kamolot deb yashar,
 Marralar ketidan kelar marralar.
 Daxlsiz merosdir unga bani-bashar
 Misqollab to`plagan zarralar.
 Asta vahshatlardan poklanar dunyo,
 Insonning qalb quyoshi o`chmas.
 Hadik solmas elga mudhish ro`yo,
 Dol Qoya ustida quzg`unlar uchmas.
 O`tmishu kelajak bus-butun.
 Tarixning qa`ridan kelar sadolar:
 Nabiralar baxti, kamoloti uchun
 Yashasin dunyoda hamma bobolar!

1985-86-y.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Asqad Muxtorning kuzatuvlarga asoslangan falsafiy lirikasi qanday estetik tamoyillarga asoslangan?

2. Adib jahon adabiyoti namunalaridan qaysi asarlarni badiiy yuksak tarjima qilib, XX asr o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan so'z san'atkori hisoblanadi?
3. "Dol Qoya" dostonining obrazlar tizimiga to'xtalib, fikr almashing.
4. Doston orqali shoir nima demoqchi?
5. Dol Qoya obrazi nimaning ramzi hisoblanadi?
6. Dostonda qanday umuminsoniy g'oyalar ilgari surilgan?
7. "Xom sut emgan banda" iborasi qo'llangan o'rinni toping, asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda izohlang.
8. Roston obraziga tavsif bering.
9. Dostonda qanday mudhish rasm-rusum haqida gap boradi?



SAIDA ZUNNUHOVA (1926-1977)

Saida Zunnunova (1926.15.02. Andijon – 1977.20.03. Toshkent) – shoira. Yozuvchi Said Ahmadning rafiqasi.

Uning ilk she'ri 1945-yili Andijon viloyati «Paxta fronti» gazetasida bosilgan. «Qizingiz yozdi» nomli ilk she'rlar to'plami esa talabalik yillari (1948) nashr etilib, she'riyat muxlislari e'tiborini qozondi. Shundan keyin «Yangi she'rlar» (1950), «Gullar vodiysi» (1954), «Qizlarjon» (1962), «She'rlar» (1964), «Bir yil o'ylari» (1967), «Nilufar» (1972) she'riy to'plamlari e'lon qilindi. Shoira go'zal lirik she'rlar bilan bir vaqtda «Sodiq va Anor» (1947), «Xayrixon» (1949), «Surat bilan suhbat» (1966), «Qo'shnilarim» (1968) singari dostonlar ham yaratdi. «Gulbahor» (1956), «Povest va hikoyalar» (1957), «Gulxan» (1959), «Do'stlik» (1960), «Qanot» (1961), «Olov» (1962), «Ko'chalar charog'on» (1965), «Bo'ylaringdan o'rgilay» (1972) singari nasriy kitoblarida xotin-qizlar hayoti haqqoniy badiiy tajassumini topdi. Saida Zunnunovaning «Ona» (1966) va «Ko'zlar» (1968) nomli pyesalari ham bor.

Toshkentdagi ko'chalardan biri va 224-sonli maktabga, shuningdek, Andijon shahridagi ko'cha va maktablardan biriga hamda Bo'z tumanidagi akademik litseyga Saida Zunnunova nomi berilgan.

RUH BILAN SUHBAT

Shirin xayollarga to'lgan ko'zlari
So'ligan gullarga tushdi-yu, tindi.
Olib kelishgandi bir to'da qizlar,
Guldonga suv quymay solibdi kimdir.
Avaylab, ohista suv purkadi ona,
Siladi tirilgan mayin yaprog'in.
Ranglar jilolanib, tovlanib yana,
Nechun yangiladi onaning dog'in.
Guldasta qo'lida, ma'yus va sokin,
Asta kirib keldi jimjit uyiga.
To'rdagi suratning yoniga sekin –
Qo'ydi-yu, sho'ng'idi yana o'yiga –
Sarupo kiymading qaynata bo'lib,
Hech yo'qsa, gullardan bo'lg'in bahramand.
Odam keldi bugun hovlingga to'lib,
Farzanding yoniga qo'shildi farzand...
Shodlik, o'kinchdanmi ko'z yoshlar oqdi,
Ona qalbi so'zsiz chekardi fig'on.
Xira ko'zlar bilan yana suratga boqdi,
U hamon o'shanday, sukutda hamon.
Suratda hali ham o'sha-o'shasan,
Hamon ko'zlarida yoshlik, kulgi, nur.

Hali ham o'shanday chiroyli, yoshsan,
Hali ham o'shanday zabardast, mag'rur.
Boqishing hali ham o'shanday iliq,
Dilingda nelar bor, aytmayсан faqat.
Qatra ko'z yoshingga turolmasding tek,
Nega indamaysan, oh, surat, surat!
Bir nafas tilga kir, mayli, bir sekund,
Daryo bo'lib oqqan yoshlarim haqqi.
Ko'yingda ming toshga urilsa hamki,
Ming toshdan qattiqroq boshlarim haqqi,
Bir nafas tilga kir, mayli, bir sekund.
Hayotni yaratgan tabiat nahot,
Bir damni ayasa, nomardlik qilsa.
Tan olmayman unda, oy, quyoshini,
Nimalar deyaпman, bilmayman, hayhot!
Seni izlayverib holdan toydim men,
Seni izlayverib qarib qoldim men.
Poezdlardan o'tib, yellardan o'zdim,
Ammo visolingga yetolmadim men.
Xayolim izlashdan, ko'nglim bo'zlashdan,
Seni axtarishdan sira tolmadim.
Daryolarni kechib, tog'lardan oshdim,

Kuygan bug'doyzorlar, bog'lar qolmadi.
 Oxiri oq qayin ostida tanho,
 Turgan qabr uzra asta cho'kdim tiz.
 Bu sen bo'lmasang ham takdiring bir, o,
 Balki bu yoshgina yigitdir, esiz!
 Muzdek tuprog'ingni ming marta quchdim,
 Muzdek yonog'ingni o'pdim necha bor.
 Daryo bo'lib okdim, qush bo'lib uchdim,
 Huzuringga chopdim takror va takror.
 Qishda kuragani bordim qorlarni,
 Yozda suv sepgani oshiqdim har vaqt.
 Bahor oftobiga chirmashib doim,
 Gohi gul o'tqazdim, gohida daraxt.
 Bir nafas qo'ymadim, men seni yolg'iz,
 Bir dam tanholikka tashlaganim yo'q.
 Sensiz yig'lamadim, kulmadim sensiz,
 Sensiz ko'nglimni ham xushlaganim yo'q.
 Seni yiqitgan o'q mening tanamda
 Butun jarohati bilan turibdi shundoq.
 Joningga jonimni ulab ming o'ldim,
 Azizim, oqargan sochlarimga boq.
 Gapir, gapirsang-chi bir so'z loaqal.
 Yuzimni kuydirgan yoshlarim haqqi.
 Ko'yingda ming toshga urilsa hamki,
 Toshlardan qattiqroq boshlarim haqqi,
 Gapir, gapirsang-chi bir so'z loaqal...
 Siyrak kipriklar jipslashdi bir dam,
 Entikib, xo'rsinib ko'z yoshin yutdi.
 Unsiz tilga kirdi surat ham birdan,
 Ona quloq bo'lib o'zin unutdi.

Surat

Yig'lama, azizim, yig'lama faqat,
 Ko'z yoshingni ko'rsam, dilim kuyadi.
 Yig'lasang, hali ham qilmasman toqat,
 O'tmas pichoq bilan kimdir so'yadi.
 To'lg'anaman, ammo yeta olmayman.
 Ko'z yoshingni, erkam, arta olmayman.
 Yig'lama, azizim, yig'lama faqat,
 Ko'z yoshingga sira qilmasman toqat.
 Tabiatdan sira-sira nolima,
 Uning o'zi kutar insondan ehson.
 Yaxshiroq nazar sol ko'ngli, holiga,
 Ming xil tashvishi bor boshida, bilsang.
 Osmonida qancha yo'ldosh uchyapti,
 Ba'zisi ko'tarib do'zaxdek dahshat.
 Suvlari ostida atom ko'chyapti,
 Uning yuragida armoni qat-qat,
 Sen undan nolima, yig'lama faqat.

Ona

Qo'y, buni eslatma, eslatma sira,
 O'g'limning baxtidan yuray xotirjam.
 Ko'nglim oynasini aylama xira,

Biroq tinch emasman, notinchman, ajab...
 Sen boshqa damlarni eslat, azizim,
 Birga yurganimiz xushvaqt onlarni.
 Esingdami bahor, bog'imiz bizning,
 To'yimizga kelgan qadrdonlar-chi?
 Shuncha yil o'tibdi nafasday, suvday.

Surat

Bir zarb-la yozilgan dostonday shirin.

Ona

Yigit eding o'shanda xuddi suqsurday.

Surat

Sen ham go'zal eding misoli Shirin,
 Ko'nglimni yashnatgan bir chechak eding.

Ona

Na uyquga to'ygan va na kulguga,
 Ko'rsa ko'z kuygundek kelinchak edim.
 Birovning qayg'usi yig'latar edi,
 Agar qo'shiq aytsa birga kuylardim.
 Hayotga ba'zida o'lmaslik uchun
 Kelganday bo'lardim, shunday o'ylardim.
 Baxtimning poyoni, cheki yo'q edi,
 Bu shaydo yuragim har narsadan lol.
 Ishqingdan shunchalar ko'nglim to'q edi,
 Undan ayrilishni qilmabman xayol...
 Esimda, kuz edi, meva g'arq pishgan,
 Bog'lar oltin libos kiygan ajib payt.
 Lekin xalq boshiga musibat tushgan,
 Men ham vokzaldan zil-zambil bo'lib
 Uyingga, onangning bag'riga qaytdim.
 Munchoq ko'zlarini pildiratib sho'x,
 O'g'ling yotar edi belanchagida.
 Esilasam, yuragim eziladi, uh,
 Hammasi ko'zimda, ha, kechagidek.
 Uylar huvilladi, ko'nglimiz vayron,
 Qaynana-kelin jim, sukutda qoldik.
 To'rt o'g'il o'stirgan onang ham hayron
 Soatlab bechora o'tirardi tek.
 Akang ketgan edi, ukang ham ketdi,
 Behassa bukridek qoldim egilib.
 Bu kunni ko'rguncha ming rozi edim,
 Kimdir badanimga tuz sepsa tilib.
 Ma'yus ko'zlariga har boqqanimda,
 Qalbimni qiymalar edi hijroning.
 Tug'ib tug'magandek firoqda, g'amda
 Olamdan ko'z yumdi onaizing.
 Sira chidolmadim bu ayriliqqa,
 Dod dedim, zirqirab titradi uylar.
 Qarg'adim taqdirni yuzma-yuz, tikka
 Sho'rlik, qilsam derdi nabira to'ylar.
 Urf-odatni ham o'sha kun buzdim,
 Xotinlikni yig'ib otdim bir yoqqa.
 Tobutin bir boshin ko'tardim o'zim,

Odamlar goh koyib, goh tutdi yoqa.
O`g`lim yo`q, deb yana o`ksima, ona,
Seni ko`tarmagan bu yelkalarim
Bo`lgani yaxshiroq pora-yu tilka,
O`g`lim yo`q deb yana o`ksima, ona.
Sen ham armon qilma bag`rim, azizim,
So`nggi yo`lga uni uzatmadim deb.
Tashlab ketgan eding menga o`z izming,
Men ham bitta joning, bir parchang edim.
Tunlari koyidim takdirni bedor,
Nechun bizda shuncha achchiq o`chi bor!

Surat

Qismatda ne gunoh, o`ylabsan xato,
Bu – ojiz va mute odamlar so`zi.
Taqdirning o`zi ham alamda hatto.
Qora qilganlar bor taqdirning yuzin.

Ona

Ha, buni bilardim, qismatdan o`zga
Kimni ham bo`g`ardim o`sha damlarda.
Fashist olis edi qo`lu ko`zimdan
G`ajib tashlay desam bu alamlarga.
Tug`ib, qotil boqqan onalarni goh,
Xayolan tik qo`yib qilar edim sud.
Shunda onang tushib yodimga nogoh
Dunyoda o`zimni sezardim mas`ud.
Uyga sig`may qoldim, bir o`q yasasam,
Bitta qo`lqop tiksam harna-ku, dedim.
Hamma shunday derdi, endi eslasam,
Men ham o`shalarning bittasi edim.
Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar,
Hech qachon tanholik sezdirmadilar.
Jigar bo`lishdi-yu, eng og`ir damlar.
Bag`ridan bir nafas bezdirmadilar.
Kulgim, yig`imni ham birga bo`lishdi,
Ular ko`magida joylandim ishga.
Ular ko`magida aqlim to`lishdi,
Olisdan o`t ochdim yovga, urushga.
Ko`pchilik ayollar edik zavodda.
Biram ayollarki, qoshlari qunduz.
Mehnatdan o`zgani bilishmas, sodda,
Tunni tun deyishmas, kunduzni kunduz,
Bittasi yig`lasa, bari egar bosh,
Birining shodligi barchaga tatir.
Ishq to`la qalblarda g`azab va otash,
Bir jon qilib qo`ygan ularni taqdir.
O`g`ling o`sar edi, «dada, dada», deb,
Talpinib qolganda suratingga goh
Men esa o`kinchdan ich-etimni yeb,
Xo`rsinib ko`ksimga bosardim, evoh!
Entikib o`pardim sochi, yuzidan,
Bag`rin to`latmoqni qilardim xayol.
Baribir qolardi go`dak ko`zida

Bir ko`ngli yarimlik, bu mungli savol.
Yo`q, sen bilmaysan, bu murg`ak, ojiz –
Dilga javob izlab bo`lmagansan lol.
Jigarim otashga tegardi jiz-jiz,
Sochlarim o`qargan shunda ehtimol,

Surat

Bu ko`zlar hasratin, oh, mendan so`ra,
Suyagimdan hamon chiqib ketar dud.
Jazavaga tushib ruhim yugurar,
Qotgan tillarim ham qilolmas sukut.
Yetimlik nima gap, shu murg`ak jonlar –
Ko`ksiga beayov otishgan-ku o`q.
(Joningdan aylanay, oh, bolajonlar,
Unutib bo`larmi u kunlarni? Yo`q!)
O`ziga niqtalغان to`pponchani ham
O`yinchoq deb bilgan mitti qo`lchalar –
Shalpayib tushganda qandayin alam,
Ayt-chi, bu alamlar qanday o`lchanar?
Murda ko`kragini beparvo so`rib,
Ingragan go`dakni ko`rganmisan hech?!

Ona

Bas, bo`ldi, rahm qil holimni ko`rib,
Hatto tinglashga ham yetmaydi kuchim.

Surat

O`zing gap boshlading, endi quloq sol,
Hali tug`ilmagan nabirang uchun
U kunni unutma, doim esga ol,
Qalbingda hamma vaqt saqlagin o`chin.
Haqqing yo`q beparvo bo`lishga bir dam,
Hech kimning haqqi yo`q, tingla, quloq ber,
Ovoz kelyaptimi olisdan, yerdan?

Ona

Sezyapman. Nahotki tilga kirdi yer?!

Surat

Bu bizmiz, azizim, qo`l ushlab bot,
Chirmashib yotibmiz ona tuproqqa.

Ona

Voy-bo`, shuncha ko`pmisiz, nahot,
Shovqin eshityapman yaqin-yiroqdan.

Surat

Tiriklardan ko`ra, balki ko`proqmiz,
Tiriklardan ko`ra xam inoqroqmiz.
Xalqining baxti deb, surgunda yurib,
Buyuk istiqlolni tayyorlab kunda,
Erining izidan quvg`inda yurib –
Hormagan ajoyib ayollar shunda.
Partizan yashirgan ona-yu o`g`il
Hatto o`zimizning mard Ostonaqul,
Fashistni titratgan Rahimovgacha,
To`ychi Eryigitov, Hakimovgacha –
Hammamiz shu yerda, o`q, tomir bo`lib
Yerni yelkamizda tutib yotibmiz.

To'lg'anib, g'azabga, tashvishga to'lib
Vyetnam ustida bomba, o'qlarning
Tezroq tinishini kutib yotibmiz.
Do'stlar qabrimizga qo'yayotganda,
Tinch yoting, deyishgan boshlarin egib.
Yerda shuncha g'avgo bo'layotganda
Bajarmoq mumkinmi ular o'gitin.
Juda ham notinchmiz, juda notinchman,
Qanday orom olay yer ko'rpasida,
Suv, osmon, avlodim tursa duchma-duch
Hayotu o'limning qoq o'rtasida.
O'rmonni yoqmoq-chun kifoya gugurt,
Atomni ushlagan vahshiy qo'llar bor.

Ona

Baribir u qo'llar juda-juda mo'rt,
Uni jilovlashga qodir dillar bor.

Surat

Itni qopmaydi deb bo'lmas, azizim,
Tushlaringga kirib, sergak bo'l, deyman.
Odamlar! Dog' surtmang aql yuziga,
Dunyoning umriga tirak bo'linglar.
Qachon urush oti o'chsa olamdan
Ona tuproq ichra uzatib oyoq,
Xotirjam bo'larkan avlod, bolamdan,
Xayol-xotirangdan ketaman yiroq.

Ona

Hatto, it urishsa zirqirar qalbim,
Odam odam payin qirqmoq bo'lsa-chi?
So'zsiz qichqiraman, nega tug'ildim,
Quloqlarim batang bo'lib qolsa-chi!
O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat,
Ayriliq va o'lim yaralganmi yo?
Shunda ham tantilik qilib tabiat,
Buyuk bir aqlni bergan-ku ammo.
Shu aql tantana qilar, azizim,
Tantana qiladi shafqat va vijdon.
Kuni kechagina Toshkentimizda
Tilu dil topishdi Hindu Pokiston.

Surat

Bizlarni ko'rsanglar, jon kirib ketdi.

Ona

Toshkentning musaffo, erkin havosi
Yovuz niyatlarni chilparchin etdi.
Ikki xalq erishdi muddaosiga.
Aziz poytaxtimga tikildi ko'zlar,
Ko'plari xursandu ko'pi alamda.
Dunyo efirida Toshkent so'zladi,
G'urur erkaladi dilu tanamni.
Tinch uxla, bo'lmagin sira bezovta,
Sizlar bosh qo'ygan bu qutlug' tuproqni
Xo'rlasak va yoki bersak birovga
Bo'lganimiz yaxshi o'zimiz ham xok.

O'liklar quchoqlab yotsayu mahkam,
Nahotki, tiriklar turadi loqayd?
Unaqa tiriklik nimaga malham,
Unaqa tiriklik kimga kerak, ayt!
Onalar nomidan so'zlayapman men,
Ayol qudratiga kim keltirar shak.
Dunyoni so'ragan podshohlar ham
Birining go'dagi, biriga oshiq.
Yigirmanchi asrning g'olib tug'ida
Qalbimiz qoni bor, buyukligi bor.
Oyni kaftga olgan fan yutug'ida
Biz silagan boshning tiniqligi bor.
Hayot yaratmoqqa yaralganmiz biz,
Yaratish toptashdan mushkul hamisha.
Shundan bilsa bo'lur qudratimizni,
Mas'ulmiz olamning hamma ishiga.
Farzand nafasidek shirin narsani
Yaralgandan beri bilmaydi olam.
Mana, dimog'imda hamon nafasi,
Hatto kuyov bo'lib qolsa ham bolam.

Surat

Qaynana bo'ldim de?

Ona

Shundoq, dadasi.

Kelinimni ko'rsang, qilgunday ko'z-ko'z.

Surat

Sochlari uzunmi? Qanaqa esi?

Ona

Hammasi joyida, kamsuxan, kamso'z.

Surat

O'g'lim-chi? Qadringga yetadimi u?

Ona

Albatta. Bo'y-basti quyganday o'zing.

Surat

Qara, tong otyapti, bermadim uyqu,
Charchading chamamda, qizargan ko'zing.

Ona

Sira unday dema, tirik bo'lsang ham,
Baribir shu kecha uxlolmas edik.

Surat

Yorug' tushib qoldi, hovliga qara,
Hali ham kech emas, mizg'ib ol jindek.
Musicha kukulab, bulbul sayradi,
Oynadan nur tun'di ona yuziga.
Nurga o'ralganday yashnab, yarqirab,
Kelini jilmayib turar ko'zida.
Oyi, deb ilk marta chaqirar uni,
Choyga taklif qilar e'zozlab balki.
Lekin ona qalbin, shu bedor tunni,
Shu kungi suhbatni u bilarmikan?..

1963-1966-y.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Saida Zunnunova lirikasida o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasi qanday ifodalangan?
2. Shoira uslubiga xos jihatlar nimalarda namoyon bo'lgan?
3. Saida Zunnunova ijodida qanday mavzular yetakchi o'rin egallaydi?
4. Urushning insonlar boshiga solgan adoqsiz kulfat-alamlari va bu anduhlarning bardoshiga, irodasiga zarracha daxl qilolmagan ayolning insoniy fazilatlarini ko'rsatib berolgan asari qaysi?
5. "Ruh bilan suhbat" dostoni qanday xotiralar bilan boshlanadi?
6. Asarda ona ruhida bir vaqtning o'zida kechgan ikki kechinmaga to'xtalib, izoh bering.
7. Dostonda asosan qaysi badiiy san'atlardan foydalanilgan?
8. Asarda qanday sof insoniy tuyg'ular haqida gap boradi?



HUSNIDDIN SHARIPOV (1933-2015)

Husniddin Sharipov (1933.10.2. Pop shahri – 2015) – shoir. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi (1983), O`zbekiston xalq shoiri (2012).

Dastlabki to`plami – «Nihol» (1956). Husniddin Sharipov «Ko`ngil buyurgani» (1961), «Quyoshga oshiqman» (1963), «Tuproqqa qasida», «Erning qalbi» (1965), «Men sizga aytsam» (1968), «Lirika» (1970), «Hayajonli daqiqalar» (1980), «Oh, go`zal» (1981), «Xirmon» (1985), «Yana visol» (1987), «Yor istab» (1992) singari she`riy kitoblar hamda «Do`stim Tojiddin» (2001) nomli voqeiy qissa muallifi.

Dostonlari: «Quyoshga oshiqman» (1961), «Bog` ko`cha bolalari» (1962), «Tanovar» (1965), «Sotvoldidan salom» (1968), «Qilmish-qidirmish» (1976), «Insof diyori» (1979), «Qaltis yurish» (1999) va b. Ilmiy-texnik taraqqiyot davrining ma`naviy muammolariga bag`ishlangan «Bir savol» (1972) she`riy romani ham bor.

Pyesalari: «Seni sevaman» (1958), «Ota o`g`li» (1964), «Afsona» (1975), «Chollar va kampirlar» (1979), «Karvon bexatar bo`lmas» (1986), «Yor istab» (1993).

Jahon adabiyoti namoyandalariining ayrim asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan. «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

TANOVAR

I

Dasturxon yig`ildi:
Yangi choy kirdi,
To`rga terilishdi kampirlar xushhol.
Childirma qizdirib To`lqinoy kirdi,
Do`stlarin yetaklab ona qush misol.
Shishaday jaranglab sindi sukunat,
Go`yoki eshikdan yog`ildi ko`klam.
Qilolmas xonaga kirmoq uchun had
Bu onda kamalak tushsa-da ko`kdan:
Atlas ko`ylaklarning zarrin ziyosi,
Qoshlar qoraligi, yuz qizilligi,
Tillar burroliigi, ko`zlar ibosi,
Suhbat mavzuining xilma-xilligi –
Aqlningni shoshirar, ko`zing tindirar,
Zavqu rang ko`rigin ochganday olam.
Muzday derazaga peshona tirab,
Tomosha bilan band bir to`p bola ham.
Childirma qo`lma-qo`l bo`lib ozgina,
Oxir topib oldi o`z egasini.
Bora-bora tindi bahsu askiya,
Tindi yenga olmay qo`shiq sasini
Bir barno davrada ketdi yo`rg`alab,

Asta qarsillatib nozik barmoqni.
Kuyda eshildardi erib yupqa lab,
Zulfi eslatardi qora irmoqni.
Oshiqlar yuksakda yetilgan nokka
Yetolmasligini kuylardi qizlar.
Lekin, ko`ngil uzib, yordan yiroqqa
Ketolmasligini kuylardi qizlar.
Hijronda yonmasang, sevgiling qadri
Bilinmasligini kuylardi qizlar.
Lekin, egilsa-da hijronda qaddi,
Yalinmasligini kuylardi qizlar.
Kampirlar,
sollonib o`tsa raqqosa,
Chayqalar mast bo`lib lutfu husndan.
O`g`li uylanmagan ayollar esa,
Nigoh urishtirib olishar zimdan.
Bugun tashqarida yoz yashnar ajib,
Yaqinda kuz kelar –
to`ylar pallasi.
Hofiz – mashshoqlarni qolar talashib
O`shanda qishloqning har mahallasi.
Etakni bar urib sokin marzada,

Dehkon kuz xirmonin bahordan o`ylar.
 Muhabbat hech fasl tanlamasa-da,
 Negadir kuzakka qolar ko`p to`ylar:
 Har holda to`kinlik...
 Oqshomlar salqin, -
 O`yinchi kizlar ham toliqmas uncha.
 Shunday orzularning ko`ksida qalqib,
 Onalar tebranar buguncha.
 Rostlab olmoq uchun sal nafasni
 Noz-firoq qilgandi yoshlar jo`rttaga,
 Kampirlar chuvillib,
 uy bekasini
 Tortib chaqiradi darrov o`rtaga.
 – O`zing qosh qoqib qo`y bizga, Shamsixon!
 – O`zingdan o`rgansin qizlar o`yinni!
 – Borib qaytguningcha bizga, Shamsixon,
 Sog`inib qolamiz hali bo`yingni!
 Mehmon amri – vojib!
 Axir Shamsibi
 Do`st so`zin tillaga oladi tortib.
 Imtihonga tushgan o`quvchi kabi
 Turar u davrada yuzlari bo`rtib.
 Turar zabt etganday dunyo tomini,
 Childirma sadosin sezmayotganday,
 Xotirani titib har bir tomiri
 Yoshlik raqslarini eslayotganday.
 Yo`q, yo`q, yeng uchidan yoqasigacha
 Bir to`lqin yugurib o`tganday bo`ldi.
 Kuy ichra to`lg`anib turdi-yu picha,
 So`ng yillar yukini yutganday bo`ldi.
 Qadami gilamdan ko`chdi beozor,
 Ashula boshladi bosh egib mayin.
 Mumkindir so`zlarin aylamoq takror,
 Lekin ovozin takrorlash qiyin:

II

Qora soch... qora soch...
 Yelkaga to`lib,
 Taqimda tebrangan u sochlar qani?
 Kechqurun bo`shardi sho`rlikning qo`li
 Peshinda o`ltirsa yuvib-o`rgani!
 Yaxshiki qishda ham tiniq chayqalib,
 Yoz taftin yo`qotmas oyna buloqlar.
 Yo`qsa, Shamsixonni biron dard chalib,
 O`tib ketar edi usiz uloqlar.
 To`yda bazmu yalla qizigan mahal
 O`rtar bazzilarni tomoq tashvishi.
 Menga shundaylarni eslatar har gal
 Ko`z ochib, uloqni ko`rmagan kishi.
 Ehtimol “oshirib yubording” dersiz,
 Shubha ham uyg`otar buncha ixlosim.
 Na chora, qalbimga hayotning darsi
 Shamsixon uqqanday singishi lozim.

Axir, bir suvoriy sovringa qo`shib,
 Olib ketgan bo`lsa qizning tinchini,
 Shunda qiz ilk bora besabab jo`shib,
 Ilk bora tuygan bo`lsa ishq sevinchini, -
 Uning-chun tulporlar ko`pirib-horgan
 O`sha adirlardan aziz joy bormi?!
 Afzal ko`ramiz-ku biz ham gulzordan
 Yor-la uchrashtirgan chakalakzorni.
 O`xshar qiz sevgisi dorisiz dardga:
 Sevganin qo`lidan shartta tutolmas,
 Yorning ko`chasidan tunda guzarga
 Ishqiy ashula ham aytib o`tolmas.
 Lekin, duch kelganda, yigit ko`ziga
 Kiprik ko`tarmasdan o`tganlarimi,
 Yo lola sayridan qaytar kezida
 Dastro`mol yo`qotib ketganlarimi,
 Bug`doy pishig`ida chiqib hasharga,
 Bir qozon tuzini tatishiganimi,
 Yo ota-onalar bu nozik dardga
 Zimdan dori-darmon topishganimi,
 Har holda, nimadir sabab bo`ldi-yu,
 To`y bilan yechildi oxir muammo
 (Chollar qalin so`rab ochgan tortishuv
 Bu sodda hisobga kirmaydi ammo).
 Sevgi haqidagi bama`ni doston
 To`yning ta`rifi-la tugat odatda.
 So`ng uyquga ketar jilmayib she`rxon,
 Tinchir qahramon ham yaxshi soatda.
 Afsuski, Shamsixon Muxtori bilan
 Avval yurolmagan bog`lar oralab,
 Arzu dilini ham bildirolmagan
 Jinchiroq yonida qog`oz qoralab.
 “Sariq saratonda bo`lding shamsiyam,
 Qora qahratonda shams eding menga”
 Deb jo`shgan qo`lbola qo`shig`ini ham
 Endi aytib berar Muxtorxon unga.
 Ularga visolu sevgi rozini
 Keyinroq buyurgan ekan-da taqdir.
 Mayli, to`ygacha ham sevmog` lozim-u,
 To`ydan so`ng muhabbat ko`proq kerakdir.

III

Mana, muzdakkina oyning ziyosi
 Yaproqlar qatidan sizib-to`kilar.
 Shunday sukunatda ko`ngil dunyosi
 Bir oddiy kitobday ochib o`qilar.
 Yoshlikda anhorga yiqilganidan
 Quyosh tutilganda qo`rqanigacha,
 Sevganin ko`rganda qoqilganidan
 Umid-la imorat qurganigacha,
 Hali so`rmay turib yorning dilin,
 Yomon nazarlardan rashk qilganin ham
 So`ylar endi oshkor kuyov va kelin,

Tun chog'i shiyponda yonboshlab xurram.
 To'g'risi, Shamsixon sayrardi ko'proq,
 Gapirgani bilan bitmasdi gapi.
 Kuyov-chi, bosh chayqab solardi quloq,
 Tiliga xuddi tosh bog'lagan kabi.
 Bu tartib buzildi faqat bir marta, –
 Shunda ham har so'zga turtinib-qaytib,
 Go'daklik chog'ida allaqaylarda
 Sargardon kezmanin bergandi aytib:
 Ko'zining o'ngida intihosiz suv,
 Dunyo tugagandi shu yerda go'yo.
 Bilmas anig'ini, Hazarmidi bu,
 Qora dengizmidi, Orolmidi yo?!

U, kema to'xtar joy tevaragida
 Sut rang chag'alaylar ko'tarib chuvvos,
 Suvdagi qutqaruv chambaragiday
 Tinmay charx urganin eslaydi xolos.
 Yana u, birorta ermak qidirib
 Sohilga yig'ilgan hushyoralar, mastlar
 Xushbo'y va momiqday nonni sindirib,
 Qushlarga irg'itib turganin eslar.
 Chag'alay "chag'-chag'"i havolab birdan,
 Ildarmoq aylar jonli doira.
 Tamshanar baszi bir tomoshabinlar
 Ichga sig'dirolmay zavqini sira.
 Axir odam zoti – ming qatli jumboq,
 O'zicha tushunar har kim parvozni.
 Bir qushga hukmini o'tkazib nogoh
 O'z buyukligini tuyganlar ozmi?!

Muxtor-chi?
 Otasin etagin ushlab,
 Iztirob ichida boqar osmonga:
 Kaptarday aqlli, xushbichim qushlar
 Otilgan o'q misol tashlanib nonga,
 Bir-birin cho'qilab chirqirar ekan,
 Bir uvoq ustida qizir ekan jang,
 Davra tobora tez charx urar ekan,
 Turardi sohilda bo'lib hang-u mang.
 Mardikor otasi burda non istab
 Tentib yurmaganda diyorma-diyor,
 Bu go'zal parvoznig tub ma'nosiga
 Go'dak bermas edi balki e'tibor.
 O'sha sho'r sohilni eslasa hamon
 Muxtorjon qunushar qalbi tilinib.
 Gapga solgani-chun bo'lib pushaymon,
 Kelinchak yupatar yorin yalinib.
 Xotiradan bezib ko'z yumsa Muxtor,
 To'sib o'ttirar u oy shu'lasini.
 Shunda ham sevgani xo'rsinsa bedor,
 Boshlardi sevimli ashulasini:
 – Aka, balandlarga chiqqim keladi,
 Yelkangga bosh qo'ysam, uyqim keladi.

Namozshom bo'lmasa, ko'nglim parishon...

IV

Lekin qo'shiqdagi hamma narsa ham
 Nasib bo'lavermas tirik odamga
 Quyoshga ko'z tashlab vaqt o'lchar odam,
 Quyosh qarab turmas bizning qadamga.
 Shamsioy edi u.
 Bugun Shamsibi.
 To'qqiz farzand ko'rdi, –
 Tiriklari bu!
 Birga tug'ilardi tashvish va orzu.
 Adhamu Akrami, Abroru Barchin,
 Akbaru Tursunoy, Hasan-Husani,
 Kenja To'lqinoyini hamda barchasin
 Shodligu g'ashligi, yasan-tusani...
 Shularni asray deb oftobdan, qordan,
 U qancha yuruqqa yurolmay qoldi.
 Tabiat borliqqa sohib yuborgan
 Qancha bo'yoqlarni ko'rolmay qoldi.
 Koshkiydi ularning dardi, xohishi
 Qolib ketgan bo'lsa yoshligi bilan:
 Nogoh og'rib qolar birining tishi,
 Biri kelisholmas boshlig'i bilan.
 Bugun paryostiqda yayrash o'rniga
 Ona tugun tugar chekib xavotir,
 Suyanchiq bo'lish-chun Abror o'g'liga,
 U Qarshi cho'liga otlanayotir.
 Boshiga ne qayg'u tushganin Abror
 Yozsa ham mayliydi ochiq-yorug'roq,
 Uzuk-yuluq so'zlar: "Bundan ketgim bor...
 Hayronman... va lekin...
 Zerikdim... biroq..."

Ona yetib borar,
 Ammo shoshilib
 O'g'lining yuziga sochmas ginasin.
 Ertadan kechgacha nasihat qilib,
 Qoqib ham olmagay uning miyasini.
 Axir qad tiklatmas,
 Yiqitar cho'kib
 To'kar o'q singari uchib chiqqan do'q.
 Nasihat eshitib, maqola o'qib
 Aqlli bo'lishdan qiyin ish ham yo'q.
 Ona yetib borar,
 Sovg'asin darhol
 To'kar farzandining dasturxoniga.
 So'ng qo'ni-qo'shniidan so'rab chiqar hol,
 Do'mboq nabirasini olib yoniga.
 Kelin uvra kessa, ona dog'lar yog',
 Yo tugma qadaydi, yostiq yamaydi.
 O'g'il ham unutar hasratini go'yo,
 Ona ham o'zicha gap kavlamaydi.
 Faqat hayron bo'lar...

Bilmas Shamsixon
 Ona ochib kirgach farzand eshigin,
 Farzand yuragiga ulkan ishonch,
 Moviy musaffolik kirib kelishin.
 Darvoqe, hali bor bir-ikki hafta
 Bunday voqealar sodir bo`lguncha.
 Dam-badam tishlar yonib sadafday,
 Shamsixon davrada kuylar buguncha.
 Ertaga o`g`liga aytajak gapi
 Hozirdan diliga g`ulg`ula solsam.
 Onalar mehrini, dokladchi kabi,
 Avvaldan qog`ozga tushirib olmas.

V

San`at hisoblanar childirma chertish,
 Childirmaning o`zi soddadir biroq:
 Lo`li chekichlagan jo`ngina gardish,
 Echki terisi-yu, bir kaft shildiroq...
 Lekin, tilga kirgach shu oddiy narsa,
 Qizlarning uyqusi o`chib ketarkan,
 Bodini unutkan kampirlar esa
 O`rnidan oqqushday ko`chib ketarkan,
 Dilimga tashlaymana asta ko`z qirin,
 Qandaydir nish urar g`ashlik va hadik:
 Xizmat qildimikin mening ham she`rim
 Elga bitta echki terisichalik?
 Qarang Shamsibiga,
 Qarang yaxshiroq
 Qaddining ipakday eshilishiga,
 Qoshlari,
 Dam-badam qilganday firoq,
 Bir-biridan ajrab-qo`shilishiga!
 Tutib turgan kabi oyni avaylab,
 Qulog`i ostiga qo`yar bir kaftin.
 Ikkinchi qo`l esa, mehmonni siylab,
 To`lg`anib-to`lg`anib ulashar taftin.
 O`choq tepasida yoki egatda
 “Hormang” deb o`tganmiz unga necha bor.
 “Hech kimdan kam emas og`ir mehnatda”
 Deb uni maqtaymiz kunda necha bor.
 Ammo, nimagadir xayolin surib,
 Borliqqa tumanli boqqanda ko`zi,
 Pisanda qilamiz lab yalab turib:
 “Asli shunaqa-da xotinlar o`zi!”
 “Tanovar” to`lqini qaynagan chog`da
 Tashvishlar, qattiqroq bo`lsa-da toshdan,
 Yomg`irda ivigan qog`oz qalpoqday
 Hilvirab tuproqqa to`kildi boshdan.
 Bo`yniga osilgan horg`inlik darhol
 Uzilgan marjonday ketdi tirqirab.
 Qindan ozod bo`lgan shamshir misol,
 Davrada qalb o`zi qoldi yarqirab.
 Salmog`in yo`qotdi, yo`qotdi rangin

Yoshlik va keksalik degan tushuncha.
 Davrada jo`shadi qo`shiq ohangi
 Va yurak atalmish qontalash g`uncha:
 – Aka, soy bo`yiga solmang imorat,
 Birovning yorini olmang omonat,
 Birovning yorini olib omonat,
 O`ynolmay, kulolmay bo`lmang xijolat, –
 Deya kift qoqqanda nuroniy ona
 Taajjub qilmangiz shuning uchun ham.
 Unutishi mumkin o`zin bir ona
 Ammo bir umrini unutmas odam.
 – Mening yorim yorlar ichra yagona,
 Yorginamga ko`z solmasin begona.
 Qosh qoqsangiz muncha kuyar yoringiz,
 Chidamas yorga
 papiros chekish bahona, –
 Deya gulxan kabi lovullab ketsa
 To`qqizta farzandning onasi bexos,
 Ensangiz qotmasin, chaqchaymang betga,
 Axir navbahordan unib chiqar yoz...
 Yo`lu yo`nalishin,
 nogoh chayqalib,
 Adashtirib qo`ydi vaqtning oqimi.
 Davrada aylanar himoyasiz qalb, –
 Xizmatkor tutmagan hayot hokimi!
 Bir qalbk...
 Qalb emas, lag`cha mehr u,
 Nurin sochaverar minnat qilmasdan,
 Qancha-qancha ko`zga yog`du va orzu
 Payvand etagini o`zi bilmasdan,
 Har holda cheki bor odamzod umrin,
 Yelkalar cho`kar-u, lekin qalb cho`kmas.
 Cho`g` kabi kimgadir baxsh etib qo`rin
 Yuzini kul bossa, qayg`u ham chekmas.
 Yodingizda bordir bolalik kezlar
 Va goho onaning niqtob berishi...
 Buning-chun yurakni ayblamang, do`stlar,
 Bu – yurak yopingan qalqonning ishi.
 Sizni qiziqтира naqdina yurak
 Qarang Shamsixonga, qarang yaxshiroq.
 Og`ir chayqalsa-da dardli kuy birdak,
 So`zidan dud bo`lib ko`tarilmas oh.
 Balki ana shunga qilib ishora,
 “Dardi yo`q ekan-da” deb ham aytarsiz.
 Oyni o`n beshi oq, o`n beshi qora,
 Yurak ham bo`lmaydi quvonchsiz, dardsiz.

VI

Qulog`i ustiga silab-yotqizib
 Taragan emasdi hali gajjagin.
 Ammo jigar-bag`ri ketardi sizib,
 Tindira olmasdan to`rt bola jag`in.
 Eri bolalarin ovutgan chog`lar

Gohida yilt etib qoladi tushda.
 Choyxonalar sokin, mudraydi bog'lar,
 "Yigitman" deganlar bari urushda.
 Qizlar ko`z tutishar bahorga doim:
 Orzular uyg'onar, uyg'onar tuproq.
 Lekin urush yili ko`klamga hech kim
 Intizor bo`lmagan onadan ko`proq.
 – Qadim-qadimda ham ko`p janggu jadal
 Ko`klamda tugagan, – derdi keksalar.
 Ko`klamda zarurmas qimmat poyabzal,
 Ko`klamda osonroq qaynar dekchalar.
 Yalpizlar yaltirar soyning labida
 Madhu sano tinglab asalaridan
 Un-pun qolgan bo`lsa xunning tubida,
 Qiyinmas ko`k somsa masalasi ham.
 Tutlar shira yig'ar tun-kun tinmasdan,
 Endi shirinlikdan zoriqmas kishi.
 Qandu shakar esa, muhri sinmasdan,
 Urushdagilarga yetgan yaxshi.
 Yamoq tushdi hatto ketmonga bugun,
 Gugurt ham hisobi bilan chaqilar.
 Niyat faqat bitta: o`q-dori uchun
 Qiynalib qolmasin urushdagilar.
 Yo`qchilik, ayriliq, sog'inch alamin
 Mehnatdan olardi erkagu ayol.
 O`qi atrofida aylanar zamin,
 Urush atrofida aylanar hayot.
 ...Burkanmasdan turib ufqlar nurga,
 Dala yo`llarida bo`ylardi Shamsi.
 Chap ko`lda kenjasi chayqalar mudrab,
 O`ng ko`lda – oq echki bog'liq arg'amchi.
 Dehqonlar mag'rur xalq.
 Qolsa hamki och,
 Nomard qozonidan yemaydi taom.
 Lekin, ketmon kabi har kun egib bosh,
 Har tun g'o`zasiga beradi salom.
 Tuproqqa tikilib odamlar o`ychan,
 Borar yaproqlarni barmoq-la tarab,
 Ko`zini ko`tarmas, axir yer bilan
 Suhbat qurib bo`lmas osmonga qarab.
 Uning arzin tinglar suvlar egatda,
 Unga arz-holini aytar ildizlar.
 G'o`za tomirida oqqan sharbatday
 Pinhona jo`shadi ko`ngilda hislar.
 Yerni parmalagan chigitlar nishi,
 Dalaning o`zgargan husniga qarab,
 Shonalar qizarib juvonlanishi
 Hamda ko`saklarning vazniga qarab
 Kun va fasllarni qilar u hisob,
 Ammo bo`laverar negadir xumor
 Hatto eng go`zal va mukammal kitob
 Shoirning fikriga kelgan kabi tor.

Oftob g'arb ufqiga yoyganda bezak,
 Yana tushar edi Shamsixon yo`lga,
 Echkisiga ortib bir bog'lam pechak,
 Qushdek kenjatoyin olib chap qo`lga.
 Ko`rkam zil teraklar ikki tomonda
 Faxriy qorovulday turar tizilib.
 Tazim qilgan kabi tutlar dehqonga,
 Devor rahnasidan boqar qisilib.
 Chumchuqlar galasi chug'urlab tinmay,
 Charchagan onaga "hormang" der go`yo.
 Yetilib olsin deb uni qoqilmay,
 Oy ham socha boshlar qishloqqa ziyo.
 Hayot uyg'onadi uylarda darhol,
 Mo`rilar ustida buralar tutun.
 Ko`z yordi shekilli birorta ayol
 Kimdir yora boshlar bemahal o`tin.
 Ammo, nur ko`rinmas ba`zi darchada,
 Hovli yuzida ham yo`qdir harakat.
 Ko`pdan ochilmagan eshik darzida
 Faqat sal oqarib turar "qora xat".
 Qaylarda qoldiykin uy egasi, a?
 Jangga ketganmikin o`g`lin so`roqlab?
 Sirdaryo bo`yiga, Farhod GESiga
 Jo`navorganmikin belini bog'lab?
 Qit'aning yarmiga jangchilar qoni
 Xalqob-xalqob bo`lib to`kilar edi.
 Ayni shu pallada Farhod to`g`oni,
 Mirzacho`l kanali tug'ilar edi.
 Nafas oldirmaslik yo`lini izlaydi
 Dushman mudofaa chizig'in g'ajib.
 Ayni shu pallada chigit tashlaydi
 Dehqon qir tagidan yangi yer ochib.
 Okopda yosh jangchi talashdi jon
 Umidin uzolmay visoldan, yordan.
 Ayni shu pallada mo`ysafid dehqon
 Bir juft ko`chat olib qaytar bozordan.
 Odamzod yaproqday qolardi so`lib,
 Bo`lmasdi insondan arzonroq narsa
 Faqat o`lim bilan ovora bo`lib.
 Yashash – yaratishni yoddan chiqarsa!
 Yaratish degan so`z quruq sadomas,
 Pay bilan tuproqning to`qinishidir,
 Ter emib yetilgan nonga sadoqat,
 Miyaning musht bo`lib tugilishidir.
 Mening so`zlarimga qilsangiz gumon,
 Qahramonim guvoh bo`lishi mumkin...
 Mana, yetib keldi uyga Shamsixon,
 "Shirq" etib tushdi-yu, chayqaldi zulfin.
 Suvni xol-xol sepib, hovli supurdi
 G'ingshiy boshlaguncha o`choqda qumg'on.
 Keyin ikki kosa sut sog'ib kirdi,
 Bolalarin qildi ko`rpaga "gumdon".

Keyin tog'orani qo'yib o'rtaga,
 Buydalab-buydalab qordi u xamir,
 So'ng burchakka surib yopdi ko'rpacha,
 Asta ko'pchib qolar tonggacha, axir!
 Bog'larda qushlar charchadi kuylab,
 Radio, so'nggi bor avjlanib, tindi.
 Duvaraklarning ust-boshin o'ylab,
 Igna-ip olar u qo'liga endi.
 Vaqt go'yo uxlardi qorishib tunga,
 Faqat sokinlik va umr oqardi.
 Bu mahal urushni bedor xotinga
 Faqat eslatolar ayriliq dardi.
 Keyin kipriklari tushadi behol,
 Ipi qo'ldan tushdi xayolday to'zg'ib.
 Uyg'onib qolmasa bolasi bexos,
 Xo'roz qichqirguncha oladi mizg'ib.
 So'ng yana g'iyqillar uying eshigi,
 Hovlida oftobday gurkirar tandir.
 Og'ilda beorom depsinar echki,
 Yelini tirsillab qiynayotgandir.
 Burkanmasdan turib nurga ufqlar,
 Dala yo'llarida bo'lar Shamsixon.
 Ikki tomonida teraklar uxlar,
 Tongda o'chirilgan qator shamsimon.
 Shunday davom etar kunlar oqishi,
 Bir rangda ko'rinar boqsang yiroqdan
 Takror o'qiy qolsin qiziqqan kishi
 Shu bobni yuz satr yuqoriroqdan.
 Daladan – hovliga,
 Uydan – dalaga...
 O'z-o'zingni qichab silkiysan qamchi...
 Bitta manzara-yu bitta malaka...
 Chakkasin changallar nihoyat Shamsi:
 – Umrinni ne qildim,
 Ne bo'ldim o'zim,
 Nahotki aylandim qo'shchi ho'kizga?
 Hayot o'zi shumi,
 Ko'rmi yo ko'zim,
 Yo qalxim loqaydmi jilvaga, hisga?
 O'g'illarim yetar kuyov yoshiga,
 Yaqinda qizim ham bo'y yetib qolar.
 Faqat mehnatimga, nonu oshimga
 Rahmat deyisharmi o'shanda ular?
 Bir juft oyoq berdim, bir juft qo'l berdim,
 Ammo dillarga ziyo soldimmi?
 Hayot to'lqiniga kir, deb yo'l berdim
 Va lekin yashashga o'rgatoldimmi?
 Ona qo'y izidan yuradi ko'zi,
 Kelajak qo'limga tutqizmish jilov.
 Go'zallik neligin bilmasa o'zi,
 Go'zallik yarata olurmi birov?
 Meni uyg'otishga topolmay iloj,

O'kinib turgandir ehtimol olam.
 Axir, tug'ilmasa baxtga ehtiyoj,
 Kuyib-yonmaydi-da baxt izlab odam!
 Ey yurak, shamolday o'kir chayqalib,
 Yuvib ket ko'zimning pardalarini.
 Insonday yashashni xohlamay hali,
 Sipqorib oftobning zarralarini.
 Kulib xayrlashaylik,
 Ginani qo'ying,
 Sizdan minnatdorman, o'tgan yillarim!
 Qani, qo'lni bering, shipakni kiying,
 Kenglikka chiqaylik, qiz-o'g'illarim!

VII

Harorat yig'ish-chun ko'kka tutilgan
 Dehqon hovuchiga o'xshardi vodiy.
 Bag'riga ming yillik naqsh bitilgan,
 Bir boqsang – murakkab,
 Bir boqsang – oddiy.
 Mehmonga kelsa-yu birorta rassom,
 Saharda uyqudan turolmay qolsa,
 Kul ranggina bulbul qidirib ilhom
 Gulzorga kirganin ko'rolmay qolsa,
 Tunda chopqillarkan ariqlarda suv,
 U qora mavjlarga boqmasa hayron,
 Unga choshgoh chog'i bo'lmasa ko'zgu
 Ko'zada ko'kimtir chayqalgan ayron,
 Qirovni farq etmay shira dog'idan,
 Kuy tinglab o'tsayu paxtazor bo'ylab,
 Beo'xshov buralgan o'rik shoxidan
 Nay ham yasalishin ko'rmasa o'ylab,
 Yoki bejamaso qo'lu oyog'in
 G'o'za gullarining nim sariq gardi,
 Faqat, faqatgina yashil bo'yog'in
 Ishlatib-ishlatib uyga qaytardi.
 Bosib turganday yelkani har dam
 Necha o'n qavatli havo ustuni,
 Yashillik quchgandi haqiqatan ham
 Nozu nazokatli yerning ustini.
 Ehtimol tunu kun tinmasdan dudi,
 Ma'dan chaynasa-da o'ynab basma-bas,
 Dunyoning jamiki kimyo zavodi
 Buncha yashil rangni ishlab berolmas.
 Hali cho'qqisiga kiyikdan o'zga
 Tirik jon chiqmagan qurama tog'lar
 Dilkash ota yanglig' cho'kkancho tizga,
 Yam-yashil vodiyni quchib ardoqlar.
 Yaydoq tuproq aro sirg'agar tig'lar,
 Chekinib yo'l berar yashillikka cho'l.
 Kenglikka ulanar yangi kengliklar,
 Anhorlar ariqcha tug'ar yo'lma-yo'l.
 Bo'g'ilgan satrni dadil o'chirib,
 Ustiga yangisin yozgandan shoir,

Dehqonlar uvotdan tutni ko`chirib,
 Kengroq maydonlarga o`tqazayotir.
 Katta xo`jalikka birlashib barcha,
 Olganidan beri kolxozchi deb nom,
 Og`ir kunlarda-yu, yengil kunlarda
 Kenglikka intilish etadi davom.
 Nafasni rostlaylik bir nafas ko`nib
 Adir va paxtazor tutashgan joyga.
 Siljib borayotgan asfaltday yonib,
 Kanal to`lqinlari o`ynaydi poyga.
 Ko`z uzmay tursangiz, jo`shib dam-badam,
 To`lqinlar xayolni ketadi sudrab.
 Ko`p yaxshi onlarni eslaydi odam,
 O`tkazmagan bo`lsa umrini mudrab.

VIII

Chambarakka solib issiq chinnini,
 Bu yerga qatnardi har kun Shamsixon.
 Kutib olar edi Muxtorjon uni
 Ketmonga suyanib, chayir, kamsuxan.
 Artib qo`yar ayol yorning terini
 Ataylab keltirgan toza sochiqda.
 So`ng, ichib bo`lguncha sho`rvani eri,
 Termilib o`ltirar dag`al ajriqda.
 Boshlanib ketadi bir ozdan keyin
 Ulkan qurilishning qasir-qusuri.
 Lovullab aks etar, misoli quyun,
 Ketmonlar yuzida oftobning nuri.
 Chang o`rar atrofni xuddi oq parda,
 Bo`yinni chang chimchir, ko`zu qoshda
 chang.
 To`zon orasida – farishtalarday –
 Zambil ko`targanlar ko`rinar arang.
 Vaqtni quvgan kabi shoshar quruvchi,
 Parrakday aylanar oqshom va sahar:
 But bo`lib kanalning so`nggi qarichi,
 Lenta kesilishini kutar dalalar.
 Hukmin o`tkazolmas hech qachon charchoq,
 Buyruq berib tursa senga vijdoning.
 Uchastkang ustiga tikolsang bayroq,
 Mukarramaxon ham bo`lar mehmoning!
 Kelar karnaychilar changga belanib,
 Boqmas o`pkasining harsillashiga.
 Nog`ora sadosi ketar ulanib
 Raqqosa barmog`in qarsillashiga.
 Lunjini shishirib olti surnaychi
 Saf tortib odimlar davra chetidan.
 Tobora avjlanar chapaklar mavji,
 “Tanovar” boshlanar “Gulyor” ketidan.
 Mash`ala bosh chayqab, lipillab qolar,
 Yuzlab ko`kraklardan ko`chsa qiyqiriq.
 Raqqosa ko`nsin, deb chapaniroqlar
 Peshonadan yechib, yozishar qiyiq.

Cho`g` kabi tiladi raqqosa tunni,
 Yolg`iz u yashaydi har bir yurakda
 O`n yettida deydi erkaklar uni,
 Yigirma to`rtlarda bo`lsa kerak-da!
 Tomosha etildi Muxtorni chindan,
 Qarsak uraverib qo`li qavardi.
 Sho`rlik Shamsi esa rashk qilishni ham,
 G`ururlanishni ham bilmay qarardi.
 Ko`zlar taslim bugun inson husniga,
 Shunchalar bo`lurmi odamzod loabar!
 Mangu chanqab yotgan tuproq ustida
 “Tanovar” yangradi, ko`hna “Tanovar”.
 Ne uchun quruvchi kechib rohatdan,
 Ayozda dildirab, oftobda erib,
 Hatto vaqt o`g`irlab tushki ovqatdan,
 O`z shirin jonini jabborga berib,
 Shu oddiy qo`shiqni bir tinglash uchun
 Zavqu zollik bilan – yondi kurashdi?
 Yo hamtomirmikin bugungi hujum
 Va tarixga tengdosh san`atning gashti?!
 “Tanovar” – vazmin kuy, ne asrlab
 Dildan kechgan dardlar mujassam unda.
 Lekin, faqatgina dardda bo`lsa gap,
 Odamlar orziqib kutmasdi uncha.
 Faqat dardda, desak, bu kuyning siri,
 Faqat og`ir damda etilsa u yod,
 Olamda xursandlik ko`paygan sari
 Uning bozori ham bo`lardi kasod.
 Qadr topolmasa el ichida u,
 Baxsh ham etolmasdi hech kimga xanda.
 Qay bir pardasida eng shaffof tuyg`u –
 Hayotga muhabbat yashamaganda.
 Hayotga muhabbat! Shu oliy hisni
 Tuyub turmaganda tirik jon har dam,
 Umidsizlik yengib irodamizni,
 Yo`q bo`lib ketardi qo`shiq ham, xalq ham.
 Xalq esa – barhayot,
 Qoyadir qaddi,
 Ekkan nihollari kirar amalga.
 Shamsixon shularni o`ylab, boqardi
 Oyog`i ostida yotgan kanalga.
 Tomiri sohilini chirmab-tishlagan
 Tollar der: “Xush ko`rdik dala qizini!”
 Afsuski, bu tollar eshitishmagan
 Oxunboboevning askiyasini.
 Mayli, tollar bugun uning o`rniga
 Shamsixon qo`shig`in tinglay qolishsin:
 To`lqinlar talpinib inson ko`ngliga,
 Bir oz chanqoqlarin bosib olishsin:
 – Qishlog`ing soyiga tushdi uzugim,
 Qachon kelar ekan ko`zi suzugim?!
 Kelsa kela qolsin ko`zi suzugim,

Uning sadog'asi tillo uzugim...

IX

Hamon jaranglardi o'sha satrlar
Shamsibi o'yini nurday to'ldirib
Yuraklar ko'krakka sig'may patillar,
Kampirlar yelpinar to'rda o'ltirib.
O'z qadr-qimmatin bilgan odamlar
Shunday o'ltirishi mumkindir faqat.
Bu onda hech qanday afsuslar, g'amlar
Qilolmas xonaga kirmoq uchun had
Yo'l va taqdirlar qoshday tutashgan
Azizlar bu yerda bo'lishgandi jam.

O'zlari yaratib, kaftda tutishgan
Hayot lazzatini ko'rishar baham.
Shamsixon qo'shig'in tugatar, ammo
Hali so'nggi so'zin aytganicha yo'q,
Tomga chiqqani yo'q hali Oy hatto
Eri choyxonadan qaytganicha yo'q.
Kuzatuv damlarin cho'zmoqni o'ylab,
Kuy kabi ohista oqar edi tun.
Ostonada esa chekib turar saf
Sovg'alar tug'ilgan uch-to'rtta tugun.

1965.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Husniddin Sharipov lirikasining alohida xususiyatlarini sanang.
2. Shoirning qaysi she'riy romani o'zbek adabiyotida she'riy romanning eng sara namunalariidan biri hisoblanadi?
3. Uning yigirmaga yaqin dostonlari qaysi fazilatlarini bilan o'zbek dostonchiligi tarixida alohida o'rin tutadi?
4. "Tanovar" dostonining nomlanishida qanday ramziylik bor?
5. Asarda milliylik ruhi qaysi obrazlarda bo'rtib ko'rinadi?
6. Badiiy asar tili hamda shoir uslubi borasida munosabat bildiring.
7. Dostonda keltirilgan peyzaj tasvirlari nimaga xizmat qilgan?
8. She'riy san'atlardan foydalanilgan o'rinlarni aniqlab, izohlang.
9. Asardan xalq og'zaki ijodi namunalariini toping. Ulardan nega foydalanilgan deb o'ylaysiz?



ERKIN VOHIDOV (1936-2016)

Vohidov Erkin Vohidovich (1936.28.12., Farg'ona viloyati Oltiariq tumani – 2016.30.05., Toshkent) – shoir, dramaturg, jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoiri (1987), O'zbekiston Qahramoni (1999).

Ilk she'riy to'plami – «Tong nafasi» 1961-yilda nashr etilgan. Keyingi she'riy to'plamlari: «Qo'shiqlarim sizga» (1962), «Yurak va aql» (1963), «Mening yulduzim» (1964), «Yoshlik devoni» (1969), «Muhabbat» (1976), «Kelajakka maktub» (1983), ikki jildli saylanma («Muhabbatnoma» va «Sadoqatnoma», 1986), «Kuy avjida uzilmasin tor» (1991), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (1992) «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirg'oq» (1982), «Bedorlik» (1985). Dostonlari: «Orzu chashmasi», «Nido» (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Quyosh maskani» (1970), «Baxmal» (1974), «Ruhlar isyoni» (1978-79), «Toshkent sadosi» (1983).

U I.Gyotening «Faust» asarini, S.Eseninning she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, alohida kitob holida nashr ettirgan. Bundan tashqari F.Shiller, Iqbol, Ulfat, R.Hamzatov, L.Ukrainka, A.Blok va boshqa turli xalqlar shoirlari asarlarini ham o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Erkin Vohidov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (1997). Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983).

NIDO

Bag'ishlov

Hayqiraman,
Tog'lar bag'ridan
Gumburlagan sado keladi,
Ona-Erning otash qa'ridan
«O'g'lim!» degan nido keladi.
«O'g'lim!»
Vujudimni chulg'ar alanga,
Bo'g'zimga tiqilar hayajon.
– Mana men, o'g'lingiz.
Dardli olamga
Sizdan tanho yodgor,
So'ylang, otajon!
So'ylang, bir daqiqa quloq solayin.
Ovozingiz tinglab to'yolmaganman.
Bir marta yo'qotib topolmaganman,
Xayolimda tiklab olayin.
Otajon!
Men axir qutlug' bu so'zni
Yigirma yil olmadim tilga,
Yigirma yil saqladim dilda.
Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,

So'ylang, eshitaman...
Vujudim tilka,
Yuragimni yoqar o'tli iztirob,
Ammo ko'zlarimda bir tomchi yosh yo'q.
Bag'rim o'yib,
Bu kun menga bermoqda azob
Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q
Silqib oqayotir
Ko'kragimdan qon.
Qalbim o'rtanmoqda, so'ngsiz armonim
Yurak qonim bilan bitgan dostonim
Sizga bag'ishladim,
Otajon!
Xayolning tumanli pardasi aro
Yillar ko'z oldimda charx urayotir,
Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro
Olov bolaligim yugurayotir.
Dunyo qayg'usiga bo'lmagan oshno,
Qah-qah urayotir,
Barq urayotir.

Bilmas, boshi uzra bulutli samo
 Chaqmoq chaqayotir,
 Guldurayotir.
 Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo
 Qasos so`rayotir,
 Bong urayotir...
 Qadamlar,
 Qadamlar,
 Og'ir qadamlar...
 Etiklar zarbidan titraydi tuproq.
 Qaerga ketmoqda shuncha odamlar?
 Nahotki yo`llari shunchalar yiroq!
 – Ana, ko`ryapsanmi?
 Mening dadamlar!
 Dada!!!
 Ovozim hech chiqmaydi biroq,
 Yuguraman – ortga ketar qadamlar.
 Yig'layman – ko`zimga kelmaydi namlar.
 Murg'ak vujudimda faqat zo`r titroq!
 Bo`g'zimda alamlar,
 Achchiq alamlar,
 Yo`lning o`rtasida turibman.
 Shu choq –
 Poezd qichqiradi
 To`xtang, odamlar!
 Qayga ketmoqdasiz?
 Qani dadamlar?!
 Tepamda yonadi zangori chiroq...
 Cho`chib uyg'onaman,
 Onam qoshimda.
 Mehribon qo`llari
 Otash boshimda:
 – Nega yig'layapsan,
 Yolg'izim, qo`zim?
 Tun uzoq, uxlay qol,
 Qo`zlaringni yum.
 Orom ol, men senga
 Allalar aytay.
 Tongda peshonangdan
 O`pib uyg'otay.
 Ana, derazangga
 Qo`nibdi hilol.
 Boshingga egilib
 So`rmoqchi savol,
 Sening kiprigingga
 Sochmoq bo`lib zar,
 Hilol tegrasida
 O`ynar yulduzlar.
 Men sening baxtingman
 Deganday go`yo
 Imlab chorlamoqda
 Yoqut surayyo,

Senikidir bular,
 Seniki bari.
 Seniki osmonning
 Zar qandillari.
 Somonchining yo`li
 Sening yo`llaring,
 Uzatsang Zuhroga
 Yetar qo`llaring,
 Ulg'ay, bolajonim,
 Ulg'aygin tezroq,
 Sening yo`llaringga
 Yulduzlar mushtoq.
 Hozircha orom ol,
 Yolg'izim, qo`zim.
 Tun uzoq, uxlay qol,
 Ko`zlaringni yum.
 Olis sohillarda
 Ufqdan nari
 O`lim sochmoqdadir
 Yov quzg'unlari.
 O`lim sochmoqdadir
 Elga beayov,
 Shahar, qishloqlarni
 Yutmoqda olov.
 O`sha olis yurtida
 Qon kechib hozir
 Otang hayot uchun
 Jang qilayotir.
 Ellarning erk degan
 Sof tilagi deb,
 Jahonning nurafshon
 Kelajagi deb,
 Ofat solmasin deb
 Olamga qotil,
 Otang uzoq yurtida
 Jang qilayotir.
 Sen uchun, men uchun,
 O`z uchun emas,
 Faqat o`zbek va yo
 Rus uchun emas,
 Butun Yer – undagi
 Bor avlod uchun,
 Dunyoda eng qutlug'
 E'tiqod uchun
 Uzoq o`lkalarda
 Qon kechib hozir
 Otang hayot uchun
 Jang qilayotir.
 Sen uxla, yolg'izim.
 Sen uxla, qo`zim,
 Bir nafas orom ol,
 Ko`zlaringni yum.

Bu kunlar albatta
O`tib ketadi.
Bashar jarohati
Bitib ketadi.
Ona yer qaytadan
Yasharar bir kun.
Olam nur qo`ynida
Yashnar lolagun.
Jangu jadallarga
Kelur intiho,
Bizning dunyo bo`lur
Urushsiz dunyo.
Bu dunyolardan qolur
Faqat xotira.
Ammo xalq jafoni
Unutmas sira.
Bu kunlar ketaru
G`am, dog`i qolur.
Yuraklarga solgan
Firog`i qolur.
Avlod avlodlarga
Zamon zamonga
Abadiy, abadiy
Sabog`i qolur.
Sen ham unutmassan
Yuragim, qo`zim.
Hozircha tinch uxla,
Ko`zlaringni yum.
Vaqt kelar, ulg`ayib,
Odam bo`larsan.
Ilm olib sohibi
Olam bo`larsan.
Sen bizlar ko`rganni
Ko`rmagaysan hech,
G`urbat yo`llaridan
Yurmagaysan hech.
Olam to`la quyosh,
Qalbing to`la nur.
Oydin bir zamonda
Yashaysan masrur.
Bizlar ham o`tamiz
Vaqt kelib bir kun.
Sizlarga qoladi
Muqaddas zamin.
Siz uni avaylab
Kaftda tutasiz.
Sharaf yo`llaridan
Olib o`tasiz.
Otash alangaga
Tutmaysiz uni,
Dahshat ummoniga
Otmaysiz uni.

Zamin tegrasiga
Oltin kamalak
O`raydi yetti xil
Nurdan chambarak.
Siz uning bag`rini
Pora qilmaysiz
Otalar xokini
Saqlab muborak.
Sen shunday davronda
Yashaysan, qo`zim.
Hozircha orom ol,
Ko`zlaringni yum...
Boshimizda otashin falak,
Poyimizda otashin tuproq,
Qo`limizda yog`och kamalak,
Ostimizda yog`och arg`umoq,
Oppoq changdir egnu boshimiz,
Oppoq changdir ko`zu qoshimiz.
Ko`ru karmiz,
Beshdan oltiga
Endigina o`tgan yoshimiz,
Ko`cha-ko`yda ko`tarib suron
Yuguramiz sahardan to kech,
Olam uzra kezar zo`r bo`ron,
Biz bu haqda o`ylamaymiz hech.
«Urush-urush» o`yin bo`lsa bas,
Titratamiz ko`ku zaminni.
Kim o`ylabdi deysiz u nafas
Bu urushning rostakamini.
Burchaklardan bir-birimizni
Yog`och miltiq bilan otamiz,
Biz bilmaymiz:
Qay birimizning
O`qqa uchdi bu vaqt otamiz,
Ko`ksimizni ushlagancha jim
Yiqilamiz,
O`lgan bo`lamiz,
Biz dunyoda rostakam o`lim
Borligini qaydan bilamiz?!
Dahshat solib kezarkan u dam
Uzoqlarda jang guldurosi,
Bizning qishloq ko`chasida ham
Yangrar edi
Aksi sadosi.

* * *

Quyosh botar,
Oqshom cho`kar ko`cha-ko`yga,
Tarqalamiz uy-uygayu, tepa to`yga,
Tun boshlanar.
Menga charchoq bilinmaydi,
Kiprigimga uyqu sira ilinmaydi.

Murg'ak fikrim yetaklaydi xayollarga,
 Onam qo`ynin to`ldiraman savollarga.
 «Ayting, aya, mening dadam qahramonmi?
 Tog'larni ham qulatuvchi pahlavonmi?
 To`pponchasi bormi uning cho`ntagida?
 Ordenlari juda ko`pmi ko`kragida?
 Mening dadam samolyotda uchadimi?
 Osmonlardan parashyutda tushadimi?
 O`tkir po`lat qilichini qo`lga olib,
 Dushmanlarning yuragiga qo`rquv solib,
 Katta jangga kiradimi yolg'iz o`zi?
 Shapkasida yonadimi besh yulduzi?
 Ayting, dadam meni yaxshi ko`radimi?
 Kelganida toycha olib beradimi?
 Ko`chalarda toychog'imni yetaklatib,
 Qo`llarimdan ushlab olib yuradimi?
 O`sha kunlar tezroqqina bo`la qolsin,
 Ayting, dadam hayallamay kela qolsin».
 44 yil
 Sentyabrъ tongi otdi.
 Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg`otdi.
 Ko`k jildimda alifbe va bir burda non,
 Birinchi bor qadam qo`ydim maktab tomon.
 O`yinlardan ancha erta to`ygan edim,
 Kitoblarga barvaqt havas qo`ygan edim.
 Yod bilardim alifbening harflarini,
 O`qir edim informbyuro xabarini.
 Juman «pochta» dadamdan xat keltirgan kun
 Katta bayram bo`lar edi mening uchun.
 O`qir edim yuz hijjalab, yuz tutilib,
 Takrorlardim yirtilguncha xat titilib.
 Yayrar edim ma`nosini uqarkanman,
 Dadam xatin o`qib savod chiqarganman.
 Bu kun yana xat olganmiz,
 Ajoyib xat,
 Gospitaldan chiqqan emish sog`-salomat,
 Boshidagi jarohati bitgan emish.
 Hatto o`rni bilinmasdan ketgan emish.
 Berlin tomon tushar endi yo`lim debdi.
 Xat so`nggida, yaxshi o`qi, o`g`lim, debdi.
 Shu kun tunda uch chiziqli daftarimga,
 Oro berib katta-katta harflarimga,
 Xira chiroq yorug`ida ko`z ishqalab –
 Dadamga xat yozmoq uchun surdim qalam.
 «Dadajon!
 Men sizni juda sog`indim.
 Sog`indim ikkala ko`zim bilan teng.
 Kelib qolarmishsiz ertami-indin,
 Ayam shunday dedi,
 Rostmi shu, ayting?!
 Dada,
 U kun sizni tushimda ko`rdim.

Oq otda keldingiz,
 So`radingiz suv.
 Men buni ayamga gapirib berdim.
 Dadang keladi, deb aytdi,
 Rostmi, shu?..
 Rustamning akasi urushdan qaytdi,
 Qo`ltiqtayog`i bor,
 Bir oyog`i yo`q,
 Rustam aytib berdi:
 Ataka payti
 Tizzasidan olib ketgan emish o`q..
 Xol aka qaytgandi uyga to`satdan,
 O`g`li, dadajon, deb chopib kelibdi.
 Ota quchay desa qo`li yo`q ekan,
 Tik turgan joyida yig`layveribdi.
 Darsga kelmay qoldi
 Tunov kun Tal`at,
 Muallim urishsa turaverdi jim.
 Dadasidan kelgan ekan qora xat.
 Hammamiz yig`ladik
 Hatto muallim...
 Dadajon!
 Sizga o`q tegmasin hecham,
 Men uchun ham tezroq qayting salomat,
 Buvim aytgan,
 Agar men tilak qilsam
 Tilagim bo`larmish doim ijobat.
 Rost aytaman,
 Sizni juda sog`indim,
 Sog`indim ikkala ko`zim bilan teng,
 Kelib qolasizmi, ertami-indin?
 Kutaman,
 Dadajon,
 albatta keling».
 Hijron kechalari g`oyatda uzun,
 Ayriliq yo`llari olis nihoyat.
 Ko`chaga chiqaman yuz bora har kun,
 Ko`zlarim nigoron,
 Kelarmikan xat?
 Tongda turganda ham,
 Kun botganda ham,
 Hatto kechalari qilolmay toqat,
 Eshikka qarayman,
 chekaman alam.
 Intizor bo`laman,
 Kelarmikan xat?
 Men qaydan bilibman,
 Yo`l bosar ekan
 Mening murg`ak xatim bekatma-bekat,
 U yoqdan,
 Xuddi u borar manzildan
 Yo`lga chiqqan edi mash`um qora xat.

Qosh, ko`zlarining otangga o`xshar
 Deyishadi, bilganlar doim.
 So`ng xo`rsinib qo`shib qo`yishar:
 O`xshamasin umring iloyim.
 Otam tutgan mash'alni ushlab,
 O`sha yo`ldan boraman men ham.
 Mayli edi
 Otamdek yashab,
 To so`nggi dam
 unga o`xshasam.
 Bobolarning hikmati
 Hayotga yorug` yo`ldir.
 Otang bolasi bo`lma
 Odam bolasi bo`l, der.
 Bu so`zni ilk bor menga
 O`rgatgan otam edi.
 Men otam farzandiman,
 U esa odam edi.
 Qirq birinchi yillarning
 Dahshati ko`z oldimda,
 Go`dak edim, otamni
 Kuzatganim yodimda.
 U ko`plar baxti uchun
 Kirar ekan zo`r jangga,
 Onam boshimni silab,
 O`xsha, degan otangga.
 Men otam bosib o`tgan
 Qonli yo`lni o`tmasman.
 Ammo shonli hayotin
 Bir umr unutmaman.
 Ona-Vatan ko`ksiga
 Qalqon bo`lgan otamning,
 Ko`plar baxti yo`lida
 Qurbon bo`lgan otamning –
 Aziz nomin qalbidam
 Vijdonimdek saqladim.
 Uning o`lmas ruhini
 Shod etmoqdir maqsadim.
 Umrinni fido etay
 U jon bergan Vatanga.
 El mendan rozi bo`lsin
 O`xshabsan, deb otangga.

Quzg`unning qanotiday
 Qaro edi o`sha tun.
 Na milt etgan yulduz bor,
 Na yilt etgan bir uchqun.
 Kech kuz edi,
 Tund kecha,
 Yer, ko`k mungli, borliq g`ash,
 Qor ezg`ilab yog`ardi
 Yomg`ir bilan aralash.

Sukunat.
 Jang tin olar,
 Faqat gohi-gohida
 Mushak uchib so`nadi
 Dushman qarorgohida.
 Yarim tun zulmatida
 Tepalikni qoralab
 To`rt soya emaklardi
 Chakalakzor oralab.
 Har zamon to`xtab-to`xtab
 Hordiq olishar edi,
 Jim qolib sukunatga
 Quloq solishar edi.
 Mana ular o`rmonning
 Chekkasidan o`tdilar
 Va nihoyat daryoning
 Sohiliga yetdilar,
 To`xtadilar, bir nafas
 Ko`z tikdilar yiroqqa.
 Atrof jim,
 Faqat daryo
 Urilardi qirg`oqqa.
 Sirli tun, butun borliq
 Sehrlangan singari.
 Shunday kecha to`rtovlon
 Yo`l olmishlar qay sari?
 Qay manzilga shoshishar
 Shu sovuqda, shu namda?
 Go`yo qor bor,
 Yomg`ir bor,
 Tun bor faqat olamda...
 Avtomatlar bosh uzra
 Ko`tarildi tug`simon.
 Birin-ketin daryodan
 Suzib ketdi to`rtovlon.
 Jim, sharpasiz suzishar,
 Yaqin qoldi qirg`oqqa,
 Yot, notanish tovushlar
 Eshitilar quloqqa.
 Mana sohil – tik qirg`oq,
 Atrof yalang,
 Narida
 Ikki dushman soqchisi
 Ko`rinar tun bag`rida.
 Bir-birovga tikildi
 Bir so`z demay to`rt juft ko`z.
 Shu qarashning o`zida
 Aytilgandi barcha so`z.
 Tek qotdilar.
 Komandir
 Imo qildi nihoyat,
 Tun bag`riga emaklab

Kirib ketdi to`rt soya.
Nogahon o`q otildi,
O`t chaqnadi ketma-ket.
Dushman sezdi,
Razvedka
Jangga kirdi betma-bet.
Granata portladi,
Tilga kirdi avtomat.
Bir yonda butun bir polk,
Bir yonda to`rtta soldat.
Ikki yondan o`q yog`ar,
Olov yog`ar beshafqat,
Bir tomonda tahlika,
Bir tomonda jasorat,
O`rtada tekis kenglik,
O`rtada quyuq zulmat.
Bir tomonda yovuzlik,
Bir tomonda adolat.
Qancha davom etdi jang
Bilar faqat qaro tun,
Bilar faqat tepalik,
Ammo bular lol va gung.
Tongga yaqin qor tindi,
Asta yorishdi osmon
Tepalikka ilk nurin
Sochdi xurshidi jahon.
Bunda yerni quchgancha
Toshlarga qo`yib boshin,
To`rt o`g`lon tinch uxlardi
Ko`kragida qo`rg`oshin.
Tungi og`ir jangdan so`ng
Go`yo tin olar bari.
Ona bag`rida yotgan
Ma`sum go`dak singari.
Shu tong sabo yig`ladi
Chidolmay bu firoqqa.
Shu tong daryo yig`ladi
Boshin urib qirg`oqqa.
Oq, momiq bulutlarning
Bag`ri chok-chok so`kildi.
Shu tong oftob nurlari
Ko`z yosh bo`lib to`kildi.
O`rmonlar shovillagan
Olis yurtda hali ham
Nomsiz tepalik uzra
Uxlab yotibdi otam.

Yerni tepma,
Asta bos qadam,
Yetar uning chekkan ozori.
Tengdoshim,
Asrdosh birodar!

Kel, bir on jim o`yga cho`maylik
Bu yerda
yotibdi
fidolar.
Kel, uni
Gullarga
Ko`maylik.
Bu yerda
Baxt bo`lsin,
nur bo`lsin.
Bo`lmasin,
qora tun zulmati.
Bu yerda
yuraklar
hur bo`lsin.
Qaytmasin,
u kunlar
dahshati.
Tengdoshim,
asrdosh birodar!
Uyg`oq bo`l,
hushyor boq
olamga.
Bu yerni
quchmasin
alanga.
Qabrida
tinch yotsin
fidolar.
Eshit,
ingrayapti
Ona-Er
Qo`ltiqtayoqlarning
zahmidan,
Bu tuproq
yuragi
poradir
Atom zontlarining
vahmidan.
Eshit,
chorlayapti
Ona-Er,
Ko`ksida
olovli
oh-faryod,
Asrdosh birodar,
qo`lni ber,
Kel, Yerga
qilaylik
qasamyod:
Bo`lurmiz
gal kelsa

har birimizga
 Tinchlik janggohining
 fidosi.
 Bu senga,
 bu menga,
 bu bizga
 Yigirmanchi asr nidosi!
 Yiroqlarda qoldi
 Uqubatli yillar
 Yer ostida yotar topganlar zavol.
 Qolganlar umrning
 Sarhisobin qilar
 Soch oqiga boqib surarlar xayol.
 Yillar o`tdi-ketdi
 Dovulini qoqib,
 Tuproqqa berildi ne-ne aziz jon.
 Bizlar xayollarning
 To`lqinida oqib
 U kunlar haqida o`qiymiz doston.
 Ammo o`lganlarga
 She`r, dostondan ne naf,
 Ne foyda yig`lashdan qalb dardin aytib.
 Ming yil shon o`qisak,
 Ming yil desak sharaf,
 Ketganlar dunyoga kelmaydi qaytib.
 – Nega egilmasin
 Odam ketsa odam
 Ustunga zo`r kelar qulasa ustun.
 Bu tashvishli dunyo,
 Sermashaqqat olam
 Bizning yelkamizda qoldi-ku, do`stim!
 Uni bo`ronlardan,
 Quyoshli yo`llardan
 Nurli istiqbolga olib o`tamiz.
 Biz uni olganmiz
 Tabarruk qo`llardan,
 Tabarruk qo`llarga eltib tutamiz.
 Avlodlar uchun ham
 Qutlug` bo`lar albat
 Yer uzra to`kilgan ko`z yosh, qon va ter.
 Bepoyon kenglikda

Charx uradi abad
 Ulkan yurak shaklidagi Yer.
 Bizlar havo edik,
 Bir giyoh edik.
 Tomchi shabnam edik
 Va qatra ziyo.
 Bobolar bizni deb,
 Shu hayotni deb,
 Mash`al ko`targanda
 Zulmatlar aro.
 Biz hali yosh edik,
 Biz go`dak edik,
 Bir parcha et edik,
 Murg`akkina jon.
 Otalar bizni deb,
 Shu hayotni deb,
 Begona ellarda
 Bo`lganda qurbon.
 Unutmum!
 Unutmam!
 Unutmam sira
 Muborak nomlarin
 She`rimda aytib.
 Ularning tabarruk
 Xotirasiga,
 Do`stim, oyoqqa tur,
 O`ltirma qaytib!
 Qaytib o`ltirma hech
 Qutlug` bayroqni
 Muqaddas manzilga
 Eltmaguningcha!
 Qaytib o`ltirma hech
 Ona-tuproqni
 Bu dunyo jannati
 Etmaguningcha!
 Otalar ruhini
 Shod etmaguncha
 Qaytib o`ltirmoqqa
 Haqqing yo`q aslo!

1964-y.

RUHLAR ISYONI

Tug`ilgansan ozod, mudom Ozod bo`lib qol!
Nazrul Islom

Bu dunyoning
 Quvonchi kam,

Dardu g`ami –
 ziyoda.

Ammo

g'andan qochmoqning
 ham
 Tadbiri ko`p dunyoda.
 Kimning dildosh
 Bor ulfati,
 Dardin
 unga to`kadi.
 Yolg'izlarning bor kulfati
 Dil tubiga
 cho`kadi.
 Kim najotni
 sokin tunning
 Uyqusidan so`raydi.
 Kim g'amini
 Nikotinning –
 Tutuniga o`raydi.
 Dil zaxmiga malham topar
 Kim habib,
 Kim tabibdan.
 Kim qochmoqqa
 aylar safar
 G'am atalgan raqibdan.
 Gar bularning
 Yo`q imkoni,
 So`nggi chora etmoq bor.
 Kulfat to`la
 bu dunyoni
 Shartta tashlab ketmoq bor.
 Lek olamda
 bir dard borki,
 Unga sira najot yo`q.
 Bu azobga
 kim duchorki,
 Unga kun yo`q,
 Hayot yo`q.
 Bu mashaqqat
 Ichgan bilan
 Dil tubiga
 cho`kmaydi.
 Uni hech kim yuragidan
 Hech kimsaga
 To`kmaydi.
 Xalos etmas
 bitta arqon,
 Nuqta qo`ymas
 Bitta o`q.
 Chidamoqqa
 yo`qdir imkon,
 Qochmoqqa ham
 Chora yo`q.
 U jon bilan
 ketsa dildan,

Sukut qolsa
 yurakda,
 Odamzodning
 Ruhi bilan
 Yashayverar falakda.
 Bu –
 shoirning dilin ezgan
 Istibdodning dardidir.
 Yurakdan
 qon bo`lib sizgan
 Iste`dodning dardidir.
 To`lg`og`ida bu alamning
 Tanho ingroq –
 xonish bor.
 Abadiyat
 Jahannamning
 Otashida
 yonish bor.

Abadiyat haqida rivoyat
 Roviyy aytar:
 Allazamon –
 Allaqaysi ma`voda
 Falokatga uchrab karvon
 Poyoni yo`q sahroda,
 Bu nogihon
 Tasodifda
 Barcha o`tib dunyodan –
 Shu tasodif amri
 bilan
 Omon qoldi
 Bir odam.
 Belbog`iga osganicha
 quruq ko`za –
 suvdonni,
 Kezdi necha
 Kunduz-kecha
 Bu dashti bepoyonni.
 Keza-keza
 oxir toldi,
 Umid uzdi jonidan.
 Bir payt
 nogoh
 chiqib qoldi
 Bir chashmaning yonidan.
 Yiqilganicha suvga
 behol
 Lab cho`zganda tashna tan,
 To`lqinlandi
 birdan zilol,
 Sado chiqdi chashmadan:
 «Shoshma, yo`lchi,

Ichursan, bas,
 Muzdek,
 tiniq,
 to`laman.
 Ammo bilki,
 Oddiy suvmas,
 Obihayot bo`laman.
 Azob chekding ko`n
 sahroda,
 Mayli,
 To`yib ichib ol.
 Meni ichgan bu dunyoda
 Mangu yashar
 bezavol.
 Ol, ich,
 Yasha davron surib
 Abadiy bu dahr aro,
 Ammo
 Meni ichmay turib
 Fikr qilgin avvalo.
 Hayotga-ku,
 to`ymas ko`zing,
 Yashaysanmi umrbod
 Mangu hayot uchun o`zing
 Yaraysanmi,
 Odamzod?
 Mangulik der
 odam nasli,
 Lek
 insoniy tafakkur –
 Abadiyat nadir asli
 Qila olmas tasavvur.
 Yo`lchi hayron,
 Yo`lchi sergak,
 Bu qandayin chashmadir?
 Ichay desa –
 cho`chir yurak,
 Ichmay desa – tashnadir.
 Uzoq-uzoq
 O`yga toldi,
 Suv labida o`ltirib,
 Oxir
 Obihayot oldi
 Ko`zasiga to`ldirib.
 O`ylay-o`ylay
 Nari ketdi –
 Ul sehrli buloqdan.
 Nogoh
 Hazin sas eshitdi –
 Sado keldi yiroqdan.
 Bordi,
 E, voh,

yotar bir bosh
 Qum ustida
 benajot.
 Nola chekar,
 To`kar ko`z yosh,
 «La`nat, –
 deydi,–
 ey, hayot!
 O`sha suvdan ichdim
 nega?
 Afsus! –
 deru
 o`kinar.
 Yo`lchiga u:
 – Rahm et menga,
 O`ldir, –
 deya o`tinar.
 Ming yil avval
 Shu buloqdan
 Suv ichganman,
 cho`mganman.
 Yashayverib,
 Bu qiynoqdan
 O`zni qumga
 ko`mganman.
 Umr ko`rdim
 haddan bisyor,
 Hech toqatim
 qolmadi.
 Yer yuzida
 Mening biror –
 Hamsuhbatim
 qolmadi.
 Azob bormi
 Bundan ulug`,
 Dahshat bormi
 ziyoda?!
 Menga yerda
 tiriklik yo`q,
 O`lim ham yo`q
 dunyoda.
 Yo`lchi boqdi
 Hayratda lol
 Tirik inson qabriga.
 So`ngra
 qumga cho`kdi behol,
 Rahmat aytdi sabriga.
 O`z holiga ming shukr
 etdi,
 Yig`ib so`nggi sabotni –
 Qum ustiga
 To`kib ketdi

Yo`lchi obi hayotni.
 Yo`lchi ketdi
 Bo`lib xoli
 Mangulikning g`amidan.
 Totib qoldi
 Cho`l niholi
 Obi hayot namidan.
 Ildiziga uning alhol
 Tomchi yetdi,
 Shu faqat.
 Yillar o`tib
 o`sha nihol
 Chinor bo`ldi oqibat.
 Shundan chinor
 Uzoq yashar,
 Shundan chayir tanlari.
 Mangulikdan kechib
 bashar
 Foni y umr tanladi.
 Kel, ey ko`nglim,
 Bizning hayot
 Emas ekan
 jovidon,
 Bu dunyoda
 izla najot,
 Yasha faqat
 shodumon.
 Bu hayotning
 Yarmi rohat,
 Yarmi g`amdir,
 shukr qil.
 Umring uzun bo`lsa –
 rahmat,
 Agar kamdir,
 Shukr qil.
 Shu oftobu
 Ming bir ohang,
 Ming bir rangli bu dunyo
 Senikidir,
 Hayot esang,
 Hayot esang avvalo.
 Ham shavq bilan,
 Ham dard bilan
 O`tar ekan bu damlar.
 Omon bo`lsin
 Sen anglagan,
 Seni anglar
 odamlar.

Birinchi fasl

Shoir qalbi

Tun bilan kun,
 O`t bilan suv
 Bir-biriga zolimdir.
 Koinotda
 Azal,
 Mangu
 Isyon ruhi hokimdir.
 Zamin uzra
 qor quyunin
 Yog`dirganda
 charx-falak,
 Qish qahriga
 egmay bo`yin
 Isyon qilar
 Boychechak.
 Qora bulut
 zulumatga
 Chulg`aganda samoni,
 Chaqmoq –
 nursiz bu hayotga
 Yorug`likning isyoni.
 Tug`ilarkan,
 dod der go`dak,
 Ko`ksi to`la fig`ondir.
 Jajji mushti
 Naq g`unchadak
 Bu – o`linga isyondir.
 Qaro qilgan
 Ko`k daftarin
 Qorong`ulik qasdiga
 Tong yig`adi.
 nur lashkarin
 Shafaq tug`i ostiga.
 Yeru ummon,
 Burjlar aro
 Xohi oshkor,
 Xohi nihon,
 Ibtidodan
 to intiho
 Hukm surar g`alayon.
 Sobir inson yuragida
 Qanoatki barqaror,
 Kosa yanglig`
 Sabr tagida
 Otash yanglig`
 Isyon bor.
 Kuy,
 g`azali
 odamzodning
 Darddir,
 ezgu armondir.
 Yaralishdan,

Iste'dodning –
 Tabiati –
 isyondir.
 Shoir yurak –
 Pok tilagi,
 Imonidir basharning.
 Armon to`la
 yurakdagi
 Isyonidir basharning.

 Nazrul Islom
 Bu dunyoga
 Shoir bo`lib tug`ildi.
 Ilhom otli pok ziyoga
 Go`dak qalbi yo`g`rildi.
 Nigohidan
 Sehrli nur
 Borliqqa nur taradi.
 Koinotga
 tahayyur
 Ko`zi bilan qaradi.
 Tunlar unga berdi xayol,
 Shavq atadi
 kunduzlar.
 Gullar g`azal aytdi
 xushhol,
 Ertak aytdi
 Yulduzlar.
 Ulg`aydi u,
 O`smir bo`ldi,
 Yetdi yigit yoshiga.
 Ishq otli qush
 kelib qo`ndi
 Nazrulning ham boshiga.
 Ham yondi bag`ri kabob,
 ham ochildi
 chun bahor.
 Hijron berdi
 totli azob,
 Visol etdi
 baxtiyor.
 Goh shodlik,
 Goh alamidan
 Dil chashmasi ochildi.
 Uning hassos qalamidan
 Ishqiy baytlar sochildi,
 Bu dunyoga
 Nazrul Islom
 Shoir bo`lib tug`ildi.
 Ibtidodan
 yoniq ilhom
 Shu`lasiga yo`g`rildi.

Yetti asr avvalgidek
 Bo`lsa edi zamonlar,
 Balki
 Xusrav Dehlaviydek
 Bitar edi dostonlar.
 "Tug`ilsaydi
 Nazrul agar
 Yarim ming yil ilgari,
 Bitar edi
 ruboiylar
 Mirzo Bobir singari.
 Agar
 Necha zamon o`tib
 Kelmasa bu davronlar,
 Bedilona g`azal bitib
 Tuzar edi
 devonlar.
 O`zga edi
 ammo fursat,
 O`zga edi el dardi.
 Zamon
 uning
 yonib turgan
 Yuragini so`rardi.

 Shoirni
 tug`ilmasdan
 Gado qilgan edilar.
 O`z yurtida
 O`z yurtidan
 Judo qilgan edilar.
 O`rab uning
 naq yurakdek
 Ona Hindistonini
 Zobitlar
 oq o`rgimchakdek
 So`rardilar qonini.
 Bir tomonda,
 Yovni emas,
 Bir-birini beomon –
 So`yar edi
 taqvodan mast
 Hindu bilan musulmon.
 Bir tomonda
 Na uy ko`rib,
 Na bir to`shak,
 och,
 xarob.
 Ko`chalarda hayot qurib
 O`lim topgan behisob.
 Ganga oqar
 ko`z yosh bo`lib,

Jamuna lim
 bo`lib qon.
 Bori butun bardosh bo`lib
 Najot kutar
 Hindiston.

 Har nechakim zo`r iste'dod
 Toshqin ilhom,
 nega,
 Xalqing yotsa
 chekib faryod,
 Yaramasang kuniga
 Shoir esang,
 Shoir bo`lib
 Nega kelding hayotga,
 Eling yotsa
 dardga to`lib,
 Kelolmasang najotga.
 Ne shoirsan,
 Tashbehlarning
 Bormi asli keragi,
 Bo`lmasa el g`ami –
 darding,
 Yuraging –
 el yuragi.
 Nazrul Islom
 Hind xalqining
 Zardobini yutardi.
 Nazrul Islom
 O`z qalbini
 Bayroq qilib ko`tardi.
 Yuragida
 to so`nggi dam
 Isyon o`ti so`nmadi.
 Haqsizlikka ko`ndi olam,
 Ammo
 shoir
 ko`nmadi.
 Ko`rgilik bu,
 dedi hindu,
 Taqdir,
 dedi musulmon.
 Lekin
 Zo`rlar zulmiga u
 Tan bermadi hech qachon.
 O`zni o`tga otdi aniq,
 Joni borki,
 kurashdi.
 Umri uning
 Mangu yoniq
 Qo`shiq'larga tutashdi.

Isyon qo`shig'i
 «So`yla, inson,
 So`yla qadding
 Ko`tarib baland.
 Yuksaklikda sening
 qadring
 Himolay monand.
 So`yla,
 Sening poyingdadir
 Bu ulug' zamin.
 So`yla, otib zolim asr
 Dardu alamin
 Sen o`tmishni supurguvchi
 Kuchli bo`ronsan,
 Osmonlarga ot surguvchi
 Sohibqironсан.
 Sen chaqmoqsan,
 Qaro zulmat
 Bag'rini yoqqan.
 Sen Indra,
 Ko`kda ismat
 Chirog'in yoqqan.
 Sen Shivasan, koinotni
 Barbod qilguvchi.
 Sen Gangasan, bu hayotni
 Obod qilguvchi.
 Sen – Durganing tosh
 yuragi,
 Shafqat bilmaysan.
 Sen – Krishna qo`lidagi
 Kuylagan naysan.
 Izmingdadir cheksiz fazo,
 Zaminu zamon.
 Bu olamga ega tanho
 O`zingsan, inson!
 Tangrilarni osmon qadar
 Ko`targan ham sen.
 Sajda qilgan,
 Yana isyon
 Ko`targan ham sen.
 Ham shafqat,
 Ham beozorlik
 Yashar qoningda.
 Ham fidoiy isyonkorlik
 Yonar joningda.
 So`yla, inson,
 So`yla qadding ko`tarib
 baland.
 Yuksaklikda sening
 qadring
 Himolay monand.

Qullik senga ko`p
 maloldir,
 Ammo ne uchun
 Boshing egik,
 Tiling loldir,
 Qomating zabun?
 Tangrilarga
 bo`ysunmagan,
 Bermagan bardosh,
 Bandasiga bugun nega
 Egadirsan bosh?
 Sababkormi yolg'iz taqdir
 Holingga saning?
 Bilasanmi do`sting kimdir,
 Kimdir dushmaning?
 Asriy g'aflat yetar endi,
 Ey, mazlum inson!
 Uyg'onmoqning vaqti
 keldi,
 Ko`targil isyon!
 Bosh ko`targil,
 Ming yil to`kkan
 Ko`z during haqqi.
 Qo`zg'al,
 Asriy qullik bukkani
 G'ururing haqqi.
 Qo`zg'al,
 Buyuk Tojmahalning
 Shukuhi uchun.
 Qo`zg'al,
 Ulug' bobolarning
 Pok ruhi uchun.
 Erk bongin ur,
 Sen intiqom –
 Tablin baland chal.
 Tug'ilgansan ozod,
 Mudom
 Ozod bo`lib qol.

Nazrul she'ri
 mushoira –
 Minbaridan yangradi.
 Kim dedi:
 Bu she'rmas sira,
 Kim
 dilidan angladi.
 Yurt og'zida bu she'r
 bahsi,
 El tilida bahosi:
 «Qani she'rda gullar raqsi?
 Qani bulbul navosi?»

«Bu she'r
 sharqqa xosdir nahot?
 Na ishqiy,
 Na rindona...
 Bunday ash'or Sa'diyga
 yot,
 Hofiz uchun begona».
 «Qoida bor,
 Buzmoq abas,
 Isyon esa gunohdir.
 Kim shariat yo`lin tutmas,
 El bilarki,
 gumrohdir».
 «Ul kun Buddha:
 Mard agar sen
 Dardni ichga yut, degan.
 Ul yuzingga ursalar, sen
 Bul yuzingni tut, degan».
 «U dunyoda baxting
 ta'min,
 Bu dunyoda cheksang
 g'am.
 Shunday deya bergan
 ta'lim
 Ul...
 alayhi vassallam».
 Malomatga qoldi endi
 Shoir bitib haq doston.
 Hindu uni
 «jobon» dedi,
 «Kofir» dedi
 musulmon.
 «Bu isyonni
 bu nifoqni
 Chiqarmoq ne zohirga.
 Siyosat-la o`ynashmoqni
 Kim qo`yibdi
 shoirga».
 «U hali yosh,
 Hali go`dak,
 Zarra parvo etmaydi.
 Es-hushi yo`q hayiqqudak,
 Jon qadriga yetmaydi».
 «Ha, zulm bor,
 Haqsizlik bor,
 Barchaga bu ayondir,
 Ammo
 buni zinhor-zinhor
 Aytib bo`lmas zamondir».
 «Hamma bilar,
 Inson erkin –
 Yashashi shart poyidor.

Biz ham aytsak bo`lar
 lekin
 Uyda bola-chaqa bor...»

Fidoiylik to`g`risida
 rivoyat
 Qadim zamon,
 Ayol dini
 Fidoiylik,
 deganlar.
 Eri o`lsa,
 xotinini
 Qo`shib ko`mar ekanlar.
 O`tib
 necha avlod umri,
 O`tib
 cheksiz ko`p zamon,
 Hech bir davr
 Bu udumni
 Qilolmadi qatag`on.
 Dahshat edi bu chinakam,
 Bilar edi
 odamlar.
 Lek
 odatga qarshi
 ne ham
 Qilar edi odamlar?
 Ham ota,
 Ham onaizor
 Go`rga kirib barobar,
 Qola berdi
 chirqirab zor
 Bola-chaqa
 Darbadar.
 Asli
 o`sha zamonda ham
 Donishmandlar bor edi
 O`tib
 necha avlod umri,
 O`tib
 cheksiz ko`p zamon,
 Hech bir davr
 Bu udumni
 Qilolmadi qatag`on.
 Dahshat edi bu chinakam,
 Bilar edi
 odamlar.
 Lek
 odatga qarshi
 ne ham
 Qilar edi odamlar?
 Ham ota,

Ham onaizor
 Go`rga kirib barobar,
 Qola berdi
 chirqirab zor
 Bola-chaqa
 Darbadar.
 Asli
 o`sha zamonda ham
 Donishmandlar bor edi.
 Lekin
 ular ichra
 mard kam,
 Ko`p –
 ehtiyotkor edi.
 Bosh ko`tarmas erlar,
 Isyon –
 Ayollar ham qilmasdi.
 (Chunki ular eri qachon
 O`lishini bilmasdi.)
 O`tib ketdi
 Ming yil fursat,
 Qarshi qudrat yo`q edi.
 Kimda shafqat,
 Kimda himmat,
 Kimda jur`at
 yo`q edi.
 Bir kun
 Jangga keta turib
 Bosh ko`tardi
 bir o`g`lon.
 Ot boshini shartta burib
 Yeldi tikka
 Shoh tomon.
 Dedi:
 «Ey, shoh!
 Oldimda bor
 hayotu, yo o`lim.
 Qolayotir rafiqam zor,
 Qizalog`im va o`g`lim.
 Agar men bu jangda
 o`lsam
 Sodiq qolib udumga,
 Farzandlarim onasin ham
 Hukm etarsan o`limga.
 Men-ku,
 ular erki deya
 Jangga ketayotirman.
 Farzandlarim mehri deya
 Fidoiyman,
 botirman.
 O`lsam,
 Ular onadan ham

Yetim qolsa banogoh,
 Tor-mor bo`lsin butun
 olam!
 Bu ne vahshat!
 Eshit, shoh!
 Boqiysi yo`q
 hech odamning,
 Biz ketarmiz tamomiy.
 Ammo ayol –
 Bu olamning
 Kelajagi,
 davomi.
 Shu-chun,
 o`lsam kunim bitib,
 Vasiyatim shu bo`lsin:
 Yorim emas,
 Hamroh etib
 Jang qurolim ko`milsin».

Bu so`z
 Misli ochiq kunda
 Bo`ldi momoguldirak.
 Keltirdilar
 Bolta... Kunda...
 Bas, tafsilot ne kerak...
 Bechoraning ochiq qolgan
 Ko`zlarini yumdilar.
 Mozoriga
 O`zi bilan
 Qilichini ko`mdilar.
 Bo`lsin deya tavqi la`nat,
 Avlodlarga ta`limot
 Qabri uzra
 Yozdilar xat:
 «Bunda yetar
 manfur zot!
 Ko`ring
 bu kas holatini,
 Yotar
 misli
 xoru xas.
 Bobolarning odatini
 bilmadi muqaddas.
 His qilmadi
 yurakdan –
 Ayol uchun dunyoda
 Eri bilan ko`milmakdan
 Saodat yo`q ziyoda!»
 Qurbon bo`ldi
 Bitta yurak,
 Qoldi tavqi la`natga.
 Shundan ayol
 O`lsa erkak

Qo`yilmadi lahadga
Kel, ey ko`nglim,
Inson aslo
Yaralmagan sabrga.
Sig'inaylik
o`sha tanho
Tahqirlangan qabrga.
Haq uchun
Bosh tutgan tikka
Mardlar ruhi
yor bo`lsin.
Bu dunyoda
nohaqlikka
Ko`nmaganlar bor bo`lsin,
Zo`rlik ko`rsang,
Qilma toqat,
Har boshda bir o`lim bor.
Fidoiylar umri faqat
Bu dunyoda
poyidor!

*Ikkinchi fasl
G'alayon
Kalkutta, 1926-yil*

Kalkuttani
Quchdi g'ulu,
Bosh ko`tardi
olomon.
Qutlug' jang, deb
turdi hindu.
G'azot, dedi
musulmon.
Barahmanlar
dovul qoqdi,
Fatvo berdi imomlar.
Ko`cha to`lib
qonlar oqdi
To`qnashganda imonlar.
Farzandidan ona ayru,
Otasidan –
qiz, o`g`lon.
Budda haqqi,
Bas,
der hindu,
Alqasos, der
musulmon.
Hindu ishi tahqir bo`ldi,
Muslim ishi –
tahdidlar.
Butxonalar vayron bo`ldi,
Yakson bo`ldi

Masjidlar.
Rikshami bu,
sohibmi bu,
Gadomi yo
zodagon –
Farqsiz,
Faqat –
Bir yon hindu,
Bir yon esa –
musulmon.
Sirtga chiqdi
Asrlik kin
Va ming yillik
kudurat.
Ikki jondosh el aro din
Yana soldi
adovat.
Aslida-ku
Hayot og'u,
Turmush o`zi –
zimiston.
Aybdor emas
bunga hindu,
Gunohkormas musulmon.
Aslida-ku...
Beiztirob
Ho`plab qora qahvani,
Derazadan
oq tan janob
Kuzatar mojaroni.
ko`p xursand,
Labda kulgu,
Ko`zi chaqnar
komiron.
Musulmonni so`kar hindu,
Hindni esa
musulmon.
Janob shodon,
Ushalmoqda
Niyatning eng ulug'i.
Hosil bo`ldi shu tuproqda
Ekkani nifoq urug'i.
Bo`lmasin deb
qilar orzu
Bu nizoga hech poyon.
Mayli,
Ko`proq o`lsin hindu,
Ko`p qirilsin
Musulmon.

Nazrul
Johil olomonga

Qaradiyu
oh chekib –
O`zni otidi tik
maydonga
Yoqasini chok etib.
Faryod qildi:
«Ne vahshat bu,
Bas, xaloyiq!
Alomon!
Qotillikni to`xtat,
hindu,
G'azotni qo`y,
musulmon!
Hind, musulmon –
Birodarmiz,
Farzand Odam Atoga!
Haq oldida
barobarmiz,
Ayting,
Ne bor nizoga!
Xunrezlik qil demagan-ku,
Na Vedayu
Na Qur'on!
Tig' uradi
nega hindu,
Bosh kesadi musulmon?
Farq –
kim mehrob,
kimsa butga
Sig'inib bosh qo`yadir.
Shu farq uchun
Yoqib o`tga
El bir-birin so`yadir.
Bas, adovat!
Bas, endi kin,
Jangni qo`ying,
odamlar!
Sizning asli yovingiz kim –
Bilib qo`ying,
Odamlar!
Ular
Uzoq yurtdan kelib,
Yerga bukib shonimiz,
Bizni bizga
Dushman qilib
So`rmoqdalar
qonimiz.
Bosqinchining
Qadimdan oq –
Falsafasi ayondir.
El ichida
bo`lsa nifoq,

Demak,
 zolim omondir.
 Ular
 mazlum vatanida
 Bo`lmasin der
 sobitlar.
 Jaholatning gulxanida
 Isinadi zobitlar.
 Eldan omad ketsa,
 dastlab
 Hamjihalik yo`qolgay,
 Bunday elni,
 Sirtmoq tashlab
 Har bosqinchi yiqolgay.
 Bu adovat
 Nahot mangu?
 Nahot bitmas
 bu qiron?
 Do`st bo`lolmas
 Nahot,
 hindu–
 Jigariga
 musulmon?
 Sen hindmisan,
 Muslimmi yo,
 Birlik chog`i
 bu choqdir.
 Bosqinchini
 eng avvalo
 Hind bahriga uloqtir.
 So`ng ushalgay
 Barcha orzu,
 Yashar ozod,
 tinch,
 omon.
 Vatanida ega hindu,
 Yurtida bek –
 musulmon».

 Nazrul aytgan so`zlarni
 men
 Undoq bayon qilmadim.
 O`shal yoniq
 nafasga teng
 So`zlar topa bilmadim.
 Tarjima ne?
 Asl she`rning
 Ma`nosiyu
 g`oyasi.
 Ammo ul o`t,
 ul sehrning
 Faqatgina soyasi.

Nazrul she`ri
 Bangolaga
 Qanot yozdi nogahon.
 Alangali
 bu nolaga
 Quloq tutdi
 Hindiston.
 Keksa Thokur
 shukur aytdi shod,
 Oq soqolin siladi.
 Yosh shoirga
 Nurli ijod,
 Bezavollik tiladi.
 Bu dunyoga
 Nazrul ammo
 Olov bo`lib kelgandi.
 O`z o`tida yonib
 ado –
 Bo`lishini bilgandi.
 Asroldi
 na xalq,
 na Thokur,
 sig`madi zamonga.
 Isyonkorlik
 Uni oxir
 Olib keldi
 zindonga.

 Shoir bo`lsang,
 Bo`lsin qalbing.
 Elga qurbon bo`lgudek.
 Shoir bo`lsang,
 Bo`lsin xalqing
 Senga qalqon bo`lgudek.
 Shoir bo`lsang,
 Seni eling
 Qalbi bilan tinglasa.
 Yod olmasa hamki
 she`ring
 Fidoliging
 anglasa.
 Shoir bo`lsang,
 Yurtda yasha
 Meniki deb aytgulik.
 Jannat yurtdan kechib
 o`sha
 Xarobaga qaytgulik.
 Shoir bo`lsang,
 Qalamingni
 Nayza qilib tutolsang.
 Yurakdagi alamingni
 Oq qog`ozga

to`kolsang.
 Shoir bo`lsang,
 Qalb chirog`ing
 Yonib tursa to abad.
 Bu dunyodan
 ketar chog`ing.
 Yig`lab qolsa she`riyat.
 O`z bag`riga olsa quchib
 Seni ona makoning...
 Gar shu baxtlar bo`lsa
 nasib
 Yo`q dunyoda armoning.
 * * *
 Nazrul Islom bo`ldi
 mahbus,
 Tunda uydan oldilar.
 El ko`zidan uzoq, maxsus
 Bir xonaga soldilar.
 Ishi qiziq bu jahonning
 Hakamlar hukm etdilar:
 Shoirni ul g`alayonning
 Sababkori, dedilar.
 Aybnomani tinglang, hatto
 Faryod qilar toshlar ham,
 «Hindu bilan
 muslim aro
 Qutqu solgan shul odam!»
 Olib yurtdan kelgan biron
 Ayb qo`ydi beandisha:
 «Nazrul Islom –
 Xalqiga yov,
 Nifoq istar hamisha».
 Bu dunyoda
 Bor qabohat,
 Bu dunyoda
 bor yolg`on.
 Ammo bunday
 oshkor tuhmat
 Bo`limgandi hech qachon.
 Nazrul Islom
 nomi oxir
 Ming baloga taqaldi.
 El uchun
 Jon tikkan shoir
 El dushmani
 ataldi.
 Hukm o`qildi:
 Bosh egib u
 Asta borar hibs tomon.
 Ajab!
 Soqchi –
 bir yon hindu

Bir yon esa
Musulmon.
Uni turtar
musulmon ham,
Siltaydi hind havoldor.
– Qirpichoqda
o`ldi akam,
Senda ekan ayb,
murdor!
– Ko`p azoblar chekdi
hindu,
Ko`p qon to`kti
musulmon.
Sen kabilar yo`qolsa-ku,
Yashar edik
Tinch, omon...
Asta
qadam tashlar
Nazrul,
O`ylaridan ogoh yo`q.
Soqchilardan
ranjimas ul,
Jaholatda gunoh yo`q.

Jaholat to`g`risida rivoyat

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatlik zamonda,
Bir donishmand
ulug` hakim
O`tgan ekan jahonda.
U kun bo`yi
Giyoh terib
Kezib tog`u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga
ming bir mushkul dardning
Ayon bo`lib davosi,
Bora-bora
Odamlarning
Ortaberdi ixlosi.
Tabobatga
Qalban,
ruhan
Fido qilib o`zini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish
ko`rning ko`zini.

Rivoj topmish
Sohib hikmat,
Donish,
mehnat madadkor.
Ammo
Qayda bo`lsa shuhrat
Yonboshida
Hasad bor.
Duoxonlar,
parixonlar,
O`quvchilar chilyosin...
Xullas,
Yurtda bor nodonlar
Boshladilar ig`vosin.
Tinmay
Kechayu kunduzi
Topib Nabi so`zidan
Dedilar:
«Dard bergan
O`zi!
Davosi ham
O`zidan!
Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir.
Demak,
Hakim ishi makru
Uning o`zi
Shaytondir».
Bu so`zlarni
chin, deb bildi
Nodon,
johil olomon.
Donishmandni sazo qildi,
Kaltakladi
Beomon.
Cho`g` temirda
Ko`ksin dog`lab,
Dorga osmoq bo`ldilar.
So`ng
Bo`yniga xarsang bog`lab
Suvga bosmoq bo`ldilar.
Keyin
Suvni,
arqonni ham
Hayf bildilar «shaytonga».
«Yoqing,–dedi
Eng bosh hakam,–
Olib chiqib maydonga!»
Keng maydonga
Ko`mib ustun,
Bog`ladilar hakimni.
So`ng

temirni o`tga qo`yib,
Dog`ladilar hakimni.
Buyurdilar:
«Yoqing shitob
Azozilning oshnasin.
Kerak bo`lsa
Kimga savob,
Cho`p keltirib tashlasin».
Savob uchun
Birov o`tin,
Birov tashlar dona xas.
Hakim
Boshin baland tutib
Johil elga qaramas.
Bir payt
Gulxan sari bir chol
Asta kela boshladi.
Quchog`ida
Bir bog` poxol.
G`aram uzra tashladi.
Dedi:
«Asli tug`ilgandan
Basir edim men o`zim.
Sen
joduning tig`i bilan
Ochib qo`yding
ko`r ko`zim.
Tangri bilib
Yaratgan ko`r,
Davo qilding ne uchun?
So`roqda men –
manglayi sho`r –
Nima deyman
Mahshar kun?
Haq yo`lidan ozgan odam,
Ko`zim ochib
ne berding?
Meni bir yo`l
U dunyo
ham –
Bu dunyodan ayirding.
Ko`rligimda
Bu olamni
Tasavvurda ko`rardim.
Dunyodagi bor odamni
Mushfiq bilib yurardim.
Shafqat ila
Kim nonu
kim
Chaqa tashlab ketardi.
Men ham
shunga ko`ngan edim,

Menga shu ham
 yetardi.
 Qornim to`ysa – saodatim
 Yo`q tuman xil tilaklar.
 Hamsuhbatim,
 Ham ulfatim
 Jajji shirin go`daklar...
 O`ylar edim:
 Dunyoda bor
 Musaffolik,
 Soddalik
 Ko`zim ochib
 Ko`rdim ilk bor
 Berahmlik,
 Soxtalik.
 O`g`riligu fahshni ko`rib
 Jim yurarkan odamlar.
 O`z do`stiga
 Kulib turib,
 Tig` urarkan odamlar.
 Bir yonda aysh
 Ko`kka chirmash,
 Bir yonda,
 boq,
 ohu voh...
 Bukun mening
 ko`nglimda g`ash,
 Imonimda – ishtiboh.
 Derdim:
 Yurtni bir bor ko`rsam.
 Ko`rdim.
 Orzum to`q endi.
 Yo`lda yotgan
 ko`rchalik ham
 E`tiborim yo`q endi.
 Bu dunyodan
 To`ydim oxir,
 Ado bo`lsam mayliga.
 qaytadan,
 O`sha basir,
 Gado bo`lsam mayliga!»
 Bu so`zlarni
 Eshitdi-yu,
 Faryod qildi donishmand.
 «Yoqing,–
 deya so`radi u,–
 Olov bo`lsin sarbaland,
 Tezroq ketay
 Bu dunyodan,
 Hech toqatim qolmadi.
 Mendan
 shifo oldi

odam,
 Olam –
 shifo olmadi.
 Xurofotning zahri tekkan
 Nodon,
 johil,
 gumrohlar –
 Davosiga ojiz ekan
 Men kashf etgan giyohlar.
 Ko`r ko`zlarga
 Mehrgiyodek
 Nur baxsh etdi
 Nashtarim.
 Qalblar ko`zin ochmoqqa
 lek
 Kamlik qildi
 Hunarim.
 Odamlarga
 men
 yaxshilik –
 Qilmoq bo`ldim,
 Netayin,
 Manglayda
 shu ekan bitik,
 Yoqing,
 Kuyib ketayin!»
 O`t qo`ydilar.
 Yondi gulxan.
 Qaro bo`ldi
 samovot.
 Jaholatning
 hukmi bilan
 Qurbon bo`ldi
 Buyuk zot.
 Gulxan yondi.
 Ko`kka o`rlab.
 Cho`g`i har yon
 sochildi.
 Shu olovdan,
 Elning,
 ajab,
 Aql ko`zi
 ochildi.
 O`kindilar,
 Aza tutib
 Yig`ladilar,
 kuydilar.
 Donishmandga
 Yillar o`tib
 Oltin haykal
 qo`ydilar.
 E, voh,

Olim ko`zi bilan
 Ko`rsaydi bu
 hurmatni...
 Ammo
 Hakim o`zi bilan
 Olib ketdi
 Hikmatni.
 Qo`y, ey ko`nglim,
 Sen ul zamon
 Dahshatin
 kam o`ylagin.
 Senga nasib bo`lgan
 davron
 Sozin olib
 Kuylagin.
 Shukronalik
 mayin ichib
 Yayrab qolgin
 bir nafas.
 Bu olamdan
 Bir kun kechib
 Ketguvchi bir
 biz emas.
 Kel, ey ko`nglim,
 Kel, muhabbat,
 She`r zavqiga
 qonaylik.
 O`tda yonish bo`lsa,
 faqat –
 She`r o`tida yonaylik.
 Faqat
 Bizga g`amu qadar,
 Qayg`u hasrat
 yot bo`lsin.
 To
 biz uchun
 jon berganlar –
 Ruhi mangu
 shod bo`lsin.

*Uchinchi fasl
Tutqunlikda*

«Onajonim,
 Menga bu kun
 Sendan o`zga dilxoh yo`q.
 Zindondaman,
 Bilmam, nechun,
 Menda zarra gunoh yo`q.
 Gunohkorman
 na ollohim,
 Na vijdonim oldida.

Faqatgina...
 Bir gunohim
 Onajonim oldida.
 Kechir, onam!
 Ko`zingda g'am,
 Azob bo`ldim joningda.
 Bu kun bayram,
 Men bu kun ham
 Bo`lolmadim yoningda.
 Odamlardek
 Beozor, tek
 Yashab yursam netardi.
 Menga tole,
 senga tinchlik
 Balki nasib etardi.
 Bulbullarga,
 gullarga mast
 Yo`z sam faqat g'azallar
 Balki meni,
 mirshablarmas,
 Izlardi yosh go`zallar.
 Menga ham yor sokinligu
 Sening ham yo`q bu
 darding.
 Men – uylik,
 Sen – kelinligu
 Nabiralik bo`larding.
 Oh, u yo`l berk,
 Menda yo`q erk,
 Tirik umrim – aftoda.
 Ne qilayki,
 Odamlardek
 Yasholmadim dunyoda.
 Lek ko`nglimda nolish
 emas,
 Allanechuk dilshodlik.
 Garchi jismim
 Bandi qafas,
 Ruhimda bor ozodlik.
 Tug`ilishdan qul emasman,
 Qullik yot bu jonimga.
 Erk istagi
 Suting bilan
 Kirmish mening qonimga.
 Meni otash,
 girdoblarga
 Otgan o`shal istagim.
 Onajonim,
 Azoblarga
 Qo`ydi seni yuragim.
 Meni kechir,
 Faqat sendan

Bu kun uzr so`rayman.
 Uzr so`rab umid bilan
 Xayolimni o`rayman.
 Rozi bo`lgin
 Gar o`g`loning
 Yurak qo`rin asrolsa.
 Bir kun
 ona Hindistonning
 Xizmatiga yarolsa».

* * *

Vaqt kam bo`lsa
 Undan odam
 Ulgurgancha oladi.
 Ko`p bo`lsa, ne qilarin ham
 Bilolmasdan qoladi.
 Nazrul qaynoq ish
 qo`ynida
 Kun o`tganin bilmasdi.
 Naq bir olam yuk bo`ynida
 Kecha-kunduz tinmasdi.
 Bo`sh vaqt bermas jarida
 ham,
 Noshirlikning ishi ko`p.
 Uyda,
 eldan narida ham
 Tinch yo`q,
 Yo`qlar kishi ko`p.
 Bir tomonda bitilmagan
 Dostonlari behisob.
 Bir yon
 Ko`rib yetolmagan
 Yotar ming-ming jild
 kitob...
 She`r ustida o`ltirmoqqa
 Tanho bedor kecha bor.
 xudodan
 O`y surmoqqa
 Vaqt so`rardi necha bor.
 Mana fursat!
 Bunda na g'am,
 Na dunyoning tashvishi,
 Na nozir,
 na ayg`oqchi ham,
 Na xayrixoh bir kishi.
 Mana fursat
 Xayol uchun.
 O`y sur,
 ko`kka havolan.
 Kerak bo`lsa umring butun
 Qayta yasha xayolan.
 Ammo
 xayol, o`ydan ne naf,

Qo`lda qalam bo`lmasa.
 Yurak ochmoq uchun
 so`ylab,
 Dildosh odam bo`lmasa.
 Qalam nadir,
 Bo`lsa ayon
 Ketmasligi bekorga,
 Barmog`idan chiqarib qon
 Yo`zar edi devorga.
 Umid bo`lsa
 Bir kimsaning
 Kelishidan sadoga
 Dildosh nadir,
 dil sasin
 Yetkazardi samoga.
 Ammo benaf.
 Ko`z oldida
 Faqatgina tosh devor.
 Xayol esa...
 xayolida
 Poyonsiz bir bo`shliq bor.

Nazrul Islom
 Tor zindonning
 Tuynugidan qaraydi.
 Ko`rib zangor
 sof osmonning –
 Bir parchasin,
 Yayraydi.
 Unda
 Erkin qanot qoqib
 Qushlar uchib yuribdi.
 Bunda
 Shoir ko`kka boqib
 Havas qilib turibdi.
 Qushlar bilan uchay desa
 Qani uning
 qanoti?
 Bir olamdir
 Orzu esa...
 Yetarmikin hayoti?
 Nazrul Islom
 Tor zindonning
 Tuynugidan qaraydi.
 falakdan
 Hindistonning
 Toileini so`raydi.
 «Mayliga,
 Men tutqun bo`lsam.
 Sen ozod bo`l, Onajon!
 Ming qiynoqda
 Mayli o`lsam,

Yurtim,
 bor bo`l,
 Bo`l omon.
 Umrin yetsa,
 Mehring tayanch,
 Seni yayrab kuylarman.
 Bu kun esa,
 Mushkul, ayanch
 Qismatingni o`ylarman.
 Nega ming yil
 Manglay tering
 To`kib yerga,
 qolding och.
 Sen olamga
 Ipak berib,
 O`zing o`tding
 yalang`och.
 Bebaho –
 fil suyaklaring,
 Bahring aro –
 to`la dur.
 G`avvos qilib go`daklaring,
 Kelgindilar
 oladir.
 Yurtim,
 Bitmas matonating,
 Sen –
 mujassam bardoshsan.
 Fil singari
 Zo`r qudrating,
 Fil singari
 Yuvvoshsan.
 Ona o`lkam,
 Bir kun seni
 Ozod ko`rgim keladi.
 Istibdodning zanjirini
 Barbod ko`rgim keladi.
 Ko`tararsan
 Sen ham qadding,
 Yo`l olarsan
 erk sari.
 Himolayning ortidagi
 Ozod vatan singari».

Isyon ruhi shoirning.
 O`z umrini qilgandi u
 She`ri bilan jovidon.
 O`qir edi
 Uni hindu,
 Yodlar edi.
 Musulmon.
 Shoir bandi,
 She`ri biroq
 Uchar edi beto`siq.
 Himolaydan oshib
 Uzoq –
 Ketgan edi bu qo`shiq.
 Dunyo bo`ylab
 Dovruq soldi
 Nazrul Islom erk sasi...
 Hindistonda esib qoldi
 Ozodlikning nafasi.

 Qiynadilar uni
 Uzoq –
 Yurtdan kelgan janoblar.
 Sindirmadi ammo qiynoq,
 Bukolmadi azoblar.
 Umid unga sabot berdi,
 Ishonch berdi
 Matonat.
 Yuragiga qanot berdi
 Ona yurtga
 Muhabbat.
 Bu kunlar ham o`tib ketar,
 Hayot oldda...
 Hali yosh...
 Ba`zan
 Xayol surib ketar
 Tosh devorga qo`yib bosh.
 Yosh ko`ngliga qilar ta`sir
 Falakning kaj xislati.
 Ko`z oldidan o`tar bir-bir
 Shoirlarning qismati.
 Bobokalon Rudakiy der:
 «Quloq solgin so`zimga.
 Adolat deb bitdimu she`r
 Nil tortdilar
 Ko`zimga».

Tilga kirar Firdavsiy ham:
 «La`nat, – deydi, –
 taqdirga.
 Rustam, Zolni tanib olam
 O`zim qoldim
 Tahqirga... «
 Navoiy der:

«Zulmat aro
 Ko`p izladim yo`limni.
 Men o`zimni qildim ado,
 Yengolmadim zulmni».

O`xshar Nazrul faryodiga
 Barchasining nidosi.
 Oxir
 Shoir ko`z oldiga
 Kelar Bobir siymosi.
 Deydi:
 –Tingla ogoh bo`lib,
 Gar sen bo`lsang tutqunda,
 Men bir yurtga podshoh
 bo`lib,
 Umrin o`tdi quvg`inda.
 O`n ikkimda
 Taxtga mindim,
 Yosh ochildi ko`zlarim.
 Qondoshlarga yov
 ko`rindim,
 Meni sotdi do`stlarim.
 Najot istab
 Men har nafas
 Quyun kabi yelganman.
 Yurtingga men
 Shoh bo`libmas,
 Panoh izlab kelganman.
 «Tole` yo`qi jonima
 balolig` bo`ldi,
 Ne ishnikni ayladim xatolig`
 bo`ldi.
 O`z yurtni qo`yib hind sori
 yuzlandim,
 Yo rab, netayin ne yuz
 qarolig` bo`ldi».

Shoir bo`lib,
 El ichida
 Ruhim o`sdi shonimdan.
 Shoh bo`lib,
 Yov qilichida
 Dog`lar qoldi qonimdan.
 Men shoh bo`lib,
 Alam bilan
 Ko`rdim jangu
 suronni.
 Shoir bo`lib
 Qalam bilan
 Oldim yarim jahonni.
 Keltirdi ko`p balo, sitam
 Tiriklikda taxtu toj.
 Yarim ming yil so`ngida
 ham

Yog'ar menga
 Ta'na-tosh.
 Yosh Nazrulga qilar ta'sir
 Falakning
 kaj xislati.
 Ko'z oldidan
 o'tar bir-bir
 Shoirlarning
 qismati:
 Pushkin she'ri
 Qildi faryod,
 O'qqa tutdi
 o't qalbni.
 Lermontovni otgan jallod
 Dorga osdi
 Mashrabni.
 Shoirlarning –
 Erkdir dini,
 Erkka
 sajda qildilar.
 Erk kuychisi
 Nasimiyni
 Tovuvidan shildilar...
 Nazrul Islom
 Surar xayol,
 O'yi
 ado bo'lmaydi.
 Der:
 Shoirida
 bor bir iqbol,
 Ya'ni,
 shoir
 o'lmaydi.

*Shohi Jahon va Avrangzeb
 haqida rivoyat*

Podsho odil bo'lmas,
 degan
 Haqiqat bor –
 O'ylaylik.
 Keling,
 shohlar zolim ekan
 Bizlar odil bo'laylik.
 Tojdorlardan bezdi dunyo
 Ko'raberib zolimlar.
 Shohlar aro
 Bo'lgan ammo
 Shoirlaru olimlar.
 Tarix ko'p yil tahqir bitar
 Chingiz kabi jobirga.
 Ammo

mangu ta'zim etar
 Ulug'bekka,
 Bobirga.
 Xullas...
 Taxmin, Mirzo Bedil
 Tirikligi vaqtida
 Shohi Jahon o'ttiz bir yil
 O'ltirdi Hind taxtida.
 Neki qildi
 Haq deb bildi,
 Bildi shuni adolat.
 Kimlargadir zulm qildi
 Kimlargadir –
 saxovat.
 O'z davrida
 davron surdi,
 Yodlasin deb asrlar –
 Necha-necha shahar qurdi.
 Shahar ichra –
 Qasrlar...
 May ham ichdi,
 Aysh ham qildi,
 G'ussasini o'ldirdi.
 Xazinani zaru
 dilin
 Shodlik bilan to'ldirdi.
 Shohi Jahon
 jasur,
 dono,
 Ko'p hikmatga yor edi.
 Shohning ammo
 Bir bedavo
 Og'ir dardi bor edi.
 Har komiron odamning
 ham
 Bo'lganidek bir kami
 Shoh ko'ngliga
 Goh cho'kib g'am,
 Qaro edi olami.
 Bu g'am na mulk,
 na dardi shon,
 Na farzand,
 na ishq dog'i.
 Nomsiz g'amki,
 kelar oson.
 Qiyin edi ketmog'i.
 Bunday chog'lar orom
 berur
 Na sayru, na sayohat.
 Ko'zlaridan qochardi nur,
 Yuragidan halovat.
 Zardob yutib g'ussasidan

Na suhbat,
 na may talab –
 Ulug' podsho go'shasidan
 Chiqmas edi haftalab.
 Ko'z yosh yuvar yuzlarini,
 Ko'ngli to'la tahluka...
 Shunda
 uning so'zlarini
 Tinglar edi
 malika.
 Aytar edi shoh o'z dardin
 Mumtoz Mahal xonimga:
 «To'ydim toj-taxt,
 Mulk – baridan,
 Bari tegdi jonimga
 Bu davlat,
 Bu shonu shavkat
 Omonatga o'xshaydi,
 Vazirlarning fikri faqat
 Xiyonatga o'xshaydi.
 Barchasining cho'ntagida
 Shoh qasdiga pinhon o'q.
 Farzandlarim yuragida
 Menga zarra mehr yo'q.
 Har bir sharpa
 Menga qo'rqinch –
 Holat bo'lib ko'rinar.
 Umrim so'ngi –
 to'la o'kinch,
 Dahshat bo'lib ko'rinar.
 Bo'lmay turib
 Bir falokat,
 bir fitna qurboni,
 Tark etsaydim
 Bexosiyat,
 Bevafo bu dunyoni».
 Shunda
 Go'zal Mumtoz Mahal
 Tinglab shohning zorini,
 O'qib har gal
 Bitta g'azal
 Ovutardi yorini.
 Bedorlikda tunlar bilan
 Ulanardi kunlari.
 Ming bir kecha
 Ertak aytgan
 Shahrizoda singari.
 Zulmu fitna,
 adovatning
 Gunohligin o'qirdi.
 Mangulikka adolatning
 Hamrohligin o'qirdi.

O`qir edi:
 Odamki bor,
 O`tmog`i bor jahondan.
 Faqat ezgu ishlar yodgor
 Qolg`usidir insondan.
 Yuragiga shohning qanot –
 Berar edi g`azallar.
 Qanot nadir –
 Qayta hayot
 Berar edi g`azallar.
 Lekin shohning
 Qay gunohi,
 Qay zulmiga intiqom –
 Bir tong
 ko`kka chiqdi ohi,
 Qo`ldan tushib sindi jom.
 Voh,
 hech kimga
 yo`qdir omon,
 Yo`qdir omon ajaldan.
 Judo bo`ldi Shohi Jahon –
 Qalbi Mumtoz Mahaldan.
 Devonaga aylandi shoh,
 Dardin elga so`zladi.
 Majruh qushdek
 To`lg`andi goh,
 Goh bo`tadek
 bo`zladi...

 Kunlar o`tib
 Shohi Jahon,
 Tengsiz hajr azobida
 Qurmoq uchun berdi
 farmon
 Malikaga obida.
 Dedi:
 «Tiklang, shunday saroy,
 Zarni qilmang hech hisob.
 Havas qilsin kechalar oy
 Kunduzlari – oftob.
 Yer yuzida uning aslo
 Barobari bo`lmasin.
 Mumtoz Mahal nomi
 dunyo
 Turgunicha o`lmasin».
 Ishga tushdi
 Sonsiz asir,
 Меѣтор,
 naqqosh,
 sangtarosh,
 Zanj qullar og`och tashir,
 Fillar tashir xarsangtosh.

Yigirma yil
 Yigirma ming
 Jon jabridan bir amal –
 Mo`jiz asi bu olamning
 Bino bo`ldi
 Tojmahal.
 * * *
 Yigirma yil...
 Vaqt –
 beshafqat.
 Ko`pni ko`rib dunyoda
 Shoh qaridi,
 Lek alpqomat
 Yigit bo`ldi shahzoda.
 Tilak qildi
 Shohi Jahon:
 «O`g`lim faqat shod
 bo`lsin.
 Mendagi bul dardi hijron
 Hasratlarga yot bo`lsin».
 Oshno qildi
 o`yin, kulgu
 Ovgga, cholg`u,
 san`atga.
 Xayolotni qildi mamnun,
 O`rgatdi shavq,
 g`ayratga.
 Yovqur,
 jasur,
 har bir ishga
 Qodir qilib o`stirdi.
 Tig` urishga,
 o`q otishga
 Mohir qilib o`stirdi...
 Fan bobida
 Imlo ila
 Shariatdan berdi dars.
 Nutq san`ati,
 harbiy hiyla,
 Siyosatdan berdi dars.
 Lek, rahmat, deb
 Darlar uchun,
 Mana harbiy nayrang, deb,
 Otasiga qarshi bir kun
 Isyon qildi Avrangzeb,
 Shoh qo`lida qilich sindi,
 Nihoya yo`q armonga.
 Ota o`g`il taxtga mindi,
 Ota tushdi zindonga.
 Demang,
 bular rivoyatdir –
 Xayolotda yetilgan,

Bu shafqatsiz haqiqatdir,
 Tarixlarda bitilgan...
 Vaqt yetib
 Ming oltmish to`qqiz
 Yilning sha`bon oyiga,
 Cho`ktirdilar otani tiz
 O`z farzandi poyiga.
 Avrangzeb
 Taqdir ekan,
 Ne dey o`zga.
 Falak hukmi adolat.
 Shohi Jahon
 Bas,
 Hojat yo`q ortiq so`zga,
 Sodir bo`ldi xiyonat.
 Ters aylandi garduni dun,
 So`zla,
 nedir muroding?
 Hukm – sening hukming
 bu kun,
 Vojib – sening irodang.
 Avrangzeb
 Alamingga nihoya yo`q,
 Ne taxtparast odamsan.
 Sen shoh,
 Senga himoya yo`q,
 Ammo netay,
 otamsan.
 O`yla o`zing,
 Gunoh kimda?
 Kimdan oldim tarbiyat?
 Sen uyg`otding yuragimda
 Toju taxtga muhabbat.
 Bu tuyg`uni berib, nega
 Qaro qilding baxtingni?
 So`ng, qarib ham
 Nechun menga
 Bo`shatmading taxtingni?
 Ha, ha!
 Inson shohmi gado
 Odam sutin ichgandir.
 Tiriklikda qaysi podsho
 Toju taxtdan kechgandir?
 Shohi Jahon
 Kelar bir kun senga ham
 gal,
 Yoshsan,
 vaqt bor sinovga.
 O`zingga ur tig`ni avval,
 Og`rimasa –
 birovga.
 Shuhrat mayi g`oyat shirin,

Sarxush qilar odamni.
 Sen bu baxtga yetding,
 lekin
 Zabun qilib otangni.
 Unutmaki,
 Dohil bo`lding
 Tojdorlikning shoniga
 E, voh,
 bo`yab ikki qo`ling
 Ikki og`ang qoniga.
 Bobir nasli
 tarixida
 Bu eng qaro bir varaq.
 Bilki,
 inson taqdirida
 «Alqasosul minalhaq!»
 Avrangzeb
 «Haqdan qasos!»
 Ayo Xarram!
 Sen ham mendek
 bo`lgansan.
 O`z otangga qarshi sen
 ham
 Bir vaqt isyon qilgansan.
 Yurishmadi
 Lek omading,
 Kelolmay taxt yoniga,
 Qo`llaringni bo`yolmading
 Buzrukvoring qoniga.
 Shohi Jahon
 Ko`targanman isyon
 rostdan
 Makr emasdi u biroq.
 Saltanatni inqirozdan
 Lozim edi qutqarmoq.
 Ayon etdi vaqt –
 kim haqli,
 Ko`rdi, bildi jahon ham.
 Inson bilan inson farqli,
 Isyon bilan isyon ham.
 Avrangzeb
 O`z qilmishin
 Har bir tojdor
 Adolat deb aytadir.
 Bilur yolg`iz parpardigor
 Chin haqiqat qaydadir.
 Men – ollomas,
 Ne bilayin,
 Lek qilichim kesgan payt.
 Endi seni ne qilayin,
 Padarimsan,
 O`zing ayt.

Shohi Jahon
 Ajab,
 meni padar deysan,
 Lek mehr yo`q ko`zingda.
 Ne qilay deb so`rma
 mendan,
 Ixtiyoring o`zingda.
 Lozim ko`rsang qay ajalni,
 Buyur –
 Xoh kes,
 xohi os.
 Iltimosim –Tojmahalni
 Vayron qilma,
 shu xolos.
 O`sha mendan yodgor
 tanho,
 Uyg`oq ruhim,
 Yuragim.
 Jonimni ol,
 ruhim ammo
 Xarob qilma.
 So`ragum...
 Avrangzeb
 Vahshiylikka bormas
 qo`lim,
 Tojmahalni buzmasman.
 So`ramagil mendan o`lim,
 Ota boshin uzmasman.
 Padarkushlik shonin aslo
 Ravo ko`rmam o`zimga.
 Sen yasharsan
 Mendan rizo,
 Rizo bo`lsang so`zimga.
 Erta meni podsho qilib
 Ko`tarurlar,
 kelarsan,
 Xalq oldida,
 Rizoman deb
 Meni duo qilarsan.
 Qarib qolding,
 Taxt g`amin qo`y,
 Orom gashtin surib yot.
 Huzurimda maslahatgo`y
 Bo`lib qolgin umrbod.
 Shohi Jahon
 «Maslahatgo`y bo`lib
 qolgin
 Huzurimda umrbod...»
 Sen dunyoga tug`ilgan kun
 Men naqadar edim shod.
 Yurganingda atak-chechak,
 Minganingda ilk bor ot,

Kelin ko`rib,
 So`ngra go`dak...
 Men naqadar edim shod.
 O`sha shodon damlar
 nechun.
 Men dunyodan o`tmadim.
 bolangga to`y qilgan kun
 Senga aza tutmadim.
 Ko`zlarimga butun dunyo
 Hech oqarmas tun bu kun.
 Sulolangdan,
 Bobir mirzo,
 Omad ketgan kun bu kun.
 E, voh,
 Ota-farzand aro
 Ko`tarildi oqibat.
 Bu – intiho! Chin intiho –
 Yetib keldi oqibat!

 Tarix –
 bir ming oltmish to`qqiz
 Yilning sha`bon oyida,
 Toj sohibin
 Qildilar hibs
 O`zi suygan joyida.
 Ya`ni arkli saroyida –
 Sharqda shunday qoida –
 Izzat-ikrom o`z joyida,
 Qo`sh gilamlar poyida.
 Faqatgina taxtu toj yo`q,
 Mashvarat yo`q,
 Devon yo`q.
 Xazinaga ehtiyoj yo`q,
 Chunki qo`lda farmon
 yo`q.
 Kecha Ajam, Rum, Xitoga
 Larza solgan buyuk shoh
 Qarab yotar keng dunyoga
 Tor darchadan...
 Ko`kda moh
 Asta kezar,
 sochar xomush
 Borliq uzra siymin hal.
 Misli xayol,
 Sehrli tush
 Mag`rur turar
 Tojmahal...

 Ey dil,
 Quloq ber nidoga,
 Toki yerda inson bor,
 Na podshoga,

Na gadoga
Alqasosdan omon bor.
«Jafo uchun,
Vafo uchun
Haqqin oldi Shoh Jahon.
Biri uni qildi zabun
Biri esa – jovidon.
Gʻamli tarix ibrat boʻlsin,
oʻlsin senga namuna...»
Deya, asta,
maʼyus,
sokin
Oqib yotar Jamuna.

Toʻrtinchi fasl

Sharpalar

Insoniyat
Minglab qiynoq –
Oʻylab topgan
dunyoda.
Bu qiynoqlar ichra biroq
Birisi
eng ziyoda.
Unga toqat yoʻq insonda,
Yoʻq undan zoʻr
dil dogʻi.
Bu iztirob –
Tor zindonda
Tanholikning qiynogʻi.
Shoir qalbnig
Dildoshi yoʻq,
Qiyinaladi
yosh joni,
Qutulmoqning iloji yoʻq,
Yoʻq oʻlmoqning imkoni.
Nazrul
Xayol surib yotar
Shiftga boqib
Uzun kun.
Necha-necha tonglar otar,
Necha-necha choʻkar tun.
Goh
Ajjib bir holat boʻlar.
Hayron boʻlar
oʻziga.
Allanechuk
Oq sharpalar
Koʻrinadi
koʻziga.
Ular kelib
Har zamonda:
«Etar!

Nazrul!
Tur! – deydi.
Oʻltirma bu
zax zindonda,
Bizlar bilan yur», – deydi.
«Yoʻq, yoʻq», – deya
Tutqun shoir
Sharpalarni quvadi.
Koʻzdan – oqqan
Achchiq yoshi
Yuzlarini yuvadi.
Sheʼr oʻylaydi
Nazrul Islom,
Izlab jonga halovat.
Oʻyda sheʼr yoʻq,
Dilda ilhom,
Ruhda shavqi sinoat.
Nahot
Tamom boʻldi shoir?
Nahot bitdi saboti?
Nahot
Qalbda tugadi sheʼr
Tugamasdan hayoti?
Axir unda
Qancha orzu,
Ishq bor edi,
muddao!
Nahot bari tamom?
Nazrul
Qildi koʻkka
Iltijo:
«Ey, xoliqi olam,
Tilagimni qondir,
Umrimga ber barham,
Vujudimni yondir.
Holim bir senga ham –
Bir menga ayondir,
Yaratibsan odam
Odamlikcha qoldir.
Tugadi iroda,
Yoʻq oʻzga dil rozim,
Yetganim maʼvoda
Boʻlinsin ovozim
Kim, avji navoda
Ushalsin bu sozim,
Eng oliy fazoda
Tugasin parvozim.
Shoirlig dunyoda
Aslida shu lozim.
Ey, xoliqi olam,
Tilagimni qondir,
Umrimga ber barham,

Vujudimni yondir.
Na jonda gʻayratim,
Na koʻzda hayratim,
Na dilda alam bor,
Na qoʻlda qalam bor.
Na boshda fikratim,
Na kerak
Siyratim,
El uchun adoman,
Tugadim tamoman.
Sigʻmay keng jahonga,
Sigʻdim tor zindonga.
Ey, xoliqi olam,
Tilagimni qondir,
Umrimga ber barham,
Vujudimni yondir!»
Nazrul Islom
Qilgan nido
Yetdi
yuksak osmonga.
Oliy ruhlar
Uni ravo
Koʻrmasdilar
zindonga.
Shoir ruhini
Olib mangu
Koʻkka
parvoz etdilar.
Tor zindonga
Faqat jonu
Jismin tashlab ketdilar.
Nazrul Islom
Tor katakda
Devonavor turibdi.
Ruhining
keng falakda
Qanot yozib yuribdi.

Oliy ruhlar toʻgʻrisida naql

Bolalikda eshitganim
Talay-talay ertakdan –
Xayolimda biri manim,
Sira chiqmas yurakdan.
Marhumlarning ruhi
koʻkda
Doim uchib yurarmish.
Biz ularni koʻrmasak-da
Ular bizni koʻrarmish.
Biz xayrli ishlar qilsak,
Shodon boʻlar emishlar.
Mabodo,
Biz yomon boʻlsak

Nolon bo`lar emishlar.
 Do`st, qarindosh –
 urug`larning
 Ruhi – oddiy ruh emish
 Lek daholar,
 Ulug`larning
 Ruhi – oliy ruh emish.
 O`z arshidan
 Ular bizga
 Bo`larmishlar rahnamo.
 Ko`p ishlarni dilimizga
 Solarmishlar doimo.
 Yiroqda
 Dard ichra qolib
 Do`stimiz zor bo`lsa gar,
 Dilimizga g`ashlik solib
 Qilarmishlar
 Boxabar.
 Bizni kunduz
 Band etsa ish,
 Xoli topib uyquni,
 Ular bizga eslatarmish
 Ketganlarning ruhini.
 Shuning-chun ham
 Dilimizni –
 Ko`marmishlar yog`duga.
 Qilarmishlar oshno bizni
 Mehr degan tuyg`uga.
 Ofat kelsa
 Bizga nogoh,
 Bilguvchi ham ularmish.
 Falokatdan bizni ogoh
 Qilguvchi ham ularmish.
 Ammo
 Oliy ruhlar faqat –
 Pok dillarga yor emish.
 Qayda bo`lsa samimiyat –
 O`sha yerda bor emish.
 Ular yashar
 Bizdan o`zga,
 Benamoyon va besas.
 Sharpalari hech bir ko`zga,
 Hech quloqda sezilmas.
 Ular bizni
 Ko`rib turar
 Buni sezmas nodonlar.
 Ular bilan suhbat qurar
 Faqat
 Buyuk insonlar.
 Ular borki – bizlar odam,
 Haqiqat bor beomon.
 Yaxshilik ham,

Yomonlik ham
 Qaytar bir kun begumon.
 Biz mabodo,
 qilsak gunoh,
 Har qanchaki xilvatda,
 Oliy ruhlar
 Bo`lur ogoh,
 Jazo berur albatta.
 Garchi
 Bid`at yotdir menga,
 Dahriy fikrat egadir.
 Oliy ruhlar borligiga
 Iшонaman negadir.
 Lazzat shirin,
 Davlat shirin,
 Hech to`ymaslar odamlar.
 Ruhlar borki,
 bir-birlarin
 Yeb qo`ymaslar odamlar.
 Kel, ey ko`nglim,
 Ruhlarini sen
 To borsanki, qilgin yod.
 Kimlar uni vijdon desin,
 Kimlar desin
 E`tiqod,
 Ammo ular
 Dunyoda bor!
 Shak keltira ko`rmagin.
 Meni nopok yo`ldan
 Zinhor,
 Zinhor olib yurmagin.
 Hatto o`zing qolsang
 yolg`iz,
 Dema,
 Mendan ogoh yo`q,
 Yashamoqdan e`tiqodsiz
 Ortiq yerda gunoh yo`q.

Beshinchi fasl

Ozodlik

* * *

Bayroq qilib,
 El qo`zg`aldi –
 Nazrul Islom ismini.
 Tor zindondan uni oldi,
 Ammo faqat
 Jismini.
 Nazrul Islom
 Ozod,
 Ammo
 El qanoti qayrildi,
 Yosh, navqiron,

tirik siymo –
 Shoiridan ayrildi.
 Nazrul Islom
 She`ri butun
 Hindistonda yangrardi.
 Ammo shoir
 uni bugun
 Na tinglar,
 Na anglardi.
 Shoirini qo`ymay –
 Qo`lda –
 El ko`tarib eltardi.
 Na quvonar
 Nazrul bundan
 Va na parvo etardi.
 Bir yonidan quchar hindu,
 Bir yonidan musulmon.
 Ammo
 Hushdan ayrilgan u,
 Unga yotdir bu jahon.
 Tabriklaydi
 Uni Thokur,
 «Ozodliging muborak!»
 Ro`znomalar qutlov yozur,
 Bular unga ne kerak?
 na uyg`oq,
 Va na uxlar,
 Hissiz boqib turardi.
 Ruhi uning
 Oliy ruhlar
 Dargohida yurardi.
 Shoir topti
 Erk chinakam,
 Ozod bo`ldi tamoman.
 Bir yo`l unga dardi olam
 Barbod bo`ldi tamoman.
 bir yo`la
 Sho`rishlardan,
 Savdolardan qutuldi.
 Jabru jafu ko`rishlardan,
 Nizolardan qutuldi.
 Qutuldi.
 sig`olmagan,
 Sig`dirmagan jahondan,
 Xolis bo`ldi
 Ham zindondan,
 Ham zindondek zamondan.
 Ham tark etdi
 Bir yo`l uni
 El dardidek og`ir yuk.
 Bu dunyoda
 qoldi tani,

Behush,
beruh va buyuk.
* * *
Qirq yil o`tdi,
Uzoq qirq yil.
Bu dunyodan begona –
Nazrul Islom
Yashar bedil,
Yashar darvish,
Devona.
Qirq yil ichra
Nelar ko`rib
Nelar chekdi
Hindiston.
Ammo
ko`zi
ochiq turib,
G`ofil o`tdi
yoniq jon.
Bosqinchilar
Yurtdan ketdi –
El g`azabi
Quvildi.
Shoir
Buni
Na his etdi,
Na ko`rdi,
Na quvondi.
Nazrul Islom
Bu dunyoda
Yetmish besh yil
Yashadi.
Ammo
O`ttiz ikki yoshda
Bu dunyoni
Tashladi.
Shoir umri
Qoldi she`rda,
Qoldi
Yoniq dostonida.
Bitganlari
uning –
yerda
Ruhi esa osmonida.
Shoirilar va payg`ambarlar
haqida rivoyat
Yetmish ikki ming
payg`ambar
Ko`rgan emish bu olam.
Shoirilar ham
Ulardan kam –
Bo`limgandir, muqarrar.

Payg`ambarlar tariqati
Aqlgadir.
Ko`zgadir.
Shoirilarning haqiqati
Ammo tamom o`zgadir.
Ahli nabi odamzodni
Zuhd yo`liga chorladi.
Rad etib bu istibdodni
Shoir ahli bormadi.
Payg`ambarlar aytdi:
Inson –
Ishqi yolg`iz olloga.
Shoir Majnun qildi isyon,
Oshiq bo`ldi Layloga.
Uni ota –
(Aslida din
Keltirganda tavbaga
«Jonim olu Laylo ishqin
Olma», – deydi ka`baga.
«Yorab, baloyi ishq ila qil
oshino mani,
Bir dam baloyi ishqdin
qilma judo mani».
Payg`ambarlar: –
Sharob harom,
Osiy, dedi, –
Mayparast
Lekin shoir Umar Xayyom
Ishq mayiga bo`ldi mast.
Nabi aytdi:
U dunyo chin,
Ista ruhning kamolin.
Shoir aytdi:
«Olloh zamin –
Uzra sochgan jamolin».
Dunyo tarkin
odamlarga
Imon qildi anbiyo.
Qarshi barcha
payg`ambarga
Isyon qildi shuaro.
«Zohid, senga huru
Menga jonona kerak,
Jannat senga bo`lsin,
Menga mayxona kerak».
Kun borki,
Tun bo`lgan kabi,
Suv bordirki – alanga.
Tug`ilganda yerda Nabi,
Shoir keldi olamga.
Ozodlikning mayin ichib,
Sharqqa to`ldi shoirilar,

Nabilarga qarshi chiqib
Nabi bo`ldi shoirilar.
To dunyoga kelmish
bashar,
Bir jabhada kelib duch,
Yondosh yashar,
Ham kurashar
Inson aro ikki kuch.
Boshlar o`zga-o`zga
yo`ldan,
Boshqa-boshqa maslagi,
Nabi yanglig` aqli bilan
Shoir yanglig` yuragi.
Biri tutib aysh yo`lin berk,
Tiyilmoqqa undaydi.
Biri esa shaloladek
Quyilmoqqa undaydi.
Men ham bitta sargashta
jon,
O`rta yo`lda tururman.
Ular aro ikki jahon
Ovorasi erurman.
She`r, ishq faslin
Ilk onidan
Rahnamodir qalb menga.
Balki she`rning osmonidan
Tushmoq chog`i zaminga.
Ey ko`ngil, bo`l sodiq
habib,
Meni zinhor tashlama.
Habibim bo`l, ammo hadeb
O`z ko`yingga boshlama.
Yolg`iz manim, desa fikrat,
Yo`q, manim, deb da`vo
qil.
Lekin gohi, yetdi fursat,
Fikratga ham oshno qil.
Tutma menga ishq yo`lin
berk,
Mayli, toshgin, quyilgin.
Ammo o`zga berma ko`p
erk,
Qirqni ko`rding, quyilgin.
Sen dunyoning birligiga
ishon,
Birdir olam, rost.
Lekin uning sirligiga shak
keltirma,
Bu ham rost.
Bas, o`y surma, senga
dunyo –
Asroridan ne g`am bor?

Bu dunyoda
 Odil tanho
 Vaqt atalgan hakam bor!

Nihoya
 Dehli. 20 mart, 1979 yil
 O`t balosi.
 Suv balosi,
 Ortiq yerda balo yo`q.
 Lek ofatning yo`q davosi
 Bosh ko`tarsa
 Xaloyiq.
 O`tu suvga tadbir bordir,
 El g`azabi – beomon.
 O`t nochordir,
 Suv nochordir
 Qo`zg`alsa och olomon.
 Shunday deyman
 To`xtab qolgan
 Avtobusda o`ltirib.
 Namoyishga el
 qo`zg`algan,
 Ko`chalarni to`ldirib
 Oqib kelar yalangoyoq –
 Dehqon, kosib,
 koranda.
 Ikki yuz ming
 Qo`li qadoq,
 Ikki yuz ming
 Och banda.
 «Bering bizga yer bilan
 suv,
 Mehnat bering,
 Bering non».
 Bosh ko`targan
 Tamilnadu,
 Bosh ko`targan Rajaston.
 «Bu tuproqda,
 Ayting,
 inson –
 Nega buncha beqadr?
 Bizda ham bor orzu,
 armon,
 Gunohimiz nimadir?
 aybimiz –
 Bizning maskan –
 Shu jafokash vatanda?
 Qarolik yo o`t tutashgan
 Qaro ko`zda,
 Badanda?
 Nega kimda har narsa bor,
 Bizda esa...

Nega biz –
 Faqat chayir,
 ammo nochor
 Qo`lgagina egamiz?
 Yaralishda
 Ham mahsharda
 Tengmiz,
 Inson bo`lamiz.
 Ne uchun biz ko`chalarda
 Tug`ilamiz,
 O`lamiz?
 Asli qismat
 Yo asirlik,
 Iztirob, ko`z yoshmidi?
 Sharq chindan ham ming
 asrlik
 Qotib qolgan toshmidi?»
 El oqimi qator-qator,
 Yo`q,
 Shashqator –
 ko`zdan dur.
 Oqib kelar
 Panjob, Bihor,
 Maysur, Assom,
 Manipur...
 Oqib kelar ufq tagidan
 So`ngsiz qora olomon.
 Bu
 Hindiston yuragidan
 Silqib oqqan
 Qora qon.
 Men bu fursat
 Ishtiroksiz,
 Derazadan qarayman.
 Ne qilayki,
 Bunda yolg`iz
 Tomoshaga yarayman.
 Negaki,
 Men o`zga eldan,
 Balki o`zga zamondan.
 Balki bunda uchib kelgan
 Yiroq yulduz tomondan –
 Bir mehmonman.
 Hayrat ko`zin
 Mash`al qilib boqaman.
 Xayolan
 Shul mavjli to`lqin
 Quchoq`ida oqaman.
 Jisman chetda,
 Ammo ruhan
 G`alayonda men ham bor.
 Nazrul Islom

Ruhi bilan
 Bormoqdaman bir qator.
 Men ham alvon
 Tug` ko`tardim.
 Shu el dog`i dog`imdir.
 Dardi uning –
 Mening dardim,
 Ohi – mening ohimdir.

 Ko`tarolmay
 Dardlar yukin,
 Zamin qalqib turibdi.
 Nazrul Islom
 Ruhi bukun
 Olam kezib yuribdi.
 Ilhom chog`i
 Dil zamindan
 Ko`k toqiga o`rlyadi.
 Nazrul Islom
 Ruhi mendan
 Shunda hisob so`raydi.
 Shoir bo`lib
 Elga bukun
 Darkormisan,
 der menga.
 Fidolikka xalqing uchun
 Tayyormisan,
 der menga.
 Der:
 «Shoirlik – yurakda ko`p –
 Silqib turgan jarohat.
 Tilamasman senga,
 o`g`lon,
 Osuda baxt,
 Farog`at.
 Tilamasman bir zum orom,
 To tiriksan,
 Bedor bo`l.
 Azob bersin senga ilhom,
 She`r dardida bemor bo`l.
 Taqdiringdan senga dunyo
 Rohatlarin so`rmasman.
 O`z qismatim
 Senga ammo
 Sira ravo ko`rmasman».
 «Saqla, –
 deydi, –
 yurak qo`ring.
 Dil otashing so`nmasin.
 Umring ado bo`lmay turib
 Cho`g`ing ado bo`lmasin».

1978-1979-y.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Erkin Vohidov she'rlarining o'ziga xosligi namoyon bo'luvchi nuqtalarni ko'rsating.
2. Amalga oshirgan tarjimalarining yutug'i nimada?
3. "Nido" dostonini yozishdan shoir qanday maqsadni ko'zlaydi?
4. Asar nega aynan "Nido" deya nomlangan?
5. Shoirning bolalik xotiralarini yodga oling (doston asosida).
6. "Ruhlar isyoni" dostonida qaysi davr voqealari aks etgan?
7. Asar orqali shoir insoniyatga nimani uqtirmoqchi bo'ladi?
8. Doston nomida qanday mohiyat yashiringan?
9. Doston kimga bag'ishlangan? Shoirning o'zi bu haqda nima deydi?
10. Asar qurilishining o'ziga xosligi nimada?
11. Qanday tarixiy shaxslar tilga olingan?
12. Shoirning rivoyatlarni qo'llashdan asosiy maqsadi nima edi?



JAMOL KAMOL (1938)

Jamol Kamol (Kamolov Jamol; 1938.26.4, Buxoro viloyati, Shofirkon tumani) – O`zbekiston xalq shoiri (1992).

Ilk she'riy to'plami «Olam kirar yuragimga» 1968-yilda nashr etilgan. Jamol Kamol fransuz mumtoz adabiyotining namoyandasi Bualoning «She'riy san'at» asarini, ozarbayjon shoiri Baxtiyor Vahobzodaning Muhammad Fuzuliy haqidagi «Shabihijron» dostonini, Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat «Masnaviyi ma'naviy» asarini, Shayx Fariduddin Attorning asarlarini, Abdurahmon Jomiyning g'azallar kitobini, Shayx Mahmud Shabustariyning «Gulshani roz» asarini, buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning o'ndan ortiq asarlarini bevosita ingliz tilidan, Aleksandr Pushkinning «Motsart va Sal'eri», Yan Raynising «Oltin tulpor», Bartold Brextning «Sichuandan chiqqan mehribon» asarlarini rus tilidan, amiralmo`minin Hazrati Ali ibn Abutolibning she'riy devonini turk tilidan tarjima qilgan.

Jamol Kamol she'rlari rus, ingliz, frantsuz, polyak, ukrain, turk, ozarbayjon, tojik va boshqa ko`plab tillarga tarjima qilingan.

ARMON

(Onam Hojarbegim Mulloxo`ja qizining aziz xotirasiga bag'ishlayman)

Uch oydirkim,	«To`zim bersin... To`zim bersin... Ko`p yomon!
Sovuq xabar besabr,	Sho`rlik hamon jon berolmay, azobda!..»
Qishloq bo`ylab charx uradi shitobda:	Quyosh botar,
«Shirin kampir ko`z yummoqda ko`p og`ir,	Shafaq yonib, cho`g`lanar,
Shirin kampir ko`z yumolmay, azobda!..»	Oqshom cho`kar... Lekin xuddi shu tobda –
Bu mushkulga	Birov o`lim to`shagida to`lg`anar,
Na tadbir bor, na chora,	Shirin ona jon berolmay azobda!..
Bo`lsa, ayting, qaysi qutlug` kitobda?	Shamchiroq yoqishdi
Qiyin kunga qoldi buvi bechora?	Uyda qo`shnilar,
Uch oydirkim, jon berolmay, azobda...	Xastaning yuziga
Rais xomush,	Qo`ndi shu`lalar.
G`amgin boqar buxgalter;	Yotardi u, oppoq –
Bir qayg`u bor qorovulda, mirobda	Bolishda oppoq,
«Shirin buvi, Shirin buvi... ko`p og`ir!	Go`yo yashin urgan
Sho`rlik hamon jon berolmay, azobda!..»	Xazon bir yaproq!
Chollar ma`yus yig`lashadi kampirlar:	Ko`zlari yumuqdi...
«Bandasining holi shunday xarob-da!	Ajin yuzida
Najot bermas yosin, duo-takbirlar,	Parishon shu`lalar
Shirin buvish... jon berolmay, azobda!..»	Asta o`ynardi
Shu ishora,	Quyuyq, qirov qoshlar,
Shu alam bor beomon	Kumush kipriklar
Ufq sari og`ayotgan oftobda:	Ko`rinmas olovda

Kuyib-yonardi.
 Hiqichoq tin bergan
 Shu orom damda
 Olis bir sharpaga
 Quloq solganday,
 Olis bir sharpani
 Ilg'ab olganday,
 Diqqat va orziqish
 Bor edi unda...
 Tanho sham yorug'i
 Mo`'jaz hujraning
 Devorlari bo`ylab
 Lip-lip sirg'alar.
 Chala, nim yorug'da
 Burchak-burchakda
 Sandiq, sopol ko`za,
 Eski oftoba,
 Bir-ikki jom... yana –
 Allanimalar
 Miltirab ko`rinar,
 Va g'oyib bo`lar...
 Yana, sham yog'dusi
 Sholcha, kigizning
 So`nik gullariga
 Tegib o`tardi.
 Jimjit oqshom edi,
 Eshikda shamol
 Xazon yaproqlarni.
 Shildiratardi...
 Xuddi sham yonida,
 Pastak kursida
 Bir kosa suv ajab
 Jimillab turar.
 Goho parvonalar
 Ko`zi qamashib,
 O`zini shamgamas,
 Kosaga urar...
 Mo`'tabar xastani
 Qurshab har yondan,
 Doka ro`mollarni
 Himarib g'amgin,
 Keksa ko`zlarida
 Hasrat-mung bilan
 Uch-to`rt kampir shunda
 O`ltirar sokin...
 Bir tola paxtani
 Ho`llab dam-badam,
 Birisi bemorga
 Suv tomizadi.
 Shivir-shivir suhbat
 To`xtamay bir dam,
 Belgisiz qirg'oqqa

Asta suzadi...
 Biri so`zlar xuddi
 Bir yil muqaddam
 Ko`rgani tushining
 Karomatidan,
 Biri «Xatmi qur'on»
 Sharofatidan...
 Lekin nima bo`ldi?
 Ingranib xasta,
 Yana behol-behol
 To`lg'anib qoldi?
 Hiqichoq boshlandi,
 Tinchi yo`qoldi.
 Qurushqoq lablari
 Juftlanib asta,
 Bo`linib-bo`linib
 Chiqdi bir ovoz,
 Evoh, zavol chog'i
 Aytilgan bu roz
 Tinglagan jonlarni
 Dahshatga soldi...
 – Sho`rlik yo`qlayapti
 Kenjatoyini! –
 Dedi yoqa ushlab,
 Kayvoni buvi.
 Hamma iztirobda
 Egdi boshini,
 Ajinlardan oqdi
 Alamning suvi...
 Bog'iafzal –
 Shofirkonda ko`hna qishloq,
 Juda mashhur husayniyu oluchasi.
 Chorbog'chalar tutash-tutash, sokin, ovloq,
 Bir chekkada Shirin kampir hovlichasi.
 Bilqillagan arava yo`l, undan nari –
 Kecha-kunduz shovillagan loyqa ariq.
 Sal uzanib, yo`l burilar ko`prik sari,
 Ko`prik esa mudom qiyshiq, loyga qoriq.
 Bu yerlarning og'ushi keng, osmoni keng,
 Shiviraydi Qizilqumning shamollari.
 Shox tashlagan majnuntollar qo`rg'onga teng
 Hilpiraydi yashil-yashil ro`mollari.
 Ariq bo`yi, ko`prik boshi ba'zan suron,
 Xunob bo`lar shofyor yoki aravakash.
 Bir g'ildirak suvga ketsa, ahvol yomon,
 Avjga chiqar hay-haylashu otni savash.
 Shu ko`prikdan o`tishadi solib shovqin,
 Qora-qura bolajonlar, aka-uka.
 Qay birisi magazinga gugurt uchun,
 Qay birisi dori uchun aptekaga.
 Ba'zan shunda boshlashadi to`polonni
 Toychoqlanib, mushuklanib, kuchuklanib,

Lekin sira tark etishmas «Assalom» ni,
 Qay birisi «Ashshalom!» der chuchuklanib.
 Shirin buvi alik olar, tahsin aytar,
 O`ltirarkan eshik tagi – ostonada.
 Uni ko`rar, kimki bundan o`tib qaytar,
 O`ltirganin, qo`llar doim peshonada.
 Sochi oppoq, kipriklari, qoshi oppoq,
 «Oying qayda, Jo`ravoyning jajji o`g`li?»
 Savol berib, javobiga solmas quloq.
 «Sobirmisan? Sigirlaring nima tug`di?»
 «Manavi nima? Singilchangmi? Hafizami?
 Barakalla, Solivoyning erkatoyi!..
 Hoy, qizaloq, oting nima, Nafisami?
 Kelmaptimi magazinga hindu choyi?...»
 Bolajonlar katta-kichik yoki tengqur
 Tizilishar, ko`zlarini jovdiratib.
 Kampir bilan suhbat qizir: chug`ur-chug`ur,
 Tarqalishar so`ngra yelib, yo`l changitib.
 Yo`l – guzarga jimlik cho`kar. Shirin buvi
 O`ltiradi yolg`iz o`zi ostonada.
 Qimir etmay, olislarga boqqan ko`yi,
 O`ltiradi, qo`llar pana peshonada.
 Olislarda yo`llar, daraxt tizmalari,
 Tutash-tutash dalalaru ufq, osmon.
 Ufq osti, osmon osti undan nari
 Manzil-manzil yorug` olam, ulug` jahon!
 Allaqaydan paydo bo`lib evarasi
 Bir nima deb g`ujullaydi... Buvi xomush.
 Ichkaridan yana kelar uning sasi,
 «Nima deydi bola paqir? Biron yumush...»
 Kampir o`zni unutadi. Xayollari –
 Uchishadi olis-olis, baland-baland.
 Unut bo`lar bola, qishloq dala – bari,
 U yuzma-yuz qolar tanho olam bilan!
 U olamga shivirlyaydi, olam unga –
 Hasratini, alamini, g`ussasini.
 U olamga shivirlyaydi olam unga –
 Onaligi, olamligi qissasini.
 Olam unga umid aytar, u olamga –
 Bag`ishlaydi qalbi, uvoq jussasini.
 Olam unga taskin aytar, u olamga –
 Qismatiga tushgan achchiq hissasini...
 * * *
 Unda olam emas, yolg`iz olam emas,
 Olamlar yonardi,
 Olamlar!
 Osmon yonar edi.
 Yer yonar edi,
 Odamlar yonardi,
 Odamlar!
 Yondiruvchi edi,
 Kuydiruvchi edi,

Kul qilguvchi edi
 Qadamlar!
 Fashist pechkasida,
 Jang maydonida
 Odamlar yonardi,
 Odamlar!
 Bosib kelar edi
 G`anim beomon,
 Bosib kelar edi
 G`amlar, alamlar!
 Front orqasida,
 Nafrat o`tida –
 Odamlar yonardi,
 Odamlar!
 Bosib kelar edi
 Qattol yov bilan
 Har neki, barbodlar, barhamlar!
 Mehnat frontida, o`ch otashida –
 Odamlar yonardi,
 Odamlar!..

 El-yurt qo`zg`aldi,
 Vatan qo`zg`aldi,
 Yuraklar gurillab,
 Alanga oldi,
 Buyuk xalq borini
 Maydonga soldi,
 Fashist gazandalar,
 Titrang bu zamon!..
 Mamlakat hayqirib,
 Ummondek toshdi,
 Janggohlar otashi
 Ko`kka tutashdi,
 Botirlar yov bilan
 Kun-tun savashdi,
 Qo`shilmay, bir chetda
 Turar qaysi jon?..
 Avvalo, to`ng`ichi
 Shaylandi jangga:
 «Onajon, hech nima
 Bo`lmaydi menga...
 Bir ko`rsatib qo`yay
 O`sha dushmanga!
 Kelin, nevaraga
 Siz, bo`ling posbon...»
 Keyin o`rtanchaga
 Yetishdi navbat,
 Ajab yigit edi –
 Qarchig`ay sumbat,
 «Onajon, g`am yemang,
 Qaytaman albat!» –
 Dedi-da, jang sari

Yurdi pahlavon.
 Bir yil o`tar-o`tmas,
 Ayni subhidam,
 Qalqidi onaning
 Ko`zlarida nam,
 Jo`nadi frontga
 Kenjatoyi ham,
 Yig`lab, yo`l boshida
 Qoldi mehribon.
 Ona endi jangdan
 Xat-xabar kutar,
 Kun demay, tun demay,
 Orziqar, kutar,
 Yomon tush ko`rganda
 Xavf-xatar kutar,
 Shunda yuragini
 Bo`shatar pinhon...
 Farzandlar o`t kechar
 Jangda mardona
 Kolxozda ish-tashvish,
 Chopiq, yagana,
 Kelini – yo`ldoshi,
 Ter to`kar ona,
 Bir qo`lda o`rog`u
 Bir qo`lda ketmon...
 O`tga o`t tutashdi,
 Janglarga janglar,
 Tunlarga tunlaru,
 Tonglarga tonglar,
 Hademay, G`alaba –
 Savti jaranglar,
 Ammo, nima bo`ldi
 Senga, onajon?!
 Urush, deb atalgan
 Qora qabohat
 Uning ham bag`riga
 Soldi jarohat,
 Xat oldi ketma-ket
 Uchta «qoraxat»,
 Onaning boshiga
 Yiqildi osmon!..
 Tabiat, Onaga
 Shafqat qil,
 Sabr ber, to`zim ber, chidam ber.
 Tabiat, Onaga
 Shafqat qil,
 Qonli
 Yarasiga Malham ber!
 Uch o`g`il!..Uch o`g`il!! Uch o`g`il!!!
 Bu qanday gap axir,
 Qanday qabohat!
 Onaga madad qil, madad qil,

Axir, onasan-ku, tabiat!..
 Avvaliga uch oy yotdi alangada,
 Hushdan og`ib, kuyib-pishib, alahsirab.
 Keyin qotdi go`yo muzdek yalangida,
 Vujudini titroq bosib, talmovsirab.
 Axir bir kun ko`zin ochdi gashti peshin,
 Ko`rinardi yiqqan kabi aqli hushin.
 Bir payt asta g`udurladi: “Yolg`on, yolg`on,
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan...”
 Lekin o`zni talvasada otdi, hayhot,
 Qishloq uzra ko`tarildi dodi faryod:
 «Ishonmayman, ishonmayman, yolg`on,
 yolg`on
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!
 Uchovini tuqqan edim terga botib,
 Uchovini boqqan edim zahmat totib,
 Ishonmayman, ishonmayman, yolg`on,
 yolg`on.
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 Otasidan qolgan uchta sag`ir edi,
 Uchovi ham menga yurak-bag`ir edi,
 Ishonmayman, ishonmayman, yolg`on,
 yolg`on!
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 To`shak uzra muk tushdiyu qoldi jimib,
 Qoq-qovjiroq ko`zlarini yoshga ko`mib,
 Kuyib-pishib shivirladi: «Yolg`on, yolg`on!
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 Yig`layverdi, ko`z yoshlarin selday quyib,
 Kimdir dedi: qo`ying, yig`lab olsin to`yib!..
 Undan beri kelib ketdi necha bahor,
 Yillar kechdi karvon kabi qator-qator,
 Yillar osha, yillar osha:, «Yolg`on, yolg`on!
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 Yigit yetib, safga kirdi nevarasi,
 Dastyor bo`ldi, mana, to`ng`ich evarasi,
 Dilda hamon o`sha armon: «Yolg`on,
 yolg`on!
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 Yillar kechar makon tutib ostonada,
 Yo`l qaraydi, qo`llar hamon peshonada...
 Yuragida yolg`iz umid: «Yolg`on, yolg`on!
 Uchovidan bittasi-ku omon qolgan!..»
 * * *
 Ona ko`p yashadi...
 Ilg`ay olmasdi –
 Ortga boqib, umr uchi qirini, yigirma
 beshdaydi
 Yovuz bosmachilar
 Chavoqlab ketganda erini.
 Chavoqlab ketgandi la`natilar,
 Sho`rlik qonga botib,

Bergan edi jon.
 Jon berarkan
 Izlab, ko`zlagani,
 Kozlab
 So`zlagani edi: uch o`g`lon!
 Qirq besh yil o`tibdi...
 Lekin qaydadir,
 Qaylardadir hozir o`sha uchovlon?
 Qachon pok bo`larkin boyqushlardan,
 Bosqinchidan shu buyuk jahon?!
 Ona ko`z tutardi,
 Ona kutardi...
 Umid baxsh etardi shu yorug` jahon.
 Bir kun emas, bir kun,
 Bir kun emas, bir kun –
 Kirib kelar, deya o`sha uch o`g`lon...
 Kutishga roziydi ona ming yil ham,
 Million yil ham kutishga rozi.
 Bir kun emas, bir kun,
 Bir kun emas, bir kun
 Loaqal bittasin ko`rsaydi!..
 Lekin o`lim yaqin...
 O`lim juda yaqin,
 Mana eshitilar sasi, so`rog`i...
 Endi nima bo`lar?..
 Endi nima bo`lar?..
 Endi nima bo`lar bundan bu yog`i?!
 Nahot, ko`rmay o`lsa?..
 Bir bor ko`rmay o`lsa?..
 Bir bor ko`rmay turib,
 Taslim etsa jon?..
 Axir u ona-ku!..
 Bu qanday bedodlik!..
 Va`da etgandi-ku
 Yer bilan Osmon!..
 Lekin,
 Yer so`zlamas,
 Osmon ham xomush,
 Umiddan chaqnamas «yilt» etgan chaqin.
 Osmonu zaminni zulmat qoplamish...
 Demak, o`lim yaqin...
 Juda ham yaqin!..
 Mana, u ...
 Har yoqda shom sharpasiday
 Qora uvadasin sudraydi.
 U avval bidirlab evarasiday,
 Onani oromga undaydi...
 Keyin...
 Mahkam tutar uning yoqasidan,
 Keyin quturadi alamdan...
 Ona: «Yo`q!» – der qat`iy,
 Ona isyon qilar!..

Ona bolalarin so`rar olamdan!..
 * * *
 Doktorlar! «Umid yo`q, Infarkt!» deyishdi,
 Lablari ko`kardi,
 Qovoqlar shishdi,
 Farq etolmay qoldi
 Kun bilan tunni,
 Poyonsiz bir og`riq –
 Olami uni
 Otash alangali
 Bag`riga oldi.
 Tili g`alizlanib,
 G`uldirab qoldi...
 Bir kuni chaqirib
 Nevarasini,
 Yana keliniyu,
 Evarasini,
 Rozi-rizolik ham
 So`rganday bo`ldi,
 O`linga ijozat
 Berganday bo`ldi.
 «Alvido!» ham aytdi,
 Lekin shu zamon
 Ko`z yoshlari sachrab,
 Yerga to`kildi...
 Biroq ko`p o`tmadi
 Onalik mehri
 Boshladi qaytadan
 Buyuk g`alayon.
 Ona bundoq taslim –
 Etolmasdi jon!..
 Ona jang qilardi –
 Dahshat, beomon,
 Ajin manglayida –
 Ajalning muhri...
 «Qiyalib ketdi-ku,
 Bechora!» – deya
 Kampirlar necha bor
 Folin ochdilar,
 Irim bo`lsin, deya
 Ostonasiga
 Mozor tuprog`ini,
 Hatto, sochdilar...
 Barisi befoyda...
 Ajal yengolmas,
 Olovda chirpanar
 Onaning joni.
 Go`yo sarhad bilmas,
 Sira sarhad bilmas
 Onaning
 ajalga isyoni!
 U olamdan hisob-kitob so`rar,

U adolat so`rar o`limdan.
 Olam xomush, ingranar ajal:
 Nima kelardi, deb mening qo`limdan!..
 Shunday o`tib borar haftalar, oylar,
 Olovda chirpanar sho`rlikning joni.
 Hali sarhad bilmas,
 Hali davom etar –
 Onaning ajalga isyoni!..
 * * *

Tun yarim. To`lin oy –
 Terakdan pastda,
 Tin olganday bo`ldi
 Bechora xasta,
 Kayvoni kampirlar
 Avval «uf-uf» lab,
 Keyin har tomonda
 Qoldilar uxlab...
 Irimga yoqilgan
 Shamning shu`lasi –
 Panohida edi
 Ona hujrasi...
 Bir mahal ko`zlarin
 Ochdi-da xasta,
 Ingranib, o`rnidan
 Qo`zg`oldi asta
 Surinib-sudralib
 Eshikka bordi,
 Qora terga botib,
 Horgancha hordi...
 Tin oldi qurishqoq –
 Lablarin yalab,
 So`ngra tashqariga
 Chiqdi emaklab...
 Chayqalib, supada
 Surindi ancha,
 Ma'yus boqar edi
 Unga qo`rg`oncha.
 Onaning holiga
 Boqardi hayron,
 Pastak oshxonayu,
 Bostirma ayvon...
 Ne mashaqqat ila
 Yetdi-da, ona,
 Tanish ostonaga
 Bosh qo`ydi, ana...
 Bir payt bosh ko`tardi
 Yana hansirab,
 Oligga, oy qo`ngan
 Ufqqa qarab,
 Bor kuchini yig`ib,
 Ne alam bilan: «Ha-yot-jo-on!» – deb
 Ingrab chiqardi ovoz,

«Mu-rod-jo-on!» – deb
 Mungrab chiqardi ovoz.
 So`ng «Po`-lat-jo-on!» – dedi
 Shu ohangga mos...
 Evohki, bu chorlov,
 Alamli bu roz,
 Ufqning bag`riga
 Xanjardek botdi,
 Jimjit qo`rg`onchani
 Tamom uyg`otdi.
 Hamma yugurishib
 Keldilar shu chog`,
 Kimdir o`ksib-o`ksib
 Yig`ladi uzoq...
 * * *

Tabiat, onaga shafqat qil,
 Qahringga olding-ku, qahringga...
 Yetar bas, qiynama, madad qil,
 Ol endi sho`rlikni bag`ringga!..
 Kuyik bir sham kabi miltirab qoldi,
 Kuyik bir sham kabi!..
 Aylagin shafqat,
 Onaning joniga taskin ber endi,
 Axir, onasan-ku, tabiat!..
 Ertasi kun
 Ona bir-bir ismin ayta,
 Bolalarin chorlayverdi qayta-qayta.
 Aytar so`zi: «Bolam, bolam, bolam!» edi,
 Eshitganga alam, alam, alam, edi...
 Yig`ilishdi qishloqdagi kampir-chollar,
 Yig`ilishdi rais boshliq oqsoqollar...
 Kengashdilar, aytib gapning sirasini,
 Onajonga ko`maklashmoq chorasini...
 Topilarkan har mushkulning bir chorasi,
 Onajonning uchta shahid dilporasi –
 Suratida uch yigitni shayladilar,
 Bellariga qayish kamar boyladilar.
 Ona bir gal «Hayotjon!» – deb chorlagan on
 Ichkariga qadam qo`ydi Hayot – o`g`lon...
 Ona sho`rlik sig`dirolmay sevinchini,
 Alpong-talpong quchmoq bo`ldi
 to`ng`ichini.
 Bo`g`ilardi, bo`g`ilardi nafasleri,
 Ko`tarilib-tushar ko`krak qafaslari.
 Qani endi dilbandiga to`ya qolsa,
 Qani endi ko`zlariga joylab olsa...
 Bolajonim, bolajonim, keldingmi? – der,
 Kutib, ado bo`lganimni bildingmi? – der.
 Bu dunyoda borligingni bilar edim,
 Bilardimki, bir ko`rhni tilar edim.
 Attang-attang, bir ozgina kechikding-da,
 Ikki oymi-uch oy avval kelganingda

Suyunchiga o`zim har yon chopar edim,
 Senga atab issiq nonlar yopar edim.
 Kelganingga qilar edim to`y-ma`raka,
 Kelar edi butun qishloq, aka-uka!
 Bolaginang er yetishdi chin bahodir,
 Ko`rmadingmi, ko`zlaringga chalingandir?
 Kelinginam ko`rmdimi kelganingni?
 Bilarmisan nevaralik bo`lganingni?
 Nevaralik bo`lib qolding, bolam, suyun,
 Endi mensiz o`tkazasan uning to`yin...
 Ha, eskirib qoldi, bolam, bizning qo`rg`on,
 Qaytadan qur imoratni...
 Xo`p, onajon! ...
 Ukalaring unutmagil, qur yonma-yon
 Ularga ham ikki manzil...
 Xo`p, onajon!..
 Katta uying sandig`ida do`ppi, chopon...
 Borib, darrov kiyib olgin...
 Xo`p, Onajon!..
 Quruq-qoqshoq qo`llarini
 Ona ochib,
 Duo qilar, ko`z yoshlarin sochib-sochib...
 * **
 «Onajon!» deb Murod kirar hasratzada –
 Ona qolar yana ajib talvasada.
 Lablarida yarim yig`i, yarim kulgu,
 Bilmas edi: yig`lasinmi, kulsinmi u?..
 Bo`ylaringga o`zim qurbon bo`lay, deydi,
 Egil ko`proq, nafasingdan olay, deydi.
 Hijroningda ne kunlarni kechirmadim,
 Fig`oningda ne tunlarni kechirmadim!..
 Kirar eding, bolam, doim tushlarimga,
 Yurar edim kelolmayin hushlarimga...
 Peshonamda bor ekansan, shukur, shukur,
 Agar shukur deyolmasam, men noshukur...
 O`q yaladi o`ng yuzim, deb, polvon bolam,
 Yozgan eding, izi hatto qolmaptiyam.
 Bir gap aytay, bolam, lekin, o`ksinmagin,
 O`sha yolg`on «qoraxat» dan bir yil keyin
 Xosiyating uyimizni tashlab ketdi,
 Tashlab ketdi, ko`zimizni yoshlab ketdi.
 Ammo bolam, sen o`ksinma, qilma parvo,
 Qizlar borki, bir-biridan sara, zebo,
 Paysalga ham solaverib, cho`zma o`ying,
 Shu kuzakdan qoldirmagin nikoh to`ying.
 Hayot akang toleingga qaytdi omon,
 Har bir ishda maslahat sol...
 Xo`p, onajon!..
 Ha, o`zingga qurmoq bo`lsang hovli-
 qo`rg`on,
 Akang bilan yonma-yon qur...
 Xo`p, onajon!..

Katta uying sandig`ida do`ppi, chopon,
 Borib, darrov kiyib olgin...
 Xo`p, onajon!..
 Quruq-qoqshoq qo`llarini
 Ona ochib,
 Duo qilar ko`z yoshlarin sochib-sochib...
 * * *
 Eng oxiri kenjatoyi kirib kelar,
 Yengil-engil qadam tashlab, yurib kelar.
 Ona boqib, hapriqadi kuyik joni,
 O`sha-o`sha navniholi – Po`latjoni!..
 Qoshi quyug, qarashlari suzukkina,
 Hatto askar kiyimda ham nozikkina.
 Kelar ekan qo`lin cho`zib «onajon» lab.
 Ona unga bag`rin ochar «bolajon» lab.
 Bolasiniig boshin olib siynasiga,
 Sochlarini surtar so`nik diydasinga.
 Hoy, yaxshilar, o`ngimmi yo tushim? –
 deydi,
 Esim butmi, o`zimdami hushim? – deydi.
 Uch o`g`limni omon ko`rdim, omon
 ko`rdim,
 yig`i qursin, yig`lamayman, yomon
 ko`rdim,–
 Deydi, yana yoshlar quyib, bo`zlanadi,
 Bo`zlanadi, bolasiga yuzlanadi:
 Bolaginam o`zgarmabsan sira-sira,
 Bundoq xat ham yozmadinga, ora-sira.
 Xatlaringni kutib, onang ado bo`ldi,
 Diydingni bir ko`rishga gado bo`ldi!
 Ha, mayliga...
 O`zing kelding – menga davlat,
 Axir, o`rning bosarmidi bir enlik xat.
 Ko`zlarimga surib, bolam, birin-birin,
 Asrab qo`ydim kitoblaring, daftarlaring.
 Do`xtirlikka havaslaring baland edi,
 Kechiktirmay, vaqt borida o`qi endi.
 Tokchadagi xumchoynakda yiqqanim bor,
 Olib qo`ygin, bir kuningga yarab qolar.
 Ha, mabodo, qurmoq bo`lsang hovli –
 qo`rg`on,
 Akang bilan yonma-yon qur...
 Xo`p, onajon!..
 Katta uying sandig`ida do`ppi, chopon
 Borib, darrov kiyib olgin...
 Xo`p, onajon!..
 Quruq-qoqshoq qo`llarini
 Ona ochib,
 Duo qilar, ko`z yoshlarin sochib-sochib...
 * * *
 Tamom!..
 Alamlari bitdi hammasi,

Ko`zlarini yumib,
 Xo`rsindi Ona.
 Bor-yo`g`i bir lahza o`tdi chamasi,
 G`oyib farzandlarin chorladi yana...
 O`g`illar kirishdi, kiyib beqasam,
 Ularni yonma-yon turg`izib shundoq,
 Ko`zlarini uzmay, kiprik qoqmasdan,
 Termuldi, termuldi, termuldi uzoq!..
 Oqargan lablari qimtindi, so`ngra –
 Nazarin o`girdi chiroqqa...
 yo`llar va odamlar...
 Ona ketib borar,
 Ona ketib borar belgisiz yoqqa...

* * *

Ertasiga
 Ona jon berdi... Ammo –
 Eshitgan jonlarni chulg`adi dahshat.
 Ona jon berishin bilardi hamma,
 Bundoq jon berishin bilmasdi faqat.
 Onani topishdi tongda, ostonada,
 So`ngan ko`zlarida muz qotgan hasrat.
 Sho`rlik jon bermishdi o`sha ostonada,
 Sovuq changalida – uchta «qoraxat!..»
 Axir topgandi-ku taskin-tasallo
 Qucharkan uchovlon jigarporsin...
 Ona qalbi bilan sezganmikin yo
 Hamdard odamlarning «chorasin?»
 Nega jon bermadi uyda, to`shagida?
 Nega ostonani
 etdi ixtiyor?
 Ilohiy bir sir bor buning tagida,
 Ilohiy ma`no bor, izohi dushvor...
 Bu sirni birovlar payqadi biroz,
 Va lekin, birovlar bila olmadi.
 Eshitganlar yig`lashdi, xolos,
 Yig`lamagan odam qolmadi...
 Yondirdi, kuydirdi mash`um urush
 Bechoraning butun hayotini,
 Bu ham yetmaganday, zaharladi,
 Zulmatga cho`ktirdi vafotini!..
 Aziz onajonni, dilpora jonni
 Topshirgali ona tuproqqa,

Yolg`iz qishloq emas, qishloqlar, kentlar,
 Butun rayon qalqdi oyoqqa.
 Hamma his qilardi ulug` tobutni
 Yelkaga olishdek yurak burchini.
 Hamma oshiqardi,
 Hech bo`l maganda
 Tekkizib qolmoqqa
 Qo`lin uchini.
 Muqaddas bolishdek tuproq qatiga
 Asta bosh qo`yarkan tinim topgan jon,
 Muborak Zaminda uning izzatiga
 Asta bosh ko`tardi uch o`g`lon...
 Biri Dneprda, biri Oryolda,
 Venada yotardi biri – xok bo`lib.
 Ona izzatiga turdilar safda,
 Zaminday musaffo, nurday pok bo`lib!..
 Ona kuta-kuta so`ndi, ularni
 Lekin sen kutasan, jonajon,
 Sen kutasan shahid o`g`lonlaringni,
 Aziz O`zbekiston – onajon!..
 Buloqlar emas bu – bog`laring apo,
 Intizor ko`zingda sog`inch yoshidir.
 Qoyalar emas bu – tog`laring apo,
 Bag`ringga zil cho`kkan hijron toshidir...
 Bu hijron mangudir!..
 Qurbonlaringni
 Sen mangu kutasan, jonajon,
 Sen kutasan shahid o`g`lonlaringni,
 Aziz O`zbekiston – Onajon!
 Buyuk hijron apo bir jahon taskin,
 Bir dunyo tasalli senga yor bo`lsin,
 Musaffo osmoning ko`rmasin tutun,
 Munavvar quyoshing mangu bor bo`lsin,
 Bayrog`ing hamisha yashnab lolagun,
 Shahidlar qonidek beg`ubor bo`lsin,
 Umring ham basharning umridek uzun,
 Iqboling olamdek poydor bo`lsin!
 Shukuhlar, shavkatlar, shonlarga to`lib,
 Sen mangu yashnayver, jonajon!
 Sen mangu yashnayver jonajon bo`lib,
 Aziz O`zbekiston –
 Onajon!

1973.
 Dekabr.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Jamol Kamol she`riyatining ustuvor g`oyalari qay ko`rinishlarda aks etgan?
2. Shoir tarjimalarining o`z ijodiga ta`siri seziladimi?
3. Dostonlarida poetik ko`chimlarning qaysi turlaridan foydalanilgan?
4. “Armon” dostoni kimga bag`ishlab yozilgan?

5. Asar nomi nega “Armon”?
6. Doston qaysi davr voqealaridan soʻzlaydi?
7. Ona siymosi qaysi umuminsoniy tamoyillarga tayanib gavdalantirilgan?
8. Doston yosh avlod uchun qanday xulosa beradi?
9. Asar soʻngida ona mehri, issiq tafti qaysi insoniy tuygʻularga borib tutashadi?



ABDULLA ORIPOV (1941- 2016)

Abdulla Oripov (1941.21.3 – Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Neko`z qishlog`i – 2016.5.11 – Xyuston, Texas shtati, AQSh) – shoir va jamoat arbobi. O`zbekiston xalq shoiri (1990). O`zbekiston Qahramoni (1998).

Ilk she`rlar to`plami: «Mitti yulduz» (1965). She`riy kitoblari: «Ko`zlarim yo`lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O`zbekiston» (1971), «Xotirota», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal`asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «Haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003), «Ezgulik» (2012).

Dostonlari: «Jannatga yo`l» (1978), «Hakim va ajal» (1980), «Ranjkom» (1988). She`riy dramasi: «Sohibqiron» (1998).

Dante «Ilohiy komediya»sining «Do`zax» qismini, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, T.G.Shevchenko, L.Ukrainka, R.Hamzatov, Q.Quliev va M.Bayjiev asarlarini o`zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Abdulla Oripov Kaliforniya (AQSh) Fan, ta`lim, sanoat va san`at xalqaro akademiyasining haqiqiy a`zosi. Soka universiteti (Yaponiya) professori. Hamza nomidagi (1983) hamda Alisher Navoiy nomidagi (1992) O`zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati.

JANNATGA YO`L

(Dramatik doston)

Ishtirok etuvchilar

BIRINCHI KO`RINISH

Mahshar sahrosida g`ujg`on olomon. Tarozibon huzurida

Yigit va O`zga odam

Yigit

Mahshar tongi asta-sekin oqarib kelar,
Ko`z oldimda sodir bo`ldi Ulug` Qiyomat.
Necha yuz yil davom etdi, bilmam, bu yo`llar,
Taroziyon qoshiga ham yetdik, nihoyat.
Taroziya tushar emish gunoh va savob,
Qaysi biri ko`proq ekan peshonamizda?!
Ne bo`lsa ham, tarozisi bo`lmasin nobop.

O`zga odam

Taroziyon ne desa shu, ishonamiz-da!
Qaysi kuni yig`lab ketdi bir mo`ysafid chol,

Yetti bora haj savobi bo`lmabdi qabul.

Yigit

Nechuk endi?

O`zga odam

U dunyoda yuz berib qay hol,
Otasini sansiragan ekan bir bor ul

Yigit

Ming martaba shukr bo`lsin parvardigorga,
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim.
Es bilmagan go`daklikni yo`ysak bekorga,
Sensiragan emasman men, yo`q gunohlarim.
Do`stlar bilan kaltaklashgan chog`larim bo`lgan,
Har xil kufr ishlarim ham ko`pdir, bilmadim.
Balki mening gunoh xaltam limmo-lim to`lgan,
Lekin ota hurmatini kanda qilmadim.

Tarozibon

Bildik, sipo zot ekansan, na xoru na xas,
Navbating ham yetib qoldi, titrama, yur sen!

O`zga odam

(*titrab tarozibonga yaqinlashadi*)
Salom, taqsir, bismillohir rahmonir rahim.

Tarozibon

(*qo`lida daftarchasini varaqlab*)
Bu yoqqa tur. Isming nima? Hojati ham yo`q,
Tang`a bosib qo`ygan ekan senga Ollohim.
Sening joying arosatda. Ko`ngling bo`lsin to`q.

O`zga odam

Taqsir, agar ruxsat bo`lsa, bir savolim bor,
Umrin o`tib, ilk martaba so`z so`rashim bu.

Tarozibon

Ha, tushundim. Do`zaxdan ham bo`lma umidvor,
Sening joying arosatda, tayin dedim-ku?!

O`zga odam

Taqsir, mening eng so`nggi bir arizam shulki,

Tarozibon

Gapni cho`zma, arosatga borasan, chunki,
Sen na gunoh qilgansanu, na zarra savob.
Qani kim bor?!

O`zga odam

(*tarozibondan uzoqlashadi*)

Yigit

Xayr, birodar. Nima bo`ldi?!

O`zga odam

Arosatga.

Yigit

Xudo saqlasin!

Tarozibon

(Yigitga)

Hoy, yigitcha, imillama, karmisan battar,
Chidab kelgan bizning jonni xudo yoqlasin.
Ming yilmikan tarozuning boshida joyim,
Jannat, do`zax to`lsa to`lar, to`lmas bu do`kon.
Marhamatin darig` tutmay qodir xudoyim,
Odamzotni sanamasdan yaratgan ekan.
Koshki bular farishtaga o`xshasa sal-pal,
Shular kelib bu dunyo ham buzilib ketdi.

(ichkariga qarab)

Hoy, yugurdak, qara deyman, chilimga suv sol!

Yigit

Amakijon, men keluvdim, navbatim yetdi.

Tarozibon

Amakingni topib bo`psan, jindek sabr qil,
Bizlarning ham jonimiz bor, biz ham mute`miz.
Nainki sen, ishlayversak bizlarning ham, bil,
Og`zimizga kelib qolar ona sutimiz.
Sen qayoqqa shoshmoqdasan? Shuncha yil kutding, –
Qora go`rda ko`kragingni bosganча zaxga,
Payt kelganda barchasini nahot unutding?
Shoshma, yigit, ulgurasan o`sha do`zaxga.

Yigit

Balki jannat kutmoqdadir...

Tarozibon

Qaydan bilasan?

(ichkariga)

Hoy, chilimni keltir deyman!

Yugurdak farishta

(ichkaridan)

Hozir, xo`jayin!

Tarozibon

(Yigitga)

Sendaylarga do`zax yaxshi, mulla bo`lasan.

Yigit

Agar yordam qilsangiz-ku jannat ham tayin.

Ancha-muncha savobim ham bordir, o`ldimi?!
Qarasangiz bo`lar edi tezroq, amaki.
Yugurdak farishta chilim keltiradi.
Taroziyon chilimni peshlaydi.
Shu ham axir kayf bo`ldimi, chilim bo`ldimi,
Bilmasman hech, berganlari xasmi, tamaki.
Bir zum hordiq chiqarayin,

(Yugurdak farishtaga)

Hoy, sen bolakay,
Hisoblab kel menga buning qilmishlarini.
Sal yanglishsang, bilib qo`ygin, holing bo`lar voy,

(Bir daftarcha uzatib)

Shu daftardan topajaksan bor ishlarini.
Bugungi kun hisobidan o`n minginchi bu.
Daftarchada qalam bilan belgi qo`yganman,
Bir ozgina dam olaylik, horib bo`ldim-ku.
Rostin aytsam, shu ishlardan charchab to`yganman.

(Yigitga)

Qani, o`tir, yaqinroq kel, sen ham horibsan,
Omad kelib tushib qolsang behishtga shoyad,
Bu olamga ancha erta kelib qolibsan?
Boisi ne, falokatmi yoki jinoyat?

Yigit

Bir falokat yuz bergandi toshqin mahali,
Qizaloqni soy suvidan qilgandim xalos.

Taroziyon

Shunaqa de? Ammo, lekin yetmas bu hali,
Ba`zi ishlar bo`ladiki tasodif, xolos.
Savob degan narsa axir tasodif emas,
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi,
Yaxshi odam yaxshiligini anglamay qolmas,
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi.
Qaysi kuni bir noshukur do`zaxga ketdi,
Men o`zim ham bir musht urdim, rostin aytganda.
Qurib ketgan, suyagiga yopishgan eti,
Qalbi to`la hasad ekan – noshukur banda.
Qancha-qancha begunohning boshiga yetgan,
Hatto bola-chaqasiga urmish gunohi.
Kim bilsin, u do`zaxga ham chap berib ketgan,
Ha, bolakay, keng ekan-da xudo dargohi.

Yigit

Bizlarning ham mahallada bor edi bir zot,
O`sha qayga borgan ekan, aytsangiz bilib.

Taroziyon

Kim edi u? Tekinxo`rmi, kofirmi, shaddod

Yigit

Salom bersang cho`ntagingni ketardi shilib,
Kimdan zarra foyda chiqsa o`sha zahoti

Borib yotib olar edi ostonasiga.
Tovlamachi odam edi, o`tdi hayoti,
Tavqi la`nat osilmasdan peshonasiga.

Tarozibon

Kim biladi, unaqalar ko`p axir, ukam.
Kim ham axir bundaylarni yo`lga solibdi...
Qaysi kuni bitgasini do`zaxga yozsam
Go`ring kuygur naq jannatga o`tib olibdi.
Qayta olib kelishadi, yozib yubordim,
U nokasni tiqajakman do`zax qa`riga.
Inobatga o`tar axir mening ham qahrim,
Odamlar u, chidaydigan bari-bariga.
Balki sen ham o`g`ridursan yo nokas, sulloh,
Turgandirsan noilojdan bo`yningni burib.
Balki olgan sal barvaqtroq joningni Olloh,
Gunohlarni qilmagansan balki ulgurib.
*Yugurdak farishta ichkaridan chiqadi,
qo`lida gunoh-savob daftarchasi*

Yugurdak

Mana, taqsir, olib keldim, tekshirib ko`ring!
Ikki paysa yetmas ekan behishtga.

Yigit

Hayhot!

Tarozibon

O`zingni bos, peshonangni ming joyga urgin –
O`zgartirgay taqdiringni na oh, na faryod –
Demak, sening gunohlaring haddan ziyoda,
Jahannamga borajaksan nachora, axir,
Bo`yningni eg, tavba qilgin, boqiy dunyoda
Boshqalarday bir bandasan,
Farqing yo`q taqir.

Yigit

Men do`zaxdan cho`chimasman, ustimdan kulma,
Men chidayman, ammo qayda haqiqat, imon?

Tarozibon

O`zingni bos, hoy yigitcha, shakkoklik qilma,
Xudoyimning qahri yomon, g`azabi yomon!

Yigit

Men do`zahdan ming martaba dahshatli bo`lgan
Hodisalar va kunlarni ko`rganman avval.
Men shaytondan ming martaba dahshatli bo`lgan
Olchoqlarni ko`rib, chidab turganman avval.
Lekin, ayting, qayoqda u oliy haqiqat?
Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman.

Tarozibon

Sendaqangi botirlarni ko`rganman faqat –
Mayli, sening javobingni bermoqqa shayman.

Yigit

Nechun endi faqat mening?

Tarozibon

Chunki bir zamon
Sen qutqazgan u qizaloq menga xizmatkor.

Yigit

Yo Ollohim! Nechuk endi u jannatmakon
Xizmat qilib yurar ekan bu yerda bekor?

Tarozibon

Sabab shukim, u begunoh qizcha – farishta,
Mayliga u imon tilar senga tangridan.
Xo`sh, sen uni qutqazibsan, qulluq bu ishga.
Lekin qismat og`irroq-ku buning baridan.
Sen jannatiy ish qilibsani buning uchun, bas.
Deylik bir zum qulluq bilan qilaylik ta`zim.
Lekin gunoh degan gap ham ro`y-rost ish emas,
Uni ko`rib ko`rmaslik ham gunohi azim.

Yigit

Mening qanday gunohlarim bor ekan, qani,
Iltimosim, eng og`irin bersangiz aytib.
Yana ayting, gunoh ishni ko`rgan mahali
Bo`lganmikan tilim tishlab o`tirgan paytim?

Tarozibon

Aylantirma gapni buncha, ikkalamiz ham
O`zimizni galvarslikka solmaylik bekor.
Seni yaxshi tanimayman-ku, sen sohib qalam,
Sen shoirsan!
Vallohi a`lam!

Tarozibon

Shoshmay tur, gap bor.
Sen shoirsan, senga Olloh yorug` nur berdi,
Otash berdi, zabon berdi, ham ulug` yurak.
Timsolingda bechoralar o`z dardin ko`rdi,
Baxtin ko`rdi, shodliklarin ko`rganlar beshak.
Boya senga bir bandani aytib bergandim:
Qora yurak, hasadgo`y ham manfur va olchoq.
O`zgasini qiziqsinib o`zing aytganding:
Tovlamachi va tekinxo`r, sulloh, yalinchoq.
Taniysanmi sen ularni?

(Tepaga qarab)

Yo qodir egam,
Pardai xob orqasidan ularni ko`rsat!

Ikkinchi arvoh namoyon bo`ladi.

Yigit

Hayhot! Meni jahannamda yondirgin, biroq
Ko`rsatmagin sen bularni, ko`rsatma faqat!

Tarozibon

Tanidingmi?

Yigit

Ha, tanidim.

Tarozibon

Aybingni endi

Bir oz anglab olgandirsan, zukkosan, gapir.

Ular qancha bandalarning boshiga yetdi.

Sen ularni ko`rib, bir so`z dedingmi axir?

Ilohiy dil bergan edi senga xudoyim,

Quloq sol deb sho`rliklarning ohi-vohiga.

Sen-chi, samo shu`lasini kuylading doim,

She`rlar bitding yulduzlarga, gulga, ohuga.

Yigit

Men iqorman.

Tarozibon

Ammo endi foydasi yo`q-ku,

O`z umrini yashab bo`lgan endi odamzod.

Achinaman senga, inim, inimsan, chunki –

Gar qanoting bo`lmasa-da sen ham parizod.

Qodir egam muhiblarin siylagan mahal

Shoirlarni kiritmishdir pari qavmiga.

Farishtalar til farqlamas, millat ham azal,

Ular faqat quloq tutgay ko`ngil mayliga.

Yigit

Bu gaplarni oshirdingiz me`yoridan sal,

Eshitganmiz bundaqangi kinoyalarni.

Gunohingga iqorman men, tonmayman tugal,

Yuzga solmang, lekin har xil rivoyalarni.

Mayli, do`zax tublarida kuyib kul bo`lay,

Mayli, qaynoq daryolarda oqsin suyagim...

Ko`zlarimdan qon, yosh oqsin, zardobga to`lay,

Faqat bordir Ollohimdan bitga tilagim.

Tarozibon

So`yla, qani, otash to`la shu ko`kragingdan

Haqiqatning shu`lari chiqsin so`nggi bor.

Yigit

Menga bir joy ko`rsatingki do`zax qa`ridan,

Toki o`sha arvohlarni ko`rmayin zinhor!

Tarozibon

Suhbatimiz mahsulidir bundayin talab,

Og`ir talab, rostin aytsam, bundaqa joy yo`q.

Bilmakdaman, ko`kragingda isyonkor bir qalb,

Men o`zim ham senday edim, hozir-chi, maxluq...

Bor, sen hozir, arosatning dashtini aylan,

Mayli, jannat darvozasin qoshiga borgil.

Ikki paysa savobni sen topishga shaylan,

Mayli, yig`la, iltimos qil, mayli, yolborgil!

Yigit

Yolbormasman, yig`lamasman, bu qandayin gap,

Boshqalardan savob olsam gunohim uchun.

Mayli, ketay do`zax sari hech tortmasdan tap,

Mangu azob chekmoqqa ham yetadi kuchim.

Tarozibon

Ko`p qaysarlik qilma, inim, bu azob boqiy,
Foniy dunyo azobi ham senga yetarli.

Yigit

Menga yana nechuk kerak o`zgalar ohi,
Qarg`ish o`zi bor ekan-ku, ancha aytarli.

Tarozibon

Har kimdan ham so`ramassan, albatta, savob,
Sen deb kim ham rohatidan kechar, ukajon.
Sen otangni va onangni ko`rarsan shu tob.

Yigit

Men ularni ko`ramanmi?

Tarozibon

Men aytsam, inon!

Yigit

Oh, falakning yulduzlari, chaqnang tobora,
Farishtalar, baxtlimassiz men kabi alhol.
Men do`zaxda yonay, mayli, lekin bir bora
Men ularni ko`rajakman, bu nechuk visol?

Tarozibon

Ha, ko`rasan, lekin shuni unutma aslo,
Ahvolingni bayon qilgil farzandlarga xos.
Zora ular iltijosin tinglab taolo,
Jannat yo`lin sen uchun ham ko`rsatsa ro`y-rost.

Yigit

Rahmat senga, xolis xilqat, oliyhimmat zot,
Sendaylarni yaratibdi – tangriga shukr.
Mening uchun bu yo`rig`ing oliy mukofot,
Ota-onam visolini ko`rayin bir qur.
Lekin bilgil, men ularga arz etib beshak,
Savob so`rab yig`lamasman, kechirsin xudo.
O`zlariga yetmas balki, menga vasl kerak.
Balki qayta ko`rishmasmiz, xayr, alvido!
Menga visol kerak faqat.

(chiqib ketadi)

Tarozibon

Hoy, yana kim bor?

PARDA

IKKINCHI KO`RINISH

Arosat yalangligida Yigit yolg`iz o`zi

Yigit

Umrin o`tdi sarsonlikda, sargardonlikda,
Yaxshi-yomon zamonlarni ko`rib keldim men.
Ba`zan ma`no topa oldim chin insonlikda,
Ba`zan esa uni yerga urib keldim men.
Mana, o`sha tarozibon, u-ku, farishta,
Insonlardan ko`ra yuksak turajak-ku u.
U zotga ham qiyin ekan bundaqa ishda,

Ko`zlarida allanechuk norizo tuyg`u.
Qiyin axir ularga ham, qalblari bordir,
Qiyin axir ularga ham – bordir ko`zlari.
Faqatgina farmon berar Ollohi qodir,
Lekin qalbni anglamaydi qizlar singari.
Endi qayga borsam ekan bu dasht, sahroda,
Qayga borib, padarimni kimdan so`rasam?
Bilolmasam, kim do`zaxda, kim arsh-a`loda...

Yigit qarshisida Chol paydo bo`ladi.

Chol

Ha, yo`l bo`lsin, mulla yigit?

Yigit

Vallohi a`lam!

Chol

Kimsan, o`g`lim? Yo`ling qayga, imoning butmi?
Qadamingdan podsholarning hidi keladi?
Lekin endi hammaga bir tangrining hukmi.
Kim jannati, kim do`zaxi – o`zi biladi.

Yigit

Ota, adam sahosida yo`lchiman tanho,
Do`zaximan, xudoyimning hukmiga ko`ra.
Marhamatin darig` tutmay Ollohim ammo
Visol uchun ruxsat berdi.

Chol

Erishsang zora.

Kim bilan sen uchrashmoqchi bo`lganding, o`g`lon?
Gar men bilan bo`lsa, qani, gapir, tinglayin.
Agar qarzing qolgan bo`lsa – aytgin shu zamon,
Aqcha emas, duo bilan, mayli, to`layin.

Yigit

Hech kimsada qarzim ham yo`q, oldi-berdim ham,
Garchand meni talamagan nokas qolmagan.
Aqcha uchun ikki dunyo chekmasman alam,
Zotan, uning o`zi menda sira bo`lmagan.

Chol

Hoynahoy, sen biror qizni ko`rmoqchidirsan,
Qasam ichgan bo`lsang kerak ikki dunyoga?

Yigit

Oh, otajon, qaniydi men sevilgan bo`lsam,
U qiz meni tanimagay yeru samoda.

Chol

Unda kimni ko`rmoqchisan?

Yigit

Ota-onamni,
Endi so`ng bor ruhlariga boshimni egsam.

Chol

Buzrukvoring kim edilar?

Yigit

El chekkan g`amni,
Daf etuvchi bir zot edi, tabiblar otam.

Chol

Shunaqa de?! Otang bilan ikkalamizning
Vazifamiz o`xshash ekan.

Yigit

Siz kimsiz?

Chol

Go`rkov!

Shundoq, go`rkov, senga aytsam, har bittangizni

Bu yoqlarga olib kelgan ikkovmiz, ikkov.

U o`ldirgan, men bo`lsam-chi, o`zing bilasan,

Yer ostiga jo qilganman otang gunohin.

Ko`p masxara qilishardi bizlarni, bilsang,

Oh, tiriklar qaydan bilsin go`rkovlar ohin.

Menga, mana, jannat ato qildi xudoyim,

Holbuki men odamlarni go`rga tiqardim.

Gap shundaki, yaxshilarni ko`mganda doim

Tuni bilan uxlayolmay yig`lab chiqardim.

Yaxshilari bor, albatta, tabiblarning ham,

Ana biri hamroh bo`lib yuribdi menga.

Tuzuk odam, ha, chindan ham jannati odam,

Ana, o`zi kelayotir, tanitay senga.

Ota yaqinlashadi. Dastavval u Yigitni – o`g`lini payqamaydi.

Ota

(go`rkov cholga)

Xo`sh, og`ayni, yo`lni endi jannatga boshla.

(O`g`liga ko`zi tushib)

Manovi kim? Tushimmi, o`ng?

Yigit

Ota, otajon!

O, Oллоhim, boshimizga osmonni tashla,

Qaytdimi-a, qaytmas deya nom olgan zamon!

Ota

(o`g`li bilan ko`rishadi va go`rkov cholga)

Mening pushti kamarim bu, suyuqli o`g`lim,

Nuridiydam vasli uchun tangriga shukur.

Chol

Hasratlashib oling, mayli, men kutay bir zum.

Kampirni ham ko`rsaydingiz, boboyi tushkur.

Men befarzand bir odamman...

Yigit

(go`rkovga)

Rahmat, ey bobo,

Yor bo`lgusi sizga shoyad abadiy rohat.

Chol

(yigitga)

Tangri senga yo`ldosh bo`lsin, mayliga, ammo.

Hamrohimni xafa qilib qo`ymagin faqat.

Go`rkov chol uzoqlashadi

Yigit

(bir necha daqiqadan so`ng)

Mendan rozi ketgandirsiz hoynahoy, dada,

Kimga fursat beribdi bu yugurik olam.

Ba'zan imkon topolmadim rostin aytganda,
Mo'jazroq bir tosh qo'ygandim qabringizga ham.

Ota

Marhumlarning hurmatini bajo etmoqlik
Tiriklarga ibrat uchun topilgan bir yo'l.
Murdalarga nima kerak? Faqat kafanlik,
O'g'lim, sendan men roziman, roziman butkul.
Yuragingda asrading sen ota hurmatin,
Marmartosh ham qo'yding mening tepamga, biroq
Kim munosib farzand bo'lsa, padar shavkati
Fir'avnning ehromidan bo'lar balandroq.
Bir qariya yotar edi mening yonimda,
O'g'li uning tepasiga qo'ydi ulkan tosh.
Biroq bir kun iblis kirdi o'g'il qoniga,
O'g'il bir kun ta'masini aylab qo'ydi fosh:
Qabrtoshda o'zin ismi yozilmay qolmish,
Sangtaroshni olib keldi bir kun u nokas
Va o'z ismin o'yirdi ham, bu savob emish,
Yo'q, bu savob atalmagay, manmanlik, xolos.
Qabristondan o'tib qolgan birorta kimsa
Hashamatli marmar toshni ko'rib qolgan on,
O, bu toshni qo'rgan falon azamat desa,
Ota emas, o'z obro'sin bilgan u inson.
Ko'ryapsanmi, inson zoti o'limni hatto
Manmanligi uchun ro'y-rost ishlatmoq bo'lar.
Oqibati nima kechdi? Yetdi-yu fano
Hammasi ham yo'qlik sari ayladi safar.
Mendan avval sho'rlik onang o'tdi olamdan,
Mana, bugun ko'ribsanki, hammamiz foni.
Birin xabar bormi, bilmam, sho'rlik onangdan.

Yigit

Sizni ko'rib turishim shu – kelganim oni.
Taroziyon qoshigacha yurdik necha yil,
Uning hisob-kitobidan sal avval o'tdik.

Ota

Endi jannat quchog'iga borarmiz, o'g'il?

Yigit

Yo'q, dada, men do'zaximan.

Ota

Nimaga? Nechuk?

Yigit

Qo'ying, bu hol yangilikmas men uchun, dada,
Olib qo'rgan ko'rinadi joyimni birov.
Bu dunyo ham olg'irlarga boqar ekan-da.

Ota

Qo'ygin, bolam, hazil qilma, qismat beayov!

Yigit

Bundan ortiq qismat bo'lmas axir, dadajon,
Jazo uchun joy bormikan do'zaxdan ortiq?
Endi menga baribirdir yer bilan osmon,
Do'zax ekan xizmatimga berilgan tortiq.

Ota

Ne qilayin, ayblamasman Oллоh dargohin,
Garchand sening qismatingdan chekmoqdaman oh.
Bor ekan-da, men bilmagan og'ir gunohing,
O'g'lim, axir pok eding-ku, nur kabi, e voh!
Sendan rozi yurar edi kattayu kichik.
Goho kelib roziligin menga aytardi.
Nechun endi do`zaxisan? Nimaga? Nechuk?
Qaysi nokas gunohini senga ag'dardi?

Yigit

Ha, dadajon. Hamma gap ham ana o`shanda.

Ota

Nahot birov gunohlari senga yozilmish?

Yigit

Ha, dadajon, o`zgalarning gunohi menda,
Nokaslarning gunohlari menga yozilmish.

Ota

Nima uchun? Joyidami, es-hushing, o'g'lim,
Chalkashtirib qo`ymoqdasan har xil gaplarni.
Nokaslarning gunohiga javob berar kim?
Deylik, birov zino qilsa – senga xatlarmi?
Tushunmadim men sira ham.

Yigit

Eshiting, dada.
Siz javobgar bo`lgandingiz bemorlarga.

Ota

Rost!

Yigit

Siz qanchalar qayg'urgansiz ular o`lganda,
Sog'ayganda bo`lardingiz xursand beqiyos.
Vazifamga ko`ra men ham tabibroq edim,
Insonlarning ruhlariga edim javobgar.
Ruhi majruh nokaslarni ko`rsam, ne qildim,
O`z tinchimni o`ylab nari qochganman battar.
Ular esa bamisoli quturgan itday
Ruhimizga solar edi, g'ulu, qatag'on.
Ojizlarni talar edi bijg'igan bitday,
Bir pul bo`lib qolar edi nomus, or, vijdon.
Ojiz qolgan bechoralar aylanib boshi
Sizdan dori so`rar ekan endi o`ylasam.
Barisiga men kabilar aybdordir rosti.
Men jazoga munosibman, o`ylab qarasam.
Ammo, afsus, endi qayta o`tmas odamzod.
O`z umrini yashab bo`ldi, yo`qdir foydasi.

Ota

O`ylantirib qo`yding meni, bu qanday bedod,
Axir har bir hukm joriyning bor qoidasi.
Sen o`z qo`ling yetgunicha ish qilar eding,
Boshqasiga qolar eding axir noiloj.
Sen o`zing ham boshqalardan g'am ko`rar eding,
Yo`q edi-ku, o'g'lim, senda saltanat va toj.
Nahot endi hammasiga sen javob bersang,

Axir o`zing pokdomonmi – shuning o`zi, bas,
Ig`volarga balogardon bo`larding, bilsang,
Nahot o`sha savobing ham bo`libdi abas.
Abdullatif gunohi ham sendadir balki,
Kechir meni, parvardigor, o`zingsan hakam.

Yigit

Dada, xudo boshqarmagan hech qachon xalqni,
Ixtiyorin bergan edi lekin chinakam.
Kimlarnidir yo`ldan urgan hazrati shayton,
Kimlarnidir bandam degan tangri taolo.
Shayton gapin muridlari bajargan obdon,
Xudo yo`lin bandalari unutgan goho,
Hamma balo ana shunda, qodiri g`affor
O`sha no`noq bandalarni kechirmas hech bir.
Parvo qilmang, dadajonim, bahona bisyor,
Qismatdir bu, qabrda ham tuzalmas bukr.

Ota

Xo`sh, bu yog`i ne kechadi?

Yigit

Do`zax – nadomat,
Lekin sira anduh chekmang men uchun, dada.
Qiynoqlarni ko`p ko`rganman avval ham, faqat
Alam qilar ikki paysa yetmay qolganda.

Ota

Yetim qoldim yoshligimdan men ham otamdan,
Odamlarning eshigida sanqidim itday,
Hatto do`zax lol qotardi men chekkan g`amdan,
Lekin shayton yo`rig`iga yurmadim qittay.
Urushlarda bo`ldim qancha, o`lmagan jonim,
Peshonamga yozgan ekan farzand, oila.
Sizlarni deb butun umr oqardi qonim,
Foniy umrim yashab o`tdim tashvishlar ila.
Imonimni butun qilib Olloh serkaram
Menga jannat darvozasin ko`rsatdi, shukr.
Oh, uchma-uch kelgan ekan savoblarim ham,
Lekin senga ikki paysa beraman.

Yigit

Hech bir.
Yetti qavat yer qa`riga tiqsa ham tangri
Men dadamni jannatdan hech qilmasman judo.
Kechiringiz, dadajonim, bois safarim –
Vaslingizga kelgan edim, xayr, alvido!

Ota

Yo`q, yo`q, to`xta!

Yigit

Xayr, otajon, urinmang bekor,
Sizni yo`ldan qoldirmayin, garchi ketgum yo`q.
Bu ayriliq manguliqdir, oh na chora bor,
Tangri hukmi har narsadan oliy va buyuk...

P A R D A

UCHINCHI KO`RINISH

*Jannatdagi g'oyat go`zal qasr.
Bu qasrda Ona istiqomat qiladi.
Atrofida farishtalar
Farishtalar tilovati*

Parvardigor shafqatni
Ixtiyor etdi.
O`n sakkiz ming olamni
Yo`qdan bor etdi.
Bandasiga bildirib
Ko`ngillarini.
Tayin etdi payg'ambar –
Rasullarini.
Hazrat Odam shu taxlit
Fasona bo`ldi.
Maloyiklar Odamga
Parvona bo`ldi.
To`lsin boqiy farog`at
Ushbu xonaga.
Rahmat nuri dastavval
Mushfiq onaga.

Ona baland taxtda

Ona

Bir dahshatni sezayotir yuragim tayin,
Bezovtaman, bezovtaman anchadan buyon,
Garchand jannat oromiga noil bo`lmayin,
Nimagadir yuragimda g`ashlik hukmron.
Tavba, nechuk hasrat ekan mening hasratim,
Ona zoti ikki dunyo nahot tinchimas.
Tug`ilgandan to so`nggi dam farzand qismati
Onalarning qismatiga bo`lganmi payvast...
Nuri diydami qayda ekan? Kim ham bilardi...
Ha, Olloning dargohi keng, shahri ham katta.
Imkon bormi? Uni qanday ko`rib bo`lardi?
Uyda bo`lsa, kelar edi o`zi, albatga.
Daydi bo`lib o`smagandi o`g`lim har qalay,
Kutdirmasdi, uzoq qolsa maktub yozardi.
Bu yerda-chi, ko`rishmoq yo`q, afsus, na qilay,
Bu yerda yo`q birov bilan birovning dardi.

Hur qiz yugurib kiradi

Hur qiz

Qutulmadim, qutulmadim shulardan, e voh,
Har qayerda bir go`r ekan bu yigit zoti.

Farishta

Ilakishib qoldimikan birorta arvoh,
Faqat, faqat nolib o`tgan buning hayoti.

Hur qiz

Nolimaymi? Hur ketsam-da boqmasdan, mana.
Mahramlikka keltirdilar, jannat behuda.
Sabab nima? Sabab – fe'ling yengil derlar, ha,
Haqiqatni topolmasdan kuyganman juda.

Ona

He gap, qizim? Bezovtasan, nima gap o`zi?

Hur qiz

Yo`q, yo`q, bekam, afv etingiz, shunchaki bir gap,
Nogahonda tushdi menga nomahram ko`zi.
Bu yerda ham bor shekilli bir xotintalab.
Ostonada o`ltiribdi merovlanib u.
Gap so`rasang, allanechuk duduqlanadi,
Tanir edim sizni, deydi, shunday deydi-yu,
Tupugini ichga yutib ham suqlanadi.

Ona

Balki biror tanishingdir, balki bir Majnun,
Balki mening o`g`lim kabi kuygan bir yigit?

Hur qiz

Tanimasman, ko`rganmaganman, yot u men uchun,
Balki biror do`xaxidir, shilqim, besubut.

Ona

Kim ekan u? Bu qasrda qandoq ishi bor?
Nomahramlar nechun buyon qilibdi jur`at?
Har xil devlar kezar bunda, qo`lida cho`qmor,
Lekin qadam bosmas edi bandasi faqat.
Balki biror o`tkinchidir, balki, ehtimol...
Shundaqalar bo`lardi-ku u dunyoda ham.
Elimizda yaxshi odat bor edi, alhol,
Musofirdan ahvol so`rash savob chinakam.
Chaqiringiz!

Hur qiz

Bekam, axir mumkinmas sira,
Erkak zoti bu qasrga qadam bosmagay!

Ona

Men – insonman! Agar inson bo`lsa bokira,
Iblislarning qutqusiga quloq osmagay!
Tag`in shuni unutmangki, unvonim – Ona!
Yuragimda ne kechishin bilolmassiz siz.
Siz-ku axir erta-yu kech menga parvona,
Buyrug`imdan o`zga bir ish qilolmassiz siz!

Hur qiz

Yo`q bekachim, bu shunchaki yuzaki xizmat,
Aslida biz intizomga posbonmiz atay.

Ona

Shunaqami?
Xo`p g`alati ekan-ku jannat,
Posbonboshi kelganida bu sirni aytay.

Hur qiz

Yo`q, bekachim... men shunchaki chalg`idim gapdan,
Istasangiz kira qolsin... Mayliga... ma`qul.
Lekin faqat gap tegadi.

Ona

Kimning tarafdand?
U niqobda kirsin, mayli.
Xohishimdir shul!

Hur qiz chiqadi

Ne qilardim? Har qayda ham nuqtai nizom,
Jannatning ham bor shekilli o`z yo`sinlari.
O`g`lim nolib aytganiday, poylaydi mudom
Mahallada choyxonachi ko`sa singari.

Hur qiz Yigitni niqoblangan holda olib kiradi

Hur qiz

(Yigitga)

Niqobingni ocha ko`rma, yo`qsa bu zotning
Kuyib ketar savob bilan topgan dunyosi.

Hur qiz chiqadi

Yigit

Oh, u qanday zot ekanki, o`rtar sabotni,
Niqobdan ham o`tayotir uning ziyosi.

Farishta

U – onadir, bandalarning ibtidosidir,
Unga hurmat joyiz erur ikki olamda.
Uning mehri samovotning ilk sadosidir,
Shu boisdan g`alat hislar qo`zg`ar odamda.
Farishtalar tilovati takrorlanadi

Yigit

(tiz cho`kib)

Ruxsat aylang, o, buyuk zot, tiz cho`kay sizga,
Har xil chuchmal tavozedan yiroqman garchand.
Nogahonda kirib qoldim huzuringizga,
Lekin ona ekansizki, men sizga farzand.

Ona

Yetar, yetar, tur o`rningdan, olijanob zot,
Balki keksa murabbiysan, padarsan buyuk.

Yigit

Kim esak ham barchamizga bergansiz hayot,
Onasi bor har qandayin zotning har nechuk.

Ona

Ha, barchasin tushunaman, onaman, to`g`ri,
Lekin buni anglamadi odamzod tugal.
Ona o`g`lin ardoqlar, u bo`lsa ham o`g`ri,
Lekin farzand ona qalbin uqmas har mahal.
Yer yuzida janglar kechdi qattiq, qatag`on,
Onalarning diydasidan oqdi qonli yosh.
Unutmangki, moyil bo`lsa janglarga o`g`lon
Ona qalbi shu qadarli tortadi yovvosh.

Yigit

Nomukammal edi zamin shu sababdan ham,
Necha-necha zotlar unda axtarmishdi yo`l.
Lekin ajab tarovatli edi u olam,
Juda qiyin tiriklikdan uzmoqlik ko`ngil.

Ona

Shundoq gaplar aytar edi o`g`lim har doim,

Esimdadir, so`nggi nafas topshirardim jon, –
U deb edi: “Yaratibdi bizni xudoyim,
Nachoraki, uning o`zi qiladi payhon.
Sabr qiling, der edi u, bo`ling mardona”.
Ajib kuvvat olgan edim taskin so`zidan.
Sabr qiling, der edi-yu, lekin xufyona
O`krar edi, yosh oqardi uning ko`zidan.

Yigit

(chetga)

Vo ajabo, onamni ham xuddi shu taxlit
So`zlar bilan kuzatgandim boqiy dunyoga.

Ona

U hayotni sevar edi bosiq va sobit,
U topinib yashar edi nurga, ziyoga.
Foniy dunyo azoblarin u tatib ko`rdi,
Ig`volardan tilka bo`ldi gohida dili.
Qayda hasad urug` ko`ysa, bilingki, derdi,
O`sha joyda baland bo`lg`ay ig`vo hosili.
Yolg`iz edi dunyoda u, lekin chinakam
Yolg`izlatib qo`ygan edi hayot beshafqat,
Derdi mudom: “Bu dunyoning doim biri kam,
Orzu bilan yashab o`tar odamzod faqat”.

Yigit

(sergaklanib)

Kim edi u?

Ona

Kim bo`lardi bunda qangi zot?
Yo bir darvesh, yo bir olim, yo shoir axir.
Shoir edi mening bolam, sohibi ijod,
Qismatini o`ylab tun-kun o`rtanar bag`ir.

Yigit

(chetga)

Qodir egam, so`nggi bora sabot ber o`zing,
Darig` tutma bardoshingni mendan banogoh.
Chora qayda? So`nggi daf`a niqobda yuzim
Validamga duch kelishni o`ylabmidim, oh,
Chora qayda?

Ona

...G`alat gaplar aytardi goho,
Esimda bor, erkanib degandi bir gal:
“Har bir zotga yodgorlik bor, men bo`lsam ammo
Qo`yar edim “Yaxshi Odam” nomli bir haykal.
Sabab shulkim, yaxshi odam azizdir, noyob,
Sayyoralar to`pi ichra quyosh misoli”.

Yigit

(chetga)

Oh, onamning huzurida turibman shu tob,
Yozmishimda shundoq ekan uning visoli.
Ahvolimni bayot etsam kul bo`lar kuyib,
Bekor bo`lib ketajakdir topgan jannati.
Diydoriga boqolmadim bir bora to`yib,
O`zini ham o`rtayotir hijron kulfati.

(Onaga)

Bovar eting so`zlarimga, ona, onajon,
Jannat ruhin tuymoqdaman suhbatingizda.
Gar qoida ko`tarsa-yu, izn etsa osmon
Bo`lar edim azal-abad xizmatingizda.

Ona

Kimsan o`zi? Qanday zotsan? Ayon et, yo Rabb.
Iltijoying yurak-bag`rim yubordi ezib.
So`zing tinglab va shikasta bastingga qarab
Ona qalbim nimanidir turibdi sezib.
Kim biladi, sen singari o`g`lim ham bu kun
Qaylardadir kezib yurar ovora, sarson.
Jannatdami, do`zaxda u – mubham men uchun,
Lekin meni ona deding, demak – farzandsan.

Yigit

Ona dedim, chunki axir onasiz, ona!
Siz ham axir onalikdan tona bilmassiz.
Meni bolam deyavering dildan, rosmama,
Garchand farzand diydoriga qona bilmassiz.

Ona

Netay, nochor ahvolingni turibman ko`rib,
Netay, bunda turli nayrang o`ylab toparlar.
O`zlarining ruxsorlarin ochiq qoldirib,
Sendaylarning yuzlariga niqob yoparlar.
Kim ekaning noayondar menga bu fursat.
Bilmasmen hech – maqsading ne? Muroding nima?
Olag`ovur ichra hozir do`zaxu jannat,
Kimligingni istasang – de, istama – dema.

Yigit

Men o`tkinchi bir kimsaman, muhabbat bois
Nogoh to`xtab o`tgan edim ostonangizda.
Men xush ko`rgan, ammo lekin hur ketgan bir qiz
Xizmat qilib yurar ekan koshonangizda.
Sevar edim men bu qizni qizg`in dil bilan,
Barbod etgan niyatimni lekin sarhadlar.
Mendan avval do`stim unga oshufta bo`lgan,
Ko`rishmadim, o`zdim faqat turfa xil xatlar.

Ona

Ha, hur qizning u dunyosi qoradir butun,
U qismatga bo`y bermagan, qismat bunga yov.
Begonadan xufya sovg`a olgani uchun
Bo`g`ib ketgan buni bir kun bo`lajak kuyov.
Ha, har kimning o`z dardi bor, men bo`lsam, mana,
Kimni ko`rsam farzandim deb xayol qilaman.
Ma`zur tutgin kalovlansam, men axir ona,
Jannatda ham bolam deya sochim yulaman.

Yigit

Jannatda onam,
Loyiq qasr ato etmish parvardigorim.
Mening uchun tiriklikda u chekkan alam
Yetib ortar, shu boisdan yo`q zo`ru zorim.

Ona

Savob kerak barchaga ham halol, befirib,
Mana, mening savoblarim uchma-uch ekan.
Lekin uni ko`rsaydim gar, savobim berib
Do`zaxga ham ketar edim, kechirsin egam.

Yigit

Hamma gap ham shunda, Olloh serkaram
Qo`sh yaratmish chora ila bechora so`zin.
Oftobsiz-ku, mahv bo`lardi zulmatda odam,
Ammo tika olmasdi ham oftobga ko`zin.
Men otamni ko`rib qaytdim, otam, xayriyat,
Noil bo`lmish farog`atli jannat vasliga.
Hosil bo`ldi, inshoollo, dildagi niyat:
Men ularni ko`rmoqchiydim – ko`rdim aslida.
Boshim oqqan tomon endi ketarman giryon,
Men singari chorasizlar izg`ib yuribdi.
G`ovur ichra to`ntarilib yotibdi jahon,
Bizdaylarni esa do`zax kutib turibdi.

Ona

Qandoq madad bersam senga? Ushbu ma`noda
Ko`z yoshidan bo`lak ishga yetmaydi kuchim.

Yigit

Yo`q, onajon, alam chekmang, nurli dunyoda
Yashang, mayli duo bilan barchamiz uchun.

Hur qiz kiradi

Hur qiz

(Yigitga)

Bo`ldi, endi tark etingiz ushbu qasrni,
Posbonboshi kelib qolar, kun og`ayotir.

Yigit

(chetga)

Abadiyan olib ketgum, oh, ushbu sirni,
Yuraginga hech yorishmas tun og`ayotir.

(Onaga)

Sizning bilan vidolashmoq og`ir naqadar,
Bizdaylarni ko`p ko`rgan gar bu ko`hna dayr.
Endi sizga so`nggi so`zni aytay muxtasar:
Qulluq sizga, onajonim, alvido, xayr!

Ona

To`xta, to`xta! Menda ham bor so`nggi iltijo,
Niqobingni bir zum olgin, ey, yaxshi odam!

Yigit

Yo`q, onajon, yo`q onajon, mumkinmas aslo,
Onalarning haqqi erur rohatbaxsh olam.

Ona

Ne ham derdim, notanishsan sen menga zero,
Odamlarni o`xshash qilib qo`yarkan zamon.

(Hur qizga)

Kuzatingiz ushbu zotni.

(Yigitga)

Endi alvido!

Y i g i t

Alvido, ey mehribonim, xush qol, onajon!

Hur qiz
Yigitni kuzatib chiqadi

Ona
Mahbus kabi turaverib ushbu qasrda
Balki fahmim o`tmashgan, toliqqan ruhim.
Kim bo`ldi bu ajab odam? Kim u aslida?
Shunchaki bir o`tkinchimi? Kim bo`ldi u? Kim?
Nimagadir tanitmadi o`zin, har qalay,
Yuragida dardi to`la, alamzada zot.
Murojaat qildi menga ona deb atay.
Yongan dilim qayta boshdan o`rtadi, hayhot!

Hur qiz kiradi
Ona
(*Hur qizga*)
Kuzatdingmi?

Hur qiz
Ha, kuzatdim, esin qo`ygan yeb,
Tushunmadim, murodi ne? Qanaqa dardi?
Ikkinchi bor vidolashdim onam bilan deb,
Katta yo`lda dabdurustdan yig`lab yubordi.

Ona
Nima? Nima? Chaqir uni, qaytaring zinhor,
Oh, jannating poymol o`lsin, boshimga yetdi!

Hur qiz
Fursat o`tdi, endi uni axtarmoq bekor,
U ulkan bir izdihomga qo`shilib ketdi.

Ona hushidan ketadi
Farishta
(*Hur qizga*)
Nima qilib qo`yding, axir, hoy iblis qizi,
Bechoraning jannatini qilding-ku abas.
Bejiz seni yengiltak deb aytmagan o`zi,
Yo`qsa hozir sirni ochmoq shartmidi, nokas!

Zulmat cho`kadi

PARDA

TO`RTINCHI KO`RINISH

Do`zax darvozasi oldidagi ulkan xandaq.
O`spirin va Qariya pachakilashib turgan bir holat.
O`spirin

Talantliman!

Qariya

Talantlisan!

O`spirin

Takrorla tag`in!

Qariya

Kuni bo`yi takrorladim, yetmasmi, bo`tam,
Yolvoraman, bir oz tinch qo`y, shafqat aylagin.

Xudodan qo`rq, chol kishini qiynama ko`pam.

O`spirin

Bilasan-ku, azaliydir bizning bu janjal,
Bir tomondan vakil sensan, bir tomondan men.
Hozir seni bo`g`ajakman, chunki menda gal,
Navbat yetgach, hunaringni ko`rsatgaysan sen,
Talantliman!

Qariya

Talantlisan!

(O`spirin Qariyani bo`g`a boshlaydi)

Qo`yvor, hoy kofir!

Ahli insof, yordam bering!

O`spirin

Baqir, ha, baqir!

Ko`ramiz, xo`sh, qani kimning talanti baland.

Qariya baqira boshlaydi. Yigit kirib keladi.

Yigit

Kimdir bunda Isrofilning suridan ortiq,
Qiyomatni qoyim qilib dodlayotgan zot?!

(Ularni ajratib, o`spiringa)

Hoy, insofing bormi o`zi, bu nima qiliq,

Bobong tengi bir cholni-ya?

Qo`yvor, hoy, shaddod!

O`spirin

(Yigitga)

Do`zaxda ham tarbiyachi paydo bo`ldimi?

Voizmisan, nima balo, tavbangdan ketay!

Qariya

(Yigitga)

Ko`rib sen ham atvoriga ko`ngling to`ldimi,

Lekin navbat bunikidir, chidayman, netay.

Yigit

Hech nimani tushunmadim.

Qariya

Ha, sening demak

Sohang boshqa yo dunyodan g`ofilsan butkul.

Taraqqiyot timsolidir bizlarning yurak,

Necha ming yil tortishamiz men zo`r deb nuqul.

Yigit

Yig`ishtirib qo`ysangiz-chi, bu ishlarni siz,

Chol kishisiz, yarashmaydi sizga bu savdo.

Qariya

Iloji yo`q, navbat bilan tortishamiz biz,

Tangri bizga shul jazoni ko`ribdi ravo.

Kimdir aytib ketgan ekan: hasad degan dard

Eng avvalo o`z egasin kemirgay deb. Rost!

Menga sira kun bermaydi mana bu nomard,

Yosh boshiga klassikman deydi-ya paqqos.

Hozir buning navbatiydi, meni u bo`g`di.

Yigit

Sizning navbat kelganida ne qilasiz, xo`sh?

Qariya

Ne qilardim, og'zi burni aralash to'g'ri,
Bulg'alayman va hokazo, ko'nglim juda bo'sh.

Yigit

Yo, alhazar! Shuncha xormi inson degan nom.

Qariya

(O'spiringa)

Hoy, yur deyman, tarixni bu tushunmas ekan,
Yur, chetroqda ishimizni etaylik davom.

Bilib qo'ygin, hozir mening navbatim yetgan!

Ular chetga chekinadilar.

Yigit

Inson zoti, sening nedan kaming bor edi?

Senga tangri bergandi-ku tafakkur, imon.

Zamin, havo, – bari senda barqaror edi,

Nechun dildan insof hissin aylading gumdon?

Axir sen it emasding-ku, belanib loyga

Bir-biringni g'ajisang to suyak talashib.

Samimiyat qayda edi, tafakkur qayda.

Lug'atingda gar bu so'zlar yotdi qalashib,

Hasad, ig'vo qaydan kirdi sho'rlik kallangga,

Qaydan seni chulg'ab oldi xudbinlik, kufr.

Nechog'lik sen shirin eding go'dak pallangda

Va nechog'lik balchiq ichra kechirding umr.

Mayli, ko'kda kamaysa ham birorta yulduz,

Yerda bitta yaxshi odam ko'paysa, derdim.

Inson uchun asli kurash ekan-ku joiz,

Ha, do'xaxi ekanman men, o'zimdan ko'rdim.

Kimsa hovliqib keladi.

Kimsa

Qutqaz meni, o'n daqiqa gapimni tingla,

Yo'qsa hozir kelib qolar mening kushandam.

Yigit

Oh, bechora, hovliqmagin, o'zingni o'ngla,

Sho'rpehona bir kimsasan bilsam, bilmasam.

Kimsa

Bir zo'ravon meni sira holimga qo'ymas,

Topshirganlar meni uning ixtiyoriga.

Shafqat degan narsani hech bilmaydi nokas,

Kunda bir bor pishib olar sassiq doriga.

Yigit

Qanday dori?

Kimsa

Bilmaysanmi? Yangisan demak,

Bir o'raga tiqib olar aziz boshimni.

O'n daqiqa so'zlab olay, choram yo'q bo'lak,

Hisobga ol kasalimni, ko'zda yoshimni.

Yigit

Xo'sh, nimani so'zlagaysan?

Kimsa

Yomonlayman, bil!

Yigit

Nima, nima!

Kimsa
Uqmadingmi? Ig'vo qilaman!

Yigit
Xo`sh, sen kimni yomonlaysan?

Kimsa
Menga bari bir,
Ig'vo bilan o`z dardimga shifo qilaman.
Payg'ambarmi, xudomi u, insonmi, shayton –
Men ajratib o`tirmayman, demokratman chin.
Go`l ekansan, kallavaram, galvars va nodon,
Odammassan, toki menga tushmabdi ishing.

Yigit
Sendaqalar qayda o`sgan bilmadim aslo,
Shu yerda ham hunaringni qo`ymabsan, sho`rlik.

Kimsa
Nega qo`yay? O`zi shundoq yaralgan dunyo,
Birov kosib, birov tabib – kasb-kor turlik.
Rostin aytsam, bir sen emas, hammang ham po`kka,
Ikki dunyo haqiqatga o`zimman nozir.
Tarozibon ustidan ham xat yozdim ko`kka,
Olatasir, tekshir-tekshir u yerda hozir.

Yigit
Ha, yumushing og'ir ekan.

Kimsa
Nimaga og'ir?
Ota-onam orasini buzganman hatto,
Bir-birini zaharlashib o`lganlar oxir.
Qaynonamni esa esdan qilganman judo.
Zir titrardi meni ko`rsa hatto toju taxt,
Yer yuzida sarhad bilmay davron surganman.
Xo`sh, jannating nima bo`pti? Buzuq bir xilqat.
Unda pora olishganin o`zim ko`rganman.

Yigit
Bas qil, nokas, bas qil, nokas, muroding so`yla,
Yana qanday kasaling bor ig'vodan battar?

Kimsa
Kasalimmi? Og'ir kasal. Tanangga o`yla,
Tek tursam gar, bor vujudim tinmay qichishar.

Yigit
Yo`qol bundan, la'nati zot!

Kimsa
(ketayotib)
Aynidi bu ham,
Inshoollo, yaqin kunda tentak bo`ladi,
Bir bor o`lsa Azroilning qo`lida odam,
Kaminaning dastlarida ikki o`ladi.

PARDA
BESHINCHI KO`RINISH

Yigit

(do`zax qopqasi oldida)

Hali do`zax qopqasidan ichkari kirmay
Ostonada shuncha savdo bo`lsa-ya, yo Rabb!
Umrin o`tib ketibdi-da, hech neni ko`rmay,
Tarozibon aytganiday, ko`rmabman qarab.

(Ovoz)

Ahli nokas, tingla, tingla! Hozir baringni
Axlat o`ra eshigiga haydab yig`aman.
Kim yashirgan bo`lsa mening ig`vogarimni
O`zini ham o`sha joyga birga tiqaman!

Do`st kirib keladi

Do`st

(Yigitni payqamay)

Qaydadir u, yigit umrim kuydirgan sulloh.
Boshimga u ne kunlarni axir solmadi.
Menga rohat bag`ishlaydi uni qiynamoq,
Chunki menga o`zga yupanch endi qolmadi.

(Yigitga ko`zi tushib)

Ie, ie, bu senmi... yo ... yo qudratingdan!

Yigit

Sen o`zing-chi? O`zingmi, yo mavhum nishona?!

Do`st

Ming roziman, parvardigor, bu nusratingdan!

Yigit

Oh, bormisan, birodarim, do`stim yagona!

Do`st

(Ko`rishadilar. Jimlikdan so`ng)

Shunaqami? Do`zax degin, Shundoq bo`ldimi?..

Yigit

Shundoq bo`ldi. Mana senga so`nggi xulosa!

O`ylagaymiz na tiriklik va na o`limni,
Qismat bilan na nizo bor va na murosa

Do`st

Necha zamon bu xilqatda kezdin tentirab,
Qolgani yo`q men kirmagan bironta puchmoq,
Hatto jannat qoshiga ham bordim muqarrab,
Uchratmadim, topolmadim, men seni biroq.
Va so`ng tangri marhamatin ado etay deb
Ig`vogarni topib oldim bu yerdan axir.
Ermagim shu, jazolayman alamim ortib,
Ko`p noloyiq ishlar bilan mashg`ulman hozir.

Yigit

Tentiradim o`shancha vaqt men ham taxminan,
Ota-onam vasliga ham yetishdim hatto.
Oqibatda loqayd bo`lib qolgandim chindan,
Na do`zaxu na jannatga bor edi parvo.
Ha, tangriga aytay endi men ham shukrni,
Hasratdoshmiz, mana, endi sherikmiz, hamdam.
Ikki paysa savob bois ko`rdim ko`p yerni,
Olganim yo`q ammo uni ota-onamdan.

Do`st

Sening aybing nima ekan? Gunohing qay xil?

Yigit

Gunohimmi? Odamzodga ortiq ishonmoq!
Shu boisdan ikki paysa yetmadi sabil,
Taroziyon dashnom berdi, u haqdir biroq.

Do`st

Nimasiga ishonding sen odam bolasin,
Ayt-chi, uning qay xislati seni etdi rom?
Yig`lab turib, seva turib, deyman, tingla sen,
Ishonmadim insonga men, tamom, vassalom!
Osmondagi yulduzlarni mumkin sanamoq
Ammo inson fe`l-atvorin bormi poyoni.
Senga doim nima derdim, eslagin o`rtoq:
Xayol bilan bezab bo`lmas aslo dunyoni!
Esingdami, quqqazganding meni ig`vodan,
Yig`ishtirib olmasimdan hali hushimni,
Mahkamaning kotibasi to`sib daf`atan
Tilab oldi og`zimdagi tilla tishimni.
Ig`vo, nayrang, hasad, g`iybat bular barisi
Oh, azizim, ocholmadi ko`zingni nahot?!
Senga vafo qildimi, xo`sh, ilhom parisi,
Jannat ato qildimi yo "go`zal" koinot?!

Yigit

Tugatdingmi?

Do`st

Nimaydi, xo`sh?

Yigit

O`zing-chi, o`zing,
G`alva bilan ne orttirding? Aybing ne ekan?

Do`st

Ha, o`ylashga majbur etar sening bul so`zing,
Ishonchsizlik bo`ldi mening boshimga yetgan!
Taroziyon roppa-rosa bir kun o`ltirib
Ko`z oldimda qilmishimni cho`tiga soldi.
Ishonmaysan menga ham deb, pisanda qilib,
Daftariga qo`l qo`ydirdi, tilxat ham oldi.

Yigit

Senga qancha yetmas ekan?

Do`st

Ikki paysa, ha,
Yetishmagan menda ham shu ma`naviy tomon.

Yigit

Yanglishibmiz ikkimiz ham nozik narsada,
Chunki inson o`z nomi-la Hazrati Inson!

Do`st

Hazrat Inson deganing ne? Quruq so`z faqat!
Men ham inson, sen ham inson, u ham inson-ku!
Esa qayda hazratga xos biror fazilat,
Bular bari biz to`qigan oddiy lison-ku!

Yigit

Ishonmaysan, demak shuldir aqidang tugal,
Seni kim deb atasak, xo`sh, odamzod uchun?

Do`st

Ishonchingni poymol qilib qo`yarlarni avval,
So`ngra uni qayta talab qilmoqlik nechun?
Oh, azizim, meni aslo yovuz deb bilma,
Men yovuzlik qurboniman, qalbidan alam.
Ushbu g`alat nisbatimdan tag`in sen kulma:
Ura bersang g`ayur tortar eng yovvosh it ham.

Yigit

Yashab o`tdik tiriklikning tund sahosida,
Masalan, bir nabototdek, bir chechak misol.
Yashnadik goh bahorlarning xush havosida,
Bandimizni bukib ketdi goh yovuz shamol.
Jami inson borasida mening bul so`zim,
O`ylab qara, tarixda bor ibrat doimo:
Ne-ne zotlar gar o`zlari topsa ham to`zim,
Odamzodga ko`rmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yo`li og`ir, serg`alva garchand,
Yuksaklarga ko`taradi sohibin biroq.
Mayli, mening ruhim siniq, xayolim parkand,
His qilurman ezgulikning oftobin porloq.
Asablarim qaqshab ketdi, rostini aytsam,
Jannat, do`zax g`alvasidan bo`ldim ham bezor
Do`stim, senga bir niyatim izhor aylasam.

Do`st

Xo`sh, u qanday niyat ekan?

Yigit

Rad etma zinhor.
Hozir ikkov kirib borsak, deylik, masalan,
To`larmidi jahannamning cheksiz maskani?!
Do`stlik haqqi, iltimosim eshit qat`iyan:
Olgin mendan yetmagan shul ikki paysani!

Do`st

Nima? Nima? Esing butmi? Senga ne bo`ldi?
Eshitmadim gapingni men! Qaytib ol darhol!
Bilsang, hozir koinotning beli bukildi,
Oh, sarsonlik qurib ketsin, charchabsan alhol.

Yigit

Gapim qat`iy!

Do`st

Qulluq! Ammo sabr etib birrov
Mening aytar gaplarimga qulog`ing tutgin.
Yaxshi-yomon hikmatlaring o`zingga siylov,
Falsafangni, aziz do`stim, bir zum unutgin,
Kimniki men o`z do`stimdan olsamu savob,
Yolg`iz o`zim ketaversam o`sha jannatga.
Haqiqatning mezonidir azaldan insof.
Har narsaning o`z yo`rig`i bordir, albatta.
Esingdami, Mahshar bag`rin rosa oralab
Faqat seni, faqat seni axtardim dedim?!

Yigit

Deding.

Do`st

Ammo nima edi mendagi talab?

Yigit

Nima edi?

Do`st

Men qarzimni uzmoqchi edim!

So`nggi paytda ig`vogardan qilganding xalos.

Hayotimga baxsh etganding tinchlik, halovat.

Yaxshiliging qaytarolmay qarzdor edim, rost,

Bo`ynimda burch, ezildim to`ro`zi qiyomat,

Mening uchun ikki olam bo`ldi bir chaqa,

Bilasan-ku, qiyomat qarz degan narsani.

Tushun axir meni, do`stim, quloq tut gapga,

Savobim ol, sen ol mendan ikki paysani!

Yigit

Vo ajabo, tomoshaning qizig`i chikdi!

Bilasanmi, ta`ma zahri kufrdan ortiq.

Ig`vogar-ku, g`azabingga axir yo`liqdi.

Lekin senda qarzim bo`lsa – ol, senga tortiq!

Og`aynimdan ikki paysa o`marib shodon,

Maqtanaymi padarimning oldida, qani?!

Ahvolimni tushun, sen ham, bahaqqi imon.

Sen olasan mendan o`sha ikki paysani.

Do`st

Aslo! Aslo! Sen olasan!

Yigit

Yo`q, yo`q, mutlaqo!

Do`st

Sen olasan! Sen olasan! Oxirgi so`zim!

Tepada sado guldiraydi

Yigit

Tingla, do`stim, kelayotir qandaydir sado!

Birga o`sdik, birga mayli topaylik to`zim.

Sado

Volida-yu padarlarga qulluq va rahmat!

Tashakkurlar bo`lsin nurli inson zotiga.

Fikringizni lekin buyon buring bir fursat.

Zehn soling gapning asl tafsilotiga:

Ikki do`stning sadoqati, mehri, himmati

Koinotning qadridan ham turgaydir baland.

Hech ne bilan o`lchanmaydi do`stlik qimmatini,

Kulatgay u sarhadlarni qudrati bilan.

Hikoyatdan murod shulkim, ulug`, muhtaram

Do`sti sodiq nasib etsin har kimga har on,

Jannat ato qilajakman ikkingizga ham!

Jannat yo`li mana, Sizga ochiq, charog`on.

Aтроf birdan yorishib ketadi

PARDA

1978

RANJKOM
Dramatik doston

Azizim, dil qasriga beso'roq kira ko'rma,
Unda qo'sh-qo'sh ilonlar, ajdaholar yotadi.
Sen birovni toptay deb behudaga ot surma-
Har kimning o'z quyoshi o'z ufqiga botadi...

Qatnashuvchilar

Rais
Birinchi a'zo
Ikkinchi a'zo

Savdoyi olim
G'oz ko'targan chol
Farrosh ayol

“Hasharot” jurnali redaksiyasi xonalaridan biri

Rais

Shunday qilib, yangi shirkat tuzdik, o'rtoqlar,
Men raisman. Sizlar a'zo. Hozircha kammiz.

Birinchi a'zo

Hechqisi yo'q, kamtar o'tar tarixiy chog'lar
Eng muhimi, “Hasharot”dan vakillar jammiz.

Rais

Biz ma'naviy tashkilotmiz – “Ranjkom”miz ya'ni,
O'zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.
Bar-barobar “siyla”gaymiz barcha-barchani,
Duch kelganda qadaladi o'tkir nishimiz.
Turli-tuman idoralar maqsadlarin goh
Xaspo'shlab, oliftalik qilib yurarlar.
Odamlar bor, ko'rinishdan go'yo xayrixoh,
Aslida-chi, bir-birlarin qonin so'rarlar.
Bizlar undoq ikki gapli kimsalar emas,
Maqsadimiz yashirmaymiz odamizoddan.
Biz “Ranjkom”miz, biz hammani ranjitamiz, bas
Shu – asosiy vazifamiz, chiqarmang yoddan.
Bemanfaat do'zaxda ham yonmaymiz ammo,
Qaysi mushuk yotar ekan oftobda tekin.
Ishimizni ermak deb ham bilmangiz ammo,
Sal keyinroq to'xtalaman bu haqda lekin.

Birinchi a'zo

Modomiki, yer yuzida yangi tashkilot –
Yangi qavm barpo bo'lmish, qutlamoq kerak.
Birlik yaxshi, chang chiqarmas derlar yolg'iz ot,
Tashkilotni har jihatdan butlamoq kerak.
Shu ma'noda paydo bo'ldi uch-to'rtta savol,
O'shalarni hal qilaylik, muhtaram rahbar.
Birinchidan, nizom kerak yetuk, barkamol,
Ikkinchidan, bizning yumush ancha serxatar.
Qandoq qilib ranjitamiz? Uslub qanaqa?
Bormi bizda hayfsan yoki rag'batlantirish?
Dabdurustdan biror majlis yoki ma'raka

Bizni badnom qilib qo'ysa, bu ham og'ir ish.

Rais

Eng avvalo, a'zo bo'lish shartlari mavjud,
Buning uchun qasamnoma – ariza darkor,
Turli siyqa tuyg'ularni etgaysiz unut,
Nomussizlik bizga – nomus, orsizlikdir or.
Ota-ona, do'st-u yoron degan gaplar ham
Manfaatga yaramasa, puch gap, albatta.
Safimizni kengaytirish kerak muntazam,
Bu o'rinda g'o'r yoshlarning roli ko'p katta.
Surbet bo'ling, surbet bo'ling. Bizning shior – shu.
O'z-o'zidan kela berar qolgan unsurlar.
Tuhmat, ig'vo, chaquv, hasad – bular bor gap-ku,
El ichida vaqt-bemahal qo'zg'ang ur-surlar.
Ko'ngli bo'shlik qilgan a'zo, demak, lapashang,
Erta tongda niyat bilan uydan chiqingiz.
Faqatgina ranjitmoqlik ruhida yashang,
Duch kelganni loyga chaplang, chohga tiqingiz.
Sizni badnom qiladigan mard yo'q bu zamon,
Majlislarni bo'lib tashlang oshkora, dadil.
Aksar odam o'z tinchini o'ylar begumon,
O'shalarni eng avvalo cho'chitmoq maqbul.

Ikkinchi a'zo

G'oyat teran fikrlarni aytdingiz ammo,
Menda jindek sarosima uyg'ondi, taqsir.
Yosh bolani ranjitmoqchi bo'lsak mobodo,
Ne qilaylik? Uray desang, u go'dak, axir.

Rais

Tashvishlanmang, o'ylaganmiz bu muammoni,
Yosh bolalar masalasi ancha jo'n, oson.
Ko'cha-ko'yda bir jujuqni uchratgan oni,
Boshginasin silab qo'ying, bo'ling mehribon.
Otasining kimligin so'rang, albatta,
Shirinlikda novvot bilan asaldan qayting.
Gap so'ngida baqraying-u, bolaga shartta:
Sening otang tamom boshqa odam, deb ayting.
Ana endi tomoshaning zo'ri chiqdi,
Uyga borgach, eshitganin aytadi bola.
Har qandayin erkakni ham shubha yiqadi,
Qolgan gaplar, ko'ribsizki, sudga havola.

Ikkinchi a'zo

Tamomila qoyilman men. Zo'rsiz bag'oyat.
Lekin hayot ummonining sarhadi bormi.
Duch keladi bizlarga ham shundoq vaziyat,
Deylik, borib ko'rish kerak biror bemorni.
Uni qandoq ranjitaylik?

Rais

Bo'ldi, tushundim,
Bu sohada bordir mening kamtar tajribam.
Men ham hayot gulshanida ko'kardim, undim,
Demak, turmush sinovidan o'tgan har rejam.

Vaqtı keldi, hadisimni berayin aytib,
Bir kimsani jinim suymas edi mutlaqo.
Payt poyladim, yuragiga nish urayin deb
Va axiyri niyatimga yetkazdi xudo.
Ne bo'ldi-yu, og'rib qoldi o'sha muttaham,
Kim biladi, grippmidi, kim bilsin, tumov.
Menga esa kerak edi xuddi shunday dam,
Uning holin so'rash uchun bordim men darrov.

Birinchi a'zo

Xo'sh-xo'sh, keyin nima bo'ldi?

Rais

Bozordan shu kun
Olma, anor va hokazo xarid ayladim.
Unutmangki, bemor zoti hamisha mo'min,
Yaxshi gapning gadosi u qadimdan-qadim.
Shu tariqa noyob fikr keldi kallamga,
Eng avvalo ahvolidan bo'ldim boxabar.
Ko'ngil so'rab ko'zyosh qildim, to'ldim alamga
Bu shu asno jiddiy turib dedim: – Alhazar!
Bu dunyoda shunaqangi dardlar bor, hayhot,
O'shalarni asrasin, ha, rakdan asrasin.
Biling, shubha askarlari surib kelsa ot,
Bostiradi har qandayin ishonch na'rasin.
Ikki-uch bor takrorladim o'lim so'zini,
Ko'z o'ngimda rangi uning uchdi batamom.
Tahlkada o'nglayolmay qoldi o'zini,
U shubhaga qul bo'lgandi endi, vassalom.

Ikkinchi a'zo

U o'ldimi?

Rais

Tirik murda, o'lgandan battar,
Bolalarin yig'ib olib, dod-voy etibdi,
Menda bir dard bo'lsa kerak, deya bachchag'ar
Eldan burun pensiyaga chiqib ketibdi.
O'gitim shul: har sohada zehn, qunt kerak,
Dono bo'ling deganlar-ku, o'rganib oz-oz.
Janglarda ham g'alabada hiyladir tirkak,
Eslab ko'ring, xor bo'lganmi hech vaqt nayrangboz.
Chekishdan ol, so'zlayvermay bitta men o'zim,
Boshim emas, g'ovlab ketti sochim ham balki.

(Birinchi a'zoga)

Tarog'ingni berib turgin, og'ayni bir zum.

Birinchi a'zo

Taroq menda nima qilsin, axir men kal-ku.

Rais

Qoyilmisan? Bu ham mening bitta usulim,
Atay tegmoq bo'ldim sening qitiq patingga.
Mayli senga ibrat bo'lsin mening bu yo'lim,
Lekin gap shu, ishon doim o'z qudratingga.
Kambag'alni ko'rib qolsang boylikdan so'z och,
Ko'zi ojiz kimsalarga quyoshdan gapir.

Biz tantana qilajakmiz. Yozgaymiz quloch.
Boshqalarni kamsitish ham axir zo'r taqdir.
(*Xonaga Savdoyi olim kirib keladi*)

Savdoyi olim

Qayda mening kapalagim, topingiz qani?
Uni quvlab kelmoqdaman To'ytepa yoqdan.
Hech bir kimsa uchratmagan bundoq nusxani,
Qanotlari yilt-yilt etar yiroq-yiroqdan.
U shu qadar aqlliki, qo'nim topsa gar
Ilmiy ish ham yoza olur o'zi haqida.
Xonangizga uchib kirdi noyob darbadar,
Menga ma'lum sizning qilmish, sizning aqida.
Osh tagida bostirgaysiz kapalagimni,
Ana, ana, peshonangga qo'ndi u borib.

Rais

Ahli donish esdan og'sa bilmas rahmni,
Ne qilardik kelsa u gar cho'qmor ko'tarib!
(*Savdoyi olimga*)

Mulla aka, menga bir zum tutingiz quloq,
Kuni kecha Moskvadan vakillar keldi.
Bizning ilmiy dunyomizni o'rganib uzoq,
Kapalakning daragin ham eshitdi, bildi.
Kapalakning baxtin o'ylab, ilmiy g'amni yeb,
Ko'rgazmaga hurmat bilan ola ketdilar.
Izimizdan yetib kelsin o'sha olim deb,
Tayyoraga maxsus bilet xarid etdilar.

(*Bir parcha qog'oz uzatib*)

Mana bilet. Uchavering Moskovga tomon,
Ko'rgazmada sizni xushnud "kutib" olarlar.
Aniq fanning rivojini istaydi zamon,
Hech shubhasiz, ular sizga qoyil qolarlar.

Savdoyi olim

Kapalagim erkakmidi, ayolmi bilmam,
Qay biri u uchib ketmish Moskovday yerga.
Temurbekning doshqozoni singari u ham
Ermitajning mulki bo'lib qolmasa go'rga.
Ketdim! Rahmat!

(*Chiqib ketadi.*)

Rais

U aslida zukko zot edi,
Uning boshin kasbdoshlari yedilar beshak.
U savdoyi bo'lib qolmish, azbaski, endi
Olimlarning usulin ham o'rganmoq kerak.

Ikkinchi a'zo

Iste'dodni ulashganda qodir xudoyim
Sizga ikkilanmay yombisin bergan.
Baxtimizga omon bo'ling, bor bo'ling doim,
Olam ichra uchramaydi sizday zo'r mergan.
Har so'zingiz nishoniga tekkay bexato,
Zarur bo'lsa, gulxan qilib yoqursiz qorni.
Dilda shunday taassurot ayladim paydo,

Tan olsangiz kerak faqat parvardigorni?

Rais

Bilib qo'ying, men dahriyman, xudosizman, ha,
U bor bo'lsa, yoqasidan olardim shaksiz.
Bergan menga u na boylik va na martaba,
Xulosam shul: biz kabilar unga keraksiz.
Ustoz bo'lgay bizga faqat moddiy shu turmush,
Oson gapmi, na sonda, na sanoqda bormiz,
Bizga nasib aylamadi durustroq yumush,
Omad bizni chetlab o'tdi, tashlandiq, xormiz.
Hay'atlarga saylanmaymiz, ehtiromlar yo'q,
Shoni shuhrat, dong'u amal begona bo'lgan.
Tirnog'imiz uchigacha hasratga to'liq,
Bizga tunlar uyqusizlik hamxona bo'lgan.
Mana, jurnal chiqaramiz "Hasharot" degan,
Xodimlarning yarmi po'stak, yarmi tirrancha.
Ko'cha-ko'yda parrandaning nishxo'rtin yegan
Hasharotdan o'zimizning farqimiz qancha?
Muharrir-chi, o'z nafini bilmagan nodon,
Biri ikki bo'lmagan chol, aynigan miya.
Ikki marta xalq dushmani bo'lsa-da, hamon
Qichqiradi, kommunist quramiz deya.

Birinchi a'zo

Kamsitmaylik kollektivni bunchalar axir,
Biz ham davlat idorasi, muhrimiz bor.

Rais

Bas!
Non ushoqqa ko'zin tikkan, manglayi taqir
Qafasdagi qush nimayu sen nima, galvars.

Birinchi a'zo

O'rtoq rais, bunday demang, qilmang haqorat,
Gapingizni qaytib oling, talab qilaman.
Ikkinchidan, qushmanmi men yoki hasharot,
Sizdan ko'ra menga ma'lum, o'zim bilaman.

Rais

Ana endi o'xshayapsan surbetga sal-pal,
Inshoollo, kelajaging porloq bo'lg'uvsu.
Jangarilik zina bo'lsa, surbetlik haykal,
Agar qattiq tekkan bo'lsam, so'rayman uzr,
Lekin do'stim, qiz boladay cheka berma oh.
Biz – "Ranjkom" miz, ranjitmoqlik uslubimizdir,
Bizning soha shunaqa, deb qildim-ku ogoh.
Endi o'zak rejamizni beray men so'ylab,
Bu – g'oyaviy, ijtimoiy yo'riq batamom.
Har biringiz bilasizki, mamlakat bo'ylab,
Oshkoralik, qayta qurush etmoqda davom.
Juda muhim jarayon bu, men sizga aytsam,
Yangilanib borayotir butkul jamiyat.
Jafu chekkan o'z yo'liga, bizning uchun ham
Yetmish yilda bir bor keldi bunday vaziyat.
Foydalanib qolmoq kerak, fursatni bilib
Oshga qo'lni cho'zmoq kerak beor va xira

O'zingizni ko'rsatingiz fidoyi qilib,
Og'zingizga nima kelsa – qaytarmang sira.
Gapingizda maza – matra qolmagan chog'i
Xalq nomidan so'zlayman, deb hayqiring paqqos.
Xalq shunday bir dengizdirki, yo'qdir qirg'og'i,
Bu dengizga sho'ng'ish kerak, misli quv g'avvos.

Ikkinchi a'zo

Axir, biz ham xalq emasmi?

Rais

Ha, barakalla,
Topag'onsan, faylasufdan yo'qdir kam yering.
Manfaat deb mag'zavaga tashlangiz kalla,
Qo'y terisin yopiningu suruvga kiring.
“Men” o'rniga “Biz” deb so'zlang har qayda, mudom,
Mo'ltonining qo'rchog'iday qilingiz muqom,
Kerak bo'lsa arg'umoqday turing pishqirib.
Sizni biror marosimga chorlash shart emas,
Hay'atlarga chiqib oling, egallangiz joy.
Bilintirmay nizo qo'zg'ang har qayda, xullas,
Biz qatnashgan ma'rakaning ahvoliga voy.

Ikkinchi a'zo

Bitta misol keltirayin, beringiz ruxsat,
Bunga o'zim guvoh bo'ldim.

Rais

Marhamat, qani.

Ikkinchi a'zo

Agar chindan yuragingda bo'lsa shijoat,
Dovdiratish mumkin ekan hamma-hamani,
Qaysi kuni mahallada o'tkazdik tadbir,
Ateistik masalani o'rta qo'ydik.
Taftish qildik odamlarning ismin birma-bir,
Ammo-lekin ba'zilarin bepichoq so'ydik.
Ko'chamizda bir lektor bor, Xudoyqul oti,
Yozg'uvchi deb tegar edi g'ashimga nuqul.
Sen – dindor deb e'lon qildim o'sha zahoti,
Chunki dedim, sening isming aynan Xudoyqul.
Kayfi uchgan ko'knoriday baqraydi avval,
Ne deyarin bilmay qoldi butkul dovdirab.
Ismin qo'ygan ajdodlarin so'kdi galma-gal,
So'ng yalina boshldi u menga jovdirab.
Dedi: – Ko'nglim to'lmas edi asli ismimdan,
O'z vaqtida tanqid qilding, dardingni olay.
Ixtiyoriy voz kechaman “ Xudoy “ qismimdan,
Mayli ismim yarim bo'lsin, “ Qul ” bo'lib qolay.
Poylaganday ikkinchi bir notiq so'z olib,
Dedi: – Bizning davrimizda qul yo'q mutlaqo,
Qulu quldor sinflari ketgan yo'qolib,
Xudoyqulning “ qul ” qismi ham siyosiy xato.
Shunday qilib, bir fuqaro kuppa-kunduzi
O'z ismidan ixtiyoriy qoldi ayrilib.
Ha, qopqonga kelib tushar galvarslar o'zi,
Qo'rqqanidan soyasiga boqmas qayrilib.

Rais

Iste'doding bor ekanu aytmaysan, xumpar,
O'rinbosar bo'lsang durust menga aslida.
Izlab topding, qayda izg'ir tuxmatchi, uchar,
Aniqlangiz, kim yuribdi kimning qasdida.
Ayni shular a'zo bo'lur "Ranjkom"ga loyiq,
Siz ularga vazifalar va'da qilingiz.
To huquqin taniguncha mute xaloyiq,
Kursilarni egallaymiz, shuni bilingiz.
Dong'i chiqqan shaxslarni bitta-bittalab
Badnom qilish oson emas, murakkab ish bu.
Bir zamonlar "nobop"larni qo'rganlar qamab,
Bizning esa yo'rig'imiz, yo'limiz ushbu:
Eng avvalo kurakda yo'q mish-mishlar to'qing,
Poraxo'r deng, xotinboz deng har qanday zotni.
O'sha zahot tegmasa ham nishonga o'qing,
Zaharlaysan hech bo'lmasa bitta hayotni.
Begunohning tuhmat gapga chidashi mushkul,
Asablari qaqshay-qaqshay bo'ladi odosh.
Uyqusizlik uni holdan to'ydirar butkul,
Qarabsizki, bizga endi infarkt ko'makdosh.

Birinchi a'zo

Taqsir, men ham bayon qilay bir voqeani,
Jadallashib borayotir hamma soha ham.
Demoqchiman, bizni ortiq, qiynamay, ya'ni
Birato'la o'laverar ba'zi bir odam.
Bilasizki, men ovchiman, ovga ishqiboz,
Hatto ular soyuzining a'zosidirman.
Ayi, bo'ri, tulki, kaklik, o'rdak yoki g'oz, –
Barchasining kushandasi – qazosidirman.
Uradirman osmondagi turnaning ko'zin,
Unutmayman ammo-lekin me'yor, insofni.

Rais

Ma'ruzangni bo'laman men, bersang gar izn,
O'rtoq ovchi yig'ishtirgin safsata, lofni.
Ayt-chi, nima demoqchisan?

Birinchi a'zo

Darvoqe, uzr,
Ehtirosga sal berilib, o'tlab ketibman.
Unutmaymiz, ovchilik – baxt, ovchilik – huzur,
Ov izidan yurib, qancha dovon o'tibman.
Oramizda zo'r bir ovchi bor edi, xullas,
Egarlangan otday edi doim omadi.
Tuzog'iga tushar edi uchib yurgan xas,
Bu atrofda qulatmagan ovi qolmadi.
Hasad bilan qarar edik unga muttasil,
Safarlarda qo'yar edik doim yakkalab.
U bor joyda ichimizdan ketar edik zil,
Yurar edik mozoriga pinhon g'isht qalab.
"Tabiatni asrang" degan shior ostida
Bir anjuman uyushtirdik bizlar ham atay.
Haligini oyoq osti qilmoq qasdida,

To'planishdik, har birimiz tashlanmoqqa shay.
Mamlakatda qay bir hayvon qirilib ketgan –
Hammasini shu ovchining aybiga yo'ydik.
Eramizdan ming yil burun urug'i bitgan
Baliqlarning xununi ham bo'yniga qo'ydik.
Yonib ketgan to'qay bormi, qurigan ko'lmi –
Hammasini birga qo'shib, shopira berdik.
Barchasiga sen aybdor deb shop qilib qo'lni,
Atrofni o'rab olib, gapira berdik.
O'ltirardi u boshini eggancha garang,
Tanqid uni girdobiga chunon olibdi.
Javob ber deb turtib ko'rsak, miq etmas, qarang,
U o'tirgan joyidayoq o'lib qolibdi.

Rais

O, yuribmiz biz ham hali "Ranjkom"ni tuzib,
Bizning ishlar hali quruq og'izda ekan.
Sizlar barcha tashkilotdan ketibsiz – o'zib,
Asli "Ranjkom" sizning o'sha Soyuzda ekan.
Xayolparast faylasuflar asrlar bo'yi
Odamzodni ulug'lashib kelarlar bekor.
Hayvon bilan barobardir Inson fe'l-xo'yi,
Balki undan beshbattarrog yovuz va makkor.
Bir-biriga do'st bo'lolmas ahli olomon,
Uni yo'lga solar faqat qilich yo firib.
Qani, ayting, saodatli bo'ldimi Inson
Nasihatgo'y shoirlarning gapiga kirib?
Odamzodda ortiq a'zo tirnoq, ko'richak,
Hayvonotdan qolib ketgan azaliy meros.
Insonlarning ruhida ham beshubha, beshak,
Ko'p hayvoniy hirslar yashar, pinhoni xolos
Odamlarni boshqaradi yolg'iz so'z: O'zim!
O'zim! – deya bir-birlarin ko'zin o'yarlar.
U taraf ham, bu taraf ham topganda to'zim,
Go'rlariga qaqqaytirib haykal qo'yarlar.
Haykallarga sig'inadi tiriklar yakkash,
Karomati nima uning – yo'q zarra dardi.
Bir jihatdan qulay ekan haykaldek yashash,
Tilga kirsan– nodonligi ayon bo'lardi.
Shu sababdan ochiq-oydin bir gapni aytay,
Fidoyilik degan narsa havoyi bir gap.
O'zing uchun har yumushga bo'la olgin shay,
Seni aldab ketishmasdan ulgurin aldab.

Xonaga daf'atan g'oz ko'targan chol kirib keladi.

G'oz ko'targan chol

Men omadsiz ixtirochi pensionerman,
Ha, darvoqe, barchangizga salomlar bo'lsin.
Eng oxiri "Hasharot"ga hasratim derman:
Madad bering, shu g'ozning ham tolei kulsin.

Rais

Jafo chekkan qay biringiz? Sizmi yoki g'oz?
Maqsadingiz bayon eting, qotirmang boshni.

(o'zicha)

Men hayronman, jurnalimiz pachavami, soz,
Qiziqtirar nuqul dovdur, tentak, avboshni.

Birinchi a'zo

Ammo-lekin g'ozu rosa semirgan ekan...

Ikkinchi a'zo

Sen ham bo'rsiq bo'lar eding, ko'tarib yursa.

Birinchi a'zo

Ne bo'lsa ham shundaylarga bermoq kerak tan.

Ikkinchi a'zo

Qandin ursin, kim uddalab davrini sursa.

G'oz ko'targan chol

Yetmish yilki kurashimiz biz paxta uchun,
Ayni vaqtda hech chekinmas vilt degan balo.
Bu vahshiy qurt teshib tashlar ko'rakni bugun,
Adabini berolmadi bironta dahlo.
O'sha qurtning kushandasini topdim, azizlar,
Jahonshumul yangilikni qadrlash darkor.

Rais

Yangilikni biroz uqmay turibmiz bizlar,
Vilt qurtiga g'ozning qanday aloqasi bor?

G'oz ko'targan chol

Bilasizmi, egatlarni hisoblab chiqib,
Har birining orasiga qo'yish kerak g'oz.
Ular zumda quritgaylar viltlarni cho'qib,
Paxta esa mo'l bo'ladi! Ishlar nechog' soz!

Rais

G'ozingizni qoldirgaysiz qabulxonada,
O'rgangaymiz tumshug'idan o'tigacha to.

G'oz ko'targan chol

(mamnun)

O, Sizdaylar bor ekanki, bu zamonada
Biz kabilar ko'cha-ko'yda xor bo'lmas aslo.

(Chiqib ketadi)

Rais

Qarisa ham quyilmagan esi past lo'li,
Ixtirosin choyxonada sinab ko'rgaymiz.
Oh, g'ozga ham borib yetdi "Ranjkom"ning qo'li
Keling, gapni sohamizga yana burgaymiz.

Ikkinchi a'zo

Men falsafiy fikrlarga yo'groqman, ammo
Turli-tuman qitmirlilikni o'ylab topaman.
Afandidek, yo'q narsani ko'rsatib goho,
Olomoni ergashtirib, olg'a chopaman.
Deylik, biror anjumanni buzmoqlik lozim
Va ayni payt xufya bo'lib qolmoqlik kerak.
Boz ustiga qarab tursa, ahli lavozim,
Bunday paytda lozim bo'lar pinhoni qarsak.

Birinchi a'zo

Hech pinhoni bo'larmikan qarsak ham, jo'ra,
Bo'rttirish ham evi bilan, so'zlagin bilib.

Ikkinchi a'zo

Oyoqda tik turgan bo'lsang, hayiqmay sira

Qarsakni ur, qo'llaringni orqaga qilib.

Birinchi a'zo

Gar o'tirgan bo'lsang-chi, xo'sh?

Ikkinchi a'zo

Engashib shartta,
Tizzalaring orasida chalaber chalpak.
Yo yerni tep. Unutmaki, o'sha fursatda
Majlis ahli seni qo'llab yuborar beshak.
Notiq xudo bo'lsa hamki, endi befoyda,
Mulzam bo'lib tashlab ketar mash'um minbarni.
Aybdorni kim topa olur? Buzg'unchi qayda?
Bilib qo'ysak zarar qilmas shundoq hunarni.

Rais

Sen ham balo chiqib qolding.

Ikkinchi a'zo

Yoshligimdanog
Shu sohaga mehr bilan quchoq ochganman.
Ko'chamizga biror moshin kelib qolgan chog',
Men, albatta, g'ildiragin teshib qochganman.

Rais

Garchi biroz maydalikdir g'ildirak teshish,
Lekin bu ham asqotadi "Ranjkom"imizga.
Bizga kufr sanalmagay har qandayin ish,
Loyiq bo'lsak basdir doimo o'z nomimizga.
Hayot asli kurash degan mashhur naqlni
Biz ham turmush tarzimizga etaylik tatbiq.
Buning uchun ishga solish kerak aqlni,
Eng avvlo, maqsad yo'lin qilaylik tadqiq.
Muzeylarda ko'rgandirsiz – sovut-qalqonli
G'ovak gavda – sarbozlarning liboslari bor.
Uni kiysa, birdek bo'lar jonsiz-u jonli,
Farqlab bo'lmas, terib qo'ysang, mingtasin qator.
Ha, ularning oddiygina harakati ham
O'sha temir kiyimlarga moslangan, qat'iy.
Ana shunga o'xshash erur amaldor odam,
Eng zo'rini byurokrat derlar ashaddiy.
Ayni chog'da byurokratni g'ilof ichidan
Shilliqqurtdek olmoqdalar bir-bir sug'urib.
Biz ilondek foydalanib hiyla kuchidan
G'iloflarga kirib olsak, bo'ldi ulgurib.
Qolgan ishlar o'z-o'zidan etadi davom,
Hukmimizda katta-kichik, yosh-u qari – bir.
Temir sovut qarshisida miq etmas avom,
Ichida kim ish yuritar – unga bari bir.

Birinchi a'zo

Ne qilaylik yetmoq uchun bunday murodga?
Jahonshumul vazifani qo'ydingiz, rosti.

Ikkinchi a'zo

Ikkilanmay tik boqaylik, deyman hayotga,
Cho'qqi yo'qdir, to yetmasa "Ranjkom"ning dasti.

Rais

Afsus, endi yumaloq, xat yo'qotdi kuchin,

Endi faqat tavakkal, deb nasiba tering.
Odamlarning orasini buzmoqlik uchun
Endi oshkor bir-biriga yomonlay bering.
Surbet bo'ling, takrorlayman yana bir karra,
Xaloyiqning yuragini beomon tig'lang.
Azalarda qah-qah uring tap tortmay zarra,
To'ylarda-chi, dabdurustdan o'kirib yig'lang.
Saylovlarda bo'ling doim hoziru nozir,
Bu o'rinda tayaningiz nafsdek baloga.
Bir kilodan go'sht tarqatsa odamlar hozir
Shaytonni ham saylab qo'yar arshi a'loga.

Birinchi a'zo

Masalaning bir jihatini o'ylayman hanuz,
Kechalari uyqum qochib ketadi goho.
Bizni ta'qib etmaydimi axir minglab ko'z,
Ne qilamiz, qo'lga tushib qolsak mabodo?

Rais

Ha, atrofda keng, kattakon jamiyat ham bor,
Ayon gapki, uning yo'lin bo'lmaydi to'sib.
Shuning uchun deyman-da men, ish tuting hushyor,
Shuning uchun deyman-da men, nish uring pusib.
Barcha gapni oshkoralik bo'yniga yuklang,
Biz davrning askarimiz, deb ayting paqqos.
Holingizni biror kimsa qilar bo'lsa tang,
Qayta qurish dushmani, deb soling ayhannos.
Yozilmagan qonunlar bor, bo'lingiz ogoh,
Biror joyda tilingizdan qolmang tutilib.
Eslang axir, jinoyatchi jazolardan goh
Bizga boshliq buyurgan, deb ketgan qutilib.
Iste'dodli ustomonlar yurtda hali ko'p,
Ozmi axir bu dunyoda johil, munofiq,
Garchi ular ko'chalarda yurmaslar to'p-to'p,
Har bittasin, fe'li lekin bizga muvofiq.
Kuni kecha gazetada chiqdi bir xabar,
Unda bayon qilinibdi fojiviy hol.
Mazmuni aytib bersam sizga muxtasar,
Uning ibrat jihatini ig'laysiz darhol.

Ikkinchi a'zo

Eshitaylik! Eshitaylik!

Rais

Qaybir qishloqda
Aka-singil yetimchalar yashagan ekan.
Ota-ona mehrin bilmay, xilvat, ovloqda
O'zlaricha oshlarini oshagan ekan.
Vahti yetib, uylanibdi aka bir qizga,
Kelin bo'lmish satang chiqmish va g'oyat baxil.
Mol-dunyodan o'zgani hech ilmaskan ko'zga,
Oilaga sig'may qolmish endi u singil.
Bu dunyoda sira rohat ko'rmagan aka
Do'mboqqina kelinchakka qolmish bog'lanib.
Singil esa yashar ekan mungli va yakka,
Zolim kelin zug'umidan ko'ngli dog'lanib.

Xonadonda bitta igna yo'qolsa ham gar,
Kelin uni shum singildan ko'ra boshlabdi.
Ertayu kech yetimchani kelindan battar
O'z tug'ishgan akasi ham ura boshlabdi.
Xo'rliklarga chiday olmay, yetim qiz oxir
O'z-o'ziga o't qo'yibdi, tamom, vassalom.
Endi ko'zyosh to'kar emish akasi mohir,
Jamiyatni ayblar emish qiztaloq g'irrom.
Allaqachon ijroqo'mning bitta kotibi
Vazifadan olinibdi shu masalada.
Ha, u yigit hech shubhasiz talant sohibi,
Suvdan quruq chiqib ketmish nozik pallada.
U haqiqiy surbet ekan, xoli vijdondan,
Rost-da, kimga foydasi bor nozu firoqning.
Hech birimiz tushmaganmiz axir osmondan,
U yigit ham mevasidir mana shu bog'ning.
Ana endi mafkuravuy ishlarni so'kib,
Yo'q eshikka bosh uradi dovdur matbuot.
Qotillar-chi, yurar soxta ko'z yoshi to'kib,
Ham singildan, ham jazodan bir yo'la ozod.
Bu tuzumning yarim umri lof bilan o'tgan,
Fuqaro ham usuliga ko'nikmish g'oyat.
Aksar holda yo'q narsani bor qilib bitgan
Roviylari hanuzgacha to'qir rivoyat .
Och qoringa kekiradi hozirgacha to,
Shior yasar, ishtonligi – chit bisotidan.
Yolg'on gapga u chindan ham o'rganmish, hatto,
Urrib qolar obi-havo ma'lumotidan.
Hali-beri davr bizdan uzolmagay qo'l,
Bizlar unga o'qtin-o'qtin kerak bo'larmiz.
Takror aytay, el o'ziga topgunicha yo'l,
Istagancha aysh surarmiz, o'ynab-kularmiz.
Ammo, do'stlar, ehtiyotlik hech so'zsiz darkor,
Xudo uyi – masjidning ham bor asos – sinchi.
Do'xtirlardan tanish topib, zinhor-bazinhor
Spravka topib qo'ying, u – ko'ngil tinchi.

Birinchi a'zo

Qanaqangi spravka?

Rais

U – mushkulkushod.
Har qandayin baloni ham eta olur daf.
Esipast deb yozib bersa, hammayoq obod,
Jinnilardan pora olgan do'xtirga ham naf.
Qarabsizki, har qandayin kuchli qonun ham
Oddiy qog'oz qarshisida yo'qotar zahrin.
Tentaklarni qamashmaydi.

Ikkinchi a'zo

Zo'rsiz chinakam.

Rais

Shu tariqa so'ndiramiz g'animlar qahrin.
O'sha qog'oz qo'lda bo'lsa, kaltak ko'tarib,
Ko'chalarga chiqa bering, hayiqmay aslo.

Ajoyib hol: jinnilar shoh, sog'lar-chi g'arib,
Bunaqasin ko'hna tarix kam ko'rgan ammo.
Yo'limiz shu. Gap bittami?..

Ikkinchi a'zo

“Ranjkom” ham bitta!

Rais

Bahamjihat endi ishga kirishmoq kerak.
Muharrir chol erta ishga kelganda, shartta
Tashlangaymiz, g'oya aniq – erishmoq kerak.
Qani, yana chekishdan ol. Tugadi yig'in,
O'ylaymanki g'alabadan endi ko'ngil to'q.

Ikkinchi a'zo

Aziz do'stlar, bir muddatga sabr eting,
“Ranjkom” uchun gimn yozganman, “Assalom”i yo'q.
(o'qiydi)

Biz “Ranjkom”miz, “Ranjkom”miz.

Kelajagi ganjkommiz.

Ko'ringanni tishlaymiz,

Ishimiz shu – ishlaymiz.

Mayli keksa, mayli yosh,

Berolmas bizga bardosh.

Chimchilaymiz bildirmay,

Burdalaymiz o'ldirmay.

Ko'paysa gar dahmaza,

Bizlarga bo'lar maza.

Bor bo'lsinlar yovvoshlar,

Galvarslar, qovoqboshlar...

Xonaga farrosh ayol kirib keladi.

Farrosh ayol

Nima balo, muchalingiz tutunmi o'zi,

Idora ham sarxonaga aylanibdi zab.

Shuncha bo'lsa erkaklarning agar gap-so'zi

Ayollarning gurungiga yo'q ekan taraf.

Allamahal bo'lib qoldi, uy-uyga qayting,

Yig'ishtirib olay men ham u yoq-bu yoqni.

Mahtal turgan kelinlarga salomlar ayting,

Shiqillatib qoling, xullas, endi tuyoqni.

Birinchi a'zo

(raisga)

Ishimizni shu opadan boshlasak-chi, xo'sh,

Irodani peshlaydigan, o'lgiday shaddod.

Rais

Mayliku-ya, oqibati bo'lmasmi noxush,

Chap qovog'im uchayotir negadir bot-bot.

Birinchi a'zo

Agar rais cho'chib tursa, biz kimmiz?

Rais

Ruxsat!

Birinchi a'zo

(farrosh ayolga)

Hoy opajon, sabr qiling, sizga bir gap bor.

Farrosh ayol

Nima ekan. Eshitayin.

Birinchi a'zo

Bizlar shu fursat

Ustingizdan yozmoqchilikka ayladik qaror.

Farrosh ayol

Yoz, yozaver. Moskovga yoz, Nyu-Yorkka yoz,

Makkaga yoz, Marsga yoz, hammani chaqir.

Rais

Ko'p qizishmang, ehtirosni jilovlang bir oz,

Mashg'ulotni endigina boshladik, axir.

Farrosh ayol

Xo'sh, nima deb yozmoqchisiz?

Rais

Zamon o'zgardi,

Sizda esa tashabbus yo'q, ha, ha, tashabbus.

Sizni zarra qiziqtirmas davrimiz dardi,

Yurishingiz o'sha-o'sha, o'sh-o'sha tus.

Farrosh ayol

Gaping to'g'ri, tashabbus yo'q mendaylarga ham,

Bo'lsa agar g'ayratimiz ko'pirar edi.

Uchragan chog' ig'vogaru beyuz, muttaham,

Undaylarni farroshlar ham supurar edi.

Tashabbus, deb o'qqa uchdi qanchalar askar,

Tashabbus, deb avliyoga aylandi inson.

Esleysizmi, tashabbus deb, qahraton sahar

Yo'q paxtani "terib" yurdi necha minglab jon.

Davr degan sho'ring qurg'ur bir ibora bor,

Saqich kabi ko'chib yurar og'izma-og'iz.

Aslida u allaqanday tashlandiq mozor,

Valiy bilan bir qatorda yotar yalmog'iz.

Tashabbusdan bir ish chiqsa, shu zahotiyog

Ma'nisi yo'q jurnalningiz yo'qotar edim.

Uylab boqsam, o'zingiz ham hasharot siyoq,

Ana endi yoza bering, shu gapni dedim.

Birinchi a'zo

(o'zicha)

Tuppa-tuzuk farrosh desam, alomat-ku bu,

Bunaqasin ko'rmaganman sira, yo falak.

Ikkinchi a'zo

(o'zicha)

Gaplarini tushunmadim, biroq fikrim shu:

U o'zining idorasin yopmasa kerak.

Rais

Otinoyi bo'lganmisiz, bilmayin qoldim,

Bu qadarli mahmadona, bu qadarli sur.

Mayli, deylik "tashabbus"ni men qaytib oldim,

Ammo, aytay, siz – millatchi, millatchi manfur.

Bor-yog'i bir farroshsiz dimog' osmonda,

Shu fe'l bilan kimga yoqib, kimni suyubsiz?

Siz o'risga qasdma-qasddan ishton kiyibsiz.

Farrosh ayol

Ana endi ayon bo'ldi asl basharang,
Siz – daydilar, to'g'ri kelgan kasni , qopasiz.
Siyosatni qalqon qilmay ko'zimga qarang,
Baliq yo'g'u baliqchini qaydan topasiz?
Nozik gapga tortayapsiz siz meni atay,
Uyurni kim haydab yursa moli qo'shadir.
Bilganimni supurgidek jam qilib aytay:
Kimning dasti daroz bo'lsa millat o'shadir.
Karvon hozir yo'l boshlagan boshqa tomonga,
Teran boqsang, bir holatni ko'rasan zinhor:
Inson faqat bo'lingaydir yaxshi, yomonga,
O'g'ri degan , To'g'ri degan ikki millat bor.
Men millatchi bo'libmanmi? El-yurtdan so'ra,
Sendan bo'lak hech kimda yo'q bunaqa xayol.
Birovlarning g'iybatini qilgandan ko'ra
O'z elingning hurmatini avval eplab ol.

Rais

Eplamasdan nima qildik?

Farrosh ayol

Ishton-chi, ishton?
Ishtonimga nega birdan yopishding, nokas?
Senga ishton kerak bo'lsa, yechaman shu on.

Rais

Hoy, opajon, yechmang, yechmang.

Ikkinchi a'zo

Yechmang, yechmang, bas.

Rais

Chap qovog'im uchmabdi-da bekorga, attang.
(*birinchi a'zoga*)

Shu baloga sen ro'para qilding, enag'ar.

Birinchi a'zo

Bunga hech kim bas kelolmas, ahvolimiz tang.

Ikkinchi a'zo

Bu ketishda jurnalni ham u yopib tashlar.

Farrosh ayol

Insofingiz sal bo'lsayam bor ekan, shukr,
Allaqaysi joyingizda nomus uyg'ondi.
Qoshingizda xor bo'ldim men, bo'ldim sur, manfur,
Bir farroshni masxaralab nafsingiz qondi.
Sizlar bezbet kimsalarsiz, manfaat uchun
Zarur bo'lsa Registonni borib yiqasiz.
Tor kelganda tegirmondan chiqay deb butun
Otangizni tiriklayin go'rga tiqasiz.
Har narsadan nonko'rlikning gunohi og'ir,
Eya turib ma'raysiz-a, nima etmaydi?
Ko'nikamiz, kiftlarimiz bo'lsa ham yag'ir,
Dilozorlik yarasi-chi, sira bitmaydi.

Rais

Biz shunaqa tashkilotmiz, ochiq aytganda,
Qayta qurish zamonining qahramonimiz.
Bu gaplarni tushunmaysiz, Siz – ojiz banda,

Kurash bilan o'tar bizning har bir onimiz.

Birinchi a'zo

Mana, bizlar qayta qurdik xonamizni ham.

Ikkinchi a'zo

Bu stolni nari surdik, usin bu yon.

Rais

Bas qilingiz, ikkingiz ham g'o'r, kallavaram,
Ha, sheriging nodon bo'lsa ahvoling ayon.

(farrosh ayolga)

Ko'p murakkab shaxs ekansiz, nainki farrosh,
Siz eplaysiz supurgini minib yurishni.
Mumkin bo'lsa, sirigingizni aylang menga fosh,
Siz qanaqa tushunasiz qayta qurishni?

Farrosh ayol

Avvallari xalq davlatni tinglardi mutloq,
Oddiygina yo'riqni ham kutib turardi.
Endi esa davlat xalqqa solmoqda quloq,
Umidvormiz, pinhon qolmas endi xalq dardi.
Uzoq-uzoq nabiralar baxtiga balkim
Qutlug' kunlar kelayotir sharpasiz, sassiz.

Rais

Qiziq gaplar... U holda biz kim erurmiz, kim?

Farrosh ayol

Siz xalqqa ham, davlatga ham mansub emassiz.

Birinchi a'zo

(o'zicha)

U tobora qizishmoqda, tushmaydi hech past.

Ikkinchi a'zo

(o'zicha)

Balki davlat o'rganmoqda bizlarni zimdan.

Farrosh ayol

Bir qavm bor, nomi uning manfaatparast,
Yer yuzida yashab kelar qadim-qadimdan.
Qo'lini u sovuq suvga urmagan aslo,
Qilar ishi aldamchilik, nayrang, qabohat.
Ular uchun bayram bo'lur qo'zg'alsa balo.
Yaxshilarning yuragida yonsa jarohat.
El tulporni egarlasa – minsam degan u,
El tiklagan imoratga udir da'vogar.
E'tiqodu insof unda bo'lmagan mangu,
Turlanadi sal o'zgarsa obi-havo gar.
Yetmish yilki, har gapiga Leninni qo'shib,
Rizqimizni qiyib kelgan ular-ku axir.
Bugun esa yangi tartib nomidan jo'shib,
To'g'ri kelgan har bandani etmoqda tahqir.
Itida vafo bo'lar, lekin unda vafo yo'q,
Suyak otgan har kimsaning yalar poyini.
Suvrat silliq, siyrati-chi, xudbin va quruq,
Qaroqchidek to'nab ketar borgan joyini.

Rais

Allaqanday qarashlarni tashviq aylamang,
Chuchvarangiz bo'lsa agar, sanayapsiz xom.

Farrosh ayol

Sen ham gapni buraverma, qilma ko'p nayrang,
Men – xalqdirman, ammo-lekin emasman avom.

Rais

Rus elida bolta sho'rva degan ertak bor,
Yasha, deydi laqmalarni aldab, shishirib.
Qani, ayting, biror kimsa qolib och-nahor,
Yeganmi hech qozonida orden pishirib?
Yosh umrini g'oyalarga tekin bag'ishlab,
Ne-ne yigit o'tib ketdi qorni to'ymasdan.
Nima ko'rdi ular axir "biz" uchun ishlab,
Unutdilar, lahadiga hali qo'ymasdan.
Bu dunyoga yolg'iz bir bor keladi Inson,
Demak har zum tap tortmasdan yashamoq kerak.
Biz – jondormiz, dunyo esa cheki yo'q o'rmon,
Yurmoq kerak, yormoq kerak, oshamoq kerak.

Farrosh ayol

Boz ustiga liboslarni yechib mutlaqo,
To'rt oyoqlab loyga botib bo'kirmoq kerak.
Imon, insof, vijdon so'zin eshitgan asno
Quturgan bir arslon kabi o'kirmoq kerak.

Rais

Kimsiz o'zi? Qay ko'chaga boshimni bursam,
Ro'paramdan mana men, deb chiqa berasiz?
Men sizni bir oddiygina farrosh deb yursam,
Falsafani Aflotunday so'qa berasiz?
Buncha gapni siz qayoqdan topasiz ekan,
Darsxonangiz qaysi yerda? Ustozingiz kim?

Birinchi a'zo

(o'zicha)

U bizlarni birato'la mot qilay degan...

Ikkinchi a'zo

(o'zicha)

Supurgiga apparat ham bog'langan, balkim.

Farrosh ayol

Oh, ustozim halok bo'lgan allaqachonlar,
Sibir qilib yuborishgan shundoq ziyoni.
Navoiyni o'qir edik bo'sh qolgan onlar,
O'qir edik goh Gomer, goh Monteskyoni.

Birinchi a'zo

Manti qosqon deyaptimi?

Ikkinchi a'zo

Yo'q, ko'mir, dedi.

Farrosh ayol

Ham nomard-u ham bevafo ekan bu olam.
Mening erim mutafakkir bir odam edi,
O'zi bilan yo'q qilishgan kitoblarin ham.

Rais

Uning aybi nima bo'lgan?

Farrosh ayol

Bu – mungli tarix,
Ayni chog'da siz uchun ham ibratomuz hol.

Inson zoti kulfatlardan bo'lolmas forig'
Agar o'tgan fojiasin unutsa darhol.
Aysam aytay, mayli siz ham bo'lingiz ogoh,
Bu voqea urushgacha yuz bergan ekan.
Chars bir echki og'ilidan qochib banogoh
O'tlash uchun paxtazorga yugurgan ekan.
O'sha mahal hukumatning xos vakillari
O'tib qolmish echki yurgan dala qoshidan.
To'pponchaga yopishibdi darhol qo'llari,
Echkiga o'q uzibdilar avval boshidan.
So'ng, topingiz deyishibdi, echki egasin,
Darhol haydab keltirmishlar ota-bolani
Bir o'q bilan uchirmishlar otaning sasin.
Bola esa qolabermish, chekib nolani.
O'q yegan chol mening sho'rlik qaynatam bo'lgan,
Bola esa, u – bo'lg'uvsu umr yo'ldoshim.

Rais

Bor gap shumi? U chol, eh-he, qachonlar o'lgan.

Farrosh ayol

Ne kunlarni ko'rmadi-ya mening bu boshim,
Muhtojlikning hasrat to'la yo'lidan o'tib,
U ham, men ham ulg'ayganmiz yetimxonada.
Turmush qurdik muhabbatning qo'lidan tutib,
Olim bo'lib yetishdi u tinch zamonada.
Biroq ota fojiasin unutilmay hech,
Ma'yus bo'lib qolgan edi nigoh-nazari.
Der ediki: – Haq ochilgay ertami yo kech,
Bedodlikdan dohiymizning yo'qdir xabari.
Choyxonaga kirib bir chog', nima ham bo'lib,
U dohiyning haykalchasin boshin silabdi.
Yovuzlarni jazolang, deb o'pkasi to'lib,
Dohiymizga uzun-uzun umr tilabdi.
Chaquv bois, bostirishib keldilar uyga,
Xalq dushmani, deya uni qildilar e'lon.
Shu tariqa sherik bo'ldik biz qonli "to'y"ga,
Emish dohiy peshonasin siladi, ilon...
Uning yodi bilan o'tdi sarson hayotim,
Muallimlik kasbimni ham oldilar tortib.
Faqatgina xotirotdir mening bisotim,
Topgan dunyom shu supurgi, o'zimdan ortib...

Rais

Bo'ldi, bo'ldi. Endi menga ayon hamma sir,
Eringizday lapashangni ko'rmagan dunyo.
Yurmaydimi ayshin surib, ham kar, ham so'qir,
Na otani, na echkini bilmasdan go'yo.
Chaquv deysiz. Chaqimchilik hammaga meros,
Kunmi axir – biror joyga tashimasang gap.
Ikki zotni urushtirib tashlasang paqqos,
Ham o'sasan, qolaversa, tomoshadir zab.
Chaqimchilik safiga u o'tganda agar
Boshqalarni yer edi-ku o'zi kemirib.
Hoy, opajon, tegrangizga tashlang bir nazar,

Yuribdi-ku chaqimchilar hanuz semirib.
Modomiki, juda nozik bir masalada
Yo'llarimiz uyg'un chiqdi, solingiz quloq:
Garchi turfa xayol yashar turfa kallada,
Siz – tuzumdan alamzada odamsiz mutloq.
Mana, shirkat tuzdik bizlar, "Ranjkom" dir nomi,
A'zolikka kira qoling, birga bo'laylik.
Bilasizki, mamlakatda kurash ayyomi,
O'zimizga yarataylik biz ham qulaylik.
Siz g'oyatda zakovatli, fikrchan ayol,
Martabasiz yurabermang, supurgi bois.
Rejamizni tushuntirib beraman darhol,
Xohlasangiz, bo'laqoling siz bizga rais.

Birinchi a'zo

Ana endi kuchayadi bizning tashkilot,
Xalq nomidan gapiradi bu ayol, axir.

Ikkinchi a'zo

Endi tortib ololmaydi jurnalni hech zot,
Onasini ko'rar bo'ldi qari muharrir.

Farrosh ayol

Har qandayin tashkiloting o'zingga siylov,
Tuzoqlarni taniydirgan tulkidirman, bil.
Umrin bo'yi taqdir menga boqdi beayov,
Endi yolg'iz supurginga tekkizmagin til.
Yaratgandan faqatgina bir tilagim bor,
Shu tilakni yalov qilib o'tay dunyodan:
Sendaylarning qo'lida hech aylamasin xor.
Ayirmasin diyonatdan, mehru ziyodan.
Ko'p noqislik mavjud hali Inson fe'lida,
Baxtli Udir – kimning ko'ngli haqqa to'q ekan.
Allaqaysi toleyi but elning tilida
Pora degan tushuncha ham, so'z ham yo'q ekan.
Sizning esa a'molingiz naf-u qabohat,
Kurash desa anglagaysiz qaroqchilikni.
Yo'qdir sizda zarra imon, zarracha shafqat,
Kasb qilgansiz Azroilga yaroqchilikni.
Alamzada zot emishman, shundoqdir balki,
Lekin sizning alamingiz nimadir, ayting?
Ko'karmagay kimni agar qarg'asa xalqi,
Bu xatarli yo'lingizdan, yaxshisi, qayting.
Mansab deysiz, boyluk deysiz, dovruq deysiz, oh,
O'z-o'zidan kim bo'libdi shuhratlik, shonlik.
Buning uchun zarurmikan shunchalar gunoh,
Buning uchun zarurmikan shuncha shaytonlik.
Sizga naql so'ylab beray, tinglangiz hushyor,
Illo, mag'zin chaqqan odam bo'lmas sira kam.

Birinchi a'zo

(o'zicha)

Ma'ruzasin na cheki, na chegarasi bor.

Ikkinchi a'zo

Ha, ustozim ta'lim bergan ekan chinakam.

Farrosh ayol

Bir qabila yo'lboshchisi demish Temurga:
– Sen bizlarni qurol bilan zabt etding, amir.
Modomiki, ketmas bo'lib kelding bu yerga,
Fuqaroga egalik qil, qo'llagin tadbir.
Qassob bo'lsang, so'yib tashla shu zahotiyiq,
Sotib yubor, agar kasbing bo'lsa savdogar.
Magar undiq emassanki, tut bizga quloq,
Sen bizlarga baxt ato et, podshoh bo'lsang gar.

Rais

O'ylab ko'rsa, naqlingizda ma'no bor rostdan,
Lekin bizga daxli nima? Tushunmay qoldim.

Farrosh ayol

Gap shundaki, ostonada o'ltirib qasddan
Sizning barcha rejangizni eshitib oldim.

Rais

Shunaqami?

Ikkinchi a'zo

Ana xolos!

Rais

Demak, bizlarni
Besh qo'l kabi bilarkansiz, sirimiz ayon?

Farrosh ayol

Istasangiz, ta'riflab ham bergum sizlarni,
Shoir bo'lsam, Sizga atab yozardim doston,
Ne kulfatki, shioringiz nuqul yomonlik,
Balolarning hidi kelar qadamingizdan.
Sizdaylardan kutib bo'lmas sira omonlik,
Onaga ham tashlanasiz alamingizdan.
O'z boshiga tushmaguncha to tuhmat, ig'vo,
To'g'ri so'zning qadrini hech bilmaydi kishi.
Lof gapirsam, mayli meni kechirsin xudo,
Aytib beray kimning qandoq erur qilmishi.

(birinchi a'zoga)

Sen uzzukun kitoblarni yoningga qo'yib,
Ko'chirasan.

Birinchi a'zo

Men tarjima qilaman faqat.

Farrosh ayol

Pul ishlaysan jurnal ishin ijodga yo'yib,
Tarjimang ham, yozganing ham bir pulga qimmat.

(ikkinchi a'zoga)

Sen bo'lsang-chi, g'irt aroqxo'r, ko'knori junun,
Sog' yurmaysan, shu o'lgurdan qachon to'yibsan.
Suvarakka olib kelgan dorimni u kun
Bir tomchi ham qoldirmasdan ichib qo'yibsan.

Ikkinchi a'zo

Men umrimda gazli suv ham ichgan emasman,
Surunkali dardim bordir oshqozonimda.
Aroq turgan dasturxondan taom yemasman,
Tuhmatingiz zahar bo'lib jo'shdi qonimda.

Farrosh ayol

Sen-chi, rais, tayini yo'q xotinboz, nodon,

Bir qarashda ma'nilikday tuyular so'zing.
Lekin, ayt-chi mening so'zim rostmi yo yolg'on,
Ayollarning ishtonidan uzilmas ko'zing.

Rais

(a'zolariga)

Turing, ketdik, bu xotinning miyasi achib,
Ortiqchalik qilib qolmish supurgisi ham.

(Chiqib keta boshlaydilar.)

Farrosh ayol

Qani, "Ranjkom", bir yugur-chi, tuhmatdan qochib,
Burningizga suv kirdimi? Qildimi alam?

(yolg'iz qoladi)

Nima topdim shular bilan pachakilashib,
Ko'p noravo so'zlar aytdim qarigan chog'da.
Kim biladi, farzand ko'rish etganda nasib,
Balki u ham kuydirardi meni shu dog'da.
Yiqlganga madad bersang – buni anglayman,
Halollik deb jangga kirsang alqagum abad.
Yovuzlikdan zada bo'lgan qora manglayman,
Nomardlardan dod deganman, dod degum minba'd.
Lekin nechun bu qaqqmning yo'li doim shay,
Qandoq qilib bir-birlarin izlab toparlar.
Muyulishda gar daf'atan chalinsa karnay
Osh bormi deb guruh-guruh bo'lib choparlar.
O'zgalarda ne tashvish-u bularda ne g'am,
G'o'rmi desang, xizr sifat peshvolari bor.
Ne bo'lsa ham, sen shulardan asragin, egam,
Shundaylarning qo'llarida yurtni qilma xor.
Aziz elim, o'zing tuqqan amalparastdan
Qachon axir qutulgaysan, o'ylaganim shu.
Seni kim ham sudrab chiqar tubandan-pastdan,
Peshonangda qotgan sho'ring ketarmi, yohu.
Siz qaydasiz, bag'ri jahon azamat erlar,
Sen qaydasan, pokdomon zot, fidoyi Inson.
Tarqab ketar cho'poni yo'q suruv ham derlar
Qayda dono jim o'tirsa – sayragay nodon.
Bugun shunday bir fikrga keldim mutlaqo:
Mast qilarkan erkinlikning nogoh nag'masi.
Hech ajabmas, shon-u shuhrat talashsa, hatto,
Mahallaning chumchug'idan tortib qarg'asi.
Oddiygina farroshman-u toleni qarang,
O'lmay o'tdim qirg'inlardan, ochlik, xorlikdan.
Goh yosh to'la ko'zlarimni ochsam ham arang,
Ayrilmadim qanoatdan, umidvorlikdan.
Balki meni qo'llab yurgan ustozim ruhi,
Balki menga suyanch bo'lgan jindek e'tiqod.
Goh kimnidir chetlab o'tsa hayot shukuhi,
Goh kimnidir imonsizlik etarkan barbod.
Anovlardan gina qilib boray qayoqqa,
Hissizlarning basharasin sira yo'q ko'rgim.
Eng yaxshisi, hasratimni aytay tayoqqa,
Sadoqatli yo'ldoshimsan o'zing, supurgim...

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Oripov she'riyati qaysi xususiyatlari bilan kitobxon qalbida mangu muhrlandi?
2. U qaysi badiiy an'analarning davomchisi hisoblanadi?
3. Shoirning falsafiy mushohadalari ildizi nimalardan oziqlangan?
4. Abdulla Oripov jahon adabiyotidagi qaysi asarlarni yuksak mahorat bilan tarjima qilgan?
5. Davlat va va jamoat arbobi sifatida o'zbek adabiyotiga qanday ulush qo'shgan?
6. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoirning qaysi dostonlari asosini tashkil etadi?
7. "Jannatga yo'l" dramatik dostonining asosiy mohiyati nimada?
8. "Ranjkom" dostoni kompozitsiyasiga ahamiyat bering.
9. Asarda qo'llangan epigraf mohiyatida qanday tushunchalar yotadi?
10. Asardagi obrazlar tizimini birma-bir izohlang.



OMON MATJON (1943-2020)

O`zbekiston Xalq shoiri Omon Matjon 1943-yil 14-fevralda Xorazm viloyati Yangibozor tumani Bog`olon qishlog`ida dunyoga kelgan.

1970-yilda shoirning «Ochiq derazalar» deb nomlangan ilk she`riy to`plami nashrdan chiqadi. «Keyin «Karvon qo`ng`irog`i», «Quyosh soati», «Yarador chaqmoq» kabi kitoblarim, «Beruniy» dramatik dostonim, Pahlavon Mahmud haqidagi dostonim, «Haqqush qichqirig`i» degan qirq afsonadan iborat kitobim, «Daraxtlar va giyohlar kitobi» deb nomlangan ekologik mavzudagi kitoblarim ketma-ket bosmadan chiqdi», deydi shoirning o`zi.

Omon Matjonning she`rlari Yevgeniy Yevtushenko kabi buyuk rus shoirlari tomonidan tarjima qilingan. Shuningdek, 1991-2011-yillar o`rtasida shoirning «Iymon yog`dusi», «Erkin havolarda», «Ardaxiva» va «Xaloskor Ruh» kabi kitoblari chop etilgan.

Omon Matjon bugungacha ham faol ijoddan to`xtamaganini aytadi. Uning «Diydor Aziz» deb nomlangan yangi kitobi shu kunlarda dunyo yuzini ko`rgan.

«Shayx Najmiddin Kubro, To`rabekaxonim haqidagi qissalarim, istiqlolimizning 20 yilligiga bag`ishlangan she`rlarim «Diydor Aziz» nomi bilan shu kunlarda chiqdi. Suyukli rafiqam Maqsudaxonimga bag`ishlangan kitobim bu», deydi shoir.

MING BIR YOG`DU

*Ma`rifiy doston yoki
«Xamsa» dan bitiklar*

Olam muttasil aylanib,
o`zini yangilab turibdi, lekin
juda ko`p savol va muammolari o`sha-o`sha.
Biz esa hamon «kim aybdor-u, kim gunohkor»
degan ikkinchi darajali gaplar bilan bandmiz.
Ulug` bobomiz o`zining ulug`vor ijodi – tariximizning,
madaniyatimizning, jahon adabiyotining gultoji bo`lgan
buyuk «Xamsa»sida bu jumboqlarning deyarlik
barchasiga aniq va lo`nda javobni besh
yuz yil burun tayyor qilib qo`yibdi.
Biz uchun yaratilgan bu asarga
bu nurli merosga qonuniy
vorislik g`ururi bilan
qarashimiz zarur bugun!
Ayrim bir kishi «Xamsa»ni
to`lalgicha ilg`ab-uyqab olishi
qiyin. Bu kollektiv mehnatni,
uyg`un idrokni talab qiladigan ish!
Har bir avlod bu borada o`z faolligini
ko`rsatishi kerak.
Ushbu yodgorlikka murojaat
qilar ekanman, mening maqsadim
bitta: shavkatli bobomizning ming

bir xislatli ming bir yog'duli bu asarini
tashviq-targ'ib qilmoq va ilohiy
iste'dod egasiga yana bir bor
ta'zim qilmoqdir.

Muallif

BU OLIY FAZILATLI ODAM KIM?

Qaerdan tushyapti bu nur!
Kim tushiryapti uni ko`zimizga?!
O`h-ho`! Bu najib ranglar-chi?!
Bu – avval tariximizdan xabar!
Bu – madaniyatimizning oyinayi jahonnomasi!
Vaqt o`yinlaridan,
Zulmat dovonlaridan,
Jaholat devorlaridan o`tibon,
bizni topdi –
Peshonamizda aks yetdi!
Bu nur bizniki!
Bir-birimizga yaxshiroq, yaqindan qaraylik:
Hammamiz shu nur elchilarimiz,
Hammamiz shu nur farzandlari!
Lekin... nega muncha begonasiraymiz!?
Nega muncha nifoq, nizo, nadomat, nola,
nosog'lom nazar?
Toleimizda Nur borligini bilmaganimiz uchunmi?
Loqayd, johil, g'ofilligimiz uchunmi?..
Keling, bu nur taramlari bo`ylab ketaylik.
Qo`lingizni bering, kaftingizni, panjangizni!
Inson panjasi – uning kichkina quyoshi!
Qayu «Xamsa» kim, mahzani durri noyob,
Qayu panjakim, panjayi oftob!
YURAKLARNI YO`LGA, YANGILIKKA UNDOVCHI
«Turtki» ning tub manbalari ne?!
Yurakning ilohiy nurga Intilishini,
Xohishni nima tug'diradi?!
Bu – elning baxt, oliy maqsad sari intilishidan
paydo bo`lgan qudratli ohangrabo!
Bu umrning o`z mangu musiqasiga intilishi!
Gul atrini sabo shiddati mashhur etdi.
Harakat qo`rqinchli, hadikni yenguvchi!
Istabon, ey xasta Navoiy, navo.
Bo`yli safarga qilur ersang havo,
Yo`l yomonlig'u yaxshisidin yema g'am,
Bismilloh degilu qo`yg'il qadam!

O`RTA VA BARCHA ASRLAR MA'RIFATCHISI

yuragiga uning baytlari zarrabinidan
qarashga jur'at etdim:
Shu'laga intilganlarni tabriklayman!
Kitobni varaqlash hali hechdir!
Undan dona topmoq...

boshqalarga buning xabarini bermoq ma'rifatdir.
O'tmishda shamga o'zini urgan parvona QAHRAMON edi!
Bugun nur parvonalari Jaholat.
Birqolipchilik, Yakkafikrchilik
va h. k.larning
Yaltiroq shishasiga urilib o'ladilar.
Olamni yoritgan quyosh,
har bir odam yuragiga ham, ro'shnolik ber-da!
Bahor, olamni uyg'otding,
uyg'oqlarning-da boshini sila, endi!
Ma'rifat donolar ittifoqi!
Ka'baki, olamning o'lub qiblasini,
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.

BAYNALMINAL TARG'IBOTCHISI qat'iy:
Dunyo zabtiga har qanday intilish – zobitlik!
Baynalminal – o'z millating saxo nurlaridan
o'zga ellar ko'ziga, kaftiga surmoq!
Evaziga ham shuni kutmoq!
Dehlaviy, Nizomiy, Jomiy!
Ustozlar kalomida barcha millatlarga saboq bo'luvchi
kuch bor, xislat bor!
Yigirmanchi asrning barcha ustamon bosqinchilariga
axloq darsi bo'lsin bu bayt:
Bo'lmadi bir mulk sari kinaxoh,
Kim bu dog'i chekmadi ul yon sipoh!

YORQIN MUBOHASA, TENG MUSOBAQA TARAFDORI
o'z "Xamsa" sini olam madaniyatiga ko'zgu etdi:
«Xamsa» – o'zbek xalqining yuragi!
Bu – olam o'zida aks ettirgan,
so'ng olamga shu'la yo'llagan oyina!
Boshqa millatlar hayotida yuz bergan
har bir chaqin, yo'lqindan
ruh oluvchi, yanada ravshan tortuvchi ko'zgu!
Ustoz o'z hamkasabalarini, kelar shogirdlarini
o'z xalqi boshidagi tojni yanada porlatuvchi
durdonalar yaratishga chorlaydi:
Forsi el tapti chu xursandliq,
Turk dog'i topsa berumandlik...

SHOIR, O'Z ONA TILINING DONORI!
Shoir o'z jon so'zini merosdan,
o'tganlardan oladi.
Zamonaviy til sheva-lahjalaridan yig'adi –
Tiniq mezon, sezgir tarozu bilan o'lchab!
Harakatdagi olamni odam to'kis idrok etolmaydi,
uni so'z suvratlantirishi mumkin!
Falakdan shunday ochil so'z so'raki,
uning nuri, qudrati
elga ulashganda ham zarra kamaymasin:
Rang kamoloti, ma'no mujassamligi,

ishlatilish o`rni, maqsadi,
yuki, uch-to`rt ma`noni sig`dira olishi, ishorat quvvati,
tarixiyli, nafisligi...
Asrni ham, lahzani ham sig`dirishi...
So`zimiz mavqei Ona tilimiz uchun mavqe!
Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So`z bila hayvondin anga imtiyoz.

ONA TILINI MILLATNING BOSH ILINJI BILGAN TILSHUNOS!

Iztiroblarimiz izhori, borligimiz timsoli,
kelajakdan umidimiz – Ona tilimiz!
Tog` salobatini tog` dovonlariga chiqqan biladi!
Gullarni bir-biridan mehrlil odam farq eta olar!
O`zga bog`larning iforini elchi xabaridan
tuyib bo`lmas!
Xalqning tili o`z yeri, o`lkasi tabiatining
ham tug`indig`i!
Tabiati kambag`allasha boshladimi, tiliga
ham ofat yaqin!
O`zbekiston!
ulug` daryolar, tog`lar, qirlar,
bog`u o`rmonlar, sahroyu gulzorlar diyori!
Azal boy hayvonot va nabotot dunyosi!
Sening birgina gullaring nomini
to`la sanay bilgan odamga ham ta`zim qilaman!
Besh yuz yil burunoq o`zbek tilini buyuk bobom
jahon maqomiga chiqarib qo`ydi-ku!
Bu tilda faxr va g`urur bilan,
mukammal gaplashdi-ku –
Boshqa tillarga ham ehtiromini izhor etgan holda!
Ibtidoiy an`analarni buzib,
o`z tilida bitdi-ku «Xamsa»ni!
Nazm biyik masnadida o`lturib,
Olima nazm ahli tuman ming turib,
Bazmda shohona yasab sozu barg,
Boshim uzra egi qo`yub nimtark, (n. – bosh kiyimi)
Turk surudi bila solib qo`lum,
Qilsam anda: «Hay tulugim, hay tulum!»

TURON ZAMINNING SIPOHDORI

El dahosini ming bir buloq der!
Ming bir buloq – ming bir ko`zgu:
O`zi ne bir tashna lablarga obihayot.
O`zi ne-ne nafaslarning
tirikligiga guvoh, oyina.
Xalq ertaklari,
Xalq qahramonlari,
Xalqning iztirobkashlari –
xalqning kelajakka yo`llagan najot elchilari!
Elim, besh kuningni emas,

Kurradagi besh qit'aga hamroz hayotingni o`yla!
Bu anjumanda, boq, birov oldda, birov ortda, birov chapda va...
O`ngda turkinavoz urub doston,
Qo`zg'alib har navoda Turkiston!

OLIY QADR DURLAR IJODKORI, SHE'R HOMIYSI

She'rni tirik jondek ulug'lar!
So`zga baland mavqe beruvchi a'mol she'rdir!
Tilni tiniqlik tekshiruvidan o`tkazuvchi – she'rdir!
Nafosatni davr qog'ozlariga muhrlovchi ham!
Eng mudaddas dostonlarni omon saqlab qolgan ham u!
She'r – qo`shiqqa ma'no,
She'r – oshiqqa hujjat!
Hatto Islom mafkurasi o`z bosh kitobini
she'rda bitdi...
She'r! Necha zamonlar xalqning Bosh so`zi,
«Xamsa» misolida
Asosiy qonuni bo`lib keldi!
Nazm anga gulshanda ochilmog'ligi,
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i.
Bo`lmasa e'joz maqomida nazm,
(e. – mo`jiz akorlik)
Bo`lmas erdi tangri kalomida nazm,
So`z aro yolg'on kabi yo`q nopisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

ILOHIY SEZGILARI UYG'OQ KISHI olaning Katta sari ham, Kichik tomon ham Cheksizligini anglar!

Har ikkalasini tan olgan kishi
Xar ikkovini ham asrashga moyil bo`lar:
Daraxt
o`z bargchalari orqali gaplashadi Quyosh bilan!
Zamin bilan esa eng nozik tomirlari orqali!
Kim bu gulistonkim erur bu jahon,
Balki jahone gul ichida nihon.
Kim ulug'roq, anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

O`Z SIG'INCHI BOR ODAM!

Inson umrining bosh ma'nosi e'tiqodidir!
Iste'dod egasi!
Sen qo`riqxonaning tojdor turnasi bo`lma,
yurtingga bahor yo kuz xabarchisi bo`l...
hayot e'tiqodli kishilar bilan ma'noli,
Yurt e'tiqodli kishilar bilan fayzli,
Mansab, bir kunlik rizq, tama k o`yida qolganlar-chi?
O`z qorni davlatining elchilari xolos...
Ro`zi chun muncha fusunsozlik,
(f. – nayrangbozlik)

Mansab uchun muncha dag'abozliq.
(d. – hiylakorlik)
Bul el erur barcha yomondin yomon,
Kimki yo`q andin yomon, andin yomon.

OTA BILAN ONANING JONKUYARI
O`z farzandlik burchini, oila boshliqlariga hurmatini
Yurtiga bo`lgan mehr bilan bog`laydi.
Bunda uzilish bo`lsa,
unda buzilish yuz berar!
Buni o`zingga ogoh maqomi qil.
Kelar avlodningning, xalqingning
omon va muqaddas qolishining ushbu
oltin qoidalarini bajarmoqqa unna:
Boshni fido ayla ato qoshig`a,
Jismni dil sadqa ano boshig`a.
Lekki jahoning`a tilarsan fizo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun-kuningga aylagil nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

MUHABBATNING BEDOR KUYCHISI
o`z afsungar tili bilan e`tirof etadi:
Parvoz shahdini unga Ishq bergan!
"Xamsa"ning birinchi muallifi ham Muhabbatdir!
Olis visol, yonma-yon hijron –
sevgining abadiy suvratlari.
Qodirlik tuyg`usi ham muhabbatdan!
Balki bu olamning ijodkori,
muallifi ham Ishqdir!
Bo`lmasa ishq, ikki jahon bo`lmasin,
Ikki jahon demaki jon bo`lmasin.
Ishq ul tanki, aning joni yo`q,
Husnni netsun kishikim oni yo`q...

OSHIQLAR SARDORI
Majnunni o`zidan qiyos – kuylaydi.
Farhodni o`zidan qiyos – ulug`laydi.
Bahromni ham o`zidan qiyos – ta`riflaydi.
Dunyo xalqlarining
ja`mi qahramon oshiqlari
bir bayroq ostiga yig`ilsa,
yaxshi qo`shin bo`lar edi
dunyoni yangilash uchun!
Oshiq oni bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko`ziyu ham ko`ngli pok.
Kim bu sifat ishqda mag`lub erur,
Har neki andin kelur, ul xo`b erur.

ZAMON MUAMMOLARIDAN LOL ZOT aytadi:
Charxning kaj o`yinlariga inoq jamoat bilan,
Turmush ko`z boyloviga yoru vafodor bilan,

Davron dami-taaddisiga hushyor hamkasaba bilan,
bas kelish, javob berish mumkin!
Tengquringning, shogirdingning
yoki ustozingning yangi bir ishidan:
«Ko`nglum aro dag`dag`a soldi havas!»
«O`zni biyiklar ipig`a bog`ladim!»
deb xitob qila olmoq na baxt!
Savru gulu lola xaridori bor,
Lek o`tunning dog`i bozori bor,
Fard kishi davrda topmas navo, (f. – yolg`iz)
Yolg`uz og`ochdan kim topmish navo?!

TO`G`RI SO`Z MIRZA, TIK QALAM KOTIB:
kim aytdi, mundin so`ng donolar izzatda,
johillar xor yashaydi, deb!
Kim aytdi ixtironi hamma shod kutadi, deb!
Kim aytdi adolatparvar endi omonlik ko`rar, deb!
Boshingga nimalar keladi-yu, boshing nimadan ketadi, bil!
Podsholarning «rost» so`zini taftish eta ko`r-chi?!
Xonumoning taftishga tushadi, joning...
Ul kishikim tuzluk erur shon anga, (t. – to`g`rilik)
Dushman erur gardishi davron anga.
Kimki bu davronda qilur rostliq,
Yo`qdir ishi g`ayri kamu ko`stliq. (k. – nuqson)

O`ZLIGINI, KAYFIYATINI AYON ETA BILGAN KISHI
Imkon, Erk, Burch huquqini talab etadi.
Mola odamlar boshini emas,
Urug`lar tushadigan maydonni tekislasin!
O`zni ko`rsatish imkoni hammaga teng berilsin!
Lekin o`zni ko`rsatganlarning imkoni
hamma bilan baravar qilib qo`yilmasin-da!
Zamon dehqoniga haqiqat urug`ini ekishga
va uning mevasini olishga ko`mak ber!
Molasiz, ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas, necha yakson ichar.
Necha zarurat ichra qolg`on chog`i,
Chin demas ersang, dema yolg`on dog`i.

ILMSIZLARDAN ZOR CHEKKAN ALLOMA
aytadilarki,
Zamon teskari evrilgan zamonda
ilmlik o`z boshiga,
ilmsizlar el boshiga kulfatlar soladi.
Chala olimlar ul-bul bilganlarini ham
johil sardorlar xizmatiga qo`yadilar.
Yoshlar ilmga mehrsiz,
dunyo shundoq qurilgan ekan-da derlar.
Zulm durur ushbuki bir notavon
Ilm tilab, shahridin o`lsa ravon.
Bo`yla g`amu mehnatki davron chekib,
O`nu o`n besh yil yugurib, jon chekib,

Ilmni kim vositai joh etar, (j. – martaba)
O`ziniyu xalqini gumroh etar.

ILMU AMAL TARAFDORI

bu ne`matlar uyg`unligini yoqlaydi.
Chin olim kishilar xayol yetmagan joylarda
saho va imkon eshiklarini ko`ra oladi.
Ochish, kirish odamlarga havola!
Qog`ozga yozilgani emas,
aqlga bitilib,
yurakni junbushga solgani ilm!
Olim agar qat`i amal aylasa,
Ilmig`a shoyista amal aylasa,
Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavharu kon, har ne desang, oni bil.

MA'NAVIYATDA OLIY MARTABALI INSON

Martaba egalarini ma`naviyat shior etishga chaqirdi.
Saroy pinjida buyruq bajaradigan yirtqichlarga emas
ahli donish, ahli zakovatga joy ber!
(Iskandar maqomini qo`llab).
Ammo ko`p zamonlar buning aksi evrila berdi.
Oqibat el, bir kun, bir oy emas,
asrlar farovonlig` topmay o`ta berdi.
Razlga rif`at, bilim ahlig`a ranj.
(rif`at – yuksak martaba)
Tog` uzra xorovu yer ostida ganj.
Kushki, bog`ir yormoq o`lub kom anga,
Shod iligi ustida fom anga. (f. – ko`rinish)

QILNI QIRQ YORGAN KISHI

bir hikmat aytsa,
qirq ma`no chiqadi.
Ammo biron-bir sohani, usulni, tajribani
o`zgalar maqtovi, izohi bilan takrorlab,
bilimdonlik da`vo qilganlar qancha!
Ovloqda yotgan tosh yozuvni cho`pon har kun ko`rar...
Ammo shu toshda, xuddi shu toshda o`zini,
elini, olamni halokatdan saqlab qoluvchi
Sirli kashfiyot bitilganiga ishi bo`lmas!..
Ammo aybli narsani ko`rishga ko`pchilik usta.
Ayb ko`zi chunki bo`lur tez bin,
Zahr ko`rar, garchi erur angubin. (a. – asal)

OLAMSHUMUL IDROK EGASI

O`z maslakdoshlari sha`nini yuksak tutadi.
Ilm tabiatning insonga eng oliy ehsoni,
bu ehson unga falakka tikilmoqqa jur`at berdi.
Yerni o`rganmoqqa rag`bat, kelajakni o`ylashga surur ato etdi.
Olimlar jamiyat umidi, tayanchi, xazinasasi...
Ahli donishga tosh otuvchilar kimlar?
Boy amaldor bilan olim hammomda uchrashdilar.

Ma'dani inson guhari so`z durur,
Gulshani odam samari so`z durur!

FAQAT XALQINI O`YLAGAN INSON

o`tmish zamonlarda
payg'ambar, vali nisbalari ila ulug'langan!
O`zining bir zumlik oromu nash'asi uchun,
yaqinlarining manfaati uchun, kelgindi-bosqinchi
hukmdorlarga oy ko`rinish uchun
ozmi o`z xalqini azob-uqubatlarga,
kamsitish va tahqirlarga,
tazyiq va cheklovlarga chidashga, chidashga
ming usul bilan majbur etganlar!
Ozmi?! Ozmi?! Ozmi?!
Har millat o`z yerida, o`zi xohlagan,
qulay va qoyim bo`lgan,
bola-chaqasiga ham
meros, qonun-qoida qilib qoldirishi mumkin bo`lgan
Xayot, Sharoit, Tuzum, Tartibni
Tanlashga, O`rnatishga va Yashashga Haqli!
«Xalqim!» deb g'urur bilan xitob qila olgan har kim,
«Xalqim!» deb yig'lay ham bila olsin.
Xalqiga shu jihatdan yordamchi,
odami, farzandi, vorisi bo`lmog'i kerak!
Ammo «Xalqim, millatim», deb ayta olmagan odam
hali odam emas,
u bir qop go`sht, suyak,
o`ziniyam xalqiniyam istagan itga talataveradi.
Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo`q xalq g'amidin g'ami!

FALAK YANGILANISHLARIDAN XABARDOR MUBOSHIR

charx aylanishida bir adolat borligidan
dalolat beradiki,
yaxshi-yomon tomonlarini farqlash bizda qolgan:
Nega tabiat hamma narsani almashinishga majbur etadi?!
Nega goh kunni osmonga ko`taradi, goh tunni?
Nega to`rt faslni, yilni, asrni
muttasil yangilaydi, qayta quradi?
Dengizni bulutdan elab yangilaydi.
Urug'ni tuprog'dan o`tkazib yangilaydi?
Odamni farzandlari qonidan
g'alvirak qilib yangilaydi?
Tugun ochadi yangi tugunni ko`rsatish uchun!
Shu ulug' harakatning ongli ishtirokchisi,
odam, tushun,
nega ufq ikki joyidan tugun: Shom va Tong!
Ko`rmak ila fahm qilur barcha el,
Kim nega bog'labdur ikki yerda bel?
Qani jahondovari Chingizxon,
Qani jahon xoni Temur Ko`ragon?

SHOHONA SIFATLAR EGASI – kamtarlikning quli.

Go`yo hech kimga e`tiroz aytolmasday...
Ammo qo`shin-yaroq yig`moqdan tinmay,
o`zgalar yeriga to`ymas nazar bilan boqib,
mayda-kichik xalqlarni
ming nayrang bilan toptab, chegarasiga olib,
pinjidan chiqarmay, zulukdek so`rgan
to`ymas bosqinchilarga nafrati benihoya cheksiz!
Iskandarning so`nggi, foje soatlarining tasviri:
U o`zi tez zabt etgan yerlaridan tez ketdi –
tobutdan bitta bo`sh qo`lini chiqarib, namoyishkorona:
Jismida jon yo`q, bu makondin borur,
Holi ilik birla jahondin borur. (h. i. – bo`sh qo`l)
Kimki, jahon mulki havasdir, anga
Ushbu ilik tajriba basdir anga!

HALOL IMON, HUSHYO`R AQL EGASI

mayxo`r-ichkilikbozlardan nafratlanadi.
Jaholat va g`afolat balchig`iga botgan bu turqlar
pokdomon kishilarga tixirlik qilib suykansalar,
pokiza buloqlarga cho`chqalar kelib tumshuq tiqqandek,
jirkanadi!!!
Bunday badtarin mastlikka tushgan
kajta`b bir shoirning ko`ziga esa
o`zining bema`ni va mujmal barcha aytimlari
sehr dunyosi bo`lib ko`rinadi.
Mastu dovdur oshiqning ko`ziga zolning qizi –
xuriliqo!
Baxtsiz ota kayfda o`z o`g`lini o`ldirib shodlanadi.
Bodaga ko`rguzsa kishi xiraliq,
Aql chirog`iga berur tiraliq. (t. – qorayish)
Buki mayi jahl ichasen behisob,
Bo`lg`usi bir kun senga bu ehtisob. (e. – hisob-kitob)

ODIL SO`Z, O`TKIR KATXUDO dashnom beradi:

Ey, o`z holingni bilmay, kattaliq qiluvchi kimsa!
Ey, tinmay shoh nomidan so`zlovchi takabbur to`ra!
Tegrangga xushomadgo`y, ta`magir nusxalarni to`plab,
mansab obro`, e`tibor talab qilasan elu davlatdan!
Bu mukofotni hech tuzuk zamonda na shoh,
na davlat beradi.
Bu – tegishli ulush yo haq emas,
bu – har kimga el beradigan ma`naviy baho-ku?
Xosaki bir johili duni taboh, (d. t. – past, buzuq)
Jahdu jid etgay talab o`ziga joh. (joh – mansab)
Necha lavand oldida borcha najis, (l. – yaldov,
n. – iflos)
Birida ne aqlu ne idroku his.
Eyki xarob etti takabbur seni,
Soldi takabburga tasavvur seni.
Arzi hunar bo`lsa yigitlar ishi,
Qilsa ayon o`z hunarin har kishi!

DONISHMAND MUALLIM

suyukli shogirdlariga umrning bahori va kuzi-yu,
bular orasidagi shiddatli farqni o`qitadi:
Ey, kuzda yalang`och asirdek diydirab turgan daraxt,
sen emasmiding bahorda guvva gullagan
yashil mushakboz?!
Sen emasmiding bebaho gullaringni
keldi-ketdi yellar yo`liga shoshilib sochgan?!
Na tong bayroq ko`tarsa safga turding,
na jon halak shomning holidan xabar topding...
Yigitlik degan nodir in`omga
Shu bo`ldimi topgan javobing?!
Kimki yigitlikda sarafrozdir, (s. – baland, shod)
Buki boshin yerga qo`yar ozdir.
Andaki qilmoq kerak ish, qilmadim,
Ish qila olmas kunini bilmadim.
Ohki umr o`tdi jaholat bila,
Qoldim o`lum vaqti xijolat bila.
Vaqt kamu, yo`l uzunu may achchig`,
Asru qatig` hol yetubdur, qatig`... (a. – g`oyat)

INTIZOM UYINING MUBORAK TABIATLI OG`ASI

aql egasini ham, tiyiqsiz hislar jinnisini ham,
kuch egasini ham, huquqli amaldorni ham,
ogoh etadi:
Qilma ulus irzu iyoliga qasd, (i. i. – nomus, oila)
Aylama el joniyu moliga qasd.

YURTI BILAN FAXR ETUVCHI BOG`BON

o`z shahrining gullarini shuncha ta`riflar:
Gullari nav`ini ne de – oncha gul,
Oncha ne gulki sanayolg`oncha gul...
Sahnida bir gul chiqorib bir yig`och,
Har gulning atri borib bir yig`och...

ADOLAT MARTABALI HAKAM belgilaydi:

Shodlik mavqesining yuz qoidasi bor,
shulardan birinchisi Adolat!
Adolat shohning ko`ngliga kirgandan keyingina
el ichiga kira oladi.
Shoh «Adolat!» deb bir aytsa,
Eldan ellik aks-sado «Sadoqat!» bo`ladi.
Adlning bir qoidasiga
amal etmak,
dinning yuz qoidasini bajargandan afzal:
Buki erur adlg`a andin baland,
Dindog`i yuz qoidai dil pisand.
Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.
XALQPARVAR SIYMO xo`rlangan bir bechoraning
arzi bayoni cho`zilib ketganini ayb bilmaydi,
aksincha!

Uzun arzin sabr bilan tinglamagan shohning
aqli qisqa!
Barchani teng tutushning qoidasi boshqa,
yaxshi-yomonga teng qarashning ma'nosi bo'lak!
O'lgan birovni qayg'urish
o'zgalarni o'ldirish hisobiga bo'lmasin!
Yaxshi-yomonga chu teng o'ldi karam,
Bo'ldi yomonga ko'pu yaxshig'a kam.

BEKORCHI MASHVARAT-MAJLIS, UZUN
VA'ZXONLIKLAR YOVI
davrada bahs, qarama-qarshilik qo'zg'alganini
yomon demaydi,
Cho'zilib ketganini ayblaydi.
Bundan elga ne natija deb o'ylaydi.
Bo'lma ma'lul, o'lsa kengashda talosh,
Asru uzun dog'i kerakmas kengash.
OSHKORALIK, ERKIN FIKRLASH TARAFDORI
shohlarni o'z fikrlariga el fikrini solishtirib ko'rib,
so'ng hukm chiqarishga chaqiradi!
Aksi bo'lsa, elning tiliga, diliga,
qo'liga kishan tushgani.
Odam bitta ota-onaning farzandi,
Lekin u umrida o'nlab shohlarni ko'rar?!
Ammo shoh ham, fuqaro ham el farzandi-ku?!
El farzandi bo'lish –
elning orzularini o'ziga padar qilish!
Aylama o'z ra'yiga ko'p e'tiqod,
Mu'tamad ra'yidin ista kushod. (m. – ishonch)
Shohki ra'yini ko'p etti pisand,
Ra'y ko'rar el tiliga soldi band.

DAVLATNING, ELNING NAZARIDA BO'LGAN KISHI
O'z «men» ini nima qilishi kerak?
Boshni ko'tarsa kibrga do'nsa,
egsa xokisorlikka ketsa.
«Ulchaki...» bo'lgani durustmi?
Ulchaki «men-men» desam yaxshiroq,
Yaxshilar o'lsun bu yomonlikdin yiroq.

BUYUK “IMKON” LAR EGASI
Buncha ilojsiz ham ekan:
Davlat xizmatida turgan ijodkorning –
san'atkorning holini kim so'raydi?!
Uning imtiyozi imkon izlashida ekan, xolos.
«Oh, mening holima yuz qatla oh...
Hamma undan umid tilab keladi, yordam, adolat...
Ilhom qushi qo'nmog'iga qani tinchlik, orom, sukut?
Ilhom bilan baravar arzchi ham eshik ochsa...
Ayturig'a chunki qo'yuldi ko'ngul,
Aytmay o'n bayt tutildi ko'ngil.
Kim, bor edi boshima ko'p mehnatim,

Yo`q edi bosh qoshig`ali fursatim.
Birdam ulus mehnatidin kom yo`q,
Bir nafas el javridin orom yo`q.
Go`shai xilvat aro aylab nishast,
Ta`bni qilsam edi fikratparast...

IXTIROLAR OSHUFTASI

bu yolqinli hayajonni qaydin olar?
Ko`ngliga ilhom dag`dag`asini,
bu buyuk dostonlarga ibtidoni kim berdi?
Shuncha tirik rangni bir kamalakka yig`gan kim?
Kim bu cheksiz iztiroblarning kuychisi?
Xo`sh, anavi toshbag`irlarning me`mori kim?
Ko`zdan yumalagan durlarning ustasi-chi?
Bu dilkash navoning uzilmasligi nedin?
Bular borini paydo aylagan ishq!
Birin ul birga shaydo aylagan ishq!

YURTNING KATTASI

kichiklar dardidan ham yig`lay oladi,
Boqiy g`oyalar taajjub nazardan tug`ilgan!
Kattada kichikni ko`rgan
kichikda kattani ko`ra biladi.
Sen pisandlisan:
birovlar dilidagi kichik dardni katta anglaysan!
Sening katta darding birovlar uchun garchi nopisand!
Ya`ni, har bir xalq jahonda o`z haqini bilsin,
Shuningdek, har bir farzandini ham himoya qilsin.
Sening borliging qayu kimga yoqmas,
lekin seni istovchi minglar bor!
Ki har ne olamda sug`roda mavjud. (s. – eng kichik)
Bori bu olamda kubroda mavjud... (k. – eng katta)
Yana bir buki hech ish hodis o`lmas,
Birovgakim anga bir bois o`lmas.

JUR`AT QUSH SOLUVCHISI

buncha ilhomni, qudratni qaydin oldi?!
Faqat yaxshi niyatdanmi?
Ulug` muddaoni ulkan himmat tug`maydimi?
Himmatlilik baxtini kim berdi?
Toza lafz, toza andoza, toza nazar, toza vijdon!
Hamma zamonlardagi – hamma joylardagi
qora kuchlarga
birgina oq sahifadan
muzaffar o`qlar ota bilish shundan!
Hanuz etmay qalam yozmoqni odat,
Eshikdan kirdi iqbolu saodat!
Falak yanglig` biyik himmat bu bo`lg`ay,
Quyosh yanglig` arig` niyat bu bo`lgay.
Biyiklik keldi himmatdan nishona,
Ki himmatsizni past etdi zamona.

BARCHA ZAMONLARNING NOTIG'I

tarixdan, barhayot yuraklardan, bugundan
o`z yangi so`zini dadil so`zini topadi:
So`zning kuzgi oltin yaproqdek havoda chiroyli uchib,
axiran yerga xazon uyumiga qo`shilgan emas,
hechsa, xivichdek, Havo kesib,
o`nga tashlasalar ham charsillab uchqunlar otgani chiroyli!
Topilg`ay shoyad andog` bir necha so`z,
So`z aytur elga ul yon tushmagan ko`z.
Ani nazm etki tarhing toza bo`lg`ay,
Ulusg`a mayli beandoza bo`lg`ay.
Agar tuproq tutsang bo`lsun oltun,
Oqizsang qatrai Xay durri maknun, (x. – tomchi ter)
(d. m. – noyob dur)

ULUG` XONADONNING PADARI BUZRUKVORI

hukmda qat`iy:
Uyning to`shagiga kelajakda boshqalar oyoq qo`ymasin!
Yurtning gulshanini begonalar bosqilab yurmasin!
Shu bois o`z xonadoningga ham, xalqingga ham
to`p-to`p sog`lom farzandlar meros qoldir!
Toki, kelajaging – yurtning egasiz qolmasin!
Xumda ikki ming yil qolib ketgan don topib ekilganda
yana yaxshilik ko`kka bo`y cho`zdi, boshoq tugdi...
Kishi gar qilsa ming yil podsholiq,
Jahon mulkiga aylab kadxudoliq,
Chu tortar oqibat jomi fanoni,
Borur dam fahm etar bir damcha oni:
Ne chakkay ko`kka boshin tojdori,
Yo`q ersa bir dur andin yodgori.
Bu o`tlug`din erur bag`rimda dog`im
Qurutmasun debon davron o`chog`im.

BOLAJONLI OTA farzandining

Farhoddek yetuk-komil,
uyning qalqoni, elning qo`rg`oni bo`lishini istar!
Bu bog`da begona daraxt yo`q.
Farzandlar kamoli – el kamoli!
Ziyrak va tadbirkor bog`bon
har bir niholning holidin har lahza xabardor;
uning har kurtak, har bargidagi o`zgarish –
bog`ning kelajagidan bir xabardir:
Ne ishkim charx etar izhorin aning,
Burunroq ko`rguzar osorin aning.
«Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqirini kasb etmagan ilm.
Demonkim ko`ngli poku ham ko`zi pok,
Tili poku, so`zi poku, o`zi pok».

KASHFIYOTCHILAR PIRI har bir fasldan, –
uning rangi va holatidan,
kelish tarzidan ta`sirlanishi, sirlanishi bor!

Chunki har yurakda
butrama bahor, nag'masoz yoz, ko`z yordi kuz,
tosh qotdi qish
fasllariga tegishli ayrim xos kalit bor.
Inson goh unisi, goh bunisi bilan
sir ochay deb ovunadi,
Hayrat, umid xazinasini topadi:
Havo dog'i bulutdin kiydi sinjob,
Bulut dog'i havoga sochdi simob.
Qamar sarchashmasi har tun to`ngub muz,
Muz o`lg'on qatralar girdida yulduz.
Muz aylab yer yuzin oyina oyin,
G'alat qildim degil, oyinai chin.

SALTANAT JONKUYARI

ikki narsaning tashvishini chekadi:
fuqaroning fikrini chetlab,
zulmkorga amal berilsa yoki ishboshi olim bo`lsayu
johillar undan zarra seskanmasalar...
Shoh odamlar boshiga mushkul masalalar qo`yuvchi emas,
odamlar mushkulini oson qiluvchidir.
Ikki holat kulgili:
kitobning bahosini bilmaydigan shoh
olimlik da'vosini qilsa;
Birmi-ikki kishiga ham ish buyurolmaydigan olim
taxtga intilsa...
Bilimlar olimning jahlini sezsin!
Zolimlar shohning qadrini bilsin!
Agar zolimg'a yo`qdir shohdin boq, (b. – qo`rquv)
Erur ul xushdilu, mazlum g'amnok.
Ne sud, ar ilm aro fardi zamondur,
Chu jahl ahlig'a biymidin amondur. (b. – xavf)

DONISHMAND QARIYA ogoh etadi:

Tabiat umrning har fasliga muayyan vazifalar beradi,
umr shu hikmatlari tufayli qaytarilmasdir.
Ne so`z, eng baland shoxlardagi mevalarni
kuching borida tepasiga chiqib eysan,
qariganingda qo`ling yetgan shohlarni paypaslaysan.
Umr pillapoyalariga bepisand har say'i harakat kulgili!
Havas bo`lsa qarig'a navjuvonliq,
Xijolat zohir aylar sargironliq.

MUNOSIB VORISLAR TARBIYALAGAN OTA uchun vasiyat

farzandga otaning umr oxirida aytadigan so`zi emas!
Bu otaning unga o`zi ko`rguzgan umr namunasi, hayot tajribasi.
Nihol bitta parvarishingga
o`n yaprog'i o`sib javob bersa, ne baxt?!
Atokim sen kabi farzandi bo`lg'ay,
O`lum vaqti yetishgach g'am yegaymu,
Agarchi o`lsa ham o`ldum degaymu?!

SAXOVATLI YURAK saho tarqatishi oqibatida

so`nadimi? Yo`q!

Olov – uchqun sochgani sayin porloq tortadi –
sachrab kuygan har bir uchqun o`rnida
yonishga yangi nuqta ochiladi, imkon paydo bo`ladi.
O`tkir ko`z aldamaydi o`tmas idrok aldaydi.
Kichiklarga kichikdir umr asosi,
Ulug`larga ulug`roqdir qiyosi.

HIKMAT XAZINABONI

O`z farzandini hayot va tarix g`aroyibotlaridan
ogoh etadi,
lekin aslo qo`rqitib,
intilish, fikr, xayol yo`lini yopib qo`ymaydi.
Baxtli otaning umri
yaxshi farzandi ila elda obro`li, davomli.
Lekin ota bu eski sandiqning
ham umid, ham tahlika manbai ekanligini aytsin:
– Ki bu sanduq sirrin kimsa bilmas,
Kalidi yo`qturur, qulfi ochilmas.
Ani ko`rdung, bilurning fikridin kech,
Ki biz ham ko`rduk, ammo bilmaduk hech.
– Dedi: – Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Olib boshim, demay obod ila cho`l,
Ham ul maqsad sari tutqumdurur yo`l.

NASIHATGO`Y ODAM qisqa va ruboiy so`z aytsa,
hamma zamonlarda e`zozlandi!

Tegrasida odil maslahatchilari bo`lganlar –
o`lim qarshisida ham so`nggi bir ilinji
bor kishilardir!

Maslahat berishdan chekingan bilimli odam –
g`arazli odam.

Bittaning yoki mingtaning nafi uchun qilinadigan
nasihat bor.

Undovchi nasihat, qaytaruvchi nasihat,
bilib-bilmay, vaqti-bevaqt dilingan «nasihat»...

Odamiga qarab,
foydasini o`ylab qilingan nasihatlar bor...

Nechuk bilmay degay so`z ahli hikmat,
Xususan so`rsa oni ahli davlat.

Ko`ngul dardig`a darmondur nasihat
Qiloli ulcha imkondur nasihat.

MING XIL BOSQINNI KO`RGAN SAYYOH

bosqinchilarning hamma toifasidan nafratlanadi!

Ja`mi ezilgan xalqlar nafrati ularga bo`lsin!

Barchasining quyoshi zanglasin, daryosi chirisin!

Bir yurtga boshqa yurtning qo`shini, odamlari

faqat ofatdan xalos etishgagina kirsin!

Unga yordam berib qaytib chiqib ketsin!

Yerini qo`lidan chiqarmay yeb yotish u yoqda tursun,
millatning tili, dini,
odatlari, ko`nglini buzish ham bosqinchilikdir!
Bitta odamning erki deb necha xalqlar kurashayotgan
paytda,
asoratda qolgan kichik bir xalqni ko`ra-bila turib,
jim qolish – jinoyatdir yoki jinoyatchilarga
sheriklikdir!
Iskandar yurishlaridan ibrat olsinlar:
Emas erdi mamolik fahti maqsud, (m. – mamlakat)
Erur erdi aholik fathi... (m. – ofatli joylar)

YANGILANISH TASHABBUSKORI

O`z ruhini yangilashda tinmaydi.
Chunki bu mashg`ulotdan tinmoq – orzudan,
hayotdan voz kechmak!
Yangilanish – atrofga o`zgacha boqishdan,
muddao yo`lini qayta ko`zdan kechirishdan boshlanar.
Har bir narsani
e`tiroz, shubha, inkor
elagidan o`tkazib olmoq ham zarar qilmas!
O`tguvchi yilning ustiga qish bekorga oq yopmas!
Falakda kun bilan tun tenglashgan kunni
xalqimiz Navro`z deb bejiz bayram qiladimi?..
Yana Farhod kiydi ish libosin,
Boshida toza aylab muddaosin.

TABIAT VA MUHIT SOATSOZI biladi:

olam harakatida bejiz va bevazifa narsa –
unsur yo`q.
Tiriklik soati to`xtamasligi uchun
inson bu ulug` harakatni idrok va hurmat
etmog`i kerak!
Hatto qorong`u g`ordagi yoqimsiz o`rgumchak ham
balki, osmondanmi-erdanmi,
yaqinlashib kelayotgan hodisaning
xabarchisi bo`lib chiqishi mumkin-ku!
Lekin boshqa bir g`orda
o`zini arbob-alloma sanagan bir o`rgimchak
Shogirdlarini, pashshalardek,
yaxshilik dasturxonini xira qilishga undaydi...
Bo`lub g`orida har dun ankabuti, (d. – past, nokas)
Bir usturlobi gardun ankabuti.

BARCHA ZAMONLARNING SUQROTI

o`tgan barcha zamonlarda o`z ustozlari,
kelar zamonlarda shogirdlari borligini sezadi.
Dil uchun Adolat qayg`usidan o`tkir qayg`u.
Xayol uchun Adolat fikridan yuksakroq parvoz,
Umr uchun Adolat jangidan ko`ra ulug` ma`no bormi?
Adolat izlab keldingmi, xush kelibsan bu uyga!
Modomiki, bugun umring bir kuni o`tdi.

Bu kun Adolat izlaganlarga qiyin bo`lmayaptimi?
Muni bilkim, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindonidur asru.
Safo kelturdingu xush kelding oxir,
Qorong`u uyni ravshan qilding oxir.

ISHNING KO`ZINI, VAQTNING SIRINI BILGAN MO`JIZAKOR

Goh Vaqtdan, Zamondan ilgari ketadi,
God davrdan ham yuksala oladi,
Qani barcha go`zalliklar
o`zlarini himoya qilabilsalar!
Na boshi va na oxiri ko`rinadigan
yumush bilan band bechoralarni ko`rib,
indamay keta olmaydi,
Yuragida nido, isyon portlaydi!
Na quvonch, na umid, na ilhom bermagan mehnatni
e'tirozsiz qabul qilaberuvchi kimsa quldir!
Shundan ish buyuruvchi unga harna zulm qilishga
maylli.
Haqiqatdan xabarsiz kimsalar,
riyo luqmasidan «qorin to`q» –
so`ksiz ham o`ksiz
kun ko`raberadilar.
Ammo bezovta qalb bularning ahvoliga
chiday olmaydi:
Bu mehnatkim, chekarsiz rozni ayting,
Ham ul anjom ila og`ozni ayting,
Ki nevhundir bu ranju ibtidongiz,
Qachonlardur falakdin bu balongiz?!
Ko`rib sizni tutun boshimg`a oshti,
Tutun nekim, ichimg`a o`t tutoshti...

ISHQ MA'BUDIGA TOPINGUVCHI

Oshiqni o`zini himoya etishga chorlaydi!
Oshiq yurak bexos yashin tekkan g`aram emas.
Dovdir shamol uni har yon sochmasin!
Bu olovni butun olam ko`rishi shart emas.
Uning yolqini sevikligining yuragiga tushsa bas!
Endi bu o`zni ikkovlon himoya eting!
Sevgilingni o`ylashdan ortiq o`y,
uni istashdan ortiq istak bormi?
Bu dardlardan xabarsiz kishi savodlimi?!
Ammo bir tomonning jununlig`i
ikkinchi tarafga ziyon yetkizmasin!
Ki ey, farzand, birdam tut o`zungni,
Dame asra ko`ngul birla ko`zungni.
Seni devonalig`; gar qilsa mag`lub.
Pari paykar bo`lur el ichra mahjub. (m. – uyatlig`)
O`zungni asra birdam, bo`lma g`oyib,
Ki dahr ahli tilab topmas maoyib. (m. – ayblar)

QIZLAR MAJLISINI OBOD ETGAN SHOIR

qizlarning o`n xislatini maqtaydi,

Shu martabaning barcha qizlarda bo`lishini

orzu qiladi:

Mana o`rta asrdayoq qizlarimiz uchun

AMAL QILGAN talab, huquq, qoida!

Biri ash`or bahri ichra g`avvos,

Biri advor davri ichra radqos. (a.– musiqa ilmi)

Biri mantiq rusumida raqamkash,

Biri hay`at ruqumig`a qalamkash. (h.– astronomiya)

Birining shevasi ilmi haqoyiq,

Balog`atda biri aytib daqoyiq.

(d. – nozik ma`nolar).

Biri tarixda so`z aytib fasona,

Biri hikmat fani ichra yagona.

Hisob ichra birining zihni borib,

Muammoda birisi ot chiqorib.

MUHABBAT DOSTONI PAHLAVONI o`z qadrini biladi.

Sevgi – milliy tuyg`u, ming rang tuyg`u,

chin oshiq bu xislatlarini oyoqosti qildirmaydi,

O`zi haqida fikrlar o`zgarganida ham o`zi o`zgarmaydi.

Chunki, kamolat mukammal o`zlikdir,

qozonilgan, erishilgan o`zlikdir,

U o`z suratini insonlar ko`ziga o`z harakatlari

bilan chizadi.

Bu aks, bu in`ikos ibratli, ta`sirli!

So`zidan zohir asrori ilohiy,

Jamoliddin ayon anvori shohiy.

Xirad dehqoni mundog` nuqtai der:

«Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer!»

VAFO DOSTONLARI MUALLIFI

sevgida Vafoni

nafaqat ishqning, insoniylikning ham

toji deb bilar!

Bu xislat qizlar yuragida nechuk?

Ishq allaqachon hokim yurakka

o`zga birovdan sovchi kelsa...

Xisravning sovchilari haqda Bonu Shiringa aytdi!

Ul sho`rlik qizning tushgan ahvoli va nogoh

ko`tarilgai mavqei:

(Farhodning uni xayol qilishdan o`zga ilinji yo`q paytda!)

«Boshimg`a tig`i g`am sursang ne bo`lg`ay,

Bu so`z deguncha o`ltursang ne bo`lg`ay?!

Manga ne yoru ne oshiq havasdir.

Agar men odam o`lsam ushbu basdur!»

ISHQ ELINING SHOHI hukm chiqaradi:

Ishd gavharining o`rni faqat yurak tojida!

Shodlik toji bu gavharga martaba bo`lolmaydi!

Qo`shin yig`ib qo`l yetmas qo`rg`onga hamla qilish qayda,
oliy xislatli bir barnoning yuragini
yolg`iz zabt etmak qayda!
Falak yerga oshiq bo`ldi –
kamalakdan ko`prik qurdi!
Ichib may, saltanat ilmay ko`zumg`a,
Qilay zulm, elga qilg`uncha, o`zumg`a!
Kerak ishq ahli qul bo`lmoq bu so`zga:
«Ki shahliq o`zgadur, oshiqlik o`zga!»

SHOHLAR SIYOSATINING NAYRANGLARIDAN XABARDOR SHOIR

Xisrav monand shohlarni zorlanib fosh etadi:
bir xalqning yer-mulkini ming zulm, fitna-aldov,
kuch va qurol bilan bosib olib, toptaydilar.
Endi bu bosqinchilar o`zlarini aziz tutishlarini,
tili, tarixi, madaniyatini hurmat qilishlarini
talab ham qiladilar!
O`ljasini yeb bo`lgach, yerga ag`nab,
yaxshi hazm bo`lsin uchun
uv chekuvchi yirtqichlar hali ham bor!
Bu zolim endi o`zini oshiqi bechora,
g`amxor qilib ko`rsatsa-chi?
Jafo maydonig`a hardam surib ot.
Kishi andin nechuk qilg`ay mubohot?!
(m. – faxrlanish)
Qilib el mulki ichra qatlu toroj,
Olay deb mulk elidin taxt ila toj,
Shikastig`a sitam yoyin qurarsen,
Eshittim, ishq lofin ham urarsen!

SALTANAT VAZIRI shohdan doim odillik tilaydi.
Adolat mezonini kecha-kunduz ishlatmoqni talab etadi.
Chunki butun xalqning ixtiyori bir odamning
qo`lida-ku!
Shoh bir harakat bilan mingning taqdirini
o`zicha yechadi!
Tag`in buni u adolat deb kekkaysa-chi?
Aybsiz aybdorlarning g`amini kim yeydi bu dunyoda?!
Shoh adolatasos intizomni qattiq tutsin!
Shoh yolg`on hukm chiqarishdan qo`rqsin,
yolg`onchilar esa shohning adolatidan!
G`azab tig`in chiqorsa podshohlar,
Ulug` mujrimcha bordir begunohlar.

HAQQONIY OSHIQ Farhod qudratiga
Majnun ozodligiga erishadi.
U zulmlar, ta`qibkorlar ustidan,
bir fasl bo`lsa-da, yuksala olgani uchun ozod!
Tabiat farzandligini tark etgan kishi
tuzum, jamiyat farzandi ham bo`lolmaydi!
Chin oshiqlarda tongga, quyoshga

bevosita munojot etish huquqi bor!
Muhabbat – odamga ruhiy nafasat,
shaxsiy kamolot yo`lida
xizmat qilishga birinchi chaqiriq qog`ozi!
Ey ishq, olamni yangila,
odamni yangila!
Sovuq ohimni bilurtib damingdin,
Ko`zum yoshini anglat shabnamingdin!
Meningdek bo`lmasang qayg`u ichinda,
Nedin gah o`tdasen, gah suv ichinda?!

HIJRON IZTIROBU NASH'ASIDAN OZURDA JON
yorini tusab, xayoli olamning ja`mi –
olis-yaqin go`zal, sirli nuqtalariga yuguradi.
Har bir sayyoraga suyuqlisi rasmini chizadi.
Ma`shuqasi ham xuddi shu ko`yda ekanidan bexabar!
Chinakam oshiqlar bir-birlariga yozgan
xatlarning mazmunlari doim bir xil!
Necha ming yil qilib sayr, emdi tolding,
Va yo baxtim kibi uyqug`a qolding?!
Quyoshingni quyoshimdek yoshurding,
Manga hijron tunin haddin oshurding.

DO`ST, HAMDAM KISHI do`stini yo`lda tashlab
ketmaydi,
Do`st begonalik sifatlarini zohir eta boshlasa,
taajjub bilan hayqirmaydilarmi?
Qo`llar bir-biriga uzatildi.
Qo`llar endi bir-biriga tegar payti
«do`st» birgina lahza chetga
boshqa nimagadir chalg`idi...
«Qo`lqop» bilan ko`rishildi!»
Rafiqu yorliq mundoq bo`lurmi?!
Amonatdorliq mundoq bo`lurmu?!

O`Z TAQDIRI NOMIGA NOMA YOZGAN FARHOD
nogahonda suyuqlisidan yo`qlov xatini oldi!
Ayol zotidan xat olmoq
ne baxt erkak uchun!
Ayol maktubi!
Sevguvchi dildor yuragi!
Nechog`lik erkaklik, shafiqlik!
Nechog`lik vafo, fidoyilik!
Ayolning shunday bir xatini o`qish uchungina
Olamga kelsang arzir!
olamni savodxon qilsang arzir!
Dunyo poytaxtlarida
ayolning ishq maktubiga haykal qo`ying!
«...Ne bo`lg`ay erdi charxi zulmpesha
Meni sendin judo qilmay hamesha,
Xiroming chog`i yo`ldosh o`lsam erdi,
Sukunating vaqti qo`ldosh o`lsam erdi,

Ayog' sunsang bo`lub g`amdin xaroshing,
Mudom o`lsa edi qo`ynumda boshing.
Ko`rib xoru xas o`rnungda, nihoniy
Sochim birla supursam erdi oni.
Yuzungni olmasom erdi engimdin,
Aritsam erdi ashkingpi yengimdin...»

FIRIB, FITNA, ALDOV O`LDIRGAN QAHRAMON

o`z qarshisida nochorsinib turgan zol kampir
qissasini eshitdi.
Bu mujdada bir yolg`onni ham sezdi.
Bu – olamni boshqarib turgan yolg`onning
bitta shoxobchasi ekanini ham tuydi...
Lekin gap sevgilisining o`limi ustida edi-da!
«Shirin» degan so`z bilan «O`ldi!» degan so`z
yonma-yon eshitildi?!
Endi «Farhod» degan so`z yonida
«Tirik!» degan so`z eshitalishi unga or!
Dunyodagi ja`mi hasadgo`y, g`arazgo`y, buzg`unchilarga
Farhod qarg`ishi tegsin:
«G`araz gar jon edi, olding ano hoy,
O`luk tandin ne istarsen yana hay?!»
Ko`ngul qonin ichardin to`ygil emdi,
Meni o`z mehnating`a qo`yg`il emdi...

MAXLUQOT DUNYOSIDAN XABARDOR,

Farhoddek kuchli zot ham ulardan yordam tilaydi.
Ular Farhod o`limida odamdek motam tutib uv chekadilar.
Quvlik, qasdlikdan yiroq bu maxluqlar yig`isi
baxil, qadr bilmas tirik «odam»larga go`yo saboq!
Mohir tarbiyachilar saboq uchun
maxluqot dunyosidan ham misol topa oladilar!
«Vafo birla muhammar hilqatingiz,
Murakkab mehr birla tiynatingiz.
Nifoqu g`adrdin tab`ingiz ozod,
Yo`q ul yanglig`ki xayli odamizod...»

YURAGI TOZA SIYMO inson yuragini

tun qorong`usidan kichrayib,
bazo`r omon chiqqan shabnam donasiga mengzatadi.
Qiyinchilik bu bilan tunganmaydi – endi boshlanadi.
Yurak shabnami quyosh qarshisida chiqqan sayin,
nurni o`zida kun aks etkazgani sayin...
halok bo`ladi!
Qora sahnani kichik bir sham nechuk yoritsin!
Davron qorong`usi qarshisidagi inson yuragi,
taqdiring shu!
Kishining necha ko`prak gavdari pok,
Aning bedodidan ko`prak alamnok.

QAYTAR DUNYO O`YINLARINI KO`RGAN ALLOMA
biladi:

Xisrav Farhodni sargardonlikda o`ldirdi,
Farhod yuragini junbushga solgan Ishq isyoni,
afsus, Xisravga qarshi qo`zg`olonga aylanmadi.
Balki u shuning uchun buyukdir,
balki shu bois uni davron bepisand halok etdi.
Xisravni so`ngroq o`z o`g`li o`ldirdi:
balki qismat Farhodning qoni uchun shundoq
xun talab qilganmidi?
Lekin kim nima uchun o`ldi?!
Shirinning o`limi-chi?
Uch saltanat boshida fojea!
Baloni Xisrav boshladimi?
Yo muhabbat uchun doim jazo tayyor etib turgan
qora kuchlar bormi falakda?!
Birovg`akim birovdin yetti ofot,
Hamonokim qatig`rog`dir mukofot.
Vafoyu mehr tuxmin ekmak avlo.

FOJE MUHABBAT SHOHIDI xabar qiladiki,
Farhodning o`limini eshitgach,
Shirin uning jasadini o`z qasriga oldirdi.
Farhodning boshi uzra o`ltirib,
erka kulimsirab, uning qo`llarini siladi:
“Bu qanday uyquki, boshiga
Quyoshi kelsa ham uyg`onmasa!”
Shirin o`ziga ham shunday ilohiy uyquni orzu qiladi...
Va, Quyosh, mana, uning boshiga necha-necha ming bor
Tikka keldi, hamon u uyquda...
Qo`yubon ro`y barro`, do`sh-bardo`sh,
Bo`lub o`z bedili birda hamog`ush,
Ko`nguldin shu`laliq ohe chiqordi,
Ko`zi hamxobadek uyqug`a bordi.
Ne uyqu, kimsa ondin qonmas uyqu,
Qiyomatg`a degin uyg`onmas uyqu.
Bu bo`lsa uyqu, uyg`onmoq ne ya`ni,
Muningdek uyqudin qonmoq ne ya`ni!

DIYONATPANOH AMIR
Olimu ulamolar suhbatini sog`inadi!
Xuroson va Movorounnahrning yirik davlat arbobi
Har lahzada necha el bilsa savol-javob!
Dabdaba, qudrat, shon, hukmfarmonliq –
Bari uning xizmatida hoziru nozir.
Lekin ko`ngil... Lekin ko`ngil...
O`zga sirli olamlarga ochiladigan
ul kichik eshik qani?
Faqirlar uchun katta darvoza qani?
Muttasil yuksalishga zina qani?
Birovkim qilsa olimlarga ta`zim,
Qilur go`yo payg`ambarlarga ta`zim.
Erursen shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shoh sen.

TARIXNI TO`G`RI TAHLIL ETUVChI yaxshi biladi:

Millat taqdirida shaxslar nechuk xizmat etadi!

Adolatli shoh taxtga o`zini emas,

Xalqi, Vatani taqdirini ko`taradi!

Endi uni el o`z ko`kragida yuksak ko`taradi!

Asli, bu – dono shohlarning qismati:

Temurxon naslidin sulton Ulug`bek

Ki olam ko`rmadi sulton aningdek,

Aning abnoyi jinsi bo`ldi barbod, (a. j. – qarindoshlari)

Ki davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul, ilm sori topti chun dast,

Ko`zi olinda bo`ldi osmon past.

DAVRLAR VA HUKMDORLAR SHAJARACHISI bitadi:

Har xalq har millat o`z tarixini o`zi yozsin!

Bu – uning Adolatnomasi bo`lsin!

Tarixi – millatning guvoohnomasi.

Unga har kimning yangidan ism qo`yishga haqi yo`q!

Uni har bosqinchi, har yangi shoh

o`ziga qulaylab qayta yozdirishga ne haddi bor?!

O`z tarixidan, undagi katta-kichik shaxslar tajribasidan

zamon xabardor, ibratdor bo`lsin:

Qayu zulm ayladi, qay bir adolat,

Ne ishga ayladi har bir dalolat?!

Ne ishdin mamlakat obod bo`ldi,

Qayu ishdin ulus barbod bo`ldi?!

Nedin topdi mamolik istiqomat,

Ne ishdin elga yuzlandi salomat?!

TINCH IJOD IMKONINI AXTARGAN SHOIR

kerak – nokerak tashvishlaridan xalos

bo`lishni orzu etar!

Dehqon bir parcha yeriga don tikib,

atrofni devorband etadi,

qushlardan qo`riqchi yasaydi,

garmsellar ihotasini qiladi.

Shoir... o`zini ihota etadigan muhitni...

qalamiga kapalak ham xalal bermaydigan sokinlikni...

Fazo uchqunlarini chars-churs o`ziga yig`ib

Falakni kezayotgan Yer ovozin eshitishni...

Halollikni istaydi, tusaydi, so`raydi...

Shoh esa goh-goh uning xabarini tutsa,

rag`bat gullarini yo`llab – qo`llab tursa...

Farog`at kunjida bir go`sha tutsam,

Meni el, men dog`i elni unutsam,

Bori ashg`oldin shah tutsa ma`zur,

Ki bo`lsam so`z demoq shug`lig`a ma`mur.

Yana shoh iltifoti bo`lsa gah-gah,

Ki bo`lsa nazm yo nozimdin ogoh,

So`zimg`a gah berib isloh din zeb,

Gahi in'om etsa so`zga targ'ib...

ULUG' MUDDAOLI YURAKka ofarin!
Elning asl farzandlari o`qiydi bu dostonni!
Biri o`z san'atini osmon etadi!
Biri ilmi bilan bashar idrokini charxlaydi!
Biri hunar bilan qor ipagida gullar tiriltiradi!
Biri yer fanining otasi bo`ladi:
to`rt faslning sirlarini kaftidan o`qiydi!
Biri tarixi, ona tilini, so`zini olamshumul etadi!
Xalqning boqiyiligiga buyuk asos emasmi bu kitob?!
Faqat o`qisalar,
Tatbiq etsalar, bir-birini qo`llasalar, bas!
O`g`lon! Qo`lingda na qutlug` hujjat bu?!
O`qi har harfini baralla!
Agar bir qavmi, yuz, yo`qsa mingdir,
Muayyan turk ulusi xud meningdir.
Olibmen taxti farmoning`a oson,
Cherik tiqmay Xitodin to Xuroson.
Ko`ngul bermish so`zumga turk jon ham.
Ne yolg`uz turk balkim turkmon ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtiga bir devon yibordim.

ABADIYAT IJODKORI!

Mangulik tog`ining tubida ochildi bu buloq!
Uni Alisher Navoiy qahramonlari ochdi!
O`zi mirob, munajjim, mutasaddi!
O`zidan oldin o`tgan buyuk ustozlar bashorati bilan!
Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, shuningdek,
xalq baxshilari chizmalari asosida!
Bu chashmalar qurimasligiga sabab tog`larning
yuksakligi emas, bu obi hayotga tashnalarning ko`pligi,
intilishlarning abadiyligi!
Til! Xalq ruhining go`zalligini asrovchi tilsim!
Yurakdan chiqayotgan sirli ehtiroslarni,
orzularni olam bog`larida moddiylashtiruvchi mo`jiz a!
Ovozdan, davodan o`yib olingan musiqa.
Ey ona tilimiz!
Aytib sovrmas tarona sen-sen,
Olib qurimas xizona sen-sen.
Olam eli zarra yig`sa jovid,
Nurini kam aylagaymu xurshid?!

ZIYRAK MUALLIM bola tug`ilganidanoq unga
sifat beraoladi,
taqdirini ko`ra oladi, loyiq bilim ham o`rgata oladi.
Go`dak mahaliyoq Majnunning o`tga pinhon mayli
bor edi:
U tug`ilishidanoq ishq lolazori alangasiga tushgan!
Yo`q, yo`q, bul homila
olov lolazoridan paydo bo`lgan!

Uning tanasida, ruhida ko`zi va so`zida
sharor ko`rinmasa, demak, hayotdan keta boshlagani!
Shu olov uni hijron sahosida yondirdi,
bugun ham sahrolar olovi Majnundan meros!
O`t ko`rsaki mayl etib nihoni,
Ishq o`ti tasavvur aylab oni.
Madh ichraki tortibon fig`onlar, (m. – beshik)
Afg`onida darddin nishonlar.

QOBILIYATLI BOLALARNI TOPIB TARBIYALOVCHI

yulduzi ravshan o`g`il-qizlarni
ayrim-ayrim, dasta-dasta o`qitish tarafdori.
Lolaga e`tibor yozda kerak. Atirgulga bahorda!
Barcha gullarni gulisapsarga qo`shib kuzda
imtihon qilish mumkinmi?
Har bir o`qituvchi o`z «Qush tili» sini ato etsin
o`quvchilariga!
O`quvchilari xalq xizmatiga
albat yetishishiga kafolat bersin!
Butun jamiyat xabardor tursin maktab holidan!
Ta`limig`a belni chust qildi, (ch. – mahkam)
Ne ul dedi bu durust qildi.
Oz vaqtda ayladi zamona
Oni bori ilm aro yagona.

DONO TABIB kishi tabiatini tez uqib ilg`aydi,
Muolijani tunga qarab belgilaydi.
Ammo har kishi doim mijozini,
o`zini bilganiga ne yetsin!
Hamma balo odam, ko`pincha,
O`zi nimani xohlayotganini bilmayotganligida!
Hayotda o`zining nimaga vakil va mas`ul ekanini
bilmovchilar –
jamiyatning xastaligi!
Kim bo`lsa tabiatni muolij,
Jismidin etar marazni xorij.
Za`f ichra tabiat o`lsa mushfiq,
Behroqki tuman tabibi hoziq. (b. – yaxshiroq)

ISHQ BEDOR ETGAN KISHI o`z holidan o`zi xabardor!
Shu bois oshiqni el oqlaydi.
Ishq insonni o`smirlikdan yigitlikka uchirib
chiquvchi qanot!
Ishq – insonning hamma qushlarning qanotlarini
o`zida bir-bir sinab ko`rishi!
Ishq – yurakda to`rt faslning tez suvrat bilan
birdan o`tishi.
Ishq bor joyga g`afolat yo`layolmaydi.
Odam yuragiga boshqa muddaolar ham
Ishq kabi aniq tug`yon ila kirsadi!
Deylik, eliga muhabbat, tiliga, barcha xalqlarga...

Oliy tuyg'ular kuchsizlana boshlagan joyda
g'aflat kuch olaboshlar!
Beishq ulusqa qom uyqu,
Ishq ahlig'adur harom uyqu.

BEVAFO DUNYONING G'ARIBI
o`zi ishqidan ortiq e'tiqod ko`rmas,
O`z sevgilisidan sevikli go`zalni ilg'amas.
Ishq kulki bo`lgan joyda,
vafoga bir kaft yer topilarmi?
Lekin bu g'aribliklar
oshiqni o`z yo`lidan qoldirarmi?
Jahon shohlari birlashganlarida ham
hosil qilolmaydigan tortiq
oshiqning yuragida-ku?
Derlar menga: «Ishqni unutmang,
Layli g'amidin kanora tutg'il»
Ko`nglum g'am ila to`q ayla, yo rab,
Ishq ichra meni yo`q ayla, yo rab!
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin yuragimda qon qil.
Dardimg'a xayolini tabib et,
Jonimg'a visolini nasib et!

OYINAYI JAHONNOMANING SIRIDAN VOQIF ZOT
bu oyina faqat to`g'rilik nurlarini qabul
etishini aytadi.
Oshiqning yuragi oyinayi jahonnoma demak!
Bir kishining ko`ngli deb
ming kishi qurbon etilishini
qaysi bir oshiq buyura olur?!
Laylining otasi qizini Navfal qo`liga tushmasin deb
o`ldirishga bel bog`lagan tong chog'i...
Majnun Laylini tush ko`radi.
Layli Majnunni otasining ahdidan (tushida)
xabardor qiladi.
Majnun oh tortib do`sti Navfalni keraksiz savashdan
to`xtatadi:
XX asr jahongirlari ham
oz-moz oshiq bo`lsalar edi...
– Kin yoyin ilikdin aylagil yo`q,
Kim, jonima tegmagay mening o`q!

TUSHKUNLIK DAMLARIDA HAM NOUMID BO`LMAGAN JON
Qiyinchilik oldida bosh egib turishning
yov oldida bosh egishdan farqi bormi?!
Har yerda ham ish ilm bilan bitavermas!
Jur'at, sovuqqonlik, xayol, sabr kabi
yuzlab sifatlar nega berilgan bitta yurakka?!
Bordi esa ixtiyor ilikdin,
Ochilmas ish ul zamon bilikdin.
Jur'atdin erur nishot qilmoq, (n. – shodlanmoq)

Lekin kerak ehtiyot qilmoq.

ISHQIY MAKTUBLAR MIRZASI

O`zi yozganidan ham nafisroq,
O`zi kutgandan ham intizorroq maktub olsa,
undagi har so`z iztirobdan, har jumla donolikdan,
har urg`u sog`inchdan, har ohang sadoqatdan,
har ma`no umr yugurikligidan xabar bersa,
va u shunday boshlansa,
davomini o`qib o`tirishga kuch-quvvati yetarmidi:
«Ey ishq o`tida xasim nechuksen,
Ey bedilu bekasim nechuksen?
Holing nedurur firoqim ichra,
Fikring nedur ishtiyogim ichra?.. «

KAMTARLAR PIRI

ishq va ilhom dag`dag`asidan benasib va xoliy,
ichi g`ovak kibru havoni yomonlaydi.
Bekorchi kibrni faqat ilm va chidam yenga oladi.
Lekin baribir, gullar ichra ra`noning havosiga,
Qushlar ichra tovus tamannosiga,
Bog`da sarvning qaddi a`losiga
nima yetsin!
Shundoq «kibr» lar emasmi
bizning-da ko`nglimizni o`stirgan!
Haqiqiy oshiq mag`rurlikka moyil!
Lekin bu kibr ko`tarinkiligi emas!
U har lahzada nogahoniy xatolikni kechira oladi,
o`zi ham nokomillig`i avfini so`rashdan qo`rqmaydi.
Chiqishning ham, tushishning ham og`irligi
baribir zinalarga tushadi-da...
G`avg`oyi junung`a mubtalomen,
Boshtin-ayog`imgacha xatomen.
Yuz yil kishi umr agar tilar, bil,
Kim sabr kerakdir anga ming yil.
Kim etsa minora uchi voya,
Birdur chiqaru tusharda poya.

MEHRIBON PADAR

Barcha otalar ham sendek bolajonlimi?
Farzandining har qilig`i, har sa`yi qadamidan ogohmi?
Eslaymiz: ogohsen shohsen!
Demak, xabardorsen padarsen!
Bola tarbiyasida hech bir mayda ish bormi?
Bugun, mayda deb, bolaga singdirilmagan kichik
bir xislat
uning yuragidagi boshqa yaxshi xislatlarni ham
rag`batsiz qoldirmaydimi?!
Kuyunchak padar farzandni har tong kuzatadi:
To ilmi adabni kom qilding,
Maktab tarafi xirom qilding,
Kim fazlu kamol yoring o`lg`ay,

Ilmu hunar ixtiyoring o`lg`ay.

VISOL DOSTONINING MUALLIFI

Layli va Majnun bir-birlariga yetishgan oqshomni
behad to`lqinlanib chizadi.

Bu afsonaviy visol oddiy qum to`shagi ustida
sodir bo`ldi!

Bu ikkalovi uchun tiriklikdagi oxirgi visol!

Ikkalovi ham endi olov devona!

O`rtalarida xalal berar hech ne yo`q!

Buyog`i yetishish, erishish, birikib... ammo!

Alvon quyosh tun bag`rini yorib kirsas...

cho`g` suvga botsas...

bu vasl oqshomi tugashini bilar edilar...

Ul shom yuz ilcha gar havasdur,

Chun subh dam urdi bir nafasdur.

VUJUD ISYONLARI VA YONISHLARINING TABIBI

muolajasini xushbo`y giyohlardan boshlaydi:

Ruh davosini yangirtadi.

Musiqiy zarbu xonishlar taratib ko`radi.

Bemor hech o`ziga kelmasa, eng so`nggi chora
tig` tekkizishga majbur bo`ladi...

Lekin oshiqqlar qon tomirlari gullarga tutash-ku?!

Oshiqqlar vujudi kamalatlarga birikkan-ku?

Layli va Majnun dunyoda bir-biriga yetisholmay
o`tgan ja`mi oshiqqlarning timsoli!

Ularni osongina qo`shib qo`yish
tabibning ana shu idealiga xilof edi.

Na chora, ikki oshiqning qayg`uli taqdiri ushbu:

Har ishki o` tub haloklikdin,

Ayru emas erdi poklikdin.

Ishq ahli bu nav` o`lsalar pok,

Gar vasl muabbad o`lsa nebok?

VISOL UMIDVORI hayotda shu umidi bilan tirik:

Visol – ikki daryoning dengizda birlashuvi.

Visol – bahor buluti bilan yerning

quyosh qarshisida birlashuvi,

ya`ni kamalak, yomg`ir tug`ilmog`i!

Visol – sho`x daryo kechuvidan o`tgan uyur tulporlar.

Visol ruhning, yurakning tozalanuvi, yangilanishi!

Layli bilan Majnun birlashuvi

Vujud ustidan Ruhning g`alabasi!

Shu boisdan bu Visol abadiydir!

Chun vasl ila toza bo`ldi qoni,

No`sh etti obi zindagoni.

GO`ZALLIK VA NAFOSAT POSBONI

ijod mo`jizalarini kimlar va

qanday sharoitlarda yaratishlarini yaxshi bilar!

Tushunar!

San'atning, iste'dodning kushandalari
kimlar ekanini ham,
ularga qarshi kurashmoq yo`lini ham ko`rsatar!
Iste'dodsizlar xuruj-hasadi hosildor yerga
tushgan sho`r,
gujumlarga yoprilgan qurt, suruv oralagan
ochko`z bo`rilar!
Haqiqiy iste'dodning san'ati tabiiy va ishonarli.
Haqiqiy oshiqning oh-faryodi ham shunday
larzali va pok.
Ishq sinovida soxtakorlik tez oshkor bo`lar,
lekin san'atdagi yuzakilik va kuchanish-chi?
Kim zarqu riyovu sho`r birla
Oshiq etar o`zni zo`r birla,
Ishqi o`ti bo`lmas elga jozib,
Andoqki, ziyoda subhi kozib. (s. k. – yolg'on tong)
Mulk ahlig'a mehribonliq ayla,
Andoq ramag'a shubonliq ayla. (r. – suru, poda)
Kim bo`riliq etsa, qovla oni,
Ul yer iti birla ovla oni!

XALQNING AHVOLIDAN XABARDOR HAKAM

hukmdorlar qo`llasin deb aniq adl yo`lini yozadi,
Haqiqatni qonunga aylantirmoq istaydi:
Sen shu yerda – shu zamonda hukmronsan,
sening-da, fuqaroning-da, ikkinchi umri yo`q-ku,
«Mayli, ikkinchi umrimizda ko`rarmiz deyishga?!»
Inoyat va rizoyingni shu yer, shu maskanda,
shu zamonda ber!
Eling bugun ezilib, hatto
maqsadini ham aniq-to`kis ayta olmaydigan
bo`lib qolgandir?
Maqsudini aylay olmasa arz,
Takror ila so`ramog`ini bir farz.
Taskin bila angla xalotini,
Adl aylabon ol malolotini.

OLIY MUHABBATGA ERISHGAN AMIRning

yuragini nima ko`tardi bu mavqega?!
Oshiqni g'amdan Visol qutqarsa,
elni g'amlardan Adolat ozod etadi.
Ayniqsa, qishloqdan shaharga ish-yumush bilan
keluvchilarga
shafqat, e'tibor tayin et!
Shahardan qishloqqa rasmiy boruvchilarga
insof qonun et!
Axir eng zahmati ko`p va bola-chaqasi ko`p
fuqaro qishloqda?!
Gar shaharda istasang riyosat,
Sahroda aningdek et siyosat.
Andoq bori el ayolin asra,
O`g`ridin amonda molin asra.

XALQINING G'AMNOK BASTAKORI, HOFIZI

o`zidek nur izlaganlar uchun
o`z hayoti, iste`dodini baxsh eta oladi!
Ilmu san`at kishilari xalqini qayg`ursalar,
shu dardchillik, og`riq
elining mushkullarini oson qiladi!
Hayotda g`am ko`p, musiqiy nag`malar ko`p.
Har kimning o`zi suygan cholg`u asbobi, kuyi...
Lekin sozanda «Navo» maqomidan
chalganiga nima teng kela oladi!
Bu kamolot musiqasi!
Insong`a erur kamol matlub,
Andin dag`i dardu hol matlub.
Har kimga ulum bo`lsa vosil,
Gar dardiyu holi yo`q, ne hosil?
Mo`nglig`monu mo`ng bila payomim
Mo`nglig` kishilar so`zi kalomim!

YUKSAK E'TIQODLI INSON o`z ma`badiga sodiq.
Yuragida oliy e`tiqodi bo`lgan kishining boshiga
fisqu fasod iloni o`rlab chiqa bilmaydi,
Ilon ming tirishsin, burgutning uyasidan balandroq
cho`qqiga ko`tarila bilmas!
E`tiqodli zot – avvalo, tabiat farzandi.
Muhitning ulug`vor harakati qarshisida
ibtidoning ham, intihoning ham qiymati bir.
Inson bu harakatning qaysi pallasida ketmoqda?
Zamonidan nima samar istayapti?
o`zini, o`zligini tanish, o`ziga baho berish baxti
barcha insonlarda, hamma xalqlarda ham bormi?!
O, bu o`rta asr asoratida jizg`anak zotning
iztiroblari!
Lekin asirlik hali inson uchun o`lim emas!
O`lim – atrof hodisalarga befarq qaray boshlaganing!
O`lim – elingga qayg`urmay qo`yganing...
Imon egasi kattadan ham,
kichikdan ham imkon qidiradi.
Garchi odamning dardlari olam kattaligiga
qiyos o`lchamaydi, mo`jaz muhit tarozusida tortiladi:
Azamat bobida gumondan uluq,
Nekim andin ulug` yo`q andin uluq.
To bu olamgadur asir tanim,
Ruh to`tisig`a qafas badanim.

REJALI-TADBIRLI KISHI har ishga ilhom bilan kirishadi.
Ilhom behuda g`urur emas.
Ilhom ruh qanotida fidoyi parvozdir!
Ilhom ruhni yurakdan parcha berib oziqlantirish!
Parvozga g`urur emas, surur yo`ldosh!
Kishi nazariga g`urur aralashsa
ko`z qorachug`ining torayishi boshlanadi

Ko`rish ufqlari kichrayadi.
Ba`zilar bu hikmatni bilmay,
o`zini har yon urishi shundan
Kishilar olamga qarashlariga.
intilish mavqelariga qarab
ma`naviy mavqelidirlar.
Kimki bir ishga bo`lsa mustag`ni, (m. – kamhafsala)
Yoshunur ko`nglidin base ma`ni.
Qaysi birining ne bo`lsa taqdiri,
Yoyilib olam ichra ta`siri...
Biriga nahliqni odat etib,
Birisin mash`ali saodat etib...

AYOLLAR YULDUZINI BALAND ETA OLGAN SHOIR

Ayol go`zalligini tabiatning timsoli,
balki, tabiatning o`zi, deydi.
Ayol go`zalligi barqdek, yildirimdek,
Ko`ngil ruh osmonini g`uborlardan tozalar!
Mehri turp suvidek dillardagi toshlarni eritur!
Iffati, kamalakdek,
osmon va yer o`rtasiga ko`prik yasar!
Zahri – kuyaga qiron keltirgan yang`oq bargidek.
Duolari – dilga yangi bahralar va`da etgan
yo`llar kabi!
So`zlari, dardmanga – buloqdan olingan suvdek,
sog`lomga quyoshda yumalangan irmoqdek,
foydali, ichimli,
Xullas, ayol – olamning nurga ehtiyoji, sog`inchi.
U quyoshdan nur olib,
Kelajak urug`larin ko`kartirib beruvchi Zamin!
Zarrada mehrni nihon aylay,
Bahrg`a qatrani makon aylay!
Chun azaldan shahi jahon siz-siz,
Bo`lmasun bir lahza jahon siz-siz.

O`Z SO`ZINING MASH'ALA – MAYDONINI BILGAN NOTIQ

so`z ishlatish mavqeini xo`p biladi.
So`zining mavqidan o`zining mavqei ayon va tayin.
Har kim o`z qadrini bilishi baxt,
uni o`zgalar ham qadrlasalar ikkinchi baxt.
Qonni hech kim cho`qqidan izlamaydi,
Javohir deb yer qa`riga tushiladi!
Qaysi javharki yo`q bahosi aning.
Qon ono, tog` erur atosi aning.
Bir deganni ikki demak xush emas,
So`z chu takror topti dilkash emas.

TILSHUNOS OLIM uchun so`z tarixiy qiymat.
Har so`zining porlash o`rni, mavqei bor.
Mash`ala keng maydonniki!
Sham – bitta sahifani yoritsa-da, ko`p teran yoritar!
Har bir so`zning tarjimayi holi bor,

muayyan til muomaladagi jonli tarixdir, haqiqatdir.
Xatoliklarni davr keltirib chiqaradi.
Tarixchilar o`z shaxsiy xatolarini unga tiqishtirib,
bekinib olishlari yomon.
Chunki bitta yolg'on yozilsa,
uni xaspo`shlash uchun bir necha yolg'on yoziladi.
Lojaram anda aylagum pechish,
(l. – ana shu sababdan, p. – to`lg'anish)
Ayblig' bo`lmasin debon hech ish.
So`zda tarix ixtilofi bor,
Ahli tarixning xilofi bor.

ODIL SHOHNI IZLAGAN BAXSHI

bu maqsudni she`rda ham, qo`shiqda ham, ertakda ham
oshkor nido sola beradi!
Qahramonlar tilidan, ijrochilar tilidan!
Hatto tangri timsoli ham uning ijodida
odil shoh suvratini eslatgandek bo`ladi.
Shoir o`z zamonasidagi shohlarni xayolan shunday gapirtiradi:
Kim bu shukronag'aki qildi iloh,
Meni bu nav' olam ahlig'a shoh,
Elni shod aylamak kerakdurmen.
Adlu dod aylamak kerakdurmen.
Komsiz komin aylamak hosil, (k. – orzu, maqsad)
Benavolarni aylamak xushdil!

O`ZIDAN KETMAYDIGAN – O`ZNI

YO`QOTMAYDIGAN KISHI

atrofga tez teran nazar soladi.
Hamma uqubatlarning kaliti bitta:
yo o`zing o`z imkonlaringni oyoqostilab
yurgan bo`lasan,
yo uni boshqalarga toptatib qo`ygansan.
Yo`lingda jar uchrasa
uning vahmu sifatini aytib faryod qilish ne?!
Undan o`tish chorasin izla!
Tashnalab bo`lma bahr yoninda,
Qilma shevan tarab maqoninda. (sh. – nola,
t. – shodlik)

TOLE VA TAQDIRDAN FOL KO`RUVCHI ogoh etar:

Kimki har narsaga shaxsan o`z
na o`z yaqinlari manfaati – mavqeidan
shu lahzadagi istak-nafsi kungurasidan qarasa,
boqsa,
munday kimsa, eng nodir iste`dod egasi bo`lsa ham
tez orada ko`pga bir javob berishga mahkum!
Ma`lum guruhning xizmatini qilgan odam sho`rlik
Shu guruhning eshigiga moslaydi bo`yini!
Bu taxlit sahv qabohatlarga
mansab egalari giriftor bo`lgan esalar-chi!
Ish anga yettikim, bu yanglig' shoh

Mulk ishidin emas edi ogoh.
El bu ishidin shikoyat aylar edi,
Har kishi bir hikoyat aylar edi.

HUSHYOR DONISHMAND elning bodaga berilganini
xuddi azadordek nola bilan, nahva bilan aytadi.
Chunki motamga sabab katta:
Boda bor joyda mas'ullik yo`q.
Mas'ullik yo`qmi uy qarovsiz, mulk posbonsiz.
Uy beegami, demak, tuqqan yer oyoqosti.
Ona yer oyoqosti bo`lgach,
eng aziz va muqaddas tuyg`ularni so`rab, izlab o`tirish ne?!
Bodakim olsa ixtiyor eldin,
Ne ajab chiqsa har ne bor eldin.

ADOLAT YALOVBARDORI!
Sen har bir xalqqa har bir qavmga
yurakka keraksan!
Adolatning o`rnatilish darajasi
shu xalqning talabi, intilishiga nisbatlidir.
Adolat – ko`pchilikning bir ohangdagi
lekin zo`raygan qalb urishi!
Demak u vijdonning qo`zg`oloni, harakati!
Vijdon uyg`ongan joy
Vijdon ovozi yetib borgan joy
kelajakda adolat amal qiladigan maydon!
Lekin yangi o`zlashtirilgan joy ham bir pas qarovsiz qolsa,
kelasi yil hamma ishni boshdan boshlash kerak!
Adolat bir xalqning qo`lida
ikkinchisini boqadigan, ishlatadigan
va asoratda saqlaydigan qurolga aylansa-chi?!
Endi qachon hamma
Adolat deb bir yoqadan bosh chiqaradi?
Mulk chun shoh aqlidin qoldi,
Qildi har kim neki qila oldi.

O`Z QILGAN SAHVINI TAN OLA BILADIGAN KISHI
o`zini himoya qilishga qodir kishidir.
Vijdon azobi haqiqiy inson azobidir.
O`z jonidan xabardor kishi go`yo
o`z fuqarosidan ogoh shohdir.
Jon kishining faoliyat erkinligi, qushidir!
Bilaturib jonga ozor yetkazish,
o`rni to`lmaydigan afsusdir, nadomatdir.
Dedi: «O`z jonima ne qildim voy,
Bo`lurin bo`yla ish ne bildim voy,
Ulcha men qildim aylagaymu kishi,
Bu ish ermas edi kishining ishi!»

DO`STLIK QOIDALARINI QATTIQ TUTUVCHI
do`stlaridan ham shu sadoqat kutishga... haqli.
Ularning bevafoqliklari qancha nido, musibat,

alam,
Do`stlik – muhabbat kabi noyob mo`jiza.
Ko`z, ranglarni tuyish, idrok
inson uchun na zo`r baxt!
Shularsiz hayot ne?
Lekin safdoshlik tuyg`usi na ulug`!
Yurtning ulug` ishiga birga tiklanishga,
birga qiynalishga ne yetsin!
Qani siz, do`stlar?
Yorliq qayda ketti yoronlar!
Qilichingiz usholdimu oxir!
Iligingiz toshda qoldimu oxir!

O`TKIR LUTFGO`Y, KINOYALAR QILICHBOZI ayovsiz!
Xo`sh, hamma balovu ofatlarning sababkori shohmi?!
Mana, taxtda hech kim yo`q-ku! Qarang:
Ish faqat shohda qolsa, ish oson:
Ammo: hech nening javobgarligini
bo`yniga olmaydigan mingta xo`jayindan bitta
odil shoh ming a`lo emasmi?!
O`rmonda bulbul ovozi bir bo`lak,
qashqirlar uvillashi bir bo`lak,
ammo she`r na`rasi asrlar o`rmonning
azal ustuvorligi!
Taxt chun bo`ldi shohdin xoli,
Fitnadin xoli o`lmas el holi.

BUYUK FAYLASUF insondagi har bir o`zgarishni
atrof olamdagi o`zgarishlar bilan bog`laydi:
bir-biriga aloqasi bo`lmagan ikkita voqea yo`q,
voqealarning aloqasi bir-biridadir.
Olamni bilish idroki kishi miyasida joylashgani uchun
«Peshanangga yozilgan!» deyiladi.
«Yozilgan» allaqanday xat emas,
muayyan odamning in`ikos qobiliyati, idrok quvvati,
shuni o`z umriga tadbiiq etish qudrati!
Peshanada har kim o`zi bir ne yozishi uchun ham
joy qolgan!
Kim havodis yeri durur olam, (h. – hodisalar)
Ondin ozod emas bani odam.
Gar menga bo`yla sa`b suratdir,
(s. – qiyinchiliklar)
Chunki taqdir erur, zaruratdir.

TAQDIRGA TAN BERMAYDIGAN
Har qanday sharoitda ma`nan tik qolishni istaydigan!
Shu bois o`zini tan oldiradigan!
Qanday xalqning farzandi ekanini biladigan!
So`nggi imkonga umidini safarbar eta oladigan!
Hammaga yuksalib ko`rinadigan!
Nechuk bo`lsa, oyoq uzra turayin,
Yotib o`lguncha dastu po o`rayin!

ODAMOVI, UZLATSEVAR BANDA

o`z g`amida yolg`iz qolish uchungina
yolg`izlikka chekinmas!
Olam g`amini
ondin o`z badanida idrok etib ko`rishni istar
balki u?!
Dard hammaga aytaverish bilan ozaymaydi,
uning sababini topsang umid uyg`onadi!
Dardni, sirni birovlariga aytmaslikka sabablar ko`p:
o`zgaga ham qo`shimcha ozor, muammolar bermaslik!
Ko`pga yoyilsa, dushmanlar foydalanishi bor...
Tushunmaydiganlarning nasaq-fasodi...
Yurtning dard, tashvishi doim bir-biriga o`xshash.
Dunyoda boshqa o`xshash dardlar yo`q.
Lekin bu dard yuqimli emas, uqimli!
Yuqmagay ko`ngulga g`amim asari,
Tushmagay joningga o`tum sharari.

KO`Z ILG`AMAS HIKMATLARNING KASHSHOFI

aziyat chekadi:
iste`dodli kimsalarning ustamon, xushomadgo`y,
manfaatparastligi
el uchun naqadar ko`p ofatlar keltirishi mumkin!
Shoh buni sezmasa, battar fojea!
Zayd Zahhob xazinadan oltin o`marish uchungina,
shohga oldin xushomad yasaydi,
keyin oltin taxt yasash fikrini aytadi.
Bu taxtning zinalari shoxning oyog`i yaqinlashganda
past tushadi, o`zining niyatidek...
Taxtning to`rt baland burjiga to`rtta tovus,
to`rttasiga to`rtta to`tining nima keragi bor edi?!
Zahhob to`tilar, tovuslar shohga yoqishini bilar edi...
Chunki hunarmand edi nihoyatsiz,
Anga shah lutfi erdi g`oyatsiz.
Hunari vasfi erdi shoh ishi,
Aybini ayta olmas erdi kishi.
Bo`lsa ham aybi oshkor anga.
Qilmas erdi e`tibor anga.

MUSTAHKAM E`TIQOD EGASI

e`tiqodlar aynagan zamonlarda
ko`p kishilarning gapgib, chekinib qolishidan
xabar beradi.
Ayyor va qallob olimlar ham paydo bo`ladilarki,
Ular podshoga
yilda yigirma sakkiz bor qaytarib aytilsa ham
eskirmaydigan hamdu sano, yozuv-yorluqlar
tayyor qilib qo`yadilar!
Shoh o`zgarsa, yangisiga ham o`sha-o`sha eski gapni oyda o`n olti marta takrorlab,
hech ne bo`lmaganday davr surib yuraveradilar.
Qiziq, e`tiqodsizligi uchungina

taxt qoshida «obro`» topgan bu olimlarga, tag'in,
necha shogirdlar e'tiqod qo'yadilar,
Xushomad rev oncha ayladi paydo,
Ki ul el bo'ldilar anga shaydo.
Bori arzi irodat ayladilar.
Amri birla ibodat ayladilar,

TUSHGA TA'BIR AYTUVCHI

javobga muntazir kishining holi-ahvoliga,
orzu-istaklariga qarab tole'ini aytadi,
Tushlar asosan ikki xil: rangli va oq-qora,
biri go'yo parvoz, biri go'yo inqiroz.
Mana ikki xil tush va ularning ta'biri:
Dedi bir qushki: «Ey havas payvand,
Tushgusidir iki oyog'ingga band,
Ishratning sha'mi ko'r bo'lg'usidir,
Vatanning tiyra go'r bo'lg'usidir».
Yana bir qush dediki: «Qilma taab,
(t. – qiyinchilik)
Ki sanga sa'd bo'lg'usi kavkab. (s. – baxt)
Egningga chiqqusidir ikki qanot,
Qat' qilg'ung uchun tariqi najot».
(q. – joriy etmak)
«Bo'lg'usidir topib ko'p ishga vuquf,
Charx mushkullari anga makshuf. (m. – ochiq)
Fikr ila bo'lg'usi falak poymoy.
Charx bo'stoni ichra jilvanamoy...»
«Charx avjiga iltifoti aning,
Budur egnidagi qanoti aning».

AHLI DONISHNING AHVOLIDAN XABARDOR!

Hikmat ahli o'z davronidan ko'p o'zib ketadi,
lekin undan uzilib ketmaydi.
Hikmat ahli aql bovar qilmas narsalarni sirini
yechadi,
o'z mushkullarning qarshisida bechora va garang.
Hikmat ahli kelar zamonlarga ilg'amli
o'kiriklar soladi,
lekin bu atrofdagilarga telba qichqirig'idek
eshitiladi.
Hikmat ahli jamiyat ustida ulug'vor parvoz etadi,
lekin turmush ikir-chikirlari oldida xor va zalil.
Ne so'z, yukni siljitmoqchi bo'lgan kishiga
shu yukning bor og'irligi tushadi.
Ki nekim ahli hikmat ayladi kom,
Moni' o'ldi havodisi ayyom.

DARGOHI KENG DAVLATPANOHI uchun
fuqaro bilan, katta-kichik kasb egalari bilan
gaplasharda muhim-nomuhim ish yo'q.
Shoh uchun oliy martaba
insonlarga oliy nazar etmak.

Shohning bir kasb egasiga bitta nopisandligi
bitta kentidan ajralgani.
hikmat ijodkori lavha keltiradi:
Bir muhtoj togʻ-suv oshib, shohga bir sabad
olmurud keltirdi
va shoh qabuliga kirita olmay sarson boʻldi!
Oxir shoh uni toptirib,
muhtojligini soʻrattirganda,
u diltang holda: «Bir arra, bir tasha!» dedi.
Shoh aning hikmatini qildi savol:
Dedi: «Hikmat bukim, yonib filhol,
Qayda bu mevadin yigʻoch mavjud,
Boʻlsa borin kesib qilay nobud!»

ADOLAT OYNASINING ORZUMANDI

oqni oq, qorani qora deb –
toʻgʻri aytish, koʻrsatish mumkin boʻlgan oshkoralik
zamonni orzu qiladi.
Kaftdek buloq ham osmonni aniq aks etadi-ku?
Teran joydan qaynab chiqqanidanmi?
Zamonlarda bu oliy adolat qachon boʻladi,
buni kim quradi, kim kashf etadi?!
Mayli, afsonadagidek, toʻgʻrisoʻz kishining yuzini oq,
egrisoʻzlikning betini qora qilmasa-da!
Koʻp kishi qildi ozmoyish anga,
Aytgʻondek edi namoyish anga.
Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolgʻon, yuzi qaro erdi.

RANGLAR OʻRTASIDAGI KESKINLIKNI FARQLOVCHI

moviy rangga ichdan moyil ekanini fosh etib qoʻyadi.
Firuza, nilufar, moviy, koʻk atlas, koʻkorish rangi...
Hatto... moviy osmon – quyoshning ham kezar joyi...
Uygʻonish fasli shu rangda...
Ulugʻbek va Temur maqbarasi gumbazi ham...
Shu rangli kiyim kiyadigan goʻzallarga shoirning nazari bor.
Osmon abadiyat gullarini asrar,
shundan bir fasllik binafsha-da
koʻkka choʻzila-choʻzila jon beradi!
Xushdurur bogʻi koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.
Har pari chehraki mahvash erur,
Movi oʻlsa libosi dilkash erur.

MARDLARNING PIRI oʻz shogirdlarini
nomardlik, sotqinlik, firibgarlik,
ogʻmachilik, pisib, ortdan zarb berish kabi
inson jamiyatiga mislsiz azob-uqubatlar
keltirgan
balolardan saqlanishga,
ularni oshkor etishga oʻrgatadi.

Har kasb o`z pirlariga muhtoj.
Necha-necha toshiqqan yuraklar o`ziga munosib yo`l,
sarkarda topmay o`tib ketadi.
Qancha kuch, qancha qudrat, ibrat bekorga hayf!
Ha, rasvo yo`llardan rizq izlab umr o`tkarishdan ko`ra
poklik va adolatni bir lahzagina himoya qilmoq a`lo!
Dedikim: «Pahlavonliq ermas ul,
Kim kishi makr birla urg`ay yo`l,
Sen agar zohir etting itlikni,
Men senga ko`rguzay yigitlikni!»

TO`G`RILIGI TUFAYLI BAXTLI ODAM

har yerda, har bir ishda
ko`pchilikning xulosasiga tayanadi,
o`ziga xulosa oladi.
To`g`rining baxti – faqatgina to`g`ri bo`lib,
bir chekkada turish emas,
egri yo`llardan ham to`g`ri o`ta olganida!
So`zdagi to`g`rilik, ravon nuqtadonlik boshda;
amalda mashaqqatli to`g`rilik boshda!
Muqbil ozodai humoyun fol,
Elga maqbul etib ani iqbol.
Mudbir andoqki borsa har sori,
O`lturib yuzda gardi idbori. (i. – baxtsizlik)

AYOL ISTIQBOLIDA O`ZINI TUTA BILUVCHI SIPO ZOT

ichkilik zo`ri bilan
shahvat sori moyil bo`luvchilarni tanqid qiladi,
Tuppa-tuzuk odam – mast.
Beixtiyoru besaranjom...
Ya`ni, bog`bon ham mast,
o`g`rilar ham!
Gullar holi ne kechar?
Aylabon shahvat oni nafsoniy,
Qo`lni bir yerga sundi pinhoni.
Ki ishi uqdasidin ochib band,
Oj sandalg`a aylagay payvand.
(ya`ni, fil suyagini sandalga kirgizmoqchi bo`ldi)
Ammo ayol uni nihoyatda aql va himmat bilan
qaytara bildi.
«Ki bukun opncha mayparast o`lduq,
Kim ketib shuxu aql, mast o`lduq.
Aql etib surati saloh bila,
Haramingga kiray nikoh bila.
Chun muyassar bo`lur halol navo.
Bu haramda harom ko`rma ravo!»

MUSIQA ILMINING MUXLISI VA BILIMDONI

bu san`atga Xorazmdagi e`tiborni ta`riflaydi:
Diloromning mahoratini ko`rmoq uchun
shoh faqirona libos kiyib kelib chang eshitadi.

Bu mo`jizakor chalg`uchining chalgan kuyini eshitgach,
unga jisman yetishish istagini cheklab,
singil deb e`lon qiladi.

Musiqada Aflotundan ham o`tgan boshda bir odam
Diloromning san`atini ko`rib,
unga shogird tushishga tayyor keladi.
Erlik nomahramligi xalaqit bermasligi
yo`lini qiladi:

«Kim ko`rubtur bu nag`mai tuzmak,
Goh qatl qilib, gah tirguzmak...
Hunar umiddidin bo`lub ma`yub, (m. – ayblig`)
Ra`julyatni qilmisham maslub...»
(r. – erlik, m. – olib tashlamoq)

TOJDORLARNING KARAM VA ILTIFOTLARIDAN QO`L SILTAGAN ZOT

shohdin oxir-oqibat bir shafqat chiqib qolar deya
umidvor yurgan kimsalarni fikr, aql yo`liga chaqiradi.
Shoh mukofotini tig` qo`riqlar edi.
Sen uni olib, nima bilan qo`riqlaysan?!
Yova desen! O`zingdamu yo`q sen?
Yoki xoni hayotdin to`q, sen?
Shahki bir so`z uchun to`kar qoning,
Yana qilmoq nedur fido joning?
Qochmoq andin savob erur bu dam,
Necha andin yiroq – ofat kam.

OG`IR ZAMONLARNI KO`RGAN FAQIR

o`z qiyinchiliklarini yengishda xayol,
orzu, ertakni hamdard tutinadi.
Afsonaga murojaat qilish –
ijodga, muhabbatga tobe odamning kasbi!
Ammo hayoti, kelajagi mavhum,
qiyinchiliklar doimiy ishi bo`lib qolgan, millatni,
xalqni qanday afsona bilan aldaysan?
Lekin yurtning uchun afsonaviy
va umrlik jangni ixtiyor etgan esang,
bu orzu, bu afsona muborak bo`lsin sanga!
Kimni behush etar bu afsona,
O`ziga hud kelib istar yona?

SHOHNI BEHUDA URUSHLARDAN TO`XTATA OLGAN VAZIR

ulug` maqsadni ko`zlaydi: xalq tinch bo`lsin
Buni u shohga g`oyat ulug`vor misol bilan ishontiradi.
Millat, xalq o`z yerida barokat topadi!
Uni qo`zg`ash shohga ham, millatga ham ofat keltiradi!
Shohlarning maslahatchilariga insof bersin-da!
Tog` o`z o`rnidan qo`zg`olishini tasavvur qiling-a!
Tog` oyini istiqomat o`lur, (o. – odat)
Chun taharruk topar – qiyomat o`lur!
(t. – harakatlanmoq)

NABOTOT VA MAHLUQOT DUNYOSINING MEHRIBONI bo`l!

Bu ikkiga qilingan har jabrki javobsiz qolmas!
Bu ikkisi odamzodga kelayotgan ofatlarning
ilk balogardoni!
Bahrom yuz ming yigiti bilan bir kunlik
ov qilgan payti
yuz minglarcha jonivorning qoni to`kildi.
Bu manzara – insonning yana hayvonga aylanish manzarasi!
Undan ham ko`p tuban tushgani!
Xulosa hamma zamonlarning zulmkorlariga tegishli:
Ularning barchasini qon tutdi – yer yutdi!
Qon to`kardiki yo`q haros elga, (h. – qo`rquv)
Bo`lubon lola gul libos elga.
Qondin ul yerda guliston butti,
Go`yoki ul elni qon tutti.

OLAM KAMOLOTINI SOG`INUVCHI

olam bu saodatga faqat hamma millatlarning
teng kamolini ta`minlasagina erisha oladi!
Bu qanday rang-barang guldasta!
Har gulning o`z hidi, rangi, tili!
Millat tilining boqiy qolishini qayg`urgan
ma`rifatchi
zamonalar do`nib ko`p xonlar kelib-ketishini biladi.
Lekin el taqdiri o`z xonlari taqdiri kabi
goh past, goh baland bo`lmasin!
Har kelgan shoh fuqaroni boshqa tilda gapirishga
majbur etmasin
Hukmdorlar o`z xalqi tilida gapirsin!
Tilga tajovuz qilingani – elga tajovuz qilingani!
Erkinlikning oliy shakllaridan biri
xalqning o`z ona tilida oliy martabaga chiqishi!
Bu o`zga tillarning o`rganilishiga aslo
monelik qilmaydi!
Gap bir yerda qaysi millat vakili ko`pligida emas
bu yer qaysi millatga mansubligida!
Davlat bu tilni qonun yo`li ila himoya etsin!
Dahr aro chu turk voqi`dur,
El aro turk lafzi shoyi`dur. (sh. – mashhur)

OG`ZI OCHILMASDAN BURUN KO`ZI OCHILGAN INSON

tegrasidagi ko`p voqealarni ko`z bilan ko`rdi.
El taqdiriga mas`ul bo`lgan kimsalar
eldan yig`ilgan, talangan, olingan boylikning
eng ko`p qismini o`zlashtiraversa,
yo`lini topib gizlayversa,
bunday ajdahoyi ochofatdan el yana nima kutishi mumkin?!
Lekin el o`g`loni ko`zi bilan ko`rganlariga
so`zi bilan nafrat javobini berolmasa,
xayf unga elga farzandlik!

Toki iodshoh o`zi aytsin:
Toki tushti mening qo`lumg`a jahon,
Qilmadim yer tubida ganj nihon.
Shahki ming yil aning hayotidur,
G`araz: o`lganda yaxshi otidur!

O`Z IJODIGA TANQIDIY KO`Z BILAN QAROVCHI

she`rni shoirning farzandiga o`xshatadi.
Ne, so`z, ota uni goh taltaytirib yuboradi,
goh holidan xabar olmaydi,
xatolarini ham ko`rmaydi yo kechiradi!
Kelajagidan bezovtalanmaydi.
Ilk bora tili chiqqan bolangga
kimlar, qanday, nechuk madsadli
so`z o`rgatayotgani – saboq berayotgani
nahotki otaga befarq bo`lsa!
Bu – o`z taqdiriga befarqlik!
Chun o`g`il aybini ato ko`rmas,
Ko`rsa ham qilg`oning xato ko`rmas.
Voqean yaxshi yo yomonu ekin,
Dilrabo, yo`qsa jon sitonmu ekin?
Yaxshilig` birla bo`lsa gar shoyi`.
Bo`lmag`ay ranju mehnatim zoyi`.

SO`Z ZARGARI matnda ehtiros to`lqiniga alohida moyil.

Shoir o`zi yig`lashi shart emas, so`zi yig`latishi kerak.
O`z xalqi tarixini qayg`irib yig`lagan, qon yutgan
shoirning qalamidan kurashchan kelajak tug`iladi!
Ammo sen ilgarilovchi aql egasisan!
Yig`lab, orqada solib ketma tag`in!
Otgan o`qingning ham,
aytgan so`zingning ham izidan yetib ulgur!
Dedi: «Key dur fishonu gavhar posh!
Durru gavhar kibi nedur sanga yosh?
Bu javohir so`zung aro basdur,
Ko`z aro ehtiyoj ermasdur...»

SO`Z IQLIMINI KEZGAN YO`LOVCHI har yangi qadamni

o`zidan oldin o`tgan ulug`lar ruhini yodlashdan,
eski daftarlarni ko`p titishdan boshlaydi!
«Talab yo`lida tolpina, tirmana...»
oyog`ini faqat pok joylarga bosib,
behuda ishlardan uzoqda yurib...
Asl shoirning har bir she`ri
o`z xalqi uchun qurol, qo`llanma...
ham vasiyatdir...
“Bilik taxti uzra chiqib o`lturay,
Xayol elchisi har taraf chopturay.
Deganimni ulusqa marg`ub et!
Yozg`onimni ko`ngulg`a mahbub et!

Xalqda zebi torak ayla ani!
O`qug`onga muborak ayla ani!”

XALQNING SEVIMLI IJODKORI

o`z umri bilan xalq otlig` bu buyuk
harakat va qudrat manbaiga
yangi tug`yon bo`lib qo`shiladi.
Yorug`likning yangi manbaiga aylanadi.
Har bir kishining va har bir millat
hayotining avval-oxiri
uning dunyoga ayta olgan so`zi, harakati,
kurashi bilan bog`liq!
To`xtamasin bu jonbaxsh so`z!
O`chmasin uyimning yorug`i – xalqimning san`ati!
Yo`qolmasin bolalarimga atalgan yolg`iz merosim!
Bolam, sen ham uni asra, kelajakka o`tkaz!
Necha qidmati ortuq andozadin, (q. – qadimiyligi)
Vale dambadam tozaroq tozadin.
Jahon gulshani ichra bu toza gul,
Quyosh vardidek oliy ovoza gul. (v. – atirgul)

KASBLAR HOMIYSI, HUNAR EGASI o`z ishiga muhabbati-la,

Samarini elga zarur va manzur qila bilishi-la azizdir.
Hunar ustalari ahli donish qoshida bo`lsa,
bu – buloq boshidagi gul butasi!
Toki kesilgan ko`na tut ham,
o`tda pishgan po`lat tor ham,
chalg`uchi ham,
bastakor ham,
tinglovchi ham
sarf bo`lgan umri, mehnatiga kuymasin!
Soxta payg`ambarlar, sehrgarlar ham topildi!
Lekin gap elning nazarida, kimga
talabgorligida-ku!
Agar naqd ila bo`lsa ham yorliq,
Anga xalq qilmay xaridorliq.
Agar bo`lsa o`z fannida bebadal,
G`animatdur ul borchaga bebadal
Qayu kimsaki ahli idrokdur,
Anga jon fido qilsa ne bokdur!
Agar oyg`a tushsa ko`zi, kun bo`lur,
Qadam qo`ysa tufroqqa oltun bo`lur.

ULUG` ISHGA JAZM ETGAN KISHI

mayda-chuyda tashvishlar o`ramidan chiqib keta oladi!
O`zing g`urur ezgulik biron qilgan ishing bo`lmasa,
bugunni, shu voqelikni chamala,
elingga g`urur bo`lgulik ishga qo`l ur!
Xalqingning nomi o`zi g`urur,
tarixi surur bo`labilmaydimi senga?
O`ntaning bittasi bo`lmasang

mingtaning bittasi bo`larsan!
Elning markazi shahardamas –
mard, uddaburon, o`tkir o`g`lonlar,
farzandlar yuragida!
Ki bu mulk aro qahramon bo`lg`asen,
Ulus ichra sohibqiron bo`lg`asen.
Ko`nguldin tavahhumni aylab adam, (t. – vahm)
Ilik ishg`a ur, yo`lg`a qo`yg`il qadam!

O`TGANLAR VA YONIDAGILARNI XOS ULUG`LOVCHI

faxr va qarzdorlik tuyg`usi bilan yashaydi.
Bular yongan-kuygan davron biznikidan yengilroq bo`lgan emas.
Bizga ham oson emas.
Kishi boshqa zamonga o`tib keta olmaydi-ku?!
Kishiga o`z zamonasidagi jasorati abadiyat beradi.
Tariximizdagi buyuk namoyandalar!
Madaniyatimiz sardorlari!
Buyuk shoirlar!
Xonadonimizga yaqin, aziz kishilar, ustozlar...
Bular yo`qki, har kimki nazmo demish,
Va yo jamoatqa dohil emish,
Borig`a niyozu duodir ishim.
Alardin madad muddaodir ishim.

TARIXCHI USTOD aytadi,
o`tmish faqat shohlar shajaridan iborat emas!
Tole` kambag`alga ham yuz burishi aniq!
Ammo, «Men bir kichkina odamman
tepadagilar hal qilsin buni»
Qonunda, qarorda yo`q...
deydigan qultabiat kishilar
shu tariqa o`z «kichik» ligini
o`z peshonalariga abad bosadilar,
qonunlashtiradilar!
Kelmali-ketmali dunyo bu!
Ko`rmali-kutmali dunyo bu!
Navoiy, ajab yerga yetmish so`zung,
Ne eldur bular, xud bilursan o`zung,
Jahondorlarni jahon qilsa past,
Topa olmagaymu gadolarg`a dast?!

MANGLAYIDA SHOHLIK MUHRASI BOR FARZAND

bolalikdan bilimlar sari maylli ko`rinadi.
Kelajagi – xatti-harakatida!
Hikmat uning qoshi-qovog`i ustida!
Bekorchi mashg`ulotlar kim tomonidan
maxsus qilinsa ham
ulardan bola qanot topmaydi.
Uning har narsaga bo`lakcha –
o`z qarashi, o`z bahosi, o`z so`zi bor!
Xalqning kelajagi – har yangi tug`ilgan
go`dakning yumuq panjasida,

yumuq ko`zida! Nega birdan yig`ladi u?
Nimani qayg`urib?!
Muallimlar shunga e`tibor etsalar!
Bu hol Iskandarda quyidagicha:
Qayu ishni ta`lim qilg`on zamon
Eshitmak hamon erdi bilmak hamon.
Bilik kasbini qildi to joni bor,
Hunar bildi onchaki imkoni bor

BOG` O`STIRGAN BOG`BON biladi:
ildiz bilan barg oralig`idagi masofa –
o`z umri emgaklari!
Daraxt bog`bonning otini aytib olam
bo`ylab yurolmaydi,
lekin, bog`bon uchun bo`lak ovunch bor:
Vatan – sen yaratgan bog`,
Vatan – shu bog`dan kuch-qudrat olganlar!
Vatan – o`zing yashnatolgan joying!
Vatan – asrab qola olganlaring.
Qo`lingdan ketgan joy – g`animnikidur!
Ikingdan qochgan vaqt – o`limnikidur!
Hamon ikki shox berdi daraxt,
Birin yo`ndilar taxtayu birin taxt.

EL HURMATIGA SAZOVOR HAKAM bir sir aytadi:
elning e`tibori bu – unvon yo nisba emaski,
bugun yo ertaga, darhol yo yelkangda,
yo ko`kragingda bo`lsa!
Elning e`tibori – elning mehri.
Mehr – senga hadya etilgan qo`shimcha tiriklik, umr!
Sen endi uni elga o`n hissa qilib
qaytarishing shart.
Birovkim anga himmat o`ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand. (arj. – hurmatli)
Birovkim aning himmati yo`qturur,
G`aniy bo`lsa ham hurmati yo`qturur.

MA`NAVIYAT YUKSAKLIGINI ZABT ETGAN ZOT
bu martabaning sharafidan aytadi:
Bu – yerdan uzulgan bulut yuksakligini emas,
Endi yerga yaqinlashaolmay yig`lab yurgan...
Bu – yerdan yuksalgan tog` ulug`vorligi!
Ma`naviy yuksaklik – odamlar orasida
erishishi mumkin bo`lgan eng yuksak mavqei!
Turli balovu ofatlardan baland yurishning
ham yo`li shu!
Ne qushkim baland o`lsa parvoz anga,
Halok istamas novakdoz anga.

ZOBITLARU BOSQINLARNI KO`P KO`RGAN
G`ARIB
jahongir Iskandarni nega tengsiz

qahramon deb bildi?!
Nega unga ko`lamdor doston bag`ishladi?
Nega barcha zamonlarning
tojdorlariga saboq-namuna etdi?!
Bir millat olamda yagona hukmronlikka
intila boshladimi,
U qanday siyosat yuritmasin,
Olam qiyomat sari keta boshlagani!
Navoiy Iskandari yer yuzida chin tenglik
o`rnatmoq istadi!
O`z eliga zulm yasog`ini o`rnatgan shohlarni
tartibga chaqirdi, gapga kirmasa,
borib o`sha yer millatidan shoh tayin etdi va
o`zi chiqib ketdi!
Birontayam odamini qoldirmadi o`zganing yerida!
Millatning neki yashash-turmush tarziga aralashmadi.
Taxtga merosxo`r topilmagan joylarda
yerlik xalqning kengashi, xohishiga qarab
yangi shoh ko`tardi!
Navoiy yaratgan Iskandar obrazi –
shoirning o`z shaxsining timsoli emasmi?
«Ani elga shoh aylasam mustaqil,
Ki mulk o`z gag`a bo`lmasa muntaqil!» (m. – o` t i b k y e t i sh)

SHOHLARNING TINSIZ NIZOLARIDAN ZADA YURAK

xalq taklif qilib tursa ham
tojdan ixtiyoriy kechgan kishi haqida hikoya qiladi:
Iskandar uning qo`lidagi ikkita bosh suyagiga
ishora qilib
dedi: “Bu so`ngaklardin afsona et,”
Ne so`rsam javobi aning yona et!»
«Chu o`lganda birdur bu ikki mato,
Tiriklikda nevhun qilurlar nizo?!»

SHOHGA TO`G`RI SO`Z AYTA OLGAN DOVYURAK ODAM –

ko`pchilik uchun qayg`uradigan odamdir.
Bunday kishilarni –
Elning jonini asrovchi tilsim bil!
Shoh bu buyuk va sirli kuchni qadrlashi kerak,
chunki xalqning fikridan uni xabardor qildi.
Ba`zi muassasa kotiblari
qog`ozbozlikni haddin oshirib,
keraksiz omillarni ish yo`liga g`ov qilib
yo bekor kov-kov qilib,
davlat, yurt ishini orqaga tortadilar.
Bir hojatmand ishining orqaga surilishi –
davlat obro`sining ortga keta boshlashi!
Shohga mardlar so`z yetkursin –
shoh mardlik qilsin.
Adolat aro fasli navro`zdek,

Siyosatda barqi jahon so`zdek,
Raiyatga qilsa qalamzan sitam,
Qalamzaning iligini qilsun qalam.
Qilib zabt ila mahkam o`g`ri yo`lin,
Ulus molidin qisqa qilsun qo`lin.

ISKANDAR SHUHRATIDAN MISOL KELTIRUVCHI,

bu afsonaviy qahramon shoh bo`lsin, gado bo`lsin,
uning asosiy qimmatini – adolati deydi.
Adolat mavhum bo`lmaydi!
Uni kuylash shart emas.
Unga haykal qo`yish navro`zga haykal qo`yishdir,
U kecha ila kunduzni teng qildi!
Sayyora xuddi shu adolat zarur payti edi
Haqiqat, balki, Onadir?!
eng so`nggi, chorasiz lahza
o`gillar o`zini uning poyiga tashlab yig`laydigan?!
Lekin Adolat va Shoh?!
Iskandar nega yana osmonda?!
Adolat har qanday tuzumda,
har qanday sharoitda ro`y-rost yashashi kerak.
Unga tajovuz qilganlarni oshkora,
xalq oldida, sababini aytib jazolash kerak.
Adolat deb, yashirin kuyib-yonganlar,
Endi chiqing oldingi saflarga!
Unga oshkor jon tikkanlar haqiqiy
milliy qahramonlardir!
Haqiqat uchun kurash tugagan joyda
haqiqiy hayot tugaydi.
Yana tuzdi oltun tarozusini,
Qaviy aylab adl bozusini, (q. – kuchli, b. – qo`l, bilak).
Adalot qo`lin tutti andoq biyik,
Ki topdi amon arslondin kiyik.
Agar adl yo`q oshkoru nihon,
Yaqin bilki zeru zabardir jahon.

MALIKULKALOM OGOH ETADI:

«Qizil tiling boshingga qora balo keltirmasin!»
Til, yo`l qo`ygan xatoni qo`l to`g`rilay olmaydi.
Biron bir jinoyatga qaysi mavqedagi odam yo`l qo`ysa,
buning oqibati ham shu qadari bo`ladi
Shohlarning har qanday kalomi
so`z qo`shiniga yildirimdek tekkan buyruqdir!
Oddiy kishining so`zi ham goho
bozor jarchisinikidan kam kuch bo`lmas!
Faqat so`zi tufayli-da
Mavqei oliy kishilar ozmi?!
Yo`q ersa ikki shohi hashamatmato`,
Ayon etsalar mulk uzra nizo.
Biri bo`lsa, farzan, ulug`, bir kichik,
Bu so`z demas, o`lsa ulug`da bilik.
Qo`tonning ulug` qush aro soni bor.

Vale sung'ur oldinda ne joni bor?!

TOTUVLIK, HAMKORLIK TARAFDORI

dunyoda kin, adolat ko`payib ketganidan kuyadi.
Podsholar kelishmovchiligi olamni xarob qiladi!
Bosqinchi podsholar buzib keldi yer tinchini,
ellar tinchini.
Bir millatning baxtsizligi hisobiga.
ikkinchi bir xalq dorilomon yashay olarmikan?!
Shohlar «er hay'ati andoqki go`y» yumaloq ekanligiii
o`z harakatini oxir o`ziga qaytishini bilmaydilarmi?
Zobitlar! Har bir millatni, xalqni
o`z holiga qo`ying, o`z holiga!
Shohlar! Bitimga keling! Yo`qsa...
Bu go`yo jahon ichra to`fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to`fon, balo bahri chayqolg`oni,
Jahon ahli suv ostig`a qolg`oni.

KAMBAG'ALPARVAR: oddiy kishilarning

jahli tez o`tib ketadi.
Ammo amaldorning yuragidan
kambag'alning achchiq bir lutfi ham ketmaydi.
Oxir kelib shuning ham o`chini olish payidan bo`ladi!
Amaldorning adovati minglab kishilarga zarar.
Daraxtning uchki shoxlari barra –
yumshod bo`lgich edi...
Ammo, bu saltanat daraxtining pastki shoxlari
o`tib bo`lmas chayir, chakalak...
Tepalikdagilarni, qo`yavering, tig`dor, nayzador...
Necha shohlarg`a yaqinroq kishi,
Adovat kelib ko`prak uning ishi.

NIZOLARNI BARTARAF QILGUVCHI:

Har nizoga o`ziga mos amal bilan aralashuv darkor!
Qo`llagan quroling u yo bu tomonni
battar qo`zg`atmasin!
Birovlar nizosiga bir manfaat ko`zlab aralashsang,
ularni halok qilasan!
o`zing ham xor bo`lasan.
Shirinlik talashgan bolalarni yarashtirish na qiyin,
o`zgalar yerini talashgan bu ikki ajdahoni tinchitish,
o`ho`...
Rafiq ikki darvesh beishtiboh, (b. – begumon)
Erur yaxshiroqkim aduv ikki shoh!
Nizo ichra mundog` marotibni bil,
Qila olmog`ing chun yaqin bo`ldi qil.

DUSHMANNI OJIZ KO`RMAYDIGAN LASHKARBOSHI

dam, zug`m urguvchi har bir yovning
taaddisining sabab va imkonini chamalab boradi.
Bepisandlik xoru zorlikka uchratadi.

Bepisandlik mag'lubiyat keltiradi.
Bepisandlik yakkalanib qolishga olib boradi.
Dushman haqida bepisandlik bilan,
havoyi ma'lumot beruvchilardan ehtiyotingni qil.
Birov oddiy ko'z bilan ko'radi, birov idrok ko'zi bilan...
Notiq o'z aqli darajasida ojiz fikrlab,
seni chalg'itmasin.
Biri debki: «Ko'rgach qaro qochqusi!»
Biri debki: «Uzr eshigin ochqusi!»

ADOLATLI SHOHLARDAN ZADA AMIRning
xulosasi:

ikki shohning adovati ikki tomonga ham
g'am keltiradi!
Bu – tasodifiy qazoyi muallaqdan kelgan
g'am emas,
bu – g'araz, kin, nifoq!
Tongning alvonligi – quyoshning
shohlar to'kkan qondan
bazo'r oyoq uzib ketishi emasmi?!
Abadiy hayot, balki bittagina boychechakning
pichoq orqasicha o'sganini tinmay kuzatishdir?!
Shu lahza ichida o'zing qancha yashading!
Ketur soqi, ul mayki, jone topay!
G'am ichra o'lardin amone topay,
Ki gar davr og'u berdi Doroga bot,
Skandarga ham bermas obihayot!

FAROSAT NURI TARATUVCHI DONO

davr shohiga qoidalar chizadi:
Taxtdan shoh yaqinlarigina iltifot ko'rmasin,
olis-yaqin, kattayu kichik teng bo'lsin,
«Uluqqa uluqcha ato, kichikka kichikcha saxo!..»
Sen bir marta shoh bo'lasan!
Elning ham umri ikkita emas!
El shohdan o'ziga umr so'ramaydi,
Adolat kutadi!
Shoh saltanatni emas,
elning dahosini, ilhomi, g'ayratini boshqarsin,
yo'lga solsin!
Va gar ilgiga tushti donishvar el,
Funun ara oroyishi kishvar el,
Keraktur alar birla nav'e maosh,
Ki xotirlari topmag'ay ko'x xarosh.

BOSQINGA O'CH SHOJNI YO'LDAN QAYTARUVCHI

yurishga chiqqan qo'shin yo'lga ko'ndalang yotib oladi:
O'z eling qornini to'ydirmay, yeringni obod etmay,
chegarangdan tashqariga ko'z olaytirmog'ing ne?
Ularni ham o'z xalqingday nochor,
egiq bosh qilmoqchimisan?
Chegarangdan endi boshqa xalqlarning kuy-qo'shig'i emas,

onaizorlarning zori-faryodi kirsinmi?!
Yurting boshqa xalqlarning nafrat va
masxara nishoni bo`lib qolsinmi?
G`urbatning chegaralarini muncha kengaytirasan?
Dehqonning tomorqasini devoridan chiqarib yubor!
Farovon et!
Eling dasturxonini chegaralaridan noz-ne`matni toshir!
Agar shohdin xalq xursand emas,
Aduv qasdi qilsa xiradmand emas.
Ne dushmangadur tig` chekmak fani,
Kim o`z xaylidur sarbasar dushmani!

O`Z TAQDIRIGA O`ZI HAKAM ZOT e`tirof etadi:
kishi taqdiri o`z fe`lining egizagidir!
Ko`z nafs uchungina ko`rsa,
Idrok nafsnigina o`ylasa,
Yurak nafsdan zarb olsa,
Umrning qaerdan boshlanib qaerdan tugashini
o`ylab o`tirishga hojat bormi?!
Bunday imoratga tashqariga ochiladigan qilib
deraza qo`yish hojat emas!
Kishida ne fe`lki mavjud erur,
Ki andin ziyonbud sud erur.

SAHO VA MURUVVAT KOSIBI
o`z mehnatiga, yaxshilig`iga evaz so`ramaydi.
Ammo yomonlikni, kin va fitnani kasb etgan nokaslar
o`z qilmishlari jazosini ba`zan tezgina oladilar:
Tag`in, kelgan bu ofatdan hayratga tushadilar;
«Kim yubordi buni! Kim yomon ko`radi bizni?»
Kinchi-adovatchilarning butun umri qizigan
tova ustida...
Na bu tovadani tushib ketishni biladi,
na o`t yoqar kimligini!
Tariqi adovat shior aylasang,
Zalolat yo`lin ixtiyor aylasang,
Ne olding`a keltursa charxi dani, (d. – t u b a n)
Ko`rar lahza, ko`rgil o`zungdin ani.

ZAKOVAT XAZINABONI
har qanday boylik harakatda turmog`ini yaxshi deydi.
Odamlarni oltin-kumushdan, puldan qo`rqitib,
qo`lini ishdan sovutmoqlik nechun?
Yashirin boylik – koni notinchlik, kulfat.
Na elga, na davlatga manfaat keltirmaydigan
xazina nima, aql-idrok nima?
Bir shoirning ilhomini oldindan
rejalashtirish mumkin emas,
butun bir xalq dahosini undoq orzu qil,
mundoq umid qil deb
loyiha berib bo`larmi? Yo`q, bu qafas!
El o`zi moyil mehnat bilan yashasin-da!

Kishilar davlat boyligini ustamonlik bilan
o`marmay,
davlat ishbilarmon kishilar iste`dodidan ham foydalansin!
Agar nafdin bo`lsa mahzan yiroq,
Aning la`lidin xora ko`p yaxshiroq.
Kishinki benaf`erur maxzani,
Jahon ahlidur sarbasar dushmani.

GULGUN DAVRALAR OSHIG`I:
jazava o`yin, sarxush suhbatlar hali baxt emas!
Bu yerda hamma uchun raqs tushasan,
lekin sevgilingni o`ylab.
Hammaga kuylaysanu asosan mahbubangga!
Hammaga qaraysan, lekin
o`z gulingning o`xshashini topolmaysan...
Har qanday chiroyli davraning fayzliligi –
bunda sevgilingning, yoring
hamrozingning ham borligi!
Saltanat poytaxtga ega.
Visol – ishqning poytaxti!
Visol – to`garak olamning tortilish ohanrabosi!
Ishq bazmi hatto qishni ham qizdiradi.
Qishning uchqunlari yor xabarchilari,
Visol yo`liga oq to`shovchi xizmatkorlar.
Qiyos etmayin davru laylu nahor,
Aningdek qish ichra muningdek bahor.
Necha anjuman jannat osordur.
Tomug`dur agar kimsa beyordur. (t. – d o` z a x)

**JA'MI MANSABU NISBAVU NISHONLAR
SOHIBI**
o`z oshiqligini barcha unvonlardan ustun qo`yadi.
Odamning qolgan sifatleri
shu muhabbat shu`lasi tufayli ko`rinadi,
qiymat topadi.
Muhabbat alangasi
uzoqni ko`rish, tuyish, yaqin etish kabi
ko`p fazilatlidir.
Beishq qayda edi bu in`omlar?!
Erur ishq aro bo`yla a`jubalar,
Ki beishq bilmas bu mansubalar.
Navoiyg`a, yorab, qariyb et ani, (q. – yaqin)
Qariyb etting ersa, nasib et ani.

TAMAGIRLIKDAN YIROQ AMALDOR
tobe kimsalar oldida qadrini yuksak tutadi.
Xalqda berilgan bir noo`rin azob necha
bo`lib qaytarkin?!
Yolg`on va`dalar, behuda hasharbozliklar-chi?!
Kishilarga ular yoqtirmagan kishini
bosh qilib qo`ysang,
ularga o`zing ham yoqimsizsan.

Xalqning kirimin chamalab ko`rmay,
chiqim talab qilma!
Iskandar o`zi zabt yetgan joylarda sipohlariga
talon u yoqda tursin, ta`magirlikni ham man qildi.
Uning buyrug`i:
Birovkim tama` rishtai qilg`usi,
Aning birla bo`g`zudin osilg`usi.

DORILAMON ZAMONLAR ORZUMANDI
el farovonligi omili – tenglik deb biladi.
Tenglik – har qanday sharoitda bo`lsin!
Tenglik – har qanday tuzumda
Kishilar o`rtasidagi tenglik!
Katta-kichik xalqlar o`rtasidagi tenglik!
Mehnat – iste`dodiga yarasha samara beradigan
tenglik!
Bir qadam siljishga-da yo`l ochadigan tenglik!
Birov o`z mehnatidan boy yashasa,
shuning yarmini tortib oladigan tenglik emas,
har kim o`z mehnatining samarasini ko`radigan tenglik!
Aksi bo`lsa, yana o`sha pora, ta`ma qo`shib yozish...
Birov-birovni ayblashlar, o`lganni tepishlar...
Shunday tenglik bo`lsinkim:
Birovdin birovga yetishmay g`ame,
Kishidin kishi olmayin dirhame...

OLAMNI BILISH MUMKINLIGIGA ISHONGAN
ALLOMA
uni harakatdagina bilish, o`rganish mumkin
deydi,
Harakatda bilish, bo`lakdan butunga,
aniqdan nihonga aniq borish!
Yulduzni osmonga kim chiqarganiga emas,
avval shoir daftariga u nega tushganligiga qiziqqin-da!
Bobma-bob bilishga intilish – olimlikdir.
«Quyosh sirining mahrami, zarra mohiyatining
odami» bo`l!
Va lekin kishi zohir etsa talab,
Jahon ichra ko`ptur ajabdin ajab.
Muni ko`rmak o`lmas jahon kezmayin,
Taab zahrin o`z komig`a ezmayin. (t. – mashaqqat)

KALTABINLARDAN ZADA BO`LGAN JON
parvozlari istar!
Hammaning olamg`a o`zidek qarashini orzu qilar!
Ammo anavi buyruqbozlar, olam nadir-osmon nadir,
o`z katalagidan narini ko`rolmaydigan kimsalar-chi?!
Kallasiga kelganini qonun qilib
shuni bajarishga hammani majbur qilib
turguvchilar-chi?!
Odamlar jamoasi bulardan
jahon urushlaridagidan ham ko`proq aziyat chekdi-yov

Turli qushlarga, ularning qanotlariga,
hatto tuxumga haykallar bor!
Katakdaги tovuq qanotiga ham
«yodgorlik» qo`ying!
Katakda qolib bo`rdog`on mokiyon, (b. – s y e m i r g a n)
Ne ma`lumi uchmoqda sudu ziyon!

XALQNING OTASI!

Elning so`nggi umidi sizdan!
Sizdaylar ko`paysin, uzoq yashasin!
Cho`qqisi ko`p tog`lar abadiyat elchilari!
Shu cho`qqilar boshidagi oq mavqe
Tuqqan yerni quchish uchun daryolarga aylanadi.
Chanqoq kishi bir kaft suvni
Shu bois daryodan-da yuqori ko`tarib ichadi!
Oshiqqa lola, dardmandga shifo,
yigitlarga kuch, keksalarga qonlar teranligi...
Siz hayotning buyuk harakatiga,
kelar davronlarga, baxtga intilishiga
oq shiddat berib tursangiz bas.
Kelajak oqimi, mayli, qiyin dovonlar oshsin,
ammo pastga tushish vahmi uning nafasini bo`g`masin!
yursin, yugursin.
Tarona chekar soyir erkonda rud,
Chu turdi – tarab birla chekmas surud.

BUYUK SAYOHATCHI ko`rganlaridan albatta xulosa chiqaradi!

Kimki olam bo`ylab yursa-yu, ko`rsa-yu,
bundan na hayrat, na saboq olsa,
buni yurtga aytmasa, – dunyo kezgan sharpadir xolos!
Hatto bulut o`zi kezgan iqlimlarning
havosini yuqtirib keladi-ku?
Sharpalar, sharpalar...
O`qisayu o`rgansa-yu, muqoyasa qilib hukm aytolmasa,
buyam shu!
Minglab odamlarni ko`rsa-yu, odam tanimasa,
buyam shu!
Yig`sa-yu, nimaga sarflamoqchi ekanini bilmasa,
buyam shu!
Balki sayohatlar bu qusurlardan qutulishga
yordam berar?
Chunki: «Sayohat qilmagan odam xomdir».
Shuning uchun ham
atofingga boq, qara, ko`r, ilg`a, fikr qil:
Solib har nechuk yergakim yetsa ko`z,
Eshitib yana barcha el ichra so`z,
Ko`rub har mashaqqatda xosiyate,
Topib har mazallatdan kayfiyate...

DEHQON BOBO, YERNING O`Z EGASI! Egatlar chizig`i – uning kaftidan.

Soylar ayqirdi – peshanasidan...
Uning uyqusiz ko`z-kiprigi – tonglar otishi...
Dehqonni yeri bilan o`z erkiga qo`y!
U yerga kuch bersin, yer – unga!
Dehqon zuluk emas, yerni bemashaqqat so`radigan!
U – hamshira, u – murabbiy, u – padar...
Uning qo`llarida zamin taqdirining foli chizilgan...
Qabarchuq kafi-poyida har taraf,
To`la durri maqsud ila ikki kaf.

YANGILANISH YO`LLARIDAN XABARDOR SIYOSATDON

jamiyatda qayta qurish bo`lishi uchun,
insonlar tabiatini, ularning har birining
orzu-armonini o`rganadi.
Inson tabiati ma`nan intilgan narsalar –
ja`mi yangilanishlarning alifbosi!
Odamlarni, yangi fikr, g`oya, yo`nalish jalb qiladi!
Lekin bu bir lahzalik tamosha bo`lib qolmasin!
Bu – abadiyat uchun, ruh uchun qilingan ish bo`lsin!
Qobiliyatli yuraklardadir Iskandar oyinasi!
Oxiri majhul ishlariga behuda chiranish nechun?
Behuda ishlarga butun-butun avlodlarni
huda-behuda jalb, safarbar, sargardon,
garang etib qo`ymoq nechun?!
Har kim va hamma iste`dodi,
hatto g`ayritabiiy kuchi,
quvvai hofizasini ayon etsin!
Ne qilg`oli kimgaki niyatdurur,
Burun shart anga qobiliyatdurur.
Tajaddud erur chunki marg`ubi tab`
(t. – ya n g i l i k, m. – yo q i m l i)
Erur mujibi aysh mahbubi tab`
(m. – sabab, tufayl)

YIGITLIK QUDRATI BARQ URGAN SHAHZODA

qarigan, ishyoqmas, garang va tajang shohning
siyli borida taxtdan ketaqolmaganiga qahrilanadi!
Aslida gap taxtda yoshmi-qarimi o`tirganida emas,
kim uchun o`tirganida!
Axir butun boshli xalq,
tabiatning o`zi fasl almashinishini taqozo etgan chog`,
shu xazon, qirov urgan vujudni
o`ziga bosh qilib o`tirsa to`g`rimi?
Suf bunday sabrli xalqqa!
Suf o`z e`zozi qadrini bilmagan avlodga!
Bu shohning qo`liga boqing:
taxtning yog`ochiga tushgan qurtdan ne farqi bor?
Dimog`iga hiffat solib erdi yo`l,
(h. – ye n g i l t a k l i k)
Quloq solmas erdi nasihatig`a ul ...

ABADIY YOSHLIKKA ERISHGAN JUVONMARD
o`z yasharish sirlarini o`rtoqlashishdan qizg`anmaydi:
Tabiat yoshlik, yigitlik paytingda seni
qancha balo va illatlardan o`zi asrab-ihota qilib,
burro til, bedor yurak, barqiy xayol,
oliy aql berib qo`ysa
sen bu qaytarilmas imkoniyatlarni nimalarga,
qanday sarflanayotganingni bilmasang,
hech bo`lmasa o`zing o`zingdan so`ra:
kim, nechun berdi bu ne`matlarni senga?!
O`z xalqing tarixi ayvonidagi, bittagina bo`lsin,
ustunni tiklab qo`yaoldingmi?
Kelajak sari yo`lida bitta ko`prikcha qurib beraldingmi?!
Yurt bog`iga bitta nihol o`tqaza oldingmi?
Millating toleidagi
g`uborga qorilgan
bitta yulduzning kulgichini yaraqlatib artabildingmi?
Hech bo`lmasa o`z xonadoning qurch-metinligi uchun
zahmat va aziyat chekdingmi?
Seni shu zarur ishlarni qiladi deb bermadimikin
tabiat
bebaho va qaytarilmas imkonni?!
Hechsa, o`z vijdoningga hamkorlik qil axir!
Kishining bu vaqt ikkidur holati,
Erur adli yo nafsining quvvati.
Agar aqlig`a quvvat o`ldi fuzun,
Bo`lur yaxshi ishlar sori rahnamun.
Yigitlik erur qulluq etmak chog`i,
Qarilig` erur chunki ketmak chog`i.
Xusho ulki, umrni taboh etmadi, (t. – x a r o b)
Qilur ishlarin qilmayin ketmadi.

JAMIYAT BEZAGI, MILLAT FAXRI yurt obro`sini, sha`nini
kimlar ustivor tutib turganligini qat`iy aytadi:
Bular ruhi pok, tiynati pok, insof-diyonatli jonlar!
Ular yurt uchun har ishning uddasidan keladilar.
Ular har mushkulni, qirq tomonidan qarab ko`rib,
kimlar, qanday bajarishi mumkinligini ham
biladilar
Ular na xesh-na yor demay na katta na kichik demay,
o`z odil so`zi, daldasi yo raddiyasini bera oladilar!
Ha, yosh o`g`loni-qizi qo`rqoq bo`lib qolgan xalq –
baxtsiz, taxtsiz.
Keksalari xudbin, dirdov bo`lib qolgan xalq –
baxtsiz, baxtsiz.
Bor bo`lsin yurtning muborak tabiat kishilari!
Kim ul qavm erur yo nabi yo vali,
Va yo hikmat ahli aro a`qali.
Ki nafsoniyat qilmayin ishta fosh,
Qilurlar nechukkim, keraktur maosh.

HUSHYOR IDROK EGASI o`z qalb yolqinini sarishta

tutadi,
Hushyorning dilida yuz savol ichida ikki savol doim bor:
«Men kimni himoya qilyapman?!»
«Menga kimning rahmi kelyapti?!»
Hushyorlik – yurak alangasini zardushtiylar kabi asramak!
Hushyorlik – idrok tongida ochilgan gul.
Baʼzilar oʻz qalbida bor olov kuchini sezmay,
uni may bilan balandlamoqchi boʻladilar!
Bu – kuchli olovga qaynoq suv bilan avj
berishga urinish!
Qayu oʻtki suv qilsa tugʻyon anga,
Oʻzing deki oʻchmay ne imkon anga!

ODOB MUALLIMI aytadi
Hayot seni goh arzoʻy etadi,
goh shohona iltifot koʻrguzishingni talab qiladi.
Bugun buni qilasan, erta muni. Va aksincha
Soha kishilariga oʻsha soha odamidek munosabat qil.
Odob – yumshoq supurgilik ish emas.
Odob – ilm vositasi bilan
yurak oyinasin jahl, kibr gʻuboridan tozalash!
Salom va arzga kelganlar qarshisiga,
Iskandardek, taxtdan pastga tushib koʻrish!
Bu – taxtdan tushganing emas, bu taxt mavqeini koʻtarganing!
Koʻrishgan mahalda qilib oʻzni past,
Koʻrub oʻzni din ahliga zerdast,
Qilib hikmat ahligʻa ham mayl bot,
Etib har birisigʻa koʻp iltifot.

XALQPARVAR SHOIR ISKANDARNI odil shoh
deydi.
Ammo xalq odil shoh boʻlishiga ishonmaydi,
omma oʻz tajribasidan kelib chiqib gapiradi:
Necha shoh kelib ketdi, birontasi oʻz jigʻildonidan baland
koʻtarila bilmadi!
oʻz xesh-aqrabosidan oʻzgani koʻrmadi!
Ammo Iskandar, u nechukdir oʻzgacha.
Yo falakdan xato oʻtib, shohni odil qilib qoʻydimi?
Savol-javob:
– Seni oʻzga shahlardek ettuk gumon,
Deduk oʻzga shahlar hamon, sen hamon.
Dedi shahkim: «Sizga nekim boʻlsa kom,
Manga kom erur! Andin oʻzga harom!»

GUNOHKORLARNI AVF QILISHGA MOYIL VAZIR
oʻzin bu ish tutumini bundoq dalillaydi:
Gunohkorning bu birinchi aybi boʻlsa,
uning oʻzi endi uyatli va uzrli tursa,
elga davlatga koʻp yordam keltirishi zimdan
ayon boʻlsa, gunohkorga uzrli, avfli boʻlish zarar qilmas!
Chunki davlat oshkora kechirsa, bu oshkora saboq!
Yomongʻa jazo gar siyosatdurur,

Muruvvat tariqi riyosatdurur.
(t. r. – boshchilik qoidasi)
Va agar kimsaga sobit o`ldi gunoh,
Karam qilsang o`lg`on zamon uzrxoh,
Agar odami bo`lsa to joni bor,
Yana qilmoq ul ish ne imkoni bor?!

QAYTAR DUNYO SIRLARIDAN VOQIF KISHI ogoh qiladi:

Tabiat insonga yashirin xosiyat baxsh etgan,
bu sifatda sirli kayfiyat ham bor.
Bu har kimda har xil va mutlaqo o`zichadir.
Demak, birovga, bilib-bilmay yomonlik qilsang,
jabrlangan tomon buni sirli tarzda eslab qoladi
Yo tabiiy ihota tuyg`ulari ishga tushadi, –
aks javob qanday va qaydan kelib qolganini
bilmay ham qolasan.
Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshilikdan anga yaxshiliq.
Va gar kimsadin zohir o`lsa yomon,
Ko`rar harnekim, zohir etti hamon.

ILTIFOTLI, SHIRINSUXAN, YAXSHI SO`Z INSON

kattayu kichikni –
hokimu fuqaroni muomalada yuksak madaniyatga chorlar!
Shoh quli bilan, o`quvchi o`qituvchisi bilan,
usta shogirdi bilan, boshliq xizmatkori bilan
so`zning e`zoz chaqiruvchi sifatlarinigina
qo`llab so`zlashishsa bo`lmasmi?!
Lekin ortiqcha, yelim yukli iltifot – ofat!
Kamtarlik –
ko`pchilik manfaati uchun qayishish bo`lsin!
Yurakni ozgina muhlat qo`l bilan bekitib turish!
– yurakni yot ko`zdan saqlash ham!
Bu – gullar ustidan ohista qo`l o`tkarish...
Bu – har qalbning o`z bor mustaqilligini
tan olish...
Bu ne – lutfu pokiza tiynat bo`lur,
Bu ne xulqu yehsonu himmat bo`lur,
Bu himmatki bermish senga beniyoz,
Erur shahlig`ingga jahon mulki oz.

YOLG`ONNI FOSH ETUVCHI NAZAR SOHIBI

o`truk, uydirma, lof so`zlovchilarni masxara etadi.
Ammo so`zi chinu ishi faqat o`z manfaati bo`lsa,
bu «chin so`zlik» dan ko`ra rost ofat yaxshi!
Nayzaning to`g`riligi qayda-yu,
Yurakning g`ujanakligi qayda?!
Ha, terak go`yo to`g`ri o`sadi-yu,
ne-ne mevali daraxtlar terak tomirlarining
bexosiyat qo`shnichiligidan meva qilolmaydilar.
Bular el ziyokorlari!
Ki: «Angakim yolg`on farovon durur,

Chini ham el oldinda yolg'on durur.
Agar qilmadi el himoyat sanga,
O`zingdin kerakdur shikoyat sanga».

RAHBARLIK RIYOSATI VA SIYOSATIDAN

boshliqning va'dasi va so`zini fuqaronikiga
solishtiradi.

Fuqaroniki bitta o`ziga, shohniki mingga taalluq!
Shohning el orasida bitta harakati
eldan o`n ma'nolar chiqishga sabab!
Agar u bittagina qoidani buzgan bo`lsa bormi...
Birovni balandroqni ko`rsin deb yelkamizga chiqaramiz.
U endi oyog`iga ehtiyot bo`lsin-da
yuzimizga poshna urmasin-da!
Maozallah, gar qilsa shoh egrilik,
Yumog`liq kerak shahlig`idin ilik.

ASHADDIY MAYXO`RLARNI IMONGA QAYTARGAN ZOT

bu toifa uchun «oyinai masxara» o`ylab topdi.
Yolg'on va rostni ajratadigan ko`zgudan xabarimiz bor edi.
Demak, ichkilikbozlik bilan kurash
adolat uchun kurashning qoyim kismi ekan-da!
Aroqni yo`qotishga chiqarilgan qonun –
millatni o`lishdan saqlab qolish qonuni!
Bu foje mashg`ulotni el ichra kim, qachon rasm etdi,
adl oynasida shuni-da oshkor etishi shart!
Afsuski, bu ko`zguning o`zi,
Yasalish usuli va siri yo`qolib ketgan...
Bu imonga o`xshash g`ayb siri bor bir qurilmadir-ov?!
Mana u ko`zguning xislati:
Birov mayg`a topib furudastliq,
Ayon qilg`udek bo`lsa badmastliq,
Ko`rinur yuzi ko`zgu ichra buzuk,
Uzun, yo`qsa yalang, kichik yo uluq.
Ko`rub ul buzg`unlig`ni nazzoragar,
Bo`lur o`z buzug` holiga choragar.

MEHMONNAVOZLIK QOIDALARINI YUKSAK TUTUVCHI

kenglik va tenglikni shior qiladi o`z xonadoniga!
Kenglik – boringki ochiq yuz bilan dasturxonga
tortish.
Tenglik – mehmon mavqeining pastu balandligiga
e`tibor qilmaslik
Kenglik – o`zi kayfiyating qandayligidan qat`i nazar mehmon ruhini ko`tarish!
Tenglik – bu yaxshi ruhni hammaga tarqata bilish.
Ammo mehmon ham toza bo`lsin,
bir eshikdan ikki narsa tilamasin!
Kipriklariga xijolatning botmon toshini osib
kirsin u xonadonga...
Agar bo`lsa mehmon shoh ari gado,
Qilib mizbonlig` tariqin ado,

Tafovut ko`rar bo`lsa xud bok yo`q.
Vale anga shahdu munga xok yo`q.

OLAM POKLIGI KURASHCHISI

o`z mehnatlarining samarasini ko`rishni istaydi.
Ammo uning yonginasida men ham ishlayapman deb,
hammani baravar bir qopga tiquvchi,
hamma daraxtlarga bitta bolta uruvchi,
demak barcha og`ochlarda bir xil meva bitishini
istovchi,
mendan yuksalmasin deb –
parvozg`a intilganlarining patini
bot-bot yulib turuvchi
vahshiy, yovuz guruh bor.
Bundaylar qachon fosh bo`ladi?
Bundaylar qachongacha xalqning asl o`g`illarining
taqdirini hal qiladi?
Bularga shamolning qismati saboq emasmi?
Yo`q andoqkim, yelkim erur xokro`b,
(x. – yer supuruvchi)
Qachon dasht aro bo`lsa xoshokro`b,
Qilur yer yuzin xoru xasdin xolo,
Tamomin chuqurlarg`a aylar to`lo,
Bu af`olidin qilmish oni qadar,
Sabukboru sargashtavu darbadar.

DUNYO KO`RGAN ULAMO ogoh etadi:

Kalondimog` shohning, xudbin millatning,
manman kasb egasining,
kibor olimning holiga voy, holiga voy!
Jahon sirlariga erishdim deb o`ylagan faylasufning,
ja`mi yulduzlar kashf etib bo`lindi degan
munajjimning ham!
Aksincha, millatim dunyoning qolog`i,
qashshog`i bo`lib qoldi degan talvasa-tashnalik bilan
olg`a va faqat olg`a intilgan jonlarga, qoyil!
O`z istagini ochiq ayta olmaydigan,
qo`rqoq millatning holiga voy!
Iskandardan misol oling.
Qaerda yangilik ko`rsa, buni o`z mamlakatida
o`z olimlari bilan tadqiq qilmasa tinchimaydi!
Shod ilmga intilsa, fuqaro uning izidan boradi:
Nedin men dog`i adli hikmat bila,
Borib chora keyiniga himmat bila,
Taammul qilib g`avrig`a yetmayin,
(t. – chuqur o`y, g. – tubi)
Tilsim andin ortuq padid etmayin?! (p. – paydo)

OSHKORALIK TARAFDORI ahli donishni oshkora
ihota etadi,
Oshkoralik u muayyan sohaga ko`pchilikni qaratish!
Oshkoralik, eng avvalo,

oddiy xalq o`z dardini oshkora ayta olishi!
Shoh bilan fuqaro o`rtasida oshkoralik –
bulutsiz cho`qqi ila vodiy yuzma-yuzligi!
Iskandar olimlarini ikki guruhga –
yer ilmi, osmon ilmi bilan shug`ullanuvchilarga bo`ldi,
lekin ikkovidan bitta samar so`radi.
Chunki bu ikkisi bir-biridan ajralsa,
ilm bilan ilmninggina emas,
ilm bilan elning orasi buziladi.
Iskandar berib ikki sora madad,
Goh aylab qabul ishlarni, goh rad.
Alardin bu dog`i bo`lub mustafid,
(m. – bahramand)
Alar ham topib dahl mundin mufid.
(m. – foydalanish)

NAVRO`Z KUYCHISI bu faslga alohida e`zozlik!
Uzun qishdan so`ng yerda, osmonda
zulmat bilan nur tenglashganidan ulug` bayram bormi?!
Navro`z – falakda adolatning boshlanar kuni!
Navro`z kecha bilan kunduz falakda teng,
oshkora, yuzma-yuz keladigan kun!
Navro`z o`zbeklarning eng qadimgi,
eng suyukli, eng erkin bayrami!
Olamdagi barcha dinlar, qavmlar
o`z qoidalarini ushbu ayyomdan o`rganib,
qayta yozib chiqsinlar!
Gulu sabza ayyomida bo`ldi to`y,
Bo`lur gulshan oyin bila shahru ko`y.
Ki bu sur erur olamafro`z ham,
(s. – to`y, o. – olamni yorituvchi)
Xususan erur fasli navro`z ham.
Desang senki: jon qardoshim yor-yor!
Men aytayki: munglug` boshim yor-yor!

YOSHLIK QADRINI BILUVCHI
umrning yigitlik, yoshlik, tez o`tar davrlariga
alohida baho beradi.
Vaqt biz hisoblamasak ham o`tadi.
Vaqt – yillar, oylar, kunlar emas!
Vaqt – elga xizmatda bo`lgan davring!
Vaqt – umringning Vatanning mazmuniga qo`shilishi!
Vaqt – Zamon xaritasiga yuraging nuqtasini tushira olganing!
Vaqt tez yo sekin o`tmaydi,
u ma`noli yo bema`no kechishi mumkin.
Buni aniqlash oson:
Yangining eskira boshlaganini ko`r!
Vaqt ko`pchilikning, xalqning zarariga
o`tayotganini oshkor qil!
Jahon chorbog`iki dilkash erur,
Yigitlik bahori bila xush durur.
Bu chog` otmagan aysh bo`ston aro,

Jamode durur shakli inson aro. (j. – jonsiz, tosh)

KO`NGIL ISHINING BILIMDONI hayotni
ko`ngilning holati,
ko`ngilning hushi va raddi bilan bog`laydi.
Tabiatdagi o`zgarishlarga kishining munosabati
ham shundan.
Kishi tabiatdan ko`ngliga mos,
tuyg`ularni ovuntiradigan,
junbushga keltiradigan holat,
manzara izlashi shundan.
Tabiat, jamiyat nega berdi,
muncha xislatni, mas`uliyatni?!
Ammo bahordan uzun, yozdan uzun,
kuzdan uzun, qishdan uzun
umr tilashimizga sabab ne?!
Chunki inson o`zida – faoliyatida
To`rt faslni namoyon eta biladi.
Tan daraxti o`z orzu gulini ochsin-da!
Ko`ngulniki qish g`uncha yanglig` qilur,
Bahor o`lsa ul gul kabi ochilur,
Shak ermaski, har kimsakim joni bor,
Hayotin tilar ulcha imkoni bor.

TABIAT HODISALARIDAN HAYRATLANGAN KISHI

bu martaba sabablarini
o`z aqliy va ruhiy tajribalari orqali ochadi.
Muhitning birgina sirini yechgan, tan olgan odam
bu kichik mo`jizada ko`p ulug`vor sirlarga
yo`l ko`ra olar!
Insonning (xalqning, millatning)
erkinlikka,
hamma borada mustaqillikka intilishi
shunchalik tabiiyki,
shunchalik zarurki,
agar unda shu tuyg`u o`lgan bo`lsa,
uni (bu odamni, xalqi)
Tabiatning jonsiz, o`lik joyi deb
hisoblash kerak!
Demak, odam xatoing ham, muvaffaqiyating ham
xalqingning,
millatingning gardanida!
Demak, «men bir kichik...» deb
har ishdan chetga tortilgan kimsani,
har holda, kamtar atab bo`lmas...
Tabiatni bilmasang, hechsa qoidalariga bo`ysun!
Necha sirridin elga yo`qtur shuur,
Vale yo`q tabiat ishinda qusur.

BAXT HAQIDA XAYOL SURUVCHI UCHUN baxt –
o`z ruh tovlanishlari, parvozini sezishi!

Kishi o`z imon-e`tidodi butunligiga intilishi –
baxt sari eng to`g`ri va qisqa yo`li.
Jimjima, dabdaba, kibr –
barchasi qo`shilishib,
bitta yomg`ir chuvalchangidekkina yo`lni bossalar,
uning yumushini bajarsalar edi-ya!
Ne xush debdur ul dardmandi firoq,
Ki: «Oz baxt ko`p husndin yaxshiroq!»

SHOHLAR MASLAHATCHISI

ikki tomon mutanosibligini diqqatda tutadi:
Fuqaro va shoh. Shoh va fuqaro.
Odil shohning adolati –
unga qancha odam ergashayotgani!
Qo`shinidan, mirshablaridan, iskovichlaridan
qo`rqib emas, aniq ixtiyor bilan
fazlu kamolini suyub!
Odil shoh buning uchun o`zida
ko`p noyob xislatlarni birlashtirmagi kerak:
Bahoru yigitlik, dog`i shohlig`,
Yana hikmatu donishgohlig`.
Saxo shohdin elga matlub erur,
Siyosat ham o`z o`rnida xo`b erur.

HAMMA ISHNI ENG AVVALO O`ZIDAN BOSHLAGAN INSON

boshqalarni ham shunga chaqiradi.
Tabiatning eng chuqur sirlari kaliti sening yuraging, ruhingda, inson!
Eng avvalo idrok ko`zi bilan o`z-o`zungga,
o`z ichki olamingga qaragin-a!
Tabiat seni juda ham g`arib, qashshoq qilib yaratmagan!
Yaxshilab sinab ko`r o`z imkonlaringni!
O`zingdan boshla! O`zingdan!
Ammo o`zingda hech nimani ko`rmasang, topa olmasang,
tol`ingdagi ba`zi nuqsonchiliklar uchun
boshqalarni aybdor qilib yurma!
Nazar qilsa topqon basirat ko`zi (b. – o` t k i r),
Erur bu baridin ajabroq o`zi
O`z avzoig`a boqsa sar to qadam,
Topar aylasa yaxshi andesha ham,
Ki ne turfa timsol erur dilpisand,
Aning zimnida ma`niyi arjumand.
(atj. – qimmatli, aziz)

O`Z YURAGINI YAXSHI BILADIGAN INSON

aniq masofalar ichidan ham,
mavhum kengliklardan ham
o`zidan o`zi hech nima kelmasligini uqtiradi.
Inson, kamolotiga yo`l – insonning yuragida!
Inson, millat, xalq biron narsaga
erishmagan bo`lsa,
u yo o`zi go`l, yo o`zi tanbal,

yo majburan uyquda, bexabarlikda tutilgan!
Yo uning basirat ko`zlari bog`lab qo`yilgan!
Yo uning o`z imkonlarini ochishidan na o`zi,
na boshqaga foyda yo`q!
Yo shu mehnatining samari o`z xalqiga
tegmasligini bilganidan
Demak, har bir xalq ham o`z kamolini qayg`ursa,
ilmi, tili, madaniyati va uning namoyandalarini
kamolotga yetkuzishdan boshlaydi:
G`aroyibqa har kimki xoqon erur,
Ham o`zida maqsudi pinhon erur.
Ne ma`niki sitar o`zidan topar,
Jahonda kezarning ne ma`nisi bor.
Kishikim bu ganjiniga topti yo`l,
Jahon ahlining shohi ul bo`ldi, ul.

O`ZGALAR G`AMIGA HAMDARD HAMSHIRA

Inson buyukligining eng oliy ko`rinishi –
bir-birini dardu tashvish soatlarida suyashi!
Bir o`lja topsa yo bir yarador sherigini ko`rsa,
hatto qushlar, hayvonlar bir-birini chorlayurlar,
bir joyda bezovta charx urarlar,
Nega 1982 yilda hamma sayyoralar
quyoshning bir tomoniga tizilib, ko`rikdan o`tishdi?
Ne xabar edi bu?
Jamiyatda, nihoyat nihoyat hechsa birgina...
o`zgarish bo`lishiga sha`ma edimi bu?!
Yo falaklar tubidan bir elchining
ravon ketishi yo kelishiga sharoit qildilarmi?
Insondagi izlanish qudrati – o`zining baxti!
Birovlar ko`nglidagini topmoq istagi –
elning baxti!
Talab ranjiyu topmoq shiddati,
Bo`lubtur aning mujibi shavkati, (m. – sabab),
Nedin o`zgalar ko`nglida tobdur, (t. – n u r)
Ki bu durri noyob – noyobdur.

SHOHNI HAM OCHIQ TANQID QILA OLGAN

bu – hayotbaxsh xislat.
Bu – ellar yodida umid uyg`otadigan xislat.
Faqat rad etuvchi, faqat shubha bildiruvchi,
xato izlovchi, teskari gap aytuvchilar ham bor!
Bir qarashda bularniki ham shijoatga o`xshab ko`rinadi!
Ammo afsus!
Soatni to`g`rilash uchungina,
bir-ikki minut orqaga qaytarish mumkin!
Shohning soati elining intilishlari shiddatidan
ortda qolib ketgan bo`lsa, ne yetsin tanqidga, kurashga!
Ko`runib ajab shohning ul ishi,
Debon bir so`z o`z ko`nglida har kishi.
So`z ayturg`a har kimsa aylab havas,
Vale topmayin kimsa ul dastras.

AYRILIQLAR DARDINI KO`P CHEKKAN KO`NGIL

Hijronni kulfatning eng og'iri sanaydi.
Molu dunyo ayrilig'i ham bor.
Lekin Alisher Navoiyga bu asosiy g'am emas.
Mol topilar – jon qayda?!
Jon topilar – do'stlar qani?
Do'st topilar – yurt qani?
Yurt bor – kamolat, taraqqiy qani?..
Mana bu hijronlar silsilasini ko`ring!
Biri odam asbobi hijroni bil, (a. – sabablar)
Muyassar jahon ahliga ani bil. (m. – ta'sirli)
Biri ayru tushmaklik ahbobdin.
Kishi bag'ri o`rtanmak ul tobdin.
Biri dog'i hajri qarobat erur (q. – qarindoshlar)
Ki jon uzra andin mahobat erur.
Biri ulkim etib ishqdin xastaliq,
Birov jonibi bo`lsa dilbastalik.
(j. – jihat, ta'rif)
Mangakim ichim hajrdin zordur,
Burungidin o`zga bori bordur.

YURAGI VA AQLI UYG'UN ZOT!

Yurakning reja-istaklari bir olam!
Aql bu holatni lahzada hisob-kitob qilib,
unga yo`l ko`rsatishi kerak!
Yurak, aqldek izdoshi va suyanchiga ishonsagina
olg'a ketadi!
Yurak ishq deb ilgari ketsa,
El deb ilgari ketsa, erk deb ilgari ketsa,
qadrim deb ilgari ketsa,
aql uning abadiy xizmatida bo`lsin!
Qayu ishniki, ishq aylar pisand,
Emas aql man' aylamak sudmand,
Necha bo`lsa elga xirad rahnamoy,
Har ishda tariqi muvajjah namoy.
(t. – usul, m. – ma'qul)

O`Z VATANIDA MAQSADIGA YETOLMAGAN KISHI

nima qilsin?
Arzini kimga aytsin?
Vatanida uning tili, dilini tushunuvchi kishilar
oz bo`lsa?
Barchasi o`z moli-joni qayg'usida bo`lsa?
Ko`pchilik uzoq va davomdor jaholat bois
uyquda bo`lsa?!
Anchalar o`zgarish umididin ko`ngil uzgan bo`lsalar?
Nechalar ochiq so`z aytish, kurashishdan chekingan bo`lsalar?
Ko`plarning tili-zaboni bog'liq bo`lsa?
Tili zaboni borining ham suyanadigan bir tayanchi bo`lmasa?
Ketur soqi, ul jomi taqvishikan, (t. – parhezni.
jimlikni buzadigan)

Ki ko`nglumga tushmish havoyi vatan.
Tilarmen kezib rab'i atlolni,
(r. – obod, a. – vayrona)
Desam ranji g'urbatdagi holni...
Navoiy, vatan bo`ldi manzil manga,
Bu manzildin ammo ne hosil manga?!

IKKI YO`QLIK ORASIDAGI ME'MOR
o`z umringni ikki olamga poydevor bilib
bekorga lof urma, urma deydi!
Belgisiz kelajakni ham maqtab ko`pirma!
Ko`pchilikni mavhumi istiqbol bilan ham,
mavhum o`tmish bilan ham ovutib bo`lmaydi!
Baxtli bo`lish haqida ertaklar jonga tegdi!
Katta yoshdagi ba'zi odamlar lekin haliyam
go`daklik xislatini yo`qotmabdi:
Ona allasi bilan uxlab, ona ovozi bilan uyg'onadi...
Dunyo soxta yo`lboshchilarni ko`p ko`rdi.
Savodsiz jallodlarni undan ham ko`proq!
Bugun nima bor atrofingda, bugun!
Bugun! Bugu-u-un...
Burungi kunu tonglardin urma dam,
Ki ul bir adamdur, bu dog'i adam.
Erurbiz bu kun har ne nobudu bud,
Ki ikki adam ichra tutmish vujud. (a. – yo`qlik)

O`Z VATANINI SEVUVCHI buning tub ota
maqsadini aytadi:
Ne bo`lsang ham vatan ichinda bo`l.
Yildirim yorug`ida ham so`z yozib ulgur!
Maqsadingni aytib, ko`rsatib ulgur!
Chunki seni o`rab turgan zulmat beqiyos katta!
Lozim ersa, otgan o`qingdan ham,
aytgan so`zingdan o`zib ulgur!
Taqdiring ayrim so`zbozlar istagiga
bog`liqqina bo`lib qolmasin!
Yetmasmi jigarlaringning shuncha vaqt
mehnat o`ti uzra kaboblighi!
O`z – bekiston! -on! -ton!
Vatan – ona! Vatan – ota! Vatan – o`zing!
O`zing! O`zing!..
Sen nima ish qilding shu o`zing uchun?
Shu o`zingni tozalay oldingmi yot illatlardan?
Shu o`zingni yuksalta oldingmu olam ko`ra olgudek?
Shu o`zing birgina o`zing bo`lib qolmadingmi?
O`zingga loyiq merosxo`rlaring bormi?
Musofir bo`l, ammo vatan ichra bo`l,
Tila xilvatu anjuman ichra bo`l,
Safar azmi do`zahqa soniy durur,

VATAN XUBBI IMON NISHONI DURUR
(v. x. – Vatan sevgisi)

ZOBIT SHOHLARNI YANA OGOH ETGAN ZOT

har yurishning, qo`shin tortishning javobgarligini ta`kidlaydi.

Boshqa millat yeriga qurol, qo`shin bilan kirish – abadulabad kechirilmaydigan jinoyat!

Boshqa xalqlarning qarg`ishi
sening xalqingni ulug`roq etarmi?

O`z yurtida boshqa millat qo`shiniga, hukmronligiga qancha chidab yashaganing ham

o`shancha kattalikdagi aybing
o`z kelajaging oldida jinoyatingdir!

Farzandini bosqinchi qo`shin safida uzatgan el
faqat o`z farzandini o`ylab-qizg`onib qoladi.

Bu yov, bu bosqinni vahm ichra kutayotgan el esa
butun vatanini o`ylab qizg`onadi.

Ikki xalq, ikki millat
bir-birlariga mehmonga borishsin.

Abadiy do`stlikda,
chegaralariga muqaddas gullar ekib,

teng savdo, teng ittifoq yashashsin!

Mehmon o`z siyi teng ila ketsin,

Mezbon o`z hurmati bila qolsin!

Iskandar, biron yurtga kirsan,

Adolat tiklash, ichki nizoni tugatish uchun kirdi.

O`sha millatdan – el xohlaganni bosh etib,

o`zining (bittayam!) kishisini qoldirmay,
mag`rur chiqib ketdi!

Ne tarixiy mo`jiz a, orzu, ideal bu!

Emas shohliq – olmoq yurub bahru bar,

(b. b. – suv va quruqlik)

Erur topmoq andinki had berdi bar. (b. – bahra)

Angakim madadkor bo`lgay bilik,

JAHON SHUG`ULIDAN bori chekkay ilik!

ONANI TOJDEK BOSHGA KO`TARGAN SHOH!

Onasini sevmagan jonlar

o`z bolalarining taqdirini qayg`urarmikanlar?!

Jahonda biron-bir ona

«o`zga millatlar onalarini yig`latib,

baxtingni top, bolam» dermikan o`z farzandiga?

Ularning tilini, dinini, odatlarini yo`qot dermikan?

Balki u shunday deganda ham

bundan topgan baxti qanchaga borarkan?

Otabezor, onabezor toifa umuman,

qorni to`yadigan tomonga og`ib ketaveradiganlar

odamzod uchun xatarli mahluqlardir.

Otasini-onasini, tuqqan yerini aziz

tutmaydiganlar uchun

olamda aziz biron narsa bo`larmi o`zi?!

Iskandarning odam zabti deb bosgan yo`llarining

boshimiz ona poyiga yegilgunchalik yetgunchalik ma`nosi,

qiymati bormi?
«Budur so`zki, ko`r furqating istadim.
Yiroqlik bila mehnating istadim.
Demon qilsam erdi o`g`ulliq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga,
Sanga aylabon xoki dargohliq,
Aning otin etsam erdi shohliq...»

YOSHLARNI DAVLAT ISHLARIGA FAOL UNDAGAN USTOZ

o`z xalqining ulug` kishilarini
o`zlariga o`rinbosarlar tayyor etishga chaqiradi!
Qaysidir avlodini qarovsiz qo`ygan xalq
bu yo`qotish, bu o`pirilishni
bir asrda ham to`ldirishi qiyin!
Millatning, davlatning ustivorligi uchun
uzoq-yaqin, katta-kichik demay, tanlab, ishonib,
ko`pchilikni o`ylay biladigan yosh,
sog`lom vorislar izlang, toping!
Bo`ladigan bolalar bordir, belgilidirlar:
Kichik yoshliq ammo ulug` qadrliq,
Hilolida ma`lum o`lub bardliq. (b. – to`lishish)
Ne sher bo`lsun kichik gar ulug`,
Erur savlati birla el qayg`ulug`.
Ulus chehrai olamafruzdin,
«Bilur yil kelishini navro`zdin!»

EL NAZARI TEGIB OLIY MAQOMGA KO`TARILGAN ZOT!

Adolatga o`zini, so`zini, ko`zini o`rgatgan kishi!
Qandoq erishdi, ne-ne shohlar, jahongirlar
orzu etabilmagan mavqega?!
Bu na kamolat, madaniyat, oliyjanoblik!
Qaysi bir abadiy qudratning tantanasi o`zi
bu ulug` siymoning tug`ilishi!
Minnatdormiz ikkinchi bir quyoshini
hadya etgan quyoshdan!
Nega uxlaysan xalqim, nega?
Kechalaring ham yorug`-ku mundoq boqsang!
Nega muncha bosinqirash, tushda yulduz talashish!
Seni muncha qo`rqitib tashlagan kim?
Nimani axtarasan muncha garangsib?!
Nimani, a, kimni?
Odil shohnimi, adl zamonanimi,
Boqiy qonunchiliknimi?
Qara, och, varaqla, «Xamsa» sahifalarini!
Alisher Navoiy o`zi tabriklamayaptimi
Tur, uyg`on, o`zingni rostla, qoloqlikdan qutul,
chin yangilanish, oshkoralik zamoni keldi deb!
O`zing tanla, sayla endi
Erk, Adolat, Mustaqillik, Tenglik, Do`stlik, Tinchlik
nomli shohlarni!

Qayu shahki yo`q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o`lmas obod anga,
Agar bor ersa poklik niyati,
Anga yor o`lub poklar himmati,
Kerak og`zi poku so`zi dog`i pok,
Yana ko`ngli poku ko`zi dog`i pok!

OLAMDA BIRON ISH YASHIRIN QOLMASLIGINI BILGAN

oshkoralikni shior tutadi.

Oshkoralik faqatgina shohga yoki fuqaroga
bor gapni ochiq ayta bilishgina emas!

Oshkoralik halol oshni ko`chada yeyish emas,
halol vijdonni oshkor etish!

Oshkoralik – odamning o`z erkinligini sezishi,
shunga imkon olishidir.

Oshkoralik – har bir sa`yi harakati uchun ruh
mas`uliyati! Oshkoralik – tenglikdir!

Boshchi harakat qilsa el shuni takrorlaydi.

Hamma narsa seni yaratgan tabiatning ko`zi o`ngida-ku!

Qaerga yashiringanning ne farqi bor?

Shunday joyni topib bo`ladimi?

Kerak, topsa ul bir andoq o`run,

Ki bo`lg`ay ishi tengridin yashirun.

O`ZBEK XALQINING OTASI

har bir farzandi Alisherdek komil bo`lishini tilar!

Har bir farzandining o`z yeriga,
eliga payvandligini istar!

Har bir farzandining

olamni tanishi va olamga tanilishini talab etar!

Har bir farzand bir-birini, butun elini

himoya, ardoq, e`zoz qila bilishini buyurar!

Yomonga jazoning, yaxshiga e`zozning naqd
berilishini so`rar!

Toki biron-bir ishining oxiri mubham qolmasin!

Haqsizlik, ofat, gunoh kimdan, qayoqdan
kelayotganini bil, bilmasang...

oldinga odim otishingning imkoni yo`q!

Adolat bila elni qil bahramand,

Ki yaxshig`a ketsun yomondin gazand. (g. – ziyon)

Navosiz ulusning navobaxshi bo`l,

Navoiy yomon bo`lsa sen yaxshi bo`l!

Chu davrong`a yo`qdur baqovu sabot,

Ham andin erur bevaforoq hayot.

Men bo`lsamu bo`lmasam oshkor,

Bu so`zlarni qo`ydum sanga yodgor!

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Omon Matjon lirikasida muhabbat mavzusining o`rni qanday? Misollar bilan izohlang.

2. Shoirning Xorazmdan chiqqan buyuk siymolar haqida yozgan dramatik dostoni qaysi?
3. “Ming bir yog’du” dostoni qaysi asar ta’sirida yozilgan?
4. Shoir ming bir yog’du deya nimaga ishora beradi?
5. Doston hajmi mazmunga putur yetkazmaganmi, nima deb o’ylaysiz?
6. Asar yozilishida an’anaviy doston yo’lidan borilganmi?
7. Shoir uslubi qaysi o’rinlarda bo’rtib ko’zga tashlangan?
8. Dostonda qanday ma’naviy-axloqiy masalalarga e’tibor qaratilgan?



CHO`LPON ERGASH (1937-2010)

Cho'lpun Ergash 1937-yilda qo'shni Qirg'iziston Respublikasining O'sh shahrida tug'ildi. Birinchi she'ri "O'zbekiston" jurnalida chop etildi. 1970-yilda "Tong yulduzi" nomli birinchi to'plami bosilib chiqdi. Shundan so'ng Cho'lpun Ergashning "Bizning uyimiz", "Muborak kunlar" (1972), "Umid chirog'i" (1979), "Bahor orzulari" (1980), "Tongotar sadolari" (1982), "Sehrlil qo'ng'iroq", "Oy chodir tikmoqda" (1985), "Eng baland qasr" (1986), "Karvon kelar", "Orzuning og'ir kipriklari" (1990) kabi kitoblari nashr etildi. Shoir she'rlarini kuzatar ekanmiz, unda havoyilikdan xoli, og'ir, vazmin va "gap tagida gap yotar" qabilidagi tuyg'ular tizmasiga duch kelamiz.

Cho'lpun Ergashning liro-epik janrdagi izlanishlari, xususan, yigirma dostonidan iborat "Rahmon vas-vas" turkumi adabiy-madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'tgan asrning 70-yillar o'rtalaridan boshlanib, 90-yil boshlarida yakunlangan dostonlar ("Shaytonning boshidan kechirganlari", "Tangri vasiyati", "Qiyomat", "Ajinalar o'yini", "Osmondan tushgan odam", "Rahmonning qaytishi", "Ra'noning savdosi", "Jinnixonadagi tushlar", "Bezovta ruhlari" va hokazo) majozlar, timsollar asosiga qurilgan. Yana "Sehrlil qo'ng'irchoq", "Zar kokilli bog'ijahon afsonasi", "Nomus va muhabbat", "Hasharchilar", "Umrndan lavhalar" singari liro-epik asarlari ham dostonchilgimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega.

BEZOVTA RUHLAR (Doston)

*Yassi tog' etaklari. Kech oqshom. Tongotar
osmonida bir-ikki yorug' yulduz chaqnaydi.
Rahmon toshloq maysazor bag'rida qo'llarini
ikki yonga tashlab, behush, chalqancha yotadi.
Uni qo'riqlashib, boshi uzra Hurlar, Pok
ruhlari uchib yuradilar. Olisdan o'laksaxo'r
qarg'alar ovozlari eshitilmoqda.*

QARG'ALAR
Bunda bizlar xor,
Qor yog', qor yog', qorr!..
Jonga darmon qor,
Beomon bahor.
Battar do'zax yoz,
Qanday soz ayoz!..
Ammo nafs har yon,
Sudrab sargardon
Qolib mangu qish,
O'z yurtimiz – jish;
Har yerda xunxor,
Titib go'ng, mozor,

Olib hatto tik,
Cho'pdan ham hadik,
Yutarmiz xo'rak,
Taka-puk yurak.
Chunki u harom –
Biz yegan taom.
Qay elda ofat,
Qirg'in-qiyomat,
U bizga makon –
Vatan jonajon!
Unda eng zo'rlar –
O'laksaxo'rlar.
Biz – tirik mozor.

Qor yog', qor yog', qorr!..
O'ymalab hargiz –
Kavlab miyamiz,
Mayli, saraton
Solsin qatag'on;
Itmi yo kuchuk,
Ilonmi, mushuk,
Sichqon ham xushxo'r,
Odam undan zo'r!
Ho'lmi u, quruq,
Issiqmi, sovuq,
Kattami, kichik,
Bo'lsin o'limtik.

Boshqasi bekor-r,
 Qor yogʻ, qor yogʻ, qorr!..
 Bir zamon biz ham,
 Boʻlganmiz odam.
 Pullab harom mol,
 Yeganmiz halol.
 Sabab – shu harish,
 Tekkandir qargʻish:
 Endi biz uzoq
 Yashab qargʻa-zogʻ
 Oʻsha biz – inson
 Boʻlib beimon,
 Bir umr obod
 Kechirib hayot,
 Koʻplarni boplab,
 Koʻzini bogʻlab,
 Halol deb, harom
 Ish tutib – gʻirrom,
 Qancha oʻlimtik,
 Goʻsht-yogʻ yedirdik,
 Ana shuncha biz
 Oʻlaksa yeymiz.
 Avloddan avlod,
 Ketib bu avrod⁶⁷
 To kurrai shom
 Etgusi davom.
 Yoʻq bizday murdor-r,
 Qor yogʻ, qor yogʻ, qorr!..

BIR QARGʻA
 (Har yoqqa alanglab)
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..
 Odam isi kelmoqda,
 Na oʻlik u, na tirik.
 Oʻlmay ular bermas hid,
 Balki bir chala oʻlik...

BOSHQA QARGʻA
 Chuchmal doim tiriklar,
 Boʻgʻar goh bad nafasi.
 Oʻlgach bilishar odam,
 Qanday boʻyi, mazasi.
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..

YANA BIR QARGʻA
 (Uchib balanddan)
 Qimir etmas u, ammo
 Odam juda shum boʻlar:
 Bir choʻqib-choʻqimasdan,
 Birdan tashlanib qolar.

(Rahmonning boshidan
 pastlab
 uchib oʻtib naridan)
 Odamning azal-abad
 Oʻlsa koʻzi ochilar.
 Yumuq ikki qarogʻi,
 Biroq shubham oshirar:
 Bugʻ chiqib turar iliq,
 Turib boʻlmas isiga.
 Atrofida jonzotlar
 Tushgan uning iziga.

OLA QARGʻA
 (Qora qargʻaga)
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..
 Yana pastlab uch, qara,
 Balki qarshi turolmas.
 Kesak otmasa boshqa,
 Oʻzi hech ish qilolmas.
 Oʻyib koʻzlarini tez,
 Qilarmiz bir choʻqimdan.
 Zoʻr kelar chumoli ham
 Najotsiz har soʻqimdan.
 Duo ketgandir bizga,
 Bilmaymiz hech yuz-xotir:
 Chorasiz qolsa harkim,
 Yopirilamiz botir.

QORA QARGʻA
 (Rahmon tomon pastlab
 uchib ketadi)
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..
 Koʻray oʻz koʻzim bilan,
 Balki uzilib qolar.
 Biz vagʻillab turguncha,
 Ilib ketar boshqalar.
 (Rahmon ustida)
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..
 Oʻlikdan battar, biroq
 Nimalar bu koʻrganim?..
 Yaltiroq qurtlarmi yoʻ?
 Tinar boqib koʻzlarim...
 (Tez uchib kelib, toʻpiga
 qoʻshiladi)
 Qagʻ, qagʻ, qagʻ!..
 Shundogʻ peshonasida
 Qandaydir nur parpirar.
 Uchqunlab atrofida
 Allanelar yaltirar...
 (Qargʻalar osmonga
 koʻtarilishib,

Rahmon ustidan uchib
 oʻtadilar)

BIRINCHI QARGʻA
 Qagʻ, qagʻ, qarang,
 tinchimas
 Bu oʻsha Hur, Pok ruhlar!

IKKINCHI QARGʻA
 Nur tovlanib, parvona,
 Qoʻriqlab turar ular.

UCHINCHI QARGʻA
 Na oʻzlari yer va na,
 Boshqaga berar, sulloh.
 Oʻlib ham, hech bulardan
 Qutilmadik biz, evoh!..

BIRINCHI QARGʻA
 Odam boʻlib, oʻz joni
 Huzurini bilmagan.
 Oʻzi baxtdan benasib,
 Oʻzgaga baxt tilagan.

IKKINCHI QARGʻA
 Aritsa kimning koʻzdan
 Oqqan alam yoshini
 Oʻsha doim bularning
 Ezib oʻtgan boshini.

BIRINCHI QARGʻA
 Umr boʻyi etagi
 Ketiga yetmagan, hech...
 Vatan, nomus deb
 harchand,
 Kuyib-yongan erta-kech.

UCHINCHI QARGʻA
 Shunday alomat, noshud,
 Beorom bandalar bu.
 Umri xizmatga – tuhmat,
 Nodon sharmandalar bu!..

QARGʻALAR
 (Hurlar va pok ruhlarga)
 Ey, bu yorugʻ dunyoda
 Anduhga toʻymaganlar!
 Biz-ku, doʻzaxi, badtar,
 Oʻzini oʻylaganlar;
 Xoʻp, xudo bir yarlaqab,
 Tushibsanlar jannatga,
 Sizga bunda nima bor,

⁶⁷Avrod – odatiy ish

Botib yana axlatga?!.
Yayrab jannat bog'ingda,
Quvlashib yurmaysanmi!
Qo`ltiqlab malaklarni,
Gashtingni surmaysanmi!..
U dunyoyu-bu dunyo
Ulardan hamma bezor.
Kam bu ko`rgan
kunlaring!..
Qag', qag', qor yog', qor
yog', qor-rr!

POK RUHLAR

(Rahmonni o`rashib)
Tinmas haromxo`r
Tekintomoqlar.
Tokay boshiga
Qulamas tog'lar!
Shum qadamlari
Yetmagan joy yo`q,
Har vayronada
Vag'illashar, to`q.
Istarki bular –
O`yib ko`zini,
Qirsin tirik jon
O`zi o`zini.
Tashlanib keyin,
Yulib po`sini,
Yutar talashib
Ular go`shtini.
(Qarg'alar yana allanimalar
deb so`kinishib,uzoq-
uzoqlarga
uchib ketadilar.Bu mahal,
Rahmonning boshi uzra
iskabtopar – chivinlar
g'ujg'on o`ynaydilar).

HURLAR

Qutulib odam
Bir falokatdan
Endi o`zgasi
Bosur daf'atan.
Yopirilishib,
Itday qoparlar,
So`rar qonini
Iskabtoparlar...

POK RUHLAR

Elga haromi
Bo`ldiyu podsho,
Harom ishlarga

Berdi u fatvo.
Tug'ib tashlashib
Har yon onalar,
To`lib-toshmoqda
Yetimxonalar.
Yegan boshqayu
Yedirgan boshqa,
Boqar butun el,
Ko`tarib boshga.
Zamon o`shalar
Zamoni bo`ldi.
Har ikki dunyo
Ularga to`ldi.

ISKABTOPARLAR

(Rahmonning dam yuz-
ko`zlariga qo`nishib,
dam atrofida uchib,
kuylaydilar)
O`ynab g'ujg'on havoda,
Uchraganni, parvona,
Bulut kabi bosamiz,
O`pib-o`pib qochamiz.
Erkakmi u, ayol zot,
Yopirilib birday, shod,
Og'iz-burun, boshiga,
Tusharmiz goh oshiga.
Bizdan bezor hamma bir
Haydar doim bemehr.
(Rahmonga yopirilib)
Nima, sizga yotmi biz!
Kim eshitar dodimiz?!
O`lsak ham to, qolsak ham,
G'am chekmas hech bir
odam.
Ammo ba`zan beshafqat
“Harom bo`ldi – deb, –
ovqat”,
Oshingizni to`kasiz,
Tuflab bizni, so`kasiz.
Ko`tarasiz to`palon:
“Falon, – deysiz, –
pismadon!”
Endi harom bo`ldikmi!
Shuncha badnom
bo`ldikmi?!
Axir bizda ne gunoh, –
Go`daklar biz – begunoh!..
Notayindir otamiz,
Tashlab qochgan onamiz,
Odam edik biz, badnom,
Chivin bo`ldik, o`lib ham...

Ammo siz ko`p
qayg'urmang,
Shahdimizni qayirmang:
Bizlarga ko`p kerakmas:
Ota-ona mehri – bas!
Shu orzuda jon halak,
Izlab doim bir kovak;
Har yo`l bilan, ishqilib,
Qoningizga qo`shilib,
Farzand bo`lib pokdomon,
Topib mehr farovon,
Kelmoqchimiz olamga –
Qayta boshdan odamga.
Mayli, qo`ng'iz bo`lsak
ham,
Hatto to`ng'iz bo`lsak ham!
Rozimiz, ne ravodir,
Barcha jonzot bir hozir,
Boqmasin har jin-pari,
Topib, kuchuk singari,
Bo`lsin halol otamiz,
O`z mehribon onamiz!..

HURLAR

(Bezovta)
Ilon, qarang,
Kelar yovuq!..
Shahdi yomon,
Turqi sovuq.

POK RUHLAR

Hid bilmasa
Buncha darrov!
Yoki quvlab
Kelarmi yov!..

HURLAR

Titrab-qaqshar
Maysalar zor,
Qaynab zahri
Chopar makkor!

POK RUHLAR

Bilarki pes –
Shirin odam,
Ammo lol u
O`rtar alam.
Ayta olmay:
“Sh-shi... sh-shi”laydi,
To`lg'onib qasd,
Vish-shillaydi.

RUHLAR

Kirib chiqib
Ayi tili,
Kelar xoin
Buzuq dili.

POK RUHLAR

Qalqon bo`ling odamga
siz,
O`rab oling, hurlar, tezroq!
Yomonlikki bor, har
qachon
Ko`z tikar och unga yutoq.
U ham sizday pok,
bezovta,
Faqat, sho`rli, tirik bugun.
Bizga ham bu yorug` olam
Bo`lgan axir qorong`u tun.
Yovuz ruhlar uchun doim
Balo-ofat nuri ziyo.
Chaqnaylik to bo`lib
chaqin,
Qolsin gangib u vovaylo.
Ana, kulcha bo`lib, moxov,
Ko`zlarini bosmoqda to`r.
O`t ketgan qil
arg`amchiday,
To`lg`anadi har yon,
shabko`r!..

ILON

Ah-h... sh-shu.. ruhlar
Odam-ki bor –
To qiyomat

Uyim mozor.
Jannat ichra,
Oh... bilimdon
Edim bir vaqt
Darvozabon
Baski, sabab
Bu kasofat
Odam zoti,
Bosdi g`afolat:
Shum Shaytonga
Berib qo`lim,
Duru sadaf,
Zarbof to`nim
Botib tamom
Badanimga,
Aylandi-yu
Kafanimga,
Otdi meni
Yerga rabbon.
Turolmayman
Tikka hamon.
Sudralaman,
Qo`l-oyog`im
Chiqarmoqchi
Bo`lib doim...
Shundan menga
Qasddir yomon,
Shu baxtinga
Zomin inson.
Garchi ko`kda
Mo`htavodir,
Bunda biroq
Ho`l balo bir.

Tegmaganga
Biz – bezarar,
U – har mo`min
Uchun xatar.
Biz – bir baqa
Bilan xurram,
Bir-birini
Yer bu odam.
Ko`rsam doim
Oshib qahrim,
Solsam deymen
Unga zahrim.
*(O`tlar orasidan boshini
ko`targancha, vishillab,
tilini
o`ynatadi)*
Ah-ha, ishoshshma
Shshu yoqindan
Odam isi
Kelar chindan!..
*(Sal naridan baqalarning
qurillagan ovozlari
eshitilib,
Ilonning niyati o`zgaradi)*
Jonzotki bor,
Taraf-taraf,
Har ofatga
O`zi sabab.
Chorlar meni
Laqillashib,
Qurbaqalar
Vaqirlashib.

(Shu payt bir Kirpitikan poylab kelib, Ilonning dumidan tishlab, G`ujanak bo`lib oladi. Ilon jon halpida o`zini Kirpitikanga urib, undan qutilmoqchi bo`ladi. Biroq u o`z qoniga belanib, tezda cho`zilib qoladi va uni Kirpi qurbaqalar qo`shig`i ostida maza qilib yeyaboshlaydi)

QURBAQALAR

Va-vaq, qu-va, quv-vaq!
O`tdi bu kun qurr-qur,
O`tar yoz ham qurr-vaq,
Yetar qish ham “xurr-xur”.
U kungacha ammo
Vaqir-vuqur haryon,
Tomoq qoqib, dunyo
Ishlariga hayron;
Tutib xappa-xappa,
Chigirtkami, chivin,
Yutib, suvga shappa –
Tashlab, bekin-bekin.
Chiqib suvdan quruq

Sayraymiz to`q, “qurr-
qur”.
Suv bossami ulug`,
Suzmoq yana huzur...
Qayga oqizsa suv,
Vatan bizga u joy,
Qorin to`ysa, basu
Farqsiz balchiq, ko`l, soy.
Nima ishimiz bor,
Kimlar yashar bunda.
Kimlar kelib xunxor,
Kimlar ketmas kunda.
Qay birimiz ko`rsak
Ilon og`zida goh,

Tashlab uni halak,
Qochamiz teng har yoq.
Yor-yor aytib yana,
Kelin tushir-tushir.
Kechar mindi-mindi,
Vaqirlashib umr.
Shu bijg`igan ur-sur
Hayot uchun quvnaq,
Chop-chop, yugur-yugur,
Bir-birimiz quvlab:
Juda borsak uzoq –
Bo`lib bir kun oson
O`z to`nimiz tuzoq,
Yutib ketar Ilon.

Nima qolar bizdan
Bu dunyodan o`tsak?
Churvaqalar bilan
Qolar sassiq ko`lmak.
O`tdi bir kun, shukur
O`tar yoz ham, qurr-qur...
(*To`rt tarafni zimiston
qorong`ilik bosib, uzoq-
uzoqlardan och
bo`rilarning dahshatli
uvlamlari eshitiladi*)

POK RUHLAR
(*Rahmon atrofida
charaqlashib*)
O, qanday zindon
Bu yalmog`iz tun,
Yutaman der u
Olamni butun.
O`kirib yovuz
O`ch bo`rilar ham,
Uvlab nolakor,
Ingrar dam-badam.

HURLAR
Titrab tog`-toshlar,
Cho`kar yerga zil.
Zirqirab yer-ko`k,
Muzlab qolar til...

POK RUHLAR
Mash`um bu kecha
Bag`rida tanho,
Go`yoki girdob
Uzra beparvo –
Ona qo`ynida
Yotar bu Rahmon –
Asrab samovot,
Biz unga qalqon.
Ey, siz – begunoh
Hurlar, gunohkor.
Yer uzra yana,
Porlangiz hushyor!
Tiriklar aro
Yo`q unga shafqat.
Yolg`iz najotkor –
Biz – ruhlar faqat.
Kuyganmiz qancha
Odam deb u kun,
Yonaylik battar
Lovullab bugun!..

POK RUHLAR
(*Rahmon atrofida olov
halqaga aylanishib,
yaqinlashgan bo`rilarga*)
Qarish, ey, yirtqich
Odam ajdodi!
Qarg`ishlar sizni
Mangu jon zoti.

POK RUHLAR
Bo`ri bo`lib ham
Bu odamxo`rlar,
O`z qavmlarini
Tanimas, ko`rlar!..

KIRPITIKAN
Beozor bir maxluqman,
nodon,
Ammo suygan yemishim –
ilon.
Qalqon bo`lib po`stinim
doim,
Har balodan asrar bu
jonim.
Na bo`ri, na to`ng`iz qasd
qilar
Va na o`zga yovuz bas
kelar.
Ojizman bir odam qoshida,
Go`sht bo`laman ba`zan
oshiga.
Bu mening o`z boshimga
balo –
Qilmishimga yarasha
jazo!..
Qancha yirtqich bo`lmasin
inson,
Qarg`amayman uni hech
qachon.
Nafratimdan tik turib bu
kun –
Nashtar bo`lib har bitta
tukim;
Odamzotga ko`kning izzati
Va bu tuproq bo`lgan
qismati –
Qasosi deb, to tongla
mahshar
Tikib jonim unga
muzaffar,
Men u xoin donishmand
Ilon –

Qavmlariga bermasman
omon!
Ammo odam... Unga
hurmatim, –
Bu xatarnok buyuk
jur`atim –
Xizmatlarim savobi uchun
–
Me`dasining davosi uchun
Harom etim buyurib halol,
Po`stinimni yechib
bemalol,
Ko`ngli aynab, yutsa ham
zo`rg`a,
So`yib meni, qaynatar
sho`rva.
(*Nola qilib*)
Voh, ko`plarga tekkan
kasal bu!
Yaxshilikni bilmas azal u...
Po`k qornini qilib nog`ora,
Faqat urchish bilan ovora!
Topgan ilmi – basir
hirsiyot,
Semirtirmoq yerni umrbod.
Vaholanki, odamlar aro
Yurar Shayton qavmi
tarallo.
Ham pok Ruhlar,
Farishtalar yor –
Asraguvchi jinlardan,
bedor.
Qalqon bo`lib ular insonga,
Chorlagaylar doim
imonga.
Ajdodlarning ular beorom
Ruhlaridir, pokiza andom!
(*Rahmon atrofida uchib
yurgan Hurlar, Pok
ruhlarga hurmat saqlab*)
Gunohkorman bular
qoshida,
Berkinaman, ko`rsam,
loshimga,
Kechib jannat rohatidan
ham,
Bir sho`rlikka bo`lurlar
malham.
Ammo sezmas buni hech
inson,
Xotirlamas ularni bir on.
Ular bu pok ajdodi tugul,

O`zini ham unutgan
butkul.
To vujudi bo`l mag'uncha
xok,
Do`st-dushmani etmaslar
idrok.
Qancha unga bo`lma
do`stu yor,
Baxsh etib bor kuching,
madadkor.
Tushib bir kun Shayton
o`rtaga,
"Kasali"ni topib, jo`rttaga:
"Tamom endi, o`lasan,
lekin,
Davo – desa – ana u ..."
Sekin
Bir yo`lini topib, bu odam
Yeb qo`yar o`z avlodini
ham.
Men ham Shayton so`zi
bilan bir
Tig' urganman odamga,
basir...
O`tib yorug' dunyodan bir
kun
Nashtar bilan qoplandim
butun, –
Kirpitikan bo`ldim
masxara,
Ilon bo`ldi yemishim yana.
Mana endi, ochilib ko`zim,
Oshqozonga davoman
o`zim.

*(Kattakon qoyatoshning
bir yog`ida – Bo`ri, boshqa
tomonida – Tulki, bir-
birlaridan xabarsiz, hid
iskashib, tumshuqlarini
ko`taradilar. Har yoqdan
chigirtkalarining
chirillaganlari eshitilib
turadi)*

HURLAR

(Bezovta)

Qaydan paydo bo`ldi
gumroh,
Bu ochko`z sulloh?..
Boshlamasa bir falokat
Ikki kasofat!..

POK RUHLAR

Tulki boshlab keldi chog'i
–
Shum g'ar arvohi!..
O`rab oling Rahmonni tez,
Ko`rmasin u pes...

TULKI

Kun yo`q menga Bo`ridan,
Bu so`yloq tish o`g`ridan!
Qayda yursam sirg'alib,
Paydo bo`lar tirg'anib.
Ko`rib uzoqdan meni,
Quvib kelyapgan edi.
Yashirindim shu toshga,
Uning niyati boshqa...
Qoplon bilsa, jang bo`lar,
Battar bo`g`ilib ular.
O`laqolmadi – o`lib,
Davrim surardim, ko`mib!
Uch yoqqa ketgan ungur –
Ini qolardi, o`lgur!..
Dalada ham tinchlik yo`q...
Barcha menga boqar,
sho`x:
Inlaridan, hingrashib,
Chaqirishar imlashib.
Chunki meni bilishar,
Shundan ular irg'ishlar.
Buni ko`rib, juni tik,
Sakrab erim dika-dik.
Endi ovdan ham chiqib,
Tovuq patini shimib,
Poylab yotar tun bo`yi,
Uxlar keyin kun bo`yi.
Men esam, sekin turib,
Yunglarim yalab-yulqib,
O`xshab xuddi odamga,
Tashlab dumim orqamga,
Chiqib indan jirtaklab,
Har o`tganga jilpanglab,
Har ungurga besabr
Kirib-chiqib birma-bir;
Qaratib har hayvonni,
Hatto yo`lbars, arslonni,
Ochib ko`plar og`zini,
Ergashtirib Tozini,
Qaytaman u uyg'onmay.
Shunga ham u quvonmay:
"Qayda bo`lding?" – deb
so`rar,
Uxlab, qayoqdan ko`rar?..

Bo`rsiqdan rashk qiladi,
Bilmam, qaydan biladi?..
Hali u qarab tursin,
Inidan haydab ko`rsin:
Katta tovuq fermaga
Boshliq akam. Ertaga...
Do`st-yor unga
quzg'unlar!..
Uch-to`rt tovuqqa ular
Balchiqqa bir buydalab,
Tashlar uni burdalab!
Ammo narim ham
yomon...
Zir titrar butun o`rmon!..
O`lib-tirilib sal kam,
Endi o`nglanar akam...
Sirtlon-qoplonlar bilan
Tashlansami u birdan...
Akam bechora, agar...
Omon qolmas bu safar!
Oh, kimga qoldi kunim?
Xazon bo`ldi gul umrim!
Onam sho`rlik – ko`p
sobir,
Xudoning mo`mini bir.
Akam-ukamlar – anqov
Onalarim ham – merov...
Qayga borsam, borib
shaxd,
Nima yesam, yeb
xushbaxt,
Qilar edim erkin ov,
Tergamasdi hech birov...

HURLAR

Tisarilar tulki qoyaga,
Qapishar u, ana, kuykanib.
Iskanib bir uzoq qoraga,
Cho`kar, xoda dumi
piypanib...

POK RUHLAR

Nina yutgan itday,
yerbag'ir,
To`lg'onadi Bo`ri betoqat...
Ruhlar, hozir bo`ling, bu
sag'ir
Omonatga saqlang
sadoqat!

BO`RI

(*Turgan joyida doira yasab*)
 Axx, bu shaytonga shafiq,
 Qayga yo`qoldi birdan?
 Shu yaqinda u qanjiq,
 Biron kavakka kirgan!
 Shumligi-i... bu,
 muttaham,
 Boshiga yetar bir kun,
 Par yostiqlay dumi ham
 Ko`nglimga sig`mas
 bugun.
 Qandoq bo`lmasin biroq,
 Kerak menga u hozir.
 O`tmas hech qanday
 tomoq,
 Ich-etim burab og`rir.
 Ko`rdim demasdim avval
 Butun bir qo`yni, attang...
 Qani u po`rim mangal,
 Manjalaqi bu satang?!
 O`tirolmas inida
 Qo`ymas o`rtab fahsh
 ko`ngli.
 Tez-tez imi-jimida
 Tushar qishloqqa yo`li.
 Eski cho`ppat⁶⁸ – it,
 to`ng`iz,
 Jinlar g`ajib talato`p,
 Oshno bo`lib har ho`kiz,
 Buydalashib devlar xo`p,
 Kirib kelar, xuddi bir
 Podadan qochgan sigir!
 Rashk o`tida ilondek
 To`lg`onar er – Qoplonek.
 Yurar u g`oz, loursillab,
 Chil yuqtirmas etiga.
 Bir so`z desa, porsillab,
 Suvab tashlar betiga...
 (*Tumshug`ini har yoqqa
 cho`zib*)
 Shu atrofdan dimoqqa
 Odam isi urilar.
 Qarolmayman u yoqqa,
 Bir alanga gurillar...
 (*Yana iskanib*)
 Endi o`zga nozik hid
 Burab, etim jimirlar.
 O`sha bu – fason palid,
 Sezib, nafsım qimirlar.

⁶⁸Cho`ppat – mijoz

Ammo qani u battol?
 Qochdi tushib oldimga.
 Pisib yotar, ehtimol,
 Shu qoyatosh ortida?!
 (*Yerbag`irlab
 sudralgan cha asta
 qoyatosh orqasiga o`ta
 boshlaydi*)

TULKI
 (*Kirpitikanga ko`zi tushib*)
 Shuncha mazami Ilon?
 Xuddi qiymali xo`non!
 Qoplonek ham jazosi –
 Shunday xo`non jazasi!..
 (*Bo`ri poylab kelib, uni
 tappa bosadi*)
 Voy-dod, kim bu,
 qo`yvoring?!
 Voy belim, voy, oboring!..

BO`RI
 Ahha, qo`lga tushdingmi?
 O`ynatay bir pushtingni!..
 Lo`liling shaltoqi,
 Qoplonga qil, shallaqi!..

TULKI
 (*O`g`irilib*)
 Voy.. bu sizmi?..
 Bormisiz..
 Naq yuragim yordingiz...
 (*Qaltirab*)
 Shu ham hazilmi, o`ling,
 Jonim qolmadi, ko`ring...

BO`RI
 Naring qurumsoq qalay?
 “Kel, bo`yningdan bir
 yalay!”⁶⁹

TULKI
 (*Tipirchilab*)
 Sizga ishonib bo`ldim...
 Yeb qo`yasiz, voy,
 o`ldim!..

BO`RI
 (*Qo`yib yuborib*)

Tur o`rningdan,
 yotvolmay.
 O`zimni o`nglab olay...
 (*Harsillab*)
 Ozgina ul-bul yesam,
 Ilon kemirar me`dam.
 Qaydan bo`lmasin, tez
 chop,
 Bitta kirpitikan top!

TULKI
 (*O`zicha*)
 Ha-ha, seni bir boplay,
 Endi o`chimni olay!..
 Shundoq ammam hur-
 paykar
 Hali ham mashhur agar,
 Ammo sen deb, pes qari,
 O`tar yuzi teskari...
 (*Bo`riga ta`nali erkalanib*)
 Aytmay siz ham bir og`iz,
 Shunaqa-a... biz –
 birovimiz...
 Biz-ku, endi, beqadr,
 O`ylang o`zingiz axir!

POK RUHLAR
 Yo`q Tulkilar imoni,
 Qolgan ular qarg`ishga.
 Ko`ring, hozir o`z joni
 Uchun tayyor har ishga.
 Bir vaqlar bu hayvon ham
 Yashab odam suvratda
 Odamlarni damodam
 Duchor etgan g`urbatga.
 Yov bosib el-yurtini,
 Talab yotsa, bu shaltoq
 O`zgartirib turqini,
 Topgan dushmandan
 panoh.
 So`ng o`z qavmi oralab,
 Poylab og`zini doim:
 Kim dushmanni qoralab,
 Vatanim deb kuysa kim,
 Sotib ularni yovga,
 O`z elini xo`rlagan.
 Do`stlik qilmas birovga,
 O`ziga el bo`lmagan,
 O`zlarining ham oxir
 Uzgan boshini dushman.
 Hushyor bo`ling, u hozir
 Birov poyiga tushgan.

⁶⁹A.Obidjon satri

TULKI

(Kirpitikan tomonga bir ko`z yugurtirib, Bo`riga)
Siz yotib, poylab turing,
Imo qilsam, yuguring...
(Kirpitikan Ilonni yeb bitirib, endi jilaman deganda, Tulki bir hatlab, uning oldini kesib chiqadi. Bu sharpadan cho`chib ketgan Kirpitikan darrov g`ujanak bo`lib oladi)
Voy, bu menman,
Kirpijon,
Uying kuygur bu Ilon
Bosh suqmagan teshik yo`q,
Shunday shilqim, ko`zi lo`q.
O`l, yalang`och, ho`l tayoq!
Ushlang uni hoziroq.
Sudralib u beta`sir,
O`tdi shu yoqqa hozir.
(Noz bilan buralib)
Yordam bering bizlarga,
Qolib ketmas qizlarda!

KIRPITIKAN

(O`z ishidan mag`rur, asta boshini chiqarib)
Qo`rqmang aslo, Tulkixon,
Yo`q endi hech u Ilon!
Xudo yetkazib bugun,
Tutib yedim sal burun.

TULKI

(Quvonib ketgan bo`lib)
Voy, rostmi, oh, Kirpijon,
Yo`q sizga teng qahramon!
Barcha bezor, betoqat,
Sizga esa u – ovqat!..
(Kirpitikanga yaqinroq surilib)
Aytib sizni doimo,
Maqtar edi oyim, o,
Nega parvo qilmabman?
Oh, men oldin bilmabman!..
(Unga yana ham yaqinlashib)

Do`st bo`laylik... bir umr!
Ko`rib uni, voy o`lgur,
Qoldi faqat suvratim.
O`ynar hali yuragim.
(Yoniga yonboshlab)
Ushlab ko`ring siz, mana,
Urishini... qanaqa!..
(Kirpitikan asta o`rmalab, uning ko`ksiga qulog`ini olib boradi)
Uyalmang-da, o`ling siz,
Mana, bering qo`lingiz!
Ko`ring, oshgan issig`im,
Sekinroq, voy, qitig`im!..
(O`zini go`llikka solib)
Nega muncha qaltirab,
Pishqirasiz hansirab?!
Chiqib ketguday, biram,
O`ynar yuragingiz ham.

KIRPITIKAN

(Battar hayajonlanib)
Shunaqa... shu...
hayronman...

TULKI

Qo`rqmang, men ham hayvonman,
Yana zog` yo`q, o`zimiz...
Qanaqasiz o`zi siz!?
Voy-bo`, yomon uryapti!
Qarating bu yurakni,
Qani, yotingchi hozir,
Tinglab ko`ray o`zim bir.
(Uning tikanlaridan g`ashi kelib, yolg`on noz bilan)
Barrangiz odosh bo`lsin!..
(Chetga)
Bo`rivoyga osh bo`lsin!..
(Bu muomaladan Kirpitikan iyib ketib, tarvaqaylab yotadi. Tulki uning har yog`iga – dam qulog`i, dam issiq tumshug`ini bosib, erkalaganday, rosa tekshirgan bo`ladi. Burnini jiyirib, o`zicha)
Buncha badbo`y, vaq, voy-voy,
Xuddi eski halojoy!
(Kirpitikanga)

Nima balo qildingiz?

Biram xushbo`y hidingiz!
(O`zicha)
Yetmak uchun maqsadga,
Har qanday go`ng, axlatga,
Tiqib tumshuq, a`molim –
Bulg`amoqdir avlodim.
(U, qarshilik ko`rsata olmasligiga qanoat hosil qilgach, bir tishlab, Kirpining qornini yorib tashlaydi. Tulki dumini likillatganini ko`rgan Bo`ri o`qday uchib kelib, uni to tikonli terisi qolguncha, yalab-yulqib, bir zumda yeb bitiradi)

BO`RI

(Birdan dahshatli bo`kirib)
Yordam bering, oh,
makkor!
Ushlang tulkini, kim bor?..
(Yerparchin yiqiladi)

POK RUHLAR

(Bezovta porlashib)
Chaqnang balandroq,
Saflar bo`lsin zich.
Sheriklarini
Chorlar u yirtqich!..
Tulki makriga
Ilinib oson,
Yutdi Kirpini,
Hal bo`lmay ilon...

HURLAR

Yer tishlab bo`ri
Yotar qon qusib.
Tulki irshayar,
Yerbag`ir pusib.
Go`yo hech gap yo`q,
Uxlar xotirjam.
Qisq ko`zlari
Chaqnar dam-badam.

POK RUHLAR

Vo, bu alvasti!
Oh, ilonvachcha!..
Bular dastidan
Juvonmarg qancha...
Turar shaylanib,

To`lg'onar dumi.
Kelmoqda o`rab
Bo`rilar uni!..

HURLAR
Dumi bo`yniga
O`ralar, qiziq...
Xuddi qiz bola,
Bu qanday qiliq?!
Raqs tushar go`yo,
Davra aylanib.
Cho`kib Bo`rilar,
Boqar yalanib.

POK RUHLAR
Nahot bular ham
Unga iliqib,
Ikki qo`lini
Burniga tiqib,
Qolurlar quruq? –
Qochar sharmanda?!
Bosib kelar, voh,
Tashlanar, ana!

HURLAR
Yo`q bularda sharm...
O, bu tirik jon!
Yoril, ey, zamin,
Yiqilsin osmon...
.....
Sudrab har sari,
Talab, tortishar,
Xuddi zar matoh,
Yirtib qochishar...
POK RUHLAR
Oh, qanday vahshat,
Bu qorong`u tun!
Olar jonzotlar
Bir-biridan xun...
Odam bo`lib ham,
Tinmay bular hech,
Bir-birin tishlab, –
Tortgan erta-kech.

HURLAR
Biri og`zida
Yolg`iz og`zida
Birida – o`pka,
Ichak-chavog`i.
Boshi yotar qon
Chaqchaygan ko`zi.
Dumi yuz bo`lak.
Xomtalash o`zi...

POK RUHLAR
Bunda shu – hayot ...
Yorilur paqqos
Kimningki ko`zi
Ochiq bo`lsa, tors!
Yaxshiki – behush
Rahmon ushbu dam.
O`lar til tortmay
Hushi bor odam!

HURLAR
Tarqar quyun singari
Yirtqichlar ham haryoq –
qon...
Oqsab borar birlari,
Ba`zilari bermish jon.

POK RUHLAR
Qo`rqoqlar – shu, kelsa
baxt,
Do`stidan ham tonishar.
Bir falokat yetgan vaqt
Barchaga teng yopishar...

HURLAR
Tinib birdan notinch bu
olam
Tilga kirar chigirtkalar
ham.

POK RUHLAR
Qilichini tashlashib hozir,


Urrib ketgan edi iniga.
Yov qochganda, garillab
botir,
Yopisharlar endi qiniga...

CHIGIRTKALAR
Aylanadi charxpalak, –
Kecha-kunduz, chirr-chir.
Kechar ne-ne savdolar
Boshimizdan girr-gir.
Rizqimizni terib jim,
Yurganday biz g`irr-g`ir, –
Har qadam xavf-xatardan
Qaqshar yurak zirr-zir.
Ana biri – yirtqichlar,
Bir Tulki deb, xirr-xir,
Yirib-yirtidi, tishlashib,
Bir-birini shirr-shir.
Tomoqlari takillab,
Darrandalar “chirr-chir”,
Poylab yurar bizni ham,
Og`iz ochib qirr-qir.
Sal boshimiz ko`tarsak,
Uchib kelib pirr-pir,
Changal urar och arvoh,
Parrandalar berr-bir.
O`t, ushoq yeb, yalang`och,
O`nimiz loy, kirr-chir,
Oyoqosti umrimiz,
Aytishimiz jirr-jir.
Bosh bo`lmasa bir boshda,
Yursak titrab dirr-dir,
Bosib o`tar har hayvon,
Temirlar ham tirr-tir...
(Hurlar, Pok ruhlar yana
nimadandir bezovta
bo`lishib, charaqlab
yonadilar)
Nur tovlanar bir, ana,
Bu ne balo sirr-sir?
Jonig bo`lsa, qochib qol,
In-iningga kirr-kir!..

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Cho`lpon Ergash otashnafas she`rlarida asosan nimani yonib kuylagan?
2. Uning istiqloлга, erkka tashna qalbi aksi sadosi sifatida yangragan asarlarida qanday obrazlar yetakchi bo`lgan?
3. “Bezovta ruhlar” dostoni bilan shoir kitobxonga nimani uqtirmoqchi bo`ladi?
4. Shoir ushbu dostonini nega aynan shunday nomlagan deb o`ylaysiz?
5. Asarda keltirilgan timsollar, majoziy obrazlar mohiyatida qanday falsafa yashirin?

6. Dostonda qanday badiiy san'atlardan keng foydalanilgan?
7. Badiiy asar tilini misollar yordamida izohlang.
8. Dostonda remarkalarning roli qanday?
9. Sizningcha, asarda bosh qahramon kim?



MUHAMMAD ALI (1942)

MUHAMMAD ALI (Ahmedov Muhammadali) 1942-yil 1-martda Andijon viloyatining Bo`z tumanida tug`ilgan. O`zbekiston xalq yozuvchisi (1992). Filologiya fanlari nomzodi (1992). Muhammad Ali «Fazodagi hislar» (1967), «Shafaq» (1968), «Otlar yurti» (1970), «Dostonlar» (1974), «Oq nur» (1977), «Ilhom pariey» (1980), «Sen bir gulsan» (1989), «Ona duosi» (1994) va boshqa she`riy asarlar muallifi. «Mashrab» dostonida (1966) Boborahim Mashrabning fojiali hayotini tasvirlagan. «Beshgul» (1986), «Zaminda yashaymiz» (1971), «Muhabbat» (1983) dostonlari zamonaviy mavzularda yozilgan.

She`riy romani: «Boqiy dunyo» (1981). Tarixiy romanlari: «Sarbadorlar» (1989), «Ulug` saltanat».

Berdaq nomidagi Qoraqalpog`iston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1984), «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan (1999).

GUMBAZDAGI NUR

I

Turibdi bir bola
Maqbara qoshida.
Savol-la band edi
“Go`ri Amir nima!..”
“Ne ichu tashida?..”
O`zi soddagina.
Temurdir oti.

Hilpirar galstuk,
Pirpirar kipriklar,
Gumbazga termilib,
Og`riydi bo`yni.
Chiqadi, kiradi
Qabrga tiriklar,
Bolakay turadi
Unutib uyni.

“Vo-o-o!.. Qandoq qurganlar?
Juda ham katta-ku?
Bo`lganmi kranlar
Avvali ham, a?
Domlamiz der edi:
“...O`tmishda, hattoki,
Arpa non yer edi
Qari-yosh... Hamma!

Kran-ku, qiyin gap.
Arpa non yesa gar,
Yursa gar qo`sh sudrab,
Zor o`tgan umr...”
... Tushadi esiga
Yana ko`p gaplar,
Ilashar ko`ziga
Gumbazdagi nur.

II

Mittigina bolasan, asli,
Xayolingda qiziq xayollar.
Bunday o`yga borishar balki
Dunyoni bir qayirgan chollar.
Ularga-ku yarashar, ukam,
Ularga-ku, bu narsa odat.
Lekin, sening o`ylaring bu dam
Meni hayron qoldirar faqat.
Senga nima dunyo taqdiri?
Dunyo ishi bitgusi sensiz.
Bilsang, mushkul bu o`ylar siri,
Kattalar ham qolishar unsiz.
Sen-ku, bola!..

Samarqand mana!..
Ertakdan ham qadimligi rost.

Salobatu shukuh tantana –
 Faqat buyuk poytaxtlarga xos.
 Tegrasida parvona boʻlgan
 Zarafshon ham betin yugurar.
 Minoralar “koʻk – baland” degan
 Lofchilarning ogʻziga urar.
 Madrasalar moʻysafidsimon
 Roʻparangda oʻqishar duo.
 Qalandarlar kezar har tomon
 Tillarida: “Haq doʻst, yo ollo!..”
 Nariroqda bozor. Tim aro
 Besanoqdir gʻimirlagan jon;
 Buyon igna tashlansa ammo,
 Tushmogʻiga topilmas imkon.
 Buyuk poytaxt yashardi goʻyo
 Farogʻatning toʻshagida mast.
 Lekin jangu jadallar aro
 Yetmas edi nafasga nafas...
 Temurbekning shahdi koʻp baland!
 Yeru koʻkni u taq tindirdi.
 Shu lahzada qaytsa Samarqand,
 Yana otga uradi egar.
 Shunchalar tez dunyo surʻati,
 Shunchalar tez olindi Xalab!
 Jahon titrar, Boyazid kabi
 Qolmasin deb hech kimsa qaqshab!
 Qayga borsa ul chaqmoq qadam,
 Gʻolibligin aylardilar sharh.
 Shunday yashar edi Samarqand
 Zafarlarning ogʻushida gʻarq...

* * *

Qanchalar tez dunyo surʻati!
 Munchalar zud u bergan farmon!
 Bu kun poytaxt maʼyus turadi:
 Fano topmish Muhammad Sulton!
 Oʻlim asli qismati azal,
 Hammaning ham boshida bor gap.
 Amir bilar va lekin bu gal
 Tan olgisi kelmaydi, ajab.
 Eng suyuqli nabira qani?
 Qirqildimi lochin parvozi?
 Nechun endi uning vatani
 Valiahdsiz qolmogʻi lozim?
 Shak keltirib boʻlmas bir orzu
 Boʻlgan esa nahotki roʻyo?
 Manglayiga tars uradi u
 Va ingraydi: “Bevafo dunyo!..”
 Kiprigida xunob-xunob yosh
 Jilva qilar gʻamdan bexabar.
 Nahot unda yoʻq edi bardosh?
 O, chorasi boʻlsaydi agar,

Agar kelsa tirilib oʻgʻlon,
 Rostlansa gar taqdiri xato,
 Amir Temur, fotih, oʻshal on
 Taxtidan ham kechardi hatto!

Yigʻi olar koʻngil dardini,
 Garchi bitmas, nimaki sindi.
 Olamgirning koʻz yoshlarini
 Artib qoʻyar oʻzgalar endi...

Farmon qilar nihoyat amir:
 “Chorlagʻaysiz meʼmorlarni bot!
 Xazinani koʻrsating bir-bir,
 Va etsunlar saʼi-ijtihod!
 Nabiramning ismigʻa atab
 Qursunlarki shunday sogʻona,
 Istaganin osunlar tilab,
 Faqat dahma boʻlsin shohona!..”

III

Chopar zoti – xuddi zamona!
 Chaqmoqday tez u mingan tulpor!
 Jam boʻlishdi poytaxtda, mana,
 Oʻn ikki jon, oʻn ikki meʼmor.
 Buxorodan kelmish sangtarosh,
 Fargʻonalik gilkor ham bunda.
 Naqqoshini yuboribdi Shosh,
 Xorazmlik ganchkor ham bunda...
 Donishandlar bejiz demaslar:
 “Meʼmor boshi – palaxmon toshi!”
 Ne tong, turli eldan kelsa gar
 Muhandisu koshintaroshi?

Kecha-kunduz farqsiz oʻtadir,
 Qoʻl tegmaydi bosh qavushga ham.
 Subhu shomin shunda kutadir
 Koʻz ilgʻamas tumonat odam.
 Oʻn ikki jon, oʻn ikki meʼmor...
 Bir nuqtada gʻimirlar xayol.
 Loy pishitar chapani gilkor,
 Gʻisht teradi tetikkina chol.
 Ganchkorning ham yumushi dushvor:
 Ganch qotgusi shoshilmasa gar,
 Soʻngra hamma zahmati bekor,
 Unda yana boshidan boshlar.
 Naqqosh ishi undan-da, mushkul!
 Lekin ochsa ganchning bagʻrini,
 Yoqa ushlab deysan: “Nahot gul
 Tosh ichida yotmish yashrinib?”
 Koshinpazning qoʻlida sopol
 Kunguralar aylar ixtiro.
 Naykamalak parchasi misol

Nigohlarni erkalar jilo...

Yeng shimardi katta-kichik el,
Tang'ildi-ku tag'in peshana!
Haroratdan chatnagan ko`ngil
"Suv! Suv!" deya zorlanar yana.
Yigitlarning qarashi keskir,
Qaytaradi qilich damin ham.
Faqatgina sobit va eski:
Labda – kulgu, ko`zda – qotgan nam...
Xorazmda, olis qishloqda
Qay birining qolgan onasi.
Qay birining Farg'ona yoqda
Bo`m-bo`sh yotar kulba – xonasi.
Qay birining balki ayoli
Bo`taloqday o`g`il ko`rgandir?
Tandirga ham yolchimay, nolib
Yot uyda non yopib yurgandir?
Hov, yoshrog'in uyida, balki,
Umr ko`shki berildi barbod, –
Keksa ota so`nggi bor qalqib
Qiblaga yuz burgandir, hayhot.
Balki, balki, eng kenja me'mor
O`y-tashvishsiz yuribdi bunda?
Balki o`zga uyga bo`lib zeb,
Suygan yori g'amga botgandir?
Bedarak deb, nomard ekan deb,
La`nat toshin unga otgandir?..

"Bo`l, ha, bo`l!

Hey!

Angraygan kim, u?
Imillagan qaysi badkirdor?.."
Odamlar ham shoshib qoldi-ku,
Ular doim niqtovdan hushyor.
"Ha!" – deyilsa bas. Hammaning ham
Ko`z oldida turadi joni.
Muncha endi sevmasa odam
Yashamoqni, yorug' dunyoni?

IV

Gumbaz... Rangmi yoki zarhal iz,
Yo quyoshning nuri, jilvagar?
Bo`lardi u yakkayu yolg'iz,
Ko`k – takrori bo`lmasaydi gar!
Qarang, gumbaz qobirg'alari
Bir-biriga vazmin nur tashir.
Qodir qismat yo`liday bari
Bir nuqtaga borib birlashar.
Jang-jadaldan yo`q bunda asar,
Yo`q, dunyoning sho`rish – g'avg'osi.
Faqat, bunda jimgina yotar

Ulug`bekning buyuk bobosi.
Ziyoratga odamlar kelgay,
Tevarakka boqurlar bir-bir.
Ko`ngillar ham hayratga to`lgay:
"Qarangiz, o! Fotih, jahongir!
Bir vaqt unga dunyo edi tor,
Kichik qabr unga keng endi..."
Ha, Temurning oqsoqligi bor,
Tan olmaslik juda qiyindir...
Dashtga chiqqan olmasdi pichoq
Bo`lmasaydi yashashdan ilinj.
"Hokim", deya so`z aytilgan chog'
Aks-sadoday yangraydi "qilich".
Na bu hayrat, na bu taajjub!
Garchi hayrat derlar har safar.
Yo`q! Bu mangu farmoni vojib

Eskirmagan qari falsafa!

Temur, senga edimi ravo
"Fotih" degan nomni olmoqlik?
Ko`hna tarix maydoni aro
Arosatda turib qolmoqlik?
Qaygadir ot surmoqlik, nega?
Nahot seni to`ydirolmagan,
Tuprogi zar bo`lgan shu o`lka?
Ne-ne elni boqqan shu vatan?
Istabmidning yoki shon-sharaf,
Istabmidning yo mol-dunyoni?
Har narsada bor ikki taraf,
Tayoqning ham ikki tomoni...
Yevropaga panja urgali
Ul Boyazid – usmoniy arslon
Yer titratib ulgurmay hali,
Bo`lganida yer bilan yakson,
Rossiyani yutmak qasdida
Og'iz ochgan sahroi ajdar –
Oltin O`rda, qipchoq dashtida
Yer yuzidan ketganda badar,
Temur, Yevropaning chehrasi
Senga kulib boqdi o`shanda!
Ko`p g'aroyib tarixning ishi,
Iltifoti qiziq ekan-da...

Registonga yonib qarayman,
Tasavvurdan quvaman jangni.
Koshinlarni asta silayman,
Kaftim olar g`uboru changni.
Chaqnar naqsh yo`riqlarida –
Farhod orzu qilgan tilsimot.
Shohizinda girihlarida
O`z qismatin ko`radi hayot.

“Bibixonim” gumbazi turar
Bekasiday ko`ngli yarimta...
Ko`z o`ngimda shahar yugurar,
Oqib borar nigohlarimda.

O, ko`rmagan rohat to`shagin,
Jang-jadal deb tug`ilgan inson,
Me`morlikka mehring tushmagi,
Mening uchun taajjub hamon!
Nahot, qahru gumonlar aro
Guldan nozik ko`ngil yashaydir,
Ki yurt aro, maydonlar aro
Nafosatni ko`rmakka shaydir?
Ha... Bir gap bor, qadimdan kelgay,
Gapki, hanuz aylar meni mast:
“Agar bordir shisha ichra may,
Ichmay, kuchin hech bilib bo`lmas!”

V

Kechirgaysiz, aziz o`quvchim,
“O`n ikkilar” xususida gap.
Asli ular mavzu men uchun,
Asli ular – dildagi matlab.
Otarlar der keltirib imon:
“Savob bo`lar hech bo`limganda –
O`tganelarni eslab har qachon
Gul dastalash ushbu chamanda”.
Oshkoralar ichida pinhon
O`n ikki jon, o`n ikki me`mor, –
Bulutlarga ko`milgan osmon...
Yomg`irlarga zoriqqan bahor...
Nasibangiz – g`aroyib qismat,
Qismatingiz – achchiq nasiba.
Tik boqaru tarixday xilqat,
“Ojizman...” deb turar beibo.
Sizdan na bir qolibdi xabar,
Sizdan na bir qolibdi ism.
O`n ikki jon – yo`qolgan gavhar,
O`n ikki jon – ochilmas tilsim...
Xayollardan so`rayin desam,
Xayol qurg`ur o`zi omonat.
Tarix sari yurayin desam,
Oyoqlarim chalishar faqat.
Chaman tusi bo`lmasa sarig`,
Hatto telba ko`rib “Kuz” demas.
To`xta bir zum, ey ko`hna tarix,
Charxi falak aylanmay tur, bas!
Endi menga hal qilib bergil,
Bir boshimga ming bitta savol.
Sahifangni varaqla bir-bir
Tarix nomli, ey, donishmand Chol!

VI

Ajab, ko`m-ko`k turibdi gumbaz

Aza tutgan ayol singari.
Odamlar ham bir lahza tinmas
Ko`rmagandek maqbara, bari –
Ko`zlarini tikar havasmand.
O`tmish kezar edi ko`zguda,
Maqbara ham koshona monand,
Qabring bormi desa, deguday...
Lol turarlar sehr qoshida,
Kalimaga kelmaydi tillar.
Devorlarning g`ajjak qoshida
Qotib qolgan qaysi bir yillar?
Nima bordir? Toqi muqarnas
Nimalarni demoqchi shu tob?
Aqlga ham hatto bo`y bermas,
O`qilmagan bu ko`hna kitob, –
Yo`q, amirning sag`anasimas,
“O`n ikkilar” haykali erur!
Yo`q, amirning sag`anasimas,
O`n ikki qalb jo etgan g`urur!
O`n ikki jon, naqshlar ichra
Hayotingiz kezadi hanuz.
Siz tarixning dashtlari ichra
Davrlarni yoritgan fonus!
O`n ikki jon, o`n ikki me`mor,
Sizga boqar odamlar shu payt.
Derlar: “Ana nafosat, viqor!” –
O`zingizni ko`rishmas faqat.
Iliq so`zga xasis odamlar
Sizga tahsin aytishar qat-qat.
Derlar: “Ana mahorat, samar!” –
O`zingizni eslashmas faqat...

VII

Yana keldim, ey Tarix bobo,
Sendan yana talab qilurman.
O`z haqqimni qilmoqni da`vo –
Haqiqatning yo`li bilurman.
O`n ikki jon, o`n ikki me`mor,
O`n ikki g`am, o`n ikki sevinch...
Tinglovdingmi loaqal bir bor
Sen ularning ertagini hech?
Bilmasang gar so`ylab beraman,
Sahifangni qayd aylasang bas.
...Ne-ne asr, ne-ne Ahriman
Yo`llaringda qolgan misli xas.
Vallomatlar uchib gard kabi,
Past bo`lgandir haddidan oshgan...
Lekin boshqa mening talabim,
“O`n ikkilar” yo`rig`i boshqa!

Maqbara. Uy. Yo`q! Ko`hna mozor,
Sukunatning so`nggi marrasi.
Junjiktirib badanni esar

Asrlarning sovuq nafasi.
Koshin, g'irih ko`rinar arang,
Birov labin qimtiyaptimi?..
Huv, peshtoqda jimirlaydi rang,
“Qarayotgan kim?” deyaptimi?..
Ajab holat: ey Tarix bobo,
Sukunatning portlashini ko`r!
Hazin-hazin kelmoqda sado,
Tunda xira tortgan kabi nur:

“Biz o`n ikki jon edik,
Biz o`n ikki jon edik,
Tolei past yer qadar,
Himmati osmon edik,
Himmati osmon edik.
Umrndan-ku, ko`ngil to`q,
Afsus degan gaplar yo`q.
Bizlar kamtar bir odam,
Nomimiz ammo qutlug`,
Nomimiz ammo qutlug`!
Qurdik ne-ne imorat,
Ammo bilmadik g`orat,
Umr degan bu savdo
Me`morlikdan iborat,
Me`morlikdan iborat!”
Boq, ey Tarix, ohista yelar
Ne yillarning dudli sabosi.
Tinglaysanmi, quloqqa kelar
Ketmonlarning gurs-gurs sadosi?
Xayollaring ko`ryaptimi, ayt,
Osmonlarga ko`chganin to`zon?
Manglayini artar o`sha payt
O`n ikki... yo`q, o`n ikki ming jon!
Farg`onaning katta kanali
Rostlamakda qaddini shitob.
Sipo erlar bugun jangari,
Qo`lda – ketmon, bosh uzra – oftob...
Vodiy aro kezardi bayram...
Shu vodiya qishloq bor – Beshgul.
“Men –shu yoqdan!” deb chiqdi otam –
Beknazarning o`g`li Ahmadqul.
O`zbekning sho`x, chapdast o`g`loni,
O`ttizdagi tinmas bir yigit.
Bilagida kuchi to`lg`anur,
Ishtiyiqi sinmas bir yigit...
Bir durrani asraydi doim,
Garchi shuncha yillar o`tibdi.
“Yasha, mard!” – deb Tamaraxonim
Durrasini berib ketibdi!..
Bu durrani tang`ib olgan-da,
“Hay-yo, huyt!” deb ishlay bergan u.
Qirq besh kecha-kunduz deganda

Kanal ichra chappar urdi suv!
O, ko`zlarga qo`ndi tabassum,
Ko`z yosh yuvdi yuzdagi changni.
Tingla, Tarix, tingla ushbu zum
Qah-qah urib kelgan ohangni:
“Bizlar ming-ming bor edik,
Og`a-ini, yor edik.
Ko`ngillar-ku, azal keng,
Ammo suvga zor edik,
Ammo suvga zor edik”..
Sado kelar, tinglagil yana,
Sado emas, sherlar na`rasi.
Aylanadi Sirda po`rtana,
Gumburlaydi Farhod darasi!
Cho`kishlardan qochar ushoq tosh,
Xarsanglarda chaqnaydi uchqun...
Yana belin bog`lar keksa-yosh,
Yana otam yo`l olar bugun!
To`rt yil umr ne bo`pti, axir?
Lekin otam peshonasiga
Bir kamlikni bitibdi taqdir
Smolensk ostonasida...
Garchi yo`qdir avvalgi kuchi,
Shijoati garchi qolganmas, –
Turolmadi! “Chetga chiquvchi
Bu ulusda hali bo`lganmas!
Majruh bo`lsa agar bitta qo`l,
Ko`ngil – butun, butundir umr.
Qani, bizga tilangiz oq yo`l,
Orimiz bor, yigitimiz, shukur!”
O`zligini anglamak uchun,
Insonligin bilish-chun chindan,
Ne yorug` tun, ne-ne qora kun
Kurash ketdi maydon ichinda!
Erkin yurgan daryo bo`yniga
Sirtmoq tushdi, bo`ldi juda soz!
Tingla Tarix, shovqin qo`ynidan
Sizib kelar qudratli ovoz:
“Nur ham keldi, keldi suv,
Dildan yuvildi qayg`u.
Ilgimizda qolgani
Ozod, erkin hayot bu!
Ozod, erkin hayot bu!”
Tingla, yana sado keladir
Sadolardan chiqarib qanot.
Koshonaday Katta teatr
Bo`layotir Toshkentda bunyod.
Buxorodan kelgan sangtarosh,
Farg`onalik gilkor ham bunda.
Xorazm-chi, yo`llabdi naqqosh,
Samarqandlik ganchkor ham bunda...
Andakkina keksaygan otam

Qo`sholmadi bu ishga ulush.
Yig`ilgandi va lekin olam,
Shovqin-suron, harakat, junbush...
Kechalari mizg`imas me`mor,
Muhandisga orom bermas o`y.
Ganjkor ajib yaratsa gulzor,
Naqqosh guli taratadi bo`y...

Chekinish
Ohista-ohista
Kezishar ikkov,
Nuroniyy mo`ysafid,
Miqtii o`spirin.
Mo`ysafid ko`zidan
Sachraydi olov,
O`spirin beparvo
Tashlar ko`z qirin

Bezakli devorlar,
Zarhal kungura...
Fusundan yaralgan
Ajab koshona.
Layliga dars aytar
Tilsiz qayg`ular,
Sahrolar ortida
Majnun – devona...

Mo`ysafid yigitni
Turtar: – Yosuman!..
Suratga termilar
Yigit beparvo.
So`ng chetga boqadi:
– O`ziyam, deyman,
Talay pul ketgandir
Qurishga bovo?..

Bir lahza suratdan
Ko`zin olar chol,
G`ijimlangan soqol,
Chimrilgan qoshlar:
–E... shunaqa joyda
Shunaqa savol...
Shakkok-da, ko`p shakkok
Hozirgi yoshlar!

Unutib qo`yishdi
Andishani ham,
Faqat hisob-kitob
Bular bilgani.
Bu, axir, san`at-ku!
Qay mahal, bo`tam,
Arzonga tushibdi

San`at degani?..

Hayot kuzgi yaproqdek qalqib,
O`lim unga surganida ot,
Mening xalqim, fidoyi xalqim,
Kifting uzra yashadi hayot!
Jangu jadal maydoni aro
Yotganida ne-ne vayrona,
Mehnat o`pgan qo`llaringdan, o,
Qad ko`tardi shunday koshona!
Xalqim! Nokas erur ul farzand,
Gar seni deb bo`lmasa fido!
Tingla, Tarix, tingla, donishmand,
Shiddat bilan kelmoqda nido:
“Yuksak erur azmimiz!
Ham udumu rasmimiz:
Xoh qish bo`lsin, xohi yoz
Me`morlikdir kasbimiz!
Me`morlikdir kasbimiz!”
Quloqlaring bo`ldimi batang,
Bardoshing ham bo`ldimi ado?
Nahot shunday yer qattiq, zarang,
Kelmoqda-ku, dahshatli sado?
Dag`dag`aga azal parvosiz –
Yer, kaftiga qo`yib rasmana,
Toshkentdayin shaharni, esiz,
Qo`g`irchoqday o`ynatar mana.
Jarohatga bormikin malham?
Yer tinchishin ko`rarmi ko`zlar?
Shunda, bizlar chaqirmasak ham,
Qo`l cho`zishib kelishdi do`stlar.
Do`st degani ortiq bo`larmi?
Do`stlik og`ir kunda bilinur.
Tinchitib-ku bo`lmadi yerni,
Lekin qalbdan bor edi g`urur:
“Noring bo`lsa qatorda,
Qolmaysan hech xatarida.
Omon bo`lsak, xatar ham
Bir kun o`tar-ketar-da!
Bir kun o`tar-ketar-da!”
Jam bo`lishib ustayu me`mor,
Uy haqida yuritishsa so`z
Yerni quchgan metin poydevor
“Makon bo`ldim!” – deb quvnatsa ko`z,
Sollanganda shoqulning ipi,
Uyum-uyum g`ishtlar yotganda,
Devor ichra shajara kabi
Temir sinchlar tomir otganda,
Osmono`par ko`rkamgina uy
Ko`rsatganda bo`yu bastini,
Men ko`raman barchasida, huv –
“O`n ikkilar” ahdi-shahdini!

...Loy pishitar chapani gilkor...
Koshinpazning ilkida – sopol...
Naqqosh. Bo`yoq. Devor. Naqshinkor...
Me`mor. Orzu. Xayol va xayol.
“Yil o`tsa ham yil osha,
Qo`ldan tushmas poytesha.
Ishchi xalqining ko`zi
Oltin bo`lgan hamisha!
Oltin bo`lgan hamisha!”

VIII

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Go`ri Amir qo`r to`kib mag`rur,
Pahlavonday menga tikilar.
Ko`zlarimga chalinmas qusur,
Bunda bordir faqat zar, zar, zar...
Bunda bordir bir dunyo ilm.
G`ishtlar aro yashiringan roz.
Hamma bordir, hamma va lekin
O`n ikki jon bunda yo`q, xolos!..
Zulmat ichra qolganda nogoh,
Narsani ko`z ilg`amas chog`dir.
Sahrolarday kengu begiyoh,
Tarixning ham varog`i oqdir.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Ko`hna Tarix, sura berma o`y,
Hayratlanish senga ham darkor!
Ro`baro`ngda charx urmoqda-ku
O`n ikki jon, o`n ikki me`mor!
Ha, ha, ular! Yo`q, o`zga emas!
Samarqanddan bittasi, ana!
Biri hanuz umridan sarmast
Andijonda topmish boshpana.
Poytaxtda biri kun ko`rar
Bu hamsaf el, hamsaf fuqaro.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
O`n ikki jon – ajib qismatdir,
Xuddi yilning o`n ikki oyi.
Yozin-qishin sayr ayla, bir-bir –
Dalalarda, he, bir cheti mag`rib,
Bir chetida uxlaydi mashriq.

Dalalarning yam-yashil bag`ri
Dehqon uchun eng ko`hna tarix!
Yulduzsifat ochilgan chanoq –
Hayratga mos buyuk jangnoma.
G`o`zalarda yashnagan yaproq,
Tarix, senga bitilgan noma!

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Fazolarga qarar munajjim,
Ulug`bekning ilg`ar nigohin.
Yuragi ham simiradi jim
Milt-milt qilgan yulduzlar ohin.
Atorudga ko`z yugurtar u,
Suhaylni tun ichra istar.
So`ng uyiga horg`in qaytaru
Bog`chaga suv ochar ohista.
Suronlarga qo`shib ovozin
“Mana, men!” – deb ko`ksiga urmas.
Baxtin baham ko`rishga rozi,
Lekin... lekin qayg`usini bermas!

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Bastakor ham o`zicha yonur,
Kuy tarashlar tonglarni kutib,
She`riyatdan izlab qolar nur.
Alisherning ruhin shod etib,
Qog`oz uzra naqshlar chizgay –
Rohat topib salgina joni.
Yuragining chigilin yozgay
So`nggi nuqta qo`ygani oni.
Kuy... Qanchalar safoli kuy bu!
Sadolangan qaysi gulshanda?
...O`yin bo`lsa, “Paxtakor”ga u
Tushmoqni ham qilmaydi kanda.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
O`qituvchi do`stim har safar
Qush uyg`onmay otlanar ishga.
Namozshomda boqchaga kirar
Intiq turgan o`g`lin olishga...
...Bu – uysozdir, tinmaydi mana.
Poytaxtiga izlaydi davo.
“Oltmish olti” degan bir sana

Xotiradan chiqmaydi aslo...
Bunisi-chi, shoir, jangari,
Manglayiga bitgani olov.
...Vaqt topilsa, jam bo`lib bari
Choyxonada damlashar palov.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Mana yashar – inqilobchi chol –
Xotiralar ichra ko`milib.
Manglayida ko`radi iqbol
Nabiralar tashvishin qilib.
O`g`li esa dastgoh boshida,
Murvatlarda ko`rar kelgusin.
...Bu – cho`lquvar, bola yoshidan
Dasht yelida qoraygan yuzi...
Hammasida bir a`mol ezgu,
Bitta tashvish, birgina niyat,
Ko`ngillarni band etgan ham shu –
Yaratmoqlik ulug` jamiyat.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g`amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Rost gap, do`ppi aylanar bir bor
Yuz yil, ming yil deganlarida.
Sobit turgay o`n ikki me`mor
O`zbekiston chamanlarida.
O`shanda ham kezhaylar mag`rur.
Bu dunyoni ko`rgaylar obod.
O`shanda ham yurakda surur,
Qo`llarida ulg`ayar hayot.
O`shanda ham Tarix entikib,
Eslolmasa yoshligin, inon,
Mening kabi bir shoir chiqib
O`shanda ham yozgusi doston!

IX

Turibdi bir bola
Maqbara qoshida.
Ko`zida xayollar

Patirlar uning.
Ey do`stlar, u kimdir?..
Dilimda nashida! –
U bola ukamdir,
Ukamdir mening!
Bunchalar xayolkash
Bo`lmoqni qo`ysang-chi,
O`qi-o`rgan, ukam,
Fanni gangitib!
Do`stlaringni topib
O`ynoqlab yursang-chi.
Yugurib, to`p tepib,
Maydon changitib?

Vaqt kech. Yur, ukam,

Oyoqlaring tolgan.
Uyingda onang ham
Bo`lgandir intiq.
Sababini aytarsan.
Bugungi xayolga
Istasang, qaytarsan
Ertami, indin.

O`n ikki qahramon –

Qay biri shu paytda
Ko`zingda g`alayon
Ko`rmoqda balki,
Hayratingni ko`rib,
O`zi ham hayratda
Mehr-la termilib
Turmakda balki...

Gumbazda o`ynaydi

O`sha nur, o`sha nur,
Ufq asta yamlaydi
Oftobmi, qara!
Zavollar...
Savollar...
Yur, ukam, qani, yur!
Oldinda xayollar...
Ortda maqbara...

1967

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Muhammad Alining she`rlaridagi o`ziga xoslik qaysi jihatlarda yaqqol namoyon bo`ladi?
2. Uning nasriy asarlarida yozuvchi uslubi qanday rol o`ynaydi?

3. Adib tarixiy mavzularga murojaat qilishdan qanday maqsad ko'zlaydi?
4. "Gumbazdagi nur" dostoni qaysi tarixiy shaxsga bag'ishlab yozilgan?
5. Gumbazdagi nur nimaga ishora, sizningcha?
6. Asardagi bola kim?
7. Milliyligimizni ifodalovchi atamalarni topib, izohlang.
8. Poetik sintaksis unsurlari asarda nima maqsadda qo'llangan?



OYDIN HOJIYEVA (1942)

O`zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva 1942-yili Buxoro viloyatining Qiziltepa tumani Bo`ston qishlog`ida tug`ilgan. Birinchi she`riy to`plami 1970-yilda «Shabnam» nomi bilan chop ettiriladi. So`ngra «Manzillar» (1975), «Men sevgan qo`shiq» (1972), «Zar kokil qiz va quyosh» (1972), «Утренняя роса» (1973, rus tilida), «Orzu guli» (1975), «Navo» (1977), «Tarovat» (1978), «Buvisining o`z qizi» (1979), «Dostonlar» (1980), «Xushxabar» (1983), «Mushfiq onajon» (1983), «Tamal toshi» (1989), «Saylanma» (1989), «Najot» (1991), «Olisdan kelgan ovoz» (1991) kabi ko`plab she`riy guldastalari dunyo yuzini ko`rdi.

Shoiraning eng keyingi «Istiqloq qasida» nomli she`rida shu ona zaminga, ona xalqqa va uning kelajagi taqdiriga jonfidolik alohida eshilib turdi. U mohir shoiragina emas, ajoyib publitsist, tarjimon hamdir. Ayni chog`da uning asarlari qator qardosh tillar va rus tiliga tarjima bo`lgan. Ana shu faol va samarali ijodi unga O`zbekiston xalq shoirasi (1992) degan sharafni keltirdi.

NAJOT

*Alisher NAVOIY tavalludining
550 yilligiga tuhfa
Yetti fasonadan iborat doston*

BAG`ISHLOV

Navosiz ulusning navobaxshi bo`l!
Alisher Navoiy

Navro`z sayli. Toshkentning Bosh maydoniga shaharning beklari kirib keladilar. Ular zarboft choponda, manglayida bekklik jig`asi porlar. Uchqur otlarning baxmal yopqichlari tovlanar. Kumush aslahalar kun tig`ida shu`la berar. Elu yurt shodumon saylga oshiqar. Moziyning olis so`qmoqlaridan qadim Turkistonning jarohatli ko`ksiga muborak shamollar urinar. Toshkentning Sebzor, Beshog`och, Ko`kcha, Samarkand, Kamolon darvozalaridan guras-guras yoshlar qizg`aldoqlarday lovullab kelaberar.

Mavlono Jomiy, hazrati Navoiy, Furqat, Muqimiy, Fuzuliy bayram liboslarida Hizriday bo`lib, o`zbek elatini qutlagani, Iymon va Dinini butlagani, yuraklarni hayot shavqiga to`ldirgani maydonda hozir bo`ladilar.

Men-da tamoshatalab bolaga aylanib, tilim shoshib, ilhom va surur daryosi toshib, bolaligim sirli tolaga aylanib, bu tolaning bir uchi go`daklik bog`lariga meni yetaklab ketar.

Bu g`animat diydorlashuv – Hazrat Navoiy va turkiyzabon ulusning peshonasiga nur tushgan lahzalar piri komil ustozga aytib turganlarim ushbudir:

Assalomu alaykum, ustoz,
Yo`lingizga el chiqdi peshvoz.
Mehru najot istab keldilo,
Bir yo`l qanot istab keldilo.

Qurib bitgan Ruh daryosiga
Bahrul hayot istab keldilo.
Shirin ila Farhodlar kelur,
Ne minnatdor avlodlar kelur.

Chiqur go`zal kaniz Dilorom,
 Chiqur shuhrat sayyodi Bahrom.
 Yetti yoshdan yetmish yoshgacha
 Muborakbod etgali kelur.
 Bugun Sizni siylab boshqacha,
 O`zligin yod etgali kelur.
 Shohu gado kelur sig`inib,
 Bir mo`jiz a ziyoratdir bul.
 Xeshu darvesh kelur yig`ilib,
 Bir bayrami qiyomatdir bul
 Yerning yuzi odam tumonat.
 Qunning ko`zi to`libdir odam.
 Yog`ilmoqda nuri hidoyat,
 So`ngan, to`ngan dillarga malham.
 Nafasi pok, umri muborak
 Valiylarning piri, assalom!
 Turkiy elning sha`ni, taborak –
 Surasiday she`ri, assalom!
 Ulug` hazrat, dilda girdibod

O`rlab, ohlar ko`kka chiqqan choq,
 Jannat diyor qolib benajot,
 Bo`lganida bir tutam yantoq,
 Daryosini nafsi o`pqnlar
 Simirganda bir nahang bo`lib,
 Tog`laridan qochib jayronlar,
 Nabototning holi tang bo`lib,
 Jahl solib Ruhiga zanjir,
 O`tmishini unutmiganda el,
 O`zgalardan bo`lib domangir,
 Jonidan g`am o`tganida el,
 Keltirdingiz, ey ulug` Hazrat,
 Poklanishning toza havosin,
 G`aflatga qul, shuuri karaxt
 Bandalarga malham davosin
 Bir silkinib kishanin uzgan
 Bahodurdek uyg`onar Ruhim.
 Yetti roviy – yetti sibizg`a
 So`ylagani – dardim, shukuhim...

BOLALIK BOG`IDAN FASONA

Onam Toshbibi Bobojahmat qizi Buxoro inqilobi haqida yig`lab so`ylardilar. Yozning sutday kechalarida, qor-bo`ronli qahraton qish tunlarida g`aroyib ertaklar aytib berib, meni va bir etak jiyanlarimni ovutardilar. Bu ertaklar goh yetti kechayu yetti kunduz davom etardi. Biz tezroq tong otishini, kech bo`lishini kutardik. Ertaklar dunyosida yashardik.

Ro`zibiyon qishlog`i tuproq yo`lli, paxsa uyli, tolzor ko`chali bir go`sha edi. Saraton kunlari tollar tagida tizilishib, o`tgan-ketganlarni tomosha qilardik. Oq libosli, soqoli ko`ksiga tushgan Hizr boboni kutardik. Har bir yo`lovchiga ta`zim bilan salom berardik, izidan uzoq qarab qolardik. Xo`jai Hizr bobo kelmasdi, biz norastalarning kutganini bilmasdilar go`yo. Qishloqchada maktab ham, machit ham, madrasa ham yo`q edi.

Paxsa devorimizning qanotiga tutash Qizil choyxona bor edi. Ahyon-ahyon Toshkentdan, Buxorodan artistlar kelishardi. Goh esa kino ko`rsatilardi. Har bayramda Saloy bobo qizil choyxona devorlarini oqlab ketardi. Kino qo`yilgan kechalar onam «devordan shayton chiqadi, imonni buzadi», deb hovliga kirib ketardilar. Biz ham onamning izlaridan ergashib, ertaklar mamlakatiga kirib borardik. Folbinlar, jo`gilar, tilanchilar, mehtarboz-qo`g`irchoqbozlar, qalandarlar saratonda paydo bo`lib qolishardi. Lekin Hizr bobo kelmas edilar. Shunday kunlarning birida...

Kun qizdirar.
 Chumchuqlar ham
 Tol bargiga berkinibdir.
 Qo`rg`oshinday erib olam,
 Yo`laklarga to`kilibdir,
 Saratonning qozonida
 Bilqillagan yo`l qaynaydi.
 Temirchining bosqonida
 Olov degan gul qaynaydi.
 Chaylalarda qaytar nafas,
 Ishkomlarda g`o`ra chatnar.
 Molxonada mollar lohas,

Hovuzlarga shamol qatnar,
 Cho`pkori uy.
 Paxsa devor.
 Oq pilladay yetilgan tut.
 Darvozasi bor naqshinkor
 Ota meros, avlodga qut.
 Tomorqada bug`doy pishgan,
 Kahraboday boshloqlari.
 Ariqchada suvlar toshgan,
 Oqar qovun po`choqlari.
 Qarri-qurri soyalarda
 Jon saqlaydi, orom olar.

Shirin jo`xorpoyalarga
 Sho`x bolalar «karvon» solar.
 Qorashirin bir qizaloq
 Bolalarga qo`shilmaydi.
 Jinday hurkak, xayolchanroq,
 O`yinlarga shoshilmaydi.
 Nimqorong`u salqin xona.
 Vassalari taroqday zich,
 Uxlab qoldi horg`in ona,
 Nimadandir dilda o`kinch,
 Quroq qoshli yostig`idan
 Bosh uzadi qiz betoqat,
 Kimdir tutar qo`ltig`idan,
 Tashqariga undar faqat.
 Ko`zlarini ishqagancha
 Yuraberar behush, karaxt,
 Darvozaga to yetganча
 Uchib borar qushchasifat,
 Darvozada birov turar
 Kulohlari nurga o`xshab,
 Ertakdagi sohibnazar
 Balogardon pirga o`xshab.
 Boshdan-oyoq oq ridoli,
 Choriqlari paxtaday oq.
 Qo`ksin qoplab oq soqoli
 Yorishganday undai to`rt yoq.
 Nogahonda do`lday urib,
 Yoqimli kuy yog`aberdi.
 Darvozaning toqin surib,
 Qiz mo`ralab boqaverdi.
 Ko`zlaridan yosh tirqirar,
 Boshlaridan ter quyib goh,
 Quloqlari goh sirqirar,
 Varajada, qaltirab goh,

Tinglardi ul, sehrli kuy
 Qo`ng`iroqday jaranglardi.
 Va chulg`ardi talxa, xushbo`y
 Yavshanzorli zaranglardi.
 Mo`jiz adan anqayib ul
 Ostonada six qotgandi.
 Soz avjiga chiqib bir yo`l,
 Onani ham uyg`otgandi.
 – Hay, xudoning mashshoqlari
 Rizqin terib yurar har yoz,–
 Bir lo`nda choy, non ko`tarib
 Ola chiqdi narzu niyoz.
 Qalandarning liboslari,
 Sirlı soz ham bo`ldi nihon.
 Darvozada turar g`arib
 Bir bechora juldur chopon.
 Oyoq yalang, yoqasi chok,
 Boshda telpak yag`ir-yorg`oq.
 Qo`zlarida bechoralig`,
 Qo`llarida irg`ay tayoq.
 Qizcha nogoh seskandiyu
 Ko`zlariga inonmadi:
 Zar kiyimli qo`shiqchi shu
 Yirtiq to`nli insonmidi?
 Yer yutdimi? Yutdi osmon?
 Chinmidi bu, yoki ro`yo?
 Qizcha yig`lar hayron-hayron,
 Hiqillardi: – Hizr bobo!
 Meni tashlab ketmang,– deydi.
 Ko`zim yoshlab ketmang,– deydi,–
 Qumga botib to`piqlari
 Yig`lab-yig`lab chopib borar.
 Onajoni qaytaqol deb
 Bir yolborar, bir yolborar...

Hizr bobo qaytib kelmadi.

Bu hovliga kolxozning sariyog`, tuxum yig`ib yuruvchi soliqchisi serqatnov bo`lib qoldi. Gujum daraxtidan yasalgan gulkori darvozaga ko`zini tikib oldi. Pul va`da qildi. Yo`q. Evaziga bir sog`in sigir beraman, dedi. Yo`q. Ko`chirtirib yuboraman, dedi. Yo`q. Otamizdan yodgorlik, deb, darvozani berishmadi. Kunlarning birida GPUdan uch kishi keldi. Darvozani xatladi. Mohir o`ymakor usta arab alfozida Ollohi karim oyatlarini darvoza «peshonasi»ga yozgan, nafis husnixat bilan uning tabaqalarini pardozlagan edilar. Qizingiz firqa a`zosi bo`laturib, eskichaga amal qilgani, Olloni o`ziga pir bilgani uchun deb, boshida erkagi yo`q, bir etak sag`iri non deb turgan ayolni yig`latib, darvozani ko`chirib olib ketishdi. Ayolmand xonadonning farishtasi uchdi. Chor-nochor qolgan Ayol Novacha to`paridan Magalak guzariga ko`chdi. O`shanda yetti yoshda edim. Qichkinagina darcha oldida uzoq o`ltirib, oq libosli, soqollari ko`ksiga tushgan, xaloskor Xo`jai Hizr boboni kutardim. U esa bedarak edi...

QIRQINCHI QUTI TILSIMI

Zarmetan qishloqning yo`llari
 Baxmal kabi chimzor, muloyim.

Tokzorida me`mor bolari
 Qurib yotur «sharbat» saroyin.

Devorlarga mingashib olgan
 Sho`x boladay «tomoshaqovoq».
 O`tloqlarda ma`rashib qolgan
 Dikir-dikir echkiyu uloq.
 Se bargalar yashmaday porloq,
 Suv tubida yaltirab turar.
 Bo`tako`zlar quvalashmachoq
 O`ynagandek mo`ltirab turar.
 Butazorda zimillab qolar
 Oq paypoqli chopqir tovushqon.
 Yumronqoziq qaqqayib olar,
 Yo`l yo`qotgan odamday hayron.
 Qamishlar ham shovullar «viz-viz».
 Yolg`izoyoq so`qmoq. Kun – peshin.
 Kiyikchaday kelar sergak qiz,
 Ko`nglida ne xavotir ekin?
 Ro`molida tug`ilgan bir shay,
 Uni bergan pir bobojoni,
 Olib borar qizcha bildirmay
 Tog`asiga sirli dunyoni,
 Bobojoni o`qirdi takror:
 Hofiz kabi mayin, purma`no
 Ul kitobni tunlari bedor,
 Qishloq ahli tinglardi shaydo.
 Avazxonu g`arib Kuntug`mish,
 Misqol pari bo`lardi mehmon.
 Rustamxonu Barchin, Alpomish
 «Gurunglashar» edi bir maydon.
 Yo`l chetida sayisxonaga
 Duldul otlar uchib kelardi.
 So`z yoritgan majlisxonada
 Go`ro`g`libek ko`chib kelardi.
 Cho`pkori uy vassalaridan
 Humo qushi porlab chiqardi.
 Mavlavixon hassalaridan
 Kenja botir, yorab, chiqardi.
 Eski uyning ostonalari
 O`sha kecha marmar bo`lardi.
 Bobosining afsonalari
 Til uchida gavhar bo`lardi.
 Sandalida mis patnida – non,
 Turshak, jiyda – jannat ne`mati,
 Har bir odam o`zicha sulton,
 Tiklanardi Nur saltanati.
 Ilon chiqqan kasofat uydek
 Nafis majlis to`zg`idi bir kech.
 O`z akasin sotdi bir to`yda
 Uka – imon-irodasi berch.
 Dedi:
 – Ular zamondan noshod,
 Qo`msar o`tmish ovozlari.
 Yig`ilishib o`qishar bot-bot

Avliyolar bayozlarini,
 Yomon ko`rar ozod tuzumni,
 Yuragida alam-keki bor...
 Boshladilar yalpi hujumni,
 Arabchada bitgan neki bor,
 Yondirdilar, pora qildilar,
 Shayton bazm qurdilar, evoy!
 Mulla borki, qora qildilar,
 O`z yurtida qildilar gadoy,
 Qattol hukmi farmon yozildi:
 – Eskilikka solamiz qiron!
 O`n sakkizta masjid buzildi,
 Mehrobida o`ynadi shayton.
 Sallasini qorib tufroqqa,
 Xo`rladilar Mavlavixonni
 Kitoblarin kafanlab oqqa,
 Panoh bilib mozoristonni,
 Ko`mib keldi oxir benajot
 «Alpomish»ni, so`ng «Avazxon»ni,
 Inisidan ko`rib sitam-dod.
 – Ha, zamona zo`rniki bo`ldi,
 So`qirniki, ko`rniki bo`ldi.
 Fozillarga poda qavmi deb,
 Jilov solgan g`o`rniki bo`ldi.
 Kecha Tilab tergovchi shakkok,
 Kitob bor deb, go`rni ochibdi.
 Vishillagan ajdaho ko`rib,
 Nobakorlar urra qochibdi.
 Shukur, tangrim qilmish inoyat,
 Kitoblarni asrabdi o`zi.
 Ertan qilar uylarni g`orat,
 Iskovuchlar itligi qo`zib.
 Ulug` hazrat pirning devonin
 «Dafn» etarga topmadim jur`at.
 Xilvatroqqa yuboring oni,
 Yamlamasin bu qizil bid`at!..
 Va tun to`yi tasbeh o`girib,
 Olloh bilan gaplashdi jim-jim.
 Kishi bilmas bir g`orga kirib
 Ketdi, qaytib ko`rmadi hech kim...
 Bobosining noyob davlati
 O`sha devon qizning qo`lida,
 Qulog`ida ota da`vati
 Bormoqda qiz najot yo`lida.
 Vang`ozining minorasi ham
 Xomushgina kuzatib qoldi.
 Bu qiltiroq qizcha ushbu dam
 Kuch-quvvatni qaerdan oldi?
 «Huv» deganda ovoz yetgudek
 Masofada Sho`ravot qishloq.
 Ro`parada tog`ni yutgudek–
 Soy soladi yurakka titroq.

Yog'och nov bor ko`prik o`rnida.
 Doqi Yunus davridan yodgor.
 Ilviragan novning «qornida»
 O`pqn kabi teshiklar qator.
 Tugunini tashladi yerga,
 Norasida xo`rsindi xomush,
 Aqli yetmay biror tadbirga,
 «Alhamdu» ni aytdi faromush.
 Hulbo`y, sho`ra bosgan qirg`oqda
 Bir shitirlash kelar quloqqa.
 Oppoqqina xushro`y tovushqon,
 Quloqlarin ding qilib, hayron
 Qizaloqni etib imtihon,
 Qarab turar beg`amu shodon.
 Tugunini bag`riga bosib,
 Qizcha qumda cho`kkalab oldi.
 Va tovushqon bulutday to`zib,
 O`rnida oq kalava qoldi.
 Va chuvalib-chuvalib nogoh,
 Salla kabi yoyildi paqqos.
 Nov ustiga to`shaldi oppoq
 Tolalardan uzun poyandoz.
 Chuldiragan to`rg`aylar dastyor,
 Poyandozni tumshuqda tishlab,
 Soyning ikki chetida qator
 Ikki yoqdan turishdi ushlab.

Yugurgilab, qanotin yozib,
 Eson-omon o`tdi «ko`prikdan»,
 Qizcha borar vujudi qizib,
 Qum «qitiqlab» o`par to`piqdan:
 Sho`ravotning bog`boni Farmon
 Bobo qutlug` kitobni oldi.
 Bog` to`rida nazardan nihon
 Qirqinchi bol qutiga soldi.
 Har yil asal yig`ar mavsumi
 Bol olinmas so`nggi qutidan.
 – Hazratimning o`lmas so`zlari
 Behroq asalari sutidan!
 Xanjar tirab xalqning bo`g`ziga,
 Ruh gavharin yorib olganlar,
 Mil tortishib Erkning ko`ziga,
 Ro`zg`origa g`avg`o solganlar,
 Zamon kelar, soxtagar Zaydlar,
 Misi chiqib, rasvo bo`lodir!
 Yaratgandan javobi qaytar,
 Boshida ming savdo bo`lodir!
 Har xonada, har bir ravotda
 Ulug` hazrat mehmon bo`lurlar.
 Gumroh elga har mushkulotda
 Elga balogardon bo`lurlar.

Alqissa, Farmon bobo yuz bilan yuz ko`rishib, olamdan o`tdilar. Bobo asrab qo`ygan hazratning ilk devonlarini bir kun olis Leningrad shahridan kelgan olimlar katta pulga sotib olib ketdilar. U hazratning qaysi asari ekanini hech kim bilmaydi. Men hamon katta chorbog`in, chorbog` to`ridagi so`rida chordona qurib o`ltirgan, bola-baqralarga chiroyli pakkisi bilan yumshoqqina holvaytar kesib bergan donishmand boboni eslayman. Men tasavvurimda ko`rgan ikkinchi Hizr bobo o`sha kishi edilar. Hozir chorbog`dagi anvoyi mevali daraxt kesilib, yerlari yalpi paxtazorga aylantirilgan.

Mavlavixon, men u kishining nomlarini shunday o`zgartirdim, qaerga ketganlarini hech kim bilmaydi. Lekin u kishining hovli-hashamiga ega chiqqan ukaning uyida bir go`dak dunyoga keldi. U yerga tushishi bilan yemaklab, gapira boshlagan. Doya buvi «balo tug`ildi» deb, ustiga qozon to`nkargan ekan. Akaning qarg`ishiga uchradi, debdilar. Xudoning kalomi bitilgan kitoblarni yoqqani uchun har kecha tushida kimdir uning ostonasiga olov tashlab ketar ekan, deyishardi.

Kattakon hovli, sayisxona bo`sh turar, befoyzu befarishta edi...

ELDAN CHIQQAN BALO

O`zingdan chiqqan baloga,
 Qayga borarsan davoga?
 (Maqol)

«Toshtaroz» yobonda bir choq
 Chakalakzor bor edi ovloq.
 Yulg`un, shuvoq, ko`ztikan, burgan –
 Butazorda shag`ol in qurgan.
 Goh tulkilar dorib qolardi,

Savdoyilar borib qolardi.
 Latta tug`lar ilmishlar edi,
 «Avliyocha» demishlar edi.
 «Quv-quv», «yov-yov» bir zamon bo`ldi,
 Boylar «quloq», qatag`on bo`ldi.

Kitoblarni dasta-dastalab,
 Arqonlangan qulday bastalab,
 Aravaga solib keldilar,
 «Avliyo» ga olib keldilar.
 Qishloq sho`ro raisi To`lov
 Kattakon bir xodani moylab,
 Gugurt chaqib, vahshiy «hoy-hoy» lab,
 Kitoblarga yoqardi olov.
 Yumron, sichqon, ko`rkalamushlar,
 Yoztovuqlar, qirg`ovul qushlar,
 Patirlashib, pat-pari yonib,
 To`rt tarafga qochar to`lg`onib.
 Vahshat solar olov qilichi,
 Qocha olmay kitoblar yonar.
 El turar lol nafasi o`chib,
 Ko`z o`ngida savoblar yonar.
 G`irot yondi, kuydi Alpomish,
 Qizib ketdi nahs bozori.
 Yondi Iymon misoli qamish,
 Yondi yurtning hamiyat, ori,
 To`lov rais og`zi quloqda,
 Otga qamchi bosib yuradi.
 Ruhi so`ngan g`arib qishloqda
 Quzg`un kabi kezib yuradi.
 Ittifoqo, tarqaldi mish-mish:
 To`lov rais hovlisida tun
 Ajinalar bazm qurarmish,
 Qilar emish tonggacha o`yin.
 Bir kun tulki chiqib yo`lidan,
 Tilga kirib, shaytonsan, dermish.
 Va qamchisin olib qo`lidan,
 To o`lasi bo`lguncha urmish.
 Dasturxonga uzatsa qo`lin
 Mayizlari bo`lmish qumaloq.
 Tushlarida cho`qirmish tilin
 Qanotlari kuygan tuvaloq.
 Tong otgancha uy orqasida
 Bazm, vahshat eshitar yomon.
 Ko`zin yumsa, deng, yoqasida
 O`rmalardi bir chipor ilon.
 Xotiniga boqar – yostiqa
 Tumshuqli bir quzg`un ko`rinar.
 Qamalganday ajdar sandiqda,
 Xayollari buzg`un ko`rinar.
 «Avliyoda pirlar ruhi bor,
 Der edilar, Olloh mulki ul».
 Yurt udumin buzib nobakor,
 Valiylarga ko`targandi qo`l.
 Qayga ko`chib borsa, battolni
 Insu jinslar quvdi qasdma-qasd.
 Va toshirib qamchi, amalni,
 Tovba qildi bir kun xoru xas.

Bog`bon bo`lib ekkandi nihol,
 Qurib qoldi avji javzoda.
 Cho`pon bo`lib qo`y boqdi uvol
 Malik cho`lda – mulki xudoda.
 Ayni sovliq qo`zilar mavsum
 Suruviga doridi o`lat.
 Korida hech bo`lmadi unum,
 Mardikorlik qildi bir muddat.
 Savob uchun ipak qurt tutdi,
 Kirganida ayni chilbargga,
 Tarrak kabi qurtlari qotdi,
 Topolmadi yana baraka.
 Xotinni-da topshirdi yerga,
 Ul so`qqabosh qoldi benavo.
 Ey, odamzod, omadi yo`rg`a,
 Mansablardan kim topgan vafo?
 Xotiramning ko`chalaridan
 Yig`lab o`tdi Barot baxshilar.
 Halol noni, go`jalaridan
 Judo bo`lgan zoru yaxshilar.
 El-ulusning ma`rakasida
 Dillarni sel qilgan hofizlar,
 Qora tuhmat alangasida
 O`qqa uchgan aqli qomuslar
 Qo`llarini ko`rdim yoqangda,
 Ko`rdim: qo`ling bilakkacha qon.
 Telpak tutib, so`rab sadaqa,
 Yana eldan kutasan ehson.
 Ko`rdim Qo`shsha Norqul dili pok,
 Imoni pok, lekin qabri yo`q.
 «Xalqqa dushman» atab, bir nopok
 Sening qo`ling bilan otgan o`q
 Hamon undan izlab bir nishon,
 Armon bilan o`tar singlisi.
 Meva tugmay ul bo`ldi xazon,
 Sep qurt bo`lib qirqding ildizin.
 Munkillagan chol otasin ham,
 Tutib berding saylov bahona.
 Qaytar dunyo: sindi jomi Jam,
 O`tdi-ketdi umring shohona.
 Aytisharki, senga boqqan on
 Qo`rqib qochmish Yodgor devona:
 – Yelkasida bor ekan shayton,
 Til o`rnida ko`rdim tevona.
 Devonalar – xalqning suygani,
 Aytganlari tugal karomat.
 Bejiz shayton demagan sani,
 Axir shayton ishi – kasofat.
 Qazo haqdir bani basharga,
 Ne saroylar ketarlar nurab.
 To`lov o`tdi. Yig`lab borarga
 Hassakashi bo`lmabdi, yorab.

Alqissa shu: uch kunga dovur
Go`r o`ligin otib tashlabdi.
Qechalari yonibdi gur-gur,
Ko`rgan borki, yoqa ushlabdi.

Mashoyixlar demishlar masal,
Yo`qdur aslo shak-iddaosi:
– Kitob yoqqan odamning azal
Kuyib ketar ikki dunyosi...

ASORAT

Osh tortildi.
Ko`pkari bo`ldi.
Kurash tushdi nomdor polvonlar.
El-hamsoya yig`ilib keldi.
Yana to`ldi uylar, ayvonlar.
Karnay-surnay tomog`i qaqrab,
Xizmatini ayladi tamom.
To`yxonada childirma yangrab,
Boshlanadir kelin salom:
– Ko`kni to`qqiz yaratgan,
Yerni to`kis yaratgan,
Sizni egiz yaratgan
Avval xudoga salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Rasululloh payg`ambar,
Choriyoru suxanvar,
Sahobalar bonazar
Mustafoga bir salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Chorbog`dagi chinorday,
Qoyadagi shunqorday,
Davlati shahriyorday
Qaynotasiga bir salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
O`g`il tug`ib kerilgan,

Qoshi pilikday terilgan,
O`choq boshiga eringan
Qaynonasiga bir salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Ko`k saroyning gumbazi,
Eshikdagi tambasi,
Asilzoda ammasi –
Kadxudoga bir salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Javzodagi lolasi,
Bol tutgan piyolasi,
Xonimchaday xolasi,
Mahliqoga bir salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Charxning kumush parrasi,
Oq shohidan durrasi,
Beshikning kungurasi –
Ovsinchasiga salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!
Yetti pushtiga salom!
Xelu xushtiga salom!
Qo`ni-qo`shniga salom!
Kelin salom!
– Hazor alik!

Xotin-xalaj «Ko`p yashang»lab turdilar. Salomga chaqirilganlar kelinchakka tuhfalar berdilar. Kelinchak boshidan qandu qurs, tangayu tunga sochdilar. Bolalar chuvillashib, don tergan chumchuqlarday sochqiga yoprildilar. Keksalar duoyi davlat aytib turdilar, qizaloqlar havas qilib qimtinib xayol surdilar. Robixonning childirmasi halqalari bir maromda shildirar, kayvoni Pyxcora xolaning ovozi qo`ng`iroqday, chimildiqda ikki sham oshiq diliday yonar, ko`rganlar quvonib, to`yxona hayotning ilohiy nuriga cho`lg`onib turar...

Shu payt lang ochiq darvozadan uch kishi ko`rindi. Yig`ilganlar hurkib ikki chetga surindi. Mo`ylovini burab, labini burib qarab to`ppa-to`g`ri Norbo`ta raisga yo`naldi. Biri no`g`ay, bir ko`zi g`ilay, biri o`zbek, ko`lankasi maydon go`yo shu qishloqqa xon, biri o`ris, belida to`foncha, yuzida g`azabi oncha, birpas tek turishdi, peshonalari tirishdi.

To`yxona qor yoqqanday sovub ketdi. Jimlikni buzib, barmog`ini nuqib, amirkon etiklari g`irchillab, qish chillasiday qirchillab, no`g`oy kishi raisga so`z qotdi: – Xo`sh, o`rtoq firqa! Avomni yig`ib, fikrini buzib, xudoni targ`ib qilib, diniy qo`shiq aytib turganingni bilasanmi? Ulug` Lenin - Stalin g`oyalariga qarshimisan?

– Men el-yurt taomilini qildim! Ota-bobomdan qolgan udumni firqa taqiqlagan emas!

- Kerakli joyda aytishadi, firqaga kirib olgan yot unsur!
- Sen chirkin niyatlaringga firqani qalqon qilma, nomard!

Norbo`ta rais «faollar»ni to`rga taklif qildi. Kayvonilarga davom etaveringlar, dedi. Lekin, yuraklarga bir qarolik tushdi, xaloyiq birin-sirin tarqab ketdi. «Faol»lar yesa namoyishkorona chiqib ketdilar.

Norbo`ta raisga kerakli joyda «aytishdi». Eskilikka mukkasidan ketgani, xalqning fikrini «buzgani» uchun partiya safidan o`chirishdi. Oilasi bilan birga Begovot cho`llariga ko`chirishdi... Rais oqlanib keldi. Uni partiyaga tiklash haqida qapop ham chiqdi. Lekin u qayta firqa safiga kirmadi, G`ijduvon tomonlarda yashab, katta bog` barpo yetib, umri guzaronlik qildi. Undan qolgan bog`ni «Ruhi jonon» deb atashdi.

Yashil bedazorlari, bug`doyzori, qovun polizlari gurkirab yotgan kolxozdan baraka uchdi. Otxonalar huvillab qoldi, go`shtga topshirildi. Plan to`lmagan yillar aholining tomida bosilgan g`o`zapoyalarni titib, paxta izlashar, xonadonlardagi ko`rpalarni ag`darib chag`itini davlatga topshiradigan bo`lishdi.

Tog`aning ko`ziga cho`p solgan jigar
 Hovli-hashamiga qildi egalik.
 Unga tegdi qamchi, ot bilan egar,
 Kimsan – rais endi hukmi hikkalik.
 Bebiliska kelgan davlatni xatlab,
 Anjirzor bog`ni ham o`zniki qildi.
 Biror jon bu uyga ostona hatlab
 Kirmakni o`ziga oriyat bildi.
 Urushdan, ochlikdan omon o`tgan xalq
 Ko`z solmay birovning omonatiga,
 Ahil yashar edi, bilmay qosh-qovoq,
 Tushmagandi gumon asoratiga.
 Do`ppi – yovvoyilik belgisi, dedi,
 Shapka kiyib, taqdi ola bo`yinbog`.
 Hoc chekish bangilik, qo`lansa hidi,
 Chilimdan papiros erur yaxshiroq.
 To`yda choy o`rniga tortildi sharob,
 Chimildiq uzildi, kursi terildi.
 Yetim qizday qoldi poygakda savob,
 Imon ko`ngillardan nari surildi.
 Suv ichgan quduqqa tupurdi biri,
 Ariqlar suviga oqizdi axlat.
 Qo`yga cho`pon bo`ldi og`zi qon bo`ri,
 Yurakni tark etdi mehru muruvvat.
 Ahli ayoliga topingan qishloq,
 Xotiniga ketmon tutqazib qo`ydi,
 Ota-ona qildi farzandini oq,
 Bor-budini qimorga yutqazib qo`ydi.
 Tandirxonalardan ketdi farishta,
 O`choq turumlari buzildi bir-bir.
 Aristonxonayu turma qurishdi,
 Ikkidan birovi bo`lishdi asir.
 Adiru o`tloqqa qo`sh kirdi bahor,
 Shudgorlab, bariga chigit sochildi.
 Tuproqning tanidan ketdiyu mador,
 Har yili ko`ksida paxta ochildi.

To`qaylar xoqoni arslonlar gumdon,
 Qamishzor erkasi laylak, loyxo`rak,
 Qurbaqa qirildi, qolmadi nishon,
 Uchdi qirlardagi shoyi kamalak.
 Eskilik qoldig`i ataldi juvoz,
 Tegirmonlar to`xtab, baraka uchdi.
 Yurtning kuni qolib choy-nonga paqqos,
 Go`rso`xta rahbar-chi, moy, sharob ichdi.
 Kundakov etildi olmazor bog`lar,
 «Quvib» boraverdi uni «Oq botir».
 Ko`zlari berkilib qaynar buloqlar,
 Ko`paydi o`lkada mayibu basir.
 Elning ko`kragiga tushaverdi dog`,
 Rais esa taqdi ko`ksiga yulduz.
 Yalpizlarni «yutib» so`ng beton qirg`oq,
 Oqizoq nonlarni yedi yalmog`iz.
 Yerning vujudiga o`rmalab zahar
 G`o`za barglaridan to`kildi vabo
 Mezon bola - baqra borki – safarbar
 Ko`kyo`tal, sariqqa bo`ldi muftalo
 Karmanada qurib ajdarxonalar
 Havoga purkadi zahrolud tutun
 Gazini xorijga pullab, onalar
 Qozon qaynatgani topolmas o`tin.
 Beshikdan chiqmagan go`dagi majruh,
 Chillashir bolasi o`rtaydi jonni.
 Xizmati halolu o`zini makruh
 Deb yana jar soldi kelgindi xoin,
 Yalpi savodsiz deb lof urdi yayrab,
 Shahrida yalang`och haykallar qurdi.
 Minbar, majlislarda to`tiday sayrab,
 O`z tilin qashshoq deb, tubanga urdi.
 G`aznasin ustida sapcha ilonlar –
 Korxonalar yotur Ittifoq nomli.
 Tillasini yuklab ketar karvonlar,
 Gado xurjuniday to`lmaydi komi.

Xullasi kalom, «otang – paxta, opang – paxta» zamon bo`lib, yoshu qari paxtaga andarmon bo`lib, kelinchaklari rangi somon bo`lib, go`daklar ramaqdajon bo`lib, iligi puch bo`lib o`saverdi, ko`zlarini paxtaning gardi to`saverdi.

Bir jarlik yoqasiga kelib, hushyor tortib qarasaki, mol-holiga yaylovi, ekin ekarga tomorqasi, meva uzay desa bog`rog`i, suyangali tog`i, elning o`z-o`ziga siylovi, raislaridan qiyomat so`rovi qolmay turgan payti.

Qayta qurish shamoli esib, umid nihollari kurtak yozib, o`zbek o`zini insonday sezib, tomirlarida bobolarining g`ururi sizib, uvishib qolgan qoni qizib, loqaydlik zanjirlarini uzib, o`z yurtimga bek bo`laman deb yurgan zamoni.

Boburning izlarini ko`zlariga surib, Xoja Ahmad Yassaviy bilan suhbatini rindona qurib, Imom at-Termiziy ruhi poklariga imon keltirib, hazrati Navoiy pirimning hikmati muboraklariga oshiq muhibdek quloq berib, ko`ngli qulf urib turgan davron.

Darvoqe, endi jamoa xo`jaligi «Oq botir»ning hukmini bekor qilib, bir yonda olmazor, bir o`ngirda bedazor, bir qanotda qovunpoliz, bir etagida gulzor va jo`xorizor barpo qildi. Go`rso`xta rais nima bo`ldi dersiz? Ismiga «kofir» laqabi qo`shilgan hukmdor o`zini otib qo`ydi, bekafan, janozasiz ko`mildi...

HAMID SULAYMON HASRATI

..Ochti Mas`ud ko`z malomat aro,
Ko`rdi o`zni g`arib holat aro,
Ayog`i, ilgi bog`lanib mahkam,
Ko`ziga tiyra jumlai olam.
Jismining nisfi balchig`u suv aro,
Yorimi qiyrdak qorong`u aro.
«Sab`ai sayyor» dan

1950 yilning 30 noyabri. Qama-qama, ta`qib boshlandi. Navoiyshunos olim, zukko muallim Hamid Sulaymon hibsga olindi. Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad, Mahmud Murodlar bir yarim yildan ortiq qiynoqqa solindi.

Hamid akani tergovchi Konyuxov so`roq qilardi. Imtihon varaqalarini o`zbek tilida tuzgani uchun uni «millatchi»likda aybladilar. Nikoh o`qitganlar, sunnat qildirganlar, uyidan arab alfozidagi kitoblar chiqqan kishilar nomi «xalq dushmani» ga yo`yilib, qor-quyun saltanatiga badarg`a qilinaverdi.

Qafasday tor xona.
Bir parcha tuynuk.
Mahbus arkday kishi,
Minora bo`ylik.
– Bu qanday ko`rgulik,
Qabohat bo`ldi?
Insonlik sha`niga
Haqorat bo`ldi?
Ignaning ko`zicha
Nurga zor esang!
Bir yutum havoga
Shuncha xor esang!
Qalayi tavaqda
Piyova – bir yon,
Sasigan tuvakda

Tezaging bir yon...
Birpas cho`zilmoqqa
Ko`ngli ketadi,
Darhol soqchilarga
Xabar yetadi.
Qazigan olim,
Tarix bag`ridan nur
Izlagan olim,
O`z qavmu ulfating
Sotdilar seni
«Madaniy» merganlar
Otdilar meni.
Mustabid «Uchlik» ning
Hukmi yozildi:
Olimga «millatchi»

Muhri bosildi.
Ilm dunyosida
Zilzila qoldi.
Yo`liga ko`z tikib,
Fozila qoldi.
Jo`javirday ikki
Go`dagi qoldi.
Ona – yoqavayron,
Halagi qoldi.
Munaqqash devonlar
Qoldi betilmoch.
Bir to`p beimonga
Qoldi yurtu toj...
Ayiq g`orda uxlaydi,
Jonin issiq saqlaydi.

Qush uchganda, izg'irin
 Ko'k sahniga mixlaydi.
 Bunda zulmat devlari
 Qurum purkab yotadi.
 Bilmas: qachon tun kirib,
 Qay mahal tong otadi?
 Yer temirday taraklar,
 O'rmon yaxlagan qat-qat.
 Cho'qich tutgan bilaklar
 Qazydi qora lahad.
 Hamid og'a o'tirar
 Muzloq sayxon qoshida.
 O'lim quzg'un charx urar
 Har kun uning boshida.
 Arobada sarjinday
 Qalangan muz-murdalar.
 Nazoratchi qamchinlay,
 Uch-to'rt mahbus surgalar.
 Tilog'ochni arralab,
 Joy ochadi zo'r-bazo'r.
 Yerni olov «parmalar»,
 «Og'zin» ocha boshlar
 go'r.
 Quhog'ingni ochmoqqa
 Erinding-o, qaro Yer?
 Aylan endi tufroqqa,
 Yurak-bag'ri yaro Yer!
 Er yigitni yutganda,

Baxmal bo'lsang
 bo'lmasmi?
 Gul o'g'lonlar yotganda,
 Anbar bo'lsang
 bo'lmasmi?
 Tufroq, o'zing kafan bo'l,
 G'ariblarga vatan bo'l,
 Do'zax azobin ko'rgan
 Badbaxtlarga chaman bo'l!
 Go'rkov bo'lgan alloma
 Bo'zlab ibodat qilur!
 Navoiydan shivirlab,
 Yig'lab, tilovat qilur,
 Ko'zlarga tuproq to'lar,
 Yer to'ymas qursoq
 to'lar...
 Tayshet osmonlariga
 Momoqaldiraq to'lar.
 Og'aning xasta ko'ngli
 Battar buzilib qaytar.
 Quvvatini so'rib yer,
 Bag'ri ezilib qaytar...
 O'rmon – qo'rg'oshin
 zindon
 Qish to'shagan oq kigiz.
 Tun bo'yi telba bo'ron
 Barakka urur mo'giz.
 Qo'nishgan aftodalar,
 Mahbuslar – g'ambodalar,

Ko'z yumsa, alahsirar,
 Hazrat kirar tushiga.
 Kun bo'yi garang yurar,
 Kelolmaydi hushiga.
 Kafanin sudrab tunlar
 O'liklar quvar uni.
 Ilon bo'lib sutunlar,
 Harom qilar uyquni.
 Arslon edi, qobonu
 Ko'ppaklarga talandi.
 Sulton edi, ultonu
 Kamaklarga talandi.
 Gul elim, jambil elim,
 Sag'iru sabil elim,
 O'z o'g'liga «Yoriltosh»
 Bo'lolmagan qul elim!
 Jo'javirday jonim-a,
 Qadim Turkistonim-a,
 Gudoyish bo'lganmiding –
 Farzandlaring qonina?
 Elni yov bosganida,
 Ruhin dev bosganida,
 Man-man degan botiri
 O'q yeb yiqilganida,
 Shirin ko'rinib joni,
 Unutib bor dunyoni,
 Ajdarga berabergan
 Nodon ulus o'g'lonin...

MURODBAXSH BOBO HIKOYATI

«Chahorshanba
 murodbaxsh kun,
 Har bandaga najotbaxsh
 kun.
 Sahar turmoq saodatdur,
 Rizqu ro'zdan bashoratdur.
 Keksalarga imon bergil,
 Yosh-yalangga insof
 bergil,
 Xastalarga shifo bergil,
 Befarzandga tirnoq bergil,
 Kelsa-ketmas davlat bergil,
 Har dilga bir niyat bergil!
 Bulut kabi siljib yurar.
 Qizg'aldoqli pastak uylar
 Yashil tug'lar silkib turar.
 Kelinlari alla aytsa,
 Tog'lar toshi ipak bo'lgay.
 Yigitlar daladan qaytsa,

Tol-teraklar chapak
 chalgay,
 Uloqchaday bolalari
 Aytganida «Yoramazon»,
 Xush tariqat xolalari
 Tutqazadi jizzali non.
 Qizlariga ko'zgu edi
 Oy balqigan chashmalari,
 So'qmoqlarin yelkasini
 Ezmagan g'am
 poshnalari...
 Yetmish yoshli chollar
 hatto
 Nevarasin sizlar edi.
 Olmazorda jannatosa
 Kunlar hokim kezlar edi...
 Chorak asr o'tdi. Bir kun
 Yo'qlab bordim
 Olmazorni.

Nazarimda, tutildi kun,
 Bulut bosdi to'rt devorni.
 Eshiklarda temir panjar,
 Qopog'on it, sim o'rovlar.
 Qo'shnisidan kutib xatar,
 Royish bilmas kim
 birovlar.
 O'g'risin qaroqchi urgan,
 Qassoblari elni aldar,
 Qirq og'ayni gullar
 burgan–
 Chakalakka joyin bergan.
 Ariqlari balchiq-chalchiq,
 Mag'zava, kul oqovaliq.
 Ko'chalari cho'lday quruq:
 Kaftday soya-salqini yo'q.
 Tanimas el bir-birovin
 Bitta tomda yashab, tovba!

Qahat bo`lib gugurt,
 sovun,
 Har ro`zg`orda har kun
 g`ovg`a.
 Iftorida yosh-yalanglar
 Sharobxo`rlik qilar ekan.
 To`ylarida mast-alanglar
 Mushtumzo`rlik qilar ekan.
 Navro`z kuni qozonida
 Qaynamaskan sumalaklar.
 Chahorshanba azonida
 Aytilmaskan pok tilaklar.
 Machitlarning bari yopiq,
 Kushxonaga aylanibdi.
 Bangilari yo`lin topib,
 Mirzalikka saylanibdi.
 Qabrtoshda bitiklari
 O`chiribdi qavmi shayton.
 Bolasiyu kuchuklari
 Bir tabaqdan yeydi osh-
 non.

So`fi chiqmay, mezanalar
 Bo`lmish axir laylakxona.
 Pir bobodan izlab xabar,
 Topolmadim bir nishona...
 Dedilarki: arbob-o`g`il,
 Mansab quli, unvon quli.
 Ko`zi ochiq, ko`ngli g`ofil,
 Eldan chiqqan shayton
 quli.
 Davru davron surgan
 o`g`il,
 Ko`kragiga urgan o`g`il
 Buzrukvorini sharifini
 El ichinda orifini,
 Har duosi tillo cholni,
 Ma`rifatli, mulla cholni
 Esi oqqan, darbadar deb
 G`aribxonaga joyladi.
 Otasini partbiletga
 O`z o`g`li qurbon ayladi...
 Bir yoqali, bir tug`li yurt,

O`z poyingga bolta urding
 Ketdi davlat, shonu
 shukuh,
 Buncha o`zni o`tga urding?
 Pir qarg`agan, ruhlar
 quvg`in
 Murodini yo`qotgan el.
 Noni yarim, aqli buzg`in,
 Najotini yo`qotgan el,
 Boshga qo`ngan baxt
 qushini
 Tayoq olib haydagan yel
 Yuragida g`am qo`shini,
 Qonli shikor aylagan yel
 Tovba qilar murod baxshin
 Farishtasin izlar hamon
 Yetmish yillik xatosiga
 Yetti pushti to`lar tovon.

XATAR VODIYSIDAN FASONA

Navoiy ham yotar
 to ro`zi mahshar tarki xob aylab...

Afg`on tuprog`ida 1407 o`zbekistonlik yigit shahid bo`ldi. Unda otilgan har bir o`q o`zbekning diliga bir dog` soldi, afg`onning bag`riga titroq soldi. Ajal quzg`unlari navqiron yigitlarga changal urganda, ulug` shoir go`rida tikka turdi. Va ul nurga to`lgan qabr qafasini sindirib, buyuk Ruh afg`on qirlarida, soyliklarda, kimsasiz yobonlarda, tog`lar dasarida, gureza – xandaqlarda notinchu nolon kezib yurganini kim ko`rdi, kimlar ko`rmadi. Bedorxob Shoirni shahidlar boshida bo`zlab turgan chog`ida shuur oynasida ko`rib, tinglab tururman:

– Jayxun suvlarida ne boshlar oqdi,
 Suvrati, siyrati quyoshlar oqdi,
 Xasu xoshok bo`ldi, bardoshlar oqdi,
 Sanasam adashar sanog`im mening!
 Qanday chidash berding, puli Hayraton,
 O`tdi kun qamalgan tobutlar hayron,
 Dalva-dalva tanlar o`tdi laxta qon,
 Quloq-burni kesik Shirog`im mening!
 Og`zidan o`t purkab, sochib tutunlar
 Qirq boshli ajdarday o`tdi quzg`unlar.
 Tuyalar, biyalar, toylar, qulunlar –
 Loshiga chosh bo`ldi to`rt yog`im mening,
 Devlarning minora qovurg`asiday
 Tanklar, zambaraklar tog` «to`rva» sida,
 «Tomog`i» tiqilib soy, jilg`asi-da,
 Halqumi qurigan tuprog`im mening.
 So`ngaklarim kuyib, tutadi Ruhim,
 Mozorimdan uchdi jismu shukuhim,

Yo, Olloh, rasulim, xaloskor Nuhim,
 Bir yo`la yondi shox-butog`im mening...
 ... Uch vujud qo`y kabi so`yilgan yotar,
 Yonida uch kalla terilgan qator,
 Yulduzday ko`zlari o`yilgan yotar,
 Falakni titratdi firog`im mening!
 Vodarig`, o`zbekmi, armanmiding sen?
 Tojikmi, qirg`izmi, turkmanmiding sen?
 Turonmi, davlati Kirmanmiding sen?
 Dog` ustiga tushgan bir dog`im mening.
 Qo`li tosh ostida qolgan elmiding?
 O`z ona yurtningda badbaxt qulmiding?
 Saratonda yoqqan qora do`lmiding?
 Qay shamol uchirdi, toychog`im mening?
 Quvlab kelganmidi seni shum ajal,
 Va yo sarbonlaring fikrati o`sal
 Ne bo`ldi topganing, ey sabza muchal,
 Ey, umr kemasi po`chog`im mening!

G'orat o'ldi, netay, bul xoki Hirot!
 Asrab qololmadim seni, turkiyzot!
 Sirojiddin o'g'lim – Moniyi avlod,
 Bandidan uzilgan yaprog'im mening!..
 ...Ho`ngrab silar erdi qora sochlarni,
 Mungrab siypalardi qalam qoshlarni,
 Ingrab piypalardi boshsiz loshlarni...
 Ko`zlarini yopdi barmog'i uning,
 Yer-ko`kni yondirib o`krog'i uning...
 Tong otdi.
 Uyg'ondi cho`l qushlari ham,
 Uchdi qora tunning boyqushlari – g'am,
 Bitdi Bahromsherning yumushlari ham
 Chodiriga qaytdi qarog'im mening.
 Darchadan yo`naldi.
 Avval six qotdi.
 So`ng vahshiy o`kirib o`zini otdi –
 Dashtda zir yugurib, tili tosh qotdi.
 Yiqildi yuztuban qochog'im mening.
 Yerparchin, chalajon, benafas, beun
 Tuproqday to`kilib yotdi yetti kun.
 Boshida charxini yigirar gardun,
 Folida qiyomat so`rog'im mening!
 Darranda, charranda, murg'u mor yo`qtur,
 Xatar vodiysida umidvor yo`qtur,
 Suv deydi, suv tutar xaloskor yo`qtur...
 Yetar qismati qirq qurog'im mening!..
 Parlari oftobda tovlanib yal-yal
 Nogoh uchib keldi murg'i samandar,
 Qasrday yorishdi dashti valangar...
 Bahromsher ko`z ochdi, hayrati oshdi.
 Mehru ayanch bilan boqib o`g'ilga

Yetti roviyning hasrat va anduh to`la fasonalari poyoniga yetdimi, endi boshlandimi, bilmayman. Bir lahza xayol asoratidan dilni uzib yana Navro`z sabolari esgan Qadim Shoshning Bosh maydoniga qaytaman...

El oyog'i tingan. Karnay-surnaylar «g'ata-g'uti» poyoniga yetgan... Alvonlar sochiq. Gullar kapalakday to`zg'igan. Fayzga to`lgan maydonda Navoiy shukuhi, so`z fayzi, abadiyat va pokizalik yog'dularini ko`raman. Yog'du yoritgan bu yo`l Buxoroi sharifga, Samarqandning dilkusho bog'lariga, Farg'onaning so`lim go`shalariga, Xivoqning tosh ko`chalariga tutashib borayotir. Undan Vatan, millat, o`zbek xalqi, Turkiston xalqlari, bani bashar sog'ingan, sig'ingan hazrati Navoiy oftobday charaqlab borayotir. Turkiy elniig Najoti, najoti demaki uyg'ongan Hayoti, kelajakka eltar qutlug' yo`li – Hazrat Navoiy har rabotda, mahobatli osmon darvozalarida, shohko`chayu tor ko`chalarida muqaddas Hikmat sham'ini yoqadilar. Ko`hna Turkistonning darvozalaridan avlodlar yetti iqlimga oshiqadilar. Oldinda Sharqning buyuk bobokaloni Alisher Navoiy hazratlari borurlar.

- Qayga, deysizmi?
- Najot vodiysiga!
- Najotga!!!

Soyaboni bo`lgan qush kirdi tilga:
 – O`xshab o`t ichinda jizg'anak qilga,
 Bunda kelmaganingda ne murod erdi?
 Qaldirg'ochday bahor istab keldingmi,
 Avazxunday bir yor istab keldingmi?
 Shoh Mashrabday yo dor istab keldingmi?
 Bu yurtga solganing ne g'orat erdi?
 Nechun bul qavmingga solibsan qiron?
 Sendan tushuk kulcha so`rabmi afg'on?
 Aql tishing chiqmay qo`ling nega qon?
 Senga qilich bergan ne da'vat erdi?
 Tarzingga qaragam, guldin tozasan,
 To`dako`ldan uchgan suqsur g'oz-a, san?
 O`xshaysan baxshilar suygan soza san...
 Bastai balolik ne qismat erdi?
 Ko`rib, mehrim iydi, ketolmadim men,
 Boshingda yetti kun soya soldim men,
 Ollohdan umringni tilab oldim men,
 Tavba qil, tur bolam, ne g'aflat erdi...
 O`ngmidir? Tushmidir? Ul behushmidir?
 Buyuk Ruhmidir bu, Humoqushmidir?
 Bir yonda xarsanglar, bir yonda – ushtur
 Tog'day ag'nab yotar, ne vahshat erdi?
 Bir epkin uyg'otdi uni qitiqlab,
 Tuproqdan boshini ko`tardi yig'lab.
 Kim keldi bo`tam deb Bahromni yo`qlab?
 Chor taraf tosh tilsim tosh suvrat erdi...
 Bir xudoga ayon, unga sir edi
 Guvoh yolg'iz quyosh, toshloq qir edi:
 Uni asrab qolgan ulug' Pir edi: –
 Buyuk Najot hazrat Alisher erdi..

1991-yilning yanvar-may oylari

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oydin Hojiyevaning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi qanday?
2. Shoira she'riyatidagi nafislik, mayin ohangni ta'minlovchi xususiyatlar nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Uning lirikasida qaysi mavzular yetakchi hisoblanadi?
4. "Najot" dostoni qaysi tarixiy shaxsga bag'ishlab yaratilgan?
5. Asarni yozishda shoira uslubidagi o'ziga xoslik nimada?
6. Qaysi davr voqealari dostonda o'z aksini topgan?
7. Asarda xronotop masalasiga qanday yondashilgan?
8. Doston qismlarida keltirilgan epigraflar mohiyatni anglatishga qay darajada xizmat qilgan?



HABIB SA'DULLA (1942-2006)

Shoir, dramaturg, jamoatchi Habib Sa'dulla 1942-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. 1969-yilga kelib uning birinchi she'riy to'plami «Dengizdan shabada» nomi bilan nashr etiladi. Shundan so'ng uning «Bahor bilan suhbat» (1975), «Muloqot», «Yana ostonangdaman» kabi bir qator she'riy turkumlari paydo bo'ladi. So'ngra uning Ulug' Vatan urushi fojealarini ifodalovchi uch dostoni – «Onajonim», «Men tug'ilgan yil», «Tirik qurbonlar» yaratiladi. Shuningdek, shoirning «Usmon atlas» degan dostoni ham nashr bo'ladi.

Habib Sa'dulla yaratgan «Yusuf va Zulayho» dramasi ko'p yillardan buyon Andijon drama teatri sahnasidan tushmay keladi. Unda muallif Yusuf va Zulayholar muhabbati orqali yoshlarni chinakam insoniy sevgiga, sadoqat va mehrga chorlaydi. Unga 1992-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni berilgan.

DO`ST QADRI

(Turg'unpo`lat Sulaymonovni xotirlab)

Do`stim, bugun yana seni yo`qladim,
– Qaydasan?
Muallaq qoldi savolim.
Qirq yil –
Kechamidi yo o`tmish qadim,
Bevosh o`smirlikka uchdi xayolim.
Do`stim, bugun yana seni esladim,
Bosh egib yo`l oldim yana qabringga.
Qirq yil –
Yonma-yon tashladik odim,
Qachon yetmagandim sening qadringga?!
Qadr topmaganlar ketarlar tashlab,
Biz seni bir umr tutdik-ku kaftda.
Nahot, tashlab ketding
Ko`zimiz yoshlab,
Go`yo yetmaganday qalbimiz tafti.
Tashlab ketganlarga deydilar, oson,
Qiyindir yo`qotmoq do`st-qardoning.
Har gal seni qo`msab o`rtanganda jon
Eslayman tog`liklar mahzun dostonin.

I

Emish qay bir tog`ning qay bir kunjida
Qabila yasharkan baxtiyor, masrur.
Uning hurligiga, orom, tinchiga
Bir pahlavon knyaz kafildir, mag`rur.

Zimmada qabila uchun mas`ullik,
Umri mehnat bilan kecharkan go`zal.
Unga begonadir mutelik, qullik,
Ko`rar qaramlikdan
O`limni afzal.
Ishi bo`lmas ekan o`zgalar bilan.
O`zgalar taxtiga qilmagan da`vo.
Eli tinch yashasa, bas, dasti baland,
Bir kun chiqib qolmish g`ayri muammo.
Darmiyon mamlakat podshohiga
Qabila haqida yetibdi xabar.
– Ajab, u qanday xalq, tog` dargohida
Va kimdir u xalqning boshida sarvar.
Agar tinch yashasa, yashasa xurram,
Demak, yetarlidir boyluk, bisoti.
Balki o`zin shoh deb atar knyaz ham,
Kim bo`ldi, qaysi bir urug`dan zoti?
Kallasida ming xil fikrlar g`ujgon,
Qonida qaynabdi ochko`zlik hissi:
Xalqi xazinasin etmog`u gumdon,
Knyazni qul qilmoq bo`pti, alqissa.
Shundayin ulug`vor saltanat turib,
Uning amrin tutmay yurolmas bir kas.
Arkoni davlatga mashvarat qurib,
Chopar yuboribdi knyazga, xullas.
Chopar dabdaba-yu asasa bilan

Qabilaga kelmish podshoh nomidan.
 – Shohim dasti uzun, tolei baland,
 Tashrifim – bu senga ehtiromidan.
 Sen ham munosib bo`l bunday hurmatga
 Bosh egib yetib bor etgali ta`zim.
 Ul zot zo`r bermasdan qurol, qudratga
 Meni yubordi, ha,
 Qadrlash lozim.
 Choparga termulib hayronlik bilan,
 Knyaz der:
 – Ayt, shohing muddaosini.
 – To boshing ketmasdan nodonlik bilan
 Amrin tut shu tog`lar podshosining!
 Knyaz ehtirosiga berilmay, asta
 Elchiga uqtirdi ko`ngil rozini:
 – Men sening shohingga tobe emasman,
 Sen ham o`ylabroq qo`y tosh-tarozini.
 Xalqim saltanating hududidamas,
 Yashaydi ajdodlar meroslarida.
 Bizga o`zgalardan farmon kerakmas,
 Biz ham o`zgalardan mutloq narida.
 Borib ayt, shohingga dag`dag`a emas,
 Mehr bilan cho`zsin do`stlik qo`lini.
 Totuv qo`shnilikni qilurmiz havas,
 Tiz cho`kmoqdan afzal bilib o`limni.
 Xush kelsa, bosh uzra, qilurmiz mehmon,
 Poyi qadamiga gullar poyandoz.
 Ammo g`ururimiz
 Qilmasmiz qurbon,
 E`zozga munosib eturmiz e`zoz.

II

Xo`mrayib, chimrilib qaytibdi chopar,
 Mujda keltiribdi xo`p qo`shib, chatib:
 – Knyazi itday qo`rs, eli jangovar,
 Ko`rmagan shohimiz qahrini tatib.
 Saroyki bor ekan fisqu fujur bor,
 Xushomadgo`y ham ko`p shohning pinjida.
 Shohning nazaridan biri umidvor,
 Birisi yog`liroq et ilinjida.
 Xullas, yoqa ushlar arkoni davlat:
 – U qanaqa badbaxt?! Qanday bezori?
 – Unga ravo emas, mehru muruvvat...
 Qizigandan qizir ig`vo bozori.
 O`rin qoldirmaslar mulohazaga
 Toki shoh knyazdan bo`lsin darg`azab.
 Fitna qizib borar har bir lahzada,
 Tafakkur o`rniga charxlanar asab:
 – Shohim, chidamaymiz bu haqoratga...
 – Sug`urmoqlik lozim shakkok tilini...
 – Lashkar tortib borib padarla`natga,
 Ko`kka sovuraylik yurtin kulini.

Toki saboq bo`lgay har badkirdorga,
 Qayta tug`ilmagay bundayin nodon.
 Shoh sukutga cho`mar...
 Kelar qarorga:
 – Biling, sichqon bilan olishmas arslon!
 Menkim, savlatidan tog`lar hurkkan shoh,
 Lashkar surib borsam bir qabilaga –
 Bo`lmasmi sichqonga
 Arslon banogoh
 Hujum qilgan kabi ish qabilida.
 Bizga o`zini teng ko`rgan knyazni
 Keltirib poyimni o`ptirgan ma`qul.
 Va unga suyangan har nodon kasni
 O`shanda bemalol qilajakmiz qul.
 Bizga murdalardan ko`ra qul zarur,
 Shu bois befoyda jang-jadal, o`lim.
 Hamma teng ma`qullar:
 – Qoyil, tashakkur!
 – Bizga ko`rsatdingiz zakovat yo`lin.
 Hamdu sano o`qib shoh zakosiga,
 Uni duo qilar arkoni davlat.
 Yetmoq uchun chirkin muddaosiga
 Mulozimlariga solar maslahat.
 – Xo`sh, baski, so`rabdi do`stlik qo`lini
 Mayli, uzataylik, nimasi yomon.
 Totuv qo`shnilikning tutib yo`lini
 Boraylik, qolmasin ko`nglida armon.
 Mug`ombirlik bilan irshayadi shoh,
 Arkoni davlat boz chaladi qarsak.
 – Elchilarim borar, etingiz ogoh,
 Shodmiz yangi do`stni shu yerda ko`rsak.

III

Knyaz huzuriga keldi choparlar,
 O`zgacha viqoru
 O`zga ko`rk bilan.
 Totuv qo`shnilikdan,
 Do`stlikdan habar
 Sovg`a-salom, ya`ni xanjar, bo`rk bilan.
 Ittifot ko`rsatib mezbon ularga,
 To`kdi topganini dasturxoniga.
 ...Buyuk shoh qaysi kun chiqar safarga
 Belgilandi kutish joyi, oni ham.
 Knyaz kutar bo`ldi o`z sarhadida
 Tog`larning zabardast podshosini.
 U hurmat saqladi ko`ngli qatida,
 Bilmas shohning asl muddaosini.

* * *

Kelishilgan soat,
 Kelishilgan kun.
 O`rniga qo`yilib barcha qoida.

Darmiyon podshohni kutmoqlik uchun
 Knyaz yetib keldi va'da joyiga.
 Qavmidan keltirgan yigirma nafar
 Pahlavon yigitlar mehmonga peshvoz.
 ...Ajab hanuzgacha na biror chopar,
 Na belgi shohlarning tashrifiga xos.
 Knyaz hayron edi,
 Navkarlari ham,
 Atrofni kuzatdi burgut ko`z bilan.
 Na biror sharpa bor,
 Na biror odam,
 Ne sir sodir bo`ldi buyuk do`st bilan?!
 Nogoh pistirmadan "urho-ur" qilib
 Qilich yalang`ochlab yuz chog`li lashkar.
 Mo`r-malax singari birdan yopirilib,
 Mezbonga tashlandi,
 Tavba, alhazar!
 Podshoh hiylasin angladi knyaz
 Fursat o`tgan edi, nadomat bekor.
 Qo`l-oyoq zanjirda qudrati yetmas,
 Dog`da qo`ygan edi bu razil shikor.
 Uni keltirdilar shoh huzuriga
 Irjayib tutqunga tikiladi shoh.
 – Davlatim zo`riga, kuchim zo`riga,
 Imon keltirdingmi, endi, ey gumroh?!
 – Tog`lik odatiga bu ishing xilof,
 Bunday makr faqat fohishaga xos.
 Yuragingda bo`lsa sal g`urur, insof,
 Men seni erkak deb etardim e`zoz.
 – Mag`rursan!
 – G`ururim – tog`likligimda!
 – Tiz cho`ktirib qilgum g`ururing poymol.
 – Chiranma, qo`l-oyoq bog`liqligimda,
 Bandini go`dak ham yiqar bemalol.
 Vag`ir-vug`ur bilan arkoni davlat
 Shohning qo`ltig`iga purkashadi suv.
 – Shohga gap qaytarar bu padarla`nat,
 Boshi ham yelkada bir omonat-ku.
 Shoh kulmoq bo`ladi tutqun ustidan:
 – Men ham tog`likdirman unutmashuni.
 Etingni ajratsam arzir po`stidan,
 Biroq ko`tarmagay tog`lik qonuni.
 Tan olib davlatu saltanatimni,
 Qavming bilan kirgil mening izmimga.
 – Elimni, hurligu adolatimni
 Alishmam senga band jonsiz jismimga.
 Men qurbon bo`larman, el esa qolur,
 Qolur o`z erkini aylab himoya.
 Xalqin sotganlarning ismi yo`qolur,
 Mening ismim bo`lur najotkor qoya.
 – Qavmingni bir hovuch chumoli misol
 Qirib tashlamoqqa yetar shavkatim.

O`zing aql bilan gapga kiraqol,
 Tiz cho`k va e`tirof etgil davlatim.
 – Tog`lar tiz cho`kmagay,
 Men tog`dan zarra.
 Sen tog`lik g`ururin qilma xaqorat.
 Makring sezganimda
 Bilki, bir karra
 Senday riyokorni etardim g`orat.
 – Shoshma, tiz cho`ktirish mening qo`limda,
 Topaman g`ururing kuchin asosin.
 Seni hukm etmagum bugun o`limga,
 Qatl ham qilmagum yo dorga osib.
 Zindonga tashlangiz!
 Mahkum knyazni
 Qorong`i zindonga eltdilar darhol,
 Shohning xayollarin hech kim bilmasdi,
 U knyaz g`ururin etmoqchi paymol.
 "Kimdan kuch oladi, kimga suyangay,
 Nechun tan olmaydi tog`lar shohini.
 Nimadan qayg`urib,
 Nedan quvongay".
 Bilmoq istar edi zo`r panohini.
 Ayg`oqchilar ketdi knyaz mulkiga
 Ijro etmoq uchun shoh farmonini.
 U kimga suyanib xalqin erkiga
 Garov qilib qo`ydi shirin jonini.
 Uzoq izg`idilar qidirib javob
 Tog`lar podshosining savollariga.
 Bulutlar ortida qolganday oftob,
 Mulkda hamma mushtoq o`z sarvariga.
 Yoviga tashlanmoq bo`lgan yo`lbarsday
 Qo`shni shoh koridan tarang asablar.
 Eru ayol bir xil mag`rur knyazday,
 Nahot, tog`liklarda ziddir nasablar.
 Ayg`oqchilar qaytdi
 Topgan gapi shu.
 – Bor ekan qartaygan ota-onasi,
 Xotini bor ekan, bag`oyat suluv
 Ham ikki o`g`loni, bir qaynonasi.
 – Agar shular bo`lsa suyanchiqlari
 Tunda bosib borib keltiring barin.
 Ayg`oqchilar bilan bir to`p lashkari
 Ijro ayladilar podshoh amrin.

IV

Qatag`on maydoni.
 Tumonat odam.
 Shoh mag`rur o`ltirar taxtiravonda,
 Qilichi qonsirab jallodlarning ham
 Qulog`i ding turar oliy farmonga.
 Soqchi qurshovida sherday o`kirib
 Kirib kelar ekan chorasiz knyaz,

Bandi bo`lmasaydi, yemasa firib,
 Bir o`zi yuz shohga kelgudayin bas.
 Ko`zini yechdilar:
 Boqdi atrofga
 Muncha ko`p, qonga o`ch sarguzashttalab?
 Dor tagida esa
 O`xshab oftobga,
 Otasi turardi soqolin tarab.
 – Yo, rab, bu qanday hol,
 Qanday firib boz?
 Ko`zlarin o`q qilib qadadi shohga.
 Shoh bezday irshayar:
 – Tiz cho`k, et e`zoz,
 Rahming kelsin pirday pushtipanohga.
 – O`g`lim, bu mal`unga tiz cho`kma zinhor.
 Maydonni qopladi ota ovozi –
 O`ldirsa o`ldirsin meni bu beor,
 Ammo sen tiz cho`ksang bo`lmasman rozi!
 Knyaz qah-qah otar,
 Shoh talvasada.
 – Os, – dedi, – imonsiz qari ko`ppakni!
 Ko`z o`ngida ota qurbon bo`lsa-da,
 Knyaz ravo bilmas ko`z yosh to`kmakni.
 – Onasin olib chiq!
 Mushtipar ona
 Dor tagida paydo arqon bandida.
 – Tiz cho`k!
 Onang boshi izmimda mana
 Ona qichqiradi o`z dilbandiga,
 – O`g`lim, bu nomardga tiz cho`kma aslo.
 Maydonni qurshaydi ona ovozi.
 Mayli, boshim olsa roziman, ammo
 Sen tiz cho`kar bo`lsang emasman rozi!
 Knyaz qah-qah otar,
 Shoh talvasada:
 – Boshini tanidan qilingiz judo!!!
 Ona tipirchilab shahid yotsa-da
 Knyaz yosh to`kmakni bilmaydi ravo.
 Shu taxlit xotinin tilkaladilar,
 Va bismil qildilar ikki o`g`lonin.
 Knyaz boshin egmay qoyaday turar
 Va bepisand kutar shohning farmonin.
 Bir ayg`oqchi kelib pichirlar shohga
 – Yagona do`stini topib keltirdik.
 Balki ta`sir etar o`sha aytar gap,
 Yo`lga solsa uni qoldiring tirik.
 Najot topgan qulday sevinadi shoh:
 – Maydonga sudrab kel o`sha do`stini.
 U ham shu galvarsday bo`lsa banogoh
 Birgalikda shilay ular po`stini.
 Knyaz qatag`onda do`stini ko`rib,
 Qafasdagi sherday tortadi na`ra:

– Bu qanday bedodlik,
 Bu qanday firib?
 – Tiz cho`k, do`sting ketar uzlatga qarab.
 – Do`stim, bu hayvonga tiz cho`ka ko`rma!
 Maydon uzra kezar mahkum ovozi.
 O`limdan badtardir cho`kkaning ko`rmak,
 Mayli, sen uchun men o`lmakka rozi!
 Knyaz na`ra tortar
 Shoh talvasada:
 – Tilini sug`urib, terisin shiling!
 Jallod ko`z-ko`z qilar zavqu hafsala,
 Knyaz bag`ri yonar misoli pilik.
 Boshin uray desa bunda yo`q, devor,
 O`kirib-o`kirib chekardi faryod.
 To`lg`anar ko`z yoshin to`kib shashqator
 Misoli Yosuman domida Farhod.
 Shoh bu manzaradan tortadi hushyor,
 Nazdida kichrayib borardi knyaz.
 “Endi g`ururi ham, kuchi ham bekor,
 Ko`z yoshin to`kdimi,
 Tiz cho`kadi, bas!”
 Gerdayib turadi taxtiravondan
 Imo bilan chorlar bandi knyazni.
 – Ko`z yoshing ko`p oqdi to`kilgan qondan,
 Meni hayron etar faqat bir jazming.
 O`ldirdim mehribon ota-onangni,
 Parvo ham qilmading,
 Qah-qaha otding.
 Qatl etdim xotining,
 Ikki bolangni
 Bepisand qarading,
 Bir pulga sotding.
 Qatra yosh to`kmading shuncha qurbonga,
 So`qirmisan, deya men ham tong qotdim.
 Ammo bir do`stingni belasam qonga
 Ko`z yoshing sel qilib, o`zing yo`qotding.
 Menga izohlab ber,
 Bu qandayin hol
 Go`yo vidolashding Ko`k, Quyosh bilan.
 ...Knyaz javob berar turib bemajol
 Dilda armon bilan,
 Ko`zda yosh bilan:
 – Senga begonadir bu nodir tuyg`u,
 Ta`na qilma, nomard, ko`z yoshlarimni.
 Yovuz niyatingga yetolmading-ku,
 Qatl etganing bilan qondoshlarimni.
 Ota-onam so`yding, bag`rim tilindi,
 Lekin taskin berdi hayot qonuni.
 Ular qartaygandi, erta yo`ndin
 Ketar edi, sen ham bilarsan buni.
 Xotinin charog`i edi xonamning,
 Ravo qilding gulday jismini yerga.

Nasli qolmasin deb ikki bolamning,
 Terisini shilding, qayg'urmay nega?
 Lekin hali yoshman umidli dunyo,
 Uylanarman, bo`lar farzandlarim ham.
 Shu bois yosh to`kib qilmadim g'avg'o
 Qilichdan o`tganda dilbandlarim ham.
 Ammo hayotimning sodiq hamrohi,
 Yagona do`stimdan aylading judo.
 U bilan kechgandi umrimning rohi
 Endi unday do`sni berarmi Xudo!
 Endi kim bezatgay umrim yo`lini,
 Bunday do`sni qaydan topaman endi?!
 Mana, sen, cho`zdim deb do`stlik qo`lini
 Makru-hiyla bilan aylading bandi.
 Qo`ldan tushib ketdi shohning qilichi
 Mag'rur zanjirbandning bu hasratidan.
 Knyaz turar edi jonidan kechib,
 Ko`zi qonga to`lib o`ch, nafratidan.

XOTIMA

Mana, ikki yilki, yonimda yo`qsan,
 Bugun noming tutib chaqirmoq abas.

Davrada qah-qahang yangramas sho`x-
 shang,
 Basting ko`rganlarda qo`zg'amas havas.
 Bir yon bo`sh, misoli singan bir qanot,
 Suyanmoqchi bo`lsam tirsak muallaq.
 Balki imtihondan o`tkazar hayot,
 Balki bu qismatni baxsh etdi Olloh.
 Ikki yilki sensiz yashar Namangon,
 Bir sim uzilganday go`yo toridan.
 Bog`idan kamaydi bitta g'azalxon,
 Bir yaproq uzilgan alp chinoridan.
 Goho menga qarab itlar hursalar,
 Qolgum o`sha knyaz tushgan holatga...
 Seni eslaganda oqshom yo sahar,
 Deyman, diydor qoldi ro`z-qiyomatga.
 Kunlar o`tgan sayin tog`day yuksalib
 Yanada ulug`vor sezilar qadring.
 Men chorasiz qolib – chiqsam mung`ayib
 Mung`ayib qarshilar chorasiz qabring.
 Joyingni jannatda tilab Xudodan
 Tilovat o`rnida o`tsin bu kalom.
 Do`stin yo`qotmasin dunyoda odam –
 Kaftim yuzga tortib qilguvchi duom.

1997

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Habib Sa'dullaning Ulug' Vatan urushi fojealarini ifodalovchi uch dostonini ko'rsating.
2. U qaysi dramasi orqali yoshlarni chinakam insoniy sevgiga, sadoqat va mehrga chorlaydi?
3. "Do'st qadri" dostoni kimning xotirasiga bag'ishlab yozilgan?
4. Tog'liklarning mahzun bir dostonini o'z asariga qoliplovchi hikoya tarzida kelirishdan shoirning maqsadi nima edi?
5. Asarda qanday insoniy tuyg'ular yuksakka ko'tarilib, ulug'lanadi?
6. H.Sa'dulla dostonida qanday badiiy san'atlardan foydalangan?
7. Badiiy asar tili xususida nimalar deya olasiz?
8. Shoir Xotima qismida nimalarga urg'u bergan?



TOSHPO`LAT AHMAD (1942-2020)

Toshpo'lat Ahmad 1942-yil 13-dekabrda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Denov qishlog'ida tug'ildi. "Buxoro yulduzi" nomli hujjatli qissasi (1971), "Qasam va qasos" (1973), "O'g'lingman, hayot!" (1974), "Qalbning oppoq gavhari" (1975) kabi ocherklar to'plami, "Ochiq eshik" nomli hikoyalar to'plami (1975), "Minorlar va chinorlar" (1980), "Oydin xayollar" (1984), "Tabassum bog'i" (1986), "Ahli muslim mehrobi" (1991), "Imon qal'asi" (1994) singari she'riy kitoblari nashr etildi. Keyingi yillarda shoirning Buxoroning 2500 yilligiga bag'ishlangan "Sharq tumori" (1996), "Fig'on" (1994), "Buxoronoma" (Saylanma, 1997), "Chorbakr" (1996), "Gavhari jonim" (2009), "202 atirgul" (2013) nomli kitoblari chop etildi. "Fig'on" pyesasi sahna yuzini ko'rdi. "Qutlug' ostona" (2006), "Sharq gavhari" (Saylanma, 2007), "Qalam va alam" (2008), "Navro'zingdan o'rgilay" (2010), "Sajdagoh" (dostonlar, 2011) asarlari e'lon qilindi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Toshpo'lat Ahmad 1998-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni, 2007-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan. U "Oltin qalam" xalqaro mukofoti sohibi.

BUXORONOMA

1

Tarix varaqlayman bag'rim xun bo'lib,
Asrlar o'tarlar oysiz tun bo'lib.
Qulog'imga kelar otlar dupuri,
Zamonlar shovqini, qalblar gupuri.
Xayolda jonlanar moziy betartib,
Davronlar, karvonlar o'tar saf tortib.
Kechmishning shu so'ngsiz dengizi aro,
Izlaganim sensan, ona – Buxoro!

2

Kim kelayotgan tig' yalang'ochlab,
Kimnidir taqima olibdi bog'lab.
Yulduzdek sochilar bandining qoni.
Uzilmas, simobdek urinar joni.
Qamchi, tig' tanini etsa-da abgor,
Qutayba ko'ziga tik boqar takror.
Qonlarga bo'yalgan ey motamsaro –
Buyuklari zindon bo'lgan, Buxoro!

3

Falakka til cho'zar olov va tutun,
Shahar alangaga cho'lg'anmish butun.
Yonar madrasalar, yonar ravoqlar,
Yonar sardobalar, yonar qishloqlar.
Ko'ksini g'am toshi aylab za'faron,
Benajot, beqanot, behol, bedarmon,

G'aznaviydan zulmidan bag'ri ming pora –

Toptalgan, talangan, sho'rlik Buxoro!

4

Odam nigohiga sig'adi olam,
Olam gar boqmasa bekordir odam.
Odamning nigohi nurga to'lsin deb,
Olamning nigohi mudom kulsin deb,
Qalb qoni-la yozib "Kitob ash-shifo",
Ne-ne yuraklarga bo'lsa-yu shifo,
O'zi sarson bo'lib yursa dahr aro –
Sinoni intizor kutgan Buxoro!

5

Toleing shunchalar qaromidi, ayt,
Boshingga yog'ilgan balomidi, ayt.
Kayxusrav qilichi qoning to'kdi-ku,
Chingiz palaxmoni qadding bukdi-ku.
Xazon bo'ldi, elim, bog'ingda gullar,
Falakni titratdi yetimlar, tullar.
Farzandi qirilgan ey baxti qaro –
Tarobiy ko'zida kotgan Buxoro!

6

Keldilar, ketdilar zobitlar bir-bir,
Ko'zlarda qon edi, qo'llarda shamshir.
Va lekin ul shohi buyuk, dilovar

Yulduzlar chiroyin aylab munavvar.
Senda bunyod etmish binoga yozdi:
“Muslim, muslimaga o`qimoq farzdir!”...
Im osmonida yuz ochar Zuhro,
Ulug`bek izini o`pgan Buxoro!

7

Bu olam azaldan armonli olam,
O`lchasang, ko`ksida qalashgandir g`am.
Fig`onlar to`foni ko`klarga yetar,
Faryodlar bo`roni yerni titratar.
Ayol jallodini bashar kechirmas,
Ayol ovozi hech kim o`chirmas.
Qo`qon sari yurgach amir Nasrullo –
Ortidan qon qaqshab qolgan Buxoro!

8

Zulmat tun qarida yondi bir chiroq,
Shu`lasi, jilosi tong kabi porloq,
Va lekin nurini to`sdi qoyalar,
Boshida charx urdi mash`um soyalar.
Sham kabi parpirab o`chdi ul otash
Va lekin dillarga ko`chdi ul otash.
Zamon zolim edi, hayot timqaro –
Donish orzulari so`ngan Buxoro!

9

Qayoqqa shoshilar “Yosh buxorolik”,
Xayoli oshufta, ko`ksi yaroliq.
Qal`ayi Arkdan u istarmi najot?
Ponning tilidan bol tomar nahot?!
Shakkar deb kutgani og`u bo`ldi-ku!
Quvonch deb kutgani qayg`u bo`ldi-ku!
Ayniy oh chekadi, tani yuz pora ,
Sitamlar domida qolgan Buxoro⁷⁰!

10

Ul kun nazar solsam Minori Kalon
Bag`ridan bir oltin kosa –
Qon-yosh bilan limo-lim,
dayus Amir Olim
Qusig`iga yonboshlagan bir badmast
razil – past...⁷¹
Ko`z yoshu qon ichra botgan Minora –
Qaddi dol, ruhi xor, mahzun Buxoro!

11

Olisdan mavjlanib keldi bir xitob,
Xitobmi, dillarni yoritgan oftob.
Mudroq yuraklardan berdi u sado,
Tugilgan mushtlrdan taratdi nido:
“Yashasin xurriyat, yo`qolsin zulmat”,

⁷⁰ Yosh buxoroliklarning amirga xitoblaridan so`ng
Sadridin Ayniy hibsga olinib, 75 darra bilan
jazolangan edi.

⁷¹ G.G`ulomning “Yalovbardorlikka” she`ridan

“Cheksin istibdod, hur bo`lsin
millat!”
Ozodlik azizsan, nondek bebaho,
Uyqudan uyg`ongil, uyg`on, Buxoro!

12

Vijdon yetaklasa, buyruq ne hojat,
Iymon yetaklasa, nadir zarurat?
Vijdonu imoning pok bo`lsin deya,
Kiprigu kamoning shod kulsin deya,
Qo`zg`aldi bag`ringda kudratli to`fon,
Qo`zg`aldi “al-omon” deya olomon.
Fayzulla dilida mavjlangan daryo –
“Baynalmilal marshin” chalgan Buxoro!

13

Ne baxt, osmoningda chaqnadi chaqmoq,
Bulutlar taniga tushdi-ku titroq.
Quyosh saxiy nurin sochgandek lov-lov,
Registon ustida porladi yalov.
Sen o`shal yalovga tikib ko`zingni,
Hurlik nigohida ko`rding o`zingni.
Aldangan, adashgan shahri xumoro –
Sharqning darvozasi bo`lgan Buxoro!

14

Seni Kremelda necha bor ko`rdim,
Yuzingda yolqini chor-nochor ko`rdim.
Пыич go`yo mamnun tinglardi seni,
Go`yo mehribondek “anglardi” seni
Sen unga “ota” deb qilding armug`on,
Buxoriy do`ppiyo buxoriy chopon...
Saroblarga uchgan soddasan, e voh –
Boyligi Maskovga peshkash Buxoro!

15

Erk degan oftobning soyasi bo`lmas,
Erk degan mohtobning qoyasi bo`lmas.
“Hujum” qanot yozib kirganda yurtga,
Qoyalar, soyalar chekindi ortga.
Gulxanga tashlandi, paranji, chachvon,
Go`yo yonib bitdi qop-qora zamon.
Erk nuri chehrasin etgan mohpora –
Tongdayin musaffo, erkin Buxoro!

16

Ne baxt, gurkirasa bohlarda gullar,
Ne baxt, saodatni madh etsa dillar.
“Bunda orzu qozonadi ot,
Bunda sevgi yozadi qanot.
Xazon qilmas Zaynabni zamon
Va otashda o`rtanmas Omon...”
Muhabbat g`unchasin aylagan soro –
Marmar havolari so`lim Buxoro!

17

“Fanga yurish kerak”, deganda sen ham
Yaratmoq qo`shig`in kuylading xurram.

Kamalak jilosi edi javloning,
Ellarga taraldi shuhrating, shoning.
Sharof bobo⁷²laring taratdilar shaʼn,
Hurmatoy⁷³ ipakdan kashf etdi chaman.
Paxtaday, ipakday ey suxanoro –
Mehnatkash, zahmatkash, dehqon Buxoro!

18

Bir sahar... chayqaldi olam sartosar,
Toʻplar gumbiriga choʻmdi bahru-bar.
Nahotki, tong yana zulmatga mahkum,
Nahotki, tun yana boʻladi hokim?!
Yurakka, bilakka tushdi alanga,
“Jonlar fido boʻlsin aziz Vatanga!”
Yana sinovlar boʻlding roʻbaroʻ –
Qasoskor, fidokor, jangchi Buxoro!

19

Rus uyi – oʻz uyim, ostonam deding,
Belorus, ukrain – doʻst-ogʻam, deding.
Doʻstlikka koʻksingni aylading qalqon,
Sulton Joʻralaring fido etdi jon.
Burch nomli sadoqat – yoʻlingda mayoq,
Oʻzga yurtlar uchun qadading bayroq.
Gʻoliblar safida tillari burro –
Minglab farzandidan judo Buxoro!

20

...Oʻtmishing esladim yoniq dard bilan,
Kechmishing esladim bir faryod bilan.
Koʻksingni tigʻlagan alam – oʻt edi,
Koʻngil qashshoqligi senga yot edi.
Bir burda nonga zor oʻtding-u, ammo
Yuraging taftidan porladi daho.
Oʻzi aftoda-yu, irfoni aʻlo –
Buyuk farzandlarga beshik Buxoro!

21

Bobur taʻrif etgan goʻzal shahar – sen,
Turdiy umri kechgan gʻazal shahar – sen.
Sensan Forobiya ilhom baxsh etgan,
Rudakiy qalbiga sheʻrni naqsh etgan.
Abu Narshaxiyning raqami – oʻzing.
Kavkabiyy⁷⁴ torining maqomi – oʻzing.
Zimziyo shomda ham taratgan ziyo –
Bagʻridan quyoshlar sochgan Buxoro!

22

Qoʻlimda “Shoxnoma” – ganji muqaddas,
Koʻz tikib, bir lahza yutaman nafas.
Nigohim yondirgan yulduzmi, xatmi,

⁷²Sharof bobo Hamroyev – dongdor paxtakor

⁷³Hurmat Teshayeva – ipakchi, Davlar mukofoti laureati

⁷⁴Kavkabiyy – Buxoroda yashab oʻtgan mashhur maqomshunos.

Muqimxon⁷⁵ qalami sochgan ziynatmi?
“Xamsa”da mavjlangan nurlar, jilolar
Jilomas, kiprikdan tomgan tillolar.
Asrlar mulkini asrab qalb aro –
Oʻchmas qilib yozgan xattot Buxoro!

23

Qulflab qoʻygan edi erking, ovozung,
Ikromiy yozgandek necha darvozung.
Endi bittagina darvozung bordir,
Kim tashrif buyursa, unga baxt yordir.
Oʻshal darvozadan koʻrinar qadding,
Koʻrinar jamoling, javloning, jaxding,
Doʻstlar kelar boʻlsa, deysan: marhabo –
Koʻngil darvozasi ochiq Buxoro!

24

Garchi nooʻrindir, ayon etayin,
Asr fojiasin bayon etayin.
Yer uzra “yozgi bogʻ” boʻlsin deb tanho
Meʻmorning barmogʻin qirqdilar, evoh!⁷⁶
Ammo usto nomin biladi olam,
Barmogʻin sehridan barq urar koʻklam.
“Mohi Xossa” porlar misli Surayyo –
Saʻnat saltanati goʻzal Buxoro!

25

Ayting, oʻlchanarmi pulga nafosat,
Nazokat sotilgan kimga, qay fursat?
Lekin ogox boʻlsin dunyo bir gapdan
Puldor mister kelib Amerikadan⁷⁷
Pesh aylab bexisob boylik – dollarin,
Sotib olmoq boʻldi “Somoniy qabrin”.
Nafosat emasdir tikan yo xoro –
Oltin bergusiz boylik Buxoro! –

26

Yashargan Chor Minor qoshida turib,
Nechun faxr etmayin chiroyin koʻrib.
Shamshod qomatingga boqib la-Guma⁷⁸,
Shunday baho berdi, bu – chin hangoma;
“Afshonalar ichra tengsiz afshona,
Beqiyos, betimsol, yangroq fasona!...”
Ne-ne ulugʻlarni qutlar shuaro –
Dunyoning nigohi tushgan Buxoro!

⁷⁵Muhammad Muqimxon – XVII asrda Buxoroda yashagan mashhur xattot, miniaturachi.

⁷⁶Rivoyatlarga koʻra, “Moxi – xossa” dagi “Oq zal” qurilishi poyoniga yetgach, amirning buyrugʻi bilan Usto Shirin Murodovning barmoqlari qirqilgan...

⁷⁷Amerikalik bir kapitalist 1937-yilda Buxoroga kelib, “Somoniy qabri”ni sotib olmoqchi boʻlgan.

⁷⁸Aleks la-Guma – Janubiy Afrika yozuvchisi, Xalqaro Nilufar mukofoti laureati.

27

She'riyat, osmoning bunchalar oydin,
Oy bo`lib porlaydir Gucchhra, Oydin.
Kimningdir yangradi shod qahqahasi,
Balki Ne`mat Amin quvnoq xandasi.
Ilhom bulog`idir Labi Hovuzing,
Iqbolning kuylaydi har o`g`il-qizing.
Jamol Kamol she`ri yanglig` dil oro –
Dilni shaydo etgan shoir Buxoro!

28

O`zbekiston boshing uzra qamardir,
Saxiy siynang sandiq-sandiq samardir.
Shu qamardan ko`zing mangu charog`on,
Shu samardan taxtu baxting farovon.
Salobating, sadoqating tog` qadar,
Saodating, saxovating bog` qadar,
Zarafshoni mavj aylagan boy sahro,
Oltinqaynar , tuprog`i zar Buxoro!

29

Yuraging quyoshi dunyocha bordir,
Yuraging otashi daryocha bordir.
Gazlning qa`ridan oqqan harorat
Qit`alar qalbini bog`ladi, ne baxt!
Dashtaro porlagan ko`shkmi, saroymi,
Qoshida ta`zimkor bobo Navoiy!
Javohir taratgan ey guli humro⁷⁹
Chamanday yashnagan sayqal Buxoro!

30

Bir ezgu istakka intizor eding,
Yetim bo`tadayin suvga zor eding.
Azm etding, jazm etding – mushkuling
kushod,
Do`stlik qudratidan ko`zing kuldi shod.
Suv keldi, nur keldi – armoning keldi,
Saxiy Amu keldi – darmoning keldi.
Cho`llaring, yo`llaring topmoqda oro –
Donish orzulari yongan Buxoro!

31

Buyuklar yo`lidan o`tmoq farz erur,
Buyuklar qo`lidan tutmoq qarz erur.
Ne ajab, avlodning aqlida bugun
Yuz ochsa, ko`z ochsa muammo, tugun.
Samoga bo`y cho`zgan har bio koshonang,
Muazzam, mo``tabar, ajib darsxona...
Shahri fan, shahri nur, shahri ixtiro –
Ibrohim Mo`minday olim Buxoro!

32

Bunda har bitta bog` – chashmayi ijod,
Ulug` bobolarning rug`i kezugay shod.
Davramiz sarboni buyuk Fitratdir,

Har lutfi, kalomi mangu ibratdir.
Toshpo`lat Hamidning nomi dilga jo,
Sharif Nurxon yodi o`chmagay aslo...
Ismoil Buxoriy, Naqshband bobo –
Duolarin olgan qutlug` Buxoro!

33

Men-ku farzandingman, onajon – shahrim,
Til berding, dil berding – cheksizdir mehrim.
Mehribon qo`lingning taftini tuyib,
Har lahza eslayman nomingni suyib.
Lekin javob bergin: bir bor ko`rganda
Nechun dilga tugdi noming Neruda?⁸⁰
Tabarruk Sharq kabi sehrli dunyo –
Tabarruk Vatanning ko`rki Buxoro!

34

Jo`yi Mo`liyondan navo keladir,
Shoh Ariq shaldirab, zebo keladir.
Domla Halim kuyi yayratar dilni,
Ota Jalol sozi sayratar tilni.
Mujrimning ilhomi yangraydi bunda,
Mushfiqiy kalomi yangraydi bunda.
So`lim Zarafshondek ey ohangrabo –
G`azalxon, mug`aniy, dilkash Buxoro!

35

Bugun Istiqloldan yashnoqdir bag`ring,
Seryolqin, serto`lqin muruvvat-mehring.
Dunyolarga quloch yozmoqdadirsan,
Oq oydin rejalar tuzmoqdadirsan.
Maqsading – Turon yurt gulmakon bo`lsin,
To abad bezavol, bexazon bo`lsin,
Har zarra tuprog`i ko`zga to`tiyo –
Xoja Nasriddinday o`ktam Buxoro!

36

Bir yoning Samarqand – azim tengdoshing,
Bir yon turkman eli – qadim qardoshing,
Bir yon Qozog`iston, bir yoning Nasaf,
Bir yon qoraqalpoq – dil-dilga payvast.
Qardoshlik ko`shig`i taronang erur
Shu Vatan, shu chaman parvonang erur.
Davroning, karvoning komron, kibriyo –
Istiqbol kuyoshi balqqan Buxoro!

37

Men nechun sevaman seni shunchalar,
Bandai asiring ko`nglim bunchalar.
Zarmitan qatig`i yo obi novvot,
Shofirkon kishmishi yo “bahrul hayot”⁸¹
Nahotki, topilmas hech bir makonda,
Sendan o`zga diyoy yo`qmi jahonda?

⁸⁰ Pablo Neruda Istla – Negradagi uy-muzeyini
“Buxoro” nomi bilan atagan edi.

⁸¹ Buxoro mineral suvi ko`zda tutilayotir.

⁷⁹Guli humro – qizil gul

Yurtim bog'lariday serishva ma'vo –
Kindik qonim tomgan o'lkam Buxoro!
38

Seni sinamoqchi bo'ldi tabiat,
Bargdayin titratdi zilzila – ofat.
Va lekin avlodlar yod etsin so'zim,
Gulandom yuzingga tushganda ko'zi:
Jismingda jasorat barqaror edi,
Qudratu matonat senga yor edi.
Do'stlikdan rang olgan shahri diloro –
Savlatdor, qomatdor, chinor Buxoro!

39

Shodlanib qarayman kamolingga man,
Zardo'zi do'ppiday jamolingga man.
Kimdir seni jarga otmoqchi bo'ldi,
Shoir bitta xolga sotmoqchi bo'ldi⁸².
Men seni alishmam ming bitta xolga,
Ming bitta chiroyga, xazina molga.
Sen menga umrdek ezgu, bebaho –
Jahonim, jononim, jonim Buxoro!

40

Meni ma'zur aylang, do'stlar, yoronlar,
Xayoli bepoyon, aqli ummonlar.
Shahrim sharafini balki oshirdim,
Madhu ta'rifini bir oz toshirdim.
Tarixlarga berib ixtiyorimni,
Qog'ozga tushirdim dilda borimni.
Ikki ming besh yuzga tutgan navo –
Boqiy Sharq ziynati – yasha, Buxoro!⁸³
(1976)


Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Toshpo'lat Ahmad lirikasida asosan qaysi mavzular yetakchi sanaladi?
2. "Buxoronoma" dostonida qaysi shoirlar ijodidan misollar olingan?
3. Unda qaysi tarixiy voqealarga ishora bor?
4. Dostonda eng ko'p qo'llangan badiiy san'at qaysi?
5. "Buyuklari zindon bo'lgan, Buxoro!" misrasida kimlarga ishora qilingan?
6. Shoir ona yurti Buxoroni tasvirlashda qanday tashbehlardan foydalangan?

⁸² Hofizning "Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo" misrasi ko'zda tutilmoqda.

⁸³ Davr taqozosidan kelib chiqib, manzumaga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.
(Muallif, 1996-yil, noyabr)

7. "Shoir bitta xolga sotmoqchi bo'ldi" deganda T.Ahmad kimni nazarda tutgan edi?
8. Doston qaysi vaznda yozilgan?



OXUNJON SAFAROV (1940 – 2015)

Oxunjon Safarov – filologiya fanlari doktori, professor, Antik dunyo xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi, O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a`zosi.

1940-yilda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Dodbog`ni qishlog`ida o`qituvchi oilasida tug`ilgan. 53 ta monografiya, majmua, risola, darslik, qo`llanma va 550 ga yaqin ilmiy, ilmiy-publitsistik maqolalar muallifi. Respublika oliy o`quv yurtlari va kollejlari uning hammualliflikda “O`zbek bolalar adabiyoti”, “O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi”, “Ozbek xalq ogzaki ijodi xrestomatiyasi”, “Ozbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori” va o`zi yaratgan “Ozbek xalq ogzaki ijodi” darsliklari o`qitib kelinmoqda.

Oxunjon Safarov badiiy ijod bilan ham shug`ullanadi. Uning “Buxoriylar yoxud o`n ikki yulduz haqida qo`shiq”, “Shirintoylar bahori” va “Bolaligim qolgan ko`chalar” she`riy to`plamlari o`quvchilar qalbiga yo`l topgan.

BUXORIYLAR YOXUD O`N IKKI YULDUZ HAQIDA QO`SHIQ

(Tarixiy-ma`rifiy publitsistik doston)

*Ko`hna Sharqning javohiri, tafakkur shahri,
ko`zimning qorachig`i – Buxoroyi
sharifning 2500 yilligiga bag`ishlayman.
Muallif*

BAG`ISHLOV

Buxoriylar,
buxoriylar,
buxoriylar –
Moziy bilan bo`ylashgan alp suvoriylar.
Buxoriylar tarix aro singgan eldir,
Goho yutgan, goho mag`lub bo`lgan seldir.
Buxoriylar deyildimi – tanir jahon,
Buxoroda jahoniy bir shuhrat nihon.
Buxoriyman! – desa bo`ldi axdi Turon,
To`lamaydi xorijlarda hatto o`lpon⁸⁴.
Buxoriylar manglayida porlar quyosh,
Buxoriy qiz kulib boqsa – bo`lar chol yosh.

Buxoriylar jilla o`zbek, jilla tojik,
Husn ahliga sadoqatmand kulliy oshiq.
So`zlasa gar so`zlaridan bol tomadi,
Har jabhada yuzi yorug`, zo`r omadi.
Fikri teran, aqli teran, ko`zi teran,
Zikri teran, naqli teran, so`zi teran.
Hikmatgo`y el, zahmatkashu hunarpesha,
Himmat baland, xokisoru serandisha.
Buxoriylar donolikda dong taratgan,
Tabobatda olamaro ong yaratgan.
Buxoriylar ertak aytsa – kular olam,
Hofizlari kuylasa gar – ariydi g`am.
Buxoroning shashmaqomi – jon oromi,
Latifasi – qahqahaning yangroq jomi.
Ming yil turar buxoriylar qurgan bino,
Binolarki – hayratlardan topgan ma`no!
Har g`ishtida ko`hna tarix sadosi bor,
El dardini so`ylaguvchi sazosi bor.

⁸⁴Saudiya Arabistonida Imom Ismoil al-Buxoriy sharafiga uning vatandoshlarining bir qator soliqlardan ozod etilgani nazarda tutiladi.

Buxoriylar vujudidan yog'ar viqor,
 Garchi dilda ming yilliklar hasrati bor.
 Buxoro – bu islom aro Sharq, ka'basi,
 Havosida gul nafasi, iymon sasi.
 Shariflikda sharaf topgan shahri azim,
 E'tiqodda qo'rg'on bo'lgan shahri qadim.
 Lek olingan xoki qal'a narisidan,
 Sultonlari o'zga qavmdan – berisidan.
 Zamonlarni ulab kechdi zamonlarga,
 Jahonlarni oshib o'tdi jahonlarga.
 Buxoriylar – Buxoroning vijdonlari,

Shyl olamning qora ko'zu mijgonlari.
 Har bir mardi olam tanir bir avliyo,
 Har ayoli sadoqatga ma'bud go'yo.
 Bahor deymi buxoriylar dillarini,
 Anhor deymi surur so'ylar tillarini.
 Buxoriylar bu olamda bor bo'lsinlar,
 Qismatlarga esh bo'lsinlar, yor bo'lsinlar.
 Buxoriylar,
 buxoriylar,
 buxoriylar –
 Tarix yukin yelkalagan suvoriylar.

BIRINCHI QO'SHIQ

Turkon xotun

“Bidun Buxorxudot o'lgan vaqtda undan bir emadigan o'g'il bola qoldi: uning nomi Tag'shoda edi. Bolaning onasi bo'lgan xotun taxtga o'tirdi va o'n besh yil hukmronlik qildi. Uning davridan arablar Buxoroga kela boshladilar; har gal kelganlarida xotun ular bilan sulh tuzar va mol berar edi. Aytishlaricha, uning davrida undan ko'ra donoroq birorta ham kishi bo'lmagan; u donolik bilan hukmronlik qilar va xalq unga itoatda edi”.

Abu Bakr Muhammad ibn
 Ja'far an-Narshaxiy.

1

Turkon xotun – hoqon xotun,
 Qalbi nurga qalqqan xotun,
 Buxoroga oro berib,
 Yurt boshiga balqqan xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Buxoroga posbon xotun,
 Taxtda o'n besh yil o'ltirib,
 Mulkda surgan davron xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Vafosi ming doston xotun,
 Aqli teran, ahdi butun,
 Bokirayu pokon xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Farosatli, forom xotun,
 Ishvalari o'rtagay jon,
 Boqishlari orom xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Shijoatli, shodon xotun,
 Siyosatda tadbirkoru
 Orzulari osmon xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Andishali, sayron xotun,
 Ming tashvishu azoblarga,
 Bardoshli pahlavon xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Shirin so'zli jonon xotun,
 Tovlansa gar mehri kimga –
 Sadaqasi jahon xotun.

Turkon xotun – hoqon xotun,
 Tilginasi biyron xotun.
 Arabning har bosqinidan
 Goh cho'kkan, goh giryon xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Vahmga tik boqqan xotun.
 Ayol boshin egmay turib,
 Yog'iy ko'ksin yoqqan xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Diydası tosh qotgan xotun.
 G'anımıga shafqat bilmas,
 Tig'ıdan qon tomgan xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Subutida sulton xotun.
 Yurt g'amıda afg'on chekib,
 Eli birla kulgan xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 “Ko'lankasi maydon xotun»⁸⁵
 Yov hurkitar savlati bor,
 O'yovlari – jayron xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Tillashishda kordon xotun.
 Turkiy degan bir muazzam,
 Karvonga bosh sorbon xotun.
 Turkon xotun – hoqon xotun,
 Ulusiga vijdon xotun.

⁸⁵Xalqning “Sus(t) xotun” qo'shig'idan misra

Nomusi – yurt oriyati,
Yurtga tikkani – jon xotun.

2

Turkon Xotun iltijosi:

Sodiqman axdimga, ishqimga, so`zimga,
Hajringda o`rtanib kelolmam o`zimga,
To`zim ber jonimga, to`zim ber, Bidunim,
Qorachig` etganman o`zingni ko`zimga.
Sodiqman ko`targan tug`ingga, Bidunim,
Bo`ynimga yuklog`lik yukingga, Bidunim.
Saltanat – cho`g` ekan, kuydirar jonimii,
Sabotim tikarman cho`g`ingga, Bidunim.
Mahramim – Tag`shodang, nishonang,
Bidunim,
Munchalar tosh ekan peshonang, Bidunim,
Malomat zaxmidan ezildi qalbim-ey,
Ba lek pok saqlagum koshonang, Bidunim.
Sabot ber, yog`iydan olayin o`chingni,
Shitob ber, yog`iyga ko`rsatay kuchimni.
Qanot ber, uchayin yurt uzra Humoday,
Muqaddas saqlabon ko`shkingni –
ko`chingni.
Bosqinni qo`ymadi, qo`ymadi arablar,
Holimga qo`ymadi, qo`ymadi arablar.
Ziyodu⁸⁶, ibn Usmon⁸⁷, Muslim⁸⁸lar
bo`libon,
Qonimga to`ymadi, to`ymadi arablar.
Birovi zo`rlik-la olar zar, pulimni,
Birovi uyalmay so`raydi qo`limni.
Birovi – yaltoqi, lof urar husnimdan,
Niyatga yetmagur, kutaver o`limni.
Ibn Usmon istarki, chiqayin salomga,
Abdulloh⁸⁹ qistarki, ko`nayin talonga.
Ko`zlari qursin-ey, qon to`lgan qip-qizil,
He qilay, Bidunim aytgin man nodonga.
Garovga so`rashdi saksonta o`g`lonni⁹⁰,

⁸⁶ Ubaydulloh ibn Ziyod 673-yilda Buxoroga bostirib kirgan arab istilochilari sardori. U 4 ming buxorolikni asir qilib olib ketgan.

⁸⁷ Sa`d ibn Usmon 676-yilda Buxoroga ikkinchi bosqinni uyushtirgan arab istilochilari amiri.

⁸⁸ Muslim ibn Ziyod Abiyh Buxoroga uchinchi bosqinni uyushtirgan arab istilochilari sarkardasi. Arablarda otasi noma`lum kishi Abiyh deyiladi.

⁸⁹ Abdulloh Hozim – Said ibn Usmonning shafqatsiz lashkarboshilaridan, qip-qizil tusda bo`lganidan va boshining beqiyos kattaligidan o`ta vajohatli ko`ringan. Yana chodirida gulxan yoqib, olov taftidan ko`zlarini qizartirib, vahimani qiyofada Turkon xotunga ko`rinib, uni qo`rqitgan.

⁹⁰ Said ibn Usmon buxorolik 80 nafar malikzodani asir olib, so`ngra turli bahonalar bilan ularni qaytarmay o`z yurtiga olib ketgan. Bu ham

Saksonta alp yigit – saksonta sho`r jonni,
So`zida turmadi subutsiz ibn Usmon;
Yurtidan ayirdi saksonta g`o`r jonni.
Sakson tirik jon... Oh!... Qancha tovoningiz?
Yurt erkiga garov bo`ldimi joningiz?
Sizlar ardoqlagan chin qahramonimiz,
El bo`lsin sadqangiz, o`zim qurboningiz.
To`zim ber, quyoshim, bardosh ber elimga,
Buxoro tinch, omon – shu taskin dilimga.
Talandik va lekin erkimiz omondir,
Shundan-da ulug`roq so`z kelmas tilimga.
Yurt erkidan ulug` tag`in ne bor axir!
Yurt mute` bo`lsa gar, ne totsang–ul taxir.
Shukrona aytaman, qoldi-ku – yurtginam,
Ozod va muzaffar, shu taskin, shu faxr!

3

Turkon xotun – hoqon xotun,
Hur Vatani – iymon xotun.
Saqlay debon yurtni omon,
Jon-jahoni sarson xotun.
Zo`r dastidan qaqshab goho,
Bo`lsa-da musulmon xotun.
Otashparast e`tiqodi
Jon-jonida nihon xotun.
Buxoro deb ming bor o`lib,
Ming bora tirilgan xotun.
El dilida moziy aro,
Armon bo`lib qolgan xotun.
El dilida motamsaro,
Hijron bo`lib qolgan xotun.
El dilida erk da`vati –
Farmon bo`lib yotgan xotun.
Turkon xotun – hoqon xotun,
Hur Vatani – iymon xotun.

yetmaganiday, ularning shohona ust-boshlarini yechib olib, juldur kiyimlar kiydirgan va qora ishga solgan. Bundan noroziligi oshgan malikzodalar payt poylashib, saroyga bostirib kirganlar va uni o`ldirib, o`zlarini ham o`limga topshirganlar.

IKKINCHI QO`SHIQ
Imom Ismoil Buxoriy (809-870)

“Men bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitdim. Ularning hammalari: “Imon – so`z va amaldan iboratdir” degan e`tiqoddagi kishilar edilar”.

Muhammad ibn Ismoil Buxoriy

“Imom Buxoriyning “Al-Jome’ Al-Saxih”larini o`zlaridan to`qson ming kishi eshitgan”.

Muhammad ibn Yusuf al-Firabiy

“Imom Buxoriyning Bag`doddalik vaqtlaridagi tadrish halqalari (dare to`garaklari)ga men ham qatnashardim. Shunda halqada yigirma mingdan ortiqroq talaba hozir bo`lar edi”.

Abu Ali Solih ibn Muhammad al-Bag`dodiy

1

Qodir xudo nomin dilga jo aylab,
Shahodat kalomin tilga vo aylab,
Oshiqlik dardini huvaydo aylab.
Hidoyat nuriga chulg`angan inson.
Alloh elchisiga elchilik qilib,

Alloh elchisiga tilchilik qilib,
Terib kalomini nur, sharif bilib,
Inoyat yo`liga fido etgan jon.
Qayda yangi hadis bor esa, yo`rtib –
Borib yozib oldi ko`ziga surtib,
G`aflatni quvladi hadis-la turtib,
Shijoat bahsida g`olibi davron.
Qalbida, aqlida nur sochdi hadis,
"Hadis»ni yozmoqqa ul bo`ldi xolis,
Undan-da iymonin but qildi ulus,
“Hadis” sabog`idan poklangan vijdon.
Hadis – Rasululloh so`zi, oyati,
Iymon zuhur topgan qalb hikoyati,
So`z bilan amalning chin hidoyati,
Shariat mulkini yoritgan unvon.
Ilohiy hikmatni solibon dilga,
Ilohiy hikmatni yoyibon elga,
Ilohiy hikmatdan so`z olib tilga –
Islomiy nizomni aylagan doston.
Hadis yodlash – uning jonu jahoni,
Hadis yozish – uning kasbi, imkoni,
Hadis ilmi – uning zo`r imtihoni,
Saodat arshicha yuksalgan inson.

2

Imom Buxoriy shukronasi:

Erking qaytdi, shukrulilloh, ona yurtim,
Men ham qaytdim, shukrulilloh, bag`ringga.
Aziz xoking o`pib edim ko`zga surtib,
Baxting balqib, shodlik indi bahringga.

Saxovating, shukur, menga kamol berdi,
Harorating, shukur, nafsga zavol berdi,
Ajab zehnu munosib xatti xol berdi,
Shukrulilloh, so`nib ketdi menda itob.
Hadis izlab yurtlar kezdim poy-piyoda,
Chin so`z izlab tinmadim hech soy-qiyoda,
Undan sharif so`z topmadim bu dunyoda,
Shukrulilloh, dilingda soz urmish xitob.
Madinani tavof etdim, shukrulilloh,
Makka ishqin dilga solmish o`zi Alloh,
O`zing yorsan, madadkorsan, yo rabbano,
Shukrulilloh, uyg`onibsan, qochirib xob.
Ming jafoga jonim tikib yig`dim hadis,
Olti yuz ming hadisni yod oldim xolis,
Sahihini tanlab bitig tuzdim – nafis,
Shukrulilloh, qo`lingda shul nurli kitob.
Halqa tuzib yigirma ming talabadan,
Tadrish aytdim hadislardan, g`alabadan.
Bo`lsin debon ajdodlarim cho`ng sarbaland,
Shukrulilloh, yo`lingda nur sochar oftob.
Sinadilar, bo`tam, meni har qadamda,
Pand bermadi xotiram ham sinov damda.
Sinovchilar o`zi bo`ldi ko`p sharmanda,
Shukrulilloh, sendan yog`ar nuri sharob.
Ellar kezib o`z yurtimga sig`madim, oh,
Shul qismatni g`anim topmish menga ravo.
Boshim olib izlab ketdim o`zga ma`vo,
Shukrulilloh, bugun yurtda o`zga shitob.
Qatag`ondi manim nomim, ham kitobim,
Qatag`ondi aziz tangrim, ham savobim,
Oyoqosti edi iymon, ham tavofim,
Shukrulilloh, bo`lding yana sen bahrayob.
Erking qaytdi, shukrulilloh, ona yurtim,
Men ham qaytdim, shukrulilloh, bag`ringga.
Aziz xoking o`pib edim ko`zga surtib,
Baxting balqib, shodlik indi bahringga.

UCHINCHI QO`SHIQ

Ismoil Somoniy

(874-907 yillarda, Buxoroda 31 yil saltanat surgan)

“...amir bo`lgan har bir kishi devorni tuzattirib, saqlab turar va shu sababli Buxoro aholisiga ko`p xarajat tushar, har yili ko`p pul sarflashga va juda ko`p hashar tashkil qilishga to`g`ri kelar edi. Oxiri rahmatli amir Ismoil Somoniy xalqni (bu qiyinchilikni tortishdan) ozod qildi va devor ham xarob bo`ldi. Amir: “To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo`laman”, –dedi va ustiga olgan bu vazifani to`la bajardi; u doimo janglarda o`zi qatnashdi va Buxoro viloyati ustidan dushmanlarning zafar topishlariga yo`l qo`ymadi”.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja`far an-Narshaxiy

* **

“...Ismoil shunday bir davlat barpo qildiki, bu davlat o`sha vaqtdagi Sharqning eng yirik davlatlaridan biri edi”.

A.Yu.Yakubovskiy

1

Tarix – kechar zamon ichra cho`ng
pillapoya,

Tarix – o`tar davron aro hakami hoziq.

Tarix so`ngsiz saboqlardan bitilgan g`oya,

Sarhisoblar mazmunida jamlangan yozuq.

Buxoroning har ko`chasi tarix so`zlagay,

Rabotlarin har g`ishtida tarix bo`zlagay.

Asrdiyda minorasi moziy qa`ridan

Zamonlarni yoritguvchi tongni ko`zlagay.

Tonglar otar, shomlar botar – dunyo

o`tkinchi,

Gar kechaga aylansa kun – sanalgay

o`tmish.

Sulolalar keldi-ketdi saltanat surib,

Somoniylar vale ayri bir mavqe tutmish.

Buxoroni poytaxt etdi mamlakatiga,

Jahonoro shuhratini qilishdi poydor.

Tarix bilan bo`y o`lchagan shu shahri sharif

Topdi mangu olam aro faxru e`tibor.

Zo`r saltanat tuzdi tengsiz bu ochun aro,

O`z tilida so`yladi el, qilib shukrona.

Arab zulmi taaddisi topdi intiho,

Erk vaslida kuyladi el yona va yona.

Islom dinin quvvatiga aylandi butkul

Ba ikkinchi Ka`ba yanglig` singdi dillarga.

Ilmu funun rag`bat bilan gulladi shitob,

Rudakiyning qo`shig`ida tushdi tillarga.

Mo`liyondan esgan sabo kezar jahonni,

Buyuk Sino tafakkuri bilmas xazonni,

Somoniylar saltanatini unutmas tarix

Ba Narshaxiy naqlin qilgan boqiy zamoni.

Tarix – kechar zamon ichra cho`ng

pillapoya,

Tarix – o`tar davron aro hakami hoziq.

Tarix so`ngsiz saboqlardan bitilgan g`oya,

Sarhisoblar mazmunida jamlangan yozuq.

2

Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy qasamyodi:

Ey Buxoro, yog`iylarga talanding bisyor,

Qo`ldan-qo`lga o`tib rosa vayrona bo`lding.

Talonchilar ularini oldi armonsiz,

Xop qilingan ulusimga g`amxona bo`lding.

Yoqib kuling sovurdilar qayta va qayta,

Qaqnus misol kul tagidan cho`zding

bo`yingni.

Himmat etib olloh o`zi cho`mmish nuriga,

Bir yog`duki, ko`kka o`rlab chulg`ar

ro`yingni.

Yetti mulkda noming bo`ldi qubbatul-ul-

islom,

Yetti mulkka farzandlaring yoydi

dovrug`ing.

Yetti mulkda hadis aytdi Imom Buxoriy,

Yetti mulkni charaqlatdi zako-yorug`ing.

Shundan seni poytaxt etdim mulki Turonga,

Hurlik aro hur taxt etdim mulki Turonga.

G`uboringni ko`zga surib qildim to`tiyo,

Yorlaqagan zo`r baxt etdim mulki Turonga.

Qayda bo`lma sog`inching-la yashadim zor-

zor,

Bir sog`inchki – tugatolmas Rudakiy kuylab.

Adashgan chog` o`tinching-la yashadim

zinhor,

Jonim garov, molim garov – tinchingni

o`ylab.

Buxoriylar madoriman, toki tirikman,

Yog`iylarning ozoriman, toki tirikman.

Kim bu yurtga ko`zin tiksa, ko`rsin o`zidan,

Buxoroning devoriman, toki tirikman.

Ey Buxoro, borlig`imsan, borlig`ing aro –

Qismatingman – tirikmanmi va hatto o`lib.

Rost, olamda hali hech kim ustun
bo`lmagan,

Vale qolg`um tarixingda bir ustun bo`lib.

TO`RTINCHI QO`SHIQ

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an – Harshaxiy (899-960)

“Buxoro tarixi”ni O`rta Osiyoning yerli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib, endi o`tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat qilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiylaridan biridir deyilsa, xato qilinmagan bo`ladi. Darhaqiqat, bundan 1000 yil muqaddam O`rta Osiyoning o`zida, o`z farzandi qo`li bilan yozilib, tugal bir asar holiga bizning kunlarga yetib kelgan boshqa tarixiy manba hozir bizga ma`lum emas. Shuning uchun ham “Buxoro tarixi”ni O`rta Osiyo xalqlari tarixnavislik fanidagi eng dastlabki asarlardan biri hisoblaydilar”.

Asomiddin O`RINBOEV,
tarix fanlari doktori, professor

“Narshaxiy nomi bilan bog`lanuvchi “Buxoro tarixi” ... (keng ma`noda aytish mumkinki), Markaziy Osiyodagi eng muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan birining o`ziga xos tarixiy qomusidir”.

B.V.Lunin,
tarix fanlari doktori, professor.

1

Narshaxda tug`ilgan qishloqi bola,
“Buxoro tarixi”n bitarmi bir kun?
Tarix peshtoqiga nomin zarb etib,
Ko`ksini tog` qilib ketarmi bir kun?
Narshaxni bilmasdi bu ahli olam,
Bildirdi borligin Narshaxiy bo`lib.
Narshaxni bilmasdi bu ahli qalam,
Bildirdi tarixning guvohi bo`lib.
Tarixdan so`zladi nuroniy bir chol,
Har toshu giyohda Vatanni ko`rdi.
So`zdan so`z axtardi misqol-bamisqol,
Tarix sabog`idan ma`nolar so`rdi.
Xotira hikmatin izladi tinmay,
Goh topdi, goh topmay ovora sarson.
Avlodlar ruhini tiklab minorday,
Bir tarix yaratdi oynayi zamon.
Shahar maydonida tik turar minor –
Bo`y cho`zgan ko`k qadar – olam ziynati.

Tarix g`aznasida Narshaxiy basti –
Dalillar hashmati – tarix tiynati.
Elning g`ururini tarixda tuydi,
Elning sururini tarixda tuydi.
Tarixdan so`ylamoq – lazzati joni,
Tarix deya yondi, tarix deb kuydi.
Tarix haqiqatin kashf etmoq uchun
Bitiglarni titdi ko`z nurin to`kib.
Sarhadlarni kezdi dalillar izlab,
Vatan tarixining tubida cho`kib.
Bir tarix yaratdi – Vatan tarixi,
Vatan sharafidan bitilgan oyat.
Bir tarix yaratdi – Vatan tarixi,
Ajdodlar qismatin qilar hikoyat.
Buxoroni sevdi, unga mehrini
Iymonday e`zozlab tugdi diliga.
Tarixga aylandi bugun o`zi ham,,
Chin tarix qoldirdi eli qo`lida.

2

Abu Bakr Muhamad ibn Ja'far an-Narshaxiyning zamonamiz tarixchilari bilan mubohasasi:

Ayo tarixchi zuryodim, tarix so`ylashda yaktosan,
Ko`rib zarrada uq`yonus, ani o`ylashda yaktosan.
Basharning xotirohini bitib tarix kitobiga
Zamonlarni zamonlarga tikib bo`ylashda yaktosan.
Faromush etmayin yodim qilursan dam-badam, qulluq,
Manim ham so`zlarimni so`z bilursan dam-badam, qulluq.
“Buxoro tarixi”n sevib, necha so`z so`ylagan erdim,

So`zim so`zlashlarin anglab kulursan dam-badam, qulluq.
 Buxoroyi sharif shahrim, ajab zebo zarif shahrim,
 Musulmon mulkini nuri yoritgan chun quyosh shahrim.
 To`rt ming yillik kechmishi yuz ming asrorga guvoh shahrim,
 Yana nevcun uning yoshin qilbsan muncha yosh, bag`rim?
 Nima bu? Ishtihobmi? Yo menga sangi malomatmi?
 Nima bu? Ishtihobmi? Yo menga raddi dalolatmi?
 Manim aytganlarimga gar ishonmassan, ne ham derdim,
 Nima bu? Ishtihobmi? Yo menga haddi salovatmi?
 Men ham shu yoshni aytmoqqa azizlarga suyanman,
 Qadimiy zo`r bitiglarning g`uboriga bo`yanganman.
 Fasona iqtiboslarni men ham bunga shafe` tuydim,
 Ulusning xotirotiga tag`in ming bor to`yinganman.
 Azizlar kiftida turib oyoq bosdim, xayol surdim,
 Azizlar ko`rganin ko`rib o`zim chandon sinab ko`rdim.
 Vale yo`q erdi bul damlar dalili tubi xok izlash,
 Shy yurtimning jahonoro sharafin xudpisand ko`rdim.
 Fasona zeri borida haqiqat borligin uqdim,
 Sen ersang bul aqoidni o`qib g`oyangni o`stirding.
 Bu ne g`oya, bu ne asror, ki sen o`zing ishonmassan,
 Marap ziddi qarash aylab, o`zing g`oyangni to`zdirding.
 Tug`ilgan ona-shahrimning yoshin na muncha yosh tuyding,
 G`unjo⁹¹r shohidligini ham nazarga ilmayin qo`yding.
 Ne-ne asriy dalillarni zamin ostindagi suvlar
 Chiritganin-iritganin nahotki unutilib qo`yding?
 Kelar vaqti, topilgay ham, xudo xohlar dam o`qirsan,
 Buxoro alp hoqonlarin fir`avn bilan yozishmasin.
 Shunda Buxoro yoshi ham sanalgaydir yetti ming yil,
 O`shanda ajdodlar netib qabrimizni buzishmasin.
 Shundan manim jonim halak, shundan-da qalbimda ozor,
 Shundan o`ylarim yozmas barg, fikrimda ingan chang, g`ubor.
 Ayo tarixchi zuryodim, ginamdan sen qovoq o`yma,
 Unutma, bo`lgayman o`zim bardoshingga chin madadkor.

3

Buxoroni ko`rdi aziz joniday,
 Uning tarixini to`lib so`yladi.
 Tarixga aylandi bugun o`zi ham,
 Vale mangukka o`zin bo`yladi.

BESHINCHI QO`SHIQ

Abu Ali ibn Sino (980-1037)

Buzurg gashtamu maydoni vase` nest maro,
 Fuzud qimmatini man, mushtarist nopaydo...

Abu Ali ibn Sino

⁹¹ G`unjo⁹¹r – Narshaxiydan ilgari “Buxoro tarixi” kitobini yozgan ulug` muarrix. To`liq ismi Muhammad ibn Sulaymon al-Buxoriy bo`lib, 412-hijriy (1021-melodiy) yilda Buxoroda vafot etgan. Lekin kitobning qismati noma`lum.

“Kimki “Qonun”ning birinchi jildini o`rganib chiqsa, uning uchun tabobat ilmining asoslari va umumiy masalalaridan biror narsa yashirin qolmaydi, chunki agar Buqrot (Gippokrat) va Jolinus (Galen) tirilib qolsalar, bu kitob oldida sajda qilishlari lozim bo`lardir”.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy, XII asr.

“Begonalarni qo`llab haq bo`lguncha, Ibn Sinoni quvvatlab nohaq bo`lgan yaxshi”.

Mikelanjelo, XVI asr.

“Ibn Sino – insoniyatning ilk aqlu zakovatidir”.

A.Guashon, XX asr.

“Ibn Sino silsilaviy cho`qqilar halqasini o`tli nafasi bilan ta`minlab turgan ko`zga ilinmas yer ostidagi alanga maskanidir”.

Ye.Bertels, XX asr.

1

Tabobat ilmining sohibqironi,
Adolat ilmining shohijahoni,
Sadoqat ilmining mardiy maydoni,
Muhabbat ilmining mehri toboni –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.
Yurtingni sevsang-da, sig`mading o`zing,
Olamni sig`dirdi dilingga ko`zing.
Dahong-la yoritding aqlu shuurni,
Elingga berding sen tengsiz g`ururni –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.
Xorazmu Abivard, Ajamni kezding,
Yo`l bosding sarsari, “Qonun”ni tuzding.
Halovat bilmading, o`zingdan kechding,
Ajaldan o`zgasin jumbog`in yechding –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.
“Qonun”ing hayratdan bitilgan oftob,
“Shifo”ying qalblarni yayratgan shitob.
“Insof”ing chin yo`lga chorlovchi savob,
Sen o`zing ochunda nurliy bir kitob –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.
Zamonlar kechsa-da, pisand qilmading,
Jahonlar quchsa-da, ko`zga ilmading.
Ezilding ko`rganda yomonlarni sen.
Aritding ming-minglab armonlarni sen –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.
Hakimlar hakimi, shayx-ur-raisi,
Hakamlar hakami, zebi majlisi.
Fozillar sarvari, so`zi o`tlisi,
Ajodlar oldida mangu qutlisi –
Buxoro o`g`loni – Bu Ali Sino.

2

Abu ali Ibn Sinoning ahdu-qarori:
Zamon kamsitdi meni,
O`ksib o`tdim zamondan.
Davron kamsitdi meni,
O`ksib o`tdim davrondan.
Umrim quvg`inda o`tdi,

Yurtlar kezdim sarsari.
Goho tutqunda yutdim –
Alam deganin barin.
Zamon bilan olishdim,
Davron bilan olishdim.
Yolg`on kamsitdi meni,
O`ksib o`tdim yolg`ondan.
Nodon kamsitdi meni,
O`ksib o`tdim nodondan.
Jaholatdan ezildim,
Johil bilan solishdim.
Qabohatdan ezildim,
Botil bilan solishdim.
Yolg`on bilan olishdim.
Nodon bilan olishdim.
Qallob aldadi meni,
Xalloqqa soldim uni.
Jallob aldadi meni,
Xalloqqa soldim uni.
Uchmadim ig`volarga,
Ig`vogarni etdim zam⁹².
Uchmadim bachchag`arga,
Uning bo`ynin etdim xam.
Qallob bilan olishdim,
Jallob bilan olishdim.
Nima ko`p bu ochunda –
Dardlilar ko`p, dardlar ko`p.
Nima ko`p bu ochunda –
Riyolar ko`p, marglar ko`p,
Goh xorlanib adolat,
Xo`p avjlandi zalolat.
Goh xorlanib haqiqat,
Zap mavjlandi hamoqat.
Dardlar bilan olishdim,
Marglar bilan olishdim.

⁹² Zeruzabun, fosh

Hap neki bor dunyoda –
Unda men hayot tuydim.
Bosh ko`targan giyohda
Sururi sabot tuydim.
Mehrqa chanqab o`tdim,
Ayamadim o`zimni.
Muhtojlar qo`lin tutdim,
Ayamadim tuzimni.
Xayot bilan olishdim,
Sabot bilan olishdim.
Men elim deb yondim-u,
Tanlamadim sira el.
Men tilim deb yondimu
Dastin berdi o`zga til.
A`robiyda so`z bitdim,
So`zladim forsiy kalom.
Turkiy manim ajdodim,

Bariga deyman: – Salom!
Elim, deya olishdim,
Tilim, deya olishdim.
Zamon bilan olishsam,
Yelkalab oldi davron.
Davron bilan olishsam,
Jahonga soldi zamon.
Ming yildan oshibdiki,
Jahon manim izmimda.
Zamonga singdim-da man,
Zamonga surur bo`ldim.
Jahonga singdim-da man,
Jahoniy g`urur bo`ldim.
Oldda yangi ming yillik,
Tashvishlari ming xillik.
Unda ham yashagim bor,
Shu ahdim – qat`iy qaror!

OLTINCHI QO`SHIQ

Mahmud Torobiy

“...Mahmu Torobiy qo`zg`oloni tom ma`nosi bilan xalq harakati...”

A.Yu.Yakubovskiy

“...Qo`zg`olon rahbari toroblik Mahmud elak to`quvchilarning peshqadami edi. U Torob ko`chalarida, uning atrofidagi qishloqlarda g`azabli nutqlar so`zlar, ommani istilochilar va ularning tarafdorlariga qarshi kurashga da`vat etar edi”.

Akademik B.G`afurov

“... Amir va bosqoqlar... bu to`g`rida Xo`jandga Mahmud Yalavochga xabar yo`llashdi. Yalavoch Torobiyini chaqirib, yo`lda o`yoldirib yuborishni mo`ljalladi. Shu niyatda uning huzuriga bir qancha mo`g`ul sarkardalarini yo`lladi. Biroq Mahmud ularning makkorliklarini tushunib fosh etadi”.

“O`zbekiston xalqlari tarixi”,
1-jild.Toshkent, “Fan”, 1992, 146-147-bet.
El faxriga aylangan mezon.

1

Har yurtda topilar ag`yor,
El erkini suymagan g`anim.
Huzur qilar yetkazsa ozor
Va toptasa o`z elin sha`nin.
Har bir yelda topilar xoin,
Dunyo hirsini basir etgan jon
Talash kasbin etibmi oyin
Har qadamda qo`msagani qon.
Sotqinlar ko`p ko`hna dunyoda,
Yalavochday makkorlari kam.
Vo alamo, shular dastidan
Moziy sahni sahfa-sahfa g`am.
Vale tarix – botirlar mulki,
Botirli yurt ko`rmas hech xazon.
Torobiyalar jasorati – qut,

2

Adashligidan nafsoniyati qo`zg`agan
Mahmud Torobiyning
sotqin Mahmud Yalavochga ta`nalari:
Hey Yalavoch, bilarsan-ku Alloh amrin:
Ul⁹³ga ota meros bo`lar yaxshi ism.
Aslida bu shunchaki bir mukofotmas,
Munosiblik – unga ziynat, qarz bir rusum.
Qani ayt-chi, qay birimiz munosibroq,
Ota meros shul tabarruk otimizga?
Sen ham Mahmud⁹⁴, men ham Mahmud, vo
darig`o,

⁹³ O`g`ilga

Qay birimiz qonlar to`kib davron surdik?
Senmi, menmi – qay birimiz yurtni sotdik?
Qay birimiz el ko`ksiga xanjar urdik?
Tuzliqqa-chi, qay birimiz tupurdik, ayt,
Qay birimiz qonlarto`kib davron surdik?
Siymu zarga o`chligingni hech qo`ymading,
Hirsu havas safosiga hech to`ymading.
Chingiziylar yalog`ini yalab toza,
Kasofatga botganingni hech qo`ymading.
Qanday ko`nding Chingizxonga xufyalikka,
Xorazmshohga asli xufya bo`la turib?
Yuzing bormi endi elga qaragani,
Riyo sotib oldingmi yo dunyo ko`rib?
Tilimiz bir, yog`iy tilin afzal bilding,
Dinimiz bir, o`zga dinga moyil bo`lding.
Elimiz bir, o`zga elga endi yorsan,
Yurtimiz bir, yurtni sotib baxtiyorsan.
Nomusingni, vijdoningni sotdingmi, ayt,
Subutingni, paymoningni sotdingmi, ayt.
Insofingni, iymoningni sotdingmi, ayt,
Tobutingni, ayvoningni sotdingmi, ayt.
Sotilding-u Xonbaliq⁹⁵qa sulton bo`lding,
Vale asli xiyonatga ulton bo`lding.
Elni toptab, yurtni toptab sharaflanding,
Yog`iy bilan til olishgan mo`lton bo`lding.
Xiyonatga noming bugun qora timsol,
Sotqinlikka shoning bugun qonli a`mol.
Eh Yalavoch, dunyo ko`rib to`ymagan jon,
El boshiga malomatsan endi qattol.
Yalavochga nisbat bo`lsa har gal Mahmud
Nadomatga aylanar-da, dilga botar.
Torobiyni anglatsa gar el dilida,
Bilki mudroq shijoatni el qo`zg`otar.
Ha, bilib qo`y, o`tsa hamki ne zamonlar,
O`chmagay hech senga o`tli qasos, o`chim.
Sen-ky malay, erkni bo`g`sa qay bir g`anim,
O`shanda ham tik qalqaman xalqim uchun.
Bu ochunda hali ne-ne Mahmud otlig`,
Mardlar kelib ketishadi yig`lab, kulib.
Vale ular op qilishar Yalavochdan,
Torobiyday yashamoqni g`urur bilib!

⁹⁴Mahmud – maqtalgan, maqtovga sazovor, ma`qul ma`nolarini anglatadi. Bu o`rinda Yalavochga pisanda qilinayapti.

⁹⁵ Pekin shahrining qadimiy nomi. Chingiziylarga sadoqati uchun o`z yurtiga sotqinlik qilgan Mahmud Yalavochni O`g`odoy Pekinga gubernator etib tayinlagan, u 1254-yilda o`sha yerda o`lgan.

YETTINCHI QO`SHIQ
Tegina Begim Moh

“...Tegina begim mohni vazi’i hamali yetib, chahorshanba kechasi, sha’bonning beshida, sichqon yilida, tarixning yetti yuz o`ttuz beshida tole’i saratoni shamsda jadiyni avval darajasida, dalvni yigirma to`qquz darajasida erdi, ikkala qiron. O`zgalar bu voqeani shul bo`lur derkim, qay vaqt har yetti kavkab tole’i sapatonda jadiy burjinda ma’itda bo`lsa, qiron bo`lurlar. Shunday vaqtga o`g`ul vujudga kelsa, tole’i mas’ud o`lur. Shul soatda tangri taborak va taolo olamni yaratibdur. Har farzand shu soatda tavallud bo`lsa, oning tole’i oxir umrigacha doimo iqboli mas’uddir.

Aytibdurlarki, uch o`g`il shu soatda tug`ildi. Avval Iskandar Zulqarnayn hazratlari afandimiz, ikkinchi Muhammad rasul akrom salollohu alayhi vasallam sayidimiz, uchinchi Amir Temur Ko`ragon xonimiz va begimiz, derlarkim, tavalludi Iskandardin tavalludi rasul alayhis salomg`acha sakkiz yuz yil, tavalludi rasul alayhis salomdin tavalludi Amir Temurg`acha sakkiz yuz yil. Har sakkiz yuz yilda kavokib jadiy darajasida bo`lgandurlar. Ammo sohibqiron Amir Temurni onalari Tegina begim moh derlarkim, tavallud mahallida zahmat va mashaqqat sira ko`r madim o`zga xotinlardek”.

Salohiddin Toshkandiy.
(“Temurnoma», Toshkent: “Cho`lpon”, 1990, 49-bet)

1
Boxarziyning sabog`idan topding kamol,
Boxarziyning ardog`ida ochding jamol,
Teginamoh – Buxoroning go`zal qizi.
Baxarziyning qabog`ida kulgich eding,
Boxarziyning qarog`ida ko`rgich eding,
Teginamoh – Buxoroning asal qizi.
Boxarziyning sadog`idan Keshga uchding,
Tarag`ay-la baxting kulib orzu quchding,
Teginamoh – Buxoroning dono qizi.
Temurbekdek o`g`il ko`rib kerilmading,
Dunyolarning havasiga berilmading,
Teginamoh – Buxoroning ona qizi.
Kechir, seni eslashmadi uzoq zamon,
O`g`ling birla etilganding-da qatag`on,
Teginamoh – Buxoroning ulug` qizi.
Bilasanmi, o`tgan bo`lsa ham qancha vaqt,
Sadoqatin saqladi el dilida nakd,
Teginamoh – Buxoroning qutlug` qizi.
Buning uchun gina qilsang arzir, begim,
Zarur joydan gina qilmoq farzdir, begim,
Teginamoh–Buxoroning jonon qizi.
Aziz noming yana elga qaytdi bugun,
Sharaf-shoning yana dilda baytdir bugun,
Buxoroning yurt tanigan jahon qizi.

2
Temurbekka ona bo`lmoq osonmikin,
Osonmikin jahongirga ona bo`lmoq,
Shu o`g`il-la ming tirilib, ming bor o`lmoq,
Osonmikin, osonmikin, Teginamoh?
Bolalikdan sig`madi ul olamlarga,

Erkni qo`msab chidolmadi alamlarga,
Faqat erkdan so`z ochdi ul odamlarga,
O`g`ling o`zi jahonmikin, Teginamoh?
Mo`g`ul zulmin chekib bag`rin etdi vayron,
Yurt zoridan ozorlanib bo`ldi giryon.
G`animlarga qarshi unda ko`pirdi qon,
O`g`ling yurtga qalqonmikin, Teginamoh?
Mo`g`ul o`chi bermadi hech o`g`lingga tin,
Mo`g`ul o`chi chiniqtirdi o`g`ling kuchin,
Mo`g`ul o`chin kechish unga bo`ldi qiyin,
O`g`ling elga darmonmikin, Teginamoh?
Jangga kirdi savaladi, savalandi,
Yovuzlarni tepkiladi, tepkilandi.
Qo`rqoqlaru xoinlardan xafalandi,
O`g`ling zulmga sarmonmikin, Teginamoh?
Yurt erki deb adolatga sig`indi ul,
Yurt baxti deb farog`atga sig`indi ul,
Yurtiga chin tilovat-la sig`indi ul,
Allohdan ul farmonmikin, Teginamoh?
Turk qavmini birlashtirdi, yaktan etdi,
Turkiylarga iymonini o`zan etdi,
Turk eliga Turkistonni vatan etdi,
O`g`lingmi ul, armonmikin, Teginamoh?
Temurbekka ona bo`lmoq osonmikin,
Osonmikin jahongirga ona bo`lmoq,
Shu o`g`il-la ming tirilib, ming bor o`lmoq,
Osonmikin, osonmikin Teginamoh?

3
Har onaning o`g`il ko`rish havasi bor,
O`g`il tug`ib savlat to`kish havasi bor,
El nazdida izzat ko`rish havasi bor,

Sen ham havas qilganmiding, Teginamoh?
 Har bir ona o`g`lim bilan kerilsam der,
 Oq sut berib mehr bilan termulsam der,
 Suyub-suyub boshlaridan evrilsam der,
 Sen ham buni bilganmiding, Teginamoh?
 To`y niyatin o`ylamagan ona yo`kdir,
 Kelin izlab bo`ylamagan ona yo`kdir,
 Shul orzusini kuylamagan ona yo`kdir,
 Sen ham shunday kuylabmiding,
 Teginamoh?
 Sochi tol-tol tayanchig`im, deganmiding,
 Labida bol suyunchig`im, deganmiding.

Orqamda qol, suyanchig`im, deganmiding,
 Sen ham shunday o`ylabmiding,
 Teginamoh?
 Bu jahonda o`g`il ko`rgan ona bisyor,
 Qay bir o`g`il dong qozongan, qaysi dastyor,
 Qaysi so`tak, qaysi nomard, xiyonatkor,
 Sen ham buni xo`p bilarsan, Teginamoh?
 O`g`il ko`rgan onalar ko`p, bu ham beshak,
 O`g`il ko`rgan onalar xo`p, bu ham beshak,
 Vale ayt-chi, bormi yana sendan bo`lak,
 Temurbekdek Amir tuqqan, Teginamoh?

SAKKIZINCHI QO`SHIQ

Najmidin Kavkabi

“Ubaydulloxon Hirot shahrini olg`andan keyin forsning u zamonda eng buyuk shoiri bo`lgan Hiloliyni o`ldiradir (hijriy 936 yili). Hiloliyning o`lumi Eron shohi Tahmasib Shoh Abbos o`g`liga qattiq ta`sir qiladi. Uning o`chini olish uchun vaqt kutadi. Bu fojeadan uch yil keyin bizning Mavlono Kavkabi Ubaydulloxon ruxsat olib, ziyorat uchun Mashhadga boradi. Shoh.Tahmasib Kavkabiyning kelganini eshitgach, uni tuttiradir-da, go`yo Hiloliyning qonini olgan bo`lub, ilmiy, adabiy qiymati Hiloliydan hech kam bo`lmagan bir Turkiston san`atkorini o`ldirib qo`yadir... (Kavkabiyning boshini eron shohiga olib keltiradirlar. Gavdasi Buxoroga keltirilib, Bozori navda “Imom Junayd G`azzoliy” mozorida ko`miladir)”.

Abdurauf Fitrat.

“O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi”.

Toshkent: “Fan», 1993, 46-bet)

Barvasta maqomxonim,
 Barjasta maqomdonim,
 Maqomda bitgan shonim
 Maqomda qotgan qonim,
 Vo alam-o, vo alam...
 Kuylaring safomidir,
 Ohangmi, sadomidir,
 O`tli vovaylomidir,
 Yo mungli nidomidir,
 Vo alam-o, vo alam...
 “Rahoviy» raqammidi?
 “Rosting chin qasammidi?
 “Iroq” pok bir g`ammidi?
 “Ushshoq” zo`r alammidi?
 Vo alam-o, vo alam...
 “Hijoz”da iymon topding,

“Buzruk”da makon topding,
 “Isfahon”da jon topding,
 Vola-yu hayron topding,
 Vo alam-o, vo olom...
 Shohlarga bo`lding talosh,
 Lahadga kirding bebosh,
 Hasratda ketding halosh,
 Dillarga botding chun tosh,
 Vo alam-o, vo alam...
 Dardli bir saboq bo`lding,
 El aro so`roq bo`lding,
 Ko`zlarga qaroq bo`lding,
 Jono`rtar firoq bo`lding,
 Vo alam-o, vo alam...

TO`QQIZINCHI QO`SHIQ

Abdulloxon ikkinchi

“Abdulloxon II Buxoroda 1557 yildan boshlab hokimlik qilgan, 1583 yildan to 1598 yilgacha esa butun o`zbeklar xoni bo`lgan”.

A.A.Semyonov

“...Shayboniy sultonlar va feodallarning toju taxt talashlari shu qadar kuchaydiki, na Abdulaziz va na Abdulatif kun sayin o`sb borayotgan feodal tarqoklikning oldini olishga va feodallarning separatistik harakatiga barham berishga qodir bo`lolmay qoldilar... Abdulloxon faqat Baroqxon vafotidan (1556) so`nggina og`ir, qonli kurashlardan keyin o`z dushmanlari ustidan g`alaba qildi va Movarounnahrni qisman birlashtirdi”.

Akademik B.Ahmedov

“Mazkur mag`firatli xonning munshiysi bo`lgan va shu kunlarda, ya`ni 1035 (1626) yilda ham yashab turgan Mirzo Mo`min munshiy shunday deganlar: “Saraxs navohisida turgan paytimiz, bir kechasi Abdulloxon Hazratlari “Qalamni ol va men qurdirgan xayrot binolarining hammasini – bog`lar, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, ko`priklaru rabotlar, g`aribxona, shifoxonalardan tortib barchasini qog`ozga tushir,chi, soni qanchagacha yetgan ekan?”– deb qoldilar...Qisqasi, tong otgunga qadar xon aytib turdilar, men yozaverdim. Aytishdan to`xtaganlarida (Movarounnahr, Turkiston, Xorazm, Xuroson, Farg`ona, Hisor, Balx, Badaxshon) qurilganlarning barchasini hisoblab ko`rsam, 8600 va yana nechta ham bo`lgan ekan. Shundan so`ng xon dedilarki, “Amir Alisher Sulton Husayn Mirzoning navkari bo`la turib, o`zidan ming bir binoni xayr yodgor qoldirdi. Biz esak podshohmiz, qurilish sonini 10000 taga yetkazmasak, yurgan ekanmiz, podshoh bo`lib”. Ushbu yildan so`ng xon sakkiz yil umr ko`rdilar va har yili yangi-yangi imoratlar qurdirdilar, kim biladi, balki xon aytganidek, kurilgan imoratlar soni o`n mingtagacha yetgandir ham”.

Mutribiy Samarqandiy,

(«Nusxayi zeboyi Jahongir” tazkirasidan).

1
Saltanatni qo`msovchilar behad, bisyor,
Lek saltanat har kimsaga qilmas vafo.
Saltanatni xor etganlar bo`ladi xor,
Vale kimki ziynatlasa – qilar baqo.
Ey Buxoro, senda davron surganlar ko`p:
Qaysi biri unutildi, izsiz ketdi.
Qaysi biri saltanatning ko`rki bo`lib,
Elu yurtni birlashtirdi, baxtga yetdi.
Taxtingni deb jangga kirgan mardi maydon,
Baxtingni deb ayamagan hattoki jon,
Noming bilan zo`r saltanat tuzganidan
Tarix o`g`li bo`lib qoldi Abdulloxon.
Abdulloxon yo`l bermadi zavolingga,
Ba qolmadi tarix aro uvolingga.
Ko`tartirdi ko`klar uzra sharifliging,
Jamol qo`shdi husningga-yu kamolingga.
Neki qilsa – Amir Temur yo`lin tutdi,
Neki qursa – Alisherning qo`lin tutdi.
Murid tushdi Hoja Islom eshonga-yu
Muslimlikni mahkam tutib mudom yutdi.
Fozillar-la til topishib kengash tuzib,
Shuaroning dilin ovlab bazmlar qurdi.
Mushfiqiy⁹⁶-la xandalari elda kezib,
O`lkalarni zabt etgani otin surdi.
Zulm o`tkazdi qay bir elga ur-surlarda,
El og`ziga tushdi hatto bo`lib chiston⁹⁷.

Netong, falak ravo ko`rsa tur-yurlarda,
Ming tirilib o`lmoqlikni qiynab vijdon.
Jangga kirsa hayiqmadi dushmanidan,
Chapdastlik-la qilich sermab o`ynatdi ot.
Hind mulki-yu turk sultonin yaqin olib,
Tujjorlarni quvontirdi berib qanot.
Goh yutildi, goho yutdi Abdulloxon,
Yurt qadrini baland tutdi Abdulloxon.
Buxoroning bag`ri butun xoni bo`lib,
Davronlarni oshib o`tdi Abdulloxon.

2

Amir Abdulloxon iqroynomasi:

Amir bo`ldim, vale Temur bo`lolmadim,
shul armonim – bul haq so`zim!
Yurt so`radim, vale suqdan o`lolmadim,
xohishlarga to`ymas ko`zim.
Amir Temur o`g`lonlari bo`lolmay el,
yutqizdilar, yutqizdilar.
Saltanatni shayboniylar qo`llariga
tutqizdilar, tutqizdilar.
Biz Temurbek saltanatini tiklamoqqa
azm etdik, azm etdik.
Turkiylarni Turkistonga jamlamoqqa
jazm etdik, jazm etdik.

⁹⁶ Mushfiqiy va Abdulloxon munosabatlariga daxldor latifalar ko`zda tutilayotir.

⁹⁷“Abdulloxon – beustixon” topishmog`I nazarda tutilmoqda. Burgani yashirgan bu topishmoqda uning zulmkorligiga kesatiqli ishora bor.

Temurbek ham Samarqandni ziynatlasa,
jahon aro, zamon aro.
Hofiz so`zi⁹⁸ hurmatiga sharafimiz –
shul Buxoro, shul Buxoro!
Biz ham qurdik, vale Temur imoratin,
hech buzmadik, hech buzmadik.
Ko`p yurtlarni obod qildik, elini shod,
Buxorodan dil uzmadik.
Dil uzmadik bul qubbat-ul islomdin hech,
bunga guvoh – iymonimiz:
Bu ochunda neki aziz – Buxorodur,
Buxorodur – vijdonimiz!

⁹⁸ Hofiz Sheroziyning:

Agar on turki sheroziy ba dast orad dili moro, Ba xoli
hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo, – bayti
ko`zda tutilmoqda.

O`NINCHI QO`SHIQ

Abdurahmon Mushfiqiy (1538-1588)

“Mavlono Mushfiqiy Buxoroda tavallud topgan va o`sha yerda ko`milgan. Qasidanavislikda uni asrining Salmoni der edilar. Ba ash`ori ham aksaran turfa jilolarga boy...”

Amin Ahmad Roziy,
 (“Haft Iqlim” dan)

“Mavluniyi mazkur iste`dodli shoir va mashhur hazilkash bo`lib, Turonda Abdulloxon valiyiligi zamonida Movarounnahrning malikul shuarosi darajasiga ko`tarildi”.

Darvishali Changiy,
 (“Tuhfat ul - surur” dan)

1

Shoirlarning sarvari,
Hazilkashlar axtari⁹⁹.
Latif so`zli, chin so`zli
Buxoroning axgari¹⁰⁰.
G`azal bitdi faryoddan,
Qalbdan ishqu imdoddan.
Tilib o`tdi bag`rini
Ming bir chekkan azobdan.
Kuldi-kulib o`ldirdi,
Sochin yulib so`ldirdi.
Ado bo`lmay armoni
O`zi o`lib-o`ldirdi.
Kuldi-kulib so`ldirdi,
Mag`lub bo`lib kuldirdi.
Xandasiga o`t berib,
G`olib kelib yuldirdi.
Xandasining nishi bor,
G`ajib tashlar tishi bor.
So`xta sovuq nokasni
Urar sarmon – qishi bor.
Kulgusida gul bahor,
Kulgusidan ol ruxsor.
Qahqahasi – chaqmoqi,
Kulgusiga dil xumor.
Kulib-kulib so`z uqqan,
Jon suqqanga jon suqqan.
Elga surur bag`ishlab
Ko`ksi ichra o`t yoqqan.
O`tki–zahar maddasi,
O`tki–qahar zardasi.
O`tki–dilni o`rtaydi
Ohanglar sarpardasi.
Avji baland xandasin,
Mavji kamand xandasin.
Domga tushgan fosiqni

Chiqarar sharmandasin.
Xandonlarning xandoni,
Xanda mulkin sultoni.
Kulib turib jon olar,
Kulmoq bo`ldi farmoni.
Xandalari barhayot,
Xandasida sabr-sabot.
Xandasida el dardi,
Xandasidir zar qanot.

2

Mullo Mushfiqiyning dil izhori:
G`azal yozdim, g`azallar yozdim;
G`azalimda kular go`zal yor,
G`azalimda ufurar bahor,
Buxoromni kuyladim alqab,
O`tganimni yozdim – baxtga zor.
G`azal yozdim, g`azallar yozdim;
Elga iymon istadim unda,
Sodiq vijdon istadim unda.
G`ussalardan to`lg`onib dilim,
Baxtli zamon istadim unga.
Ellar kezdim, elatlar kezdim;
Lek yurtimdek yurti ko`rmadim.
O`zga yurtida davron surmadim.
Hindda qutlab Akbar sultonni –
Tavof etdim, ammo turmadim.
Devon tuzdim, devonlar tuzdim;
“Jahonnoma”, “Gulzori eram”,
“Soqiynoma” – mazmuni alam.
Iztirobdan harchand to`zg`idim
Ba lek go`zal tuyuldi olam.
Qasidalar bitdim amirga –
Abdulloxon sha`nin sharaflab,
Yurti tiklash ahdin ta`riflab.
Buxoroni qayta yashnatdi,
Moziy aro shuhratin alqab.
Qasidalar bitdim amirga –
Tuzgani-chun buyuk saltanat,
Saltanat-ki sohibi qudrat,

⁹⁹ Axtar – yulduz

¹⁰⁰ Axgar – cho`g`, uchqun

Amir Temur ruhin shod etdi –
Abdulloxon sohibi jur'at.
Goho kuldim hatto amirdan;
Xatolarin yuziga soldim,
Jafolarin yuziga soldim.
Kulib-kulib aytdim betiga

Ba barchasin kulgiga oldim.
Kulgilarim bo`ldi latifa:
Nodonlardan so`yladim kulib,
Zolimlardan so`yladim to`lib.
Qahqahaga boqiylik istab –
Qoldim o`zim latifa bo`lib.

O`H BIRIHCHI QO`SHIQ
Ahmad Donish (1827-1897)

“Ahmad Donish Buxoro amirligining zulmat qoplagan osmonida enr yorug` yulduz edi”.
Sadridin Ayniy

“Ahmad Donish Buxoro sharoitida ham O`rta Osiyodagi yangi taraqqiyparvar tafakkurning mashhur namoyandasi bo`lib yetishdi”.

Akademik Ibrohim Mo`minov

Arazlarim qolmas ardona
Kimlar uchun edim Donish
Kimlarga Ahmad kalla.
Kimlargadir yoqdim, vale
Yoqtirmas ahli salla.
Tinglamadi botil zamon,
Arazim unda bisyor.
Tushunmadi g`ofil davron,
G`arazim unda bisyor.
Tinglamas hech kim
arzingni,
Na amiri, shotiri.
Qolmabdi, oh, andishasi,
Xavotiri, xotiri.
Eshitmasa nadir chora?
Bundan ortiq o`lim yo`q.
Illo, mening ham ulardan
Tortar qisiq tilim yo`q.
Ular menga boqmasa rap,
Men ularga boqdim tik.
So`zda sobit turdim, vale
Dardlarim bitik-bitik.
Qay birini to`kib solay,
Qay biridan uray lof:
Peterburgda ko`rganimmi,
Qandayligin yo Maskov?
Yo zilzila sababi ne?
Tuproq ne? Nedurur tosh?
Ep misli bir doira-yu,
Tutilar nedin quyosh?
Ep arzi¹⁰¹ni ko`rsatsam
gar,
Ishonmadi biror jon.
Nodon elim, qachon kelar
Bularni sen bilar on?

Yo barini yo`yarmisan
Gunohu qilmishingga?
O`z noningga to`yarmisan,
Qonarmisan ishingga?
Buxoroning yeri chanqoq,
Suvga zor mo`min elim.
Amudan suv keltirmoqning
Ko`rsatay oson yo`lin.
Mang`itlarning tarixidan
So`z qotdim yona-yona.
Xattotlikni hunar bildim,
She`r bitdim qona-qona.
Elga nodir voqeotlar
So`zladim xumor-xumor.
Koinotu samovotlar
Sirlarin ochdim hushyor.
O`zbaklarning to`qson ikki
Urug`idan bahs etdim.
Odamiylik musulmlikda
Bo`lganidan dars etdim.
Handasadan saboq aytdim,
Qur`ondan aytdim kalom.
Oh, o`zimdan o`zga meni
Anglamadi, vassalom.
Buxoro deb o`rtandim-ey,
O`rtandim jon elimga.
Umrin bo`yi yurt g`ururi
Mador bo`ldi belimga.
Daqqiyunus bir saltanat
Elim bag`rin qon etdi.
Erkni bo`g`di huquqsizlik,
Ravnaqqa ziyon yetdi.
Kimga aytay bu dardimni,
Amirlar bo`lsa botil.
Kimga aytay hasratimni,
Kabirlar bo`lsa g`ofil.
O`ris mulkin tartibotin,

Taklif etdim – ko`nmadi.
Tag`in meni kofir sanab,
Bilganidan do`nmadi.
Muncha qattol zamon
bo`lding,
Muncha g`ofil saltanat?
Armon bo`ldi
uyg`onishing,
Ko`z ochganim mamlakat.
Netay, araz bisyor menda,
.
O`rtaydi dilim alam.
Qay birini so`ylamayin,
Fig`onga kelar qalam.
Armonlarda o`tar bo`ldim,
Qismatim buncha nigun.
Suronlarda netar bo`ldim,
Ismatim buncha zabun.
Mayli, mayli o`tmish aro,
Armon bo`lib qolayin.
Oppoq umid bo`lib qay
kun
Qalbingga cho`g` solayin.

¹⁰¹ Globus

O`N IKKINCHI QO`SHIQ
Abdurauf Fitrat (1896-1938)

“Uning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo`yidagi hamkasabalarigina emas, Moskva, Sankt-Peterburgdagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar. 1924 yilda u Moskva Sharq tillari institutida dars bergan, professor bo`lgan. Afg`oniston, Turkiya, Eron ilmiy-adabiy doiralarida ham uning mavqe-martabasi baland bo`lgan. Mamlakatda “ichki dushmanlar”ni fosh qilish vasvasasi avj olib, xalqning asl farzandlari bir chetdan terib qatag`on qilinayotgan bir paytda xorijdagi ilm-ma`rifatning qadriga yetuvchi ishbilarmon homiyilar da`vatnomalar yozib, uni ishga taklif etganlarida bormadi. Har qanday holda Vatani, xalqi bilan birga bo`lishni lozim bildi. Holbuki, u inqilobdan keyingi ikki million muhojirning biri bo`lishi mumkin edi. So`ng 20-yillarda, hatto 30-yillarda ham uning imkoni bor edi. Biroq Vatan tuyg`usi bunga yo`l bermadi, mavjud tuzum–hukmron harbiy mahkamachilik majburiyati esa uni o`zi muqaddas tutgan xalqi, Vatani nomidan qatl etdi...”

Professor Begali Qosimov,
 (“Sharq yulduzi”, 1992, 10-soni, 170-6.)

“Men qo`limga topshirdig`ing
Qilichni tashlab,
Cholg`uni olmasa edim –
Turonim talanmas edi.
Men yolg`iz ko`z yoshlarimni
Bu sag`anangga to`kmak uchun emas,
O`z yozuqlarimni
Iqror etarga keldim, hoqonim”.

Abdurauf Fitrat

“Fitrat... 1921 yilda Buxorodagi mehmonxonasida Cho`lpon sharafiga berilgan ziyofatda Sharifjon qozining (Buxoroning taraqqiyparvar kishilaridan, qozikalon ham bo`lgan, 1918 yilda amir qamoqqa olgan edi) haqli z`tirozlariga javoban: “Axir biz bunaqa inqilobni istagan emasmiz, taqsir, – deydi. Ba bu gan mash`um 37-yilda jiddiy ayblov bo`lib ishga tirkaladi”.

Professor Begali Qosimov, (“Sharq yulduzi», 1992, 10-soni, 174-b.).

O`kinch

Aldagani bola yaxshi,
Yoki sodda xola yaxshi.
Olam tanib men aldandim,
Bo`la qoldim nolabaxshi,
Oh, aldandim, aldandim-o!..
Aldanmoq-ku biram oson,
Xom sut ichgan axir inson.
Ozodlikni havas aylab
Adashdim man – g`ofil inson,
Oh, aldandim, aldandim-o!..
Kimdan o`zi so`rdim madad!?
Bilardim-ku necha adad
Yurtinga ko`z tikkanini,
Yana unga ochibman had...
Oh, aldandim, aldandim-o!..
Aldanib tushdim tuzoqqa,
Yetmadi aqlim uzoqqa.
Endi aldov o`ti aro

Yonarman o`rtab firoqqa,
Oh, aldandim, aldandim-o!..
O... aldanib qildim xato,
Jarohati – yurtga jazo.
He qildim-o, nelar qildim!?
O`ylab-o`ylab bo`ldim ado,
Oh, aldandim, aldandim-o!..
Yurt qismati – emas o`yin,
Yurt qismati – emas o`yin.
Sevib-sevib shu elimni
Berib qo`ydim bog`lab bo`ynin,
Oh, aldandim, aldandim-o!..
Olimxonga qildim kina,
O`z jonimga suqdim igna.
Bolshovoydan madad istab,
Erk ostiga qo`yib mina,
Oh, aldandim, aldandim-o!..

O... Eshonjon, jon Eshonjon¹⁰²
 Pand berdimi bizga armon!
 Sha'n ortidan quvdik, vale
 Yurt qaqshadi, el qusdi qon,
 Oh, aldandik, aldandik-o!
 Erk degani chiqdi sarob,
 Buxoroni etdik xarob.
 Tushov bo`ldi erki elga,
 Sarxush etdi misli sharob,
 Oh, aldandik, aldandik-o!
 Qalamlarim chekdi faryod,
 Alamlarim chekdi faryod.
 Turon mulki sultoniga
 Aldanganim etdim imdod,
 Oh, aldandim, aldandim-o!..
 Turoningni etdik xazon,
 Turk elini etdik to`zon.
 Yog`iylarga kulib boqib
 O`zimiz-da kuydik chunon,
 Oh, aldandik, aldandik-o!
 Kechir, o`zing Temur Sulton,
 Bo`lmasak biz buncha nodon,
 Talatmasdik Turoningni,
 Bo`linmas edi Turkiston,
 Oh, aldandik, aldandik-o!
 Shum ko`rgulik, tole bo`lib
 Manglayimga bitganmiding?
 Orzularim barin yulib
 Ajdahoday yutganmiding?
 Oh, aldandim, aldandim-o!..
 Aldanganim anglaganda
 Kechikkandim, afsus, afsus.
 Aldanganim o`kinchidan
 Yondim-da qotdim necha so`z
 Oh, aldandim, aldandim-o!..
 So`zlarimdan chaqin chaqdi,
 Ko`zlarimdan sel xun oqdi.
 Boshim tikdim erk yo`liga
 Porlab dilda umid balqdi,
 Oh, umidim, aldama-yo...
 Umidlarim – uchqur Humo,
 Hurlar ichra purnur Humo.
 Hur Vatan – sen armonimsan,
 Boshim uzra charx ur, Humo!
 Kel, ucha qol, saslarindan
 Uyg'onayin chekib safo!

Intiho

Falak, garduni duningda

Qoyim o`n ikki burjing bor.
 Falak, o`n ikki burjingda
 Javohir to`la durjing¹⁰³ bor.
 Falak, ko`kingda yulduz ko`p,
 Sochar ko`k uzra nur Zuhro.
 Vale o`n ikki yulduzli
 Bizim bayroqni ko`r, dunyo!
 Falak, bag`ringda ko`p asror,
 Manim qalbimda dard bisyor.
 Buxoro – dardi so`zonim,
 Saodat mangu bo`lsin yor.
 Ajab o`n ikki darvoza –
 Buxoro husni zebosi.
 Ajab o`n ikki zol joni –
 Buxoro aqlu zakosi.
 Ajab o`n ikki farzandi –
 Buxoro ori, nomusi.
 Ajab o`n ikki dilbandi –
 Buxoro ori, qomusi.
 Ajab o`n ikki bu rangda
 Buxoro jilva ko`rgizdi.
 Ajab o`n ikki bu sangda
 Bu tarix qayta o`q uzdi.
 Bir o`qki, o`qi vovaylo,
 Zamon bag`riga chok solmish.
 He rangki, rangi huvaydo,
 Inib qalblarga o`t solmish.
 Buxoro davru dovruqli,
 Hunarli elga sohibdir.
 Shariflik uzra dunyoda
 Ka`baga nurli noibdir.
 Buxoro shaenu savdosi
 Munavvar etdi olamni.
 Buxoro g`ulu g`avg`osi
 Sarbasar etdi olamni.
 Ne nola dilni o`rtaydi,
 Firoqda yondi – so`z o`ldi.
 Buxoriylarni dostoni
 Tugandi ushbu so`z bo`ldi!

20.06.1995-2.02.1997.

Buxoroyi sharif.

¹⁰² Eshonjon – Fayzulla Xo`jayevni erkalam, shunday nom bilan ham atar edilar.

¹⁰³ Durj – huqqa, javohirlar saqlanadigan sandiqcha.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oxunjon Safarov ijodi qanday bosqichlardan iborat?
2. “Buxoriylar yoxud o`n ikki yulduz haqida qo`shiq” dostonida qaysi tarixiy shaxslar haqida misollar keltirilgan?
3. Ushbu asar mavzusiga ko`ra qanday dostonlar turiga mansub?
4. Asar qaysi tarixiy voqea munosabati bilan yozilgan?
5. Unda qanday tarixiy voqealarga ishora bor?
6. Dostonda eng ko`p qo`llangan badiiy san`at qaysi?
7. Shoir ona yurti Buxoroni tasvirlashda qanday tashbehlardan foydalangan?
8. Doston qaysi vaznda yozilgan?



MATNAZAR ABDULHAKIM (1948-2010)

Matnazar Abdulhakim 1948 yil 20 fevralda Xorazm viloyatining Urganch tumanida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi (2000). Rossiyaning Taganrog shahridagi Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagan. «Tiniq tonglar» (1982), «Fasllar qoʻshigʻi» (1984), «Qor qoʻshigʻi» (1990), «Yonimdagi daryolar» (1993), «Qorachiqdagi dunyo» (1994), «Bir quchoq gul», «Oydinlik» (1997), «Soʻnggi yaproq» (1999) kabi kitoblari nashr qilingan.

Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Bagʻdodiy, Pahlavon Mahmud, Mirzo Bedil asarlarini forsiydan oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Atoqli shoir Matnazar Abdulhakim 2010 yili vafot etgan.

KOʻCHKI

«*Yatim ad-dahr*» (*Abu Mansur as-Saolibiyning buyuk tazkiras*)ohanglarida

MUQADDIMA OʻRNIDA

Elimga qul soʻrab kelmading
Elimga pul soʻrab kelmading.
Elimga ul soʻrab kelmading,
Elimga bul soʻrab kelmading.
Sen mol soʻrab kelgan yoʻq eding,
Dunyo soʻrab kelgan yoʻq eding.
Dengiz soʻrab kelgan yoʻq eding,
Daryo soʻrab kelgan yoʻq eding.
Togʻni kemirmoqqa kelmading,
Suvni simirmoqqa kelmading.
Yetim haqin, yesir haqin yeb,
Toʻymoq, semirmoqqa kelmading.
Dodlar solib keldi kimlardir,
Otlar solib keldi kimlardir.
Oxir magʻlub ketmoqlik uchun
Avval gʻolib keldi kimlardir.
Ochiq edi senga toʻrt jonib,
Oydin edi senga toʻrt taraf.
Donish izlab kelding, donishmand,
Naql izlab kelding, ey arab!
Xorazm pok umiding edi,
Umidingta, ne baxt, yetding sen.
Vatanimga kelding, xayriyat,
Vatanimdan, afsus, ketding sen.
Seni oʻqib nidolar topdim,
Oʻzimdan koʻp xatolar topdim.
Alangali qoʻshiqlarimga
Xayolimdan sadolar topdim.

Ming tulkini tilkalagan sher,
Yuragimdir senga tolib uy...
Assalomu alaykum, hazrat
Abu Mansur as-Saolibiy!

* * *

«Yoshlik – baxtdir. Betimsol iqbol,
Totlidir shodligu gʻamlari.
Oʻtar, darigʻ, yor qoʻynida ham
Toʻxtamasdan uning damlari.
Yoshligim bir azim daraxtdir.
Ishq mevasi – shoxalarida.
U oʻsadi hayot va oʻlim
Sahrosining vohalarida».

* * *

«Koʻkartirdi maysani yomgʻir,
Koʻz yoshimdan undi mehrlar.
Diydor afsun qiladir meni,
Meni yuz koʻrishuv sehrlar.
Telbalandim. Yodimdan chiqdi,
Yoʻq nimayu, bor nima edi.
Qish nimayu, yoz nima edi,
Yomgʻir nima, qor nima edi...»

* * *

«Ota oʻgʻli! Qisiqmas tiling,
Lekin – soʻzi juda qisqasan.

Sen padari buzrukvoringdan
Aniq olingan bir nusxasan.
Ul zotga men qadrdon edim,
Shukur, umid emasdir sarob.
Kelding, yodi dilimga to`ldi
Quyulgandek qadahga sharob».

* * *

«Saodating mening baxtimda,
Baxtim ishva va nozing ichra.
Ishva-nozing vujudingdadir,
Vujuding, oh, libosing ichra.
Men bir lahza talpinmay qo`ysam
Sim-siyoh cho`g` qaroqlaringga,
Libosingni tikkan ignalar
Sanchilsinlar oyoqlarimga...»

* * *

«...Rahmat, do`stim! Ishratdan mastman,
Bo`lar bo`lsam shunchalar bo`ldim.
Yam-yashil bir shonadir shodlik,
Men ichinda g`unchalar bo`ldim.
Surur bilan o`tgan lahzalar
Aylandilar quyoshlarimga.
O`zga damlar, o`zga nafaslar
Aylandilar ko`zyoshlarimga.
...Yo`lga solmoq istasa kimki
Qaysi xasis, qaysi sullohni
Huzuringga borsinu boshlab,
Tani, desin, Ubaydullohni».

* * *

«Sen oy kabi olislardasan,
Sen oy kabi yaqinsan ko`zga.
Ishqdan bo`lak ilojim yo`qdir,
Choram yo`qdir sevmakdan o`zga.
Bilmadim, kim sari talpinar
Oq siyna ostinda yuraging,
Demoqchiydim quloqlaringga,
Chayon bo`lib chaqdi ziraging».

* * *

«Totmagandim baxtning ta`mini,
Yeldek o`tib ketib boraman.
Ey kamonchi, nishoniga men,
Aytgil, qachon yetib boraman.
Mo`ljalingdir sening bir yurak,
Shu mo`ljalda xayolim – yodim
...Yurak bilan bir bo`lib qachon
Orom olarkanmiz, sayyodim!»

* * *

«G`azna ahli, ey shimolliklar,
Sizni Haq ardoqlar. Bu – haqdir.
Qutlug` bo`lsin muborak qismat,
Muborak bo`lsin qutlug` taqdir.
Jo`natamiz tillolarni biz,
Xazinada yo`qu borlarni.
...Evaziga izg`irin yo`llab,
Jo`natasiz sovuq qorlarni».

* * *

«Noliganim yo`qdir davrdan,
Deganim yo`q zamoni yomon.
Shunday bo`lsa hamki sha`nimga
Ravo ko`rdi yomonni zamon.
Bir o`q uzdi qoq yuragimga,
Qoq bo`lindi mehr va qahr.
Yarmi uning Xuroson bo`ldi,
Yarmi esa – Movarounnahr».

* * *

«Ishq, qushlaring gala-galadir,
Ishq, qushlaring to`da-to`dadir.
Bari yuragimga kechadir,
Bari yuragimga o`tadir.
Parokanda bo`lar bu baxtdan
Ayriliqning alam-ozori.
Boshlanadi yuragimizda.
Muqaddas bir qushlar bozori».

* * *

«Daraxt tagi – ola ko`lanka,
To`shalgandek yo`lbars terisi.
Sutdek oydin... kel, ey mahbubam,
Xo`p de, xudo xayringni bersin.
Rayhonlardan, shudring suvidan
Sharob qilib quygim kelyapti.
Ayriliqning, hijronning holin
Xarob qilib qo`ygim kelyapti».

* * *

«Suzar karvon-karvon bulutlar.
Topib bo`lmas yulduzlar elin.
Lohas kezib borar to`lin oy.
Oq yuz, qora chodrali kelin.
U ertami-indin tug`adi,
Yechiladi qop-qora chodra.
Osmon bilan bir bo`lib shunda
Oyvachchalar ketarlar potrab...»

* * *

«Qanday qilib tilingiz bordi
Sindi deya aytishga sozni.

Uyalmaysiz, o`ldi deysizlar
Aziz do`stim Abul Abbosni.
O`ldi deyish shart bo`lsa agar,
So`zingizdan xo`b, qaytmangizlar.
Faqat... meni ayting o`ldi deb,
Abul Abbos deb aytmangizlar».

* * *

«Yo rab! Mana, ko`tarildi chang,
Bo`lmoqchidek osmonga narvon.
Yo rab! Do`stlar otlanoqdalar,
Yo rab! Yo`lga chiqmoqda karvon.
Qolmoqdamiz yo`l boshida zor
Yig`lab-yig`lab, o`ksib-o`ksinib,
Yoqasini chok etar kimdir,
Kimdir esa yirtar ko`ksini».

* * *

«Gunohimmi mening intilsam
Cho`qqilarga, nurga, ziyoga.
Lochin bo`lib tug`ildim, axir,
Shunqor bo`lib keldim dunyoga.
Men istasam, istamasam ham
To`rt tarafga shonim tarqalar...
Sizlarga hech yomonligim yo`q,
Buncha qag`illamang, qarg`alar».

* * *

«Mendan o`zib borayotgan zot,
Qanotingni kergil yana keng.
Shaxdamlik kasb etsin qadaming,
Bo`lgil tulpor, lochin bilan teng.
Uchsang oyoq, yelsang qanoting
Borsinlar charchashmay-tolishmay.
Lekin... men ham, men ham iloyim,
Uchay sendan sira qolishmay».

* * *

«U chindan ham hammadan baland,
U hammadan, chindan, yuqori.
Ot hurkitar savlati uning,
Ot hurkitar uning viqori.
Hamma go`yo kemtigu, faqat
Faqat o`zi butundek baland...
Aslida-chi salladagi chang,
Gulxandagi tutundek baland».

* * *

«Ikki qatra ko`z yosh misoli
Ikki yonga ketdik ajralib.
Ikki zilol suv tomchisidek
Ikki yoqqa ketdik sachralib.

Ko`z oldimdan ketmaydi sira
Yanoqlaring qizil olmadek.
Uchrashdi juft qatra ko`zyoshim,
Bizlar esa uchrasholmadik».

* * *

«Me`da chirir sekin va asta
Yo`qoladi es-hush, xotira.
Bir qultumi bu yoqda tursin,
Ichma undan hatto bir qatra.
Shoh bo`lsang ham obro`ying to`kib,
Mahrum etar toju taxtlardan...
...Bu gaplarning hammasi to`g`ri
Sharob topilmagan vaqtlarda».

* * *

«Yong`oq mag`zi deb edim seni,
Totli o`ylab-o`ylab sen haqda.
Tarqatgandim xush-xush xabarlar
Alqab-alqab va maqtab-maqtab.
Sof yuraklar haqda, so`ng bilsam,
Ko`p qo`lansa so`zlar degansan.
Aytganlarim hamon rost... faqat
Puch yong`oqning mag`zi ekansan».

* * *

«To`g`ri, boldir bulbullar sasi,
To`g`ri, qanddir qovunlar ta`mi.
To`g`ri, nabot noklarning toti,
To`g`ri, sharbat shudringlar nami.
To`g`ri, jon ham shirin... tug`ilgach
Necha yil o`tsa-da oradan...
Lekin bari zahar, ayrilsam
Suyukligim Dahhazoradan...»

* * *

«Qoshlarini qilich etib u,
Bo`lib yurmas bekor ovvora.
Kipriklar in nashtar ham qilmas,
Aylamakka yurakni pora.
Shundoqqina bir qiyo boqib
Qo`ysa, shuning o`zi yetadi.
Ko`zlaringdan tirqiraydi yosh,
Bo`g`zingdan qon sachrab ketadi...»

* * *

«Kipriklaring maysadek momiq,
Ko`zlaring ham chashmadir – zilol.
Sochlaringning rayhoni xushbo`y,
Ikki qoshing esa – juft hilol.
Bardosh berolmayman bu baxtga,
O, go`zallik! O, ko`rk! O, husn!..

Ijzat ber qo`yib yuboray
Bu o`tloqqa ko`nglim ohusin...»

* * *

«Hammayoq oq, hammayoq oppoq,
Aqlni lol qoldirgay bu kun.
Tuya ko`pik sochmoqda go`yo,
Go`yo kampir elamakda un.
Kechagidek shamol uvillab,
Do`q urmaydi, qilmas dag`dag`a.
Qor yog`moqda goh mayda-mayda,
Qor yog`moqda goh pag`a-pag`a».

* * *

«Ketding. Qoldim. Ketdi izingdan
Meni tashlab ikkita ko`zim.
Bo`g`zim ketdi, yuragim ketdi,
Yo`l bo`yida turibman o`zim.
O`krayapman. Garchi bo`g`zim yo`q,
Dil yo`q. G`amdan egik boshlarim.
Ko`zlarim yo`q... yuvar ko`zimni,
Ming taajjub, ko`zim yoshlari».

* * *

«Ikki qoshing – ikkita qilich,
Ikki qoshing – ikkita shamshir.
Goh titraydi, gohi o`kraydi,
Yuragim ham ohudir. Ham sher.
Tongda senga talpingan dilga
Ushmundayin bir chora qildim –
Qo`lga olib shamshirlaringni,
O`z ko`ksimni ming pora qildim».

* * *

«Dilni senga otdim, yulduzim,
Berar deya yuz bersa ne hol.
U chirpirab quyoshga do`ndi,
Qo`ndi yuksak cho`qqiga behol».

* * *

«Gohi-gohi dunyoni ko`rmak
Istagi joy olgach dilimdan,
Donishmand dastyorlar yolladim
Kitob-daftarlardan, ilmdan.
Kimsasizlik ulfatim bo`ldi,
G`aroyib bir hikmatga molik
Yolg`izlikdan orttirdim oshno,
Sodiq yorim bo`ldi tanholik.
Do`st tutundim judolikni men,
Bunyod bo`ldi noyob bir hasham.
Barini chorlardim bazmga,
Xayoldan uy qurib muhtasham.

Chiqayotir avjiga ishrat,
Kelib ko`krak yuraklarga tor.
Bazmimizga xalaqit bermang,
O`tinamiz odamlar zinhor!»

* * *

«Hid bilmaydi. Chamanlar qiyg`os,
O`nglarida va so`llarida.
Qo`lidan-ku hech ish kelmaydi,
Lekin hamma ish – qo`llarida.
Ayollarni qulflab kekkayar,
Kalitlarni belga naq osib.
Erishmak-chun visolga, yo`kdir
Kalitlardan boshqa vaqosi».

* * *

«Olib borgan edim senga gul,
Bosgan eding bag`ringga ma`sum.
Ko`chgan edi ruxsoringga ul
Bo`lib miyig`ingda tabassum.
Tabassum gulini sog`indim,
Menga olib kel-chi shu gulni.
Mendan senga elchi shu gulni...
Sendan menga elchi shu gulni...»

* * *

«Dilga tog`dek zalvorli, og`ir
Muhabbatning yukini ortdim.
Sho`rlik birdan ingrab yubordi,
Va men – g`am chekishdan bosh tortdim.
G`am ham ayyor. Anoyi emas.
Zahar qotdi ichgan oshimga.
Tark etdi-da yurakni darrov,
Kelib tushdi endi... Boshimga.
G`am chekishdan men bosh tortgandim,
Sob bo`lgandi dilning bardoshi.
Neni tortsin endi sho`rlik bosh,
Yo`q-ku, axir, boshimning boshi...»

* * *

«O`lganimda tiriltirdilar,
Tag`in – in`om etdilar tortiq.
Bundan ortiq ezgulik bormi,
Saxovat bormi bundan ortiq.
Suvod yoki Rabobdan saqla
Arboblarga ish tushsa doim.
Ubaydulloh ibn Ahmadga
Rahmatingni yog`dir, xudoyim.
Tark etmasin uni sira toj,
Tark etmasin uni sira taxt.
Huzuriga qiyomatgacha
Ziyoratga kelib tursin baxt».

* * *

«Daraxtlar ko`p nodondir, gulim,
Gullashsa ham yal-yal, qulf urib.
Bir dona ham meva bermaydi
Gullarini to`kmasdan turib.
Senga, tengsiz ey sarvi nozim,
Betimsol bir fazilatdir xos –
Duv-duv meva tukkan vaqtingda
Gullab-gullab turasan qiyg`os...»

* * *

«Yorug` dunyo yorug`mas, asli,
Abadiydir uning zulmati.
Bu dunyoda kim ezgu, kim pok,
Uning baxti zinhor kulmadi.
Dunyo molin bersang-da baxt yo`q,
Alam – tekin, g`am-kulfat – tekin...
Dunyo – zindon... Shuning uchun ham
Unda kunlar o`tadi sekin...»

* * *

«Yaqinlarim yig`lab bo`lgandir,
Umri tugagandir motamning.
Shunchalik ham cho`ziladimi
Uqubati o`lgan odamning.
Marhummanmi – yo`qmi harqalay,
Quchog`ingga olding-ku biroq.
Shuncha qattiq sog`inganmiding,
Xush ko`rishdik, azizim tuproq».

* * *

«Kerak bo`lsa, shartta chiqarib
Kerak joyga mardona sanchar.
Boshqa vaqtda pinhon saqlanar
Mard yigitda hamisha xanjar.
Ikkita qin bo`lar xanjarda,
Bilmoq bo`lsa agar tilaging –
Bir qin bu – o`z qinidir uning,
Ikkinchisi yovning – yuragi...»

* * *

«Vatanimdan xabarlar keldi,
Vatanimda qahat, taqchillik.
Ikki daryo qurib boryapti,
Kelayotir bir qurg`oqchilik.
Ikki ko`zim ikki daryoni
Iztiroblar bilan etar yod...
Vatanni tark etib ko`zimga
Ko`chmakdami yo ikki daryo».

* * *

«Yaxshilar hamisha yaxshidir,
Ular mangu. Biz – bir zamonlik.
Ko`nikkanmiz ularga lekin,
Ulardan hech kelmas yomonlik.
Ular xursand qilmaydi bizni,
Bu ne kulfat, bu ne vahshiylik –
Biz minnatdor bo`lamiz faqat
Yomonlardan kelsa yaxshilik».

* * *

«Menga birov yaxshilik qildi,
Bilmay qoldim – kim ul – xudoyim...
Qaysi Xotam, qaysi Javonmard,
Qanday g`aniy. Qanday fidoyi.
Ikki kunki, xudoyim, mana,
Yuragim g`ash, ruhim bulutdir...
...Mendan kimki yaxshilik ko`rsa,
Endi menga barin unuttir...»

* * *

«Qo`y, maqtama haddan ziyoda
O`z tug`ilib o`sgan yeringni.
Oq yo`l bo`lsin! Olis safarga
Bog`labdirsan, yigit, belingni».
Elingda gar bo`lsa nomus-or,
Ko`tarmasdi dushmanlar tug`in,
Qilmas edi o`z bag`ridan u
Seningdek bir farzandni quvg`in».

* * *

«Mening ruhim – samo qa`rinda,
Mening ruhim – tuproq ichinda.
Aniqrog`i, sevgilim, sendan
Men abadiy firoq ichinda.
Bir kun seni larzaga solib,
Bir kun yuragingni yoqaman.
Yer qa`rinda zilzila bo`lib,
Samolarda chaqmoq chaqaman».

* * *

«Etukliging hammaga oydin,
Yetukliging hammaga ayon.
El aynigan shu mudhish kunlar
Bir fazilat senda namoyon.
Bir kun fazling bilan qutqargung
Yuraklarni o`kinch-dog`lardan...
Bosqin vaqti javohirlarni
Asraydilar sajdagohlarda».

* * *

«Dunyoda kim eng yomon bo`lsa,
Uning bilan teng yomon bo`ldim.

Eng yomonlar ichinda hatto
Aslida men eng yomon bo`ldim.
Shodlanmadim ochilishdan hech,
G'am chekmadim hech vaqt so`lishdan.
Tabriklayman. Baringiz ozod
Dunyoda eng yomon bo`lishdan».

* * *

«Niqobingni ko`targan eding,
Qosh qiliching yalang`ochlandi.
Quloq eshitib, ko`z ko`rmagan
G'aroyib xunrezlik boshlandi.
Dastingdan bu ko`ksim bo`ldi chok,
Silqiyotir yuragimdan qon.
Sochlaringdan ip olib o`tkaz,
Kipriklaring ignadir, inon.
Ignalar sanch omonlik uchun
Dilingga rahm solsa gar ohim.
O`lamanmi yo qolamanmi,
Qo`lingdaman endi, jarrohim».

* * *

«Otang vafot etdi. Ko`ksingni
Ul rahmatlik uchun qabr qil.
Soching yulma. Yuzingni yirtma.
Har boshda bor bu dard. Sabr qil.
Shu'lalar soch g'arib yerlarga,
Zulmatdagi nurdek yetim bo`l.
Bebaholik kasb et ohista,
Sadafdagi durdek yatim bo`l.
Qorachiqdek asra yarog`in,
Tulpor, po`stin ham cho`girmasin.
Qiyomatda uchrashganingda
Toki sendan yuz o`girmasin».

* * *

«Ustingda birpas yonboshladim,
Ajab emas ingrab yuborsang.
Ming yillarni ko`rsan olddan,
Bashoratgo`y, qadrdon xarsang.
"Al-qasos ul min al-haq" naqlin
Yastanib xush ko`rayotirsan.
Qabrim toshi bo`lajagingni,
Ehtimol, tush ko`rayotirsan.
Ham xotirlab meni o`sha kun,
Mening uchun anduh yeb hamda
Hozir mendek yaslanib olib
Orom olajaksan tepamda».

* * *

«Hijron toqatimni toq qilgach,
Xatlar yozdim senga ming g'amda.

Hasrat bilan maktub kutaman,
Maktubingdan qo`rqaman hamda.
Nomalaring ardoqlarmikan
Yuragimni – munis qumrini?..
...Javoblaring kechikmoqdalar
Uzaytirib umid umrini».

* * *

«Men quyoshni sevaman jondan,
Porlab tursin deyman u doim.
Tong otadi har kuni tongda,
Ranjitmaydi meni xudoyim.
Kimdir menga ravo ko`rmaydi
Charaqlagan shu kun, kunduzni.
Zulumotni boshimga yopib,
Sochmoq istar ming-ming yulduzni.
Qilmoq istar quyoshdan mahrum,
Qilmoq istar oftobdan judo.
...Kun botadi. U odamni ham
Ranjitmaydi, negadir, xudo».

* * *

«Mixlamadi to`shaginga dard,
Lang bo`lmadim, shol bo`lganim yo`q.
Yuragimning sanchiqlaridan
Men buningdek hol bo`lganim yo`q.
Toki uni tushimda ko`rdim,
To`shak bo`ldi muqim bir joyim.
Kecha-kunduz menga uyqu ber,
Sendan o`tinaman, xudoyim.
Tushlarimda ul sarvinozim
Ko`rinmayin qolgan chog`ida
Dunyodan ham bir xabar olay,
Uyg`otib ham turgin gohida.
Uxlamoq baxt. Baxtdir uyg`onmoq.
Goh shod, gohi chekib qayg`uni.
Muddatidan besh kun ortga sur
Faqatgina so`nggi uyquni».

* * *

«Bu elda eng hayoli odam
Yechinadi chiqib maydonga.
Bu elda eng soddadil odam
Dars beradi to`da shaytonga.
Bu elda eng halol odamning
Son-sanoqsiz harom yeri bor.
Eng vafodor har bir xotinning
Kamida o`n-o`n besh eri bor.
Bu yerda har qarich tuproqda
Ming o`lim chang solar tirilib.
Bir-birining quchoqlarida
Ketayotir bari qirilib...»

* * *

«Ishonmangiz dabdabalariga,
Shiorlarga ishonmangizlar.
Diyorlarga ko`z olaytirgan
Diyorlarga ishonmangizlar.
O`z burnidan narini ko`rmas
Aymoqlarga ishonmangizlar.
Talonchilar tilidan tomgan
Qaymoqlarga ishonmangizlar.
Ming xil g`araz bilan berilgan
Baholarga ishonmangizlar.
El qoniga bayroq bo`yagan
Daholarga ishonmangizlar.
Dushmanlarga boshin silatgan
Shod qullarga ishonmangizlar.
E`tiqodin aqchaga sotgan
Sotqinlarga ishonmangizlar.
Ishonmangiz jazavalarga,
Aslo xurujlarga ishonmang.
Vatan degan – taqdir in`omi,
In`omfurushlarga ishonmang.
Hammasida aynishi mumkin
Adlu insof, vafo, diyonat.
Hech gap emas sodir bo`lishi
Ulardan eng jirkanch xiyonat.
Sergak bo`ling. Yolg`onga uchmang.
O`trik so`zni ham demangizlar.
Halol bo`lsa, ne yesangiz yeng,
Faqatgina pand yemangizlar.
Halol mehnat, sodiq do`st, chin yor
Rostakam baxt, asl oromdir.
Zolim uchun qilingan mehnat
To`ng`iz go`shtidan ham haromdir.
Hikmatini unutmangizlar
Avliyolar aytgan pandining.
Ruhini shod etib, yashang Shayx
Bahoviddin Naqshbandiyning.
Parvo etmang, takror aytaman
Baxt haqdagi ko`pik gaplarga.
Ishoningiz ish bilan mashg`ul
Tars yorilgan qutlug` kaftlarga».
« – Mo`ysafidim, izlabsen yoshlik,
Mo`ysafidim, husn izlabsen.
Bo`yabdirsan soch-soqolingni,
Bilmam – kimdan, neni gizlabsen.
« – Aylanayin qayg`urishingdan,
Aylanayin ko`zyoshlaringdan,
Soch-soqolim oqin gizladim
Sening yosh-yosh kundoshlaringdan.
« – Kundoshlarimdan aylanayin,
Kesib o`tmas hech vaqt yo`limni.

Bir tilagim sen o`l imagaysan,
Kundosh deb bilganman o`limni.
O`lim seni olib ketgali
Kesib o`tmasa bas, yo`limdan.
Bo`yoq bilan soch oqlarini
Gizlab bilarmisan o`limdan?..»

* * *

«Ezgulikni yoqla hamisha,
Uning bilan o`zing ham yoqlan.
Mayli, ming dardga bo`l girifor,
Faqatgina g`aflatdan saqlan.
Aytgil, o`zi, nimadir g`aflat,
Ayt, u qanday ko`rsatar nishon...
Kunduz – tunning hushyorligidir,
G`aflatidir kunduzning oqshom».

* * *

«Zamindir bir ochilmagan sir,
Pinhon erur ko`zdan siyoqi.
Tun pardasi bilan berkinib
Yotar, yana, boshdan-oyog`i.
Tong otaru sekin-ohista,
Tog`lar siri fosh bo`lar uning.
Tog`lar sarrin-sarrin chekkuvchi
Ohlar siri fosh bo`lar uning.
Cho`qqilardan oqayotirgan
Daryolari fosh bo`lar uning.
Daryolari taralib ketgan
Dunyolari fosh bo`lar uning.
Gulzorlarda kuy kuylayotgan
Qizlar siri fosh bo`lar uning.
Qizlarga zor, mahliyo boqqan
Bizlar siri fosh bo`lar uning.
Tong yorisha borgan sayin
Sirlar shunday foshlana boshlar.
Axiyr yana bota boshlar kun,
Sirlar tag`in... boshlana boshlar».

* * *

«Qish. Darchadan termulaman jim.
Emas bugun ko`cha ko`chadek.
Qor ostida yotibdi dunyo
Tuxumning ichida jo`jadek.
Hech vaqt hech kim oyoq bosmagan
Kabi tim-tirs hovli yo`lagi.
Piyolada tovlanadi choy,
Erib tushgan oftob bo`lagi».

* * *

«Suhbatlarda rag`batlanmas hech,
Kitoblarda so`kiladi rashk.

Jonim, men bo`lsam bir daraxtman,
Qilt etsam duv to`kiladi rashk.
Yana-tag`in gullay boshlayman.
Bilmagaydir bu ahvol tinim.
Bergim kelmas hech kinga seni,
Seni topgan qulman, oltinim».

* * *

«Zaharlab o`ldirding Alpomishlarni,
Ular ichgan suvlar endi og`uli.
Irgayib kulmog`ing endi ortiqcha
Murodga yetdim deb o`ylab, dog`uli.
Xayriyat, deb bekor tin olib yurma,
Sendan o`ch olmoqning tez yetgay gali.
Boqib turibdurman ko`zlaringga tik,
Mana, men qasosning tirik haykali.
Shohsupada turib o`ch olgich haykal,
A`lo bilgich kim do`st – yog`iyligini.
Mangu yashayman deb kerilmayoq qo`y,
Unutma umrimning boqiyligini».

* * *

«Sening xoling ajib afsungar,
Sening xoling – sehrGAR urug`.
Urug` emas, yo`q, u – muhabbat,
Muhabbat ham emas, yo`q, u – ruh.
Kimdir uni yanoqqinangda
UnutganCHA tashlagan-ketgan.
Bilibmi yo bilmaymi, necha
Qaro ko`zni yoshlagan-ketgan.
Bu tun mening xayolimda ham
Xoling mijja qoqmay tunadi...
Endi hamma yuraklarda u
Ming iztirob bo`lib unadi».

* * *

«Kelaman deb va`da berganding,
Tuhfa etib sonsiz orzular.
Ko`p shamollar esdi shundan so`ng,
Shundan beri oqdi ko`p suvlar.
Maysazorlar yo`q edi, mana,
Ular paydo bo`ldi har qayda.
Butun borliq yam-yashil edi,
Butun borliq endi sarg`aydi.
Inqirozga yuz tutdi borliq,
Naf bermadi afsus, attang ham.
Tanazzuldan chetda qolmadi
Kelaman deb bergan va`dang ham».

* * *

«Men bir qizning pok xayolida
Yangroq qo`shiq bo`lib kuylandim.
Firog`ida qovrildim dastlab,

So`ngra to`y qildimu uylandim.
Sharob quymoqdaman to`y kuni
Biram gulgun, musaffo biram.
Bugun sening qayg`ungni yedim,
Bir kun tug`ilajak nabiram.
Yil-yildan may poklana borgay,
Torta borgay aqiq kabi rang.
Nafsingni tiy, xushta`mroq bo`lg`ay,
Ichsa agar buni nabirang.
Iloj topsa, ichmasin u ham
Umid-la mast bo`lib qarisin.
Yaxshi kunda oliy sharobni
UNING nabirasi sipqorsin.
Bo`lsangizlar chinakam oqil,
Bo`lsangizlar chin ehtiyotkor,
May ochilmay, nodon bobongdan
Sizga qolsin abadiy yodgor...»

* * *

«Senga bizning maktubimiz shul,
Shuldir senga bizning nomamiz –
Bizning hirqamizdir ezgulik,
Samimiyat bizning jomamiz.
Yuraklarga kiyilgay ular,
Sen bo`lsang – bir qutlug` jomadon,
Qutlug` shahar, ey ummilbilod,
Jonimdan sevganim Hamadon.
Sening kabir jigarbandlaring
Ming tuman ko`z qorasindadir.
Shulardan eng mumtoz bittasi,
Mana, bizning Xorazmdadir».

* * *

«Yaxshi bilan yomon bo`ldi teng,
Bug`doy bilan somon bo`ldi teng.
Zamon boshdan-oyoq dard... demak,
Dardning umri zamon bilan teng».

* * *

«Manglayimning sho`ri harbu zarb,
Kecha – urush, kunduz ham – urush.
Kecha-kunduz do`stu dushmanning
Yuragida g`azab va xuruj.
Fursat yo`qdir qinga solmoqqa
Har bir lahza tinchlikka xilof.
Qilichimga kechayu kunduz
Faqatgina qon bo`ldi g`ilof».

* * *

«So`zlarida – ezgu bir niyat
Ko`zlarida musaffo matlab.
Qashshoqlikni alqab kuylar u,

Kuylar u boylikni la'natlab.
Yuragimga bosay deymanu,
Har kalomi dardga doruning...
Qo`shig'iga ishonolmayman,
Ovozida shira bor uning».

* * *

«Butun umrim vafodor do`stlar
Bilan o`xshar mahkam bog`liqqa...
Ular nimalari bilandir
O`xshabroq ketishar sog`liqqa.
Ya'ni ular yonimda bo`lsa,
Og`rinmayman, o`rtanib dardda.
Bir kun ko`zdan qochirsam bormi,
Yo`qliklari bilinar shartta».

* * *

«Hayot bilan qo`shib bizlarga
Ko`p charchoqlar qilingan tortiq.
Asli o`lim – chinakam qurol.
Asli o`lim – chinakam hordiq.
Boshqa izoh, boshqacha talqin
Mantiqlardan mutlaq tashqidir.
Uyg`onmoq bu – tirilmoq demak,
Uyqu esa – o`lim mashqidir».

* * *

«Ilm-hikmatni boshqaga bersang,
o`zingda ham ko`payar –
Ajab –
bu taqvodor, bu olimniki
tamom bo`lak, tamom boshqacha.
Bir qarasang, –
fazilatdan so`z.
Bir qarasang –
ilmdan nafaslar.
Xayolidan chiqarish uchun
senga fazilatlarini
va`zlar.
Johillashar,
ilm o`rgatib,
axloqsizlashar
chorlab xulqqa.
Kunda shu hol.
Yaqin o`rtada
aylanadi tamom maxluqqa».

* * *

«Tantanalar shunchaki bois,
Jo`n bahona kentlar, shaharlar.
Oqshomlar ham shunchaki sabab,
Shunchaki bir ro`kach saharlar.

Asrlar ham ashaddiy bid'at,
Xurofotdir har bir daqiqa.
Haqiqatdir sening jamoling,
Jamolingdan hayrat haqiqat.
Kun seni deb chiqadi ufqdan,
Tong seni deb har tong otadi,
Rahmi kelib so`ng yulduzlarga,
Sho`rliklar ko`rsin deb botadi.
Mabodo bir kelmasmikan deb
Bunyod bo`lgan Xiva, Sayramlar.
Seni ko`rib quvonish uchun
Kelar hayit, kelar bayramlar.
Diydoringdan telbalar bo`lib,
Olamning charx urib bormog'i,
Ushlay desa, yoqasi yo`qdir,
Tishlay desa, yo`qdir barmog'i».

* * *

«Qomatingni sarv ataydilar,
Sochlaringni atarlar sunbul.
Sening jamolingning oldida
Oy shunchaki emish bir dumbul.
Barmoqlaring – husayni uzum,
Labing – g'uncha, yanog'ing – gulmish.
Sening og'zing qoshida pista
O`z og'zini katta deb kulmish.
Aytilmasdi bu gaplar agar
Haqiqat yolg'onni yengsaydi
O`xshamaysan, asli, ularga
Asli ular senga mengzaydi.
Mukammaldir husning. Ta'rifga
Qiladi ko`p g'o`rlik shoirlar.
Ulug'layman deb seni nuqul
Kamsitadi sho`rlik shoirlar».

* * *

«Sening, axir, toptalgan yering,
Qumlar, sahrolaring toptaldi.
Bog'ingda yov mevalar yedi,
O`chog'ingdan dushman taft oldi.
Ko`p kekkayma, mag'lub chavandoz,
Axir, qasos qani? O`ch qani?
...Ilk martaba ko`rib turishim
Otni minib olgan cho`chqani...»

* * *

«Sen hayvonsan. Qorning to`ysa bas.
Sen hayvonsan. Bas – to`ysa qorning,
Qadrin bilarmiding g'ururning,
Qadrin bilarmiding viqorning?
To bog`liqsan – yuvoshginasan,
Ipni uzsang – pishlamog'ing bor.

Chirangancha omochni sudrab,
To o`lguncha ishlamog`ing bor.
Yo`qdir dahshatliroq fojiang
Adlu insof, vijdon bahsidan.
Irg`ishlaysan, likillatib dum,
Farovonlik vasvasasidan.
O`z yo`ling, o`z yo`rig`ing yo`qdir,
Nasya olding irganch yo`riqni.
Joningdan ham aziz ko`rasan
Xalacho`pni, bo`yinturuqni.
Na-da o`kinch qiynaydi seni,
Na-da qiynar endi pushaymon.
Cheki bormi bu dahshatlarning,
Qachon odam bo`lasan, hayvon?
Uzr... senga gap qotib qo`ydim,
Yod-xayoling oxurda payting.
Qorning meshdek qappayib to`ygan,
Qutlug` bo`lsin katta hayiting!»

* * *

«Ko`zlaringda yoshlar kunidir,
Yuragingda toshlar kunidir.
Ikkimizning bu holni ko`rib,
Raqib xandon tashlar kunidir.
Visol bog`in za`faron kuni,
Firoq, bog`in so`lim kunidir.
Sen Urganchdan ketadigan kun,
Ya`ni bugun... o`lim kunidir».

* * *

«Kallavaramlikda cheking yo`q,
Poyon yo`qdir nodonligingga.
Qanday izoh bo`lishi mumkin
Motam kuni shodonligingga.
Quturtirib yuborar seni
Oz-moz tanqid yoxud sal ta`na.
Zolimdirsan buning ustiga,
Ey sharmisor, sho`rlik saltanat.
Tupurgandir mazlum fuqaro
Qog`ozlarda qolgan adlingga.
Egov qilib tosh yuragingni
Qilichini qayrar qatlingga.
O`z madhingga sarflayotirsan
Hayqiriq, sas, tovush, uningni.
Mangulik deb etding ovoza
Allaqachon bitgan kuningni».

* * *

«Qiron tilab zuryodlarimga,
Qovjiratding maysalarimni,
Ko`zlarimni yodingda tut, yov,
Unutsang ham nayzalarimni.

Nafsing sening o`pqon ochgandir,
Yutoqqansan, yuhofe`l mechkay.
Zamindagi jirkanch chigalsan,
Sen chigalni halokat yechgay.
Nasling – ochko`zligingga voris,
Yutgansizlar nahru bahrimni.
Farzandlarga meros qoldirdim
Senga bo`lgan cheksiz qahrimni».

* * *

«Faryod chekib kuylagan edim
Zabonimda har tovush cho`g` zum.
O`zim aytgan qo`shiqlarimdan
Lovullaydi o`zimning bo`g`zim.
Avayladim men bu yong`inni,
Yong`in – umid, yong`in bu – orzu.
Shiddatli parvozlar paytida
Goh-goh ichdim qatra-qatra suv.
U ham jig`ildonim uchunmas,
Asradim men uni loy uchun.
Tug`ilajak palaponlarga
Ixchangina issiq joy uchun.
Mukofotlar daryo va daryo,
Men ularga qiyo boqmayman.
Qabul qilsam bormi ularni,
Tamom, bo`g`zimni hech yoqmayman.
Tuhfa ochni to`ydiraversin.
Tashnalarni qondiraversin,
Lovullatib mening bo`g`zimni,
Qo`shiqlarim yondiraversin».

* * *

«Sendan umid, sendandir orzu.
Sendan murod. Sendandir ilinj.
Bir qo`lingda do`stlaringga gul, .
Bir qo`lingda – dushmanga qilich.
Qo`shig`imiz, navolarimiz,
Agar bilsang shular haqdadir.
Qiliching ko`p sabrli. Guling
Qo`limizga shoshilmoqdadir».

* * *

«Ha, gadoning dushmani gado,
Lekin la`nat dushman gadoyga.
Qavmi bilan nafrat bobida
Qilaversa jirkanch bir poyga.
Gadolikni targ`ib etganlar
O`z qavmini o`zi qopdilar.
Nima balo, ne ofat topsa,
Avval o`zlaridan topdilar.
Nega har xil tuhmat yorlig`in
Halol mehnat boylarga taqmoq?

Dushman bo`lmas donoga dono,
Dushman bo`lar ahmoqqa ahmoq.
Ummon kabi yashang guvillab,
Daryolardek oqib yashanglar.
Unutmanglar, boy boyga boqar,
Bir-biringga boqib yashanglar».

* * *

«Sohibjamolimning husniga
Uyalmasdan baqrayib ne bor...
Tez bo`l, darrov qulog`ingni tiq,
Unga to`yib shivirlay, devor.
Ko`zlaringni yumib ol, ko`rpa,
Bu tun toshga aylanma, yosti.
Mening baxtim qaror topmoqda,
Saodatim bo`lmoqda tasdiq».

* * *

«Charaqlagan oppoq bir kulgu
Yuraklarga baxt yorlig`idir.
Shuningdek, u inju tishlarning
La`li lab bilan hamkorlig`idir.
Tishlaringni dur qilib, so`ng – kul,
Ko`zlaringni nur qilib, so`ng – kul.
Muhim shartni unutmagil hech,
Yuragingni hur qilib, so`ng – kul.
Hozir esa dovdir bir kulgu
Talmovsilar, hayiqib mungdan.
To`ymikan deb, azaga kelgan,
Masxaraboz kabi – labingda...»

* * *

«Dildan ezgulik qilib eding,
Diling yaro bo`ldi, azizim.
Oq ko`nglingdan chiqqan niyat deb
Yuzing qaro bo`ldi, azizim.
Bular tilin tiygan bo`lardi
Bo`lsa edi o`y-andishasi...
Nur sochaman deb dudga to`lgan,
Ey begunoh chiroq shishasi».

* * *

«Hammaga teng mehr ko`rsatgan
Mard holating bilan ulug`san.
Sen taxtga chiqqaning uchunmas,
Adolating bilan ulug`san.
Adl ila shoh durdir, gavhardir.
Zulm ila shoh xarsangdir, toshdir.
Osmonga chiqqani uchunmas,
Nuri bilan quyosh – quyoshdir».

* * *

«Men oshiqman, ahvoli zabun,
Sen, ma`shuqam, qumrim, jayronim.
Hilolimsan, oyim, mohimsan,
Qilding hayron, bo`lding hayronim.
Jafokashim, jonim-jahonim,
Yugurasan, yelaverasan,
Kelasanu ketaverasan,
Ketasanu kelaverasan.
Ruhimdagi sanoqsiz gullar
Ayriliqda qolar so`lishib.
Goh oy kabi botib ketasan
Va chiqasan asta to`lishib.
Ming umidga aylab meni band,
Mahkum qilding ming-ming orzuga.
Suvdan olib o`tga solasan,
O`tdan olib solasan suvga.
Men quling ham, dard tilsa dilni,
Bag`ri yomon qattiq bir toshman.
Xudo ko`rsatmasin, bir botsam,
Qaytib chiqmaydigan quyoshman».

* * *

«Yosh chog`imda torlarim aro
Mudom quvnoq un edi mening.
Sochlarim tim qora tun edi,
Soqolim ham tun edi mening.
Yal-yal yonib ochilgan har gul
Ko`ksimda ming gulxan yoqardi.
Endi bo`lsa sochlarimda ham
Soqolimda tonglar oqardi.
Bu tonglarning savdosi yomon,
Otmagaylar bu tonglar tekin.
Evaziga umrim quyoshi
Botib-botib bormoqda sekin».

* * *

«Ko`p og`irdir mening gunohim,
Yo`q, beparvo qayrilib ketma.
Afv etib sen mening jonimga
Ko`p ayovsiz bir zulm etma.
Milsiz ayb etdim qoshingda,
Buzib qo`yib yurak ahдини.
Muyassar qil endi boshimga
Qattiq jazo tortmoq baxtini.
Tiz cho`kishga g`urur yo`l qo`ymas.
Tiz cho`kishga yetmaydi kuchim...
Kechirilmoq kabi dahshatli
Jazo yo`qdir endi men uchun».

* * *

«Gullar qo`rqa-pisa ochilar,

Bag'ri dog'lar, bag'ri kuyuklar.
Ular – borib turgan beozor,
Ular – go'yo yuvvosh kiyiklar.
Atrof jim-jit, tevarak tim-tirs,
Chaman ichra yutgan nolasin,
Kezinadi muattar nozbo'y –
Hurkovuch kiyikning bolasi.
Shamol – qashqir keladi hozir,
Ko`rinmasdan, og'zini ochib,
Tishlab olib, ko`tarar ketar
Kiyikchanning qonini sochib...»

* * *

«Mening uyim juda muhtasham,
Sening uying juda ham vayron.
Sen uyimga hayron boqasan,
Men bo`yingga boqaman hayron.
Yoshlikdan zo`r hashamat yo`qdir,
Kelajakka, oh, validasan.
Men uyingning ahvalidaman,
Sen uyimning ahvalidasan».

* * *

«Dilga nechuk orom yor bo`lsin,
Nechuk unga jo bo`lsin tinim.
Men qovunga pichoq urganda
Rahmi kelib yig'lar xotinim.
Shunday ko`ngilchan bir xotinga
Ming faryod chektirdim. Ming nola.
Qovun so'yish holva... tug'dirdim
Shu xotinga bir etak bola».

* * *

«Bu podshohning qiliqlarini
Qattiq qiyin qilmaslik insho.
Etgan ishi telba-teskari,
Ko`p qiziq, ko`p g'alati bu Shoh.
O`ng qo`l vazir bilan ishi yo`q.
O`zga bir mayl, o`zga ta'sirda.
Fikri-zikri, o`y-e'tibori
Kallavaram chap qo`l vazirda.
Shohimizning bu nuqsonini
Agarchi men qilmoqdaman qayd,
Bu ayb uchun shohni ayblamang
Chunki... Shohning o`zi chapaqay».

* * *

«Bu qofiya ko`p go`zal edi,
Poklik bilan ko`zim yoshladi.
So`ng taltayib ketdiyu, afsus,
She'rdan she'rga o`ta boshladi.
Binoyidek edi es-hushi,

Fikr bilan kelgach quyilib,
Sahifadan sahifaga u
Boraverdi kam-kam suyulib.
Kechish ham ko`-o`p qiyindir... biroq,
Kechmay ham bo`lmaydi ahmoqdan.
Yo`qsa... kitobimning so`ngida
Nom-nishon qolmaydi axlokdan».

* * *

«Guldiragan qahqahang bilan
Larza solib osmon-falakka
Otangni hajv qilganing to`g'ri,
To`g'ridir qilganing kalaka.
Agar chindan aqli bo`lsaydi,
Bo`lsa edi farosat-fahmi,
Tug'dirmagan bo`lardi aslo
Onangga sendayin ablahni».

* * *

«Bolalikda ko`nglim oq edi,
Sochim esa edi tim qora.
Ko`p yaxshi, ko`p yomonni ko`rdim,
Kezdim sarson, kezdim ovvora.
Nega urdi makkorlar nuqsi,
Umr degan juda g'aroyib.
Sochim endi oqarib borar,
Ko`nglim esa borar qorayib».

* * *

«Alamlarga g'amim andoza bo`ldi,
Ko`ngil orom kiridan toza bo`ldi.
Tunab qoldik g'arib do`stimnikida,
Ajb mehmonnavozlik rosa bo`ldi.
Chalib chiqdi chibin g'ing'illabon soz,
Bu sozga burgalar raqqosa bo`ldi».

* * *

«Aylangandir boshim charx urib,
Boshim mening gir-gir aylangan.
Chunki sho`x-sha'n zamonamizga
U bechora mahkam boylangan.
Chirpirak bir parrakligimga
O`zga biron yo`q, sharh bu zamon.
Faqat... sho`x bir mushukvachchanning
Quyrug'iga o`xshar bu zamon».

* * *

«Men ketaman. Bu davrda – bir fisq.
Men ketaman. Bu davrda fasod.
Hamma gaplar jonimga tegdi,
Darhol shartdir bo`lmog'im ozod.
G'azabimni qo`zg'atar bu yer,

Nafratimni qo`zg`atar bu joy.
Oyog`imga kishandir lekin
Qo`limdagi bir piyola choy».

* * *

«Oppoq libos kiygan farishta yanglig`
Keldingiz... ko`rdingiz... ketdingiz.
Xalos etib meni birgina darddan,
Ming-minglagan dardga duchor etdingiz.
Kokillari uzun-uzun tabibim,
Ko`zlarida sehr, fusun tabibim.
Meni boshdan-oyoq yoqmoqqa kelgan
Boshidan oyog`i husn tabibim!..»

* * *

«Taroj etib keladi firoq,
Hijron kelar shafqatsiz talab.
O`kinch kelar ming-ming ot solib,
Qilich sermab, nayza o`qtalib.
Hamla qilar jonga g`am sho`rlik,
Qashshoqlik ham qiladi hujum
Iztiroblar tashlanib qolar,
Yuragimni zabt etmoq uchun.
Muslimlarga qiron solmoqchi
Bo`lg`on yanglig` qattol kofirlar,
G`alabalarimning ustiga
Mag`lubiyat saf-saf yoprilar.
Qasdidadir hamma-hammasi
Yurakdagi yolg`iz jon qushin...
Bilishmaydi, pistirmadadir
Sharob degan yengilmas qo`shin».

* * *

«To`g`ri, rubob tovushi nozik,
Tor sehrlar, tortilib tarang.
O`tga-suvga solar yurakni,
Goh yangrab, goh ingragan jarang.
Har bir parda afsunlar qilib
Ming yurakka solar so`qmoqni...
...Shu harir baxt uchun ustalar
Qancha to`qillatgan to`qmoqni».

* * *

«Tahsin bo`lsin donoligingga,
Aqlingga shon-sharaflar bo`lsin.
Senga sadqa, yo`lingga qurbon
Hamma-hamma taraflar bo`lsin.
Bizga bugun ko`rsatib berding
Bu zaminning g`arbu sharqini,
Bildik dum va bosh tafovutin,
Jallod bilan jarroh farqini.
Ustodlikda etsang gar davom,

Har so`zingdan yog`du sachratib,
Ajab emas osmondan yerni
Axiyr bir kun olsak ajratib».

* * *

«To`dalaring faxrlanmasin,
Iftixorlar etmasin galang.
Soat sayin qurib dengizing,
Zaharlanib bormoqda dalang.
Iqbol tilab ro`yi zaminga
Sajda qilib turgandi bir kun...
Nima topding boboginamni
Qilib olis yerlarga surgun.
O`zgalarning tuproqlarini
Yeb-yutganing bilan yiriksan.
Aslida sen insoniyatning
Vujudiga tushgan chiriksan».

* * *

«Taqilladi eshik nogahon,
Hali quyosh tig` yormagan vaqt.
Chiqib darrov eshikni ochsam,
Ostonada turar edi... baxt!
Dabdurustdan dovdirab qoldim,
Qaldiradi tanglayda so`zim.
Ko`zlarimga ishonganim yo`q,
Ishonarli emasdi, o`zi.
Turar edi sarvqad, gulyuz,
Nigohida charog`on ziyo...
« – Ie?!.. Qaysi shamol uchirdi,
Yo`llaringdan adashdingmi yo?!..»

* * *

«Halovat bu qaysar bir baxtdir,
Malham bo`lgich dilda yaroga.
U hech qachon teng berilmaydi
Ham podshohga, ham fuqaroga.
Halovat – bir nurafshon tole,
Balolardan qutqargan jonni.
U shunday bir yoritqich, hech vaqt
Yorug` etmas ikki osmonni.
Halovatga makon yo kishvar,
Yoki – saroy. Bilib qo`y shuni.
Shohda orom bo`lsa, ulusning
Holiga voy. Bilib qo`y shuni».

* * *

«Qahatchilik alanga yanglig`
Yamlab oldi sho`rlik bu elni.
Ko`p odamlar qaytmas safarga
Bog`ladilar ilojsiz belni.
Qornimiz to`q biron nahor yo`q,

Yo`q bironta qornimiz to`q shab.
Ko`rinadi tandirning og`zi
Ajdahoning komiga o`xshab».

* * *

«Judolasha olmaydi ular,
Bo`lisholmas lekin hamnafas.
Biri uchun biri tuzoqdir,
Biri uchun bittasi qafas.
Taroziining juft pallasidir
Ruhlarining zidligi siri.
Biri ko`tarilgan vaqtda
Asta tushib ketadi biri».

* * *

«Yuzim tushsa, sazovor bo`lsam,
Mo``jaz kunlar bir nasib etsa.
Bir kun emas, bir kun, nihoyat,
Boshim senga, ey osmon, yetsa.
O`zgarmaysan tirnoqchalik-da,
Tor bo`lmaysan, keng ham bo`lmaysan.
Shu qolishda qolaverasan,
Boshim bilan teng ham bo`lmaysan.
Senga yetmak umidindagi
Yuragim baxt bilan to`ladi.
Osmon! Boshim bo`lmaysan aslo,
Faqat... boshim osmon bo`ladi!»

* * *

«Sen tortinchoq, g`am ham tortinchoq,
Men bilaman bu siringizni.
Birgalikda zeriktirasiz,
Shak-shubhasiz, bir-biringizni.
Ko`p qalinmiz anduh bilan biz,
Qil o`tmagudek oramizdan.
Bir-birovni anglab olamiz
Sezilmas bir ishoramizdan.
O`tirmanglar ezilib bunday,
G`am men bilan ketaversin, qo`y.
Bir yerdan olingan loyimiz,
Shodlik esa... ko`pga kelgan to`y.
Shodlik bilan qolsangiz, ikov
Murodlarga yetajaksizlar.
Apoq-chopoq bo`lib lahzada
Til topishib ketajaksizlar».

* * *

«Sen ajoyib bir faylasufsan,
Do`st izlaysan – maqtov suymovchi.
Do`st izlaysan, nuqsonin aytsang
Lunjin osib, qovoq uymovchi.
So`ngra maqtov suymovchi do`stga

Loyiq murchdek so`zlar axtarib,
Qattiq yoqib qolmoqchidirsan
Avra-astarini ag`darib.
Yetmoq uchun bu baxtli kunga
Toqati yo`q, sabri yo`q, shaysan...
Bu dunyodan armonlar bilan
O`tib ketadiganga o`xshaysan».

* * *

«Ruxsoringsiz charaqlab, meni
Quyosh nuri qilar haqorat.
Bilmam, sensiz nega otdi tong,
Qilmoqchi u kimni ziyorat.
Chopqillab kel mening yonimga
Unut o`zga yaqinlaringni.
Bahonada sochlaring o`psin
Mushtoq-mushtoq taqimlaringni.
Yaltillagan kumush xalxollar
Ayriliqdan tokay nolisin.
Sho`x silkinib turgan zulflaring
Ulardan ham bo`salar olsin.
Kokillaring to`piqlar bilan
Totlig`-totlig` suhbat qursinlar.
Oyog`ing bosh barmog`indagi
Uzukni ham o`pib tursinlar».

* * *

«O`lib bo`ldik goh qoralana,
O`lib bo`ldik gohi oqlana.
Qachon nasib etarkan yashash
Odamlarga o`xshab – oqilona.
Kerilamiz o`pkamiz shishib,
Kibr-havoni izzat-nafs atab.
O`qchitadi so`nggi yo`q va`zlar,
Jonga tegar quruq safсата.
Gohi yerga uramiz o`zni,
Charchab g`urur – zil yukimizdan.
O`z betimiz to`lib ketgandir
O`zimizning tupugimizdan».

* * *

«Debon, zamin oyoq ostimda
O`yga berilmayoq qo`ysinlar.
Shoh, amir yo sultonmiz deya,
Buncha kerilmayoq qo`ysinlar.
Ming javohir qadalgan bo`lsin
Mahkamlangan bo`lsin ming oltin,
Ular shunchaki bir o`yinchoq,
Men shu sirni fahmlay oldim.
Bari sening mulkingdir mangu,
Bari senga mansubdir yakka.
Barin olgan podshohlar sendan

Beshmi-o`n yil o`ynab bermakka».

* * *

«Nasibangdan qochma hech qachon,
Quvma, sendan nasibang qochsa.
Lekin nafsing oldida bo`lma
Bamisoli taslim ojiza.
Bil, odamni odam sevadi,
Yengolmaydi odamni odam.
Dushmanlardan qo`rqma hech qachon,
Sen hamisha qo`rq qil xudodan».

* * *

«Sog`indim men marjonlaringdek
Tizim-tizim tizimlarimni.
Uzumlarim sovuq yedilar,
Sovuq yedi uzumlarimni.
Junjikmasdan quchog`imga kel,
Siynangda, oh, sevgan nigorim,
Sovuq urmas bir juft uzumcha
Yaratgandir parvardigorim».

* * *

«Taslim bo`l sen. Taning mamlakat.
Mamlakatim, ulus – eli jim.
Taslim bo`l tez, dedim dushmanga,
Safar qilmay unga qilichim.
Farosatsiz chiqib qoldi yov,
Chiqib qoldi, afsus, gap uqmas.
Meni kechiringlar, yoronlar,
Tig`imdagi sharob yuqimas».

* * *

«Ajb mehmonnavozlik bo`ldi,
Bo`ldi g`aroyib bir ziyofat.
Bilmadim, bu baxtmi edi bir,
Bilmadim, yo – edimi ofat.
Bog`ingdagi osmono`par ko`shk,
Shinam edi, edi shohona.
Hamma narsa muhayyo edi,
Yetishmasdi bir pashshaxona.
Oldimizga taomlar qo`yding,
Hamma oling-oling dedilar
Bizlar yedik noz-ne`matingni,
Bizni pashshalaring yedilar».

* * *

«Yig`lamagil, aziz bolajon,
Yig`lamagil, kichkintoy odam.
Fig`on chekma buzrukvorim deb,
Faryod chekma deb – otam, otam,
Huzuriga chorladi Alloh,

Kim ham bunday mehmonga bormas.
Alloh esa behad mehmondo`st,
Otangni hech qo`yib yubormas».

* * *

«Ulug` shodligim g`amdir mening,
Kerak emas chuchmal g`amxo`rlik.
Ochlik – halol luqmamdir mening,
Eng yuqori martabam – xo`rlik.
Ittifoqchim eng g`irt nizolim,
Sukunatdir – yangragan sozim.
Ayrilig`im – mening visolim.
Yalang`ochlik – bashang libosim.
Bahorim – kuz, yozim esa – qish,
Azon – oqshom, oqshom – azonim.
Xazonimdir yashillik mening,
Mening yashilligim xazonim.
Osmon o`pgan cho`qqidir chohim,
Odob, ikrom – do`qim, dag`dag`am.
Shohim gado, gadodir shohim,
Chekkan ohim esa – qahqaham.
Do`stlar dushman, dushmanlar – do`stim,
Tutruqsizlik ma`noligimdir.
Donishmandlik telbaligimdir,
Telbaligim – donoligimdir.
Yengilimdir zildek og`irim,
Manzilim ham, demak, yo`limdir.
Boshlanishim mening oxirim,
Tug`ilishim esa – o`limdir».

* * *

«Ko`zlarimning yoshlaridasan,
Yulduzlarning qoshlaridasan.
Tog`lar sening poyingda emas,
Sen tog`larning boshlaridasan».

* * *

«Mard yigitning bo`lgani yanglig`
Jondan sevgan aziz bekasi,
Har yulduzning, shubhasiz, bo`lar
Ushlab turguvchi o`z egasi.
Yulduz so`ndi. Tushdi-ketdi u.
Qoldi g`amgin, nurli yo`llari.
Falakdagi qay charog`bonning
Charchab qoldi ekan qo`llari?..»

* * *

«Sen ko`z yumding. Tark etding bizni.
Ketding-qolding so`ramay-netmay.
Turibman men yolg`iz. Bosh egib.
Qutlug` qabring qoshidan ketmay.
Yosh to`ldirar fotiha uchun

Ochilgan azador qo`limni...
Diydor uchun endi senimas,
Men kutmog`im kerak o`limni...»

* * *

«O`rganlarni xotirlayversang
Xayolingga kelmaydi nelar.
Dunyo elak... odamlarni u
Bir lahza ham tinmasdan elar.
U tinimsiz chayqalib turar,
Chayqalishi azob-zulmdir.
Bu elakning ustida hayot,
Bu elakning osti – o`limdir.
Bu elakning ustini ko`ring,
Ko`ringizlar siz taglarini...
Unlarni qor kabi yog`dirar,
Qoldiradi kepaklarini...»

* * *

«Bizda bordir bo`ri haqiqat,
Bizda bordir quyvon haqiqat.
Bizda bordir u yon haqiqat,
Bizda bordir bu yon haqiqat.
Oqshom haqiqatimiz mavjud,
Mavjud tag`in sahar haqiqat.
Asal haqiqat bor bizlarda,
Bizlarda bor zahar haqiqat.
Bizlarda haqiqat – yuzlagan,
Bizda bor minglarcha haqiqat.
Bo`lak-bo`lak haqiqat bordir,
Bordir parcha-parcha haqiqat.
Biz haqiqat yasab beramiz
Istasangiz agar qay taxlit.
Faqat yagona haqiqat yo`q,
Yo`qdir bizda haqiqat – yaxlit».

* * *

«Yuragim vayrona, ko`zda yosh – taxir,
Qutlug` tasviringdan xoli qorachiq.
Avvallari hatto qil o`tmas edi,
Endi ora ochiq... Endi ora ochiq...
Yaxshi qol! O`smoqda judolik tog`i,
Dilingga dilimni yashirdim.
Men ketdim o`zimdan. Seni – o`zimga,
O`zimni – Xudoga topshirdim».

* * *

«Men haq so`zni aytay. Sen chida.
Men rost so`zni so`zlay. Qahr etma.
O`tmish o`tmishniki, azizim,
O`tmish bilan quruq faxr etma.
O`tmishing bor. Bu, shaksiz, tole,

O`tmishing bor. Bu baxt, albatta.
O`tmish atlas, o`tmish duxoba,
Lekin sen ham bo`lmagin latta.
O`tmish bilan chalg`ib, unutma
Bu kuningni bor qilishni ham.
Qoyil qilding mag`rurlanishni,
O`rganib ol or qilishni ham».

* * *

“Sendan xat keltirgan kaptarning
To`shin o`pib, ayladim tavof.
Lekin... qanday berib yuboray
Maktubingga bu qushdan javob.
Yallig`langan cho`g`dir har so`zim,
Hajr osmoni bo`lsa ham muzdek.
Qushchang yonib qulab tushmasmi
Falaklardan... so`ngan yulduzdek».

* * *

«Garchi namoz, garchi tilovat
Juda savob, juda faxr ish.
Men qashshoqqa, men kambag`alga
Toat-ibodat ko`p og`ir ish.
Mehnat qildim. Ravo ko`rmadi
Ro`shnolikni hech hayotimga.
Sajda qilsam xudoga, avval
Qashshoqligim tushar yodimga...»

* * *

«Go`zalim, sen juda go`zalsan,
Sachratma har so`zingdan ilm.
Ming xayoldan boshim og`rigan,
Bir ayolga tashnadir dilim.
Sovuq, loqayd bo`lma bunchalik,
Bo`l sal yashin, bo`l sal chaqmoqroq.
Sen bunchalik aqlli bo`lma,
Bo`l sal tentak, bo`l sal ahmoqroq.
Sen aqlingni namoyish etgach,
Boshimga tog` go`yo quladi.
Bir boshingga ham ko`rk, ham aql,
O`lay agar, ko`plik qiladi.
Qopga solib kaltaklanmoqchi
Juft mushukdek bo`lib netaylik.
Kel, yo aqling, yo men, yaxshisi,
Xayolingdan chiqib ketaylik».

* * *

«Uyalinglar! Ayollar bilan
Bahslashmanglar, qilmanglar poyga.
Lekin barcha g`alabalarni
Tashlanglar ularning poyiga.
Ayollarga ketmon bermangiz,

Ayollarga bermang belkurak.
Ayollarga ko`ngil beringlar,
Ayollarga beringlar yurak.
Mahkum qilmang temir-tersakka
Hech Mohiro`y, hech Tursunoyin.
Ayollari erkakshoda xalq
Xotinchalish bo`ladi doim».

* * *

«Ko`zlaringdan oqqan ko`zyoshning
Suv ekanin o`ylaganimda.
Jon, jahonga hayot baxsh etgan
U ekanin o`ylaganimda.
Boshqa hamma g'am-tashvishlardan
Xoli bo`lib qolgim keladi.
Baliq bo`lib qolgim keladi,
Sholi bo`lib qolgim keladi...»

* * *

«Sho`rlik tovuq, qo`rqma qaqqolab,
Hayiqmasdan, to`yib jo`ja och.
Bizlar senga tegmayajakmiz,
Yumurtqangga emasmiz muhtoj.
Sen ham, quyon, qaltirayberma,
Shalpang qulog`ingni ding qilib,
Bolalayber dala-dashtingda
Birgina o`zingni ming qilib.
Biz agarchi rahmdillarning
Yaxshilarin yaxshilarimiz.
Yirtqichlardan battar yirtqichmiz,
Vahshiylarning vahshiylarimiz.
Sirtlonlarni kabob qilamiz
O`rmonlarda gulxanlar yoqib.
Timsohlarning tuxumlarini
Nonushtaga ichamiz chaqib.
Kelib munis qumrilar bilan
Bo`lurmiz bir g'amgin suhbatdosh.
Ohularni quchoqlab olib,
O`krab-o`krab to`kadmiz yosh».

* * *

«Mol jamg`argil yog`dayga qarab,
Dunyo g`amla qarab holingga.
Lekin, nima bo`lganida ham,
Hirs qo`yma hech yig`gan molingga.
Anglamasang aytganlarimni,
Jonzotlardan olaber nusxa.
Bir kunlik yem to`playdi arslon,
Bir yillik yem g`amlar qumursqa».

* * *

«Jonim, seni jondan sevaman,

Bo`lsang hamki garchi muvaqqat.
Yod-xayolim, fikrim va zikrim
Kecha-kunduz sen bilan faqat.
Cheksiz garchi ishqimiz... garchi
Mehrimizning poyoni yo`qdek...
Lekin bir lahzadir vaslimiz,
Bamisoli yoy bilan o`qdek...»

* * *

«Sharobsiz kun kun emas sira,
May bo`lmasa, burro hayot jim.
Sening gaping mutlaqo o`trik,
Ey berahm falakiyotchi.
Koinot tor, falak cheklangan,
Poyonsiz joy –shisha ichidir.
Soat emas, bo`shagan qadah, –
Vaqtning aniq ko`rsatkichidir.
Oylar umr uzaytirmaydi,
Yillar iligingni so`radi.
Umr ko`rmas inson falon yil,
Falon shisha umr ko`radi».

* * *

«Qo`y, yig`lama. G'am-alam, kulfat
Sen yig`lagan hamon kuladi.
Bardoshli bo`l – metin, mustahkam
Yo`qsa zamin-zamon kuladi.
Shovullagan gujum bo`lsang ham
Ustingdan bir somon kuladi.
Sen tarafga qiyo boqmas baxt,
Boqib nokas tomon kuladi.
Koshkiydi bir shunchaki kulsa,
Kulganda ham yomon kuladi».

* * *

«Kabutardek uchib kelding sen,
Kiyikchadek kelding sen yelib.
Va... termulding. Mayin nigohing
Yuragimga sanchildi kelib.
Yanglishmasdan urding o`qingni,
Ortiqcha bir hunar – san`atsiz.
Va – men ketdim chalajon, behol,
Va – men ketdim muvozanatsiz.
G`urur bilan tikilib qolding
Lablari la`l... lablari aqiq...
Bizda, axir, xabaring yo`qmi,
Arslon ovi qilingan ta`qiq».

* * *

«Bu odam yer. Eksang unmas yer.
Daryo. Lekin qaqragan daryo.
Bu odam sher. Qafasdagi sher,

Faryod. Lekin bo`g`iq bir faryod.
Bu odam – baxt. Lekin – qora baxt.
Bu odam – musht. Lekin – cho`ntakda.
Bu odam – shaxd. Lekin so`ngan shaxd.
Dono. Ixtiyori – tentakda.
Juda hushyor... sergakdir. Lekin
Hushyorligi o`xshar mastlikka.
Beti qalin. Lekin – uyatchan.
Uyaladi uyalmaslikka.
To`ydir. Lekin oxiri – aza.
Paymon. Yolg`on paymon bu odam.
Bir so`z bilan ne desam ekan...
Odam. Lekin hayvon bu odam».

* * *

«Kunu tun, shom, azon ketadi,
Bog`laringdan xazon ketadi.
Lekin baxting – nozik bir mehmon,
Qiyin kelib, oson ketadi».

* * *

«Qo`ng`iroqdek jaranglab kuylab,
Torlar kabi titrab raqs etding.
Garov bog`lab bulbul bilan goh,
Goho tovus bilan bahs etding,
Bir tikilding chala qayrilib,
Qaqrab-qaqrab quridi sho`rim.
Gumdon bo`ldi sipolik, viqor,
Malayingga aylandim, cho`rim».

* * *

«Bizga diydor nasib etmadi
So`nggi visol – o`chmas xotira.
Azob bilan qalqib tushdilar
Ko`zlarimdan pok ikki qatra.
Qo`shildilar yanoqlarimda
Yodga solib bizlarning ahdni.
Bizga takdir ravo ko`rmadi
Ikki qatra ko`zyoshdek baxtni».

* * *

«Qo`ynimdagi bir quchoq nurning
Ketajagin fahm etmading sen.
Bormi, o`zi, zarra insofing,
Ikkimizga rahm etmading sen.
Men bilmayman, chalkash dunyoda
Kim? Ne? Kimning? Neniki edi?
Bilaman, sen hammanikisan,
Dildor faqat meniki edi.
U ketadi endi. Sen chiqding.
Ko`zlarimga qalqayotir yosh.
O`zga makonlarda chaqnasang

O`larmiding, hasadgo`y quyosh.
Ne bo`lding, ayt, yulqilab olib
Bebaho bir baxtning pok totin,
Sohibjamol raqibalarni
Yumdalashni kasb qilgan xotin!»

* * *

«Quyoshni afv eta qolaylik,
Turmasin osmonda osilib.
U ham, axir, qancha bir umid,
Necha bir mehnatning hosili.
Garchi alpomishlar oshiqlar,
Garchi ma`shuqalar malakdir,
Muhabbat bir boyo`g`li, jonim,
Muhabbat bir ko`rshapalakdir...»

* * *

«Ko`zga ko`rinmas ey charosim,
So`ldirmaydi qishlar va kuzlar.
Novdalaring osmon-osmonda,
Mevalaring esa – yulduzlar.
Qoldiradi borliqni hayron
Har mevangni ming jamollari.
Duv to`kilar biroq barchasi,
Esgan mahal tong shamollari.
Lekin qaysarlardir ashaddiy.
Bir kundayoq urib tag`in barq,
Mevalaring quyosh botgan so`ng
Yana pishib turaverar g`arq».

* * *

«Ayriliqning da`vatlariga
Iloj qancha, ko`ndim, unadim.
Oqshom bilan ro`dapo g`amning
Quchog`ida oh deb tunadim.
Sevgilim bir naqsh olma edi,
Tish tegmagan, tarang, yumaloq.
G`amni esa necha ming yigit,
Necha ming bor qo`ygan uch taloq.
Ular takror uylanmoqchimi,
Kulfatlari qolganmi chala?
G`am bilan juft o`tgan bu kecham,
Nahotki, bir mudhish halala?...»

* * *

«Ketib qoldi omonat do`stlar,
Ketib qoldi omonat yorlar.
Yuragimda uqubat qoldi,
Yuragimda qoldi ozorlar.
Mehrlarim yakunlandilar,
Barham topdi muhabbatlarim...
Boshga kulfat tushdi. Tegdi o`q.

Qushman. To`zg`ib ketdi patlarim».

* * *

«Tavba... bular yer talashmokda,
Zaharga g`arq bo`lgan bir yerni.
Ikki xotin er talashmoqda
Allaqachon o`lgan bir erni.
Yumdalashib valaqlashmoqda
Tilga kelgan qaroni, oqni.
Bir-biriga sochmoqda ular
Qo`llaridan ketgan tuproqni».

* * *

«So`zida yo`q odobdan nishon,
Fe`lida ikromdan asar yo`q.
Yomonlarga yo`q undan nafrat,
Yaxshilarga undan nazar yo`q.
Iymon yo`kdir uning ruhida,
Vujudida yo`qdir tahorat.
Bu odamni hayvon deb so`kmang,
Hayvonlarni qilmang haqorat».


* * *

«Men tog`larga yuksalmoqchi edim,
Ko`ray deb tosh jilolarini.
Osmono`par cho`qqilaridan
Olmoq bo`lib tillolarini.
G`amgin-g`amgin qaytdim vodiya.
Dol bukchayib, yoydek egilib.
Bosh ustimga egildi falak

Yangi tuqqan oydek egilib
Tog` fathiga yetmadi qurbim.
Qilsam hamki jonimni fido.
Nadomatdan boshim changallab
Faryod chekib tortdim bir nido.
Va u tog`da boshlandi ko`chki,
Qoshlarimga toshlar keldilar.
Goh tahlika, gohi hayratdan
Ko`zlarimga yoshlar keldilar.
Yo na oltin edi u toshlar,
Yo na edi u toshlar yoqut.
Yoki na-da marmar edilar,
Na oddiy tosh edilar yoxud.
Kelmasdilar la`ldayin ko`chib,
Kelmasdilar zardayin ko`chib,
Kelardilar momiqday ko`chib
Kelardilar pardayin ko`chib.
Har toshda men ming bitik ko`rdim.
Vodiy uzra bo`ldi havo dim.
O`qimasam, armonlar bo`g`di,
O`qiy desam, yo`kdir savodim.
Zir titradi mijjalarda yosh,
Bitik bilmas ko`zlar ko`chkisi.
Osmono`par tog`dek o`kinchdan
Tushib keldi so`zlar ko`chkisi.
Endi uzr so`rash ortiqcha,
Gunohlari uchun, zotan, man
Shaxsan tog`ning o`zi toshbo`ron
Qilgan odamman...»

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Matnazar Abdulhakim she`riyati qaysi xususiyatlari bilan kitobxon qalbida mangu muhrlandi?
2. U qaysi badiiy an`analarning davomchisi hisoblanadi?
3. Shoirning falsafiy mushohadalari ildizi nimalardan oziqlangan?
4. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoirning qaysi dostonlari asosini tashkil etadi?
5. “Ko`chki” dostonining asosiy mohiyati nimada?
6. Doston qanday voqea munosabati bilan yozilgan?
7. Undagi lirik qahramon qayg`ularining asosiy sababchisi kim yoki nima?
8. Asar kompozitsiyasiga ahamiyat bering. Har bir qismini alohida izohlang.



MUHAMMAD YUSUF (1954-2001)

Muhammad Yusuf (taxallusi; asl ism-sharifi Yusupov Muhammadjon) (1954.26.4, Marhamat tumani – 2001.31.7, Ellikqal'a tumani) – O'zbekiston xalq shoiri (1998), jamoat arbobi.

Muhammad Yusufning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligida bosilgan (1976). Shundan boshlab respublika matbuotida uning she'r, ocherk va maqolalari muntazam ravishda chop etila boshlagan. Ilk she'rlar kitobi – «Tanish teraklar» (1985). «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1991), «Bevafo ko'p ekan», «Yolg'onchi yor» (1993), «Erka kiyik» (1995) va «Osmonimga olib ketaman» (1998), «Ulug'imsan, Vatanim» (2004), «Saylanma» (2007), «Xalq bo'l elim» (2009) she'riy kitoblari nashr etilgan. 1989-yilda «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun u respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan.

Muhammad Yusuf ijodi ayni gullab yashnagan paytda, Ellikqal'a tumanida she'riyat muxlislari bilan uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida vafot etgan. Andijonda dafn etilgan.

KO'HNA QUDUQ

Meni tongda shirin uyqudan uyg'otishdi.
Qarasam – uyqudan ham shirin odamlar.
Borolmayman, dedim g'udranib.
O'zlaring ketaveringlar endi...
Meni uyg'otgan odam buyuk hofiz edi.
Mening borar joyim esa Buyuk Buxoro edi.
Buxoro mendan xafa edi...
Hofiz shunday shaharga bir marta bormagan
kishi odam emas, deb aytgandi.
Odam bo'lsa bordir, ammo shoir emas,
degandi...
Tushimda yig'lagan edi Buxoro.
Ulug' shaharni faqat ulug' zotlar ovutishi
mumkin.
Mening borganimdan esa foyda yo`q.
Ammo qani o'sha ulug'lar endi?..
Biz hammamiz uyqu bilan ovora,
Buxoro bo'lsa cho'kib, nurab, tugab borardi.
Kun sayin kamayib borardi uning dunyoga
mashhur obidalari...

* * *

Qanday go`zal eding, Buxoro,
Osmono`par gumbazlar aro.

Men ziyorat qilib ovvora,
Topolmadim bir sog' minora.
Sen cho`kibsan, kim o`sdi, aziz,
Tomiringni kim kesdi, aziz?..
Qaydan topay qabringiz endi,
Buyuk bobolarim, qaydasiz?
Siz qaydasiz, ulug' me'morlar,
Buxoroi sharif bemorlar.
Bugun uning kuygan ko'ksiga
Qular mingga kirgan devorlar.
Qular ne-ne muqaddas joylar,
Jannatlarda topilmas joylar...
Qular, bir payt kirsada gadoylar
Quchoq ochgan karvonsaroylar...
Buxoro lol, Buxoro hayron,
Arki vayron, mehrobi vayron,
Labi Hovuz qirg'og'i vayron,
Ibn Sino arvohi sarson.
Bu qanday qayg'udir, yo rab,
Qayga boqma –turibdi nurab.
Shahar o'lsa dunyodek qadim,
Ko'mgaylar ne kafanga o`rab?..
Azal aziz, ey shahri Sharif,

Darvozang kim ketdi o`marib?
Tilla tojing aytmayin, ammo,
Minorasiz ekansan g`arib!

* * *
Buxoroda qancha hujra bor?
Buni hech kim bilmaydi.

Sababi bu hujralarda ilm da`vo qilgan barcha mullavachchalar endi mulla bo`lishib o`z yurtlariga tarqab ketishgan. Mulla bo`lmaganlari esa hujralardan xafa. Go`yo gap faqat hujradadek. Buxoroda qancha hujra bor? Buni hech kim bilmaydi. Bilganlarning bari o`tib ketgan. Yana bir sababi shulki, bu hujralar hech qaysi... JEKka qaramaydi...

Buxoroda qancha hujra bor?
Yer yuzida qancha o`qimishli odam bo`lsa, shuncha.
Demak, barcha o`qimishli odamlarda oqibat yo`q ekan.
Ular hujralarini o`z holiga tashlab qo`ygan.
Zax bosib yotibdi bu qadimiy hujralar.
Balki xuddi shu sabab ham nurab yotgandir Buxoro?
Qadriga yig`lab to`kilib, cho`kib borayotgandir?..

* * *

Buxoro, sen shamga o`xshaysan,
Mening ko`ngil hujramga kirgan.
Tutab, o`chib qolay deb turgan,
So`nar so`nggi shamga o`xshaysan.
O`zin dardi o`ziga ayon,
Bir men desam, sen ham notavon
Toma-toma to`lgan Zarafshon,
Sen ham ko`zi namga o`xshaysan.
O`zingdan ol, o`zingga uzat,
Sen ham o`zing-o`zingni yupat.
Oqibat ko`rsatib, oqibat
Ko`rmagan odamga o`xshaysan...
Minorlaring bo`ylari uzun,
O`zidan-da o`ylari uzun,

* * *

Ertakdayin so`ylari uzun,
Sen ham uzun g`amga o`xshaysan.
Toqatga o`xshaysan, sabrga,
Qadri bor-u lek beqadrga,
Yomg`irlar yog`magan adirga,
Orolsiz ko`klamga o`xshaysan.
Aslida-ku, sendan-da hur kam,
Sendan aziz, sendayin pir kam,
Bu dunyoi u dunyo bir kam,
Sen ham biri kamga o`xshaysan...
Buxoro, Hotamga o`xshaysan,
Yov kelsa ham to`shak to`shaysan,
Qo`ling ochiq, ko`zlaring yumuq –
Sen mening Otamga o`xshaysan.

Fayzulloxon otasidan qolgan tillolarni hukumatga topshirdi. Bir kuni «xalqlar otasi» undan so`radi: xo`sh, otangizning tillolari bilan-ku, safimizga qo`shildingiz. Ammo ayting-chi, o`zingiz nima karomat ko`rsatdingiz Inqilobga?..

Uni o`ldirishdi. Qanday o`ldirishganini ham hech kim bilmadi. Uning avlodi qolmadi. Uning avlodidan faqat... Buxoro qoldi. Endi Buxoro ham keksaydi.

Fayzulloxon Inqilobga boshini tikdi.

SHopmo`ylov Stalin esa qilich bilan chopib tashladi bu boshni!..

Uzilgan boshdan sachragan qon Buxoro minoralariga tegdi.

Balki, shuning uchun ham bitta-bitta qulayotgandir Buxoro minoralari?

Balki, shuning uchun ham sho`rdir bu qadim kent tuprog`i?

Balki shuning uchun ham suvlari taxirdir Buxoroning?..

* * *

Poezd tunda keldi Kogonga,
Tillolarni ortdik vagonga.
Yangradi parovoz na`rasi:
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi!..
Poezd yelib borar Shimolga,
Yetmoqqa yo`l bo`lsin shamolga,
Atrof biydek turkning dalasi,
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi.

Osmon to`lib borar tutunga,
Ortda bag`ri to`lib kukunga.
Buxoroning o`chdi qorasi,
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi.
Poezd kirib keldi Toshkentga,
Holi qurib keldi Toshkentga.
Tambur to`la soqchi sarasi,
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi.

Qozoqning dashti ham keng ekan,
Bepoyon bir yurtga teng ekan.
Uch kunlik yo`l ekan orasi,
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi.
Soqchiboshi endi xotirjam,
Qo`ylar qoldi ortda, otlar ham.

* * *

Asli inson xoki qo`yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas, shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog`ini ko`zlariga surtsin. Bundan kimga jabr bo`libdi. E`tiqodi o`lik kishilargina hech kimga va hech nimaga sig`inmaydilar. Kimning kimga sig`inishi esa o`z maylida. Men barcha qabristonga sig`inaman, dedi hofiz. Barcha musulmonu kufr qabriga. Zero, kufr yer yuzida emas, ko`ngilda. Men barcha toza dilga sig`inaman. Illo, toza dilda kufrga joy yo`q... Odamlar bir-birlarining diliga sig`insin, deganlar mavlono Rumi. Chunki inson ko`nglidan muqaddasroq Ka`ba ham yo`q!

* * *

Otdim vaqt yukini yelkadan osha,
Yo`ldan surdim temir panjarasini,
Ko`zimga yosh olib qildim tomosha,
Hazrat Bahoviddin maqbarasini.
Buxoroi sharif, muqaddas beshik,
Ne-ne allomalar dunyoga kelgan.
Bunga shohlar kirgan kavushin yechib,
Bu joyga amirlar piyoda kelgan.
Men bir g`arib shoir, men shoh emasman,
Aybim ham emasdir bo`lolmaganim.
Faqir bo`lib ham begunoh emasman,
Gunohim – o`ttiz yil kelolmaganim!..

* * *

Asli dunyo nadir – Sahroi kabir,
Agar aziz ersa odam-da, aziz.

* * *

Hofizlarning bilmagani yo`q. Ayniqsa, men bilgan hofizning. Chunki u jahongashta. U aytdiki, Buxoroda bir maqbara bor. Kimki qanday niyat qilib, ixlos bilan atrofidan yetti bor aylansa tilagi bajo bo`lgay!.. Maqbarada tumonat odam. Biroq, hatto buxoroliklar ham bu hikmatni bilishmas ekan. Hofizga qarab g`alati jilmaydim. U astoydil xafa bo`ldi. Shu asno bir avtobus ajnabiylar kelib qoldi. Faranglar ekan. Hayratimni oshirib ular maqbarani yetti martadan aylana boshlashdi-ku. Yosh-yalanglari xiyol kulimsirab, hazil aralash, ammo yoshi ulug`lari jiddiy va ixlos ila aylanishdi. Faranglar ketishdi. Hofiz hikmati yana hikmatga aylandi. Maqbara esa nurab borayotir. Buxoro, sen buyuk hikmatsan. O`z bolang ham qadriga yetmagan hikmat. Seni to`kilayotganing shundan emasmi?

* * *

Biz suv ichgan quduq yodingizdami,
Baland mehrobdagi muqaddas kalam?
Labimda ming yillik harorat ta`mi,
Men boshqa odamman,
Men boshqa odam.
Qa`riga qaradim – ko`zlarim tindi.
Yo`q, ko`zim ochildi –qo`ydimu qadam.
Hayratim quduqqa to`kildi, endi
Men boshqa odamman,

Ammo hamon o`sha yallasi:
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi...
Inqilob deb, chekdingiz zahmat,
Fayzullo, otangizga rahmat.
Hali mukofot ham olasiz...
Yo`ldan qoch-a, sartning bolasi!

Dunyoga keldingmi, dardingdan gapir,
Umring o`lchab qo`ymish sarobni xasis.
Men bobom ruhini ziyorat aylab
Karvonidan ajrab kelgan bo`taman.
Karvon Vaqt turibdi yo`limni poylab,
Izimni sovutmay izimga qaytaman.
Lekin ruhim qolar shu xarobada,
Ruhimning ruhlarga yo`l – yo`lagi bor.
Ajdodim ko`milgan har sardobada,
Mening jonimning ham bir bo`lagi bor...
Otdim Vaqt tosh yukin boshimdan osha,
Yo`ldan surdim temir panjarasini,
Ko`zimga yosh to`lib qildim tomosha,
Hazrat Bahoviddin maqbarasini.

Men boshqa odam.
Men seni axtarib yig`lab yuruvdim,
Imonim, sen mening topilgan bolam.
Chashmai zilolda yuzimni yuvdim,
Men boshqa odamman,
Men boshqa odam...
Olisda sollanar qush bosgan bog`lar,
Bunda xo`rsinar bir qurigan bodom.
Beega maskanlar bag`rimni dog`lar,

Men boshqa odamman,
Men boshqa odam.
Qancha qush ko`r madim kirib shu yoshga,
Hammasi sayroqi, xammasi hotam.
Ular ham bulbulu qudug`i boshqa,
Siz boshqa olamsiz,

Siz boshqa odam...
Hech kim yopolmas bu ko`hna quduqni,
Bu quduq yonidan o`tgay bor olam.
Yurakka joyladik ilohiy ishqni,
Biz boshqa odammiz,
Biz boshqa odam.

* * *

Kuygan joydan kuy chiqadi, deydilar.
Buxoroning esa kuymagan joyi yo`q.
Bunda nimaiki qulamasin kuy bilan qulaydi.
Devor qulasa –kuy, maqbara nurasa –kuy, hovuz qurisa –kuy. Buxoro yig`lab qo`shiq aytayotgan ulug` Hofiz. Uning qo`shig`ini barcha tinglaydi, uning tovushi yetmagan yer yo`q, ammo odamlar bu qo`shiqqa mahliyo bo`lib, tildan qolishgan. Hech kim unga yordam beray demaydi.
Buxoroning kuyi –ajralish kuyi.
Vidolashish kuyi!..

* * *

Hofiz meni uyqudan uyg`otdi. Hofizning uyqudan ham shirin ovozi meni uyqudan uyg`otib, tuyg`u vodiysiga boshladi. Bu vodiyning nomi Buxoro edi... Salom, bobolarimning bobokaloni, dedim men. Menga ham tuyg`ularingizdan bering, dedim unga. U horg`in jilmaydi. Tuprog`im to`la tuyg`u, dedi u jilmayib.
Lekin sen anglarmikansan, bolam?

Bobolarimning bobokaloni xasta. Uni me`morlar parvarish qilmoqda. Yo`q, ular faqat atrofida parvona. Nima qilish kerakligini esa uning o`zi aytib turibdi. Unga obidalarining, betakror qasrlarning buyuk me`mori –Sinosi yetishmay turibdi. Ulug`bek Mirzoning nazari yetishmay turibdi. Balki shuning uchun ham cho`kib borayotgandir u. Nahot, naqqosh me`morlar avlodi karvoni uzilib qolgan bo`lsa. Nahot endi Buxorodan, o`sha buyuk va qadimiy Buxorodan nishona qolmasa?..

Buxoroni vaqt shamoli vayron etdimi?

Balki uni tuyg`usiz dillarimiz payhon etayotgandir?..

* * *

Ma`yus kunim ko`zim tushsa,
Kuyar osmon, tushunmaysan.
Meni samo tushungaydir,
Sen ey inson, tushunmaysan...
Kuyib ko`ksim o`tar bo`lsam,
Oqar bo`lsam, ketar bo`lsam,
Meni daryo tushungaydir,
Sen ey ummon, tushunmaysan.
Men ham shaydo, men ham maftun,
Men ham hech kimi yo`q Majnun,
Meni Laylo tushungaydir,
Sen ey jonon, tushunmaysan.
Mening yo`lim uzun armon,
O`zim dovon, o`zim karvon,
Meni sahro tushungaydir,
Sen ey sarbon, tushunmaysan.

Mening borim erur ko`nglim,
Mening yorim erur ko`nglim,
Ma`yus tanho tushungaydir,
Sen ey xandon, tushunmaysan...
Ma`yus kunim ko`zim tushsa,
Kuyar osmon, tushunmaysan.
Meni Olloh tushungaydir,
Sen ey xoqon, tushunmaysan.
Ko`nglim gul, ko`zlarim guldir,
Yuzim gul, qo`llarim guldir.
Meni sabo tushungaydir,
Sen ey to`zon, tushunmaysan...
G`uborimdir bo`yi rayhon,
Minorimdir tilim biyron.
Meni dunyo tushungaydir,
Sen ey nodon, tushunmaysan.

* * *

Buxoroda bir payt ohular bo`lgan –Xonguli degan.
Xoldor ohular... Ular meni tushlarimda yo`qlaydi.

Shundoq tepamga kelib, jilmayib, yuzlarimni iskaydi.
 Otingdan aylanay, Muhammad, buncha ko`p uxlaysan, deyishadi.
 Men har tong qaydasiz, ohularim, deb uyg'onaman.
 Hali ko`zimni ochmay dunyoga savol beraman.
 Qadim Buxoroning ohulari qayga ketib qoldi, deyman.
 Daryolar quriydi. Tog'lar cho`kadi. Kitoblar yonadi.
 Dunyoda faqat bir narsa –savollargina abadiy.
 Savollar kiyik so`qmoqqa eltuvchi yo`lakdir.
 Ko`ksingda savoling bo`lmasa dunyoga nega kelding, otingdan aylanay, Inson!

* * *

Tosh shahrida uyim –	Bir kun axir,	O`qiyimiz der,
Boloxona edi,	Rost so`zini	O`qimasdan
Bir burchagi o`rin,	Aytdi birov,	Bosishadi.
Biri kitob bari...	Bir bo`g`indan	Menga –havas
Menga tinchlik	Oz so`zini,	Qilishgandek boqishadi.
Bermay qiynar	Aytdi birov.	Folbin kampir
Mana endi,	Aytmay qilgan	Aytganlari
Tushlarimda,	Noz so`zini	Yolg'on bo`ldi
Buxoroning ohulari.	Aytdi birov...	Yomon bo`ldi,
Aytmatovga	Tuproq yo`ldan	Bir qishloqqa
Xatlar yozdim,	Cho`g`lar bosib	Doston bo`ldi.
Javobi yo`q.	Qaytdi birov.	Huzuriga
She`rlar yozdim,	Bu dunyoning	O`sha oqshom
Bosishmadi,	Shirin dardi	Onam shoshib,
Hisobi yo`q.	She`rlar ekan,	Qo`li quruq
Muharrirlar	Menga zabon	Borgan ekan,
Borsam qoshi	Bergan manov –	Armon bo`ldi...
Uyuladi,	Yerlar ekan.	Armonim ko`p
Ko`ramiz der,	Qonim uning	Bu dunyoda
Ko`rmas,	Hayajoni,	O`zimning ham,
Tashlab qo`yiladi,	Tuyg`ulari,	Davomi ko`p,
Menga –	Kulgilari,	Sizga aytar,
Hasad	Qayg`ulari,	So`zimning ham.
Qilishgandek tuyuladi..	Yig`ilari,	Dilni yoqib,
«O`g`lim shoir!..»	Tushlarimda	Tilga chiqmay,
Onam yeru ko`kka	Buxoroning ohulari...	Qolganlarin,
Sig`mas,	Aytmatovga	Qo`shig`imga
Tongda ishga,	Xatlar yozdim,	Bu kun sig`may
Oqshom chopar	Javob keldi.	Qolganlarin,
Folbin sari.	She`rlar yozdim	Aytsam barin,
Birov bilar,	Hisobi yo`q –	Aytsam barin,
Birov kular,	Kitob bo`ldi.	Aytsam barin –
Birov uqmas –	Muharrirlar	Tushingizda Buxoroning
Tushlarimda	Borsam quchoq	ohulari!..
Buxoroning ohulari.	Ochishadi,	

* * *

Qara, rayhon, dedi u bir maqbara oldida menga, –kimdir ekib ketibdi. Tashlandiq hujra hovlisiga bu jannat gulini ekkan odamni topdim. U hamon harbiy xizmatdan qaytgan kiyimida yurgan, bir oz aqli zaifroq yigitcha ekan. Hofiz yigitchaga yap-yangi kostyumini yechib berdi. Yo`q, oldin kostyumning cho`ntagiga bildirmay pul solib, keyin yechib berdi. Nima qilaman

buni, deydi u bizga! Shu joyga qarab yurar ekan, ziyoratchilar onda-sonda berib ketadigan non, qand-qursni ko`rsatib, maqtandi. Biz u bilan birga choy ichdik. «Shu bir merov bolangcha senga parvona bo`lolmaymiz, Buxoro». Bu –hofizning gapi.

Ketar paytimiz u birdan shunday deb so`rab qoldi: –Hofiz aka, Shukur Burhon o`ldimi?.. O`shanda hofiz menga she`r yozasan, degan edi.

Rayhon va Shukur Burhon haqida.

U ham Buxorodayin qadr topmadi, degan edi.

Rayhonni Shukur Burhon qabriga qo`ydim.

Shukur ota haqida esa yozdim she`r.

Bu she`rimni o`sha g`arib ukam uchun yozdim.

* * *

Shukur Burhonni ham kuzatib qo`ydik,
Ketdi qon yuragi ustida qo`li.
Ortidan ergashib borib biz qo`ydek,
Yerga berib keldik o`pkamiz to`lib.
Bordik do`stlari ham, dushmanlari ham,
Qabrin ustida ham so`yladik yolg`on:
San`at fidolari,
Men sizga aytsam,
Unday Shukur Burhon,
Bunday Shukur Burhon!..
Tirigida hech kim aytmagan gaplar,
Hali sovumagan tuprog`iga yog`di.
Yig`ladi umrida yig`lamagan arboblari,
Ko`zidan yoshlari sel bo`lib oqdi...
Yalangto`sh bobo jim kulib yotardi,

Shuncha do`sti bor ekan, u bilmagandi.
Yopiray, tasavvur ham qilmagandi,
Chunki uch kun oldin pochtdan olg`on
Mehnat daftarchasin quchoqlab hayron
Xotini oldida shunday yig`lagandi...
O`krab yig`lagandi,
Ho`ngrab yig`lagandi.
Ko`ziga tor bo`lib yorug` jahoni.
Erkak boshi bunday egilmagandi,
Balki... uzilgandir o`shanda joni!
U balki mendan ham yashardi ko`proq,
U balki sendan ham yashardi ko`proq.
Ey, qo`ng`ir tuproq,
Ey, muqaddas tuproq,
Sen Shukur boboga bolish bo`l, yumshoq.

* * *

Men ham Orolman. Buxoro ham – Orol.
Men Orol haqida yangi qo`shiq qildim.
Uni Buxoroga bag`ishlayman, dedi hofiz.
Agar Orolni qo`shiq bilan tiriltirib bo`lsaydi.
Agar Buxoroni qo`shiq bilan asrab qolish mumkin bo`lsaydi.
Hofiz joni chiqquncha qo`shiq aytgan bo`lardi!
Buxoroning ko`hna qudug`idan suv ichgan hofiz...
Biz barimiz Orol va orolchalarmiz.
Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz,
bitta-bitta quriyveramiz.
Orolning joni orolchalar qo`lida.
Orolchalar esa odamlarning ko`ksida.
Odamlarning ko`ksi esa bir-biridan suv ichadi...

* * *

Orol dengiz, Orol bechora dengiz,
Zilol dengiz uvol-ovvora dengiz,
Baxti qora, manglayi qora dengiz,
Ko`z o`ngimda, ko`z o`ngimda berar jon...

Qani qadim qirg`og`ida bog`lari,
Tuprog`i yuzida ajal dog`lari,
Somonday sarg`ayib qizg`aldoqlari,

Ko`z o`ngimda, ko`z o`ngimda berar jon.

Jovdir-jovdir jayronlarin ko`zlari,
Qirg`og`ida qotib qolgan bo`zlari.
Qovjiragan yerga bosib yuzlarin,
Ko`z o`ngimda, ko`z o`ngimda berar jon.

Kirg`og`idan qirg`og`imga qum ko`chdi,

Momo yurtga sig'may tag'in kim ko'chdi?
Tag'in qaysi uyim chirog'i o'chdi,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...

Ko'ylagi qon, ko'kragi qon pahlavon.
Sensiz menga tor kulbadek bor jahon,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...

Men o'yladim –bu dunyo jang maydoni,
Orol ummon emas –to'lib paymoni,
Alpomishday yurtimning bir o'g'loni
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon.

Osmonlarga qo'li yetgan davronim,
Top bir chora, bo'lmagil bezabonim.
Peshonamga bitgan yolg'iz ummonim
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon!

Ruhi joning cho'kmasin, ey qadrdon,

XOTIMA

...Tongda shirin uyqumdan uyg'otishgandi. Uyqudan ham shirin odamlar. Men bormayman, degandim.

Meni kechir, Buxoro. Bormayman degan tillarim kesilsin yana aytsam. Ushbu g'arib misralar uchun ham kechirgil meni. Men dilimdagini yozdim. Dilimda esa sen eding. Qanday bo'lsang – shundayligicha. Sening xasta joning orom topishiga ishonaman.

Ammo bardam bo'l, otingdan aylanay, ota makonim.

She'rlarimni esa huv o'sha, hujralaringni supurib-sidirib yurgan aqli ojizroq o'g'lingdek, uning rayhonlaridek poyingga sochaman. Joningga malham bo'lsin bu naqli ojiz misralarim...

1987-yil

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Muhammad Yusuf she'riyatining ustuvor g'oyalari qay ko'rinishlarda aks etgan?
2. Shoir lirikasining badiiy salmog'i qanday?
3. “Ko'hna quduq” dostoni kimga yoki nimaga bag'ishlab yozilgan?
4. Asar nomi nega “Ko'hna quduq”?
5. Doston qaysi davr voqealaridan so'zlaydi?
6. Shoir nega shu mavzuda doston yozdi, deb o'ylaysiz?
7. Unda qanday asriy muammolar qalamga olingan?
8. Dostonda poetik ko'chimning qaysi turlaridan foydalanilgan?
9. Doston yosh avlod uchun qanday xulosa beradi?
10. Asarda qanday insoniy tuyg'ular ulug'langan yoki qoralangan?



IKROM OTAMUROD (1951)

Ikrom Otamurod (Otamurodov Ikrom Islomovich) 1951-yil 5-mayda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi Xo`jakasbi qishlog`ida tug`ilgan.

Shoirning «Vaqt ranglari» (1982), «Janub qushlari» (1983), «To`rg`ayli manzillar» (1983), «Ufqqlar orti bepoyon» (1987), «Xaritaga tushmagan joylar» (1992) «Uzoqlashayotgan og`riq» (1992), «Sopol siniqlari» (1994), «Sen» (1996), «Ichkari va tashqari» (1997), «Ruhimning qayg`usi» (1997), «Kanglum, o`zing», «Tavr», «Tag`azzul» she`riy kitoblari chop etilgan. Dostonlari: «Yarador umid otlari», «Uzoqlashayotgan og`riq», «Aning umidi», «Yobondagi yolg`iz daraxt», «Tag`azzul», «Xaritaga tushmagan joy», «Ichkari... Tashqari», «Qush», «Istarim», «Sen», «Muqaddar», «Huviyyat», «Jadval», «O`rin», «Dog`».

Ikrom Otamurodning falastin shoiri Muin Bsisuga bag`ishlangan «Yarador umid otlari» dostoni (1986) 80-yillar o`zbek she`riyatida sezilarli voqea bo`lgan. Dostonda xorijlik ijodkor obrazi orqali inson qalbining po`rtanalari, mustaqillik haqidagi orzular, ona-yurt obrazi kuchli his-hayajon bilan badiiy ifodalangan.

Ikrom Otamurod «Do`stlik» ordeni hamda «Xalq maorifi a`lochisi» nishoni, shuningdek, mustaqillikning o`n, o`n besh, yigirma yilligi medallari bilan taqdirlangan.

Ichkari... Tashqari...

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida to`luvni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida bo`luvni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur
Istayur tashqarida javobni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida tavobni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida unutni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida sunutni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida mohni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida Oллоhni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida nasim.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida sasin.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqarida sayrni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,

Istayur ichkarida xayrni...

* * *

Ichkari – xo`rsiniq
Tashqari – xandon.
Ichkari – zabun.
Tashqari – muqtadir.
Ichkari – dilsiniq.
Tashqari – chandon.
Ichkari – yobun.
Tashqari – zulzabir.

Tashqari – rutubat.
Ichkari – saffo.
Tashqari – giryon.
Ichkari – chamangiz.
Tashqari – uqubat.
Ichkari – g`affor.
Tashqari – simyon.
Ichkari – kamangiz.

Ichkari – jola.
Tashqari – dilguzor.

Ichkari – sukunat.
 Tashqari – g'ovur.
 Ichkari – nola.
 Tashqari – siymuzor.
 Ichkari – yukunat.
 Tashqari – shovur.
 Tashqari – g'ussa.
 Ichkari – huvaydo.
 Tashqari – nadomat.
 Ichkari – gulgun.
 Tashqari – shamolga sovrilar saydo.
 Ichkari – ruhga to`kilar kangul.
 Ichkari... Tashqari...
 Tashqari... Ichkari...
 Boring ham kangulda,
 zoring ham kangulda.
 Yetganing ham kangulda,
 ketganing ham kangulda.
 Rizoing ham kangulda,
 izoing ham kangulda.
 G'ururing ham kangulda,
 tururing ham kangulda.
 Rahmating ham kangulda,
 la'nating ham kangulda.
 Kariming ham kangulda,
 yariming ham kangulda.
 Himmating ham kangulda,
 minnating ham kangulda.
 Bo`luring ham kangulda,
 so`luring ham kangulda.
 Hayroning ham kangulda,
 vayroning ham kangulda.
 Oring ham kangulda,
 xoring ham kangulda
 Shafqating ham kangulda,
 nafrating ham kangulda.
 Qadring ham kangulda,
 badring ham kangulda.
 Kuning ham kangulda,
 tuning ham kangulda.
 Sunuting ham kangulda,
 unuting ham kangulda.

 Qo`g'ing ham kangulda,
 yo`g'ing ham kangulda.
 Ozoring ham kangulda,
 mozoring ham kangulda.

 To`zing ham kangulda,
 o`zing ham kangulda.
 O`zing... ham... kangulda...
 o`zing... ham... kangulda...

* * *

Gulini sovuq shopirgan daraxt –
mevasin sog'inib-sog'inib bukilar.

Qulfini zang erkalatgan uy –
egasin sog'inib-sog'inib to`kilar.

Huzurini sandiq ko`rgan to`n –
bastlarni sog'inib-sog'inib titilar.

Bo`xchada taxlanib oh urgan ro`mol –
zulflarni sog'inib-sog'inib sitilar.

Devorni quchoqlab so`zargan gilam –
poylarni sog'inib-sog'inib yirtilar.

Hasham qo`rg'onida dimiqqan sunbul –
oylarni sog'inib-sog'inib mo`ltirar.

Gulini sovuq shopirgan daraxt...
 Qulfini zang erkalatgan uy...
 Huzurini sandiq ko`rgan to`n...
 Bo`xchada taxlanib oh urgan ro`mol...
 Devorni quchoqlab so`zargan gilam...
 Hasham qo`rg'onida dimiqqan sunbul...
 ... sog'inib–sog'inib...
 ... sog'inib–sog'inib...
 ... sog'inib–sog'inib...
 ... sog'inib–sog'inib...
 ... sog'inib–sog'inib...
 ... sog'inib–sog'inib...

* * *

Kanglumning ichiga kirib boraman,
 kanglumni axtarib, kanglum.
 Zora topsam, zor-a, man,
 intizor munglim?!
 Kanglumning ichiga kirib boraman,
 sog'inchimni axtarib, sog'inchim.
 Zora topsam, zor-a, man,
 qirmizi g'uncham?!
 Kanglumning ichiga kirib boraman,
 qayg'umni axtarib, qayg'um.
 Zora topsam, zor-a, man,
 mutriba tayg'um?!
 Kanglumning ichiga kirib boraman,
 armonimni axtarib, armonim.
 Zora topsam, zor-a, man,
 huri g'ilmonim?!
 Kanglumning ichiga kirib boraman,
 o`zimni axtarib, o`zim.

Zora topsam, zor-a, man,
jonim to`zib?!
Kanglumning ichiga kirib boraman,
ruhimni axtarib, ruhim.
Zora topsam, zor-a, man,
moviy zuluhim?!
Kanglumning ichiga kirib boraman,
kanglumni axtarib, kanglum.
Zora topsam, zor-a, man,
intizor munglim?!

* * *

«O`zing keraging qil!» deydi u.
«O`zing yaraging bil!» deydi u.
«O`zing... O`zing... O`zing...» deydi u,
ich–ichidan shivir–shivirlab,
tashqariga chiqmay dovushi...

* * *

Umrida
birovni hech yo`qlab
bormagan kishi,
kimningdir kelishini kutar
intiq–intiq...

* * *

Fitnayu ig`volar to`qiydi necha
Iblisning dasisa do`koni.
Daq urib yugurar ko`chama–ko`cha.
Ichkari tirqishin poylab har oni...

* * *

Ichkarida,
Issiq uyda turgan odamning
Xayolini olib qochadi –
Olis cho`qqilarda nozlangan qorlar;
Xayolini olib qochadi –
Olisda ketayotgan poezd taq-taqi;
Xayolini olib qochadi –
Olisda sayrayotgan vahm sasi
olashaqshaqning.
Xayolini olib qochadi...

* * *

Bozor... Taloto`m... Tap tortmay...
Bir to`da... Sot-sot... Ol-ol... To`palang...
Yugurgan yugurayotir kartmay...
To`xtang oyoq osti... yutar chang...

* * *

Ul zot birorta nihol ekmagan,
mehr ham bermagan biror niholga.

Lekin
daraxtlar soyasidan
umidvor bo`laveradi,
umidvor bo`laveradi
daraxtlarning quyuq-quyuq soyasidan
judayam...

* * *

Cho`ri kiyganini,
qul yeganini maqtaydi,
deydilar onam.
Yana shunday deydilar,
to`lib–to`lib ketganlarida:
ta`na o`chog`i tordir,
toyrimachog`i bordir...

* * *

Birov haqida gap gapirish–
tikindi olish bahonasi.
O`zingdan qo`rquvni yashirish –
o`zingga ishonmaslik chorasi...

* * *

G`amini ichiga yutaverib,
o`ziga olaverib dardini,
toqatga aylandi,
bardoshga aylandi
cho`kirtak
daraxt...

* * *

Naqshinkor darvoza har kun o`zga tus,
har kun o`zga chiroy olar devorlar.
Marmardan egnida yaltiragan po`st
har kun gullar havorlab.

Oqish rang bo`lakdir, qizg`ishi bo`lak,
ranglar sinosida qamashadi ko`z.
Kunduzlar tovlanar kamalak,
oqshomlar to`kilgan yulduz.
Tashqari – ko`chaga qaragan jilo,
Tashqari – ko`chaga qaragan husn.
Tashqari – bezaklarga mahliyo,
tashqari – bezaklarga sig`ingan yo`sin.
Tashqari – ko`chaga qaragan toza –
suprilgan, sidrilgan yonveri.
Changlar ozar, gardu g`uborlar ozar –
yuvilaverib, artilaverib.
Tashqari – ko`chaga qaragan kelbat,
tashqari – ko`chaga qaragan nigoh.
Moshinlar o`tadi sekinlab,
yo`lovchilar o`tar sus boqib nogoh.

Tashqari – ko`chaga qaragan siror.
tashqari – ko`chaga qaragan chilib.
O, darig'! Yer bilan bitta iztirob –
ichkarida muyumlar yotar sochilib.
Naqshinkor darvoza har kun o`zga tus,
har kun o`zga chiroy olar devorlar.
Marmardan egnida yaltiragan po`st
har kun gullar havorlab.

* * *

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – umid.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – xotir.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – visol.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
hijron.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
havas.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
hasad.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – insof.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – isrof.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – aql.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – safih.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – gunoh
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
pushmon.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – ishq.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
sog`inch.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
nigoh.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – zalil.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – orzu.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
armon.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
kulgu.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
ko`zyosh.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
yolg`on.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – afsus.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
quvonch.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
qayg`u.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – nafs.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – tavba.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – vafo.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – firog`.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – mehr.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
nayrang.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – durj.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
anduh.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – sabr.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir –
imkon.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – niyat.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – o`lim.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir –
beshik.

Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – tobut.
Odamzod dunyoga sochgan urug`dir – yo`l.
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir – qabr.

Odamzod dunyoga sochgan urug`dir...
Odamzod dunyodan yig`gan hosildir...
Odamzod dunyoga sochgan...

Odamzod dunyodan yig`gan...
Odamzod dunyoga...
Odamzod dunyodan...

Odamzod...
Odam...
O... dam...
O...

Tashqarida kezar izgirin:
hapriqar, hovliqar ayoz.
Haroratga lim-lim chog`iri
ichkarida yonboshlaydi yoz.
Ichkarida zulflari tol-tol,
ko`klam tarar taroqlarini.
Tashqarida to`zg`itar shamol
tiyramohning yaproqlarini.
Tashqarida qabog`in solgan
havo yutar o`choqlar dudin.
Ichkarida o`rnashib qolgan
gajakdor atirlar hidi.
Ichkarida ko`ronin yo`rmab
tikar yirtiq, yamoqlarin kun.
Tashqarida qamchinin sermab
zing`il otin niqtab borar tun.
Tashqarida kuyib yag`rini,
qizg`aldoqlar yalar qovurmoch.
Ichkarida bosar bag`rini
sog`ingan iniga qaldirg`och.
Tashqarida kezar izg`irin:
hapriqar, hovliqar ayoz.
Haroratga lim-lim chog`iri
ichkarida yonboshlaydi yoz.

* * *

Haqirning baxtiyorligi...
 Bir bo`lak non topsa – baxtiyor.
 Bir qultum suv hovrin bossa – baxtiyor.
 Bir yopinch sovuqdan asrasa – baxtiyor.
 Bir og`iz so`z yayratsa – baxtiyor.
 Chunki
 uning kanglu bor...
 Kanglu bor shafqatni,
 rahmatni his etadigan.
 Kangul – kambag`alning baxtiyorligi.
 Baxtiyorlik – toshi og`ir dard –
 Kangul sutumlariga turar suyanib...
 ...Boyvachcha bulardan baxtiyorlik sezmas,
 baxtiyorlik sanamas bularni.
 Bunday baxtga xushi yo`q uning.
 Hissi yo`q uning.
 Kanglu yo`q uning.
 Hissi cho`kkan nafsining o`pdonlariga
 Kanglu ko`milib ketgan
 u sig`ingan matohlarning orasida;
 Kanglu ezilib ketgan
 u muqaddas bilgan
 bozorni ilma-teshik qilgan oyoqlar ostida;
 Kanglu bo`g`ilib ketgan
 u huzur olgan
 bazmxonalarning nojins qiyqiriqlari
 komida
 ... Ko`milib ketgan...
 ... Ezilib ketgan ...
 ... Bo`g`ilib ketgan...
 ... Xokistar his...
 ... Xokistar kangul...

* * *

Yomg`irda ketayotgan odam
 egni yupqa, ivir shalvirab.
 Ne hojatdir, o`zin bunday dam
 yomg`irga topshirmoq, yo rab?!
 Yomg`irda ketayotgan odam
 nima izlar, nima qidirar?!
 Og`irdir loy osilgan poy ham,
 nigohi osmonni sidirar.
 Yomg`irda ketayotgan odam
 kangluga bulutlar botgan.
 U nenidir topadi, kaydam,
 u nenidir yo`qotgan?!
 Yomg`irda ketayotgan odam
 yo`l yuradi tavakkal.
 Izidan to`kilar dam-badam
 maysalar labida qotgan hal.
 Yomg`irda ketayotgan odam
 ortiga qarashni qo`ymaydi.

Devorlari hilviragan nam
 uyda qolganlarni o`ylaydi.
 Yomg`irda... ketayotgan... odam...

* * *

Xokisor dil, ey nodim,
 qalbimda bo`y cho`zar g`am.
 Ruhim – yo`qotgan yodim,
 ruhim – tugab borar sham.
 Xokisor dil, ey g`arib,
 bag`rim bag`rimdan ayro.
 Ruhim – Majnun mung`arib,
 ruhim – mahzuna Laylo.
 Xokisor dil, ey kabir,
 kanglum to`qigan so`zan.
 Ruhim – qaqragan sabr,
 ruhim – qurigan o`zan.
 Xokisor dil, ey munis,
 yuragimning so`rori.
 Ruhim – qatqaloq afsus,
 ruhim – pushmonning yori.
 Xokisor dil, ey haqir,
 ko`ksimda yongan dardim.
 Ruhim – chatnagan taqir,
 ruhim – azobning gardi.
 Xokisor dil, ey nodim,
 qalbimda bo`y cho`zgan g`am,
 Ruhim – yo`qotgan yodim,
 ruhim – tugab borar sham.

* * *

...Eshik ochildi...
 Uzoq vaqt qavaq turgan
 eshik ochildi...
 Ichkariga kirdi tashqari...
 Tashqariga chiqdi ichkari...
 Yaqin-yaqin keldi
 bir-biriga...
 ... Eshik qavaldi...
 Bir fursat ochiq turgan
 eshik qavaldi...
 Tashqarida qoldi ichkari...
 Ichkarida qoldi tashqari...
 Uzoq-uzoq ketdi
 bir-biridan...
 Ichkari...
 Tashqari...
 Tashqari...
 Ichkari...
 O`rtada... qavalgan eshik...
 Qavalgan eshik... o`rtada...

JADVAL

Kishi bilgaymu, ne sirri jahon bul,
Ne sir ermishki, nuri aqlu jon bul?
Fariduddin Attor

* * *

...Olam...

* * *

... Har tomon taxlitan o`zi bir olam...

* * *

... Qachondir
qachonning
qachoni
qachon ...

* * *

... Yo`qligida paydo bo`lgan
bo`lganning bo`lgan borligi,
ne ersa-da,
mavjuddir.

Borligida paydo bo`lgan
bo`lganning bo`lgan yo`qligi,
ne ersa-da,
nobuddir.

O`zligida paydo bo`lgan
bo`lganning bo`lgan o`zligi,
ne ersa-da,
o`zlikdir.

* * *

... Zaminning bir gardi ezilsa mabod,
mabod bir zarrasi uzilsa osmonning,
siriqsa ummoning mabod bir tomchisi,
bamisoli,
bir paxsasi lat yeb,
darz ketib,
devori yorilgan imorat taxlit
silkinadi,
titranadi,
to`lg`anadi,
qalqinadi,
lopillaydi olam...

...Intiladi

har bir gardini joyiga qo`ymoq iznida,
har bir zarrasini joyiga qo`ymoq iznida,
har bir tomchisini joyiga qo`ymoq iznida
olam... ...

...Zamin giyohlari
siyraklashib,

qovjirab,

quvrab

o`raladi,

tobora,

girdoblar

atnofiga,

chilviriga,

arqoniga.

Osmon nujumlari miskin.

Sayyoralar munis,

mahzun.

Ummon qa`rida mo`ltirar,

miltirar emganib,

to`lg`anib mavjlar nolasi...

.....

.....

.....

... Odam

zaminga bag`ringiz berganmisiz hech???

... Odam

hech termilib boqqanmisiz osmonga???

... Odam

ummonning aqsosiga hech o`ltirganmisiz???

Yondosh bo`lsangiz, mabod,

zardob boylagan dardingizni,

qayg`ungizni,

g`amingizni so`rib oladi,

alhol,

alhol,

o`zingizni

o`zingizga bildiradi,

tanishtiradi,

anglatadi shunday

zamin,

osmon,

ummon.

* * *

... Olam...

* * *

Qaeridir – sho`rlagan taqir,

qaeridir – jimirlagan tog`,

qaeridir – yonayotgan o`rmon,

qaeridir – silkinayotgan meteorit,

qaeridir – portlayotgan vulqon,
qaeridir – qurigan dayro,
qaeridir – noma'lum qaer.

* * *

... Olam...

* * *

... Lahzada lahzaning lahzasi lahza...

... Lahza – o`yin,

lahza – yo`riq,

lahza – Haq,

lahza – nohaq,

lahza – rost,

lahza – yolg`on,

lahza – bor,

lahza – yo`q...

... Lahza zimmida tov tashlamay

zinhor-bazinhor,

bir-biriga poydor,

izma-iz yo`nalib,

tirg`alib,

ergashib,

imdod uchun,

borlik uchun,

muhayyolik uchun jon tikib,

mehr bilan

o`zaro,

qatma-qat ulanadi fasllar.

* * *

... Olam...

* * *

... Olamga tikilib,

ser solib qaralsa bundoq

hech narsa emasdek

tuyulishi mumkin,

mabodo,

bo`lmasa bag`rining qatida mehr.

... Mehr...

... Mehr bo`lsa

qandayindir

ruh mavjud erur

olam makonida.

... Olam makonida

ruh – sir.

Ruh sirning sirasinda...

... Ruhning toq,

qoq,

juft rishtalarin ulab

chigib,

qo`shib,

bog`lab,

tugib o`zaro umid uyg`otar,

ixlos uyg`otar,

g`urur uyg`otar,

sidq uyg`otar,

vafo uyg`otar olam...

... Bordiyu

sirasin eplayolmayin

kangulda

xira tortsa,

o`chsa furug`lik,

Haq dovushi,

sasi so`nsa kangulda:

afsus- afsus- afsus,

tob tashlab,

susayib boradi mehr...

* * *

... Olam...

* * *

... Olam – jadval...

* * *

... Olamning borini aylaydi butun – jadval ...

Olamning koriga bo`ladi ustun – jadval.

... Olamning bag`riga beradi chiroy – jadval.

* * *

... Jadval zamirida qadimiy qadim...

..... Sahro.....

..... Ko`l.....

..... Qal`a.....

..... Vodiy.....

.....Sayyora.....

..... Koinot.....

..... Galaktika.....

* * *

..... Habo.....

..... To`zon.....
..... Vobasta.....
.... Mudom qaptalma-qaptal
yetaklashib,
chirmalashib,
tirkalashib,
yirtiq etaklaridan tutib bir-birin
yashagan,
yashamoqda
va
yashagay ko`z tikib,
ot solib,
o`ynoqlab,
yo`rtib,
xezlanib chappa-rost
ming quroq,
ming yamoq arzga...
... Habo – yugurdak no`kari to`zonning.
To`zon – haboning sha`munot begi...
..... Habo.....
..... Vobasta.....
..... To`zon.....
... To`zon to`zg`itadi jadvalni...

* * *

.....
Jadval – hodislar vuslati.
.....

* * *

... Borgan sari
armonga aylanaveradi:
yashalgan makonlar,
yurilgan yo`llar,
kezilgan manzaralar...

* * *

... Jadval keng erur
qay bir odamning
nigohida,
nigohida
qay bir odamning
tor erur jadval.
Zotan,
jadval
qay bir odamning
kangluga makon tutsa,
kangulning
jug`rofiyasi
bo`lgaydir,
albatta,
keng.

* * *

...Olam maydonida
harakat qiladi jadval,
arsh siyimosida
harakat qiladi jadval,
jadval maydonida
harakat qiladi olam,
jadval siyimosida
harakat qiladi arsh...
... Vaqt zipillaydi...
... Astranom izlaydi,
topadi,
arsh jadvalining
tarkibidan
yangi-yangi
sayyoralarni:
zaminga uzatadi,
tutashtiradi,
birlashtiradi
ularning o`zaro nigohlarini;
zaminga ulaydi
ularning o`zaro siyratlarini;
zaminga bog`laydi
ularning o`zaro qismatlarini...

* * *

... Jadval – charx...
... Jadval – falak...
... Jadval – iqlim...
... Jadval – iztirob...
... Jadval – sog`inch...
... Jadval – xotira...

* * *

... Jadval tuzgan siralar...
... Tog`lari nuragan tog`larini,
sahrolari qaqragan sahrolarini
bir-biriga qadashtirar
zamin tubidagi
bog`ichlari bog`ichinda.

* * *

... Olis zamin...
... Olis osmon ...
... Olis ummon...

* * *

... Quyosh – kunduzning toji...
... Oy – falak toqiga
qadalgan nuqra,

shu'lasini
qora chodirga –
tun zulmatiga sochadi,
to`kadi
poyma-poy,
beminnat...
... Yulduzlar – sehrli ko`zlar.
Zimistonning
qat-qat
qatlamiga,
peshtoqiga
birdayin toqadi ziynat...
... Charaqlagan yulduzlarga
muhabbati oshar,
mehri tovlanar
zimiston o`ragan,
zimiston qoplagan
yaydoq dahrning...
... Zamin chohida mung'ayib yotgan
nimaiki,
bor ekan,
birdayin,
muttasil
javdirab-javdirab,
intiq-intiq intilar osmonga...
... Usturlob – shams,
qamar,
yulduzlar ganji ...
... Sahmul g'aybning g'aybida
falakning
soyir sehriga qarab,
mo`ljallanar,
farazlanar,
aniqlanar qay bir odamning tole jadvali...
* * *
.....Kun.....
.....Tun.....
* * *
... Jadval – borliqning
goh ravshan,
goh idbor vojibi...
* * *
... Hamma narsaning o`lchovi
borkim,
borkim,
o`lchov idrok bilan qadrlı,
xayrli...

O`lchov – qadam
O`lchov – qulf
O`lchov – kalit
O`lchov – chiziq
O`lchov – masofa
O`lchov – yo`l
... Yo`lni
g'ijimlab-g'ijimlab
yo`rtadi muhlat...
Masofada
ko`pkari
o`yinlarin o`ynatib,
xezlar
tinmay g'uvirlab...
..... Masofa
..... Masofa
..... Masofa
* * *
..... Sukut
..... G'ovur
* * *
... Qunishayotgan bayzo
o`ksinishlarin,
xo`rsinishlarin yutar,
joylar tubiga,
oqayotgan suvlarning
dardlarini singdirar tufroqqa;
yugurayotgan elaslarning
armonlarini yetkazar manzillarga;
yog'ayotgan yomg'irlarning
tomchilarini joylar
giyohlarga,
maysalarga,
gullarga,
yantoqlarga,
jinjaklarga,
yulg'unlarga
qo`zigullarga,
sho`ralarga,
toshlarga,
qirlarga,
adirlarga,
ariqlarga,
tepalarga...
* * *
... Xayol – chizilmagan tasavvur...
... Xayol kemasi chayqalib-chayqalib,

lopillab-lopillab,
to`lg`anib-to`lg`anib
suzadi,
uriladi
jadvalning
gardon-gardon to`lqinlariga...

* * *

... Bitta nuqtadan boshlanar lahza,
bitta lahzadan boshlanar nuqta:

nuqta o`tadi,
lahza o`tadi,
daqiqqa o`tadi,
soniya o`tadi,
soat o`tadi,
kun o`tadi,
hafta o`tadi,
oy o`tadi,
fasl o`tadi,

yil o`tadi,
davr o`tadi,
zamon o`tadi,
asr o`tadi,
era o`tadi...
... Vaqt yo`rig`ida,
vaqt sirasida,
baribir,
sinoat jadval...

* * *

.....
.....
.....
..... Jadval – poyonsiz poyon.....
.....
.....
.....

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ikrom Otamurod ijodining mavzu va g`oya doirasini yoriting.
2. Shoir she`rlarida asosan qaysi badiiy san`atlar uchraydi?
3. “Ichkari... Tashqari” dostonida milliylik, xalqchillik hamda umuminsoniylik tamoyillari qanday ifodalangan?
4. Asar kompozitsiyasining o`ziga xosligi nimada?
5. Dostonda mayin va musiqiy ohang ruhini qanday vositalar ta`minlagan?
6. Ma`naviy-axloqiy masalalarga tez-tez murojaat qilishdan shoir qanday maqsadni ko`zlaydi?
7. Asar nega “Ichkari... Tashqari” deb nomlangan?
8. Dostonda keng qo`llangan ko`p nuqtalarga qanday vazifa yuklangan?



XURSHID DAVRON (1952)

Xurshid Davron 1952-yilning 20-yanvarida Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi Chordara qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ildi.

Uning ilk she'rlari 1976-yilda, birinchi kitobi ("Qadrdon quyosh") 1979 yili bosilib chiqdi. Shundan so'ng shoirning "Shahardagi olma daraxti" (1979), "Tungi bog'lar" (1981), "Uchib boraman qushlar bilan" (1983), "To'marisning ko'zlari" (1984), "Bolalikning ovozi" (1986), "Qaqnus" (1987), "Bahordan bir kun oldin" (1989), "Bibixonim" singari kitoblari, "Samarqand xayoli" (1991), "Sohibqiron nabirasi" (1995), "Shahidlar shohi" (1998), "Bibixonim" (2006), "Kubroning tushlari" (2010) nomli qissalari dunyoga keldi.

Tarjimon sifatida N. Zabolotskiyning "Turnalar" (1985), M. Chaklaysning "Ot o'yin" (1986), O. Vatsietisning "Tomoshabog'" (1987), "Dengiz yaproqlari. Yapon she'riyati antologiyasi" (1988), tatar xalq dostoni "Edigey" (2012), Sharq va G'arb shoirlarining muhabbat to'g'risidagi she'rlaridan iborat "Qirq bir oshiq daftari" (1989) majmuasini, J. Rumi, A. Axmatova, M. Svetaeva, O. Mandelshtam, M. Mushfiq, O. Umar, Yu. Emro, N. Hikmat va boshqa ko'plab shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga o'girdi.

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron 1989-yilda Mahmud Qoshg'ariy nomidagi Xalqaro mukofot, 1997-yilda "Do'stlik" ordeni, 2009-yilda Xalqaro "Oltin qalam" milliy mukofoti bilan taqdirlangan.

VATAN HAQIDA YETTI RIVOYAT

BOBOLAR MOZORI
Dunyoning yarmin olib
Yarmiga qilib da'vo.
Tinmasdi janggoh aro
Shon-shavkatli shoh Doru.
U qonga o'ch ko'zini
Tikdi yangi yerlarga
Va hayqirdi so'zini
Kutib turgan erlarga.
– Dengiz ortida cheksiz
Yastanib yotar bir dasht.
Uni o'ylab kunu tun
O'yim bitmas
Dilim g'ash.
Bir chetida bahoru
Bir chetida saraton.
Bir yog'ida tun cho'kar
Bir yog'ida balqar tong.
Ko'klam chog'i bepoyon
Bu dasht chechakday
yashnar,
O'sha dashtda amrimga

Bo'ysunmagan xalq
yashar.
Necha zamon ilgari
Ular bizni xor etgan.
Bobolar qo'shinini
Jangda toru mor etgan.
Ulardan olmoq kerak
Ajdodlarning o'chini.
Bir ko'rsatib qo'yaylik
Qilichimiz kuchini.
... Shoh so'zini aytdi, bas –
O'ylamoqqa hojat yo'q,
Yangradi jangari sas
Sadoqlarga tushdi o'q.
Yetti yuz ming askarni
Boshlab tog'u rog' aro.
Dengiz oshib, dashtliklar
Yurtiga kirdi Doru.
Yov duch kelsa
Parchalab
Tashlayman, deb o'ylardi.
Vazirlarga: "Menga teng

Shoh yo'q! " – deya
so'ylardi.
Xabar aytar josuslar:
"Dashtliklar uzoq emas
Forslar to'xtasa, to'xtab,
Yursa, qarab o'tirmas.
Yuklaydi-yu o'sha dam
Otlariga ko'chini,
Yo'lga tushar xotirjam
Dashtliklarning qo'shini.
Oralari bir kunlik
Yo'ldir –
Ammo beado.
Qancha ko'chib yurmaylik,
Tugamaydi bu sahro... "
Taxtidan tushmay, ko'zdan
Kechirarkan sahroni.
Josuslar aytgan so'zdan
Vahm bosdi Doroni.
Vazirlarin chaqirib,
Qilgan bo'lib maslahat.
Yov oldiga choparin
Yubormoqni qildi ahd.

“Shamol kabi yelginu
 Tez izingga qayt!” – dedi.
 “Dashtliklarning shohiga
 Mening so`zim ayt!” –
 dedi.
 “Aytgin, – dedi, – ey,
 odam,
 Qochaverma, bo`ldi bas.
 Jang qilmay yovdan
 qochmoq
 Shohlarning ishi emas.
 Quyondek qochavermay,
 O`zingni qiynamagin.
 Kuching bo`lsa
 Jang qilib
 Sen meni qiymalagin.
 Mendan qo`rsang
 Yo ojiz
 Sezsang agar o`zingni
 Qoshimga kel bosh egib
 Yerga tikib ko`zingni.
 Tortiq qilgin yer-suing,
 May ich bitta idishdan.
 Qaysi yo`lni tanlama
 Qutularsan qochishdan”.
 Yov emas, chopar qaytdi,
 Yerga tikib ko`zini.
 Va tiz cho`kib Doroga
 Yetkazdi yov so`zini:
 “Forslar shohi!
 Bilib qo`y,
 Xoh inonma, xoh inon:
 Lekin dushmandan qo`rqib
 Qochmaganman hech
 qachon.
 Bilib qo`y,
 Sen kelmasdan
 Qanday yashagan bo`lsam,

Shunday qo`rquv
 bilmasdan
 Yashayapman hozir ham.
 Bilib qo`ygin,
 Bizlarda
 Na shahar, na qishloq bor.
 Toki sendan ularni
 Himoya qilsak, g`addor!
 Yana takror aytaman,
 Qochganim yo`q yov kelib.
 Avvalgiday ko`nglim shod,
 Ko`chib yurib, ov qilib.
 Dasht – bizning keng
 uyimiz,
 Yer – to`shak.
 Ko`k – ko`rpamiz.
 O`rtamizda quvonch, g`am.
 Barin baham ko`ramiz.
 Ammo cheksiz dasht aro
 Bir mozor bor –
 U yerda
 Bizning qadim ajdodlar
 Yotibdi har bir go`rda.
 Agar sen g`azabimiz
 Kuchini bilmoq bo`lsang
 Agar sen dashtliklarning
 O`chini bilmoq bo`lsang,
 O`sha mozorni topib,
 Bir qabriga tegib ko`r!
 Sening nopok qo`lingdan
 Ozor topsa biror go`r:
 O`sha zahot bilursan
 Biz qanday jang qilurmiz.
 Har bittamiz yuztangiz,
 Mahv etib yiqilurmiz.
 Toki o`sha mozorga
 Qo`l urmasang
 Ey, Doro,
 Avvalgiday bermalol

Yashagaymiz dasht aro”.
 Bu so`zni eshitgan shoh
 Qo`rquv sezdi ko`ksida.
 Qo`rquv yulduzi yondi,
 Vahm bosgan ko`zida.
 Avvaliga qo`rquvni
 Bosib yo`qotmoq bo`ldi.
 “Mendan zo`r podshoh
 yo`q!” – deb
 Ichi g`azabga to`ldi.
 Taxtidan sapchib turib,
 Amrimni aytay, dedi.
 Manman yovga chang urib,
 Zabt etib qaytay, dedi.
 Aytmoq bo`ldi:
 – Mozorni
 Topib tez g`orat qiling!
 Har bir dushman go`rini
 Kovlab haqorat qiling!
 Ammo o`sha dam yana
 Qo`rquv dilin g`ashladi.
 Dashtliklar aytgan so`zlar,
 Yana yangray boshladi:
 – O`sha zahot
 bilursan
 Biz qanday jang qilurmiz.
 Har bittamiz yuztangiz,
 Mahv etib yiqilurmiz!
 Ko`zini qamrab qayg`u
 Es-hushi og`gansimon.
 Chodiridan chiqib u
 Boqdi cheksiz dasht
 tomon.
 “Qani, tezroq bu yerdan
 Ketaylik, – dedi keyin, –
 Men angladim
 Bu xalqni
 Jangda yengmoqlik qiyin!”

1989

BIR PARCHA YER
 O`ldirilgach qari Tuman
 Hukmdor deb yosh o`g`lon
 Xunnu degan xalq ustidan
 Tezda qilindi e`lon.
 Bu xabarni eshitarkan
 Qo`shni xoqon o`yladi.
 O`ylab-o`ylab vaziriga
 Shu gaplarni so`yladi:
 “Xunnularning hukmdori

Juda yoshdir...
 Shu sabab
 Elchi borib, u boladan
 Ushbuni qilsin talab:
 Xunnularda muqaddas ot
 Bordir – xuddi sutdek oq,
 Chiqararmish kumush
 qanot
 Osmonda oy to`lgan choq.
 O`sha otni endi bizga

Hayallamay berishsin.
 Gapni cho`zib o`tirmasdan
 Toshlarini terishsin”.
 O`sha zahot qo`shni yurtga
 Shoshilinch chopar ketar.
 Oqshom cho`kib,
 Quyosh ufqda
 Qizargan chog`da yetar.
 Aytar: – Xoqon ushbu
 so`zni

Yetkaz, dedi sizlarga.
 Xudolarning otin tezda
 Topshirasiz bizlarga.

Bermasangiz
 Kelajakmiz
 Boshlab yovqur zotlarni
 Sizdan tortib olajakmiz
 Uyur-uyur otlarni...
 Qo`shni xoqon so`zin
 tinglab
 G`azablanar chollar ham.
 Yigitlarning qo`li esa
 Tig`larni qisar mahkam.
 Yosh hukmdor –
 Mate esa
 Hayqiradi: – Qo`shnidan
 Bitta otni ayaymizmi,
 Ne dedingiz, yaxshilar?!
 Muqaddas ot o`sha zamon,
 Jo`natilar shoshilinch.
 Otni ko`rib qo`shni xoqon
 Yuzida o`ynar sevinch.
 Sevinarkan,
 Yana uzoq
 Tuni bilan o`yladi,
 Tongda turib vaziriga
 Shu gaplarni so`yladi:
 –Aytmadimmi yosh bola
 deb,
 Xunnularning xoqonin.
 Olishniyam o`ylamaydi,
 Og`zidagi tolqonin.
 Amrim eshit,
 Chopar yana
 Yo`lga chiqsin jadallab.
 Endi Mate qulog`iga
 Yetkazilsin bu talab:
 “Mate

Bizga yetib keldi
 Xotiningning jamoli
 Oydek emish,
 Sochlarini
 O`rarmish dasht shamoli.
 Yuz-ko`ziga
 Maroqandning
 Bo`yoqlari chekilmish.
 Xullas, uning dog`i bizning
 Yuragimiz chok qilmish.
 So`zimiz shu:
 Qoshimizga

Yubor dashtning gulini.
 Shodmon qilsin kelib
 tezroq,
 Bizdek g`arib qulini.
 Yubormasang
 Tez bilursan,
 Qo`llarimiz hamlasin –
 Olajakmiz tortib sizdan
 Xotinlarning hammasin”.
 Chopar jo`nar
 Quyosh botmay,
 Yetib borar manzilga
 Xunnularni pisand etmay
 Chopar kiradi tilga:
 –Hoy, xunnular!
 Birpasgina
 Shovqin solmay turinglar.
 Endi bizga xoqoningiz
 Xotinini beringlar.
 Chopar so`zin tinglab
 yana,
 Chollargacha qalqishar.
 Kampirlar ham vijdoni
 yo`q,
 Qo`shni xonni qarg`ashar.
 Yigitlarning qoni qaynab,
 Bir-birini itarib:
 “Mate, bizni jangga
 boshla!” –
 Derlar shovqin ko`tarib.
 Mate esa ko`pni ko`rgan
 Hukmdordek xotirjam.
 So`z boshlaydi
 yurtdoshlarin
 Atrofiga qilib jam.
 –Qo`shnilardan ayamadik,
 Xudolarning otini.
 Nahot endi,
 Kelib-kelib
 Ayasak bir xotinni!
 Xunnular jim
 Qovoq solib
 Bo`ysunishar Matega.
 Chopar bo`lsa,
 Jo`nar bosib
 Oyjamolni otiga.
 Uni ko`rib, bor aqlini
 Yo`qotar qo`shni xoqon.
 Vazirini chaqiradi,
 Huzuriga o`sha on:
 –Aytmadimmi yosh bola
 deb

Xunnu hukmdorini.
 Qo`rqqanidan
 G`ing demasdan
 Jo`natdi u yorini...
 So`ng buyurar:
 –Chopar yana
 Jo`nasin tez jadallab.
 Endi Mate qulog`iga
 Yetkazilsin bu talab:
 “Bizning yurtga tutash
 joyda
 Xunnularning yeri bor
 Bir parcha yer...
 O`n ikki oy
 Yomg`ir tushmas – suvga
 zor.
 Hatto qushlar chetlab
 uchar,
 Chetlab o`tar har karvon.
 Qishin-yozin o`lim komi,
 Duch kelmaydi bir hayvon.
 Unda unmas biror giyoh,
 Chorvaga ham yaramas.
 Xunnularning o`zi hatto
 O`sha yerga qaramas.
 Amrimiz shu
 So`zimizga
 Quloqlarin bursinlar.
 O`sha kaftdek parcha yerni
 Tezroq bizga bersinlar!
 Bermasalar
 Tez borurmiz
 Boshlab qonxo`r erlarni,
 Zabt eturmiz xunnularga
 Tobe bo`lgan yerlarni!”
 Chopar jo`nar shitob bilan
 Qamchi urib otiga
 Va dunxular talabini
 Yetkazadi Matega.
 Chopar aytar
 Uning so`zin
 Tinglab chollar o`ylashar,
 So`ng Matega birin-ketin
 Salmoq ila so`ylashar:
 “Biz ulardan ayamadik,
 Hatto osmon otini.
 Qo`shni yurtga jo`natildi,
 Hatto xoqon xotini.
 Ular so`rab turgan yerda
 Ko`kdan tomchi suv
 tushmas.

Karvonlar ham chetlab
o`tar
Ustidan bir qush uchmas.
Bir parcha yer...
La`nati yer...
Aql bilan qaraylik,
O`sha yerni, mayli,
ochko`z,
Qo`shnilarga beraylik!”
Ammo Mate g`azab bilan
Qilichini ushlaydi.
Alam yonib ko`zlarida
Lablarini tishlaydi:
–Hoy, esini yo`qotganlar,
O`ylab ayting gapingiz.
Bo`lmasam, naq
g`azabimga
Duchor bo`lar ko`pingiz.
O`sha sizlar aytgan yerda,

VATAN TUPROG'I

Qo`shni yurtni bosib olgan
Eron shohin ko`ngli chog`.
Bazm ila o`tar edi,
Har bir lahza, har bir choq.
Ammo tezda qo`shni
yurtdan
Ayg`oqchilar qaytishdi,
Va podshohga ta`zim bilan
Shu gaplarni aytishdi:
Qo`shni yurtda bizga
qarshi
Pinhon isyon pishmoqda.
Tog`da pisib yurganlar ham
Hozir pastga tushmoqda.
Kecha-kunduz tinim
bilmas
Temirchilar bosqoni.
Shoirlari she`r bitar mast:
“Bitsin dushman bosqini!”
Eron shohi o`yga botib,
So`ngra sapchib baqirar,
Qadahini chetga otib,
Vazirlarin chaqirar:
–Qani, bunga nima deysiz?
Tezroq chora izlangiz.
Huzurimga har bittangiz
Tongda kelib so`zlangiz.
Tong otadi
Ahli dovon

Garchi biror o`t o`smas.
Garchi ko`kdan yomg`ir
tushmas.
Suvlar toshib yo`l to`smas.
Garchi unda o`smas Oltoy
Tog`larining archasi.
Begona yer emas,
U yer –
Vatanimiz parchasi.
Garchi o`sha bir parcha yer
Qizib yotar naq tandir.
Begona yer emas,
U yer –
Bizlar uchun Vatandir!
Dushmanlarga esa aslo
Berib bo`lmas Vatanni –
Undan oldin bermoq kerak
Jangohlarda jon-tanni.
Qani, dilin

Hammasi bo`lar hozir.

To`pdan chiqib, boshin
egib
So`z boshlaydi bosh vazir:
So`z boshlaydi:
–Keching, – deya –
Ahli dovon qonidan,
Bor gapni biz eshitarmiz
Qo`shni yurtning qonidan.
–Hoy, la`nati! – baqiradi
Eron shohi o`sha on. –
Ko`nglidagin aytarmidi
Bizga, axir, qo`shni xon?!
–Aytar, – dedi, bosh vazir
shod,
Milt-milt yonib ko`zlari.
Yangray boshlar o`sha
zahot
Hiyla to`la so`zlari:
“Chorasi bor
Shuni qilsak
Ko`nglin ochar o`sha mard
Buning uchun qo`shni
yurtdan
Tuproq olib kelmoq shart.
Bog`ingizning yarmini shu
Tuproq bilan qoplaylik.
Keyin chorlab qo`shni
xonni
Ulug` shohim, boplaylik –

Vatan mehri
Ilitgan mard bor bo`lsa,
Jangga chiqsin! Unutilmas
Vatan uchun kim o`lsa!
O`sha zahot yo`lga tushar
Xunnularning qo`shini,
Yuraklarga joylagancha,
Ona yurtning ishqini.
Bu shiddatni ko`rib qochar,
Ochko`z xoqon sharmisor.
Bu shiddatga dosh
berolmay,
Dushman bo`lar toru mor.
Vatan ishq doimo haq!
Necha zamon o`tsayam
Ajddodimiz bo`lgan bu
xalq,
Namunadir bizga ham.

1989

Hech nimadan bexabardek,
Lutf qiling mehmonga.
Uni olib o`ting keyin

O`sha tuproq tomonga.
O`sha oni siz bilursiz,
Ko`nglida ne asror bor,
Nimalarni pinhon saqlar,
Yuragida ul ayyor!”
Shoh ham ko`ndi
O`sha kuni
Chopar jo`nab ketadi.
Uch kun o`tmay qo`shni
yurtning
Poytaxtiga yetadi.
Eron shohi aldar, deya
Qilmay shubha
Yo gumon,
Hayallamay Eron tomon
Otlanadi qo`shni xon.
Yetib kelar
Ta`zim ila
Shoh etagin o`padi,
Mushtdek bo`lib bir
chekkaga
U ohista qo`nadi.
Uni ko`rib Eron shohi
Nazar-pisand qilmaydi:
“Bundayin xor bo`lgan
odam
Isyon qila olmaydi”.

Keyin esa
 Vazir so`zin
 Eslab, boqqa yo`l olar.
 Qo`shni yurtning xoksor
 xonin
 U sekin gapga solar.
 Javob berar har so`roqqa
 Xon boshini qilib xam.
 Qulluq qilar har bir gapda
 Olqishlaydi shohni ham.
 Shoh etagin o`par takror
 Xuddi gulni o`pganday...
 Ammo birdan
 Qaddin tiklar
 Bog`yarmiga o`tganda.
 Ko`zlariga nur yugurib,
 Nur sharori ko`pirar
 Shohga tikka qarab turib
 G`azab bilan gapirar:
 “–Qul bo`lmasman senga,
 podshoh
 Qul bo`lmaydi xalqim
 ham.
 Bilib qo`ygin,
 Bo`lgin ogoh!

Voz kechmasman
 haqimdan.
 Voz kechmasman
 ozodlikdan
 Voz kechmasman orimdan.
 Voz kechmasman sen
 toptagan
 Bog`imdan,
 Mozorimdan.
 Seni jangda yengajakman
 Bilib qo`ygin!
 Bo`l ogoh!
 Senga qarshi chiqajakman,
 Qul bo`lmasmiz senga,
 shoh!”
 Uning so`zin tinglab,
 g`azab
 Quchib butun borlig`in,
 Eron shohi tuydi birdan
 Qanchalar nochorligin.
 Tuyar ekan
 Vujudida
 Bosolmasdan titrog`in
 U egilib qo`lga oldi
 Qo`shni yurtning tuprog`in.

Angladi, yurt mehri uyg`oq
 Dilni yengib bo`lmaydi.
 Hatto boshin olsang hamki,
 U baribir o`lmaydi.
 O`sha kuni izzat-ikrom
 Qilib qo`shni xonni u
 Vataniga kuzatarkan
 Dilini quchdi qayg`u.
 U bilardi
 Erta tongda
 Qo`shinini boshlaydi
 Va isyonkor qo`shni yurtga
 Askarlarin tashlaydi.
 U biladi
 Bu savashda
 U toru mor bo`ladi.
 So`nggi jangda ham
 qo`shni xon
 Ham o`ziyam o`ladi.
 Shuni o`ylab vujudini
 Quchar armon titrog`i
 Qanday buyuk kuchdir,
 axir,
 Ona-Vatan tuprog`i!

1989

LOLA GULLI PIYOLA

Agra aro
 Kezadi mish-mish:
 Saltanatning egasi Bobur
 Qirq kundirkim, xasta yotarmish,
 Xira tortmish ko`zlarida nur.
 Xos tabiblar
 Kezarmish mahzun,
 Shoh dardiga topolmay chora.
 Xotinlarin dardlari fuzun,
 Farzandlari emish sadpora.
 Na may bazmi
 Na gulob toti
 Yoqmasmish shoh ko`nglida chiroq.
 Qolgan emish xira surati,
 Rangi emish bamisli tufroq.
 Zarafshonbog` ichida tanho.
 Holsiz, tolg`in sayr aylarmish.
 “Koshki o`lsam dag`i bu darddan
 Bo`lsam xalos”, – deya aytarmish.
 Nima uning ko`nglini qiynar,
 Nima buzar uning xayolin?
 Qanday qurt u –
 Kemirar, chaynar,

Quritmoq bo`p hayot niholin?

Horitdimi uni saltanat,
 Horitdimi uni yo qalam?
 Qaydan kirdi vujudiga dard,
 Qaydan bu g`am?
 Qaydan bu alam?
 ... O`sha kunlar donishmand bir chol
 Shoni yetib keldi quloqqa:
 Ul bengallik ochar emish fol
 Boqib turib bir kaft tuproqqa.
 Sodiq navkar yo`l oldi shitob
 Ayamasdan na ot, na o`zin,
 Yelib ketdi, qayda, deb, Panjob –
 Eshitay deb donishmand so`zin.
 Donishmand Hind qildi bashorat:
 “Uni ta`qib aylar piyola,
 Piyolaga chekilgan surat:
 Yetti dona qip-qizil lola”.
 Yana aytdi: “Shundan shoh lohas,
 Shundan shohning dilida faryod.
 Ul piyola bo`lmish muqaddas,
 Shoh yurtining xokidan bunyod”.
 Sodiq navkar otini burib

Yarim tunda ortiga qaytdi.

So`ng beklarning qoshiga borib,
Bengal cholning so`zini aytdi.
Eng kekxa bek birdan egdi bosh,
Ketgandayin belidan mador.
Shivirladi ko`zlarida yosh:
“O, Turkiston, muqaddas diyor!
Qora quvg`in so`qmoqlarida
Kezdik, g`amdan bo`lgancha ado.
Ammo, ne-ki yurtidan esdalik,
Ko`zimizga qildik to`tiyo.
Qay yurtlarda sarson yurmadik,
So`nggi umid gullarin tishlab.
Biz adashib ketdik kemadek,
Ona-Vatan qirg`og`in tashlab.
Garchi qilich,
Tig`larimizni
Tashlamadik janggoh, yo`llarga,
Ular sovuq dillarimizni
Isitguvchi taft yo`q ularda.
Orziqtirmas yurt xoki kabi,
Orziqtirmas ular dillarni.
Ular sovuq
Yurt xoki, deya
O`pib bo`lmas, axir, ularni.
On hazratga ul piyolani
Tiramohda bergandim – uni

Olgan edim Samarqand yoqdan
Kelgan karvon mol sotgan kuni”.
Beklar sukut qildilar uzoq
Eshitildi yurakda nola –
Chorlar edi ularni bu choq
Samarqanddan kelgan piyola.
Ammo ular nigohi tushdi
Bo`m-bo`sh turgan yoqutdor taxtga.
U turardi o`xshab kimsasiz,
Ko`chalarda adashgan baxtga.
Qaror bitdi
Va hamma ko`ndi –
G`amni tuyib xasta vujudda,
Piyolani maydalab ko`mdi
Mo`ysafid bek shahardan chetda.
Bobur qaytdi taxtiga yana –
Garchi dilda g`am ildiz otmish,
Garchi Vatan sog`inchi siyna
Aro xuddi xanjardek botmish.
... Ammo tunlar sodiq beklarning
Uyqusidan yo`qoldi orom
Boqarlar ufq tomonga behush,
Ilon kuyga bo`lganidek rom.
Shomda quyosh botayotganda
Yer ostiga ko`mik piyola
Siniqlari uzra gulxanday
Tovlanadi yettita lola.

1984

VATAN MEHRI

Bu voqea ko`p qadima
Zamonlarning naqlimas
O`tgan bo`lsa, yuz yigirma
Yil o`tgandir,
Ko`p emas...
Podshohlari uxlab yotgan
Yurtga dushman kirganda
Bola demay,
Qari demay,
Ayamasdan qirganda.
Buxoroga qochib borib,
Amir pisib yotgan payt
Xon amirni,
Amir esa
Xonni yovga sotgan payt.
Yer bo`yalib alvon rangga
Yosh to`kkanda xor
bobom,
“Elim” deya chiqdi jangga

Samarqandlik mard
Bobon.
Qo`lga tushmay olishdi u
Hurlik mayi qilib mast,
“Yurtim” deya solishdi u
Lak-lak yovga basma-bas.
Yigitlari tinmas edi,
Yarim tunu tonglarda
Jangdan keyin esa pinhon
Bo`lar edi tog`larda.
Hech kim bilmas ular qay
jar
Qay darada bekinar.
Kaufmanning joni chiqar,
Mirshab kabi so`kinar.
Pistirmalar qo`yar ovloq,
Pastqam yo`llar chetida.
Ayg`oqchilar izg`ib yurar,
Bozorlarning ichida.
Ammo bir kun sahar payti
Quyosh ko`kka chiqarkan,

Habash kabi qop-qora tun
Chodirini yig`arkan.
Yelkasiga miltiq ilgan
SNormo`ylovli sallotlar
Tog` ichidan chiqib kelgan
Cholni tutib oldilar.
Chol yonida nevarasi
Horg`in qadam tashlardi,
Uchta badmast sallot unga
Kalxat kabi tashlandi.
Qo`llarini buradilar,
Qaramay ko`zyoshiga,
Va ularni keltirdilar
Yarimpodshoh qoshiga.
O, tarixning bitiklari
So`ylab bergan necha bor,
Botirlarning amalin yo`q –
Etgan deb xiyonatkor!
Xuddi shunday sotqin bir
kas
Cholga zimdan tikildi,

Kaufmanga ta'zim ila
 Yetti marta egildi.
 –Men bilaman bu cholni, u
 Shu tog'da ov qiladi.
 Bu tog'larning har qarichin
 Juda yaxshi biladi.
 Yaxshi bilar bu tog'u rog'
 Toshlari-yu o'tlarin,
 Mol iziga qarab, qay chog'
 Aytib berar o'tganin.
 Faqat shu chol topib berar,
 Pisib yurgan Bobonni...
 Chor salloti amr etar:
 –Olib keling boboyni!..
 Keyin esa aytar tajang:
 –Ikkoving ham o'lasan!
 Faqatgina yo'l ko'rsatsang,
 Tig'dan xalos bo'lasan!
 Chol indamas,
 Nevara ham
 Sukut saqlar, jim turar.
 Kaufmanning ko'zi
 o'ynab,
 “Qiyngang!” – deya
 buyurar.
 O'sha zahot chol so'z
 boshlar:
 –O'ylab ko'rdim tanada,
 Siz hukmdor bilan yolg'iz
 Gaplashaylik panada.
 Chetga chiqqach
 Kaufman der:
 –Nima deysan, dayus chol?
 Bir xo'rsinib

TUZ HAQI

Men so'ylayin
 Siz o'ylang –
 Bu to'g'rimi, noto'g'ri?..
 Xullas, qadim zamonda
 Bo'lgan ekan bir o'g'ri.
 Tunni bedor o'tkazib,
 Zo'r bergancha kuchiga.
 Kiribdi u, choh qazib,
 Xazinaning ichiga.
 Hayallamay qopiga
 Oltin-zardan solibdi.
 So'ng “Etar” deb qopini
 Yelkasiga olibdi.
 Chohga qaytib tushay deb

Ko'zin artib
 So'z boshlaydi ma'yus
 chol:
 –Men roziman
 Bobonniyam
 O'zim tutib beraman.
 Bobon yotgan jar ichiga
 Sizni boshlab boraman.
 Faqat, netay,
 Juda uyat...
 Juda uyat bo'ldi-da...
 Men bu ishni qilolmayman
 Nevaramning oldida.
 Qo'l-oyog'in bog'lab, uni
 Tog'dan pastga tashlanglar.
 So'ng orqamdan askarlarni
 Saf torttirib boshlanglar.
 Uni tinglab
 Sallotlar ham
 Achchiq o'yga botdilar.
 Ammo tezda bolakayni
 Bog'lab, pastga otdilar.
 Uchib ketdi bola dodlab,
 Urilgancha toshlarga.
 O'sha zahot chol hayqirdi,
 Ko'zi to'lib yoshlarga:
 –Nevaramdan qo'rqqan
 edim,
 Chidolmas deb qiynoqqa...
 Qo'rqqan edim,
 chidolmasdan
 Sizni boshlar deb toqqa.
 Men-ku qari
 Men qo'rqqamayman

Turgan payti, zulmatda
 Nimadir tovlanibdi

Yo olmos, yo zumradday.
 “Bu gavhari shamchiroq
 Bo'lsa kerak!” – o'ylabdi.
 “Omadim yurishdi”, – deb
 O'z-o'ziga so'ylabdi.
 “Qani bilay” degan o'y
 Kelgan zahot ko'ngliga
 Gavharni yalabdi u
 Shartta olib qo'lga.
 So'ng dong qotib...
 Qopini
 Yukdan xoli etibdi.

Na qiynoq, na o'limdan.
 Men tayyorman,
 Qilavergin
 Ne-ki kelar qo'lingdan!
 Faqat bilgin:
 Tog' ichida
 Seni yengar qo'lim bor –
 Nevaramning otasi-yu
 Mening botir o'g'lim bor.
 Bu voqea ko'p qadima
 Zamonlarning naqlimas
 O'tgan bo'lsa, yuz yigirma
 Yil o'tgandir – ko'p emas.
 Ammo unut cholning nomi
 Unut bola nomiyam,
 O'ch olinmay toshga
 do'nib
 Yotar ular qoniyam.
 Bu qon faqat bahor chog'i
 Unib chiqar gul bo'lib,
 Va so'roqlar: “Axir,
 qandoq
 Yashayapsiz qul bo'lib?”
 Bu sas telba etgan bo'ron
 Gul to'ksayam bog'larda
 Bu so'roqning aks-sadosi
 Yangrasayam tog'larda,
 Baqirsayam tol barglarin
 Aylantirib tillarga,
 Bu sas yetmas
 Muzlab yotgan
 O'chdan xoli dillarga...

1989

Chohdan sakrab
 tushgancha
 Shoshib chiqib ketibdi.
 Kun chiqdi
 Yitdi kecha –

Bu gapdan bo'lib ogoh
 “Vodarig” deganicha,
 O'ylanib qolibdi shoh.
 “Shuncha chuqur choh
 qazib,
 Ishni qoyil etibdi,
 Vale nechun oltin-zar
 Olmay chiqib ketibdi?”
 Aytibdi: “–Jar solinglar,
 Kelib tez qoshimizga”

Bu ishni qilgan odam
 Izohin aytsin bizga!
 Jazo berar, deb, mendan,
 Qo`rqishini bilaman,
 Xudo haqi,
 Jazodan
 Uni ozod qilaman.
 Bu xabarni eshitib,
 O`g`ri shoshib-elibdi.
 Va shohning huzuriga
 Boshin egib kelibdi.
 “Choh qazib xazinaga
 Kirgan odam bo`laman,
 Qol, desangiz, qolaman,
 O`l, desangiz, o`laman
 Boshqalarning dahli yo`q,
 Bu gunohga, ey, podshoh!”
 “Xo`p! – debdi shoh –
 Sen faqat
 Maqsadingdan qil ogoh.
 Shuncha chuqur choh
 qazib,
 Ishni qoyil etibsan.
 Ammo nega bir bir chaqa
 Olmay chiqib ketibsan?”
 O`g`ri debdi:
 “Qopimga
 Ko`targancha oluvdim,
 O`sha qopga zardan ham
 Oltindan ham soluvdim.
 Endi chiqib ketay deb
 Turganimda
 Zulmatda
 Allanarsa tovlandi
 Yo olmos, yo zumradday.
 Ul narsani gavhari
 Shamchiroq deb
 o`ylabman.

OTA QABRI
 Bu rivoyat ko`p qadim
 Yillardan o`tib kelur.
 Ko`p qadim gap bo`lsayam
 Bizlarga ibrat bo`lur.
 ... O`limi yaqinlashib
 Qolganini sezgan chol.
 Uch o`g`lini chaqirib,
 To`satdan berdi savol:
 “O`lsam nima qilasiz?”
 O`g`illar jim turdilar.

Bilmoq uchun...
 Qo`limga
 Olib shartta yalabman.
 O`sha narsa tuz ekan...
 Tuzingizdan totgandim –
 Tuz haqiga rioya
 Qilib chiqib ketgandim.
 Bir tuz totgan yeringga
 Qirq kun salom bermoq
 shart.
 Tuzliqqa tupurmoqdan
 Or qilmas faqat nomard...”
 O`g`rining so`zin tinglab
 Podshoh qoyil qolibdi
 Va o`g`rini taqdirlab,
 Xizmatiga olibdi.
 Bu naql necha marta
 Kelgan mening o`yimga
 Nokaslar bulg`aganda,
 Kirib olib uyimga.
 Ular tuzim totib ham
 Uyim talon etarlar
 Molimni o`g`irlab, so`ng
 Meni “o`g`ri” atarlar.
 Boshimda gurzi ushlab,
 Meni “zo`ravon” derlar.
 Mening mayli,
 Bolamning
 Haqini tortib yerlar.
 Qo`ysang, bo`kib
 qolguncha
 To`ng`iz kabi yeydilar.
 So`ng mehmondo`st
 emassan,
 Ta`magirsan, deydilar.
 Derlar: “Yurting nega boy,
 Unar ming xil narsalar?”
 Sababin bilardilar,

Va nihoyat: “Bilmaymiz!”
 Deya javob berdilar.
 Chol aytibdi:
 “Qayg`urmang
 Siz ham bir kun o`lasiz,
 Xullas, o`lsam,
 Bittangiz
 Merosxo`rim bo`lasiz.
 Ko`p talashib, tortishmang,
 Topolmay tosh-tarozi.
 Qozi qanday hal qilsa,

Ketmonni ko`tarsalar.
 Ketmonni ko`tarsalar
 Saratonda.
 Tush chog`i –
 Balki aytmasmidilar:
 “Yog`da o`zbek pichog`i”.
 Bilarmilar ko`kyo`tal
 Bo`lishini bolalar.
 Kuz kelib muz-qirovga
 Belanganda dalalar.
 Bilarmilar
 Ayollar
 Tiriklay so`lishini.
 Surnmay shodmon xayollar
 O`tda kul bo`lishini.
 Bilarmilar kunu tun
 Bu xalq tinmay ishlashin,
 Tog`dek xirmon ko`tarib,
 Burda nonni tishlashin.
 Ishonar xalq baribir,
 Bobolarning aqliga,
 “Tuzlig`ingga tupurma”,
 Degan buyuk naqliga.
 Bilmasa
 Gapim uqsin:
 Yilning oldi-pastida,
 Bolam kitob o`qisin
 Degan orzu qasdida.
 Ter to`kadi,
 Yog` puli
 Topmoq uchun chiroqqa.
 Tuz to`kilar kun bo`yi,
 Manglayidan tuproqqa.
 Shu tuz haqqi yasharman,
 Ulab kecha-kunduzni,
 Gavhari shamchiroqqa
 Alishmayman bu tuzni.

Bo`ling shunga siz rozi”.
 Kuni yetgan ekan, chol
 Aytibdi-yu, o`libdi.
 Birpasda hovlisiyam
 Odamlarga to`libdi.
 O`g`illar ham “Taqdir” deb
 Izn bermay firoqqa,
 Otani o`sha kuni
 Berishibdi tuproqqa.
 Ertasi, kun chiqarkan
 Xilqatlar yorishibdi.

Qozixona tomonga
 Uch o`g`lon borishibdi.
 Qozi debdi:
 “Bu ishni
 Hal qilmoq juda dushvor.
 Ammo bunday tashvishni
 Hal qiluvchi bir chol bor.
 Makoni g`or –
 Tinch go`sha...
 Chol ko`p gapni biladi.
 U nima desa, o`sha
 Mening hukmim bo`ladi.
 Hayallamay uchovlon
 Chol qoshiga boringiz.
 Yechib berar:
 Otaga
 Merosxo`r qay biringiz!”
 “Umid qilsang ushalgay!”
 –
 Deb o`g`lonlar shu zamon.
 Ketdilar chol yashagan
 Qop-qorong`i g`or tomon.
 Chol indamay tinglabdi
 O`g`illarning so`zini.
 So`ng esa baqiribdi
 Olaytirib ko`zini:
 –Evoh, ota degani
 Nahot shundoq bo`ladi?
 Merosxo`r kim?
 Aytmasdan
 Axir, nega o`ladi?
 Tuturiqsiz otadan
 Ko`nglingizni uzingiz,
 Hoziroq borib uning
 Mozorini buzingiz!
 So`ng qoshimga kelsangiz
 Uchovingiz qaytadan,
 Merosxo`r qay biringiz
 Bo`lishingiz aytaman”
 Ikki o`g`il yugurib
 Ketishibdi o`sha on.
 Uchinchisi o`y surib
 Yo`lga tushibdi hayron.
 To`ng`ich bilan o`rtancha
 Shovqin solib,
 Mushtlashib,
 Yetishibdi mozorga

Ketmonu bel ushlab.
 Har ikkisi merosni
 O`ylar edi dil xushlab.
 Kutib opti ularni
 Kenja o`g`il tig` ushlab.
 “Qani otam qabriga
 Tegib ko`ring-chi!” –
 debdi.
 “o`ldiraman, buzilsa
 Otamning tinchi!” – debdi.
 Aytibdi:
 “Voz kechaman,
 Meros uchun kuymayman.
 Ammo otam qabrini
 Buzishga yo`l
 qo`ymayman.
 Qaytar dunyo deganlar
 Buzib ota qabrini,
 Siz buzasiz aslida
 Bolangizning qalbini”.
 Ikki o`g`il yana chol
 Qoshiga qaytishibdi.
 Va bor gapni oqizmay,
 Tomizmay aytishibdi.
 Chol so`zlabdi:
 “Otangiz
 Maqsadini anglovdim,
 Qabrini buzmoqniyam
 Sinov uchun tanlovdim.
 Siz ikki jirkanch o`g`il,
 Qaytmadingiz bu ishdan –
 Eng og`ir gunoh bo`lmas,
 Ota qabrin buzishdan.
 Yolg`izgina ukangiz
 Ketganlar ruhini xushlab,
 Qabrni buzmoqqa yo`l
 Bermadi qilich ushlab.
 Tig` ushladi yurtini
 Saqlagan botir kabi.
 Asrab oru burdini,
 Bulg`anmadi yosh qalbi!
 Kimda yo`q or va nomus,
 Tirigida o`ladi.
 Hukmim shudir:
 Merosxo`r
 Shu ukangiz bo`ladi!
 Kimda yo`q or va nomus

Mening so`zim tushunmas.
 Merosxo`rlik faqat mulk
 Yoki boylik uchunmas.
 Bu bobolar, momolar
 Qabrini tinch saqlashdir.
 Ota tuzini oqlash,
 Ona sutin oqlashdir.
 Necha qadim ajdodlar
 Xoki erur bu Vatan.
 Yurtni saqlolmas – ota
 Qabrini saqlolmagan”.
 Bizlar qaysi o`g`ilmiz,
 Aytgin zamondosh o`rtoq.
 To`ng`ichmi, o`rtanchami,
 Yo kenjami – o`ylab boq?!
 Garchi juda topqirmiz,
 Garchi juda qaysarmiz,
 O`ylab boqqil,
 Bu yurtda
 Merosxo`rmiz qaysimiz?!
 Bobolar, momolardan
 Qalbin uzib yurgan kim?
 Botir Mahmud Tarobiy
 Qabrin buzib yurgan kim?
 “Merosxo`r – men!” –
 deyshdan
 Avval kelgin, javob ber:
 Nega indamay turding
 Zo`rlanganda Ona yer?
 Ey, sen nomard,
 Ey, beburd,
 Orolni nega so`yding?
 Nega yurtingni manqurt,
 Ko`rlarga berib qo`yding?
 ... Ota, meni kechirgin,
 Yo`q, men qabring
 buzmadim –
 Ammo sening yodingni
 Yo`qotganim sezmadim.
 Sezmadim mozoringda
 O`chib qolgan sham kabi.
 G`ofil o`ylar ichida
 So`nib qolganin qalbim.
 ... O`g`lim, bobong yonida,
 Yotsam, saqla tinchimni.
 Sen meni qo`riqlagin,
 Dast tutib qilichingni.

1. Xurshid Davron lirikasida vatan mavzusining o'rnini qanday? Misollar bilan izohlang.
2. "Vatan haqida yetti rivoyat" dostonida nimalar haqida gap ketadi?
3. Unda xalq og'zaki ijodiga xos qanday unsurlarni uchratish mumkin?
4. Dostonning kompozitsion qurilishi haqida fikr yuriting.
5. Asar yozilishida an'anaviy doston yo'lidan borilganmi?
6. "Vatan haqida yetti rivoyat" qaysi vaznda yozilgan?
7. Dostonda keltirilgan rivoyatlarni birlashtiruvchi nuqta qayerda?
8. Shoir uslubi qaysi o'rinlarda bo'rtib ko'zga tashlangan?
9. Dostonda qanday ma'naviy-axloqiy masalalarga e'tibor qaratilgan?



QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA (1952)

Qutlibeka Rahimboyeva 1952-yil 9-fevralda Toshovuzda tug'ildi. O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim uning ilk she'riy turkumiga "Saodat" jurnalida (1976) "Oq yo'l" tilab, mashqlarida jamiyatni, inson va ijtimoiy voqelik ruhiyatini anglashga, uni tahlil etishga intilish ustuvor ekanligini qayd qilgan edi. She'riy to'plamlari: "Yuragimda ko'rganlarim" (1981), "Uzun kunduzlar" (1984), "Uyg'onish fasli" (1989). Hikoyalar to'plami: "Chiroylisan, muhabbat".

Uning "Qishning oxirlari" dostonida "o'zbeklar ishi" fojialari umumlashtirilgan; "Tavba" dostonida umr bo'yi ikki xil hayot kechirgan, ikki xil qiyofada yashab, jamiyat manfaatlari yo'lida o'zini qurbon qilgan majruh bir inson haqida, uning ruhiy azoblariyu fojiali taqdiri haqida bahs boradi. Shoira "Tohirning Zuhrosi" nomli dramatik asar ham yozdi. U tarjimon sifatida Lesya Ukrainka, Marina Svetayeva kabi shoiralarning asarlarini ona tilimizga o'girdi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Qutlibeka Rahimboyeva 1999-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

QISHNING OXIRLARI

– Ona, nega odam siyrak ko'chada-ko'yda?
Kun yoyilib ketgach, turdim. Non
yopayotgan
Onam bilan muloqotim shunday boshlandi.
Men qo'msagan mehr bilan termildi onam:
«Ajnlari shoxa-shoxa bo'lib ketibdi» –
O'ylaganim ko'zlarimga keldi – yoshlandi.

– Inlarini suv sovutgan chumolilarday
Tizim-tizim odamlarning ichidasan-ku.
Odam aro odamlarga zormisan, bolam...
Onam gina qilayotir araz aralash,
Netay, yillab ololmayman holidan xabar
Sog'inch tortib, uzilguday bo'lar jon tolam.

– Kolxozchiga qish degani bir nafas tinim,
Issiq kunda paxtasi bor – qo'li tegmaydi,
Xotin-xalaj yirtiq-yamoq, kir-chirga
tushgan.
Suvkog'ozda pana etib tomorqasini
Pomidoru bodring ekib, bozorga eltar
Erkaklarga hozir parnik ishqi yopishgan.

Birdan «lov» lab ketishimga shu gap yetarli.
– Ona, nahot kunduzi bir tutam qishni ham

Mayda-chuyda tashvishlarga yem etar
qishloq?!
Boshqa birov sizlar kabi jonin ayamay
Qattik yerni tilib tillo undirsa edi,
Jannatmisol joyga borib kelardi qishlab.

Ko'zga sig'mas dengizlar bor, axir, dunyoda,
Daryolar bor – tovushlari toshni yorguvchi
To'lqinlari qo'rqmas qushlar uchun
belanchak.
O'tloqlar bor – yomg'ir ichib, ko'karib
yotgan,
Havolar bor – bir yutumi ming dardga davo,
Tog'lar qancha, sharsharalar, o'rmonlar
qancha?!

«O'z uyimiz – o'lan to'shak», desangiz agar
Qattiq qishni sal yumshatmoq – ilitmok
uchun,
Axir, ona, shu yerda ham topilar imkon.
Hozir ne ko'p – shudgor maydon,
g'o'zapoya ko'p.
Katta qurlar tuzab, katta gulxan yoqilsa...
Tunlariga olov tegib, yorishsa osmon.

Bu qurlarga «Lazgi» kirs, urilsa qayroq.
Go`ro`g`liyu Avazxonlar tirilsa qayta
Baxshilarning suvday oqqan tizmalarida,
Bo`z yigitlar kurash tushsa, o`lan aytisalar
Yuragida bulbuli bor ozg`in momolar,
Qizlar qushday uchib yursa xizmatlarida...

Yengil «uh» lab, siniqkina jilmayar onam,
Kinoya yo`q, ta`na ham yo`q ko`zida, lekin
Pasayaman... tutilaman... to`xtab qolaman.
– Besh-olti yil pul bo`lmadi kolxozdan
durust,
Har bir uyning bir etakdan qorako`zi bor,
Yo`qsa, qishda emgak kimga havas, bolam-
a?!

Bu kuzak-ku xiyla yaxshi, ko`p
ko`pirmadik.
Beshni besh deb, o`nni esa o`n dedik,
shukur.
Ammo oson o`nglanarmi ko`p chuvalgan ip.
Daromaddan umidimiz yo`g`masu, lekin
Tomorqadan uzilolmay turibdi qishloq,
Otchet¹⁰⁴gacha obu havo o`zgarmasmi deb.

...Men onamdan nigohimni olib qochaman:
Qish qishligin qilayotir – porillab chiqqan
Quyosh izmi bulutlarga o`tib ketibdi.
Haligina barglarining yerga sakrashin
Ko`rib zavqdan shoxalarin silkitib kulgan
Og`ochlarning boshlarini tuman tutibdi.

Goh tumanni, goh quyoshni kiyib-echyotgan
Paxsa uyli, tuproq yo`li kaftday shu qishloq
Aziz Vatan ichra aziz Vatanim mening.
Beshikdagi so`z aytmagan go`dagidan to
Aytib tolgan, qaytib qolgan chollarigacha –
Katta-kichik qadrligim, jonimga tengim.

*So`ng yozilajak xatlarimning
birinchisi – qishlog`imga*
Tuqqan yerim, bolangmidim bir,
Qiyin kunlaringda yo`q edim.
Kelib ko`rmay sha`ningga, axir,
Yaltiragan baytlar to`qidim.

Yo`q edim-ku farmon – o`q tegib,
Ulkan tutlar qulaganida;
Qushlar Vatan qayg`usin chekib,

¹⁰⁴ Otchyot – bu yerda hisobot-saylov majlisi ko`zda tutilayapti.

Qora kiymay yig`laganida;
Yo`q edim-ku soy, yoplar cho`kib.
Suvlar tildan qolgan chog`ingda;
Quyosh seni ovutib, o`pib,
Yana o`zi yongan chog`ingda;
Yo`q edim-ku og`uli dori –
Tuproq`ingning kuchin qirqqanda;
Sho`ri toshday manglayin yorib,
Otiz¹⁰⁵larga qalqib chiqqanda:
Tashing soqov – so`zlidir iching,
Necha sirlar yotibdi tuguk.
Sening kecha kechgan kechmishing
Bir shoirning qalamiga yuk.
Aylanmasam, elim, tilingga,
Ovozingni yoyolmasam keng,
Qumursqaman So`zga ilingan,
Shoir bo`lib kim bo`libman men.

* * *

– Ko`rishiboq shu xabarni yetkazmayin deb
Oqshom senga so`z ochmagan edim.
Norguling
Raislikdan tushirildi, ishi tergovda.
Yomon toydi, yomonlarga qo`shilib toydi.
Do`sting edi, qora kunda qochdi demasin,
Kirib chiqsang bo`lar edi, bolam, birrovga.

Onam gapi o`ylarimga tekkan o`q bo`ldi,
To`rt tarafga sochilganday to`rt mucham
go`yo
Talay fursat yig`olmadim o`zimni-o`zim.
– U ham qo`shib yozishlarga aralashganmi,
Qattiq zahmat – quruq hamyon... kasrimi
uning...
Ich-ichimdan og`riq bilan chiqdi har so`zim.

– Tuproq tirnab o`tgan edi ota-bobosi.
Kelib-kelib kolxozchining bolasi bugun
Kolxozchining bolasiga qildi xiyonat.
Mening onam tabiatan halima ayol,
U-ki shunday qattiq gapga bordimi, demak
Norgulning el-yurtga tekkan xiyla ziyoni...

Yo birovning o`tlariga kuyib yuribmi...
O`zim shunday o`ylardimu, o`ylaganimda
Tushunarsiz chalkashliklar bordek tuyuldi.
Onam xuddi tushlarimda so`ylayotgandek:
– Qonimiz bir, ikki etar nonimiz deya
Norgul rais bo`lganida qancha suyundik.

¹⁰⁵ Otiz – ekiladigan yer

Oyog'ida loy yo`q edi, oldinlar elning
O`ti bilan kirib, kuli bilan chiqardi.
Birov unga amalini bermasdan oldin
Bir chekkaga olib qo`yib o`zingning boshing
Biz bergan bu boshni kiyib ishlaysan deya
Shart qo`ymagan bo`lsa kerak, tushunmay
qoldim.

So`ngra onam boshqa ruhda, boshqa
ohangda
Gap jilovin o`zga yo`lga burib yubordi.
Og'ir-og'ir qarashimdan toldi, shekilli.
Lekin Norgul xayolimdan uzoqlashmadi.
Yursam-tursam qadrdon ham ma'yus suvrati
Tasavvurim ko`zglasidan turdi tikilib.

Ikkinchi xatim –

Norgulning bolaligiga

Ana, sen turibsan – sochlaring buyra,
Egningga kiyganing alvon rangli chit.
Men keldim alamning dashtidan kuyrab,
Beg`ubor so`zlar de – muzdayin suv tut.
Ana, novvot mavjli Bo`zyopning labi,
Tuproqni to`zg`itib elaysan «un» lar.
Shaharlik qizchalar ko`ylagi kabi
Oq ko`ylak kiradi tushingga tunlar.

Cho`plarni saralab, yasab qo`g`irchok,
Shodlik yaratasan o`zingga-o`zing.
Ana... chaqiryapti kulib qo`ng`iroke,
Endi sen onangmas, maktabning qizi.

Ana, «bolaligim shunchalar go`zal»,
Deya she`r yodlaysan titrab tovushing.
So`ng esa yagana qilasan g`o`za,
Tuproqqa ko`milib yelim kovushing.

Ana, sen... shu go`zal bolalik haqda
Insholar bitasan oppoq kog`ozga.
So`ng esa egilib terasan paxta,
Manglaying yalatib kechki ayozga.

...Yodim yo`llarini bosmokda tuman.
Nahotki ilk fasling shunday tugaydir?!
Kitoblar yozgandek, ming rangli quvonch –
Ming ism sho`xliklar senga o`gaydir?!

O`gaymas, bor necha bayram oylari –
Qarog`ingdan uchqun sachratgan sho`x-
sho`x.

Faqat kashshoflarning ganch saroylari,
Lager` gulxanining alangasi yo`q.

Sayru sayohat ham borday chamasi: Xiva.
G`isht ko`chalar. Niliy minorlar.
Lekin yo`q dengizning kuchli nafasi
Va tog`lar boshida gullagan qorlar.
Ana, sen... turibsan ko`zimda to`xtab,
Boshqa bor chizgilar o`chadi yodda.
Kokiling o`rgansan onangga o`xshab,
Qo`llaring ingichka, nigohing sodda...

Mudom suyub, silamaydi boshimni hayot.
Goh zarba yeb yiqilaman do`stu
dushmanidan,
Men hammadan qochgim kelar bu og`ir
damlar.
Ko`zyoshimni «ko`z-ko`z» lamoq
istamayman hech.
Jilmayishga urinaman bor kuchim bilan,
Meni faqat kuchli ko`rsa deyman odamlar.
«Balki, hozir Norgulda ham shunday
holatdir», –
Degan xayol meni ko`p bor itardi izga,
Lekin uni ko`rmay ketsam ichim yonardi...
Bolakaylar chug`urlashib maktabdan qaytar,
Paxta yog`in hidi anqir derazalardan.
Kun qizarib botayotir yoriq anorday.

Xorazmda qish faslida suvlar oqmaydi,
Xazonlarga to`lib ketgan uzun solmalar
Oyog`i yo`q xasta kabi sarg`ayib yotar.
Bari bir ham shu solmalar, ozg`in og`ochlar,
Ohaklarin yomg`ir yuvgan rangsiz devorlar
Ko`zim ko`yib yubormaydi, bag`riga tortar.

G`o`zapoya boshin ezgan baland-past uylar,
Kuyugini «puf» lab yotgan qora mo`rilar...
Bir qarashda iz soladi dilingga xira.
Men-ku kecha shu hayotning bir qismi edim,
Nahot bugun u ham mening parcham emas –
u
Olislarda qolib ketgan jonsiz xotiram...

... Men she`r dedim, maktab bitgach,
Toshkentga ketdim.
Norgul esa... borolmadi, qoldi qishloqda.
Oramizda yozishmalar uchardi tez-tez
Uzun-qisqa muvashshaxlar yo`llardim unga.
U gunafsha tasviri bor oppoq konvertda
Yuborardi quritilgan nozvoygul, yalpiz.

«Yig`ilishga keldik», deb goh borib qolardi:
Qo`li qadoq, tovonlarin kesaklar tilgan,

Lablarida po`rsildoqlar – ranggi qorayib.
Andijonda sirdan o`qib, agronom bo`ldi.
Turmush qildim. Men qaytmadim qishloqqa
qayta
Diydorlashish imkonlari ketdi torayib...

...Zvenovoy, brigadir, agronom, rais...
Tarjimai holingning har qatorin, do`stim
Yozayotgan emasmiding mangley ter bilan?!
Men ko`rmagan yillarda sen nelarni
ko`rding,
Ne sababdan misqol-misqol yiqqan
obro`ying,
Qorishtirib qo`yding ekan qora yer bilan?!

...Norgul o`zi qarshiladi ostonadayok,
Yo`llar hozir ko`zlarimga chizgan tasvirlar
Sinib ketdi uning og`ir nigohi tegib.
Uyga kirdik. Ayollarga xos uzun-uzun
So`rashishlar davomida bilib o`tirdim:
Norgul zo`rg`a gapirardi yig`isin yengib.

Non qo`yildi, choy qo`yildi, meva-
chevalar...
U beovoz so`ylar edi, men ham beovoz –
Bo`g`zimizga kelib-kelib qaytardi so`zlar.
Yo`q, bo`lmadi! So`zlar qisdi. Portladim
ketdim;
– Eshitdimu, “Yolg`on bo`lsin!” deb tilab
keldim.
Yolg`on deb ayt! Sen tozasan – nopoklar
o`zga!

Egik boshin birdan keskin tikladi Norgul.
Ko`zlarida sovuq bir o`t yaltirab ketdi,
Men bu o`tni tanimadim, bu o`t edi yot.
– Gaplashgani qo`rqmaysanmi men bilan,
shoir?!
Axir, endi o`ylaganim aytaveraman.
Necha kunki, kishani yo`q: tillarim ozod!

Xalating tugmalarin yechib yubordi,
Norgul ancha et olibdi: hozir payqadim.
Ovozi ham o`zgaribdi; tortibdi yo`g`on.
Ilk bor unga bir qarshilik o`sdi qalbmida:
– Nega endi?! Men yuzma-yuz suhbatdan
emas,
O`z elimga xiyonatdan qo`rqaman, chiqon!

Gap nishonga tegdi chog`i, dovdirab oldi.
Yonog`iga och qizillik qalqib, so`ndi tez.

– «Eling» qayda? Shu yerdami? Menga bir
ko`rsat!
Elmikin shu – ayirolmas yaxshi-yomonni,
Kim yuqori o`tsa unga yoyday egilib,
Kim minbarga chiqa, turib chaladi qarsak!

Ko`zi ochiq lekin hamon ongi-fikri ko`r,
«Qornim to`ysa qurbon hayit» deb
yuraverar.
O`zi kimu o`zgalar kim – o`ylamaydi hech.
Kepak kabi yopishmaydi biri-biriga,
Kimga qora yuqsa, undan nariga qochar,
Har kim o`zi yashasa bas katagida tinch.

Gapirmasdi, baqirardi deyarli Norgul.
Shu ahvolda ketaversa yig`lashi aniq.
Yig`layotgan odam bilan bahslashar nomard.
Sal yig`indim. Vazminlikka oldim o`zimni.
Tutayotir. Tutunlari tarqalsin bir oz,
Men u bilan gaplashmog`im endi juda shart.

– Minoradan bozorni hech kuzatganmisan?
Shunday o`xshash ko`rinadi bari odamlar.
Bir xil so`zlar so`zlaganday tuyular, hatto.
Shunga o`xshab qaysi rahbar piyoda yurib,
Gaplashmasa eli bilan turib betma-bet
Xuddi senday xulosalar to`qiydi xato.

... Norgul turdi, chiroqlarni yoqib yubordi.
Hech narsadan xabari yo`q: nurlandi birdan
Devorlarga oppoq ganchda solingan
naqshlar!
Hech narsadan xabari yo`q: yotar xotirjam,
Javonlarda Marks, Engels, Lenin tomlari,
Har suvloqdan keltirilgan turfa rang toshlar.

So`ngra yana ro`paramga kelib o`tirdi.
Sal bo`shashgan. Asabining tarang toridan
Bir-ikkisi, gapim tegib, uzilgan chog`i.
– Men tanigan-bilgan yillar, Norgul, o`zing
ham
Shu elning bir jon-jigari – bolasi eding,
Kim ayirdi? Qachon bo`lding yovi, yirog`i?

– Meni faqat issiq uyda issiq choy ichib,
Raislikdan davlat yig`gan deb o`ylaysan-a,
O`ylaysan-a, bosmagan deb hech otiz-
chel¹⁰⁶ ni?
Eslaysanmi qay ahvolda edi qishlog`ing?!
Uni songa solgunimcha ko`zim ko`karib,

¹⁰⁶ Chel – jo`yak

To`qqiz yillab ona sutim og`zimdan keldi.

... Ha, yodimda: yomg`ir uzoq yog`di bir bahor,

Bulut osmon egasiday kunlab ketmadi.

G`alvir-g`alvir bo`ldi barcha loysuvoq tomlar.

Zir yugurib suv tashirdik uydan tashga biz,
Sal to`xtasak dod solardi yomg`irning uzun
Qamchisidan xo`p ezilgan chelaklar, jomlar.

...Ha, yodimda: uch tarafi ochiq shiyponda
Guppimizni to`shak qilib, ko`rardik kino,
Zax, izg`irin, saratonda o`g`irib qator.
Cho`chir edik qabristonni yonlab o`tgani,
Vahimali so`z aytardi qablardan ham
Bir necha bo`y o`sib ketgan qora kamishzor.

...Ha, yodimda: quruq sovuq yovday
kelganda

Qish tugamay, ko`mir tugab qolgan kunlari

Qattiq o`tin izlar edik tutqator gazib¹⁰⁷.

Holbuki, bu oltmishinchi yillar o`rtasi.

Holbuki, shu ko`z ko`rgudek yaqin bir joyda
Lovullardi Gazo`choqning atlasrang gazi.

Hozir boshqa: qishloq sal-pal o`zin
o`nglagan.

Norgul to`g`ri aytayotir: kamu ko`st bir oz,

U bosh bo`lgan zamonlarda butlangani chin.

– Kutilmagan qahramonlik emas, bu,

Norgul,

Rahbarmisan – o`z elingni yorug`lik tomon

Siljitmoqlik oddiydan ham oddiy ish

burching.

Unutmagan bo`lsang arap, qo`shni qishloq
ham,

Bir paytlari gadoy boqmas g`arib joy edi.

Shu ahvolda rais bo`lgan O`g`iljon opa.

Besh-o`n yilda zargar ko`rgan tillodek

bo`lib,

Har qarichi pardozlandi. Ko`zga ko`rindi.

To`g`ri odam maqsadiga to`g`ri yo`l topar.

Dam olishga chiqqaniga, mana, necha yil...

Boshliqman deb izzatiga tuflamagan-da,

Eli hamon hurmatiga ko`rpacha to`shar.

– Sen bilmaysan! U kunlarning aravasiyu,

Yo`l, so`qmog`i boshqa edi. Ha, bizda
shunday.

Eski yo`lni buzib, keyin yangi yo`l tushar.

...Asta turib, zich yopilgan darchani ochdim.

Qisilgan nur shosha-pisha sakradi boqqa,

Uch ichiga oqdi yumshoq havo irmog`i.

Daraxtlarning baland qasri yashirib turar,

Bilinmasdi yulduzlimi, oylimi osmon,

Qayerdandir eshitilar mayna sayrog`i.

Norgul esa payqamasdi qushni, havoni,

Qalb tubida qavat-qavat yotgan bulutni

Silkitardi, yog`ar edi yog`may yotgan so`z.

– Ayoz juda erta tushdi bu yil kuzakda:

Yetti yoshdan yetmishgacha dalaga chiqdi,

Tunda chuvib, qishloq ko`sak yig`ardi

kunduz:

Sovuq har tong ko`saklarni kichraytirardi.

Zo`rg`a labin ochar edi ko`sak ko`karib,

Plan to`lmay qoladi deb qo`rqardim juda.

«Plan!» – deya baqirardi menga qog`ozlar,

«Plan!» – deya jiringlardi telefon tinmay,

Xullas, bu so`z tanho hokim – misoli xudo.

Bemahalda raykom meni yo`qladi bir kun,

Qapishganicha o`tirardi ish stoliga.

Yelkasida o`tirganday ulkan bir qayg`u.

Hol so`radi, hol degani paxta... raqamlar,

Nima qilay, yurak yutib, rostini aytdim.

Kutganimday stol mushtlab baqirmadi u.

«Roppa-rosa o`n kundan so`ng raport

berasiz,

Sizni mash`al qilmoqchiman rayonga», –

dedi.

Juda nimjon, juda sirli edi tovushi.

Yo`llarini tushuntirdi ikki qaytadan.

Tushunishni xohlamadim, keskin etdim rad.

O`tirganicha qolaverdi rangi sovushib.

Qo`shni kolxoz mash`al bo`ldi o`n kun
ichida.

Bizni esa ayamadi qaysar tabiat.

Oltmish-yetmish orasida mixlandik – qoldik.

Katta-kichik yig`inlarda chayqalaverdik.

Hamma joyda nomimizga qo`shib aytildi

«Qoloq» degan yomon yorliq – qop-qora

yorliq.

Bahor keldi. Kun ketidan isidi kunlar,

¹⁰⁷ Gazib – kezib

Isimadi katta bilan oramiz ammo.
U tegramga aylantirib doira chizdi.
Qayga borsam, yopilardi ochik eshiklar,
O`zim bo`lsam mayli edi, xo`jaligimni
Bor keragi, yarog`idan bir yo`la qisdi.

Avval shudgor, keyin esa ekish kechikdi.
Suv kechikdi. Ishlov berish, o`g`it kechikdi.
Topilmadi rayonda hech menga qayishgich.
Yuragimni ochib ko`rdim yakka-yarimga,
Yoshullimiz ularga ham imlab qo`yganmi,
«Oqqan daryo bilan oqqan yaxshi», –
deyishdi.

Oxir bordim yoshulliga ariza bilan.
«Sen, qiz, oson ketaman deb tush ko`rib
yurma», –
Shunday dedi va eshikni ko`rsatdi kulib.
«Men kuchliman. Men yengaman!» – deb
pichirladim,
Ayamadim zo`rg`a yig`gan kolxoz pulini
Yo`qliklardan imkon topdim yugurib, yelib.

Lagerda dam olayotgan edi bolalar.
Yakkagujum yonboshiga hovuz qazdirib,
Karavotlar qo`yib rosa bergan edim zeb.
Hammasiga o`roq berib, o`toqqa soldim,
Brigadir qolib, ba`zan turardim o`zim,
Kun dimlasa, salqin izlab qochishmasin deb.

Yopdim do`kon, kutubxona, medpunktarni,
Yaraydigan kampirlarni bog`chaga qo`ydim.
O`yladimki: «Paxta bo`lsin, to`ysin shu
boshliq».
Ishonmaysan, kuno`rtada dim tutqatorda
Hansirab suv ichayotgan yukli kelinlar
Ko`zlariga qarolmasdim... ko`zlarim
yoshli...

...Manglayiga qalqib chiqdi yirik-yirik ter,
Norgul qayta kechar edi kechganlarini.
Shosha-pisha choy uzatdim, qaytardi qo`lim.
– Shoir xalqi xo`p nozik-da,
cho`chiyapsanmi
Tilimdagi haqiqatning raftorin ko`rib,
Ha, u ezg`in, jismi joni ming joydan tilim.

Qay yurakka kirsa, shunga o`xshar haqiqat.
Botir bo`lsag, haqiqating bo`ladi botir,
Sen bechora bo`lsang, u ham qo`rroq,
bechora.

Seningcha, men bechoraman...
kurashmadim-a?
Ochiq aytib, fosh qilmoqqa guvohim qani?!
Agar aytsam «tuhmatchi» deb surtardi
qora...

...Men ham bir bor yuzlashganman shu
odam bilan,
(O`sha paytlar u raykomda uchinchi edi)
Suhbatimiz zig`ir yog`day ko`nglimga
tekkan.
Chunki uning – mafkuraviy kotibimizning –
Yuragida «buyruq, plan, majburiyat», degan
So`zdan o`zga orzu, quvonch, hasrat yo`q
ekan.

Uchinchi xatim –
«O`qiganlarning e`tiqodi shu bo`lsa,
o`qimadim!» – deb oliy maktabni tashlab
ketmoqchi bo`layotgan hamqishlog`im
Oygulga
Kelaman, deganlar kelolmas bunga,
Ketaman deganga so`qmoq – yuz, yo`l –
yuz.
Kunduzda o`tirib, shoshdingmi tunga,
Ketsang rivoyatim tinglab ketgil, qiz.

...Ulkan bir xonlikda tig` bilan zo`rlab,
Baxna etilgan bir o`lka bor ekan.
Bu o`lka bog`ida bitarkan durlar,
Suvlari sharbatli, yeri zar ekan.

Topganin to`rt fasl bersa-da xonga,
Tinchlik bermas ekan bu xalq hech qachon.
Qul bo`lmasin deya inson insonga,
Isyonlar ketidan qilarkan isyon.

To`ydirib, kiydirib ko`ribdi oldin,
Nonga ham, to`nga ham sotilibdi xalq.
So`ydirayin desa – qo`llari oltin,
Xon o`ylab, o`ylari bo`lar ekan talx.

Oxir hukmdorga kimsasiz tunda
Yo`l-yo`riq aytibdi bir oqil avval
(Qarang: qora ishlar rivoyatda ham
Pichir-pichir bilan etilarkan hal).

«Bir xalqning hammasi bo`lmas isyonkor,
Ozodlik neligin bilmaydi bari.
Turg`un daraxtlarni qo`zg`agan shamol –
Besh-o`nta kitobni o`qiganlari.

Kitobni bilganlar – tarixin bilar,
Bilar ertasini, tanir o`zini.
Ketgan g`ururlarni qaytarib kelar,
Tuzini bersa-da, bukmas tizini.

Ularni tubidan o`rib, qutiling,
Gunohu qonidan o`tirmang cho`chib.
Keyin qolganlari tili tutilib,
Sel bosgan olovday qoladi o`chib».

Xonga yoqqan so`zlar qolarmi so`zday,
Bo`libdi badarg`a pichoq yoki dor.
Xalq yuvosh tortibdi, yechingan qizday –
Qalbida kichrayib g`urur, nomus, or.

Bu-ku bir rivoyat – yashagan yoshin,
Kesarmi-kesmasmi, Oygul, yo`lingni.
Lekin bil: manguga tiklanmas boshi
Savodsizga qolsa kuni elingning.

– Shu kurashmi? Odamlarni ozorlash,
xo`rlash,
Yelkasiga tog`ni ko`yib, «yugur» deb
zo`rlash...
Yaxshi rahbar oldin elin, so`ng o`zin
o`ylar...
– Kun-tunlarga maydalardim kuchim,
fikrimni,
Bari bir hech yetmas edim, ulgurmas edim,
Imkonimga sigmasdi sen degan keng o`ylar.

Kuz ham keldi: g`alvirimiz suvdan ko`tardik.
Hosil bo`ldi, emgagimiz qolmadi yerda.
Bulturgiday vazmin edi majburiyat, plan.
Yoshullimiz qirriqligin qo`ymadi sira,
Qo`l kuchidan ko`mak kerak – bordim
noiloj.
«Kuchlisan-ku, eplaysan!» deb uzdi gap
bilan.

Kuchim qayda? Yana maktab, yana
bolalar...
Muallimlar idoramga yig`ilar har tun.
Shaxsan o`zim so`roq-savol etaman bir-bir.
«Sizdan nega ikki bola chiqmabdi bugun?»
«Nega sizda past tashlabdi o`rtacha kilo?»
«Tushuning-da, biz hammamiz paxtakor,
axir!»

Qirov tushdi, keldi tag`in qishning daragi,
Madad kerak, najot istab, obkomga chiqdim.
Bahor-yozgi ko`rguligim so`zladim ochiq.

Ildizini kovlamadi, men indamadim.
O`yladimki: «Raykomga bir «ha» desa
bo`ldi.
Ne topaman boshlig`imning etagin ochib».

«Ishlayvering, biz o`zimiz gapirishamiz,
Sal daryolik qiling faqat», deyishdi,
qaytdim.
Ko`nglim bo`lib yarim xijil, yarim umidvor.
Ko`p o`tmasdan yoshullimiz o`zi chaqirdi,
Turib qarshi oldi, lekin ovozi o`sha.
O`tgan gaplar kechagiday qulog`imda bor.

«Senga ayon: doim tanqis ish ulovimiz,
Yerlarimiz sho`rlab ketgan, suvimiz
kamchil.
Qo`limizda turgan shu kuch, shu imkon
bilan,
Qancha halol ishlasak ham, jonimiz berib
Yelkamizga yuklaganday hosil bo`lmaydi.
Paxta sotib olmaguncha, to`lmaydi plan.

– Yoshulli, shu gapingizni dalil-isbotlab,
Yuqoriga yuz tutsangiz bo`lmasmikin-a,
Balki, yolg`on loylatmagan bir yo`l topilar?!
– Kolxozchini ishlata bil avvalo, deydi,
Yer seniki, dardin topib, davola, deydi,
E, qo`yaver, buyruq uchun tug`ilgan ular.

– Yer haqdagi gaplarida jon yo`q emas-ku,
Siqib-siqib suvin olgan anorga mengzab,
Yildan-yilga tuproq rangi bormoqda o`ngib.
– Xo`sh, qani sen bir yil plan bajarmay ko`r-
chi,
«Bu yerini tuzatyapti» deb ayarmikin,
Har majlisdan qor yeganday chiqasan
to`ng`ib.

Shuning uchun oqim bilan oqaver, singlim,
Qarshi yursang, ko`p suzmoqqa quvvating
yetmas.
Bugun eplab ish qilganning tillari uzun»
Sahar uydan g`idi-bidi bilan chiqqandim,
Og`ir boshim og`irlashdi. Ikkilanardim.
«Sal to`xtalib, so`ng aytay deb» so`radim
izn.

*To`rtinchi xatim – Norgul
ikkovimizning muallimimizga
Bizni aldadingiz, muallim, nega?
Mana, biz ulg`ayib nega yaradik?
Qishga yupun kirgan kimsaday kecha*

Bulut sal qatlansa, cho`chib qaradik.

«Bosmachilar o`tdi, fashistlar o`tdi,
Yomonlar tugadi – tamom!» – dedingiz.
«Neki qora bo`lsa ko`mildi, yitdi,
Bu yog`i tong kabi zamon!» –dedingiz.

«Boshingiz aylansa, asabdan emas,
Baxtdan aylanadi – yo`q do`q-zardalar.
Yurar yo`lingizni devorlar kesmas,
Kessa faqat kesar shoyi pardalar

Cho`pga qoqilasiz qoqilsangiz ham,
Yer – yumshoq. Ko`nglingiz tutavering to`q.
Yelkangizni qismay tashlaysiz qadam...
Chunki pana joydan mo`ljol olmas o`q».

Bizni aldadingiz, muallim, nega?
Balki, bu aldov – oq tilaklaringiz.
Mana, biz kattaydik bo`yga va eng
Lekin kattaymadi yuraklarimiz.

Nega aytmadingiz: «Yashamoq – qiyin,
Yo qiyindan pusib, qochib yurasan.
Yoki kurashasan, egmayсан bo`yin,
Yuraging bo`ronga ochib yurasan!»

Bizni aldadingiz, muallim, nechun?
Mana, biz ulg`ayib nega yaradik?
Mayishdik, kelganda tikka turar kun,
Go`yo shu – eng so`nggi tanho choradek.

– Nega axir oroldagi yolg`iz odamdek
Og`iringni solaverding yakkash o`zingga,
Yon-veringdan izlamading bir tayanch
jonni?!
Hammavaqt ham birovlarda imon qolmagan,
Birovlarda insof, vijdon, lekin baribir
Yaxshilari qolgan-ku bu O`zbekistonning.

Yolg`iz daraxt qancha kuchli bo`lgani bilan
Bir bog`chalik dosh berolmas shamol
zarbiga.
Kurashmoqning oddiy yo`lin unutding,
nechun?
– Uyga borib gap ochmoqchi edim erimga,
Kelsam xolam bir ahvolda, bolalar uyg`oq.
Ishga ketgan otalari qaytmabdi shu tun...

...Norgul choyni yangiladi, so`ng oshxonada
Xola bilan nelarnidir qildi maslahat,
Nazarimda, sal sovutmoq istardi o`zin.

Ro`paramga ruhsizgina kelib o`tirdi,
Yengilgina titrar edi choy tutgan qo`li,
Yig`laganmi – namlanib ham qolibdi ko`zi.

– Yonib-kuyib sevmaganman to`yimdan
oldin,
Xolam menga ona bo`lar, men unga qiz deb,
Bu savdoga bosh silkitib qo`ya qolgandim.
Yotsirabroq yurardim, so`ng o`g`il-qiz
ko`rdim.
To`g`ri edi, bir ozgina injiq bo`lsa ham,
Bora-bora mehrim tushdi, ancha bog`landim.

Nuqul menga: «Sakkiz soat ishla-da, bas qil,
Sen ham uyda bo`lgin, axir, uydaligimda
Yo`qligingda dardi dunyom qorayar», –
derdi.
Bolaligi «Bolalarning uyi» da o`tgan,
Xolam bilan so`ng shaharda yashashgan
uzoq.
Shu sababmi, xush ko`rmasdi kolxozni,
yerni.

Sal burilsam: «Ona mehrin bilmay o`tsa
kim,
Juda-juda muhtoj bo`lar xotin kishiga
Yaxshi gaping ayama!» – deb koyirdi
xolam.
Oilaviy sayohatni istardi erim:
«Bolalarning ta`tilida ketaylik, – derdi –
Kolxoz ishi tugamaydi, sen tugasang ham».

Kolxozchiga qayda, axir, yozda otpuska,
Bolalarim bilan o`zi ketdi bir-ikki.
Men-chi qishda... ayri-ayri olib yurdik dam.
Yaxshi-yomon gap bo`lardi qaytganimdan
so`ng,
Uzib-uzib olar edi kelganda o`rni,
Hadeb ta`na qilmasa-da, gapirma-da.

«Kiyimimga onam emas, o`zing qaragin,
Ovqatimni sen pishirgin – shuni istayman,
Sening qo`ling kerak», – deya etardi talab.
Ulgurgancha qilar edim, rais bo`lgan so`ng
Tun qaytaman, kun chiqmasdan ketaman
chiqib,
Majlisu ish – bari birdan ketdi bolalab.

Ayniqsa, shu raykomimiz qisa boshlagach,
Yuragimga qil sig`masdan, erimga ko`p bor ,
Hurmatini qilmay tars-turs gapirgan edim.
Shu yoz bitta o`zi bordi dam olishmaga,

Injligi kamaygandi o`shandan buyon,
«Ha-da, endi hayotimga ko`nikdi», – dedim.

Ko`ngilsizlik egiz bo`lar, deganlariday,
Raykom meni chaqirmasdan bir kuni oldin
Aytishgandik ayamasdan bir-birimizni.
...Ishga ketmay tabrikladim qirq yoshi bilan,
Sovg`a-salom tutdim, yaxshi gapimni
aytdim.
«Quvonch, – dedim, – tark etmasin
taqdirimizni».

Bir-ikkita yor-do`stlari ishxonasidan
Bola-chaqa birgalashib kelmoqchi ekan,
«Xotinsizday o`tirmayin, tez qayt!» – deb
koldi.
«Tungi o`nda ijroqo`mda paxta razbori,
Qatnashish shart. Yuqoridan vakillar ham
bor».
Kechga tomon – shunday xabar. Aksiga
oldi...

...Endigina ketgan ekan kelsam mehmonlar,
U asabiy – mulzam bo`lgan do`sti oldida;
Men asabiy – ochqaganman, turibman horib.
Baxtli kunlar bu kechani unutgan edim,
Mana, yana boshimga ish tushgandan keyin
Ko`p eslayman – har gal turar jonimda
og`riq...

– Dasturxonga yuguryapsan, yarim tungacha
Qo`yvormagan akalaring to`ydirmabdi-da.
Erim xunuk gap boshladi, men ham tutadim.
– Choy-poy uchun vaqt qolmadi, tong
otmasin deb
Shoshib qoldim, yanagi gal to`yib kelarman,
– Bildim, seni raislikka nega ko`tardi?!

Og`aynilar aytgan edi: «Xotin-qizlarni
Yo`ldan urib, keyin amal berishadi», – deb,
Xo`p go`lman-a, tutibmana yoqalaridan.
– Ha-ha, go`lsiz! Men kiyganim u yoqda
qolib,
O`zingiz ham bugun kunduz telpak
kiydingiz
«Aka» larim berib yurgan «chaqa» laridan.

So`ng baqirdim: «Hech go`rdamas, majlisda
edim,
Ana, so`rang! Josus qo`ying, ko`ring
tekshirib!»
Tinglamadi, bor kiyimin chiqarib otdi.

Xolam kirib aralashdi, tavallo qildi,
Yig`i-sig`i, baqir-chaqir bo`ldi hammasi,
Tong bo`zarmay, idoramga sudralib
qaytdim.

...Norgul ikki kafti bilan chekkasin bosib,
Sukut qildi, uzun-uzun xo`rsinib oldi:
– Yaxshisini topgan ekan, bo`ldik begona.
«Baxtli kunlar...» – deding, do`stim, sen
yolg`on deding,
Eri tashlab ketgan ayol baxtli bo`lmaydi,
Eri tashlab ketgan ayol – yarim devona.

Ipak soching, cho`g`li ko`zing, o`tli tanangni
Har tun bo`m-bo`sh sovuq xonang quchgan
bezrayib,
Har tun kunduz tikkan baxting so`kilgan
shunday.
O`sha kechlar eringning ham baxti yo`q edi:
Tushlarida chaqirardi bir o`g`il, bir qiz,
Qosh-ko`zlari senikiday, qosh-ko`zi tunday.

U ayol-chi – sendan suyuk, sendan yosh
ayol,
Qarog`iga goh nur qo`nib, gohida xayol
Baxtli emas edi u-da o`sha tunlari.
Uning baxtin sindirardi tushi cho`chitib,
Yostig`idan nogoh sapchib turgan erining
Labidagi jilmayishi, ko`zin munglari.

Unutilish – yomon tahqir, yomon haqorat,
Unutish ham – yomon og`ir, yomon og`riqli,
Unutirish – shu ikkovin birday bosgani.
Til uchingga novvot qo`ygin, bol qo`ygin,
ayol!
Butun turgan iqbolingni parchalab, sochma,
Ko`zyosh bilan tugamasin sevgi dostoning!

Beshinchi xatim – Toshkentga – Sizga
O`t edim, lahzada muz bo`ldim tamom,
Yurakka xavotir yopishdi. Qaydan?!
Sas bering: hoziroq qudratli osmon
Olib ketsin meni Sizga bu joydan.

Bilib turibman-ku: yotibsiz chekib,
Bulutlar o`ragan kun kabi yolg`iz.
Biror do`st qayg`usin qanoti tegib,
Sinib ketdimikin ko`ngil oynangiz?

Ko`zingiz o`ngida yo biror nomard
Bobosin qabriga otdimi toshlar?
Axir, urchib ketsa – bu ham yomon dard,

Tanasin rad etgan yumaloq boshlar.

Yo bari xayolmi... Siz bo`lsa shunday
She`r boshlab qo`ygansiz butun Baxt haqda.
Baxt esa kelolmas – u ozg`in juda,
Kutyapsiz... o`tyapti soat, kun, hafta...

O`t edim, lahzada muz bo`ldim tamom,
Yurakka xavotir yopishdi. Qaydan?!
Sas bering: hoziroq qudratli osmon
Olib ketsin meni Sizga bu joydan.

Boraman jon-jismim nurga aylanib,
Tarqalib ketadi uyda tumanlar,
Yashayman she`r emas, Sizga boylanib,
Bugundan buyog`i, qilmang gumonlar.

Xohlang: jonimdan jon beraman uzib,
Xohlang: boshingizda hilol bo`laman.
So`ylagan so`zingiz etaman tuzuk,
Men sizga tobe bir ayol bo`laman.

Sizim bor, onam bor – sochlari quv oq,
Boshka ne suyanchim yorug` dunyoda.
Sas bering: uchmasa tezuchar uchoq,
Men yo`lga tushaman poyu-piyoda...

...Norgul uzun o`ylarining ichiga tushib,
Juda olis-olislarni aylanib keldi.
Ko`rib keldi loyqalangan joyin umrning...

– Achchiq bilan yoshulliga «xo`p» deb
yubordim,
Shu - shu bo`ldi: kolxozchidan qancha ko`p
qirksak,
Qog`ozdagi xirmonimiz shuncha semirdi.
– Taroziga chiqdi yolg`on, omborga kirdi,
Fabrikalar, do`konlarda yurdi gerdayib,
Kim egilmas bo`lsa, bo`g`ib bo`g`izlaridan.
So`ng, qarasang yuzing aniq ko`rinadigan
Ko`zgu kabi yaltiragan oq kog`ozlardan
O`rmladi kattalarning og`izlariga.

Ertakdagi kunbotarda yotgan dev misol
Soat sayin kengayardi yolg`onning nafsi,
Dehqon to`ydirolmas edi to`rt fasl
ishlab.
Jilovini shamollarga bergan yelkanday,
Suzaverding, o`ylanmoqqa topmading
fursat,
Shu zayilda kechaverdi necha yoz, qishlar...

– Sen kolxozga podsho emas, rais eding-ku,
Atrofingda issiq-sovuq kechgan odamlar...
Keksalar bor, ko`rmadingmi sira kengashib?
– Sizda shunday rasm bo`lsa bo`lgandir,
bizda
Tepa fakat buyruq bergan, rozi-rizolik
So`ramoqni ep ko`rmagan pastga engashib.

– Shunda nega haligina og`zing to`ldirib,
«Fikri so`qir» deb kamsitding elingni, axir.
Ishlamasa Zanglaydi-ku keskir temir ham.
«Biz shunday ish boshlayapmiz, siz nima
deysiz?»
Deya fikrin so`ramasang, tinglamasang
hech,
Shamollarga so`ylamoqqa o`ylarmi odam?

O`ylamaydi, so`ylamaydi, faqat bosh silkib,
Buyruqlarga etaverar so`zsiz itoat,
Mana, qanday yaraladi «fikri so`qir» lar...
Sendaylar-chi, o`zi shunga katta yo`l ochib,
Yana o`zi, «Xalqimizning ongi ko`p past»,
deb
Minbarlarga chiqib olib bayon o`qirlar.

– Yiqilganman, sen ham endi tepkilamagin,
Hammasini eshitding-ku: odil turib ayt,
Boshqa mening yuradigan yo`lim bormidi?!
– Nimaga yo`q? So`z erkingni qachon
yo`qotding?!
To`g`ri so`z bu – haqiqatga eltar tanho yo`l,
Shu yo`l yetar, boshqa biror yo`lga
zormiding?!

Indamading, kutding jarga borar kuningni,
Nega bir kun bor ovozing bo`g`zingga
to`plab,
«Elim, seni yeb yotibmiz», – deb
baqirmading?!
Yo shunchalar shirinmidi mansabing noni,
Eling aziz ekanini bilib tursang ham,
O`tirg`iching elingdan ham ko`p
yoqarmidi?!

Besh soatmas, besh kun emas, axir, besh yil-
ku,
Besh yil aldov va javoban besh yillab
jimlik...
Nahot birdan g`aflat bosib qoldi hammani?!
...Gapdan-gapga pasayardi Norgulning sasi:
– Amaldorga oson tutma, buyruqchisi ko`p,
Ahvolingni ko`rar edim, bo`lsa amaling.

Senga oson: «Qishlog'imga gaz keltirilsa,
Ko`chalari asfalt bo`lsa», deb yozasan-u,
Gazetangga yugurasan – bosib beradi.
Raykomlarning oldiga men; «Elga u kerak,
Bu kerak», deb izin uzmay kiraveray-chi,
Bir yildayoq tepa sochi tikka turadi...

– Minbarlarda boshqa libos kiyib
yoshulling:
«Bizda hamma narsa inson baxti uchun»
deb,
Eng chiroyli shiorlarga sachratgandir dog'?!
Sen ko`ribsan, indamaslik yo`lin tanlabsan,
Ammo o`zing shu gaplarni etganda takror,
Bir bor, «Yolg'on!» demadimi ming uyli
qishloq?!

Shuni sendan qayta-qayta so`rayotirman,
Bilmoqchiman: nohaklikka jimmi o`zi el,
Yoki uni zo`rlik bilan qilarlarmi jim?!
...Ko`z o`ngimda cho`kib-cho`kib borardi
Norgul,
Kichrayardi salobatli jussasi sekin:
– Nahot, ochiq kamsitishga indamas hech
kim?!

– Avvaliga sezishmadi, faqat bu yara,
Gazak olib ko`rinarli bo`lgandan keyin
El ichidan chiqib qoldi uch-to`rt botiri.
Ip chuvalsa, bitta uchi menga tegardi,
Hech yo`riqqa ko`nishmadi, aytdim
raykomga
Izlarini supurishdi bir kun oxiri...

*Oltinchi xatim – o`sha eldan
chiqqan uch-to`rt botirga*
Balki, inimdirsiz, tengimsiz, balkim,
Lekin og`a deyin, og`alar deyin.
Ko`lmakni qo`zg`atgan shiddatkor to`lqin,
Suvning boshlanishi – sog`alar deyin.

Kimda qasdi bo`lsa, yasab urto`qmoq
Urrib o`tirmaydi azaldan taqdir.

Faqat o`g`illarin yaratar qo`rqqoq,
Pushti kamaridan tug`ilmas botir.

Garchi o`n joyidan qo`rg`oshin yegan –
Bayroqday titilib, qulab ketdingiz,
Baribir manglayi sho`r emas ekan,
Elim toleiga Sizlar bitdingiz.

Eh, men-ey o`tirib issiq xonamda,
Qarsaklar uraman sharafingizga.
Lekin Siz madadga muhtoj bir damda,
Kim qo`rqmasdan o`tdi tarafingizga?!

Kimdir «gunoh» yasab Sizga o`sha kun,
Ismingiz yoniga yelimlab berdi.
Kimlardir kuydi-yu, chiqar deb tutun
Tishlari, lablarin zich yopib yurdi.

Kimdir ichkaridan qulflab uyini,
Haqqingizga duo aytdi shivirlab.
Yana nim pastlatib baland bo`yini,
Ko`zingizdan yiroq ketdi g`ivirlab.

Yolg'on qadri baland-osmon bo`lgan payt,
Sovuk ozorlar yeb Siz chin ketdingiz.
Bir odam suyamas bo`lsa odamday
Ularning kasriga nechun ketdingiz?!

O`ylasam, o`ylarim etadi zada,
Ko`nglingiz ne o`zi – dengizmi, daryo?
Haq deb jon-jahondan kecholmasa-da,
«Shu el o`zirniki», dedingizmi yo?!

Haqiqat kuchanib chiqdi tugundan,
«Mana u! Tani!» deb turibdi zamon.
Ko`zlarimiz yumuq o`tsak bugun ham,
Ertaga kuya¹⁰⁸ngiz tutar begumon.

Balki, inimdirsiz, tengimsiz, balkim,
Lekin og`a deyin, og`alar deyin.
Siz qorni qirq yorib otilgan yolqin,
Yurtim boshidagi jig`alar deyin.

...Keng uy birdan qisib qo`ydi,
o`tirolmadim,
To`g`ri so`zning yiqilganin eshitsam qachon,
Ko`rinadi to`rt tarafim darrov dog`lanib.
– Paxta – qushday, paxta – yumshoq
deysizlar, mana
Paxta – og`ir, paxta darddir, gulday umrimni
Kuydirdim-ku, kul etdim-ku unga bog`lanib.

O`zim tugul bolalarim bolasiga ham
Paxta bilan esh taqdirni ravo ko`rmasdim.
Eh, ularning yozug`ida endi nelar bor?
Anhordagi ko`zyoshchalik suv ham
namakob,

¹⁰⁸ Kuya tutmoq – uvoliga qolmoq

Tuproq – xasta, unayotgan hosil zahali,
Shahar tugul, qishloqlar-da sof havoga zor...

– Norgul, senga: «Dori sep!» deb yalindimi
Yer,

Yo xirmonlar: «Qo`shib yoz!» deb berdimi
farmon?!

Bolalarni chaqirdimi paxtazor yoki?! .

Tuproq, havo, suv sifati buzildi – mayli,

Buzildi-ku insonning ham sifati, axir,

Necha joydan so`kildi-ku e`tiqod choki!..

– Nimaga hech tushunmaysan, tushunsang-
chi bir,

Bizni majbur qilishdi-ku! Zo`rlik bo`ldi-ku!

Qay yo`llarda izillatmas odamni zo`rlik...

– Qo`rqqansan-da! Qo`rqqansiz-da! Qo`rquv
bor joyda

Hokimlik ham, qaramlik ham tomir yoyar
tez.

Faqat qo`rquv keltiradi joningga xo`rlik.

Qo`rqib yurding yolg`onning loy
so`kmoqlaridan.

Loy sachradi – dog`li bo`ldi, botqoqqa botdi

Qora tortib ergashgan bor otlik-piyoda.

Ko`zyoshlarga, kulgularga qo`shildi yolg`on,

Dasturxonga, liboslarga yolg`on qo`shildi.

Kemtildi-ku rostlik, ishonch, umid, iroda.

Norgul, asli hammamizning suyagimizda

O`lsak birga ketadigan gunohimiz shu!

Bu gunohni oqlolmaydi biror bahona!

Kechagina qora zahmat, emgak farzandi...

Bugun esa tuzlug`iga tufurgan kimsa...

Sening uchun yetmish ikki tomirim yonar!

– Gunohkorman, gunohimning gunohkori
ko`p...

Norgul kuyib shivirladi, otilib chiqdim.

So`zlarini takrorladi qorong`i yo`lak.

Tashqarida shovullardi bir osmon yomg`ir...

Simyog`ochda lampochkalar jilmayar qator.

Siyrak-siyrak og`ochlarda suvpari ko`ylak...

...Muyulishga yetganimda ortga qarayman:

Nur aralash shoda-shoda yomg`ir ko`rinar,

Ko`rinmaydi Norgul qolgan chiroqsiz

qo`rg`on.

Allaqaydan ko`kat isi kelayotganday,

Shuncha yaqin qoldimikin qishloqqa bahor,

Qishning so`nggi yomg`irimi shu yog`ib
turgan?!

Yettinchi – so`nggi xatim – eldoshlarimga

Tayyoram uchadi «uf» lab betinim,

Yo`lida bulutlar yotibdi to`zib.

Ketyapman deymanu ketayotgan kim,

Sizning orangizda yuribman o`zim.

Qalqadi, cho`kadi qaroqlarimda

Fasllar chiziqlab ketgan yuzingiz.

Saslanar yodimning varaqlarida

Kulib-yig`lab aytgan har bir so`zingiz:

«Peshonaga asli bitmagan tog`lar,

Daryo to`lqinga zor, bog`lar qushlarga.

Eshigingni qoqsa olis qo`noqlar,

Bir tuzuk go`sha yo`q, ko`nglin xushlarga».

«Oldinlar orzulab olingan atlas,

Kelinchak umriga yetib, ortardi.

Hozir tog`oraga kirib chiqsa, bas,

Dokaday suzilib, yupqa tortadi».

«Suvni keltirganning qondirmay cho`lin;

Ko`za sindirganga tutishganday suv:

Birov qaymoq yeydi, biz tortib yelin,

Tenglik, tenglik deysiz. Tenglikmi yo

shu?!»

«Hali ham yo`limiz changdan po`rsiydi,

Hali qora o`choq va qora qumg`on.

Kattalarning o`zi kelib ko`rsaydi,

Ishlaymiz, rohatin ko`ramiz qachon?»

«O`g`lim o`n sakkizga kirib o`tgan kun,

Bugun kiyib ketdi askar libosin.

Butun olib ketib, bermasa butun,

Qolmas hech narsaga ishonch, ixlosim...»

Tayyoram uchadi «uf» lab betinim,

Yo`lida bulutlar yotibdi to`zib.

Ketyapman deymanu ketayotgan kim,

Axir, orangizda yuribman o`zim.

Sizga butun quvonch, but ko`ngil istab,

Hozir men chindan ham qaytmoqchi edim.

Kechiring, yo`q... oldin tuzday sho`r qismat

–

Norgulni yana bir aytmoqchi edim.

Ana u ... turibdi... sochlari bo`yra,

Egniga kiygani alvonrangli chit.
Ana u ... Sizni deb yuribdi kuyrab,
Pardozlari unut, yoshligi unut.
Ana u ... ayrilib bosh panohidan
Qoldi shamollarning chorrahasida.
Ana, pana topib yolg'on chohidan
Gul deb tikan bosar jarohatiga.

Ana u ... noningiz birovga berib,
Yuzingizga qarab yuribdi tikka.
Ana u ... haqiqat chaqmog'i urib,
Maydon aro qoldi g'ariba, yakka.

Ko'zingiz yashirmang! Qarang, bu suvrat
Xayol ko'zgunigizdan ketmasin o'chib.

Sizga baxsh aylasin buyuk bir jur'at
Shu yillar sabog'i, shu yillar o'chi!

Tayyoram uchadi «uf» lab betinim,
Yo'lida bulutlar yotibdi to'zib.
Ketyapman deymanu ketayotgan kim,
Axir, orangizda yuribman o'zim.

Yig'ib-terganlarim bo'lganday tamom,
To'kib solgandayman go'yo bor-yo'qni.
Nechun ikki ko'zim orqamda hamon,
Menga aytar boshqa gapingiz yo'qmi?

.....
Menga aytar boshqa gapingiz yo'qmi?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qutlibeka Rahimboyeva lirikasining o'ziga xosligi nimada?
2. Zamonaviy o'zbek she'riyatida shoira asarlarining tutgan o'rni qanday?
3. "Qishning oxirlari" dostoni badiiyati haqida fikr yuriting.
4. Asarning lirik qahramoni kim?
5. Dostonda lirik qahramon umrining qaysi bosqichlariga urg'u berilgan?
6. Shoira shaxsiyatining ochilishida ushbu asarning roli qanday?
7. Norgul obrazida jamiyatdagi rahbar ayollarning qaysi xususiyatlari aks etgan?
8. "Qishning oxirlari" dostonida shoira kitobxon e'tiborini qanday ijtimoiy-ma'naviy mavzularga qaratishni maqsad qilgan deb o'ylaysiz?
9. Asar qaysi davr voqealariga ishora qilmoqda?



USMON QO`CHQOR (1953-2017)

Shoir, tarjimon Usmon Qo`chqor 1953-yilning 15-iyulida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug`ilgan. Birinchi she`riy to`plami 1982-yilda «Hayajonga ko`milgan dunyo» nomi bilan chop etilgan. «Akssiz sadolar» (1986), «Uyqudagi minora» (1987), «Og`ir karvon» (1991), «Chamangul», «Shiroq» kabi she`riy kitoblari chop etilgan. «Quvg`in» dostonida qatag`onlik davri aziyatlari, iztirob va alamlari haqida hikoya qilingan.

Usmon Qo`chqor ozarbayjon adiblaridan Sayyid Imoddiddin Nasimiyning «Men bu jahonga sig`masman» she`rlar to`plamini, Husayn Jovidning «Amir Temur» dramasi, Jalil Mammadqulizodaning qissa va hikoyalarini, Yusuf Samad o`g`lining «Qatl kuni», Anorning «Besh qavatli uyning oltinchi qavati» va boshqa asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan. Uning «Chamangul» (1996) nomli bolalar uchun yozilgan she`riy guldastasi Respublika Davlat matbuot qo`mitasi mukofotiga sazovor bo`lgan.

Shoir 2017-yil 21-sentabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

QUVG`IN

Dunyodagi barcha Vatanidan quvilgan, quvilayotgan va quviladigan jabrdiydalarga bag`ishlayman.

Kech kirdi. Falakni qopladi bulut,
Quyosh malol chekib ufqqa qo`ydi bosh.
Osmonga tutashdi qirmizi bir o`t,
Uvada bulutlar alvon, qontalosh.
Borliqda o`lik bir sukunat hokim.
Yaqin qolgan kabi mahshar onlari.
Go`yo cho`kib borar girdibodda jim
Zaminning azaliy tirik jonlari.
Mavhum bir razolat, mash`um falokat
Go`yo bosib kelar og`zini ochib.
Go`yo ro`y bergudek buyuk halokat,
Go`yo borib bo`lmas hech yerga qochib.
Majnuntol novdasi mavjlarga tegib
Go`yo suvga so`nggi vidolar bitgan.
Arshi a`lo uzra go`yo bosh egib
Xudoning o`zi ham sukutga ketgan.
Go`yo u ham yetmas hech ohu zorga,
Eshitmas bandasin dard-ohlarini.
Buyuk bir yovuz kuch qop-qora g`orga

Hibs etgan go`yo tun arvoqlarini.
Qushlar qo`nog`ida uxlab yotar jim,
Ming yillik chinorlar mung`ayib turar.
Ko`kda ham, yerda ham bir vahm hokim
Yilt etgan xonaga ul o`zin urar.
Baland-past, qirrador tog`-cho`qqilarning
Ufqda qorayib turgan bo`y-basti –
Go`yo ro`y bermish bir falokatdan so`ng
Sinib tushgan kabi osmonning osti. .
Bunday kechalarda uxlamas odam,
Vujudga kiradi mubham bir titroq.
Qaydandir olisdan, o`zga dunyodan
Kelgan sado kabi chuldirar buloq.
Kavkaz uxlab yotar, uxlar dong qotib,
Bilmam, tushlariga nelar kiradi.
Kavkaz uxlab yotar, bo`lmas uyg`otib,
Tunning sharpalari izg`ib yuradi.
Qora dengiz uxlar bir tomonida,
Bir yonda dong qotib uxlaydi Xazar.

Tog'ning yonbag'rida, daryo yonida
Darband deb atalmish bir qishloq uxlar,
Qaydadir nogahon sayraydi boyqush,
Bu tovush do`zaxdan chiqqanday go`yo.
Darband uxlab yotar ko`rib og'ir tush,
Boshini chulg'agan qop-qora ro`yo.

Qora tun. Osmonda yulduz ko`rinmas,
Na shoshqin shamol bor, na chaqmoq-
chaqin.

Noma'lum bir dahshat bosib kelar, bas,
Yaqindir, ulkan bir falokat yaqin.

II

Mahdi tunga termuldi uzoq,
Ko`zlaridan o`chdi uyqusi.
Hega vujudida qaltiroq,
Hega sovuq bu tunning tusi?
Panjaraning yonidan, ana,
Yelib o`tdi bir sharpa – daydi.
Xobxonada yori – Nurlana,
Chaqalog'in quchib uxlaydi...
Yigirma besh yoshida Mahdi
She'ri bilan tanildi elga.
Vaqt g'animat – Mahdining ahdi –
Sovrilmasin der umr yelga.
Muhoraba tugab bormoqda,
Afsus, Vatan – qashshoq, el – yupun.
Mahdi aruz hamda barmoqda
She'rlar bitdi g'alaba uchun.
Har jangchiga, har bir o`g'longa
Mahdin she'ri oyat kabi yod,
Go`yo Vatan degan har jonga
Uning yozganlari – qasamyod.
Puchmoqlarda pusib yotmadi,
Ushbu jangdan turmadi chetda.
She'ri maydonlarda portladi,
She'ri yondi jang aro o`tda.
Muhoraba bormoqda tugab,
Lekin Mahdi bunchalar behud?..
Xobxonada uxlar pishillab
Kecha yoshin to`ldirg'an Mavlud.
Eslab sho`x-sha'n qilig'in uning
Mahdi xona uzra yuradi.
Ko`z yummasdan, erka o`g'lining
Ertasidan tushlar ko`radi.
Nasib bo`lsa, o`tar bu kunlar,
Ko`rmaganday bo`lib ketamiz.
Tarqab bitar qora tutunlar,
Munavvar kunlarga yetamiz.
Ochlik, vahshat bo`ladi unut,
Omon bo`lsa zaminu zamon –
Asta-sekin ulg'ayib Mavlud
Bo`lar El`brus kabi bir o`g'lon.

Nasib bo`lsa, mening kulbam ham
Ilohiy bir shu'laga to`lsa.

Unut bo`lsa bu dardu alam,
Nasib bo`lsa... oh, nasib bo`lsa...
Mahdi bu tun bitmoqchiydi she'r
Ammo tutqich bermadi xayol.

Peshonasin bosib sovuq ter,
Tunga boqib turaverdi lol.

Hega bu tun bezovtadir u,
Xayollari nechun bo`lindi?

Oxir g'olib keldiyu uyqu,
Tongga yaqin ko`zi ilindi.

III

Mavlud qochmoq bo`lar dovdirab,
Orqasida uzun qonli iz.
Kuragiga miltig'in tirab
Bosib kelar cho`tir bir iblis.
Go`dak sho`rlik dildirab turar,
To`rt tomonga jovdirar ilhaq,
Iblis shodon qahqaha urar
Ba uzadi o`qlar – paq-paq-paq...
Taq-taq!.. Yo`q, bu tush emas, o`ngdir,
Axir, Mahdi ayon eshitdi.
Cho`chib ko`zin ochdi u. Kimdir
Tinmay tepar edi eshikni.
Xobxonada yotgan chaqaloq
Chinqirgancha yig'lab yubordi.
Yuragida vahima, titroq –
Mahdi eshik yoniga bordi.
Ko`zi ochiq bo`lsa-da, lekin
Uyg'onmagan edi u tamiz.
«Kim u?»– deya so`radi sekin,
«Och eshikni! Yo`qsa, buzamiz!»
Mahdi ochar-ochmas eshikni,
Xuddi balo-qazo singari
Bosib kirdi tig'lab miltiqni –
Kim deng?.. Bir to`p sovet askari.
«Qani, bundan jami tirik jon
Zudlik bilan chiqsin ko`chaga!»
«Biz turkiymiz, emasmiz olmon,
Adashibmiz,– der Mahdi.– Nega?..»
«He turk bo`lgan sening onangni..
Gapni cho`zma, vaqtimiz ko`p ziq...»
Devor bo`ldi Mahdining rangi,
Ko`kragida – o`qtalغان miltiq.
Chaqalog'in bag'riga bosib
Ichkaridan chiqdi Nurlana.
Yo xudoyim! Bu qanday yoziq,
Falak, qanday zulming bor yana!..
Yengil-elpi kiyinib besar,
Chaqalog'in yo`rgaklab yupun,
Chiqisharkan o`krar bir askar:

«Vatan uchun! Stalin uchun!»
 Qaysi vatan uchun, der Mahdi,
 Go`yo uyqudadir u hamon.
 Birdan sindi Mahdining shahdi,
 Ko`rsa – ko`cha to`la olomon.
 Ko`kka o`rlar oh-faryod, uvvos,
 Go`yo birdan qiyomat qo`pgan.
 Ko`pga ko`plab to`y kelgani rost,
 Lek bunday «to`y» kelmagan ko`pga»
 Ikki yonda – ikki qirg`oqda
 It ushlagan askarlar safi.
 O`rtada xalq oqib bormoqda
 Xuddi faryod daryosi kabi.
 Kim toptalib, o`lib bormoqda
 Suv ostiga cho`kkan tosh kabi.
 Ikki yonda – ikki qirg`oqda
 It ushlagan askarlar safi.
 Bu xalq emas, emas olomon,
 Daryo – borsa kelmas bu daryo.
 Oqib borar qon, hijron, armon,
 Qayga oqar – bilmas bu daryo.
 Ko`rmi ko`zing, qulog`ingmi kar,
 Tangrim, mundoq yovuzlik nechun?
 Qichqiradi chetdan bir askar:
 «Vatan uchun! Stalin uchun!»
 Yelkalarni yoradi qo`ndoq,
 Xalq ketmoqda beyurt, bevatan.
 O`z bolangni ko`rguncha bundoq,
 Ko`zing oqib tushsin, ey Vatan!

IV

Qirg`oqqacha keldilar haydab,
 Bir nafas ham bermayin orom.
 Sohil uzra tobutdek saf-saf
 Typap edi behisob parom.
 Yo`l-yo`lakay cho`zilib yotgan
 Jasadlarning yo`qdir adog`i.
 Ur-sur... Bolasini yo`qotgan
 Onalarning yo`qdir sanog`i.
 «Madinajon!..» bo`zlar bir ona,
 Yuzlab ona bo`zlaydi zor-zor:
 «Ilgiz!.. Cherkez!.. Osmon!.. Zarema!,
 Veli!.. Aydar!.. Sabriyo!.. Ilg`or!..»
 Falakning ko`p ekan jabri, o,
 Dard ko`p ekan, armon ko`p ekan.
 Dunyoda ko`p zkan Sabriyo,
 Ilgiz, Cherkez, Osmon ko`p ekan.
 Bir qizaloq titraydi dir-dir
 Ul sho`rlikning onasi qayda?
 Bu Ilg`orning otasi kimdir,
 Kimning bolasidir bu Aydar?!
 Bir chekkada uch yo to`rt yoshli
 Bolasini siqib kiftidan,

Ba ko`ksiga qo`ygancha boshin
 Jon bermoqda ona aftidan.
 G`arg`araga kelganda joni,
 Jonholatda qilar vasiyat:
 «Oting — Fikrat... Unutma, jonim...
 Ketding – Darband... Darbanddan deb ayt...»
 Kim jobiru kim jabrdiyda,
 Qaydan kelmish balo guvillab?
 Ortda, shundoq go`zal vodiya
 O`lik Vatan yotar huvillab.
 Mavludini quchgancha mahkam,
 Nurlanani ushlab, aftoda,
 Yurdi «tobut» sari Mahdi ham,
 Hatto bunday haydalmas poda.
 Aybing – turkiylikingmi, Mahdi,
 Qayga borar bu xalq podasi?
 Kushxonaga haydashmi ahdi
 Turkiy xalqni «xalqlar otasin?»
 Bu yovuzlik qaydan, alhazar,
 Bu xalqlarga nechun bul hasad?
 Aytgil, sening bag`ringda, Xazar,
 Baliq ko`pmi va yoki jasad?
 Neftmi og`ushingdan otilgan
 Yo qora ko`z, yo qora sochlar?
 Aytgil, falaklarga qotilgan
 Neftdoshlarmi bu yoki xochlar?
 Ming yillik xalq Vatandan judo,
 Suzib ketdi beyurt, bevatan.
 Bunday kunni ko`rguningcha to –
 Ko`zing oqib tushsin, ey Vatan!..

V

Qilgan ekan shu qismat nasib,
 «Mahdijon!..» – deb yona va yona
 (Neftdoshi – neft minorasi)
 Mavludini bag`riga bosib
 Paromda jon berdi Nurlana.
 Nurlananing so`nggi so`zlari
 Yuragiga tushdi to`kilib.
 Mangu ochiq qoldi ko`zlari
 Xazar osmoniga tikilib.
 Nechun yorilmaysan, ey zamin,
 Nechun qulamaysan, ey osmon!
 Axir, do`zax azob-alamin
 Chekmoqqami yaralgan inson?!
 Tuprog`ing o`t olsin, ey dunyo,
 Suvlaring qonlarga qotilsin!..
 Dam-badam yangraydi bir sado:
 «Jasadlar dengizga otilsin!..»
 Nurlana, sen baliq-parisan,
 Cho`kasan dengizning tubiga.
 Endi sen baliqlar yorisan,
 Baliqlar ozoddir, beega...

Xalq to`kilib bordi yo`l bo`yi
 Bezovta suv quchoqlariga.
 Yetib keldi dod solgan ko`yi
 Qoraqumning qirg`oqlariga.
 Mavlud yig`lar ochiqib qorni,
 Yig`lar mamma izlab, bo`g`ilib.
 Sut uyoqda tursin, non bormi?
 Nima ko`rdi sho`rlik tug`ilib?
 Mahdi turar besaru somon,
 Botib ketgan ich-ichga ko`zi.
 Chaqaloqqa shu payt bir juvon
 Qaltiragan qo`llarin cho`zdi.
 «Bering, og`a, emizay uni,
 Mening chaqalog`im berdi jon.
 Ona yurtidan ajradik, endi
 Bolamizni asraylik omon.
 Ko`z yoshlarning qarg`ishi tutgay,
 Qon to`kkanni tutgay bir kun qon
 Ep unutgay, osmon unutgay,
 Xotirot unutmas hech qachon.
 Bu dahshatni, bu ohu vohni
 Men ko`rmayin o`lay, og`ajon.
 Bering menga, bu chaqaloqning
 Men onasi bo`lay, og`ajon!..»
 Ona mehri, buncha jozibsana,
 Quyosh kabi porloq va sodda.
 Shukr, peshonaga yozibsana,
 Tangrim, ona mehrini, zotan.
 «O`ksima, bolajon, o`ksima...»
 Deya boshin silarkan juvon,
 Boshin qo`yib uning ko`ksiga
 Mavlud tinchib qoldi o`sha on.
 Ona mehri, bu nechuk sehr,
 Dovuldan so`ng esguvchi nasim.
 To ustuvor ekan shu mehr –
 It emizgay bo`ri bolasin.
 Ona izlab ohu bolasi,
 Bo`zlab duv-duv to`kar ekan yosh,
 Eshitganda uning nolasin,
 Yo`lbarlar ham tortadi yuvosh.
 Bu dunyoda falakning arshi
 Ming razolat, vahshat yaratgan.
 Barcha yovuz kuchlarga qarshi
 Ona degan shafqat yaratgan...
 Mahdi turar edi tosh qotib,
 Bul juvonga termulib hazin.
 Mavlud onasini yo`qotib,
 Tag`in qayta topdi onasin.
 «Rahmat, mendan qaytmasa magar,
 Singlim, sizga xudodan qaytsin...»
 «Og`a, xudo bo`lsaydi agar...»
 Mahdi unga nima deb aytsin?

Bu yovuzlik falakdan emas,
 Bu ishda yo`q xudoning daxli.
 Lekin kimdir aybdor ekan, bas,
 Har holda, bu juvon ham haqli
 «Men – Mahdiman, bir baxtiqora,
 Bu – Mavluddir, mening o`g`lonim.
 Otingiz ne, xonim?»

«Nigora...»

«Rahmat sizga, Nigoraxonim».

VI

Tahlikali tong otdi og`ir,
 Bu tong buncha tund erur, g`ashdir?..
 Urrib-surib barchani bir-bir
 Vagonlarga tiqa boshlashdi.
 Yuk tashuvchi vagon bu vagon,
 Yo`lagi, oynagi, o`rindiqli yo`q.
 Butun bir xalq qon yig`lardi, qon,
 Dunyoda bundan zo`r yig`i yo`q.
 Vagonda tik turar olomon,
 Bir-birini ezib, benavo.
 «Suv bering, suv!..Non beringiz, non!.,
 Havo bering... Bir yutum havo!..»
 Hayotmi shu hayot, jin ursin,
 Vatan shuncha ketsa gar tuban,
 Erk degani u yoqda tursin,
 Hatto havo yetishmas ekan.
 Cheki yo`q bu vahshiylikning, hay,
 Bu yo`llarda ne bo`lsa – bo`ldi.
 Vagon ichra havo yetishmay
 O`ldi, necha vatandosh o`ldi.
 Kim bosh egib turardi g`arib,
 Kimdir tinmay yig`lardi o`r-o`r.
 Mahdi o`g`lin azot ko`tarib
 Tuynuk sari surildi bazo`r.
 «Bas, yig`lama, bas endi, qo`zim,
 Qara, ana, sahroga qara!..»
 Bosib uning kiftiga yuzin
 Ortda yum-yum yig`lar Nigora.

Olam – ko`hna olamdir,
 Bu olamning eng boshi –
 Faqat dardu alamdir,
 Faryod ila ko`z yoshi.
 Bu olamda ummonlar
 Ko`z yoshlardan bo`lmish sho`r.
 Ishonmasang sen agar,
 Xazarga bor, ichib ko`r.
 Daryolarning ostida
 Dumalagan toshi ko`p.
 Unda toshmas, aslida
 Odamzotning boshi ko`p.
 Adirlarda mavj urib

Bosh chayqagan lolalar –
 Asli bevaqt jon berib,
 Go`rsiz qolgan bolalar.
 Sahrolarda daydigan
 Na samum, na girdibod –
 Bu – onalar ko`ksidan
 Otilgan nola-faryod.
 Bu falakning beadam
 Yenguvchi yulduzlari –
 Otalarning toabad
 Ochiq qolgan ko`zlari.
 Milyon yilkim, aftoda,
 Qon yig`lab borayotgan
 Ep kurrasi – dunyoda
 Yetim qolgan bir vatan.
 Dunyo azal yig`lashdan
 Hech nariga o`tmaydi.
 Uning faryodi, zotan,
 Yaratganga yetmaydi.
 Bandasiga boqqani
 Ko`k qizg`anar vaqtini.
 Yo`qsa, ko`rsin-chi, qani
 Mavlud bilan Mahdini.
 Yomg`ir yog`ar damodam,
 Chaqnar falakda o`tlar.
 O`taverar dunyodan
 Mahdi bilan Mavludlar.
 Telba falak ishining
 Sirin bilgan kishi yo`q.
 Bu dunyoda kishining
 Kishi bilan ishi yo`q.
 Bu dunyoda poezdlar
 Alam yuklab yeladi.
 Dard ketidan dard kelar,
 G`am ketib, g`am keladi.
 Sahro, dala-tuzlarga
 Ko`milgan armonlar ko`p.
 Bu muvoziy izlarga
 Oqib qolgan qonlar ko`p.
 Mavludu Mahdi bilan
 Chinqirgancha beomon –
 Poezd yelar jahd bilan
 O`zbek tuprog`i tomon.

VII

O`zbekiston, jafokash yurtim,
 Ranging buncha so`lg`in, sarig`dir.
 Urush-da, bu nima ham derdim,
 Lekin mangu yuzing yorug`dir.
 Janggohlarning ohu nolasin
 Eshitganda qon-zardob yutding.
 Yetim qolgan o`ris bolasin
 Bolam deding, ko`kraging tutding.

Urush degan bu vabo, o`lat
 Och nazarin tikkanda senga,
 So`ramasdan millatu elat,
 Barchasini bosding ko`ksingga.
 Mana bugun Xazar ortidan
 O`z qardoshing do`st bilib keldi.
 Bu Vatanning sitam, dardidan
 Yo`lda tutday to`kilib keldi.
 Qavming keldi, yuragida g`am,
 Ko`zlarida xavotir, hadik.
 Ushbu holdan Dada Qo`rqut ham
 Turmasinmi o`z go`rida tik.
 Ul kim o`zi, ayt, yaloviga
 «Do`stlik», «Tenglik» shiorin yozgan,
 So`ngra chiqib odam oviga,
 O`z xalqining inini buzgan?
 Shul xalqlar-ku jamuljam ekan,
 Bilagingda sherday kuching bor.
 Yovuz Vatan, o yovuz Vatan,
 Turkiylarda nima o`ching bor?
 Urush desang, ana Ovrupo,
 Ana yapon, qilay desang jang.
 Turkiy Kavkaz bo`ldimi, e-voh,
 Kelib-kelib uchinchu jabhang?!
 Qulatsa – shu illat qulatar,
 Shu illatdir sho`rishing, sho`ring.
 O`z xalqingni qilding darbadar,
 Yapaloqqa yetdimi zo`ring?
 Shuncha to`kkan qoning yetmasmi,
 Oqibat ne kechar o`z holing?
 Oxir bir kun seni tutmasmi
 Mahdi, Mavludlarning uvoli?..
 Ha, darvoqe, ularni jadal
 Yaydoq dashtga bordilar haydab.
 Sarob imlar olisda yal-yal,
 Kulba qayda, boshpana qayda?
 Belkuraklar keltirib tunda,
 Buyurishdi qat`iy, bir yo`la:
 Hech qaerga jilmaysiz shundan,
 Yashayvering qazib yerto`la.
 Nam, rutubat suyakka yetgach,
 Bo`lmasin deb «mehmonlar» xafa,
 Oradan o`n-o`n besh kun o`tgach,
 Keltirishdi besh-olti kapa.
 To`rt tomoning biyday dala-dasht,
 Osmon yiroq, yer qattiq, zotan.
 Endi shunda suravergin «gasht»,
 Endi senga ushbu dasht – Vatan,
 Mahdi ovloqlarda bo`zlardi,
 Fig`onidan chiqar edi dud.
 Nigoraning cho`kdi ko`zlari,
 Ozib-ozib cho`p bo`ldi Mavlud.

She'r yozish yo`q, qo`shiq aytish yo`q,
 Dehqonchilik qilsang bo`lgani.
 She'r bitmasa, aytmasa qo`shiq,
 Shudir xalqning tirik o`lgani.
 Hol so`rish yo`q – ochmisan yo to`q,
 Ishla yag`ir qilib yelkani.
 She'r yozish yo`q, qo`shiq aytish yo`q.
 Dehqonchilik qilsang bo`lgani.
 Ko`zlar azob-alamga to`lgan,
 Dard beaded, yo`qdir davolar.
 Bo`zlaydi jannatdan quvilgan
 Odam Ato, Momo Havolar.
 Kunduz yangi ekilgan bog`da
 Mahdi ishlar bosib qora ter.
 Tunlar esa qora chiroqda
 Azob bilan yozaverdi she`r.
 Laylak uyasida qovjirab
 Poca qirq yil – qirq yozu qirq qish,
 Bir kun tushib tuproqqa, ajab,
 Ajriq tag`in urgan ekan nish.
 Garchi bu g`am og`irdir juda,
 Garchi juda og`ir bu qadar,
 Bu – xalq-ku! Xalq “laylak ini”da
 Qolmas axir qiyomat qadar.

VIII

Biyday bir dasht. Kichik chegara,
 Chegapada cheklangan huquq.
 Qat`iy belgilangan chegara,
 Chegaradan chetga chiqish yo`q.
 Markazda (shu markaz bo`lsa gap)
 Somonsuvoq choqqina do`kon.
 Bul do`konda tamaki, shakar,
 Kiyim-kechak, qattiq-quruq non.
 Xarid qilib bir-ikki matoh
 Nasiyaga – qarz-havolaga,
 Mahdi chiqdi do`kondan.
 Nogoh
 Ko`zi tushdi yosh bir bolaga.
 Noranj kabi sarg`aygan sho`rlik,
 Yashamoqdan tolib ketgandi.
 Siyog`iga razolat, zo`rlik
 O`z izini solib ketgandi.
 Ming yillik dard yopirilib kelib
 Go`yo uning ko`ksiga kirgan.
 Qarolmaydi mundaq tikilib,
 Murda nuqsi rangiga urgan.
 Mahdi yurdi bola sari tik,
 «Kiyimining sog` joyi yo`g`-a?»
 Bola titrab turar serhadik:
 Urmang meni, og`a, jo-o-on og`a!..»
 Sochlarini siladi sekin:
 – Nima qilib turibsan, o`g`lim?

Sado chiqmas boladan lekin,
 Ep chizgancha turaverdi jim.
 – Nega bunda turibsan yolg`iz,
 Qara, botib bormoqda quyosh!
 Bola esa demasdan bir so`z
 Turaverdi egganicha bosh.
 – Adashdingmi, bolajonim, ayt,
 Yo qildingmi biron-bir gunoh?
 Bosh ko`tardi bolakay shu payt,
 Bola sekin ko`tardi nigoh.
 Bu qandayin qarashdir, yo rab,
 Dunyo to`lib ketdi ohlarga.
 Bu ko`zlarga bo`lmaydi qarab,
 Chidab bo`lmas bu nigohlarga.
 Bobosidan ajragan bola
 Odamzotga bunday boqmas, yo`q,
 Momosidan ajragan bola
 Odamzotga bunday boqmas, yo`q.
 Onasidan ajragan bola
 Odamzotga bunday boqmas, yo`q,
 Otasidan ajragan bola
 Odamzotga bunday boqmas, yo`q.
 Vatanidan ajragan bola
 Odamzotga bunday boqmas, yo`q.
 Vujud emas, mushtday bir nola,
 Mushtday ta`na, mushtday bir kadar –
 Hammasidan ajragan bola
 Odamzotga shunday tikilar.
 Mahdi labin tishladi qattiq,
 Yig`lab bo`lmas bola oldida.
 – Bolam, mening yomonligim yo`q...
 Qara, kech ham tushib qoldi-da...
 Oting nima, aytgil, bolajon,
 Aytgil, turar joying qaysi kand?
 – Manim otim Fikrat, og`ajon,
 Darbandlikman... Qishlog`im – Darband..
 Ko`zing oqib tushsin, ey Vatan,
 Yiqil, falak, ey qattol g`anim!
 Fikrat, men ham sendek bevatan,
 Fikrat, Fikrat, o`g`limsan manim!
 Mahshar vodiysining o`t olgan,
 Yonib yotgan o`tinlarimiz.
 Keng dunyoga sig`masdan qolgan,
 Keng dunyoning yetimlarimiz.
 Fikrat, ko`zing menga tanishdir,
 Xazar bo`yi... Safma-saf parom...
 Qolgan gaplar – men uchun tushdir,
 Qolgan dunyo – men uchun harom.
 Fikrat, egning bunchalar yupun,
 Sen mehrga zormisan, o`g`lim.
 Bor ekan-ku seni ko`rar kun,
 Fikrat, tirik bormisan, o`g`lim!

Buncha mungli ko`zlaring sening,
 Ta'na qilma, oh, jigarbandim.
 Yetim qolgan Fikratim mening,
 Mening yetim qolgan Darbandim.
 Yoding tirik ekan, o`g`lim, bas,
 Tirik ekan xotirang, o`g`lim,
 Hech bir zulm seni yengolmas,
 O`ldirolmas seni hech o`lim...
 IX
 Yillar o`tib ketdi oradan,
 Mazlumlarning tindi yoshlari.
 Qonlar oqmay qo`ydi yaradan,
 Jarohatlar bita boshladi.
 Qattol dunyo, mustabid dunyo
 Adolatga burdi sekin yuz.
 Yuraklarda vahm bor ammo,
 Nigohlarda hadik bor hanuz.
 Garchi hali qalblarda muzday
 To`nib yotar shubha va xatar,
 Lekin ba`zan uchgan yulduzday
 Chehralarda shodlik yarq etar.
 Odam Ato, Momo Havoning
 Kasbi – dehqonchilik qo`l keldi.
 Bir paytlar dasht bo`lgan ma`voning
 Sahni ajib go`zal bog` bo`ldi.
 Fikrat, Mavlud og`a-inidek
 Basma-basga cho`zaverdi bo`y.
 Ko`zlarida yo`q endi hadik,
 Lablarida sabza urdi mo`y.
 Endi qo`shni qishloqlar bilan
 Yurish-turish, borish-kelish bor.
 Do`stlar bilan, o`rtoqlar bilan
 Bitkazishlar – neki yumush bor.
 O`zbek xalqin bag`ri keng ekan,
 Apoq-chapoq bo`lib ketdilar.
 Bir-birini der «og`am», «ukam»,
 Etu tirnoq bo`lib ketdilar.
 Gurunglarda, to`y-ma`rakada
 Kimdir qo`qqis berganda savol,
 Mahdi ko`nglin qoplardi kadar,
 Mahdi surib ketardi xayol.
 – Bir kechada butun bir xalqni
 Oson emas ko`chirmoq, axir.
 Mahdi og`a, ushbu gap haqmi?..
 Og`ir edi bu savol, og`ir.
 Nima desin Mahdi bechora,
 Ishonarmi bu davra bugun?
 Ko`zin tuman qoplar qop-qora,
 So`zlay desa, tillari tugun.
 Yerdan uza olmas nigohin,
 Nima desin axir u, nima?!
 Chalinardi quloqqa gohi

«Xoin», «Sotqin» degan kalima.
 Termulardi davraga tamkin,
 Pinhon bir dard o`rtardi tanni.
 Vatan mute' bo`lmog`i mumkin,
 Biroq xalq hech sotmas Vatanni.
 Har bir yurtning o`g`risi bordir,
 Har bir xalqning o`z oyini bor.
 Har bir qo`yning bo`risi bordir,
 Har vatanning o`z xoini bor.
 Garchi ular vatanning sho`ri,
 Xalq nomiga qora dog`dir, bas,
 Lekin zinhor besh-o`nta «bo`ri»
 Xalqning asl timsoli bo`lmas.
 Xalq bo`yniga xoin degan ot,
 Tavqi la`nat osmoqlik uchun –
 Bo`lmoq kerak kamida jallod,
 Bo`lmoq kerak mustabid, mal`un.
 – Bir kechada butun bir xalqni
 Oson emas ko`chirmoq, axir.
 Mahdi og`a, ushbu gap haqmi?..
 Og`ir edi bu savol, og`ir.
 Ketsa-da u ko`ksini o`yib,
 O`rtasa-da ko`ngli dard bilan,
 Davraga bir jilmayib qo`yib,
 Gap boshlardi «daromad» bilan:
 – Dunyoda ko`p jonzot, hasharot,
 Har birin mijozi g`alati.
 O`zicha qiziqdir har bitta jonzot,
 O`zgacha har birin odati.
 Ko`p erur zaharli chayonu ilon,
 Ammo zaharlilar ichra sara qurt –
 Ishi bitgach, ishtaha bilan
 Erkagini yermish qoraqurt.
 Biz bir faqir, notavon banda,
 Bilmam, haqmi yoki nohaqimiz.
 Muhoraba tugab qolganda,
 Qurbonlikka so`yilgan xalqmiz.
 Tag`in sizga nima ham deyin,
 Hammasiga guvohtir egam.
 Xullas, ishi bitgandan keyin
 Bizni o`shal qoraqurt yegan...
 X
 Shamol esdi goh Sharq, goh G`arbdan,
 Dovullar o`tdilar guvillab.
 Qolaverdi har bitta qalbda
 Vatan o`pqon kabi huvillab.
 Bahor keldi. Barg yozdi daraxt,
 Xazonlarin yig`ib oldi kuz.
 Yurak sanchar, vujudlar karaxt
 Vatan degan og`riqdan hanuz.
 Yulduzlardan to`kildi shabnam,
 Quyosh ming bor chiqdiyu botdi.

Yuraklarda Vatan degan g'am
 Tosh singari zalvorib yotdi.
 Falak to'ldi chaqin-o'tlarga,
 Yomg'ir yog'di, yog'averdi qor.
 Hatto qushlar olis yurtlarga
 Ming bor ketib, qaytdilar ming bor.
 To odamning Erk degan orzu,
 Vatan degan murodi yo'qdir –
 Ozod-ozod ucholmagay u,
 Uchay desa – qanoti yo'qdir...
 Mahdi bir kun soldi maslahat:
 – Tiklash lozim o'z sha'nimizni.
 Maskov sari bitaylik bir xat,
 So'raylik o'z Vatanimizni.
 – Yo'q, bermaydi!– qo'l siltdi kimdir,
 – Qaydam?– dedi kimdir, boshi xam.
 – Qaytish kerak Vatanga, axir,
 Boshimizga tosh yoqqanda ham.
 Kimdir dedi: – Soz tirikchilik,
 Tag'in nima kerak bu nizo?
 Lekin «Vatan!» dedi ko'pchilik,
 Xat bitdilar, chekdilar imzo.
 Yiltillarda umid degan sham,
 Sayladilar besh-olti vakil.
 Ular bilan bizning Mahdi ham
 Tongda Maskov sari oldi yo'l.
 Dang'illama qabulxonada
 Bir qur nigoh tashlagach xatga,
 Falon kuni kelasiz deya,
 Tirkab qo'yishdilar navbatga.
 Bunday hapriqmagan hech yurak,
 Bunday orziqmagan aslo dil.
 Yana jinday sabr etmoq kerak,
 Soatlar – kun, kunlar esa – yil.
 Mana, aytgan kun keldi yetib,
 Ulkan saroy. Pashsha urmas par.
 Typap ekan ularni kutib
 To'ra jiddiy «leninchi rahbar».
 – Men tanishdim xatingiz bilan,
 Xo'sh, ayting-chi, nega daf'atan,
 Shuncha yillar o'tib oradan
 Sizga lozim bo'p qoldi Vatan?
 – Yo'q, daf'atan emas, Vatandan
 Qilishganda bizni badarg'a –
 Biz muttasil so'radik Vatan,
 Jonimizni qo'yib xatarga.
 – Sizning ushbu talabdan, zotan,
 Anqir millatchilikning isi.
 Shakllandi bizda bir Vatan,
 Yaxlit bir xalq – sovet kishisi
 To'g'ri, hali buzg'unchilar bor,
 Uchrab turar har xil ta'viya.

Yetishmaydi ularda zinhor
 Hushyorlik. Siyosiy saviya!
 – Ma'zur tuting, lekin misli gul–
 So'layotir butun boshli xalq.
 Unut bo'layotir sekin til,
 O'layotir butun boshli xalq.
 Har bitta xalq o'z Vatanida
 To yashamas ekan jam bo'lib,
 Vatan ishqiyonmas qonida,
 Boraverar o'sha xalq o'lib.
 – Tarix axir bo'lmas bexato.
 Bu fikringa moziydir shohid.
 Davr shuni qilgan taqozo,
 Talab qilgan shuni sharoit...
 – Davrga biz keltirmaymiz shak,
 Xato bo'lsa, bo'lgandir, balkim.
 Lekin uni biz tuzatmasak,
 Ayting, axir, kim tuzatar, kim?..
 – Agap sizni qaytarsak, UN DAN
 Quvmoq kerak kimnidir, axir.
 Xolis turib olavering tan,
 Adolatdan bo'lmas bu tadbir.
 Adolatdan emas bu beshak.
 Yog' quyganday xuddi pilikka –
 Agap sizni ko'chirar bo'lsak.
 Yo'l qo'yamiz millatchilikka.
 Zarba berib shu zo'r illatga
 Bizning ulug' dohiymiz – mumtoz –
 Aytib ketgan – hech bir millatga
 Bermangiz deb hech bir imtiyoz.
 – Bir millatni ko'chirib lak-lak,
 Boshqa millat kirsayigay,
 Bu qandayin adolat demak.
 Bu imtiyoz kimga va nega?..
 – Suhbatimiz ketmagay nafsiz,
 Garchi menga qo'shilmadingiz.
 Yoki atay...
 Afsus, ming afsus,
 Siz fikrimni tushunmadingiz...
 Shu zaylda tugadi suhbat,
 Bu haqdirmi yoki haqdir u?
 Stol uzra qolaverdi xat,
 Qolaverdi xalqning taqdiri.
 Kimning tirriq bo'lgandi ta'bi,
 Kimdir artar edi ko'z yoshin.
 Eshikda kutardi... Melisa safi
 Ba usti berk chambarak moshin.
 Birdan sindi barchaning shahdi,
 Bu ne zo'rlik, bu ne razolat?
 Shivirladi ohista Mahdi:
 «Izlab kelgan edik adolat...»

XI

Adolatni axtarib ketgan
 Vakillaring kelmadi qaytib.
 Tirikmi yo olamdan o'tgan –
 Hech bir kimsa berolmas aytib.
 Vatan, qanday barqu sharorsan,
 Vatan, qanday sohir kuchsana sen?
 Himoyaga bunchalar zorsan,
 Qurbonlikka buncha o'chsan sen?
 G'animlarning hasadlaridan
 Hech qachon hal bo'lmas da'vosan.
 Shahidlarning jasadlaridan
 Bunyod bo'lgan buyuk ma'vosan.
 Boshgingangga tushar ming balo,
 Barin yengib o'tib borasan,
 Ming xil balo-qazolar aro
 Kelajakka yetib borasan
 Vatan tinchmi?– tuproq ostida
 Ajdodlaring yotadi tinglab.
 Hur Vatan deb tuproq ustida
 Jangga kirur avlodlar minglab.
 Mahdilaring qaerda qoldi,
 Qayda qoldi bitilgan xatlar?
 Bugun tavof uchun yo'l oldi
 Vatan sari Mavlud, Fikratlar.
 Katta-kichik keldi yig'ilib,
 Uqdirishdi yo'llarni takror.
 Kim davrada qoldi yiqilib,
 Kimdir o'krab yig'ladi oshkor.
 Kimning ko'zlarida havas, suq,
 «Noyil bo'lmoqdasiz zo'r baxtga,–
 Ba chiqarib berdi bir qiyiq,–
 Bog'lab qayting biror daraxtga».
 Tunda qo'li tegmasdan qo'lga
 Nigor yopdi nonlar, patirlar.
 Erta tongda tushdilar yo'lga
 Ikki og'a-ini botirlar.
 Kavkaz! Mardlar va sobitlarga
 Vatan bo'lgan, quyosh bo'lgan yurt.
 Ming yillarkim, mustabidlarga
 Xayol bo'lgan, talosh bo'lgan yurt.
 Kavkaz! Ado bo'lmas sanasang
 Seni bosgan, seni osganlar.
 Tuprog'ingda Doro qilgan jang,
 Seni toptab o'tgan Iskandar.
 Muslimlarning birligi uchun
 Tortmish mening bobom ham yalov.
 Har jahongir senda o'z kuchin
 Sinab ko'rgan mudom beayov.
 Kavkaz! Tag'in nima dey, nima,
 Sen dunyoning shavkat-sha'nisan.
 Senda qolmish Nuh mingan kema,
 Sen – «Xamsa»ning ilk vatanisan.

Surgun bo'lib yurgan shoirlar
 Og'ushingdan ilhomlar olgan.
 Seni kimki bir ko'rsa agar –
 Umr bo'yi bog'lanib qolgan.
 Mayli, moziy – kechagi kundir,
 Boshingdan ko'p shamollar yeldi.
 Kavkaz, bugun peshvoz chiq endi,
 Sening ikki o'g'loning keldi...

Tog'lar oshib, o'rmon kehdilar,
 Tentidilar vodiya uzoq.
 Soy duch kelsa, etik yechdilar,
 Daydidilar qishloqma-qishloq.

– Qaysi maskan borar joyingiz,
 Manzilingiz qaysi shahar, kand?
 – Darband tomon bormoqdamiz biz,
 Darbandlikmiz... Kandimiz – Darband.
 Xuddi ertakdagi singari
 Bo'lgach rosa uch kun ovora,
 Bir qishloqda chollardan biri
 Mag'rib tomon qildi ishora:
 – Ushbu tog'dan o'tsangiz oshib,
 Yo'li ancha og'irdir garchand,
 Bir kand turar toqqa tutashib,
 O'shal balkim siz so'rgan Darband...

Tag'in indi ko'zlarga shu'la,
 Tizzalarga mador kirdi boz.
 Toqqa boqdi, go'yo bir yo'la
 Ikkisi ham qilgudek parvoz.

– Rahmat, ota, qoling sog'-omon,–
 Deya ular turib ketishdi.
 Savlat to'kib turgan tog' tomon
 Shitob bilan yurib ketishdi.

XII

Adirlarda shovullar shamol,
 Cho'qqilarda yaltirar qorlar.
 Archayu sarv, bolud, majnuntol,
 Osmonga bo'y cho'zgan chinorlar.
 Mahobatli tosh uylar – oppoq,
 Ertakdagi qasrga monand.
 Mavlud, qara, Fikrat do'stim, boq,
 Siz izlagan maskan shu – Darband.
 Zirvalarda qo'r to'kib turar
 Bul diyorning shoni, shukuhi.
 Ungurlarda tentirab yurar
 Ajdodlarning sargardon ruhi.
 Pastda yotar darz ketib toshlar.
 Ko'pchib yotar xo'rlangan tuproq.
 Buloq milt-milt to'kadi yoshlar,

Mavlud, qara, Fikrat do`stim, boq.
 Bu dunyoning yozmishi – alam,
 Bu dunyoning ko`zlari basir.
 Darband hamon tutadi motam,
 Darband hamon qayg`uga asir.
 Osmonining burgutlari yo`q,
 Burgutlari, oh, badar ketgan.
 Bu qishloqning yigitlari yo`q,
 Yigitlari darbadar ketgan.
 Ko`zlarida armon, hayajon,
 Yerni quchib yig`laydi Fikrat:
 «Ona!.. Qaytib keldim, onajon!..
 Darbandlikman... Qishlog`im – Darband!..»
 Qaerlarda qolganding, o`g`lim,
 O`g`lim, sening sabringga balli...
 Mavlud uning boshin silab jim,
 Otalarday berar tasalli.
 Tushib bordi ular qishloqqa,
 Ilk hovlida hayron qotdilar.
 Bir oz boqib uyoq-buyoqqa,
 Darvozani taqillatdilar.
 Chiqib keldi semiz bir kampir,
 «Nima kerak?» – dedi do`q qilib.
 Tikilgandek dushmanga yovqur,
 Turaverdi ko`zin lo`q qilib.
 – Ma`zur tuting bizni, buvijon,
 Deya Fikrat ilgari yurdi,–
 Ziyoratga keldik. Bu makon
 Bizning ota-bobolar yurti.
 Xush kelibsiz, der hozir buvi,
 Uyga boshlab kiradi hozir.
 Xafa bo`lmang, taskin berar u,
 Bu dunyoda hamma musofir.
 Keldingizmi, deydi, sog`-omon,
 Tushgan joylaringiz uzoqmi?
 Dasturxonga qarang, bolajon,
 Ota-ona, el-urug` sog`mi?..
 Lekin bunday qilmadi u, yo`q,
 O`g`lonlarga tikildi yomon.
 Axir, mehmon otangdan ulug`,
 Ha, aytmoqchi, kim o`zi mehmon?
 Ikki o`g`lon ota yurtida
 Typap edi damini yutib.
 Kampir bir oz qarab turdi-da,
 Darvozani yopdi qars etib.
 Darvozaning soldi zanjirin,
 Ichkaridan qichqirdi bardam:
 «Xoinlarni tanimayman men,
 Istamayman tanimoqni ham!..»
 Yulduzlaring to`kilsin, osmon,
 Ko`zing oqib tushsin, ey Vatan!
 O`z yurtida ikkita o`g`lon

Kezib yurar sarson, bewatan.
 Daydir ekan bewatanlar to.
 O`z elida sarson, quvg`inday,
 Tuproqlaring tosh bo`lsin, dunyo,
 Dunyo, olov bossin suvingni.
 Ekkan ekiningni sel olsin,
 So`lib bitsin bog`laring, dunyo.
 Daryolaring qovjirab qolsin,
 Qulab tushsin tog`laring, dunyo!
 Ikki o`g`lon qaysi eshikka
 Borar bo`lsa ma`yus, yukinib,
 Chiqaverdi bitta bez tikka,
 Chiqaverdi g`ingshib, so`kinib.
 Chekkadagi anhorni kechib,
 Tosh ustiga o`ltirgancha jim,
 Og`a-ini bir-birin quchib
 Yig`ladilar alamdan yum-yum.
 Ko`p bu yurtga kelib-ketganlar,
 Har gal yig`lab, so`kib ketdilar.
 Bu yurtlarga yelib kelganlar –
 Bu yurtdan bosh egib ketdilar.
 Ikki o`g`lon bosh egib, mahzun
 Qaytib keldi – yuragi vayron.
 Qaytdilaru noumid, beun,
 Bir narsaga qoldilar hayron.
 Yo`q avvalgi o`lik sukunat,
 Odamlarning o`zgacha shahdi.
 Har bir tilda «Vatan!», «Adolat!»
 Hibsdan chiqib kelibdi Mahdi.
 Maskovda bir mo``tabar hay`at
 Boshlaganmish juda muhim ish.
 Hatto mazlum millatu elat
 Vakillarin chaqirgan emish.
 Ko`zlarda yosh, lablarda kulgu,
 Xalq bir-birin o`par quchoqlab.
 El ko`chada kezadi gulgun
 Qilib endi adolat talab.
 Mavlud bilan Fikrat boshiga
 Yopirilib keldi olomon.
 «O`g`lonlarim, xafasiz nega,
 Borib-keldingizmi sog`-omon?
 Darband joyidami, netibdi,
 Omonmikan bog`lar har tugul?»
 «Darbandga o`t tushib ketibdi,
 Darband yonib kul bo`libdi, kul...»
 Qay birovni bosdi zo`r dahshat,
 «Yolg`on! Yolg`on» qichqirar kimdir.
 So`zlab berdi Mavlud va Fikrat
 Boshdan o`tganlarni birma-bir.
 Dunyodan haq izlamoq behud,
 Bu dunyoda yo`q ekan ma`ni.
 So`zlab berdi Fikrat va Mavlud.

«Xoin», «Sotqin» degan ta'nani.
 – Bolalarim! – soʻz boshlar bir chol, –
 Koʻrdik ming xil sitam va jabr.
 Koʻrdik ming xil malomat, malol,
 Endi sabr lozimdir, sabr.
 Oqil boʻling ushbu daqiqa,
 To kezarkan munavvar quyosh,
 Zabun qolib ketmas haqiqat,
 Soʻzsiz bir kun u koʻtarar bosh...
 Hamma birdan bosh egdi quyi,
 Yosh quyilar, oʻrtanar bagʻir.
 Buncha ogʻir haqiqat yoʻli,
 Vatan yoʻli bunchalar ogʻir.
 Sendan soʻrar jafokash jonlar,
 Zolim dunyo, mustabid ochun –
 Toʻkildimi ozmuncha qonlar
 Vatan uchun, haqiqat uchun?!
 Odamzotga, ey qattol zamon,
 Kerak emas koʻp narsa, zotan.
 Kerak faqat Erk degan imkon,
 Vatan kerak, ozod bir Vatan!
 Oʻlkalarga tushayotir nur,
 Endi ortga doʻnmagay bashar.
 Xalqlar istar hur boʻlmoqni, hur.
 Zoʻrliklarga koʻnmagay bashar.
 Tiklanajak insoniy qadr,

Koʻzdan oʻchar gʻafolatning xobi.
 Chok-chokidan soʻkilmuqdadir
 Yolgʻon dunyolarning niqobi.

Koʻchalarda buyuk izdihom
 Oqib borar haqiqat tomon.
 Ular tomon shoshaman men ham,
 Men – Sabriyo, men – Mavlud, Osmon.
 Sezmoqdaman haqiqat kuchin,
 Men basharning shahdu jahdiman.
 Oddiygina adolat uchun
 Besh yil yotib kelgan Mahdiman.

Zoʻrliklardan diydam tosh qotgan,
 Ayting, tokay xoʻrlanaman men?
 Buyuk Xazar tubida yotgan
 Baliq-pari – Nurlanaman men.
 Bugun dunyo tomidan turib
 Hayqiraman, eshit, jigarband.

– Otim Fikrat! – deymen hayqirib,
 – Darbandlikman! Qishlogʻim – Darband!
 Sogʻinch yoqar yosh jonlarimni
 Vatan senga qaytishim yaqin.
 Qirq besh yillik armonlarimni
 Yigʻlab-yigʻlab aytishim yaqin.

SHIROQ

DORONING BOSTIRIB KIRISHI VA SHIROQNING BIR QARORGA KELISHI

Yer-koʻkni bosdi faryod,
 Dahshat, vahshat, gʻalayon.
 Ulovda yo piyoda
 Bosib kelar olomon.
 Qochib kelar xaloyiq
 Ohu zor, dodlar bilan,
 Mingani – tuya, xachir,
 Eshagu otlar bilan.
 Kimdir kimnidir qargʻab,
 Kim yiqilib, kim turib,
 Quvlab kelar izdihom
 Koʻchki kabi surilib.
 Goʻyo qiyomat-qoyim
 Bosgan deysiz dunyoni.
 Quyoshni toʻsib qoʻygan
 Sahroning chang-toʻzoni...

Shu sahroda bir choʻpon
 Bor edi – oti Shiroq.
 Bir ozgina quv edi,
 Bir oz sodda, odmiroq.
 Ota-bobodan meros
 Bir tayogʻ-u bir nayi.
 Lablarida tabassum,
 Nur sochadi manglayi.
 Nigohlari burgutdek,
 Soch – yelkada
 qoʻngʻiroq...
 Xullas, suruvni haydab,
 Nay chalib yurgani choq –
 Bu ur-sur, chang-toʻzondan
 Hayratga tushib qoldi.
 Itlar tinmay vovullar,
 Otlar pishqirib qoldi.
 Duv etib bitta joyga
 Toʻplandi-ku suruvi.
 Sahroga soldi larza

Xaloyiqning gʻuv-gʻuvi.
 Shiroq otiga minib
 Yeldi oʻtovi tomon.
 Borsa, quduq oldida
 Gʻujgʻon oʻynar olomon.
 Qaydan kelmish buncha el
 Sel yoqqandek bemahal?
 Suv ichishar talashib,
 Bir-biriga bermay gal.
 Karvon desa, karvonmas,
 Qoʻshin desa, yoʻq qurol.
 Aralashu quralash
 Talotoʻpdir, bu ne hol?
 Oʻtovning soyasida
 Turar bir chol xafaqon.
 Shiroq borib hol soʻrdi:
 “Oʻzi ne gap, otaxon?”
 Gap boshladi chol mahzun:
 “Soʻramagin, ey oʻgʻlon.
 Yel bunday gʻam
 koʻrmagan.

Urush davridan buyon.
 Yurtimizga o`tdak bir
 Balo kelur bostirib.
 Eronning yovuz shohi
 Doro kelur bostirib.
 Bog`-rog`u dala-tuzni
 Dushman payhon etmoqda.
 Yosh-qari, erkak-ayol
 Birday tig`dan o`tmoqda.
 Yulduzdan ko`p lashkari,
 Hammasining og`zi qon,
 Joningdan umid bo`lsa,
 Sen ham qochib qol,
 o`g`lon”.

Chol xayr-ma`zur qilib,
 Olomonga ergashdi.
 Shiroq qayg`uda qoldi,
 Lol qoldi, aqli shoshdi.
 O`g`li bilan xotini
 Yaqin kelib cho`kdi tiz.
 Yo Tangrim, bu qanday
 gap?

Yer tilsiz, falak tilsiz.
 Xotiniga termuldi
 Ichga yutib yoshini.
 Mador yo`q silagani
 O`g`lonining boshini.
 Falakka ne otilsa,
 Qaytib yerga tushadi.
 Burch avvalo otaga,
 Avval erga tushadi.
 Tangri buncha bag`ritosh,
 Tangri buncha berahm,
 Ayol ko`zida – o`tinch,
 O`g`lon ko`zida – vahm.
 Ikki mushtipar nigoh
 Turadi najot kutib.
 Yetti kunda bu yerga
 Doro kelarmish yetib.
 Alhol, gap boshlar Shiroq:
 “Dam oling bu kecha siz.
 Yerta tongda turibon
 Kun chiqishga ko`chasiz.
 Men bir chora topgali
 Tangrimga yolboraman.

Tongda sizni kuzatgach;
 Saroy tomon boraman”.

Bola axir, bola-da,
 Bundan suyunib ketdi.
 Ayol mung`ayib qoldi,
 G`amdan kuyunib ketdi.

Ikkisin ikki yondan
 Bag`riga bosdi Shiroq...
 Bu mangulik baxt edi,
 Va bu – mangulik firoq...

SHIROQNING O`G`LI
 BILAN VIDOLASHUVI

Erta turdi uchta jon,
 Tong bo`z kabi bo`zargan.
 O`g`lon ko`zida sevinch,
 Ayol ko`zi qizargan.
 G`amlashdi ozuqani,
 Quduqdan suv tortishdi.
 O`tovni ham bo`laklab
 Tuyalarga ortishdi.
 Shiroq o`g`lin bir chetga
 Chaqirib qoldi imlab.
 Boshini siladiyu,
 Boshlay ketdi shundoq
 gap:
 “Ulg`ayib qolding, bolam,
 Aqlu hushing yig`endi.
 Men o`limga boryapman
 Sen bo`lma deb sig`indi.
 Bir kun anglab yetarsan
 Bu hikmatni, bolam-a,
 Sen quldek yashama deb,
 Men mard bo`lib o`laman.
 Yetimman deb o`ksima,
 Senga shul o`gitimdir:
 Otasi yo`q yetimmas,
 Vatani yo`q yetimdir.
 Ertakmas bu gaplarim,
 Bu so`zlarim lof emas.
 Hamma narsa topilgay,
 Faqat Vatan topilmas.
 Dushman bossa dalangni,
 Bog`ingni e tsa g`orat,
 Qul aylasa o`zingni,
 Yo`q bundan zo`r haqorat.
 Mute bo`lsa Vataning,
 G`anim yurtda bo`lsa bosh,
 Boshingga ming musht
 urib,
 Bergaydir bir yutum osh.
 Kuning itdan ham battar,
 Tuning o`limdan og`ir.
 Eshitganing – haqorat,
 Mehnatdan yelkang yag`ir.
 Ko`kka ozod boqolmay,
 Boshing egib yurarsan.

Hatto nafas olmoqni
 Yovlaringdan so`rarsan.
 Qaysi elga qochmagin,
 Qadring bo`lmas dunyoda.
 Yurtsiz qolganning holi
 Tuban bo`lur gadodan.
 Toki Vatan bor ekan,
 Umring go`zal bog` bo`lar.
 Olg`a bossang, u – manzil,
 Ortda suyanch tog` bo`lar.
 O`zga yurtning bolidan
 Yurtining zahri ulug`.
 Ming dushmanning
 mehridan
 Bir do`stning qahri ulug`.
 Toki Vatan bor ekan,
 Unarsan, ulg`ayarsan.
 Yurtning eng suluv qizin
 Bir kun sevib qolarsan.

Sevgiga ham erk kerak,
 Kerak ozod bir makon.
 Yurting ozod bo`lmasa,
 Baxt topmassan hech
 qachon.
 Bandga tushgan Vatanning
 Onalari cho`ridir.
 Yurt nomusi toptalsa,
 Qizlarining sho`ridir.
 Daryodagi balig`ing,
 Osmondagi lochining –
 Bariga g`anim ega,
 Zulmat bo`lur ochuning.
 Chaman ichra bir gulni
 Xush ko`rishdan
 qo`rqasan,
 Hatto kechalar uxlab
 Tush ko`rishdan qo`rqasan.
 Ko`zlaringni ko`r qilar
 Jon vahmining to`zoni.
 Qoningda sovib borar
 Bobolarning isyoni.
 O`tmish chiqar esingdan,
 O`chib boradi yoding.
 Sendan-da ojiz, qo`rroq
 Tug`ilgaydir avlodning.
 Hamma bir-biriga yot,
 Bir-biridan cho`chiydi.
 Ta`ma, yolg`on, xiyonat,
 Razolatlar urchiydi.
 Sherdek-sherdek yigitlar
 Yov poyida yotadi.

Otasini o`ldirib,
Onasini sotadi...
Yurt bor ekan, yurarsan
O`lan aytib, dod solib.
Ko`pkariga kirarsan
Tulpor minib, ot solib.
Adirlarda ayqirib,

Tog`lar oshib damodam,
Qushday uchib yurarsan,
O`zib o`zg`ir shamoldan...
Men-ku ketib boryapman,
Shirin bolam, bol o`g`lim.
Kel, ko`zingdan bir o`pay,
Endi yaxshi qol, o`g`lim.
Enang endi – ham enang,
Ham mehribon otangdir.
Endi otang – shu eling,
Shu suyuqli Vatandir.
Yetimman deb o`ksima,
Senga shul o`gitimdir:
Otasi yo`q yetimmas,
Vatani yo`q yetimdir”.
Bola ko`ngil, nelarni
His etding sen shu damda.
Angladingmi otadek
Kuch borligin olamda.
Ulg`aydingmi bir onda,
Yo irod berdi Tangri?
Yo`qsa nega teng-to`shdek
Quchoqlading otangni.
Yo`qsa yig`lab-siqtamay,
Nega chekmay zor-fig`on,
Shivirlading mardona:
Men roziman, otajon.

SHIROQNING XOTINI GULDURSUN BILAN VIDOLASHUVI

“Men ruh bo`lsam,
duolaring
Ruhga shodlik to`ldirsin.
Sahrodagi noyob guldek
Sevdim seni, Guldursun.
Tunlarda tun kabi uzun
Sochlaringga ko`mildim,
Lablaringda o`tdak
yondim,
Ko`zlaringda cho`mildim.
Kipriklaring ko`ksim aro
O`q bo`lmoqqa chog`landi.

Qora qoshing ko`zlarimga
O`rtuk bo`lib bog`landi.
Ikki qo`ling sirtmoq kabi
Chirmashganda
bo`ynimga,
Shirin ajal kirgan kabi
Tuyulardi qo`ynimga.
Tonggacha shu ajal meni
Yig`lasinu kuldirsin.
Hayotim ham, o`limim
ham
O`zing eding, Guldursun.
Adirlarda yalang oyoq
Chopganlaring esimda.
Kaftim ochib ming bitta fol
Topganlaring esimda.
Botayotgan kunga boqib,
Tiz quchib oqshom payti,
Aytgan hazin qo`shiqlaring
Hamon jonni o`rtaydi.
Seni doim qizg`ongan bir
Yo`lbars edim, sher edim:
Ot choptirsang adirlarda,
Farishtami, der edim.
Sening shivir-shivirlaring
Jonda to`lqin otardi,
Qulog`imdan poyimgacha
Qondek oqib yotardi.
Bulutga bosh qo`ygan kabi
Boshim qo`ysam tizingga,
Jannat kabi edi dunyo,
Jonim, mening ko`zimga.
Kundek o`g`il tug`ilganda
Mehring oqdi u tomon.
Ilk bor sendan o`ksinganim
Esimda hali-hamon.
Ezgin-ezgin allalaring
Kezganida sahroni,
Dami ichlariga tushib
Ketardi bu dunyoning.
Qo`y, yig`lama, yoshing
artay,
Kel, bir kulgin, kel, o`ptir.
Sening shuncha olamingga
Bitta jonim ne bo`pti?
Tangrim o`zi yaratgandir
Sendek suluv jahonni.
Hamda uni asrash uchun
Mendek tanho qurbonni.
O`chog`ingdan qo`r
o`chmasin,
Ko`zingdan so`nmasin nur.

Sendan xabarlar olgani
Har kecha ruhim kelur.
Ot o`rnini toy bosadi,
O`g`limga ayt rostini.
Farqlay bilsin og`ir kunda
Dushmanidan do`stini.
Qarg`amagin, nolimagin,
Uni guldek so`ldirma.
Yolg`izligin bildirmagin,
Yetimligin bildirma.
Bog`lab qo`yma bovloq
toydek,
Ozod o`ssin, hur o`ssin.
Ulg`aymasin o`kinch bilan,
Yovquru mag`rur o`ssin.
Mayli, g`anim qo`li bilan
Tangrim meni o`ldirsin.
Lekin sening nomusingga
Dog` tushmasin,
Guldursun.
Men ketarman bu
dunyodan,
Qolma xunbag`ir bo`lib.
Bahorlarda yog`ajakman
Boshingdan yomg`ir bo`lib.
Bir dam tingan shamol
kabi
Bir damgina tinarman.
Yana bir kun poylaringda
Maysa bo`lib unarman.
Goho bo`ron, goho samum
–
Devonadek kelurman.
Tunlar yoqqan
chirog`ingga
Parvonadek kelurman.
Tush ko`rsangki – bir zaif
sham
Lip-lip yonar go`shada;
O`sha shamman mening
o`zim,
Mening ruhim – o`sha-da.
Ne uchun yig`lab turibsan
Endi mo`ldir-mo`ldir sen?
Ko`z yoshlaring o`zim
ichay,
Ichim otash, Guldursun!”
Guldursunning qanotlari
Yoyildi – oqqush bo`ldi.
Bu dunyo bir ro`yo bo`ldi,
Bu dunyo bir tush bo`ldi.
Shiroqning olov lablari

Kapalakka aylandi,
 Pir-pir uchdi gulzorlardan,
 Gul ichiga joylandi.
 Guldursunning qaro sochi
 Qop-qora chodir bo`ldi.
 Ko`rolmadim, bu chodirda
 Nimalar sodir bo`ldi.
 Bulut kelib to`sib qo`ydi
 Falakning juft yulduzin.
 Eshitdim men uzuq-yuluq:
 “Diydor... Qiyomat...”
 so`zin...

SHIROQNING KENGASHGA BORISHI

Xalqning otasi – xoqon,
 Rabning yerda ko`lkasi.
 U tadbir topmog`i shart
 Xavfda qolsa o`lkasi.
 Doro bosib kelmoqda
 Shaklar Vatani tomon.
 Qabila boshliqlarin
 Saroyga yiqqan xoqon.
 Mashvarat ko`p qizigan,
 Xoqon so`rar birma-bir:
 Bu baloga ne chora?
 Bu kulfatga ne tadbir?
 Birov der: Dorodan zo`r
 Dunyoda yo`q shahanshoh.
 Biz taslim bo`laylik-da,
 Undan topaylik panoh.
 Doro tomon sotilib
 Ketdi uch-to`rt qabila.
 Qon to`kib yurmaylik-da,
 Bosh egaylik bir yo`la.
 Yo`q der birov, biz axir
 Shak degan xalq bo`lamiz.
 Kurashamiz, yo yengamiz,
 Yo hammamiz o`lamiz.
 Bu dunyo keng, der birov,
 Qandayin zo`r joylar bor.
 Bo`liq-bo`liq yerlaru,
 Uzun-uzun soylar bor.
 Doro qadami yetmas
 Ul joylarga ketaylik.
 Boshqa vatan topaylik,
 Boshqa bir yurt tutaylik...
 Hech bir tadbir ma`qulmas,
 Xayolga tolgan xoqon.

Ayni shu payt saroyga

Kirib keldi bir cho`pon.
 Shunday qaltis mahali,
 Qil uzra turganda jon,
 Bunday kengashda senga
 Balo bormi, hoy cho`pon?!
 Xoqon der: “Bu kim o`zi,
 Aqlu hushdan yiroqmi?”
 “Bu Shiroq, – der allakim
 Oddiy cho`pon – Shiroq-
 ku!”
 Xoqon der: “Yurtga ajal
 Chovut solib turgan payt,
 Bizning kengashni buzib
 Nega kelding, cho`pon,
 ayt?”
 Shiroq kengash ahliga
 Tashladi bir-bir nazar.
 Bu nigohda hayot bormi
 Yoki o`lim, alhazar.
 G`azab desang, bu nigohda
 Chaq nab turar muhabbat.
 Muhabbatning zamirida
 G`azabi bor qatma-qat.
 Bu nigohga chiday olmay
 Hamma yerga tikdi ko`z.
 Shiroq xoqonga boqib
 Og`ir-bosiq boshlar so`z:
 “Sizga nechik aziz
 Bo`lsa bu yurt, xoqonim,
 Menga ham shuncha aziz,
 Mening ham yonar jonim.
 Martabayu mansabda
 Farqimiz bor begumon.
 Lekin yurt sevgisida
 Tengdir xoqon va cho`pon.
 Izn etsangiz, – deb
 ko`ksiga
 Qo`ydi Shiroq qo`lini,
 – Men dushmanni
 yengishning
 Topdim bitta yo`lini!”
 Piq etib kuldi kimdir,
 Tentak, dedi kim birov.
 Saroydan bu jinnini
 Quvlamoq kerak darrov.
 Lekin xoqon ko`p fozil,
 Oqilu dono edi.
 “Xo`sh, topding qanday
 tadbir,
 Qani, cho`pon, ayt!” - dedi.
 “Boshliqlar chiqib ketsin,
 Faqat o`sha paytda man,

Bu tadbirni, bu sirni
 Bitta sizga aytaman!”
 Xoqon dedi: “Ey Shiroq,
 Sening ko`ngling bo`lsin
 to`q.
 Mening bu boshliqlardan
 Yashirguvchi sirim yo`q!”
 “To`g`ri, lekin bularning
 Xotini, bolasi bor.
 To`g`risi bor odamning,
 Odamning olasi bor.
 Shubham yo`q
 boshliqlardan,
 Lekin maqol borki, bas:
 Uch kishi bilgan sirning
 Aslo sirligi qolmas”.
 Birdan saroy ichida
 Zo`r g`alayon qalqidi-
 “Xoqon, sizga tajovuz
 Qilmoqchidir balki u?!”
 “Xoqon, nahot ishonmay
 Shuncha ahli a`yonga,
 Ishonsangiz shu tezak
 Hidlab yurgan
 cho`ponga?!”
 Ko`rsaki Shiroq, hech kim
 Ishonmaydi so`ziga.
 Tor keldi unga dunyo,
 Qon quyildi ko`ziga.
 Qindan olib pichog`in
 G`alat o`yin boshladi.
 Burni, ikki qulog`in
 Shartta kesib tashladi.
 Bu dahshatdan bir lahza,
 Qotib qoldi olomon.
 Shiroqning ust-boshiga
 Tirqirab oqardi qon.
 “Hoy, bo`ling tez, – der
 xoqon, –
 Bir odamni so`ydirib
 Nega qarab turibsiz,
 Namat bosing kuydirib!”
 Jarohatga namatni
 Kuydirib bosishgan on,
 Asta-sekin qon tindi,
 O`ziga keldi cho`pon.
 So`ng chiqib ketdi hamma,
 Cho`ponu xoqon qoldi,
 Vatan deya atalgan
 Yer bilan osmon qoldi.
 Biri turib yuksakda
 Adli bilan sochsa nur,

Biri qora ter to`kib
Rizq-nasiba yetkazur...
Suhbat uzoq bormadi,
Tugamay bir chovgum
choy,
Shiroq saroy ichidan
Chiqib keldi, hoynahoy.
Bilmam, ne dedi Shiroq,
Xoqon unga ne dedi?
Chunki o`sha saroyda
Men o`zim ham yo`q
edim..

SHIROQ DORO HUZURIDA

Shaklar yurti, go`zal diyori;
Ta`rifingga yo`qdir so`z.
Har yov seni qildi havas,
Har bosqinchi, tikdi ko`z.
Ko`klami jannat kabi,
Yozlari bir tush o`lka.
Kuzi oltinning o`zi,
Qishlari kumush o`lka.
Yuraklarga o`t solgan
Misli o`t – otash Vatan.
Falakning andozasi,
Osmonga tutash Vatan.
Yerga suqsang ko`karar
Cho`ponning tayog`i ham...
Mana, seni toptadi
Doroning oyog`i ham.
Minglab chodir tikilgan,
Qoq o`rtada qarargoh.
Kulgu o`rlar falakka,
Ko`kka o`rlar zoru oh.
Lashkar uchun xizmatda
Minglab cho`ri, qul edi.
Forslar g`alabadan mast,
Ishratga mashg`ul edi.
Oson kechgan janglardan
Doro shod edi juda.
Chodirida – a`yonlar,
O`yin-kulgu avjida.
Shu payt kirib bir posbon
Bukildi, ta`zim qildi.
O`pdi Doro etagin,
Oyog`iga yiqildi.
Dedi: Kelmish bir yigit,
Maymun yig`lar holiga.
Ruxsat so`rar kirgali
Bu dargohi oliyga!”

“Kim ekan u? – der Doro,
Norozi nigoh tashlab.
– Xo`p, qurolin olingu,
O`zini keling boshlab”.
Kirib keldi bir jonzot,
Odamlik siyog`i yo`q.
Qo`l-oyog`i, boshi bor,
Dumi yo`q, qulog`i yo`q.
Aysh ichra bu Doroga
Juda xunuk ko`rindi:
Qaydan kelmish g`o`laga
Qo`ndirilgan bu mo`ndi?
“Xo`sh, kimsan, nega
kelding,
Bu ne turqu tarovat!?”
“Shohim, men bir
cho`ponman,
Izlab keldim adolat!
Qabilamni shak derlar,
Otimni derlar Shiroq.
Xalqim ham, xoqonim ham
Qadrim bilmadi biroq!”
“Nega?”
“Sizning bu yurtga
Kirganingiz bilgan on,
Qabila boshliqlarin
Kengashga yig`di xoqon.
Birov dedi, Doro zo`r,
Bundan ko`chib ketamiz,
Uniing oyog`i yetmas
Joylarni yurt etamiz.
Birov dedi, biz unga
Bosh egmaymiz hech
qachon.
Kurashamiz qolguncha
Toki so`nggi tomchi qon.
Men ularning fikriga
Qarshi chiqdim banogoh.
Dedim, Dorodek odil
Olamda yo`q shahanshoh.
Bundan ko`chib ketsak biz,
Kim sig`dirar yeriga:
Bu dunyoda yo`q axir
Biyor makon be ega.
Shundayin zo`r shoh bilan
Jangga kirib netamiz?
Bekoru behudaga
Biz qirilib bitamiz.
Xoqon so`rdi, xo`sh,
o`zing
Ne deysan, ayt-chi, Shiroq.
Dedim, hammasidan ham

Taslim bo`lsak yaxshiroq.
Doro kabi zo`r shohga
Biz cho`ri, qul bo`laylik.
Kiraylik panohiga,
O`lpon desa – to`laylik.
Biroq buni eshitgach,
Xoqonga larza tushdi.
Uning buyrug`i bilan
Quloq-burnim kesishdi.
Yurtimda topmay qadr,
O`z elimdan o`kinib,
Sizning huzuringizga
Qochib keldim yukinib...”
Doro Shiroqqa boqdi
Nafrat nazari bilan.
A`yonlarga yuz burdi
Savol nazari bilan.
Ta`zim ila izn olgach,
So`z boshladi bosh vazir:
“O`z Vatanini sotgan
Do`st bo`lmas bizga, axir.
Bundaylarning ko`nglida
Ilon pusib yotadi.
Payti kelsa bizni ham
Boshqalarga sotadi”.
Lashkarboshi Ranosbat
Der: “Balki bu josusdir.
Ikkilanmay boshini
Shartta uzmoq joizdir?”
Shiroq dedi: “Siz meni
Ayblamangiz beasos.
Tangrim haqqi, yurakda
Yonmoqdadir o`ch, qasos.
Men o`limdan
qo`rqamasman,
Ming afsus, ming nadomat,
O`lsam, ko`ra olmasman
Tiklanganin adolat”,-
Cho`pon g`am-alam bilan
Boshin quyi egadi.
Doro: “Xo`sh, sening bizga
Qanday foydang tegadi?”
Shiroq der: “Tangrim
guvoh,
Aldab nima qilaman.
Ular qayda zo`r qo`shin
To`plaganin bilaman.
O`ldirsalar, mana – bosh,
Yo`q e`tiroz, yo`q so`zim,
Ishonsalar, u joyga
Boshlab borayin o`zim”.
“Olib chiqing cho`ponni –

Dedi Doro betoqat, –
 Uni ko`z qorasidek
 Ehtiyot qiling faqat.
 Ul-bul yegulik bering
 Bu badbaxt nobakorga.
 Ertaga biz kengashib
 Kelurmiz bir qarorga!”
 Shohning qovog`i soliq,
 Ko`zlari xunxor edi.
 Lek bu ko`zlar ostida
 Bir mamnunlik bor edi.
 O`z xalqidan o`ch-qasos
 Qilayotir talab-a!
 Shohim, yaqindir zafar,
 Juda yaqin g`alaba.
 So`rmoqchiydim Dorodan
 Bir haqiqat, bir haqni:
 Yaxshiroq bilasizmi,
 Shohim, o`zi bu xalqni?
 Biroq ayshdan bosh karaxt,
 Ko`zlarida g`ubordir.
 Menga qarab turmasdan
 Kengash boshlab yubordi...

DORO LASHKARINING SHIROQ YETOVIDA YO`LGA TUSHISHI

Tongda Doro chodirga
 To`plab ashraf-a`yonni,
 Amr ayladi: “Keltiring
 O`sha badbaxt cho`ponni!”
 Shiroq keldi. Doroning
 Ko`zlarida yonar shahd:
 “Men dushmanning ustiga
 Yurish uchun qildim ahd.
 Aldar bo`lsang, bilib qo`y,
 Ko`zlarini yoshlayman.
 Mana shu qilich bilan
 Boshing uzib tashlayman!”
 Shiroq dedi: “O`ch olmoq
 Bor ekan bu yoziqda.
 G`amlangiz yetti kunlik
 Pichan, suv va ozuqa.
 Yettinchi kun deganda
 Bir ma`voga yetamiz.
 Dushmanning lashkarini
 Yer-la yakson etamiz!”
 Hozir qilindi bir-bir
 Shiroqning aytganlari.
 Cho`pon yo`lboshchi
 bo`ldi,

Ortda – Doro lashkari.
 Doroga go`yo cho`pon
 Zo`r bir suyunchi edi,
 Hammaning yuragida
 Zafar ilinji edi.
 Kimningdir ko`z oldidan
 O`tar qizu xotinlar.
 Kimdir sanar xayolan
 Jaraq-jaraq oltinlar.
 Kimlar yalar lablarin
 Bol yegandek bemalol.
 Kimdir, qancha qul qilsam,
 Deya surardi xayol.
 Telba ochko`zlik bilan
 Yonar Doroning ko`zi.
 Go`yo yotar poyida
 Butun dunyo, yer yuzi.
 Ikki kun yo`l bosishdi,
 Oldinda – sarbon Shiroq.
 Gullagan vodiy tugab,
 Cho`l boshlandi qovjiroq.
 Bir taqir yerga boqib,
 Bir ko`z tashlab osmonga,
 Gumon bilan shahanshoh
 Tikildi-ku cho`ponga.
 “Parvo qilmang, – der
 Shiroq, –
 Shohim, qilmang e`tibor.
 Oraliqda besh kunlik
 Kattagina sahro bor.
 Shundan o`tsak bir joy bor
 –
 Jannatlarning jannati.
 Ana shunda keladi
 Qo`shiningiz navbati”.

Xuddi Shiroq aytgandek
 Sahro boshlandi lov-lov.
 Qum sochar jazirama,
 Osmon yog`dirar olov.
 Uyurmada chang-to`zon
 Raqqosadek o`ynardi.
 G`ijirlar har tishlam non,
 Meshlarda suv qaynardi.
 Saksovuldan lol boqar
 Echkiemar tasqara.
 Yumronlar ta`zim ila
 Qilar edi masxara.
 Toshbaqa kosasiga
 Tortib olgan boshini.
 Ilonlar qochib qolar
 Sudragancha lochini.

Ko`kda to`rg`ay muallaq –
 Izhor etar dilini.
 Kim ham tushungay axir
 Bu sahro bulbulini.
 Qurib qolgan quduqdan
 Par-r etib uchar ukki.
 Cho`lchumchuq
 chivirlaydi
 “Chikki-pukki, chik-
 pukki” ...
 “Qayt-qayt” deya havoni
 Kesadi qirg`iyaklar.
 Unda-munda sochilib
 Yotar oppoq suyaklar.
 Borgan sari qo`shinda
 Mashaqqat ortar edi.
 Go`yo ulkan ajdarho
 Domiga tortar edi.
 Otlar tiziga qadar
 Qumga cho`kib boradi.
 Hamma bundoq sahroni
 Qarg`ab, so`kib boradi.
 Ha, insonni mashaqqat
 Goho jondan to`ydirar.
 Dubulg`ayu sovutlar
 Tekkan joyin kuydirar.
 Sabrning ham kosasi
 Asta to`la boshladi.
 Oltinchi kun deganda
 Otlar o`la boshladi.
 Tugarmikan bu azob,
 O`tarmikan bu kunlar?!
 Bosib ketdi falakni
 O`laksaxo`r quzg`unlar.
 Taskin beradi Doro
 Toliqqan cherigiga.
 Otdan ayrilgan jangchi
 Mingashar sherigiga.
 Faqat Shiroq ot uzra
 Bardam borar iz olib.
 Xuddi qoya ustida
 Turgan burgut misoli.
 Olti kun davom etdi
 Inson va muhit jangi.
 Nihoyat yetib keldi
 Yettinchi kunning tongi.
 Yana o`sha jazira,
 Yana o`sha qum-to`zon.
 Doro so`rar: “Sen aytgan
 Ul vodiy qayda, cho`pon?
 Mana, o`sha aytganing –
 Olti kun ham o`tdi-ku.

Muhlat tugadi, axir,
 Yettinchi kun yetdi-ku?!”
 “Shohim, qurol-aslaha
 Og’irlik qildi bizga.
 Tez orada yetamiz
 Shaksiz, manzilimizga”.
 Dosh bermay bu azobga,
 Hattoki to’yib jondan,
 Kimdir tashlar nayzasin
 Kim voz kechar
 qalqondan.
 Pichanlar tugab bo’lgan,
 Qurib tugagan mador.
 Na meshlarda suv bordir,
 Kajavada na non bor.
 Amringga shak yo`q,
 Tangrim,
 Tangrim, qoyil ishingga.
 Qo`shinga tegdi o`lat
 Borar-bormay peshinga.
 Banda bilmas – qayda
 hayot
 Va qaerda qazo bor.
 Har jabrga bor javob,
 Har zulmga jazo bor.
 Qo`ymasayding sen agar
 Har bir nafsga bir qopqon,
 Bu dunyoni yutardi
 O`sha nafs degan o`pqn.
 Tomosha qilgan odam
 Misoli chumolini,
 Sen ham ko`rib turasan
 Har bandaning holini.
 Mana, buyuk shahanshoh
 Hali jang qilmay turib,
 Qo`shinining yarmidan
 Turibdi-ku ayrilib.
 Yovga qarshi kurashar
 Yurtingdagi sahro ham.
 Nihoyat aldanganin
 Anglab yetdi Doro ham...
 Bitta boshda bir o`lim,
 Shohim, ne g’am chekasan.
 Faqat alam qiladi
 O`lib ketsang bekafan.
 Oqsa-yu sarin suvzar
 Qaydadir bu dunyoda,
 Alam qilar sen tashna
 O`lib ketsang sahroda.
 Qaylardadir bog`-rog`lar
 Yotsa mevaga to`lib,
 Alam qilar o`lganing

Qora nonga zor bo`lib.
 Kimdir chaman
 og`ushida... -
 E-voh, dunyo, voh, olam.
 Sen jasadlar orasida...
 Alam qiladi, alam...

SHIROQNING

G`ALABASI

Ichin it tirnasa ham
 Sir boy bermasdan biroq,
 Doro so`rar: “Cho`ponim,
 Manzil yaqinmi, yiroq?”
 Birdan bosdi sahroni
 Bir qahqaha – telbavor:
 “Etib keldik, shahanshoh,
 Shu yer – men aytgan
 diyor.
 Qoq sahro o`rtasiga
 Men seni olib keldim.
 Shundoq buyuk qo`shindan
 Bir o`zim g`olib keldim.
 Bir o`zim zo`r lashkarni
 Yengmoqqa bo`ldim qodir.
 Endi qayon yursang ham,
 Yetti kunlik sahrodirl!”
 Ranosbat g`azab bilan
 Qilichini sug`urdi.
 Doro uni to`xtatdi,
 Doro oraga kirdi:
 “Shiroq, mayli, Vatanning
 O`zingga siylov, faqat,
 Suv tomon boshla bizni,
 Suvning yo`lini ko`rsat.
 Tegmaymiz mo`yingga
 ham,
 Bizga yurting kerakmas.
 Biror suvli quduqqa
 Bizni boshlab borsang bas!
 Hoy, keltiring Shiroqqa
 Bo`lsa qancha mol-
 dunyo!”
 Bir lahzada tog` bo`ldi
 Duru marvarid, tillo.
 Shiroq esa guldurab
 Qahqaha urar hamon:
 “Bir o`zim g`olib chiqdim!
 Vatanim qoldi omon!..”
 Sahro yomon kuydirar,
 Hech bir imdod yo`q edi.
 Shiroq qahqaha urar,
 Undan najot yo`q edi.

Doro turardi karaxt,
 “Bir oddiy cho`pon!..
 Nega?!”
 Ranosbat kelib qilich
 Soldi Shiroq bo`yniga.
 Go`yo chaqmoqdan chinor
 Ikkiga ajrab ketdi.
 Tog`dek quladi Shiroq,
 Qonlari sachrab ketdi.
 Doro boshin changallab
 Qarg`anar edi faqat:
 “Yarmi jannat, yarmisi
 Do`zax bu yurtga la`nat.
 Ming la`nat zaminiga,
 Osmoniga ming la`nat.
 Shundoq qo`shinni
 yenggan
 Cho`poniga ming la`nat!..”
 Shiroq qoni sahroni
 Ol rangga qorar edi.
 Lashkar esa muttasil
 Qirilib borar edi.
 Ufqqa cho`kib borardi
 G`amdan qip-qizil quyosh.
 Unga termulib turar
 Yerda yotgan bitta bosh.
 Botgan quyosh nurlari
 Falakka sochiq qoldi.
 Sahro ichra bir juft ko`z
 Manguga ochiq qoldi...

XOTIMA

Yillar o`tib bormoqda
 Bedabdaba, behasham.
 Nega ma`yus tortaman
 Lip-lip qilib yonsa sham?
 Yashamoqdan ne ma`no,
 Hayotning qadri nadir?
 Chiroqqa o`zin urgan
 Parvona dardi nadir?
 G`am chekkali odamzot
 Kelmas axir olamga.
 Nega otlar dupuri
 Meni chulg`aydi g`amga?
 Nega mening dardlarim
 Buncha mavhum, betizgin?
 Qiynar qaysi xotira
 Yog`sa yomg`irlar ezgin?
 Nega alla eshitsam
 Qonlarimga tushar o`t?
 Go`yo kimnidir kutib

Yo`llariga ko`zim to`rt.
Botib borarkan quyosh
Qizarib o`z ufqiga,
Qaysi xotira qiynar,
Nega, nega... oh, nega?..
Oqshomlar ingrar shamol,
Sado kelur moziydan.
Ruhimga bir nur yog`ar
Goh shahid, goh g`oziydan.
Vatanni sevaman deb –

Dunyoga solmay dovrug`,
Qulamay turibdimi
Shiroq tikib ketgan tug`?
O`sha tug`ni izlab har
Qalbga kirib boraman;
Tushim suvga aytaman,
Gulga ko`nglim yoraman.
Lov-lov yongan dunyoda
Vatan – bitta samandar.
Men shu Vatan bag`rida

Kezib yurgan qalandar.
Kezdim tog`u toshlarni
Goh g`olibu goh g`arib.
Bu dunyoga men faqat
Kelganman so`z axtarib.
Jinday shoirroqmanmi
Yoki jinday baxshiroq?
Muhlat bering, o`ylayin
Hammasini yax... shi...
roq...

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Usmon Qo`chqor ijodining serqirra tomonlari nimalarda namoyon bo`ladi?
2. Uning lirikasida vatan mavzusining o`rni qanday? Misollar bilan izohlang.
3. “Quvg`in” dostonida nimalar haqida gap ketadi?
4. Unda xalq og`zaki ijodiga xos qanday unsurlarni uchratish mumkin?
5. Dostonda qo`llangan:
Bunday kunni ko`rguningcha to –
Ko`zing oqib tushsin, ey Vatan!..
kabi qarq`ishlar qaysi voqea mohiyatini ochishga xizmat qilgan?
6. Dostonning kompozitsion qurilishi haqida fikr yuriting.
7. Mahdi, Nurlana, Nigora obrazlariga sharh bering.
8. “Shiroq” dostoni qaysi vaznda yozilgan?
9. Doston uchun qaysi xalq afsonasi asos bo`lgan?
10. Shoir uslubi qaysi o`rinlarda bo`rtib ko`zga tashlangan?
11. Har ikkala dostonni birlashtiruvchi nuqta nima?



SIROJIDDIN SAYYID (1958)

Sirojiddin Sayyid 1958-yil 30-oktabrda Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Kundajuvozi qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (2006). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1979).

Ilk she'rlar to'plami – «Ruhim xaritasi» (1985). Shundan keyin uning «Salqin xarsanglar kaftida» (1987), «Sevgi mamlakati» (1989), «Asragil», «Mehr qolur, muhabbat qolur» (1990), «Kuydim» (1994), «Vatanni o'rganish» (1996), «Vatan abadiy» (2001), «Ustimizdan o'tgan oylar» (2003), «Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni» (2000) va boshqa to'plamlari nashr etilgan.

A.Voznesenskiyning «Mangu rizq» (1990) asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan (1999).

TO'POLONDARYO BILAN XAYRLASHUV

TAVALLO

Odamlarni da'vat etib insof, imonga,
Gohida shodmonu
Goh motamsaro,
Quruqlikda suron soldi mening bonglarim,
Senga yolboraman endi, jon daryo!
Kimdan bog'lar qoldi.
Kimdandir dog'lar...
Kimdan hasrat qoldi – tap-taqir sahiro.
O'zing armonimga obi hayot ber,
Senga yolboraman endi, jon daryo!
To'lqinlar cho'qqilar poyini yuvdi,
Giyohlar yuz ochdi tarmalar aro.
Qotgan yuraklarning muzliklarida

O'zing qo'lla endi meni, jon daryo!
Maqsadim zar, shonga o'ranish emas,
Inson kamol topsin yeru ko'k aro.
Yo'limda yastangan ruhiy cho'llarda
O'zing qo'lla endi meni, jon daryo!
Odamlar ko'rdim men – xasdek benishon,
Odamlar – zaminu zamondan ayro.
Hayot daryosidan chetroqda qolsam,
O'zing qo'shib qo'ygin meni, jon daryo!
Endi tiriklikning o'zanlarida,
Tug'yonlar jonimga kirgaydir oro.
Darlarning g'ov bosgan to'g'onlarida
O'zing tug'yon bergil menga, jon daryo!

MULLA OQILNING BETOB YOTGAN

VAHOB SHOIR BILAN SUHBATI

(XX asrning o'ttizinchi yillari. To'polondaryo qirg'og'idagi chayla)

- Biz qaridik, bu daryo tinmadi, tinmadi. Umr – daryo deguvchi edilar, bu daryo
- Ikki o'g'lim bor edi, mulla. Qatorda turgan nor edi, qizlar ularga zor edi. Ko'ksim to'la dog' edi. O'g'illarim tog' edi. Ay, dunyo! Nima qilding-a! Yurak-bag'rim tilding- a! To'ng'ichim o'n to'qqiz yoshda edi, mulla! Bo'yniga tosh boylab shu daryoga cho'ktirdilar. Ko'z yoshimni to'ktirdilar. Ay, dunyo!
- Biz erta-indin o'tamiz. Bu daryo

- Bu daryo mening o`g`lim, mulla!
- Bu daryo tuman yillardan beri oqyaptimi-ey, biz uning sohiliga kelib ketgich bir shamol ekanmiz-da...
- Bu daryo o`n to`qqiz yoshda, mulla!
- Biz yashadik, uvali-juvali bo`ldik, bu daryo
- Bu daryo uylanmagan, mulla!
- Ullarimiz ham ulg`ayib uylanib, uvali-juvali bo`lyapti, bu daryo
- Bu daryoning farzandi yo`q, mulla!
- Men sizga aytsam, armonim ko`p, darmonim yo`q, bu daryo
- Bu daryo mening armonim, mulla!
- Men sizga aytsam, qarilikka davo yo`q ekan, bu daryo
- Bu daryo mening darmonim, mulla!
- Men sizga aytsam, ozmi-ko`pmi gunohimiz bor. Elga nima deymiz? Elni nima deysiz? El... Nima deysiz?
- Hech kimni eldayin yetim qilmasin, mulla!

Davronning dalg`ovini
 Men ko`rdim desam bo`lar.
 Ona yurtim sog` bo`lsa,
 Bearmon ketsam bo`lar.
 Men balki erta-indin
 Qilgaydirman jon taslim.
 Ona yurtim sog` bo`lsa,
 O`lmagay mening naslim!
 O`z yurtin ko`ksiga o`q,
 Otganlarni ko`rganman.
 Eldan chiqib, elini
 Sotganlarni ko`rganman.
 Qolsa mendan SO`Z qolar,
 Donday sohib yurganman.
 Buyuk xalq birlan buyuk

Muhtojlikni ko`rganman.
 Bunda mening o`g`lim yo`q.
 Lekin mening ko`nglim to`q:
 Farzandlari sog` bo`lsa,
 Vatanimga o`lim yo`q!
 Momo tandirlaringa
 Bizdan salom aytgaysiz.
 Men qoldim endi chog`i,
 Siz manzilga yetgaysiz.
 ...Tog`larda aks sado,
 Zirillaydi osmonlar,
 Men yotibman,
 Ko`ksimda
 Ot surmoqda zamonlar.

NIHONDARA

Nihondara – sirlar darasi,
 U ochiq so`zlarni sevmadi.
 Tarixdan yashirdi tarixlarni u,
 Hech kimga aytmadi. Bermadi.
 Yigirmanchi yillar. Uzun chakmonlar,
 Chakmonlar ostida – miltiqlar.
 O`q yangrar. Tulporlar kishnaydi.
 Ko`zida zamonlar – kimdir yiqilar.
 Kim edi? Nimaga? Ayol uchunmi
 Yo Vatan uchunmi u berdimi jon?
 «Chakmonlar» kim edi? Dara bilardi,
 Ammo u sir saqlar. U gapirmaydi.

O`ttizinchi yillar. Xanjarlar.
 Kimnidir so`yishar. Sharillagan qon.
 Otlarning qo`rqinchli kishnashi. Tamom!
 Ne uchun so`yishdi? Ayol uchunmi
 Yo Vatan uchunmi u berdimi jon?
 Hech kim bilmas. Nega? Kimlardi?
 Dara gapirmaydi. Hech kim bilmaydi.
 Daram, gapirmagin, so`ylama tizib
 O`tgan sotqinligu g`irromliklarni.
 Men bo`sh qo`llarimni yuzimga bosib,
 Yig`layman yod etib yiroq yillarni.

NIDO

«Men sizga aytsam, yelkamda bolam, qo`limdagi tugunchada bir siqim tutmayiz, daryo yoqalab ketyapman, ketyapman. Daryoyki, ajdarhoday to`lg`onadi, vishillaydi. Qo`rqib ketyapman deng, yelkamdagi chirqillab «non» deydi. Men esa ketyapman, ketyapman. Hech zog` yo`q. Faqat daryo. Kalima qaytarib yo`l yuraman, yo`l yuramanu pichirlayman. Usha mahallar

yo`llar ham uzun ekan-da. Dunyoda mendan boshqa hech kim yo`qday, go`yoki dunyoning o`zi ham yo`qday, ketyapman. Qaerga ketaman – bilmayman, nimaga ketyapman – bilmayman, lekin ketyapman. Bir mahal sohilda nimadir yalt etdi, yana qo`rqyapman deng, yaqin borib qarasam – beshik, oltin beshik! Suvda chayqalib, qalqib turibdi. Karaxt bo`lib qolibman. G`oyibdan «Ol!» degan sado kelganday bo`ldi. Bolani yerga qo`yib, dovdirab qo`l uzatdim, yetolmadim. Har qancha urinsam ham qo`lim yetmadi. Chayqalib, chayqalib oqib ketdi. Hay, attang-ay, attang!

Shundan keyin to`rt bolam ochlikdan o`lib ketdi. Sizlar ko`rmagansizlar-da, bilmaysizlar...»

(Xumor amma xotiralaridan)

Ochlikdan jon bergan bolalarmiz biz.
Turshak shimib,
Gohi atala ho`plab
Yurgan bo`lsak hamki baribir o`ldik.
Mana bu mushtdayin tepa – Toshpo`lat.
Mana bu – Rohila.
Bunisi – Qodir,
Ochlikdan jon bergan bolalarmiz biz.
Yog`och qoshiqlarday qator qo`lchalar...
Dunyoning eng hazin nolalarimiz.
Turdining otasi o`lganda jangda,
Bunda ukasi ham o`ldi – qo`ng`ir sochligi.
Ko`rdik:
Tegramizni qurshadi birdan
Ulug` Vatan urushi bilan

Ulug` Vatan ochligi,
Jangda yaradorni qutqarmoq mumkin.
Bunda ochlik «yaralasa» o`ldirar edi.
Uvvos solganida qartang juvonlar,
Biz mo`ltirar edik.
Mo`ltirar edik.
Mo`ltirab-mo`ltirab o`tdik dunyodan.
Xayr, kelajakning issiq nonlari!
Shamollar uyg`otar bug`doyzorlarni
Tonglari. Tonglari. Tonglari.
Faqat oqibatdan xavotirdamiz,
Bag`rin keng ocharkan purne`mat hayot,
Bizni ham yodiga keltirarmikin
Hech qachon och qolmagan avlod?..

XOTIRA

«Urush ekan-da, 43-yil, gospitaldan chiqqanimda uyga borib kelishga ruxsat berishdi, keldim. Yo`lxaltamda yarimta non. Vokzalda bir mushtiparga ko`zim tushdi, yonida bolasi – ikkovi ham zor-zor termuladi. Yaralangan suyaklarim yana o`q yeganday zirqirab ketdi. Nonimni berdim. O`zim daryo yoqalab taxtakunjara chaynab ketdim. Yo`lovchilar bergan taxtakunjarani. Aytsam ishonmaysizlar.

Itning boshiga solmasin u kunlarni, itning!»

(Otam aytib bergan)

* * *

Tinchlikda kun kechirim,
Hayotim-chun bejirim,
Ota, meni kechiring!
Musaffo osmon uchun,
Millionlab qurbon uchun,
Yasholdimmi E`tiqodni tiriklikka ko`chirib?
Ota, meni kechiring!
Ko`kraginga sanchiladi alamlarning xanjari,
Ko`ryapman:
Zor ketyapsiz – qo`lingizda kunjara...
Ota, meni kechiring!
Kechiring, chun umringizning
bori dardu g`am bo`ldi.
Nega bugun non ko`p,

biroq mehru xotir kam bo`ldi?
Nomu mansab, shonu shuhrat
janglarida qurbonlar
Berib, nechun insonligin
yo`qotar bu insonlar?
Saxro bo`lib o`tganlarning yodi meni
o`rtaydi,
Daryo bo`lib o`tganlarning yodi meni
o`rtaydi.
Shuning uchun ko`z oldimda to`lib-toshib
hozir ham
O`taverar To`polondaryo –
Hech tuganmas Xotira.

Buloqlar yoshidan paydo bo`ldim men,
Cho`qqilar «toji»dan paydo bo`ldim men.
Tug`ildim chaqinlar to`olonidan,
Shundanmi To`olonidaryo bo`ldim men.
Ko`klam sellarining xo`yi mendadir,
Asl giyohlarning bo`yi mendadir.
Bag`rimga bosdim men qaldiroqlarni,
Toshqinlarning «sayil-to`yi» mendadir.

Shunday bog` bor edi bu qirg`oqlarda,
Daraxtlar o`rnida yuzlab dog`endi.
Dunyoda bog` bo`lib nima ko`rding sen,
Hayronbog`, nimaga hayronbog` eding?
Vahshiy qoyalar ham angraydi qoldi,
Qani ul zaranglar, metin irg`aylar?
Hayronbog`, dunyoga hayron boqma sen,
To dunyo bor ekan qirqiqib, qirgaylar.
Bag`rini tonellar o`ygan TOF bir yon,
Bir yonda or-nomus,
Bir yon – zinolar.
Asru zamonlarning ustunlariday
Chinorlar yiqildi,
Buyuk chinorlar,

To`g`on qad ko`tarar Nihondarada,
Nihon zamonlardan xotira to`qib,
Qoyalar ko`ksida sirg`alar shamol,
O`ng tomonda – cho`qqi,
Chap yonda – cho`qqi.
Shamolim, nelarni so`ylayotirsan,
Adashgan qiz yanglig` tentirab sarson?
Balki huv qorlardan pinhon xating bor,
Uni uqiy olmas hech kim hech qachon.
To`g`on.
Mening sirli daram oshkor larzada,
Xarsanglar ag`anar suvga, chang-to`zon.
Ekskavatorlar – temir dinovavrlar
To`rt yondan hamlaga shaylanar,
To`g`on.
To`g`on, asrlarim qum bo`lib oqdi,
Bobolarim chopdi:
– Jon dashtim, uyg`on!
Qurg`oqchil zamonlar, kamchil davronlar,
Qatma-qat armonlar hammasi – to`g`on.
Neki aytgan bo`lsam rost aytdim faqat,
Lekin anglab yetdim:

DARYO

Ming yillik chinorlar farzandim mening,
Hayqirar har toshu xarsangim mening:
Asrangiz baliqlar, o`simliklarni,
Tabiat – eng so`nggi asrandim mening.
Beiz yo`qolmasin to ohularim,
Toki zangor qolsin bu sohillarim.
Bulg`amay qoldiring sof bir jilg`amni,
Toki urug` ochsin gulmohilarim.

HAYRONBOG`

Mana bu dili yo`q toshlar ham bildi:
Hayronbog`, ingradning.
Bunda dog`man men.
Ildizlar fig`oni jonimda, ketgum –
Kezib yurguvchi bir hayronbog`man men.
Do`stlar qushlar kabi tark etdi meni,
Chinor tuyg`ularim xas bo`ldi, ko`rgin:
Ruhimda xazonday yonmoqda nomlar,
Hayronbog`, mendan ham bir ahvol so`rgin!
Nahot shovullamas ko`ngil bog`lari?
Har yon boq, har on boq, hayron boq.
Bir juft uya kabi bo`m-bo`sh ko`zlarim.
Shu ham gap bo`ldimi endi, Hayronbog`?

TO`G`ON

Har neki yolg`on,
Fosiqlik, dabdaba, so`zbozlik, g`araz –
Bari Vatan kamoloti yo`lida to`g`on!
To`g`ondir munofiq, xudbin to`ralar,
Yurtdan foyda poylab yurganlar – to`g`on.
Muqaddas so`zlardan shiorlar tuzib,
O`zi vijdon pullab turganlar – to`g`on.
«KrAZ», «BelAZ»larning shovqini aro
Ko`ksimga urildi nogoh, zo`r tug`yon:
Yomonlikka qarshi ogoh, jonfido
Insonlar to`g`ondir,
Men ham bir to`g`on.
Gohi tinch daryoday hayron ketdim men,
O`ng tomonda – yolg`on,
Chap yonda – yolg`on.
Insoniy bir mehr, bir kaft, bir kalom
Bilan siz yolg`onga bo`ldingiz to`g`on.
Mening umrim nadir –
Toshqindir, seldir,
Oqquvchi ko`ngillar ko`klami tomon.
Yomonlik yomondir – kulfatlari bor,
Undan ham betug`yon omonlik yomon.

FARZAND

Sen daryo bo`yida dunyoga kelding,
 Daryoyu zamonning to`fonlarida.
 Ismingni yozishdi ostonalarning
 Hali qurimagan betonlariga.
 Hayqirib turardi u payt qoyalar.
 Osmonlarda – chaqmoq, guldurak.
 Sen toshqin qo`ynida dunyoga kelding.
 Demak: Ko`ngling toshqin,
 O`zing toshqin bo`lmog`ing kerak!
 Sening beshigingni tebratdi yellar,
 Giyoxlar bezatdi uyqularingni.
 Anov cho`qqilardan ohular tongda
 Ko`rdi labingda ilk kulgularingni.
 Bularning barchasi Vatandir, Vatan!
 Tovoning o`pajak har bir tosh – Vatan.
 Sen hali bilmaysan – yangi ayvonning
 Shiftini tanlagan qaldirg`och – Vatan.
 Tillaring suvlarday ravon bo`lganda,
 Burgutlar uchganda torday dilingdan,
 Yurakning eng yuksak cho`qqilarida
 Bir kun uchrashasan sen Vatan bilan.

Uning bir kuniga yaramoq uchun,
 Og`ir damlarida bo`lmoq-chun tirak,
 Ozlik qilar faqat jim sevib yurmok,
 O`zing ogoh,
 Ko`ngling ogoh, bo`lmog`i kerak!
 O`zing imon,
 Ko`ksing imon bo`lmog`i kerak!
 Vatan, deb o`zini yoqlab, aldasa,
 Nopoklar aldasa,
 Chapaklar aldasa,
 Hamma har yo`sinda uni talasa,
 Sen o`z yuragingni yulmog`ing kerak!
 Sen o`z yuragingni yulmog`ing kerak!
 Vijdon teshasini urib befaryod,
 Vatanni manzilga eltmog`ing kerak.
 Juda qiyin yo`ldir bu yo`llar, Farhod!
 Shundanmi, bu yerda ulkan qoyada,
 Oppok harflar bilan bezab jismini,
 Quruvchilar o`rnatishibdi
 Sening Navoiydan qolgan ismingni.

UY

«Menga ham tinchlik kerak. Tanka minib kelsang ham hech qaerga ketmayman. Yetti pushtim shu yerda ko`milgan bo`lsa... Dushox cho`qqisiga chiqib chodir tikib o`tiramanki, illo bu tog`lardan ketmayman. Urushda qatnashgan bo`lsam, indivalid bo`lsam, katta o`g`lim muallim, kenjam o`quvchi bo`lsa. Yana birovi armiyada yuribdi. Erta-indin kirib kelsa-yu «Ota, uyimiz qaani?» deb so`rasa, sening bulduzo`ringni ko`rsatamanmi?!»

(Urush qatnashchisi Narziqul Norovning mahalla yig`inida aytgan so`zidan).

Sizning hayotingiz bus-butun bo`lsin,
 Nasib etsin Sizga shodlik ila kuy.
 Ko`z oldimdan ketmay meni o`rtaydi
 Otam yarmisini qurib ketgan uy.
 Otam yarmisini qurib ketgan uy
 Tizzalab keladi so`zlari bilan:
 «Mendan shu uy qolar...»
 Va yig`laydi uy
 Oynasiz romlarning ko`zlari bilan.
 Eshiklar hangu mang.
 Kesaklarda
 Bolg`asini kutib mixlariqo.
 Otam qayga ketdi?
 Bitgan dunyoda
 Bitmagan yolg`iz uy yig`ladi qoldi!
 Ustivor ustunlar,
 Siz nima deysiz?
 Nega jim turibsiz, bitmagan shiftlar?
 Chala xonalarda armonim mening,
 Bo`g`otlarda esa dardlarim qishlap.
 Umlar umidin sarf etdi bunga,

Otam yillab ko`rdi bu imoratni.
 Hayot nihoyaga yetmagan ishlar,
 Kentik quvonchlardan yo iboratmi?
 Otam yarmisini qurib ketgan uy...
 Shul sabab umrimda sog`inchlar yarim.
 Yelkadosh bo`laman ustunlaringga,
 Ostonangda ezilar bag`rim.
 Dil bilan oqlayman devorlaringni,
 Otam yarmisini qurgan uy – yurtim.
 Garchi bir mehrga zor bo`lib ba`zan
 Ko`cha-ko`ylaringda hayrona yurdim.
 Ko`nglimda firog`u arazim yo`qdir,
 Otam yarmisini qurgan uy – yurtim.
 Men ham bir me`morman.
 Yuksak tog`larday
 Yuksak tuyg`ulardan men seni qurgum.
 Men bir quruvchiman.
 Bunyod etgayman
 Seni ko`ksimdagi yolqinlarimdan.
 So`zma-so`z, qadma-qad, zarrama-zarra
 Ko`rk bergum dildagi toshqinlarimdan.

Devorlar qurgayman ishonchlarimdan,
Quvonchlarim bilan ko`chalarini
Chiroqlar singari munavvar etgum.
Nurlarga to`ldirgum kechalarini.
So`ngra kirib borgum bunyodkor kabi
Ko`ngli yarimlarning ko`ngillariga.

Qirg'oqlar so`rog'idan
Qarog'imga yosh oldim.
To`lqinlarning kaftidan
Yetti dona tosh oldim.
Ko`zu qoshim shu daryo,
Mavjlardan quyosh oldim.
Baliqlarni qo`yvorib,
Yetti dona tosh oldim.
Mangu to`poloningga
Jon-dilim payvand, daryo.
Farzandlar qatorida
Men ham bir farzand, daryo.
Qoyalarni qayrading,
Xarsanglar – ravon-ravon.

Meni qayradi yillar,
Yuragimda – to`polon.
Seni boshqa ko`rmayman!
Xotiram – suv, tosh, qumlar.
Sen qolursan,
Meni-chi,
Olib ketgay toshqinlar!
Huv boqqan ohularning

So`ngan umidlarning chiroqlarini
Almashtirgum yangilariga.
Toki har bir uyda Baxt to`yi bo`lsin.
Toki har bir to`yda Baxt bo`yi bo`lsin.
Toki har bir orzu Baxt kuyi bo`lsin.
Toki har bir ko`ngil Baxt uyi bo`lsin!

ESDALIK

Ruhimdadir ohlari.
Bir zum chayqalib qolar
Bobolarim bog'lari.
Endi bu yerlarda men
Burgutxayol yurmayman.
Uchratolmayman seni,
Seni boshqa ko`rmayman!
Endi uyg'onsam kerak
Kechalari salqinlab.
Ostonamga bosh urib
Kelaverar to`lqinlar.
Tog'larni o`ylagayman
Betonlarda o`ltirib.
Xarsanglar kelaverar
Arslon yanglig' bo`kirib.
Shamollar ko`chib kelar
Farishtaday uyimga,
Chinqirib so`qmoqlarim
Osiladi bo`ynimga.
Va yozuv stolimdan
Misli yetti mitti jon,
Yetti dona tosh boqar –
Yetti dona to`polon.

ZULMAT VA ZIYO

Men chiqdim qorong'u o`ylar qa'ridan,
Bir yorug' shamol ham chiqdi naridan.
Bulutlar yuzardi ko`klarda yiroq,
Bir tomoni qaro, bir tomoni oq.
Daryo ketar edi tun aro tanho,
Bir sohili yorug', bir sohili qaro.
Uzanib yotardi uzun yo`l horib,
Bir tomoni qaro, bir tomoni yorug'.
Dalalar chiqdilar oldinma-ketin,
Yarmisi zim-ziyo, yarmisi oydin.
Guvlab charx urardi tegramda dunyo,
Bir tomoni zulmat, bir tomoni ziyo.
Tinmay jang qilardi ikki zo`r qudrat,
Birovi Qabohat, biri Adolat.

G'ichirlab aylandi jafokash Zamin,
Bir tomoni shodmon, bir tomoni hazin.
Va bu Zamin uzra turardi mangu
Uylar – yarmi yorug', yarmi qorong'u.
Qancha xon, beklarni o`tkizgan elim,
Qancha Oybeklarni yutqizgan elim,
Nima bo`lganda ham har on, har zamon,
Ko`nglim derazasi ochiq sen tomon.
Bugun bir shamollar esmoqdalar, boq,
Termizdan to Toshkent Xevoq,
Shu jonbaxsh nasimga qorishib borar,
Mamlakatning yuzi yorishib borar.
Men ham nur eltsin deb zulmat dillarga,
Yorug' so`zlarimni sochdim yellarga.

Yurakdagi tug'yonlardan

DA'VAT

Paydo bo`lding, paydo bo`lding,

Inson uchun, iqbol uchun
Daryo bo`ling! Daryo bo`ling!
O`zgalar-chun o`zingizdan
Ayro bo`ling, ayro bo`ling.
Kuyib, qaqrab kolsangiz ham
Daryo bo`ling! Daryo bo`ling!
Bu dunyoning ishlariga
Mayli lolu hayron bo`ling.

Sahro bo`lsa boshqalar, siz
Daryo bo`ling! Daryo bo`ling!
To`lib-toshib yashang faqat,
To`lib-toshib ado bo`ling.
Ko`lmak emas, ne bo`lsa ham
Daryo bo`ling! Daryo bo`ling!
O`zbekiston, tashna yurtim!

Tuproqlaring nurga to`lib
Toshganini ko`rganman men
Daryo bo`lib, daryo bo`lib.
Faqat Amu, Sirdaryomas,
Sohilidan ayrolaring –
Usmon Nosir, Qodiriylar
Sening ulug` daryolaring!
Ular yodi, nomlaridan
Onglar gulga burkanar.
Yuragini kukragida
Toshday olib yurganlar
Hali ham bor...
Bu so`zlar ham
Toshqin to`zonlariday.
Vijdon otlig` daryo bo`ling
Zamon o`zanlarida.

XOTIMA

Daryo bilan xayrlashaman,
Xayrlashganday suron bilan.
Daryo bilan xayrlashaman,
Xayrlashganday to`fon bilan,
Lekin qancha vido aytсам
lablarimda armon bilan,
Oshno bo`lib bormoqdaman
tug`yon bilan, tug`yon bilan.
Tuyg`ularim joy talashur
zamin bilan, osmon bilan,
Shiddatlarning tillarida
dunyo bilan dardlashaman.
Men dardlashib daryo bo`ldim.
Men xayrlashib daryo bo`ldim,
Daryo bilan xayrlashaman.
Yillar bilan tashlashaman.
Daryo bilan xayrlashaman!
Paxsa uylar so`nggi marta
to`lqinlarda qalqirlar.
Bobolarim kulbasida sayr etmoqda baliqlar!

Yo`llar bilan ahdlashaman.
Daryo bilan xayrlashaman!
Barchasini ayto'lmadim,
Sohillarim tor keldi.
Qancha daryo bo`lsa ko`nglim,
shuncha tashna, zor keldi.
Lekin ko`rdim: yuraklarga
bahor keldi, bahor keldi!
Men dilimni endi tinmas
sellarga almashaman.
Daryo bilan xayrlashaman!
Xayrlashaman. Lekin bunda
qoyalarday yodim qolar.
Ohularga makon izlab
cho`qqilarda dodim qolar.
Jarlarda faryodim qolar,
Menda bir daryodil qolar.
Daryo bilan xayrlashaman,
Daryo bo`lib xayrlashaman!

1985-86-y.y.

TANAZZUL YOKI BIR BEGONANING IZTIROBLARI

BEGONA

SOYA

CHEHRA (faqat bir marta namoyon bo`ladi)

TANGA KO`ZLI ODAM

OSHXO`RLAR

«FARMON» ISHLAB CHIQRARISH BIRLASHMASINING XODIMI

KAMPIR
XODIM
BRIGADIR
MO`YSAFID

BIRINCHI KO`RINISH

Shom chog'i. Minora. Ko`kda hilol ko`rinib turibdi. Tevarak jimjit. Minoraning oldiga Begona keladi. Uning g'amgin jussasi, g'ussali yuzi shom g'ira-shirasida yanada so'lg'inroq ko`rinadi. Minoraning atrofida sopol parchalari, naqshin koshinlarning siniqlari sochilib yotibdi.

BEGONA

(o`zicha)

Ming yillardan buyon meni qiynaydi hayot,
Ming yillardan buyon xoru sarsondurman, men.
Kecha ko`rgan tushimga ham ming yil bo`libdi,
Gohi sarob, gohi obiravondurman men.
Ko`nglim ichra maqbar qurgan dardu alamlar,
Kechgandirlar go`yo ming yil avval boshimdan.
Shu holatga tushgandirman ming yillar avval,
Men ming yillar oldindaman asl yoshimdan.
O`shal osmon, o`shal shomu o`shal yarim oy,
Qo`llarimni beixtiyor yuzga surtgayman.
Azon yanglig' intihosiz, qadimiy, ko`hna
Hasratlarning xirqasiga o`zni burkayman.
Kelaverar oq ot mingan oppoq mo`ysafid,
Lekin menga yaqinlashmay yana qaytadi.
Men ikkiga bo`linganman:
Bir men bundadir.
Bir men esa moziylarda takbir aytadi.
Biron, bular bir-biriga begonadirlar.
Bundagi men undagidan garchi olddadir,
Garchi ketgan bo`lsa hamki ming yil ildamlab,
Lekin mehru e'tiqodda ming yil ortdadir.

(Siyohday yoyilib Soya paydo bo`ladi)

SOYA

O`z-o`zingga nimalarni so`ylayotirsan,
Yosh boshingda ming yillarning sho`ri, savdosi?
Ovozing ham tanishdayin. Sen emasmisan
Men – Soyani tashlab ketgan kasning gavdasi?

BEGONA

Sen adashding. Men soyamni yo`qotmaganman.
To`grirog'i, senga o`xshab men ham bir soya.
Shundoq ko`yga solmish meni e'tiqodsizlik,
Soyalarning nayranglari bo`lmishlar doya.
Meni tinch qo`y.

SOYA

Soyalarni pastga urmagil.
Tegib ketar bu hol mening hamiyatimga.
Sal adashgan ko`rinasan, yaxshisi, kelgin,
A`zo bo`lgin sen «Soyalar jamiyati» ga.
Soyalarning kelajagi porlokdir, bilsang,

O`shal porloq manzillarga birga boramiz.
Eplab ketsang, o`z ishingni do`ndirib borsang,
Ulush qo`shsang umumsoya qasidamizga,
Seni bir kun muharrir qib saylaymiz, ukam,
O`zimizning «Soya sari» ro`znomamizga.

BEGONA

Meni tinch qo`y.
O`zi bunga senlardan qochib,
Besh-olti kun tanho yuray deya kelgandim.
Bu minorning harflari-la ruhimni yuvib,
Qadim-qadim o`ylar suray deya kelgandim.
Ket bu yerdan.

SOYA

E, qo`ygil, bu qizil gaplarni.
Qadim-qadim o`ylaringdan menga ne foyda?
Yaxshisi, yur, go`zal-go`zal soyaqizlar bor,
Ko`ngilxushlik qilaylik bir,
Osh bor bir joyda.
So`ng ertaga «Jamiyat» ga birga boramiz.
Kengash bordir. O`tirasan, ko`rib, bilasan.
Muhokama qilgaydurmiz dasturimizni,
Qaqqaygan bu minorani nima qilasan?
Harflarini baribir ham tushunmaysan-ku?
Ota-bobong bilgan bo`lsa o`zi yetgaydir.
Buxoroying tamom bo`lgan.
Minorang ham biz
Omon bo`lsak, bir kun o`zi nurab ketgaydir.
Sen bunchalar tushkun ketma, ko`nglingda agar
Dog`ing bo`lsa, nafsing ila shuvab tashlagil.
Og`zingdagi siniq tishday siniq so`zlarni,
Ya`ni, «Imon», «E`tiqod» ni tuflab tashlagil.
Ko`ribsanki, juldur jahon yorishgay birdan,
Ko`z oldingda nozlangaydir tannoz bir hayot.
Qiynamaydi ko`ngil degan ortiqcha gaplar,
Chunki, unda ko`ngil bo`lmas, bo`lmas xotiro.
Mana, mendan qiyos olgil.
Men ham bir paytlar
Bargga tomgan shudring yanglig` pok bola edim.
Poda boqib yurar edim zumrad qirlarda,
O`z ko`nglimning tog`larida shalola edim.
O`, bu ko`ngil ne ko`ylarga solmadi meni?!
Ahmoq bo`lib izlaridan ketaveribman.
Devonaday, xudo menga ko`ngil bermish, deb
Dunyoning bor g`urbatini yutaveribman.
Do`stlar mendan yuz o`girdi.
Xeshu aqrabo
Telba, deya raftorimni doston qildilar.
Qonim bilan o`stirganim mehrim gullarin
Yuragimning go`shti bilan yulib oldilar.
Borolmadim yetib otam janozasiga,
Ko`ngil, deya kirib chiqdim ne mahkamaga.

...Bir kun kelsam, ishxonada, devorda e'lon,
Mening ko`nglim qo`yilgandi muhokamaga.
Alqissa, men o`shal kuni ishdan haydaldim.
Bilolmasdan yurdim xiyla: tushmi, o`ngimmi?
So`ngra g`alat soyalarga qo`shilib ketdim,
Shunda ishdan haydaganman o`jar ko`nglimni.
Keyin desang...
Keyin qiziq bir gaplar bo`ldi.
Qozongandim soyalarning hurmat, mehrini,
Ular meni bir mahallar ishdan haydagan
Idoraga boshliq qilib qo`ydilar meni.
Shundan buyon xotirjamman.
Katta soyalar
Oldiga ham ahyon-ahyon kirib turibman.
Yosh soyalar davrasida izzatim baland,
Ko`ngillarni muhokama qilib yuribman.

Begona javob berishga ulgurmayin, minoradagi majruh yozuvlar shu`lalana boshlaydi, naqshlarga nur yuguradi, atrof yorishib porloq Chehra namoyon bo`ladi. Soya mino- raning ortiga chekinadi.

BEGONA

Faqatgina sen begona emassan, ey nur,
Ming yillardan buyon faqat seni kutgayman!
O`ylovdimki, tushimda ham ko`rmay bir umr
Uyqularning zindonida chirib ketgayman.

Chehra indamaadi. Taralayotgan nur iplari qaytib Chehraga singiy boshlaydi. Begonaning ko`nglida bir tola nur soladi. Chehra goyib bo`ladi. Begona buni sezmaydi. Soya chiqadi.

Telba, yana nelar deya g`o`ldiraydiansan,
Angrayganча turib qolding, qochmading nega?
Qanaqa nur, hozirgina sening qarshingda
Qo`nib o`tdi uch oyoqli uchar tarelka?!

Begona o`ziga keladi. Qarshisida Soyani ko`rib hayron qoladi. G`azablanadi.

BEGONA

Haligacha ketmadingmi?
Oshing lanj bo`ldi.
Soyaqizlar soyasida, bor, ayshingni sur.
Gum bo`l bundan, o`ylaringa soya tashlama.

(Minoraga qaraydi. Yozuvlar shu`lalanganday bo`ladi)
Faqatgina sen begona emassan, ey nur!

SOYA

Ming yil o`qitsa ham sendan Soya chiqmaydi,
Sen u nurni bu tuproqdan topmay o`tgaysan.
Toki biz bor, bunda ziyo yoyilmagaydir,
O`ylaringning girdobiga cho`kib o`lgaysan.
Mayli, vaqt bor.
O`ylab ko`rgin, imkon bor hali,
Soyalarning umrigina foniymasdir, bil.
Faqat... kelsang, o`ylaringni unutib butkul,

Ko`nglingni ham shu yerlarda dafn etib kelgil.

Nariroqdan qinqirib oshxo`rlar o`ta boshlaydi. Soya ketadi.

BEGONA

(o`zicha)

Qayga boray?
Ming yillik bir faryod keladi,
Tushunmayman ming yillarning faryodini men.
Harom-harish davron surgan bu sarzaminda
Ko`rdim mehru e`tiqodning barbodini men.
Qayga borgum? Qaydan yo`qlab, qaydan topgayman
Bobolarning pok, muqaddas nafosatini?
Har bir ko`lka minoraning ortiga o`tib,
Naqshlarga sochib ketsa najosatini.
Gumbazlar ham gumbaz emas,
Mag`lub lashkardan
Nishon qolgan dubulg`aga o`xsharlar ko`proq.
Yer qa`ridan oyatlarning ingrog`i kelur,
Qatlam-qatlam imlo bo`lib yotgan bu tuproq
Yana qayta tug`armikan Buxoriylarni?!
Men o`ylayman,
Kalimalar to`kib o`ylayman.
Badbaxt Soya to`g`ri aytdi, gar o`lsam bir kun
O`ylarimning girdobiga cho`kib o`lgayman.
Qubbalardan yarim oyni uzib otganlar,
Uzolmagay lekin uni falak toqidan.
Maqbaralar sukutini qars-qars sindirib,
Avliyolar chiqib kelgay bir kun xokidan.
...Mana, minor. Olinganmish muhofazaga,
Koshinlari ko`chgan, harflar sadporadirlar.
Ta`mirchilar necha yilki asl holiga
Qaytarolmay sarsondirlar, ovoradirlar.
Ular lekin bir narsani bilmaslar aslo,
Bu minora qolsin uchun sarbaland, solim –
Xasday beshon lavhalaru farmonlar emas,
E`tiqoddan bo`yoq kerak, mehrdan yelim.
Men ham kezib yurguvchi bir minoradurman,
Muhabbatim naqshlari bo`lmish xoru zor.
O`ylab ko`rsam, yemirilib ketgan ruhimda
Uch-to`rt uzuq-yuluq so`zdan boshqa nima bor?
Tug`ilganda boshim uzra nutqlar so`ylab,
Har xil yolg`on dasturlarga yo`rgakladilar.
Yurti g`orat aylab yurgan soyalar, yurti
Qanday sevmog`ni ham tag`in o`rgatadilar.
Ta`limotlar nigun ketdi,
G`oyalar poymol.
Choram boru apo yo`lda bechoradurman.
Jaholatu jahannamning oralig`ida
O`z ruhimni ta`mirlolmay ovoradurman.
Qayga boray?
Temir uylar qurshovida yot

Minoradek zamonlarni bo`ylab tikildim.
Mavhum, mubham istiqboldan o`zni topolmay,
Yana o`zni moziylarga badarg`a qildim.
Musofirday o`tib bordim «Devon» lar aro,
Tarixim-la so`zlasholmay gung yanglig` kezdin.
Tan olmadi meni qutlug`, ko`hna shajaram,
Chunki, men o`z o`tmishimga begona edim.
Chinorlarda yig`lar oqu qizil lattalar,
Azizlari yer qa`riga ketgan, ey Vatan,
Minoralar uzra kezgan uyg`oq ruhlarga
Bukun yetti yotligimni bildim daf`atan.
Begonaman o`z ajdodiy hikmatlarimga,
Ular donday tovonimda yanchilgandirlar.
Dahmalarga yaqin borsam, tug`lar chinqirib,
Nayza yanglig` ko`kragimga sanchilgaydirlar.
Sezmoqdaman foniy jismu jahonim aro
Kechmoqdadir halokatga eltguvchi bo`hron.

(Sukut)

Lekin, qiziq, ko`nglimning ko`r hujralarida
Bir tola nur paydo bo`lib qolmishdir bu on.

(Oshxo`rlarning mast-alast qiyqirig`i eshitiladi. Ular tobora uzoqlashib boradi).

Bir tola nur.

Men bu nurni nayga eltgayman,
Kimning ko`ngil bo`stoniga sochgayman uni?
Ro`shnolikka chiqarmoqqa yetgaymi bu nur,
Jaholat va ko`lankalar bosgan mulkimni?
Lekin avval bir narsani o`ylamog`im shart:
O`zim nurni asrolgummi salomat, omon?
Fahshu riyo bijg`ib yotgan muhitda, zero
Nurning o`zi ro`shnolikka chiqmog`i gumon.

(Ko`kka qaraydi. Ketayotgan bulutlarni ko`radi).

Tark aylamish bu maskanni tiniq azonlar,
Zamonlar ham karaxtlikda o`tayotirlar.
Uzun-uzun bulutlarday sokin, ulug`vor
Ruhlar bizni balki tashlab ketayotirlar.
Bir mahallar joynamozday pok bo`lgan tuproq
Suvsizlikmas, ruhsizlikdan qaqragay, kuygay.
Farzandlari bobolarin fazlin unutan,
Usvatlari kursilarda ko`pkari surgay.
Ziyolisi beziyodir – taratgay zulmat,
Saltanatin mohiyati shaytanat erur,
Qayga boray? Hammayonda soyalar bazmi,
Band-bandimga igna yanglig` sanchilmoqda nur.

Begona ketmoqqa shaylanadi. Lekin, shu on qadam tovushi eshitilib, Tanga ko`zli odam paydo bo`ladi.

TANGA KO`ZLI ODAM

Kim bor bunda?
Hoy, sen kimsan, insmi va yo jins,
Nega buncha ming`irlaysan kuyib, tutoqib?
Galvarsmisan eshagini yo`qotib qo`ygan,
Bobong bunga tillo ko`mib ketganmi yoki?

O`tayotib ko`rib qoldim, kuzatdim birpas,
O`z-o`zingga nelarnidir so`zlamoqdasan.
Bu xilvatda niyating-la til biriktirib,
Bir baloni boshlashni yo ko`zlamoqdasan?

BEGONA

Ahvolimni so`ramagan bir sen qoluvding.

(O`zini go`llikka soladi)

Rahmat senga! To`g`ri topding, shumdir niyatim.
Minorani tag-tubidan qo`porib tunda,
Yiroqlarga olib qochib ketmoqchi edim.

TANGA KO`ZLI ODAM

Darhaqiqat, aytganimday galvars ekansan,
Olib qochish mumkin otni va yoki qizni.
Lekin... qiziq... minorani, minorani-ya,
Birinchi bor eshitishim bunaqasini?!
Madrasa-chi? Hujralar-chi? Kuching yetmaydi!

BEGONA

Hammasini karvon yanglig` olib ketaman,
Senlarning kir poyqadaming yetmas joylarga.

TANGA KO`ZLI ODAM

Yo sen jinni, yo men butkul ozdim aqlan.

BEGONA

(avzoyi buziladi)

Ko`zlarining tangasini jiringlatma, bas!
Vaqt borida yo`qol tezroq but va beshikast.

TANGA KO`ZLI ODAM

(o`zicha)

Eshagini yo`qotgan bir galvars desam, bu –
Aqlini, es-hushini ham yo`qotgan ekan.

(Begonaga)

Odam deya so`z qotibman senga men nodon,
Sening joying bunda emas, telba, qumlarda.

Bu binoni ijaraga olgandirmiz biz,
«Videobar» ochgaydirmiz yaqin kunlarda.
Hujralarga o`rnatgaymiz rangin chiroqlar.
Kinolarni ko`rsatgaymiz,

Beg`am, bearmon

Bir xonimlar kelgaylarki, qirq yil muk tushib
Haramida ko`rmagandir Amir Olimxon.

(Sukut)

Tanga ko`zli odam ketadi. Begona yolg`iz qoladi. Endi uning ko`zlari yumuq, xayol sahrosida
minoralar, gumbazlaru madrasalar karvon kabi unga ergashib, ohista yurib boradilar.

IKKINCHI KO`RINISH

Choyxona. Oshxo`rlar. Davraga «Farmon» ishlab chiqarish birlashmasining xodimi taklif
qilingan. Begona ham shu yerda, lekin u bu davraga mutlaqo yot. O`zini ortiqcha sezib o`tiribdi.
Har zamonda bir choy ho`plab qo`yadi. Oshxo`rlar qizib qolgan. Poyintar-soyintar gaplar,
latifago`ylik. Begona o`z o`ylariga g`arq.

BEGONA

Bular bilan birga ishlab nima ko`rdim men?
Taqdir menga mudom xato yozdig'in bitdi.
O`z umrimdan sakkiz yilni qusib tashlaymi?
Sakkiz yilim kekiriklar ichida o`tdi.
Ishxonada bir-birining ketini kovlab,
Bunda esa maqtaydilar toyguncha holdan,
Yog'li, silliq basharalar!
Osh yeyaverib,
Ko`zlari ham dumba yog'ga aylanib qolgan.
Bular uchun yolg'iz davlat – payshanba erur,
Shiorlari – uying hasip, norinlaridir.
Shuncha yildan buyon asrab avaylagani,
Ardoqlagan jamiyati – qorinlaridir.
Bular bilan birga ishlab nima topdim men,
Uch katakli temir-beton qafasdan boshqa?..
Illy payt qo`sh laganda osh keltiriladi.
Har xil xitoblar, ovozlari.

ZULMON OSHXO`R

Hidlaringdan aylanay, oh!
Qani, o`rtoqlar!
Hamma gapga chek qo`yilsin, so`z endi oshga!

(*Sherigiga*)

Quymaysizmi, birato`la quying hammaga,
Oshdan keyin bu savilni ichib bo`lmaydi.

SEMIZ OSHXO`R

Haftasiga ikki-uch bor dumba yog'iga
Damlangan osh yeb turmasam ko`nglim to`lmaydi.

ORIQ OSHXO`R

Biz ham kecha osh yegandik gashtak aylanib,
Bugun ham osh, ertaga ham bir nozik joyga
Qiz oshiga aytilganmiz.

SEMIZ OSHXO`R

Indin payshanba.
Yutardingiz – o`tkazsaydik oshxo`rlar poyga.

SILLIQ OSHXO`R

(*jomso`z aytadi*)

Sovumasin shu o`rnimiz, do`stlar, ichaylik,
Bu dunyoda ulfatchilik borligi uchun!

*Piyolalar jaranglaydi. Begona va yana «Men ro`ldaman» degan xodimdan boshqa
hamma ichadi.*

ZULMON OSHXO`R

O`rnimiz-ku sovimaydi, osh sovir biroq,
Qani, qani, yoppasiga laganga hujum!

Hamma oshga qaraydi. «Oh-oh-oh!», «Bay-bay-bay!», «Ah-h-hmm!» degan xitoblar.

SILLIQ OSHXO`R

Moyni qarang. So`ygan qassob qandini ursin,
Jon-la shundoq o`pishadi tomog'dan borib.

ORIQ OSHXO`R

Bir tining, bir kuning qolsa – osh yegin deya,
To`g'ri aytgan ekan o`rtoq Oxunboboev.

SILLIQ OSHXO`R

Oshni asli Zulmon akam damlasin ekan,

Dona-dona o`rmaydir har bir guruchi.

ZULMON OSHXO`R

Rahmat. Rahmat. Minnatdorman. Oling, osh bo`lsin,
Ulifatlarni shod aylamak faqirning burchi.

Hamma ishtaha bilan osh tushiradi. Begona ham olib turadi. Oradan bir-bir yarim soatcha vaqt o`tadi.

XODIM

Bu yerlarda siz xor bo`lib yurgan ekansiz,
Ishga olsak bo`lar ekan korxonamizga.
Sizday oshpaz kerak edi bizning nozikta`b
Zotlar kelib ketguvchi xos oshxonamizga.
Hurmatgiz taxtadamas, amalda bo`lgay,
Hech narsadan ko`rmagaysiz kamchilik aslo.
«Mayli deng», «Rozi, bo`ling», degan ovozlari.
Zulmon oshxo`r tavoze saqlab o`tiribdi.

SILLIQ OSHXO`R

Moskvada festivalda akam damlagan
Oshdan totib ko`rgan hatto Fidel Kastro.

XODIM

Salom berib o`tgay sizga katta vazirlar,
Man-man degan qozilarga to`shab ko`rpacha,
Ular borar manzillarga birga borgaysiz
Los-Anjeles, Sietlu Turkiyagacha,
Buning uchun qoyillatib, ishni do`ndirib,
Oshni shohu o`zni g`ulom sanamoq kerak.
Suv quyibu sochiq tutib har zotga, uning
Boshmog`iga yog` tomsa gar yalamoq kerak.

ZULMON OSHXO`R

(o`sha tavoze bilan, qo`li ko`ksida)

Rahmat. Rahmat. Minnatdorman e`tibor uchun,
Shu so`zlarning o`zi bizga yetib ortadi.

Tomdan tarasha tushganday Begona luqma tashlaydi.

BEGONA

Rostin aytsam, boshqasini bilmayman, lekin,
Yalamoqni akam juda qoyillatadi.

Oshxo`rlar bu tasodifdan baqrayib qoladilar. Zulmon oshxo`r tavoze holatida qotgancha turibdi.
Xodim hayron, hamma es-hushini yiqqach, anglashilmovchilik, ovozlari.

SEMIZ OSHXO`R

Ozroq ichsang bo`lmaydimi ko`tarolmasang.

SILLIQ OSHXO`R

Qayoqdanam ko`tarolsin araqni, axir,
Bu o`zini yuribdi-ku zo`rg`a ko`tarib.

ORIQ OSHXO`R

Aytmovdimmi aytmaylik deb, bu bola – baxil.

SILLIQ OSHXO`R

O`zi buni avval-boshdan yoqtirmaganman.
Havobaland, hech kimsaga qo`shilmay, yolg`iz,
Kattani ham, kichikni ham mensimasdan, jim
Yurishlari, endi bilsam, emaskan bejiz.

SEMIZ OSHXO`R

Aslida, jim yurganlardan qo`rqing hamisha.

SILLIQ OSHXO`R

Ishtahani qoq belidan sindirdi, so`tak!
Bundaylarni ulfatchilik, osh tugul, hatto,
Azaga ham birga olib bormaslik kerak.

Zulmon oshxo`r ham nihoyat o`ziga keladi.

ZULMON OSHXO`R

Hechqisi yo`q, ko`p ko`rganmiz umr yo`lida
Tuzni ichib, tuzlig`iga tupurganlarni.

BEGONA

Men ham sakkiz yildan beri ko`rib kelyapman
Ishqalanib, sovun yanglig` ko`pirganlarni.

SEMIZ OSHXO`R

O`pkangni bos! O`v, og`zingga qarab gapirgin!
Bir bechora bola desam, nonko`r ekansan.
Yoshsan hali. Hushyor bo`lgil, shu qizil tiling
Bilan qora boshginangga o`zing yetgaysan.

XODIM

Mayli endi, bas qilaylik muhokamani,
Bu ukamiz yoshlik qildi o`zi bilmasdan.

ORIQ OSHXO`R

Buning o`zi bo`lgani shu. Boya aytdim-ku,
Yurar doim nazariga bizni ilmasdan.

XODIM

Mayli, mayli. Bas-da endi, siz ham qizishmang.
Bu gap-so`zlar shunda qolsin bo`sh shishalarday.

(Soatiga qaraydi)

Endi sekin ko`zg`alsak ham bo`lar shekilli.

SILLIQ OSHXO`R

(o`ziga)

Hah, nomard-a! Rasvo qildi shunday bazmni.

Oshxo`rlar birin-ketin tashqariga chiqq boshlaydilar. Begona ham ketmoqqa ta- raddudlanadi.
Xodim uni to`xtatadi.

XODIM

Shoshmay turing. Sizda ikki og`iz gapim bor,
Keyin o`zim mashinamda eltib ko`yaman.
Bunda o`tgan har xil gapga qilmang e`tibor.
Kelganimdan buyon zimdan sizni kuzatdim.
O`xshayapsiz xo`p bama`ni, sipo yigitga,
Xafa bo`lmang. Men bularni yaxshi bilaman.
Tosh otmoq ham shart emasdir hurgan har itga.

Silliq oshxo`r kiradi. Begonaga atay qaramaslikka harakat qiladi.

SILLIQ OSHXO`R

(Xodimga murojaat qilib)

So`zingizni bo`ldim, uzr. Ketmoqchi edik,
Tashqarida barcha sizga ilhaq, intizor.

XODIM

Hozir. Hozir. Mayli. Bo`pti, yaxshi boringlar.
Kutib kolmang. Men ketarman o`zim. Moshin bor.

Silliq oshxo`r Begonaga ma'noli qarab xayrlashib chiqib ketadi.

XODIM

Xullaskalom, men bularni yaxshi bilaman,
Bari bir go`r – ichiqora, hiylakor, ayyor.
Ilojini topsa agar bir-birin g`ajib,
Bir-birining go`shtini ham yeyishga tayyor.
Lek bularning bitta yaxshi tomoni bordir,
Har zamonda bular bizga kerak bo`ladi.
O`z so`zidan qaytmaydigan, o`jar kaslarni
Yo`qotmoqqa shular bizga tirak bo`ladi.
Ya`ni, deylik, tasodifmi, omadim kulib,
(Xato bo`lgay, axir, davron gardishida ham)
Idora yo tashkilotga – farqi yo`q – nogoh
Boshliq bo`lib qolar shunday o`jar bir odam.
Endi u o`z vijdonini o`rtaga qo`yib,
Terani ham, quyini ham pisand qilmasdan,
U undoq deb, bu bundoq deb el ko`zin ochib
G`ashga tegib ayyuhannos solar tinmasdan.
Hammaga ham yoqavermas bunday fidolar,
Boshlar qotib, do`ppilar tor kelgan bir damda,
Qancha koru kirdikorlar fosh bo`lar mahal...
Shunda... Shunda haligilar kelar yordamga.
«Haligilar», ya`ni, boya o`zingiz ko`rgan
Kimsalarning to`rt og`iz gap, to`rt enlik xati
Bilan shundoq ko`ribsizki, fidoyingizning
Bir pul bo`lgay bor toatu bor ibodati.
Haligilar, aslin olsak, bari ho`l o`tin,
Ho`l o`tinga siz moy sepmay olov yoqdingiz.
Dangalini aytsam agar, shu qilig`ingiz,
Shu fe`lingiz bilan menga juda yoqdingiz.
Endi bir gap.

(Kursiga yaxshilab o`rnashib oladi)

Men «Farmon» da farmonbardorman,
Ya`ni, har xil farmonlarni bichib, ohorlab,
Kam-ko`stini tekshirib, so`ng imzo chektirib,
Ishlab chiqarishga tarqataman tayyorlab.
Nufuzimiz baland erur. Birlashmamizning
Shon-shuhrati taralgandir yetti iqlimga.
Bu dunyoda korxonalar bor, mahsuloti
Yaraydi na kiyim-boshga, na bir to`qimga.
Bizniki sal boshqacharoq, bizning mahsulot
Har doim el orasida talosh bo`ladi.
Deylik elda tugasa gar sabru qanoat
Bizning mollar ham dalda, ham bardosh bo`ladi.
Beqiyosdir olinajak daromadimiz,
Bizga ishga kiray degan shikorchilar ko`p.
Yashirmayman, soxta savlat sumbati uchun
Oylik olib yurgan beku bekorchilar ko`p.
Keyingi payt keng iste`mol farmonlarini
Keng miqyosda tayyorlashni yo`lga qo`yganmiz.
Hozir hamma «pudrat» deydi, «ijara», deydi,
Biz xo`jalik hisobiga avval o`tganmiz.

Ko`rganmi hech zamon bunday farovonlikni?
Maqsadimiz: yurtni doim sevintirgaymiz.
Och qolmagay, yupun qolmas elimiz, xil-xil
Farmon bilan to`ydirgaymiz, kiyintirgaymiz.
So`zim ado qilsam endi.

(o`rnidan turadi)

Birlashmamizda
Bir o`rin bor, toza o`rin, anchadan buyon
Sizday sipo bir yigitni izlab yurgandik.
Xo`p desangiz buyog`i ham bo`lmasdi yomon.

*Begona siqilib ketadi, lekin buni bildirmaslikka harakat qiladi. Xodimdan tezrok, qutulish
ilinijida bosiq-vazminlik bilan javob beradi.*

BEGONA

Avvalambor taklif uchun tashakkur. Lekin,
Mening quntu tajribam yo`q farmonchilikda.
Qolaversa, qishloqdan yer olib qo`yganman,
Tez orada ketsam kerak.

XODIM

Dehqonchilik-da...
Ma`qul. Lekin, besh yil o`qib, yana o`n yillar
Birovlarning eshigida xor bo`lib, birdan
Hammasini tashlab ketmoq. O`zingiz o`ylang!
Biron narsa undiring-da siz ham taqdirdan,
Bizga ishga o`tsangiz gar – xohish bo`lsa, bas.
Tajribaning keragi yo`q. Bari jo`n va soz:
O`ttiz-qirq yil avval chiqqan, taxlanib yotgan
Farmonlardan nusxa olib yurgaysiz, xolos.
Bu tomoni o`zingizga bog`liq.

BEGONA

Yo`q, rahmat.
Menda yo`qdir hatto o`sha siz aytgan xohish.
Taqdirdan ham olarimni olib bo`lganman.
Bu tomoni... bo`lsa basdir bitta zo`r govmish.

XODIM

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boqqin
Degan gap bor. Bundoq boqing zamonangizga.
Bola-chaqangiz bo`lmasa...

BEGONA

Bola-chaqaning
Qanday aloqasi bordir korxonangizga?

XODIM

Ro`zg`oringiz katta emas.

BEGONA

Qaydan bilasiz?

XODIM

Shoshmang, shoshmang.
Quloq soling so`zimga jindak.
Ta`na emas, men chin dildan demoqchimanki,
Sizga govmish nima kerak? Yer nima kerak?
O`qimishli, esli-hushli yigit bo`lsangiz,
Yurasizmi tezak tashib badbo`y qishloqda.
Qolaversa, bizning nomdor va oliymaqom

Birlashmamiz qayoqdayu qishloq qayoqda?

(Sukut)

Mayli, hozir asabingiz buzilgandir, ham
Ishdan chiqib kelgandirsiz, charchagandirsiz.
Bunday ishlar choyxonada hal qilinmaydi.
Bir kelsangiz, so`ng bafurja gaplashgaydirmiz.
(Xodim telefon raqamlarini yozib beradi)

Endi ketdik. Vaqt kech bo`ldi. Eltib qo`yaman.

BEGONA

Uzr, yana rad etgayman taklifingizni.
Ozroq yumushim bor edi choyxonachida.

XODIM

Bo`lmasa, gal shu. Kutaman tashrifingizni.
Xayrlashib jo`naydi. Begona yolg`iz qoladi.

BEGONA

(o`zicha)

Oliymaqom birlashmamish. Sayra, qo`bizim,
Sayra. Aysh qil, maishat qil, davron seniki.
Poda yanglig` oldga solib quvgil hammani,
Dasturlardan yasalgan zo`r gavron seniki.
Yotib sayra, turib sayra, sayrab-sayrab o`l,
Minbarlarda hech kim kelib yoqangdan tutmas.
...Hera buncha urug`i ko`p, nega bularni
Qarg`ish urmas, yag`ir yurtning uvoli tutmas?
Soyalarning xarsanglarday iskanjasida
Ko`ngil mudhish xavotirni nogoh anglagay.
Umidlarim ro`shnolikka chiqmagay hargiz,
Bir tola nur bigiz yanglig` dilda zanglagay.

Begona qo`lidagi telefon raqamlari yozilgan qog`ozga qaraydi. Bir oz o`ylanib turgach, qog`ozni parcha-parcha qilib yirtib tashlaydi-da, chiqib ketadi.

UCHINCHI KO`RINISH

Tog`lar orasidagi nimxaroba Juvoz qishlog`i. Ba`zi uylardan chaldevorlargina qolgan, xolos. Yurtni tashlab ketgisi kelmagan uch-to`rt xonadonning o`chog`idangina tutun o`rlaydi. Begonaning ota-bobosi ham shu qishloqda o`tgan. Tashlandiq hovli. Qiyshayib yotgan erganak. Ulkan xarsang. Nuragan tandir na o`choqlar. Qora oftoba. Kamarga yondosh qurilgan uyning devorlarini sel yuvib ketgan, sinchlar ko`rinib yotibdi. Pachaq og`ilxonalarning tomida yurgan echkilar Begonani ko`rib sergaklanadilar. Tarvaqaylab ketgan baland-baland yong`oq, tut, o`rik. Azamat chinorlar. Ko`ngli xufton Begona qiyshaygan erganak oldida bir alfozda turibdi.

BEGONA

(o`zicha)

Mana, keldim.
O`n besh yilni yelga sovurib,
Barbod bo`lib, faryod bo`lib, zor bo`lib keldim.
Go`yo chil-chil sinib ketdi o`n besh oyina,
Vayron bo`lib, hayron bo`lib, xor bo`lib keldim.
Ota uyning sinchlariday mening ham xarob
Jismim aro ko`rish mumkin ustixonimni.
Bor-yo`g`imni yuvib ketmish taqdir sellari
Qoldiribon tanda faqat qattiq jonimni.

U, ota yurt, bobolarim sig'ingan makon,
Bog'day ketib, xazon yanglig' izg'ib keldim men.
Shuncha yillar ko`zlarimning xaltalarida
Faqat yodu sog'inchingni yig'ib keldim men.
So`qmoqlarim iplar misol bir-bir uzildi,
Uzildilar birin-ketin dil rishtalari.
Tashlab ketgan ohularday nahot yuz burmish
Bundan mehru e'tiqodning farishtalari.
So`rilarga qaytmas endi mangu gurunglar,
Mo`ysafidlar tog'lar kabi ketmishlar cho`kib.
Qayga boray? Har bir kulba, har bitta devor
Chinqiradir boshim uzra nadomat to`kib.
O`choqlarga g'amimdan o`t yoqaymi endi?
Falaklarga tosh otaymi aylab malomat.
Qumga singib ketgan billur buloqlar misol
Vatandan ham ketmish endi fayzu farog'at.

(*Sukut*)

Begona qiyshaygan erganakni rostlab hovliga kiradi. Hammayoq xazon, xas-cho`p, bir chekkada to`zg'ib ketgan bo`yro yotibdi, tok ayrisidagi o`roqni zang bosgan, uyning eshiklari yo`q, kesakida qulfnig zulfinigina osilib turibdi, derazalar siniq, devor darzlari bo`ylab kaltakesak yuguradi. Begona bog' tomonga qaraydi: ariqlar ham ko`milib ketibdi, bog' tegrasini o`ragan taloqlar sochilib yotibdi. Bo`g'ziga yig'i keladi – yig'lolmaydi, shartta hovlidan chiqadida, so`qmoqqa tushib ravona bo`ladi, ortidan tugun ko`targan kampir halloslab yuguradi.

KAMPIR

To`xta birpas. Hay, shoshilma, to`xta, hay bolam!

(*Begona to`xtaydi. Tugun ko`targan kampir yetib keladi. Begona salom beradi*).

Dunyoga qo`l siltab qayga ketmoqdadirsan?
O`z yurtingda musofirday boshginang egik,
Nega buncha aftodahol, buncha faqirsan?
Shu chopaman, chaqiraman, hech eshitmaysan,
Jo`nab qopsan o`tganimcha kesib yonani .
Choy-poy ichib ketgin, axir! Nega buncha tez?!.
Kelganmiding yoki bunga olov olgani?
Otangni ham, bobongni ham bilardim, ular
Xudo rahmat qilgur yaxshi odamlar edi.
Deydilarki, tegirmon ham navbati bilan,
U tegirmon, u navbatlar qaytmagay endi.
Seni ko`rib men ularni ko`rganday bo`ldim.
Ko`zing, burning quyib-quygan otangning o`zi,
Qomating ham otangniki va lekin yuzing –
Yuzing xuddi Mamasayid bobongning yuzi.
Mayli, bular eski gaplar.
Uyga yur, birpas
Nafasingni rostlab olgil, musofir yurtlar
G`uborini yuvib tashla ko`nglingdan, keyin
Bir-ikki kun qolsang agar g`arq pishgay tutlar.

So`ri. Mo`ysafid, Kampir, Brigadir va Begona choy ichib o`tirishibdi. Dasturxonda non, qand-qurslar, chinni kosada asal.

BRIGADIR

Suvombormas, aslida, bu bir balo bo`ldi,

Besaranjom qildi elni, xoru sargardon.

MO`YSAFID

Ro`zg`ordan ham, mehnatdan ham baraka ketgan,
Odamlarning ko`ngli vayron, yurt bexonumon.

BEGONA

Qishloq tamom suv ostida qolgaymi endi?

BRIGADIR

Kim biladi? Birov kelib ko`chinglar deydi.

Yana birov yelka qisib o`tadi, xolos.

KAMPIR

Rostin aytsam, shu g`urbatlar jonimga tegdi.
Bu nima gap, qayga borsang mish-mish, mashvarat,
Hammayokda g`imir-g`imir, janjal ko`paygan,
Qarindoshlar yoqatalosh,
Ko`rmaysan biron
Kulib turgan issiq yuzni, hamma xo`mraygan.
Tunov kuni Eshonqulni ko`ruvdim, xafa.
Chorbog`iday u ham go`yo quriyotganday,
Bir og`iz gap so`rayman deb baloga qoldim,
Suvomborni go`yoki men qurayotganday,
Ich-ichiga to`lib ketgan, madda bog`lagan
Bor zaharu zaqqumini menga sochdi, so`ng,
O`-o`, kimsasiz boshim, deya toshga o`ltirib,
Ko`nglim ezib anchagacha yig`ladi ho`ng-ho`ng.
Bunaqada kun kechirib bo`ladimi, a?

(Begonaga)

Bolam, bundoq olib turgin, nonga qaragin.

Safarlardan gapir, qani,

Ko`p vaqtlar bo`ldi,

Ko`rinmaysan, eshitilmas hatto daraging?

BRIGADIR

Tunov kuni chiqqan ekan «Adabiyot» da,

O`qib juda qoyil qoldik.

KAMPIR

E, bu zamonda

Adab qolibdimi deysiz, yod qolibdimi?

(Begonaga)

Kelib turish kerak shundoq har-har zamonda.

Ming qilsa ham o`z Vataning, o`z elu xeshing,

Seni ko`rib xira ko`nglim yorishdi chandon.

MO`YSAFID

Otang chillak o`ynar edi anov chimzorda,

Kechagiday ko`z oldimda turibdi hamon.

Oqar suvmas, umr asli tiyra shom ekan,

Bir lahzada changto`daday o`tdiyu ketdi.

Shuncha hoyu havaslarni oxir bir tutam

Xashak qilib qo`llarimga tutdiyu ketdi.

KAMPIR

Biror kampir endi sizni chol emas, yirtiq

Kalishiga patak kilib olsa ham jon deng.

(Kuladi)

BRIGADIR

O`h-o`h-o`h-o`h! Bopladi-ku kampir bachchag`ar!

(*Mo`ysafidga*)

Qani to`zgan shu patakni sen avval ol deng.

(*Kuladi*)

KAMPIR

Bolam, olgin, choydan ichgin, horib kelgansan.

Bobo yo`llar shunday uzoq charchatadi, ha.

BRIGADIR

Bu tog`larga til bitsaydi, bir kun dod solib

Qo`zg`olurdi qancha toshu qancha payraha¹⁰⁹.

BEGONA

Mirzohasan yuribdimi? Bola-chaqasi

Tinch-omonmi? Ko`rinmaydi?

KAMPIR

E, yuribdi-da,

Chaqasiyu ko`ch-ko`roni, mol-holi bilan

Dashtga chiqib ketgan, hozir o`t o`rimida.

Choldan keyin u ham juda g`alati bo`lgan,

Uyalganday yurar doim, g`am qomatida.

BRIGADIR

Uyalsin-da, ikki o`g`il – ikki barzangi,

So`nggi damda cholga, axir, qaramadi-da!

MO`YSAFID

Bu dunyoyi dunda har kim azal-azaldan

O`z boshiga yoqqan qorni o`zi kuraydi.

Hasanga ham qiyin,

Har kun yetti jon yetti

Tomonidan chirqiraydi, osh-non so`raydi.

KAMPIR

Bir gap aytsam: oqibat yo`q, yo`qdir yuz-xotir,

Odamlardan insof ketgan, qolmagan savob.

Andishaning uyi kuygan.

Qiyomat kuni,

Bilmam, bular qanday qilib bergaylar javob.

Birov yorsa echkisining boshin birovning,

Boshqa biri uning ko`zin o`ymoqqa tayyor.

Yana biri go`r qazisa, boshqasi uni

Tiriklayin go`rga eltib qo`ymoqqa tayyor.

O`zi asli fe`li yomon juvzliklarning,

Suvombor bir bahona.

Bu qiyomat-qoyim,

Buncha xoru sarsonliklar bejizmas, avval

Elga boqib so`ngra yerga boqqay xudoyim.

MO`YSAFID

Shu-da. Mana, Vatanida endi bevatan.

Xudo hatto itni bunday ko`yga solmaydi.

Bo`g`jomasi yelkasida,

Qozon osishga

Joy topolsa, tandiriga topa olmaydi.

¹⁰⁹So`qmoq ma`nosida

BRIGADIR

O'ttiz yildan beri shunda birgad bo'lsam men,
Eslolmayman biror kunni g'avg'osiz o'tgan.
Bular buncha talashadi?! Bitta urug'-ku?!

KAMPIR

U urug'ni allaqachon qora yer yutgan,
Xonavayron bo'ldi bular yomonligidan.

MO`YSAFID

Yaxshi bo'lsa qabristoni buzilarmidi?
Bobolarin suyaklari ikki dunyoning
Orasida go'rsiz qolib cho'zilarmidi?

BEGONA

Qabristonni buzishdimi?

BRIGADIR

Suvombor bo'lsa,
Yaxshimaskan suv ostida qolsa qabriston.
Suyaklarni ko'chirishdi yarmin, yarmisi,
Hali kampir aytganiday, xoru sargardon.
Qaerdan ham topib kepti to'rt landovurni,
Kasofatlar qarsillatib bulduzo'r solib,
Uch oychami ishladi, so'ng ivvi-uch kunda
Kelaman deb shu ketgancha, ketdi yo'qolib.

BEGONA

Indamadinglarmi, axir?

BRIGADIR

Ijroqo'm, sho'ro
Borsak, nuqul «xo'p-xo'p» deydi, va'da beradi.
Haligacha daragi yo'q, boshimiz qotgan.

MO`YSAFID

Va'danimi? Ular xalta-xalta beradi.

(uh tortadi)

Xudoyim-ay, bu ko'rgulik, bu sharmandalik
Kelib-kelib bizning boshimizga tushdimi?!

KAMPIR

Avlodlari yomon bo'lsa, tirigi tugul
Go'rida ham tinch qo'ymaydi yetti pushtini.

BRIGADIR

Ko'chirsak ham bo'lar edi o'zimiz, lekin,
Tog'li joyda bunday ishni qiyin bajarmak.
Besh yuz yillik mozorat-a, o'zingiz o'ylang,
Qancha dovu dastgoh kerak, parparak¹¹⁰ kerak.

MO`YSAFID

Otasi yo bobosining qabrin bilganlar
O'zi kelib yaqinlarin o'zi dafn etdi.
Lekin ko'plar... Tavba! Tavba!..
O'z otasiyu
Onasining mozorini topolmay ketdi.
Bittasi shu o'zimizning Safarali-da.
Buzrukvorin mozorini topmayin sarson,
Dara bo'ylab tog'u toshni boshga ko'tarib

¹¹⁰ Vertolyot demoqchi

«Otam-ay!» deb faryod solib jo`nadi chunon.
«Hay-hay»lashib, ko`paylashib zo`rg`a tinchitdik.
Lekin endi nima foyda bunday yig`idan?

BEGONA

Men ham...

(*Sukut*)

Men ham bilmaskanman bobom qabrini.

MO`YSAFID

Senga mayli, sen bobongni tirikligida
Ko`rmagansan, sen yo`q eding, bobong
o`lganda

Otang jangdan endigina qaytib kelgandi.

KAMPIR

Hozirgilar qabristonga borib xudodan
O`lganlarning gunohini so`rashni bilmas.
Bir kalima qaytarolmas...

MO`YSAFID

Hozir bularga

Araq bo`lsa, nasha bo`lsa, ishrat bo`lsa, bas.
Juvoz qanday Vatan edi!..

KAMPIR

Qanday mulk edi!

Odamlari oqil edi, xoksor, pokdomon.
Esiz, bari yakson bo`ldi, xokto`da bo`ldi.

MO`YSAFID

Unday Vatan endi nasib qilmas hech
qachon!..

(*Sukut*)

Bir tola nur – Begonaning ko`zida tomchi
yosh yaltiraydi.

(*Sukut*)

*Noxos kuygin hofizning o`tlug` ovozi
yangraydi:*

«Bu dunyo azaldan yolg`onchi derlar,
Ne bersa qaytarib olmoqchi derlar,
Yomonni yaxshiga ayg`oqchi derlar,
Ajalni borliqqa poyloqchi derlar,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?
Savob daryosida suzmagan jonlar,
Tavof dunyosida kezmagan jonlar,
Halolni haromdan izlagay jonlar,
Haqqidan ayrilib bo`zlagan jonlar,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?
Ochlikni akadan, ukadan ko`rib,
Do`stga ot soldingiz g`animlar bo`lib,
Qo`lga ne ilinsa chang solib, yulib,
Yana o`z tanangiz nimtalab bo`lib,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?
Ming yillab qurganni bir yilda buzib,
Ajdodlar daraxtin tomirin uzib,
Neki muqaddasdir tepkilab, ezib,

Har kim har tomonga yo`l solib, to`zib,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?
Ko`zingiz ochganni siz aylab ta`qib,
Sizga yo`l ko`rsatsa la`natlar o`qib,
Oyoq-qo`lin xochga siz mixlab qoqib,
Yurgan yo`lingizdan razolat oqib,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?
Cho`kdi imon tog`i, oqibat tog`i,
Yig`lab yaprok to`kar andisha bog`i,
Yurakda nuragan jomelar dog`i,
Oldinda jahannam o`ti qiynog`i,
Qayon ketmoqdasiz, qayon?»¹¹¹

MUALLIF SO`NGSO`ZI

Barcha g`am-g`urbatdan bezgan bir paytda,
Men boshladim nechun g`amgin bu
taronani?
Dilso`z yoru oshnolardan qochib, bu safar
Oshno tutdim qaylardagi bir begonani.
Mening ham ko`zimda tomchi yosh qolar:
Do`stlar, Begonaning Vatani qani?..

¹¹¹ Sherali Jo`rayev she`ri

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Sirojiddin Sayyidning she'rlaridagi o'ziga xoslik qaysi jihatlarda yaqqol namoyon bo'ladi?
2. Uning liro-epik asarlarida muallif uslubi qanday rol o'ynaydi?
3. Shoir tarixiy mavzularga murojaat qilishdan qanday maqsad ko'zlaydi?
4. "To'polondaryo bilan xayrlashuv" dostonida qaysi davr voqealari aks etgan?
5. Milliylikimizni ifodalovchi atamalarni topib, izohlang.
6. Poetik sintaksis unsurlari asarda nima maqsadda qo'llangan?
7. "Tanazzul yoki bir begonaning iztiroblari" dostonning qaysi turiga mansub?
8. Asardagi obrazlar nega nomlanmay, umumiy nom bilan atalgan?
9. Shoir doston orqali kitobxonlarga nimani uqtirmoqchi bo'ladi?



ASQAR MAHKAM (1958-2007)

Asqar Mahkam 1958-yil 27-noyabrda Tojikistonning Kofarnihon tumanida tugʻilgan. Xoʻjand davlat pedagogika institutini tamomlagan (1981). «Navroʻz» (1988), «Tazarru» (1982), «Tavajjuh», «Ishq» (1994), «Ibodot» (1993), «Haq» (1998), «Analxaq», «Tabriz daftari», «Oqkitob» (2003) kabi asarlari nashr etilgan. «Avesto», Xoja Abdulloh Ansoriyning «Kashf ul-asror» (Qurʻoni Karimning adabiy-irfoniy tafsiri), J.Rumiyning «Maʼnaviyi masnaviy» (1-daftar)sini, Shams Tabriziyning gʻazallari hamda Eron shoirlari sheʼrlaridan namunalar tarjima qilgan («Tuygʻular yaprogʻi», 2005). 2007-yil 6-martda Toshkent shahrida vafot etgan.

TAVAJJUH

Zahriddin Muhammad Bobur Mirzo roʻzgoriga doir sheʼriy qissa
Muqaddima

Topmadim, temuriy shahrudlar aro
baliqlar mendan-da xarob edilar.
Zaʼfar tanalari uzra tillolar
daraxt sochlarida zardob edilar.
Topmadim ilohiy chorrahalarda
oriflar karvonin sarbonlarini,
jahoniy xirmonni toʻndi oʻgʻrilar,
sichqonlar kemirdi devonlarimni.
Topmadim, manglayim lavhin sindirib,
bir chizgi – bir yozmish, bir tole, bir toj.
Qabrlar tomogʻin yirtib dod soldi,
har chanoq ustida koʻrdim chaqir tosh.
Topmadim nigoron falak bevasi –
mohitob ismatin buzgan koʻzlarni,
men koʻrdim shamollar ogʻushida mast
homila bogʻlagan sambit qizlarni.
Topmadim, aʼmoli dunlardan dunroq,
tolei tundan-da tunroq, yupunroq...
Koʻrdimki, borlarning pesi ham xoldir,
oʻzimdek bir haqir topmadim biroq...
Topmadim, ey dilim, ey dil, ey dilim,
Ey koʻnglim, ey koʻnglim, devona
koʻnglim!
Sen – qayda?.. Men – qayda?.. Makoning –
qayda?..
Oʻzimning yaqomga yetmaydi qoʻlim.
Topmadim, ey koʻzim, ey koʻz, ey koʻzim,
ey chashmim, ey chashmim, ey biyno
chashmim!
Sen qayda, men qayda, makoning qayda?
Gunohkor zaminda gunohkorlar kim?..
Topmadim, shabiston vasvasalari

tomirim oralab oqdilar guvlab.
Lablarim qaqradi, quchogʻim kuydi
va... soʻfiy qizini ketdim oʻgʻirlab.
Topmadim, na undan bahra, na oʻzdan.
Qildek bir qilichman, qinga sigʻmadim...
Devona ayladi oqibat bu Ishq,
yerlarni yumdalab, dod deb yigʻladim.
Topmadim – ruhimning gadolariga
birov na non berdi, birov na boqdi,
soʻngagim sanchilib qoldi yoʻllarda,
sochlarim oqardi, qarogʻim oqdi.
Topmadim, xonaqoh ostonasidan
na nomu na nishon qoldirdi mulhid,
uloqdim darbadar, mazgil – bamazgil,
mehrni it yedi, koʻngilni ham it.
Topmadim, dedimki: «Ey oy, ey beva,
seni ham nikohlab oldilarmi, ayt!
Maxluqlar yaraldi odam shaklida,
xokipo mozorlar uzra oqibat
Topmadim, qoʻrgʻonlar sohibi qani?
Yopdilar koʻngillar qopqasin qulflab.
Sen kimga keraksan, ey besohib jon?
Kimniki istading ketdilar... tuflab.
Topmadim, anisam, koʻylagingni kiy,
Tun keldi, kim keldi koʻzlarim boʻgʻdi.
Yigitlar oʻrnida yotdi xoinlar,
Kelinlar oʻrniga doylar tugʻdi.
Topmadim, shohlardan keyin beshoxlar
eshakdek mindilar tillo taxtlarni,
bir karra zinodan boʻlgan bolalar
bir karra zinoga sotdi xalqlarni...
Topmadim, ey ashkim, firuza ashkim,

ko`zlarim havzida baliqlarmidi?
 Qop-qora abrlar aro yulduzlar
 falakka sochilgan tariqlarmidi?
 Topmadim, qonimga belab ilkimni
 artaman ko`ksimdan ishqing dog'larin.
 Ashoblar jasadin chuqurlarida
 chumoli izlaydi dil ushoqlarin.
 Topmadim, bul nafi balolar ichra
 nafsiga podishoh na xosu na om.
 Tuproqni yedilar, toki bir kuni
 tuproq ham ularni yeguncha tamom...
 Topmadim – na shukuh, na shon, na shifo,
 qa'rimda yashadim maknun, ozurda.
 Suyagim sarg'ardi, yuzim sarg'ardi
 darveshdek uloqqan mahtob ostida.
 Topmadim, har giyoh bandidek titrab,
 bahorlar misoli o`tdim beqadr.
 Jaranglab sochilgan qorlar – nidolar
 Allohning eng so`nggi oyatlaridir.
 Topmadim, qop-qora sochlarin yoyib,
 yiqildi yalang'och osmon burdasi.
 Daryolar xurjunin teshiklaridan
 to`kilgan toshlardir to`lqin murdasi.
 Topmadim – sarg'ardi pari osmonning
 hiloli, qamari, qoshi qalami.
 Ruhimda oh urar mendan-da burun
 telbavor bandaning fano alami.
 Topmadim – men o`ngan jannat ma'volar
 boqardi kech kuzak tanasi kabi,
 achchiqdir har neki o`tib ketgandir,
 achchiqdir hattoki yorlarning labi.
 Topmadim, ey Bobur, dayri fanoda
 tulporlar tuyog'i qadar sobir er,
 yo Tangrim, olamda shunday mard bo`lsa,
 shafqat qil, ul erni avval menga ber!
 Topmadim, ey Bobur, mardud tunlarda
 Andijon xokidek chimdingina yer.
 Yo tangrim, olamda shunday xok bo`lsa,
 karam qil, ul yerni avval menga ber!
 Topmadim, ey Bobur, na biror odam,
 na vatan, na mozor, na yoru na mehr.
 Yo Tangrim, iymonni salomat qilgil,
 Tangrim, oson qil, o`zing madad ber!..

MIRZO BOBUR TAZARRUSI

Tishlarin gizladi ochun ganjlari, dedim:
 Ey bas, fano haqqi – kafanim...
 Men keldim adashgan daryolar kabi,
 qismat to`lqinida chayqaldi tanim.
 Bir tubsiz jahannam edi ul ofat
 va iblis izmida tentidim mardud.

Shoyad bir bokira saboh oldidan
 bu majnun ruhimdan chekinar vujud.
 Birimiz podshohu birimiz gado,
 yashadik bosirqi tush yanglig' o`truk.
 Odamzot yaralgan bu ko`hna dunyo
 o`ng sohil sorig'a eltguvchi ko`prik.
 Unutdik bul ko`prik so`l tomonida
 umrimiz haqqini, qazo haqqini.
 Qay yonda bir mo`min ko`rsak o`ldirdik,
 bo`g'izlay boshladik Xudo xalqini.
 Ming dordan qochmoqlik mumkindir yoki
 yetolmas hech qachon quvib yurganlar,
 ammo bul sirotdan oson o`tolmas
 igna teshigidan o`tib ko`rganlar.
 Odamzot tug'ilmas o`z xohishi-la,
 ne turfa makonda, ne yerda yashar.
 Ming yilda bir topar Haqiqat yo`lin,
 so`ng yana yo`qotib yo`ldan adashar.
 Ey Bobur, malomot qilma dunyoni,
 Hazrati Odamning buzma tushlarin.
 Vujud qafasidan bir darcha ochdim,
 falakka qo`yvordim ruhim hushlarin.
 Mayli, sen istasang tojim yondirib,
 Yassaviy baaynih yerga botayin.
 Yulduzlar qovrilib yotgan bu tunda
 Rabbiy, men yerda qandoq yotayin?!
 Ey vujud qullari, fano itlari,
 ijthod bog'lamang suyagingizga,
 tirsillab turgan bu haris toshingiz
 umrbod osilmas ko`kragingizga.
 Ey vujud qullari, fano itlari,
 kosai dayrni to`ntaring butkul,
 bul kosa qa'rida to`zg'igan changu
 sirtida to`zg'igan bir zarrai kul.
 Ey vujud qullari, fano itlari,
 ruhingiz gavharin pok tuting baddan.
 Tanangiz daraxti chirib bitmasdan
 bir ko`ngil uzlatin tutingiz vatan...
 Qurbonlik keltirar har tun yana oy
 mehrsiz tog'larning nigohlarida,
 chirsillab kul bo`lar sochlari tillo,
 qop-qora daraning o`choqlarida.
 Qurbonlik keltirar har tun yulduzlar,
 falakka sochilgan xunlari yorug' –
 siz-chi, aysh surdingiz gulruxlar bilan
 tanasi yulduzlar qonidek totlug'.
 Haqiqat dashtida zikr tushganda
 Allohning yalang'och, och bandalari,
 Siz-chi aysh qildingiz, nigohingizdan
 yiltirab sirg'aldi nafs maddalari.
 Ular haq yo`liga tushganda yig'lab
 besh kunlik umrning ishqidan kechib,

siz ayol qo`yniga kirdingaz sarmast,
 fosidu qonyuqi tanangiz yechib,
 Haqiqat kunjida yotganda qaqrab,
 devona ruhidan judo oshiqlar,
 parilar qornida qoningiz qizib,
 siz «dunyo» dedingiz, ayo fosiqlar!..
 Sochlari o`ralib saksovullarga
 sahroda yotganda bir it, bir Majnun,
 murdor tanangizni uyg`otmoq uchun
 qoshingizda qotdi ming bitta xotun...
 Tikildim dunyoning so`qir ko`zlari
 mening nigohimga to`qinmadilar,
 tikildim, qotillar qonga qon ichdi,
 tavba qilmadilar, o`kinmadilar.
 Termildim, dahrning ko`r ko`zlaridan
 bir nur taralmadi, bir shikasta nur,
 termildim, termildim, banogoh bildim,
 ki, dunyo ko`r emas, mening o`zim ko`r!
 Dumalab keldilar qonga belanib,
 sochlari to`zg`igan kesik kallalar,
 tushlarimga kirdi vovaylo qilib
 goho sharmandalar, goho bandalar.
 G`azotning muborak onlari yetdi,
 shahidlar jonida boshlandi isyon,
 tog`larga ohista burgutlar indi,
 Ulug` tog` ustida go`yo Temirxon...
 Nur indi shamshirlar tig`iga ko`kdan –
 qonlarga baxsh etdi ruhillo safo,
 she`r aytdi Yassaviy qalandarlari,
 duoga kaft ochdi Avliyo Ato.
 Ko`zlarda yaraqlar ilohiy shuo –
 haqiqat oftobin sha`shaalari,
 miltiray boshladi jaholatgohlar,
 qoni qoq qaqragan qalblarning qa`ri...
 Yuz yillik churugan gavgavlar aro
 ilvirih jonlarga qaramas hech kim,
 mashomlar bog`ida chahchahlaydi bo`y –
 shahidlar qonidan taralgan nasim.
 Azaliy o`ngigan tanalar ichra
 ajalga intizor jonlar titraydi,
 juvonmard yigitlar ruhi yuksalar,
 beiymon kimsaning kuni bitmaydi.
 Tulporlar tuyog`i chaqnagan tunda
 har yigit joniga bog`lovlik rishta –
 yig`lama, g`azotning pok singillari,
 sochlaring yerlarga solma, Farishta.
 Yig`lama, g`azotning halol Tullari,
 erimiz qayda, deb oh chekma zinhor.
 Qabrlar oralab, mozorlar kechib,
 tanasin istama, Ruhi tomon bor!...
 Boraver, g`azotning halol Bevasi –
 oyog`ing ostida yotgan jismmas!

Oyog`ing ostida yotgan bu jo`mard
 Haqiqat dargohi sari uchmish, bas...
 Hasrato. Osafo. Dardo. Darig`o.
 Yenglarda pichoqlar yaraqlab o`chdi.
 Ne bir mard yigitning ruhi tanadan
 yuvuqsiz va harom ko`yida ko`chdi.
 Rabbiy, tog`larning qorlari kuysin,
 buloqlar charaqlab oqsinlar quyi.
 Qushxona poyida yashagan itdek
 Boburing bu olam haqqidan to`ydi.
 Rabbiy, to`zonlar bandini qo`yvor,
 mahshargoh sahnini ko`ray ko`z bilan.
 Qirq bitga juvonning lazzatin so`rgan
 sultondek ishratdan charchadim dildan.
 Rabbiy, qiyomat kuniga yetkur,
 yozug`im qonlarin ichay kosada.
 Temuriy esam–da, Mirzo esam–da,
 men – banda, men – banda, men – banda...
 Rabbiy, ilkimda paymona – to`ldir,
 ko`ngildek labolab bo`lsin–da, sinsin,
 Yo Rabbiy, to`rt yuzu qirq to`rt so`ngagim
 harbalarda singuncha senga sig`insin!
 Tun kechar. Yulduzlar xira va sovuq.
 Ayoqli tonglarning taqaddus bodi,
 bir yonda – gunohlar,
 bir yonda – armon,
 bir yonda Vatanning azosi, yodi...
 Lovullar oy aro falak dog`lari,
 sirg`alar bulutlar uzra bir tobut.
 Poyida daryolar yotmishdir o`lib,
 ustida yaraqlar qo`rg`oshin sovut.
 Qamishzor chayqalar lashkargoh kabi,
 qoniga belanib kuylaydi azal.
 Ko`z yoshlar sizilib oqqan jismidan,
 tikilar sipohlar yozmishi – ajal...
 Tulporlar tomog`in yirtib kishnaydi,
 Ularning ortidan toychoqlar kelar.
 Lashkarlar jon berar falakka boqib,
 qalqondan oqqan qon oy yuzin belar...
 Falakda yulduzlar kamaygan sayin,
 zaminda kun sayin ko`payar go`rlar.
 Dalalar bag`rida tulporin quchib,
 tuproqqa aylanib borar yovqurlar.
 Oqibat avliyo kabi to`lin oy
 tun bo`yi yoqadi ularning sham`in.
 Qon yuqi qizg`aldoq bo`lib gullaydi
 lashkarlar jismiga to`ymagan zamin.
 Kafanlik keltirar oppoq tumandan
 dalalar bag`riga farishta subhlar,
 ul sham`ning shu`lasi ingan dillarda
 shamshirlar tig`idek ulg`ayar ruhlar.
 Oh, Bobur, tilovat qilgil, tavba qil,

ibodat keltirgil mardlar haqqiga.
 Bir banda bo`lsang-da, odam bo`lsang-da,
 sen axir Mirzosan Alloh xalqiga.
 Oh, Bobur, tilovot qilgil, tavba qil va
 namoz keltirgil shahidlar haqqi.
 Bir banda bo`lsang-da, bir jon bo`lsang-da,
 sen uchun qon to`kdi Xudoning xalqi.
 Oh, Bobur, tilovot qilgil, tavba qil,
 kalima keltirgil shahidlar uchun.
 Bir banda bo`lsang-da, bir shoh bo`lsang-da,
 butun xalq sen uchun qon to`kdi, nechun?!
 Oh, Bobur, tilovat qilgil, tavba qil,
 izn ber, valiyalar Qurʼon tushirsin.
 Gar podshoh bo`lsang-da, mirzo bo`lsang-
 da,
 darvishlar Xudo-chun zikr tushishsin...
 Oh, Bobur, tilovat qilgil, tavba qil...

MIRZO BOBURNING QAZO VA QADAR HAQIDA O`YLAGANLARI

Sahrolar suv bo`lar, chashmalar tuman,
 chirmalar quyoshning o`tlug` kamari.
 Oqibat yuz burar avlodi bashar
 oxirat Molikin borgohi sari.
 Oq kafan barini yuziga surtgan
 zohidlar qoshida turar oriflar,
 ko`zlari o`yilgan shohlar ortidan
 ohista raxt tortar ahli soiblar...
 Anjirzor bog`lardan taralar anbar,
 tovuqlar bag`rida hazrati Havvo.
 naqadar bokira jufti halolsan,
 o, pokruh sabiya, sochlari savdo.
 Oshiqlar unutar tarsu harosda
 eng oliy xilqatning jodularini,
 bir oqqush qanoti bilan yashirar
 sudrasiz siynaning olularini.
 G`azzoliy aytgandek: «Ey ahli bashar,
 shu qadar pastsanki, hatto itmassan...»
 Iymon go`robiga tiriklay kiring
 go`ru oyiningiz kuyib bitmasdan.
 Iblis muridlari kezarlar behush,
 la`nat muhri ayon qansharlarida.
 Porilar ming bitta maloik qoni
 tutunsiz olovning xanjarlarida.
 Iqtido qilganlar muflisu dunga
 bo`gzidan qon yanglig` purkar tavbasin.
 (Oh, Ayol, tariqcha gunohing bo`lsa,
 haram ohulari seni asrasin!..)
 Osiylar tentirar hissiz, sadosiz,
 borliq uzra hokim molixulyo.
 Ko`rdilu kardillar qulog`in yorar
 Borbad yulduzidan yangragan xunyo.

Shukrki, sen borsan, yo ro`zi mahshar,
 shukrki, sen borsan, ey ulug` azob
 Tashna zamin uzra mayi nur quyar
 oshiqlar jomidek labolab mohtob.
 Rabbiy, ming qatla o`zingga shukr,
 ziyoda ko`rmasan bunda hech kimni.
 Jismim ado bo`lar, jonim jon uzar,
 jahim olovlari chirmar jismimni.
 Kimsa ko`ngil uchun so`rmas aqalli
 shahanshoh Boburning suvoriylarin,
 ammo bani bashar oyog`in o`par
 hazrati Iysoning havoriylarin.
 Kumush abr ichra nuri ilohiy
 yetmish ming yildirkim sizlarni izlar,
 bitta Go`ro`g`lini yaratmoq uchun
 ming bor hayzo bo`lgan muslima qizlar...
 Naqshinkor uzangi ichra oyog`ing
 yerdan ayro edi, o`limdan g`ofil.
 Oh, Bobur, gunohing boshingdan oshdi,
 Oh, Bobur, tilovat qilgil, tavba qil...
 Ey, Bobur, sen vafo istagan itsan,
 vafosiz dunyoni kechding mukaddar.
 Yaralgan neki bor – qurtu qumursqa
 barida bir qazo va birdir qadar...
 Men nima istadim? Shavkatmi? Baxtmi?
 Qo`limda tig`, ko`ksim sahosida Qays.
 Ichganim – ko`ngillar ichra ilonlar
 shohkosaga solgan zaqqum edi, bas...
 E`timod qilmadim iblis maqomi –
 saltanat fitnasin shotirlariga,
 har lahza yuz burdim Xudovand haqqi
 e`tizol olamin munkirlariga.
 Roviylar ochdilar sinoat lavhin, dedilar:
 «Ey Mirzo, yozmishing qaro...»
 Ibrohim Luddining yoy o`qi yang`lig`
 janub bodi qoldi so`ngagim aro.
 Hindukushga boqdim, onam chehrasin
 xotiramga soldi kumush jilg`alar,
 botin samo` raqsin etdilar ado
 bomdodlarda uyg`oq, hur bolig`alar.
 Borxudo. tuman jahongirdan so`ng,
 Qurʼon, qalam, qilich tutgan foniyman.
 Borxudo, Temur naslidan so`nggi bodiyalar
 kechgan Andijoniyman.
 Mudom ta`qib qildi so`lu sog`imdan
 bobolarim ruhi zoru intizor.
 tushlarimga kirdi tuyoqlari tug`,
 rutubatli buxor ichra bir tulpor.
 Bulut sanochini yirtib ohista
 darvish kosasiga to`kilganda oy,
 men haramni emas,
 Yorni sog`indim,

xonaqohga boshla, ey buyuk gadoy!..
 So`ylagil nedur Ishq, nedur bandalik?
 Qiyomat ne so`yla va nedur qazo.
 Xazon mavsumida xunrez bog`larda
 nechun muhabbatdan qoldi bir aso...
 Yuzu yigirma to`rt ming payg`ambardan
 har tun ochib berdi yangi bir ma`no –
 muroqaba ichra mastu mustag`riq
 vahdat kamandida yotgan avliyo.
 Xoki tanim manim, ayo, mazharim,
 manglayim toshiga magar chekmishlar:
 Zahridin – so`nggi temuriyzoda,
 jamiy ko`rguliklar chekiga tushar...
 Xoki tanim manim, ayo, mazharim!..

MIRZO BOBURNING MUROQABASI

Qismat kundasiga tole talashib,
 sajdaxoh boshimni tikkan qurbonman.
 Ko`ngil hovuziga otilgan toshdan
 dahr lablariga sochilgan qonman.
 Qazo o`rlariga unsiz yiqilar
 to`rt azal unurning azal qal`asi,
 qarog`im tubida jizillab kuyar
 yarador ohuning ko`hna yarasi.
 Bir aso keltiring va bitta kuloh,
 go`daklar eshakdek minsin taxtimni,
 sen kulma, sen kulma faqat,
 besh kunlik tupugi sharobu tuklari tillo...
 Dunyoni kindikdek chuqur fahm etgan,
 oltin toj ostida asralgan kallang,
 ko`raman lahadga qandoq yararkan,
 ming bitta parizod yalagan tanang.
 Najasu qon ila tamom to`ldirding
 eng ulug` karvonning chuqur izlarin,
 sen nomus qoniga qonsiragan sag,
 bir umr zo`rlading qismat qizlarin...
 Nima qoldi avlod-ajdodlaringga?..
 Buyuk bir kechmishdan xayru sadog`a?..
 Tomog`imni emas qo`limni tutdim,
 osmon – ko`kraklari to`la zardoba!..
 Ey Yor, osmoningni yirtig`i menman,
 ochsam jigarlarim oqar xunolud,
 ey Yor, lahaddan-da chuqurroq yerman,
 tutsang faqat tubsiz jomda boda tut...
 Ey Yor, cho`qqi uzra o`lgan burgutman,
 Loshimdan-da qo`rqar o`laksaxo`rlar.
 Endi Bobur emas, toshdek sukutman, yo,
 Arhamarrohim, qayoqda go`rlar?..
 Ey Yor, qarsillagan toshlar ovozi –
 daralarga botgan bars panjalari,
 Ey Yor, chil-chil ko`ngil sazosi ozmi,
 yana qay bir alam iskanjalari?..

Ey Yor, farishta Yor, dahr sahnasida
 menga nasib qildi mushkul mo`minlik,
 ammo nechog` og`ir bir jon ichinda
 bir bor tug`ilmoklik, mingbor o`limlik...
 Ey Yor, dilxasta Yor, olam uyida,
 mudom mehmon kutdim, dushmon
 kuzatdim
 so`l qo`limda qilich tutdim, valekin
 sog` qo`limda zinhor sharob uzatdim...
 Ey Yor, shikasta Yor, bu xonaqohda
 «taqaddum bahsi»da charx urmadim mast,
 qismat qalam tutdi ikki ilkimga,
 odam yulqib oldi uni qasdmaqasd.
 Ey Yor, gulandom Yor, bu dayri dunda
 tuban ketgan sayin ketedilar badar,
 odam farzandlarin yegan ul chohning
 qirg`og`iga cho`kdim munkir, mukaddar.
 Ey Yor, hurliqo Yor, bu qaro yerda
 tuproq og`ushidir aslida visol,
 qolgan og`ushlarning bari ertangi
 zamin diydoriga to`qilgan timsol...
 Ey Yor, mehribon Yor, hamma o`tkuvchi,
 hama besaranjom, hama nofarjom, –
 ajal xato qilib ming yil yashasin,
 yerga kirmas ekan odam jismi xom...
 Ey Yor, vafodor Yor, meni ma`zur tut,
 Nima dedim ko`ngil royishidir ul,
 meni yana ne-ne kuyga solursan,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!..
 Birda Mushaf, birda zahru zaqqumda
 qilich sopin qattiq g`ijimladi qo`l,
 ammo tanho sening amringdir vojib,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!..
 Meningsuvratimga dil bog`lama, do`sg,
 zamirimda zindon ichradurman – qul,
 kovok bo`g`zida bir mor tashlagan po`st –
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Men-da yori zorman, men-da xoru zor,
 Men-da Majnun, men-da bir beasar go`l,
 silsilalar qator, salsabil qator,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Qismatingni ayon aylading oxir,
 mendan qolajak kul, sendan qolar kul,
 ey mening bag`rimga qo`ngan musofir,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Kim yig`ladi – osmon, kim yig`ladi –
 Qon, kim yiqildi tepib o`tdi yovuz g`ul,
 qayga ketar bo`lding, xayr shodravon,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Masnad g`orlarida, haramlarida
 dunyo ne`matiga to`yding, hazir bo`l,
 bir zum tirik yotgil zamin tagida,

ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Xoblarimga kirar magar bir tilsim,
 yerdan falak qadar gul to`shalgan yo`l.
 Bu yo`l boshida kim? Oxirida kim?
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Qirq bir hujra ichra qirq bitta havas,
 darvozadan chiqding besharm, beg`usl,
 sohilga yetding sen, daryoga emas,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Sening manziling ko`p, men-da otlqiman,
 goh rahmonu rasul, goh ayshu usul,
 sen ham oshiq eding, men ham oshiqman,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Ayog`im yeggancha ketarman dedim,
 tomog`imni yordi navhai bulbul,
 sen bir gado eding, men podshoh edim,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Yuzimizda na nur, na oynning dog`i,
 bir afsona edi, afsun edi ul,
 zaboningni so`rib ketdi shirmohi,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Ayoqosti bo`lar oqibat har tug`,
 shohu shoir bo`lib anglaganim shul,
 ayog`ingdan chalib ketdi bodi surx,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Senmi itga va yo it senga ulgu –
 to go`rgacha ko`ngil, menga ko`ngul bo`l,
 og`zing qonu labing qonolud kulgu –
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Armon shohkosasin qopladi mog`or,
 yuzlarimda ajin – zanjir, tushungil,
 shablaringda shingil yulduz-uzumzor,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Necha kesilgan bosh tutding bu qo`lda,
 O`zing boshingni-da kesgilu so`ngil,
 bir oyog`ing go`rda, biri sunbulda,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Bizgacha bul qissa ming bor o`qildi,
 sarig` avrog`ini tag`in ochdi ul,
 suyagim qarsillab oyga to`qindi,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Anda orim qoldi, anda qoldi jon,
 tuz, oh, Zahriddin, Muhammadiy bo`l!
 Ichib bo`ldim, ichgil, ilkimdagi qon,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Qazo kamonidan to`rt yon otildim,
 men sanchilgan yerga yetmas hech bir qo`l,
 seni daryoyi Haq ichra botirdim,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Mustamand darvishning o`tlug` ohlari
 shahr aro qo`zdi g`avg`oyu g`ul-g`ul,
 hazrat Naqshbandiy sukutgohlari,–

ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Sarbon edim, necha karvondan qoldim,
 Makkaga qay yon yo`l, senga qay yon yo`l?
 Hazrati Odamdan qolgan yodgorim –
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Tan xokdoni ichra ming asror horgan,
 jahannam ichra ul mijgonlari ho`l–
 chumoli izmida Ka`baga borgan,
 ey ko`ngul, ey ko`ngul, ey telba ko`ngul!
 Falak ohu edi... Mo`miyo tunni
 ichdim, singib bordi singan dilimga,
 horg`in tanam bo`ylab, chayqatib xunni
 bir parchasi sapchib chiqdi tilimga.
 Angladimki, mengzar zalvarli yukka,
 tomog`imda turar edi misli jon – dedim:
 «Tilim og`ir botar ulusga,
 makoningga ketgil, ey telba mehmon!...
 Tosh darzida ilon yanglig` yashading
 yillar kechdi yulqib badaningdan po`st.
 Vujudimni tolon-toroj aylading,
 bu dunyoga shafqat qilsang-chi, ey do`st!
 Quloqlarim uzra kezar muazzin,
 tomog`imda kamand, tilimda kamand...
 Seni olam ahli ko`rib qolmasin,
 Botin-botinimdan chiqqan zindonband.
 Diydoringni yashir, qursi muharram,
 har kimsaga qilma chehrangni oshkor.
 Bu olamga yig`lab kelar har odam,
 faryodida Alloh bilguvchi sir bor...
 Odamzod ilk yoshin oxir unutgan,
 go`dak bo`lgan emas go`yo hech qachon,
 yig`layotgan bola tanglayin tutgan
 panjalardan sizib oqqan edi qon.
 Afsus, senga tomon yetmaydi qo`lim,
 aromizda yo`llar, ko`priklar barbod.
 Muruvvat qil, parcha-parcha, ey ko`nglim,
 manzil – maobingga qaytgil, xayrbod!...
 Men bu sahrolarga kelguncha yetib,
 vujudimni berdim charx shamoliga.
 Nechun tomog`imga kelding qon kechib,
 nigohing tushdimi Haq jamoliga?..
 Nega vosil o`lding dayri fanoda?
 So`l yoningda tahdid, o`ng yonda qutqu.
 Iblis avratini yuvgan daryoda
 yuz chaygan ham shu xalq, suv ichgan ham
 shu...
 Faryod yanglig` uzun edi bu tunlar,
 og`riq kabi og`ir edi kechalar.
 Xudoyo, ne kunlar, ne qaro kunlar
 Mo`min-musulmonlar boshidan kechar.
 G`oyat keskir edi tomog`imda jon,
 hakikat sahrosi bir lahza edi,

labim ortidagi bu qadim jahon
 suyagimni yedi, sabrimni yedi.
 Bu bozor ko`hnadir, joni shirinim,
 unda dallol bo`ldi duch kelgan eshak.
 Senga yomon qildim, senga jabr qildim,
 sinib, parcha-parcha bo`lgan huv yurak...
 Bu tole sho`r edi, yalamoq uchun
 sening tiling yetmas, mening nasibam.
 Darvoza qoshiga keltirdim bugun,
 Haqiqat ko`yiga qoldi bir qadam.
 Qara, osmonimiz ich ko`ylagida
 yulduz zardo`zlari qadagan o`t bor,
 sen bilmaysan, do`stim, ko`ylak tagida
 O`n sakkiz ming olam va Parvardigor...
 O`n sakkiz ming olam va Parvardigor,
 zamin tobutlari yozdilar yaproq.
 Hurlar qanotidan oqdi hil-hil qon,
 yalpiz bo`yi bilan keldi al-miysoq.
 Odam jismin xilvat-xilvatlarida
 Aks-sado berdi ilohiy saslar,
 abas edi hatto zamin qa`rida
 bu kun urchib yotgan ahli nokaslar.
 Yer kosasi ichra qurtlar sharobin
 mayyitlarga berdi bir telba soqiy,
 mening ko`zlarimni achchiq zardobi
 lablarimga oqdi, ko`ksimga oqdi.
 Ko`rdim, yuraginga munglug` tushlari
 asta singib kirdi avliyolarning...
 Bibi Fotimaning mo`min qushlari,
 nechun so`ylamasdan lol qoldilaring?
 Darvish abrlarning kulohlaridan
 oqayotir oppoq qor kabi oyat,
 iymon xoki bilan tiklangan Vatan,
 bizni tashlab ketdi oxir-oqibat!
 Dillarda tish o`ndi, giyohlar so`nib,
 rayhonu yasminlar xor o`ldi – xazon,
 sening oyog`ingga keldim yukinib,
 iymon xoki bilan tiklangan makon!
 Bizga panoh bo`lgin, kun yetib bir kun
 nasib qilsa, yo Rabb, ro`zi qiyomat,
 iymon xoki mavjud shul Vatan uchun
 Payg`ambari barhaq qilgay shafolat...
 Tomog`imga cho`kkan joni shirinim,
 makoningga qaytgilki, sohib yo`qdir.
 Men ham dunyo kezib bir itdek bildim,
 senga bu olamda bir tolib yo`qdir...
 O`n sakkiz ming olam va Parvardigor.

MIRZO BOBURNING VATAN HAQIDA O`YLAGANLARI

Chekka bilursanmi, do`sti bevafo,
 bu dunyoda nedur ranju xastalik?

Hazrat Rumiya qildim iqtido,
 dedim, boshim urib keldim – bandalik...
 Go`yo yeru-ko`kdan yog`ildi jurum,
 hech kim birov uchun tutmadi xasni.
 labolab bir kosa tubida ko`rdim,
 oppoq soqoliga yiqilgan kasni...
 Iblis maqomini qattiq tutdilar,
 shafolat kutdilar g`ardan, o`g`ridan,
 ko`rdim, falajlarni bosib o`tdilar,
 ko`rdim, o`liklarni surdilar go`rdan...
 Vatan – xotirasi jizg`anak tana,
 Vatan – tili kesib tashlangan oqin.
 Vatan – go`rlar uzra avaxtaxona,
 Vatan – ajdodi haq, avlodi xoin.
 Vatan – tishlangan non, tashlangan ushoq,
 Vatan – muazzinlar so`ylagan masjid,
 Vatan – Bahouddin qoshida buloq,
 Vatan – Najmuddindan keyin o`lgan it...
 Vatan – qilich tilgan manglayda chuqur,
 Vatan – darvishlarning bo`m-bo`sh
 kachkuli,
 Vatan – vatan istab chiqib ketgan go`r,
 Vatan – qizi – juvon, zanchalish – o`g`li...
 Vatan – kamarini tushirgan nomard,
 Vatan – xoinlari yeb yotgan dayus.
 Vatan – uch asirlik jarohat va dard,
 Vatan – kosasidan oqib tushgan ko`z.
 Vatan – o`tganlarin unutgan beqadr,
 Vatan – tiriklari xotinboz, fosiq,
 Vatan harom ketgan mayxora kampir,
 Vatan – yori – xoin, do`sti – munofiq...
 Ko`zing ochiq bo`lsa, o`zingga qara,
 Kimsan? Yetti pushting qo`pdi go`rlardan.
 Besh kun dunyo buzib yurgan tasqara,
 yig`la, yig`la, yig`la, jon berdi – Vatan!...
 Ko`zing ochiq bo`lsa, o`zingga qara,
 kaftingdagi boshing – o`zingnikimi?
 Qurtlar bosib ketgan ko`hna shajara –
 Boshingdagi tojing o`zingnikimi!...
 Ko`zing ochiq bo`lsa, o`zingga qara,
 qulog`ingta kirgan sasdir, sadomas,
 har qarich xok uzra turgan maqbara,
 Haqdan senga omad so`rgan gadomas.
 Ko`zing ochiq bo`lsa, qara tegrangga,
 bu yurgan jonlarning bormi iymoni?
 Hayot do`nib bordi to`zonga, changga,
 tirik murda bosdi ro`yi jahonni.
 Ko`zing ochiq bo`lsa, qara tegrangga,
 manov kalla – tama`, manov – tuyuq – nafs.
 Dunyo sig`mayotir chohi tanangga,
 avliyoga ozor yetkargan karkas.
 Ko`zing ochiq bo`lsa, qulog`ing kushod,

sabolar eltdimi azon ovozin?
 Vujudingga bosib kirdi sovuq bod,
 yerga kirib ketdi so`nggi muazzin...
 Vatan – ayolini xor qilgan elat,
 Vatan – ayolini qul qilgan ulus,
 Vatan – ayollarin zo`rlagan davlat,
 Vatan – ayollari siynasida tuz...
 Vatan – chordevorlar boshidagi xor,
 Vatan – soqollari tosh qotgan to`zon,
 Vatan – kulbasi tor, xilxonasi tor,
 Vatan – biyalari o`lgan biyobon.
 Vatan – ko`zlariga oq tushgan go`dak,
 Vatan – mahbaslardan iborat mahbas,
 Vatan – mingbir shohga yolg`iz, yugirdak,
 Vatan – yuz shoxaga bir tutamlik xas.
 Men qayonga boqdim, nigohim quvib,
 bir murod topmadim, bir yod topmadim,
 kimdir vujudimni tashladi chuvis,
 yuragim yirtildi, yuzin yopmadim.
 Aytdim, ey bekafan, atrofingga boq,
 vujud zindonboni ul kech uzuldi.
 Jismim xirmonida yanchildi boshqoq,
 odam xato ketdi, olam buzildi.
 Sen ham jayron yanglig` ketding kamayib,
 siyna – siyna emas, ko`ngillar qabri.
 Odamzod har safar lojaram, mayib,
 bir odim tashlaydi tanazzul sari.
 Tutlar po`stlog`ini ilondek tashlar,
 unga gulxan qalar bir dardmand bola...
 Ulug`lar nenidir hamon talashar,
 hammom – o`sha hammom, o`sha –
 tog`ora...
 Ich, dedim, kosani tutdim yurakka,
 zaqqum emas, sharob ich, ey devona!
 Bir nafasda o`zim bo`shatdim tikka,
 lablarimga botdi issiq paymona.
 Yurak bexud edi, go`yo zindondan
 hozir yorug`likka chiqqan bir hofiz.
 Barmoqlari tordan qo`rqar chunonam,
 bir so`z so`zlamog`ga hayiqar og`iz.
 Daryo tubidagi tosh misoli til,
 jismim so`zishlari uni eltmadi,
 sen nima istading, ey gurusna dil,
 mening bitta jonim nahot yetmadi.
 Bejon chayqalardi hamon chashmi tar,
 oliy go`zallikni chaynardi g`ayri.
 Qazo edi uning o`zi muqarrar,
 qazo bandi edi qaro sochlari.
 Ey it, dedim, qara, nimaga yetding?
 Axir, sen yeding-ku farishtalarni.
 (Xudoyim, bu itni sen nega berding,
 harom qildi butkul bihishtilarni...)

Ey it, dedim, qara, bu gul bargiga,
 ayog`ingni artding, dumingni artding.
 So`ngra otting harom jisming tagiga,
 ham o`zingdek haromiylar yaratding.
 Ey it, dedim, qara, sabuhiy yuzdan
 sidirding pardai nangu nomusni,
 kalamushlar qoldi pari Bilqisdan,
 xonavayron qilib elu ulusni...
 Najosat qopladi dillar bo`yini,
 parilar yulqidi muflislar chirkin.
 Sabr qil, ey ko`ngul, bu it o`yini
 ado bo`lgay yana to`rt kundan keyin...

MIRZO BOBURNING ULUSGA ARZI

Noayon pushtlaring bu kun ulg`aydi,
 birovi palag`da, birovi sag`ir.
 Ey Xalq, daryolaring to`ng`iz bulg`adi,
 Ey Xalq, qo`rg`onlaring yiqilayotir.
 Mazordek asrading ming yil Vatanni,
 ming yil ostonangdan o`tmadi jurum.
 Ey Xalq, etagingdan tutganlar qani?
 Ey Xalq, etagingni ko`targanlar kim?
 Ko`zlaringga qo`lin tiqqan taaddi,
 kuraginga xanjar suqdi muloyim.
 Ey Xalq, non-tuzingni kimlar yamladi?
 Ey Xalq, tuzlig`ingga tupurganlar kim?
 Qismating cho`rilar sochidek chigal,
 peshonang yetmaydi mehrobga – Haqqa...
 Ey Xalq, sajda qilsang Xudoga qilgil,
 ey Xalq, sajda qilma o`zga bir xalqqa!..
 Vayrona marqadlar ichra muharram
 zotlar cho`kka tushib o`ltirar bedor.
 Ey Xalq, suyagingni xor qilsalar ham,
 ey Xalq, yuragingni qildirmagil xor!
 Oysuluv beshiklar dastasida nam...
 Hali na podshohsan, na tosh, na tug`san.
 Ey Xalq, o`g`lonlaring boshi ketsa ham,
 ey Xalq, bitta Ayol xor bo`lsa yo`qsan!..
 Bir tandir noningni tortib olgani
 to`rt tomondan keldi to`da-to`dalar,
 ey Xalq, devorlarda oyatlar qani?
 Ey Xalq, mozorlarda qani murdalar?..
 So`ndi oy chehrasin ro`shno zardlari,
 shoqollarga qoldi Sharqning mahzani.
 Ey Xalq, xonaqohning qani gardlari?
 ey Xalq, Navoiyning muridi qani?..
 Ular tuproqni-da, toshni yedilar,
 sen bu darrandani tanimadingmi?
 Ey Xalq, avliyolar qayga ketdilar?
 Ey Xalq, iymoningdan ayrilmadingmi?
 Gado o`zanlaring panoh izlaydi,
 ayoqosti bo`ldi sarhad, sadlaring...

Ey Xalq, faryodlaring kafan istaydi,
 ey Xalq, kafan istar jigarbandlaring.
 Suting bormi singan oyingning kuvasi?
 Bormi sag'irlarga qurtu qutlaring?
 Ey Xalq, turkiylarning qani o'z sasi?
 Ey Xalq, qani ar-ar alpog'utlaring?..
 Sahro ko'ksidagi tillo sandiqcha,
 yuz kallali tanho ajdar qo'riqlar,
 Ey Xalq, qani meshkob bulutlar ichra,
 ey Xalq, qani zardob ichgan semurg'lar?..
 Boraver, chalqancha magar yiqilsang,
 boraver, manglayda zaxming bitadi.
 Ey Xalq, buguningga shukrona qilsang,
 ey Xalq, erta kunda kuning bitadi.
 Tog' boshida tulpor qoqindimi, bas,
 bek bola bo'lsang ham halok bo'lasan.
 Ey Xalq, oyog'ingga choriqlar emas,
 Ey Xalq, uzangini qachon ilasan?!
 Yozug'larin kechding cho'x neku badning,
 asokashi bo'lding dili ko'rlarning,
 ey Xalq, xoinlarni qo'ydek siylading,
 ey Xalq, moldek boqding muftaxo'rlarni.
 Buzdilar, ko'mdilar va yondirdilar.
 Bir boshingga keldi minglab bakovul.
 Ey Xalq, kechmishingdan kul qoldirdilar,
 Ey Xalq, kelajagingbo'lsin deya «gul»...

Chimmat kabi tutding yuzingda Haqni,
 boshing uzra tutding ruhi pokingni.
 Ey Xalq, semirtirding necha bir xalqni,
 ey Xalq, semirtirdi ular xokingni...
 Sensan zarra qahru daryoyi rahm,
 sensan qatra nafrat, ummoni mehr,
 ey Xalq, bino bo'ldi bir badbin qavm,
 ey Xalq, bir qavmki, murdani ham yer...
 Yedi o'g'lonlarning jonidan tortib,
 oqsoch xotinlarning kovishigacha...
 Ey Xalq, yedi halol uyingda yotib,
 Echki-ulovlarning, idishingacha.
 Muqaddas xokingni toptadi poda –
 sen shu podalardan qolganin yeysan,
 Ey Xalq, afsurda bu dayri fanoda
 ey Xalq, itlar talab yotgan bir elsan!
 Bir qo'yingda ilon, birida chayon,
 qo'ling kalta, sig'mas kimsaga hadding.
 Ey Xalq sabrning-da saddi bor ayon,
 Ey Xalq, hududi bor har nechuk hadning...
 Buyuk turk alplarini barbod yodisan,
 Mastchoh tog'larida holgan sharpa – men.
 Ey Xalq, Navoiyning avlodimisan?
 Ey Xalq, Temurbekning naslimisan sen?!...
 Men Temurxon emas, shoh Bobur edim.

Haq subhon – ta'olo ko'rmishdir ravo.
 Ey Xalq, nidolarim to'kilib ketdim,
 ey Xalq, ketdim ayoq yetgungacha to...
 Qirq bor ado qildim surai «Yosin»,
 zavol yetkurmasin g'animlar tiyri.
 Ey Xalq, farzandlaring beshumor bo'lsin,
 ey Xalq, Bobur kibi bo'lmasin biri...
 Pushti kamarlarim ketar belimda,
 to qiyomat bo'ldim ularga zomin.
 Ey Xalq, ichganim zahr bo'lgan elimda,
 ey Xalq, oshaganing osh bo'lsin. Omiyn!
 Bundan Bobur o'tar, Shayboniy o'tar,
 Tangri o'z mulkidan xalq qilsin joyin.
 Ey Xalq, Buxoroni boshingga ko'tar,
 ey Xalq, Samarqandni xor qilma. Omiyn!
 Necha juft istadim, oqibat toqman,
 azo tutdim hargiz, tutmadim yodin.
 Ey Xalq, men ham bitta bandai xokman,
 ey Xalq, banda bo'lgil xok qadar. Omiyn!
 Bu mulki dahr o'zi bir behudud qabr –
 bir kun ado qilsak umrlar shomin,
 ey Xalq, diydorlashuv ro'zi mahshardir,
 ey Xalq, Xudo seni asrasin. Omiyn!..

MIRZO BOBURNING FANO VA BAQO HAQIDA O'YLAGANLARI

Tole toju taxtni g'ussaga qordi,
 la'nat tavqin oltin bo'yniga osib.
 Gura-gura keldi tulporlar bodi
 tuzlug' manglaylarning sinig'in bosib.
 G'orda qolgan so'ngak kabi avliyo –
 Fariduddin Attor, poyingda o'lay,
 zamin qozonlarin to'ntardi – qaro,
 avom rizqi to'zdi o'choqda kulday.
 Avom – xo'ra... yana o'chog'in yoqdi...
 Jamshid jomi bilan o'ldi... Bu – Qubod...
 Attor kulohini tiziga qoqdi;
 dedi: «Terib oling, dunyo ana – bod!...»
 Tog'lar oyog'ida yotar. Xor. Juldur.
 Mohtob cho'qqilarga osildi – tumor...
 Falak himmatlidir, to'rvasi mo'ldir,
 tuproq tagida ham hikmat beshumor.
 Borliq bu dunyoga pok hidlar to'shar,
 oy ham labolab bir shohkosada sut.
 Sohillarda ko'zyosh qilar oqqushlar,
 amvoj tobutini eltib borar rud.
 Abr qoqar shig'-shig' yulduzlar tutin,
 tog'u toshni yegan ayiqlar pastdir.
 Dunyo, harom qilma mavjudot sutin,
 shohkosaga tumshuq suqqaning basdir.
 Azal to'y madik biz hirsu nafs, jondan,
 havoyi jon berdik bu g'ar o'yinda.

Shohlar shoqollardek o`tgan o`rmondan
qoldi quzg'unlarning ketiga kunda...
Bahor u olamning totlig' mammasi,
birdek ulush berar shohu avomga.
tog'lar g'ijimlagan daryo tanasi
o`zan og'ushini to`ldirdi qonga.
Ich, ey Bobur, bu qon shahid qonidir,
shu qadar qutlug'dir, shu qadar zilol.
Ichu ortingdagi itga ham qoldir,
qoldir chumoliga, chibinga halol.
Dedi Fariduddin Attor: Ey banda,
joh istasang past bo`lgilki, pastlik johdir!...»
Dedi Fariduddin Attor: 'Ey banda,
olamda haq yakka-yolg'iz Allohdir!..
«Qaysar tog'ning cho`qmor hullalarida
toshlar yuzin yorgan shamollar qolar,
pokiza bog'larning hullalarida
namoz o`qiyotgan ayollar qolar.
Osiy zamin uzra sobir va sergak
takbir aytayotgan mard erlar qolar,
qirq bir qiz sochidek yollari gajak
yerni chaqib uchgan tulporpar qolar.
Mustabid kaslaru mustamand yuzlar, –
bari kosa tuproq gardida qolar,
changu g`ubor bo`lar tuyoqlar, izlar,
dardmandlar darmonning dardida qolar.
Har nechuk marqaddan o`tib oy, yillar
kimdir oqlik bog`lab ketgan tut qolar,
salqin saltanatlar, qanjiq saroylar
o`rnida so`ngagi zahil it qolar.
Oy yuzu sarv qad, shakar lablardan churuk,
hilviragan lattalar qolar,
barmog'i qilichni eggan alpardan
tayoqqa yuk bo`lgan xastalar qolar.
Jonso`zu jahonso`z she`ru shoirdan
unut avroq ichra mubham so`z qolar,
yuz yil ichilmagan achchiq chog'irdan
me`bdalar tubida zaqqum tuz qolar.
Ko`ksini mohtobga otgan hur qizdan
qovjiragan etda ko`hna bo`z qolar,
sakson yil olamni yegan to`ng'izdan
chanoq ichra cho`kkan chuqur ko`z qolar.
Nafasi tog'larni bosgan hofizdan
achchiq ichaklarda sovuq yel qolar,
dunyoni shoxida tutgan ho`kizdan
yerga ayro tushgan bukir bel qolar.
Ogoh bo`l, hech narsa qolmas olamda,
ogoh bo`l, hech narsa qolmas, ey inson,
ogoh bo`l, hech narsa qolmas olamda,
ogoh bo`l, qolgaydir birgina iymon.
Ne ko`rding, ko`zingga ishonma, yolg'on,
ne ko`rding, dilingga ishongil haqdir.

Ne tutding, qo`lingga ishonma, yolg'on,
ne tutding, dilingga ishongil haqdir.
Qiyragan shamollar bilgilki ohdir,
bir ohkim tanangni tark etgan nafas.
Oh degil, oh degil, ohki Allohdir
har tuproq, har nido, har sado, har sas...
Ne bilding, aqlingga ishonma, yolg'on,
ne bilding, dilingga inongil haqdir.
Ne qilding, zavqingga inonma, yolg'on,
ne qilding, dilingga inongil haqdir.
Bilganlar olamdan baso o`tmishlar,
o`tgandir nabiyalar, valiyullohlar
va umur shomida yaqo tutmishlar
chalaavliyolar, chalamullolar.
Ne olding, o`zingga ishonma, yolg'on,
ne olding, ilkingga inongil haqdir.
Ne deding, tilingga inonma, yolg'on,
ne deding, dilingga inongil, haqdir.
Yuz yilda to`rt karra dunyo qurganlar,
jamoat tuzganlar, qirg'in qilganlar,
burnidan narini bazo`r ko`rganlar,
behuda lof-gazof, harza urganlar.
Yuz yilda to`rt karra jahon buzganlar,
mo`minlar joniga bo`lganlar zomin,
tariqdek sochilib, kuldek to`zganlar,
Haqiqat ilkiga topshirib jonin...
Sen-chi, iymon keltir, Muhammad Bobur,
Amir Temur kabi avvalo Haqqa.
Sen-chi, iymon keltir, Muhammad Bobur,
Temurlarni bergan hazrati Sharqqa!
Mirzo Ulug`beklar toki tagida
tashlab chiqding magar sen Andijonni,
og'alarning xufya xanjarlarida
g'irchillab uzildi ukalar joni.
Ikki tan sig'mayin bir darvozaga
adovat xokida kuydi ildizlar,
jigarlar sof deya tutgan kosaga
jigarlarin qusdi muslima qizlar.
So`l labida so`rib iyagin yolin
Sog` labida yedi ulusni xonlar,
mamlakatning yarim halol ayolin
bir haramda harom qildi sultonlar...
Sen, ey Bobur, sen, ey yalangayoq shoh,
muruvvat kutdingmi shu sarxo`r xalqdan,
sen, ey Bobur, sen, ey beaql podshoh,
umid uzmay ketgil boshingda Haqdan.
Tovoningni tira zamin darziga,
chakmoningni solgil daryolar uza,
battar Haq de, nohah kaslar qasdiga,
qilichu qalqondan kutma mo`jiz a,
Cho`k tush bir zum qismat nahri bo`yida,
suvga boq, sen axir, shoh emas, gadoy...

Qonsiz cho`qqilarning qonli qo`lida
 tishi singan oltin cho`qmor edi – oy...
 Baroko`hda asir jayron ko`zida
 ko`rding jigar yanglig` qip-qizil yig`i,
 o`ksuk minoraning chuqur bo`g`zida
 toshdek qotib qoldi muazzin tili.
 Badbaxtligi ayon tolei badning,
 tupigin ham yutar qo`shib g`ussaga.
 Xarsang qirralari ezgan jasadning
 keragi yo`q hargiz zog`dan o`zgaga.
 Sen, ey Bobur, sen, ey yalangayoq shoh,
 tovoningni tilar oltin uzangi,
 Andijon xokiga dargoh-badargoh
 sochib ket ko`nglingda kuldek g`ussangni...
 Baroko`hga sutdek to`kiladi qor,
 gumdon bo`lar necha ko`hnavard qizlar
 Sen yor kokiliga kaft bosgan anhor
 bo`ylarida bu kun zo`rlanar qizlar...
 Fano qizg`aldoqlar jovdiragan tom
 mo`rilari kamon o`qidan ko`char,
 sen yor jamoliga to`ymagan axshom
 osmonidan jondek uchar yudduzlar.
 Senga mohtob zahar tutgan shohkosa,
 qismat jomidan-da edi g`oyat cho`x.
 Dunyo – to`rt yon, to`rtta ulkan darvoza,
 to`rt tomonga yo`l bor...Bunda esa yo`q?..
 Vatan – to`rt tomoni besohib qibla,
 Vatan – yov o`qiga to`rt yog`i nishon.
 Vatan – o`n sakkiz ming sarxo`r qabila,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – karomatlar ko`milgan qabr,
 Vatan – avliyolar unutgan makon.
 Vatan – qo`rg`on kabi zil cho`kkan sabr,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – qabog`imga osilgan toshim,
 Vatan – oy xurjunin qa`ridagi non.
 Vatan – o`z yurtimga sig`magan boshim,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – devorlarda guvalalar – oy,
 Vatan – mo`rillarda tutunlari – qon.
 Vatan – ikki kifti ko`rmagan humoy,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – isiriqning islariga g`arq,
 Vatan – Zahridin o`g`loningdan ton.
 Vatan – quyoshni o`g`irlatgan Sharq,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – qadr bilmas, qarddon bilmas,
 Vatan – mehroblarda uxlagan isyon.
 Vatan – mushaflari hamon o`qilmas,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – bilakuzuk uzra shohi yeng,
 Vatan – giyohlarga egilgan domon.

Vatan – manglayi tor, yurak-bag`ri keng,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – tappilarga gul solgan devor,
 Vatan – rangi somon, dalasi – somon.
 Vatan – valiydari gadolardan xor,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – tepalari qabr uzra – kuloh,
 Vatan – dil boshog`i ichida – iymon.
 Vatan – erkaklari chaqin urgan tog`,
 Vatan – jonimni-da yegan Andijon.
 Vatan – tovonlarim tolgan Andajon,
 Vatan – avlodlarim qolgan Andajon,
 Vatan – sarbonlarim qolgan Andajon,
 Vatan – jahonimni olgan Andajon...

MIRZO BOBURNING TURKIYLARGA VA PIRI HAZRATI ALISHER NAVOIYGA AYTGANLARI

Dunyo bo`ylab ketdi... Afsona qoldi,
 Ot yolida qoldi xayoliy ko`shklar,
 qaynoq qo`shlarni xanjarga soldi
 to`zonli dashtlarga sochilgan turklar...
 Erkaklar «Sug`uv» deb, «Sug`» deb yaraldi,
 ularni suymasdi mazgil o`lkalar,
 charxi dun kaj edi, kajrav yashardi:
 «Sen yemasang – seni yeydi o`zgalar...»
 Mashriq yo`li yiroq, mag`rib ham yiroq,
 ot surdilar aro yo`lda kom-nokom.
 Ular to`kildilar baayni tuproq
 va tuproqqa singib ketdilar tamom...
 Saksovullar uzra uchib borar toy,
 kelinlar ko`z yordi dashtu sahroda.
 Ayg`irlar kishnadi – tishlarida oy,
 suvliqlari qoldi necha daryoda.
 Suluvlar yuzlari shirmoyi kulcha,
 tulpor sag`rinida yorin quchdilar,
 ular mangu to`zon-suronlar ichra
 qirg`iy ko`zlarini qisib uchdilar.
 Dubulg`a yonida yondi yolqinlar,
 nayzadek sanchildi iyakka murti.
 Tuyuqlar ostiga singdi chaqinlar –
 zabarjad solingan jilovlar o`ti.
 Go`zallar belida sunbullari – band,
 sunbul to`shidadir ayshu toati.
 Tulporlar belida naqshinkor kamand –
 sambit ayollarning qayish qomati...
 Tunlar yo`l soldilar ushoq ziyoga,
 kunduz ot surdilar qayda sayhon yer.
 Yonib, guros solib keldi dunyoga
 metin og`ushlardan yaralgan bu el.
 Yo`llar – vatanlari, go`rlari – yo`llar,
 Tangri bildi gunoh – savoblarini.

Xonanishinlarga qoldirdi ular
kentü shahru mazgil – maoblarini.
Otdan tushmay ketdi turklar mahsharga,
qoldi g'arib elda afsonalari.
Hofizlari doston aytdi dashtlarga,
dashtga singib ketdi shohnomalari.
Hofizlar oh urdi, dod soldi kuyib,
fig'oni sarg'aytdi falak oyini.
Qilich sopiga jim tirsagin suyab,
yig'ladi, yot etdi Barchinoyini.
Makon tikladilar ayg'ir qilidan,
dunyoga baxsh etmay chimdim vaqtlarin.
Shoirlari o'tkir juvolduz bilan
egarlarga bitdi fasih baytlarin.
Bitdilar el-ulus, Tangri, suv, olov,
oqibat va mardlik tuzuklarini,
ular o'tdi, kim deb so'rmadi birovo
dala-dashtda turkning o'liklarini.
Kunchiqardan chiqdi nahor yalangto'sh,
kunbotarga soldi arg'umog'ini.
Unga yetolmadi na insu na qush,
Tangri in'om qildi bor tufrog'ini.
Dashtu dalalarda qolgan mayyitning
toshlar bildi nedur umr dastxati.
Bashar kechmishida turk shahidining
qabr lavhi ichra qoldi qismati.
Bu qismat ko'rdillar, so'qirsiyaratlar,
kazzob muarrixlar ko'rmagan go'rdir.
Olamga tosh bo'lib sochilgan xatlar
har bir turk jonidan sochragan nurdur.
Erkning bolalari – dasht qoplonlari
dunyo sarhadlarin ilk bor buzdilar,
qumloq qa'ridagi ustuxonlari
chayir saksovulzor bo'lib o'sdilar.
Turkiylar tovada pishirib kulcha
bellariga bog'lab ko'targanda sur,
olamiylar xushro'y shaharlar ichra
kayfu safo qilib kechirdi umr.
Turkiylar – xilqatning bo'z o'g'lonlari
yulduz sahrosida kevganda yayov,
olaning molparast korchalonlari
tirik mavjudotni yedi beayov.
Turkiylar – borliqning toshloq tanlari –
xarsanglar tubiga ko'mganda jismin,
daranda dunyoning fir'avnlari
yedilar insu jin, itu qurt rizqin.
Turkiyning ming bilak, cho'ng sardorlari
teridan bichganda o'ziga kafan,
dunyoning to'rt kunlik jahondorlari
Shimolga kafanlik eltdilar Sharqdan.
Turkiylar bosh olib ketganda badar
bir boshu bir otu bir ayol bilan,

oltmishta tevaga hokim savdogar
bir yurt ayolini o'tkardi qo'ldan...
Turkiylar bir burda qotgan nonini
yeganda bir sahro qavmu qush bilan,
necha bir shahanshoh og'ir qornini
ko'tarolmay o'tdi og'ir zamindan.
Turkiylar olmosga toblab xanjarin
chopganda insonning kir-chirlarini,
ne vahshiy to'dalar so'rib nafs ta'min
g'orlarda zo'rlardi singillarini.
Hazratim, Siz ilk bor sargashta turkning
to'zonlarin asta yuzdan artdingiz,
sahriy go'rlarda yotgan o'likning
tomiriga kirib bordi baytingiz.
Turkiyning ko'ngli sayd, o'zi sayyoddir,
tili ham shahd emas, emas musallas.
Go'rimir aslida ulug' bayotdir,
dedingiz: «Qilichlar dami she'r emas...»
Yaqqalam qildingiz, ey piri fano,
munavvar iymonli necha mulklarni.
Siz darvish siyrati ila Karbalo
dashtida topdingiz so'fiy turklarni.
Simlari oh urgan qonun savtida
qiblaga bosh qo'ydi oppoq sabiya,
sahroga uloqqan jonlar qatida
yashardi Yassaviy, Rumi, Robiya...
Qabrlar tug'iga mohtob egildi,
yoritdi sargardon ellar yo'lini,
ilk bor Tangriga iymon keltirdi,
qumlar qayrog'ida charxlab tilini.
O'tdi asriy suron, bo'hron bahridan,
so'vut, qalqonidan yuvdi dog'larin.
Jahongir ilkida tuproq qa'ridan
ko'tardi avliyo-anbiyolarin.
Alpomish tirildi, go'yo baxshilar
do'mbirasin yorib o'tga tashladi.
Sahroda karvonlab g'isht tashidilar
turkiyning alpag'ut lashkarkashlari.
Unutildi qilich, iddaovu qasd,
lashkarlar yalangto'sh dashtga chiqishdi,
abo-anjadiga ko'shk – ravoq emas,
azizlarga qutlug' makon tikishdi.
Moziy arqonini beliga bog'lab
kelajak dashtida tikladi saroy,
maqbaralar qurdi falakni chog'lab,
gumbazlarga indi parcha oltin oy.
Ulug' el ko'nglini sof qildi toat,
muslim nurlar indi ayqirgan qonga.
Qorni uchun xalqni qilmadi g'orat,
xanjarini qalqon qildi iymonga.
Ammo g'ayri zotlar tushdi qasdiga...
Chuqur-chuqur zamin qa'riga cho'kdi –

koinotning yalang-yaxlit dashtida
 ketayotgan horg'in donishmand mungi...
 Yana bosh ko'tardi sobirlar qoni,
 yana to'rt tomoni xazondek to'zdi.
 Harir parda ichra kuyishib yondi
 saliha suluvlar bilakuzugi.
 Shaharlarni buzdi shahroshub dodlar,
 uvvos tortdi nokas, hasud, luttilar.
 U kiftiga olgan munofiq zotlar
 oltin barkashlarda og'u tutdilar.
 Turk bukun podshohdir, ertaga gado,
 kuloh kiyar gar toj tegsa g'ashiga.
 «O-o-l-l!... Ye -e-e... dedi –
 tuproq to'ydirguncha to...»
 Uyin tashlab chiqib ketdi dashtiga.
 Saltanatlar oxir shunday yemrildi,
 bir yon – Dashti Balo, bir yonda – Qipchoq.
 Ko'kragini silab, ko'kka termildi,
 bor bisoti – Ayol, tanho arg'umoq.
 Umr o'tar, ammo to'shagi bir shol,
 Suruv-suruv qo'yu qo'zi mahzani.
 Ayol – suruv kabi hosildor ayol
 o'n besh Alpomishni tug'masin qani.
 Garchi unga xosdir gadolik, shohlik,
 qutlug' oyiniga xoinlik qildi:
 pirim, Siz yakqalam qilgan mamolik
 yakkalanib ketdi, qumdek sochildi.
 Anor yanglig' sizib, oxir sitilib,
 o'zligidan tondi, dudday taraldi.
 Amir Temur ruhin beorom qilib
 padarkush, modarkush bir qavm yaraldi.
 Pirim, Siz yakqalam qilgan bu ellar
 zanjir udumlarin uzib tashladi.
 Tunov bir mehrobgga bosh qo'rgan erlar
 bugun bir-birini yeya boshladi.
 Yobon – o'zanda qon oqdi labolab,
 qo'pardilar shahru kent u qishloqni,
 Goho toj bahona, goho taxt sabab
 sahroyilar bosib keldi o'troqni.
 Muruvvat kutma gar tig' chiqdi qindan,
 yanchdi qobig' yorgan nasliy urug'in.
 Talashib tushganlar bitta qorindan –
 turkiylar turkiyni qildilar qirg'in.
 Pirim, Siz yakqalam qilgan bu yurtlar
 Yakka-yakka bo'lib so'ydi bir-birin,
 qonga botdi devon ichra surudlar,
 ayoqosti bo'ldi Koshg'ariy tili.
 Unutildi she'ru ishq u zarofat,
 ming oyli xon bo'ldi turklar osmoni.
 Qirg'iy ko'zlarida yondi jaholat,
 tomirlarin yordi sahroyi qoni.
 Pirim, Sen yakqalam qilgan bu xalqlar,

azaliy shukuhin yelga sovurdi,
 ko'ziga qon to'lgan mo'ru malaxlar
 tamom «urho», »urho» balosi urdi.
 Qaro qildi hasad oq yuzimizni,
 buyuk shajarani yoqdik, qurutdik.
 G'ayri ellar kelib to'zmadi bizni –
 biz o'zimiz o'zni buzdik, to'zitdik.
 Bu qismat turkiyni keltirdi chohga,
 biz bu chohga tushdik, qaytib chiqmadik.
 Yetti pushtimizdan qolgan sahroga
 bugun to'rtta og'a-ini sig'madik.
 Urug' uchun qasos oldi urug'lar,
 Bir-bir sindi so'l-sog' qanotlarimiz.
 Marqad uzra zir-zir yig'ladi tug'lar,
 xundor xasm bo'ldi avlodlarimiz,
 Qonlarda jaholat bodi gupurdi,
 qo'shiqlarni ko'mdi faryod, sho'rlari.
 Ulug'lar yo'lidan tondi, tupurdi
 xotinboz bir bekning yaloqxo'rlari.
 Zumurrad ko'zli toj ilinjida, bas,
 bo'g'izlashdi mag'rur malikalarni.
 Ular Navoiyningdevoninimas,
 talay boshladilar zaifalarni.
 Ulug' bir zaminning behad, besarhad
 mehvari jonidan chok-chok so'kildi.
 Bu qavm gunohga botdi to'abad,
 bu qavm o'zini sharmanda qildi...
 Buyuk tarix umri yetdi so'ngiga,
 Haq qahriga duchor bo'ldi u beshak.
 Shu qadar past ketdi, qaytib o'rniga
 qo'ymoq uchun minglab Temurxon kerak!..
 Hofizlar ingradi singan, siniqqan,
 tipirchilay tindi g'olib usullar.
 Taqir sahrolarni parchalab chiqqan
 giyohlarni urdi do'lu dovullar.
 Qilichlar qiyradi telba qahrda,
 zo'r – zo'rladi, yo'g'-u yo'qsil – yig'ladi.
 Chillaxonlarning jim-jit bag'rida
 avliyolar Haqdan insof tiladi.
 «Nima bo'ldi senga, ey jigargo'sham,
 men, axir,
 Boburman, men ham shahzodaman.
 Turkiy bahodirlar ruhiga qasam,
 jahongirdan qolgan yodgorman, yodman.
 Nima bo'ldi senga, ey jigargo'sham,
 men, axir, Boburman, qo'llarim kushod.
 Tangri, guvoh iblis izmiga tushsam,
 garchi qonimda bor sen kabi g'azot.
 Nima bo'ldi senga, ey jigargo'sham,
 tojim berayin men, taxtimni beray.
 Muborak mozarlar haqqiga qasam,
 bundan darvish bo'lib batamom ketay.

Senga nima bo`ldi, ey jigargo`sham,
nechun qonin ichding birodarlaring?
Ayt, men nechuk boray bundan xotirjam,
boshim uzra qalqib turar dorlaring?..»

MIRZO BOBURNING VATANGA MARSIYA SI

Boqdim zahru zaqqum yoshlarim tiyib,
devor taglarida qolganday tanim.
Naqshbandiylarning chorig`in kiyib,
yohu chekayotgan vayron Vatanim!..
Aziz qadamjolar, go`rlar buzilgan,
jasadlar uloqqan, toptalgan lahim.
salla, kafanligi to`zgan, to`zg`igan,
yaktagi xunolud, tobut Vatanim!..
Zuryodlari yetim-esir tug`ilgan,
erlarini tirik yamlagan jahim,
tuproq devorlari tishday to`kilgan,
yurakday sil bo`lgan bemor Vatanim!..
Ko`chasidan kechgan ko`kragin tilgan,
qadrdonim, qadim-qadim beqadrim.
Fotihlari kepak pulga sotilgan,
botirlari zahar ichgan Vatanim!..
Paxsa chordevorning qabatlaridan
Zobitlarga boqding qo`rquv ila jim,
Kampirlarning zardob hasratlaridan
Yurak-bag`ri oqib tushgan Vatanim!..
Xodalarga qoqib o`ldirilgan tan,
Bir yon – qibla, qolgan uch yog`i – g`anim.
daryo qonlar berib, yana non bergan,
tandirlari ko`chgan, kuygan Vatanim!..
tilin “La ilah”dan o`zgaga tiygan,
mening somon rangim, za`faron rangim.
Zarbof to`nlar tikib, bo`z ko`ylak kiygan,
o`zi qul, sochlari chilbir Vatanim!..

MIRZO BOBURNING SHAYBONIYXONGA MAKTUBI

Chandir tepalarning tagiga kirib,
suyagi qilichga aylangan ermiz.
Shohona jismisiz tugagach chirib,
na Shaybon, na Bobur – bir siqim yermiz...
Xon, na siz g`oziysiz va na men – g`olib,
muzaffar bo`lmassiz taxtdan yiqilsam:
sipohlar lohimni sanochoq solib,
kallamni barkashda keltirsalar ham.
Xon, agar qomatim poyimga cho`ksa,
emgaklab bo`lsa-da qaytib kelurman.
Magar bu tulporlar tashnalab o`lsa,
qonimni suvliqqa solib berurman.
Siz uchun, egarda yo`rgaklangan xon,
Andijon xokidan urvoq bermasman.

Men ruhlar daryosi labidagi jon,
kesakni «tillo» deb tutgan emasman.
Qazoyu qadardan etdilar ogoh,
tan bir sohildadir, jon bir sohilda.
Qo`ymichim sag`ridan sirg`alsa, Alloh
xoh ko`kka chorlasin, xoh Azroilga.
Turkona haybat bor gar zarbingizda,
tole bo`lmagaydir bul hamlaga yor.
Xon, xato ketdingiz, shamshiringizda
Temur nasabining qutlug` qoni bor...
Sazodir har kim o`z arqoq, loyiga,
toju taxt ilkini ters ushlingiz.
Samarqanddek turkiy mehrob poyiga
musallo haqqiga qon to`shadingiz...
Bizni azal zulmparvar demishlar,
Men-da bu oyinga amal qilgayman.
Zero maydon uzra bir dor tikmishlar,
unda, xon, yo siz, yo men osilgayman...

MIRZO BOBURNING XO`JANDDA SHAYX MASLAHATDIN MAQBARASI QOSHIDAGI O`YLARI

Niliyrang gumbazlar uzra qo`nmish chang,
balxtut tanasiga chirmalgan ilon.
Ko`z ila qonining farqi qolmagan
avomga siz ko`ngil etdingiz in`om.
Ilohiy hislardan butkul mosuvo,
bemakon, bemazgil, fano va g`arib
odamning eng qaro qa`rigacha to,
siz oddiy sham` ila bordingiz kirib.
Nafsu hirs itlarin ko`zi yaraqlar,
yotdilar tishlashib dumu yollarin.
Qon ila qornini to`yg`izgan xalqlar
hazm etdi avvalo ruh g`izollarin.
Zo`rlangan, talangan zamin – ostida,
erlari – darranda, xotin – jodugar.
Siz chiqib keldingiz oppoq libosda,
chalchiqqa qorilgan bashar oldiga.
Nigohlar hayratsiz, shu`lasiz, rangsiz,
chandiqlik va chuqurlar o`qrayar yuzdan.
Shu qadar musaffo edi chehrangiz,
olomon ilk karra or qildi o`zdan...
Vujudlar qoniga kirdi nomus, tars,
tovondan o`rmlab kirdi bir to`yg`u.
Dedingiz: «Yoshingiz – bu libos emas, ...»
Dedingiz: «Chiqingiz – Ka`ba emas bu...»
Muanbar bir nasim keldi yo`llardan,
titradi qizlarning saksovu tani.
Qilichlar yiqildi g`o`dir qo`llardan,
yalang`och badanlar nogoh seskandi.
Ko`ziga yosh oldi bir miskin mayib,

zaxmdor tanasi bo`ylab oqdi xun.
 Dedingiz: «Qilichga tupuring, qaytib
 bu tufni og`izga olmaslik uchun...»
 Soch ila tanasin yopgan zaifa
 yashirdi avratin g`ayri ko`zlardan.
 Odamzot ko`z yoshi oqdi ilk daf`a
 chumoli iniga ingan izlardan...
 Termildi ming nigoh, mingjon betadbir,
 oq tuman chulg`adi go`yo dahrni,
 Dedingiz: «Odamiy asl gavhardir,
 pok tuting avvalo ruh gavharini...»
 Chalchiqqa iylanib singdilar g`aybga.
 dillarni chirmagan patos buxorlar:
 «Qayoqdan kelursiz – borursiz qayga?..
 Siz – kimsiz, gadolar?
 Siz kimsiz – borlar?..»
 Tikanlar ostidan bo`y cho`zdi rayhon,
 qo`ng`ir tosh ostida yuz ochdi buloq.
 Zaminga jon indi, daraxtlarga – qon,
 kesaklar sham bo`ldi, xazonlar – avroq...
 Yulduzlar dudog`i titradi – pista,
 charsillab chaqdilar bulutlar toshi.
 Yovvosh nor misoli cho`qdi ohista
 qaldiraq to`rt pora qilgan tog` boshi.
 Samovot jismida qayraldi badr,
 shohi nur olomon uzra to`kildi.
 Dedingiz: «Odamiy oliy xilqatdir,
 zulumat qa`ridan chiqing. Kech bo`ldi...»
 Qonyuqi tomoqlar to`niq chohidan
 uzilib, surinib chiqdi bir nido,
 kimsalar seskandi o`zin ohidan,
 dedilar: «O`zing ke-l-l-l, kel-l-l-gi-l
 Yo-yo-yo... Xud-o-o-o-o...
 Qo`l tortib tiriklik xor-xaslaridan
 bir feruz hislarga boqdilar mahtal,
 dedingiz: «Ruh – zamin mahbaslaridan
 falak dashtlariga ketgaydir azal...»
 Kaftarlar qanotni qars-qarsillatib,
 abrlar ostida yozdilar ko`ngil,
 jizg`anak xokistar to`zonin artib,
 eng dilbar chechaklar chiqardilar til.
 Daralar qa`rida yo`qolgan bodlar
 jayrondek tog`larga endilar ravon,
 Dedingiz: «Mo`r-malax, jami mavjudot,
 fanodan baqoga yo`l olgan karvon...»
 Qavmlar qachonki yedi bir-birin,
 tishlari to`qinib ustuxoniga.
 Atrofga qo`rquv-la tashlab ko`z qirin
 so`ngra tig` tortdilar o`z qurboniga.
 Qo`rqdilar na Tangri, na duolardan,
 Rabboniy qarg`ishga yetdi so`qishdan...
 Qon hidi ufurib turgan xom badan

qo`rqardi daf`atan jon chiqishidan.
 Yedilar qabila qavmlarini,
 yedilar urug`lar ulug`larini.
 Timdalab kovlasang tuproq tagini
 topursan jismu jon siniqlarini...
 Shovillab daryoni mindi to`lqinlar,
 kesdilar tomirin qonlarga qorib.
 Mohitob ortidan oqdi kukunlar,
 oliha abrlar jismin qo`porib...
 Bul yirtqich basharning xoki tanida
 qirilib gum bo`lgan ko`ngil nurlarin
 yo`l ochib olmoq-chun rishta-barishta
 sizlarni yubordi Rabbal olamiyn...
 Shaytoniy xurujning vasvaslaridan
 tilidan, ko`zidan, aqlidan tonib,
 qorin va jimoning harom qasdida
 kirganlar eng aziz makonni yorib –
 yiqildi, istig`for aytdi, yig`ladi,
 sovqotgan go`dakdek qattiq chinqirab,
 urvoq taniga ilk bor sig`madi,
 ko`nglidan qurum yosh oqdi tirqirab...
 Og`ir dard so`ngida ko`z ochgan bemor –
 olomon termildi nekbin, g`amangiz,
 dedingiz: «Jumlangiz qofilasolor
 Hazrati Odamning farzandlarisiz...»
 Osmon umqida maknun, sim-siyoh,
 bir tiyr uchgandek yoniq va zarrin,
 dedingiz: «Behuda qon to`kmang, zero,
 qoningiz avlodga qolur... Saqlaning...»
 Dil chirkin yemirdi oppoq tuzdek So`z,
 Ruh bargin qopladi sabuhiy qirov.
 Dedingiz: «Bu – fano. Bundan ketursiz...
 Bag`oyat olisga ketursiz... Yayov!...»

MIRZO BOBURNING PIRI SHAYX HIKMATULLOH IBN ZIYOULLOHGA MAKTUBI. XOTIMA.

Tasbih donalari jim sitilardi,
 ikki kiftingizga salom berdingiz.
 Ko`zingiz qa`rida lavh titrardi,
 uzlat kechasida giryon edingiz.
 Dastordek toblanar minor uzra moh,
 ayog`ida oppoq musallo – abr.
 Darvish boshi uzra ma`yus xonaqoh,
 koshinlardan asta yangraydi takbir.
 Qiblagoh, fanoga cho`kkan ta`birlar
 nahot ro`yo edi, nahot tush edi.
 Nafaslari ko`kka yetgan valiyilar
 nahotki bod edi, bir xurush edi...
 Boshim sig`magan bu volidayi xokim
 to`shak bo`lsin desam, o`larga jon yo`q.
 Magar jondan yo`qdir zarrae bokim,

nahotki bunda bir toza iymon yo`q...
 Qiblagoh, kiftidan uchgan har bir bosh
 tamasxur-la boqdi so`nggi bor. Yohu..
 Nahot qilich bo`lgay to oxir yo`ldosh,
 nahot yo`ldosh bo`lgay mangu tazarru...
 Ruhlar nafasini tun aro tuydim,
 g`arib bir andomlar kezdi boshimda.
 Qur`onni gar yostiq ostiga qo`ydim,
 qilich-qalqon turdi ikki yonimda.
 Qiblagoh, dayri dun pastladimi yo
 pastladimi uning itvachchalari?
 Qo`limiz qon, ikki yuzimiz qaro,
 dud ichida qoldi yozug`lar shahri.
 Qiblagoh, yig`ladim yirtib bo`g`zimni,
 ko`ngil qoni kuydi yuzimdan oqib.
 Men qandoq musulmon deyman o`zimni
 vayron elatlarning ko`ziga boqib?
 Qiblagoh, goh qarq`ish, goh duo ila
 fano dashtida bir adashgan ruhman,
 Foniylarga dedimki, «Ey, bu – qibla,
 bosh qo`ying, men boshim qo`yib
 turibman...»
 Qiblagoh, goh savob, goh gunoh ichra
 yalangayoq darvish, oltin toj shohman.
 Foniylarga dedim: «Bu – zahar, ichma,
 bul zahardan, inon, o`zim ogohman...»
 Qiblagoh, goh qirov, goh ayozlarda
 baytalu ayg`irda charx kezgan bodman.
 Foniylarga dedim: «Ko`z och saharda,
 Sen – Odamsan, Odam... Chiqarma
 yoddan!...»
 Qiblagoh, tiyra tun, o`tlug` kunduzlar,
 kulohu toj kiyib qaytdim bir sizdan.
 Foniylarga dedim: «Qara yulduzlar
 sening joning ila qo`pdi o`rnidan...»
 Ofat olovining qaysar tutuni
 mahv etar chog`i jism barglarin,
 yuragingga yaqin tortgil o`tini,
 chekma zarra haris vujuding g`amin...»
 Foniylarga dedim: «Men-da fanoman,
 agar baytim qolgay qaysi avroqda,
 nomozshomu bomdod aro paydoman
 yurak yoshim tomgan zarra tufroqda...»
 Foniylarga dedim: «Qonlarim manim,
 Qismatingiz Haqqa qaytmoqdir halol,
 qilichu qon talab – tishlagan tanim,
 ayol edi so`ng bor chang solgan zavol...»
 Dahr tuyalari qumga botmasdan,
 O`g`ri tunamasdan umr molini,
 dashtda qirg`iy bilan hamroh yotmasdan,
 men ham talab ketdim aysh ayolini.
 Cho`qqi uzra sinmay mohtob ayog`i,

tilka-pora bo`lmay abrlar loshi,
 tuyg`ularga surib nafs qayrog`in,
 qaro qildim necha suluvlar qoshin.
 Marmar ufq osti shohrohin kechib,
 Oftob daxmasiga kirmasdan tamom,
 men ham qilichimni qinidan yechib,
 Necha ohu ila ado etdim kom.
 Sargashta daryolar sohili bo`ylab –
 qismat bahri tomon ketmasdan badar,
 malak mavj kaftida mayi nob ho`plab,
 ketdim Ishq qiblasi – Karbalo qadar.
 Men-da nigohimni Haq kalomidan
 olib sarob so`yi tikkan osiy zot,
 Men-da xayolimni ishrat jomidan
 Baso sarxush etgan, baso qilgan shod.
 Men-da qavm qoni oqqanda selob,
 na`ra tortib kirgan bu selob aro.
 Men-da aziz hislar yotganda betob
 Jahongir sha`ni deb ko`targan g`avg`o.
 Nahrlar ot soldi poyimda kishnab,
 to`lqinlar xanjari sindi umtilib.
 Men osiy galalar tovonin tishlab,
 yerda yotganim yo`q chilparchin bo`lib.
 Mashomimda ketdi Vatan epkini,
 meni tutdi naslu nasabiy o`chdan.
 Kishanladim goho qilich erkini,
 judo qilolmadim erkni qilichdan...
 Mastchoh tog`larida nafas bo`ldi yor,
 oq fotiha berdi valiylar o`zi.
 Qiblagoh, qonimda duo bo`yi bor,
 Qiblagoh, tilimda Allohning so`zi.
 Qiblagoh, cho`x yomon bo`ldi, cho`x
 yomon,
 g`arib edi Bobur tark etgan Vatan.
 Yalangayoq boqdim Samarqand tomon
 Shahrustonning o`ra-tepalaridan.
 Qiblagoh, cho`x yomon bo`ldi, cho`x
 yomon,
 Mastchohda bir toshga bayt bitdim forsiy.
 Sangin masnad tiqdi menga ko`histon,
 Xatlonda tindi bul dahr g`avg`osi...
 Avliyolar ko`rdim har tosh zihida,
 har g`or ostonida duch keldi ular.
 Mastur edi jami toat dilida,
 nigohida mahfuz ilohiy nurlar.
 Ammo o`ltirishar betakalluf, jim,
 Xatlon uzra oppoq qorlar qoraydi.
 Ularga termilib ilk bor o`yladim:
 «Bizim bu it o`yin qayga borardi?...»
 Yuzlariga boqdim – kosa to`la nur,
 qalblar Mavlaviydan liq to`la mahzan.
 Ularga duch kelgach, dedim: «Ey Bobur,

Shayboniy ham, sen ham bir kun o`lasan!..»
Men-da yotdim xarsang uzra. Kechdi tun.
G`orga singib ketdi zohid bedarak.
Ular holatini sharh etmak uchun
hazrat Navoiyning nazari kerak...
Daralardan anbar havolar yeldi,
Yo`lbarsdek haybatli tog` xoralari,
Men ko`z ochib ko`rgan malaqdek edi
Xatlon osmonining sitoralari.
Harbu zarb dashtida toliqqan qattiq –
yo`ldoshlarim uxlar yonimda beun.
Yuragimga oqib kirdi tun yanglig`
zohid nigohidan oqqan moviy mung.
Oy chirsillar sopol ko`zadek yorti,
Parcha-parcha nurlar kesar buloqni.
Go`yo har tun zohid ko`kka eltadi
toshlar tasbihini o`giran tog`ni.
Ey, sen – allaqanday yirtqich galalar
dastidan el kezib yurgan darbadar,
mana bunday yashar komil bandalar,
joh – jalolning sassiq hididan badar.
Ey sen – xanjarini o`ziga urib,
o`zgalarga bergan issiq jonini, –
nima qilding Temur avlodi bo`lib
Umarshayx Mirzoning Andijonini?...
Ey sen – Xatlon uza bebok bandalar
kachkulidan burda non yegan shahzod,
muborak bo`lsin bu xirqa, jandalar,
xarsanggoshdan masnad – taxt
muborakbod!..
Ey sen – amir nazmin bexud muridi,
bu tun tingla Hofiz afsunlarini,
tosh ustida qutlug` devon turibdi,
sochib Sa`diy Sheroz ma`junlarini.
Xatlon nigohidan oqar chakralar,
bu yer nazm pirlarin dargohimidi?..
Meni janub sori eltgan sharpalar
Amir hazratlarin arvohimidi?..
Ketdilar bosh oqqan tarafga qarab,
tanho ulus kuydi ular dog`ida.
Nahot yahud barhaq degandi, yo Rabb...
«Payg`ambar bo`lmasan o`z
tuproq`ingda...»
Sulolalar keldi-ketdi basma-bas,
qaro it keldi, oq itlar quvildi.
Tavorix el-ulus qismati emas,
jahongir shohlarning yozmishi bo`ldi.
Xatlon tog`larida zohidlar aro
maktub insho etdim sizga, qiblagoh,
Boshim uzra balqar oy jahonoro,
falak – darvishlari uyg`oq xonaqoh.
Tunni tillarida chayqatib, zikr

tushayotgan darvish choriqlariday,
xira tortib borar tobora bokir
sitoralar Mashriq uzra paydar-pay...
Qiblagohim, qora shul tun hurmati,
sinoatgoh Mashriq nurlari haqqi,
orif xokdonida kukun hurmati,
oy yuzida abr to`rlari haqqi.
Qiblagohim, yorug`jahon hurmati,
Qaro tortayotgan qismatim haqqi,
Mavlaviydan qolgan devon hurmati,
tamom tole, tamom kulfatim haqqi.
Qiblagohim Xatlon xoki hurmati,
Mastchoh valiylari, pirlari haqqi,
Jahongirning ruhi poki hurmati
va ul zotningjumla mirlari haqqi.
Qiblagohim qonga qorilgan tig`im,
shamshirlar charxlagan so`ngagim haqqi.
Jigarlarim, yoru-do`st qisgan tilim,
Chakra-chakra oqqan yuragim haqqi.
Qiblagohim, oxir jismimdan chiqib,
jondoshlarga ketar bir jonim haqqi.
Xoki poyingizga yig`lab, yiqilib
yetib borar ruhu ravonim haqqi.
Qiblagohim, qutlug` Baroko`himda
yolg`izgina yodgor qadamjo haqqi,
umrim badalida qo`ymay qo`limdan
asraganim sizning shul duo haqqi.
Bandi-bandim qaqshab, tillarim kuyib,
mozorlarga aytgan padrudim haqqi,
ul yoriki tark etdi jon-jonim o`yib,
xoki-poyi bo`lgan vujudim haqqi.
Qiblagohim, sovuq masnad ustida
titrayotgan toshdek yuragim haqqi,
Bodu bodiyalar zahri yuzida –
boshim uzra dorim – o`zbagim haqqi.
Kishnog`ida kishan uzilgan, zoti
turkiylarga ketgan ayg`irlar haqqi,
olti jihatimdan o`tib faryodi,
so`ngagimga singgan haqirlar haqqi.
Ro`zgor shamolida to`zgan sahfalari –
dilim lavhidagi devonim haqqi,
Hayotimda jumla sahv saktalar,
meni Bobur qilgan armonim haqqi.
Tojim uzra kuloh kiyganman, tilang,
Zahriddin emas minbaed gadoman.
Qiblagohim, so`ngbor shafolat qiling,
dayr mahshargohi ichra fanoman...

HO`QANDLIK EShONI BO`RIXONNING
JONOROL ISKOBILGA YO`LLAGAN
NOMASI 1875-MELODIY YIL
Bul ofoqda iymon nomlig` yurt borligini

siz janobi jonorolga balki aytmishlar
 va tong emas, o`zimizdan chiqqan balolar –
 maslakfurush, masnadfurush, kafanfurush –
 ko`p shahidlar qatorida Eshon Bo`ning
 xirqasin ham allaqachon sizga sotmishlar...
 Ammo maktub bitmog`imdan murod bul
 emas.

Men Eshoni Bo`rixonman – Alloh bandasi,
 Ho`qand otlig` muzofotning bir fuqarosi.
 Siz janobi jonorolga balki erta kun,
 ehtimolki yuz yildan so`ng ayon bo`lajak
 haqiqatni aytib qo`yish men uchun farzdir.
 La ilaha illalohu Muhammadar rosululloh...
 Siz janobi jonoral va barcha zobitlar
 o`ylaysizki bu qirg`inlar, quvg`inlar uchun,
 bu haqorat, bu xiyonat, xo`rliklar uchun
 hech kim javob bermas.

O`ylaysizki, bul begunoh xalqlarning
 boshin,
 tilin, dinin, estiqodin va xotirasin,
 or-nomusin oyoqosti qilganlar uchun
 hech kim javob bermas.

O`ylaysizki, suvlar oqib o`tdilar badar,
 mavjlarida g`arqob bo`ldi barcha qilmishlar.
 O`ylaysizki, yo`q qilingan buyuk bir tarix
 halokati uchun hech kim javob bermaydi!..
 O`ylaysizki, bu «savodsiz va omi” xalqlar
 yaxshilik va yomonlikning farqin bilmaydi.
 O`ylaysizki, bu «latabosh» salang
 darvishlar,
 bu «olomon», bu «tuzem», bu «sartu
 sallalar»
 xullas, to`qson to`qqiz foiz «besavod poda»
 hech narsani ko`rgan emas va bilmaydi ham!

O`ylaysizki, Buxoroning boshini yegan,
 Samarqandni, Xorazmni ko`kka sovurgan
 zobitlarning mushugini hech kim «pisht»
 demas!

O`ylaysizki, qabristonlar jim-jitdir hali,
 o`ylaysizki, tuproq yo`llar jim-jitdir hali,
 o`ylaysizki, uzun ko`ylak kiygan va yuzin
 fosiqlardan yashirgan hur ayollar jim-jit!..
 O`ylaysizki, madrasalar va maqbaralar
 anchayin bir g`isht devordir va shuning
 uchun
 istasangiz qamoqxona qilasiz. So`ngra
 tili boru ko`zi borni qamayverasiz!
 Va nihoyat, qamash uchun qolmasa chidam,
 mehmonxona qilasizlar yo ishratxona,
 asta-sekin islohot va... islovatxona!..
 O`ylaysizki, istasangiz bor qilasizlar,
 istasangiz yo`q qilasizlar,

o`ylaysizki, istasangiz bu «eshak»larni
 nor qilasizlar va... minasizlar...
 O`ylaysizki, mo`minlarning pokiza dili
 qilich va qon nafasidan hazar qiladi,
 o`ylaysizki, itoatkor va zahmatkash el
 ibodatu mehnat uchun yaralgandir, bas!..
 O`ylaysizki, ayollari yig`loqi, zaif,
 erkaklari or-nomusli,
 shuning uchun zambarakning o`qi bilinmas,
 haromiyat va g`ash bilan yengsa bo`ladi!..
 O`ylaysizki, ulug` tarix sohibi bu el
 juda qattiq charchagandir, juda abgordir,
 o`ylaysizki, Osiyoning darvozasi yo`q,
 sohibi yo`q, sardori yo`q Amir Temurdek!..
 «Zanchalish» to`rt xonlik bilan besh-o`nta
 bekklik
 bir-birining go`shtini yeb yotar it kabi!..
 O`ylaysizki, ayni paytdir bu yerlarni ham
 ulug` Rusning zanjirlari bilan bog`lamoq
 va yuzlab hur xalqlar kabi
 «vahshiy Sharq»ni-da
 zanjirlarin sharaqlatib mangu sudramoq!..
 O`ylaysizki, bu dunyoda biror-bir millat
 sizsiz yo`lin topolmaydi, olg`a bosmaydi!..
 O`ylaysizki, qonni bu xalq yuvmas qon
 bilan,
 jonni bu xalq olmas jon bilan!..
 O`ylaysizki, bu xalq sizga oltin g`aznadir,
 oq paxtadir, issiq nondir, mardikorlardir!
 O`ylaysizki, bu loytomlar, bu chordevorlar
 allaqanday ibtidoiy g`orlardan nishon
 va bu xarob kulbalarda yashagan el ham
 shaytondir, yo avomdir, yoxud vahshiydir!..
 O`ylaysizki, bu qo`ymijoz va qora xalqlar
 «la ilah...»dan o`zga so`zni eshitmaganlar.
 O`ylaysizki, Amriqoni eshitmaganmiz,
 Ovrupani bizlar bilmaymiz!
 O`ylaysizki, biz bilmaymiz ajdodlarimiz
 bu dunyoni tetapoya qilganin ham,
 bu dunyoni yelkasida tutganin ham,
 Amriqoni, Ovruponi o`qitganin ham!
 O`ylaysizki, siz qul qilgan bu jannat makon
 xazinadan o`zga narsa emasdir mutloq!..
 O`ylaysizki, bunda ulug` ruhu arvohlar
 yalmog`izlar haqidagi ko`hna ertakdir.
 O`ylaysizki, sizlar buzgan mozoristonlar –
 anchayin bir jasadlarning makonatidir!
 O`ylaysizki, Amir Temur tug`ilmas qaytib,
 Alloh uni yer yuziga yubormagaydir!..
 O`ylaysizki, na G`azzoliy, na Zamahshariy,
 na Xalloju na Attoru na Shams Tabriziy,
 na Mavlono Jaloliddin Rumi, na Jomiy,

na Navoiy... na...–
butun Sharq safsatadir!..
Siz jonorol janoblari, unutmangizki,
musulmonlik – to`g`rilikdir,
musulmon haqdir!
Filhaqiqat, Imperato`r hazratlarig`a
murdorona maktubingiz bitar ekansiz,
o`ylaysizki, karvon-karvon o`g`irlangan
mulk –
mozorlarning toshidan to ustuxongacha,
qo`lyozmayu devonalardan to Qur`ongacha,

jonimizdan, qonimizdan tuzu nongacha
Peterburgga tashilganin hech kim
bilmaydi!..
Siz jonorol hazratlarin ogoh qilaman:
Alloh haqqi va ul zotning Kalomi haqqi
Haqqu Jihad maydonida Eshon Bo`rixon
qumla g`ozi bandalardek men-da g`oziman,
jumla shahid bandalardek men-da
shahidman!..
Allohu Akbar!..

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Asqar Mahkam she`riyatining ustuvor g`oyalari qay ko`rinishlarda aks etgan?
2. “Tavajjuh” dostoni kimga bag`ishlab yozilgan?
3. Asar nomi nega “Tavajjuh”? Ushbu so`z qanday ma`noni anglatadi?
4. Doston qaysi davr voqealaridan so`zlaydi?
5. Bobur siymosi qaysi umuminsoniy tamoyillarga tayanib gavdalanitirilgan?
6. Doston yosh avlod uchun qanday xulosa beradi?
7. Dostonda poetik ko`chimlarning qaysi turlaridan foydalanilgan?
8. Qaysi tarixiy shaxslar nomi asarga kiritilgan?



ABDUVALI QUTBIDDIN (1960-2019)

Abduvali Qutbiddin 1960-yil 20-iyunda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1983). Mehnat faoliyatini Samarqand viloyatining «Zarafshon» gazetasida boshlab, keyinchalik Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida, «Yozuvchi» nashriyotida, Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasida, «Xalq soʻzi» gazetasida turli lavozimlarda xizmat qilgan. Dastlabki sheʼriy toʻplami – «Nayson» (1988). Shundan soʻng shoirning «Humo» (1989), «Baxtli yil» (1991), «Xayol kechasi» (1994), «Sen va sen uchun» (1996), «Uzoqdan olisga» (2007) kabi sheʼriy toʻplamlari nashr etilgan. «Doʻstlik» ordeni bilan mukofotlangan (1997).

2019-yil 8-dekabrda vafot etgan.

IZOHSIZ LUGʻAT

Dudi ohimning quyundek pech ila tobin koʻrung,
Tiyra hajrim oqshomining – bahri girdobin koʻrung.
Xazoyinul maoniy. Navoiy

1

Xayri xoʻsh bobo!
Siz bilan choy ichgani keldim,
Hozir choy quyasisiz,
Non ushatasiz.
Men sizga shoir boʻlganligimni
Negadir kerilib aytaman,
Siz boʻlsa muloyim jilmayasiz,
Sukut saqlab oʻltirasiz shundoqqina,
Yelkangizda sanduvoch oʻltiradi.
Ogʻiz juftlasam uchib ketadi,
Mingʻirlayman, sanduvoch deyman, sanduvoch...
Indamaysiz...
Men boʻlsam zerikib ketaman,
Barmogʻimni oʻynay boshlayman nogohon,
Boshingizni koʻtarasiz,
Pichirlaysiz: – Yurakni koʻz etmajak makon,
Tushunmayman,
Talmovsirab yelkangizga qarayman.
Sanduvoch boshini qimirlatar bir marom,
Yana mingʻirlayman: qush, qush...
Pichirlaysiz, tilni ipdek eshib boʻlarmi,
Keyin sanab boʻlurmi jonni
Oxirgi kungacha, uzmasdan.

Talmovsirayman,
Siz bo`lsa kulasiz, kulasiz...
Xayr xo`sh!
Siz bilan gaplashgani keldim.
Choy quyasisiz,
Non ushatasiz,
Men bo`lsam hovliqib kecha eshitganim:
– Chingizxon onasin qornidan
Bir parcha go`sht uzib tushgan...
Tag'in nimalardir...
Aytaveraman, aytaveraman,
Siz tag'in indamay o`tiraverasiz,
Ichim qizir, barmoqlarimni bukaman, ochaman.
Pichirlaysiz: – Odam –
Etga o`ralgan, et esa zahar.
Kosasida biqirayotgan – ko`pikdir?!
Tushunmayman, ming'irayman,
Terim ham ming'iraganday bo`ladi.
Donolik qilaman:
Qachon yer dinlardan qutilar?
Ranjiysiz.
Yelkangizda sanduvoch boshin silkir bir marom,
Lablaringiz bilinar-bilinmas qimirlaydi.
Eshitaman chog'i:
Oyoqqa tushgan qon qorayar...

2

Otaxurjun ko`tarib yuradi saxovatpesha elchisi,
Bir qarasang tabibga o`xshaydi
Timirskilanib yurgani-yurgan,
Qaychisi, katta qilib ko`rsatadigan oynagi,
muhri bor,
Xar kuni ming-minglab kishilarni qaychilaydi,
Har yuz yilda oynagi-la yerni yonoqday aylantirib qaraydi,
Har ming yilda
Gumroh millatlarga muhr bosadi.
Har yuz ming yilda odamlarni ogohlantiradi:
– La`natilar tiyiling!
Har yuz million yilda quyoshni etagi bilan yopadi,
Va milliard yildan so`ng
Suv kechib,
Olov kechib,
Loy kechib
Keladi:
– Ey tiyilmaganlar tiyilib bo`ldingizmi?
Va hammani boshqatdan uyg`otadi.
Shu uyg`otishda men ham uyg`onarman.
Shunda farog`at mamlakatlari, millatlari, odamlari
Hech qachon bir-birlarini kamsitmaslikka ont ichishadi.
Tilni, qalbni, naslni buzmaslikka, ezmaslikka
Qasamyod qilishadi. Tiyilishadi!
Dengizlarni quritishmaydi,
O`rmonlarni kesishmaydi,

Osmonni teshishmaydi,
Tiyilishadi.
Shunda sizni yana ko`raman,
Siz choy quyasisiz,
Non ushatasiz.
Sukut saqlaysiz, aslo zerikmayman,
Pichirlaysiz: – Odam Sochdan tirnoqqacha
pishgan-pishirilgan
Umiddir...
Tushunaman.

3

Men dunyoni kemiruvchi va kemiriluvchilarga bo`lgan
Faylasufning arvohini kavaklarda lipillab chiyillayotganini eshitdim.
– Chiyyy-chiyyy, dedi u bir kavakdan,
G`ajiyiy-g`ajiyiy dedi u boshqa kavakdan.
Oppoq, momiq tukli boshini chiqarib:
– Ey, sen tanasi yarim sichqon banda!
Yarmingni kimga yutqazding, deb so`radi.
Sovuq uvushish tovonlarimni siqdi,
Nahot?
Tuklarim g`ijirlab-g`ijirlab qo`ydi:
«– Tammog`i, tammog`i, tammog`i...
Kekirdagim tortildi, tishlarim vijirladi:
– Tammog`i, tammog`i, tammog`i...
Yarmimni yutqazib qo`yganimni sezdim.
– Chiyy-chiyy...
– Chiyy-chiyy...
Sen yarim kemiruvchisan!
Qanday qilib?
Sevgan qizimni aldab ketganligimni esdalim.
Onamni ranjitganligimni xotirladim.
O`z elimdan uyalganligim yodimga keldi,
OVOZ chiqarishdan qo`rqqanligimni esladim.
– Chiyy-chiyy...
– Chiyy-chiyy...
Bu ovoz meniki emas, bu ovoz meniki emas, bu ovoz,
meniki emas...
Ayting, bas qilsin!
Ko`zini lo`q qilib, turmasin bunda.

4

Qo`li maymunnikiday chayir,
Oyoqlari filsiyoq,
Bir ura osmonni to`ntarib qo`yadi.
Ko`zlari mening ko`zlarimga o`xshagan.
Farqi ko`zi uning chuqur.
Belkurakka suyanib tamaki tutatib turar edi u.
Salom berdim.
Jovdiradi.
Shivirladi mayin: – Xo`jayin ko`rsa ranjiydi,
Bu yerga ta`qiqlangan kirish!
Nonushtaga sut bermay qo`yadi,
Tushlikka- yovg`on,

Kechqurun nima yeyman!
 Ket, ket, ket.
 Mozorni shasht bilan tekislay boshladi.
 Oyoqlari, qo`llari, qo`llari, oyoqlari
 Bir, ikki, uch –
 Tilla topdi, qopga joyladi,
 Kumush idish topdi tuflab, yengi bilan artdi.
 Gumbazgami, minorgami belkuragi tegdi –
 Maydalab tashladi.
 Oldiga bordim yana:
 – Nima qilayapsan?
 – Xo`jayin xursand bo`ladi,
 Sut beradi,
 Yovg'on beradi,
 Osh beradi kechqurun,
 Ket, ket, ket!
 Egildi, bukildi, turdi,
 Belkuragi bilan suyaklarni irg'ita boshladi,
 Vovullab itlar keldilar.
 Bittasiga kos suyagini,
 Tavon suyagini boshqasiga,
 Kalla suyagini kattarog'iga,
 Kichikrog'iga barmoqni uloqtirdi,
 Itlar vovullab suyakka yopishdilar,
 U belkuragiga suyanib yana tamaki
 tutatdi.
 – Xo`jja-yin xurr-sand bo`o`laadi, dedi.
 Chekib bo`lgach shasht bilan yerni yana ag`dar-to`ntar qila boshladi
 – Eshshak dedim, qo`lidagi belkuragini tortib oldim.
 – O`ldiraman.
 U hayron bo`ldi, angraydi. Birdaniga piqillab
 Yig'lay boshladi:
 – Sen xo`jayinning dushmanisan, sen davlatga qarshi
 Sen... sen... sen...
 Xo`jayin mendan xafa bo`ladi.
 Endi nima yeyman?
 Boshini sarak-sarak qila boshladi,
 Eshshakday chopdi-da, ketdi.
 Gangib turib qoldim uzoq muddat,
 Keyin qo`llarim, oyoqlarim,
 Oyoqlarim, qo`llarim,
 Bir, ikki, uch...
 Mozorni tekislay boshladim.
 Kuchandim, tirishdim – o`zimni to`xtatolmadim,
 Beixtiyor pichirlay boshladim:
 Xo`jayin xursand bo`ladi,
 Nonushtaga suv_beradi,
 Tushlikka yovg'on.
 Xo`jayin keladi kechki payt
 Boshimni siladi: – Yasha!
 Qo`llarini yalab nima uchundir rahmat aytdim.
 Yigirma qop tillani berdim.

Marvarid, zeb-ziynat – mozordan topganimni berdim.
Nimagadir boya eshshakday chopib ketgan yigitdan
shikoyat qildim.
–Topib dorga osamiz, dedi u. Noshukur qochibdi-ya...
Nimagadir xursand bo`lib ketdim.
Oyog`idan o`pa boshladim.
Boshimni siladi: – Ishla!
Menga sodiq bo`lsang oshig`ing olchi...
Irg`ib belkurakni qo`limga oldim.
Menga nima bo`lgan o`zi, menga nima bo`lgan o`zi?
Qo`limdagi belkurakni sindiring tezroq!
Xo`jayin kim o`zi?
Nima o`zi mozor?

5

Hotam o`bdanliq qildi qarigan chog`ida
Qasrini yetimga, oltinin gadoga,
So`qirga hassasin, cho`loqqa tuyasin
Berdi-yu, uzlatga chekindi «safoga».
Qushlar kapa ko`tardilar oliymaqom,
Chumoli qishligidan ajratdi tortiq,
Ayiqa asal atadi, o`rgimchak gilam,
Ilon kiymagan kiyimlaridan,
Toshbaqa kosa, jayra bigiz.
Topganlarin keltirishdi Hotamga.
U oldi xijolat chekib:
– Qaytarurman, dedi.
Uzlatning oltinchi oyida
Maymunlar kapani to`ldirdilar
Xurmoga, yong`oqqa, do`lonaga.
Ketayotib oqish maymunchani qoldirdilar:
– Ey, Hotam issig`ing bor, sovug`ing bor,
Bu senga xizmatkor, istasang o`g`il...
Hotam oqish maymunchani tarbiyat qildi,
Yuvdi, taradi, asradi ko`z qarosida,
O`rgatdi insoniylik urf-odatlarini,
Hotamlikni singdirdi, marhamatni kiritdi diliga,
Afsuskim, qarilikning almisoq yilida
Jabduqni yig`ishtirmoq farz oyda,
Oyoqni yer tortib so`raydigan qarz kunda
Hotam oqish maymunchaga aytmasdan
Maloyikalarning aravasiga o`tirdi:
– Seni xudo asrasin bolam!
... Oqish maymuncha judolikdan himmat tuydi,
Pirdan iz deb sezdi o`zini
Xayrman tutungan otadin.
Qoldirilgan ehsonman,– deya qiynaldi,
Iztirob sinovidan o`tib
Kapani topshirdi ona bo`riga.
– Tug`, dedi, shu yerda bolalaringni,
Muhtojlik ko`rmasan.
Otamning isi bor, islab to`yarsan,
Vahshatdan ozodsen, dahshatdin ozod!

Men olamga borgum, odamga borgum...
Olamda Odam Isoni mixlardi ustunga,
Muhammadni toshparron qilardi quvonib.
Sulaymon farzandlarin zirillatardi,
Yusufdan qizg'anardi sevgini...
Ho`ngrab bo`ynini timdalay boshladi oqish maymuncha,
Shakar tomirini uzdi: – Otajonni!
Pesko`zlar shig`irladi: – Maymun, oq maymun!
Ushladilar, qafasga soldilar, tamosho qildilar,
Yuziga tupurdilar, cho`p chiqib urdilar,
Oqish maymuncha shakar tomirini sug`uraverdi,
Ho`ngrayverdi: – Otajonni...
Hayhot, Adl qamchisi silkinmaydi qachonga qadar?
Hotam o`kirmaydi nega osmonda?
Tutqunlik cho`zilar qachonga qadar?
Jabr qachon bitgay, sabr qachon bitgay?
Zormandaman zoru zor jabrdan erk kitobi bitilur,
qay tong
Ajabmaski, qaytsa Hotam Adl qamchisin silka.
Qafaslar tilkalansa, ozod bo`lsa ong,
Ko`ksimni tutib bersam, ko`ksimni tutib bersam ...

6

Do`konimni yopib ketsammikin endi?
Attoru bazzozning zamoni zamon,
Qo`li, oyog`i chaqqonniki bu hayot,
Boshi hisobdonniki bu turmush.
Dili biyron – vayron, undan hamma bezor,
Dildan chun non pishirilmas, go`sht chiqmas;
Unga ekib bo`lmas, ko`paytirib bo`lmas.
Keladigani azob, beradigani hayrat,
Azobu hayratda farovonlik bo`lmas, to`qchilik bo`lmas.
Asli ho`kiz shoxida turgandir dunyo,
Shundanmi, hezlanish, depsinish, tug`yonlar.
Hama olgisi kelar, bergisi kelmas,
Dilga yov hama insonlar, zamonlar.
Bir dili biyronning xotini fohisha,
Birisiga podshoh atagan zindon.
Birisi o`q uzar, birisi osar,
Birisi... Undan ham bezor olomon.
Masxaraboz san`at olamiga boshliq azaldan.
Qadimdan ko`z boylog`ich so`z sandiqlarin muhrlar.
Hikmat xazinalarin qo`riqllovchi –
xizmat ko`rsatgan muttaham,
Tarix saroylarin eshikog`asi – qahramon qo`rqqoq.
Chegarachilar qonunshunos Odam atodan keyin,
Dilga joy berilgan terining ichidan.
Buyurilgan, yurak uchun xavfli, yaqinlashmasin!
Yaqinlashsa, yo`qoting.
Do`konimni yopib ketsammikin endi,
Hech vaqo yo`q unda dilimdan boshqa,
Shodlikmi, alammi, armonmi,
allanima so`zlar, tuyg`ular, hislar

Shu dilimdan-da chiqar,
Shu dilimdan-da oqar.
Lekin odamlar kelmaslar kechqurunlari,
Kutaverib, zerikdim, ular
Qiziqmay qo`yganlar allaqachonlar:
– Haqiqat tonglariga,
Samoviy gulxanlarga,
Muhabbat chaamanlariga
Ular – mushaklarni shishirtirishga kirishganlar chunon,
Yugurish bilan band, tosh ko`tarish-la masrur.
Sevgini qoldirib ayollar tomoshaga ketgan,
Huvillagan sehtuyg`u ko`chalari, bas!
Do`konimni yopib ketaman endi.

7

To`rt qirg`oq bo`ylab, amalsiz, chorasiz a`molsiz
o`taverib, yuraverib,
O`qchiyverib, ayniyverib oqibat o`lik qarg`aning
jasadiga duch kelib
Arralangan daraxtday yiqilib, ruhim mana bu bo`sh
qafasga o`tsa edi deb qarg`aning qaychiday ochilgan tumshug`iga puflab o`tirgan
Odam
Kechikding!
Qizil va sariq shoqol ko`z uzmay kuzatib turibdi har bir harakatingni.
Ko`zingdan burningdan bitlar chiqmoqdalar amal-taqal qilib,
Og`zingdan semirib ketgan qurbaqa zo`rg`a tushayotir,
kekirdagingni yorib yuborar
Zuluk, quloqlaringdan hasharotlar qochar turli-tuman;
seni tashlab qochayapti safroda, balg`amda, o`tda va qonda tarqaganlar.
Kechikding,
Behuda puflayverma, ruhing g`arq etilgan Najasga.
Ijirg`anib ko`z uzmay kuzatib turibdi qizil va
sariq shoqol,
Yig`lashingni poylab o`tiribdi qimirlamay qizil va
sariq shoqol,
Yig`ladingmi seni burdalashga tushadi qizil va
sariq shoqol,
Arzimassan,
Kechikding!
Vataning bor edi sotding,
Onang bor edi, otding.
O`g`ling bor edi, qimorda yutqazding,
Lazzatga, safoga, ishratga almashding boru shudingni,
Cho`chqaga xizmatga kirding, to`ng`izning amrini
bajarding,
Yurtingning to`ralari qilding momongni zo`rlaganlarni.
Esizgina odam, qarg`aning tumshug`iga puflab uni, sasitayapsan xolos,
Esizgina odam, qorayib, po`rsillab, zaharlanib
tugayapsan,
Ijirg`anib ko`z uzmay kuzatib turibdi qizil
va sariq shoqol,
Yig`layapsan-a, yig`layapsan...
Men sendan – kechikkan odamdan nafratlanmayman, jirkanaman bir qadar,

Achinaman, afsuslanaman ibtidoki, ulgurganlar oz, kechikkanlar sonsiz,
To`rt qirg`oq bo`yida balg`ammushukka ergashganlar sanog`iga yetib bo`lmas.
Safroqushga ergashganlar, yo`lbarso`t panjasiga tushganlar,
Qonbaliq vujudin to`nkargach, cho`kkanlap hisobin
olish mushkul,
Faqat – Qizil va sariq shoqolni jazolashga jo`natgan
Kechikmadimmikin, Odamni qutqarmoqqa?
Yirtqichni qaytarmok mumkinmi asliga?
Balki Odam emas, kechikkan jazo!
Hammayoq yig`i, hammayoq yig`i, hammayoq yig`i,
Iig`layapman men ham, yig`layapman men ham...

8

Ertadan-kechgacha toatim-ibodatim so`zga,
Itoat ko`ngilga, muhabbatim gulga,
Xayolim farishtaday Kibriyo avjlari sari boshlaydi,
Rishtam nurga qadalar, nur rishtamga,
Tunaydigan go`sham oy sohili,
Ma`danlar harakatin kuzataman, alhol
Yaltiroq, qabariq muvozanatda.
Epkin burqsitayotgan qayirma shoh adadsizlik bug`ulari
Kundan-tunga,
Tundan-kunga sakrab o`tishida yemrilgan
Shakllarga kiraman-chiqaman.
Azozillar lashkarlari, dumli yulduz shiddati
Birikkan maqomdan siqilaman, yiqilaman, tiqilaman...
Kuzataman loqayd bag`rim o`prilishini,
Ichaklarim talvasada koinotga tashlanar,
Tashlangani sayin uzoqlashadi u.
Yolg`izman yolg`izlar davrasida,
Burjlar ortiga yo`llovchilar bedarak.
Yulduzlardan kelganlarning ovozlari
Yangramas loyqalangan bu bedorlikda,
Tunaydigan go`sham oy sohili,
Tushaman yoyilgan tolalarga osilib,
Samarqand qalqiydi, madrasalarda
Qarg`alar muazzin, tomoq qirar: qarr, qarr...
O`pkam to`lar og`irlashaman hadsiz.
Kezaman tanish ko`chalarda tolg`in.
O`tiranman chekkaginada.
Temurdan beriroq
Achchiq jahd qaqshatar, turaman nochor,
Registon savlatin to`kar, favvora
To`tiday yig`laydi soxta pishillab:
– Senammi ovvora...
Tasdiqlab boshimni qimirlataman,
Qayrilaman sekin qadim qirlarga.
Hech narsa aytmayman, hech narsa
Yelkamni qo`pargan sherlarga.
Burjlar ortiga yo`llovchilar bedarak,
Kibriyo avjlarin tindirguvchi g`ussa
Yupanchiga ko`ndim.
Meni tushlarimda qo`rqitmang, to`ldim.

Ertadan-kechgacha toatim-ibodatim so`zga,
Bo`larim bo`ldi, bo`larim bo`ldi...

9

Ipirisqi supurgiga o`tirib
Yalmog`izlikdan kitob o`qiyotgan malika.
Tuyani shahzodaga aylantirishga kirishib
Kampirlikka yetdi.
Orada malikaga er bo`ladigan
Kunchiqar shahzodasi
Kunbotar yurtini kuydirdi.
Oqibat oy quyosh yo`lida sasidi.
Orada malikaning otasiga tobe bir elat
Tuya tilida so`zlashib.
Tuyacha yo`riqlarda yurib
O`rkachli mavjudotlarga o`zgardi,
Orada shoh zohidlikni bo`yniga oldi,
Orada mushuklar chaqaloqlarni yutib
Beshiklarda bolalarin belaydigan bo`ldilar.
Orada Iblis qizlarini turmushga chiqardi odamlarga,
Orada ipirisqi supurgiga o`tirgan malika
Tuyaning cho`risi bo`ldi, yalmog`iz emas.
Tagini tozaladi,
Yantoq terib yurdi,
G`aflat choqlarda quchoqladi:
– Shahzodam...
Orada yog`iylar mamlakatni buzib qaytdilar,
Orada Boyqushlar ko`ch-ko`ronlari-la keldilar,
Orada Davlat quladi...
Oraliqda
Taqir bepoyonlik,
O`rkachli kampir yantoq terar,
Quduq qazir, suv olar.
Kunmisan-kunday yigit xipchin o`ynab
O`ltirar o`rkachida...
Ora-charada Quyosh kuygan patirday
G`ildirar doirada.
Ora-charada tongning ko`zi yorir – qizi tug`ilar.
Cho`qqilab yo`rgaklashar ukkilar...
Ora-charada kunday yigit quchoqlar o`rkachli – tuya –
kampirni
Ora-charada...
Xato va Adashish darbadarlikka Mayoq,
Oraliq mavjdirki tortaverar birvarakay.
Mayoq shu`lasini to`sib qadriga sazovor bo`lmagan.
Nari borsa tuya,
Nari borsa hayf.
Ipirisqi supurgi, ipiristsi supurgi, ipirisqi
supurgi
Kun va tun,
Tun va kun...

10

Sezimlarim shang`illar, Uyqu xishillaru tutqich bermas,

Dirillaydi asab qillarim.
 To`rt kechami, besh kecha, to`rtmi besh o`g`lon.
 Lagan ko`targuncha turishar:
 – Abduvalimisan, laganga boq-chi?!
 Boqaman, unda ilon biram ko`zlari munglig`-munglig`...
 Seni suyadi deyishar, to`rtmi besh o`g`lon,
 Laganni qo`yishar.
 Ilon yuzar ohista-ohista.
 Uchtammi-ikkitami uni silashar.
 Bittami to`shalar to`shakday,
 To`shakka botaman ilon-la.
 Chinorday yuksalgan moychechak uchida.
 Eshigi novdadan, tomi xazondan,
 Derazasi qirovdan imorat ichida.
 Ibodat qila boshlayman nogohon.
 Eshikni ochaman
 Asalari salo aytar qubbalari rayhon jome`da,
 Bor deydi derazadan gulaks,
 Uzi so`ra!
 Chumolilarga qo`shilib boraman,
 Chumolilarga qo`shilib qaytaman.
 U to`rtmi besh kechani o`tqazib vishillar,
 Ohista-ohista sirg`alar.
 Ibodat qilaman, sig`inaveraman...
 Sirg`alib yonimga tushadi,
 Ibodat qiladi men bilan.
 Asta-sekin onam qiyofasiga kiradi,
 Asta-sekin otam qiyofasiga kiradi,
 Asta-sekin ukalarim - singillarim,
 Qarindoshlarim qiyofasiga kiradi.
 Asta-sekin qiyofamga kirar...
 To`rtmi-besh kechani o`tqazib
 Uvvos tortamiz billonihoya,
 Tashlanamiz bir-birimizga,
 Ibodat qilamiz bir bo`lib,
 Sezimlarim shang`illar qanchalik yiroqman-yiroqlik
 Uskanjasiga olgan, siqqani siqqan uzroq.
 Ta`bir aylang, ta`bir bugun laganning osti yo`q,
 Ilon yo`q ko`zlari munglig`-munglig`...
 Uyqu fohishaday bag`riga tortavergani-tortavergan.
 Besh yilmi, olti yil, yigirmami-yigirma to`qqiz yil...

11

Yuzi cho`tir qorong`u
 Senga bu yurtda nima kerak yotib olgansan bemalol
 Quyoshni o`ragansan paytavaga.
 Har zamon ko`rsatib qo`yasan, istasang.
 Qopong`ichsan, derazadan qaraganga o`qrayasan,
 Sham yoqqanni berasan shamolga nimalashga,
 Tuproqni yalab, jonini sug`urib bo`lding-ku,
 Odamlarda nima ayb? Ko`zingga qon aralashgan.
 Seniyam enang bormi qorong`u?
 Homilaga o`chsan,

Ayolning qorniga mushtlaysan,
Dalaga haydaysan, uyidan quvasan,
Shafqat so`rasa kish-kishlaysan,
Yolborsa tepasan, tepa-aaa-san...
Qorong`u
Bu yurtda Go`ro`g`lilar tug`ilar, faqat
Go`ridan chiqolmaydi, go`rni vatan bilar,
qilar qanoat
Bu yurtda momoqizlar tug`ilar, lekin
Bachadonida titroq, bachadonida hasrat,
O`limning mehriга sazovor bo`lganlar vodiysi,
bu vodi, y
Ojizlar maskani bu maskan.
Erki uyquga ketganlar, belida iligi quriganlar
Sizga nima kerak vatan?
Yuzi cho`tir qorong`u
Yotib olgansan bemalol, ketging yo`q,
Men sizlarga baxt keltirdim deb do`q urganing urgan.
Garchi quyoshni o`ragansan paytavaga,
Garchi oyning yuzi qirilgan.
Garchi...
Haqqa yetadigan Luqmoni hakimlar tug`ilar,
Yuzi cho`tir qorong`ular o`char, qorasi ko`rinmas.
O`shanda zax go`rda bezavol kulayotganlarni eshitib,
Tik turib bir marta kulsam bas!
Kulsam bas!

12

Kun-kecha o`ylayman
Qirq yamoq bag`rimni chumdugiga ilib
Arshgami farshgami ko`tarilsaydi qaldirg`och.
Oyoqchalari xonqiznikiday ruhlar,
Bag`rimni qoqsalar:
– Sadqayi cap ...
Boshpana bersalar va unda jimgina kun kechirsaydim.
Gungmi – ko`rmi, har nechuk bir ayol,
Yamoqlarimdan kirib shipirsaydi,
Tozalasa yuragim o`rnini.
Ovqatga unasa qarog`imda...
Oling desa, olsam,
Top-toza o`ringa kirsam, dong qotsam,
jimgina uxlasaydim.
Kigizday qalinlashib, istehkomday kengaysaydi
uxlasaydim.
O`nlab xonalarida tentirasam – xosxona, dilxona, xayolxona...
Qaysi bir xonada ranglar va ohanglar tusida
Tuslansaydi qizim,
Ko`zimning ipagidan ko`ylaklar bichib
Men uni pariday yasantirsaydim.
Quvonchga g`arq bo`lib, jimgina kun kechirsaydim.
Jimgina... Jimgina... Jimgina...
O, Darig`!
Qo`qonda tasirlar xiyonat miltig`i,

Tiflisda zirh, kaltak, belkurak
Insondan qo`yadi o`zini ustun.
Sariq ofat kelar yoprilib,
Egatlar qappayar tirik vahmday,
Etagiga solar bolalarni
Oxirsiz mung,
Oxirsiz mung.
Bilmasaydim, ko`rmasaydim –
G`o`zapoyahokim
Farmonlar bitadi, yana yashashga.
Qulluqdan boshlaydi ham fan, ham ilm,
Qo`l qo`ymas ruxsatga, odamday, odamday
Yashashga, yashashga, yashashga...
Mushtimni tutaman,
Qirq yamoq bag`rimni tumshug`iga ilib
Qishloqma-qishloq, shaharma-shahar o`tayotir bo`ri.
Oyoqlari arslonnikiday odamlar
Bag`rimga tashlangan:
– Sadqayi cap ...
Jimgina kun kechirolmayman,
Jimgina kun kechirolmayman!

13

Arzim shu Bahovaddin Balogardon.
Ki mani doimo aldashgan.
Deyishgan, shamsiy qarlug`och qorinchasida ulug` tugar,
Saodat urug`i.
Bu urug`ni qadagan kunda munavvar marhamatidan
Barcha ulush olar barobar.
Menga bu ulushdan tegmagan.
Tekkani ikki daryo, o`rtasidagi yer holo
Jannat yer – irjaygan, tirjaygan talon pirlarining
Hirsin qo`zg`atgan.
Bosqin garmsellar xo`jalari ishratgohi
va men taom tashuvchi.
Aldashgan, yetmish pag`onali ko`zasimon olam
qurilar deb
Qarlug`och qorinchasidan tushgan zarra tuproqdan.
Har pog`onasida kitob, o`ttiz beshinchisida
mayi oydin,
Tenglar qatoriga kirursan,
Saodat xiradiga bo`lursan ega!
Puch yong`oqqa to`ldi qo`ynim, po`chog`idan armonhujra
topdim,
O`ksib yashayapman hanuz.
Aldashdi Bahovaddini Balogardon!
Miyamga pashsha to`lgan,
Ko`zim chechakka chalingan,
Tilim qarmoqqa ilingan,
Ichim kepaklagan,
Elim guruhga, to`daga bo`lingan.
Birodarimga qasdim qo`zir, qarindoshimga o`chim,
Jigarimni yegim kelar, aqrabomni bo`g`gim,

Men og'ir kasalman.
Kasalman, kasal –
Xalos eting.
Xalos eting,
Hayhot!
Meni davolashayotir sizensiz, arqonlar, bog'ichlar,
qisqichlar,
Yorib ko`rishyapti, omburlar, qaychilar, pichoqlar,
Tikib qo`yishyapti, bigizlar, ignalar, nayzalar.
Og`riqdan bujmayaman, o`g`lim boqar ko`zi to`la yosh,
Labimni qisaman, iljayaman:
– Hechqisi yo`q!
– Hechqisi yo`q!
Hechqisi yo`q, kelmasangiz ham, hazrat Bahovaddini
Balogardon,
Chidamak hunarim, bardosh hunarim,
Ko`zasimon olamda sarvarlarim yo`q.
Radman, tonilganman, sizdan iltijo,
Tahqir, haqoratlardan,
Minnat, malomatlardan,
Shu xasta o`g`limni qiling ehtiyot,
Bu rangpar o`g`limni qiling ehtiyot?!
Arzim shu Bahovaddini Balogardon...

14

Changalak to`qay, ko`lmak, to`r, to`r ichida baqa,
Ajib shijoatda toshday qotgan olam.
Baqaning ko`zida muruvvat,
Odamning yuzida taranglik.
Ko`lmakning tubida to`xtab qolgan tilla soat.
Vaqtini kim yurg`azar?
Yurdi u, odam baqani to`rdan olar, qiyqirar baxtiyorlikdan,
Baqa shu`la to`kar, sakrab chiqar uning boshiga.
– Olg`a, olg`a, olg`a...
Vaqtini kim to`xtatar?
To`xtar u, hammasi ma`lum:
Bosh tushib ketar, baqa bosh bo`lar,
Odam bayroq ko`tarar, baqa sovuq nifoq solar.
– Olg`a, olg`a, olg`a...
To`qay changalak, qopqon, qopqondan hayiqib
turgan kirpi,
Najib hayratda tek qotgan odam.
Kirpi ko`zida sahovat,
Odamning yuzida hayajon.
Qopqonda qisilib to`xtagan tilla soat,
Vaqtini kim yurg`azar?
Yurdi u, Odam kirpini olar, qiyqirar masrurlikdan,
Kirpi og`uli tikan otar, chiqib borar uning boshiga,
Bosh tushar, kirpi bosh bo`lar: – Olg`a, olg`a, olg`a...
Vaqtini kim to`xtatar?
Hammasi ayon:
Nifoq sochilar, og`uli tikan sanchilar, olag`ovur,
Makon – maqsad – kelajak – zamin.

Baqabosh siyirib yursa,
Qiyirib yurar kirpikalla,
Alxusus ikkovida ham bayroq.
Changalak to`qay yoxud to`qay changalak,
Murtlari tirrayib, ko`lmakka kiradi birisi,
Boshqasi qopqonga tushadi chiqmas.
Baqa ko`zlarini ochadi – ko`lmak
Dorlar, simlar, xanjarlar o`shqirar.
Kirpi ko`zlarini ochadi – qopqon,
yig`i-sig`i, dod-voy dengizi guvranar.
Changalak to`qay yoxud to`qay changalak,
Baqamti tirikchilik o`tqazar
Ikki odam,
Kirpi va baqa...
Tilla soat fazo devorida, kapgirchalari
aralastiraverar
Ayon-noayon,
Bayon-nobayon,
Tamom-notamom.

15

Mening yomonligim bo`lsa kechiring,
O`chib ketay deyman, yukim og`ir, o`g`rim nochor,
qaroqchim landovur,
Davlatimni sadaqa qilay desam, davlatim eski,
Xalal bermayotgan bo`lsam, qo`ying, yashay,
Tuproqqa sig`may qolmaydi hech kim.
Yengilgina onamni ko`tarib borolmayman orzusiga,
U ko`tarar doim alamimni, g`amimni.
Boshimni qo`ymoqqa joy topolmasam,
Quhog`idan joy berar onam.
G`ashingizga tegsa hasratim kasri urgan qog`ozlar,
Yirting xohlasangiz, lekin ko`nglimga til tiqmang.
Mening yomonligim bo`lsa kechiring –
Xayingizni bergay kechirgan.
Uzr, ovozimni qamayman tuynuk ochib qochar;
Bo`g`aman erkimni – ruhim qutqarar.
Yaxshiga yondoshmas, yondoshgani o`lim,
Bahslashar...
Yutqazgani – yutqazgan o`yinda, bo`yin qo`ymas,
Qilich ko`targanga tik boqar:
– So`y, deydi.
Qilich so`ymas chopar, u o`lar o`lmas.
Holimga qo`ymas.
Mening yomonligim bo`lsa kechiring,
To`g`anoq qo`ymaganman to`g`nag`ichdan.
Chaynalganim chaynalgan
Taqdir tuflamagan saqichday.
Bola-chaqamning kuniga yaramaydigan vayronaga o`xshayman,
Tog` mening oldimga kelmagan,
Oy kirmagan yostig`im ostiga.
Ammo o`zim boraman deb qaqshayman,
Xarsangko`rpa umrim tortilar ustimga.

Gadolar xilvatlari yo`qlik ganjlaridan charog'on,
Me'dapiyolalar sindirilgan, ko`ngil to`q.
Men to`ydir deb so`ramaymanu,
Ammo Zulfida falak boshlangan,
Poyida yer turgan
Isinay desam, panohiga yo`latgani yo`q.
Mening yomonligim bo`lsa kechiring,
Uchib ketay deyman, yukim og`ir, qaroqchi landavur,
o`g`ri nochor.
Davlatimni sadaqa qilay desam, davlatim eski,
Kechiring meni,
Sizni ham, meni ham ayirmay teng ko`rar tuproq –
Onaizor,
Onaizor,
Onaizor...

X O T I M A

Tahlikasiz tin.
Go`dak yig`isi yo`q,
Qarg`ish yo`q.
Uylar to`la o`yinchoq – hadik yo`q, ko`ngil tinch.
Kulgu ko`p, xanda ko`p, tabassum ko`p.
Mehr behisob, oqibat behisob,
Ijirg`anish yo`q, jirkanish yo`q, shafqat ko`p,
Tajovuzsiz palla huzur cheksiz,
Sevgidan jahon,
Sevgidan vujud.
Tahlikasiz tip.
Ehtiyojga muhtojisiz umrlar behisob,
Komillik san`atin egallagan sonsiz.
Zug`umsiz,
Zo`rliksiz,
Ildizni ildizga ulay olgan ko`p.
Uyqu va bedorlik sarhadlarida
O`ch yo`q, g`azab yo`q, qasd yo`q.
So`qmoqlar ko`p – borib qaytish mumkin,
Aytish mumkin mo`jiz alarni.
Xabardorlik ko`p,
Muruvvat ko`p,

Yo`l mavjud – tahlikasiz tin.
Avlodlar ajdoddan
Bedoddan emas,
Qadimiy qon quvurlari, ong simlari
Tafakkur jilg`alari quyilgan o`zan
O`ragan, chirmagan
Yer mavjud – vatan.
Tajovuzsiz palla – begonalik yo`q,
Go`dak ko`p, yurak ko`p, alla ko`p.
Ayirish yo`q, qo`shish yo`q, uzish yo`q,
Hamdamlik ko`p,
Birdamlik ko`p,

Odamlik ko`p.
Barmog`im qaboqqa qo`ydim o`rtandi,
Emrandim, nigohim tindi, aylandi.
Bildim, a`zoyi badanim hayot shirasidan,
Hamshiram – turna,
Qondoshim – jayron,
Jigarim – arg`uvon.
Xoki turobdanman, inim – qumursqa, og`am – ot,
Bildim – Odamiyzotman,
Odamiyzot ...

1988– 89 y.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Abduvali Qutbiddin she`riyatining novatorligi nimada?
2. Shoir uslubiga xos jihatlar nimalarda namoyon bo`lgan?
3. Uning ijodida asosan qanday mavzular yetakchi o`rin egallaydi?
4. “Izohsiz lug`at” dostoni nega aynan shunday nomlangan deb o`ylaysiz?
5. Dostonning mazmun-mohiyatida qanday g`oya yotibdi? Shoir nima demoqchi?
6. Lirik qahramon kim?
7. Uning kechinmalariga to`xtalib, izoh bering.
8. “Izohsiz lug`at” qanday uslubda yozilgan?
9. Dostondagi ramziy obrazlarga ahamiyat bering.



ESHQOBIL SHUKUR (1961)

Eshqobil Shukur 1961-yil Surxondaryo viloyatining Qumqo`rg`on tumanidagi Boymoqli qishlog`ida tug`ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini bitirgan (1984). Ilk she`rlar to`plami – «Yurakni o`rganish» (1984). Shundan so`ng uning «Sochlari sumbul-sumbul» (1988), «Tungi gullar» (1989), «Yashil qushlar» (1995), «Hamal ayvoni» (2003) she`riy kitoblari va 2005-yilda «Ko`hna bog` rivoyatlari» nasriy kitobi nashr etilgan. «Naqshband», «Ibtido xatosi» kabi dostonlari, «Nasoyim ul-muhabbatga sayr» turkumi, shuningdek, «Oqibat oqshomi», «Dunyoning ko`chishi» kabi qissalari ham bor.

IBTIDO XATOSI

Avvali:

Oltin taxtda o`ltirguvchi Axura Mazda¹¹²,
Olam ruhini boshqarguvchi Axura Mazda.
Ming yilda
To`rt unsur zuvalasidan
Hayot homilasi – odam vujudin
yaratdi Yaratgan...
So`ng bu vujud uzra
Uyum-uyum jannati ranglarni to`kib
O`z ijodin yana mukarram etdi
Ulug` yaratuvchi.

So`ng:

Avlodlar egasi Axura Mazda,
Poyi – shamsu qamar botguvchi mehrob,
Avlodlar egasi Axura Mazda
Yana uch ming yil
ter to`kdi. So`ngra,
Ikki yuz ming saboh
Nurlarni yig`ib
Muqaddas olov –
qalbni yaratdi
Ulug` yaratuvchi.

So`ng:

Tangrilar tavallud topgan kun edi,
Dunyo shafaqlar-la yo`rgaklangan kun.
Ko`k qo`sh egizaklar tuqqan kun edi,
Osmon tog`lar ila tirgaklangan kun –
Yaratuvchi Axura Mazda

¹¹² Axura Mazda – ezgulik tangrisi

Qalbin tuhfa etdi odamga...

Saxovatli yaratuvchi.

S o`n g:

Gullarning qonidan to`ygan Ahraman,

Yulib ariqlarning ulushlaridan

O`ziga to`n bichib kiygan Ahraman

Bulbullarning qora qarg`ishlaridan

Toqat qilolmadi

Qalbga, Odamga

Toqat qilolmadi:

olamning eng so`nggi kashfiyotiga.

S o`n g

Axura Mazdaning ko`shkiga borib

muloqotni so`rab o`tindi,

o`lmas badkirdor.

AHRAMAN

Oyog`im og`masdi, Axura Mazda,

Sening qarg`ish urgan manzilgohingga.

Zulmat jandalarin ko`zimga tiqib

Mash`um diydoringdan yiroq ketardim.

Vale!.. Nachora!..

XURMUZ¹¹³

Nachora... O`liging yuklabsan so`nggi choraga –

Tashrifing ma`nosin anglat, Ahraman?!

AHRAMAN

Nechun qalb baxsh etding ojiz maxluqqa?

Nahotki, yaralib Uchinchi Xudo,

Mangu qonunlarni aylar talotum?!

XURMUZ

Bilmassan, yaratmak – mangu farog`at...

O`zingga qoldirmay, o`zgaga tuhfa

Qilmaklik gashtini yana bilmassan.

AHRAMAN

Mavh etmak ham lazzat... Sen ham bilmassan,

O`zganing eng so`nggi nonin talamak

Ikki karra lazzat. Yana bilmassan.

XURMUZ

Ruhning mangu erkin qaydan bilursan,

Senga begonadur ozod halovat.

.....

Dunyoning yagona vorisi – Odam,

Yolg`iz u muqaddas o`tga munosib.

Qolgan gaplaringni shamollarga ayt.

AHRAMAN

O`, inim, bilaman, til doim shakkok,

Ruhni tinglamasdan valdirayverar.

Vorislikka ne yo`l sho`rlik bandaga...

XURMUZ

¹¹³ Xurmuz – ezgulik tangrisi Axuramazdaning ikkinchi nomi

Dunyoning yagona vorisi – Odam.

AHRAMAN

Eski olamdagi yangi erkatoy,
Falakning qusug'i bu badbaxt maxluq.
Nizo, fitnalarning otashdoniga
Adashib suqilgan bir kosov, xolos.

XURMUZ

Bo`ldi bas, Ahraman! Qarorim qat'iy!
Ato etganimni qaytib olmasman.
Oldingda qora yo`l. Muloqot tamom.

AHRAMAN

Xurmuz, barbod etma muvozanatni,
Tangriga nojoyiz kasri oqibat...
Ortga qayt... Boshingda savdo yog'adi.

XURMUZ

Yo`lidan qaytgan kuch tangri sanalmas.

AHRAMAN

U holda... Odamni mahv etajakman.
Shevamda shoh so`zlar – yovuzlik, o`lim.

XURMUZ

Ahraman, sening ham tangri noming bor
Kuch bilan nizo qil, zot bilan emas.

Yovuzlik Tangrisi – Ahraman Xurmuz yaratgan Odam va Qalbga qasdma-qasd, xuddi shu to`rt ming yil mobaynida tuman-tuman jinlarni, sonsiz sanoqsiz vahshiy morlaru chayonlar va o`rgimchaklarni yasab dunyoga qo`yib yubordi. U baribir bu jonzotlarning Xurmuz yaratgan mavjudot qoshida ojiz ekanligini bilardi. Shuning uchun ham u to`rtinchi ming yillikning oxirgi asrlarida Odam taniga mengzab bir vujud yaratdi va uni Qora Farishta deb atadi. Bu vujudda yuz ming qora tunning zulmati mujassam topgan edi. Lekin, Ahramanning bu urinishi ham behuda edi. Chunki, Odam ruhida xudolik qudrati bor edi. Xurmuz bilan qilingan muloqot esa hech qanday samara bermadi. Shundan so`ng Ahraman bilan Xurmuz o`rtasidagi samoviy nizo yuz yil beto`xtov davom etdi. Ular bir kun ikkinchi osmonda olishsalar, ertasi yettinchi osmonni larzaga keltirib urishardilar. Olam to`po- lonlar ichida qoldi. Ikki tangri qanday bo`lmasin bir-birini tamomila mahv etmoq uchun intilar, lekin hech biri buni udda qilolmas edi. Urushning yuzinchi yilligining oxirgi faslidagi jangda Axura Mazdaning qo`li baland kela boshladi.

Lekin, bu orada Qora Farishta bilan ming-minglab jinlar Yer yuziga tushib kelishdi. Ular o`zlari bilan son-sanoqsiz ilon-chayonlarni olib kelishdi. Xurmuz zaharlanib borayotgan Yerni tozalab ulgurolmay qoldi.

Endi urushni davom ettirib bo`lmas edi. Chunki yana o`n yil ichida odam olami zaharzaqqumdan xarob bo`lardi. Oxir-oqibat Axura Mazda bir necha yildan beri murosa so`rab turgan Axramanniig so`roviga rozilik berishga majbur bo`ldi.

Murosa oying so`nggi «Baliq qorni» manziliga – zulmat va yorug`lik chegarasiga belgilandi.

Axura Mazda yorug`lik bag`rida Ahraman esa zulmat qo`ynida turib shunday murosa qildilar.

AHRAMAN

Mamnunman! Ko`p mamnunman, Xurmuz,
Men sening shartingni tinglayman avval.

XURMUZ

Odamni tinch qo`y, Ahraman
Yerga soyangni-da yo`latma hatto,
Yo`qsa, zakovating zikr etgan ofat
Boshingda boshlagay o`yinlarini.

AHRAMAN

Mayli, endi mening shartimni tingla.

XURMUZ

Xo`sh?..

AHRAMAN

Qalbni odamgamas, maymunga bergin.

XURMUZ

Olamning sahnida yangi tomosha...

Murosami bu, yo masxarabozlik?!

AHRAMAN

Ikkisi ham emas, bu mening shartim.

XURMUZ

Ahraman, murosa o`tingan o`zing,

Aybim – so`rovingga nazar qilganim.

Qora yo`ldan kelding, qora yo`ldan ket.

AHRAMAN

Sabr et... Axura Mazda... Sabr et

Sabrning tagida yo sen, yo men bor!

XURMUZ

Ahraman «har bir so`zning o`zagi,

Har bir voqe` qonuni bor».

Angla, o`zak, qonun mohiyatini,

Keyin o`zingni ham anglashing mumkin.

AHRAMAN

U holda... Ikkiga bo`lasan qalbni

Yarmini Odamdan yulib qolasan.

XURMUZ

Roziman...

Faqat yarataman yana bir vujud,

Baxsh etaman qalbning teng yarmin unga.

Odam shajarasi menga ko`p tanish.

AHRAMAN

Roziman...

Muhimi ikkiga bo`lmoqlik qalbni.

Faqat sen yaratar ikkinchi vujud.

Birinchi vujuddan zaifroq bo`lsin.

Qudratingni qizg`on, Axura Mazda.

XURMUZ

Roziman.

Zaifroq yaralar ikkinchi Odam

AHRAMAN

Yana bir shartim bor – eng muhimi shu:

Odamning umrini cheklab qo`yasan,

Faqat shunda zamin daxlsiz qolur

XURMUZ

Yer – mangu. Odamning umri ham boqiy.

AHRAMAN

Odam! Odam! Axir, u bor-yo`g`i

Mangulikning xasis vodiylariga

Yirtiq to`rva tutib kirgan tilanchi.

XURMUZ

Ahraman, bilasan, o`zga olam bor,

Bizni o`qtin-o`qtin chorlagan olam...
Murosadan keyin muddati yetgach,
Biz mangu ketarmiz o`sha olamga...
Yolg`iz Odam qolur zaminga hakam.

AHRAMAN

Umrin cheklamasang odamning agar,
Hech qachon ketmasmiz o`zga olamga.
Hech qachon, Xurmuz...

XURMUZ

Ahraman, og`ir bo`l, hech bo`lmaganda
Mangu qonunlarning qoshida... Og`ir...

AHRAMAN

Men hayotni xush ko`rmayman, Xurmuz...
Yer homiysiz qolmoqligi shart.

XURMUZ

(o`z i c h a)

Shuurimda uyg`ondi totli bir sezim,
Odamning qalbida o`lmas iloh bor.
O`zi yo`l ochajak mangulik tomon.
Roziman.

AHRAMAN

Unga ikki yuz yil kifoya qilar.

XURMUZ

Yo`q. Uch yuz yil bo`ladi. Odamning umri.

IKKINCHI DAVR

A v v a l i:

Oltin taxtda o`ltiruvchi Axura Mazda
Ikki tanga jo qildi bo`lingan qalbni
Olam ruhini boshqarguvchi Axura Mazda
ibtido tongida
shu taxlit
Erkak ila Ayolni
Yaratdi... yaratuvchi...

SO`NG:

Bir qalb sahobalari – Erkak ila Ayol
Yorug` dahosili – Erkak ila Ayol
Davomand tog`ining
yon bag`irlarida
Siyrak o`rmon ichra
oy chiqar pallada,
xush bir pallada
o`ltirardilar
Erkak ila Ayol.

SO`NG:

O, janub bulutlari, mayin, yoqimli,
Dilni ochib, ko`kni yopar bulutlar.
Davomand bag`riga yetib keldingiz
Toshlar tirilmoqda... Tanbal tog`larning
Erinchoq nafaslarini sinqohlari

Faqat siz kelganda sezilar ayon...
Siz iloh qushlarin patidan yumshoq
Hatto toshlar ruhin qitiqlagaysiz.
Ibtido tunida,
oq yomg'ir ostida,
bulutlarni ichib
o'ltirardilar
Erkak ila Ayol.

S O` N G:

Janubdan semirib qaytgan bulutlar,
Yelini oq sutga to'liq bulutlar
Suza boshlaydilar shimolga tomon
Ortidan cho'ponday haydaydi shamol.
Ochilar osmon,
To'lishgan oy porlar...
Yomg'irda yuvingan
Dunyo bir go'zal,
Oy nurlari ostida
Yechinayotgan ayolday go'zal.
Bulutga chayilgan
Osmon ham go'zal –
Yig'idan keyingi
Ko'zlarday go'zal
Erib oqayotgan
Oydin tun go'zal –
Kulgudan keyingi
Yuzlarday go'zal
Shunday o'ltirardi:
xush bir pallada
Erkak ila Ayol...

S O` N G:

E R K A K

Qaydadir oq suvlar loyqalanmoqda.
Baliqlar to'zg'itib uyalarini,
Suv osti gullari bilan o'ynashar.

A Y O L

Moziy mamlakatlar uyg'onayotir,
Unut qo'shig'ini eslar to'lqinlar.
Baliqqa aylandi adashgan qushlar.

E R K A K

Do'st, birga yonaylik ipak nurlarda,
Oyning titrog'ida birga yashaylik.

A Y O L

Do'st, qara, ichyapman, oyning ko'zlarin
Muqaddas suv kabi...

Ichib to'yamasman... Vujudim – ixlos.

ERKA K

Bi-ir oydin, bi-ir g'amgin, bi-ir totli
Sog'inchni sezyapman senda.

AYOL

Ha, gullarni sog'inib qoldim,
Tangri nafasini tarqatgan gullar...

ERKAK

Sogʻinch ruhni koʻrkamlashtirar
Men ham seni juda sogʻinib qoldim,

AYOL

Axir yoningdaman!.. Doʻst!..

ERKAK

Vujudimda boʻlsang ham sogʻinaman
Sen ham gulga oʻxshaysan juda,
Tangri oʻz bogʻida oʻstirgan gulga...

AYOL

Doʻst, gullarni chorlayver, yoʻqsa,
Shamolga sochilib ketar sirlarim.

ERKAK

Sirlaringni oʻzim tutib qolaman,
Har holda men maʼqul shamoldan koʻra...
Yaxshisi, menga ayt.

AYOL

Oʻzing bil...

Axir, biz bittamiz, sirlarimiz bir.

ERKAK

Hali oʻzimizni kezib boʻlmadim.

AYOL

U holda kezaver...

Umr ham oʻtadi... Sirlar ham oʻtar...

Hammasi cheklangan.

Doʻst, Qalbimiz gullarga oʻxshasa kerak,
Menday... Sirlarimday... A?..

ERKAK

Ular Qalbimizga oʻxshaydi...

AYOL

Oh, qachon koʻrolar ekanman Qalbni,
Qoʻlim yetmas koʻksimdagi buyuk yulduzga.

ERKAK

Qalb ikkiga boʻlingan, afsus,
Endi ogʻir uni mukammal koʻrmoq!

AYOL

Men Qalbni mukammal koʻrmoq istayman.
Lekin, qachon?

ERKAK

Ikkimiz bir-birimizga singib ketganda.

AYOL

Nahot?.. Qanday bilding?..

ERKAK

His qildim, yolgʻonga oʻxshamaydi hech.

AYOL

Doʻst, bizni qanday kuch birlashtirajak.

ERKAK

Menimcha... Hijron...

AYOL

Hijron?.. Naqadar ogʻir! Ammo...

ERKAK

Yoʻq! Bu dahshat! Yoʻq! Bu kerak emas!

AYOL

Bu juda zarur...
Yerning yarmi senga, yarmisi menga,
Uch yillik hijronni kechib o`tamiz.

ERKAK

Axir!.. Nima uchun?...

AYOL

Mukammallik uchun.

SO`NG:

Bir qalb sahobalari – Erkak ila Ayol
Yorug` daho hosili – Erkak ila Ayol
Shunday yuz burdilar
Hijronga... Hijronga...
Har oy had sanalgan
tog`ning qoshida
ko`p nola qilardi
Erkak... Nolalar qilardi.
Vale muruvvatni
bilmasdi Ayol.

BIR YILDAN KEYIN

Erkak yana tog`ning qoshida
Chorladi ayolni. Uzoq chorladi,
Oxir ovoz keldi tog`ning ortidan –
Ayolning suyumli ovozi...
Tangrining ilohiy tovushi kabi.
O v o z – Qaerdan kelding?
Erkak – Qorong`ulikdan.
Ovoz – Nimaga kelding?
Erkak – O`zimni yarmimni ko`rmoq payida.
O v o z – Nima olib kelding?
E r k a k – Sog`inch olib keldim.
O v o z – Muddat-chi? Muddat?
E r k a k – Uch yil degan eding, yuz yildan oshdi.
O v o z – Besh yuz yil kut meni.

IKKI YILDAN KEYIN

Ozoz – Qaerdan kelding?
E r k a k – Yetim qolgan olamdan keldim.
O z o z – Nimaga kelding?
Erkak – Ikkiga bo`lingan Zaminni birlashtiray deb.
O v o z – Nima olib kelding?
Erkak – Do`stlik olib keldim.
O v o z – Muddat-chi? Muddat?
Erkak – Uch yil degan eding, besh yuz yil kutdim.
O z o z – Ming yil kut meni.

UCH YILDAN KEYIN

Oxir ovoz keldi tog`ning ortidan –
Ayolning suyumli ovozi.
Olamniig og`riqli ovozi –
Tog`ning yuz ming yillik og`ir ohiday.

Ovoz – Qaerdan kelding?
E r k a k – Oniylikdan keldim.
O voz – Nimaga kelding?
Erkak – Mangulik izlab keldim.
Ovoz – Nima olib kelding?
E r k a k – Muhabbat olib keldim.

Birdan paydo bo`ldi Erkak qoshida
Uch yilda daraxtday gullagan Ayol
Yuzta oy porlardi uning bag`rida
Erkakka atalgan yuzta to`lin oy.
Ayol – Men qalbni mukammal holda ko`ryapman.
Erkak – Yo`qotilgan o`zimni topdim...
Mangulikning yo`li poyimda
Olov qilich kabi yaraqlab yotar.
A yo l – Sirlarimni endi tushundim, mayli,
Shamollar ularni olamga sotsin.

Bir-birin to`ldirdi
bu ikki bag`ir
Shu kun o`zligiga
yetishdi, Qalb ham...

SO`NG:

Oradan to`qqiz oy, to`qqiz kun, to`qqiz daqiqa o`tgach, Ayolning ko`zi yorib, egizak – bir o`g`il, bir qiz ko`rdi. Shunday qilib Tangrilar ham, Olam ham, Odam ham kutmagan buyuk hodisa voqe` bo`ldi. Muhabbat Abadiyatga yo`l ochdi. Bu ilohiy kashf ikki Tangrining ixtiyorisiz, nainki bir ishoratisiz yuzaga chiqdi. Omad yoqlab ketdi yana Xurmuzni.

AHRAMAN

Nima bu? Qanday hol? Ko`zlarim tinar,
Ruhimni kavshaydi olam oshubi.
Men seni qarg`ayman, o`trik bashorat,
Is bosgan uyangni ruhimga qurib,
Sehrlil sayrading, o, ko`r qora qush,
Arvohdav avrading... G`alabalardan
Bergan vahiyning aldamchi sarob.
Ket, ruhimni tark et! Daf bo`l! Izg`ima!
Senga parchalatmam iqtidorimni.
Ivirsig falaknig sohibalari,
Masxara majlisin tuzmay turingiz.
Oxirig imkon bor hali ilgimda.

Ha, Ahramannng so`nggi imkoniyati bor edi. U zulmat vodiysiga bir tup olma ekib, uni yuz yil qurbonlik jonlarning qonlari bilan sug`orib, avaylab parvarish qilgan edi. Olamda Muhabbat voqe` bo`lgan o`sha kunlarda, Ahramanning olmasining dastlabki hosili ham yetilib bo`lgandi.

AHRAMAN:

Zulmatning muzlagan quchoqlarida
Bir tup olma o`sdi olam bexabar,–
Ildizi qurushqoq qora havoning
Mudroq tirikligin so`rib olardi.
Yuksalib borardi qorong`ilikda,

Zulmat qatlamlarin pichoq shoxlari
Sovuqqon yalardi, seskantirardi...
Uning yaproqlari kaltiroq emas,
Tortinmas to`fonlar to`olonidan.
Betartib ivirsib qolsa bo`shliqlar,
Intizom sukutin barpo etardi.
O`sha bir tup olma – tangri erkasi.
Muallaq o`sdi u qora havoda:
Zulmat erkatoyi, ulfati lazzat.
U – shahvat daraxti, ishrat daraxti,
Mehrob etganlarga azaliy homiy –
Xalos etar dunyo tashvishlaridan,
Yo`rgaklab ishratning bulutlariga.
Bir tup qora olma – zulmat naynovi
Ilk mevasin menga tortiq ayladi.

SO`NG:

Bir qora olmani
o`lmas Ahraman
ikkiga bo`ldi-da,
teng yarmin o`zi,
qolgan yarmin esa
Qora farishta...
yedilar ikovlon... Ikovlon...
Va birdan ularning vujudlarida
yetildi bir zumda hirsiy g`alayon.

SO`NG:

Ahraman bilan Qora Farishta olmani yeb qovushgach, oradan to`qqiz oy o`tdi. To`qqiz kun o`tdi... To`qqiz daqiqa... Va Qora Farishta Odam farzandlari shaklidagi egizak iblisvachchalarni tug`di. Bu iblisvachchalar uchta edi. Ularni Odam bolasidan farqlab bo`lmas edi.

Ahramanning so`nggi imkon a`moli ana shu iblis bolalarda edi.

SO`NG:

Axura Mazda va Ahraman kuchlari tamomila o`zga shajaraga evrilib, o`zga bir olam- ga ketadigan samoviy muddat ham yetildi. Bu muddatdan bir lahza keyin ham bu kuchlar Odam olamiga dahl kilolmas edilar. Lekin, xuddi shu muddatdan bir lahza oldin Ahraman o`z bolalarini Odam yeriga tashlab yubordi. Va xuddi o`sha kuni Erkak bilan Ayol bu bolalarni topib oldi.

ERKAK

Bolalar...
Bu bizga tangrining so`nggi tuhfası.

AYOL

Kuchlar shajarasin evrilish payti
To`lg`oq mehnatini kechdimi falak!
Tangrim, mening bag`rimni to`ldir,
Quyoshchalar o`ssin etaklarimda.

OVOZ

Yanglishib ketmangiz, Olam dirillar...
Unda yangi zamon tug`ilayotir.
Bulg`amasin toza quchog`ingizni
Zulmatning haromi tashlandiqlari.
Ular bolalarnas, iblisvachchalar.

ERKAK

Bular bolalar-ku!.. Nelar deyapsan?..

O, ilohiy ovoz!.. Bular bolalar!..

OVOZ

Ular Ahramanning harom to`lidir
Haqqa kechikmagil, ularni o`ldir.

AYOL

Axir, go`daklarning gunohi nima?

OVOZ

Qullikni, zo`rlikni ulug`lar ular,
Erku farog`atni toptab yasharlar.
Qora qilmishlarning qonli chizig`i
Ayon xislat berar peshonasida.
O`ldirgin ularni, o ulug` Odam!

ERKAK

Yovuzlik yo`q mening tabiatimda.

OVOZ

U holda muruvvat qilma ularga.

ERKAK

Biz bu sho`rliklarni asrab olamiz,
Ezgulik joylaymiz vujudlariga.
Otalik qilurman. Mening bag`rim keng...

Ana shunday qilib Erkak va Ayol Ahraman bolalarini asrab oldilar. Ularga mehr ko`rguzib o`z bolalariga qo`shib qo`ydilar. Nachora!..

XULLAS:

Mehr – buyuk erkdir!..

Mehr – bir zanjir!..

Ko`p qaltis boshlandi bu yangi zamon!

1990-yil

NAQSHBAND

(Doston)

* * *

Bu –
Semurg` qoni bilan yozilgan kitob,
Quyosh tomog`ida pishirilgan taom...
Bu –
Vulqon yuragiga o`yilgan naqsh,
Bir kosa o`limday ichilgan qasam...
Bu –
Shamol ko`ylagiga tikilgan kashta,
Chaqmoq shoxlarida yetilgan xurmo...
Bu –
Dengiz devoliga chizilgan tasvir,
Bir qultum hayotday yutilgan daryo...
Bu –
Shudringlar toshiga bitilgan bitik,
Qaqnus yuragida yashalgan o`lim...
Bu –
Sopol sinig`ida butlangan dunyo,
Qalb ila osmonning tutashgan yo`li..

Bu –
Haqqush minqorida sayragan tarix,
«O`limsiz hayot bu, hayotsiz o`lim»...

I

Qasri Hinduvonda...
g`uj-g`uj g`ujumlar
Hayrona ochilgan kaftlari uzra
Yog`du yog`murlari yog`ilgan kuni...

Najotga chorlagan muazzinlarning
Hurlar dovushiday hur ovozlari
Hurriyat kuyiday to`kilgan kuni.
Bir karvon o`tardi Hinduvon bo`ylab...
Tuyalar ustida o`rkachlar aro
Zikrdan chayqalgan oylar o`tardi,
Oyoq tirab yerning uzangisiga
Osmonga uzangan otlar o`tardi.
Kuyik yollarida chaqmoq o`ynatib,

O`limni tishlagan sherlar o`tardi.
 Sim-simlab, yuragin sim-sim qonati,
 Quyoshda qishlagan pirlar o`tardi.
 Ulkan qanotlari – shamol qishlog`i,
 Osmonni yelkalab qushlar o`tardi.
 Bir karvon o`tardi Hinduvon bo`ylab...
 Qari gujumlarning xush salqinida
 Sajdaga bosh qo`yar sersut bulutlar.
 Quruqshoq gujumlar gullay boshlaydi,
 Gullagani kabi cho`bin tobutlar.
 Kesaklar zikr aytar – sachrab ketar o`t,
 Xarsanglar yorilar – ichi to`la gul...
 Xazonlar tirilar maysaday xushnud,
 Har qabr boshidan boshlanar bir yo`l...
 Uchayotgan dumli yulduzlar kabi,
 Uchari zikrdan mastona qushlar.
 Har dilga mehmonga kelar bir nabiy,
 Har dilning bog`ida muhabbat pishar...
 Bir karvon o`tardi Hinduvon bo`ylab...
 Ma`sum musulmalar homilalari
 Halol luqma so`rab volidalardan
 Qursoqda yurakday tepinar edi,
 Buyuk Ism aytib hayqirar edi.
 Jon sha`mi titragan ja`mi jonvorlar
 Bu Ism o`tiga talpinar edi.
 Osoyish bog`larda muslim daraxtlar
 Ibodot deb safga tizilar edi.
 Bir karvon o`tardi Hinduvon bo`ylab...

II

Boboyi Samosiy otdan tushdilar,
 Bir chayqalib ketdi Qasri Hinduvon,
 Bir buloq ko`z ochdi bosgan izidan.
 Hizr hassasidan yoqqanday imon.
 Hazrat Mir Kulol ham otdan tushdilar,
 Falak xurjunidan to`kdi yulduzlar,
 Manzildan viqor-la tushib keldi oy...
 Poyiga to`shaldi ko`ngillar, ko`zlar.
 Boboyi Samosiy otdan tushdilar,
 Yaktagi yengidan dasta-dasta nur
 Yetim Yer ustiga to`kildi sim-sim,
 Qashshoq ro`zg`origa yog`ilganday dur.
 Samosiy samoni hidladi avval,
 Olloh nafasini tuydilar uzoq.
 Ruhida yastandi abad va azal
 Yuz ming tong nuridan yasab bir chiroq.
 Go`dak hidlaganday onasin ko`ksin,
 Sezganday payg`ambar bo`yin ummatlar,
 Osmonga intilgan sevgi daraxtin,
 Shoxlarida gullar buyuk oyatlar.
 Samosiy samoni hidladi uzoq...
 Va moviy chehrani suyib silagan
 Barmoqlar uchidan sizib chiqdi dil,

Dunyodan yuz burib diydor tilagan
 Barmoqlar uchidan sizib chiqdi dil.
 Hinduvon tuprog`in hidladilar so`ng,
 Abad shamollarin bo`ylar edilar.
 Ilhom tovush berdi purning tilida,
 Tuproq hikmatini o`qib dedilar:
 «Bu tuproqdin bir er isi keladir,
 Ul er fayzi bilan Qasri Hinduvon
 Kun yetib Qasri Orifon bo`ladir».

III

Olloh kiprigiga osilib turgan
 Yulduzlar haqqi Pir bashorat etdi.
 Olloh nafasidan harakat topgan
 Oy, Quyosh haqqi Pir bashorat etdi.
 Buyuk qiyomatni boshlamoq uchun,
 Dunyodan qoq teri oshlamoq uchun,
 Amr kutayotgan Isrofil suri haqqi,
 Ko`p ma`sum, ko`p mo``min ahli jannatga
 Rangdor kamalakdan yirtishlar yirtib,
 Ko`ylaklar tikayotgan Idris haqqi,
 Pir bashorat etdi.
 Ummatlar diliga umidvor boqqan,
 Zulmatlar qa`rida quyoshlar yoqqan,
 Olamlar sarvari Muhammad haqqi,
 Haqiqat haqqi Pir bashorat etdi.
 Halokat tamg`asi dunyo ustida,
 Yolg`onlar, fitnalar, zavollar qasdida,
 Buyuk boshpana – moviy Kuloh ostida
 Mangu ilm haqqi Pir bashorat etdi.

IV

Boboyi Samosiy, samoviy Bobo,
 Bir zumda Mashriqdan Mag`ribga borgan.
 Egnida jandapo`sh, qalbi tojdor bobo
 Damida o`t-suvni o`ynata olgan.
 Yirtiq kovushidan tuzagan qanot,
 Osmon devorlarin so`z bilan yorgan.
 Boboyi Samosiy, samoviy Bobo
 Buyuk Bahouddin tavalludidan
 Bashorat bergan chog` muridlariga.
 Xushxabar sochganda ko`ngil udidan,
 Hinduvon osmoni, tuproqlariga
 Yog`dular yog`murday yog`ilgan chog`da
 Hali Bahovuddin ona qursoqda
 Birinchi olamni yashar edilar.
 Bir hovuch nur kabi titrar edilar.

V

Boboyi Samosiy, avliyo Bobo
 Qasri Hinduvondan qayta o`tar choq,
 Oq changlar to`zg`igan somon yo`lida
 Qadim hayot bilan sirlashdi uzoq.
 Bir zum tin oldida, so`ngra dedilar:
 «Dimog`imiz sezgan o`shal er hidi

bu gal bu tuproqdan keldi ortiqroq»

VI

Mangulikning moviy vodiylarida
Zangori va harir to`lqinlar uzra
Yetaklab suzadi har bir ona yil
Uch yuz oltmish beshta bolalarini.
Odamlar qariydi, kunlar qarimas,
Avlodlarni qaritib, yillar qarimas.
Vaqtning shamolida dunyo ustunlari –
Achchiq kuyundilar uchar sarbasar.
Kunlar bola kelib, boladay ketar,
Yillar ona kelib, onaday ketar.

VII

Uch kundan so`ng Boboyi
Samosiyning osmonning o`ngiri etaklariga
manglayida oy porlagan go`dakni quyosh
bolasiday obkeb soldilar. Etaklari nurga
cho`lg`angan Bobo uni farzandlikka qabul
qildilar.
Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,
Oq qaldirg`och uchdi boshmaldog`idan.
Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,
Duoga qanotin ochdi qaldirg`och.
Bir tabassum berdi Hazrati Xizr,
Oq kulgular to`kdi momoqaldiroq.
Xush bir nazar berdi Hazrati Xizr
Tuyalar kiftidan o`sdi juft qanot.
Boboyi Samosiy, muborak Bobo,
Oyatni omonat topshirgan kabi,
Hayotni omonat topshirgan kabi
Go`dakni topshirdi Amir Kulolga.
Oq fotiha berdi Hazrati Xizr,
Hinduvon yo`lida eridi toshlar.
Fotihaning imlo tovushlariday
Osmonni qopladi oq qaldirg`ochlar.

VIII

Aslida bu dunyo to`fon ichinda,
Loyqa sel, ko`r quyun tug`yon ichinda.
Har qadam orasi fitna va zavol,
G`ariblar giryasi giryon ichinda.
Bir ko`ngil istadim ayqash tanlardan,
Bir bug`doy topmadim somon ichinda.
Yemxo`rlar yem yig`ib, yemlab yoturlar,
O`zlari yemishlar shayton ichinda.
Tishlangan oyoq-la qayga borursan,
Norlardan itlar ko`p karvon ichinda.
Aslida bu dunyo to`fon ichinda,
Loyqa sel, ko`r quyun, tug`yon ichinda.
Bir kema istab men yorga yolbordim,
Bir joynamoz suzdi ummon ichinda,
Har kimga bir go`r bor zamin qa`rida,

Har kimga bir kema osmon ichinda.

Ey do`st, kemangga chiq Nuxday mardona,
Aslida bu dunyo to`fon ichinda.

IX

«Hojamizning onalaridan – Oллоh
ularning sirlarini muqaddas qilsin – shunday
naql qiladilar: «Farzandim Bahovuddin to`rt
yoshli paytida: «Mana bu sigir peshonasi
qashqa tug`adi» dedi. Taqdirdan bo`lib uch-
to`rt kundan keyin o`sha aytilgan sifatdagi
buzoq tug`ildi. Hamma taajjubda qolib:
«Hazrati Xoja Muhammad Boboning
muborak nafaslarining asari zohir bo`ldi», –
dedilar.

«Bolaning ichida daho yashaydi»...
Bolaning tilidan gapirar daho,
Bolaning ko`zi-la ko`radi daho...
Bola shamol o`ynab shamol bo`ladi.
Yomg`irga suyunib, yomg`irga do`nar
Jajji kaftlarida hayot to`ladir,
Farishtalar uning kiftida o`ynar.
Bolaning ichida tong otmay turib,
Dunyoning ustida yorimaydi tong.
Bolaning ko`zida kun botmay turib,
Shafaq chimildiqqa kirmaydi oqshom.
Dunyodan yuz burib, chillaga kirgan
Daho boshpanasi – bolaning ko`ngli,
Jonvorlar, daraxtlar tilini bilgan
Dahoga qiyindir odamlar tili.
Bola dengiz ko`rib, dengiz bo`ladi,
Bola osmon ko`rib, osmon bo`ladi.
«Bolaning ichida yashaydi daho»,
Yashar yaratganning xush soyasida,
Olam mohiyatday yastanib yotar,
Dahoning g`aroyib boshpanasida...

X

Guzarlarni qoplar qora tumanlar,
Osmon soyalarin haybati sovuq.
Bari qora kiygan ranglar, chamanlar,
Qorong`u... Qorong`u... Yaqin-u yovuq...
Buxoroning ovloq go`shalarida,
Kecha zulmatida, yolg`izdan-yolg`iz,
Hazrat Bahovuddin kezib yurarlar,
Dunyo o`lib yotar surursiz, nursiz.

XI

Ko`hna mozoriston... Mangu sukunat...
Sukunat ohiday bir qora shamol.
Yulduzlar o`ligi to`lgan bu xilqat,
Qora hijob ichra yotar bemajol.
Hurlar tovush berar nafasdan yengil,
O`yiq qabrlarda uyalar shamol.

Shohkosalar chil-chil, umrlar chil-chil,
 Har qabr qa'ridan kuygan qo'l kabi
 Sekin bosh ko'tarar bittadan savol.
 Bahovuddin tunni kezib yurarlar.
 Tun keza boshlaydi Bahovuddinni
 So'ng ulug'lar qabri sari borarlar,
 Yurak kosasiga to'ldirib dinni.
 Bir mozor boshiga bordilar Hazrat,
 Ma'yus lipillardir bir xira chiroq.
 Chirog'don ichiga mash'al qamalgan.
 Pilik harakatga muhtojdir biroq.
 So'ngra yetishtilar Ajfarnuy¹¹⁴ sari.
 Mozorda duch keldi ikki suvoriy –
 Bir juft qilich bilan baland bellari.
 Isoni kutganday ikki havoriy.
 Hazratni eltdilar Muzdoxon¹¹⁵ tomon
 Bir g'oyib ishorat berdi ziyorat. –
 Mozorboshda yana pilik, chirog'don
 Noayon bir sirdan qilar bashorat.
 Qiblaga yuzlanib o'tirdi Hazrat,
 G'aybga g'oyib ketdi ikki suvoriy.
 Bo'linib ketganday surat va siyrat,
 Nogahon yorildi Qibla devori.
 Shunda paydo bo'ldi havoda suzib,
 Yashil harir bilan to'silgan bir taxt.
 Hazratning ko'zlari ketdilar kezib:
 Taxtning tegrasida pirlar bo'lmish taxt.
 Taxt uzra oy kabi to'lin balqardi,
 Hazrat G'ijduvoni – Xojayi jahon,
 Poyidan yam-yashil nurlar oqardi,
 Nuroniy chehradan yog'ardi imon,
 Uning atrofida olti ulug' pir,
 Oltita osmondan bir-bir farishta.
 Yetti osmon bo'ylab aytardi zikr,
 Hamma zamonlarda har biri ishda,
 Hammasi dunyodan ketgan ulug'lar,
 Hazratning qoshida bo'lganda paydo.
 Nogoh olovlandi dil ichra cho'g'lar,
 Osmondan zaminga oqdi bir daryo.
 Hazratga dedilar Xojai jahon:
 Senga mozor uzra ko'rsatildi sir,
 Seni kutmakdadir pilik, chirog'don,
 Suluk piligiga harakat keltir.
 Ilohiy jazaba... Munavvar yog'du,
 Falak yelinidan to'kiladi sut.
 Dilda nur toshqini... Huzur daryosi...
 Osmon yorig'idan yog'iladi qut.
 Har neda tajalli – haqning ma'nosi,

¹¹⁴ Buxorodagi qadimiy ziyoratgoh

¹¹⁵ Buxorodagi qadimiy ziyoratgoh

Hazrat Ma'no ichra edilar behud.
 Qoshida yer yuzi bug'doy donasi
 Behudlik ichida yo'q edi hudud.
 Hazrat behud edi, tan uyasidan
 Har tuki uchardi misli bir hudud.
 Munavvar chayqalgan hol ummonida
 Singan qayiq kabi cho'kardi vujud.
 Hazrat eslamakka yetishmak uchun
 Unut kerak edi, Ilohiy Unut.

XIII

Shu tunda joziba yurtida Hazrat
 Ilohiy oydinlik, munavvarlikda
 Uchrashdi haq do'sti bir aziz bilan
 Sirotday chayqalgan qaltis ko'prikda.
 Oydinlik g'arqida Ollohning do'sti
 Oydin-oydin nigoh to'kib hazratga:
 «Oshinolardan ko'rinasan», – dedi,
 Tanish shodlik kabi, tanish hasratday,
 Do'st nafasin sezib, dedilar Hazrat:
 – Har nedan bezorman, Unga zordirman,
 Do'stlar nazarining barakotidan
 Oshno bo'lmoqlikdan umidvordirman.

* * *

So'ngra hol so'radi Ollohning do'sti
 Hol so'radi ruhning hurriyatidan.
 Ro'zg'or taftish etib dedilar Hazrat:
 «Topsam shukr qilgum, topmasam sabr...»
 Oydin-oydin edi Ollohning do'sti,
 Sokin-sokin dedi Ollohning do'sti:
 – Yengil yo'l tutibsen, o'zga yo'l tanla,
 Bo'ynidan zanjir lab nafsing itini
 Qaqshagan changalzor qa'riga tashla.
 Munavvar nafas bu, oydin da'vat bu!
 Xorlik tuprog'ida obodlik bordir.
 Xoksorlik oyog'ida azizlik bordir,
 Oydin bir tun edi, muazzam bir tun,
 Shunday bir hol kechdi ko'prik ustida,
 Oylar g'arq pishgandi Do'stning ko'zida.

XIV

Hazrat ko'ngli xalqdan butkul uzildi,
 Dunyodan qo'l tortdi, bazmdan oyoq.
 Savlat va hashamning kuylagin yirtib,
 Ko'ksidan sug'urib oldi bir chiroq.
 O'lik qumlar uzra bir kema suzar,
 Hazrat borardilar haq dashti tomon.
 Qumlarga oyoqlar hikmatlar yozar,
 Har bosilgan izdan gullardi iymon.
 Qumlar-da qolardi shovullab, kuylab,
 Bu gal o'zga edi Hazratning shaxti.
 Kimsasiz, qaqragan biyobon bo'ylab,
 Kezib yurar edi jannat daraxti.

Hazrat uch kun yurdi suvsiz va nonsiz.
Ozig'i – muhabbat, ozig'i – imon.
Ruhning himmatidan endi gumonsiz,
Daryoga aylanib borar biyobon.
Bir otliq duch keldi to`rtinchi kuni
Hazratga bir nonni qildi iltifot.
Nonga qaramadi, ishq tandirida
Dilini non kabi pishirgan bu zot.
Kezar... yulduzlarga to`lar kulohi,
Kurtak otib borar kuygan ud-aso.
Hazrat sahro kezar, hurriyat izlab,
Sahro kezganiday hazrati Muso.

XV

Yetti yil biyobon kezdilar Hazrat,
Yetim yetti yilni obod qildilar.
Oyoqlari – himmat, qo`llari – himmat,
Har lahza boshiga hikmat ildilar.
Olloh nazar qilgan jonivorlarni,
Og`aday, singilday siyladi Hazrat.
Yetti yil ichida yetmish ming zina
Yurakning ustidan tikladi Hazrat.
Muborak yuzlarin uzun kechalar
Hayvonlar iziga surtar edilar.
Yara, jarohatin jonivorlarning,
Dilin yarasiday bog`lar edilar.
Har kecha ko`zidan yuragin to`kib,
Buyuk nazar haqqi yig`lar edilar.

XVI

Bir itga duch keldi, bir tunda Hazrat,
Hol paydo bo`ldi-da, muk tushgan kuyi.
Iltijo, yolborish qildilar faqat,
Ollohga yig`ladi tun bo`yi..
Bo`linar chog`ida tun ila tongning,
Xira tortganida so`nggi yulduzlar,
Qo`shilar chog`ida dil ila tanning,
Hazrat it tomonga tashladi nazar.
Nogoh it orqasin yerga qo`ydi-da,
To`rttala oyog`in baland ko`tarib,
Go`yo yer ustida osmon ko`tarib,
Ko`zin ko`kka tikib nolalar qildi,
Yaratgan yodi-la volalar qildi.
It miskin tovush-la alvon oh bilan,
Tunning chehrasini lolalar qildi.
Hazrat kaftlarini duoga ochib
«Omin... omin...» deya turdilar uzog`.
It esa, osmonga nolalar sochib,
Tongning eshigini ocharadi bu chog`.

XVII

Hazrat yetti yil biyobon kezdilar,
Yetim yetti yilni qildilar obod.
Dildan Xudogacha bir yo`l qazdilar
Yurak tomiridan yasadi qanot.

Xorlik tuprog`ida obodlik bordir,
Xoksorlik oyog`ida azizlik bordir.

XVIII

Rahmat nurlariga to`lar tushlari,
Uyqu – tariqatdan yengilgan o`lim.
Ko`zidan suv ichar iloh qushlari,
Duoga ochilgan yurakning qo`li.
Hazrat tush ko`rarlar: g`uj-g`uj yulduzlar,
Tillo patlarini to`kar boshidan,
Oyning qayig`ida xotirjam suzgan
Xoja G`ijduvoni chiqar qoshidan
Ilohiy tong otar vujud shomida,
Jon kashtasin yoyar bir go`zal anduh.
G`aybning osmonida, g`ayb zamonida,
Yuzma-yuz turadi ikki buyuk ruh.
Vaqt devori qular poyida Dilning,
Fano va baqoda balqar hurriyat.
Har kech tushlarida Bahovuddinni
G`ijduvoni ruhi qilar tarbiyat,
Hazrat haqqa o`tar tun yorig`idan,
Har kech uyquda ham gullardi urfon.
Tushlar dengizida, oy qayig`ida
Suzib kelar edi Xojai jahon.

XIX

«Dil ba yoru, dast ba kor»
BU SO`ZNI –
Bu quyma oltinni olmak istadim,
Ichimda mahbus qush ruhoniyaatim.
BU SO`ZNI –
Oy tuya ustida qonagan bag`irni
Yulduz yorug`ida bilmak istadim.
BU SO`ZNI –
Chaqmoqlar charxida charxlangan so`zni
Xom tilim ustiga qo`ymak istadim.
BU SO`ZNI –
Quyosh bog`larida pishgan hayotni,
Xom o`lim ustiga qo`ymak istadim.
BU SO`ZNI –
Tog`lar qo`rg`on qilib ko`targan so`zni,
Ko`zim kulbasida ko`rmak istadim.
BU SO`ZGA –
Dilim daryosiga yetmagan kabi...
Bu so`zga yetmadim... Afsus... yetmadim...

XX

O`ziga o`t qo`yib yonar saraton,
Oltin eritadi osmon erkasi.
Tanlardan ter emas, chakkilaydi jon,
Chok-chok yirtiladi ko`kning xirqasi.
Za`faron o`t ichra tevarak behol,
Qo`rg`oshin misoli erib suyuldi.
Shunday kun hazratga piri Mir Kulol:
«Xumdonga o`t yoqing», – deya buyurdi.

Pirdan xush nasimday esdi bu talab,
 Berib sir va sabab ishoratini.
 Hazrat xumdon ichra o`tinni qalab,
 Yoqdi po`stinini – bor davlatini.
 Zahmat kechalari tunni yopinmay,
 Yopingan davlati yolg`iz shu po`stin.
 Ipak kunduzlarni bir kiyib ko`rmay...
 Kun kecha himmati yolg`iz shu po`stin.
 Mir Kulol dedilar bu holni ko`rib:
 «Xumdonga kiring-da, po`stinni oling!»
 Hazrat der: «Temir ham ketardi erib,
 Po`stin-ku yonadi o`tindan oldin».
 Pir talab etdilar... Bosh egdi Hazrat.
 Qalqonday qo`llari bezadi ko`ksin.
 Xumdonga kirdilar... Lov-lov o`t faqat,
 Ammo bir tuki ham kuymagan po`stin.
 Mir Kulol dedilar: «Farzand, boqingiz,
 Buyuk otash ichra dil va tan o`tin –
 Siz Oллоh ishqida kuygan chog`ingiz
 Siz bilan tengma-teng yongan shu po`stin.
 Bu po`stin siz bilan Ishq o`tin ko`rgan,
 Unga kor qilarmi xumdon olovi.
 Qayta kuydirilmas, bir bora kuygan,
 Olovdan tikilgan Ishqning yalovi.
 Darvesh zohirini kuydira olmas,
 Namrud otashgohi, dunyo talashi,
 Darveshlar qalbidan joy olsangiz, bas,
 Sizni kuydirolmas do`zax otashi.
 Bir olov bormoqda... Yonar saraton.
 Borar quyoshlarga to`ldirib ko`ksin.
 Olov yurib borar kunbotar tomon,
 Egnida bir tuki kuymagan po`stin.

XXI

Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq,
 Nima qilaylikki...
 Ko`ngil bog`lariga to`lgan xazonlarni
 Xufiyona zikrning xush shamollari
 Bir juft farishtaday supurib sidirsa...
 Nima qilaylikki...
 Tilimiz so`qmoqlari
 Osmon gullariga ko`milib qolgan,
 Dilimiz ariqlari
 Iloh suvlariga limmo-lim to`lgan.
 Qanday tillashaylik,
 Qanday dillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki...
 Sajdaga bosh qo`yib bukilgan chog`da
 Yulduzlar yurtida paydo bo`lsak biz,
 Osmon qabatlarida sayr etsak sarxush
 Va osmon sayr etsa bizning ko`zlarda.
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki...

Ko`hna kulohimiz
 Yirtig`idan uchgan bir ozod shamol
 Bizni olib uchsa vaqt gilamida.
 Bir zumda xudoning uyiga eltsa...
 Nima qilaylikki...
 Qizg`aldoq qoniga botib yashasak,
 Suvni olov bilan chatib yashasak,
 Qaqnusni kaft uzra tutib yashasak,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki...
 Goho itning izin ko`zga surtgan chog`
 Daryo toshib chiqsa ko`zlarimizdan,
 Shu oyoq izidan topsak bir buloq...
 Malomat to`ksangiz boshlarimizdan,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki,
 Lahzada bu dunyoni yashab bitirsak,
 Ko`ksimiz yorig`i osmon yorig`iga o`xshasa,
 Jandapo`sh kuyigi oyning kuyigiga
 o`xshasa,
 Vujudning qayig`i zamon o`yig`iga o`xshasa,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki...
 Holimizga quruq sumbatlar sig`masa,
 Ta`maning tupugi minnatlar sig`masa,
 Go`r boshida kulgan davlatlar sig`masa,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki,
 Serhosil daraxtday ruku`ga borsak,
 Bo`ynimiz ustida qilich dol tursa,
 Qo`ynimiz ichida bir shamol tursa,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.
 Nima qilaylikki...
 Tirnoq yuzi kabi yerning ustiga
 Osmonday ulkan bir dilni qo`ygan biz,
 Dunyo evaziga haqni ko`rgan biz,
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq...
 Nima qilaylikki...
 Tilimiz so`qmoqlari
 Osmon gullariga ko`milib qolgan,
 Dilimiz ariqlari
 Iloh suvlariga limmo-lim to`lgan...
 Qanday tillashaylik siz bilan, ey xalq.

XXII

«Tolibning ruhoniyyat qushi bir
 sohibdavlatning tarbiyyati orqali bashariyyat
 tuxumidan chiqishi zarur»

Sayid Mir Kulol

Himmatingga qulluq, ey sohibdavlat,
 Toshlar tars yorilib, sachradi hikmat.
 Ko`zgavhar yuzidan sidirildi chimmat,

Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.
Tol tobut kuyigi – chakkilladi tan,
Tovon yirtig'ida lo`qqilladi jon.
Ko`zlar tumanida lipilladi shan.
Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.
Tong tovushi hurlar sibizig'ida,
Nur tomchilar yulduz emizigidan,
Gullar gullab yotar chaqmoq tig'ida,
Ruhoniyat qushi tuxumdan chiqar.

XXIII

Saboh havvolari huvillaganda,
Tong tanglayi – nayzor shovullaganda.
So`zona dilimni so`zga cho`ktirdim,
To`tyona tilimni suvga cho`ktirdim.
Qayroq qo`llarimda hilol qayrandi,
So`ngra oyboltaday boshda aylandi,

Sen sari jimgina ketmak istadim,
Dunyo hijobini yirtmak istadim.
Bomdod shafaqlari zardevol tikdi,
Ichida bir ko`ngil ichkin ichikdi.
Sopol hovuchimda cho`g` olib ichdim,
Vujud ko`zasidan ko`chkiday ko`chdim.
Sen sari jimgina ketmak istadim,
Bu g'amgin kitobni yopmak istadim,
Hurlar tong pardadan ko`ylaklar tikdi,
Dilim tuprog'iga yulduzlar ekdi.
Ko`r kabi paypaslab uzatgandim qo`l,
Ko`zimdan to`kildi yam-yashil bir yo`l.
Saboh havvolari huvillaganda,
Ruhimda bir ohang shovullaganda.
Sen sari jimgina ketmak istadim,
Bu g'amgin kitobni yopmak istadim.

1997

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Eshqobil Shukur lirikasining alohida xususiyatlarini sanang.
2. “Ibtido xatosi” dostonining nomlanishida qanday ramziylik bor?
3. Asar nega aynan shunday nomlangan? Unda qanday diniy qarashlarga ishora bor?
4. Dostonning liriklik xususiyatini ta'minlagan omillarni izohlang.
5. “Naqshband” dostoni misolida badiiy asar tili hamda shoir uslubi borasida munosabat bildiring.
6. Shoir bu asarini kimga bag'ishlab yozgan?
7. Tarixiy shaxs va joy nomlariga e'tibor bering. Ilohiylik kasb etgan o'rinlarga munosabat bildiring.
8. Dostonda keltirilgan portret tasvirlari nimaga xizmat qilgan?
9. She'riy san'atlardan foydalanilgan o'rinlarni aniqlab, izohlang.
10. Asardan xalq og'zaki ijodi namunalarini toping. Ulardan nega foydalanilgan deb o'ylaysiz?



SHUKUR QURBON (1951)

Shukur Qurbon (Olimjon o'g'li) 1951-yilda Andijon viloyatining Baliqchi tumanida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Hozirgi O'zMUning filologiya fakultetini bitirib (1968–73), «Sharq yudduzi» jurnali tahririyatida ish faoliyatini boshlagan. Shundan keyin O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo'limida, O'zbekiston teleradiokompaniyasida, «Sog'lom avlod uchun» jurnali muharririyatida xizmat qilgan.

Ilk she'rlari O'zbekistan Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov nazariga tushgan, ustoz unga «Oq yo'l» tilagan.

Shoir bitiklari darslik va qo'llanmalardan o'rin olgan. O'zbekiston radiosi «Oltin fondi»da uning radiopostanovka va yuzga yaqin qo'shiqlari saqlanmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi asarlari uchun 1989-yilda shoir Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasi mukofoti sohibi bo'lgan. Shukur Qurbon hozirda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotining bo'lim mudiri.

SO'Z YO'LI (Tarixiy doston)

Turk ulusi fasiqlarig'a haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar... Umid ulkim, bu faqirni xayr duosi bila yod qilg'aylar va ruhimni aning bila shod qilg'aylar.

Alisher Navoiy

MUQADDIMA



Men yarim kechada uyg'onib ketdim,
Yulduzli samoga boqdim nogahon.
Bir gap bo'lishini tasavvur etdim,
Quchdi borlig'imni hayrat-hayajon.
Zamon olimlari qilgan talqinlar
Ajib shiddat bilan yodimga tushdi,
Ki falak sahnida kezgan to'lqinlar
Yozarmish ko'ksiga so'z va tovushni.
Ajdodlar ovozin eshitmak baxti
Har qanday avlodga nasiba bo'lmas.
Shunda samo qattiq qasirlab ketdi,
Chaqmoq chaqdi, birdan yorishdi osmon.
Hatto tirnoqqacha hayajon yetdi,

Navoiy tovshini eshitdim shu on...

Birinchi qo'shiq

...Bir yonda Sheroziy, Dehlaviy – bir yon,
Nizomiy, Jomiylar cho'kkanmish qator.
Forsiy baytlar yangrab ustma-ust shoyon,
Navoiyni afsun etganmish takror.
Xayol bosib, takror, o'ltirganmish jim,
Ko'zlarini yumib, tebranib xiyol.
Yuragida kechgan hayajon mavjli –
Oqimda yulqingan suv o'ti misol.
She'r o'qilgach, unga eshitguvchidan
Munosib bir baho, bir kalom farzdir,

Ki darak bersin u mehr kuchidan,
 Lutf gulshanidan bo`lsin bir nazr.
 Navoiy-chi? Bir so`z ayta olmasdan,
 Xijolat tortarmish ustodlar aro.
 Sezarmish va lekin... hech bosilmasdan
 Og`zidan qon oqar emish qop-qaro.
 G`o`ldirarmish xolos, so`z aytay desa,
 Bo`g`ziga tiqilgan emish achchiq «oh».
 To`rt yonga boqarmish beholu besar,
 Tili kesilganin anglarmish nogoh.
 «Faryod!» – deb tashqari chiqarmish shu on,
 Ulug`lar davrasin tark etib butkul.
 Yo`liqqanmish unga bir to`p olomon,
 Bir to`p tili kesik, duduq va ma`lul.
 Bir-biriga imo-ishora birla
 Anglatar emishlar gap-so`zlarini.
 Imo-ishora-la aytilmish she`rlar,
 Ma`qullarmish shundoq biri-birini.
 Lekin bilmasmishlar og`izlaridan
 Sizayotgan qonni, bilishsalar ham,
 Parvo qilasmishlar, yuz-ko`zlarida –
 Devonalik aksin topganmish tamom.
 Atrofni o`ragan el-ulus hayron,
 Tushuna olmasdan ular ahvolin...
 Qafasdagi qushdek qiynalarmish jon,
 Hech kim his qilasmish ko`ngil malolin.
 * * *

Zaboni forsiy bir gulshanu dildor,
 Ko`hna va qarovsiz bog`mi – turkiy til?!
 U bir vodiymidir – keng va bahravor,
 Tuman ichra qolgan tog`mi – turkiy til?!
 Parvarish aylamak, yashnatmak – savob –
 Qo`hna va qarovsiz bog` bo`lsa agar.
 Tog` boshini ochmoq – ezgulik hisob,
 Tuman ichra qolgan tog` bo`lsa agar.
 Anglar buni – kimki ilkida qalam;
 So`zni eksa bo`lur bamisoli gul.
 So`z alanga olsa – yorishar olam,
 So`z qadam tashlasa – ochiladi yo`l...
 * * *

Qon tomirlar qatori emas,
 Shoir yuragini qoplagan naqsh –
 «Muhokamatul-lug`atayn» ning
 Munavvar chizgilari.
 Unda forsiy, turkiy zamonlar
 Aylaydilar o`zaro murosasiz bahs.
 Ma`no, shakl, ohang, degan unsurlar
 O`rtaga tashlashar o`z fikrlarin –
 El-ulus haqida, hayot haqida.
 Qon tomirlar gupirar, jo`shar,
 Tuproq ostidagi ildizga o`xshar...
 Tashqarida forsiy nazm surardi hukm...
 Keyinga qoldirildi «Muhokamatul-
 lug`atayn» asarin yozmoq.

«Muhokamatul-lug`atayn» chizgilaridan

...Turkning ulug`din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort (forsiy) tilidan bahramanddirlar. Andoqqim, o`z xurd (ahvol)iga ko`ra ayta olurlar, balki ba`zi fasohat va balog`at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash`or va shirin guftor zohir kilurlar. Ammo sort ulusining arzoli (pastkashi) dan ashrofi (sharafli kishilari) gacha va omiysi (nodoni)dan donishmandigacha hech qaysi(si) turk (eski o`zbek) tili bila takallum qila olmaslar va takallum kilg`onning ma`nisini ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o`rganib so`z aytsa ham, har kishi eshitsa bilur va aning sort ekanin fahm qilur va ul mutakallum (so`zlovchi) o`z tili bila o`z rasvolig`iga o`zi iqror qilg`ondekdur.

O`ylar



Tuman ichra kolgan tog`dan yangradi
 Vahiydek dilrabo «Orazin yopqach...»
 Cheksizliklar tomon hayron karadi

Ahli ma`ni – ko`pdan yangi zavqqa och.
 Holbuki, kesakdan chikmagandi o`t,
 Holbuki, bu tilda so`ylardi hamma.
 Ming yillik ohanglar baytlarida but
 Lutfiy g`azallari yangrardi hamon.
 Turkiy til ostida gavharday laziz
 «Ochmag`ay erding...» ham yaraldi
 shunday.
 Ajam shuarosi etgach buni his,
 Taloto`m boshlandi nazmiy ochunda.
 Shu lahza lutf etdi hazrati Mahdum,
 Lutfkim, bog`ladi unga tatabbu`.
 Tuman ichra kolgan tog` qaldiradi,

Sadosiga zo`r aks-sado edi bu.

* * *

Shoir bo`lib qo`lga qalam oldingmi,
Bo`lsin muxlislarining, xayrixohlarning.
Ko`ngil kog`oziga bitib otingni,
Yod etsin she`rlaring, chekkan «oh»laring.
Ammo oson emas erishmak bunga,
Hazrati ona til – hakamdir oliy.
Lozim – hisob bermak har lahza unga –
Yashamog`ing lozim – gunohdan xoli.
Yozgan-chizganlarning hali g`o`r anglab,
O`rtangan chog`ingda, ko`ksingda g`ussa,
Asarlaring do`st-yor bir joyga jamlab,
Netarsan, ulardan bir devon tuzsa
Va keltirib senga etishsa in`om –
Tiriklik dardlari boshingdan oshib,
Jonning halqumingga kelgan bir ayyom.
Sevinchlardan ko`kka yetmasmi boshing,
Ko`zlaringdan nogoh oqmasmi yoshlar?!
(Holbuki, atrofda shuhrat talashib,
Qirpichoq bo`lgancha shoirlar yashar.
E`tiqodu imon ularga bir pul,
Muqaddas hech nima qolmagan go`yo.
Ko`ngilda tikanu chakkalarda gul,
She`r deb bitganlari qip-qizil ro`yo.
Azamat va go`zal, javon shoirlar
Muhabbat bog`larlar na til, na elga.
Ko`proq nafslarining g`amini yerlar;
Mevasiz daraxtdan uchgandek g`iz-g`iz
O`lik barglar g`ujg`on urib sarsari,
Kitob bitiklashar yaltiroq, semiz
Qimmatbaho, qalin muqovalari...)
Tuman ichra qolgan tog`ning eng yuksak,
Eng dilbar cho`qqisin ochilgani – shu.
Ko`hna va qarovsiz bog` tuygan g`ussa –
Kimsasizlik dardin sochilgani – shu.
Navoiy tovshini eshitdim shu on
«Har kuni yana bir ishq iladur afsona,
Har tun yana bir sham`g`adur parvona,
Ish anga junun, manzil anga mayxona,
Devon yasamoqni ne bilur devona?!»

Ikkinchi qo`shiq

... Ko`ngli gumiradi, taomga yo`q hush,
Haftakim bir yomon holsizlik sezar.
Jonu jahonidan iztirob sizar,
Xayolidan ketmas o`sha mash`um tush...
«Qon – yorug`lik!» – deyar o`ziga-o`zi,
«Qon – yorug`lik!» – deyar ingrab paydar-pay.
Tushday ko`rinadi hayot ko`ziga,
Tushi tuyular goh bexosiyatday.

O`ylar

Dahanaki janglar uchun hamma yer o`ng`ay,
Katta maydon kerak ammo katta kurashga.
Baytu g`azal to`qimoqqa hamma uringay,
Biroq «Xamsa» yaratmak, o`!
Tamoman boshqa!...
Shoirlikdan ulug`roq bir mehnat bor, zavq bor:
She`rning kengligida, cheksizligida.
Inson o`zin qayta boshdan bilmog`i darkor:
Hayotning past-balandida, tengsizligida.
Bilmoq tugal ona xalqni, ona o`tmishni,
Yuragiga quloq tutib, tomirin ushlab.
Ko`z o`ngingdan zamonlarning ildam o`tishin –
Shamollarga qiyos etmak, ko`ngilni xushlab.
Yo shoh bo`lib, qalandardek kezmak darbadar.
Qalbga chuqur kirib bormoq,
Dard sari yetmoq,
O`zdan, ko`zdan, so`z mulkidan ketmoqlik badar
Va bir majoz gulshanida topolmay o`zni,
Hayrat ichra toshday qotmoq ayni subhidam.
O`zingga ham o`zgalarga tilamak to`zim,
Mo`jiz aviy qudrat tuyib nogoh ruhingda.
Tuman ichra qolgan tog`ning,
Hammaning –
Qoshida kelinday, yuzini ochmoq,
Ochmoq – eshiklarin ulus uchun keng
Ko`hna va qarovsiz bog`ning o`shandoq.

«Farhod va Shirin» hikmatlaridan

Faqat barkamollar sevmoq-sevilmoq –
Huquqiga ega yorug` jahonda.
Faqat sevgi qodir – bezovta, bedog` –
Eng yorug` dardlarni jo`sh tirar qonda.
Faqat sevishtanlar hamisha yolg`iz,
Ming yilda dunyoga bir karra kelur.
Sevmaganlar ojiz, Yosuman – ojiz,
Garchand na insofni, na orni bilur:
Osilishar ushshoq oyoqlariga,
Qanotlarin yular mayda-maydalab
Sirtmoq-dor solurlar tomoqlariga...
O`ldirmak istarlar itday xor aylab!..
Sevishtanlar o`lmas, mahkumdir ular,
Adolatga tashna ko`ngillar ko`pdir,
Sadoqatga tashna ko`ngillar ko`pdir,
Haqiqatga tashna ko`ngillar ko`pdir...
«Bahr un-najot» yotar lablari kuyib,
Tosh devorlar to`sgan «Nahr un-hayot»ni.

Asrlar qudratin yurakda tuyib,
Soyasida yotib bo`lmas sabotning.
Chidam ko`lmagidan bo`lmaydi ichib,
Toqat mevalari g`o`r hamda achchiq.
Muhabbatdan bo`lsa yurakda kuching,
Qayon jahd aylasang, senga yo`l ochiq.

«Layli va Majnun» hikmatlaridan
Hukmdorlik o`zga, oshiqlik o`zga –
Bir osmon ostida bo`lsa-da mavjud.
Yashash qonunlari ko`rinmas ko`zga,
Ko`rinar yurakda yonayotgan o`t.
O`shaning taftida qovrilib-kuyib,
Tog`-toshlarda kezar bir juft ulug` zot.
Ular badnom bo`lgan – bir-birin suyib,
Ular badnom etgan jahonni, hayhot!
Til bilgan kishilar hech ne tushunmas,
Til bilmas hayvonlar, qushlar do`st-yoron.
So`ylashmoq istarlar – tiqilar nafas,
Kuylamoq istarlar – ohang yo`q biron.
Biroq, qalblarida paydo har bir so`z
Yangrar kechayotgan kun va tunlarda.
Yangrar davrlarni qoldirib unsiz,
Ogoh etib – o`lmas, go`zal munglardan.

«Sab`ai sayyor» hikmatlaridan
Bu yorug` olamda yetti rang mavjud,
Yetti rangda porlab kechadi kunlar.
Yo ko`zing ochadi bu ranglar mavji
Va yo ko`r qiladi jo`shib sarbasar.
Bordir har birining o`z hurliqosi,
Qo`lda may, labida kulgi – bir chechak.
Seni afsun etmak – chin muddaosi,
Ajjib sarxushlikda onlaring kechar.
Roviy kirib kelar har biriga jim,
Ko`rgan-bilganidan so`ylaydi qissa.
Seni hushyorlikka chorlaydi doim,
Tark etmasin, deya ko`nglingni g`ussa.
Shu g`ussa uyg`otar seni har safar,
Shu g`ussa yetaklar diloromingga.
Shu g`ussa ko`ksingni ilonday chaqar,
Yor aksin chekib may to`la jomingga.
Tomchi qo`ymay uni sipqorsang, yonsang,
Maqsad-manzilingga yetursan bir kun.
Beqiyos mazmun kasb etar yetti rang,
Yetmish rangda porlar dunyo – sen uchun.
Sipqormasang, umring o`tar behuda,
Bebosh to`lqin singib bitgandek qumga.
Xuriliqo seni g`aflatga undar,
Xuriliqo shafqat qilmas hech kimga.

Naql

Hirod ahli aro bir nojoyiz so`z
Oralab qolibdi nogahon shundoq:
Emish, Mir Alisher besharmu beyuz,
Qamalib olgancha hujrasiga, voh,
O`z sha`nin o`ylamay, o`ylamay Sulton –
Abulg`oziy sha`nin, gunohi azim –
Aysh-ishrat-la mashg`ul yasharmish pinhon.
Illo, ko`chasidan o`tguvchi har kim
Voqif bo`lar emish 6u sirdan al`on,
Ki go`zallar so`zi, qichiq kulgisi,
Sozandalar kuyi, sarmast xonishi.
Eshitilar emish kecha-kunduzi...
«Amir al-kalom»ga ne bo`ldi, yo rab!
E`tiqodu imon bir yoqda qolib,
Besh-to`rt kunlik ayshni qoldimi o`ylab.
Baqodan foniylik keldimi g`olib?..
Boshqalar u yoqda tursin, hattoki,
Shohni-da insofga chorlab bu ko`yda
She`rlar bitgan edi bag`rini yoqib,
Hazrat bu ko`chaga kirdi ne o`yda?!..
Bekor qimirlamas daraxtning uchi,
El-ulus bilmasdan biror so`z demas.
Shunday ayyomda do`st kerak do`st uchun;
Lekin ko`rmay-netmay insofdan emas.
Bu gapga ishonib bo`lmas hech mahal,
Do`st-yoridan, axir, dushmani ko`pdir,
Sulton Abulg`oziy – Boyqaroning ham.
Sirli dunyo uchun ayondir bu sir. ...
O`zgartirib engil-boshin, qalandar –
Suvsratida yo`lga tushgan kim bo`ldi?
Juldur kiyimda ham sulton sultondir,
Ko`rib, lol qolmagan odam kam bo`ldi.
Rostdan-da, Navoiy keyingi kunlar
Makon tutgan hujra «gavjum» edi xo`p.
Dilrabo ohanglar, yoqimli unlar
Tishga chashma yanglig` oqardi sizib.
Yasovul chorlandi saroydan darhol
Bostirib kirdi hujraga shitob.
Ko`zlar hayrat ichra qotdilar, ne hol?!
Shoir o`ltirardi bir o`zi shu tob!
«Sab`ai sayyor»ning tayyor baytlarin
O`qimoqda edi chiqarib ovoz.
Hikmatlar ohangga chulg`anib sarin,
Ohanglar jon bilan bo`lib sarafroz,
Bir sehr to`ldirgan ekan hujrani.
Sulton o`z xatosin anglab xotirjam,
Orqaga kaytardi birdan hammani,
Buyuk xayol bexos bo`linmadi ham.

«Saddi Iskandariy» hikmatlaridan
Ko`ring Iskandarni, yerdan chiqsa ham,
Qoshida osmondan tushganlar mulzam.

Toj-taxtli, mol-mulkli podsho bo`lsa ham,
 Yashar gadolarday erkin va xurram.
 Dunyo ilmlari mag'zini chaqib,
 Jahd etar dunyoviy alamlar haqqi.
 Yurt kezib, olislab ketgani sari,
 Ko`ring, o`z eliga, tuproqqa yaqin.
 Qutlang adolat-la oldi jahonni,
 Razolat qoraytib tomirda qonni,
 Yurakka basma-bas quyganda zahar,
 Qutlang o`z davridan yuksak bu jonni!
 Ta`zim qiling unga, qarshisida tiz
 Cho`king, mustahkam g`ov qurdirdi jo`shib,
 Vatanini yakson qilmoqchi bo`lgan
 Ya`juj-ma`jujlarning yo`lini to`sib.

Uchinchi qo`shiq

Ko`hna harbiy san`atni eshitganmisiz?
 «Borgoh» degan joydan boshqarilar jang,
 Oldda borar «manglay» atalgan qo`shin,
 «Burung`or» – o`ng yoqdan,
 «Juvong`or» – chapdan,
 «Ilg`or» – eng oldinda, safdan uzilib
 Borar bilmoq uchun dushman ravishin.
 Harbga oid hech gap yo`qdek ijodda,
 Lekin qon to`kilmas, to`kilar ilhom,
 Mashaqqat to`kilar, to`kilar hayrat
 Va maydonga tushar ona xalq so`zi.
 «Burung`or», «juvong`or» – saylandi
 she`rlar,

«Muhokamatul-lug`atayn» chizgilaridan

Kerak erdikim bu xalk orasidin paydo bo`lg`on tab` ahli, salohiyat va tab`larin o`z tillari turg`och, o`zga til bila zohir kilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va ikkalasi til bila aytur kobiliyatlarini bo`lsa, o`z tillari bila ko`proq aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag`a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytsalar erdi. Bu ehtimolg`a xud (albatta) yo`l bersa bo`lmaskim, turk ulusining xushtab`lari majmui (guruhi) sort (forsiy) tili bila nazm aytkaylar vi bilkull (mutlaqo) turk tili bila aytmag`aylar, balki ko`pi ayta olmag`aylar va aytsalar ham, sort turk tili bila nazm aytqonday fasih (chiroyli) turklar qoshida o`qiy va o`tkara olmag`aylar va o`qisalar har lafzlarig`a yuz ayb topilg`ay va har tarkiba (jumla)lariga yuz e`tiroz vorid bo`lur. ...Va zamon va rasm ahli tariqindin chiqmog`ni munosib ko`rmas va bu nav` bila qolur.

O`ylar

Har so`z bamisoli lovullagan cho`g`,
 Har ko`ngil – dardlardan qovjiragan
 xas.
 Kifoya ularga bir uchqun goho,
 O`t oladi yurak har nafas.
 Cho`g` qancha ravshandir – ko`ngillar
 ravshan,
 Lekin «Qur`on»dagi so`zni ishlatmoq
 Musulmon qavmiga oxirat savob.

«Manglay» – «Xamsa» boshlab bordi
 saflarni.

«Ilg`ormi?!»..

«Ilg`or, bu – «Devoni Foni»,
 Bordi eng oldinda safdan uzilib.

* * *

Birovning tilida so`z aytmoq qiyin,
 Osonmidir she`r aytmoq?
 Birovning tilida dard izhor etmoq
 Va sharhlamoq davr muammolarin –
 Birov tutgan chiroq yorug`ligida
 O`z ko`changga kirib bormoq bilan teng.
 Birov ko`chasi dan o`z uying topmoq
 Va yana ham chuqurlashtirsak,
 Kirib borib birov uyiga,
 O`z oilang axtarmoqday gap –
 O`zganing tilida dard izhor etmoq.
 Biroq shunday mushkul bir ishni
 Uddalamog`i lozim edi shoirga –
 Alisher Navoiyga.
 Negakim shu tilda edi ilm-fan,
 Kitobat va san`at edi shu tilda,
 Forsiy alfoz ila so`ylashar edi
 Yon-atrofdan navqiron avlod.
 Ahli ma`ni aro muqtadir daho
 Va saroyda amir
 Qololmasdi chetda – hayotdan.

So`zni xalq yaratur, shoirlar emas,
 Maqsad – shu el uchun qovrilish, yonish,
 Mayda niyatlardan butunlay tonish.
 Dunyoda biron-bir ma`no qolurmi
 Yo tuyg`u qolurmi bebayon, mubham,
 Har ikki til kelsa agar baqamti?!
 Lekin ona tilda she`r aytmoq – bayram,
 Ikki jahon taxti baxtidan afzal.
 Ona tarix seni qo`llaydi mudom,
 Kelajak qo`llaydi, qo`llaydi tugal.

Demakchi so`zlaring anglar, his qilar
Ko`chalarda yotgan kesak ham, tosh ham.
G`ussadan gapirsang mung`ayar ular,
Shodlikdan gapirsang quvonar xurram.

To`rtinchi qo`shiq

Tuman ichra qolgan tog`,
Gumon ichra qolgan tog`,
Eridimi nihoyat
Ko`ksingdagi asriy dog`?!.
Ko`hna va qarovsiz bog`,
Xudo yuz o`giran bog`,
Oyog`ini uzdimi
Quhog`ingdan quzg`un-zog`?!.

Mir Alisher chekkan ranju sa`y bois,
Turkiy she`r qaddini ko`rsatdi oxir
Va yuzaga chiqdi bu tilda bir so`z –
Qoldirgan qanchalab nuqtadon shoir.
Agarchi nomlari qolmadi, qoldi–
Qalamiga mansub yagona bayt ham.
Yuraklar to`ridan mangu joy oldi
Taqdiriga shukrona ayta.

Naql

Non ushog`i – non, derlar,
Tilning bir so`zi ham – til.
Ne bosqin, ne to`sqindan
Saqlab kelgan uni el.
Kim etur so`zni uvol,
Xor bo`lur, abgor bo`lur.
Qolur yurt nazaridan,
Badnomlarga yod bo`lur.
Shoir esa garchi ul,
Og`ir – bundan gunohi:
Uni sira tinch qo`ymas
Ajdodlarning arvohi.
Biroq Mirzo Alibek
Ta`b va fahmi tobida,
Yagona yigit erdi
Suxandonlik bobida.
Zihni diqqat maoni –
Nuqudidan bir g`ani (N. – boylik)
Va ta`bi bu yanglig` ko`p
Ta`riflardan mustag`ni. (M. – ehtiyojsiz)
Saromadi zamona (S. – ilg`or)
Qalam tebratib, turkiy –
Til bila she`r bitardi,
Bu mat`la aningdurkim:
«Ko`zing ne balo qaro bo`lubtur,
Kim jonga qaro balo bo`lubtur».
Zulqofiyatayndur,

Qofiyalar tardi aks,
Javob aytmak bu faqir.
Qoshida behuda bahs.
Bu nav` abyot har kimning
Tilidan o`tmas edi,
Lekin u parvo qilib,
Bir yerga bitmas edi.
Sharobni xush ko`rardi,
Ustiga-ustak ortiq-
Ortiq aysh-ishrat ila
Xazon bo`ldi hayoti.
«Ko`zing ne balo...» yolg`iz
Yetimday bo`zlab qoldi.
«Og`a-inisin» – uyg`un
Baytlarin izlab qoldi.
Uni issiq bag`riga
Oldi Navoiy suyib,
«Ko`zing ne balo...» ajib
G`azal bo`ldi shu ko`yi:
«Ko`zing ne balo qaro bo`lubtur,
Kim jonga qaro balo bo`lubtur.
Majmui davoni dard qildi,
Dardingkim manga davo bo`lubtur.
Ishq ichra aning fidosi yuz jon,
Har jonki sanga fido bo`lubtur.
Begona bo`lubtur oshnodin,
Begonag`a oshno bo`lubtur.
Boqiy topar ulki, bo`ldi foniy,
Rahravga baqo fano bo`lubtur.
To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo`lubtur.»

* * *

Bir jumla yaralsa ko`ngilga doir,
Yo aqlga mansub – ulusga ma`qul,
Bu so`z ummonida paydo javohir
To abad odamdan so`raydi haqqin.
Bir zehn yetmaydi, yetmas ming zehn,
Yetmas butun bir til sohibi – elat,
Jahonning ming tillik turfa ulusin
Zavqiyob etmog`i shartdir u, albat.
Fikr-o`y gulzordir, alfoz esa, boq,
Bolarilar yanglig` bu gulzor aro –
Bir xush bo`y axtarib, charx urar shundoq,
Bu ajib yumushqa mone` yo`q sira!
Qani, kim farq etar – gulzorlar aro
Uchgan bolarilar qaysi bir indan?!
Kim farqlar asalin totib, bolari
Qaysi gulzor aro kezganin zimdan?!.
Kim qancha bitiklar bamisoli bol
Turardi naf`idan oriydir atrok.
So`zlar – sadoqatli xizmatkor misol,
Yumushga kirishsang, qo`llagay idrok!

Navoiy tovshini eshitdim shu on
«...Xotirg'a kechmishkim,
Agar sa'y qilsam,
Bu kitobni turkiyga tarjima qila
olg'aymumen deb,
mutaammil (fikrlashda) erdim...
Tengri taolo tavfiqi (madadi) birla
Bu ulug' ishg'a ilik urdum
Va bu azim amrg'a qalam surdim.»

O`ylar

Bittagina so`zni aytmoq uchun nahot,
Umr bo`yi chog`lanar shoir?!
«Chor devon» – chog`lanish,
«Xamsa» – chog`lanish,
«Lisonut-tayr» u «Mahbubul-qulub» ?!
Barchasidan maqsad –
Kuch olmoq – o`sha so`zni aytmoqqa
tugal?!
Yo`q, yo`q
Shoir ichda aytar bu so`zni,
Inson ichda aytar bu so`zni –
So`ngra tishda aytmoqlik uchun
Umr bo`yi yaratur imkon!..
«Muhokamatul-lug`atayn»
Mir Alisherning
Ana shunday zo`r so`zi edi,
Aytilmadi biroq u hali!
Tasavvuf hayratlari
Bir yo`l bering, bir imkon bering.
Tama`din va o`zlikdan kechay!
Meni chorlamasdin davralar quring,
Fano mayin labolab ichay!
Sog`intirdi «vujudi mutlaq»,
«Shariatu» «tariyqat» – manim!
Oldinda «Ma`rifat vodiysi», bu – naqd.
Bir kun manim bo`lur «orif» degan nom!
Tengri sari safar ixtiyor qildim,
Yuragimga fano baxsh etur quvvat.
Nafsim junbishlarin o`ldirib o`ldim,
Tirildim poklanib,
Poklandim abad!
Ulug` hikmatlarning cho`kib bahriga,
Terdim javohirotda,
Zavqlandim uzoq!
Shoshilmadim qaro yerning bag`riga,
Garchand bir do`st topmay yig`ladim u
choq!
«Lisonut-tayr» hikmatlaridan
Bu o`ttiz qush uchib qayon boradur?
Ona yurtidan ko`chib qayon boradur?
Ko`ksi qon, yoqachok, giryon boradur,

Yo`l olis, rang-ro`yi somon boradur!
Bu o`ttiz qush istar erk hamda huquq,
Bu qushlar yurtida bir adolat yo`q!
Quzg'un sa`vajondan e`zozli bunda,
Qarg'a-zog` bulbuldan borar oldinda.
G`oz burgutdan baland shoxda o`ltirar.
Tovus yerda xoru hayron o`y surar.
Bu o`ttiz qush dardin biladi hudhud,
Bilib-bilmaganga oladi hudhud,
Lekin qoyillatar ajib yumushni,
Ergashtirib borar o`ttizta qushni.
«Talab»u «Ishq», «Ma`rifat», «Tavhid»,
Hayrat vodiylari qolur orqada,
Qolar mushkilotu har qanday tahdid.
Yetguncha ular to matlab masnadi (4) –
«Faqr» hamda «Fano» vodiylariga.
Uchib borar ular ufqni ko`zlab,
Uchib borar turfa hikoyat so`zlab.
«Faqr» hamda «Fano» vodiylariga
Borar adolatli bir shoh axtarib.
«Faqr» hamda «Fano» vodiylarida
Hech kimni topolmas bu qushlar borib.
Yo`q, o`zlarin topar bu o`ttizta qush.
O`z so`zlarin topar bu o`ttizta qush.
Navoiy tovshini eshitdim shu on
«Gardun manga gah jafou dunliq qildi,
Baxtim kibi har ishda zabunliq qildi.
Gah kom sari rohnemunliq qildi,
Alqissa, base, buqalamunliq qildi».

O`ylar

Shoh borki, yonida maddohlari bor,
Xoh odil bo`lsin ul, xoh bo`lsin xunxor.
Buzdirdiyoim doim, qurdirmay aslo,
Kestirsa-da doim, o`stirmay aslo.
Shoh borki, yonida maddohlari bor.
To`ssa-da ma`rifat yo`lini butkul,
Jahlu nodonlikka erk bersa-da ul,
Shoh borki, yonida maddohlari bor.
Xo`sh, sohibqiron-chi, u qandayin shoh?
Boyqaro qoshida ozmida maddoh?
Nechun lozim bo`ldi Navoiyga, xo`sh,
Ul haqda yaxshi so`z aytmoq peshma-pesh?
Ba`zilar nazdida o`zidan ketdi,
«Qasidai Hiloliya»ni bitdi.
Bungacha temuriy shohlar nomiga
Ular orasidan biron-bir kimga –
Ulug`bekdan bo`lak, kimga ne dedi?
Nahotki, Boyqaro shunga teng edi?!..
Tengmida ilm-fan yulduziga u,
Elning ko`kka boqqan hur ko`ziga u?
... Tiyran ko`z-la boqdi bor hayotga u,

Sodiq qoldi yuksak e'tiqodga u –
 Bobolar zabonin qo'llagan ko'yi,
 Navoiy jur'atin angladi, kuydi.
 Toqati sustlarga bo'lsin, deb ibrat,
 Turkiy devon bitdi ko'rguzib san'at.
 «Ming yilda bir kelar bunday zot» – deya
 Shoir kitoblarin misli to'tiyo –
 Ko'zlariga surtdi. Oqladi har dam.
 Ming yilda bir kelar shoh Boyqaro ham.

Naql

Bu bo'z otning tuyoqlari tillodan,
 Bu bo'z otning yollarida yel uxlar.
 Yag'rinlari a'lo erur a'lodan,
 Kunduz quyosh yo'qlar uni,
 Tun-kechalar oy yo'qlar.
 Bu bo'z otni chorlar «Bog'i Husayniy»,
 «Bog'i Husayniy» da ahli ma'ni jam.
 Nega buncha sapchiydi, jim turmaydi,
 Nega bundoq? Nega bo'z ot ko'zlarida nam?
 Shodligidan tinmaydi u,
 Shodligidan yig'laydi,
 Unga bu kun shoir mindi, er mindi,
 Yo'q er emas, sher mindi.
 Ahli ma'ni hayron boqar, el hayron,
 Jilovdor – shoh, sultoni sohibqiron.
 Tilga hurmat – shohni gado aylagan,
 Shoirni shoh aylagan,
 Qadni raso aylagan.
 Bu bo'z otning borar yo'li ko'p yiroq,
 Bu bo'z otning yollarida yel uxlar.
 Bu bo'z otga asr-asrlar mushtoq,
 Kunduz quyosh yo'qlar uni,
 Tun-kechalar oy yo'qlar.

* * *

U nogoh angladi bor haqiqatni –
 Davlat ichra davlat tuzganin ayon.
 Cheku chegarasiz bu saltanatning
 O'z yo'li, yo'rig'i bor edi shoyon.
 Garchi to'kilmadi biror tomchi qon,
 To'kildi iztirob, to'kildi armon.
 Bu davlat lashkari kirdi janglarga,
 Yurdilar oshufta ko'ngillar sari.
 Boshqardi barchasin e'tiqod-darg'a.
 Forsiy alfoz bila turib betma-bet,
 Hayot haqiqatin ayladi bayon.
 Ona xalq g'ururini etdi u sobit –
 Hukm: «Muhokamatul-lug'atayn».
 Yozmoq kerakligin his etdi shuni,
 Umr ham oyoqlab qolgandi shu choq.
 Boyqaro toj-taxti tanazzulini
 Ko'rarkan, his etdi buni qattiqroq.

O'ylar



Bari bir bo'lmadi, aziz o'quvchim,
 Bir savol bag'rimni o'rtadi yomon.
 Bir jumboq jonimga bermadi omon,
 Go'yo turaversam odob saqlab, jim,
 Umrbod bexabar qoladiganday –
 Buyuk bir asrordan,
 O'ylanar edim.
 Bu doston yo'lida kezib paydar-pay,
 Bir javob topolmay qiynalar edim.
 Kimlar edi turkiy til yo'llariga,
 Navoiy yo'liga to'g'anoq bo'lgan?
 Nega bu xususda hech kim, hech yerga,
 Hech narsa yozmagan?
 Loqaydlik qilgan!
 Balki men ko'rmadim bu gapni izlab,
 Balki ko'zlarimni ko'r qildi hislar!
 Ular yo'qmi edi? Yo'q bo'lsa, nechun –
 «Mahzanining yiloni xunxo'r,
 Gulshanining tikoni behad va shumor», –
 Deya yozgan Navoiy bobo,
 Turkiy til haqida gapirar ekan?...
 Shu haqda so'radim shoirdan nogoh,
 Xayolan ko'klarga boqib chekib oh:
 «Bolam, yuragimga sanchding-ku, tikan,
 Eski yaralarim tirnading-ku, boq!
 «Yilonlar» bor edi, ko'p edi ular,
 Bitganimdek, «neshu nishtalaridin
 Bahra topmay o'tmish kim qancha dillar» –
 Bu til mahzanidin... va mumkin edi
 Meni ham ertaroq etsalar halok.
 Sultonmi qo'lladi va yoki xudo
 Yo sening xayoling qo'lladi nogoh
 Har tugul, manzilga yetdi bu qadam.
 Yilonlar haqida yozmoq shart emas,
 Hayf – harf, hayf – siyoh, chekilgan alam,
 Izillab axtarma, kuyma sen ham, bas!
 Ular hamma zamon, makonda bordir,
 Sening davringda ham topilur talay.
 Vatanni, imonni sotmoqqa qodir!..
 Seni ham qon qilgan chiqar har qalay,
 Ushbu yozayotgan dostoningni ham

Shubhasiz, qanchasi kutib yotgandir.
Menga orqa qilib turibsan, bolam,
Ichidan qirindi o`tib yotgandir.
Yo`qolishga mahkum odamlar bari,
Yilonlar, tikonlar – gulzor ichinda,
Yo`qolishga mahkum odamlar – nari,
Kitobat ichinda, ash`or ichinda.
Tilga qarshi turgan kaslar otini,
Yozmadim til bila buzib xatimni.

Xotima

Dostonim tugadi. Bu paytga kelib,
Yorug` olam aro tong otgan edi.
G`ir-g`ir esib go`zal subhidam yeli

Bog`cha gullarini tebratgan edi.
Yigirmanchi asr shovqini aro
Guvillab yashardi osmonday shahar.
Porlar edi ko`kda quyosh – lolarang,
Odamlar boshidan to`kib shu`la-zar.
Qaydadir yangrardi buyuk bir qo`shiq:
«Qora ko`zum, kelu mardumlig` emdi...»
Yo`qoldi go`yo besh asrlik to`siq,
Kuylayotgan hazrat Navoiy edi.
Men uni tingladim nafas yutib jim,
Qonimda daryoday jo`shdi ona til.
Men uning bag`rida to`lqinday oqdim,
Yuragimdan oqib bordim muttasil.

1985-90-yillar

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Shukur Qurbon otashnafas she`rlarida asosan nimani yonib kuylagan?
2. Uning istiqloлга, erkka tashna qalbi aksi sadosi sifatida yangragan asarlarida qanday obrazlar yetakchi bo`lgan?
3. “So`z yo`li” dostoni bilan shoir kitobxonga nimani uqtirmoqchi bo`ladi?
4. Asar mavzusiga ko`ra qanday doston hisoblanadi?
5. Shoir ushbu dostonini nega aynan shunday nomlagan deb o`ylaysiz?
6. Asarda keltirilgan timsollar, majoziy obrazlar mohiyatida qanday falsafa yashirin?
7. Dostonda qanday badiiy san`atlardan keng foydalanilgan?
8. Badiiy asar tilini misollar yordamida izohlang.
9. Navoiy asarlariga keltirilgan har bir chizgi mohiyatini yoriting.



MAHMUD TOIR (1952)

Mahmud Toir 1952-yil 31-avgustda Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi Parkent qishlog'ida tavallud topdi.

Shoirning birinchi she'ri o'rta maktabning 7-sinfida o'qib yurgan kezlari "Tannoz kelur" nomi bilan Parkent tumani gazetasida e'lon qilindi. "Ayt endi yuragim" nomli ilk to'plami 1991 yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etildi. Shundan so'ng shoirning "Biz nechun uchrashdik" (1992), "Muhabbat shevasi" (1995), "Oqib ketgan armonlar" (1996), "Barmoqlar bodasi" (1998), "Haqni tanib" (1999), "Yuz to'rtlik" (2002) to'plamlari, "Saylanma" (2002), "Ogoh bo'l, dunyo" (2005), "Otamning o'kinchi" (2006), "She'riy hikmat" (2008), "Yangi Toshkentnoma" (2012), "Bedorlarga bering dunyoni" (2012) majmualari nashr qilindi va o'z samimiyati bilan o'quvchilar e'tiborini qozondi.

Mahmud Toirning ijodi hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, unga 2001-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni, 2005-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berilgan.

YANGI TOSHKENTNOMA

Qalam oldim kitobat uchun,
Ulug' ishda ijobat uchun,
Kindik qonim tomgan tuproqda
Topganim baxt, saodat uchun!

Millatimning nomi – madorim,
Borligidan bor iftixorim.
O'n sakkiz ming bu olam aro
O'zbekiston – tanho diyorum.

Nomus-orim asrab yashay deb,
Iftixorim asrab yashay deb,
"Toshkentnoma" daftarin ochdim,
Dilda borim asrab yashay deb.

Zamin – ulkan, olam – bepoyon,
Vale boshda bittadir osmon.
Osmon osti, zamin ustini
Vatan tutmish hazrati Inson.

Bu olamning tog'lari bisyor,
Bu olamning bog'lari bisyor.
Shaharlar bor – dunyoning shoni,
Shaharlar bor – mangu iftixor.

Barchasiga bizdan xush salom,
Barchasiga mehrimiz in'om.

Bu dunyoda qurgan, yaratgan
Savob ila yashar bardavom.

Biroq aytsam, Chochkent bittadir,
Bu dunyoda Shoshkent bittadir.
O'zbekiston tug'ini tutgan
Sharq gavhari – Toshkent bittadir.

Kimlar uni madh aylamagan,
Madh aylashga bel boylamagan.
Eldan hikmat ziyosin olib
El ko'ngliga so'ng joylamagan.

Shukur, borman shu safda men ham,
Xush niyatda qo'limda qalam.
Ko'z o'ngimda yuz ochgan Toshkent,
O'zga ma'vo, o'zga bir olam!

* * *

Shu kunlarga yetolmay ketgan,
Ne'matlarin totolmay ketgan,
Vatanim deb dunyodan o'tgan,
Bu majmua ularning shoni
Shahidlar xotira maydoni.

Bunda Bo'zsuv oqadi sokin,
Nim-nim so'kib qirg'og'i chokin,

U – daryomas, dardli bir oqin,
Shunda oqqan ularning qoni,
Shahidlar xotira maydoni.

Bunda Quyosh oh bilan turar,
Tunda osmon Moh bilan turar,
Millat nuri, chirog'i ular,
Chorlab qo`ying mayin saboni,
Shahidlar xotira maydoni.

Feruza rang gumbaz ostida,
o`ozg'on marmar, ganjlar ustida,
Qabr turar millat dastida,
Tark etmangiz siz hech duoni,
Shahidlar xotira maydoni.

Qatag'onda ketgan qurbonlar,
Rasmlardan termilgan jonlar,
Shu muzeyda toza iymonlar
Suratidan ko`rar dunyoni,
Shahidlar xotira maydoni.

Mayli bo`zlar, mayli oh urar,
Bunda tarix tirilib turar,
Buyuk bir el ko`ngilga kirar,
Me'moridir yurtning sarboni,
Shahidlar xotira maydoni.

* * *

Ko`hna Shosh, aslida, millatning yuzi,
Bugun ko`hna Shoshda dunyoning ko`zi.

Davlat qudratining timsolidir u, masnaviy
Millat hikmatining kamolidir u.

Sharqning darvozasi, u – Sharqning ko`rki,
Osmondan tushmagan, shu xalqning mulki.

Har qarich yerida bir zot sharafi,
Tiriklik sharafi, hayot sharafi.

Quyosh osmoniga havas-la chiqar,
Ulug'lar izzatin tiklagan shahar.

Milliy bog' atalmish Navoiy bog'i,
Degaysiz u misli jannat quchog'i.

Vale ayt, ayo do`st, u qaydan keldi,
Quyoshdan tushdimi yo oydan keldi?

Navoiy – to abad sharaflangan zot,
Lek avval bunchalar etilganmi yod?

Istiqlol ilk yilin hurmat, maqomi,
Hazrat nomi bo`ldi – Navoiy nomi.

Navoiy haykalin poyida bu kun,
Ta'zimda turibdi el-yurt bus-butun.

Navoiy avlodlar kamolin tilab,
Ko`hna Shoshning boqiy jamolin tilab,

Nazmida yangratib dil sadolarin,
Ruhidan to`kmishdir xush duolarin.

* * *

Bugun ko`r, ayo do`st, Navoiy bog'in,
Qalbingda yoqqaysan havas chirog'in.
Har nihol, har daraxt bog'ning viqori,
Bir ko`rib ketganning tutgay xumori.

Hikmat bulog'idan suv ichgan ular,
Hazrat shukuhidan nur quchgan ular.

Bunda majnuntollar ta'zimda turgay,
Bulbullar bol to`kib nazmda turgay.

Quyoshga bo`y cho`zgan har bir qarag'ay,
Oq badan qayinlar zulfin taragay.

Daraxtlar – aslida tuproq farzandi,
Zamin ko`ksin emar ildizi, bandi.

Ko`kargan joyida yurtning yuzidir,
Shu elning ko`kdagi ko`rkam so`zidir.

Bugun azim Toshkent bog'lari – bisyor,
Bag'ri doim bahor, go`zal, maftunkor.

Ammo milliy bog' – bu millat g'ururi,
Shunda taralmishdir Navro`z sururi.

Bu bayram – ko`klamning tongiga olqish,
Bu bayram – mehnatning bongiga olqish.

Eng ulug', eng aziz bayram ham shunda,
Bunday bayram bo`lmas ko`hna ochunda.

Bu bayram – tinchlik ham hurlik parvozi,
Bu bayram – baxtga yor xalqning baxt sozi.
Bu bog'da – boqiy baxt bahori bordir,
Bu bog'ning gullari g'ururdir, ordir.

* * *

Qiyos izlab, qonim qo`shay andozangga,
 Aytgin, qanday shon qo`shayin ovozangga,
 She`rlarimni tumor qilay darvozungga,
 Sharq shuhrati o`zingsan-ku, shonim
 Toshkent,
 Chiroyingga oyna bo`lsin jonim, Toshkent.
 Qadr loyin qaldirg`ochlar qorolgaylar,
 Ko`shkin izlab ayvoningga borolgaylar,
 Maysalar ham Toshkent desa tosh yorgaylar,
 Makkadagi qushlar qaytar, donim Toshkent,
 Kimlar demas seni bu kun "shonim,
 Toshkent".
 Tilla Shayxning masjidida tiz cho`kkanlar,
 Hazrat Imom majmuida dil to`kkanlar,
 Kaffol Shoshiy hikmatlarin xo`b uqqanlar,
 Bir-bir aytsam osmon bo`lar orim Toshkent,
 Ta`rifingda to`kkin keldi borim Toshkent.
 Kirmoq bo`lsa kimki go`zal koshonangga,
 Shahrim avval mehrin to`ksin ostonangga,
 Boshing uzra aylanay men parvonangga,
 Saodatning saroyisan, so`lim Toshkent,
 Toshkent desa o`zga sig`mas, elim Toshkent.
 Ikki ming ikki yuz yil umr yo`li,
 Asli, go`zal poytaxtimning g`urur yo`li,
 O`zbeginning duolardan tushmas qo`li,
 Omon bo`lgin, obod bo`lgin, shonim,
 Toshkent,
 Chiroyingga ko`zgu bo`lsin jonim,
 Toshkent.

* * *

Ezgulik arkasi – maydon avvali,
 Shu ulug` dargohga ramziy darvoza.
 Yuz o`lchab bir kesgan yurtning sarvari,
 Jami go`zallikka bu bir andoza.

Oppoq marmarlar – bu oq, oydin tilak,
 Parvozunga shaylangan laylak, turnalar.
 Ko`rku jamolidan entikar yurak,
 "Ezgulik" degan so`z dilga nur tarar.
 Bunda tinchlik tilar laylaklar xushhol,
 Farovonlik tilar turnalar elga.
 Hurlik halovati baxsh etgan iqbol
 Shodlik shaloladek sig`maydi dilga.
 Go`zallik asraydi, derlar dunyoni,
 Dilning suyanchi bo`l, gulning suyanchi.
 Ezgulik arkasi bo`ylar samoni,
 Har bitta– ustuni tinchlik tayanchi.
 Oppoq poyonozli ravon yo`lakdan,
 Hurlik qadamlarin tashlab borursan.
 Ko`ksing tog` bo`ladi ezgu tilakdan
 O`zing, eling uchun so`nmas g`urursan.

* * *

Mustaqillik maydonin asli,
 O`z hikmati, falsafasi bor.
 Bunda doim – yilning to`rt fasli
 Hurriyatning xush nafasi bor.
 Ketmas bo`lib keladi bahor,
 Favvoralar majnun yozida.
 Ma`yus kuzi mangu maftunkor,
 Oq tilak bor qish ayozida.
 Bulutlar ham bunda mastona,
 Quyosh bilan or talashadi.
 Nogoh kelgan bulbul ham yona
 Turna bilan tor talashadi.
 Har qadamda boqiy go`zallik,
 Har bir toshning o`z tarovati.
 Ming qasida, ming bir g`azallik,
 Baxsh etguvchi dil halovati.
 Dostonimning avji pardasin
 Nazdimda men yoza boshladim.
 Va tuyganim armon qatrasin
 Dil ipiga tiza boshladim.

* * *

Xotira xiyoboni,
 Qirq ikki ustuni bor.
 Har o`yilgan naqshida
 El dardining uni bor.
 Yigirma sakkiz tokcha,
 Yigirma sakkiz kitob.
 To`rt yuz ellik ming odam
 Nomidan qilar xitob.
 Bunda unguvchi gullar,
 Olovdan suv ichgaydir.
 Ruhlar Toshkent ko`kida
 Gul rangida uchgaydir.
 Motamsaro onaning
 Poyida xush duo qil,
 Dunyoga tinchlik so`ra,
 Xudoyimga nido qil.
 Qancha la`nating bo`lsa,
 Urush degan so`zga ot.
 Yot elga qurol bilan
 Kirish degan so`zga ot.
 Bu – millat onasidir,
 Abadiy motamsaro.
 U – armonning diydori
 Sog`inchdan qalbi yaro.
 Mustaqillik maydoni –
 Dard sochilgan parchasi.
 Xotira xiyoboni –
 Abadiyat archasi.

* * *

Mustaqillik maydoni –
Ozod elning ko`zgusi.
Bunga kelgan har odam
Ko`nglidan gul uzgusi.
Qaysi til, qaysi dinda,
Mayli, o`z fikrin qilar.
Lekin ilk kalomida
Tinchlikning shukrin qilar.
Chunki bu ulug` maydon,
Hurriyatning mevasi.
Bunda har tosh, koshinning
Bordir o`z til, shevasi.
Har maysa, har bir nihol,
O`ziga o`rin topgan.
Bu millat azal-azal
So`ziga o`rin topgan.
O`zbekiston timsoli
Shu maydonda boshlanur.
Ko`z quvonchdan yoshlansa,
Shu maydonda yoshlanur.
Dunyoning besh qit`asi,
Gulu niholi shunda.
Quyosh – abadiy oshiq
Oy ham maftuni tunda.
O`zbekiston yerining
U muqaddas parchasi.
Shu bois yurt tavofin
Shundan boshlar barchasi.
Mustaqillik maydoni –
O`zbekning g`urur, ori.
Mustaqillik maydoni –
Azim Toshkent tumori.

* * *

Doston boshlagandim xush
niyat ila,

Endi nuqta qo`yay qo`sh
niyat ila.
Kimki sharaflagan bu
ko`hna Shoshni,
Nomiga yor qilsin Alloh
Quyoshni.
Yotar manzillari tinch,
obod bo`lsin,
Ham yana ruhlari mangu
shod bo`lsin.
Ajdodlardan bizga u
boqiy meros
Bizdan avlodlarga
qolajagi rost.
Qolayotir lekin, oliy
maqomda,
Bunday shahar yo`qdir
Arab,Ajamda.
Uni asramoq shart tanda
jon kabi,
Tomirda talpingan toza
qon kabi.
Nur avval Quyoshdan
taralgan asli,
Bu olam qurishdan
yaralgan asli.
Bu doston, nazdimda,
tuproqnomadir,
Dil ichra dil mulki –
chiroqnomadir.
Endi men ko`nglimdan yechay
jomani,
QO`lingizga tutay
“Toshkentnoma”ni.
O`qib, shu kunlarning
shukrin qilgaysiz,
Shoyad faqirning ham
zikrin qilgaysiz!

2011-2012 yil

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mahmud Toir she`rlarining o`ziga xosligi namoyon bo`luvchi nuqtalarni ko`rsating.
2. “Yangi Toshkentnoma” qanday doston hisoblanadi?
3. Uni yozishdan shoir qanday maqsadni ko`zlaydi?
4. Asar nega aynan “Yangi Toshkentnoma” deb nomlangan?
5. “Yangi Toshkentnoma”da qaysi davr voqealari aks etgan?
6. Asar orqali shoir insoniyatga nimani uqtirmoqchi bo`ladi?
7. Ushbu doston bag`ishlovmi? Shoirning o`zi bu haqda nima deydi?
8. Asar qurilishining o`ziga xosligi nimada?
9. Qanday tarixiy shaxslar va joy nomlari tilga olingan?



TO`LAN NIZOM (1939)

To`lan Nizom 1939-yil 17-avgustda Andijon viloyati, Bo`z tumanidagi Beshgul qishlog`ida tug`ilgan. O`zbekiston xalq shoiri (1998). Andijon pedagogika institutini tugatgan (1965). Birinchi she`riy to`plami – «Sening ertaklaring» (1970). «Iftixor» (1982), «Oy qizlar» (1988), «Muqaddas ruh» (1993), «Vatan tuyg`usi» (1993), «Chaman ichra», «Aks-sado», «Intizorlik» (1994), «Dahr bog`i» (1995), «Saylanma» (1998) kabi she`riy to`plamlari e`lon qilingan. Doston va lirik qissalar ham yozgan («Cho`lpon»; «Majnunol yig`isi»; «Ruhi ravonim», 1993; «Uch so`z», 1995; «Botmay qolgan oy», 1996 va boshqa).

«Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan (2003).

RUHI RAVONIM

Sochlari potila, ko`zlari maxmur,
Davlati – qalb she`ri va eski tanbur.

Oybek

Mashrab borayotir savdoyinamo,
Go`yo ko`zin tikib turar mavjudot.

Muhammad Ali

MUQADDIMA

Bismillohir rohmansir rohim,
Ummon yanglig` ruhimda tug`yon.
Mashrab! – dedim, o`t oldi ohim,
Doston bo`lib tug`ildi armon.
Ko`z oldimda avliyo shoir,
Timsoli yo`q qaddi-qomatin.
Botin chuqur, eng go`zal zohir,
Unda ko`ring nur alomatin.
Bola edim yolg`iz va yetim,
Aziz nomin dilga joyladim.
O`tdi umrim va endi yetdim,
Men o`zimni unga boyladim.

II

Necha yillar bo`lib intizor,
Umidlarim ulg`ayib bisyor,
Afg`oniston sari otlandim,
Uchar qushday men kanotlandim.
Kecha-kunduz olis yo`l bosib,
Qaynashlarim Amuday toshib,
Yotib, turib o`ru qiyoda,
Sog`inchlarim jo`shib ziyoda,
Balxga yetib keldim namozgar,
Bir shabboda esardi capcap.

Qip-qizarib kun ham botardi,
Yolg`iz dahma... shoir yotardi...
Dahma usti qora loy suvoq,
Eski janda kabi juldurvoq.
Sal narida cho`zilgan mozor,
Ne odamlar yotur beozor...
Ul qabrlar ko`pi marmartosh,
Yaraqlaydur nur sochsa quyosh.
Ho`kimlarga qo`yilgan yana,
Ko`z olguvchi rangin sag`ana.
Hayratimga berolmasdan dov,
Xarob shahar tillari soqov.
Bir shayxga dedim shu alfoz,
– Mashrab qabri shulmidir, ustoz?
Shayx o`ylanib bir sukut qildi,
Va so`z bilan qalbimni tildi:
– Qabre shoire qalandarme,
Otash ichra ul samandarme?
Shayx tilovat qilmadi bunda,
Bir kismatni angladim shunda.
Qabr uzra egildi boshim,
Simob yanglig` quyildi yoshim.
So`ng ruhlanib o`qidim duo,
– Rahmatingni yog`dirgil, Xudo!

Bir kaft tuproq oldim to`kinib,
Va o`yladim to`lib, o`kinib:
– Endi ketdik Vatanga, pirim,
Sizni izlab tugadi sabrim.
Nechun bunga kelib yetdingiz,
O`zga yurtda qolib ketdingiz?
Kimlarni ham dog`layman, deya,
Ko`ngillarni bog`layman, deya,
Qalandarlar libosin kiyib,
Parvonadek Siz kuyib-kuyib,
Oxir bunda maskan topibsiz,

Ustingizga tuproq yopibsiz.
Sizni kutar ona Turkiston,
Sizni kutar har bir tug`ishqon.
Unda paydo bo`lgan bog`ingiz,
Porillaydur sha`m – chirog`ingiz.
O`zbekiston erkin qush bo`ldi,
O`tgan kunlar yolg`on tush bo`ldi.
Qani ketdik, bugun jo`naymiz,
Namangonga borib tunaymiz.
So`ngra boqdim bir kaft tuproqqa,
U xayolni eltdi uzoqqa.

Dardlarimni she`rga bitsam, bilmaydurg`on o`shal yormu,
Arshu a`loga so`ng yetsam, Turon yurtim bag`ri tormu,
Farg`onani gar unutsam, Andijon ham menga zormu.
Namangan shahridin ketsam, meni yo`qlar kishim bormu,
G`ariblik shahrida o`lsam, meni yo`qlar kishim bormu?
Firoqingda qalam qoshim, kuya-kuya o`tdi yoshim,
Iztirobda ichu toshim, zahar-zaqqum ichgan oshim,
Ey rahmi yo`q bag`ri toshim, qayonlarga uray boshim,
Qani qavmu qarindoshim, bu yo`lda bo`lsa yo`ldoshim,
Ko`zimdin oqizib yoshim meni yo`qlar kishim bormu?

Nomus libosini yechdim, raqiblardin nari qochdim,
Yoki ishqdin kafan bichdim, qiyomatga biram shoshdim,
Qush yanglig` baland uchdim, sahroyu tog`ma-tog` oshdim,
Muhabbat sharbatin ichdim, qozondek qaynabon toshdim,
Bu foni y duniyodin kechdim, meni yo`qlar kishim bormu.

Bilgaymudir avval Xudo – bormi menday qalbi yaro,
Bul zamindin chiqdi nido, yo`q, o`chmagay bu xil tamg`o,
Muhabbatdin kelgan balo – tabiatdan menga savg`o,
Tushubdur boshima savdo, ramuzu ishqdin g`avg`o,
O`ziga ayladi shaydo, meni yo`qlar kishim bormu?

Sira farog`atim yo`qdur, endi ijozatim yo`qdur,
Tavba – ibodatim yo`qdur, chekkan riyozatim yo`qdur,
Fikru qaromatim yo`qdur, ularga ofatim yo`qdur,
Turarga toqatim yo`qdur, yurarga holatim yo`qdur,
Yurakda ishq o`ti cho`qdur, meni yo`qlar kishim bormu?

Rohatim yo`q suray desam, jamolingni ko`ray desam.
Kulib xandon uray desam, gullar bilan o`ray desam,
Bazmi jamshid ko`ray desam, Shosh shahriga boray desam,
Qarorim yo`q turay desam, Namangonda yuray desam,
Jahonni sayr etib kezsam, meni yo`qlar kishim bormu?

Oyoq ostida bir xasmen, birovlar meni ko`rmaydur,
Azal taqdirda kim oshiq, vafo gashtini surmaydur,
Kim, degaylar To`lanboyni ona Bo`zida turmaydur,
Bu miskin zor Mashrabi kishi holini so`rmaydur,
Bu yerdan bosh olib ketsam, meni yo`qlar kishim bormu?

USTOD

– Boborahim, mana bu – «alif», – dedi ustod,
– «Alif!» – dedi sho`xchan bola ko`z mildiratib.
– Mana buni «be» deydilar, siz aylangiz yod.
– Avval «alif» ma`nosini beringiz aytib!
Ustod achchig`landi: – Deng, bilay men ham.
– Ha, menmi... «Alif» belgisi – bir degan ma`no.
– Qaydan o`rgandingiz siz buni, bolam?
– Bismillodan bildim, qo`llasin yolg`iz Xudo!
Shundoq. Kun kechur, oy kechur, ulg`ayar bola,
Ko`ngil nag`malari quvar ko`zlardan uyqu.
Mutolaa qilur, hech qolmaydi chala,
Mulla Bozor dil tubiga tushdi bir g`uluv.
Rabg`uziy, Rumiyni pirim, deya ushladi,
Xo`ja Hofiz lafzi kirdi joniga oro.
Pahlavon Mahmud bola qalbin xushladi,
Navoiyni yodladi, yuragi qildi sado.

Bedov xayollari ko`kday tiniq, musaffo,
Murg`ak fikri ichra qudrat bir chaqmoq chaqdi.
Ulug`lar tushiga kirur, kelur ajabo,
Alloh muhabbati aqlida chiroq yoqdi.

Boborahim, – dedi tengdoshi bir kun daf`atan, –
Yuz yoshlik bobomga qoyilman va beraman tan.
Namoz o`qib boshini yerga ko`p uradi,
Yig`lab o`tiradi, yana yig`lab turadi.

So`ylang, yerdan bir neni u eshitmoqchimi?
Mashrab der: bu bosh xom-da, pishitmoqchidir...
Shunda tengdosh g`ayrat ila jilmayib qo`ydi,
Mashrabga termuldi, bir chuqur ma`no tuydi.

Boborahim sig`may qoldi Namangan ichra,
Sarkash bo`ldi degan mish-mish tarqalib ketdi,
Oromi yo`q, erta turib, yotadi kechroq,
Bugun tunda ilk bora u yig`lab she`r bitdi.
«Dili tig`i sitamdin pora bo`lgan xalqni ko`rdim,
Tani dardu alamdin yora bo`lgan xalqni ko`rdim,
Ko`zi vaqti sahar sayyora bo`lgan xalqni ko`rdim,
Muhabbat dashtida ovora bo`lgan xalqni ko`rdim,
Junun tug`yon etibdur har birisi bexabar tanho».

KENGLIK ARO

Tong yorishmay chiqib ketdi uydan u
yolg`iz,
Kenglik sari intiladi, kezadi g`iz-g`iz.
Kimsasiz cho`l tun qo`ynida vahima solur,

Bevosh yellar yantoqlarga tegib yo`qolur.
Changalzorlar boshlanadi, tugaydi yana,

Qari yulg`un odamsifat ko`rinar, ana.
Qovjiraydi oyoqosti bo`lgan xas-xashak,
Qurib yotgan qamishlarning boshi pir-pirak.
Xo`p yopasqi uyum-uyum oqvosh, sho`ralar,
Qizil qiyoq oyoqlarga, belga o`ralar.
Chigirtkalar chirillaydi navbat-benavbat,
Cho`zib-cho`zib chuldiraydi to`rg`aylar
faqat.

Tun tarqadi. Osmon toza. Bepoyon sahro,
 Tinim bilmay Boborahim kezadi tanho.
 Elas-elas ko`rinadi ko`ziga tog`lar,
 Yonbag`irda yonboshlagan qay bir
 qishloqlar:
 Zarkent, Nanay, Jiydakapa, Uychi va Norin,
 Pungon tomon toshlog`ida esar izg`irin.
 Tog` echkisi kabi qochar ko`zlardan nari,
 Daralarda, jarliklarda kezar sarsari.
 Sochi o`siq, usti-boshi yirtiq, bir ahvol,
 Ko`zlarida porillaydi so`nggi yo`q xayol.
 Og`zi to`la o`tli g`azal, tilida nola,
 Yuragida buyuk bir dard, bechora bola –
 Necha hafta shundoq yurar, oyoqlariga
 Tikan to`ldi, sado kirmas quloqlariga.
 Juda sevar sokin cho`lni, tilsiz sahroni,
 U izlaydi qayg`u bilmas bedard dunyoni.

ONA

Mana, bir oy o`tdi. Bibi Salima
 Tinmay yig`lar, yig`lar tilda kalima:
 «Yaratgan o`zingsan, yolg`iz Xudoyim,
 Bu o`jar bolamni asragil doim!»
 Axtarib yuradi ko`chama-ko`cha,
 Va unga o`xshagan bolani qucha.
 Ko`zidan oqizur kech kuzgi selin,
 Dilini qon qilib tug`ishgan elin.
 Hamma so`roqlaydi, hamma ham izlar,
 Izlaydi o`g`illar, izlaydi qizlar.
 Intiqlik ortadi battar, kundan-kun,
 O`t olib onaning ahvoli zabun.
 Sahar chiqib ketdi olib boshini,
 Boshimga uray deb, tog`lar toshini.
 Necha kun dovdirab sahro yo`lida,
 O`g`lin ko`rdi. Uzun tasbeh qo`lida,
 Yolg`iz o`ltiribdi pichirlab labi,
 O`zligin yo`qotgan ul Majnun kabi.
 – Bolam, Boborahim, qaydasan, o`g`lim,
 Seni deb qovrildi, kuydi bu ko`nglim.
 – Onajon, onajon, qandoq keldingiz?
 Bunday keng uyimni qandoq bildingiz?
 U so`zlab dardini yana oshirdi,
 Ona o`z ko`ksiga o`g`lin yashirdi.

Ona ko`z yoshlarin artdi bolasi,
 Sahroga sig`masdi ular nolasi.
 – O, bolam, vujudim parchasi o`zing,
 Qonimdek qip-qizil, to`lishgan yuzing.
 Bo`yimda saqlagach seni to`qqiz oy,
 To`qqiz kun, to`qqiz soat, so`ngra Xudoy
 Ulug` karam qildi, yorug`lik ko`rding.
 Otang isming qo`ydi Rahimbobo deb,
 Qo`llasin o`zingni yolg`iz Xudo, deb.
 Bir kuni borgandim bozorga ish deb,
 Bitmagan ro`zg`orim, yupun turmush deb.
 Yo`lakda bir baqqol uzum sotardi,
 Va ikki donasi yerda yotardi.
 Uvol, deb men uni og`zimga soldim,
 Lek vijdon oldida sendan uyoldim.
 Yuz berdi hodisot: bo`yimda eding,
 Ichimdan bir nido qilib sen deding:
 «Birdan paydo bo`ldi jonimda chaqin,
 Xudodan qo`rqmayin maxluqlar haqin,
 Onajon, uzumni yedingiz nechun,
 Oqchasin beringiz, yo`qsa men bugun
 Jisimingiz tubida g`oyib ketarman,
 Yorug`lik ko`rmayin o`lib bitarman».
 Men uyda otangga buni so`zladim,
 Ko`p qo`rqib ketgandim, yig`lab bo`zladim.
 Otang shunda dedi: «Gar tug`sang o`g`il,
 U dono bo`ladi yo avliyo dil...
 Hamisha o`zingni xo`p pokiza tut,
 Ruhing baland bo`lsin, tashvishni unut».
 Ro`molim uchiga pulimni tugib,
 Boqqolga uzatdim boshimni egib:
 «Bu pulni olingiz, sizning haqingiz,
 Ne uchun demangiz, so`zga boqingiz –
 Yerga tushgan ekan ikkita uzum,
 Uvol, deb oldimu ko`rganda ko`zim,
 Tanovul qilgandim, siz bo`ling rozi».
 Shunda titrab ketdi boqqol ovozi:
 «Olmayman, roziman, bo`lgil salomat,
 Sen qanday ayolsan, saxiy, alomat».
 Otang-ku bandalik qilgan, bolajon,
 G`aribimiz Muborak singling ikkovlon,
 Yur ketdik, endi hech qo`ymayman seni,
 Zor qilib qaqshatib yig`latma meni.

ONA O`KINCHI

Sen ochilding qizil guldek, jismimda bor bo`lgan bolam
 Armonlarim osmoni keng, yangi oyday to`lgan bolam.
 Oq sochimni yuvar bo`ldim ko`zlarimning jolasig`a,
 Bu dunyoning siru korin, jafosini bilgan bolam.
 Seni pokiza tug`dim men zarra gardni qo`ndirmayin,
 Ona suti og`zidayu yuragin qon qilgan bolam.
 Hurlik senda, kelbat senda, Yusufday oy jamoling bor,

Tili so`zon, dili vayron, o`z bag`rini tilgan bolam.
Aqlu idrok ato qilgan Xudoyimga ming bor qullug`,
G`alat dunyo ishlariga ko`zni solib kulgan bolam.
Tilim tolmas seni alqab «La ilaha illolloh» deb,
Sen «Allohu akbar» debon yer yuziga kelgan bolam.

MASHRAB ILTIJOSI

Ko`z yoshingiz arting, onam, munisim, jonim onam,
Bu olamda baxt ko`rdikim, ey onajonim, onam.
Sovuq, beshik quchoqlagan alla aytib tun kechalar,
Erta-kech parvona bo`lgan chin mehribonim onam.
Firoqimda kuyibsiz, oh, g`izo¹¹⁶ngiz – qayg`u, alam,
Umringiz dard, kuningiz dard, qaddi kamonim onam.
Ertak aytib, doston aytib siz burro til berdingiz,
Dilga she`r sehrini solgan shirin zabonim onam.
Yolg`iz panohim Oллоhdir, undan o`zga yupanch yo`q,
Bog`u bo`stonim, jannatim, jonu jahonim onam.
Sizni deb o`zdan kechurman, siz ikki jahon menga,
Siz – Turonim, Turkistonim, Siz – Namangonim onam.

Ular uyga keldi tushganida shom,
Odamlar to`plandi yig`lashib mudom.
Shaharga jon kirdi, yorishdi har dil,
Samoda yarim oy yog`dusi chil-chil...
Ona bosolmayin o`z ehtirosin,
Mashrabga kiygizdi yangi libosin.
Nasihati, o`gitlar seli yog`ildi,
Go`yo bunda boshqa Mashrab tug`ildi.
– Bunda qol, qo`y, ketma, bunda rizqing ye,
Ko`z ochgan makoning – shu tuproqni de.
Ustod Mulla Bozor dedi olmay tin:
«Alhamdulillah rabbi olamin».
Onangni sira ham endi tashlama,
Xizmatin ado et, ko`zin yoshlama.
Anoga mehnat bu – farzu vojibdur,
Fanimat bil uni, bir kun g`oyibdur.
Mashrab ho`ngrab dedi: E aziz ustod,
Alloh karamlari ruhim ichra yod:
«Yo ilohi, endi qilg`aysan bu bandangga nazar,
Jandami bir no`sh etib kirdim bu yo`lga darbadar,
Dashtu sahrovu biyobonlarni izlab sarbasar,
Topmadi hargiz bu Mashrab o`z vujudidin xabar,
Bir nazar qilsangki rohat topqusi jonu tanim».
Yarim kecha sirli tush ko`rdi Mashrab:
Qoshg`arga yo`l olmish shamolga o`xshab.
Nur misol imlarmish ul Ofoq Xo`ja,
Odam bilan to`la har yon, har go`sha.
Sahar turdi ruhi toza, ko`ngli boy,
Sezib qoldi inglisi Muborakoy.
Mashrab sekin qabristonga yo`l oldi,

¹¹⁶ G`izo – ovqat, yemish

Singil esa, qayga, qayga, deb toldi.
Ular ikkov yetib keldi mozorga,
Ul mozorga – hijron degan ozorga.
Keyin Mashrab yuzin qo`ydi tuproqqa,
Yig`lab dedi: Ota ketdim uzoqqa,
O`zin bilmay yig`lar edi Muborak,
Onasiga qanday bersin u darak.

MUBORAK YIG`ISI

Bu taqdirning korini men suymadim,
Yorug` olam nima ekan – to`ymadim.
Otam o`tdi, onam bilan yig`ladim,
G`am qaychisin olib o`zni tig`ladim.
Akajonim, qayon ketib borasiz,
Meni tashlab yuragimni yorasiz.
Ketmang, aka, biz bo`lmaylik endi xor,
Shahri azim Namangonmi sizga tor.
Siz ketsangiz, onam qanday yashaydi,
Sizsiz o`zin ochiq go`rga tashlaydi.

MASHRAB VIDOSI

Jonim singlim, diydamdagi sen nursan,
Jannatdagi bulbullardek sen hursan.
Sadoqating, alomating Xudodan,
Tilar erdim bir nurli hayot ko`rsang.
Suyanchig`i bo`lib qolg`il onamning,
Men uchun ham ko`z oldida sen tursang.
Bunda sig`mam, yo`lim olis, yig`lama,
Bag`rim teshur ko`p sog`inib oh ursang.
Ofoq Xo`jam mehri tortur, yetishgum,
Duo aylab sen meni eslab tursang.
Xayr endi, aziz singlim, yaxshi qol,
Qandoq ketay qarshimda yig`lab tursang.

SAYHUN BO`YLAB

Daryo jimirlaydi, quyosh lovullar,
O`ksik ohang tinglar qadim Axsikat.
Baland oppoq terak yelda shovullar,
Unga tikiladi Shoh Mashrab faqat.
Umarshayx Mirzoga o`qib tilovat,
Tuprog`in ko`ziga surdi xo`rsinib.
Boburni o`yladi titrab shu soat,
Bir sirni so`zladi daryoga sunib:
– Kunduz shovullaysan, tunda ayqirib,
O`ng qirg`oq, lablarin yamlab oqasan.
Amir Temur kabi yolg`iz hayqirib,
Turkiston ko`ksiga gullar taqasan.
Daryo oqimiga berib xayolni,
Kun chiqish tomonga yurdi jadallab.
Qirg`oqda to`lqinlar yovvoyi tolning
Shoxlarin tortqilar suyib, erkalab.
Ho` narida to`p-to`p majruh qayrag`och,

Suvning zo`r shashtiga termular chunon.
 Baland bo`y qamishlar go`yo yalang`och–
 Epkinda tebranar darvishlarsimon.
 Tikanak bog`labdi sahroyi jiyda,
 Qiyoflar ichidan intilib ko`kka.
 Yo`l yo`q-ku, yo`l qani, so`qmoqlar qayda,
 Mashrab dadil yurib boradi tikka.
 Daryo cho`ziladi shoir o`yiday,
 Kunchiqish tarafdin kunbotish tomon.
 Armonlar g`aming cheksiz kuyiday –
 Ummonlar yurtiga ketur ul karvon.
 Kechuvda yo`liqdi bitta qayiqchi,
 Mashrab savoliga berdi u javob:
 Bu qishloq qadimiy, nomi – Baliqchi!
 Lekin odamlari kun ko`rar xarob.
 Qayiqchi, keling, der sekin egilib,
 Non oling, baliq yo`q, qorin tolgandir.
 Mashrab hazil qildi: Baliq yeyilib,
 Ehtimol, bu yerda “chi”si qolgandir.
 Qayiqchi kulvordi go`yo bir toshqin,
 Keyin jimib qoldi ikki notanish.
 Bahaybat daryo-chi, oqardi shoshqin,
 Bu pinhon olamda bilmayin tashvish.
 Mashrab she`r boshladi borlig`i o`rtab,
 Shilindi qayiqchi ko`ngil yarasi.
 Oh, dedi u o`zin bir g`arib atab,
 Men ham bu dunyoning bir ovorasi.

MASHRAB

«Ki men ovvora hijron ilkidin faryodlar qilsam,
 Borib Hak oldida dasti falakdin dodlar qilsam.
 Agarki dodima yetsa, chaqibon ishq chaqmog`in,
 Falakning uyiga o`tlar qo`yub, barbodlar qilsam.
 Meni bir dam xalos et, birodar, g`ussau g`amdin,
 Aning yodi bila har dam ko`ngulni shodlar qilsam.
 Mening holim agar ishq ahli ko`rsa zor yig`laydur,
 Agar dardu g`amimdin zarrae bunyodlar qilsam.
 O`shalkim g`arqi daryoi muhabbat birla Mashrab men –
 Dilu jonim bilan har dam agar faryodlar qilsam».

Qayiqchi bag`riga bosdi Mashrabni:
 – Bu xilda ash`orni qandoq yozasiz?
 Shoir so`zlamog`ga juftladi labni,
 – Bu asov daryoda qandoq suzasiz?
 Mashrab jo`nab ketdi daryo bo`yidan,
 Kun ham isir edi misoli tandir.
 Qizlar cho`milishar chiqib uyidan,
 Suv sochib o`ynardi bir jonu tandir.
 Qizlar chorladilar yosh bu shoirmi,
 O`rtaga oldilar qilishib hazil.
 Daryodan tutganday go`yo Tohirni,
 Unga termuldilar shodon ham xijil.
 – Qayoqdan kelyapsiz, chiroyli bola?
 – Qoshlariga qara, ko`zlari o`tkir.

– Mo`ylabi yaxshikan. Soch tola-tola,
– Lablarida yashar bitta ajib sir.
– Namangandan emish barno yigitcha...
– Bo`y-basti yarashgan Farhodga o`xshab.
Mashrab dedi: Hoy qizlar, bellari xipcha.
Bitta bayt aytaymi sizlarga atab?
Hamma birdan: Eh-he, der tantanavor,
Undoq bo`lsa, bag`ishlang bizga g`azal.
– Sizlarga yarasha aytmoqlik dushvor,
Axir, har biringiz g`azaldan go`zal!

MASHRAB

«Koquling anbar durur, jon ichida jonon qiz,
Ko`zlaring axtar durur, yuzi mohi tobon qiz.
Lablaring erur la`ldek, yuzlaring qizil guldek
Barcha sengakim quldek, xizimatingga qurbon qiz.
Gar orazing gul, soching sunbulki, tishlaring dur,
Sarvi qadlig`, qosh ko`rung, oftobi davron qiz.
Oy yuzingni ko`rganda, lablaringni so`rganda,
Mashrabing bo`lur banda, qilsang ani mehmon qiz».

ANDIJON

Necha oykim, Boborahim Andijonda yashadi,
Tug`yonlari Ilamish¹¹⁷day qirg`og`idan oshadi.
Zahiriddin Muhammadning izlarini o`padi,
U tug`ilgan o`shal qutlug` hovlini ham topadi.
U kirmagan guzarlaru biror bog`cha qolmadi,
Kecha-kunduz ko`chalarni kezib yurdi, tolmadi.
U bo`lgan joy anjumanga yo majlisga aylandi,
Bunda har bir andijonlik Mashrabga chin boylandi.

* * *

Mashrabdan so`radi bir keksa omi:
– Bu dunyo yaxshimi yo u dunyomi?
– O`zingiz ayting-chi, qaysinisi soz?
– Bu dunyo yolg`ondir, u dunyosi rost.
Mashrab kulib dedi: Nechun siz unda
Imillab yuribsiz, ketmasdan shunda?
Qariya jilmaydi Mashrabga qarab
Va yo`lga jo`nadi soqolin tarab.

* * *

Mashrab kiygan eski janda bo`ldi ko`zga to`tiyo,
Har satridan ko`z yosh to`kdi bunda qancha anbiyo.
Ulus ahvolini ko`rdi, yana yurak dovladi,
Ulug` Bobur g`azaliga bir muxammas bog`ladi:
Quyosh chuqur, hijron tog`i qoldi qonli manglay bila,
Yaproq to`kur umrim bog`i, kun ham o`tdi xay-xay bila,
Afsus chekur ko`k chirog`i, bosh tebratur bay-bay bila.

Soqiy, erur ishrat chog`i, afsurda bo`lma day bila,
O`ttek chog`ir keltir dog`i suhbat tunottur may bila.

¹¹⁷ Ilamish – Qoradaryoning qadimgi nomi

Tiyib olgum ko`zda xobni, chorla ja`mi do`st-ahbobni,
 Dasturxonga qo`y serobni – beminnat ul oftobni,
 Bu kun degil bir javobni, senga berdim zo`r savobni,
 Keltur sharobi nobni, omada qil asbobni,
 Xush tut shabi mohtobni, chun bordurur ul oy bila.
 Navoiydan g`azal yod qil, menga yangi jon bunyod qil,
 Ag`yorlarni o`zing mot qil, qayg`ulardir bir ozod qil,
 G`oliblik ne, bot-bot qil, toza ruhim kushod qil,
 Davron g`amin barbod qil, ishrat uyin obod qil,
 Jonu ko`ngilni shod qil ovozi changu nay bila.
 Xo`p o`ynasin so`zi shakar, kuydirib ko`zni jilvagar,
 Ham kuylasin tongga qadar sozin chalib ul nag`magar,
 Unga bergil azmi shahar, ol ming tillo tursa gar,
 Majlisda bor dur sarbasar may nash`asidin sho`ru shar,
 Borini mastu bexabar qil jomi paydar-pay bila.
 To`lan Nizomiy qonikim, ul giriftore qonikim,
 Umri ozore qonikim ham beqarore qonikim,
 Ishq ichra xore qonikim, Mashrab shiore qonikim,
 Hamdard yore qonikim, bir g`amgusore qonikim,
 Abri bahore qonikim Bobur kibi yig`lay bila.

* * *

Sahar yo`lga bo`ldi ravona,
 Kuloh kiyib Mashrab devona.
 Tunab qoldi Xo`jaobodda,
 Erta ketdi, charchoq xolatda.
 O`shga yetdi. Taxti Sulaymon¹¹⁸
 Tilga kirdi, keldi deb mehmon.
 Unga peshvoz chiqdi O`sh ahli,
 Hammaga mos g`azali, naqli.
 Bunda shayxlar yoqa ushladi,
 Qattiq dillar biram yumshadi.
 So`ng jo`nadi Qoshg`ar sarig`a,
 Nelar bitib o`z daftariga.
 Qancha baland tog`lardan oshib,
 Dovonlarda yo`ldan adoshib.
 Ochin-to`kin uzun yo`llarda
 Suv topilmas qaqroq cho`llarda
 Qolib ketdi bechora Mashrab,
 G`azallarini aytardi qaqshab.

Mashrabga dedi chol: Hey, eshak qani?
 U qozi bo`lganmish, so`rarmish sani!
 Shoir kulgusi zo`r, oshdi tobora:
 – Yolg`on! Eshagim hech olmaydi pora.
 Piqirlab kulardi tushmagur u chol,
 Mashrab jo`nab ketdi deya: yaxshi qol!

* * *

Ofoq Xo`ja bir sirdan ogoh:
 Bitta yigit – boshida kuloh,
 Izn so`rar qilib iltijo,

Kirsin, dedi, qani marhabo!
 Mashrab
 Bo hidoyat dastgiram, bosh gumroh
 omadam,
 Bar tavofi dargahat imro`z begah
 omadam¹¹⁹.

Ofoq Xo`ja
 Sen shoirmi, beriroq kel-chi,
 Qaerliksan? Ismingni de-chi».
 Mashrab
 Keldim Mulla Bozor tomondin,
 Sizni debon ul Namangondin.
 Ofoq Xo`ja
 Bale, o`g`lum, bulbuligo`yo,
 Kelganliging ayni muddao.

M a s h r a b

«Yuz mehnatu g`am ko`nglima yetkurdi
 firoq,
 Jonimga balovu dard o`qini urdi firoq,
 Jismimni fano o`tig`a kuydirdi firoq,
 Chun kuydi, kulini ko`kka sovurdi firoq¹²⁰.
 Ofoq Xo`ja
 Manglay sho`rin totadi odam,
 Tikon kirmas, axir, bekaram.

¹¹⁸ Taxti Sulaymon – O`shdagi tog`

¹¹⁹ Ma`nosi – Hidoyat yo`liga boshlash bilan
 qo`limni tut, huzuringga gumroh sifatida keldim,
 dargohingni tavof qilgani bevaqt keldim.

¹²⁰ Navoiy ruboiysi

Taqdirga tan berding, omon bo`l,
 Yaqinroq kel, mana, tutgil qo`l!
 M a s h r a b
 «Hech xat berun nest az g`alat,
 Xati taqdirast az g`alat»¹²¹.
 Ofoq Xo`ja
 Bale, o`g`lum, yana o`qi bayt,
 Xo`ja Hofiz Sheroziydan ayt?
 M a s h r a b
 Onxo, ki xokro be nazar kimyo kunand,
 Oyo, buvad, go`shai chashm ba mo kunand.
 Dardam nuhufta bex zi tabiboni muddai,
 Shoyad, ki az xazonai g`aybash davu
 kunand¹²².
 Ofoq Xo`ja
 Hay bas qilg`il, man kuydim, yondim,
 O`zligimdan birpasda tondim.
 O`qi yozg`on o`z ash`oringni,
 Ko`rsat she`rda yo`qu boringni!
 Mashrab
 Bazmi sha`mingdin zamona ichra bir giryon
 o`zum,
 Doimo parvonadek sham` o`tig`a so`zon
 o`zum.
 Qahrabo ermish jahon, davrida afg`on
 aylagan,
 Chun faloxun doimo sargashtai davron
 o`zum.
 Shohlik birla gadolik, bil, barobardur
 menga,
 Gohi hajringda gado, vaslingda goh sulton
 o`zum.
 Chin aro ko`rgach xadangi novaki qosh
 yosini,
 Siynachiq o`lg`an shahidi tiyri bepaykon
 o`zum.
 Dargahi vasling tilab, ayb etma, afg`on
 aylasam,
 Mashrabi sargashtai g`amdiydai hijron
 o`zum.
 * * *

Yetti yilki Mashrab bechora
 Ofoqxo`jam debon ovora.
 Rosa uch yil tashidi o`tin,

¹²¹Hech bir xat xatodan xoli emas, faqat taqdir xati xatoli emas.

¹²²Nazaring tuproqni ham kimyo qiladi-ku, u ko`zim qorachig`iga maskan qursin. Zora bedavo dardim davu topsa.

Yana to`rt yil suv tashib, butun –
 Umri o`tdi befoyda, bekor,
 Uning mudhish sabablari bor.
 Ammo ulus izzat qiladi,
 Har g`azalin qudrat biladi.
 Qadrlydi uni xaloyiq,
 She`r aytgan-chun ularga loyiq.
 Goho derdi pir Ofoqxo`jam:
 – Mashrab kirsin mening xos hujram.
 Oqshom uzoq bo`lardi gurung,
 Chaq-chaq kulgu, g`azalxonlik so`ng.
 Tildan tushmas muqaddas Qur`on,
 Keyin mavzu – mavjudot... Inson...
 Shu hujraga sig`ardi go`yo
 Ja`mi o`tgan shoiri dunyo.
 Millat, elat achchiq taqdiri,
 Ko`p shohlarning qonxo`r shamshiri,
 Alpomishday erlar ahvoli,
 Poq sevgining so`nggi zavoli.
 Diyonat ne, xurofot nima,
 Pok pyh nima, kasofat nima?
 Vatan nomli e`tiqod bormi,
 Xalq deganga saodat yormi?
 Bu xil gaplar, ne-ne muammo –
 Suhbatlarda bo`lmasdi ado.
 Ofoqxo`jam Mashrabga hayron:
 – Bu qanday zot, bu qandayin jon?
 Dono desam, u – devonavor,
 Shoir desam, u – Majnunshior.
 Tavba, tavba deyman, Yaratganga lol,
 Olloh, Mashrab sen kabi halol!

RUBOIY

Bilingiz, chin shoir devona bo`lur,
 Yaxshilik sham`iga parvona bo`lur.
 U – dono, avliyo, Xudoga yaqin,
 Uni badnom qilgan zamona bo`lur.
 * * *

Guzarda Mashrabni tanib der birov:
 – Eshagim yo`qoldi, ko`rmadingmi, hov?
 Mashrab unga dedi: Yaxshiyam, oshnam,
 Sen eshak ustida bo`lmabsan ul dam...
 Shoir lutf ayladi boplab, baholab,
 Ul odam kulardi yayrab, xo-xolab.
 * * *

Mashrab juda tegajoq o`g`lon,
 Unga havas qilar qiz-juvon.
 Xizmatkorlar ichida yolg`iz –
 Faqat uni sevadi bir qiz.
 Ul qanizak xo`p go`zal edi,
 Tinglagani she`r, g`azal edi.
 Ofoq Xo`jam dargohida ul –

Hid sochardi misoli bir gul.
 U Mashrabga bo`ldi mahliyo,
 Ko`zlariga begona dunyo.
 Har soniya uni o`ylardi,
 Lek asrorin oyga so`ylardi.
 Mashrab buni bilardi, faqat –
 Uni bandi qilgan shariat...
 Ko`nglida yo`q ul qizning sehri,
 Yuragida Allohning mehri:
 Ammo unga bor edi dushman,
 O`shal qizga oshiqman, degan
 Shahob edi, niyati buzuq,
 Sariq mo`ylov, tili sal duduq.
 Keng peshona, lek burni pastroq,
 Fe`li ba`zi itdan yaxshiroq.
 Shoirni u ko`ra olmaydi,
 Yo yonida tura olmaydi.
 G`azabi – o`q. Otmoqqa tayyor,
 Tilyog`lama, benomus, beor.
 Mashrab she`ri yetildi rosa,
 Ag`yor hasad qildi. Xulosa –
 Boshqalarning rashki qo`zg`oldi,
 G`araz cho`g`i alanga oldi.
 Mehnat qilib bo`ldi u «yomon».
 Bu dargohga kelganmish ziyon.
 Tuhmat bo`ldi unga bir kishan,
 Hamma deydi: Bu gapga ishon:
 Ul qanizak bilan turganmish,
 Oqshom bog`da birga yurganmish.
 Ofoq Xo`jam bilarmish buni,
 Yaqin emish eng qaro kuni!..
 Fisqu fasod haddidan oshdi,
 Shoir sabri to`ldiyu toshdi.
 Atadilar uni zinokor,
 Ofoq Xo`jam emish qasoskor.
 * * *

Buyruq shul: Qalandar shoir Mashrabg`a
 Yuz darra urilsin ul beadabg`a.
 Mashrab der: – Ur tanimga ming shapaloq,
 Darra kelg`unicha pishisin, xomroq.
 Soqi bilan Boqi qildi masxara:
 – Sen nima deyapsan, jinni, tasqara?
 Nazarga ilmaysan, ozmi bu jazo?
 Darraning o`ziyam tanangga davo!
 * * *

Kimdir dedi: – Yana bir farmon,
 Bajarilsin tezda begumon:
 Mashrab axta qilib tashlansin!
 Erkak ko`zi doim yoshlansin!
 Ikki norg`ul bosdi Mashrabni,
 Bir kasofat bilmay adabni –
 Muhr bosdi o`tda qizitib,

Bandi gardon tomirin sitib,
 Shaxvat joyin ayladi mahkum,
 Zo`r qabohat yuz berdi shul zum.
 RUBOIY
 Hasad bu – qaro ish, qabohat qo`li,
 Rashku alam chindan jaholat qo`li,
 Senga ham navbat bor, tavba qil, zolim,
 Seni ham bo`g`adur adolat qo`li.
 * * *

Ofoq Xo`jam anglab bu sirni,
 Kim bajardi qaro tadbirni, –
 Debon bo`ldi juda darg`azab,
 Vujudini kuydirib asab,
 Mashrab yovin keltiring, dedi.
 Zo`r shoirga g`anim kim edi?
 Men iymonga boqolmayman tik.
 Xoin kimdir, qolmas hech tirik!
 Din ko`kiga kimlar sochdi kul,
 She`r parisin xasta qilgan ul –
 Bashariyat naslidanmu, yo
 Inson shaklidagi ajdaho?!
 – Pirim, – dedi Soqi va Boqi,
 Yolg`on ersa, ko`zimiz oqi
 Oqib tushsin oyog`ingizga,
 Bir dam quloq beringiz bizga:
 Mashrab o`zin ayladi abgor,
 Axta qildi, chin sababi bor.
 O`zni etib qusurdan kushod,
 Tarki dunyo qildi u. Hayhot!
 Ofoq Xo`jam yoqa ushladi,
 Tizzasiga bitta mushtladi:
 Parvardigor, Mashrabni rost et,
 Gunohlardan uni xalos et.
 Qabul ayla, shoir qoldi toq,
 Senday tanho va sen kabi pok.
 * * *

Mashrab ketdi boshini olib,
 Erligi-chun eldan uyolib.
 U Yorkentga, Xo`tanga o`tdi,
 Olloh, dedi, o`zni unutdi.
 * * *

Yorkentning hokimi jon berdi qo`qqis,
 Tobut yasatildi ipakdan to`kis.
 Shul zamon Mashrabdan so`radi imom:
 – Marhum necha yoshda, ayting bir kalom?
 – Bilamen, yoshimiz farqi oz edi.
 Muchalimiz chindan ketma-ket, dedi.
 Bu bechora zotning fe`li edi xit,
 Yo men – it, u – to`ng`iz, yo men –
 to`ng`iz, u – it!
 Janoza o`qildi, ul imom hayron,
 Tobut ketar edi qabriston tomon.

* * *

Mashrab uyg'ur bog'larin kezdi,
Tog'larida bag'rini ezdi.
Necha yillar yashadi yolg'iz,
Cho'llar aro qoldirib bir iz.
Tillaridan g'azal tushmadi,
Ruhiga hech g'ubor qo'shmadi.
Tun va kunning qolmadi farqi,
Ters aylandi bu falak charxi.
Qushlar bilan gurung qiladi.
Shamolning ham tilin biladi.
Yulduz bilan hamda oy bilan
Dardlashadi, ko'z yosh to'kadi,
Kundan-kunga qaddin bukadi.
Dunyo kechdi, bevafo deb,
Har shoirga sen jafosan deb.

* **

Qoshg'arda shoh Mashrab kirsam go'zal bog',
Oyga termularmish kishilar uzoq.
– O'roqday shu oyga munchalar zorsiz,
Unga qaray-qaray shuncha xumorsiz?
Bizning Namanganda oyga qarashmas,
Oyni oyna qilib sochni tarashmas.
Qo'qon aravaning g'ildiragin ko'r,
O'shanday keladi oyimiz bazo'r.
Bu go'zal hazilga kuldilar bir oz,
Devona shoirni atashib shovvoz.

Olatovning kengligi aro
Mashrab kezdi ko'p motamsaro.
O'zgan tomon, Ko'kshar yaylovi –
Unga bo'ldi taqdir siylovi.
Yilqi boqib chiqdi xumori.
Har kun uning ovqat nahori –
Shifo berur ildizlar bo'ldi,
Ovunchog'i yulduzlar bo'ldi.
Suyangani bitta muhabbat,
Parvardigor berguchi shafqat,
Uning ishq bilan baxtiyor,
Uning husni eng nurli diydor.
U majnunlar ichra chin majnun,
Farhod ko'rsa bo'ladi mahzun.
Vomiq, kelsin, Tohir ham kelsin,
Ishq nimadir, Mashrabdan bilsin.
Mansur Xalloy tavba aylasin,
Chin oshiq deb uni saylasin.
Mir Alisher Navoiy hayron,
Nizomiyni tillari biyron.
Fuzuliy ham ushladi yoqa,
Sa'diy kulib Mashrabga boqa –
Bu Ollohdan karomat, dedi,
Ishq, o'tidin alomat, dedi.

Mashrab qalbi urgan sari barq,
Aza tutib dod qilardi Sharq.
Eshitgandim bitta rivoyat,
So'zlab beray juda alomat.
Emish: Ko'kshar yaylovi aro,
Paydo bo'lib dillari qaro,
Shum oyoklar to'planib bir kun,
O't yoqqanmish, samoda tutun.
Zo'r alanga kenglikni olmish,
Alangaga Mashrabni solmish.
Asta-sekin pasaymish o't ham,
Hayron qolmish tumonat odam.
Mashrab o'tda kuymabdi aslo,
Olomonga boqarmish qiyo.
O'tdan chiq deb, shoiri a'zam,
Yolboribdi keksayu yosh ham.
Lekin shoir o't ichra turib,
Chorlar emish qahqaha urib.
RUBOIY
Ana, o'tga tushdi, yonmadi shoir,
Haqiqat dardiga qonmadi shoir.
Ko'rgil Mashrab hazratlarin, o'lmagay,
Chunki o'zligidan tonmadi shoir.

TUSH

Ko'kshar. Yaylov osmon yanglig' keng,
Tog'lar boshi bulutlarga teng.
Yarim kecha. Ko'kda oy suzar,
Sonsiz yulduz zo'r bazm tuzar.
Yashil olam, yam-yashil dala,
Xil-xil otlar gala va gala.
Mashrab yolg'iz tikilib ko'kka,
Yolg'izlikdan qiladi o'pka.
Yonboshladi. Asta ko'z yumdi,
Ko'zyoshlari yuzini yuvdi.
Uyqu bosdi juda ham yumshoq,
Tush ko'rdi. Der otasi shu choq:
«Rahimbobo, ko'zni och, o'g'lim,
Nima qilib yuribsan, to'xlim?
Onang bo'ldi juda xokisor...
Uyg'on endi, bor onangga, bor.
Bir ko'rib qol, senga aytaman,
Men onangni olib ketaman».
Ot kishnadi, seskandi Mashrab,
Jadal ketdi yaylovni tashlab.
Qulog'ida otasin so'zi,
Yo yonida borarmi o'zi...
Ilk bor ko'rdi ota jamolin,
Pichirlab der ota savolin:
«Onang bo'ldi juda xokisor,
Uyg'on endi, bor onangga, bor».

KULBA

Asta-sekin tushgan edi qaro shom,
Olur edi shahri Namangan orom.
Uxlar edi baland tog'lar xo`rsinib,
Faqat Norin oqar edi o`ksinib.
Bog'lar bag'ri qaro bo`ldi kechada,
Oyoq tindi. Bir tovush yo`q ko`chada.
Xarob kulba o`kinch chekur mung'ayib,
Ona yig'lar rangi-ro`yi sarg'ayib.

Sharpa keldi, kimdir turar eshikda,
Entikkani seziladi teshikdan.
Kampir ko`zi ko`rmas bo`lib necha yil,
Borligini hijron ezdi muttasil.
Muboragi vafot etgan o`tgan qish,
Bir bedavo, yomon dardga chalinmish.
Zor-intizor ona yuragi bildi,
Nahot, Boborahim bolasi keldi.

ONA

Turay desam, kuch-quvvat yo`q, qoldi so`nggi onim, bolam,
Qayonlarga ketib qolding, jismimdagi qonim, bolam.
Necha yillar yig'ladim xor, izlaringga aylading zor,
G'aming bo`ldi achchiq oshim, hajring bo`ldi nonim, bolam.
Chirog'im yo`q, sochim oqi bu kulbamni yoritarmi,
Umrin o`tdi, ajal yetdi, chiqar bo`ldi jonim, bolam,
Hijron o`ti kuydirsa gar tuzalmaydur jarohati.
Olloh omonatin olsin, sensan armonim, bolam.
Bilolmayman qayda qolgan, otang qabri so`nib bitgan,
Muborakning yoniga qo`y, unda go`ristonim, bolam.
Bolammisan yo begona sado qilgil, Boborahim,
To`n peshingni menga tutgil, kelib o`ltir yonim, bolam.

MASHRAB

Jahon kezib payo-pay devona bo`lib keldim,
Haqni topmay el ichinda afsona bo`lib keldim.
Qayon bordim – jafo ko`rdim, jonima ming balo bo`ldi,
Tuproq o`pib yolborurman, ostona bo`lib keldim.
Yaratgan – Sen, sayratgan – Sen, ruhimga berib qudrat,
Shamchirog'im, men bolangman, parvona bo`lib keldim.
Xudo birla so`zlashay deb, tilmochim ul Mustafo deb,
Ofiq Xo`jam dargohidin hayrona bo`lib keldim.
Taqdir meni xo`p dog'ladi, oyoq-qo`limni bog'ladi,
Aqlu hushim oldi oxir, begona bo`lib keldim.
Ko`p sog'indim, ham sig'indim, och quchog'ingni, onam,
Hasratlaring bosh ustiga, giryona bo`lib keldim.
Keyin Mashrab tutdi jandasin peshin,
Dunyo bovar qilmas ona yig'lashin.
So`ng ohista ona ko`zlarin artidi,
Ojiz ko`z ochilib nurlar taratdi.
Bolasin bag'riga singidi ona,
Ikkisi yig'ladi xo`p qona-qona.
Mashrab peshonasin ona siladi,
Va unga Ollohdan najot tiladi.
Ertalab tong bilan ona uzildi,
Mashrab ko`zlarida yoshlar tizildi.
Olamni titratib bir g'azal kotdi,
G'aflatni yig'latdi, elni uyg'otdi:

“Ne g'urbatlarni chekdim, charxi bebunyod, dastingdan,

Tamomi xonumonim o`ldi chun barbod dastingdan,
Mudom motamda bo`ldim, bo`lmadim dilshod dastingdan,
Hama obod bo`ldi, bo`lmadim obod dastingdan,
Ki men har qayga borsam dod etarmen, dod dastingdan”.

Guras-guras keldi tumonat odam,
Mashrabni ko`rgali qari ham, yosh ham.
Shoirni o`rtaga oldi mullolar,
Boshda oq, bulutday oppoq, sallolar.
Qancha ulamolar, qancha eshonlar,
So`zga zeb berguvchi xo`p ustamonlar.
Mulla Bozor keldi, munkillagan chol.
Uning orqasidan qancha oqsoqol.
– Endi ketkizmaymiz, ushlab qolamiz,
– Gar ketsa, boshiga mushtlar solamiz.
– Shahrimiz tormikan bitta shoirga
– Boshqa yurt zormikan bitta shoirga?!
Mashrab ketolmaydi, g`amga botadi.
Ota-onalari shunda yotadi.

So`nggi so`z Mashrabni ayladi xarob,
Go`yo daryodagi yutog`ich girdob.
U elga qaradi, g`amlarin to`kdi,
So`zamol kishilar boshini bukdi.

MASHRAB

“Yig`lamay naylayki, ro`zimni siyoh qildi falak,
Oshnolarni menga nooshno qildi falak,
Kavkabi baxtimni mundoq beziyo qildi falak,
Oxiri umrimda baxtimni qaro qildi falak,
Podshoh erdim, bukun sohib azo qildi falak.
Yo`l adoshi g`amda qoldim hamsafardin ayrilib,
Misli bulbulman bukun ham bolu pardin ayrilib,
Modaru yoru birodar ham padardin ayrilib,
Qolmasun hech kim meningdek rohbardin ayrilib,
Ko`hna dunyoni menga motamsaro qildi falak».

* * *

Mashrab uxlamadi, dard berdi xalal,
Bomdod namozini o`qib mukammal,
Jandasin yelkaga yana tashladi,
Armoni eng yiroq yo`lga boshladi.
Tug`ilgan shahrini aylandi tanho,
Yerga manglay bosib dedi: Alvido!

MASHRAB

Shamol bo`ldim, bo`ron bo`ldim, bir toshqin daryo,
Endi qaytmas yo`lga chiqdim, gul makonim, alvido.
Otam xoki bunda qoldi, Muboragim ham shunda,
Men seni tuproqqa qo`ydim, onajonim, alvido.
Ko`zimga nur, dilga shuur, qo`limga qalam bergan,
Bu yer gardi jismu borim, kindik qonim, alvido.
Yillar o`tur, qolarmikan bunda bosgan izlarim,

Ajdodlarim, avlodlarim, do`st-yoronim, alvido.
Men zamonlar qatlaridan sizga qilgayman sado,
Parvoz qil deb qanot bergan oshiyonim, alvido.
Olloh meni junun qildi, uning dargohiga ketgum,
Sig`dirsangiz ruhim kelur, Namangonim, alvido.

Qadim Turkistonga kelmish ayni kuz,
Muqaddas shaharning rangi za`faron.
Olmalar g`arq pishgan, hu tog`larda muz,
Kechki g`unchalarning labida armon.
Mashrab o`tib borar Iqon¹²³ dan nari,
Bir qushcha singari talpinadi dil.
Chopgisi keladi yeldan ilgari,
Yuk tashlar jandasi, chorig`i sabil.
Uzoq yo`ldan horib kelayotgan kas,
Mashrabni uchratib maqtandi birpas:
– Bitta taqa topdim. Mashrab der: Hayhot,
Yana uchta topsang, bo`lur bitta ot.
Yo`lovchi jo`nadi qahqahlab mamnun.
Tikkaga kelgandi cho`g`dek yonar kun.
* * *

Kun og`di, soya ham naq belga tushdi,
Tobora tugaydi shoirning sabri.
Gumbaz chaqmog`iga ko`zlari uchdi,
Huv Qul Xoja Ahmad Yassaviy qabri.
Mashrab sag`anaga bosh qo`ydi bir zum,
Tilovat boshladi ravon, mukammal.
Qabrni quchoqlab so`radi – to`zim,
Ming tavba ayladi yig`lab galma-gal.
Dahmaning g`ishtiga yuzini bosib,
Ho`ngir-ho`ngir yig`lar, yupanmas sira.
Uch-to`rtta oqsoqol shoirni to`sib,
Dedi: Hoy odam, sen Xudodan so`ra.
Ne Gunohing borki, kechirar o`zi,
Shak keltirma bunda, ey ojiz banda!
Manglayda yozilgan ul azal ro`zi,
Iymon keltirmakni qilmagil kanda.
Maqbara sahnida odamlar gavjum,
Mashrabni ko`rgali kelmish har yokdan.
Sobir – ul Sig`nog`dan, Sayramdan Qayum.
Toshlon va Sa`dulla qadim Qarnoqdan .
Zo`r hayrat Mashrabni ayladi notinch,
Beayov buzildi bu cheksiz xayol.
Ulug` Yassaviydan so`rab bir o`tinch,
Oqshom g`oyib bo`ldi misoli shamol.

RUBOIY

Umring bor, dunyoni sayohat ayla,

¹²³ Turkistondagi qadimiy qishloq. U yerda ustoz Mirtemir tug`ilgan.

ZIYORAT

To`liqsang mozor bor, ibodat ayla.
Ko`ngling ochilmasa, Turkistonga bor,
Ahmad Yassaviyni ziyorat ayla.

HAJ SARI

Mashrab istar edi eng oliy savob,
Makkai mukarram qilmoqlik tavof.
Bugun Xo`jand keldi yurib darbadar,
Sayhun qirg`og`ida yastangan shahar –
Shoironi ziyorat ayladi chunon,
Uning orqasidan yurdi olomon.
Bir kishi so`ziga Mashrab unadi,
Bitta choyxonaga borib tunadi.

Kechqurun odamga to`ldi choyxona,
Qancha qalandarlar, qancha devona.
Ko`p zukko shoirlar, sozandalar ham,
Mashrab atrofida o`ltirishdi ja`m.
Ular so`yladilar ulus ahvolin,
Gap-so`zlar ko`paydi: oralab shahar
Bir aziz musofir yurmish darbadar.
Bunga kelgan emish avliyo Mashrab,
Mozoru bozorni kelmish qadamlab.
Xaloyiq bir-ketin kela boshladi,
Ko`rganlar sig`inib ko`zin yoshladi.
Daryoning labida chertib ul setor,
G`azal aytur edi, yoshi shashkator:
«Eyki, sen oshiq bo`libsana, mosuvodin kech sano,
Gar so`zim kor aylasa, o`zni o`tqa ur sano».
Xabar topdi hokim Oqbo`tabiy ham,
Mehmonni chorladi yuborib odam.
Mashrab unga dedi: – Bo`lib ovora,
Sen menga keldingmi, aytgil, bechora?
Oqbo`tang kim erur? Qaytib so`zlama,
Unga meni eltay deb sen ko`zlama.
Shul zamon setorni yerga urdi boz,
Kimdir der: Avf eting, avf eting, ustoz!
Oqbo`tabiy demish: Bu ne turmoqlik,
Axir, mendan lozim borib ko`rmoqlik.
Bir semiz qo`y oldi, yana sarupo,
Mashrabga egilib qildi iltijo:
– Pirim, bu sizgadir, ha... bahonaga...
Shoir berdi uni ko`knorxonaga.
Oqbo`ta Mashrabni qildi ko`p e`zoz,

Lek undan eshitdi achchiq bir ovoz:
 Sen xalqingni nechun yalang'och etding,
 O`zing to`qu sho`x, elni och etding?
 Sen-la so`zlashmayman, qilaman hazar,
 Sendan qutulsaydi dunyo, alhazar...
 Oqbo`ta ilondek bo`ldi darg'azab,
 Vujudi titradi, o`t oldi asab.
 – Joning kerak ersa, hozir bundan ket,
 Yo`qol, daydi shoir. Shaharni tark et.
 Mashrab chiqib ketdi Xo`janddan nochor,
 Oldinda, eh, hali eng olis yo`l bor.
 Imom al-Buxoriy mozorin ko`rdi,
 Naqshband joyida zo`r suhbat ko`rdi.
 Har joyda chorasiz xalqni olqadi,
 Kamu kambag'alni sevib yoqladi.
 El dilin ovladi ko`p hazil bilan,
 Lek o`zin qiynadi qayg'u – zil bilan.
 Bir oyki, yo`l bosdi cho`lma-cho`l doim,
 Har joyda u bo`lib qo`lma-qo`l doim.
 Xazar ummoniga yetib keldi u,
 Qalbini kuydirar edi bir tuyg'u.
 Boshimni uray der Ka`batullohga,
 Yetay der yaratgan yolg'iz Oллоhga.
 Kemaga chiqdilar ko`p ayol, erkak,
 Birov kashandayu birovi sergak.
 Yana bir kishining qo`lida tugun,
 Sotmoq uchun mato, oltin bus-butun.
 Kemaning kiftida o`tirgan bir kas,
 To`lqinga termulib olardi nafas.
 – Kimsan sen? Tehronda ko`rmadim senday
 Qalandarni, – dedi o`ylanib jinday.
 – Otim Mashrab, sen-chi qaydan, so`ylab
 ber?
 Meniki Eronan, savdogarman, der.
 Kimdir so`rab qoldi shoirdan bexos,
 Sizga bir savolim bordir, iltimos:
 Nega bu dengizning suvi o`ta sho`r?
 Bunda baliq ko`p-da, o`zing o`ylab ko`r.
 Aynib qolmasin deb tuzlab qo`yilgan,
 Tuz suvda butunlay erib suyulgan.
 Yana qandoq bo`lsin senga bu dengiz,
 Ol, suvdan bir ho`pla, labingni tekkiz.
 Kulgi ko`tarildi kema ichida,
 Dengiz tebranardi to`lqin kuchida.
 Bir shaharda Mashrab kemadan tushdi,
 Dengizga tiqilib, dengizday jo`shdi:
 «Bu tani xokiniyu ruhi ravonni na qilay?
 Bo`lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na
 qilay?
 Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na
 kerak,

Ibrohimdan qolg'on ul eski do`konni na
 qilay?»

* * *

Hind sori otlandi sarson-sargardon,
 So`ng Eron, Pokiston ham Afg'oniston.
 Yillar chopib o`tdi bo`ronlar misol,
 Oy yanglig' to`lishdi ul shoir xayol.
 Oppoq qirov kabi sochlarida oq,
 Umr guzaroni bunchalar uzoq...
 Beldan darmon ketdi, ko`zlaridan nur,
 Joni tosh ekanmi, ko`rmadi huzur.
 Qarilik ezadi, tiriklik dushvor,
 Lek tilda g'azalu qo`lida setor:
 «Jahonni bevafo derlar, qani ganji suri
 Dorob.
 Qani Jamshidu Iskandar, qani Rustam, qani
 Suhrob,
 Qani jumla payg'ambarlar, qani ul sohibi
 mehrob,
 Qani Siddiq, qani Abu Bakr, Umar, Usmon
 duri noyob,
 Qani Haydar, der erdilarki
 Sohibqirondurman».

Torday g'amni yanchur shoir devona,
 Oyog'in ostida qoldi zamona,
 Unga qanot erur ruhlar suyanchi,
 Unga bardosh edi Vatan sog'inchi.
 Mashrab yetib keldi ul qadim Hirot,
 Intiq vujudidan otilib faryod.
 Navoiy qabrida tunadi bir kun,
 Beorom qalbiga tushib bir to`lqin.
 Suyib sayr ayladi «Bog'i Bobur»ni,
 Diydanga surma deb xoki shoirning...
 «Mozori Sharif»ga yo`l oldi keyin,
 Keyin Balxga... buni yozmoqlik qiyin.
 Mashrab kelganidan bo`ldi ko`p shodon,
 Mulki Balx hokimi Mahmud Qatag'on.
 O`yladi, bitarmi sha`nimga doir,
 Farg'ona zamini yaratgan shoir.
 Balx – notinch, notavon, yig'loqi shahar,
 Xalqi mehnat qilib, yegani zahar.
 Kunduzi qullikda ingraydi hayot,
 Qaro tun quchog'i to`la dod-faryod.
 Bir yonda Shibirg'on, qolmishdir g'arib,
 Bir yonda muqaddas Mozori Sharif.
 Ho`narida Amu to`lib to`lg'onur,
 Uning nidosiga quyosh uyg'onur.
 Kishilar fe'lida zamonlar zayli,
 Bu tuproq charchagan zulm tufayli.
 Majruh qubbalarning siniq ohangi,
 Bir tarix o`qiydi gumbazlar rangi.

Yupun bolalarning ko`zida ayanch,
 Boylar imoratin bari marmar, ganj.
 Bunda gadolar ko`p, qalandarlar ko`p,
 Daydigan kimsalar, darbadarlar ko`p.
 Non debon izg`igan musofirlar bor,
 Mol olib sotarlar – muhojirlar bor.
 Guzarlar to`polon, bozorlar tiqin,
 Har kim o`z molini maqtar olmay tin.
 Qayrag`och ostida boshlanur qimor,
 Bir-birin aldaydi, ular-da beor.
 Qo`chqor urishtirish, xo`rozlar jangi,
 Itlar keltirildi yangidan-yangi.
 Olishuv boshlandi. O`rtada pul bor,
 Inson ham sotilur, bunda ko`p qul bor.
 Mashrab boqqa kirdi, bog` biram gavjum,
 Daraxtlar shoxida qushchalar g`ujum.
 Yam-yashil sadaning ostida supa,
 Kichik sahna kabi yerdan sal tepa.
 Shoir unga chiqib o`ltirib oldi,
 Va g`azal boshladi... Setorni chaldi.
 Uni tinglar go`yo butun mavjudot,
 Nola chekar edi bunda odamzot.
 Ko`kda bulutlar ham bir-bir yo`qoldi,
 So`ng quyosh tikkada termulib qoldi.
 Majnuntol silkinmas, yellar bekindi,
 Terak yaproqlari o`yindan tindi.
 Yer tuban yiqilda xilma-xil gullar,
 Bunga uchib keldi ja`mi bulbullar.
 Shu zamon bir bulbul uchib potirlab,
 Setor dastasiga qo`ndi avaylab.
 Qay mardum chopqillab keldi-da shu zum,
 Bulbulni qilay deb o`ziga mahkum.
 Unga qo`l yubordi, ushlay olmadi,
 Bulbulni qafasga tashlay olmadi.
 Bir boy kimsa tutdi taboqda tilla,
 Shoir xalqqa sochdi uni shu palla.
 U dedi: ulusga bermading nega?
 Bu tilla uniki, u bo`lsin ega.
 Shoir bog`dan chiqdi, holati zabun,
 Der: xayriyat, bulbul bo`lmadi tutqun.
 Mashrab kulohini qo`liga oldi,
 Jismida beayov bir kuch qo`zg`oldi.
 Ko`zlari tosh qotdi bitta nuqtada,
 So`ng odim tashladi og`ir bir ruhda.
 Bir mahalla odam qilurlar janjal,
 O`rtada gunohkor novcha, o`jar kal.
 Mashrab sekin borib qatorda turdi,
 Bu ne sirligini birovdan so`rdi.
 Mana bu kofir kal, bilar mahalla,
 Namoz o`qimaydi, boshida salla.
 Bundan ko`chib ketsin, imonsiz, beor,
 Buni deb bo`lmaylik dardga giriftor.

Hey, qanday ketaman men o`zim bo`lsam?
 Mozor ham bo`lmagay bir kuni o`lsam.
 Mashrab dedi: To`g`ri so`zlamogda kal,
 Buni ham anglang-da, o`ylanglar-da sal.
 Bu qolsin, siz keting mahalla bo`lib,
 Hamma qah-qah urdi. Kal turar kulib.
 Shu on kal keltirdi bitta oq eshak,
 Mashrab minib oldi qilay deb ermak.
 Hoy, to`xta, isming ne, aytgil, qalandar?
 Senlarga ne kerak, men bir payg`ambar...
 Zohidlar g`azabga to`ldi shu zamon,
 Uni xudosiz deb quvdi olomon.
 Shoir qochib kirib xon o`rdasiga,
 Turib oldi odamlar o`rtasiga.
 Unga yaqin kelib, taajjub-la qarab
 Mahmudxon angladi, bu o`sha Mashrab.
 Bir eshon so`zldi: Ey ulug` hokim,
 Sizni e`zozlaydi dunyoda har kim.
 Men bir payg`ambar deb bu darvish qochdi,
 Ulug` darvozingiz beruxsat ochdi.
 Mashrab dedi: to`g`ri payg`ambar dedim,
 «Qul»ini aytganicha adabim yedim.
 Ular kaltaklashdi so`zim eshitmay,
 Bunga qochib kirmay men axir netay?
 Mushuk bo`lib qochdim, ortimdan ular
 It bo`lib quvdilar, it ekan bular.
 Mahmudxon yozilib urdi qahqaha,
 – Xafa bo`lmang, shoir, bular shunaqa...
 Hey shoir, tentaklik libosin tashla,
 Yaqin kel, menga bir ash`or bag`ishla!
 – Ey shoh, sen behisob boylik uyibsan,
 O`tkinchi dunyoni muncha suyibsan.
 Sen bugun shohiyu kimxob kiyibsan,
 Kiyarsan yengi yo`q to`nni oqibat.
 Domingga ilinmish ne-ne sumanbar,
 Hiylang ko`p, quyunga, sho`x yelga o`xshar,
 Ochofat nazaring toshni ham teshar, '
 Sen minibsan asov otlar, sarbasar,
 Yog`och otga minib ketgung oqibat.
 Amringga shaylanur eshitar quloq,
 Oyog`ing ostida ko`p shahru qishloq.
 Soyga ham hukm shu: boy sari oqmoq!
 Uyingni yoritar sonsiz sham – chiroq,
 Kirarsan qorong`u go`rga oqibat.
 – Bas qil, hoy betavfiq, ovozing o`chsin,
 Sen aytgan qaro go`r o`zingni quchsin.
 – Xo`p mayli, taxtingni bergil bir zumga,
 Men ham oro beray birpas o`zimga.
 – Mana, chiqqil, shoir, sengadir bu taxt,
 Bir lahza bo`lsa ham sen uchun bu baxt.
 Chiqqil, mayli unga, ha, aziz mehmon,
 Bilaman, senda ham omonatdur jon.

Mashrab taxtga chiqib dadil tufladi,
 Va bavul qilmoqni zo`rg'a epladi.
 Hamma qarab turdi, qo`ydi «o`tirib»,
 Mahmudxon baqirdi itday quturib.
 – Ol taxtingni, ablah, toj-taxting qursin,
 Seni Ollah o`zi bundan supursin.
 Men sendan hech qachon rozi emasmen,
 Sen xalqqa zolimsan, odam demasmen.
 Xon unga kesatdi: Shoiri a`lam,
 Menga kerak endi boshginang shu dam.
 Mana bu osh senga, qilgil tanovul.
 – It ham yemas aslo, zahri harom ul!
 – Bas qil, hey shoir, tilga erk berma!
 Tilni kesmoq mendan, ko`krakni kerma!
 Kimdir xonga dedi: boshiga tuysin,
 Ham o`nga tashlansin, butunlay kuysin.
 Farg'onadan kelgan bitta qalandar
 Xonimiz yuziga tuflasa magar...
 Shoirga berdilar xilma-xil qiynoq,
 U aslo o`lmadi, toqatlari toq.
 Gurzi bilan urdilar boshga,
 Bilmadilar tegdimi toshga.
 Qilich bilan chopdilar tanni,
 Tig`lab bo`lmas ekan Vatanni.
 Ko`ksi tomon xanjar ham otdi,
 Lekin xanjar mayishib ketdi.
 Mo`ljal oldi yurakni kamon,
 Nayza uchdi ko`k aro sarson.
 Sira ziyon yetmadi. Shu choq
 Mashrab kuldi. Dedi xushchaqchaq:
 – Muncha yumshoq ekan bu gurzi?
 Qilichingdan bilmadim sezgi.
 Kamon o`qi kepakdanmidi,
 Xanjar tig'i ipakdanmidi?
 Ovoz keldi: Osmoq! Xa, osmoq kerak!
 Mahmudxon bir nafas tortibon sergak:
 – Yaqin kel, hey Mashrab, beadab jonzot,
 Ajaling qo`limda, bo`lmaysan ozod.
 – Bilaman, kushandam o`zingsan, hey xon,
 Mendan so`ng uch kunda sen berasan jon.
 – Dorga os badbaxtni! Ko`rmayin yuzin,
 Dargohimdan qirib tashlangiz izin.
 O`zi dor tagiga keldi-da Mashrab,
 Sirtmoqni bo`yniga soldi pichirlab,
 Osmon gumburladi, quladi tog`lar,
 Qiy-chuvdan, oh-vohdan bitdi quloqlar.
 Sahro tuproq, sochdi, quyosh uyoldi,
 Uzoqda Turkiston hayhotlab qoldi.
 Mashrab vujudida qudratli tug`yon,
 Ko`ziga ko`rindi onasi ayon.
 Otasi, singlisi bo`ldilar paydo,
 Ularga yodbordi, qildi iltijo:

Onajon, rozilik beringiz, ona,
 Otajon, bu dunyo menga begona.
 Sen, g`arib singilcham, endi birgamiz,
 Nur bo`lib singamiz Turon yerga biz.
 Onasi dod, dedi, olam kar bo`ldi,
 Ota fotihasi oq safar bo`ldi,
 Shu lahza qil chilvir tortildi tarang,
 Shoh Mashrab qiynalib jon berdi arang.
 Achchiq shamol keldi, buzildi havo,
 Zamin toshday qotdi, xo`p qochdi samo.
 Bu yerdan bosh olib ketdi qushlar ham,
 Yulduzlar ko`zida yosh taram-taram.
 Kech bo`ldi, tarqaldi butun xaloyiq,
 Dorda qolib ketdi Mashrab osig`liq.
 Xon yarim tungacha kuymanib behad,
 Tush ko`rdi. Mazmuni ko`p-da beadad:
 Makkadan kelganmish mehmonlari xos,
 Ularga Mahmudxon asta sundi roz:
 Oh, kecha nomaqbul yumushni qildik,
 Bir Mashrab deganni biz dorga ildik.
 G`alat ohang bilan dedi bir mehmon:
 Yo`lda ko`rdik, Mashrab kezib biyobon,
 Oppoq kafan kiyib hajga ketadur.
 U yaqin orada borib yetadur.
 Maxmud cho`chib tushdi. Xudodan qo`rqib,
 Chumchuqday seskanur har nedan hurkib.
 Uchinchi kun edi, ayni bir choshgoh
 Yer qattiq silkindi, shunda banogoh
 Kunpayakun bo`lib shohona ayvon,
 Xarining ostida o`ldi Mahmudxon.
 El aro qolgandir bir rivoyat gap:
 Podshohni ko`mmayin, tongda – ertalab,
 Shoir jasadini olib ketganmish –
 Aziz fuqarolar shahri – Ishkonmish.
 O`tsa ham zamonlar, o`tsa ham yillar,
 Ul qaro qismatni unutmaz ellar.
 Dor esa turibdi bo`y cho`zib hamon,
 Yana qay Mashrabni qilsam deb qurbon.

XOTIMA

Qarshimda oqqina kichik bir tugun,
 Kaftimda quyoshga tutaman butun.
 Oppoq ro`molchamda bir siqim tuproq,
 Unga tikilaman, o`ylayman uzoq.
 Shoh Mashrab pirimniig xoki bor unda,
 Pokiza ruhlarin poki bor unda.
 Unda e`tiqod bor, buyuk ixlos bor,
 Zanglamas oltin bor, toza olmos bor.
 Unda Vatan yashar, bir millat yashar,
 Jayhun, Sayhun unda, she`riyat unda,
 Erk sozin tinglagan bashariyat unda.
 Unda Temur tirik, Bobur barhayot,

Navoiy to abad, Beruniy ozod.
Qul Xoja Ahmadning o`zi bor unda,
Aziz Naqshbandiyning so`zi bor unda.
Imom Al-Buxoriy hikmatlari jam,
Alarning har biri yorug` bir olam...
Qarshimda kichik bir oqqina tugun,

Kaftimda quyoshga tutaman bugun.
O`quvchim, sen uni ko`rganing zamon,
Senga sado qilur bu o`ksik doston.
Sen uni taniysan, bir duo qilg`il,
To`lan Nizomiyning g`ami deb bilgil.

O m i n.

1993-yil, mart – oktyabr. Bo`z.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. To`lan Nizom she`riyatiga xos yetaksi xususiyatlar qaysi?
2. Shoir ijodining novatorligi nimada?
3. Shoirning falsafiy mushohadalari tarix bilan aloqadormi?
4. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoirning qaysi dostonlari asosini tashkil etadi?
5. “Ruhi ravonim” dostonining asosiy mohiyati nimada?
6. Asar kimga bag`ishlangan?
7. Doston qurilishiga ahamiyat bering.
8. Asardagi obrazlar tizimini birma-bir izohlang.



FAXRIYOR (1963)

Faxriyor (Faxriddin Nizomov) 1963-yilda Samarqand (hozirgi Navoiy) viloyati, Xatirchi tumanidagi Sangijumon qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatgan (1988). «Dardning shakli» (1987), «Ayolg'u» (2000), «Geometrik bahor» (2004) she'riy to'plamlari, «Yangilanish an'analari» (1988) publitsistik maqolalar to'plami nashr etilgan. Uning tarjimasida T.Uinter (Abdulkhakim Murod)ning «21-asrda islom: postmodern dunyoda qiblani topish» (2001) diniy-falsafiy kitobi nashr etilgan.

“Shoir Faxriyor butun ijodi davomida she'r ixlosmandlarining tasavvur chegaralarini buzishga harakat qiladi, to'g'rirog'i, ularni shunga undaydi. Umuman, adabiyotga, obrazga, fikrga qarash dastlab bu haqdagi tasavvurni o'zgartirishdan boshlanadi. Biz ko'nikib qolgan she'rlar bir paytlar o'z davrining tasavvurini buzgandi. Aslida, adabiyot yangilanmaydi. Tasavvur, so'zga, insonga, fikrga, go'zallikka bo'lgan tasavvur yangilanadi”. (Nazar Eshonqulning Faxriyorning «Geometrik bahor» kitobi haqida yozgan «Tasavvurga dosh bersang bo'ldi...» maqolasidan).

AYOLG'U

besh juft taxayyul sabog'i va to'rt tanaffusdan iborat

oy
yuzing dog'lariga qarab yig'ladim
uchayotgan ruhimning
temir qanotlariga
tevralar armon
ko'z yoshlarimdan
qanotlari ivib qolgan mutaassib yurak
shakarlari to'kilib ketgan
yantoqning ustida javrab o'ltirar
va yashirar qanotlarini
ichiga
e'tiqod kabi
azonda azon yo'q
xazon bor
muazzin xazon
yaproqlar qapishib qilur ibodat
ular yassaviyning shogirdlaridir
yerga kirmoq istar
bir yilda payg'ambar yoshini yashab
bo'lgan yaproqlar
tuproq bo'lmoq istar
tuproq tangri osmondan tushgan
tuproq ustoz
tuproq vatan

tuproq qo'yindi
men esam
oy
yuzing dog'lariga qarab yig'ladim
•••
oy
yuzing dog'lariga qarab yig'ladim
ko'zgu yo'q
beshik yo'q
sandiqli bor
va tog'larni yutib ketgan
tuproqli bor faqat
sandiqli yasrib ketayotgan
muhammadning
qaroqchilar talagan
xurjuniday bo'm bo'sh
darvoqe
xurjunda yarim tilik oy
bor edi
lekin xurjun sandiqli emas

ikki yo'l bor men uchun
yo keturman tog'larga
uzlatgir bo'lib
qur'on g'origa ko'ngilli mahbus
yo jayhonga oqurman
jurjon esa yo'q

vatan esa yo`q

vatan ham gohida tashlab ketadi
jaloliddin manguberding
tuyoqlaridan
o`t chaqnagan oti
yollariga osilib
uchinchi yo`l
men qolaman
tuproq qolar
va tomonlar qolar huvillab
turkularda kuylangan xunniy tomonlar
qonga botib ketgan janub uchun
ko`k kiygan mashriq
shimol beti qora qarq`ish tekkan rang
mag`rib esa oq
vatan ko`chib ketgan qayg`uli taraf
bu yo`lda qirg`in bor
uzgun bor
ona bug`i yo`q
unda beshikka belangan
men qaydaman
unda yo`l qaydadir
birinchi
ikkinchi
tanmahram yo`llar
yo shohmashrab haramida
yotganmikin
ipaklarga burkanib

tanaffus

shafqat deb atalgan qahr bor bunda
ko`z yosh deb atalgan taqir bor bunda
yurak deb atalgan sag`ir bor bunda
yo`qdan faqat muhabbat yo`qdir
tillolar tush ko`rar kokilingni zar
peshonam tirnaydi taqdiri azal
xunyogar ohida tirilar g`azal
qaylardasan gulim bokiram
bulbulning tilini qamishga boylab
ko`ksimga botirib jonim avaylab
faqat bir satrni yozaman oylab
gulim mening tushlarimga kir
taxayyul sharobi oydayin za`far
dilimning hijrati qayg`uga safar
alam bor gunoh yo`q na hojat g`affor
yo`q gunohga buncha mag`firat
qaro tun qatida ummedim falaj
o`ylarim o`yilar ko`zday na iloj
na men osiydurman na mansur xalloj
o`zim qolib senga sig`indim

•••

oy

yuzing dog`lariga qarab yig`ladim

samo bor
samo` yo`q
zikr yo`q
takbir bor
alloh akbar
alloh akbar
haqqa uchayotgan xabarlar qo`nalg`asi oy
yuragimning mungroqlarini
ingroqlarini
Qabul qilar va haqqa yo`llar
o`zimga takror
vahiy qilib qaytarmoq uchun
men vahiyini tushimda emas
farishtaning qushlar tilida
yurakka solgan
jazavasidan hammas
musiqorning chumdug`idan olmoq istayman
u kuy bo`lsin
sangijumonlik sobir baxshining
do`mbirasidan
bir zamonlar yaralgan kuy
taralgan kuy
men bu kuyni tiriltirmoq istayman
vaqtning cheksiz dashtlarida adashib ketgan
qo`shiqnlarni men she`r qilmoq istayman
sahroyi ohanglar bilan
tokim undan anqib tursin
haqiqatning yovshan islari

•••

bir jangari arvoh kezinar
turkiston uzra
qanotlari shomiy shamshirdan
nigohlari qahraton
muzchil
qasoslar isidan bo`g`riqqan havoni
uning chirqillashi
arqon qilib eshadi
nayning mungiday
bo`yniga sirtmoq topolmayotgan
millat uchun
toptalgan vatanda
talangan vatanda yagona erk bu

sirtmoq halqasidan
ko`rinayotgan
muzchil osmon
qahraton osmon
u sirtmoq emas

arvohning ko`zi
 ko`zlardan to`kilar qadar malomat
 men izlayman suyaklarimni
 samarqandni timirskilab chiqdim
 yo`q
 qizaloq rebeka¹²⁴ning yelkasidagi
 qopga qo`llarimni tiqib
 paypaslayman
 begona suyaklar
 tarso suyaklar
 mening suyaklarim qani oy
 yo biror vatandoshim
 sardorlarining
 suyaklarin orqalab
 jangga ketgan hindular kabi
 savashmoqdami
 mening suyaklarim qani oy
 nechun qobirg`amni o`g`irlab olding
 shayx najmiddin kubroning
 itimisan yo
 yovqur va uchqur
 nechun uchib ketding falakka
 suyaklarimni olib nahotki

mening qobirg`amdan to`ragan
 sulton bo`lolmadim jahongir bo`lib
 arvohning ko`zlari imlaydi meni
 oy bo`lib chaqirar o`zga bir dunyo

YOLG`AM

tanaffus
 sening tushlaringdan panoh istadim
 uzun ilon bo`ldi sog`inch bistarim
 orzular qo`rg`oshin armon muztarib
 gulim nechun begona bo`lding
 devona bo`ldim
 soching daryosida cho`milar aqrab
 mening esa mening qo`llarim qaqrar
 ko`zingda adashgan yo`llarim qaqrar
 ko`zlarimni paymona qilding
 giryon bo`ldim
 boqib boqmaganim zamonalarga
 boshimni urib ming ostonalarga
 men seni topgandim afsonalardan
 nechun qayta afsona bo`lding
 hayrona bo`ldim

¹²⁴ G.G.Markesning “Yolg`izlikning yuz yili” asari qahramoni

•••
 rasul o`rgimchak
 mehmon o`rgimchak
 ko`ylak to`qib beribdi menga
 mendan uyalgan orzularimning
 ipak arqoqlaridan
 yillar uchib chiqmoqligi uchun
 uning yengi yo`q va yoqasi yo`q
 men ushlab hayratlanmakka
 va hattoki harifim bilan
 do`st tutinmoqqa
 yoqa yo`q
 inchunun
 donishmand boyqush yo`q
 makon tutmoqqa
 yoqamning vayrona choldevorlarin
 uzlat yo`linda
 buxoriy kabi
 quloq boyqush
 kambag`al boyqush
 yoqamni so`rayman
 yoqam yo`q mening
 o`rgimchak tushunmas turkiy kalomga
 o`zicha anglaydi ishoralarni
 imoni o`zicha anglagan bo`lar
 go`yo men mukofotsiragandayin
 qizil ilonni
 chambar qilib
 bo`ynimga taqar
 na chora
 ilon sirtmoq emas
 taassuf
 lekin u maxluq
 qaydan ham bilsin
 mening bo`ynimga
 xo`ja ahmad yassaviyning
 vayrona dahmasi
 ko`proq yarashishini
 negaki
 vayrona yoqaga
 sig`averar har kimning boshi
 vayrona hech qachon so`rab o`tirmas
 mening mazhabimni
 sening diningni

•••

tushlarimni qabartirar oy
 tushlarimning qadoqlari
 yuragimga botmoqda
 men qandoq kuylayin

qonlar silqiyotgan yuragim bilan
 men qandoq kuylayin
 yuragimga oy kabi
 botib ketgan qadoqlarni
 ottirmay turib qadoqlar
 otmaydi tong kabi
 qadoqlar otishi kerak bo`lgan osmon
 tashlab yuborilgan quduqqa
 quduq esa
 ko`mib tashlangan
 qo`limga belkurak va cho`kich olib
 men quduqni kovlayman qayta
 va osmonning suyaklarini
 terib oladirman bittalab
 sening ko`zlaringga ko`mmoqlik uchun
 sen qaylardasan
 sitamkash ruhimning egnida
 idrab ketgan
 engilin
 biror marta yamab bermagan
 muhabbat
 men seni qaylardan izlayin
 yuragimning qadoqlariga
 malham qilib
 bosmoqlik uchun
 qadoqlarni ottirmay turib
 ko`mmoq uchun shahid osmon suyaklarini
 men seni qaylardan izlayin
 nafratim
 yo o`zing muhabbatmisan

tanaffus
 suygilim suy gulim suygi lim
 yuraklarim ko`zimdan toshar
 meni yengib bormoqda o`lim
 seni esa qiynaydi yashash

kuymoq bo`ldi mening nasibam
 baxtiyorlik sening qismating
 baxtmi zomin bo`ldi masiham
 baxtimizga baxt musibati

seni izlab tentar xayolim
 ikki jaxon ovarasiman
 senchi yotsan baxtning ayoli

yuraklarim ko`zimdan toshar
 qismat bo`ldi ko`zlar qarosi
 qoshlar apo ayriliq yashar

•••

ohanglar tiladim falakdan
 munojot uchun

nahanglar tiladim ummondan
 istig`for uchun
 ibodat uchun
 ijobati uchun ummedlarimning
 otim bo`ldi faxriyor qolib
zunnun

nahang yo`q
 ummon yo`q
 ohang yo`q

sahro bor
 va unda men borman
 yo`qolgan beshikka belangan men
 beshik n u n
 sulaymonbaliqning uzuk ko`ziday
 mitti og`ziga
 sig`moqlik uchun
 daryolari quriyotgan
 osmonlari chiriyotgan
 sahroda turib
 egamdan mo`jiz a so`rayotgan men
 ketgim kelar mening bu yerdan
 karvonlarga ergashib
 karvon esa ketib bo`lgan
 kechikdim
 mingani ulov yo`q
 tutgani yalov
 shamol qamg`oq misol beshikni
 bir yumalatib
 aylantirib qo`yar qayiqqa
 qayiq n u n
 qo`llarimga qamchi o`rniga
 yugan o`rniga
 uzun eshkak tutib olganman
 kimsasiz sahroda barخانlar osha
 ketib bo`lgan karvon ortidan
 qayiqqa o`tirib ergashaman jim
 suzayotgan qayiq ohista
 qumga cho`kib borar lekin men
 qo`rqmayman
 qaytanga
 eshkakni qattiqroq esha boshlayman
 baliq izlab borayotgan men
 xoliq izlab borayotgan men

barخانlar qayiqni chayqaydi tinsiz
 cho`kib borayotgan qayiqni
 yelkamdagi so`fiylarning chakmonidan
 tikib olgan safarxaltamda
 karvonlar yo`lidan
 topib olganim
 boznab ketgan yarimta shak bor
 muhammadning xurjunidan tushib qolgan

yarimta oy shu emasmikin
va unda
kimningdir tishlar izi bor
tishlaringiz butmi
hazrat bistomiy
agarki to`kilib ketgan bo`lsa
xafa bo`lmaysiz
men ularning tushlarimga kirishiga
izn bermayman
boznab ketgan shakni og`zimga
olishim bilan
yuragimga botmagan
so`roqlarni qusa boshlayman
nahotki baliq bo`lsa
sahro degani
nahotki qayiq deganimiz
biz n u n ga taqqoslab yurgan nimarsa
nahangning og`zi bo`lsa
nahotki baliq bo`lsa
sahro degani
suv qani unda
unda ummon qani
ehtimol
ummon baliqning ostida qolib ketgandir
yo balkim kurk bo`lgan nahang
ummonni tagiga bosib yotgandir
nabiy ochib chiqmoqlik uchun
lekin hozircha
payg`ambarlik kursilari band

•••

bir kecha tush
sherning tirnog`ini bo`yniga
tumor qilib taqqan
shohning xotini
tumso malikaga
inchi iqlimdan
zangori olmalar keltirib berdi
olmani yedi u rusumga ko`ra
sumalakday eriy boshladi
tosh siynalari
yuraklari orziqib ketdi
diydasiga yosh keldi uning
yoshlarini tushga ichirdi
chanqog`ini bosib oldi
olis yo`ldan halloslab kelgan tush
malika ko`ngliga munavvar g`amlar
baxtiyorlik qutqusin soldi
oy kuni yetib chaqirdilar
momochi oyni
malikaning ko`zi yoridi

oy ko`rsaki malika shahzoda o`rniga
bo`ri tug`ibdi
ko`mko`k bo`rivachcha
zangor valiahd
isnod yum yum yig`latgan
malikaning yostig`ini quritdilar
chiqarib oftobro`yaga
jabborga jon kerak bo`rivachchamas
qahhorga qon kerak
orzular emas
sandiqlarni tobut qildilar
shahzoda oqmagan sandiqlar
orzularin
chumchuq zamon terib ketgan shoh
qafasdan uchirdi tole qushini
taxtga voris izlab uchib ketdi qush
viloyatlarga
yetim bo`rivachchani
oy oldi o`z qaramog`iga
ko`rshapalaklar emib ketgan
siynasini tutdi uning og`ziga
sut kelmadi
yulduzlarni terib keldi
yemadi bo`rivachcha
oy nima qilsa ekan
shoh uchirgan tole qushini
tutib yedirsami yo
uliyotgan bo`rivachchaga
tutib beray desa ko`rshapalakni
tutingan bolasi
oy bo`rini yutib yubordi
oy
yuzing dog`lariga qarab yig`ladim

tanaffus
yurak bag`rim xundir mani
kechib kechib biy kechani
tushlar kelar qon ichgani
gala gala

ko`zlarimga yo`llar to`lar
ro`mol silkkan qo`llar to`lar
qonab yotgan gullar to`lar
hamon hamon

oylar kechar badr yo`qdir
qiyr tunlar qadr yo`qdir
yuzlarimda sabr yo`qdir
somon somon
endi bundan jo`nar bo`ldim
peshonamga ko`nar bo`ldim
muhabbatdan tinar bo`ldim

yomon yomon

senga qirmas tog' tiladim
ujmohlardan bog' tiladim
oy yuzidan dog' tiladim
omon omon
omon omon

•••

oylar cho`kar falakdan jimir jimir jimirlab
tog'lar cho`kar falakka g'imir g'imir
g'imirlab
toshlar qilar kalaka qiqir qiqir qiqirlab
mening esa bo`g'zimda
uluv bordir bir ulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

tushlarimning zulfunin buzib ketdi falaklar
uvlarimning mavjida suzib ketdi falaklar
armon qolib umidni uzib ketdi falaklar
mening esa bo`g'zimda
uluv qoldi bir ulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

ko`ktangrining bog'ida gullar unar
noparmon
endi men bu gullarni izlab qaydan toparman
singan umidlarimning darvozasin yoparman
gulni izlab boradir
uluvlarim ul ulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim xey tulum

osmon cho`kib boradir qarolanar qarog'im
ko`ktangrining bog'ida ungan gulning
yaprog'in
qaysi shamol uchirdi tarixlardan so`rog'im
tarixlarning bo`ynida
qolib ketgaymi qo`lim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

gul yaprog'i ostida qolgan yer suv qaydasan
bitta turkni ming ko`yga solgan yer suv
qaydasan
ko`piklardan ibtido olgan yer suv qaydasan
sahrolarda adashdi
yer suvga borar yo`lim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

qobirg'alar qabarar suyaklarim qadoqdir
qaboqlarim o`q tugab bo`shab qolgan
sadoqdir
kuyib kuyib kul bo`lgan nafratlarim adoqdir
chuchmomalar ko`k kiygan
namozshomgul gul gulim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

tuluk bordir ostida cho`kayotgan osmonning
zuluk bordir ostida cho`kayotgan osmonning
qulluq bordir ostida cho`kayotgan
osmonning
ko`ktangrining qoshiga
yetolmay qolgan yo`lim
hey tulugim hey tulum
hey tulugim hey tulum

•••

oy
yuzing dog'lariga qarab yig'ladim

bu yig'i
vujudimga sig'magan sig'im
yig'imni yig'aman
sig'im siqtalar
yig'imni yig'layman
og'riq nuqtalar
tosh emas
sog'inchga do`nar

bu sog'inch nafratdir
qo`llardagi kishani bilan
kulayotgan qulga nisbatan

bu sog'inch nafratdir
ertakdan chiqib
yurtni sotayotgan qulga nisbatan

nafratni kuylashga bir soz axtarib
telbarayman turkiston ichra

arvoh uzra
men ichra
sozlar shevasida muhabbat madhi
kishanlar jarangi baxtni kuylaydi
men esam nafratni kuyga solaman
izlab topolmaganim
ayolg'u olib chalolmaganim
chanqovuz cholib
chanqovuzning bo`g'zidan

kuylar qatalab chiqar
 biyuv biyuv biyuv biyuv
 biyuv biyuv biyuv biyuv
 ko`k bo`rilar jo`r bo`lar
 ayolg`uning sasiga
 kuylarning yeng ichida
 xanjar yovga qasida
 oyga qarab uvlagan
 oy bolasi bo`rining
 ko`ziga oybaliqlar
 sirtmoq bo`lib ko`rinar
 sirtmoq esa oy bo`lar
 bo`rilarning onasi
 oy
 yuzing dog`lariga qarab yig`ladim

o`qilishi shart bo`lmagan ilovalar



...
 oy
 arshi a`loning
 faromush farishtalar
 yopmay ketgan
 tuynugi

oy
 yuzing dog`lariga qarab yig`ladim

kutayotgan farzanding menmi
 erta bir kun tug`ilsam
 otimni ne qo`yursan
 mashrab debmi yo xorazmshohday
 o t s i z bo`lurmanmi men

...
 dehqonning xotini
 homilador oy
 o`roq tug`adi
 sukunat esa
 ko`zi yoriyotgan
 oy qichqirig`i

...
 oy
 tirnoq
 ayol
 zorlik

...
 qarsak shohning mulozimi
 saroyda yashar

...
 oy po`stlari archilib
 zanglab qolgan zangori olma

...
 tun kimning baxtiki bunchalar qaro

...
 erk dunyodagi eng jafokash so`z



...
 Oy
 bolta

...
 yurak meni kechirar boshdan

men
 oy nurida turgan ruhimning
 yerga tushgan ko`lankasiman

...
 tong o`rniga qayg`ular otar
 kimni

...
 kelajakni yashab bo`ldim men

...
 ruhim sochlaringning farishtasidir
 seni qarg`amadim

...
 sen maqolning yugurdagisan

...
 nega eri xiyonat qilgan
 bu ayol
 uzuk halqasidan nari tomonga
 o`tib ketmaydi
 va u tomondan
 barmog`ini tiqib qo`ymaydi
 qaytib o`sha maraz erini
 ko`rmaslik uchun
 chunki uning bolalari bor
 uzuk halqasiga
 sig`maydigan bolalari

nega u uzukdan bunchalar qo`rqar
 bo`g`zidan barmog`in tundada olmas

axir bo`g`zi bo`lgan bilan
 uning tili yo`q
 baribir

aytolmas eriga
sevmasligini

•••

oyuzuk

•••

narsalar
masalan uzuk
o`zining mohiyatini

so`rab o`tirmaydi bizdan hech qachon

•••

sochimni so`zlarning changiga belab

•••

mening to`rtta xotinim bordir
to`rtovining oti ham qibla

•••

menga do`st kerakmas dushmandan boshqa
muhabbat kerakmas nafratdan boshqa

•••

ajin tusha boshlar ko`zgu yuziga

Toshkent – Sangijumon – Toshkent, 1990-1991

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Faxriyor she'riyati qaysi xususiyatlari bilan kitobxon qalbida mangu muhrlandi?
2. U qaysi jahon badiiy an'analarining davomchisi hisoblanadi?
3. Shoirning falsafiy mushohadalari ildizi nimalardan oziqlangan?
4. U shoir sifatida o'zbek adabiyotiga qanday ulush qo'shgan?
5. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat Faxriyorning qaysi dostonlari asosini tashkil etadi?
6. "Ayolg'u" dostonining asosiy mohiyati nimada?
7. Uning kompozitsiyasiga ahamiyat bering.
8. Asarda qo'llangan epigraf mohiyatida qanday tushunchalar yotadi?
9. Asardagi obrazlar tizimini birma-bir izohlang.



SALIM ASHUR (1964)

Salim Ashur 1964-yil 16-dekabrda Tojikiston Respublikasining Qo`rg`ontepa viloyati Qo`rg`ontepa tumanida dehqon oilasida tug`ildi. Salim Ashurning ota-onasi Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumaniga ko`chib o`tadi va Salimning bolalik hamda o`smirlik yillari Qiziriq cho`llarida kechadi.

Shoirning birinchi she`ri 1979-yili «Gulxan» jurnalida chop etilgan. Salim 1990-1994-yillari «Saodat» jurnalida, 1994-1996-yillari esa «O`zbekiston ovozi» gazetasida ishlaydi.

Hozir u «Turkiston» gazetasida bosh muharrir bo`lib ishlamoqda. 1994-yili shoirning «Yashil giyoh» va «Atirgul» kabi she`riy kitoblari nashr etiladi. Shuningdek, «Atalgan kunlar» (2004), «Sensiz» (2005), «Darz» (2005) to`plamlari nashr etildi.

ATIRGUL

1
Faqat...
Faqat unutib yubordim

Surxondaryoni.
Meni aldading-a Olma Daraxti,
Sizdan avval meni avradi bir qiz.
Biror bo`g`inimni ko`rmadim baxtli,
Oppoq suyagimda qilichlardan iz.
Kuz edi, chanoqday ochildi og`zim.
Bo`g`zimdan men kesib tashladim:
«Sevaman!»
Toshdan ungan gulda qoldi ozig`im,
Bir majruh yurakka ega man.
Bobojonim, Olma Daraxt,
Menga bergil bir dirham.
Susambilning bozoridan
Sotib olay xotiram.
Farishtaning bo`yniga
Hilol taqib qo`yaman.
Sevishimga yo ishonsin,
Yo o`zimni so`yaman...
Faqat...
Faqat unutib yubordim Surxondaryoni.
Oyni to`sib qo`yding, Olma Daraxtim,
Bag`rim angoridan ko`chdi dalalar.
Endi og`zimda ham og`riydi – tani
Paxtaday oq, toshday qattiq bolalar.

Tizzamning ko`zlari chuchmoma ko`rdi,
Boshida osmondan paranjisi bor.
Bug`doyzorni o`roq – qulog`im o`rdi,

Chanqadim... Bulutday ketdi ixtiyor.
Meni shahar olib kelgan arava,
G`ildiraging sinsin edi yo`llarda.
Zambariqday chirib ketsam jazillab,
Chumolilar yesin edi cho`llarda.
Itlar qopmas edi qalbimni,
Chopmasdim dilog`riq, shikasta.
Atirgul... Atirgul... Atirgul...
Farishta, qiz emas, farishta!..
Shoxlaring sindi-ku, Olma Daraxtim,
Kaftlaringga elanib to`kilsam agar,
Hovuching to`ladi shig`iridoq qumga,
Uchajaksan Daraxt – bog`liq kabutar.
Qishloqni xushxabar misoli keltir,
Dashtlar ruhin tomiz nafaslarimga.
Zahar ichirayin, igna yuttiray,
G`ozlarday tarangan havaslarimga.
Atirgul chayqaladi,
Osmonlar loyqalandi.
Tovonimda tikon emas,
Atirgul lo`qillaydi.
Yantoqlarning gulida
Ochilar kaltakesak.

Senga kerak bo`lmasa,
 Atir, dilni shart kesay!..
 Boshingga salladay o`rading, Daraxt,
 Surxondaryoni.
 Baliqlar barglarga evrildi,
 Non kabi sindirdim Dunyoni.
 Va men
 Chigitday ko`kardim qayoqqa tushsam.
 Oqkush, yig`laysanmi, mabodo,
 Meduza – yulduzday yonsamu uchsam?!
 Kesaklar gullaydi soyangda,
 Toshlar suv ichadi buloqdan.
 Sening yo`llaringni ko`raman,
 Sindirib tashlangan turoqda.
 Dil kuyar, dil suyar, dil kuyar,
 Toshkanu Yerevan, Parijda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Arabiy xurmoday o`sar Yevrupo,
 Ko`ksingga sharqona kunlar solmadim.
 Men Surxondaryodan chiqib ketdim, ammo
 Sening ham ko`nglingga kira olmadim...

2

Olma Daraxt, mungli hofizim,
 Ming bir tomirimdan ko`kartan burg`u.
 Xalqimni payqamay qoldi hofizam,
 Yuragim – zaminga sanchilgan urg`u.
 Sochlaringga qafaslangan ajdarlar
 Kiftlaringga qo`ngan qushni aldadi.
 Unuta boshladim ona-xalqimni
 Va birdan seskandim yaldoda...
 Aslida uyimni unutdim bir oz,
 Otamni, onamni, seni ham, singlim.
 Men o`zga bir uyning maftuni bo`ldim
 Va o`zga bir xalqning; adashdi ko`nglum.
 Uchdimmi aldoqchi husnga qulday,
 Kirmoqchi bo`ldimmi kibor doiraga?
 Ammo, Olma Daraxt, bitta ildizing
 O`zbekistonda, biri Qohirada.
 Kesakka aylangan gulga o`xshagan,
 Yo gulga evrilgan kesakday opa,
 Tirnog`ing ostida chanoq tishlarining sinig`i.
 Chirigan olmaday toptalding...
 Teatrudan sarxush chiqaman bu dam,
 Hamma bir-biridan madaniyatli.
 Mashinalar delfinlarday odamlarni qirg`oqqa
 olib uchar
 Shu yerda ko`rdim men aristokratlarni.
 Opa, xalq o`zingsan, bular xalq emas,
 Bular karetada oqbilaklardir.
 Oppoq ro`yjalarda uyqularida
 Qishloqni danakday chaqmoq tilaklaridir.

Jodida to`g`rading uzun sochingni,
 Arralab tashlading nomusing.
 Opajonim – xalqim,
 Oroiday quriyotgan ko`zlaringga
 Qovurg`amning iliklarini qustim.
 Qovurg`am sindi chirt-chirt,
 Chillik qilib o`ynayman.
 Atirgul, ko`ksingni ber,
 Ko`kragimga qo`yay man.
 Qorlar yog`di yo`lingga,
 Gullar bilan supurdim,
 Yuragimning qonini
 Lablaringga tupurdim.
 Yunusobod uzoq, Taxtapul qattiq.
 Men ojizman: dod-dod.
 Sevmaysan, nima qilay,
 Kel, yaxshisi, ot-ot.
 Tishlaringdan o`q yasa,
 Xollaringdan tosh-tosh.
 Qoshingning bir uchiga
 Kiprik kabi os-os.
 Kunni yutib kun o`tdi,
 Men ham seni yutaman.
 Yuragimning o`rnini
 Silab-silab o`taman.
 Koshki tikan bo`lsam,
 Barmog`ingga suqila olsam.
 Sug`ira bilmasang ninalar bila,
 Men sening taningda abadiy qolsam.
 Sening vujudingda ko`z bo`lib ochilsam,
 Sening badaningda qoshday ko`karsam.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Yig`lay olasanmi agar o`lolsam?
 Tumorday men seni bo`ynimga osib,
 Yurakday jismimda olib yursaydim.
 Ammo men... Atirgul... Atirgul...
 Kichraydim... Atirgul... Kichraydim...
 Barmog`ingga qora uzuk taqmagin,
 Bo`ynimga mohitobonni taqaman.
 Yulduzlarday uzoq-uzoq boqmagin,
 Yulduzlarday yonib-yonib boqaman:
 Har bitta Vatanning tog`i bor, Atir,
 Har bitta Vatanning daryolari bor.
 Daryolariga to`lib-to`lib oqquvchi
 Xalqi bor, eli bor, dunyolari bor.
 Daryo, xalqlarni siz olib oqsangiz
 Kelajak dengizi tomonga har vaqt,
 Ayting, qayoqqacha bora oladi
 Daryosi qurigan Vatanda bir xalq?
 Endi paxtalar ham oq bo`lmaydimi,
 Endi paxtalar ham qonlar rangida?!
 Endi go`daklar ham jim o`lmaydilar,

Endi go`daklar ham haqning jangida...
Tokka ilingan chakkaxaltaday
Chivin bosib eski hovlida qolmadim.
Men Surxondaryodan chiqib ketdim, ammo
Sening ham qalbingga kira olmadim!

3

Men seni sog`inib yig`lasam,
Ko`zimdan yosh emas, qon oqdi.
Sen ketding osmon qanotlarida
Qarog`imga cho`kib oftob yondi...
Bahor oqar edi, kuz oqar edi,
Qishloq chetidagi ariqdan.
Xatlar oqizardim gullarga o`rab
Zovurda topilgan qo`shiqdan.
Suv olgani chiqqan qiz,
Chelagingda baliq bor.
Maktub o`qiyman desang,
Baliqning qornini yor.
Ko`zida bir halqa bor,
Oyqulog`ida arra.
Uyingni qayiq kabi
Teshib o`tar, Oysara.
O`tdi yillar olti marta aylanib,
Yulduz kattarmadi, oy kichraymadi.
Uyingning oldidan qo`y hayday desam,
Tezroq kech kirmaydi... hech kech kirmaydi.
Eski imoratning tomiga chiqib,
Uyingga bo`y cho`zib qarayman.
Yo`q dema, Oysara, yo`q dema,
Senga-ku erlikka yarayman.
Faqat...
Faqat unutib yubordim Surxondaryoni.
Qamishdan nay yasab, tilimdan bulbul,
Baland gujumlarda, tepaliklarda
Oyoq-qo`li chopilgan ayiqday yig`ladim,
Beparvosan dars olib kapalaklardan.
Qishning oxirimi, bahorning boshi,
Sochingni to`zg`itib tarading.
Hovlingda tollarning shoxi qayrilgan,
Pilla qurti kabi oppoq qarading.
Sochingni qorday oq qatiqqa yuvding,
Ichgilarim keldi soching suvini.
Ichiga qaytarilgan yoqangdan
Ko`rdim tomog`ingning tubini.
Kindigimdan ko`kardi
Filquloq kungaboqar.
Yalpizlarning bargida
Singan kiprigim oqar.
Agar yaxshi ko`rmasang,
Toshlar otib olay o`ch:
Sevilmaganim uchun,
Hech sevmaganing uchun.

Alam qildi qilcha suymasing,
Achchiqdan eshak tishlagan yantoqni yedim.
«Xudo, o`zing kechir»,
Deya shu oqshom,
Simtorga yoyilgan
Atlas ko`ylagingni o`g`irlab ketdim.
O, uni qalbimga kiyib yashadim,
Tunlarda quchoqlab uxladim.
Men islab to`ymadim, o`pib to`ymadim,
To`ymadim... to`ymadim... ko`ylaklaringni.
Qizlarning ko`ylagida
Siynabandi bo`ladi.
Lablaringni tekizsang,
Ming yillik dard o`ladi.
Kungaboqar ko`p bo`lsa,
Oy, yulduz keragi yo`q.
Tishlaring orasida
Chaqib otajaksan o`q...
Opam ko`rpalarni yig`ishtirarkan,
Ko`ylagingni topdi yostiq ostidan.
Mushuklar bir yomon miyovladilar,
Qo`ng`izlar ajraldi munis do`stidan.
Xazzon-yafroqlardan o`choq yasadim,
She`rlarim yozilgan daftardan o`tin...
Ko`ylaging kulini ko`zimga surtdim,
Ko`ylaging kulini yedim bus-butun.
Faqat...
Faqat unutib yubordim Surxondaryoni.
Ariqning bo`yida to`plandik – sinf,
Juda yaqin edi ajralishmoq dam.
«Xayrlashmoqchiydim,– dedim,– ketaman».
Sen esa... men bilan... so`zlashmading ham!
Men esa... ortingdan tole istadim,
Baxt tilash hamisha ojizlik ishi!
Qo`lingdan bir yigit yetaklab ketdi
Qip-qizil tomlarning oq-oydin qishi.
Men hali sevardim o`z qishlog`imni,
Hali sevar edim Surxonni yurt deb.
Men esa... butunlay ketdim, gar qaytsam,
Ajarho... Ajarho, xo`p, meni yut, deb.
Sevgingni tashlasang ham
Yurtingni tashlamagin.
Ko`p qizni unutsang ham
Yurtingni unutmagin.
Seni hech tashlolmayman,
Unutolmayman seni.
Olisdagi qo`shiqday
Hech kutolmayman seni.
Faqat...
Faqat unutib yubordim Surxondaryoni.
Chaqmoqlar sinadi gugurt cho`piday,
Osmon g`ijimlanar ro`molcha misol.

Ko`kaldosh, bobojon, Olma Daraxtim,
 Olsidagi yurtga sog`inchdan timsol.
 U sening oldingdan o`tdi har kun
 Avtobuslarda.
 Men kecha u bilan yonma-yon ketdim...
 Ketdim afsuslarda... afsuslarda.
 Hilol – bu dunyoga mening so`rog`im,
 Unutilib ketay – dilim shikasta.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Osmonimga oftob bo`lib kirmading,
 Men qattiq sevishdan tolmadim.
 Men Surxondaryodan chiqib ketdim, ammo
 Sening ham ko`nglungga kira olmadim...

4

Oqshom darvozasi yopilgan,
 Zanglagan tarnovdan tong tomar: chak-chak.
 Nahorda derazalar ochilgan,
 Ezgu farishtalar kelishi kerak.
 Sen malaksan, parisian,
 Laylo yigirgan rishta.
 Atirgul., Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Parilar, malaklar labimga qo`nar,
 Ularning ta`mini sezar yana jon.
 Hatto shaytonlar ham yo`qlab qo`yadi,
 Faqat yo`qlamaysan o`zing, Atirjon.
 Ilonlar ismimni yozadi qumga,
 Qurbaqa meni deb pufak shishirar.
 Barchaga kerakman qaynoq qon kabi,
 Senga kerakmasman, Atir, bir toshcha.
 Sadoqatli iting bo`lay,
 Boshingda burguting bo`lay,
 Og`ushimda dur bo`lsang,
 Quhog`ingda yigiting bo`lay.
 Men hamma eshikni ochaman katta,
 Hamma derazani ochaman.
 Dunyoda ne bo`lsa keladi, ketar,
 Faqat sen kelmaysan, ketmaysan, Atir...
 Hali sening shakling boshqacha paytlar,
 Qulog`imga aytdilar nomingda azon.
 Men ilk marta ko`rganimda: biz
 Ona Baliq qornida yotgandik yonma-yon.
 Yonma-yon ketamiz avtobuslarda,
 Baliqning qornida yotgan singari.
 Ammo men yoningga bora olmayman,
 Borsam oyog`im sinadi.
 Tunlari uxlamay xatlar yozaman,
 O`q tekkan bo`riday bo`lib ovora.
 Uxlamay kamalak ko`prik ustida
 O`n qavat gulxanlar yoqar minora.
 Tonglar qorong`usi – siyohrang nomus.

Uchinchi qavatning derazasida
 Xira nur.
 Shoxdagi behiga qaragan kabi
 Olmarang derazaga termulaman,
 Agar ko`rib qolsang, mayli ur.
 Ammo sen hech ko`rmaysan,
 Ahvolimni so`rmaysan.
 Yoki meni o`ziga
 Qamab qo`ygan to`rmisan?
 Samalo`tez uchadi,
 Poyezd gurra ko`chadi.
 Suvlar oqaversalar
 Alamlarim o`chadi.
 Sog`inch kabi ochdim eshiging,
 Singling... singling meni qarg`adi.
 Yuragimning qonin oqizib,
 Qayroqday yuzingga qayrading.
 Yuragim quyoshmas, tosh emas,
 Kundan-kun kichrayib boradir.
 «Sevaman» deb shivirlasang ham
 Yorilar, jahonni yoradir...
 Ko`nglung sening tosh ekan,
 Ko`zimdagi yosh ekan.
 Ahding sening qattig`u
 Mening shahdim bo`sh ekan.
 Simlar qoqishimni taqiqlab qo`yding,
 Xatlar yozishimni man etding mutloq.
 Men esa it kabi atrofingdaman,
 Yaqin borolmayman, ketolmay uzoq.
 Yo`llarda bekatlar ko`p,
 Odamlar turar to`p-to`p.
 Hamma joydan izlayman,
 Ammo sen yo`q, izing yo`q. Faqat...
 Faqat unutib yubordim Surxondaryoni.
 Onasiga o`xshaydi. – Qari.
 Otasiga o`xshaydi. – Ishda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Ko`zlari ohuniki,
 Lablari – ikki to`lqin.
 Shu qiz nasib bo`lmasa
 Jon nimta-nimta o`lsin!
 Barmoqlari uzun-ey,
 Iyagida xoli bor.
 Peshonasida xoli –
 Qatlim muhri kabi tor...
 Hatto suvratingga ravo ko`rmading,
 Men esa o`g`irlab ketdim qahrdan.
 Termulib turaman toqshomgacha,
 Termulib to`ymayman sahardan.
 Rasmingni ishladim kattakon
 Quyoshga o`xshatib temirdan.

Mening ham ahdlarim oltindan qattiq,
 Mening ham suyagim sabrdan.
 Yigirma ikkiga toʻlgan kuningda
 Sovgʻa ayladim.
 Atrofigda quyosh atrofidagi yerday
 Aylandim. Aylandim. Aylandim.
 Eshitdim, suvratni olgan emishsan,
 Havas qilgan emish dugonalarining:
 «Bizni ham bir yigit shunchalik sevsa,
 Oʻlsa... va tirilsa... hijronimizdan».
 Sevgan emas hech kim menchalik vayron,
 Hech kim sevolmagan menday bir koʻrishda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Suyaklarim oʻrnida pichoqlar oʻsar,
 Men qattiq sevishdan tolmadim.
 Men Surxondaryodan chiqib ketdim, ammo
 Sening ham qalbingga kira olmadim...

5

Qovogʻidan qormas, paxta yoqqan kuz,
 Oyogʻimda kirza, paytavasi hoʻl.
 Koʻnglum bir shum xabar sezgandi,
 Bir oshnam men sari solganida yoʻl.
 Salim... – deb jim qoldi.
 Qalbim titradi,
 U katta koʻchani keldi yoqalab.
 Ming bitta tomirim uzildi,
 Keldi bir shum xabar orqalab.
 Salim... – deb jim qoldi,
 Koʻkrak qafasdan
 Yuragim – qush uchib qutuldi.
 Bir angishvonada erkli bu yurak
 Osmon turmasiga tutildi.
 Salim... –deb jim qoldi.
 Oyogʻim yogʻochday – toldim-ey.
 Oramizdan gap-soʻz qochgan edi-da,
 Atirdan xavotir oldim-ey.
 Dunyo yonib xor boʻlsin,
 Koʻk lochinga tor boʻlsin.
 Ming yil urush tursa ham,
 Zilzilalar qoʻpsa ham,
 Faqat Atir bor boʻlsin!
 Qirgʻoqlarning muskuli –
 Koʻpriklar tebranishda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Atirdan xavotir oldim-ey:
 – Nima gap? – Tinchlik.
 – Nimadir boʻldimi Atirga?
 – Yoʻq, yoʻq... – kuldi. Soʻng jimlik.
 Aniq edi nimadir roʻy bergani:
 – Atirga nimadir boʻldimi?

U majruh jilmayib kiftimga qoʻl tashladi.
 Men esa... oʻlmadim...
 Men esa... oʻldim.
 – Yoʻq, – dedi, – bunchalik hayajonlanma,
 Atir paxta terib yuribdi.
 Feruza aytdiki, kecha undan
 Oʻzi kelib asta seni soʻrabdi.
 Oh, dedim, gʻamimning xarsangtoshlari
 Derazalarini sindirdi osmonning.
 Toʻpigʻimga qoʻlimni qoʻydim:
 – Atir sogʻ-salomat boʻlsa...
 Suv bosmaydimi?..
 Ortiq tutolmadi oʻzini doʻstim,
 Meni quchoqladi:
 – Otang oʻlibdi!..
 Men esa sevinib ketdim juda ham,
 Atir, Atir, sening tirikligingdan!
 Otamni koʻmgani kechikdik, paxta,
 Uzum qoʻngʻiroqlar chaladi qishda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Sogʻindim. Sogʻindim. Sogʻindim.
 Suyagim novvotday eriydi.
 Qirgʻoqqa sakragan baliqday,
 Tillarim quriydi, quriydi.
 Onamning holidan xabar olmasam,
 Atirni oʻylasam tunu kun,
 Shu qiz menga eng aziz boʻlsa,
 Oʻzing kechir, ota, hammasi uchun.
 Qabringga bosh urib keldim-ku,
 Koʻksimga tosh urib keldim-ku.
 Ming bor seni koʻrdim ter bosgan tushda...
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!

6

O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Yashil tomirimdan koʻkargan tuygʻu.
 Sen Ona Bugʻuning shoxisan,
 Shoxingga lab bosib chalaman burgʻu.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Kichik hayotimda eng katta xatom.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim.
 Beqadr oʻlish uchun koʻkargan otam.
 O, Olma Daraxtim, qoʻli ketmonda,
 Beli gʻoʻzalarda qartaygan Ona.
 Na doʻstlar va na qiz sevadi,
 Meni sevguvchi bor boʻlsa, oʻzingsan yana.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Dunyoda hech kimga kerak boʻlmasam,
 Oʻzing tuproq tashla qilsam xudkushlik.
 Tangriday kechirgin agar oʻlmasam.
 O, Olma Daraxtim, rahming kelsin-ey,

Nayza bo`l, chuqurroq bosay ko`ksimni.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Dor bo`l, tomog`imdan osay o`zimni.
 Men nega yig`layman? Nega yig`layman?
 Qayga to`kay ko`ksimga sig`magan dardni?
 Atirgul haydadi, ket dedi,
 Nahot bir pul qildim o`zim qadrimni?
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 O`z o`rnin topolmay ko`p bo`g`ilganlar.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Sevilish baxtidan kech tug`ilganlar!
 Mening qo`llarim yo`q, chopib tashlangan,
 Mening oyog`im yo`q – bo`ri yegan shom.
 To`rt mucham bo`lsa ham... o`zimga qarshi,
 Ilon qilgan kabi tilimni harom.
 Ko`zim yo`q, oq-qora ajratolmayman,
 Yuragim – qon bosib zanglayotgan o`q.
 Bular bor bo`lsa gar, jur`atim,
 Jur`atim ham bo`lsa,
 Oddiy omadim yo`q, mening baxtim yo`q.
 Vatan, yurt, xalq deya qayg`urolmasam,
 Qalbimni o`sha qiz band etsa yana,
 O`limimga rozi sevsam men uni,
 Qanday kunlar uchun tuqqanding, ona!
 Atirjonni kutaman,
 Jahonni unutam.
 Menga erga tegmasa,
 Dunyodan toq o`taman.
 Yeltegirmon aylansin,
 Oyoq-qo`lim boylansin.
 Men o`laman, chashmimga
 Atirgulim joylansin.
 Men endi dunyoni qayta ko`ryapman,
 Muhabbat bor degan gap yolg`on ekan.
 Yaxshi odamlar kam kitobdagidan,
 Ishonchim, umidim puch, talqon ekan.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Sening yaprog`ingda bolta charxlayman.

O, Olma Daraxtim, meni aldading,
 O`zingdan ko`r, seni chopib tashlayman.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Mening yurakkinam, sevgilim mening.
 Muntazam aldading yigirma to`rt yil,
 Endi men bo`laman qotiling sening!
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Onam, singlim, sevgilim, bebaxt.
 Umid, ishonchlarim puch ko`rinadi,
 Ey ro`yo, ey mavhum, ey sarob Daraxt.
 Men senga yaxshilik qilaman, Daraxt,
 Ildizingdan uzib tashlab tanangni.
 Yor sevsang menchalik fido sevmagin,
 Yor sevib unutama, axir, onangni.
 O, Olma Daraxtim, Olma Daraxtim,
 Dilimda eng so`nggi kurash tuyaman.
 Seni chopgan o`sha bolta ostiga
 O`zimning boshimni qo`yaman!
 Hayotim tugashi oldidan sezdim,
 Unutib yubordim Surxondaryoni.
 Yaxshi odamlar kam kitobdagidan,
 Sevgi deb tushundim dunyoni.
 Alamlar nimta-nimta qilsa ham,
 Men qattiq sevishdan tolmadim.
 Men Surxondaryodan chiqib ketdim, ammo
 Sening ham qalbingga kira olmadim.
 Takomil topmadi toleim
 Toshkanu Yerevan, Parijda.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!
 Men yoki qishloqda o`laman
 Va yoki o`laman xorijda.
 Faqat...
 Unutib yubordim Surxondaryoni.
 Atirgul... Atirgul... Atirgul...
 Farishta, qiz emas, farishta!

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Salim Ashur she`riyatining asosini qanday mavzular tashkil qiladi?
2. Dostonda she`riy san`atlarning qaysi turlaridan foydalanilgan?
3. “Atirgul” dostoni kimga yoki nimaga bag`ishlab yozilgan?
4. Asarda Vatan siymosi qay yo`sinda namoyon bo`lgan?
5. Doston qaysi davr voqealaridan so`zlaydi?
6. “Atirgul”da qanday umuminsoniy fazilatlar haqida ham gap boradi?
7. Doston yosh avlod uchun qanday xulosa beradi?
8. Shoir nega tez-tez Olma Daraxtiga murojaat qiladi? Unga qanday ramziy ma`no yuklangan?

Фойдаланилган адабиётлар:

I. Ижтимоий-сиёсий адабиётлар:

1. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 440 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 174 б.
3. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т. 17. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 280 б.
4. Каримов И. А. Мустақил Ўзбекистон XXI аср остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. www.xabar.uz

II. Илмий адабиётлар:

8. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1992. – 382 б.
9. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1992. – 246 б.
10. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 70 б.
11. Бегимқулов Д. Шеърятимиз юлдузи. Китобда: А.Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. –Б. 371-389.
12. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1955. – 510 б.
13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –558 б.
14. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Тошкент: Фан, 1974.–148 б.
15. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. –304 б.
16. Жумабоева Ж. Омон Матжон. –Тошкент: Фан, 1993. –150 б.
17. Иброҳим С.Н. Рухнинг рангин садолари. Китобда: Маҳкам Аскар. Ҳақ. Сайланма. –Душанбе: Адиб, 1998. –Б. 5-15.
18. Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2016. – 362 б.
19. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 532 б.
20. Мели С. Рух қушимиз омонми? // Халқ сўзи. –1993. – 20 фев.
21. Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фольклор анъаналари.–Тошкент: Истиклол, 2005. –82 б.
22. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек дostonчилигида услубий изланишлар // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. –Тошкент: Фан, 1983. – 204 б.

23. Назаров Б. XX аср ўзбек адабиётида Эркин Воҳидов ижодининг ўрни ва аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти.–Тошкент, 2007.- № 1. – Б.45-59.
24. Норматов У. Достон ва замон // Шарқ юлдузи.–Тошкент, 1987.- №10. –Б. 173-180.
25. Норматов У., Раҳмат Р. Назария ва адабий-бадий жараён // Жаҳон адабиёти.–Тошкент, 2000.- № 3. –Б.151-161.
26. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.– 42 б.
27. Норматов У. «Тўлқинлар ўқирлар хазин марсия». («Даврим жароҳати» достони яратилганининг 50, мудҳиш жароҳат содир этилганининг 70 йиллиги муносабати билан)// Жаҳон адабиёти.–Тошкент, 2015.- № 8. –Б.141-145.
28. Расулов А. Шеър қолур, шоир қолур. Китобда: Сўз сеҳри (Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижодига чизгилар). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –Б. 54-73.
29. Раҳимджанов Н. Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии 1961-1973 гг.): Автореф дисс... канд. филол наук. –Ташкент, 1975.- 23 с.
30. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. – Тошкент: Фан, 1986. –174 б.
31. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет поэмасининг тараққиёт жараёни // Адабий турлар ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 171-292.
32. Раҳимджанов Н.К. Тенденции развития современной узбекской поэзии (70-80-е годы): Автореф. дисс...д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1989. –42 с.
33. Раҳимжонов Н.К. Ҳозирги ўзбек поэзиясининг тараққиёт тенденциялари (70-80 йиллар):Филол.фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 1989. – 314 б.
34. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.
35. Раҳимжонов Н. Бадий асар биографияси.– Тошкент: Фан, 2008.–262 б.
36. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. –328 б.
37. Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати.Филол.фанлари номзоди... дисс.автореф. – Тошкент, 2004. – 46 б.
38. Сафаров О. Ҳамид Олимжон шеърий-адабий эртаклари // Педагогик маҳорат.–Тошкент, 2003.- №4. –Б.62-63.
39. Сафаров О. Фольклор – бебаҳо хазина. Сайланма. –Тошкент: Мухаррир, 2010. – 360 б.
40. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Тошкент: O`qituvchi, 2005. –270 б.
41. Теория литературы. В2-х т. Т. 1. Бройтман С.Н. Историческая поэтика: Учеб.Пособие / Под ред. Н.Д.Тамарченко.– Москва: Академия, 2004. –340 с.
42. Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 1999.– 32 б.
43. Улуғов А. Чўкки // Сўз сеҳри (Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижодига чизгилар).–Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –Б. 120-130.
44. Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 209-211.
45. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высш.шк., 2000. – 398 с.
46. Чўлпоннинг бадий олами. – Тошкент: Фан, 1994. –130 б.
47. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 244 б.
48. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талкинида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 424 б.
49. Шихобиддин ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (Сийрат ас-султон Жалол ад-Дин Менгбурни). Камол Матёкубов таржимаси. – Тошкент: O`zbekiston, 2006. – 384 б.
50. Ўроқова Н. Сўнгги давр ўзбек достончилигида ижодкор услуби ва индивидуаллиги (Икром Отамурод ва Усмон Кўчкор достонлари асосида). Филол.фанл. бўйича фалс.док... дисс.автореф. – Қарши, 2019. – 146 б.

51. Қаюмов Л. Зулфия. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. –138 б.
52. Қувватова Д. дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. Д.Д. – Тошкент, 2016. – 267 б.
53. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек поэмаси. – Тошкент: Турон-замин-зиё, 2014.
54. Ғафуров И. Дoston устуни // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1982.–№ 8. – Б. 173-179.
55. Ғафуров И. Дostonда инсон тақдири // Ўзбекистон Адабиёти ва санъати. – 1982. – 19 фев.
56. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. –196 б.
57. Ҳасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. – Самарканд, 2001. –142 б.
58. Ҳасанов Ш. Давр ва дoston // Шарқ юлдузи.– Тошкент, 2002.- № 4. –Б.148-150.
59. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... –Тошкент, 2004. –284 б.
60. Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. –Тошкент: Юлдузча, 1989. –108б.
61. Ҳошимова М. «Истанбул фожиаси»да чалкаш тақдирлар талқини // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 2008.- №1. –Б. 79-81.

III. Бадиий адабиётлар:

62. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т.14. –Тошкент: Фан, 1998. –302 б.
63. Али М. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1997. –446 б.
64. Ашур С. Атиргул // Шарқ юлдузи.- Тошкент, 1993.- №10-12. –Б.65-70.
65. Аҳмад Т. Шарқ гавҳари. –Тошкент: Шарқ, 2007. –318 б.
66. Даврон Х. Ватан ҳақида етти ривоят // Шарқ юлдузи.- Тошкент, 1990.- №7. – Б. 2-8; № 8. –Б. 159-163.
67. Воҳидов Э. Муҳаббатнома. Икки жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –384 б.
68. Воҳидов Э. Садоқатнома. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. –528 б.
69. Воҳидов Э. Шеър дунёси. Сайланма. Иккинчи жилд. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 352 б.
70. Воҳидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учунчи жилд. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 400 б.
71. Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 224 б.
72. Камол Ж. Дostonлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –136 б.
73. Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. – Тошкент: Фан, 2007. – 284 б.
74. Матжон О. Ҳаққуш қичқириғи. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 134 б.
75. Матжон О. Минг бир ёғду. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. –176 б.
76. Матжон О. Нега мен?! // Шарқ юлдузи.–Тошкент, 1990.- №6. –Б.38-52.
77. Маҳкам А. Ҳақ. Сайланма. – Душанбе: Адиб, 1998. –512 б.
78. Миртемир. Асарлар. Уч томлик. Иккинчи том. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 386 б.
79. Мухтор А. Дол қоя // Шарқ юлдузи.- Тошкент, 1986. – №6. – Б. 13-26.
80. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 2007. – 286 б.
81. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Тўртинчи том. Дostonлар. –Тошкент: Фан, 1976. – 280 б.
82. Олимжон Х. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Тошкент:Sharq, 2009. – 192 б.

83. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
84. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 492 б.
85. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 3-жилд. Таржималар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 384 б.
86. Отамурод И. Ичкари...Ташқари... Достон //Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1998.- №6. –Б.146-155.
87. Отамурод И. Жадвал // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2016. – №7. – Б. 35-45.
88. Раҳимбоева Қ. Қишнинг охирлари. Достон // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1988. – №4. – Б. 113-121; № 5. – Б. 102-108.
89. Саййид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. –Тошкент: Шарқ, 2005. – 208 б.
90. Саййид С. Таназул ёки бир бегонанинг изтироблари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1991. – № 7. – Б. 3-4.
91. Самандар Э. Эрк садолари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1984. – № 11. –Б. 28-52.
92. Саъдулла Ҳ. Дўст қадри. Достон // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1998. – №3. –Б. 132-141.
93. Тоир М. Янги Тошкентнома. Достон-фахрия. – Тошкент: О‘qituvchi” НМИУ, 2012. – 80 б.
94. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 256 б.
95. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1971. – 502 б.
96. Шарипов Ҳ. Асирингман. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 350 б.
97. Шукур Эшқобил. Ибтидо хатоси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2003.-№5. – Б. 10-17.
98. Эргаш Ч. Карвон келар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – 80 б.
99. Қурбон Ш. Сўз йўли. Тарихий достон // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1991.- № 2. – Б. 97-109.
100. Қутбиддин А. Бахтли йил. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 136 б.
- 101.Кўчқор Усмон. Широк. Ривоят. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
102. Кўчқор Усмон. Оғир карвон. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. –124 б.
103. Ҳожиева О. Достонлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. –116 б.

IV. Интернет сайтлари:

104. www.alishernavoiiy.uz
105. www.ziyo-net.uz
106. www.literature.uz
107. www.kutubxona.uz.

MUNDARIJA

Zamonaviy o`zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari (so`zboshi o`rnida)	
Birinchimaqola.....	3
Ikkinchi maqola.....	16
G`ulom	
Zafariy.....	31
Gulyor.....	31
Elbek.....	34
Tozagul.....	34
Oybek.....	45
Guli va Navoiy.....	45
Davrim jarohati.....	54

Maqsud Shayxzoda	58
Toshkentnoma.....	58
Hamid Olimjon	70
Oygul bilan Baxtiyor.....	70
Semurgʻ yoki Parizod va Bunyod.....	77
Mirtemir	84
Surat.....	84
Suv qizi.....	87
Usmon Nosir	91
Naxshon.....	91
Zulfiya	103
Quyoshli qalam.....	103
Xotiram siniqlari.....	112
Asqad Muxtor	115
Dol qoya.....	115
Saida Zunnunova	122
Ruh bilan suhbat.....	122
Husniddin Sharipov	127
Tanovar.....	127
Erkin Vohidov	135
Ruhlar isyoni.....	135
Nido.....	141
Jamol Kamol	160
Armon.....	160
Abdulla Oripov	170
Jannatga yoʻl.....	170
Ranjkom.....	197
Omon Matjon	219
Ming bir yogʻdu.....	219
Choʻlpon Ergash	288
Bezovta ruhlar.....	288
Muhammad Ali	298
Gumbazdagi nur.....	298
Oydin Hojjeva	308
Najot.....	308
Habib Saʼdulla	321
Doʻst qadri.....	321
Toshpoʻlat Ahmad	326
Buxoronoma.....	326
Oxunjon Safarov	330
Buxoriylar yoxud oʻn ikki yulduz haqida qoʻshiq.....	330
Matnazar Abdulhakim	350
Koʻchki.....	350
Muhammad Yusuf	367
Koʻhna quduq.....	367
Ikrom Otamurod	376
Ichkari ... tashqari	376
Jadval.....	381
Xurshid Davron	386
Vatan haqida yetti rivoyat.....	386
Qutlibeka Rahimboyeva	396
Qishning oxirlari.....	396

Usmon Qo`chqor.....	409
Shiroq.....	409
Quvg'in.....	419
Sirojiddin Sayyid.....	427
To`polondaryo bilan xayrlashuv.....	427
Tanazzul.....	433
Asqar Mahkam.....	451
Tavajjuh.....	451
Abduvali Qutbiddin.....	471
Izohsiz lug'at.....	471
Eshqobil Shukur.....	487
Ibtido xatosi.....	487
Naqshband.....	497
Shukur Qurbon.....	504
So`z yo`li.....	504
Mahmud Toir.....	513
Yangi Toshkentnoma.....	513
To`lan Nizom.....	517
Ruhi ravonim.....	517
Faxriyor.....	536
Ayolg'u.....	536
Salim Ashur.....	544
Atirgul.....	544